T. Malikov
O. Olimjonov

MOLIYA

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi

Toshkent Moliya instituti

T. Malikov
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O. Olimjonov
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Moliya

D a r s l i k

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan barcha iqtisodiy ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent - 2019

Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2019. – 882 bet.

Darslik “Moliya” fani dasturiga muvofiq yozilgan bo’lib, unda moliyaning mohiyati va funksiyalari, moliyaviy siyosat, moliyaviy tizim, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash, moliyaviy nazorat, moliyaviy nazariyalar, xo’jalik yurituvchi sub’yektlar moliyasi, davlat byudjeti, byudjet daromadlari va xarajatlari, byudjet defitsiti, byudjet tizimi va tuzilmasi, byudjet jarayoni, davlat krediti, byudjetdan tashqari jamg’armalar, ijtimoiy ta’minot, sug’urta, uy xo’jaliklari moliyasi va xalqaro moliyaga oid masalalar o’z aksini topgan.

Kitob talabalar, magistrantlar, iqtisodiy yo’nalishdagi oliy o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilari, mamlakatning moliya-byudjet-soliq tizimida faoliyat ko’rsatayotgan amali-yotchi mutaxassislar va moliya muammolari bilan qiziquvchi barcha o’quvchilarga mo’ljallangan.

Toshkent Moliya instituti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
O.K.Iminov

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
D.P.Po’latov

Kirish

«Moliya» fani iqtisod sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida eng asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Mustaqil fan sifatida unga o'tgan asrning 50-yillarida asos solingan bo'lib, u o'sha davrga xos moliya to'g'risidagi tasav-vurlarga mos bo'lgan. O'zbekistonda ham bozor islohotlari-ning amalga oshirilishi moliya fani eng muhim nazariy qoidalarining qayta qo'rib chiqilishini taqozo etdiki, bu narsa hamon o'quv adabiyotlarida o'z aksini to'liq topgani yo'q. Shu boisdan ham, ayrim holatlarda, mamlakat moliyaviy tizimda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni etarli darajada inobatga olmagan holda mashg'ulotlarni o'tkazish xavfi mavjud. Mazkur darslikda mualliflar moliyaning nazariy masalalariga oid barcha printsipial o'zgarishlarni o'quvchi-larning e'tiboriga etkazishga harakat qilishgan.

Uning 1-7-boblarida moliyaning umumnazariy masalalari (moliyaning mohiyati va funksiyalari, moliyaviy siyosat, moliyaviy tizim, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalash-tirish va tartibga solish, moliyaviy nazorat va moliyaviy nazariyalar) yoritilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi davlat moliyaviy salohiyatining asosi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni moliya-viy isloh qilish, ularning moliyaviy resurslari, asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining moliyaviy jihat-lari, ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va rentabel-ligi, xo'jalik yurituvchi sub'yekt marketing strategiyasining moliyaviy yo'nalishlari, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash investitsion dasturlarini moliyalash-tirish, moliyaviy barqarorlikka tegishli bo'lgan holatlar 8-15-boblarda o'z aksini topgan.

16-24-boblar umumdavlat moliyasiga, ya'ni davlat byud-jeti, uning daromadlari va xarajatlari, byudjet defitsiti va uni moliyalashtirish, byudjet tizimi, tuzilmasi va jarayoni, byudjetdan tashqari davlat fondlari, ijtimoiy ta'minot, davlat krediti va sug'urtaga oid masalalarga bag'ishlangan. Uy xo'jaliklari moliyasi va xalqaro moliya masalalari esa 25-26-boblarda bayon qilingan.

Mavzularni chuqur, tez va osonroq o'zlashtirishga yordam berish maqsadida bahs-munozara va nazorat uchun o'ziga xos tarzda savollar tuzilgan va ular har bobning oxirida bayon etilgan.

Kitobning 6-bobi katta o'qituvchi M.O.Sharapova, 21-bobi iqtisodiyot fanlari doktori, professor N.H.Haydarov, 24-bobi iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent X.M.Shennaev va 26-bobi iqtisodiyot fanlari doktori, professor N.X.Jumaev, qolgan boblarning barchasi esa iqtisodiyot fanlari doktori, professor T.Malikov va

iqtisodiyot fanlari doktori, professor O.Olimjonov hamkorligida yozilgan.

Moliya fani bo’yicha o’zbek tilida nashr etilgan ilk darsliklardan biri bo’lganligi uchun u ayrim kamchiliklardan xoli bo’lmasligi mumkin. Shu bois darslikning sifatini oshirishga xizmat qiladigan taklif va mulohazalarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qilishadi.

1-bob. Moliyaning mohiyati va funksiyalari

1.1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Moliyaviy munosabatlarning ilk shakllari insoniyat taraqqiyotining quldorlik jamiyati bosqichida jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning vujudga kelishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Muayyan hududda boshqaruv organi sifatida davlatning vujudga kelishi uning hokimiyat apparatini moddiy jihatdan ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, mamlakatni himoya qilish, urush harakatlarini olib borish, ijtimoiy ob'ektlar va yo'llar qurish kabi vazi-falarni bajarishi uchun ma'lum darajada pul mablag'lari ham bo'lishini taqozo eta boshladi. Xuddi shu holat o'z navbatida jamiyatda moliya paydo bo'lishini iqtisodiy zaruriyatga aylantirdi. Demak, davlatchilik tizimining vujudga kelishi moliyaning paydo bo'lishi uchun asosiy sabab bo'lib xizmat qildi.

Moliya haqida so'z borar ekan, eng avvalo, bu atama qanday paydo bo'lgan, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. "Moliya" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida eng umumiy tarzda "pul mablag'lari" ma'nosini anglatadi. Bu so'z ona tilimizda ishlatilishining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- maqsadli pul fond[1]larini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui; pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish tizimi (masalan, moliya yili, moliya kapitali, moliyaviy tizim);
- biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag'lari (masalan, korxona moliyasi);
- moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi davlat organi (so'zlashuv tilida)[2].

Arab tilidagi "mol", ya'ni "boylik, mulk; pul jamg'armasi", shuningdek, "moliyat", ya'ni "pul mablag'lari; soliq" so'zlari ham moliyaga daxldordir[3].

Lekin jahon iqtisodiy adabiyotida lug'aviy ma'nosi jihatidan o'zbekcha "moliya" iborasining frantsuzcha "finance", lotincha "financia" va ruscha "finansi" kabi ekvi-valentlari yoki ma'lum

---

[1] O'zbek tilining izohli lug'atida "fond" va "jamg'arma" so'zlari sinonim sifatida keltirilgan. Biz ham darslikda ularni asosan bir ma'noni ifodalaydigan iboralar tarzida ishlatdik. Lekin gap yoki jumlaning ma'nosiga qarab, ba'zi o'rinlarda "fond", ba'zi joylarda esa "jamg'arma" iborasini ishlatishni ma'qul ko'rdik.
Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.2. E – M // Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'z.R FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 69-b.

[2] Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.2. E – M // Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'z.R FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 611-b.

[3] Qarang: o'sha manba, 610- va 611-betlar.

ma’noda, sinonimlari[4] qachon va qayerda paydo bo’lganligi haqida aniq ma’lumot yo’q[5].

Ayrim olimlar “financia” (“finance”, “finansi” va h.k. shakllarda) tushunchasi aynan shu shaklda XIII-XIV asrlarda Italiyaning savdo shaharlarida paydo bo’lgan va dastlab “pul to’lovi” ma’nosini anglatgan, degan fikrlarni olg’a surishadi. Xalqaro savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi mazkur iboraning Italiyadan boshqa davlatlarga ham tarqalishiga sabab bo’lgan. XY asrda “financia” tushunchasi Fransiyada “davlat daromadlari”, “pul summalari” ma’-nosida ishlatila boshlangan. Boshqa tadqiqotchilar bu atama muomalada ilk bor frantsuz olimi J.Boden tomonidan 1755 yilda nashr etilgan “Respublika xususida olti kitob” nomli asarida ishlatilgan va shu tariqa bu atama Yevropa dav-latlari hayotiga kirib kelgan, deb hisoblashadi[6].

Yaratilayotgan moddiy ne’matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bo’yicha oliy hokimiyat organi sifatida davlat va takror ishlab chiqarish jarayonining boshqa ishtirokchilari o’rtasida yuzaga chiqadigan ma’lum bir iqtisodiy munosabatlarni Yevropa davlatlarida o’rta asrlardan boshlab “moliya” tushunchasi orqali ifodalay boshlashgan.

Natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari natural soliq-lar va turli ko’rinishdagi shaxsiy to’lanmalar xarakteriga ega bo’lgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o’zgarishiga olib keldi – ular ko’proq ravishda pul xarakte-riga ega bo’ldi. Biroq bu munosabatlarning mazmun va mohiyati printsipial jihatdan o’zgarmay qolaverdi.

Zamonaviy tasavvurdagi “moliya” tushunchasi podsholar xazinasidan davlat xazinasi ajralib chiqishi bilan paydo bo’lgan. Bir paytning o’zida shuni alohida qayd etish kerakki, jamiyatda pul, tovar-pul munosabatlari va davlatning paydo bo’lishi o’z-o’zidan darhol moliyaning ham vujudga kelganligini bildirmaydi. Ular hammasi bir paytda, ya’ni birdaniga paydo bo’lgan emas. Moliya

---

[4] Biz bu erda dunyo xalqlarining turli tillarida shaklan turlicha va mazmunan bir xil ma’noni anglatuvchi so’zlarni nazarda tutayapmiz.

[5] Finansi, denejnoe obrashchenie i kredit. Uchebnik / Pod red.prof. V.K.Senchagova, prof.A.I.Arxipova. –M.: Finansi i statistika, 1999. s.25). Boshqa mualliflarning fikriga qaraganda, bu atama muomalaga 1755 yilda “Respublika xususida olti kitob” asarini nashr ettirgan frantsuz olimi J.Boden tomonidan kiritilgan (Qarang: Finansi. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. M.V.Romanovskogo, O.V.Vrublevskoy, B.M.Sabanti. – M.: Finansi i statistika, 2000. s.44).

[6] Finansi, denejnoe obrashchenie i kredit. Uchebnik / Pod red.prof. V.K.Senchagova, prof.A.I.Arxipova. –M.: Finansi i statistika, 1999. s.25; Finansi. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. M.V.Romanovskogo, O.V.Vru-blevskoy, B.M.Sabanti. – M.: Finansi i statistika, 2000. s.44; Finansi. Uchebnik ./ Pod red. G.B.Polyaka. – 3-e izd., pererab. i dop.- YuNITA-DANA, 2009. – s.8; Finansi: Ucheb.posobie / Pod red. A.M.Kovalevoy. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika, 2008. – s.7.

shakllanib, bizning u haqidagi bugungi tasavvurimizdagi moliya ko'rinishiga kelishi uchun jamiyatda bir qator shart-sharoitlar pishib etilgan bo'lishi kerak. Ular quyidagilar:

1. Asrlar davomida davlat ixtiyoriga yig'iladigan barcha pul mablag'larining mutloq egasi qirol (sharqda podsho), deb hisoblanilgan. Mablag'lar qirol xohish-ixtiyori bilan yig'ilgan va u xohlagan shaklda xarajat qilingan. O'sha davrlarda odamlar tasavvurida daromadlarni ishlatish bundan boshqacha bo'lishi mumkin emasday tuyular edi.

XVI –XVII asrlarda Niderlandiya va Angliyada yuz bergan birinchi burjua inqiloblari moliyaning shakllanishiga juda katta turtki bergan. To'g'ri, mazkur inqiloblar qirollik tuzumini ag'darib tashlay olmadi. Lekin shunday bo'lsa-da, qirolning hokimiyatini ancha cheklashga erishildi va biz uchun eng muhimi qirolning xazinaning mutloq egasi sifatidagi huquqi keskin qisqartirildi. Yangi sharoitda xazina o'rniga umumdavlat pul mablag'lari fondi, zamonaviy til bilan aytganda, byudjet tashkil etila boshlandi. Qirolning xazi-nasi o'rniga davlat byudjeti tushunchasining kirib kelishi moliyaning shakllanishi va zamonaviy ko'rinish olishida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan inqilobiy o'zgarishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda Markaziy Yevropa davlatlarida xazinani tasarruf etish sohasida yuz bergan bunday o'zgarishlar dunyo-ning juda ko'p davlatlarida, xususan, O'rta Osiyoda ommalash-maganligini e'tirof etish zarur. O'z taraqqiyoti davrida kapitalistik tuzumni bosib o'tmagan mazkur davlatlarda podsholar xazinaning mutloq egasi bo'lib qolaverganligi va muomalaga davlat byudjeti tushunchasi kirishi podsholik hokimiyatining bekor qilinishiga qadar hal bo'lmaganligini tabiiy hodisa sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi.

2. Amaliyotga "xazina" o'rniga "davlat byudjeti" tushun-chasi kirgandan keyin byudjetni tashkil etish va mablag'-lardan foydalanish tartibi shakllana boshladi. "Davlat daromadlari" va "davlat xarajatlari" iboralari paydo bo'ldi, ularning tarkibi aniqlandi, davlat byudjetini shakllantirish va mablag'larini sarflash uchun tegishli qonun hujjatlarining asoslari yaratila boshlandi.

Davlat byudjeti daromadlarini asosan soliqlar, turli to'lovlar, harbiy o'lja va kontributsiyalar tashkil etgan bo'lsa, o'sha paytdayoq xarajatlar moddalarining hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan yo'nalishlari shakllandi: harbiy xarajatlar, iqtisodiyot, boshqaruv va ijtimoiy maqsadlarga ajratilgan mablag'lar.

3. Qirol xazinaning mutloq egasi bo'lgan davrda daromadlar natural soliqlar va aholining mehnat majburiyat-laridan iborat bo'lgan

edi. Endilikda pul ko'rinishidagi soliqlar Davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini tashkil eta boshladi. Natijada yaratilayotgan mahsulotni qiymat shaklida taqsimlash bosqichi boshlandi.

Lekin shuni yana alohida ta'kidlash lozimki, moliya va moliyaviy munosabatlarning mohiyati haqidagi tushunchalar vaqt o'tishi bilan o'zgarib borgan[7].

Korporativ tipdagi (ustav kapitalining hissali aksiyadorlik shaklidagi) milliy va transmilliy tashkilotlarning vujudga kelishi bilan bog'liq holda tovar ishlab chiqa-rishning yirik masshtablarda rivojlanishi takror ishlab chiqarish jarayonining turli ishtirokchilari o'rtasida pul mablag'larini jalb qilish, ulardan foydalanish va ularni taqsimlash metodlari hamda usullarining takomillashuviga olib keldi. Tovarlar harakatidan ajralgan pul mablag'larining harakati masalalari bu taqsimlash jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular bir tomondan, kreditning turli shakllari va ikkinchi tomondan, turli sub'yektlar o'rtasida YaIM qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liqdir. Bir vaqtning o'zida, ularning har biri amaldagi huquqiy normalar yoki ishbilarmonlik aylanma-sining tartibiga muvofiq ishlab chiqarilgan mahsulotdan o'z hissalarini olishga da'vo qiladilarki, bu moliyaviy munosabatlarning sohasidir.

Shunday qilib, moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanadi. Tarixiy kategoriya sifa-tida ham moliyaning vujudga kelishi jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoit-larni ta'minlash hamda davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar moliya deyiladi.

Moliyaviy munosabatlarning boshqa iqtisodiy munosa-batlardan farqlanuvchi xarakterli belgilaridan biri shundaki, ular yordamida amalga oshiriladigan YaIMni qayta taqsimlash jarayonida

---

[7] Iqtisodiy kategoriya sanalgan moliya to'g'risidagi qarashlarning XVII asrning oxiridan XIX asrning oxirigacha transformatsiyalanishi S.Yu.Vittening asarida quyidagicha ifodalangan: "XVII asrning oxirlarida "moliya" so'zi orqali davlatning barcha mulki va umuman olganda, davlat xo'jaligining butun holati tushunila boshlandi. Davlatning ixtiyorida bo'lgan moddiy mablag'larning butun to'plami – uning daromadlari, xarajatlari va qarzlari - ma'nosida bu so'z hozir ham tushunilayapti. Shunday qilib, moliya haqidagi fanni davlatning moddiy ehtiyojlarini eng yaxshi qondirish usuli to'g'risidagi fan deb aniq belgilashimiz mumkin" (Qarang: Vitte S.Yu. Konspekt lektsiy o narodnom i gosudarstvennom xozyaystve. – M.: Finansi i statistika, 1997. s.4).

oldindan ma’lum maqsadlarga mo’l-jallangan turli pul mablag’lari jamg’armalari (fondlari) yaratiladi. Davlat va mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlari darajasida tuziladigan pul mablag’lari fondlari markazlashtirilgan fondlar, xo’jalik sub’yektlari daraja-sida tuzilgan pul fondlari esa markazlashtirilmagan pul fondlari deyiladi.

Xo’jalik sub’yektlarining turli faoliyatlaridan olin-gan daromadlar hisobidan maxsus pul mablag’lari fondlari shakllantiriladi. Ularni shakllantirish qat’iy ravishda reglamentatsiya qilinish (tartibga solinish) xarakteriga egaki, bu narsa moliyaviy munosabatlarning yana bir farqlanuvchi xarakterli belgisi hisoblanadi.

YaIMni taqsimlashda aholi ham ishtirok etib, ish haqi, tadbirkorlik daromadi, dividendlar va qayta taqsimlash-ning boshqa shakllari ko’rinishidagi o’z hissalarini oladi. Bundan tashqari majburiylik xarakteriga ega bo’lgan soliq-lar va boshqa to’lovlarni to’lash orqali aholi markazlashtirilgan pul mablag’lari fondini shakllantirishda ishtirok etadi. Aholi daromadlari va xarajatlarini shakllantirish va foydalanish bilan bog’liq bo’lgan pul munosabatlarining bu tizimi ham moliyaviy munosabatlarning alohida sohasini tashkil etadi.

Shunday qilib, quyidagilar moliyaning xarakterli belgilaridir:

- qiymatning tovar shaklidagi harakatiga bog’liq bo’lmasdan, aksincha, real pullarning harakatiga bog’liq bo’lgan, huquqiy normalar yoki biznesni yuritish etikasiga asoslangan munosabatlarning taqsimlash xarakterda ekanligi;
- pul mablag’lari harakatining, odatda, bir tomonlama yo’nalishga ega ekanligi;
- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag’lari fondlarini yaratish.

Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham uning roli va ahamiyati pul munosabatlarining iqtisodiy munosabatlar tizimida qanday o’rinni egallaganligiga bog’liq. Bir vaqtning o’zida moliya puldan o’zining mazmuni va bajaradigan funksiyalari bo’yicha farq qiladi. Agar pul umumiy ekvivalent bo’lib, uning yordamida umumlashtirilgan ishlab chiqaruvchilarning mehnat xarajatlari o’lchansa, moliya esa yalpi ichki mahsulot (YaIM) va milliy daromad (MD)ni taqsimlash va qayta taqsimlashning iqtisodiy vositasi (instrumenti), pul mablag’lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish qurolidir. Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish yo’li bilan faqatgina davlat va korxonalarning pul mablag’lariga

bo’lgan ehtiyojlarini ta’minlash emas, balki moliyaviy resurslarning sarflanishi ustidan nazoratni ham amalga oshirish moliyaning nima uchun mo’ljallanganligini belgilab beradi.

Moliya quyidagilar sub’yektlar o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini ifodalaydi:

- tovar-moddiy boyliklarni sotib olish, mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida korxonalar o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- markazlashtirilgan pul mablag’lari fondlarini yara-tish va ularni taqsimlash borasida korxonalar va ularning yuqori organlari o’rtasida vujudga keladigan pul munosa-batlari;
- byudjet tizimiga soliqlarni to’lash va xarajatlarni byudjetdan moliyalashtirish davomida korxona va davlat o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- soliqlar va boshqa ixtiyoriy to’lovlarni to’lash jarayonida davlat va fuqarolar o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- to’lovlarni amalga oshirish va resurslarni olish jarayonida korxonalar, fuqarolar va nobyudjet fondlari o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- byudjet tizimining alohida bo’g’inlari o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- sug’urta badallarini to’lash va zararlarni qoplash, sug’urta hodisasi ro’y bergan paytda aholi, korxonalar hamda mulkiy va shaxsiy sug’urta organlari o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- korxona fondlarining doimiy doiraviy aylanishiga xizmat qiluvchi pul munosabatlari.

Pul daromadlari va fondlarining eng asosiy moddiy manbai bo’lib mamlakatning MD hisoblanadi. MDning hajmi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini aniqlab beradi. Aynan MD va uning alohida qismlarining - iste’mol fondi va jamg’arish fondining - hajmini hisobga olgan holda iqtisodiyotning rivojlanish proportsiyalari (nisbatlari) va tarkibiy tuzilmasi aniqlanadi. Xuddi shuning uchun ham MD statistikasiga alohida e’tibor beriladi.

Moliyaning ishtirokisiz MDni taqsimlab bo’lmaydi. Moliya MDni yaratish va undan foydalanishning ajratib bo’lmaydigan bog’lovchi bo’g’ini hisoblanadi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’molga ta’sir etib, ob’yektiv xarakterga ega. U ishlab chiqarish

munosabatlarining ma’lum bir sohasini ifoda etib, bazis kategoriyasiga mansubdir.

Zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasi ishtirokisiz faoliyat ko’rsata olmaydi. Tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichiga qadar jamiyatning ba’zi bir ehtiyojlari faqat davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Atom sanoati, kosmik tadqiqotlar, iqtisodiyotning yangi va ustuvor tarmoqlari, jamiyat uchun zarur bo’lgan sohalar (pochta, telegraf va boshqalar) ana shular jumlasidandir.

Moliya alohida olingan mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasini va ularning xo’jalik hayotidagi makroiqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliyaning holatini belgilab beradi. Doimiy ravishdagi iqtisodiy o’sish, YaIM va MD miqdorlarining oshib borishi sharoitida moliya o’zining muntazamliligi va barqarorligi bilan xarakterlanadi. U ishlab chiqarishning yanada rivojlanishini va mamlakat fuqarolari hayotining sifat darajasining yanada ortishini rag’batlantiradi.

Iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish hajmining pasayishi, ishsizlikning ortishi sharoitida moliyaning holati ham yomonlashadi. Bu narsa, o’z navbatida, davlat ichki va tashqi qarzlari hisobidan moliyalashtiriladigan byudjet defitsiti miqdorining kattaligida, pul emissiyasida, davlat qarzining ortishi va unga xizmat qilish bo’yicha xarajat-larning ko’payishida namoyon bo’ladi. Bularning barchasi inflyatsiyaning kuchayishiga, xo’jalik aloqalarining buzilishiga, o’zaro noto’lovlarning ortishiga, pul surrogatlarining paydo bo’lishiga, barter bitimlarining ko’payishiga, soliq-larni byudjetga undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarining o’z vaqtida moliyalashtirilmasligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham iqtisodiy va ijtimoiy (sotsial) munosabatlarda ishlab chiqarish real sohasining holati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

O‘zining moddiy mazmuniga ko’ra moliya pul mablag’-larining maqsadli fondlarini ifoda etib, ularning yig’indisi, oxir oqibatda, mamlakatning moliyaviy resurs-larini tashkil etadi. Mamlakat moliyaviy resurslari o’sishining asosiy sharti MD hajmining ko’payishidir. Bir vaqtning o’zida, “moliya” va “moliyaviy resurslar” bir-biri bilan bir xil tushunchalar emas. Moliyaviy resurslar o’z-o’zicha moliyaning mohiyatini aniqlab bermaydi, uning ichki mazmuni va ijtimoiy jihatdan mo’ljallanganligini ocha olmaydi. Moliya fani resurslarning o’zini emas, balki resurslarni shakllantirish,

taqsimlash va foydalanish asosida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o'rganadi. Bu fan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadi.

Moliya bazis kategoriyasi hisoblansa-da, ko'p jihatdan u hukumat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy siyosatga ham bog'liq bo'ladi.

Moliya – bu, eng avvalo, taqsimlash kategoriyasi. Uning yordamida MDni ikkilamchi taqsimlanishi yoki qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohi-yati "Davlat kimning hisobidan moliyaviy resurslarni oladi va kimlarning manfaatlari uchun bu mablag'lardan foydalanadi?" degan savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo'ladi.

Taqsimlash jarayonlari faqatgina moliya orqali emas, balki boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan baho, kredit, soliq va h.k.lar orqali ham amalga oshiriladi.

Tovar qiymatining pulda ifodalanishi baho deyiladi. MD taqsimlanishidan oldin tovar sotilishi kerak. Baho mulkdorlarga mahsulot sotishdan kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining o'lchamini aniqlaydi va navbatdagi taqsimlash jarayonlari uchun boshlang'ich asos sifatida maydonga chiqadi. Baho tovarlarga bo'lgan talab va taklifni tartibga soladi va shu orqali takror ishlab chiqarishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho nafaqa va hatto minimal ish haqini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi. Agar davlat baholarni tartibga solmasa, ijtimoiy to'lovlarni o'zgartirishga va minimal ish haqini oshirishga majbur bo'ladi. Hozirgi paytda dunyoning juda ko'p mamlakatlarida davlat sotsial ahamiyat kasb etuvchi muhim tovarlarning bahosini boshqarib turibdi. Baho, shuningdek, bojxonaviy tartibga solishda va bojxona daromadlarini undirishda davlat tomonidan foydalaniladi. Masalan, ayrim mamlakatlarda bojxona bojlari ayrim tovar guruhlari bo'yicha sotib olish bahosi bo'yicha emas, balki haqiqatdagisidan keskin farq qiluvchi normativ baholar bo'yicha undiriladi. Shunga mos ravishda (boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda) byudjetning daromadlari va mamlakat ichki bozoridagi baholar miqdori oshadi.

Moliya va kredit mustaqil iqtisodiy kategoriyalar hisoblanishadi, lekin kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida ko'p hollarda ular bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Ular hamkorlikda kengaytirilgan asosda korxonalar pul fondlarining doiraviy aylanishiga xizmat qiladi. Kredit bank tizimi va maxsus moliya-kredit institutlari

tomonidan amalga oshiriladigan ssuda fondining harakatini ifodalaydi. Bank krediti sifatida sof ko'rinishda tushuniladigan kredit davlatga bevosita bog'liq emas. Takror ishlab chiqarish jarayonida uning roli etarli darajada aniqlangan - bu daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik uzilishni qoplash usuli hisob-lanadi. Biroq, bir vaqtning o'zida, kredit - byudjet defitsiti va byudjet-kassa uzilishini (navbatdagi daromadlar kelib tushgunga qadar byudjet xarajatlarini qoplash uchun bank xizmatlari zarur bo'lgan paytda) qoplashning muhim shakli. O'z navbatida, agar byudjet mablag'lari tijorat banklarining hisobvaraqlarida saqlanayotgan bo'lsa, bu banklar uchun muhim ssuda manbaidir.

Kredit moliyadan (moliyalashtirishdan) o'zining qaytari-luvchanligi va muayyan foiz hisobiga berilishi bilan bilan farq qiladi. Bir vaqtning o'zida, har ikki holatda ham ular pul mablag'larining harakatlanishini ifodalaydi hamda kredit va moliya pul munosabatlarining chegarasidan (doirasidan) chetga chiqmaydi. Hatto, tovar krediti ham pul asosiga va shakliga ega. Banklar korxonalar va aholining bo'sh pul mablag'larini yig'adilar va ularni ta'minlanganlik, qaytaruvchanlik, haqlilik va muddatlilik asosida mablag'ga ehtiyoj sezgan yuridik va jismoniy shaxslarga beradilar. Agar moliya qiymatning bir tomonlama va qayta tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) shakldagi harakatini ifodalasa, kredit esa kreditorga belgilangan muddatda oldindan o'rnatilgan foizlarni qo'shgan holda qaytarilishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan barcha kategoriyalar pul xarakteriga, pul tabiatiga ega bo'lib, ularga ikki va undan ortiq kategoriyalarning belgilari xosdir. Masalan, ish haqi etarli darajada asoslangan tarzda pulli to'lanma, ya'ni pul deb atalishi mumkin. Biroq, bu oddiy pul bo'lmasdan sarflangan mehnatga muvofiq olingan pul hisoblanadi.

Soliq ham biz tomonimizdan amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda davlatga tekinga berilayotgan puldir. Biroq, bundan tashqari, soliq bizga tegishli bo'lgan daromad va ish haqining bir qismidir. O'z navbatida, pulni muomalaga chiqarish (emissiya qilish) bo'yicha operatsiyalar ham davlat daromadlarining manbai hisoblanadi.

Demak, yuqorida qayd etilgan barcha kategoriyalarni ularning pulli tabiati birlashtirib turadi. Ular bir-birlaridan o'zlarining funksiyalari va muayyan maqsadga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Bunda katego-riyalarga tegishli bo'lgan barcha belgilarning majmui birgalikda ko'rib chiqilsa, ularning bir-birlaridan farqlarini yanada yaqqolroq ko'rish mumkin. Moliyaning funksiyalari bilan

tanishish uning mohiyatini yanada yaqqol tasavvur etishga yordam beradi.

1.2. Moliyaning funksiyalari

Moliya quyidagi ikki funksiyani bajaradi:

1. Taqsimlash;
2. Nazorat.

Bu funksiyalar moliya tomonidan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Har qanday moliyaviy operatsiya YaIM va MDni taqsimlash va shu taqsimlash ustidan nazoratning amalga oshirilishini anglatadi.

Moliyaviy munosabatlarning asosiy tavsifi ularning taqsimlash xarakteriga ega va shunga muvofiq ravishda moliyaning bosh yoki asosiy funksiyasi taqsimlash funk-tsiyasidir. Moliya yordamida amalga oshirilishi lozim bo'lgan taqsimlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Moliya YaIMni taqsimlashning turli bosqich-lariga xizmat qilib, uni birlamchi taqsimlashda va qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Moliyaviy metod orqali taqsimlash iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarini (mamlakat, uning alohida olingan mintaqalari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari miqyosida) qamrab oladi. Unga taqsimlashning turli ko'rinishlarini (xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo va b.) tug'diruvchi ko'p bosqichlilik xosdir.

Eng avvalo, moliyaning taqsimlash funksiyasi MDni taqsimlashda, "asosiy yoki birlamchi daromadlar" deb nom olgan daromad va jamg'armalarni(fondlarni) tashkil etish sodir bo'lganda namoyon bo'ladi. Ularning yig'indisi MDga tengdir. Asosiy daromadlar MDni moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash jarayonida shakllanadi. Ular ikki guruhga bo'linadi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning ish haqi, fermer va h.k.larning daro-madlari;
- moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning daromadlari.

Biroq, bunda birlamchi daromadlar milliy xo'jalik ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakat mudofaa qudratini ta'minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta'minlay olmaydi. Buning uchun quyidagilar bilan bog'langan holda MDni yanada taqsimlash va qayta taqsimlash zarur:

- xo’jalik yurituvchi sub’yektlar daromadlari va jamg’armalaridan eng samarali va oqilona foydalanish maqsadida mablag’larni tarmoqlararo va hududiy qayta taqsimlash bilan;
- ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda noishlab chiqarish sohasining (maorif, sog’liqni saqlash, ijtimoiy sug’urta va ijtimoiy ta’minot, boshqaruv va h.k.) ham mavjudligi bilan;
- aholining turli ijtimoiy qatlamlari o’rtasida daromadlarni qayta taqsimlash bilan.

Yuqorida bayon etilgan qayta taqsimlashlar natijasida ikkilamchi yoki “kelib chiquvchi” daromadlar tashkil topadi. Bunday daromadlarga noishlab chiqarish sohasi tarmoq-larida olingan daromadlar, soliqlar (jismoniy shaxs-lardan olinadigan daromad solig’i va boshqalar) kiradi. Ikkilamchi daromadlar MDdan foydalanish borasidagi yakuniy nisbatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

MDni taqsimlash va qayta taqsimlashda faol ishtirok etib, moliya MDni birlamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlarni ularning yakuniy foydalanish nisbatlariga aylanishiga ta’sir ko’rsatadi. Bunday qayta taqsimlash natijasida yaratiladigan daromadlar moddiy va moliyaviy resurslar va, eng avvalo, bir tomondan pul fondlarining miqdori va ularning tarkibiy tuzilmasi, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish vositalari va iste’mol predmet-larining hajmi va tuzilmasi o’rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashi kerak.

Odatda, har bir mamlakat doirasida MDni qayta taqsimlash milliy iqtisodiyotni tarkibiy o’zgartirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo’jaligi, transport, energetika va h.k.) rivojlantirish maqsadlarida, aholining eng kam ta’minlangan qatlamlari (pensionerlar, talabalar, yolg’iz va ko’p bolali onalar va h.k.) foydasiga amalga oshiriladi.

Shunday qilib, MDni qayta taqsimlash milliy xo’ja-likning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, mamlakatning alohida mintaqalari, mulkchilik shakllari va aholining turli ijtimoiy guruhlari o’rtasida sodir bo’ladi.

Moliya yordamida amalga oshiriladigan YaIM va MDni taqsimlash va qayta taqsimlashning pirovard maqsadi iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining yuqori turmush darajasini ta’minlashdan iboratdir. Bu jarayonlarda moliyaning roli kam xarajat qilib eng yuqori natijalarga erishish, moliya-xo’jalik faoliyatini yanada yaxshilashda xo’jalik yurituvchi sub’yektlar har bir xodimi va jamoa-sining moddiy

manfaatdorligi va qiziquvchanligini oshirish vazifalariga yo'naltirilgan.

Moliyaning taqsimlash funksiyasi yordamida davlat faqatgina MDni qayta taqsimlashga emas, balki ishlab chiqarishga, kapitalning jamg'arilishiga, iste'mol sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu ma'noda, moliya iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani, ilmiy-texnika taraqqiyotini va h.k.larni rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi.

Umuman, moliyaning taqsimlash funksiyasi:

- xo'jalik sub'yektlari, aholi, davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari darajasida maqsadli pul mablag'lari fondlarini shakllantirishga;
- xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlar-aro, shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi ijtimoiy guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashni sodir etishga;
- xo'jalik sub'yekti va davlat darajasida zaxiralar yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg'arishni amalga oshi-rishga imkoniyat va shart-sharoit yaratib beradi.

Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish hamda foydalanishning vositasi sifatida moliya taqsimlash jarayonining amalga oshirilishini ob'yektiv ravishda o'zida aks ettiradi. Uning nazorat funksiyasi YaIMni tegishli fondlarga taqsimlash va ularning maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari yagona iqtisodiy jarayonning ikki tomonidir.

Moliya nazorat funksiyasining asosini moliyaviy resurslarning harakati tashkil etadi. Ana shu harakatning xarkteridan kelib chiqqan holda jamiyat pul mablag'larini taqsimlashda qanday nisbatlarning vujudga kelayotganligi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ixtiyoriga moliyaviy resurslarning o'z vaqtida kelib tushishi qanday ta'minlana-yotganligi xususida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Agar moliyaning nazorat funksiyasi amalga oshirilmasa, moliya taqsimlash funksiyasining samaradorligini baholashning ham iloji yo'qki, bu holat amaliyotda har ikkala funksiya harakati o'zaro muvofiqlashtirilishining zarurligidan dalolat beryapti.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan har qanday jamiyatda moliyaning nazorat funksiyasi ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarishning dinamik rivojlanishini ta'minlashga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy xo'jalik-ning barcha bo'g'inlarida ish sifatini uzluksiz yaxshilashni moliyaviy ta'minlashga

yo’naltirilgan. U ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarini to’liq qamrab oladi. Iqtisodiy rag’batlantirishni oshirish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkor foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo’qotmalarni qisqartirish, xo’jasizlik va isrofgarchilikning oldini olish moliya nazorat funksiyasining maqsadlaridandir.

Moliya nazorat funksiyasining eng muhim vazifalaridan biri moliyaviy masalalar bo’yicha qonunchilikning belgi-langan muddatlarda, aniq va to’la hajmda ijro etilishini, byudjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, hisob-kitoblar va to’lovlar bo’yicha xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning o’zaro majburiyat-lari bajarilishining ham o’z vaqtida va to’la amalga oshirilishini tekshirish hisoblanadi.

Moliyaning nazorat funksiyasini bajarish jarayonida moliya, bank, sug’urta, bojxona va soliq organlari muhim rol o’ynaydi. Mazkur xizmatlarning xodimlari moliyaviy rejalashtirish jarayonida, byudjet tizimining daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishida moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar. Bozor munosabatlarining rivoj-lanishi sharoitida nazorat ishlarining yo’nalishi, moliyaviy nazoratning shakl va metodlari tubdan o’zgaradi.

Moliyaning funksiyalari moliya mexanizmi orqali amal-ga oshiriladi. Bu mexanizm milliy xo’jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmuini, markaz-lashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag’lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliyaviy tizimni boshqarish shakllarini, moliyaviy qonun-chilikni o’z ichiga oladi. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida sifat jihatidan yangi bo’lgan moliya mexanizmi qo’llaniladi. Bu, eng avvalo, xo’jalik yurituvchi sub’yektlar va aholining byudjet tizimi, nobyudjet fondlari, mulkiy va shaxsiy sug’urta organlari va boshqalar bilan bo’lgan o’zaro munosabatlariga tegishlidir.

1.3. Takror ishlab chiqarish va moliya

Insoniyat hayot kechirishi uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va ijtimoiy sohani doimiy ravishda takror ishlab chiqarishi taqozo etiladi. Planetamiz aholisi sonining o’sishi va uning urbanizatsiyalashuv darajasining ortishi, mamlakatlar ichidagi va ular o’rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi, ilmiy-texnika taraqqiyotining rivoj-lanishi qator omillar ta’siri sharoitida “hayot kechirish”ni takror ishlab chiqarish ayrim davlatlar mustaqil yashay

olishining muhim sharti bo’lib qolmoqda. Ma’lumki, xalqaro mehnat taqsimotining foydali tomonlaridan tashqari zararli jihatlari ham mavjud. Uning salbiy tomonlari yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning notekis taqsimlanishiga, eng boy-badavlat sanalgan mamlakatlarda moliyaviy kapitalning tobora ko’proq to’planishiga olib kelmoqda. Kambag’al va rivojlanish darajasi past bo’lgan mamlakatlar esa hamon xomashyo qazib chiqarish va qishloq xo’jalik mahsulotlari etishtirish bilan shug’ullanishga majbur etilmoqda. Shunday bo’lishiga qaramasdan, har qanday sharoitda ham takror ishlab chiqarish jarayonining mazmuni o’zgarmasdan qolayotir. Moliya, bank va baho mexanizmlari orqali foydaning asosiy qismi eng rivojlangan mamla-katlarda yig’ilmoqda va ularga kelgusida ham taqsimlashni o’zlari foydalariga hal qilishga imkon berayapti.

Tarixiy taraqqiyotning aynan shunday sharoitlarida takror ishlab chiqarish jarayonida moliyaning o’rni va ahamiyatini chuqur tasavvur qilish O‘zbekistonning bo’lajak moliyachi mutaxassisi uchun o’ta zarur sifat hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni o’z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- ishlab chiqarish;
- almashuv;
- taqsimlash;
- iste’mol.

Takror ishlab chiqarish uchun bu bosqichlar, albatta, majburiy yoki shart bo’lib, ulardan hatto bittasi ishtirok etmasa, takror ishlab chiqarish jarayoni uzilib qoladi. Uning har bir bosqichlariga bir yoki bir necha iqtisodiy kate-goriyalar xizmat qiladi. Kategoriyalarning takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi bevosita va bilvosita shakllarda bo’lishi mumkin. Masalan, baho kategoriyasi tovar kategoriyasi singari almashuv bosqichida markaziy o’rinni egallaydi. Biroq, baho kategoriyasining ta’siri, takror ishlab chiqarishning bu bosqichida boshqa kategoriyalar xizmat qilishiga qaramasdan, iste’mol bosqichida bevosita namoyon bo’ladi. O‘zbekiston sharoitida davlat moliyasining ijtimoiy mo’ljallanganlik darajasi yuqori ekanligidan kelib chiqiladigan bo’lsa, taqsimlash bosqichida ularning roli nisbatan kattaroq ekanligi yaqqol ko’rinadi. Takror ishlab chiqarish jarayonining bu bosqichida (taqsimlashda) barcha ijtimoiy manfaatlar va shunga muvofiq ravishda, jamiyatning barcha qarama-qarshiliklari namoyon bo’ladi.

Iste’molga ketadigan jami ijtimoiy mahsulot (JIM)dan, birinchi navbatda, takror ishlab chiqarishning oldingi (o’tgan) tsiklida foydalanilgan mehnat qurollari va predmetlari qiymatini tiklash uchun mo’ljallangan qismi ajratiladi. Bu qism takror ishlab chiqarishning yangi tsiklida ham uning shu hajmda takrorlanishini ta’minlaydi. Qolgan qism mablag’larning egasi va ishchilar o’rtasida taqsimlanadi. Taqsimlash nisbatlari asrlar davomida shakllanib, unda ishtirokchilarning har biri o’ziga tegishli bo’lgan qismni ko’paytirish maqsadida bir-birlari bilan doimiy qarama-qarshilikda bo’ladilar. Shunday qilib, jamiyatda yangidan yaratilgan qiymat birinchi taqsimlash bosqichini va undan so’ng esa almashuv va iste’mol bosqichlarini bosib o’tadi. Takror ishlab chiqarish jarayonining har bir ishtirokchisi o’ziga tegishli bo’lgan daromadni quyidagi ikki qismga bo’ladi:

- iste’mol fondi;
- jamg’arish fondi.

Lekin bu bosqichga qadar taqsimlash jarayoniga davlat aralashib, soliqlar, qarzlar, sug’urta to’lovlari kabi iqtisodiy vositalardan foydalangan holda individual va jamoa daromadlaridan o’zining hissasini (o’ziga tegishli bo’lgan qismni) ajratib oladi.

Qayd etish joizki, daromadlar qancha qismini olishning chegarasini aniqlashda jamiyat ishtirok etadi. U jamo-atchilik tashkilotlari, partiyalar va shunga o’xshashlar orqali, qonunchilik va ijroiya hokimiyatini shakllantirish yo’li bilan davlat faoliyatining chegarasini aniqlashga harakat qiladi. O‘z navbatida, davlat ham o’zining harakat doirasini (sohasini) kengaytirishga harakat qiladi. Uning funksiyalari qancha keng bo’lsa, jamiyat a’zolari daromadlarining shuncha katta summalariga davlat da’vo-garlik qiladi. Shu munosabat bilan iste’mol proportsiyalari (nisbatlari) ham o’zgaradi. Masalan, agar davlat maorif, sog’liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot xarajatlarining kattaroq qismini o’z zimmasiga olsa (bizning mamlaka-timizda aynan shunday), bu narsa ishchi kuchining bahosida va demak, mehnat haqining darajasida o’z aksini topadi.

Bu jarayonda ijtimoiy iste’mol fondlarining hissasi qancha yuqori bo’lsa, shaxsiy iste’mol fondlarining hissasi shuncha past bo’lishi bilan xarakterlanadigan tendentsiyani tushunish juda muhimdir. Moliya nazariyasida takror ishlab chiqarish jarayonida davlat ishtirokining qiyosiy samara-dorligi xususidagi bahslar hali-hamon to’xtaganicha yo’q. Har bir davlat uchun ma’lum bir davrda mamlakat aholisi (alohida shaxslar emas, balki aholining keng qatlami) qancha boy bo’lsa, davlatning o’zi ham shuncha boy

bo’ladi, degan tushunchadan kelib chiqib, aniq tavsiyalar ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq. Chunki daromadning yuqori darajasi yuqori iste’mol talabini, sog’lomlashib borayotgan iqtiso-diyotni vujudga keltiradi. Shunga mos ravishda soliqqa tortiladigan baza (asos) o’sadi va jamg’armalar hissasi oshadi. Jamg’armalar ssuda kapitalining asosini tashkil etib, o’z navbatida, ular kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va ilmiy-texnika taraqqiyotiga o’z ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

Hukumatlari soliqlar orqali shaxsiy daromad miqdorlarini chegaralab (cheklab) qo’ygan mamlakatlarda iqtisodiyot o’sish bazasi ham torayishi mumkin. Taqsimlash jarayoniga davlat aralashuvining balanslashtirilgan chegaralari buzilsa, butun takror ishlab chiqarish jarayoni ham buziladi (izdan chiqadi). Agar ijtimoiy portlashlarning oldini olish maqsadida davlat aholi kambag’al qatlam-larini qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha ravishda majbu-riyatlarni o’z zimmasiga olsa, bu holda vaziyat o’zgarishi mumkin.

Markazlashtirilgan rejali tizimni bozor mexanizmi bilan to’liq almashtirilganligi sharoitida eski taqsimlash tizimining saqlanib qolishi mumkin emas. Biroq yangi tizimni yaratishda iqtisodiyot tarmoqlari texnologiyala-rining holati, tarkibiy tuzilishi, raqobatbardoshlik va boshqa omillar inobatga olinishi kerak. Boshqa mamlakatlarning bu boradagi tizimidan ko’r-ko’rona nusxa olish noto’g’ri va bu o’zini oqlamaydi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining taqsimlanishini tahlil qilishni tanlab, kapitalning real harakatida faqat moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan chegaralanish etarli emas. Bundan tashqari, kapitalning milliy chegaralarni tan olmasligini ham e’tirof etmoq lozim. Chunki bunga faqat birja va bank sohalarining o’ziga xos xususiyatlari emas, balki transmilliy kompaniyalarning keng rivojlanishi ham o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Taqsimlash jarayonida moliyaning roli va o’rnini ko’rsatish uchun JIMning o’rniga YaIMdan foydalanish mumkin. Bunda har ikki ko’rsatkichlar o’zlarining afzal-liklari va kamchiliklariga ega ekanligini e’tiborga olish lozim bo’ladi. Masalan, YaIM tarkibiga mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan moddiy xarajatlar kiritilmaydi. Bir vaqtning o’zida esa, JIMning tarkibiga noishlab chiqarish xizmatlari kiritilmaydi, xolbuki, ularning salmog’i yuqori darajada taraqqiy etgan jamiyat-larda jamiyat xarajatlarining 1/3 qismini tashkil etishi mumkin. Biroq taqsimlashning ko’pqadamli ekanligi inobatga olinadigan bo’lsa, JIM ko’rsatkichi yuqoridagi maqsadlar

uchun ma’lum bir afzalliklarga ega ekanligi ma’lum bo’ladi. Chunki u takror ishlab chiqarishning muhim sohasi bo’lgan moddiy ishlab chiqarish sohasini o’zida to’liqroq aks ettiradi.

JIM quyidagi ikki asosiy qismdan iborat:

- mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan ishlab chiqarish vositalarining qiymati (mehnat qurollari va mehnat predmetlari);
- milliy daromad (ishchi kuchi va qo’shimcha mahsulotning qiymati).

Ishlab chiqarishni tashkil etish uchun o’z mablag’lari etarli bo’lmagan sharoitda davlat subsidiyalaridan yoki bank kreditidan foydalanish mumkin. Ularning har ikkalasi ham moddiy ishlab chiqarish sohasidan chetda shakllanadi. JIMning qiymatidan sarflangan ishlab chiqarish vositalarini tiklashni (amortizatsiya ajratmalari, materiallar, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar sotib olish, yoqilg’i, elektroenergiyani xarid qilish ko’rinishlarida va h.k.) taqsimlash jarayonlariga kiritish mumkin emas. Bu tiklanish takror ishlab chiqarishning uzluksiz zarurligi bilan belgilanadi.

Agar moddiy ishlab chiqarish sohasini yagona tizim sifatida qabul qilinsa, u holda keyingi qayta taqsimlash MDdan faqat soliqlarni to’lashga borib tugar edi. Biroq taqsimlashning real sohasida faqat davlat (soliq tizimi orqali) ishtirok etibgina qolmasdan, balki xizmat ko’rsatish sohasi, maorif, sog’liqni saqlash, bank tizimi va h.k.lar ham qatnashadi. Davlat o’z daromadlarini shakllantirib, ular hisobidan, xususan, byudjet sohasining xodimlariga ish haqi to’laydi. Byudjet tizimida ishlaydiganlar esa, o’z navbatida, Davlat byudjetining daromadlarini shakllan-tirishga yo’naltirilgan soliqlarni to’laydilar. Fuqarolar o’zlarining shaxsiy daromadlari hisobidan turli xizmatlarning haqini to’laydilar, sug’urta fondlariga ajratmalar (badallar) qiladilar, bank kreditidan foydalanganliklari uchun foizlarni qayta-radilar. Korxonalar turli xizmatlar ko’rsatish orqali topgan daromadlari hisobidan ham soliqlar to’laydilarki, ular byudjet daromadlarini shakllantirishga yo’naltiriladi. Taqsimlashning tarkibiga kiruvchi barcha munosabatlar ham moliya bo’lavermaydi. Lekin taqsimlashning chegarasidan chetda moliya mavjud emas.

JIMning ikkiga bo’linishi bilan xarakterlanadigan taqsimlashning birinchi bosqichidan so’ng ikkinchi bosqich boshlanadiki, unga muvofiq MD jamg’arish fondi va iste’mol fondiga bo’linadi.

Jamg’arish fondi ikki qismdan iborat bo’lib, uning bir qismi takror ishlab chiqarishni kengaytirish va ikkinchi qismi esa

zaxira(rezerv) fondlarini shakllantirishga mo'ljallangandir. Taqsimlashning bu bosqichida moliyaning ishtiroki iqtisodiyotga davlat investitsiyalarini kiritish, davlat rezervlarini shakllantirish va sug'urta fondlarini tashkil qilish orqali namoyon bo'ladi. Bunda tegishli fondlarni shakllantirish bosqichi bu bosqichdan oldinroq amalga oshiriladi. Lekin bu yerda tegishli navbatga rioya qilinmasligi ham mumkin. Chunki barcha daromad va xarajatlar yil boshida tasdiqlangan byudjet ko'rsatkichlari doirasida (chegarasida) amalga oshiriladi. Tarixiy taraq-qiyotning bugungi bosqichida deyarli barcha mamlakatlarda byudjet qonun kuchiga ega bo'lib, bu narsa taqsimlash jarayonining qonuniyatlarini o'rganayotgan paytda daromad va xarajat-larning ketma-ketligiga e'tibor bermaslikka imkon beradi. Ko'pchilik hollarda amaliyotda daromadlar hali yig'ilmasdan oldin xarajatlarning amalga oshirilishi sodir bo'ladi. Bunday vaziyatlarda, ya'ni daromad va xarajatlarning muddatlari bo'yicha paydo bo'layotgan nomuvofiqlikning oldini olish uchun (yoki shu muammoni hal etish uchun) davlat krediti mexanizmidan foydalanish mumkin.

Jamg'arish fondi va iste'mol fondi o'rtasidagi nisbat vaqt jihatidan ham, takror ishlab chiqarish jarayonining alohida olingan sub'yektlari (davlat bilan ham birgalikda) o'rtasida ham juda alohidadir. Iste'molning darajasiga texnologiya holati, kommunikatsiyalar, davlat tuzilmasi, partiya va harakatlarning obro'si va boshqa shu kabi ko'plab omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jamg'arish fondi va iste'mol fondi o'rtasidagi nisbatlarning o'zgarishiga qarab qator xulosalar qilish mumkin. Masalan, iste'mol fondining etarli yuqori darajadasida noishlab chiqarish sektorida jamg'arishning hissasi ortadi (ya'ni, shaxsiy jamg'armalar o'sadi). Agar MDda iste'molning nisbiy hissasi kamroq bo'lsa, korpo-rativ jamg'armalar o'sadi. Chunki yaratilgan MD yangidan yaratilgan qiymatdan boshqa narsa emasdir. Butun takror ishlab chiqarish jarayonining negizida o'ziga xos tovar bo'lgan ishchi kuchi yotadi. Tovar sifatida ishchi kuchi o'zini takror ishlab chiqarish xarajatlaridan ortiq bo'lgan qiymatni yaratish xususiyatiga egadir. Bu xususiyat ishlab chiqarishning boshqa tarkibiy qismlari bo'lgan mehnat qurollari va mehnat predmetlariga esa xos emas.

O'z navbatida, istemol fondi ham quyidagi ikki tarkibiy qismdan iborat:

- ijtimoiy iste'mol fondlari;
- shaxsiy iste'mol fondlari.

Davlatlarda ijtimoiy va shaxsiy iste'mol fondlari o'rtasidagi nisbat hokimiyat tuzilmasiga, an'analarga va h.k.larga bog'liq. Yaqin o'tmishda kommunistik yoki sotsialistik partiyalar hukmronlik qilgan mamlakatlarda ijtimoiy iste'mol fondlari iste'mol fondlarining umumiy hajmida asosiy o'rinni egallagan. Chunki ijtimoiy iste'mol fondlari orqali davlat maorif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonlarini moliyalashtirishni tashkil etgan.

Ayni zamonda ham ijtimoiy hayotni demokratlashti-rish darajasi yuqori bo'lgan Shvetsiya, Norvegiyada yoki neftga boy Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab amirliklari, Bruney sultonligi kabi ayrim davlatlarda ham ijti-moiy iste'mol fondlarining iste'mol fondlaridagi salmog'i katta. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanlagan O'zbekiston Respublikasida ham aholining ijtimoiy himoyasiga iste'mol fondlarining katta qismi ajratilyapti.

Demak, yuqorida bayon etilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, o'z zimmasiga juda katta ijtimoiy vazifalarni olgan davlatlarda iste'mol fondlarining umumiy hajmida ijtimoiy iste'mol fondlari asosiy o'rinni egallaydi. Chunki ijtimoiy iste'mol fondlari orqali davlat maorif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonlarini moliyalashtirishni tashkil etadi. Ijtimoiy iste'mol fondlarining salmog'i boshqa mamlakatlarda ham nisbatan yuqori bo'lib, bu fondlar orqali boshqaruv xarajatlari, mudofaa, sanoat, qishloq xo'jaligi va h.k.larni moliya-lashtirish qo'llab-quvvatlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy iste'mol fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishni moliyaning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Boshqa iqtisodiy kategoriyalar bu jarayonda bevosita ishtirok etmaydi. Ammo bu holatni so'zma-so'z tushunish kerak emas. Chunki, masalan, buxgalteriya hisobi tizimi soliqlar va ajratmalarning hajmini aniqlashga sharoit yaratadi, baholar va amor-tizatsiya ajratmalari tizimi esa foyda summasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biroq ijtimoiy iste'mol fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning bevosita jarayoniga faqat moliya xizmat qiladi.

Ijtimoiy iste'mol fondlarini shakllantirish va ishlatish asosan Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi. Bu fondlarning bir qismi ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirishga sarflanadi. Bozor iqtisodiyoti xos bo'lgan dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirishda o'zining to'lovlari bilan ish beruvchilar va yollanma mehnat xodimlari ham ishtirok etadilar. Oxirgi holda ijtimoiy iste'mol fondini shakllantirishga shaxsiy iste'mol fondining bir qismi

yo’naltiriladi. Shaxsiy iste’mol fondining qolgan qismi quyidagi ikki qismga bo’linadi:

- shaxsiy jamg’arma fondlari;
- iste’mol fondlari.

Shaxsiy iste’mol jamg’armasining aynan shu ikki qismi tovarlarni olish-sotish bilan bog’liq operatsiyalarning to’laqonli faoliyat ko’rsatishi uchun tegishli sharoitni yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’mol fondi va jamg’arish fondi o’rtasidagi nisbat hamda ularning hajmi davlatning rivojlanish sur’atini belgilab beruvchi muhim ko’rsatkichlar qatoriga kiradi. Agar davlat soliqlar ko’rinishida birlamchi daromadlarning katta qismini o’z ixtiyoriga olib qo’ysa, u shu bilan iqtisodiyotning rivojlanishiga to’sqinlik qilishi mumkin. Bu yerda hamma narsa boshqaruv organi sifatida davlatning xususiyatiga borib taqaladi – uning xarajatlari ortiqcha (davlat apparati xarajatlarini moliyalashtirish to’g’risida gap ketayapti), samarasiz (iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlar qismi) yoki nooqilona (ijtimoiy soha xarajatlari haddan ziyod qimmat bo’lib, ishchi kuchining takror ishlab chiqarilishini rag’batlan-tirmaydi) bo’lishi mumkin.

Xalqaro amaliyotdan ma’lumki, yaratilayotgan daro-madlarning 30 foizdan ortiq qismi olib qo’yilayotgan davlatlarda ishlab chiqaruvchi va xizmat ko’rsatuvchilarda iqtisodiy o’sish uchun mablag’lar etarli bo’lmay qolishi mumkin. Shunday holatlarda davlat ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bilan bog’liq xarajatlarning bir qismini o’zi hisobidan amalga oshirishi taqozo etiladi. Soliqqa tortish darajasi yuqori bo’lgan sharoitda soliqni to’lashdan bosh tortish tendentsiyasi kuchayishi tufayli soliqlarni undirish xarajatlari ham ortadi.

1.4. Moliyaning fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar bir-biridan ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlari bilan farq qiladi. O‘z navbatida, yangi ishlab chiqarish munosabatlari mavjud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasidan kelib chiqadi. Yangi ishlab chiqarish munosabatlariga davlat tuzilmasi ham mos kelishi kerak. Alohida olingan davlatda o’zgarishlar yuqoridagidek ketma-ketlikda va bog’liqlikda sodir bo’lmasligi mumkin. Lekin bu jarayondagi umumiy qonuniyatlar xususiy holatlarga bog’liq bo’lmaydi. Har bir ijtimoiy tuzum va shunga muvofiq ravishda, shu tuzumdagi davlatga ma’lum bir moliyaviy tuzilma mos keladi.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda moliya munosa-batlari bir-biridan farq qiladi va bu farqlar quyidagi sabablar tufayli paydo bo'ladi:

- har qanday ijtimoiy tuzumga jamiyatning o'z sinfiy tuzilmasi mos keladi. Bunda moliya MDni taqsimlash munosabatlarini hisobga olib, ularning davlat foydasiga qayta taqsimlanishini tashkil qiladi;
- har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda moliya dav-latning maqsadlari va vazifalariga bo'ysunadi;
- ishlab chiqarishning yangi usuli xo'jalik munosabat-larining yangi tizimini vujudga keltiradi. Masalan, quldorlik va feodallj; tuzumlarga natural munosabatlar xos bo'lgan bo'lsa, shunga mos ravishda davlat daromadlarini shakllantirish ham asosan natural xarakter kasb etgan. Kapitalistik xo'jalik tovar-pul munosabatlariga tayanadi. Shunga muvofiq davlat daromadlarini shakllantirish ham pul shaklida amalga oshiriladi;
- agar davlat boshqaruv organi sifatida tarkib topgan ishlab chiqarish munosabatlari va sinfiy tuzumning vazifalariga xizmat qilsa, shu vazifalarga moliya ham xizmat qiladi;
- faqat ijtimoiy tuzilma va texnologiyalargina emas, balki moliya ham bir davlatdan boshqasiga eksport qilinishi mumkin.

Natural munosabatlar ustunlik qilgan paytlarda hatto nisbatan rivojlangan mamlakatlarda ham pul o'zining barcha funksiyalarini bajara olmagan. Shunga mos ravishda pul munosabatlarining tizimi sifatida moliya ham jamiyatning barcha tarmoqlari va sohalari uchun umumiylik kasb eta olmagan. Ibtidoiy-jamoa tuzumining xo'jalik tuzilmasi to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi uchun faraz qilish mumkinki, doimiy davlat apparati yo'q bo'lganligi uchun ana shunday davlatning daromadlari va xarajatlarini shakllantirish ham bo'lmagan. Davlat apparatining shaklla-nishi, unga tegishli bo'lgan funksiyalarning kengayishi, xususan, doimiy qo'shinlarning tashkil etilishi, yo'l qurilishining joriy etilishi bilan jamiyatda moliyaning roli oshib borgan. Quldorlik davlatlari daromadlarining asosiy manbalari kontributsiyalar, harbiy o'ljalar, natural soliqlar va boshqalar hisoblangan. Ma'lum bir mamlakatda ma'lum bir davr mobaynida aholining qandaydir guruhlari pul ko'rinishidagi soliq-larni to'lagan bo'lishi mumkin. Shunday bo'lishiga qara-masdan, quldorlik tuzumida pul ko'rinishdagi soliqlar faqat tasodifiylik xarakteriga ega edi. Xuddi shuningdek, natural xo'jalik yuritishga asoslangan feodalizmda ham pullik soliqlar ustuvorlik kasb qilgan emas.

Jamiyatning tovar-pul munosabatlariga o’tishi munosa-bati bilan iqtisodiy kategoriya sifatida moliya umumiylik xarakteriga ega bo’ladi. Biroq, hatto ana shunday sharoitda ham davlat ehtiyojlarini qondirishning pulsiz xarakterga ega bo’lgan usullari saqlanib qolishi mumkin. Buning sodda va tushunarli misoli sifatida yoppasiga harbiy majbu-riyatni ko’rsatib o’tish mumkin.

Moliyaning tarixiy xarakterga ega ekanligi har qanday davlat o’z funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan jamg’armalarni shakllantirish va ulardan foydalanishning tizimini yaratadi, degan xulosani chiqarishga imkon beradi. Bunda turli davlat va tuzumlarda jamg’armalarni shakl-lantirish va ulardan foydalanishning shakllari va metodlari bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu yerda gap undirishning shakllari to’g’risida emas, balki uning ob’ektlari to’g’risida ketayapti. Ana shunday ob’ektlar sifatida har doim mulk va daromad maydonga chiqadi. Undirish shakllari to’g’risida gapiriladigan bo’lsa, u holda hatto antik grek davlatlaridayoq to’g’ri (bevosita) soliqlar bilan birgalikda egri (bilvosita) soliqlar ham paydo bo’lgan. To’g’ri (bevosita) soliqlar er va mol egalaridan olingan. Urush davrlarida esa mulkiy soliq joriy etilgan. Egri (bilvosita) soliqlar bojxona bojlari va savdoga soliq shakllarida maydonga chiqqan.

Rim imperiyasida armiyada pulli to’lanmalar (yollanma askarlar va ofitserlar uchun) joriy etilgan. Bu va shunga o’xshash boshqa ehtiyojlar (tomoshalarni tashkil etish, ishsiz fuqarolarga yordam ko’rsatish va boshqalar) pulli xarajatlarni talab etgan. Shuning uchun ham harbiy o’ljalar va kontributsiyalarga qo’shimcha ravishda pulli soliqlar joriy etilgan. Qulni sotish va sotib olish uchun to’lanadigan soliq ana shunday soliqlarning dastlabkisidir. Nooziq-ovqat buyumlarini sotganlik uchun (asosan 1% miqdorida) ham soliq undirilgan. Urushlar davrida har bir fuqaro mol-mulkdan undiriladigan favqulodda soliqni ham to’lagan. Rimda 5% miqdorida undiriladigan merosdan olinadigan soliq ham joriy etilgan. Ijtimoiy tuzum sifatida feodalizm qullarga egalik qilish yoki patriarxal tuzum asosida rivojlangan. Biroq bu erga xususiy egalik va dehqonlarning feodallarga biriktirilganligiga asoslangan ijtimoiy tuzumga keskin ta’sir ko’rsatmagan. Biriktirilgan (Rossiyada krepostnoy) dehqonlar bo’lmagan joyda feo-dalizm ham mavjud bo’lmagan.

Har bir mamlakatda markazlashtirilgan hukumatning roli va uning funksiyalari feodallarning ta’siri ostida belgilangan. Feodal o’zi egalik qiladigan joy chegaralari doirasida o’z soliqlarining tizimini joriy etgan. Markaziy hokimiyat xo’jalik hayotiga, xususan, aholini

soliqqa tortish masalalarini faqat feodal bilan muvofiqlashtirilgan chegara doirasida aralashuvi mumkin edi. Yevropada feodal bo'linuvchanlikka birinchi marta salb yurishlari orqali kelib chiqqan ritsarliklarning kuchsizlanishi oqibatida barham berilgan. davlatlar o'rtasidagi urushlar boshqalarga nisbatan urushlar tufayli boyigan mamlakatlarda qirollik hokimiyatini mustahkamlagan. Er egalarini saqlashga sarf qilingan to'lanmalardan tashqari dehqonlar yo'llar, qasrlar, qal'alar qurish va armiyaga xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlarni ham bajarishga majbur bo'lganlar. Hunarmandlar feodal va shahar hokimiyatlariga soliqlarni faqat o'zlarining buyumlari bilan emas, balki pullari bilan ham to'laganlar. Savdogarlar feodalga sovg'alar va daromadlaridan to'lovlardan tashqari tranzit va boshqa bojlarni to'la-ganlar.

O'rta asrlarning boshlarida har bir hukmdor o'z soliqlari va o'lponlarini joriy etgan. Hatto davlatning ichida ham soliq va o'lponlarni unifikatsiya qilish to'g'risida gap bo'lmagan. Absolyutizmning mustahkamlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi pulli soliqlarga o'tishga sabab bo'ldi. Jamiyatda tovar munosabatlari qancha yuqori bo'lsa, pulli soliqlarning salmog'i ham shuncha katta bo'la borgan. Feodalizmning o'rta va so'nggi davrlariga xos bo'lgan yagona umumiy belgi sifatida sotib olish tizimining mavjudligini e'tirof etish mumkin. Sotib oluvchilar xazinaga kelishilgan yoki qayd etilgan summani to'lab, daromadlarning katta qismini o'z ixtiyorlariga qoldir-ganlar. Shuning uchun ham sotib oluvchilar, savdogarlar, hunarmandlar feodal munosabatlarni burjua munosa-batlariga aylantirishda eng asosiy manfaatdorlar shaklida maydonga chiqqanlar.

Soliqqa tortishning sotib olish tizimi sotib oluvchilarning qo'lida katta miqdordagi pul resurslarining to'planishiga imkon berdi. Ular zavodlar, fabrikalar va banklarning birinchi mulkdorlariga, burjuaziyaning birinchi vakillariga aylanganlar. Turli soliq imtiyozlari va preferentsiyalari, to'siqli bojxona bojlari va soliq immunitetlari kapitalning jamg'arilishiga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan jamg'a-rilgan kapital endigina tug'ilib kelayotgan sanoat sari yo'l olib, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Va, nihoyat, hukumat, uzluksiz feodal urushlarini olib borib, qurol-yarog', harbiy inshootlar, flot qurishning buyurtmachisi sifatida maydonga chiqib, MDni soliq tizimi orqali qayta taqsimlab kapitalning sanoatda to'planishiga (jamg'arilishiga) olib keldi. Kapitalning jamg'arilishiga sanoatning rivojlanishini

rag’batlantirgan, burjuaziyaning mustahkamlanishiga sharoit yaratib bergan mustamlakalarning bosib olinishi ham yordam berdi.

Shaharlar va sanoatning rivojlanishi tobora ko’proq ishchi kuchi zarur bo’lgan. Ishchilar salmog’ining aholi umumiy soniga nisbatan ortib borishi jamiyatdagi natural munosabatlarni qisqartirdi. Bularning barchasi kapitalistik munosabat-larning rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatdi. Burjuaziya tomonidan hokimiyatning qo’lga kiritilishi monarxiyaning emirilishi yoki uning hokimiyatchilik vakolatlari qisqar-ganligini anglatadi. Hokimiyat tepasiga kelib, burjuaziya “soliq zulmi”ni pasaytirishga emas, balki feodallarga tegishli bo’lgan imtiyozlarga barham berishga va soliqlarni mehnatkashlarning zimmasiga yuklashga intildi. Davlatdagi umumiy soliq yuklamasi engillashmadi. Turlicha tarzda ta’sir etadigan omillarning ta’siri ostida burjuaziya kapitalni yanada jamg’arish va o’z foydasini o’stirish uchun o’zini tegishli imkoniyatlar bilan ta’minladi.

Kapitallar harakatidagi davlatlararo chegaralarga barham berilishi bilan banklar, birjalar va mustam-lakachilik urushlari bunday vaziyatning vositalari bo’lib qoldi. Burjuaziya ekspluatatsiya qilishning butun og’irligini bosib olingan mustamlaka davlatlar fuqarolari elkasiga yuklab, o’z mamlakatlari xalqining ashaddiy himoyachilariga aylandi. O‘z daromadlari miqdorini ko’paytirish uchun ishchilar sinfining qarshi kurashi natijasida burjuaziya qo’lida kapitalning yanada to’planishiga imkon beruvchi yangi moliyaviy institutlarni o’ylab topdi. Bu yerda gap tibbiy va ijtimoiy sug’urta, mol-mulk va hayot sug’urtasi tizimlari paydo bo’lganligi to’g’risida ketayapti. Barcha mamlakatlarda burjuaziya davlat tufayli soliqlarning juda katta qismini o’z qo’liga qurol-aslahaga, transport qurilishiga, uy-joy qurilishiga va h.k.larga buyurtmalar orqali to’play boshladi.

Xususiy tadbirkorlik printsiplariga asoslangan tizim sifatida kapitalizmning taraqqiy etishi bilan xalqaro mehnat taqsimoti jarayonining kuchayishi va shu asosda kapitalning rivojlangan mamlakatlarda yig’ilishi kuza-tiladi. Nafaqat soliq imtiyozlari va hukumat buyurtmalari, balki bojlar, imtiyozli kreditlar tizimi, norentabelli korxonalar va butun tarmoqlarni sotib olish, noishlab chiqarish infratuzilmani moliyalashtirish va h.k.lar orqali davlat har doim milliy burjuaziyaning pozitsiyalarini mustahkamlashda hal qiluvchi rolni o’ynaydi. Iqtisodiy tanazzullar va iqtisodiyotning stagnatsiya davrlarida soliqlar, kreditlar va buyurtmalar bilan manipulyatsiya qilish asosida o’zining tartibga soluvchilik

(regulyatorlik) rolini faollashtiradi. Buning mumtoz misoli sifatida 1929 yildagi iqtisodiy tanazzul paytida AQSh hukumatining yurgizgan siyosatini ko'rsatish mumkin.

Moliya masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar juda qadimda paydo bo'lgan. Moliya bo'yicha ilk ilmiy ishning birinchi evropalik muallifi Ksenofont (eramizdan avvalgi 430-355 yillar) hisoblanadi. Uning shu xususdagi asari "Afina respublikasining daromadlari to'g'risida" deb nom-langan. Buyuk mutafakkir Aristotelning (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) moliya sohasidagi qarashlari uning "Afina davlat tuzilmasi" deb nomlangan asarida bayon qilingan. Eramizning 948 yilida soliqlar to'g'risida asar yozgan Qadam ismli arab olimining nomi ham fanda ma'lum. F.Akvinskiy (1225-1274 yillar) ilk marta qirolning soliqlarni undi-rish borasidagi huquqini asoslashga uringan.

Moliya bo'yicha ishlarning birinchi mualliflari qatoriga F.Petrarka, D.Karaf, Bernardo, F.Gvichchardini, Dj.Botero, N.Makiaveli va boshqa italiyaliklarni ham kiritish mumkin.

XVII asrda moliya nazariyasining rivojlanishiga ingliz iqtisodchilari katta hissa qo'shgan. Ularning orasidan T.Men, Dj.Lokk, T.Gobbs, P.Gautonlarni alohida ajratib ko'rsatish kerak.

L. fon Sekendorf, S.Pufendorf, I.Yusti va I.Zonnen-fels kabi nemis olimlari XVII-XVIII asrlarda moliya fanini boyitishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Ular fanga kameralistikaning nemis maktabi vakillari sifatida kiritilgan. I.Yusti 1746 yilda nashr etilgan "Moliya mohiyatining tizimi" asarida moliya to'g'risidagi kameralistik maktab vakillarining qarash-larini umumlashtirdi. Bu asrda birinchi marta moliya fani va moliyaviy siyosat ajratilib ko'rsatilgan (chegaralangan).

Fiziokratlarning o'tmishdoshlari ham iqtisodiyotni o'rganganlar. Ularning asarlarida moliyaning turli yo'na-lishlari va jihatlari tahlil va tadqiq qilingan. Bunday mualliflar qatoriga T.Gobbs, Dj.Lokk, D.Yum, V.Petti, G.Baugilber, S.Voban, Dj.Styuartlarni ko'rsatish mumkin. Aynan V.Petti (1623-1687 yillar) o'zining "Soliqlar va yig'imlar xususida traktatlar" asari bilan burjua siyosiy iqtisodining ilk namoyandasi (boshlovchisi) hisoblanadi.

Mumtoz siyosiy iqtisodning vujudga kelishi va rivoj-lanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Bu maktabning vakillari moliyani siyosiy iqtisoddan ajratmaganlar va uni mustaqil fan sifatida e'tirof etmaganlar. Bu maktab mualliflari (frantsuzlar – A.Tyurgo, F.Kene va V.Mirabo, inglizlar – A.Smit va D.Rikardo) ishlarining darajasi, hajmi va uslubi xilma-xil bo'lishiga qaramasdan ularning moliya

to’g’risidagi ta’limotlarini quyidagi to’rtta asosiy yo’nalishga keltirish mumkin:

- davlat kerak, chunki u “tabiiy tartib”ni hasaddan va tajovuzlardan himoyalaydi;
- davlatni saqlash arzon bo’lmog’i lozim, chunki davlatning boshqaruv xarajatlari noishlab chiqarish xarakteriga ega;
- davlat “tabiiy tartib”ni, ya’ni mulkchilik va raqobat huquqini buza olmaydi, u cheklovchi bojxona bojlari va monopoliyalarni o’rnatish yo’li bilan ham mamlakatning xo’jalik hayotiga aralashmasligi kerak;
- davlat soliqqa tortishning quyidagi asosiy printsip-lariga qat’iy rioya etmog’i lozim:

- o’z daromadlariga muvofiq ravishda barcha soliq to’lashi kerak (bu qoida ruhoniylar va aslzodalarning soliq immunitetiga qarshi yo’naltirilgan);
- soliqni oldindan aniq belgilash zarur;
- soliqni soliq to’lovchi uchun qulay bo’lgan vaqtda undirish lozim;
- soliqlarni yig’ish xarajatlari arzon bo’lishi kerak.

Kapitalistik tuzumning feodalizm ustidan g’alabasi yangi ishlab chiqarish munosabatlarini u yoki bu darajada himoya qiluvchi iqtisodiy maktablar va qarashlarning vujudga kelishiga olib keldi. Sho’rolar tarixnavisligida bu iqtisodiy maktabning vakillari “vulgar iqtisodchilar” deb atalgan. Chunki ular, davlat daromadlarini shakllantirish masala-lariga asosiy e’tiborni qaratib, uning xarajatlarini tahlil etish burjua hukumatlari to’g’risida salbiy tasavvur hosil qilishi mumkinligi to’g’ri, deb hisoblagan edilar. Bu maktabning yetakchi namoyandalaridan biri “Siyosiy iqtisod asoslari” deb nomlangan o’z asarini 1848 yilda chop etgan Dj.Mil hisoblanadi. XIX asrning oxirlaridagi moliyachi olimlar qatoriga 1877 yilda moliya fani kursini nashr etgan frantsuz P.Le-rua-Boleni va 1892 yilda “Davlat moliyasi” kitobini yozgan ingliz K.Bastblni kiritish mumkin. XIX asrda moliya nazariyasining rivoj-lanishiga katta hissa qo’shib, 1826-1832 yillarda uchinchi qismi to’liq moliyaga bag’ishlangan siyosiy iqtisod kursini nashr ettirgan K.Raudir. Uning “Moliya fanining asosiy boshlanishi” deb nomlangan asari 1867 yilda rus tilida nashr etilgan va Rossiyada moliya fanining rivojlanishiga o’zining keskin ta’sirini ko’rsatgan.

Nemis olimlaridan Soden (1811 yil), Yakob (1821 yil), Malxus (1830 yil) va Shenlarning (1832 yil) XIX asrning boshlarida nashr etilgan moliya to’g’risidagi asarlari alohida mashhurlikka ega bo’lmagan bo’lsa-da, lekin bu ishlar “moliya” tushunchasining

tarkibiga birinchi marta mahalliy moliyani kiritgan L.fon Shteyn va moliya fanining mumtozi A.Vagnerlar (uning “Moliya to’g’risidagi fan” asari 1880 yilda nashr etilgan) dunyoqarashlarining shakllanishida katta rol o’ynadi. XIX asr oxirlarining yetakchi moliyachi-olimlari qatoriga avstriyalik E.Saksni, italiyalik F.Nittini, AQShlik E.Seligmanni va, nihoyat, “Moliya fani asoslari” deb nomlangan asari 1869 yilda (1900 yilda – rus tilida) nashrdan chiqqan italiyalik olim L.Kossni kiritish mumkin.

XX asr moliyachilarining qarashlari maxsus adabi-yotlarda etarli darajada tadqiq qilingan. Biz uchun esa, ba’zi bir ob’yektiv va sub’yektiv sabablarga ko’ra, rus iqtisodiy (moliyaviy) adabiyotida “moliya” tushunchasining taraqqiy etishini ko’rib chiqish muayyan ahamiyat kasb etadi.

Rossiya tarixida moliya sohasidagi ilk asarning muallifi Ivan Grozniy davrida yashagan I.S.Peresvetov hisoblanadi. U davlatning harbiy qudratini kuchaytirish maqsadida xazina daromadlarini ko’paytirish va davlat resurslarini markazlashtirishning tarafdori bo’lgan.

XVII asrdan bizgacha Yu.Krijanich va G.Kotoshixinlarning moliya xususidagi asarlari ham etib kelgan. Yu.Krijanich o’z asarlarida evropalik mualliflarning iqtisod va moliyaga oid qarashlari va mulohazalaridan keng foydalanadi, ularni Rossiyaning ehtiyojlariga “bog’laydi”. U davlatning boyishi usullariga (masalalariga) jiddiy e’tibor qaratib, ularni ikki guruhga – boyishning “to’g’ri” va “noto’g’ri” usullariga bo’ladi va bu narsalarning dunyoda allaqachon ma’lum ekanligini aytib, ularning yangilarini o’ylab topmaslik kerak, deb hisoblaydi.

G.Kotoshixinning 1664 yilda yozilgan va “Aleksey Mixaylovich podshohligidagi Rossiya to’g’risida” deb nomlangan asari oradan ikki yuz yil o’tgandan so’ng ma’lum bo’lgan. Unda XVII asrning o’rtalaridagi Rossiyaga tegishli bo’lgan katta ma’lumotlar keltirilgan.

XVIII asrning boshlaridagi moliya nazariyotchilarining yirik vakili I.Pososhkov hisoblanadi. Uning moliya sohasidagi taklifini quyidagicha ifodalash mumkin: boqimandani undirayotgan paytda uning to’lovchisini xonavayron qilmasdan, to’lovchidan to’lovni amalga oshirish muddatlari xususida yozma ravishda majburiyatni olmoq lozim.

XVIII asrning ikkinchi yarmida moliya nazariyasiga oid bir necha asarlar paydo bo’ldi. Ularning orasida yaqqol ko’zga tashlangani A.Polenovning “Rossiya dehqonlarining krepostnoylik holati xususida” deb nomlangan asaridir. Bu asarda Rossiyada

birinchi bo'lib "soliq" atamasi ishlatilgan, mulkiy sug'urtaning zarur ekanligi isbotlangan, Rossiyaning amaldagi soliq tizimi tanqidiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan.

A.Narishkin 1767 yilda e'lon qilingan va "Iqtisod" deb nomlangan maqolasida soliqlarga oid bir necha qiziqarli mulohazalarni oldinga suradi, soliqlar va davlat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi.

Rossiyada "moliya" atamasining paydo bo'lishi XVIII asrga borib taqaladi. Bu atama rus tiliga frantsuz tilidan kirib kelgan bo'lib, qariyb yarim asr mobaynida "xazina" atamasi bilan bir xil ma'noda tushunilgan. Birinchi marta Rossiya adabiyotida "moliya" ilmiy tushunchasi 1767 yilda Moskva universiteti tomonidan nashr etilgan "Entsiklopediyadan tarjimalar" kitobining so'zboshisida ishlatilgan. Bu yerda "moliya" tushunchasi "davlat daromadlariga tegishli bo'lgan ish", deb talqin qilingan. Uni ilmiy muomalaga birinchi marta Moskva universitetining huquq bo'yicha professori S.Desnitskiy kiritgan. 1802 yilda Moliya vazirligining tashkil etilishi bilan bu atama ilmiy muomalalarda mustahkam o'rin egallay boshladi. Biroq 1835 yilga qadar, ya'ni rus universitetlarida "Moliyaviy huquq" kursi paydo bo'lgancha qadar moliya mustaqil fan sifatida emas, balki siyosiy iqtisodning tarkibiy qismi sifatida tushunilgan. Amaliyotda esa ko'proq "xazina" atamasi ishlatilgan.

A.Radishchev o'zining "Jon yig'imi xususida" deb nom-langan asarida birinchi marta soliqlarning mohiyatini, iqtisodiy tabiatini, turlarini tadqiq etgan.

Moliya to'g'risidagi birinchi rus monografiyasi 1810-1811 yillarda N.Turgenev tomonidan yozilgan.

Moliya sohasidagi o'ziga xos asarlarga graf Spe-ranskiyning moliyaviy rejasini, Yu.Gagemayster, V.Kuri, D.Tolstoylarning moliyaning rivojlanish tarixiga bag'ish-langan tadqiqotlarini, M.Orlovning davlat krediti to'g'risidagi ishlarini kiritish mumkin. Moliya nazariyasi bo'yicha rus tilida ilk darslikni I.Gorlov yozgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida e'lon qilingan va moliyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan asarlar orasida I.Shilning monografiyasi alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha, moliya nazariyasi davlat xazinasi g'oyasiga bo'ysundirilgan.

Rus fanida F.Milgauzen birinchi marta moliya va moliya fanini chegaralab bergan. Moliyaning mohiyatini idrok etishda D.Lvov o'zining o'tmishdoshlaridan ancha oldinga o'tib ketgan va u moliya deyilganda resurslar va boyliklarni emas, balki ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarni tushungan.

XIX asrning oxirlarida V.Lebedev, I.Yanjul, L.Xodskiy, S.Vitte va I.Ozerovlar asarlari moliya nazariyasini rivojlantirishga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

Kapitalizm ilk davridagi Rossiyaning moliya fani akademik I.Yanjulning asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, moliya fanining predmeti davlatning moddiy ehtiyojlarini eng yaxshi qondirish usullarini tadqiq etish hisoblanadi.

Rossiya moliya fanining oyoqqa turishida prof. I.Ozerovning xizmatlari ham katta. U moliyaga nisbatan yangicha yondoshuvni asoslab bergan. Uning nazarida moliya vosita yoki resurs emas, balki munosabatlardir.

Prof. L.Xodskiy moliya fanining chegaralarini biroz kengaytiradi va uning tarkibiga pul muomalasi masala-larini ham kiritadi.

1882-1885 yillarda o'zining "Moliyaviy huquq" asarini nashr ettirgan Sankt-Peterburg universitetining profes-sori V.Lebedev ham moliya nazariyasini rivojlantirishga munosib xizmat ko'rsatgan. U moliyaning tarkibiga faqat pul daromadlarini kiritibgina qolmasdan, natural soliqlarni ham kiritadi, davlat xarajatlarini esa, uning tarkibidan chiqaradi.

XX asrning boshlarida moliyaga oid M.Bogolepov, V.Tverdoxlebov, A.Bukovetskiy va P.Genzellarning asarlari paydo bo'ladi.

Sho'rolar davrida moliya fanining taraqqiy etishiga V.Dyachenko, A.Aleksandrov, A.Birman, E.Voznesenskiy, V.Chantladze, B.Boldirev, V.Rodionova, P.Nikolskiy, M. Shermenev, M.Romanovskiy, B.Sabanti, V.Kolesnikov, D.Mo-lyakov, A.Shumov, S.Sitaryan, H.Sobirov muhim hissa qo'shgan-lar[8].

1.5. "Moliya" fanining paydo bo'lishi va rivojlanishida ajdodlarimiz xizmatlari

Jahonda moliyaning alohida fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o'zbek olim va mutafakkirlari-ning ulkan hissalari bor. To'g'ri, Buyuk Temur yoki Buyuk Bobur[9] kabi vatandoshlarimiz qadimda "moliya" deb nomlangan maxsus ilmiy asarlar yozishmagan. Lekin ular o'zlarining boshqa nomlar bilan atalgan ilmiy-siyosiy, diniy va ma'rifiy asarlarida moliyaning turli masalalariga tegishli fikr-mulohazalarini bayon qilishgan. O'zbek

[8] Bu haqida darslikning 7.2 paragrafida batafsil fikr yuritiladi.

[9] Temur va Bobur kabi bobolarimizning ismlari ulaning yurtimiz, xalqimiz va jahon tarixiga qo'shgan juda katta hissalari tufayli "Buyuk Temur" va "Buyuk Bobur" shaklida atalishi va yozilishi kerak, deb hisoblaymiz.

davlat-larining ayrim hukmdorlari esa o'z amaliy faoliyatlarida moliya, ayniqsa, uning tarkibiy qismi bo'lgan soliq sohasini rivojlantirish bo'yicha ulkan ahamiyatga molik islohotlar o'tkazishgan.

Insoniyat tarixida ilk davlatlar paydo bo'lishi va ularning turli-tuman xarajatlarini qoplash maqsadida soliqlardek o'ta muhim vosita o'ylab topilishi bilan, ya'ni qadim-qadimdan hukmdorlar va soliqlarning to'lovchilari soliqlar miqdori, to'lash tartibi va muddatlari masa-lalari bo'yicha o'zaro tortishib kelishgan. Chunki xalq uchun bular hayot-mamot masalasi hisoblangan. Bizning buyuk ajdodlarimiz bu muammo ham hokimlar, ham ularga tobe xalqlarni qanoatlantira oladigan tarzda ijobiy hal bo'lishi uchun juda katta hissa qo'shishgan.

Mutafakkirlarimizning moliya faniga qo'shgan hissa-lari haqida so'z yuritishdan oldin muqaddas kitobimiz "Qur'oni Karim"da ham moliya va soliq masalalariga keng e'tibor berilganligini e'tirof etishimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi. To'g'ri, "Qur'on" ni inson yaratmagan, u Parvardigor tomonidan biz, musulmonlarga, tortiq etilgan buyuk asar! Biz uchun bu o'rinda eng muhimi shundaki, ana shu muqaddas kitobimizda ham moliya, ayniqsa, soliq va soliq to'lash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. "Qur'oni Karim"da islomiy soliqlarning asosiy turlari bo'lmish xiroj, ushr, zakot va boshqa soliqlarning miqdori, to'lash tartibi, vaqti, soliq yig'uvchilar va to'lovchilar haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Hadislarda ham moliyaga daxldor masalalar bo'yicha keng miqyosda fikr yuritilgan. Masalan, soliqlar, ularning turlari, to'lovchilar, to'lov miqdorlari va shartlari kabi masalalarning aniq javoblari hadislarda bayon etilgan.

Miloddan avvalgi VIII asrda, ya'ni bundan 2800 yil oldin qadimiy Xorazm diyorida bitilgan "Avesto" asarida moliya masalalari ham tadqiq etilganligi jahondagi iqti-sodiy tafakkur tarixi bilan shug'ullanadigan olimlarni hayratga soladi[10]. Zero, dunyoda moliyaga daxldor va 28 asr oldin yozilgan hamda bugungacha saqlanib qolingan asarlar deyarli yo'q. Xullas, "muqaddas kitobda agrar munosabat-larning moliya masalalariga ham katta e'tibor beriladi"[11].

Xalqimizning "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi qator doston-larida ham moliya va soliq masalalariga alohida e'tibor berilgan.

---

[10] "Avesto".- Toshkent.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 1-tom, 2000 yil, 65 bet.

[11] A.Razzoqov. "Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari". Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyot- matbaa ijodi uyi, 2001 yil, 27-bet.

“Alpomish” dostonida Qo’ng’irot elida hukmronlik qilgan Boybo’ri bilan uning ukasi Boysaribiy o’rtasidagi ixtilof zakot masalasida paydo bo’ladi. Asarda Qo’ng’irot va Qalmiq ellarining moliya tizimlari o’rtasidagi farqlar ham ko’rsatib o’tilgan.

“Go’ro’g’li” dostonida soliqqa doir masalalar ham bayon qilingan. Bunda soliqchi, pul yig’uvchi – pulchin, purush (furush) degan iboralar bilan atalgan.

Umuman olganda, soliqlar masalalari juda ko’p islo-miy mutafakkirlarimiz tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Masalan, Burhoniddin Marg’inoniyning (1123-1197) “Hi-doya”[12] asarida chorva mollaridan zakot olish, qimmatbaho buyumlar (oltin, kumush) dan olinadigan zakot turlari, hosildan undiriladigan soliq (ushr), zakotni taqsimlash tartibi bo’yicha tavsiyalar berilgan.

1063-1092 yillarda saljuqiylar davlati vaziri bo’lib ishlagan Nizomulmulkning “Siyosatnoma”[13] asarida davlat xazinasi, uni oqilona boshqarish, soliqlarni adolatli yig’ish masalalari ham bayon etilgan.

Buyuk ajdodimiz Ahmad Al-Farg’oniy Misrda Nil daryosi suvi hajmining o’zgarishiga qarab, suvni barcha dehqonlar o’rtasida bir xil taqsimlashni ta’minlay oladigan, o’z zamonasida jahonda tengi yo’q gidroinshoot barpo etgan. Qohira shahri yaqinidagi Sayyolat ul-Rod mavzesida bunyod etilgan mazkur bino 1200 yildan beri ajdodlarimizning buyuk aql-zakovati timsoli sifatida qad rostlab turibdi.

Vatandoshimiz Al-Farg’oniy ekin maydonlarini suv bilan ta’minlash darajasining hosilga ta’siri va shu asosida soliq miqdorini adolatli o’rnatish g’oyasini oldinga surgan va hayotga joriy etgan. Tan olish kerakki, bu insoniyat tarixida soliqqa tortish tamoyillarini ishlab chiqishga bo’lgan ilk va muvaffaqiyatli amalga oshgan urinishlardan biri edi[14].

Ahmad Al-Farg’oniy mazkur g’oyani o’rtaga tashlagan va hayotga joriy etgan IX asrda g’arb mamlakatlarining ko’pchiligi hali davlat sifatida shakllanib ulgurishmagan edi. Binobarin, ularda soliq haqida fikr yuritishga asos, ya’ni soliqlarning o’zi ham yo’q edi.

Buyuk Temur ham moliya va soliq fanlari nazariyasi va amaliyotiga ulkan hissa qo’shgan. U o’z saltanatida soliqlar adolatli

---

[12] A.Razzoqov. “Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari”. Toshkent.: “O‘zbekiston” nashriyot- matbaa ijodi uyi, 2001 yil. 82-91-betlar.

[13] Shu erda. 110-120-betlar.

[14] O.Olimjonov. “Soliq nazariyasini yaratishda ajdodlarimiz xizmati”. “Iqtiso-diy taraqqiyotga erishishda soliq siyosatini yanada takomillashtirish yo’llari”. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Toshkent Moliya instituti.- 2006 yil.

bo'lishi uchun harakat qilgan. Bu fikrimizning to'g'riligini tushunish uchun uning "Temur tuzuklari" asari va hukmdorlik faoliyatida o'tkazgan islohotlariga murojaat qilish kerak. Jahongir "Temur tuzuklari" asarida moliya, soliqlar va soliqqa tortish masalalariga juda katta e'tibor bergan. U o'z ixtiyoridagi mamlakatlarda soliqqa tortish, uning miqdori va to'g'ri yig'ib olish jarayonida qat'iy tartib o'rnatgan.

"Amr qildimki, - deb ta'kidlaydi Amir Temur, - raiyatdan xiroj yig'ishda uni og'ir ahvolga tushirib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoq qilib qo'yishdan saqlanmoq zarur, chunki raiyatni xonavayron qilish xazinaning g'ariblashuviga olib keladi. Xazinaning g'ariblashib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqalib ketishi o'z navbatida saltanatning zaiflashishiga olib keladi"[15].

Ko'rinib turibdiki, Buyuk Temur davlat byudjeti daro-madlarini shakllantirishda soliq to'lovchilarga nisbatan soliq yuklamasini oshirib yuborishning salbiy oqibatlarini chuqur his qilgan va o'z saltanatida bunga yo'l qo'ymagan.

Sohibqiron qishloq xo'jaligida soliqni ekindan olingan hosilga va erning unumdorligiga qarab belgilashni joriy qilgan. Temur saltanatida hosil pishib etilmasdan raiyatdan molu jihot olishni qat'iy ravishda ta'qiqlab qo'yish ham amal qilganki, soliqqa tortishning bunday adolatli printsiplari Yevropa davlatlarining ko'pchiligida hali ma'lum emas edi.

Tashlandiq yoki yangi erlarni o'zlashtirgan shaxslarga soliqdan katta imtiyoz berilgan. "... amr etdimki, - deyiladi "Temur tuzuklarida", - kimda-kim biron sahroni obod qilsa yoki koriz (er ostidan o'tkazilgan ariq) qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa) qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar"[16].

Axir bunday fikrlar adolatli soliq siyosatining asosini tashkil qilmaydimi?! Buyuk Temur o'z zamonasining eng adolatli soliq siyosatlaridan birini ishlab chiqqan hamda uni Osiyo va Yevropaning katta qismini tashkil etgan bepoyon saltanatida hayotga joriy etgan. Demak, Buyuk Temurni uning nazariy qarashlari va amaliy faoliyati bo'yicha zamonaviy soliq siyosatining asoschilaridan biri, deyishga haqqimiz borligi ko'rinib turibdi. Uning davlat byudjeti daromadlarini

---

[15] "Temur tuzuklari".- T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996, 122-123-betlar.
[16] "Temur tuzuklari".- T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996, 344 b. 124-bet.

shakllantirish va soliq siyosatini tashkil etish bo'yicha bildirgan g'oyalari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Soliq nazariyasini yaratgan, deb hisoblanadigan g'arblik olimlar ham shu taxlit g'oyalarni "Temur tuzuklari" yozil-gandan 3-4 asr keyin boshqacha shakl va so'zlar bilan ifoda-lashganliklarini tushunish uchun ularning asarlarini bir bor qiyoslab chiqish etarli.

Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, Buyuk Temur yurtimizni mo'g'o'llar zulmidan ozod qilish va Amir Husayn bilan taxt uchun uzoq davom etgan kurashlarida xalqqa ularga nisbatan adolatli soliq siyosatini taklif etgani ham katta yordam berganligi sir emas.

Yana bir misol. Bobur va boburiylar saltanatining Hindiston zaminida o'ta uzoq muddat(1526-1858 yillar), ya'ni 332 yil hukm surishida ham xalqparvarlik, jumladan, ortiqcha soliqlar bilan xalqni qiynamaslik kabi omillar-ning xizmati beqiyos bo'lgan.

Bobur iqtisodiy, jumladan, moliyaviy tafakkur rivo-jiga juda katta hissa qo'shgan. Uning "Boburnoma", "Mubayyan" va boshqa asarlarida"[17] asarlarida iqtisodiy, moliyaviy va soliq siyosatlariga doir fikrlari bayon etilgan. U iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, iqtisodiyotning davlat va jamiyat hayotini belgilovchi ahamiyatini yaxshi bilgan. Shuning uchun ham uning iqtisodiy siyosati adolatli va keng xalq ommasi uchun mo''tadil bo'lgan.

Buyuk Boburning "Mubayyan" asari iymon-e'tiqod, namoz, zakot, ro'za va haj kitoblarini o'z ichiga olgan 5 qismdan iborat. Zakot kitobida zakot shartlari, zakot beriladigan mollar, naqdina, chorva va tijorat mollarining zakoti, zakot farzlari, zakot beriladigan shaxslar, zakot berish durust bo'lmagan kishilar, ushr va xirojga doir barcha masalalar bo'yicha aniq tavsiyalar berilgan.

Boburning moliya va soliq sohasidagi xizmatlari bu boradagi nazariy masalalarni tadqiq etish bilan cheklanib qolmagan. U moliya va soliq bo'yicha o'zi ishlab chiqqan tavsiyalarni saltanatida o'zi amaliyotga joriy ham etgan.

Bobur davlati barpo etilgunga qadar Hindiston hududida hukm surgan o'nlab katta-kichik davlatlarning xazinani tashkil etish, uning daromadlaridan foydalanish, soliq siyosati, soliq tizimi, soliqlar turlari va ularni aholidan yig'ib olish tartiboti bir - biridan keskin farq qilgan. Har bir rojalikning o'z soliq siyosati bo'lgan. Soliq-larning

---

[17] Bobur Z.M. "Boburnoma".- T.: Yulduzcha, 1989.- 368 b. "Mubayyan" va nasriy bayoni, "Risolai Volidiyya" asari nazmiy tarjimasi va sharhi. Nasriy bayon va sharhlar muallifi M.Kenjabek; mas'ul muharrir A.Mansur; - T.: "SHARQ", 2014. 213- 238-betlar.

turlari ko'pligi, ularni yig'ib olishning tartibi qat'iy emasligi va soliq miqdori juda katta ekanligidan aholi juda qiynalgan[18].

Bobur Hindiston saltanatining hukmronligi davrida davlat xazinasini adolat tamoyillari asosida tashkil etish bo'yicha keng qamrovli soliq islohoti o'tkazgan, yagona davlatning yaxlit soliq tizimini yaratib, soliqlar miqdorini sezilarli darajada kamaytirgan. Avvallar har bitta rojaning o'z qoidalari bo'yicha yig'iladigan soliq va yig'imlar Bobur davrida yagona islomiy qoida va tartibot asosida olinadigan bo'lgan.

Ya'ni Bobur o'z davlati hududida yagona soliq tizimi va bir xil soliqqa tortish tartibini joriy etgan, soliqqa tortishning muhim manbai bo'lgan ekin eri maydonini o'lchash tizimini takomillashtirgan va aniqlashtirgan.

Bobur saltanatida quyidagi soliq va yig'imlar mavjud bo'lgan - yyer solig'i, savdo solig'i, zakot (musulmonlar uchun), jiz'ya (nomusulmonlar uchun), o'lpon to'lovlari, tuz solig'i, urushlardan olinadigan o'ljalarning beshdan bir qismi, zarb qilingan pullar, musodara qilingan egasiz mollar va sovg'alar.

Bulardan tashqari mahalliy ehtiyojlar uchun ishlatila-digan soliqlar ham mavjud bo'lib, ularni mahalliy hoki-miyat yig'ib olgan (mazkur soliqlar "ahbob" deb atalgan).

Bobur kambag'al aholiga soliqlar bo'yicha katta imtiyoz-lar bergan. Buning uchun soliqlar miqdori engillashtirilgan hamda soliqlarning ma'lum qismini boy-badavlatlar davlatga emas, beva-bechoralarga berishgan. Masalan, islo-miy qoidaga ko'ra, "zakot" solig'i muhtoj oilalarga tarqa-tilgan. Bobur musulmonlardan olinadigan "tamg'a" solig'ini bekor qilgan.

Boburning qator farmon va hukmlari Hindistonning iqtisodiyotini rivojlantirish va moliyaviy hamda harbiy ahvolini yaxshilashga katta hissa qo'shgan.

Bobur xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish davlatning iqtisodiy qudratini oshirishning muhim omili ekanligini yaxshi tushungan. Uning bu xususdagi qarashlari "Boburnoma"da atroflicha ifodalangan.

Shu bois savdogarlarga katta engillik va imtiyozlar berilgan. Savdo ahlidan olinadigan soliq va yig'imlar miqdori mo''tadil, adolatli va oshkora bo'lgan. Sotiladigan mahsulotlar miqdorining oshishi soliqlar hissasining kamayishiga olib kelgan va savdo rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

---

[18] A. Razzoqov.Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: O'zbekiston, 2011. 164-171-betlar.

Xorijiy savdogarlarga bir qator engilliklar beril-gan. Agar savdogarlar islom davlatlaridan kelgan bo'lsa-lar, daromadlarining 5 foizi miqdorida soliq to'lashgan. Nomusulmon davlatlardan kelgan savdogarlar esa o'z yurtlarida musulmon savdogarlardan olinadigan miqdorda soliq to'lashgan.

Boburning soliq sohasida boshlagan islohotlarini uning nevarasi Buyuk Akbar oxiriga etkazgan. U saltanatning barcha xalqlariga nisbatan bir xil va adolatli soliq siyosatini yaratgan. Akbar amalga oshirgan soliq islohoti natijasida yagona soliq idoralari tizimi hamda soliq-larni to'g'ri hisoblash maqsadida bir xil og'irlik va miqdor o'lchov tartibi joriy etilgan. U musulmon bo'lmagan aholi to'laydigan "jizya" solig'i va jon solig'ini bekor qilgan. Avval natura shaklida olingan va miqdori hosilning uchdan bir qismiga teng bo'lgan yyer solig'ini pul shaklida yig'ish tizimiga o'tkazgan. Buning natijasida soliq to'lash uchun dehqon mahsulotini bozorda sotishi shart bo'lganligi Hindistonda tovar-pul munosabatlari keskin rivojla-nishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishiga iqtiso-diy zamin yaratgan.

Vazifalari aniq belgilab qo'yilgan yagona soliq ido-ralari tizimining barpo etilishi, soliqlarni pul shaklida yig'ishning joriy etilishi, soliq yig'imlari miqdorining aniqligi, hisob-kitoblarning puxtaligi soliqchilarning boshboshdoqligini keskin kamaytirgan. Bu tadbirlar soliq yig'uvchilar soliqlarni o'g'irlay olmaydigan tizim yaratish uchun xizmat qilgan.

Buyuk Akbar hosil yaxshi bo'lmagan va ocharchilik davrida soliq olmaslik imtiyozini joriy etgan, muhtoj aholiga zarur hollarda pul va g'alla bilan qarz berish tartibini amaliyotga kiritgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'zlaridan oldin mavjud bo'lgan davlatlarga nisbatan aholining barcha qatlamlari uchun adolatli va engil soliq siyosati yaratil-ganligi Hindiston hududida Boburiylar saltanati uzoq davr hukm surganligining muhim sabablaridan biri bo'lgan.

Buyuk vatandoshimiz Xoja Ubaydulloh Ahror moliyaning o'ta muhim bo'g'ini bo'lgan soliq amaliyotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan, u kishining ayrim xatti-harakatlari esa xalqqa soliqdan qator engilliklar berilishiga sabab bo'lgan.

Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1490 yillar) o'z zamona-sining eng obro'li va buyuk mutafakkiri, Bobur ta'biri bilan aytganda, "xojalar xojasi, ulug'lar ulug'i" bo'lgan. U kishi o'zi yashab o'tgan 15 asrda islom olamining diniy, siyosiy, ma'rifiy va iqtisodiy hayotida juda

katta o’rin tutgan. Biz bu yerda ul buyuk zotning moliya va soliq sohasida qilgan xizmatlari haqida fikr yuritamiz.

Ayrim islom davlatlarida XV asrda o’zaro taxt uchun kurashlar natijasida oddiy xalq ahvoli og’irlasha borgan. Masalan, temuriylar davlatida shariat tomonidan belgi-langan ushr, mol va zakotlardan tashqari har xil vaqtlarda turli munosabatlar bilan olinadigan soliqlar soni 30 taga etgan. Ulardan ayrimlari (tamg’o, yorg’u) mo’g’ullar hukmron-ligi davrida joriy etilgan bo’lib, ba’zi vaqtlarda hali ham qo’llanib kelardi. Ana shunday bir sharoitda Xoja Ahror musulmonlar boshidan jabr-zulmni daf etmoq uchun din va shariatni dastur qilgan holda sultonlarga murojaat qilib, masalani ijobiy hal etardi.

Turli masalalar bo’yicha islom davlatlari rahbarlari va boshqa zamondoshlariga yozilgan nomalari – “ ruqa” deb atalgan va ularning ko’pchiligi turli to’plamlar orqali bugungacha etib kelgan. Ana shu “ruqa”larning uchinchi turkumi iqtisodiy, savdo va soliq masalalariga bag’ishlangan. Bu “ruqa”larda Xoja Ahror oddiy xalqning soliq bo’yicha huquqlarini himoya qilishga ham katta e’tibor qaratgan.

Xoja Ahror hatto saroy xizmatidan voz kechmoqchi bo’lgan Alisher Navoiyga xat yozib, aytadi: «...Eshitishimcha, onhazrat, ya’ni sultonga mulozamat qilishchdan goho malomat chekar ekansiz. Iltimos shuki, musulmonlarga madad etkazmoq va biror faqirning dili mushkullikdan xalos topib, shod bo’lmog’i uchun xotiri sharifingizni saroy xizmatidan uzmang... Biror kishi ham musulmonlar g’amini eyishni o’ylamay qo’ygan bu vaqtda ularga g’amxo’rlik qilish — eng xayrli ishdir!..»

Manbalarda ko’rsatilishicha, Xoja Ahror o’z zamonasining eng yirik tadbirkorlaridan biri bo’lgan. Chunonchi, "Rashahot" asari muallifi Faxriddin Ali Xoja Ahror erlari Toshkent viloyatidan to Amudaryo sohillarigacha bo’lgan hududda 1300 dan ortiq ekinzorlarni tashkil etganini eslatadi. Lekin bu mulklarning katta qismi soliqlar zulmidan ozor chekkan shaxslarning o’z erlari va tadbirkorliklarini ixtiyoriy suratda Xoja Ahrorga berishlari tufayli tashkil topgan. Chunki Xoja Ahrorning hukmdorlar oldidagi nufuzi shari-atda belgilangandan (ushr, mol, zakot) tashqari favqulodda soliqlarni mehnatkashlar gardaniga yuklashdan ularni himoya etgan. Xoja Ahror rasman mulkni olgan, lekin amalda uni oldingi egasi ishlatib, foydasini o’zi olavergan. Dehqonchilik, chorvachilikdan tashqari Xoja Ahrorning shahar-larda ham hunarmandchilik rastalari, ustaxonalari bo’lgan va bulardan ham katta daromad kelib turgan.

Lekin Xoja Ahror o’z xo’jalik faoliyatidan olgan daro-madning katta qismini aholi boshiga tushgan og’ir soliqlarni to’lash, diniy va madaniy qurilishlarni amalga oshirish kabi ishlarga sarflagan. Chunonchi, Umarshayx Mirzo Toshkent aholisidan 250 000 dinor hajmida soliq talab qilganida Xoja Ahror bu mablag’ning hammasini o’zi to’lab, yana 70 000 dinorni ham soliq yig’uvchilarga topshirgan.

Muxtasar aytganda, Xoja Ubaydulloh Ahror o’z davrida davlat xazinasini tashkil etish va aholini soliqqa tortish jarayonida adolat mezonlariga rioya qilish sohasida hukmdorlarga takliflar bergan va o’z amaliy harakatlari bilan ularga o’rnak ko’rsatgan.

Yusuf Xos Hojib tomonidan 1069-1070 yillarda yozil-gan “Qutadg’u bilik” (“Saodatga eltuvchi bilim”), Nosiriddin Burhoniddin o’g’li Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy”(1310 yil) asarlari, Ulug’bek Mirzo(1394-1449)ning islohotlari ham mazkur sohada muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) “Hilo-liya”, “Vaqfiya, “Mahbub ul- qulub” (“Ko’ngillarning sevgani”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) kabi qator asar-larida adolatli davlat, adolatli soliq masalalari bo’yicha o’z fikr-qarashlarini bayon etgan.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy katta saltanatning vaziri va bosh vaziri lavozimlarida faoliyat ko’rsatgan davrida aholi uchun soliq miqdorining adolatli bo’lishi uchun kurashgan.

Biz moliya haqidagi fanning tarkib topishida g’arblik olim va mutafakkirlarning xizmatlarini inkor etish niyatidan uzoqmiz. Haqiqatdan ham ular zamonaviy moliya nazariyasi va amaliyotining asoschilari hisoblanishadi. Bunga hech kim shubha qilayotgani yo’q.

Lekin ular moliyaviy masalalar haqida fikr yuritishar ekanlar, insoniyat tarixida o’zlaridan oldin yaratilgan asarlar, g’oyalar va oldin hukmronlik qilgan podsholarning amaliy faoliyatlariga tayanishganligi negadir ko’pchiligi-mizning esimizdan chiqib qolmoqda. Biz darslikning bu qismida mazkur masalaga oydinlik kiritishga harakat qildik.

Moliya va, ayniqsa, soliqlar iqtisodiyotning shunday keng qamrovli sohasiki, ular jamiyat a’zolarining mutloq ko’pchilik qismi hayotiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Soliq siyosati, uning mazmuni, amal qilish shakl va vositalari barcha soliq to’lovchilarni qiziqtirishi o’z-o’zidan tushunarli. Qolaversa, mustaqillikni yaqinda qo’lga kiritgan davlat-larda soliq mexanizmi hali shakllanish va takomillashish bosqichlarini o’z boshidan kechirmoqda. Shu o’rinda mamla-katimizda soliq kontsentsiyasini takomillashtirish bo’yicha

2018 yil davomida olib borilgan amaliy harakatlar va munozaralarni eslatib o’tish mumkin. Shu sabablarga ko’ra mamlakatimizda so’nggi yillarda soliqlar bilan bog’liq muammolar tobora ko’proq kitob, maqola va ilmiy tadqiqot-larga mavzu bo’layotganligini tabiiy bir hol sifatida qabul qilish mumkin.

Mazkur masalaga oid ilmiy-ommaviy adabiyot, ayniqsa, dissertatsiyalar bilan tanishish jarayonida yuzaga chiqadigan qiziq bir holat kishini o’ylashga majbur qiladi. Sobiq sho’rolar davrida iqtisodiy, shu jumladan, moliya va soliq nazariyasi bilan shug’ullanadigan olimlar o’z tadqiqotlarini asosan K.Marks, F. Engels va V. Lenin asarlariga tayangan holda amalga oshirishar edi. Bolsheviklar imperiyasi parchalanishi bilan bog’liq ob’yektiv sabablarga ko’ra marksizm-leninizm ta’limoti asoschilari iqtisodiy fanlar cho’qqisidan tushib ketishdi va bu borada muayyan bo’shliq paydo bo’ldi. Ulardan keyin moliya va soliq masalalari bo’yicha yozilayotgan risola, maqola va ilmiy tadqiqotlar mualliflari mazkur vakuumni asosan g’arb asarlari hisobiga to’ldira boshlashdi.

Asar, mabodo zamonaviy moliya-soliq siyosati va uning eng dolzarb muammolari haqida yozilayotgan bo’lsa, bunday yondoshishni ma’qullash mumkin. Lekin hatto moliya va soliqlarning tarixi, ularning paydo bo’lishi, rivojlanish bosqichlari, ob’yektiv sabablarga ko’ra o’ziga xos xususi-yatlarga ega bo’lgan sharq davlatlarida moliya-soliq siyosatining shakllanishi kabi masalalarni tadqiq qila-yotganda ham tadqiqotchilar o’z fikr-mulohazalarini bayon qilish jarayonida ko’proq g’arb olimlari asarlariga tayanishmoqda.

Masalan, soliqlar haqida tayyorlangan har qanday ilmiy tadqiqotda mavzuning o’rganilganlik darajasi Vilyam Petti, Adam Smit, David Rikardo kabi g’arblik klassik olimlarning soliqlarga oid qarashlarini tahlil etish bilan boshlanishi taomilga kirib qoldi. Soliqlar haqidagi fanning paydo bo’lishi ham asosan yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning xizmatlari, degan xulosa allaqachon hammamizning qon-qonimizga singib ketdi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan va o’z oldiga shunday maqsad qo’ygan davlatlarda amal qilayotgan moliya-soliq siyosati va uning zamonaviy muammolari tadqiq qilingan asarlarning «foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati» qismida ham asosan yana g’arblik olimlarning nomlarini ko’ramiz. qaysi dissertatsiya, kitob yoki maqolani olib qaramang, ular S. Bryu, J Keyns, M.Kempbel, Ya.Kornai, K. Makkonell, J. Lourens, P. Samuelson, Y. Shumpeter, M. Fridman kabi olimlar asarlari bilan boshlanib, yana o’shalar bilan tugaydi.

G’arblik olimlardan keyin sobiq sovet va zamonaviy rus olimlari asarlari, va nihoyat, oxirida o’zbek olim-lari tadqiqotlari tilga olinadi.

Bizning fikrimizcha, masalaga bu taxlit yondoshish tarixiy voqelikka to’g’ri kelmaydi va uni o’zgartirish fursati allaqachon etib keldi.

Masalan, soliqqa tortishning umumiy printsiplari birinchi bor Adam Smit, Vilyam Petti va David Rikardo asarlarida ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. Bu o’rinda ortiqcha e’tirozimiz yo’q. Negaki, klassik siyosiy iqtisod asoschilari bo’lmish ingliz olimlari V. Petti (1623-1687 yillar) “Soliqlar va yig’imlar haqidagi risola” (1662 yil), A.Smit (1723-1790 yillar) “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to’g’risida tadqiqot” (1776 yil), D.Rikardo (1772-1822 yillar) “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari” (1817 yil) kabi mashhur asarlarida soliq fani sohasida haqiqatdan ham katta xizmat qilishgan.

Lekin hamma gap shundaki, moliyaning alohida fan va soha sifatida shakllanishi jarayonida xalqimizning yuqo-rida nomlari zikr etilgan buyuk farzandlarining ham muhim hissasi bor ekanligini tan olish kerak.

Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, bunday holat faqat moliya va soliqlar masalasi bilan chegaralanib qolmagan. Ming taassufki, adabiyot va fanning boshqa sohalarida ham hozirgacha “oldingdan oqqan suvning qadri yo’q”, qabilida yashab kelayotgan xalq ekanligimiz sir emas. Shoiru-olimlarimiz yozayotgan kitob, maqola, o’tkazayotgan ilmiy tadqiqotlarida, televidenie va radiodagi chiqish-larida ko’proq g’arb asarlariga tayanish kasalligidan hozirgacha qutula olishmayapti. Hatto kundalik hayotimiz va o’zaro suhbatlarimizda ham Buyuk Navoiy, Boburlardan emas, Shekspir yoki Gyotelardan ko’proq misol keltiramiz...

Agar bobolarimiz tomonidan o’z vaqtida mazkur masa-lalar bo’yicha biror jo’yaliroq fikr aytilmaganda bunchalik xafa bo’lishga asos yo’q edi.

Ming afsuslar bo’lsinkim, hozirga qadar ajdodlari-mizning moliya sohasidagi buyuk merosi etarli darajada o’rganilmagan va o’zining haqiqiy bahosini olmagan. Sobiq sho’rolar davrida biz buyuk merosimizni bilmas edik, Al-Farg’oniy, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Marg’inoniy, Motu-ridiy kabi allomalarimizning xizmatlari u yoqda tursin, hatto nomlarini ham eshitmagan edik. Mustaqillik sharo-fati bilangina biz ularni bila boshladik.

Mazkur holatga chek qo’yish uchun ajdodlarimiz qoldir-gan buyuk merosni sinchiklab o’rganish talab etiladi. Lekin bu oson va

tez fursatda hal bo'ladigan ish emas. Negaki, ularning asarlari eski o'zbek(turk), arab va fors tillarida va boshqa imloda, ya'ni arab alifbosida bitilgan.

Istiqlol yillarida mavjud qiyinchiliklarga qara-masdan asrlar davomida jahon mamlakatlari va xalqlari o'rtasida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan va oldiga buyuk maqsadlarni qo'ygan davlatimiz o'z ajdodlari merosini tobora kengroq ko'lamda o'rganmoqda.

2016 yildan boshlab ajdodlarimiz merosini o'rganish-ga e'tibor yanada kuchaydi. Bu borada O'zbekiston Respu-blikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilindi, nufuzli tadbirlar o'tkazildi.

Jumladan, Samarqandda 2017 yilning 28-30 avgust kunlarida YuNESKO shafeligida **"Jahon tamadduni tari-xida Markaziy Osiyo Renessansi"** mavzuida xalqaro ilmiy konferentsiya bo'lib o'tdi. Mazkur anjuman Markaziy Osiyodan etishib chiqqan olim va mutafakkirlarning tarixiy merosi-ni chuqur tadqiq etish ishiga xizmat qiladi.

Yurtimizdan etishib chiqqan islom olami mutafakkir-lari asarlarini, ularning jahon tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mohiyatini etkazish uchun Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

2017 yil 24 mayda O'zbekiston Respublikasi Preziden-tining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[19]gi qarori qabul qilindi.

2018 yil 16 aprelda imzolangan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[20]gi Farmoniga muvofiq Toshkent islom univer-siteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tash-kil etildi. Mazkur Farmonda "islom va jahon tsivilizatsiya-siga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy mero-sini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakku-rini shakllantirish" diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berildi. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi: "Qur'on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, **islom iqtisodiyoti va**

---

[19]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 24mayda imzolangan Qarori.

[20] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 16 aprelda imzolangan PF-5416-sonli Farmoni.

moliyasi, *(ta'kid bizniki),* xalqaro munosabatlar xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk va b.) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanishi" ham qayd etildi.

2017 yil fevralda mamlakatimiz Prezidenti mazkur masala sohasidagi o'ta muhim hujjatga qo'l qo'ydi[21], unga muvofiq Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi.

Imom Termiziy xalqaro markazining asosiy vazi-falari ichida ajdodlarimiz merosini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilgan:

- islom dinining, Qur'oni karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma'naviy asoslarini, Imom Termiziy hamda termiziy allomalar, yurtimizdan etishib chiqqan mutafakkir zotlar merosini har tomonlama chuqur o'rganish va keng targ'ib etish;

- yuksak insoniy g'oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan manbalarni tizimli asosda tadqiq etish, ulardan diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish maqsadida zarur darsliklar va o'quv qo'llanmalari, ommabop nashrlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash yuzasidan doimiy ish olib borish.

2017 yilda bu borada yana o'ta ulkan qadam tashlandi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq[22] Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom tsivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Mazkur Mar-kaz zimmasiga juda katta vazifalar yuklangan, jumladan:

- islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarimiz — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy kabi allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, ularning ilmiy-ma'naviy jasorati, ulug' insoniy fazilatlarini keng targ'ib qilish;

- jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon

---

[21] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi "Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2774-son qarori.

[22] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 iyundagi "Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom tsivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3080-son qarori.

Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi olim va mutafakkirlar merosining tarixiy va zamonaviy tsivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib singari mumtoz adabiyot va san'at namoyandalari ijodining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish.

Bunday sa'y-harakatlar buyuk mutafakkirlarimiz ilmiy-ijodiy merosini chuqur tadqiq etish, jumladan, ular-ning moliya fanining shallanishi va rivojlanishi jarayon-lariga qo'shgan ulkan xizmatlarini o'rganishga xizmat qilishi shubhasiz. Mazkur tadbirlarning eng muhim ahamiyati shunda-ki, ular islom iqtisodiyoti va moliyasini o'rganish bugun mamlakatimizda davlat darajasidagi muhim vazifalar qatoriga kiritilganligidan dalolat berishyapti.

Lekin bu uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uni hal etish bugun fan olamiga kirib kelayotgan yosh vatandoshlari-miz zimmasiga tushadi. Yoshlarimiz ajdodlarimizning buyuk merosini o'rganish va shu yo'l bilan tarixiy adolatni tiklash ishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishadi, deb umid qilamiz.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- "Moliya" iborasi qanday ma'nolarni anglatadi?
- Moliyaning vujudga kelish shart-sharoitlarini tushun-tirib bering.
- Moliya va moliyaviy munosabatlarning mohiyati haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan o'z ko'rinishini qanday o'zgartirib borgan?
- Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli nimalar bilan belgilanadi?
- Tarixiy kategoriya sifatida moliyaning vujudga kelishi sabablarini izohlab bering.
- Moliyaning ta'rifi.
- Moliyaviy munosabatlarning farqlanuvchi xarakterli belgilarini ayting.
- Moliya o'zining xarakterli belgilarini tushuntirib bering.
- Moliya kimlar (nimalar) o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini ifodalaydi?
- O'zining moddiy mazmuniga ko'ra moliya nimalarni ifoda etadi?

- Moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati qanday savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo'ladi?
- Taqsimlash jarayonlarida moliyadan tashqari yana qanday iqtisodiy kategoriyalar ishtirok etadi?
- Moliyaning baho, ish haqi, kredit va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlari aytib bering.
- Moliyaning mohiyati nimalar orqali namoyon bo'ladi?
- Moliya qanday funksiyalarni bajaradi?
- Moliyaning taqsimlash funksiyasi, eng avvalo, qayerda namoyon bo'ladi?
- Asosiy daromadlar MDni moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash jarayonida qanday guruhlarga bo'linadi?
- Qanday qayta taqsimlashlar natijasida ikkilamchi yoki "kelib chiquvchi" daromadlar tashkil topadi?
- Moliya yordamida amalga oshiriladigan YaIM va MDni taqsimlash va qayta taqsimlashning pirovard maqsadini tushuntirib bering.
- Moliyaning taqsimlash funksiyasi nimalarni amalga oshirishga imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib beradi?
- Moliya nazorat funksiyasining asosini nima tashkil etadi?
- Moliya nazorat funksiyasining eng muhim vazifalari nimalardan iborat?
- Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida moliyaning nazorat funksiyasi nimalarga yo'naltiriladi?
- Moliyaning nazorat funksiyasi amaliyotda qanday organlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi?
- Moliyaning funksiyalari nima orqali amalga oshiri-ladi?
- Takror ishlab chiqarish jarayoni o'z ichiga qanday bosqichlarni oladi?
- Takror ishlab chiqarish jarayonining har bir ishtirokchisi o'ziga tegishli bo'lgan daromadni qanday qismlarga bo'ladi?
- Jami ijtimoiy mahsulot va yalpi ichki mahsulotning bir-biridan farqlari, ularning afzallik va kamchilik tomonlarini aytib bering.
- Jami ijtimoiy mahsulotning umumiy taqsimlanish tartibi qanday?
- Jami ijtimoiy mahsulot qanday ikki asosiy qismdan iborat?
- Nega hukumatlari soliqlar orqali shaxsiy daromad-larni chegaralab (cheklab) qo'ygan mamlakatlarda iqtisodiyot o'sish bazasiga (asosiga) ega emas, deb qabul qilingan?

- Iste’mol fondining tarkibiy qismlarini ayting.
- Ijtimoiy iste’mol fondlarining asosiy qismi nima orqali amalga oshiriladi?
- Takror ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichida moliya qanday shaklda va tartibda ishtirok etadi?
- Taqsimlash jarayoniga davlat aralashuvining balans-lashtirilgan chegaralari buzilsa, butun takror ishlab chiqarish jarayoni buziladimi? Nega?
- Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda moliyaning farq-lanishi qanday sabablar bilan belgilanadi?
- Jamiyat hayotida moliya rolining oshib borishini nimalar belgilab beradi?
- Moliya qanday qilib umumiylik xarakteriga ega bo’ladi?
- Quldorlik, feodal va kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda moliyaning shakllanishi va taraqqiyoti qanday o’ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi?
- Muomalaga “finansi” (“moliya”) atamasini ilk bor kiritgan muallif kim?
- Moliya bo’yicha ishlarning birinchi mualliflari qatoriga kimlarni kiritish mumkin?
- XUII-XUIII asrlarda moliya fanini boyitishga o’zlarining munosib hissalarini qo’shgan nemis olimlari kimlar?
- Mumtoz maktab vakillarining moliya to’g’risidagi ta’limotlarini qanday to’rtta asosiy yo’nalishga keltirsa bo’ladi?
- XIX asr oxirlarining yetakchi moliyachi-olimlari qatoriga kimlarni kiritish mumkin?
- Moliya sohasidagi ilmiy ishning birinchi rus muallifi kim va u nimalarning tarafdori bo’lgan?
- Yu.Krijanich va G.Kotoshixinlarning moliya xususidagi qarashlarini tushuntirib bering.
- XUIII asrning boshlarida moliya nazariyotchilarining yirik vakili kim hisoblanadi va uning moliya sohasidagi taklifini qanday ifodalash mumkin?
- Rossiyada birinchi bo’lib kimning asarida “soliq” atamasi ishlatilgan?
- Moliya to’g’risidagi birinchi rus monografiyasi kim tomondan va qachon yozilgan?
- XIX asrning oxirlarida o’z asarlari moliya nazariyasini rivojlantirishga o’zining munosib hissasini qo’shgan rus olimlari kimlar edi? Ularning qanday asarlarini bilasiz?

- Kimning nazarida moliya vosita yoki resurs emas, balki munosabatlardir?
- XX asrning boshlarida moliyaga oid kimlarning asarlari paydo bo'ldi?
- Sho'rolar davrida moliya fanining taraqqiy etishiga munosib hissa qo'shgan iqtisodchi olimlarni aytib bering.
- Qur'oni Karim va Hadislarda qaysi islomiy soliqlar haqida qanday fikr va tavsiyalar berilgan?
- "Avesto"da hamda "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi doston-larda bayon etilgan moliyaga daxldor g'oya va fikrlarni aytib bering.
- Marg'inoniy va Nizomulmulkning qaysi asarlarida moliya bo'yicha qanday fikrlar mavjud?
- Al-Farg'oniyning soliqqa tortish tartibiga qo'shgan nazariy va amaliy hissasining ahamiyati qanday?
- Buyuk Temurning moliya fani va amaliyotini rivoj-lantirish sohasidagi xizmatlarini aytib bering.
- Buyuk Bobur va boburiy Akbar moliya va soliq fani va amaliyotini qanday rivojlantirishgan?
- Xoja Ubaydulloh Ahrorning moliya va soliq sohasida qilgan xizmatlarini tushuntirib bering.
- Alisher Navoiy moliya fani va amaliyotini rivoj-lantirishda qanday xizmatlar qilgan?
- O'zbek mutafakkirlaridan yana kimlar moliya faniga daxldor asarlar yozishgan?
- O'zbek mutafakkirlarining moliya sohasidagi ta'li-motlarini o'rganishga qanday sabablar to'sqinlik qilyapti?
- 2016-2018 yillarda mamlakatimizda ajdodlarimiz merosini o'rganish sohasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida gapirib bering.

2-bob. Moliyaviy siyosat

2.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va printsiplari

Moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element moliyaviy siyosat hisoblanadi. Shu bois moliyaviy boshqaruv-ning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asosla-nadi. Qisqa qilib aytganda, moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi faoliyatidir. Bu faoliyat davlatga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun etarli miqdorda va kerakli muddatda moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan.

Siyosat davlat faoliyatining barcha yo’nalishlarini qamrab oladi. Siyosiy ta’sir ob’yekti hisoblangan ijtimoiy munosabatlar sohalariga bog’liq ravishda iqtisodiy yoki sotsial, madaniy yoki texnikaviy, byudjet yoki kredit, ichki yoki tashqi siyosat to’g’risida so’z yuritiladi.

Moliyaviy siyosat davlat faoliyatining nisbatan musta-qil sohasi bo’lib, bir vaqtning o’zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda uning iqtisodiyot, sotsial soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo’lishi printsipial ahamiyatga ega emas.

Siyosat, siyosiy ta’sir va siyosiy rahbarlik quyidagi uch elementlardan tarkib topadi:

- bosh maqsadni aniqlash va qo’yish hamda jamiyat hayotining ma’lum bir davriga xos qo’yilgan maqsadlarga erishish uchun echilishi zarur bo’lgan istiqboldagi va yaqin kunlardagi vazifalarni aniqlab olish;
- qo’yilgan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishila-digan, yaqin davrdagi va istiqboldagi vazifalar esa oqilona tartibda hal qilinadigan munosabatlarning metodlari, vositalari va konkret shakllarini ishlab chiqish;
- qo’yilgan vazifalarni yechishga qodir bo’lgan kadr-larni tanlash va joy-joyiga qo’yish, ularning bajarilishini tashkil qilish.

Demak, takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyoj-larini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo’naltiriladigan maqsad va vazifalarning echilishini aniqlash moliyaviy siyosat deyiladi.

Moliyaviy siyosatga quyidagicha boshqa ta’rif berish ham mumkin: **moliyadan foydalanishning metodlari, uni tashkil**

qilishning amaliy shakllari va metodologik printsip-larining majmui (yig'indisi) moliyaviy siyosat deyiladi.

Ayrim hollarda moliyaviy siyosat davlatning o'z funksiyalarini bajarishi uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarining ma'lum bir faoliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday talqin o'zida bir necha xavfni mujassam etadi. Buning boisi shundaki, iqtisodiyot taraqqiyotida davlatning roli to'g'risi-dagi jamiyatda hukmron bo'lgan tasavvurlarga muvofiq ravishda davlatning vazifalari va funksiyalari ham o'zgaradi, takomillashadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi, aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish va shunga o'xshash davlatning funksiyalari va vazifalarini aniqlaydigan boshqa bir qancha masalalar hamon munozaraligicha qolmoqda. Buning ustiga, moliyaviy siyosatdan faqat davlatning funksiyalarini bajarish vositasi (instrumenti) sifatida foydalanish davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan moliyaviy tizimning boshqa sub'yektlari, ya'ni aynan mamlakatning aholisi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlari manfaatlari o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, ko'plab mutaxassislar, shu jumladan, davlat hokimiyat organlarining vakillari tomonidan amaldagi soliq mexanizmining kamchiliklari mavjudligi, biznesning ayrim sohalari uchun esa uning oqibati juda yomon natijalarga olib kelishi mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslansa-yu, moliyaviy siyosat uzoq vaqt davomida o'zgarmasdan qolaversa, amalga oshiriladigan soliq islohotlari uning mohiyatini o'zgartirmasa, bunday holda davlatning moliyaviy siyosati davlat hokimiyatining tegishli organlari tomonidan faol ravishda hayotga tadbiq etila-yotgan alohida shaxslar guruhining moliyaviy siyosatiga aylanib qolishi mumkin.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan quyidagi uch mantiqiy xulosa kelib chiqadi:

- birinchidan, moliyaviy siyosat faqat o'z manfaatlarini ko'zda tutadigan hokimiyat organlarining u yoki bu maqsad-larga erishishining vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini yechish vositasi bo'lishi kerak;
- ikkinchidan, davlatning moliyaviy siyosati faqat davlat hokimiyat organlarining emas, balki moliyaviy tizim barcha sub'yektlarining manfaatlarini hisobga olishi lozim;

- uchinchidan, davlat moliyaviy siyosati va davlat hokimi-yat organlarining moliyaviy siyosati aynan bir xil narsa emas, ularni bir-biridan farq qilishini tushunish kerak.

Shunday qilib, davlat moliyaviy siyosatini mamlakat moliyaviy tizimning barcha bo'g'inlarida moliyaviy resurslar-ning o'sishini mutanosiblashtirilgan (balanslashtirilgan) holda ta'minlash bo'yicha davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida e'tirof etish kerak. Xorijiy tajribalarning ko'rsatishicha, moliyaviy resurslar-ning mutanosiblashtirilgan holda o'sishining zarurligini inkor etish mamlakat moliyaviy tizimning o'zini degradatsiyala-shuviga, iqtisodiyotning emirilishi va vayron bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatib turishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunday siyosat aholining turmush darajasi oshishini ta'minlab va davlat daromadlarining miqdorini ko'paytirib, moliyaviy xo'jalikka nisbatan eng yuqori natijalarni berishi mumkin. Moliyaviy siyosatning ana shunga yo'naltirilganligi orqali uning quyidagi eng asosiy maqsadini aniqlash mumkin: jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmushining darajasi va sifatini oshirish uchun moliyaviy sharoitlarni yaratish moliyaviy siyosatning eng asosiy maqsadidir.

Agar gap korxonalarning moliyaviy siyosati xususida ketadigan bo'lsa, bu narsa korxona moliyaviy menejer-larining biznesni yuritish maqsadlariga erishish borasidagi maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini anglatadi. Korxona moliyaviy siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- raqobat kurashi sharoitida korxonaning sog'lom faoliyat ko'rsatishiga erishish;
- yirik moliyaviy muvaffaqiyatsizliklardan va kasodga (bankrotga) uchrashdan himoyalanganlik;
- raqiblar bilan kurashda yetakchi likka (lider bo'lishga) erishish;
- korxonaning bozor qiymatini ko'paytirish;
- korxona iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish;
- foydani maksimallashtirish;
- xarajatlarni minimallashtirish;
- rentabelli faoliyatni ta'minlash
- va boshqalar.

Korxona moliyaviy siyosatining u yoki bu maqsadlaridagi ustuvorlik, eng avvalo, biznesni yuritishning maqsadlariga muvofiq ravishda aniqlanadi. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tegishli moliyaviy mexanizmdan foyda-laniladi.

Moliyaviy siyosat moliyaning o'zida (boshqaruv ob'ektlarida) bevosita mujassam bo'lgan boshqaruvning salohiyatli imkoniyatlarini, ishning konkret metodlari, moliyaviy tizimning (boshqaruv sub'yektlari) organlarini tashkil qilish bilan yagona maqsadga birlashtirishga imkon beradi. Amaliyotda moliyaviy siyosat moliyaviy tizim orqali amalga oshirilib, uning faoliyati quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

- moliyaviy tizim bo'g'inlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini inobatga olib moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish;
- barcha moliyaviy muassasalar funksiyalarining umu-miyligi;
- barcha quyi boshqaruv organlarining faol ishtirokida markazdan umumiy boshqarish.

Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat:

- pirovard maqsadga bog'liqlik;
- xo'jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy balans-lashtirilganligi (muvozanatliligi, mutanosibligi);
- jamiyat barcha a'zolarining manfatlariga mos kelishi;
- real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy siyosatning amalga oshirilishini davlat tomonidan o'z funksiyalari va dasturlarini (uzoq, o'rta va qisqa muddatli) bajarish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni taqsimlash va qayta taqsimlashga yo'naltirilgan davlat tadbirlarining majmui ta'minlaydi. Bu tadbirlarning orasida moliyaviy munosabatlarning shakllari va normalarini huquqiy tartibga solish (reglamentatsiya qilish) muhim o'rin egallaydi.

Moliyaviy siyosat o'z-o'zidan yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin emas. Uning yaxshi yoki yomon ekanligi jamiyatning yoki uning ma'lum bir qismining manfaatlariga qanchalik muvofiqligi va qo'yilgan maqsadlarga erishish hamda aniq vazifalarning echilishiga qanchalik ta'sir ko'rsatganligi bilan belgilanadi.

Hukumatning moliyaviy siyosatiga baho berish va uni o'zgartirish bo'yicha tavsiya berish uchun, birinchi navbatda, butun jamiyat manfaatlari va aholining alohida guruhlari manfaatlarini ajratgan holda jamiyat taraqqiyotining aniq dasturiga, echilishi lozim

bo’lgan masalalarning muddatlari va metodlarini aniqlagan holda istiqboldagi va yaqin yillardagi vazifalarning tavsifiga ega bo’lmoq lozim. Faqat ana shunday sharoitdagina moliyaviy siyosatni amalga oshirishning konkret mexanizmini ishlab chiqish va unga xolisona baho berish mumkin.

Agar moliyaviy siyosat ijtimoiy taraqqiyotning ehtiyoj-larini, jamiyat butun qatlamlarining va alohida guruhlarining manfaatlarini, aniq tarixiy sharoitni va hayotning o’ziga xos xususiyatlarini qanchalik aniq darajada hisobga oladigan bo’lsa, uning natijaliligi shunchalik yuqori bo’ladi.

Bir vaqtning o’zida, moliyaviy siyosatning muvaffaqiyat-liligi muvofiqlashtirish mexanizmining sifatli ishlab chiqarilishiga va jamiyat turli qatlamlari manfaatlarining amalga oshirilishiga hamda davlatning ixtiyorida bo’lgan real imkoniyatlarning mavjudligiga, ya’ni jamiyat ijtimoiy tuzilmasidagi hamda ijtimoiy ong va ruhiy (psixologik) holatidagi o’zgarishlarni hisobga olgan holda moliyaviy siyosatning amalga oshirilishiga, ayrim hollarda, bir-biriga qarama-qarshi ta’sir ko’rsatuvchi omillarning ta’siridan har tomonlama foydalanish mexanizmining ishlab chiqilishiga bevosita bog’liq.

Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslarning maksimal hajmini shakllantirishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. Chunki aynan moliyaviy resurslar har qanday o’zgarishlarning moddiy asosini tashkil etadi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy siyosatni aniqlash va uni shakllantirish uchun davlatning moliyaviy ahvoli to’g’risida ishonchli ma’lumotlar zarurdir. Huquqiy demokratik davlatda moliyaviy statistikaning ko’rsatkichlari keng jamoatchilikka ham tegishli bo’lishi kerak. Moliyaviy hisobotlar esa doimiy, o’z vaqtida beriladigan, hamma olishi mumkin bo’lgan va eng asosiysi ishonchli bo’lmog’i lozim.

Moliyaviy siyosatning mazmuni u qamrab olishi mumkin bo’lgan moliyaviy munosabatlar rivojlanishi yo’nalish-larining umumiy kompleksi bilan belgilanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- moliyaviy siyosatning umumiy kontseptsiyasini (uning maqsadlarini, printsiplarini, vazifalarini, amalga oshirish bosqichlarini va eng samarali metodlarini) ishlab chiqish;
- makrodarajada va bozor iqtisodiyotining sub’yektlari darajasida iqtisodiy o’sishni rag’batlantiradigan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos bo’lgan dinamik holdagi moliya mexanizmini shakllantirish;

- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan resurslar va moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini oshirish bo'yicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotni istiqbolli restrukturizatsiya qilishdagi roliga muvofiq ravishda ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barcha darajalari va sohalari bo'yicha moliyaviy resurslarni oqilona (optimal) taqsimlashni tashkil qilish;
- iqtisodiy o'sishning joriy va istiqboldagi moliyaviy salohiyatini shakllantirish.

Shuningdek, moliyaviy siyosatning mazmuni, uning asosiy yo'nalishlari jamiyat taraqqiyotida davlatning roli to'g'risi-dagi fanning rivojlanish darajasiga va iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokining darajasini aniqlaydigan tegishli nazariy kontseptsiyalarga, moliyaviy siyosatni amalga oshirishning alohida vositalaridan foydalanishda, ya'ni moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning aniq shakl-larida namoyon bo'ladi. Shunga asosan ta'kidlash joizki, yigirmanchi asrda jamiyatning taraqqiyotida davlatning roli to'g'risidagi masala bo'yicha moliya nazariyasining asosiy yo'nalishlari mumtoz burjuaziya siyosiy iqtisodchilari A.Smit (1723-1780) va D.Rikardo (1772-1823) hamda ingliz iqtisodchisi J.Keyns (1883-1946) va ularning izdoshlari tomonidan aniqlangan.

Mumtoz siyosiy iqtisod asoschilari bo'lgan A.Smit va D.Rikardolar kontseptsiyalarining mohiyati shundan iboratki, davlat iqtisodiyotga aralashmasdan erkin raqobatni saqlamog'i lozim va jamiyat xo'jalik hayotini tartibga solishda asosiy rol bozor mexanizmlariga berilishi kerak. Ana shu printsiplarni inobatga olgan holda yigirmanchi asrning 20-yillari oxiriga qadar moliyaviy siyosat davlat xarajatlari va soliqlarni cheklashga, davlatning muvozanatli (balanslashtirilgan) byudjetini ta'minlashga qaratildi. Shu maqsadlarga muvofiq ravishda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish, asosan, harbiy, boshqaruv va davlat qarzini qaytarish hamda unga xizmat qilish xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish orqali davlat funksiyalarining amalga oshirilishini ta'minladi. Byudjet daromadlari esa, asosan, egri (bilvosita) soliqlar yordamida shakllantirildi.

XX asrning 20-yillari oxirlaridan boshlab keynschilik nazariy kontseptsiyasi ustunlik qila boshlab, unga ko'ra iqtisodiyot taraqqiyotida davlatning rolini takror ishlab chiqarish jarayonining tsiklik rivojlanishiga aralashish va uni tartibga solish orqali kuchaytirish zarurligi asoslandi. Bunday moliyaviy siyosatni amalga

oshirishning asosiy vositasi sifatida yangi ish joylarini yaratishga yo'naltirilgan davlat xarajatlari maydonga chiqdiki, bu narsa bir vaqtning o'zida bir necha iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarning echilishiga imkon berdi: aholining bandlik darajasi ortdi va aksincha, ishsizlik kamaydi; tadbirkorlik faoliyati o'sdi; qo'shimcha talab shakllantirildi; MD miqdori ko'paydi; ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishda katta imkoniyatlar paydo bo'ldi va h.k.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi Davlat byudjeti xarajatlari hajmining oshishiga olib keldi va shunga muvofiq ravishda bir vaqtning o'zida davlat daromadlari miqdorining oshirilishini ta'minlashga qaratilgan moliya-viy choralar ko'rildi. Daromad solig'i davlat daromad-larini oshirishning asosiy manbaiga aylandi. Uni hisoblashda soliqqa tortishning progressiv stavkalari qo'llanildi. Soliqlarning bunday tizimi MDni taqsim-lashda davlatning rolini oshirishga olib keldi.

Moliyaviy yo'nalishda har ikkala nazariy kontseptsiyalar o'rtasidagi farq mohiyatan byudjet defitsitini turli tarzda baholanishi bilan belgilanadi. Agar birinchi kontseptsiya defitsitsiz byudjetni shakllantirish va undan foydalanishning zarurligidan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchi kontseptsiya esa byudjet defitsitining bo'lishi mumkinligiga yo'l qo'ygan va buning ustiga iqtisodiy o'sishni rag'batlan-tirishda byudjet defitsitiga faol rol ajratgan.

Haqiqatdan ham XX asrning 30-60-yillarida keynscha moliyaviy siyosat deb nom olgan siyosat g'arb mamlakatlarida o'zining samaradorligini isbotladi. Davlat iqtisodiyotga aralashuvining kengayishi va davlat tartibga soluvchi funksiyasining kuchayishi oqibatida moliyaviy munosa-batlarni tashkil qilish murakkablashdi. Davlat xarajat-larini defitsitli moliyalashtirish siyosati davlat kreditining rivojlanishini belgilab berdi. Uzoq va o'rta muddatli qarzlarni jalb etish ssuda kapitallari bozorining rivojlanishiga olib keldi va o'zining ahamiyati bo'yicha davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishning ikkinchi manbaiga aylandi. Buning natijasida MDni qayta taqsimlashda moliyaning roli yanada kuchaydi.

XX asrning 70-yillarida iqtisodiy nazariyaning neo-klassik yo'nalishi moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini belgilab berdi. Bu kontseptsiya davlatning tartibga soluvchi rolidan voz kechmasa-da, lekin uning iqtisodiyotga va ijtimoiy sohaga aralashuvi darajasini biroz chekladi. Amalda esa davlatning aralashuvi kamaymadi va aksincha biroz kuchaydi. Chunki bunday aralashuv endilikda faqat Davlat byudjetining daromad-lari va xarajatlari orqali amalga oshirilib qolinmasdan, balki pul

muomalasini, valyuta kursini, ssuda kapitallari va qimmatli qog'ozlar bozorini ham tartibga solish orqali sodir etildi. Buning natijasida davlatning ta'sir doirasi kengaydi va kapitallar oqimida uning roli kuchaydi. Bularning barchasi taraqqiyotning qayta qurilish tuzilmasiga va ijtimoiy omillariga o'zining ta'sirini ko'rsatdi.

Ayni davrda rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy siyosati boshqa zamonaviy nazariyalar yordamida amalga oshirilib, bu nazariyalar amalda tartibga solish ikki tizimining qo'shilib ketganligidan iborat. Shunga muvofiq ravishda ayrim davlatlar davlat tomonidan tartibga solishning ham keynschilik va ham neokeynschilik tizimining turli-tuman elementlaridan foydalanishyapti.

Sovet davlatida va sotsialistik orientatsiyada (yo'na-lishda) bo'lgan barcha mamlakatlarda moliyaviy siyosat K.Marks (1818-1881) va V.I.Leninning (1870-1924) nazariy kontseptsiyalari ta'sirida shakllandi. Sotsialistik davlat-ning mohiyati va funksiyalari haqidagi markscha-lenincha nazariya sovet davlati moliyaviy siyosatining asosiy printsipini – moliyaviy markazlashtirishni – belgilab berdi.

Faqat davlatning ixtiyorida moliyaviy resurslar katta qismining to'planishinigina emas, balki moliyaviy munosa-batlarni tashkil etishda davlatning yakka hokimligini ko'zda tutuvchi moliyaviy markazlashtirish zaruriyatga aylandi. Chunki davlatning funksiyalari shu qadar kengaytirildiki, ularning eng asosiylari xo'jalik-tashkilotchilik va madaniy-tarbiyaviy funksiyalar bo'lib qoldi.

Sovet davlati iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ehtiyojlarini byudjetdan to'liq moliyalashtirdi. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda davlatning roli keskin oshdi. Chunki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barcha sohalariga davlat rejalari yordamida bevosita rahbarlik qildi. Bu, albatta, xususiy mulk shakllarining davlat (umumxalq) mulkiga aylanishi bilan belgilanadi. Shunga muvofiq ravishda davlat MDni qayta taqsimlashning soliq shakllaridan ishlab chiqarish sohasida to'g'ridan-to'g'ri taqsimlashga va Davlat byudjeti orqali qayta taqsimlashga o'tdi.

Moliyaviy markazlashtirish yana shunda namoyon bo'ldiki, davlat bevosita va monopol ravishda baholarni shaklantirish, pul muomalasi, hisob-kitoblar tizimi va kredit munosabatlarini ham tartibga soldi. Shunday qilib, boshqaruv tizimining barcha qiymat elementlari butun ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarib turuvchi yagona ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga amalda birlashtirildi.

Bunday moliyaviy siyosat bir ijtimoiy munosabatlar tizimidan insoniyat tarixi uchun mutlaqo yangi bo'lgan ikkinchi ijtimoiy

munosabatlar tizimiga o’tilishini, sovet davlati oldida turgan va faoliyatining turli bosqichlarida vujudga kelgan sotsial-iqtisodiy muammolarning echilishini kafolatladi. Bu moliyaviy siyosatni etarli darajada samarali bo’lgan moliyaviy siyosat deyish mumkin. Chunki chor Rsssiyasidan, fuqarolar urushidan, chet el harbiy interventsiyasidan meros bo’lib qolgan favqulodda murakkab moliyaviy vaziyatga qaramasdan fashistlar Germaniyasi bilan urush arafasida Sovet davlati etarli darajada kuchli iqtisodiy salohiyatni yaratishga muvaffaq bo’ldi, urushda g’alaba qozondi va qiyosiy qisqa muddatlarda urushdan vayron bo’lgan xalq xo’jaligini tikladi.

II jahon urushidan keyingi yillarda Sovet davlatining moliyaviy siyosati g’arb mamlakatlari va eng avvalo, AQSh bilan qurollanish poygasi va kosmosni rivojlantirishdagi musobaqani (raqobatni) moliyaviy jihatdan ta’minlashga qaratildi.

Bir vaqtning o’zida sotsialistik lager mamlakatlariga juda katta miqdorda moliyaviy yordamlar ko’rsatildi:

- ularning taraqqiyotida sotsialistik orientatsiyani (yo’na-lishni) ta’minlash uchun;
- sotsialistik mamlakatlarni sanoati rivojlangan mam-lakatlarga aylantirish uchun;
- kuchli harbiy ittifoqchilarni shakllantirish va umuman mudofa qobiliyatini mustahkamlash uchun.

Bu maqsadlarga erishish uchun xomashyo bazasini va eng avvalo, neft va gaz qazib chiqarishni o’ta yuqori sur’at-larda amalga oshirish talab etildi. Yangi qazilma boylik-larini o’zlashtirish (ularning geografiyasi shimoli-sharq tomonga qarab kengaya boshladi) juda katta miqdordagi moliya resurslarning bo’lishini taqozo etdi. Chunki bu narsalar faqatgina yangi hududlarni o’zlashtirish, o’sha hududlarga katta miqdorlarda ishchi kuchini ko’chirish (mehnatga haq to’lashning oshirilgan normalari bilan birgalikda) bilan bir qatorda yangidan neft va gaz quvurlarini qurish yordamida amalga oshirildi. Xalqaro bozorda neft va gazning bahosi yuqori bo’lib turgan paytlarda ularni eksport qilish xarajatlarni ma’lum darajada qoplagan edi. Shunday bo’lishiga qaramasdan, bunday moliyaviy siyosatni amalga oshirish MDni tegishli tarzda qayta taqsimlanishini talab qildi. Buning natijasida mamlakatda harbiy-sanoat kompleksi taraqqiy etgan bir tomonlamali iqtisodiyot yaratildi.

Davlat tomonidan belgilangan maqsadlar nuqtai-naza-ridan urushdan keyingi davrning moliyaviy siyosat va uni amalga oshirish choralarini nosamarali deb aytish unchalik to’g’ri bo’lmaydi. Hukumat

rasmiy hujjatlarida aholi turmush darajasi oshayotganligini bayon etish, albatta, bu boshqa narsa. Shunday bo'lishiga qaramasdan aholining turmush darajasi mehnatga haq to'lashning darajasiga va qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va engil sanoat, fuqarolik qurilishi va iste'mol predmetlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanish darajasiga bog'liq. Agar harbiy-sanoat kompleksida (mamlakat aholisining kattagina qismi shu sohada band edi) mehnatga haq to'lashning darajasi qiyosiy jihatdan yuqoriroq bo'lishiga qaramasdan, hatto unda ishlayotgan aholi ham o'zining iste'mol talablarini qondirish imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun ham iste'mol bozorining rivojlanishida ortda qolish urushdan keyingi davrda sovet davlati moliyaviy siyosatning samara-dorligini salbiy baholashning sababidir.

Moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy resurs-larni taqsimlash va qayta taqsimlashning negizida quyidagilarning yotishi printsipial ahamiyatga egadir:

- taqsimlash munosabatlarining sub'yektlarini, ya'ni moliyaviy resurslarning egalari va taqsimlovchilarini tanlash;
- yuridik shaxslar va aholining o'z ehtiyojlarini qondirishdagi mustaqillik darajasi va davlatning funksiyalariga bog'liq ravishda davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning markazlashtirilish darajasini aniqlash;
- birinchi darajali ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondirish choralarini aniqlash va shularga mos ravishda moliyaviy resurslardan foydalanishning ustuvor yo'nalish-larini belgilash;
- moliyaviy resurslarni shakllantirishning manbalari va metodlarini tanlash.

Moliyaviy siyosat o'ta nozik va ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Agar umumiy holda uning sohasi jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichlarida hukmronlik qilgan nazariy kontseptsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va sotsial sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etish parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabat-larining elementlari bo'yicha tabaqalanishi moliyaviy tizim-ning rivojlanganligiga va uning ayrim bo'g'inlarining mustaqilligiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi bizga mustaqil moliyaviy siyosatni yuritishga imkon berdi. Qisqa fursatlarda O'zbekiston moliyaviy siyosatning tamoyillari ishlab chiqildi va u izchillik bilan amaliyotga joriy etila boshlandi. Yangi moliyaviy siyosatning asosiy mazmuni shundaki, u davlatning iqtisodiyot

tarmoqlarini har taraflama rivojlantirish orqali xalqning yuqori turmush darajasini ta’minlash vazifasiga xizmat qilishga yo’naltirilgan.

2.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo’nalishlari)[23]

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo’nalishlari) quyidagilardan iborat:

- byudjet siyosati;
- soliq siyosati;
- pul siyosati;
- kredit siyosati;
- baho siyosati;
- investitsion siyosat;
- ijtimoiy moliyaviy siyosat;
- boj siyosati.

Moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning vositasi bo’lib hisoblanadi va shu ma’noda yordamchi rolni o’ynaydi. Bir vaqtning o’zida davlat siyosatining boshqa – milliy, geosiyosat, harbiy – yo’nalishlari ham mavjudligini esdan chiqarmaslik kerak. Ana shu barcha besh yo’nalishning (iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, geosiyosat, harbiy) yig’indisi (majmui) davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladigan moliyaviy siyosatning mazmunini aniqlab beradi.

Moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruvning tarkibiy qismi sifatida boshqaruvning oliy organlariga tegishlidir. Mamlakatning sub’yektlari darajasida moliyaviy siyosat borasida qarorlarning qabul qilinish imkoniyatlari cheklangan va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalari unchalik katta emas. Ularning bu funksiyalari o’z byudjetlarini shakllantirish va ishlatish hamda mahalliy soliqlarni qabul qilish va ularning mablag’-larini ishlatish masalalari bilan cheklanadi.

Moliyaviy siyosatning yo’nalishi sifatida davlatning byudjet siyosati, eng avvalo, har bir mamlakatning Konsti-tutsiyasi, qonunchiligi va byudjet jarayonida hokimiyat organlari barcha bo’g’inlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuiga muvofiq ishlab chiqiladi. O‘zining hajmi va muhimligi jihatidan eng

[23] Moliyaviy siyosat yaxlit va bir butun jarayonlarni o’z ichiga olib, bu o’rinda u 8 ta tarkibiy qismdan iborat. Lekin moliyaviy siyosatni amaliyotga joriy etishda mazkur tarkibiy qismlarni moliyaviy siyosatning yo’nalishlari sifatida ham tushunish mumkin. Shu bois darslikning 2.2-paragrafida “tarkibiy qism” va “yo’nalish” so’zlari bir xil ma’noni anglatadigan iboralar sifatida ishlatilgan.

katta ish bo'lishiga qaramasdan byudjet siyosatini faqat byudjet jarayoniga tegishli deb hisoblash noto'g'ri. Qonun byudjet jarayonida hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funksiya-larini, mamlakat sub'yektlari funksiyalarini, byudjet jarayoni sub'yektlarining huquq va majburiyatlarini va h.k.larni aniq belgilashi kerak. Biroq byudjet siyosati faqat shu masalalar bilan cheklanib qolmaydi. Byudjet siyosati byudjetda to'planadigan YaIM hissasini aniqlash, shu sohada mamlakat yuqori va quyi organlarining o'zaro munosa-batlarini belgilash, byudjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishini aniqlash, turli darajadagi byudjet-lar o'rtasida xarajatlarni taqsimlash, davlat qarzini boshqarish, byudjet defitsitini qoplash yo'llarini aniqlash va h.k.lar ham byudjet siyosatining vazifalariga kiradi.

Ma'rifiy davlatlarda byudjet qonun tarzida tasdiq-lanadigan hujjat hisoblanadi. Unda davlatning o'z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo'lida to'plangan pul mablag'larining harakati o'z ifodasini topadi. Davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo'naltirish byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Agar maqsadga erishish milliy iqtisodiyot ta'minlaydigan mablag'lardan ko'p mablag' talab etsa, davlat qo'shimcha daromadlarni shakllantirishning quyidagi favquloddagi usullarini qo'llashga majbur bo'ladi: ichki va tashqi kreditlar, milliy boylikni sotish, boylik va mol-mulkni ijaraga berish va kontsessiyalar. Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishning favquloddagi choralari iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik organlari qarz olishning chegarasini oldindan belgilaydi.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning eng muhim yo'na-lishlaridan biri hisoblanadi. Bir necha asr mobaynida zamonaviy moliya fani soliqlarga nisbatan munosabatini aniq belgilash imkoniga ega bo'lgan. Bu munosabatlar quyidagilardan tashkil topadi:

- davlat muayyan miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo'lmasdan to'laqonli faoliyat ko'rsatishi mumkin emas;
- mablag'larni soliq yordamida undirish qat'iy o'sish tendentsiyasiga ega;
- soliq yuklamasining oqilona chegarasidan o'tilganidan so'ng tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi, ya'ni iqtisodiyotning o'z-o'zidan buzilishi (emirilishi) sodir bo'ladi;

- inqiroz davrida soliqlar stavkalari mumkin qadar minimal darajada o’rnatilmog’i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanish imkoniga ega bo’ladi;
- soliq yuklamasining keskin oshib ketishi kapitalning chetga chiqib ketishiga olib kelishi mumkin;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kerak, albatta. Biroq, summar o’lchovlarda sof daromadning 30%dan ortiq qismining soliq sifatida olib qo’yilishi mamlakat iqtisodiy o’sishini to’xtatib qo’yishi mumkin;
- soliq imtiyozlari shaffof bo’lishi va barcha takror ishlab chiqarish sub’yektlari uchun bir xil darajada bo’lishi kerak;
- soliq tizimi konfiskatsion xarakterga ega bo’lmasligi lozim. Faqatgina individual daromadlarning o’sishida ifo-dalangan milliy boylikning o’sishi soliqqa tortiladigan bazaning barqaror o’sishini ta’minlashi mumkin;
- qonunlar va qoidalarning barqarorligini davlat kafolatlagan iqtisodiy tizimda soliqlarning miqdori barqaror o’sish tendentsiyasiga ega bo’ladi. Barqarorlik kafolati sifatida davlat o’zining majburiyatlarini buzishni boshladimi, kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o’tishni boshlab, byudjetning daromadlar bazasini qisqartiraveradi;
- soliq tizimi oddiy, ochiq va samarali bo’lmog’i lozim. Soliqlar sonini, soliqqa tortish ob’ektlarini ko’paytirish, ko’p bosqichli soliqlarni joriy etish soliqlarni undirish bo’yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarima-larning o’sishiga va pirovardida, mulkni qamoqqa olish, soliq to’lovchini kasod deb e’lon qilish va h.k. yo’llar orqali iqtisodiyotning emirilishiga olib keladi;
- soliqqa tortish egri (bilvosita) tizimining ustuvorligi byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtai-nazaridan qulay hisoblanadi. Lekin bu narsa, oxir oqibatda, mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste’molchisi zimmasiga, ya’ni yashash minimumi darajasida yoki ijtimoiy tirikchilik darajasida daromadga ega bo’lgan aholining 80-90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning turli darajalarida iste’-molning nisbatan bir xil darajasiga asoslangan;
- egri (bilvosita) soliqlar tizimining xavfliligi shundaki, bu tizimda aholining asosiy qismidan jamg’ar-malar olib qo’yiladi va bu, o’z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimining

asoslarini buzadi. Egri (bilvosita) soliqlardan voz kechgan AQSh tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir;

- egri (bilvosita) soliqlarni sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlar, zebu-ziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar va boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur;
- daromad va mol-mulkdan olinadigan soliqlar soliq bazasining asosiysi bo'lib hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak. Ularni proportsional soliqqa tortish printsiplariga asosan tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlar shaxsiy tashabbus ko'rsatmasa va jamiyatning ko'pchilik a'zolari samarali mehnat qilmasa, iqtisodiyotni talab darajasida rivojlantirishni ta'minlash qiyin. Soliqlar bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag'batlantirilishini (motivatsiya qilinishini) olib qo'yadi, ya'ni mehnat daromad keltirishi lozim. Bu holda mamlakat iqtisodiyotiga soliq siyosatining ta'siri bevosita namoyon bo'ladi, ya'ni soliq stavkalarining yuqori darajada belgilanishi takror ishlab chiqarish jarayonining investitsion imkoniyatlarini qisqar-tiradi (toraytiradi), jamiyatda iste'mol darajasi pasayadi va bu narsa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari o'sish bazalarining pasayishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning yo'nalishlaridan yana biri pul siyosatidir. Agar muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga (pulning aylanish tezligini hisobga olgan holda) mos kelmasa, pul massasining etmagan qismi qog'oz pullar (pullarning surrogati) hisobidan yoki xorijiy valyuta hisobidan to'ldiriladi. Va, aksincha, agar pul massasi unga bo'lgan talabdan ortiq bo'lsa, yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishi (oqishi) yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo'ladi.

Tabiiy ravishda, bu variantlarning barchasi mamla-katning qonunchiligiga ham bevosita bog'liq, ya'ni mamlakatda xorijiy valyutaning muomalada bo'lishiga ruxsat berila-dimi yoki yo'qmi, milliy valyuta konvertatsiya qilinadimi yoki yo'qmi? va h.k. Mamlakat ichida o'z milliy puli bilan parallel ravishda xorijiy valyutaning muomalada bo'lishi qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunda, eng avvalo, oldi-sotti operatsiyalarining muayyan qismi xorijiy vayutada amalga oshiriladi, buning oqibatida muomalada milliy valyutaning hissasi haqidagi tasavvur butunlay buzilib ketadi. Shunga bog'liq ravishda pul massasi, iqtisodiy ahvol haqidagi raqamlar ham ob'yektiv borliqni buzib ko'rsatadi va h.k.

Tovarlar massasi cheklanganda pul emissiyasi boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.

Emissiya siyosati va milliy valyutaning barqarorligi pul siyosatining yo'nalishlaridir. Emission siyosat muomala uchun zarur bo'lgan pulning miqdorini aniqlashdan tashqari yana boshqa bir yo'nalishga ega. Bu yo'nalish byudjet daromadlarini ko'paytirishdir. Ana shu yo'nalish alohida ehtiyotkorlikni talab etadi. Chunki ma'lum bir miqdoriy chegaradan o'tilganidan so'ng pul tizimi inflyatsiyaga moyil (ta'sirchan) bo'lib qoladi, ya'ni byudjet daromadlarining real qadrsizlanishi sodir bo'lishi mumkin. Agar qandaydir bir sabablarga ko'ra davlat o'z pul tizimini tartibga solishga qodir bo'lmasa, mamlakatning iqtisodiy xavfsiz-ligiga putur etadi. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura olmaydi va milliy boylikdan mahrum bo'lib qolish mumkin (o'zaro hisobga olishlar, aktsiyalarni sotib olish va h.k.lar orqali).

Kredit siyosati ham moliyaviy siyosatning yo'nalishi bo'lib, u mamlakat krediti tizimi orqali amalga oshiriladi. Kredit tizimi ssuda kapitalining faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. O'z navbatida, ssuda kapitali takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishning muhim sharti hisoblanib, aylanma mablag'larni to'ldirish va investi-tsiyalar uchun mablag'larning qarzga olinishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotning kredit sektori o'rtacha foyda normasini tenglashtirish uchun ham xizmat qiladi. Foiz stavkasining darajasi jamiyatdagi iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. U asossiz darajada yuqori bo'lsa, quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- kreditlarning qaytarilmasligi;
- ishlab chiqarish sohasi va xizmatlar sohasida mahsu-lotlar narxining o'sishi;
- qarzga oluvchilar rentabellik darajasining pasayishi va buning oqibatida soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishi;
- ishlab chiqarish hajmining qisqarishi;
- takror ishlab chiqarish jarayoni sub'yektlari daromad-larining pasayishi natijasida ichki iste'mol bozorining torayishi.

Aksincha, kreditning arzonlashuvi ishlab chiqarishning sog'lomlashuviga, tovarlar massasining ortishiga, tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishiga va ana shularning natijasida esa, takror ishlab chiqarish jarayoni sub'yektlari daromadlarining

oshishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga va pirovard natijada byudjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning yo'nalishi sifatida davlatning baho siyosati monopol tovar va xizmatlar bahosi va tarifining tartibga solinishi orqali ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasida ayni davrda erosti boyliklari, suv havzalari, temir yo'llar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlari davlatning monopol egaligidadir. Bu tarmoqlar tovarlari va xizmatlari bahosining o'sishi milliy xo'jalik boshqa barcha tarmoq va sohalarida baho-larning o'sishiga olib keladi. Bu yerda bog'lanish shunchalik ayonki, hech qanday izohga hojat yo'q. Shuning uchun ham baho siyosati iqtisodiyotni tartibga solishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya siyosati moliyaviy siyosatning muhim yo'na-lishlaridan biri bo'lib, u eng avvalo, mamlakat iqtiso-diyotining real sektoriga o'z va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha ishlab chiqilgan va iqtisodiyotga joriy qilinadigan tadbirlar kompleksidan iborat. Bu siyosat davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasini boshqarishning turli darajalarida amalga oshiriladi. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni kiritish, mamlakatdan kapitalning xorijga chiqib ketmasligi va, aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi.

Ijtimoiy moliyaviy siyosat Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat aholisining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq. Hozirgi paytda bu siyosat, o'z navbatida, pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim ijtimoiy guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati va boshqa siyosatlarni o'z ichiga oladi.

Boj siyosatini moliyaviy siyosatning yo'nalishi sifatida qarash bilan birgalikda uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida e'tiborga olish kerak. Chunki soliqlar va bojlar (boj yig'imlari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos bo'lgan usuliga ham egadir. Usulning o'ziga xosligi shundaki, bu siyosat bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan esa, mamla-katdan tovarlar va xizmatlar eksportini rag'batlantirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin. Masalan, mamlakatda o'xshashi bo'lmagan texnologik asbob-uskunani import qilishga yuqori stavkali boj yig'imi o'rnatilsa, bu narsa mamla-katdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion

imkoniyat-larini kamaytiradi, ichki ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini pasaytiradi, import qilinadigan mahsulot-larning salmog'ini oshiradi.

Har qanday mamlakatning boj siyosati bumerang harakatiga egadir. Chunki boj undirishning cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi stavkalarining joriy etilishi ko'p hollarda amaliyotda xuddi shunday javob choralarining qo'llanilishiga olib keladi. Boj siyosati yo'nalishining tanlanishi mamlakatning iqtisodiy ahvoliga mos kelishi kerak. Masalan, bugun mamlakatimiz oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj tovarlarining qaysidir bir turlarini import qilishga majbur bo'lsak, bu holat boj stavkalarida o'z aksini topmog'i lozim. Ammo boj stavkalari rag'batlan-tiruvchi bo'lsa, u holda mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilar xorijiy tovarlar bilan raqobat qila olmay qoladi.

Umuman olganda, aksariyat hollarda mamlakatning boj siyosati bojxona bojlari va to'lovlarini oshirishga yo'naltirilgan byudjet siyosatiga bog'liq bo'ladi.

Xullas, moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari) ilmiy jihatdan asoslangan, ma'lum bir maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan, muvofiqlashtirilgan, takror ishlab chiqarish sub'yektlarining manfaatlariga zid bo'lmaydigan bo'lishi kerak. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat ichki va tashqi qarzlarining kamayishiga, davlatning oltin-valyuta zaxiralarining ortishiga, inflya-tsiyani jilovlashga, byudjet defitsitining kamayishiga, YaIM hajmining ko'payishiga, mamlakatimizda ishlab chiqarila-yotgan mahsulotlar raqobatbardoshligining kuchayishiga olib kelmog'i lozim.

2.3. O'zbekistonning moliyaviy siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlari

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida davlat o'z oldiga qo'ygan vazifalarning mazmuni va talablaridan kelib chiqqan holda moliyaviy siyosatning mazmuni va shakllari ham o'zgarib boradi. Masalan, Sho'rolar moliya-viy siyosati o'zining mohiyati jihatidan tom ma'noda mustamlaka davlatining moliyaviy siyosati edi. Shu sabab sobiq SSSR davrida yuritilgan moliyaviy siyosati O'zbekiston Respublikasining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Sobiq Ittifoq moliyaviy siyosatning yana bir o'ziga xos xususiyati shunda ediki, u davrda mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda moliyaviy siyosatning roliga etarlicha baho berilmadi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida va eng avvalo, iqtisodiy

sohada moliyaviy munosabatlarning roli buzib ko’rsatildi. Moliya va moliyaviy dastaklarning faol roli inkor etilib, moliyaviy siyosat mamlakat oldida turgan muammolarni hal qilishga qaratilgan zarur usullarni ishlab chiqishga ojizlik qilib qoldi. Uzoq davrga mo’ljallangan kontseptsiyalarni ishlab chiqishda iqtisodiy samaradorlik o’rniga ko’proq siyosiy g’oyalarning asos qilib olinishi, shu bois iqtisodiy jihatdan kam samara beradi-gan, qisqa muddatli foyda olishni ko’zlab amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni qiyin ahvolga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasida ayni davrda amal qilayotgan moliyaviy siyosatning mazmunini yaxshiroq tushunib olish uchun sobiq sho’rolar davri hamda mustamlakachilikdan qutulgan davlatlarda moliyaviy siyosatning ayrim jihatlari haqida qisqacha axborot berish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Siyosiy mustaqillikka erishgan davlatning iqtisodiy mustaqil davlatga aylanib ketishi o’z-o’zidan amalga oshib ketaveradigan hodisa emas. Lekin davlat, iqtisodiy, ayniq-sa, moliyaviy mustaqillikka erisha olmasa, uni tom ma’noda mustaqil davlat, deb bo’lmaydi.

Mustamlaka zulmidan qutulgan davlatni moliyaviy qaramlik iskanjasida saqlab qolishdan manfaatdor kuchlar hamisha topiladi. Birinchi navbatda sobiq mustamlakachi davlat va undagi mustamlaka yurt iqtisodiyotini o’z foyda-siga ishlatib yotgan turli guruhlarda shunday intilish bo’ladi. Masalan, XX asr boshida va ikkinchi jahon urushidan so’ng Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida o’nlab davlatlar mustaqillikka erishdi. Lekin siyosiy mustaqillikni qo’lga kiritgan davlatlarning asosiy qismi moliyaviy jihatdan avvalgi mustamlakachi davlatlarga qaramligicha qolaverdi. Mustamlakachi davlatlar esa sobiq mustamlakalari iqti-sodiyotida o’z nufuzlarini saqlab qolish, ularda moliyaviy mustaqillikka erishish uchun qilinayotgan xatti-harakatlarga zimdan zarba berish, ilm-fan rivojiga to’sqinlik qilib, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va yuqori intellektni talab qiladigan sohalari taraqqiyotini cheklash, ularni arzon ishchi kuchi va xomashyo mintaqalari sifatida saqlab qolish uchun turli vositalar o’ylab topishdi.

Masalan, rivojlangan davlatlar va yirik transmilliy kompaniyalar mahsulot sotish va xizmat ko’rsatish xalqaro bozorini o’zaro taqsimlab olishdi. Ular bu sohada tartib - intizom o’rnatishdek olijanob g’oya ostida turli xalqaro savdo-iqtisodiy tashkilotlar tuzishdi. Yosh, rivojlanayotgan davlatlardan birida har taraflama sifatli, bejirim mahsulot ishlab chiqarildi, deb faraz qilaylik. Jahon

bozorining “xo’jayinlari” yangi mahsulot egasiga ular bilan kelishmasdan, ya’ni daromadning ma’lum qismini birgalik-da baham ko’rmasdan, xalqaro bozorga chiqishga imkon bermaslikka harakat qila boshlashdi.

Ba’zan siyosiy mustaqil, iqtisodiy rivojlanish dara-jasi baland davlatlarning moliyaviy mustaqillikni qo’ldan boy berib qo’yish hollari ham uchraydi. Bunday hodisa turli sabablarga ko’ra yuz berishi mumkin. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Gonkong, Argentina, Rossiya kabi davlatlar 1997-1998 yillarda moliyaviy inqiroz holatiga tushib qolishdi va bu hodisa mazkur davlatlar moliyaviy mustaqilligiga juda katta salbiy ta’sir ko’rsatdi. Ayrim davlatlar, xalqaro moliya-viy idoralardan o’nlab milliard dollar miqdorida qarz olishga majbur bo’ldi va shu qarzni to’lab qutilgunlariga qadar amalda mustaqil moliyaviy siyosat o’tkazish huquqini yo’qotishdi.

Bu ro’yxatga tushib qolgan Janubiy Koreya tezda avvalgi mavqeini tiklab olishga muvaffaq bo’ldi. Negaki, koreys millatida vatanparvarlik va Vatanning istiqboli uchun fidoyilik juda kuchli ekanligi ma’lum bo’ldi. Koreya Respublikasida mamlakatning moliyaviy mavqeini tiklash bo’yicha umumxalq harakati boshlanib ketdi. Jumladan, ixtiyoriy suratda tilla va zeb-ziynat buyumlarni yig’ish va davlatga tekinga topshirish boshlandi. Birgina “DEU” kontserni jamoasi yarim kunning o’zida 45 kilogramm oltin yig’di. Mamlakat bo’yicha bu raqam juda katta miqdorni tashkil etdi.

2008 yili AQSh ipoteka banki tizimida boshlangan inqiroz butun dunyoni qamrab oldi. Mazkur iqtisodiy inqiroz iqtisodiyotni bozor munosabatlarining o’zlari tar-tibga solishi kerak, davlatning iqtisodiyotga iloji boricha aralashmasligi maqsadga muvofiq, degan nazariy qarash va amaliy xatti-harakatlar noto’g’ri ekanligini ko’rsatdi. Eng muhimi esa, jahonning rivojlangan davlatlari moliya siyo-satida juda katta xatolar bor ekanligi ma’lum bo’ldi va uni tubdan isloh qilish zaruriyati kun tartibiga qo’yildi.

Ayrim davlatlarning iqtisodiy rivoji ma’lum bir sohalargagina bog’lanib qolgan. Faqat turizm, qazilma boy-liklar, xomashyo qazib chiqarish bilan xalqaro iqtisodiy makonda o’z o’rnini topgan davlatlar bunga misol bo’la oladi. Mazkur sohalarga keskin ta’sir ko’rsata oladigan voqea-larning yuz berishi (konlarning tugashi, qurg’oqchilik yoki suv toshqini, sayyohlik marshrutlarining o’zgarishi va h.k.lar) natijasida mamlakat moliyaviy siyosatining mazmuni va shakllari keskin o’zgarishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, eng katta tabiiy boylik-lar ham hamisha mustaqil moliyaviy siyosat yuritish va iqti-sodiy taraqqiyotni ta'minlashga etarli zamin bo'la olmaydi. Agar shunday bo'lganda, Rossiya, Braziliya, Meksika, Argen-tina kabi davlatlar jahonning eng boy mamlakatlari bo'li-shi kerak edi. Holbuki, ular turli davrlarda dunyodagi eng ko'p qarzi bor davlatlar ro'yxatining birinchi o'ntaligidan joy olishgan (Rossiya 2000 yillarga kelibgina bu ro'yxatdan chiqa oldi). Qazilma boyliklari deyarli bo'lmagan Yaponiya esa ularga eng ko'p qarz bergan davlatlardan biri hisoblanadi.

Keltirilgan misollardagi kabi salbiy holatlar yuz bermasligining oldini olishda oqilona tanlangan va amalga oshirilgan moliyaviy siyosatning ahamiyati juda katta bo'ladi.

O'zbekiston tom ma'nodagi mustamlaka mamlakat edi. Bu yerda yaratilgan boylik to'laligicha Moskva ixtiyoriga tashib ketilib, xuddi shu boylikning kichik bir qismi ortga qaytib berilardi. Lekin bu qaytish endi go'yoki Ittifoq hukuma-tining o'zini o'zi boqishga qodir bo'lmagan xalqqa "yordami" edi. O'zbekistondan olib ketilayotgan boyliklarning buxgal-teriya hisob-kitoblari ham Moskvada yuritilar va yaratila-yotgan daromadlar miqdorini o'zbekistonliklar bilmasligi uchun turli vosita hamda usullar o'ylab topilgan edi.

Shu bois mustaqillikka erishish arafasida, ya'ni 1989-1991 yillarda O'zbekiston davlat byudjeti daromadining 30-40 foizi sobiq Ittifoqdan qaytib beriladigan subven-tsiyadan iborat edi. Lekin, 1988 yildagi hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistondan olib ketilgan bir yillik paxta tolasi-ning o'zidangina 25 milliard rubl daromad olingan, ya'ni bu miqdor bizga "subventsiya"ga berilgan 2,5 milliard rubl-dan 10 baravar ko'p edi.

1991 byudjet yilida O'zbekiston uchun yanada og'ir moli-yaviy ahvol yuzaga keldi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati SSSR davlat byudjetiga Rossiya hududidan yig'ib olinadigan mablag'ning tushishini to'xtatib qo'ydi. Mazkur holat Ittifoq byudjetidan O'zbekistonga qaytishi mo'ljallangan subventsiya hajmining oldinroq qisqara boshlashiga, keyin esa butunlay to'xtashiga olib keldi. O'zbekiston davlat byudjeti va iqtisodiyoti butunlay izdan chiqib ketish xavfi ostida qoldi.

Shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, O'zbekiston Res-publikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan kundan bosh-lab mustaqil moliyaviy siyosat yurita boshladi. O'zbekiston rahbariyati xalqaro moliyaviy maydonga biz barcha bilan faqat teng huquqli, o'zaro foydali shartlar asosida iqtiso-diy hamkorlik qilishga

tayyormiz, degan pozitsiya bilan chiqdi. Endigina mustaqillikka erishgan davlatlar rahbarlarining faqat yordam so’rab murojaat etishlariga o’rganib qolgan xalqaro moliya tashkilotlari rahbarlari uchun O‘zbekiston Respublikasining mustaqil moliyaviy siyosat kutilmagan hol edi. Aslida mustaqillikni endigina qo’lga kiritgan mamlakat tashqi moliyaviy yordamga muhtoj edi.

Bir vaqtning o’zida mustaqil O‘zbekistonning mustaqil moliya, bank va soliq tizimiga asos solish rejali iqtiso-diyotdan bozor iqtisodiyotiga o’tish ob’yektiv zaruriyatga ay-langan murakkab bir sharoitga to’g’ri keldi va bu masalalar ham o’z echimini topdi.

Mustaqil moliya, bank va soliq tizimlarini barpo etish sohasida o’tkazilgan tadbirlarni bir necha guruhlarga bo’lish mumkin. Buning uchun birinchi navbatda moliya, soliq va bank tizimini mutlaqo yangi asoslarda barpo etish uchun zaruriy huquqiy asos yaratildi.

Mustaqil davlatchilik talablari asosida va yangi qonun-chilik negizida bu sohaning boshqaruv organlari butunlay qaytadan tashkil etildi. Masalan, moliya vazirligi tizimi tubdan qayta tashkil etilgan bo’lsa, Davlat soliq qo’mitasi butunlay yangidan barpo qilindi. SSSR Davlat banki O‘zbe-kiston filiali negizida O‘zbekiston Respublikasi mustaqil Markaziy banki, SSSR davlat ixtisoslashtirilgan tarmoq banklari O‘zbekiston filiallari asosida paychilikka asos-langan tijorat banklari tuzildi. Aralash mulk va xususiy mulkchilikka asoslangan o’nglab yangi tijorat banklari tashkil topdi.

Yuqorida sanab o’tilgan chora-tadbirlar natijasida 1991-1992 yillar mobaynida mustaqil davlatga xos bo’lgan moliya, soliq va bank tizimlari shakllana boshladi. O‘z daromadimizdan oqilona foydalanish evaziga, xarajat-larimizni qiyinchiliklar bilan bo’lsa-da, o’zimiz qoplay boshladik. Bu davrga kelib, mamlakatimizda bozor iqtiso-diyotini barpo etishning asosiy strategik masalalari, uning tamoyillari ishlab chiqildi.

Har qanday mustaqil davlat o’zining mustaqil pul birligiga ega bo’lishni xohlaydi va bu mustaqil davlat-chilikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Lekin sobiq SSSR hududida endigina mustaqillikka erishgan davlatlar o’sha paytdagi sharoitda to o’z milliy pul tizimlarini barpo etgunga qadar “rubl”dan umumiy holda foydalanib turishlari iqtisodiy zaruriyat edi. Boshqa chora yo’q ham edi. Chunki siyosiy mustaqillikka erishilgani bilan sobiq ittifoqdosh respublikalarning bir-biriga qaram qilib tashlangan iqtisodiyotlari bir kunda mustaqil yashab keta olmasdi. Natijada Hamdo’stlik davlatlarining ko’pchi-ligi to o’z valyutasini kiritishga etarli sharoit yaratgunga qadar “yagona rubl hududi”da qolishga xohish bildirishdi

va ular 1992 yil oktyabrda “yagona rubl hududi” to’g’risidagi bitimni imzolashdi. Keyin O‘zbekiston va Rossiya hukumat-lari, Markaziy banklari pul tizimlarini birlashtirish haqidagi ikki tomonlama shartnomaga qo’l qo’yishdi.

1993 yil namunasidagi yangi rubllar O‘zbekiston hududiga etib kelgandan keyin mazkur bitim va kelishuvlar Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan bir tomonlama to’xtatildi.

Bundan sal oldinroq, ya’ni 1993 yilning 10 mayida Qirg’iziston to’satdan o’z milliy valyutasi – somni muomalaga kiritdi. Xolbuki, Hamdo’stlik davlatlaridan birortasi o’z milliy pul birligiga o’tishga qaror qilsa, bu haqda boshqa a’zolarni uch oy oldin rasman ogohlantirish shartligi haqida maxsus davlatlararo bitim bor edi.

Qirg’izistonda rubl o’rniga somning muomalaga kiritilishi va Rossiya Federatsiyasi shartnomalarni bekor qilishi tufayli 1993 yil kuziga kelib, yagona rubl hududi yaratish g’oyasi barbod bo’ldi.

Bu hodisa Hamdo’stlik davlatlari iqtisodiyotiga katta zarar etkazdi, iqtisodiy islohotlar samarasini sezilarli darajada pasaytirib yubordi, uning ilk natijalarini yo’qqa chiqardi. O‘zbekistonda endigina shakllanib kela boshlagan moliya va pul muomalasi tizimini qaytadan jar qirg’og’iga keltirib qo’ydi. Mamlakat iqtisodiy hayoti o’z maromida davom etishi uchun zarur vositalardan biri bo’lmish pul tizimi va pul birligisiz qoldi. Iqtisodiy hayot qisqa muddat ichida yana bir bor butunlay izdan chiqish xavfi ostida qoldi.

Zudlik bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 12 noyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida parallel to’lov vositasi sifatida “So’m-kupon”larni muomalaga kiritish to’g’risida”gi qarori asosida 15 noyabrdan boshlab so’m kuponlar muomalaga kiritildi. “So’m – kupon”larning 1, 3, 5 va 10 so’mliklari Angliyada ishlangan bo’lsa, 25, 50, 100 so’mlikdan 10 ming so’mlikkacha bo’lgan qismi o’z pul fabrikamizda bosib chiqarildi.

Pul belgilarini ishlab chiqish g’oyatda murakkab, ko’p mehnat va yuqori aniqlik talab etadigan jarayon bo’lib, unga erishish yuksak texnik va texnologik tayyorgarlikni taqozo qiladi. O‘ta qisqa fursat ichida, ya’ni 1993 yildayoq zamonaviy texnika va texnologiya asosida pul, boshqa qimmatli qog’oz va tanga ishlab chiqara oladigan “Davlat belgisi” davlat ishlab chiqarish birlashmasi qurib ishga tushirildi.

“Yagona rubl hududi”si g’oyasi barbod bo’lganligiga bog’liq ko’plab salbiy oqibatlarni bartaraf etishni so’m-kuponlar o’z ustiga oldi va o’ta qisqa fursat ichida O‘zbekiston o’zining to’laqonli pul

birligi – so’mni 1994 yil 1 iyuldan muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy sharoit yarata oldi.

Milliy valyutaning muomalaga kiritilishi mamlakat-ning moliyaviy siyosat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

Shu davrda O‘zbekistonda mustaqil moliya asoslarini yaratish jarayoniga noxush ta’sir ko’rsatgan yana bir voqea yuz berdi. Rossiya Federatsiyasi hukumati o’zini sobiq SSSRning barcha sohalar bo’yicha qonuniy merosxo’ri, deb e’lon qildi. Natijada uzoq yillar mobaynida sobiq ittifoqdosh respublikalar aholisi mehnati evaziga yaratilgan barcha boylik ular ixtiyoriga o’tib ketdi. Jumladan, aholining sobiq SSSR jamg’arma banki tizimida saqlanayotgan omonat-lari (o’sha paytda bu muassasa hali eski nomi bilan “omonat kassalari” deb atalar edi) Rossiya ixtiyoriga olib qo’yildi.

O‘zbekistonda milliy valyutaga o’tish masalasida “tadrijiy” usuldan foydalanildi. 1993 yil 15 noyabrda milliy valyutani joriy etishning tayyorgarlik bosqichi, ya’ni oraliq to’lov vositasi – “so’m-kupon”ga o’tildi. Rossiya rubllari o’rniga “so’m-kupon” muomalaga kirishi bilan eski puldan darhol voz kechilgani yo’q. Daromadlarini rublda jamg’arib kelgan aholiga uni oxirigacha ishlatish mikoniyati berildi. Almashtirish miqdori 200 ming rubl qilib belgilandi, undan ortiq qismi bankda mazkur shaxsning nomiga jamg’arma sifatida rasmiylashtirildi. Vaholanki, o’z milliy valyutasiga o’ta boshlagan Hamdo’stlik davlat-larining ko’pchiligida eski rubllarning 20, 30, 50 ming, eng ko’pi bilan 100 ming almashtirildi, undan ortiq qismi xalq qo’lida oddiy qog’oz sifatida qolib ketdi.

Mamlakatimizda pul almashtirishi bilanoq, pensiya, stipendiya, nafaqa va ish haqi yangi “so’m-kupon”da berila boshladi. Yaqindagina 20 foizga oshirilgan ish haqi yana 50 foizga ko’paytirildi.

Milliy pul birligini joriy etish bilan bog’liq ob’yektiv qiyinchiliklarni yumshatish masalasi shu taxlit chora-tadbirlar yordamida amalga oshirildi va 1994 yil 1 iyuldan “so’m-kupon” o’rniga haqiqiy valyuta – so’mga o’tildi.

O‘zbekistonda milliy valyutani darhol muomalaga kiri-tish va birdaniga uning erkin almashinuvini ta’minlash yo’lidan borilmadi. O‘zbek so’mining ichki konvertatsiyasi 2003 yil 15 oktyabrdan boshlandi. Lekin u hali tom ma’nodagi ichki konvertatsiya emas, balki katta cheklovlarga ega edi.

Aslida hech qanday cheklovsiz, xohlagan paytda xohlagan miqdordagi pulni xohlagan tarzda konvertatsiya qilish hech bir

davlatda mumkin emas va jahonda bunday valyutaning o’zi yo’q. Masalan, AQSh yoki Angliyaga ularning bir qop pulini ko’tarib kelsangiz, hech qaysi bank uni qabul qilmaydi. Siz eng avvalo, olib borgan pulingizni qayerda va qanday ishlab topganligingiz haqida, ya’ni uning manbai haqida hujjat taqdim etishingiz shart. Mana shu ham cheklovning bir ko’rinishi. Bunga o’xshash cheklovlar juda ko’p. Masalan, valyu-tasi to’la konvertatsiya qilinadigan davlatlarda narkobiz-nes, o’g’irlik, fohishabozlik, qurol-yarog’ni noqonuniy tarzda sotish kabi juda ko’p holatlarda topilgan pulni boshqa valyutaga konvertatsiya qilish mutlaqo taqiqlangan, ularni ishlatishga ham yo’l qo’yilmaydi.

Demak, hamma gap cheklovlarning mazmuni, shakli va miqdorida. Shu pozitsiyadan qaraydigan bo’lsak, 2003-2017 yillarda mamlakatimizda xalqning yuqori turmush darajasini ta’minlashga qodir rivojlangan bozor iqtisodiyoti barpo etish jarayoniga xizmat qiladigan holatlarda milliy valyuta muayyan miqdorda konvertatsiya qilib kelindi. Masalan, eksportga mahsulot chiqaradigan yoki import o’rnini bosadigan yuqori sifatli mahsulot yarata-yotgan yoki shunday xizmat ko’rsatayotgan xo’jalik yuritish sub’-ektlari rasman so’mni erkin almashtirish huquqiga ega edilar.

Bunday manzilli konvertatsiya usuli yordamida erkin almashinadigan valyutani kamroq sarflab, ko’proq natijaga erishish ko’zda tutilgan edi. Shunday usul bilan mamlakatda o’nlab yangi tarmoq va sohalarga asos solindi, ma’naviy va jismoniy jihatdan eskirib qolgan minglab ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy, yuqori unumli texnika va texnolo-giya bilan jihozlandi.

Mustaqillik yillari moliyaviy siyosat haqida so’z yurit-ganda uning quyidagi o’ziga xos tomonlariga alohida urg’u berish kerak bo’ladi.

Dastlab ma’muriy-buyruqbozlik tamoyillari asosiga o’rnatilgan mustamlaka davri iqtisodiyotini isloh qilish, ma’rifiy bozor iqtisodiyotini qurishning o’ziga xos nazariyasi yaratildi. Bunda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyili asosida O‘zbekistonda dav-lat bosh islohotchi sifatida maydonga chiqdi. Bu esa tota-litar iqtisodiyot asoslari sindirilayotgan, yangisi endigina shakllanayotgan sharoitda jamiyatda boshqaruv tizimining mutlaqo buzilib ketmasligini ta’minlashga xizmat qildi.

Shuningdek, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharo-itda inflyatsiya, ishsizlik, daromadlar notekis taqsimla-nishi kabi bozor iqtisodiyotiga xos ayrim salbiy holatlar-ning aholi turmush darajasiga noxush ta’sirini kamaytirish imkoniyatini yaratdi. Davlatning bosh islohotchiligi tufayli zamonaviy korxonalar, yangi sohalar paydo

bo'ldi, ular yordamida va mavjud tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan mustaqil davlatning mustaqil iqtisodiyoti asoslari barpo etildi.

Hamdo'stlik davlatlarining ko'pchiligida o'zini o'zi stixiyali suratda boshqaradigan bozor iqtisodiyotini barpo etish yo'lidagi urinishlari samarasiz tugadi. Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, mashhur iqtisodchilarning mamlakat iqtisodiyotini 500, 300, hatto 100 kun ichida qayta qurish kabi g'oyalari aslida puch ekanligi tezda isbotlandi.

Totalitar tuzum davrida mulkning 90 foizdan ortig'i davlatga tegishli edi. Bunga barham berish va mulkchilikning turli shakllaridan foydalanish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Qator davlatlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning shoshilinch usullarini tanlashdi. Masalan, uning vaucher usulini amalga oshirgan Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarda mamlakat iqtisodiy asosini tashkil qiladigan eng yirik korxonalar arzon-garovga turli guruh yoki alohida shaxslar ixtiyoriga o'tib ketdi.

Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, Rossiyada narxni sun'iy ravishda pasaytirish tufayli birgina neft sanoati korxonalarini xususiylashtirishdan hukumat eng kamida 150 milliard AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan.[24] Buning ustiga xususiylashgan korxonalar daromadlari bugun xalqning emas, yangi xo'jayinlarning cho'ntagini to'ldirmoqda.

Yuqorida bayon etilgan holatlar O'zbekistonning 1992-2016 yillar mobaynida yurgizgan moliyaviy siyosatning mazmuni va uning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib beradi. Bu davr moliyaviy siyosatning eng muhim natijasi shu ediki, qisqa fursatda mustaqil davlatning mustaqil moliyaviy tizim va shunga mos keladigan moliyaviy siyosat yaratildi. Tubdan yangilangan moliyaviy siyosat O'zbekiston Respublikasi mustaqil iqtisodiyotining asoslarini yaratishga muhim hissa qo'shdi.

Lekin bir paytning o'zida 1992-2016 yillar mobaynida amal qilgan moliyaviy siyosatning qator xato va kamchi-liklari ham bor edi. Ya'ni bu davrda qog'ozda rasman iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi haqida bong urilgan bo'lsa-da, amalda ba'zan buning teskari hollari ham yuz berganligi haqiqiy bozor iqtisodiyotini barpo etish jarayoniga halaqit berdi. Shunga mos ravishda moliyaviy siyosat ham o'zibilarmonlik, jahonning ilg'or tajribasini inkor etish, ko'rsatkichlarni oshirib ko'rsatish kabi illatlarning qurboni bo'ldi. Moliyaviy ko'rsatkichlar ijtimoiy va iqtisodiy hayotning haqiqiy

[24] "Trud" gazetasi, 1999 yil 18 noyabr.

ahvolini bo'yab ko'rsatish siyosatining muhim vositalaridan biriga aylandi. Natijada soxta moliyaviy ko'rsatkichlar jamiyatdagi haqiqiy ahvolni noto'g'ri ko'rsata boshladi. Moliyaviy ko'rsat-kichlarning katta qismi "xizmat doirasida foydalanish uchun", eng muhimlari esa hatto "maxfiy" belgisi ostiga yashirildi, ya'ni ko'pchilik ular bilan tanishish imkoniyatidan mahrum etildi.

Bu masalada tub ijobiy burilish 2016 yili yuz berdi. O'zbekiston Prezidenti lavozimiga Shavkat Mirziyoev saylanishi bilan mamlakatimiz iqtisodiy hayotida yangi davr boshlandi. 1992-2016 yillik davrda moliyaviy siyosatda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish sari yo'l tutildi.

O'zbekistonda 2016 yildan boshlangan yangi tarixiy davrda moliyaviy siyosatni tubdan o'zgartirib yuborgan qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari tayyorlandi va kuchga kirdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Preziden-tining 2017 yil 7 fevralda imzolangan "2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"[25] da mamlakatimiz moliyaviy siyosatni yanada takomillashti-rish, ba'zi o'rinlarda esa butunlay qayta tashkil etish talablari qo'yildi.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, iqtisodiy islohotlar-ning yangi bosqichida O'zbekistonda moliyaviy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjeti moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlash;
- byudjet daromadlari va xarajatlarining ochiq, shaffof va oshkora bo'lishini tashkil etish;
- davlat xarajatlarini birinchi navbatda modernizatsiya qilish va tegishli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish asosida iqtisodiyotni innovatsion asosda rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirish;
- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash;
- davlat byudjeti defitsitini yo'l qo'yilgan eng kam daraja doirasida (YaIMning 3-4%i atrofida) cheklashga yo'naltirilgan qat'iy moliyaviy siyosatni amalga oshirish;
- mahalliy byudjetlarning daromad qismini yanada mustahkamlash va byudjetlararo munosabatlarni takomil-lashtirish;
- byudjet intizomiga qat'iy rioya qilish;

[25] "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi". 2017 yil 7 fevralda imzolangan O'zbekiston Respublikasi Prezi-dentining PF-4947-sonli Farmoni.

- davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga biriktirish, mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini mustahkamlash;
- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, aholining konstitutsiya bilan kafolatlangan huquqlarini himoya qilishni ta'minlovchi moliyaviy bazani yaratish, erkin mehnat va ishbilarmonlik asosida aholi turmush daraja-sini keskin oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- soliq yuklamasini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini yanada soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish;
- soliq kontseptsiyasi va siyosatini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish maqsadida:

  - soliq tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlan-tiruvchi ta'sirini oshirish;

  - korxonalar zimmasidagi soliq yuklamasini kamay-tirish, qo'shilgan qiymat va foyda solig'i stavkalarini kamaytirish va shu asosda ishlab chiqarishni jonlantirishga turtki berish;

  - soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini takomillashtirish;
- soliq siyosati belgilab bergan chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etuvchi tegishli moliya-soliq mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashni yanada kengaytirish orqali kredit siyosatini takomillashtirish;
- milliy valyutani haqiqiy konvertatsiya qilishni joriy etish, pul almashuv tartibini yanada soddalashtirish, so'mning barqarorligini ta'minlash;
- ijtimoiy himoyaning manzilli bo'lishiga, moliyaviy mablag'larning ijtimoiy yordamga haqiqatda muhtoj aholi qatlamlariga etib borishini ta'minlash;
- mahalliy byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan umumdavlat soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz moliyaviy siyosat muam-molari qatoriga uning hayot (davr) bilan hamnafasligini, uning davlatimiz rivojlanishining 2016 yildan keskin o'zgargan sharoitlariga tezda moslasha olishini ta'minlash, o'z echimini kutayotgan vazifalarni hal

etish uchun kerakli usullarni o’z vaqtida topa bilish, strategik kontseptual echimlarni ishlab chiqish, mablag’larga qarab yashash talabiga rioya etilishini ta’minlash, fuqarolar ijtimoiy talab-ehtiyojlarini qondirishning moliyaviy bazasini (asosini) belgilashda qoldik yondashuvidan (usulidan) ijtimoiy xarajatlarning manzilliligini ta’minlashga o’tish kabi tadbirlar kiradi.

Davlatning yangi moliyaviy siyosat kontseptsiyasining ayni davrdagi maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini butun choralar bilan oshirish asosida jamiyat a’zolarining turmush farovonligi darajasini keskin oshirishni ta’minlashdan iborat. Moliya strategiyasining ijtimoiy yo’naltirilganligi xalq farovonligini oshirishga ajratiladigan moliya resurs-larini ko’paytirish imkoniyatlarini qidirib topishda namoyon bo’libgina qolmay, balki iqtisodiy siyosatning bosh maqsadiga butunlay yangicha yondoshuvda ham namoyon bo’ladi va endilikda aholi turmush darajasi va ishlab chiqarishning o’sishi hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo’nalishlarini belgilaydi.

Ijtimoiy himoya, birinchi navbatda, kam ta’minlangan fuqarolarni, shuningdek, byudjet tashkilotlari xodimla-rini ijtimoiy himoya qilishni ham nazarda tutadi. Ijtimoiy himoya, eng avvalo, daromadlarni indeksatsiyalash usuli yordamida, ya’ni, byudjet mablag’lari hisobiga, ba’zan esa kompensatsiyalarni iste’mol indeksiga muvofiq oshirish yo’li bilan ta’minlanadi.

Jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy sohasiga moliyaviy ta’sir o’tkazishning asosiy uslublari bo’lib soliq solish, moliya resurslaridan mohirona va oqilona foyda-lanish, moliyalashtirish, moliya bozori va boshqalar hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti hozirgi bosqichining moliyaviy siyosat moliya strategiyasi talablari asosida va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Xo’jalik yuritishning turli-tuman shakllaridan foyda-lanish jamoat talab-ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish, resurslarni tejash, mahsulot assortimenti va texnika bazasini yangilash, mehnat jamoalarining ijtimoiy muammo-larini hal etishi yo’lida raqobatni rivojlantirish, tashabbuskorlik ko’rsatish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarni qondirishga yo’nalti-riladigan moliya resurslarining o’sishiga, eng avvalo, rentabelli faoliyat ko’rsatish orqali erishiladi. Biroq siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoit o’zgarishi bilan davlat xarajatlari miqdori doimo o’sib boradi. Shu munosabat bilan hozirgi moliyaviy siyosat davlat moliya

resurslarining muntazam o’sishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Byudjetga tushayotgan to’lovlar hajmini oshirishning zarurligi xo’jalik bo’g’inlarining ishchan faolligini jonlantirishga qaratilgan moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishini talab qiladi.

Moliyaviy siyosatni faollashtirish maqsadida moliya-viy resurslarni qayta taqsimlash amaliyotini tubdan o’zgartirish katta ahamiyatga ega. Byudjet vositasida, shuningdek, yuqori tashkilotlar orqali amalga oshiriladigan «vertikal» uslubga qarama-qarshi moliyaviy resurslarni moliya bozori orqali «gorizontal» qayta taqsimlash ham borgan sari yanada keng rivoj topadi. Mablag’larning o’tkazib turilishi esa moliyaviy resurslardan talab va taklifdan kelib chiqqan holda foydalanishni nazarda tutadi.

Moliya bozorining rivojlanishi munosabati bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun aholi, korxona va tashkilot-larning pul daromadlari va jamg’armalarini yanada kengroq jalb etish zarur. Shu munosabat bilan Davlat obligatsiyalari va xazina biletlarini chiqarish ham davlat resurslarining hajmini ko’paytiradi.

Moliyaviy siyosat real moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi zarur. Xarajatlar miqdori moliya resurslari ko’paygani-dagina o’sishi mumkin. Bu, eng avvalo, ishlab chiqarishni moliyalashtirishni bildiradi. Iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hamma tadbirlari, bir tomondan, aholiga o’z daromadlarini oshirish imkoniyatini berish, ikkinchi tomondan esa, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirpsh uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilishi kerak.

Moliyaviy siyosatning tubdan o’zgarishiga mos ravishda moliya mexanizmi ham qayta qurilmog’i lozim. Moliya mexanizmini qayta qurishning maqsadi bozor munosabatlari asosida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga uning ta’sirini kuchaytirish, moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni ta’minlashdir. Moliya mexanizmini qayta qurish negizida korxona, tashkilotlar ishining yakuniy natijalarini yaxshilash uchun xo’jalik tashabbuskorligi va mas’uliyatini butun choralar bilan kuchaytirish talab qilinadi.

Bozor iqtisodiyotida korxonalarning ishlab chiqarish omillaridan iloji boricha yaxshiroq foydalanishdan manfaatdorligini oshirish uchun alohida moliyaviy uslub-lardan foydalanish zarurati yo’qoladi. Bozor raqobati korxonalarni ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy resurslardan foydalanish ustidan ichki xo’jalik moliya

nazoratini chuqurlashtirish haqida doimo g’amxo’rlik qilishga majbur qiladi. Shu bilan bir vaqtning o’zida davlat tomonidan bozor munosabatlarini moliyaviy boshqarishning ahamiyati ham oshadi. Moliyaviy boshqarish korxonalarga soliq solish, qo’shimcha soliqlarni (masalan, eksport va import solig’ini) kiritish, mehnatkashlar daromadlariga soliq solish, maqsadli dasturlarni moliyalashtirish vositasida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat parametrlarini buzganlik uchun, atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha talablarning sanitariya norma va qoidalariga rioya qilmaslik uchun moliyaviy jarimalar tizimiga talabchanlik oshiriladi. Davlat byud-jeti va byudjetdan tashqari jamg’armalar oldidagi moliya-viy majburiyatlarni o’z vaqtida bajarmaslik yoki to’liq bajarmaslik, foyda va boshqa soliq solish ob’ektlarini yashirganlik uchun jarima (sanktsiya)larning darajasi va miqdori kuchaytiriladi. Auditorlik moliya nazorati keng rivoj topmog’i lozim.

Boj siyosati hozirgi kunda mamlakat ichki bozoriga past sifatli, inson salomatligiga putur etkazuvchi tovarlarning kirib kelishini oldini olish va ilg’or texnologiyalar, fan-texnika yutuqlari natijalarining mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilishini rag’batlantirish vazifalarini bajarishi talab etiladi.

Aholiga ijtimoiy xizmat ko’rsatishni yaxshilash maqsa-dida ijtimoiy soha muassasalari va tashkilotlarida yangi xo’jalik mexanizmi joriy etilyapti. Ijtimoiy soha muassasalariga pulli xizmat ko’rsatish, xo’jalik faoliyati bilan shug’ullanish, olingan daromadlarni mustaqil tasar-ruf etish huquqi yanada kengaytirildi.

Davlat moliya mexanizmiga tub o’zgarishlar kiritildi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish soliq aso-siga o’tkazildi, byudjet daromadlari tarkibi va byudjetdan moliyalashtirish tizimi butunlay o’zgardi. Byudjetdan tashqari jamg’armalar tizimi keng tarqaldi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi mulkiy va shaxsiy sug’urtani tashkil etish va boshqarish sohasida ijobiy natijalarga olib keldi: kooperativ (shirkat) sug’urtasi rivojlanyapti, aktsiyadorlik sug’urta jamiyatlari vujudga kelyapti, sug’urtaning yangi turlari paydo bo’layapti.

2017 yilning 5 sentyabrida mamlakatimiz moliyaviy siyosatda muhim voqea yuz berdi. Chunki aynan shu kuni milliy pul birligimiz so’mni xorijiy valyutalarga konvertatsiya qilishni erkinlashtirish sohasida katta ahamiyat kasb etadigan qadam tashlandi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 2 sentyabrda imzo-lagan «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo’yicha

birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida[26]»gi farmoni bilan mamlakatimizda valyuta munosabatlarini tartibga soladigan yuridik va jismoniy shaxslar xorijiy valyutani erkin sotish hamda sotib olishga imkon beradigan yangi bozor mexanizmini joriy qilish boshlandi. Yangi tartibga ko'ra, endi milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan ayirboshlash kursi valyuta birjasining banklararo elektron savdolarida valyutaga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda shakllantiriladigan bo'ldi. 2017 yil 5 sentyabrda ushbu mexanizm ta'sirida shakllangan so'mning AQSh dollariga nisbatan ayirboshlash kursi 8100 so'm miqdorida belgilandi. Valyutani konvertatsiya qilish-ning yangi mexanizmi bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradi.

Xullas, mamlakatimizda 2016 yili yangi iqtisodiy sharoit talablaridan kelib chiqqan holda moliyaviy siyosatni takomillashtirish jarayoni boshlandi va u izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Nima uchun moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy elementlardan biri hisoblanadi?
- Moliyaviy siyosatning ta'rifini aytib bering.
- Siyosat, siyosiy ta'sir va siyosiy rahbarlik qanday elementlardan tarkib topadi?
- Moliyaviy siyosatga oid uch mantiqiy xulosalarni tushuntirib bering.
- Moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
- Moliyaviy siyosatning eng asosiy maqsadi bo'lib nimalar hisoblanadi?
- Korxona moliyaviy siyosatining maqsadini aytib bering.
- Moliyaviy siyosat nima orqali amalga oshiriladi va uning faoliyati qanday tamoyillar asosida tashkil etiladi?
- Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy metodologik tamoyillarini aytib bering.
- Moliyaviy siyosatning natijaliligi qanday sabablarga bog'liq?
- Moliyaviy siyosat, eng avvalo, nimaga yo'naltirilgan bo'lishi kerak va nima uchun?

---

[26] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017 yil 2 sentyabrda imzolagan «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

- Moliyaviy siyosatning mazmuni, uning asosiy yo'nalishlari nimalar orqali namoyon bo'ladi?
- Mumtoz siyosiy iqtisod asoschilari bo'lgan A.Smit va D.Rikardolar moliyaviy siyosatga oid kontseptsiyalarining mohiyatini tushuntirib bering.
- XX asrning 20-yillari oxirlaridan boshlab keynschilik nazariy kontseptsiyasiga muvofiq moliyaviy siyosatning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
- XX asrning 70-yillarida iqtisodiy nazariyaning neoklassik yo'nalishi moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan qanday xususiyatlarini belgilab berdi?
- Sho'rolar davlatida va sotsialistik orientatsiyada bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan belgilari nimalardan iborat bo'lgan?
- II jahon urushidan keyingi yillarda Sovet davlatining moliyaviy siyosatini tushuntirib bering.
- Moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy resurs-larni taqsimlash va qayta taqsimlashning negizida qanday printsiplarning yotishi muhim ahamiyatga ega?
- Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlariga (yo'nalish-lariga) nimalar kiradi?
- Qanday besh yo'nalishlarning yig'indisi (majmui) davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladigan moliyaviy siyosatni aniqlab beradi?
- Moliyaviy siyosatning yo'nalishi sifatida davlatning byudjet siyosati qanday aniqlanadi va uning mazmuni nimalardan iborat?
- Zamonaviy moliya fani soliqlarga nisbatan muno-sabatini aniq belgilash imkoniga ega bo'lgan. Bu muno-sabatlar nimalardan tashkil topadi?
- Moliyaviy siyosatning yo'nalishlaridan yana biri bo'lgan pul siyosatining o'ziga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarini tushuntirib bering.
- Moliyaviy siyosatning yo'nalishi bo'lgan kredit siyosa-tining mazmunini va uning amalga oshirilish yo'lini aytib bering.
- Amalga oshirilayotgan kredit siyosatiga muvofiq foiz stavkasi asossiz darajada yuqori bo'lsa, u qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
- Moliyaviy siyosatning yo'nalishi sifatida davlatning baho siyosati nimalar orqali ifodalanadi?

- Investitsiya siyosati moliyaviy siyosatning yo’nalish-laridan biri sifatida qanday tadbirlar kompleksidan iborat bo’lishi mumkin?
- Moliyaviy siyosatning yo’nalishi sifatida ijtimoiy siyosat yana siyosatning qanday ko’rinishlarini o’z ichiga oladi?
- Boj siyosatining mazmuni va uning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlari nimalardan iborat?
- Sobiq Ittifoq moliyaviy siyosatning mohiyati nimada edi?
- O‘zbekistonda mustaqil moliyaviy tizimni tashkil etish qanday amalga oshirildi?
- Milliy valyutani muomalaga kiritish tarixini aytib bering.
- Valyuta konvertatsiyasining ilk va chegaralangan tartibi qanday amal qildi?
- “Yagona rubl hududi”ni tashkil etish g’oyasi nega amalga oshmadi?
- 1993-1994 yillarda amalga oshirilgan milliy valyu-tani joriy etish qanday tashkil etilgan?
- 1992-2016 yillar mobaynida amal qilgan moliyaviy siyosatning o’ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
- 2003-2017 yillar davrida amal qilgan valyuta konvertatsiyasining yutuq va kamchiliklari nimalarda edi?
- “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi” da ishlab chiqilgan davlat moliyaviy siyosatning maqsadi va vazifalarini nimalar tashkil etadi?
- 2016 yildan boshlangan iqtisodiy taraqqiyotning yangi davrida moliyaviy siyosatning vazifalari va o’ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017 yil 2 sentyabrda imzolagan «Valyuta siyosatini liberallash-tirish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’ri-sida”gi Farmonining mazmunini gapirib bering.

3-bob. Moliyaviy tizim
3.1. Moliyaviy tizimning sohalari va bo'g'inlari

Faoliyat jarayonida turli pul fondlari(dan) shakllana-digan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlar turli sohalarining majmui moliyaviy tizim deyiladi. Unga boshqacha ham ta'rif berish mumkin: davlat va korxona-larning pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliyaviy tizim deyiladi. Unga yana quyida ta'rifni ham berish mumkin: Xo'jalik sub'yektlari, uy xo'jaliklari, davlat va maxsus moliya institutlarining pul mablag'larini taqsimlaydigan va ishlatadigan moliya munosabatlarining bir-biri bilan bog'liq va birgalikda harakat qiladigan kategoriyalari, bo'g'inlari va sohalarining yig'indisi moliyaviy tizim deyiladi".

"Moliyaviy tizim" tushunchasi keng ma'nodagi "moliya" tushunchasining taraqqiyoti natijasidir. Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va printsipial jihatdan butunlay yangi bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliyaviy tizimning sohalari va bo'g'inlariga nisbatan ob'yektiv ravishda yangicha yondoshuvni taqozo etdi. Unga muvofiq ravishda, dastlab, moliyaviy tizim quyidagi ikki sohaga bo'linadi[27]:

- davlat moliyasi va mahalliy moliya;
- xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi.

O'z navbatida, moliyaviy tizimning har bir sohasi pul fondlari va daromadlarni shakllantirishning konkret shakllari va metodlariga bog'liq ravishda bir necha bo'g'inlardan tashkil topadi. Masalan, davlat moliyasi va mahalliy moliya quyidagi bo'g'inlardan tashkil topishi mumkin:

- davlat byudjeti;
- byudjetdan tashqari davlat maqsadli fondlari;
- davlat krediti.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi quyidagi bo'g'inlardan iborat:

- tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi;

---

[27] Sovetlar davridagi tegishli darsliklarda moliyaviy tizimning sohalari, ko'pchilik hollarda, ikki xil tarzda talqin qilingan edi. Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) maktabining vakillari (Aleksandrov A.M., Voznesenskiy E.A., Jevtyak P.N., Romanovskiy M.V., Kolesnikov V.I. va boshqalar) fikriga ko'ra, moliyaviy tizim odatda, ikki sohadan, ya'ni 1) korxonalar va xalq xo'jaligi tarmoqlari moliyasi hamda 2) umumdavlat moliyasidan iborat bo'lgan. Moskva maktabining vakillari (Shermenev M.K., Nikolskiy P.S, Molyakov D.S., Rodionova V.M., Guyda T.V. va boshqalar) fikricha esa, moliyaviy tizimning sohalari kuyidagilardan tashkil topgan: 1) moddiy ishlab chiqarish sohasi moliyasi; 2) Davlat byudjeti; 3) noishlab chiqarish sohasi moliyasi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ularning har ikkalasi ham SSSRning iqtisodiy bazisiga va u tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy siyosatga mazmunan mos kelgan edi.

- moliyaviy vositachilar moliyasi;
- notijorat tashkilotlari moliyasi.

Yuqorida keltirilganlarni chizmali ko'rinishda quyi-dagicha ifodalash mumkin:



3.1.1-chizma. Moliyaviy tizimning sohalari va bo'g'inlari

Moliyaviy tizimning alohida sohalar va bo'g'inlarga bo'linishi YaIMni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda iqtisodiy munosabatlar sub'yektlarining bir-birlaridan farqli ravishda ishtirok etishi bilan belgilanadi. Moliyaviy tizimning har bir sohasi va bo'g'iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning o'ziga xos bo'lgan shakllari va metodlari tegishlidir. Masalan, korxonalar moliyasi moddiy ishlab chiqarishga, YaIMni yaratishga, uni korxonalar o'rtasida taqsimlashga va YaIM bir qismining byudjet va nobyudjet fondlariga qayta taqsimlashga

xizmat qiladi. Davlat byudjeti orqali resurslar davlatning markazlash-tirilgan fondiga jalb qilinadi va ular hududlar, tarmoqlar va aholining turli ijtimoiy guruhlari o’rtasida qayta taqsimlanadi.

Moliyaviy tizim “davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo’g’ini sifatida davlat byudjeti o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- respublika byudjeti;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.

O‘z navbatida, Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog’iston Respublikasiga bo’ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlaridan tarkib topadi. Viloyatning byudjeti esa viloyat byudjetini va viloyatga bo’ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o’z ichiga oladi. Shuningdek, tumanlarga bo’linadigan shaharning byudjeti shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlaridan iborat. Va nihoyat, tumanga bo’ysunadigan shaharlari bo’lgan tumanning byudjeti tuman byudjetidan va tuman bo’ysunuvidagi shaharlar byudjetidan tashkil topadi.

Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida davlat byudjeti o’z oldida turgan quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- daromadlar asosini mustahkamlash;
- byudjet daromadlari va xarajatlari ochiq va shaffof bo’lishini ta’minlash;
- modernizatsiya qilish va zarur tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish negizida davlat xarajatlari tarkibida iqtisodiyotni innovatsion usulda rivojlanish xarajatlariga ustuvorlik berish;
- soliqlarni umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo’lish tartibini qayta ko’rib chiqish negizida mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirish;
- byudjet defitsiti darajasini kamaytirish;
- byudjet yordamida tartibga solish mexanizmini tako-millashtirish;
- G’aznachilik tizimi ishini takomillashtirish, byudjet mablag’laridan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va h.k..

Byudjetdan tashqari davlat maqsadli fondlari (davlat maqsadli fondlari) oldindan belgilangan ma’lum muddat-larda tuzilishi yoki doimiy ravishda mavjud bo’lishi mumkin. Bu fondlarning vujudga kelishi davlat byud-jetining qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligidan qat’iy nazar mablag’lar maqsadli manbaining zarurligi bilan belgilanadi. Birinchi navbatda, bu ijtimoiy ta’minot, sog’liqni saqlash,

ishsizlikni kamaytirish va boshqa xuddi shunday bir qancha muhim ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga tegishlidir. Bu fondlar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish davlat tomonidan o'ziga xos bo'lgan shakllar va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ularni moliyaviy tizimning "davlat moliyasi va mahalliy moliya" sohasining alohida bo'g'ini sifatida ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

Mablag'lardan foydalanishning maqsadli yo'naltiril-ganligi belgisi bo'yicha byudjetdan tashqari davlat maxsus fondlarini quyidagi ikki guruhga bo'lish mumkin:

- ijtimoiy mo'ljallangan (yo'nalishga ega bo'lgan) davlat maxsus fondlari;
- tarmoqlararo va tarmoq xarakteriga ega bo'lgan davlat maxsus fondlari.

Ayrim hollarda hududiy yo'naltirilgan(mo'ljallangan) davlat maqsadli fondlari tashkil qilinishi mumkin.

Davlat maqsadli fondlari moliyaviy tizim "davlat moliyasi va mahalliy moliya" sohasining alohida bo'g'ini sifatida quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Respublika yo'l fondi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining maxsus hisobvarag'i;
- Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat fondi;
- O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya fondi.

Davlat maxsus fondlari tarkibida katta miqdordagi mablag'larning to'planganligi sharoitida davlat moliyaviy nazoratining susayishi bu mablag'lardan samarasiz foyda-lanishga va su'istemol qilish holatlarining sodir etili-shiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida ularni davlat byudjetiga jamlash (konsolidatsiya qilish) maqsadga muvofiqdir. Bunda byudjetga jamlangan fondlarning maqsadli yo'nalishi o'zgartirilmasdan saqla-nib qolishi ta'minlanishi lozim.

Davlat krediti moliyaviy tizim "davlat moliyasi va mahalliy moliya" sohasining o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi davlatning markazlashtirilgan fond-lariga mablag'larni jalb qilish bo'yicha moliya-kredit munosabatlarining alohida shakllari bilan belgilanadi. Davlat krediti davlat, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi pul munosabatlarining o'ziga xos alohida shaklidan

iboratdir. Bunda davlat , asosan, mablag'larni qarzga oluvchi va shuningdek, kreditor va garant (kafil) sifatida ham maydonga chiqadi.

Davlat kreditida mablag'larni qarz oluvchi sifatida davlatning hissasi miqdoriy jihatdan ustunlik qiladi. Davlatning kreditor sifatidagi operatsiyalari, ya'ni davlat yuridik va jismoniy shaxslarga ssudalar taqdim qilganda yoki garant (kafil) bo'lganda, ancha torroq bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan moliyalashtirish ham qaytariluvchanlik va to'lovlilik (haq asosida) sharti bilan amalga oshirilsa, keng rivoj topishi mumkin.

Hozirgi sharoitda davlat kreditining zarurligi davlat xarajatlarining davlat o'z daromadlari bazasini kengay-tirish imkoniyatlariga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi bilan bog'liq bo'lib, bu narsa byudjet defitsiti sharoitida rejalashtirilgan byudjet xarajatlarining qoplanishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit va moliyaviy siyosatlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi moliyaviy tizimning "davlat moliyasi va mahalliy moliya" bo'g'ini to'g'risidagi an'anaviy tasavvurlar kengayishi va keng mo'noda hamda uni zamonaviy tushunishga muvofiq ravishda Markaziy bank tizimini ham o'z tarkibiga qo'shmog'i lozim.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi moliyaviy tizim-ning mustaqil sohasi hisoblanadi. Uni boshqacha nomda mulkchilikning turli shaklidagi korxona va tashkilotlar moliyasi deb ham atash mumkin. Moliyaviy tizimning ana shu sohasida daromadlarning asosiy qismi shakllanadi va ular, oxir oqibatda davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarga muvofiq ravishda qayta taqsimlanib, barcha darajadagi byudjetlar va nobyudjet fondlarining daromadlarini shakllantiradi. Bir vaqtning o'zida byudjet mablag'larining katta qismi to'g'ridan-to'g'ri byudjetdan moliyalashtirish, byudjet ssudalari va davlat kafolatlari shaklida korxonalarning joriy va investitsion faoliyatlarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, moliyaviy tizimning bu sohasi tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi, moliyaviy vositachilar moliyasi va notijorat tashkilotlar moliyasi kabi bo'g'inlardan tashkil topadi. Bu guruhga kiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy munosabatlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, daromadlar va xarajatlarni shaklantirish, mulkka egalik qilish, o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarish shakllariga bog'liq ravishda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga egadir. Bir vaqtning o'zida, tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi muhim ahamiyat kasb etib, aynan shu yerda

moliyaviy resurslarning asosiy qismi shakllantiriladi. Mamlakat-ning umumiy moliyaviy ahvoli ana shu korxonalar moliya-sining ahvoli bilan belgilanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'zlarining faoliyatlarini tijoriy hisob asosida amalga oshiradilar. Unga muvofiq ravishda ularning xarajatlari o'z daro-madlari hisobidan qoplanishi kerak. Mehnat jamoalari ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishining asosiy manbai foyda hisoblanadi.

Bu soha korxonalari real ravishda moliyaviy musta-qillikka ega, mahsulotni sotishdan olingan tushumni ularning o'zi mustaqil ravishda taqsimlaydi, o'zlarining ixtiyoriga ko'ra foydadan foydalanadilar, ishlab chiqarish va ijtimoiy fondlarni shakllantiradilar, moliyaviy bozorning resurslaridan, ya'ni bank kreditlari, obliga-tsiyalar emissiyasi, depozit sertifikatlari va boshqa vositalardan foydalangan holda investitsiyalar uchun zarur bo'lgan mablag'larni qidirib topadilar.

Korxonalar davlatning mayda-chuyda aralashuvidan ozod bo'lib, shu bilan birgalikda, ishning iqtisodiy va moliyaviy natijalari uchun ularning mas'uliyati ham keskin oshi-rilgan.

Bir vaqtning o'zida mamlakatning xo'jalik tizimi murakkab tuzilmadan iborat bo'lib, u aralash iqtisodiyot sifatida faoliyat ko'rsatadi. Uning tarkibida foyda olishga qaratilgan biznes sohasi bilan bir qatorda iqtisodiyotning boshqa sohalari ham mavjudki, ularning faoliyati ijtimoiy farovonlikka erishishga yo'naltirilgan. Bularning tarkibiga davlat sektoridan tashqari ba'zi mamlakatlarda katta masshtablarga ega bo'lgan va nisbatan yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan notijorat sektori ham kiradi. Hozirgi sharoitda notijorat sektori tashkilot-larining yuqori sur'atlarda tez o'sib borayotganligi, bir tomondan, jamiyatni demokratlashtirish siyosiy jarayon-larining rivojlanishi va ikkinchi tomondan, bozor iqtiso-diyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi (bu holat bizning mamlakatimiz uchun xarakterlidir) bilan bog'liq.

Notijorat tashkilotlari yuridik shaxs bo'lib, foyda olish ularning asosiy maqsadi emas va ularda olingan foyda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanmaydi. Ularning qatoriga ijtimoiy, xayr-ehson, madaniy, ma'rifiy, ilmiy, boshqaruv, sog'liqni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, fuqarolar va tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni yechish, yuridik xizmatlar ko'rsatish va shunga o'xshash boshqa maqsadlarga erishish uchun tashkil etilgan tashkilotlar kiradi. Notijorat tashkilotlarning oldiga qo'yilgan maqsadlar xilma-xil

bo'lganligi uchun bu sohaning juda keng va rang-barang bo'lishi, tabiiydir. Notijorat sohaning bir guruh korxonalari, asosan, o'z a'zolarining iqtisodiy manfaatlariga, ma'lum toifadagi shaxslarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning bu sohasi[28], odatda, davlat sektorining birinchi, tijorat sektorining ikkinchi ekanligi inobatga olingan holda uchinchi sektor deb ham yuritiladi[29].

Turli mamlakatlar iqtisodiyotida tarixiy an'analar va iqtisodiy taraqqiyot bosqichlariga muvofiq ravishda notijorat sektor faoliyatining masshtablari bir-biridan farq qiladi. Biroq, qator miqdoriy ko'rsatkichlarning tahlili bu sektorning taraqqiy topayotganligidan dalolat beradi. Notijorat soha holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- **notijorat tashkilotlarining soni**. 2000-yillar bosh-larida Yevropa mamlakatlarida har 1000 kishiga 4ta noti-jorat tashkiloti to'g'ri kelgan edi. Finlyandiya shu ma'noda rekordchi hisoblanib, bu yerda har 1000 kishiga 21tadan to'g'ri keluvchi notijorat tashkilotlari mavjud bo'lgan. Bu ko'rsatkichning darajasi Rossiyada 3,3ga teng edi.
- **notijorat tashkilotlari ta'minlaydigan aholining bandlilik darajasi**. Bu tashkilotlar, ma'lum ma'noda, muhim ish beruvchilar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda bu sektorda ishchi kuchining o'rtacha 3,4% ishlaydi (Vengriyada – 1%dan boshlab, AQShda – 7%gacha). Notijorat tashkilot-larning faoliyat ko'rsatishi iqtisodiyotning boshqa sektor-larida faol ravishda qo'shimcha ish o'rinlarining yarati-lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu tashkilotlar tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar bo'lganligi uchun, oxir oqibatda, bu narsa tadbirkorlik faoliyatining faolla-shuviga olib keladi;
- **notijorat tashkilotlarining operativ xarajatlari**. 2000-yillar boshida bu ko'rsatkich yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 3,5%ini tashkil etgan (Vengriyada – 1,2%, AQShda – 6,3%). Rossiyada bu raqam 2%ga teng bo'lgan.

Hozirgi sharoitda notijorat sektor katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'la borib, bu yerda moliyaviy va inson resurslarining sezilarli qismi

---

[28] O'tgan asr 90-yillarining boshida amerikalik oilalarning 70%dan ortiqrog'i har yili xayr-ehson maqsadlariga xayriya qilganlar va ularning bu badallari o'rtacha ular yillik daromadlarining 2%dan ko'prog'ini tashkil etgan. Buyuk Britaniya aholisi esa har yili xayr-ehson tashkilotlariga qariyb 4,5 mlrd. funt sterlingni berishadiki, o'rtacha xayr-ehson badali uy xo'jaligi daromadining 0,7%iga tengdir. (Qarang: Finansi, nalogi i kredit. Uchebnik. Izd. 2-e, dop. i pererab. /Pod red. d.e.n., prof. I.D.Matskulyaka. – M.: Izd-vo RAGS, 2007. s.183).

[29] AQSh katta yoshdagi aholisining taxminan 54% ixtiyoriy ishlarga haftasiga 4 soatni, Buyuk Britaniyada aholining 30% ixtiyoriy xizmatlarga haftasiga 1,1 soatni, Kanadada katta yoshdagi aholining 27% shunday ishlarga haftasiga 3,7 soatni sarf qilishadi. (Qarang: o'sha erda).

to’planmoqda va u zamo-naviy bozor munosabatlari tizimida muhim ish beruvchiga aylanib bormoqda.

Notijorat asosda xo’jalik yuritishning asosiy xususi-yatlari quyidagilardan iborat:

- faoliyatning foyda olishga emas, balki ma’lum bir missiyaga erishishga yo’naltirilganligi;
- e’lon qilingan maqsadlarga erishish uchun olingan foydadan vosita sifatida foydalanish;
- bozor xo’jaligining iqtisodiy samaradorligi va faoli-yatning ijtimoiy samaradorligini birgalikda qo’shib olib borish.

Notijorat tashkilotlari faoliyatining moliyaviy man-balari quyidagi besh asosiy guruhdan tashkil topadi:

- byudjet mablag’lari;
- tijorat faoliyati:
  - tovar, ish va xizmatlarni sotishdan olingan tushum;
  - aktsiyalar, obligatsiyalar, boshqa qimmatli qog’ozlar va omonatlar bo’yicha olinadigan daromadlar;
  - notijorat tashkilotning mulkidan, notijorat tashki-lotlarining yordami asosida tuzilgan xo’jalik jamiyat-larining faoliyatidan olinadigan daromadlar;
- tijorat tuzilmalari va xususiy shaxslarning homiylik yordamlari;
- ta’sischilardan doimiy ravishda va bir vaqtning o’zida tushib turishi mumkin bo’lgan tushilmalar;
- qonun bilan ta’qiqlanmagan boshqa tushilmalar (masa-lan, ko’ngillilarning mehnat sarflari, resurslarni jalb qilish bo’yicha o’tkazilgan tadbirlar (lotereyalar, auktsion-lar, ko’ngilxo’shlik, madaniy, sport va boshqa ommaviy tadbirlardan)dan kelgan tushilmalar.

Turli mamlakatlarda notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilmasi turli-chadir. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda xususiy xayriyalarning miqdori keyingi yillarda 1%dan (Yaponiyada) 20%gacha (AQShda) oraliqda bo’lgan va o’rtacha 11%ni tashkil etgan. Hukumat ajratmalarining salmog’i esa 26%dan (Germaniya) 71%gacha bo’lib, uning o’rtacha darajasi 48%ga teng bo’lgan. Notijorat tashkilotlarining o’zlari tomonidan ishlab topilgan mablag’larning salmog’i 23%dan (Vengriya) 71%gacha tebranib, uning o’rtacha darajasi 41% atrofida edi.

Notijorat faoliyatni moliyaviy jihatdan tartibga solishning shakllari, ularning davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorligi har bir mamlakatning tegishli qonunlari yordamida

amalga oshiriladi. Ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bevosita va bilvosita shakl-larda amalga oshirilishi mumkin.

Notijorat sektorni davlat tomonidan bevosita qo'l-lab-quvvatlashning uch asosiy shakli mavjud:

- to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) byudjet investitsiyalari;
- hamkorlikda moliyalashtirish;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi.

Notijorat sektorni bilvosita moliyalashtirish shakli-dan ham, ya'ni notijorat tashkilotlarini davlat va mahalliy hokimiyat organlari oldidagi to'lovlari va boshqa shunga o'xshash majburiyatlaridan ozod qilish shaklidan ham amaliyotda tez-tez foydalaniladi. Bilvosita moliyalash-tirishning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- soliq xarakteriga ega bo'lmagan imtiyozlar;
- soliqlardan imtiyozlar;
- boshqa imtiyozlar.

Soliq to'lashda imtiyoz berish quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- xayriya qiluvchilar uchun imtiyozlar;
- homiylik qiluvchi yuridik shaxslar uchun imtiyozlar.

Boshqa imtiyozlar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'-ladi:

- notijorat tashkilotlarining faoliyati uchun binolarni ijaraga olish, er maydonlarini ajratish;
- litsenziyalashtirishning soddalashtirilgan tizimini joriy etish;
- aloqa xizmatlari va kommunal xizmatlarni to'lashda imtiyozli tariflardan foydalanish;
- va boshqalar.

Davlat organlari notijorat tashkilotlarining fao-liyatiga aralashish, agar ularning sarflanishi tashkilotning maqsadlariga mos kelayotgan bo'lsa, xarajatlarning yo'na-lishiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega emas.

3.2. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliyaviy tizimi

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat moliyaviy tizimi moliyaviy munosabatlarning quyidagi bo'g'inlaridan iborat:

- davlat byudjeti tizimi;
- davlat krediti va mahalliy hokimiyat organlari kre-ditlari, federativ davlatlarda esa – federatsiya a'zo-larining krediti;

- maxsus fondlar;
- davlat korporatsiyalari moliyasi.

Bu davlatlarda byudjet tizimining tarkibiy tuzilishi (tuzilmasi), eng avvalo, davlat tuzilishiga (qurilmasiga) bog'liq. Unitar (yagona) davlatlarda byudjet tizimi quyidagi ikki bo'g'indan iborat:

- davlat byudjeti;
- ko'p sonli mahalliy byudjetlar (shaharlar, okruglar, qishloq okruglari byudjeti).

Unitar shakldagi xorijiy davlatlarda mahalliy byudjetlar o'zlarining daromadlari va xarajatlari bilan davlat byudjetining tarkibiga kirmaydi.

Federativ davlatlarda byudjet tizimi uch bo'g'indan tarkib topgan:

- davlat byudjeti (federal byudjet, markaziy hukumat byudjeti);
- federatsiya a'zolari byudjetlari (AQShda – shtatlar byudjeti, Kanadada – provintsiyalar byudjeti, GFRda – erlar byudjeti, Shveytsariyada – kantonlar byudjeti va h.k.);
- mahalliy byudjetlar.

Mahalliy byudjetlar o'zlarining daromadlari va xarajatlari bilan federatsiya a'zolarining byudjetlariga va ular ham, o'z navbatida, davlat federal byudjetining tarkibiga kirmaydi.

Rivojlangan yetakchi xorijiy mamlakatlar moliyaviy tizimning yetakchi bo'g'inlaridan biri davlat byudjetidir. U davlat va o'z-o'zini boshqarish hududiy organlarining funk-tsiyalari va vazifalarini moliyaviy ta'minlashga mo'ljal-langan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va unday foydalanishning shaklidan iboratdir.

Davlat byudjeti mamlakatning joriy yildagi asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib, qonun kuchiga egadir. U har yili mamlakatning qonunchilik hokimiyat organi – parlament tomonidan tasdiqlanadi. Favqulodda vaziyatlarda (urushlar, iqtisodiy tanazzullar va h.k.lar davrida) hukumat davlat byudjetining mablag'lariga tayanadi va ular yordamida davlat xarajatlarini qoplaydi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat byudjeti ular MDini qayta taqsimlashning asosiy instrumentidir. Moliyaviy tizimning bu bo'g'ini orqali mamlakat MDining 40% gacha bo'lgan qismi qayta taqsimlanadi.

Davlat byudjetining asosiy daromadlari soliqlardan iborat bo'lib, ular yordamida byudjet daromadlarining 70% dan 90% gacha va ayrim davrlarda undan ham ko'proq qismi shakllantiriladi. Bozor

iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarda asosiy soliqlar hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq, aktsizlar, qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona bojlari davlat byudjetiga birik-tirilgan.

Davlat byudjetidan harbiy maqsadlarga mo'ljallangan xarajatlar, iqtisodiyotga aralashuv xarajatlari, davlat apparatini saqlash xarajatlari, ijtimoiy xarajatlar, subsidiyalar amalga oshiriladi va rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar taqdim etiladi. Bir vaqtning o'zida, davlat byudjeti mahalliy hokimiyat organlariga, hukumat maxsus fondlariga va davlat korxonalariga subsidiyalar va kreditlar berish orqali mamlakat moliyaviy tizimning barcha bo'g'inlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar ko'pchiligining davlat byudjetlari uchun doimiy ravishdagi byudjet defitsiti xos bo'lib, u davlat zayomlari hisobidan qoplanadi. Davlat zayomlarining muomalaga chiqarilishi davlat qarzining o'sishiga olib keladi. Davlat qarzi oldin chiqarilgan va hozirgi paytga qadar qaytarilmagan (uzilmagan) barcha davlat zayomlarining foizlari bilan qo'shib hisoblagandagi umumiy summasidan iborat.

Hududiy moliya yetakchi xorijiy mamlakatlar moliyaviy tizimning ikkinchi bo'g'inidir. Bu federativ davlatlarda federatsiya a'zolarining moliyasi va federatsiya a'zolari hamda munitsipalitetlarga tegishli bo'lgan mahalliy byudjetlar, korxonalar moliyasidan iborat.

Federatsiya a'zolarining daromadlari to'g'risidagi masala har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda yechiladi. Masalan, AQShda shtatlar byudjetlariga egri (bilvosita) soliqlar va eng avvalo, sotuvdan olinadigan soliqlar biriktirilgan bo'lsa, GFRda asosiy to'g'ri (bevosita) soliqlar bo'yicha tushumlar – aholidan olinadigan daromad solig'i va korporatsiyalardan olinadigan foyda solig'i 50%:50% nisbatda federal byudjet va erlarning byudjeti o'rtasida bo'linadi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar moliyaviy tizimning uchinchi bo'g'ini davlat krediti hisoblanadi. Bu bir tomondan, davlat va ikkinchi tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi kredit munosabatlaridan iborat bo'lib, unga ko'ra davlat va boshqaruvning mahalliy organlari, asosan, mablag'larni qarzga oluvchilar sifatida maydonga chiqadi. Davlat zayomlari va mahalliy zayomlar, odatda, byudjet defitsiti mavjud bo'lsa, ya'ni odatdagi daromadlar davlatning xarajatlarini qoplamasa muomalaga chiqariladi.

Mahalliy byudjetlarga ikkinchi darajali ahamiyat kasb etuvchi soliqlar (asosan, mulkiy soliqlar) biriktirilgan. Ijtimoiy maqsadlarga

yo’naltiriladigan mablag’larning salmog’i mahalliy byudjetlarda davlat byudjetiga nisbatan ancha yuqori. Bu byudjetlar ham doimiy ravishda defitsitli bo’lib, ular Davlat byudjetidan hukumat kafolati ostida subsidiya va kreditlar yo’li bilan kerakli mablag’larni oladi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar davlat moliyasining muhim bo’g’inlaridan yana biri bu byudjetdan tashqari maqsadli fondlardir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakat-larda eng yirik byudjetdan tashqari maxsus fondlarning orasida milliy mug’urta fondlari alohida o’rinni egallaydi. Bu fondlar korxona xodimlari va tadbirkor-larning sug’urta badallari hamda davlat byudjetidan beriladigan dotatsiyalar hisobidan tashkil topadi. Milliy sug’urta fondlarining mablag’lari yosh, nogironlik va boquvchisini yo’qotgan hollar bo’yicha pensiyalarni to’lashga, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo’qotgani, homiladorligi, ishsizligi va h.k.lar bo’yicha nafaqalar berishga sarf-lanadi. Bunda mablag’larning asosiy qismi yosh bo’yicha pensiyalarni to’lashga yo’naltiriladi. Barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pensiyaning miqdori ish haqi va to’langan sug’urta badallarining miqdoriga nisbatan belgilanadi.

Masalan, AQShda pensiya ta’minoti tizimi 1935 yil qabul qilingan qonunga binoan joriy etilgan va bu tizim ba’zi bir o’zgarishlar bilan hozirgacha amal qilib kelayapti. Pensiya ta’minoti tizimi doimiy band bo’lgan yollanma xodimlar va o’z-o’zi bilan band bo’lgan shaxslarga nisbatan qo’llaniladi. Temir yo’l tizimida, federal xizmatda, shtatlar va mahalliy hokimiyat organlarida xizmat qilganlar uchun pensiya ta’minotining maxsus tizimi amal qiladi.

Pensiya ta’minoti tizimini moliyalashtirish manbai milliy sug’urta fondi bo’lib, bu fond AQSh federal byudjetining tarkibiga kiradi.

Qarilik bo’yicha pensiya 65 yoshdan (qisqartirilgan miqdorda – 62-64 yoshdan) boshlab to’lanadi. Pensiyani olish uchun minimal darajadagi sug’urta stajiga ega bo’lmoq lozim, ya’ni 40 chorak – 10 yil davomida sug’urta badallarini to’lash kerak.

Pensiyaning miqdori 22 yoshdan 62 yoshgacha sug’urta qilin-gan shaxs tomonidan olingan ish haqining o’rtacha miqdoriga nisbatan hisoblanadi (eng kam ish haqi olingan 5 yilni chegirgan holda). Pensiyaning o’rtacha miqdori o’rtacha maosh-ning 40% ini, past darajadagi daromadga ega bo’lgan shaxslar uchun esa 60% ni tashkil etadi. 65-69 yoshlarda pensiya uchun murojaat qilinganda, ana shu narsani rag’batlantirish uchun, pensiyaning miqdori har oyiga 0,5% ga , ya’ni yiliga 6% ga oshiriladi. Hayot qiymatining darajasiga muvofiq ravishda pensiya avtomatik ravishda

indensatsiya qilinadi. Pensionerning qaramog'idagilar uchun qarilik pensiyasining 50% i miqdorida qo'shimcha to'lanadi.

AQShda pensionerlar tekin tibbiy yordam, tekin dori-darmon, oziq-ovqatning yirik paketi, 100 dollar chegarasi-gacha miqdori past kvartira haqi kabi qo'shimcha imtiyozlarga ega.

GFRda yangi pensiya tizimi 1992 yilning 1 yanvaridan joriy etilgan. Boshqa yetakchi xorijiy mamlakatlar singari bu yerda ham pensiyaning miqdori o'rtacha ish haqi va to'langan sug'urta badallarning miqdoriga bog'liq. Bu yerda davlat pensiya ta'minoti tizimi yetakchi rol o'ynaydi.

Italiyada pensiya islohoti 1995 yilda o'tkazilgan. Unga muvofiq o'zgaruvchan pensiya yoshi joriy etilgan.

Ispaniyada rasmiy ravishdagi pensiya yoshi 65 yil bo'lsa-da, haqiqatda uning darajasi 63 yilga teng. Chunki ispanlarning 70%i qonunda ko'zda tutilgan muddatdan oldinroq pensiyaga chiqadi.

Ayni davrda pensiya ta'minoti xarajatlari YaIMga nisbatan Ispaniyada -7,5%, Avstriyada - 14,8%, Fransiyada – 11,8%, GFRda - 10,8%, Buyuk Britaniyada – 9,5%ni tashkil etadi.

Davlat korxonalari moliyasi yetakchi xorijiy davlatlar moliyaviy tizimning bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu korxonalar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida Ikkinchi jahon urushidan so'ng va 1945-1950 yillarda temir yo'l va havo transporti, energetika tarmog'i va boshqa tarmoqlar korxonalarining milliylashtirilishi munosabati bilan ancha rivojlana boshladi. O'sha paytlarda bu tarmoqlar texnikaviy jihatdan o'ta qoloq va raqobatga chidamsiz edi. Ularni modernizatsiya qilish va yangilash juda katta miqdordagi mablag'larni talab etdiki, bu mablag'lar Davlat byudjeti, ya'ni soliq to'lovchilar hisobidan ajratildi. Bu tarmoqlar modernizatsiya qilinganligi va texnikaviy jihatdan ilg'or bo'lishiga qaramasdan, moliyaviy jihatdan, ular hamon past rentabelli yoki zararga ishlaydigan bo'lib qolaverishdi. Davlat korxonalari moliyaviy holati og'ir-ligining asosiy sababchisi ular mahsulotlariga nisbatan past baholar siyosatining yurgizilayotganligidir.

O'tgan asrning 80-yillarida yetakchi xorijiy mamlakatlar hukmron doiralarining yangi iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga ko'ra ko'pgina davlat tarmoqlari va korxonalari xususiylashtirildi va bu narsa davlat mulkining miqdorini keskin kamaytirdi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Moliyaviy tizim deb nimaga aytiladi va unga nisbatan qanday ta'riflarni berish mumkin?
- Moliyaviy tizim, dastlab, qanday sohalarga bo'linadi?

- Davlat moliyasi va mahalliy moliya qanday bo’g’inlardan tashkil topishi mumkin?
- Xo’jalik yurituvchi sub’yektlar moliyasi qanday bo’g’in-lardan iborat?
- Moliyaviy tizim “davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo’g’ini sifatida davlat byudjeti o’z ichiga nimalarni oladi?
- Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida davlat byudjeti o’z oldida turgan qanday muammolarni hal etishi kerak?
- Mablag’lardan foydalanishning maqsadli yo’naltiril-ganligi belgisi bo’yicha davlat maxsus fondlarini qanday ikki guruhga bo’lish mumkin?
- Davlat maxsus fondlari moliyaviy tizim “davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo’g’ini sifatida qanday fondlardan iborat bo’lishi mumkin?
- Nega davlat krediti moliyaviy tizim “davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining o’ziga xos bo’g’ini hisob-lanadi va unga tegishli bo’lgan xususiyatlar nimalardan iborat?
- Xo’jalik yurituvchi sub’yektlar moliyasi moliyaviy tizimning mustaqil sohasi sifatida qanday bo’g’inlardan tashkil topgan?
- Notijorat asosda xo’jalik yuritishning asosiy xususi-yatlari nimalardan iborat?
- Notijorat tashkilotlari faoliyatining moliyaviy manbalarini qanday asosiy guruhga ajratish mumkin?
- Notijorat sektorni davlat tomonidan bevosita qo’llab-quvvatlashning qanday asosiy shakllari mavjud?
- Notijorat sektorni bilvosita moliyalashtirishning asosiy ko’rinishlari haqida so’zlab bering.
- Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat moliyaviy tizimi moliyaviy munosabatlarning qanday bo’g’in-laridan iborat?
- Unitar (yagona) davlatlarda byudjet tizimi qanday bo’g’inlardan tashkil topadi?
- Federativ davlatlarda byudjet tizimi qanday bo’g’inlardan tarkib topgan?
- Yetakchi xorijiy mamlakatlar davlat moliyaviy tizimning muhim bo’g’inlari sifatida davlat byudjeti, davlat krediti, maxsus fondlar va davlat korporatsiyalari moliyasi qanday xarakterli xususiyatlarga ega?

4-bob. Moliyaviy boshqaruv

4.1. Moliyaviy boshqaruvning mazmuni va mohiyati

“Boshqaruv” atamasi umumiy tarzda ob’ektni rivojlan-tirish va takomillashtirish maqsadida unga ongli ravishda ta’sir ko’rsatishni anglatadi. Moliyaviy tizim doirasida moliyaviy resurslarni tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish har doim muayyan bir maqsadlarga erishishga mo’ljallangan bo’ladi. Bu esa o’z navbatida ma’lum bir tarzda boshqaruv tizimini tashkil etishni taqozo etadi. Shu ma’noda va eng umumiy ko’rinishda boshqaruv sub’yektining boshqaruv ob’yektiga maqsadga yo’naltirilgan ta’siri boshqaruv deyiladi.

Davlat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun zarur bo’lgan moliyaviy resurslarni tashkil etish va foydalanishga qaratilgan munosabatlar tizimini boshqarishi, tartibga solishi va bu resurslardan samarali hamda oqilona foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirishi kerak. Ana shu vazifani bajarish moliyaviy boshqaruvning zimmasiga yuklatilgan.

Moliyaviy boshqaruv murakkab jarayon bo’lib, boshqa-riladigan (ob’ektlar) va boshqaruvchi (sub’yektlar) tizim-larning yagonaligidan iboratdir. Boshqaruvchi tizim, bu yerda moliyaviy institutlarning (tashkilotlarning) to’plamidan (majmuidan) iborat bo’lgan moliyaviy tizimni nazarda tutsa, boshqariladigan tizim esa pul munosabatlari to’plamidan (majmuidan) iborat bo’lgan moliyaviy tizimni o’z ichiga oladi. Bunda moliyaviy boshqaruv jarayoni bir xil tarzda bo’lmasdan, u bir tomondan, faqat ob’ektlarni boshqarishni emas, balki ikkinchi tomondan, boshqaruv sub’yektlarini tashkil qilishni va ular faoliyatini takomillashtirishni ham o’z ichiga oladi.

Moliyaviy boshqaruvning ob’yekti sifatida moliyaviy munosabatlarning turli ko’rinishlari, shu jumladan, davlatning ijtimoiy tuzilishi, mamlakatdagi siyosiy kuchlarning mavqei (nisbati) va qayta taqsimlash jarayonlariga ta’sir ko’rsatadigan boshqa omillar bilan belgilanadigan o’ziga xos bo’lgan moliyaviy munosabatlar maydonga chiqadi. Davlat moliyasi, mahalliy moliya va xo’jalik yurituvchi sub’yektlar moliyasida moliyaviy boshqa-ruvning sub’yekti bo’lib moliyaviy apparat deb nomlanuvchi maxsus xizmatlar hisoblanadi.

Davlatning xo’jalik yurituvchi sub’yektlar va uy xo’jaliklari bilan moliyaviy munosabatlar sohasidagi o’zaro munosabatlari soliq tizimi, kredit munosabatlarini boshqarish (tartibga solish), moliya bozorini

tartibga solish, davlatning qo'llab-quvvatlash tizimi, pensiya ta'minoti tizimi, ishlovchi aholining daromadlarini tartibga solish mexanizmi va h.k.lar orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy boshqaruvning maqsadi makroiqtisodiy muvozanatda, byudjet profitsitida, davlat qarzining kama-yishida, milliy valyutaning barqarorligi va mustahkam-ligida va, nihoyat, davlat va jamiyat barcha a'zolari iqtisodiy manfaatlarining yagonaligida (mushtarakligida) namoyon bo'ladigan moliyaviy barqarorlik va moliyaviy mustaqillikni ta'minlashdir. Shunga monand ravishda uning asosiy metodologik printsiplari quyidagilardan iborat:

- pirovard maqsadga bog'liqlik;
- xo'jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy muvo-zanatliligi;
- jamiyat barcha a'zolarining manfaatlariga mos kelish;
- iqtisodiy qonunlardan foydalanish;
- real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy boshqaruvning konkret metodlari va shakl-lari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- moliyaviy rejalashtirish;
- bashoratlash (prognozlashtirish);
- dasturlashtirish;
- moliyaviy tartibga solish;
- moliyaviy nazorat;
- moliyaviy qonunlarni (qonunchilikni) qabul qilish;
- moliyaviy resurslarni jalb qilish metodlari tizimi.

Eng umumiy ko'rinishda moliyaviy boshqaruv tizimini 4.1.1-chizmadagidek tasavvur qilish mumkin.



4.1.1-chizma. Moliyaviy boshqaruv tizimi.

4.2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari

Moliyaviy tizimni umumiy boshqarish mamlakatning oliy hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umumdavlat miqyosida moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi boshqaruv organlaridan tashkil topishi mumkin:

- Prezident;
- Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi hamda moliya, byudjet, soliq va bank masalalari bo'yicha Oliy Majlis har ikki palatasining tegishli qo'mitalari;
- Vazirlar Mahkamasi;
- Hisob palatasi;
- Moliya vazirligi va uning quyi , jumladan, G'aznachilik tizimi organlari;
- Markaziy bank;
- Davlat soliq qo'mitasi;
- Davlat bojxona qo'mitasi;
- Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya;
- Byudjetdan tashqari davlat maxsus fondlarining ijroiya direktsiyalari
- va boshqalar.

Mamlakat Prezidenti moliyaviy tizimning faoliyatini tartibga soladi, mamlakat byudjetini tasdiqlaydi, Parlament tomonidan qabul qilingan moliyaviy qonunlarga "veto" qo'yish huquqiga ega.

Ikki palatadan (Senat va Qonunchilik) iborat bo'lgan Oliy majlis soliqlar, yig'imlar, soliq xarakteriga ega bo'lmagan to'lovlarni o'rnatadi, davlat byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek, davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni ham tasdiqlaydi, moliyaviy qonunlarni (masalan, Soliq kodeksi va boshqalar) qabul qiladi. Bir vaqtning o'zida davlat ichki va tashqi qarzining chegaralarini belgilash ham Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy boshqaruvning umumiy boshqaruv organi sifatida Vazirlar Mahkamasi davlat byudjetini ko'rib chiqadi, moliyaviy boshqaruvning yagona umumiy markazi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat moliyaviy nazorat organi sifatida Hisob palatasi moliyaviy boshqaruvga oid quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hajmi va maqsadga mo'ljallanganligi bo'yicha davlat byudjeti va davlat maxsus fondlari daromadlar va xarajatlarining o'z vaqtida ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish;

- davlat mablag’larining sarflanish va davlat mulkidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash;
- davlat byudjeti va davlat maxsus fondlarini shakl-lantirish va ulardan foydalanishga ta’sir ko’rsatadigan yoki xarajatlarning davlat byudjeti hisobidan qoplanishini ko’zda tutayotgan davlat hokimiyatining qonunlari va normativ-huquqiy aktlarini moliyaviy ekspertiza qilish;
- davlat byudjetining ijrosi va amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlarining natijalari to’g’risida Oliy Maj-lisning Senati va Qonunchilik palatasiga doimiy ravishda ma’lumotlarni taqdim etish;
- va boshqalar.

Moliyaviy boshqaruvning markaziy organi Moliya vazirligi va uning joylardagi organlari hisoblanadi. U mamlakat miqyosida yagona moliya, byudjet, soliq va valyuta siyosatining amalga oshirilishini ta’minlaydi. Moliya vazirligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yagona davlat moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- davlat byudjetining loyihasini tuzish va uning ijrosini ta’minlash;
- byudjet mablag’lari va davlat maxsus fondlari mablag’larining oqilona va maqsadli ishlatilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;
- davlat moliyasining barqarorligini ta’minlash va moliyaviy bozorni rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni ko’rish;
- mamlakatning byudjet tizimini takomillashtirish, bu borada tegishli takliflarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish choralarini ko’rish;
- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlarini ta’minlash uchun moliyaviy resurslarni to’plash;
- davlat byudjeti va jamlanma byudjetning ijrosi haqida hisobotni tayyorlash;
- davlat tomonidan qarzlarni olish dasturini ishlab chiqish va davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqarish;
- uzoq, o’rta va qisqa muddatli istiqbolga mo’ljallangan mamlakat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy bashoratlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- iqtisodiyotni moliyaviy sog’lomlashtirish va uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilar, ishlar va xizmatlarni bajaruvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi va

qo’llab-quvvatlovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda qatnashish;

- mamlakatdagi pul-kredit siyosatining asosiy yo’nalishlari, iqtisodiyotdagi hisob-kitoblar va to’lovlar-ning ahvolini yaxshilash bo’yicha takliflarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- faol investitsion siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirishga yo’naltirilgan choralarni ishlab chiqish, davlat investitsiya dasturlari va mamlakat Taraqqiyot byudjetini ishlab chiqish va moliyalashtirishda qatnashish;
- moliyaviy rejalashtirish va milliy xo’jalikni moliyalashtirish sohalarida metodik (uslubiy) rahbarlikni amalga oshirish;
- mamlakat moliyaviy resurslar balansini ishlab chiqishda (Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda) faol ishtirok etish;
- moliyaviy intizom buzilganda moliyalashtirishni chek-lash yoki umuman to’xtatib qo’yish;
- va boshqalar.

Moliya vazirligining markaziy apparatida quyidagi bosh boshqarmalar va boshqarmalar bo’lishi mumkin:

- davlat byudjeti bosh boshqarmasi;
- valyuta aktivlari va majburiyatlari bosh boshqarmasi;
- hududlar moliyasi bosh boshqarmasi;
- agrosanoat majmuini moliyaviy tartibga solish bosh boshqarmasi;
- ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bosh boshqar-masi;
- nazorat-taftish bosh boshqarmasi;
- investitsiyalar boshqarmasi;
- iste’mol bozori va xizmat ko’rsatish sohalarini moliyaviy hamda narx orqali tartibga solish boshqarmasi;
- boshqaruv organlarini moliyalashtirish boshqarmasi;
- soliq siyosati boshqarmasi;
- buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi;
- qimmatli qog’ozlar va moliya bozori boshqarmasi;
- moliya institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi;
- sanoatning bazaviy tarmoqlari va yoqilg’i-energetika majmui moliyasi boshqarmasi;
- mudofaa majmui, huquq-tartibot organlari va boshqa sohalarni moliyalashtirish boshqarmasi;
- va boshqalar.

Moliya vazirligining muhim bo'linmasi G'aznachilik[30] tizimi bo'lib, u davlat byudjetining kassa ijrosini ta'minlashga mas'uldir. Moliyaviy boshqaruvga bevosita daxldor bo'lgan G'aznachilik tizimining asosiy vazifalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mamlakat byudjetining ijrosini tashkil qilish, amalga oshirish va nazorat qilish;
- kassaning yagonaligi printsipidan kelib chiqib, G'azna-chilikning bankdagi hisobvaraqlarida bo'lgan byudjet daro-madlari va xarajatlarini boshqarish;
- davlat maxsus fondlarining moliyaviy ijrosini ta'-minlash;
- davlat moliyaviy resurslarining hajmlarini qisqa muddatli bashoratlash va ularni operativ boshqarish;
- Markaziy bank bilan birgalikda davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqarish;
- byudjet bo'yicha hukumatning moliyaviy operatsiyalari to'g'risida va shuningdek, mamlakat byudjet tizimining ahvo-li to'g'risida qonunchilik va ijroiya organlariga hisobot taqdim etish;
- va boshqalar.

Mamlakatning Markaziy banki moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismi bo'lgan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynab, u G'aznachilik tizimi organlari bilan birgalikda byudjetning kassa ijrosini ta'minlaydi va boshqa kredit institutlarining faoliyatini nazorat qiladi.

Moliyaviy boshqaruv tizimida Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari ham muhim rol o'ynab, ular yordamida soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlarning to'g'ri hisob-lanishi, ularning tegishli byudjet fondlariga to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy boshqaruvga oid Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari quyidagi vazi-falarni bajaradi:

- byudjetga va maxsus fondlarga soliqlar, yig'imlar va to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishi masalalari bo'yicha moliyaviy qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganligini nazorat qilish;
- soliq to'lovchilarni hisobga olish va ularni tekshirish;

---

[30] "G'azna" iborasi "xazina" iborasining buzilgan shakli bo'lib, u "xazina" bilan bir xil ma'noni anglatadi. "Xazina" esa o'zbek tilida ko'p ma'noli ibora bo'lib, u yurtimizda qadimda, jumladan, "davlat byudjeti" iborasining ham sinonimi sifatida ishlatib kelingan.
Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.2. E – M // Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'z.R FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 375-b.

- moliya organlariga va g’aznachilikka soliqlar va boshqa to’lovlarning haqiqatdagi tushumlari to’g’risida har oyda ma’lumot taqdim etish;
- ortiqcha to’langan soliq summalarini va soliq to’lov-chilardan noto’g’ri undirilgan jarima va penyalarni ega-lariga qaytarish bo’yicha tegishli ishlarni amalga oshirish;
- va boshqalar.

Davlat bojxona qo’mitasi va uning tegishli organlari moliyaviy boshqaruv tizimida o’ziga xos bo’lgan o’ringa ega. Ular bojxona bojlarining o’z vaqtida tushishi uchun mas’ul hisoblanadi va bu borada quyidagi asosiy vazifalar ularning zimmasiga yuklatilgan:

- bojxona organlari tomonidan undiriladigan soliqlar bo’yicha soliq tekshiruvlarini amalga oshirish;
- bojxona organlari tomonidan undiriladigan soliq-larni hisoblash va to’lash bilan bog’liq bo’lgan hujjatlarni tekshirish;
- soliq qonunchiligini buzganligi yoki unga to’liq rioya qilmaganligi uchun soliq to’lovchilarning bankdagi operatsiya-larini to’xtatib turish;
- soliq qonunchiligida ko’zda tutilgan jarima va boqi-mandalarni undirish;
- va boshqalar.

O‘z navbatida, Davlat mulki qo’mitasi moliyaviy boshqa-ruvga oid soliq xarakteriga ega bo’lmagan daromadlarni (ijara haqi, davlat mulkini sotishdan keladigan daro-madlar va boshqalarni) olish maqsadida davlat mulkini boshqarishni tashkil qiladi.

Qimmatli qog’ozlar bo’yicha komissiya fond bozori ishtirokchilarining faoliyatini nazorat qilib, byudjet fondiga tushuvchi tushumlarning ortishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

4.3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish

Korxonalarning jamg’armalari, daromadlari hamda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslar fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonidagi pul mablag’larining miqdoriy va sifat jihatidan harakatiga moliyaviy oqim deyiladi. Moliyaviy oqimlarning hajmi ular asosida shakllanishi lozim bo’lgan moliyaviy resurslar fondlarining o’lchamiga bog’liq. Mamlakatning iqtisodiy qudrati qancha kuchli bo’lsa, uning o’sishiga xizmat qiluvchi moliyaviy resurslar fondi va moliyaviy oqimlar hajmi shuncha katta bo’ladi.

Moliyaviy oqimlarning sifat jihatdan tavsifnomasi ular shakllantiruvchi moliyaviy resurslar fondining nimaga mo'ljallanganligi bilan bevosita bog'liq. Masalan, soliqli moliyaviy oqim bilan korxonaning tushumini shakllantiruvchi moliyaviy oqim sifat jihatidan bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun ham ularni boshqarish metodlari ham turli-chadir. O'zining sifat mazmuniga ko'ra quyidagilarni farqlash maqsadga muvofiq:

- byudjetli-soliqli moliyaviy oqimlar - barcha dara-jalardagi byudjetlarning mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladi;
- tijorat (tijoriy) moliyaviy oqimlari – tadbirkorlik xo'jalik sub'yektlari tomonidan amalga oshiriladi;
- nobyudjet moliyaviy oqimlar – notijorat tashkilot-larining fondlarini shakllantiradi.

Moliyaviy oqimlarni boshqarishning funksiyalari quyi-dagilardan iborat:

- qonunchilik – Oliy Majlisning vakolatida;
- nazoratchilik (tartibga soluvchanlik) – Hisob palatasi va mamlakatning boshqa nazorat organlari (Moliya vazirligi, soliq va bojxona qo'mitalari va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi;
- boshqaruvchanlik – korxona va korporatsiyalar, banklar, soliq organlari, G'aznachilik apparati va Moliya vazir-ligining hisob-kitob-kassa va boshqa xizmatlarining vakolatida;
- nazorat-kuzatuv – korxonalarning moliyaviy jihatdan kasodga uchraganligigi to'g'risidagi ishlarni ko'radigan va bu holda moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi arbitrajlik sudlari tomonidan bajariladi.

Moliyaviy oqimlarni boshqarish bo'yicha yuqoridagi organlarning funksiyalari bir-biri bilan qo'shilib ketgan va ularni har doim ham ajratib (alohida qilib) bo'lmaydi.

Agar moliyaviy oqimlar moliyaviy resurslar aylani-shining qonuniyatlariga muvofiq ravishda, ko'zda tutilgan tartibda (rejimda) va rejada aks ettirilgan hajmda, ishlab chiqarish va sotsial vazifalarni samarali yechish uchun kerak bo'lgan tarzda va takror ishlab chiqarish tsiklini pul mablag'lari bilan to'liq ta'minlash tarzida amal qilsa, bularning barchasi, moliyaviy oqimlarning samarali ekanligidan dalolat beradi.

Moliyaviy oqimlarning samaradorligi pul mablag'-larining etarli bo'lmagan hajmda va o'z vaqtida tushmaganligida pasayadi. Moliyaviy oqimlar ritmining buzilishi resurslarning doiraviy aylanishi

va daromad-larning olinishida uzilishlarning bo'lishiga, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda keskin yo'qotmalarning bo'lishiga olib keladi. Moliyaviy oqimning samaradorligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$Ks = Hmo : Rmo$$

Bu yerda: Ks – moliyaviy oqim samaradorligining koeffitsienti;
Hmo – davriy koeffitsientga o'zgartirilgan (korrektirovka qilingan) haqiqatdagi moliyaviy oqim;
Rmo - rejadagi moliyaviy oqim.

Moliyaviy oqimlar moddiy resurslarning uchrashma harakatini o'zida aks ettiradi. Ular orqali iqtisodiyotning makro- va mikrodarajalarida (korxonalar, firmalar, korporatsiyalar va boshqalarda) mulkdan foydalanishning holati, dinamikasi va samaradorligi nazorat qilinadi.

Tushumlar va boshqa pul mablag'larining kelib tushi-shini (oqib kelishini) aks ettiradigan moliyaviy oqimlar ijobiy oqimlar deyiladi. Aksincha, pul mablag'larining oqib ketishini xarakterlaydigan moliyaviy oqimlar salbiy oqimlar deyiladi. Korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun ijobiy moliyaviy oqimlar salbiy moliyaviy oqimlardan ancha yuqori bo'lishi kerak. Bunday sharoitda korxonaning ixtiyorida qoluvchi pul mablag'-larining miqdorini aks ettiruvchi sof moliyaviy oqimning bo'lishi ta'minlanadi. Sof moliyaviy oqim korxona moliyaviy salohiyatining o'sish, ular daromadlarining kapitalizatsiyalashuvi darajasini aniqlash, investitsion va innovatsion imkoniyatlarining manbai bo'lib hisoblanadi.

Korxona va korporatsiyalar sof moliyaviy oqimining o'sishi ular rentabelligi va investitsion samaradorligini oshirish imkoniyatlarini xarakterlaydi hamda moliyaviy ahvolini mustahkamlashning muhim shart-sharoiti hisoblanadi.

Makrodarajada moliyaviy ahvolni xarakterlaydigan quyidagi bir necha ko'rsatkichlar mavjud:

- bir ishlovchi to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan YaIMning miqdori;
- inflyatsiya darajasi va dinamikasi;
- davlat byudjetining ahvoli (defitsit, profitsit);
- oltin-valyuta zaxiralarining miqdori va dinamikasi.

Davlatning moliyaviy ahvoli mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy kompleksi faoliyatining natijasidir.

Jahon taraqqiyoti tendentsiyalarining ko'rsatishicha, hozirgi sharoitda davlat moliyaviy ahvolini mustahkam-lashning asosiy joriy va istiqboldagi rezervi ijtimoiy intellektning (sotsial kapitalning) to'planishi (jamg'ari-lishi) va uni iqtisodiy o'sishning innovatsion-investitsion strategiyasida foydalanish jarayonida samarali moddiy-lashtirish hisoblanadi. Sotsial xarakterdagi muammolarni (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqalarni) hal etish, hayotning sifat darajasini oshirish bilan birga-likda, iqtisodiy taraqqiyotning kuchli omili va buning oqibatida esa, mamlakat joriy va istiqboldagi salohiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Davlat qarzlarini o'z vaqtida qaytarish (uzish) davlat-ning moliyaviy ahvolini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Murakkab moliyaviy vaziyatda davlat defolt, ya'ni bir tomonlama tartibda qabul qilingan xalqaro moliya-kredit majburiyatlardan bosh tortish e'lon qilishi mumkin. Bir vaqtning o'zida davlat qarzlarini restrukturizatsiya qilish va uning qaytarilish muddatlari bo'yicha kreditorlar bilan muvofiqlashtirilgan holda choralarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish kerak.

Korxonalar, firmalar va korporatsiyalar darajasida moliyaviy ahvol to'lovga qobillilik bilan, ya'ni bozor iqtisodiyotining boshqa sub'yektlari va soliq organlari oldida moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida uzish imkoniyati bilan xarakterlanadi. To'lovga qobillik bu korxona barcha pul aktivlari (Pa) va to'lov muddati kelgan (yoki o'tgan) moliyaviy majburiyatlar (Mm) o'rtasidagi nisbat demakdir. Sog'lom ishlayotgan korxonalar uchun to'lovga qobillik koeffitsienti (TQk) doimo birdan yuqori (katta) bo'lishi kerak:

$$Tqk = \frac{Pa}{Mm} \succ 1$$

Korxonaning moliyaviy holatini aniqlash uchun likvidlilik, aylanma aktivlarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ma'lum bir aniq sanada va iqtiqbolda korxona to'lov majburiyatlari va uning moliyaviy imkoniyatlari o'lchamini balanslashtirishning asosiy metodi moliyaviy oqimlar byudjetidir (balansidir). U o'z ichiga korxona ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag'lari va korxona tomonidan sarflanadigan pul mablag'larini oladi. Bu narsa doimiy ravishda korxona pul mablag'larining

harakatini nazorat qilish, ular dinamikasini baholash va bashoratlash imkonini beradi. Ana shunday byudjet asosida korxonaning to'lovga qobilligini boshqarish amalga oshiriladi.

Moliyaviy oqimlar byudjeti bu korxona to'lovga qobilligining kengaytirilgan koeffitsienti, demakdir. Agar uning chap tomoni (daromadlar qismi) o'ng tomoniga teng yoki undan katta bo'lsa, unda korxona to'lovga qobildir. Agar uning o'ng tomoni (xarajatlar qismi) chap tomonidan oshsa, u holda korxona to'lovga qobil emas hisoblanadi. Moliyaviy oqimlar byudjeti (balansi) pul mablag'larining tushilmalari va ularning sarflanish yo'nalishlari bo'yicha bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan rejali-istiqbolli hisob-kitoblar tizimidan iborat bo'lib, u byudjetlashtirish tizimiga (sotuvlar byudjeti, to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) xarajatlar byudjeti, investitsion byudjet va boshqalardan) asoslanadi.

Moliyaviy oqimlarning miqdoriy va sifat tavsif-nomalari orqali korxonaning faoliyati ifoda-lanadi. Ular ishlab chiqarish barcha omillari harakatining qiymatdagi ifodasidan iboratdir. Menejmentda sifat jihatdan farqlanuvchi boshqaruv tizimi - korxonani moliyaviy boshqarish tizimi shakllandiki, bu narsa moliyaviy oqimlar orqali ishlab chiqarish, mahsulot sotish, resurslarning aylanuvchanligi, xarajatlar, rentabellik va boshqa jarayonlarning boshqarilishini ko'zda tutadi.

Moliyaviy oqimlar byudjeti bu haqiqatda turli davriy muddatlarda hisoblanadigan korxonaning moliyaviy rejasidir. Turli davrlar uchun (kunlik, dekadalik, oylik, choraklik, yillik va uzoq istiqboldagi) moliyaviy oqimlarning bashoratli byudjetlarini tuzish korxonaning to'lovga qobillik darajasini oshirishga imkon beradi va kelajakda uning moliyaviy holati barqarorligini ta'min-laydi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Moliyaviy boshqaruv deb nimaga aytiladi?
- Qanday vazifalarni (muammolarni) bajarish (yechish) moliyaviy boshqaruvning zimmasiga yuklatilgan?
- Moliyaviy boshqaruvning ob'yekti sifatida nimalar maydonga chiqadi?
- Moliyaviy boshqaruvning sub'yektlarini aytib bering.
- Moliyaviy boshqaruvning maqsadi nimalardan iborat?
- Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik printsip-lari nimalardan iborat?

- Moliyaviy boshqaruvning konkret metodlari va shakllari tarkibini aytib bering.
- Moliyaviy boshqaruv tizimi o’z ichiga nimalarni oladi?
- Umumdavlat miqyosida moliyaviy boshqaruv tizimi qanday boshqaruv organlaridan tashkil topishi mumkin?
- Moliyaviy boshqaruv organi sifatida mamlakat Prezidenti qanday huquqlarga ega?
- Moliyaviy boshqaruvga oid Oliy Majlis palatalari qanday vakolatlarga ega?
- Vazirlar Mahkamasining moliyaviy boshqaruvga tegishli qanday vakolatlari mavjud?
- Davlat moliyaviy nazorat organi sifatida Hisob palatasi moliyaviy boshqaruvga oid qanday vazifalarni bajaradi?
- Moliyaviy boshqaruvga daxldor Moliya vazirligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Hozirgi paytda Moliya vazirligining Markaziy apparatida qanday departamentlar bo’lishi mumkin?
- Moliyaviy boshqaruvga bevosita daxldor bo’lgan G’aznachilik tizimining asosiy vazifalari tarkibiga nimalar kiradi?
- Moliyaviy boshqaruvga oid Davlat soliq qo’mitasi va uning quyi organlari qanday vazifalarni bajaradi?
- Davlat bojxona qo’mitasi va uning tegishli organlariga moliyaviy boshqaruvga nisbatan qanday vazifalar yuklatilgan?
- Moliyaviy oqim deb nimaga aytiladi?
- Moliyaviy oqimlarning hajmi nimalarga bog’liq?
- Moliyaviy oqimlarning qanday shakllari mavjud?
- Moliyaviy oqimlarni boshqarishning funksiyalari nimalardan iborat?
- Moliyaviy oqimning samaradorligini qanday aniqlash mumkin?
- Ijobiy va salbiy moliyaviy oqimlarni tushuntirib bering.
- Sof moliyaviy oqim deganda nima tushuniladi?
- Makrodarajada moliyaviy ahvolni xarakterlaydigan qanday ko’rsatkichlar mavjud?
- Korxonalar uchun to’lovga qobillik koeffitsienti qan-day aniqlanadi?
- Moliyaviy oqimlar byudjeti (balansi) deyilganda nima tushuniladi?
- Qachon korxona to’lovga qobil yoki qobil emas hisoblanadi?
- Moliyaviy oqimlar byudjeti (balansi) nimaga asoslanadi?

5-bob. Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish
5.1. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirishdir[31]. Iqtisodiy adabiyotlarda, eng umumiy shaklda, rejalashtirish istiqbolga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish bo'yicha faoliyat deb talqin qilinadi.

"Rejalashtirish" tushunchasining ma'no va mazmunini yanada umumiyroq bo'lgan va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirishning ob'yektiv zarurligi va imkoniyatini anglatuvchi "rejalilik" orqali aniqlash mumkin. Haqiqatdan ham rejalashtirish amaliyotda reja-lilikni amalga oshirishni, ya'ni balanslilik (muvoza-natlilik) va mutanosiblikka erishish bo'yicha ongli fao-liyatni bildiradi. Shu ma'noda, moliyaviy resurslarning balansliligini (muvozanatini) va prorportsionalliligini (mutanosibligini) ta'minlashga qaratilgan faoliyatga moliyaviy rejalashtirish deyiladi.

Bunda balanslilik (muvozanatlilik) davlatning ixti-yorida bo'lgan moliyaviy resurslar va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ixtiyorida qolgan daromadlar o'rtasidagi optimal nisbatni bildiradi. Proportsionallik (mutano-siblik) esa korxonalar, xo'jalik tarmoqlari, mintaqalar va davlat sub'yektlari bo'yicha daromadlarning soliq to'lan-guncha va soliq to'langandan keyingi miqdorlari o'rtasidagi oqilona nisbatdan iborat. Ana shu nisbatni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali davlat ularning rivojlanishini rag'batlantirish yoki cheklab qo'yishi mumkin.

Umumiy va oddiy ko'rinishda, moliyaviy rejalashtirish deyilganda moliyaviy rejalarni tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, xuddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'zaro bog'lash tizimi sifatida tushunish kerak. Amaliyotda tez-tez foydalaniladigan rejalashtirish ma'lumotlarini, masalan, korxona faoliyatining shakliy modelini ishlab chiqish va shu asosda moliyaviy ko'rsatkichlarning rejali tizimini aniqlashni, moliyaviy rejalashtirishning ishchi sxemasi sifatida qarash mumkin.

---

[31] Mamlakatimizda rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk bosqichida ayrim iqtisodchilar tomonidan iqtisodiyotda rejalashtirishning (shu jumladan, moliyaviy rejalashtirishning) rolini butunlay inkor etish hodisalari ham yuz berdi. Bu olimlar o'z fikrlarini bozor iqtisodiyotining rejali iqtisodiyotdan tub farq qilishi, undagi munosabatlar rejalash-tirilmasdan, balki aksincha, stixiyali ravishda vujudga kelishi va h.k.lar bilan izohlashga harakat qilishdi. Shu boisdan ham o'sha davrda nashr etilgan ayrim darslik va o'quv qo'llanmalarida rejalashtirish (shu jumladan, moliyaviy rejalashtirish) masalalariga o'rin berilmadi. Ushbu darslik mualliflarining fikricha, bozor iqtisodiyotining, eng avvalo, talab va taklifga asoslanishi tegishli iqtisodiy jarayonlarni rejalashtirishdan mutlaqo voz kechilishini anglatmaydi. Aksincha, bozor iqtisodiyotida ham rejalashtirish (shu jumladan, moliyaviy rejalashtirish ham) yangicha ma'no va mazmun kasb etib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqaruv tizimining muhim bo'lagi bo'lib qolaveradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, moliyaviy rejalashtirish jarayonida u yoki bu sub'-ekt faoliyat ko'rsatishi moliyaviy ta'minlanishining hayotiychanligini oshiruvchi noshakliy omillar inobatga olinishi kerak.

"Moliyaviy rejalashtirish" tushunchasi o'z ichiga quyida-gilarni oladi:

- taraqqiyotning asosiy tendentsiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish;
- jalb qilingan mablag'lar va vaqtincha bo'sh turgan mab-lag'larni sarflash (joylashtirish) menejmenti;
- firma ichidagi moliyaviy natijalar va pullarni reja-lashtirish, hisobga olish va nazorat qilish texnologiyasi;
- investitsion menejment;
- kapitallar menejmenti;
- faoliyatning boshqa ko'rinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar).

Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyat-larni kerakli bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- pul mablag'laridan iqtisod qilib, tejab-tergab foyda-lanish hisobidan korxonaning foydasini oshirish bo'yicha ichki rezervlarni qidirib topish;
- kapitalni samarali joylashtirish yo'llarini aniqlash, undan oqilona va samarali foydalanishni baholash;
- kontragentlar bilan optimal moliyaviy munosabatlarni o'rnatish;
- korxonaning moliyaviy ahvoli, to'lovga qobilligi va kreditga layoqatliligi ustidan nazorat o'rnatish.

Bozor munosabatlariga o'tilganiga qadar moliyaviy rejalashtirishning mazmuni korxonalarda sof operativ vazifalarni – markazlashtirilgan iqtisodiyot amal qilgan-ligi uchun etarli darajada formal bo'lgan korxonalarning besh yillik moliyaviy rejalaridagi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, istiqbolga mo'ljallangan rejalarning loyihasini baholash, korxonaning yillik moliyaviy rejalarini tuzish kabilarni hal etishga qaratilgan edi. Bunday amaliyotning hukm surganligi korxona moliyaviy xizmatlarining obro'yiga obro' qo'shmas, chunki ularga hech narsa bog'liq emas edi. Bozor iqtisodiyotida moliyaviy xizmatlarning roli tubdan o'zga-radi. Ular korxona rivojlanishini faol va ta'sirchan boshqaradi va bir vaqtning o'zida, shu rivojlanishning yo'nalishi va sifatini nazorat qiladi.

Hozirgi sharoitdagi moliyaviy rejalashtirish barcha zaruriy harakatlarni oldindan ko'zda tutishgina (ko'ra bilishgina) emas. Bu tegishli ishlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday kutil-magan holatlarni ko'ra olish qobiliyati hamdir. Albatta, xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'z faoliyatidagi barcha tavakkal-chiliklarga (risklarga) barham bera olmaydi. Lekin u ana shu risklarni oldindan samarali ko'ra bilish yordamida boshqa-rish imkoniyatiga ega.

Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida quyidagi asosiy usullardan (metodlardan) foydalanish mumkin:

- iqtisodiy tahlil usuli;
- normativ usul;
- balansli hisob-kitoblar va pul oqimlari usuli;
- ko'p variantlilik usuli;
- iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli;
- va boshqa usullar.

Moliyaviy rejalashtirish jarayonining quyidagi asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini tadqiq etish;
- operativ rejalarning o'zgarishi asosida moliyaviy hisobotlarning bashorat variantlarini ishlab chiqish;
- o'z reja topshiriqlarining bajarilishini ta'minlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy resurslarga bo'lgan aniq (konkret) ehtiyojlarini aniqlash;
- moliyalashtirish manbalari (shu jumladan, o'z va tashqi manbalarning) va ularning tarkibiy tuzilishini bashorat-lash;
- xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasini boshqarishning tizimini yaratish va uni qo'llab-quvvatlash;
- shakllantirilgan rejalarni operativ o'zgartirish, tartibini (reglamentini) ishlab chiqish.

Moliyaviy rejalashtirishning ikki turi bo'lishi mumkin:

- strategik moliyaviy rejalashtirish;
- joriy moliyaviy rejalashtirish.

Strategik moliyaviy rejalashtirish o'z ifodasini stra-tegik moliyaviy rejalarda topadiki, u tashqi va ichki muhitda o'zgarayotgan xo'jalik yuritish sub'yekti moliyaviy taraqqiyotining ko'p variantli bashoratidan iboratdir.

Strategik moliyaviy reja, hech bo'lmaganda, quyidagi savollarga aniq javob bermog'i lozim:

- xo’jalik yurituvchi sub’yekt uchun talab qilinadigan kapitalning o’lchami qanday, u qaysi manbalar hisobidan va qanday muddatlarda jalb qilinadi?
- bu kapitaldan qanday qilib foydalaniladi?
- o’z kuchiga ishongan holda xo’jalik yurituvchi sub’yekt rivojlanishi mumkinmi? Agar yo’q bo’lsa, moliyaviy resurs-larni jalb qilishning manbalari qanday?
- xo’jalik yurituvchi sub’yekt pul mablag’lari tushumi, ishlab chiqarishning rentabelligi va investitsiyalar daro-madligining qanday darajalariga chiqishi mumkin va qay muddatlarda?

O‘z navbatida, joriy moliyaviy rejalashtirishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish, investitsion, marketing, ilmiy-loyi-haviy va qidiruv faoliyatlarini hamda ijtimoiy loyiha-larni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan moliyaviy resurs-larning hajmi va ularning manbalarini aniqlash;
- mahsulotni (ishni, xizmatni) ishlab chiqarish va sotish tannarxini rejalashtirish;
- pul oqimlarini rejalashtirish;
- butun xo’jalik yurituvchi sub’yekt doirasida foydani rejalashtirish (bashoratlash);
- investitsiyalarning daromadliligini rejalashtirish.

Moliyaviy rejalashtirish mamlakat milliy xo’jaligini rejalashtirishning tarkibiy qismi bo’lib, sotsial-iqtisodiy rivojlanish rejasining ko’rsatkichlariga tayanadi, moliyaviy tizim barcha organlarining faoliyatlarini muvofiqlash-tirishga yo’naltiriladi. Moliyaviy tizim alohida bo’g’inlari-ning nisbiy mustaqilligi quyidagilarni o’zida aks ettiruvchi moliyaviy rejalarning ishlab chiqilishi zarurligini belgilab beradi:

- pul jamg’arma (fond)larini shakllantirish va ulardan foydalanish shakllari va usullarining o’ziga xosligi;
- moliyaviy resurslarni tarmoqlar va hududlar bo’yicha qayta taqsimlash.

Moliyaviy rejalashtirishning bosh ob’yekti rejada o’zining miqdoriy ifodasini oladigan moliyaning bo’g’inlari (moliyaviy munosabatlar) hisoblanadi. Konkret pul fond-lari mablag’larining harakati yagona tizimga birlashti-rilgan tegishli moliyaviy rejalarda ifodalanadi va mustahkamlanadi.

Moliyaviy rejalar tizimining markazini byudjet rejasi egallaydiki, unda byudjet fondining harakati, daromadlar va xarajatlarni

shakllantirish va ulardan foydalanishning shakllari va metodlari, daromad va xarajatlarning tarkibiy tuzilishi va tuzilmasi o'zining miqdoriy ifodasini topadi.

Byudjetdan tashqari davlat maxsus fondlarining harakati, mos ravishda, Pensiya fondi, Ijtimoiy sug'urta fondi, Majburiy tibbiyot sug'urtasi fondi, Yo'l fondi, Aholi bandligi davlat fondi kabilarning moliyaviy rejalarida (smetalarida), ularning daromadlari va xarajatlarida aks ettiriladi. Ularning daromadlar qismida yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy va ixtiyoriy badallari ifodalanadi. Sug'urta badallarining miqdori mehnat haqiga nisbatan foizlarda o'rnatiladi. Maxsus fondlarga qisman byudjet mablag'lari tushishi, mablag'lar etishmaganda maxsus fondlar bir-birlaridan qarzga mablag'lar olishi mumkin. Shunday qilib, davlat maxsus fondlari bir-biri va byudjet fondi bilan chambarchas bog'liqdir.

Sug'urta fondi butun jamiyat, alohida mintaqalar, hududlar va fuqarolar masshtabidagi yo'qotmalarni tiklash uchun kerak bo'ladi. Barcha ho'jalik yurituvchi sub'yektlarning ehtiyojlarini hisobga olish uchun sug'urta fondi ham rejali tarzda shakllantiriladi va undan foydalaniladi. Bu yerdagi moliyaviy rejaning daromadlar qismida korxona, tashkilot va alohida fuqarolarning badallari, boshqa fondlardan (byudjet yo'nalishidagi) mablag'larning tushishi, xarajatlar qismida esa tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlarni qoplash, sug'urtalanganlarga sug'urta to'lanmalari summasini to'lash kabilar aks ettiriladi. Sug'urta fondini shakllantirish va undan foydalanishning rejasi mablag'-larning yanada samaraliroq foylanilishiga imkon beradi.

Moliyaviy rejalashtirishning umumdavlat va hududiy darajalariga istiqboldagi (istiqbol uchun mo'ljallangan) moliyaviy rejalar, moliyaviy balanslar va shuningdek, aholi daromadlari va xarajatlari harakatining balansini ishlab chiqish va amalga oshirishlar kiradi.

Istiqboldagi (istiqbol uchun mo'ljallangan) moliyaviy rejalashtirish iqtisodiy va sotsial taraqqiyot hamda moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirishni ta'minlash, shu-ningdek, ishlab chiqiladigan islohotlar, dasturlar va qonunlarning moliyaviy oqibatlarini kompleks tarzda bashoratlash, uzoq muddatli salbiy tendentsiyalarni kuzatish va ularga nisbatan tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Odatda, istiqboldagi moliyaviy rejalar navbatdagi uch yil uchun ishlab chiqilib, uning birinchi yili uchun byudjet tuziladi, navbatdagi ikki yil reja davri hisoblanib, ular davomida e'lon qilingan

iqtisodiy siyosatning haqiqiy natijalari kuzatiladi. Istiqboldagi moliyaviy rejalar mamlakat, uning ma’muriy-hududiy tuzilmalari sotsial-iqtisodiy rivojlanishining aniqlashtirilgan o’rta muddatli bashoratining ko’rsatkichlarini hisobga olgan holda har yili o’zgartirilishi (korrektirovka qilinishi) mumkin. Reja davri esa, bunda yana bir yil oldinga suriladi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning proportsionalligi va balansliligini ta’minlashda, pul muomalasini tartibga solishda davlatning yig’ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) va har bir ma’muriy-hududiy tuzil-malarning daromadlar va xarajatlar balansi muhim o’rinni egallaydi. Davlatning yig’ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) mamlakat, uning sub’yektlari, hududiy tuzilmalari va ma’lum hududda faoliyat ko’rsata-yotgan barcha xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning barcha daro-madlari va xarajatlarining jamidan iboratdir. U o’tgan yilgi davlatning hisobot yig’ma moliyaviy balansi (hisobot moliyaviy resurslar balansi) asosida va mamlakat sotsial-iqtisodiy taraqqiyotining bashorat ko’rsatkichlariga muvofiq ravishda tuziladi hamda ular byudjet loyihalarini ishlab chiqishda asos bo’lib xizmat qiladi.

Bu moliyaviy rejalar (hujjatlar) Moliya vazirligi va moliyaviy tizimning boshqa bo’linmalari faol ishtirokida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Balansda byudjet fondi, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, sug’urta fondi, kredit fondi, korxona va tashkilotlarning pul fondlari va, nihoyat, fuqarolarning pul mablag’lari tarkibida rejalashtirilayotgan resurslarning shakllanishi va ulardan foydalanish aks ettiriladi. Moliyaviy rejalashtirishning balans metodi mamlakat, uning ma’muriy-hududiy tuzilmalari va mahalliy ma’muriyatlari masshtabida moliyaviy resurslar defitsitini aniqlashga, barcha xo’jalik yurituvchi sub’yektlar o’rtasida mablag’larni samarali va asosli qayta taqsimlashga imkon beradi. Davlatning yig’ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) mavjud barcha moliyaviy rejalarni yagona tizimga birlashtiradi. Uning ko’rsatkichlari byudjet va kredit rejalarini, shuningdek, boshqa moliyaviy rejalarni tuzishda asos sifatida qabul qilinadi.

Boshqa bir sintetik balans – aholi daromadlari va xarajatlarining balansi - davlatning yig’ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) bilan bevosita bog’langandir. Unda naqd pulli va naqd pulsiz shakllardagi aholi pul resurslarining harakati o’z ifodasini topadi. Balansda aks ettirilayotgan aholining pul daromadlari o’zining manbasiga ko’ra quyidagi uch guruhga bo’linadi:

- ish haqi va ish haqiga ustamalar, mukofotlar, safar xarajatlari uchun mo'ljallangan mablag'lar, yollanma ishchilarga (xodimlarga) ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy xarakterdagi to'lanmalar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, korxonalarning foydasiga sheriklik, shaxsiy mulk bilan operatsiyalar va moliya-kredit operatsiyalaridan olina-digan daromadlar;
- sotsial transfertlar - davlat pensiyalari, nafaqalar, stipendiyalar va shunga o'xshashlar.

Xuddi shuningdek, balansda aks ettirilayotgan aholining pul xarajatlari ham quyidagi guruhlardan iborat bo'ladi:

- iste'mol xarajatlari;
- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar;
- pul to'planmalari va jamg'armalar.

Moliyaviy reja hisoblangan ushbu balans aholining daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi proportsiyani aniqlaydi, mehnat haqi va pensiya ta'minotining o'sganligi, tovarlar taklifi hajmining oshganligini ifodalaydi. Shularga muvofiq ravishda, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi naqd pulli pul aylanmasi, chakana tovar aylanmasi, soliq tushumlari, kredit resurslarini rejalashtirish uchun muhim rol o'ynaydi. Bu balans Moliya vazirligi, Markaziy bank va moliyaviy tizimning boshqa organlari ishtirokida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

Ma'lum bir muddatni qamrab olishiga qarab, moliyaviy rejalar quyida ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- uzoq muddatli moliyaviy rejalar;
- qisqa muddatli moliyaviy rejalar.

Uzoq va qisqa muddatli moliyaviy rejalar bir-birlaridan nafaqat o'zining qamrab olish gorizonti bo'yicha, balki rejalashtirish maqsadlariga ko'ra ham farqlanadi. Agar uzoq muddatli moliyaviy rejalarning (rejalash-tirishning) bosh maqsadi moliyaviy barqarorlik nuqtai-nazaridan firma kengayishining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan sur'atlarini aniqlash bo'lsa, qisqa muddatli moliyaviy rejalarning (rejalashtirishning) bosh maqsadi firmaning to'lovga doimiy qobilligini ta'minlashdan iboratdir.

Alohida olingan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy rejasi unga tegishli bo'lgan biznes-rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda marketing, operativ faoliyat, mulkka egalik huquqi va korxona faoliyat ko'rsatishining boshqa yo'nalishlari qiymat ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Moliyaviy reja korxona butun faoliyatini

moliyaviy jihatdan ta’minlashning vositasi sifatida maydonga chiqadi va bir vaqtning o’zida, shu faoliyatning moliyaviy natijalarini xarakterlaydi. Biznes rejaning tarkibida moliyaviy reja quyidagi yo’nalishlar bo’yicha ishlab chiqiladi:

- bozorlarni va ko’zda tutilayotgan sotuvlar hajmini o’zlashtirishning loyihaviy ko’rsatkichlarini ishlab chiqish;
- tannarxning turli ko’rinishlarini (to’liq, ishlab chiqarish, to’g’ri va boshqalar) hisob-kitob qilish. Bu yerda marketing tadqiqotlari, reklama, bozorlarni o’zlashtirish xarajatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi;
- pul mablag’larining yillik oqimini loyihalashtirish va moliyaviy natijalarni aniqlash. Bu tushumlarning kelib tushishi, debitorlik va kreditorlik qarzlarining o’zgarishi, moliya to’lovlarini optimallashtirish va boshqalar bo’yicha dinamikalarning bashorat qilinishini taqozo etadi. Shu erning o’zida foydaga oid hisob-kitoblar korxonaning joriy istiqboldagi salohiyati bilan, shuningdek, biznes-rejaning boshqa bo’limlarida aniqlanadigan cheklanmalar bilan muvofiqlashtirilishi kerak;
- zaruriy investitsiyalarning hajmi, ishlab chiqarishni kengaytirish bo’yicha moliyaviy resurslarning hajmi, ularning samaradorligi va foydaga ta’sirini aniqlash;
- va boshqalar.

Umuman olganda, moliyaviy rejalarning ko’rsatkichlari davlatning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun boshlan-g’ich material hisoblanadi, istiqbolga mo’ljallangan reja-lashtirishning axborot (informatsion) asosi bo’lib xizmat qiladi. Moliyaviy rejalar tizimi moliyaviy resurslar manbalarining (jismoniy va yuridik shaxslar daromadlari) tarkibiy tuzilishidagi o’zgarishlarning ob’yektiv ravishda o’zaro bog’liqligi va uzoq muddatli tendentsiyalarini, shuningdek, kelajakda bu tendentsiyalar rivojlanishiga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan omillarni aniqlashga imkon beradi.

Moliyaviy rejalashtirishni moliyaviy bashoratlashsiz tasavvur etib bo’lmaydi. U yoki bu davr mobaynida davlat-ning mumkin bo’lgan moliyaviy ahvolini (holatini) oldindan ko’ra bilish va moliyaviy rejalarning ko’rsatkichlarini asoslashga moliyaviy bashoratlash deyiladi. Nazariya va amaliyotda moliyaviy bashoratlash ikkiga ajratiladi:

- o’rta muddatli (5-10 yillik) moliyaviy bashoratlash;
- uzoq muddatli (10 yildan ortiq) moliyaviy bashoratlash.

Moliyaviy bashoratlash moliyaviy rejalarni tuzish bosqichidan oldin sodir bo'ladi. Unda jamiyatning ma'lum bir davrdagi taraqqiyotiga bag'ishlangan moliyaviy siyosatning kontseptsiyasi ishlab chiqiladi. Moliyaviy bashoratlashning bosh maqsadi bashoratlanayotgan davrda haqiqatda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning real hajmi, ularni shakllantirish manbalari va ulardan foydalanishni aniqlashdan iborat. Moliyaviy bashoratlar moliyaviy tizim organlariga moliyaviy tizimni rivojlantirish va takomil-lashtirishning, moliyaviy siyosatni amalga oshirish shakllari va metodlarining turli-tuman variantlarini belgilashga imkon beradi. Shu ma'noda, moliyaviy bashoratlar moliyaviy siyosatni ishlab chiqishning zaruriy elementi va bir vaqtning o'zida muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Ular yordamida moliyaviy tizimning barcha sub'yektlari oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishning turli stsenariylari ishlab chiqiladi.

Moliyaviy bashoratlash turli usullarning qo'llani-lishini taqozo etadi. Ularning eng asosiylari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- iqtisodiy jarayonlarni aniqlaydigan omillarga bog'liq ravishda moliyaviy reja ko'rsatkichlarining dinamikasini xarakterlaydigan ekonometrik modelni yaratish;
- korrelyatsion-regression tahlil;
- bevosita ekspertli baholash metodi.

Asosida aniq shakllantirilgan maqsad va unga erishishning vositalari yotgan dasturli-maqsadli yondashuv-dan foydalanadigan moliyaviy rejalashtirishning metodi sifatida moliyaviy dasturlashtirish quyidagi-larning bo'lishini ko'zda tutadi:

- yo'nalishlar bo'yicha davlat xarajatlarining ustuvor-larini belgilash (o'rnatish);
- davlat mablag'lari sarflanishining samaradorligini oshirish;
- muqobil variantning tanlanishiga muvofiq ravishda moliyalashtirishni to'xtatish.

Dastur variantining tanlanishi, eng avvalo, iqtisodiy omillarga (resurslarga) bog'liq. Bunda faqat maqsadga erishishning masshtabi, ahamiyati va murakkabligi emas, balki mavjud zahiralarning hajmi, kutilayotgan jami samara, maqsadga erishilmaganda potentsial yo'qotmalar ham hisobga olinadi. Moliyaviy siyosat sohasidagi uzoq va qisqa muddali maqsadlar va choralarni muvofiqlashtirishning muhim metodi sifatida dasturlashtirishdan moliyaviy rejalashtirishning hozirgi amaliyotida faol foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy dasturlashtirish rivojlangan mamlakatlarda o’tgan asrning 60-yillaridanoq foydalanib kelinayapti. Uning asosiy mohiyati besh yillik “o’zgarib turadigan” xarajatlar rejasini tuzish bilan belgilanadi. Har yili joriy yil rejasi ko’rsatkichlarining kutilayotgan ijrosi asosida reja o’zgartiriladi (korrektirovka qilinadi). Bunda ko’rsatkichlar besh yillik shkala bo’yicha bir yil oldinga (hisobot yilidan keyingi yilga) “ko’chiriladi”. Oldinda turgan birinchi yilning reja ko’rsatkichlari direktiv (majburiy), keyingi to’rt yillik ko’rsatkichlar esa mo’ljalli (orientirovkali) xarakterga ega hisoblanadi.

Hozirgi paytda dunyoning juda ko’p mamlakatlarida ishlab chiqarish maqsadlariga, resurslar va ijrochilar bo’yicha balanslilikka yo’naltirilgan ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-xo’jalik va boshqa tadbirlar tizimidan iborat bo’lgan maqsadli kompleksli dasturlarlardan keng foydalanilmoqda.

5.2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish

Zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim jihatlaridan biri uning aralash mulkka asoslangan ekanligidadir. Lekin jahonning rivojlangan birorta davlatida ham davlat mulki yoki xususiy mulklardan birortasining mutloq hokimligi uchramaydi. Rivojlangan davlatlarda turli mulk shakllarining birgalikdagi harakatlariga asoslangan iqtisodiyot o’zining hayotchan ekanligini allaqachon isbotladi.

Lekin tan olish kerakki, iqtisodiy hayotning u yoki bu bosqichida davlat yoki bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining ta’siri sezilarli bo’ladi. Masalan, bozor iqtisodiyoti qonunlarining harakati ob’yektiv xarakterga ega bo’lib, ularni bekor qilish mumkin emas. Xuddi shuningdek, bozor institutlari “nomenklatura”sining kengayishi, ular o’rtasidagi aloqalarning murakkablashuvi, yangi tizimlar-ning (evolyutsiya yoki taraqqiyot qonunlariga muvofiq ravishda) shakllanishini ham rad etib bo’lmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta’siri esa quyidagi maqsadlar uchun zarur:

- hayotiy faoliyatning umumiy sharoitlarini va iqtisodiy qarorlarning amalga oshirilish asoslarini ta’minlash (butun jamiyat uchun xavfsiz yashash sharoitini yaratish, mulkka egalik qilish huquqi himoyalashga va shaxsning erkin rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy rejimni (tartibni) o’rnatish va qo’llab-quvvatlab turish, samarali raqobatni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish);

- barqarorlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirish (davlat iqtisodiy o'sishning sur'atlarini, inflyatsiya va ish bilan ta'minlash darajasini tartibga solib turishi, iqtisodiyotning tarmoq va mintaqaviy tuzilmasidagi progressiv (ijobiy) o'zgarishlarni rag'batlantirishi, tashqi iqtisodiy muvozanatni va milliy valyutaning kursini qo'llab-quvvatlashi lozim);
- resurslarning ijtimoiy yo'naltirilgan qayta taqsimlanishini amalga oshirish (davlat jamiyatga kerak bo'ladigan, lekin u bilan xususiy sektor shug'ullanmaydigan ishlab chiqarishni tashkil qilishi, ish haqi, pensiyalar, nafaqalarning minimal darajasini kafolatlashi, ijti-moiy himoyaga muhtojlarga yordam berishi, qat'iylash-tirilgan (fiksatsiya qilingan) daromadlarning indeksatsiya-sini amalga oshirishi zarur).

Rivojlangan har qanday davlat yirik mulkka, ya'ni mamlakat milliy boyligining katta qismiga ega. Bu mulk, asosan, moddiy-buyumlashgan shaklda (tabiiy boyliklar, binolar, inshootlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, muzeylar, qo'riqxonalar, davolash manbalari, kutubxonalar, oltin zaxiralari va h.k.) mavjud bo'lib, o'zining mo'ljallanganligiga ko'ra ular davlat boshqaruvi va iqtisodiy tartibga solishda davlatning ishtirokiga oid joriy ehtiyojlarni "to'lash"ga ishlatilmasligi kerak. Ma'lumki, hozirgi va kelajak avlod uchun milliy boylik, odatda, "eyilmaydi" va, aksincha, u ko'paytiriladi.

Shuning uchun ham davlatning (agar, albatta, davlat hududlar, aholi, an'analar va h.k.lar kompleksi sifatida emas, balki boshqaruv organi sifatida qaralsa) real (haqiqiy) boyligi uning markazlashtirilgan pul fondidan, ya'ni davlat moliyasining moddiy asosidan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi. Barcha zamonaviy iqtisodiy makon uchun turli-tuman pul oqimlarining harakati va ularning bir-birlari bilan qo'shilib ketishi, o'z miqdori bo'yicha turlicha bo'lgan pul fondlarini (shaxsiy, jamoa, kredit, rezerv, valyuta, sug'urta, byudjet, markaziy, mintaqaviy, homiylik va boshqalar) shakllantirish va ulardan foydalanish xosdir. Ularning barchasi yagona real manba - mamlakat ichida va xorijda shu yilning o'zida yaratilgan qo'shilgan qiymat – hisobidan "oziqlanadi". Bu fondlarni qayta taqsimlashning tarkibi va strukturasi (tarkibiy tuzilmasi) , ya'ni davlat uning qancha qismini o'ziga oladi va undan qanday foydalanadi, milliy xo'jalik takror ishlab chiqarishining nisbatlari (proportsiyalari), ijtimoiy sohani ta'minlash, zaruriy rezervlarni yaratish, milliy xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari va h.k.larni belgilab beradi.

Hozirgi paytda dunyoning sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarida markazlashtirilgan pul fondlarining jami hajmi

YaIMning o’rtacha 30% dan 50% gachasini tashkil etadi. Shunday qilib, qolgan barcha pul oqimlari harakatini tartibga solishning potentsial imkoniyati va boshqa har qanday pul fondlarini shakllantirish sharoitlariga ta’sir ko’rsatish zamonaviy davlat moliyasi miqdoriy xarakteristikasining o’ziga borib taqaladi. Biroq, rivojlanayotgan dunyo, shuningdek, o’tish iqtisodiyotiga ega bo’lgan mamlakatlar moliyasi uchun bu sifatlar, ularning bunday masshtabi xos emas, albatta. Bu mamlakatlarda tegishli raqamlar YaIMga nisbatan 11-17% atrofida tebranadi va aynan shu raqamlarning o’zi davlat tomonidan bu jarayonga aralashuvning etarli darajada faol emasligidan dalolat beradi[32].

Bu jarayonlarning yanada rivojlanish tendentsiyalari to’g’risida gapirilganda, qayd etish kerakki, bu yerda davlatning tartibga solish roli uzluksiz yuqoriga o’sib boruvchi to’g’ri chiziq sifatida namoyon bo’lmaydi. Chunki rivojlangan xorij mamlakatlarida xususiy sub’yektlar daromadlarini davlat daromadlariga “oqib o’tishi”ning o’ziga xos bo’lgan iqtisodiy chegarasiga (kritik nuqtasiga) erishilgan. Shunga muvofiq ravishda, G’arbning nazariy bilimlari tegishli hukumatlarni davlat ta’sirini qisqar-tirishning barcha yo’nalishlari tomon faol va muvaffa-qiyatli tarzda yo’naltirmoqda.

Aksincha, dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlari va bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan mamlakatlar uchun esa kelajak boshqacharoqdir. Bu mamlakatlarda bozor tuzilmalari va institutlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan parallel ravishda davlatning moliyaviy tartibga solishi ham ortib (kuchayib) borishi kerak va ularda tegishli iqtisodiy “chegara”ga (kritik nuqtaga) etgunga qadar hali ancha bor.

Turli sotsial-iqtisodiy jarayonlarda moliyaning rolini (moliyaviy tartibga solishning rolini) to’liq idrok etish uchun tizimning shakllantiruvchi asoslarini – davlat xarajatlari va davlat daromadlarini - hamda ular har birining rolini atroflicha tahlil qilib chiqmoq lozim.

Dastlab, davlat xarajatlarining tavsifiga murojaat qilish kerak. Chunki aynan davlat xarajatlari davlat moliyasining ijtimoiy mo’ljallanganligi nimadan iborat ekanligini aniq ko’rsatadi. Shunga mos ravishda, aynan davlat xarajatlarining tarkibi, tarkibiy tuzilmasi

---

[32] Xorijning mashhur nazariyotchi olimlaridan biri E.Xansen o’zining oxirgi asarlaridan biri bo’lgan “AQShning urushdan so’nggi iqtisodiyoti” da shunday deb yozadi: “Ijtimoiy xarajatlari eng past darajada bo’lgan mamlakatni menga ko’rsatingchi, men sizga turmush darajasi eng past bo’lgan mamlakatni aytaman”. Yana u davom etib ta’kidlaydi: “Hatto Qo’shma Shtatlarda ham maorif ishiga yo’naltirilgan 100 dollar ishlab chiqarish binolari, inshootlari, mashinalar va asbob-uskunalarga sarflangan 100 dollarga nisbatan yuqoriroq bo’lgan mehnat unumdorligiga olib keladi”. (Qarang: Xansen E. Poslevoennaya ekonomika SShA. – M.: Progress, 1966. ss.84, 147).

va hajmi moliyaviy tizim faoliyatining natijalarini o'zida aks ettiradi va bu tizim ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida o'zining funksiyalarini bajarayaptimi yoki yo'qmi, degan savolning javobini oldinroq aniqlashga imkon beradi.

Takror ishlab chiqarish jarayonida davlat moliyasining rolini aniqlab olish uchun ularni bir necha belgilar bo'yicha klassifikatsiya qilish mumkin.

Agar davlat xarajatlariga tovarlar yoki mehnatda ifodalangan xizmatlar qarama-qarshi turadigan bo'lsa, u holda davlat pul mablag'lari oqimlarining boshqa ne'matlarga o'ziga xos tarzda transformatsiyalashuvi sodir bo'ladi va shu munosabat bilan bunday xarajatlarni transformatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi. Ularning orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- davlat iste'moli (davlat sektori ishchilarining ish haqi, joriy ehtiyojlarni qoplash uchun davlat tomonidan sotib olingan tovarlar uchun to'lovlar, ishlab chiqarishga dotatsiya berish; davlat qarziga xizmat ko'rsatish, byudjetlararo subsidiyalar va shu yerda ko'rsatilgan maqsadlar uchun foydalaniladigan ssudalar);
- davlat investitsiyalari (davlat korxonalari va tashkilotlarining asosiy kapitali va aylanma fondla-rining o'sgan qismiga investitsiyalar, davlat zaxiralarini yaratish, uzoq muddatli byudjet kreditlari).

Shunday qilib, iqtisodiyot resurslarining cheklan-ganligi sharoitida transformatsion xarajatlar nodavlat sektorida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning hajmini bevosita o'zgartiradiki, bulardan boshqa bir vaziyatlarda jamiyat foydalanadi va bir vaqtning o'zida jami taklifning tarkibiy tuzilmasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Agar davlatning xarajatlari turli xildagi pensiya-larni (yosh bo'yicha, nogironlik, boquvchisini yo'qotganda, alohida xizmatlari uchun) va nafaqalarni (bolalarga, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlik bo'yicha) to'lashga yo'naltirilsa, u holda davlat tomonidan mablag'larni berishning o'ziga xos tarzda berilishi sodir bo'lib, u transfert deb ataladi va bunda mablag'lar soliq to'lovchilardan shu to'lanmalarni oluvchilarga beriladi va mazkur operatsiyada uchrashuvchan xizmatlarning taqdim etilishi sodir bo'lmaydi. Bunday holda yangi qiymat yaratilmaydi va huquqni ushlab turuvchining tovarlar va xizmatlar iste'moli berilishi kuzatiladi. Bu transfert xarajatlar jamiyatning jami daromadini uning a'zolari o'rtasida taqsimlanishini o'zgartiradi (korrektirovka qiladi).

Davlatning xarajatlari yana joriy (davlat iste'moli va transfertlar) va kapital xarajatlarga (davlat investitsiyalari) bo'linadiki, bunday

bo’linish takror ishlab chiqarish parametrlari dinamikasiga moliyaning ta’sirini baholashda juda muhimdir. Shuningdek, davlatning xarajatlari insonlarga (shaxsiy daromadlar) va kapitalga (joriy qo’yilmalar va investitsiyalar) xizmat qilishi mezoni bo’yicha ham klassifikatsiya qilinishi mumkin. Bu narsa ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish va uni iste’mol qilishda ularning ulushlarini alohida hisobga olishga imkon beradi.

Davlat xarajatlarini guruhlarga ajratishda funktsi-onal printsipdan foydalanish mamlakat taraqqiyotining ichki muammolarini hal qilish va dunyo hamjamiyati bilan o’zaro munosabatlar orqali ifodalanadigan davlatning barcha funksiyalarini (ijtimoiy, iqtisodiy, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik, tashqi siyosiy va boshqalar) namoyish qilishi mumkin. Shu narsaning o’zi tizimlashtirilgan ko’rinishda yo’nalishlarning ustuvorligini aks ettirishga va davlat tomonidan tartibga solish jarayonining ta’sirchanligini baholashga imkon beradi. Masalan, davlatning ijtimoiy funksiyalarini bajarish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlar aholi kam ta’minlangan qatlamlarining kvalifikatsiya, tibbiy xizmat, uy-joy, kafolatlangan minimal pensiya va nafaqalar olishga tegishli sharoitlarni yaratadi. Bu esa sotsial munosabatlarning barqarorligini qo’llab-quvvatlab, jami talabning hajmi va tarkibiy tuzilmasiga keskin ta’sir ko’rsatadi va bu ta’sir quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ijtimoiy subsidiya oluvchilar aholining moddiy ne’-matlar iste’moli qismiga nisbatan barqaror to’lovga qobiliyatli talabning barqarorligini ta’minlaydi;
- ijtimoiy-madaniy soha tashkilotlarini joriy saqlash uchun tovarlar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olinishi bozorning juda ko’p segmentlarida talab va taklif o’rtasidagi muvozanatga o’z ta’sirini ko’rsatadi;
- maorif, sog’liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy ta’mi-not ob’ektlarining kengaytirilishi, uy-joy qurilishiga davlat dotatsiyalari bilan birgalikda, faqat qurilish materiallariga bo’lgan talabni oshirib qolmasdan, balki qurilish industriyasi bilan bog’liq bo’lgan sanoatning boshqa alohida tarmoqlari uchun ham chuqur bozorni yaratadi, uzoq muddatli foydalanish xos bo’lgan predmetlar uchun talabni oshiradi.

Bundan tashqari, davlatning ijtimoiy-madaniy tadbir-lar xarajatlari bu o’ziga xos tarzda malakali ishchi kuchini tayyorlashga qilingan investitsiyalardan iboratdir. Bundan uning ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va tadbirkorlik sohasini qo’llab-

quvvatlashning strategik chorasi ekanligi ham yaqqol ko'rinadi. Davlatning boshqa funksiyalarini amalga oshirilishi jarayonida ham, xususan, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalariga subsidiya va kredit berishda, infratuzilma ob'ektlarini yaratish va ularni takomillashtirishda, harbiy qurilish uchun qurol-aslahalarni sotib olishda, davlat qarzlarini va ular bo'yicha foizlarni qaytarishda ham bozor kon'yunkturasini keskin o'zgaradi. Yuqorida bayon etilgan xarajatlar hajmining o'zgartirilishi investitsiyalarning o'lchamiga, jami talabning hajmiga va taklifning tarkibiy tuzilma-siga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shunday qilib, davlat xarajatlari jami talab shakllanishining unumli yo'naltirilishida ijobiy tarkibiy qism (element) bo'lib hisoblanishi mumkin. Teskari holatlarda esa, ya'ni harbiy, boshqaruv, mafkuraviy xarajatlar salmog'ining yuqoriligida, shuningdek, davlat qarzlariga xizmat qilish xarajatlari hajmining katta-ligida davlat xarajatlari faqat qalbaki ijtimoiy talabning o'sishiga olib keladiki, ular oxir oqibatda, qutulib bo'lmaydigan buzuvchan (vayronagarchilik) kuchlarni vujudga keltiradi (jahon amaliyotida bunday misollar juda ko'p, masalan, o'tgan asrning 70-80-yillarida dunyoning katta qismini qamrab olgan inflyatsiya, 1998 yilning avgustida Rossiyada sodir bo'lgan moliyaviy tanazzul, 2008-2010 yillarda yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi, 2014 yilgi Rossiya moliyaviy inqirozi va boshqalar).

Umumdavlat pul fondi mablag'larining sarf etilishi, shubhasiz, davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishini moddiy jihatdan ta'minlaydigan resurslarni to'plashni taqozo etadi. Qo'shilgan qiymatni moliyaviy qayta taqsimlashning dastlabki bosqichida davlat daromadlari – YaIM va MDning bir qismini qaytarilmaslik sharti bilan davlatning ixtiyoriga olish bo'yicha iqtisodiy munosabatlar - xizmat qiladi.

Davlat daromadlarining hajmi va tarkibini o'zgarti-rish yordamida umumishlab chiqarish ko'rsatkichlarining tartibga solish imkoniyatini quyidagi ob'yektiv shart-sharoitlar bilan tushuntirish mumkin. Jismoniy va yuridik shaxslar ega bo'lgan va o'zlarining joriy xarajatlari hamda investitsiyalarini to'lash uchun foydalaniladigan resurslar bir qismining davlat ixtiyoriga o'tkazilishi yuqoridagi ijtimoiy tizim sub'yektlarining daromadlilik darajasini kamaytiradi va jami iste'molning tarkibiy tuzilmasini o'zgartiradi. Resurslarning ma'lum qismini davlat ixtiyo-riga olish sotsial tabaqalanishning darajasini o'zgarti-rishga va ishlab chiqarish samaradorligining quyi yoki yuqori chegaralarini cheklab turishga imkon beradi. Bu narsaga,

birinchidan, aholining kam ta’minlangan tabaqalariga, shuningdek, zararga ishlayotgan yoki past rentabelli korxona-larga ma’lum bir imtiyozlarni taqdim etish orqali erishi-ladi. Ikkinchidan, ustama daromadlarning bir qismini qarama-qarshi yo’nalishda yo’naltirish yordamida (masalan, mehnatni rag’batlantirish yoki meros sifatida o’tadigan mol-mulk, yoki mahsulotlar bahosi sog’lom faoliyat uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlardan yuqori bo’lgan daromadlarning shakllanishiga olib kelsa) qo’lga kiritish mumkin.

Umumiy tarzda, daromadlarning davlat ixtiyoriga oli-nishi quyidagi holatlarga ta’sir etishi mumkin:

- baholarni shakllantirishga (bu, asosan, egri (bilvo-sita) soliqlar);
- ishlab chiqarish xarajatlariga (mol-mulkning qiymati-dan, iste’mol fondidan olinadigan soliqlar, ijtimoiy xarakterdagi byudjetdan tashqari maxsus fondlarga ajrat-malar);
- jamg’armalar hajmiga (investitsion imtiyozlar);
- bandlik va shaxsiy iste’molga (mehnat haqi fondidan olinadigan soliqlar, aholi bandlik fondiga ajratmalar va h.k.lar)[33].

Yuqoridagilardan tashqari, davlat daromadlari ko’ri-nishlari va ularni undirish mexanizmlarining xilma-xilligi davlatga ma’lum bir tovarlar va xizmatlarga bo’lgan talabni maqsadli yo’nalishda tartibga solish, eng samarali texnologiyalar, import mahsulotlari va h.k.larni tanlashga imkoniyat beradi. Ma’lumki, zamonaviy davlatlar-ning ko’pchiligida markazlashtirilgan pul oqimlarining katta qismi soliqlar yordamida shakllantiriladi. Ular umumiy darajasining global pasaytirilishi sof daromadlar, talab, bandlikning oshishiga olib kelsa, tadbirkorlik tashabbusini faollashtirsa, ularning oshirilishi esa bozor kon’yunkturasini “muzlatish”ning ishonchli vositasidir.

Soliqlarning har bir konkret turi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning tabaqalashtirilgan yo’na-lishiga ega. Masalan, sotsial-madaniy soha xo’jalik hisobi-dagi muassasalarining soliqlardan ozod qilinishi yoki ularga ko’pgina soliq imtiyozlarining taqdim etilishi jamiyatning madaniy-ma’rifiy salohiyatini oshirishga, uning axloqiy sog’lig’ining mustahkamlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatishi mumkin. Aholi daromadlari va mol-mulkini soliqqa tortishda ijtimoiy yo’naltirilganlikning kuchayti-rilishi (soliq bazasi va soliq stavkalarining ko’p bolali oilalar, nogironlar va faxriylar uchun kamaytirilishi), o’zining mohiyati jihatidan shu maqsadlar uchun

---

[33] Davlat daromadlarining barchasi u yoki bu darajada takror ishlab chiqarish sub’yektlarining sotsial-iqtisodiy faoliyatini tartibga solib, ijtimoiy munosabatlarning barcha turlariga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shuning uchun ham ularni iqtisodiy ko’rsatkichlarning ma’lum bir guruhiga ustuvor ta’siri yo’nalishi bo’yicha klassifikatsiya qilinishi shartli xarakterga egadir.

davlat xarajatlarining ko'paytirilishini anglatib, jamiyat tuzumi-ning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Korxonalarning taqsimlanmagan foydasi va aktsiya egalariga to'lanadigan dividendlarni soliqqa tortishda tabaqalashtirilgan holda yondoshish ularning foydasidagi nisbatni o'zgatiradi. Ularning birinchi qismiga tegishli bo'lgan stavkalarning kamaytirilishi va bir vaqtning o'zida ikkinchi qismining yuqoriroq stakalarda soliqqa tortilishi o'zini o'zi moliyalashtirishning imkoniyatlarini oshiradi, uzoq muddatli istiqbolda esa hatto, kompaniya haqiqiy egalari tarkibining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Agar korporatsiya taqsimlanmagan foydasiga nisbatan soliqlar oshirilsa va dividendlarga nisbatan ular kamaytirilsa, teskari vaziyat vujudga kelishi mumkin. Mehnatga mo'ljallangan xarajatlarning yuqori darajada soliqqa tortilishi ishlab chiqarish kapital sig'imining oshirilishini foydali qilib qo'ysa, korxona mol-mulkiga nisbatan soliqlarning o'sishi esa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar kapi-tal texnikaviy tuzilishining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Davlat boji bitimlarning sodir bo'lishidan manfa-atdor bo'lgan u yoki bu shaxslar uchun yuridik xizmatlarning mumkinligini tartibga solishga imkon beradi. Bojxona bojlari esa milliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular oshgan paytda tovarlar qimmatlashadi va tashqi savdo aylanmasi qisqaradi. Va aksincha, ularning pasaytirilishi va bekor qilinishi tashqi savdoning kengayishiga, baholar o'sishining sekinlashuviga, ichki va dunyo bozorlarida raqobatning kuchayishiga olib keladi.

Davlat foydasiga mablag'larni olish (undirish) va soliq to'lovchilar xulq-atvorining motivatsiyasi o'rtasidagi sababiy-oqibat aloqalarini (bog'liqlikni) tahlil qila turib, shartli-doimiy (qat'iylashtirilgan) va shartli-o'zgaruvchan soliqlar to'g'risida to'xtalib o'tmaslikning sira iloji yo'q. Birinchi guruhga kiruvchi soliqlarning (korxo-naning mol-mulkidan olinadigan soliqlar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxslardan olinadigan qat'iy soliq va boshqalar) iqtisodiy tavsifi tannarxning shartli-doimiy xarajatlari bilan bir xildir, ya'ni ularning miqdori ishlab chiqarish va sotuvning darajasiga bog'liq emas. Yuridik shaxslar zimmasiga yuklangan jami soliq yuklamasidagi ularning salmog'i faoliyat hajmining o'sishiga proportsional ravishda pasayadi. Bu, bir tomondan, zararga ishlayotgan ishlab chiqarishlarning vayron bo'lishini tezlatsa, ikkinchi tomondan, hayotchan sektorga qo'shimcha erkinlik va afzallik ato etadi, ishbilarmonlik faolligi va kapitallarning kam samarali qo'llanilayotgan sohalardan yuqori

samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan sohalarga oqib o'tishini rag'batlantiruvchi omilga aylanadi[34]. Bundan tashqari, qat'iy soliqlarning undirilishi konkret ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy faoliyatining natijalariga bog'liq bo'lmaganligi uchun davlat byudjeti daromadlari ma'lum bir qismining to'ldirilishini kafolatlaydi.

Shakllangan kapital strukturasiga nisbatan pul mablag'larini shartli-o'zgaruvchan tartibda umumdavlat fondiga olinishi konservativ bo'lsa-da, biroq bu narsa soliq to'lovchilarning ish faolligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langandir. Takror ishlab chiqarish sub'yektlarining faoliyati qancha samarali bo'lsa, ulardan undirilishi lozim bo'lgan shartli-o'zgaruvchan soliqlarning (masalan, foydadan olinadigan soliqning miqdori) miqdori shuncha yuqori bo'ladi. Agar bu soliqlarni undirish mexanizmi tadbir-korlik tashabbusining deyarli bir xil yoki proportsional darajadagi yuklamasini ta'minlashga imkon bersa (boshqacha so'zlar bilan aytganda, davlat oldida soliq to'lovchilar majburiyatlarining nisbiy tengligiga erishilsa), u holda bu narsa, shak-shubhasiz, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni va bosimni yumshatadi. Shunday qilib, yuqorida bayon qilin-ganlardan ko'rinib turibdiki, davlat daromadlari va davlat xarajatlari moliya mazmunini namoyon etuvchilar sifatida iqtisodiyotda va sotsial sohada sodir bo'layotgan jarayonlarga juda kuchli ta'sir o'tkazib, ularning dinamikasi va yo'nalishini keskin o'zgartirib yuborishi mumkin.

Shu erning o'zida byudjet yordamida tartibga solish (makro- va mikroko'rsatkichlarga faqat markaziy byudjet daromadlari va xarajatlarining kompleks siyosatini o'zgartirish orqali) moliyaviy tartibga solishning barcha sohasini qamrab ololmaydi. Chunki taqsimlash va qayta taqsimlashda moliyaviy tizim har bir fondining ta'siri tartibga soluvchi bo'lishi kerak. Xususan, hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda byudjetdan tashqari maxsus fondlar birgalikda markaziy byudjetlar hajmining 1/3 qismidan ½ qismigachasini tashkil etmoqda. Bundan tashqari, bu yerda yana ikkita muhim yo'nalishlar ham mavjud. Bular byudjet defitsitining tarkibiy tuzilmasini shakllantirish va byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishdir[35].

Demak, takror ishlab chiqarish parametrlarini o'zgar-tirish maqsadida moliyaviy munosabatlarning barcha aspekt-laridan

---

[34] Oqimlarning yo'nalishi bozorning ehtiyojlari bilan aniqlanib, byurokratik tartibga solishning talab etilmasligi bu erda e'tiborga loyiq bo'lgan holatlarning yana biridir. Biroq, shartli-doimiy soliqlarni o'rnatishda (belgilashda) tarmoq xususiyatlarining inkor etilishi, xususan, rentabellik normasining tabiiy pastligi bilan xarakterlanadigan faoliyat turlari va resurs sig'imli ishlab chiqarishlar uchun imtiyozlardan voz kechish ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib keladi.

[35] Moliyaviy tartibga solishning yuqorida bayon etilgan elementlarining mazmunini ochib berish maxsus tadqiqot ob'ekti hisoblanadi va ushbu paragraf doirasidan chetga chiqadi.

(yo’nalishlaridan) foydalanish bo’yicha davlat tomonidan tashkil qilinadigan faoliyatga ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish deyiladi. U kishilik jamiyatining tabiiy taraqqiyoti natijasida dunyoga kelgan hamda iqtisodiyot va ijtimoiy soha sog’lom faoliyat ko’rsatishining ajralmas qismi (sharti) hisobla-nadi. Moliyaviy tartibga solishning sub’yekti davlat tuzilmalari bo’lsa, uning ob’yekti ijtimoiy tizim ishti-rokchilarining daromadlari va xarajatlaridir.

Makro- va mikrodarajada jamiyat ehtiyojlarining maksimal qondirilishini ta’minlaydigan jamg’armalarni taqsimlashning proportsiyalarini o’rnatish moliyaviy tartibga solish jarayonida hal qilinishi kerak bo’lgan asosiy vazifa hisoblanadi. Bu narsa shaxsiy, jamoa va ijtimoiy manfaatlar, qadriyatlar va boyliklarning oqilona inobatga olinishini ko’zda tutadi va samarali ishlayotgan bozor mexanizmi bilan davlatning ta’siri tizimini qo’shish muammolarining moliyaviy aspektini (yo’nalishini) aks ettiradi.

Bozor ho’jaligining moliyaviy regulyatorlariga (tar-tibga soluvchilariga) quyidagilar kiradi:

- byudjetga soliqlar va soliq bo’lmagan to’lovlar;
- moliyaviy imtiyozlar va sanktsiyalar;
- byudjet tashkilotlarining ekspluatatsion xarajatlari;
- umumiy va maqsadli subsidiyalar, shu jumladan, davlat buyurtmalarini to’lashga mo’ljallanganlari;
- byudjetdan tashqari maxsus fondlarning daromadlari va xarajatlari;
- davlat korxona va tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari.

Moliyaviy ta’sir ko’rsatishga tartibga solishning quyi-dagi ko’rinishlari (shakllari) xos:

- to’g’ridan-to’g’ri (bevosita);
- egri (bilvosita);
- aralash.

Moliyaviy ta’sir ko’rsatishning to’g’ridan-to’g’ri (bevo-sita) tartibga solish shakli quyidagilar orqali namoyon bo’ladi:

- to’g’ri (bevosita) umumdavlat soliqlarini undirish yordamida;
- taraqqiyot byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirish jarayonida;
- byudjet va markazlashtirilgan maxsus fondlarga soliq-lar va to’lovlar stavkalarini oshirilgan yoki kamaytirilgan tarzda qo’llash yo’li bilan;
- davlat xarajatlarining normativlari miqdorini o’zgartirish orqali;
- moliyaviy intizomni buzganligi uchun jarimalar, penya-larni undirish natijasida.

Bularning barchasi, o’z navbatida, takror ishlab chiqarish sub’yektlari daromadlarining darajasini va bozor kon’-yunkturasini to’g’ridan-to’g’ri (bevosita) o’zgartiradi.

Tartibga solishning egri (bilvosita) shakllari o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- davlat tomonidan egri (bilvosita) soliqqa tortish;
- davlat joriy xarajatlarini amalga oshirish.

Moliyaviy ta’sir ko’rsatishning aralash shakllari orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko’rsatish mumkin:

- mahalliy soliqlar;
- byudjetga soliq xarakteriga ega bo’lmagan to’lovlar;
- faoliyatning alohida turlari va tadbirlarni imtiyozli soliqqa tortish va imtiyozli moliyalashtirish;
- davlat korxonalari va tashkilotlari fondlari hamda markazlashtirilmagan byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanish normativlari.

Davlat daromadlari va davlat xarajatlarining konkret turlari, ularni jalb (mobilizatsiya) qilish va taqdim etish metodlari masalaning tashkiliy tomonlari bilan birgalikda moliyaviy tartibga solishning usullarini o’zida mujassam etadi. Mablag’larni undirish (olish) va moliyalashtirishni taqdim etishning konkret printsiplari bunday ta’sirning xarakterini aniqlab beradi. Va, nihoyat, moliyaviy qonunchilik va hokimiyatning vakolatli organlari moliyaviy tartibga solishni amalga oshirish uchun tashkiliy imkoniyatlarni ta’minlaydi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qiymatni taqsimlash jarayoniga kirib borib, davlat moliyasi markazlashtirilmagan pul fond-larini shakllantirishga ham faol ta’sir ko’rsatadi. Bu narsa, o’z navbatida, mablag’larning individual doiraviy aylanishini ta’minlashga sharoit yaratib beradi.

Oxir oqibatda moliyaviy tartibga solish, davlatning ta’sirini ta’minlashning boshqa shakllari (foizning darajasi, bojxona bojlarining darajasi, davlat korxona-lari mahsulotining bahosi, valyuta kursi, pul massasining hajmi va tarkibiy tuzilmasi, ma’muriy-qonunchilik fao-liyati va boshqalarga ta’sir ko’rsatish) bilan birgalikda asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar dinamikasida ijobiy o’zgarishlar bo’lishini ta’minlashi mumkin. Biroq, amali-yotda bu narsaning sodir bo’lishi ancha murakkab bo’lib, u chuqur va har tomonlamali nazariy ishlanmalar va murakkab matematik hisob-kitoblarga asoslanishni talab qiladi. Bu sohada bunday kompleks tadqiqotlarning mavjud emasligi, albatta, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Bu yerda masala

o’z-o’zidan hal bo’lib ketishi mutlaqo mumkin emas. Shuningdek, “metod” sifatida moliyaviy tartibga solishning cheklangan ekanligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. YaIMning hajmi va o’sish sur’atlari; davlat undirmalarining iqtisodiy jihatdan yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan maksimal darajasi; boshqa “aralash” regulyator-larning ta’siri; ijobiy samaraning majburiy sharti sifatida siyosiy barqarorlik va puxta o’ylangan umumiy iqtisodiy strategiyaning (joriy va uzoq muddatli) mavjudligi kabilarni, bu o’rinda, ana shunday ob’yektiv cheklanmalar (cheklovchilar) qatoriga kiritish mumkin.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Moliyaviy rejalashtirishning mazmunini tushuntirib bering.
- “Moliyaviy rejalashtirish” tushunchasining tarkibiga nimalar kiradi?
- Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalarini aytib bering.
- Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqich-larini tushuntirib bering.
- Moliyaviy rejalarning qanday turlari (ko’rinishlari) mavjud?
- Strategik moliyaviy reja qanday savollarga aniq javob berishi lozim?
- Joriy moliyaviy rejalashtirishning asosiy funksiya-larini aytib bering.
- Moliyaviy tizim alohida bo’g’inlarining nisbiy musta-qilligi nimalarni o’zida aks ettiruvchi moliyaviy rejalar-ning ishlab chiqilishi zarurligini belgilab beradi?
- Moliyaviy rejalashtirishning umumdavlat va hududiy darajalariga nimalar kiradi?
- Balansda aks ettirilayotgan aholining pul daromadlari o’zining manbasiga ko’ra qanday guruhlarga bo’linadi?
- Balansda aks ettirilayotgan aholining pul xarajatlari qanday guruhlardan iborat bo’ladi?
- Ma’lum bir muddatni qamrab olishiga qarab, moliyaviy rejalar qanday guruhlarga bo’linadi?
- Biznes-rejaning tarkibida moliyaviy reja qanday yo’nalishlar bo’yicha ishlab chiqiladi?
- Moliyaviy bashoratlashning ta’rifini ayting.
- Nazariya va amaliyotda moliyaviy bashoratlash nima-larga ajratiladi?

- Moliyaviy bashoratlash jarayonida qanday metodlardan foydalaniladi?
- Moliyaviy rejalashtirishning metodi sifati moliyaviy dasturlashtirish nimalarning bo'lishini ko'zda tutadi?
- Ijtiomoiy-iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta'siri qanday maqsadlar uchun zarur?
- Turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda moliyaning rolini (moliyaviy tartibga solishning rolini) to'liq idrok etish uchun nimalarni atroflicha tahlil qilib chiqmoq lozim?
- Davlatning transformatsion xarajatlari tarkibini aytib bering.
- Davlat xarajatlari ijtimoiy munosabatlarning barqa-rorligini qo'llab-quvvatlab, ular jami talabning hajmi va tarkibiy tuzilmasiga keskin ta'sir ko'rsatadi va bu narsa nimalarda namoyon bo'ladi?
- Umumiy tarzda, davlat daromadlarining olinishini nimalarga ta'sir etishi mumkin, deb ajratib ko'rsatsa bo'ladi?
- Bozor xo'jaligining moliyaviy regulyatorlari (tartibga soluvchilari) tarkibini ayting.
- Moliyaviy ta'sir ko'rsatishga tartibga solishning qanday ko'rinishlari (shakllari) xos?
- Moliyaviy ta'sir ko'rsatishning to'g'ridan-to'g'ri (bevo-sita) tartibga solish shakli nimalar orqali namoyon bo'ladi?
- Tartibga solishning egri (bilvosita) shakllari o'z ichiga nimalarni oladi?
- Moliyaviy ta'sir ko'rsatishning aralash shakllarini tushuntirib bering.

6-bob. Moliyaviy nazorat

6.1. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, ob'yekti, predmeti, tizimi, vazifalari, printsiplari

Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga ob'yektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda (aspektda) qaraladi:

- barcha iqtisodiy sub'yektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartib asosida tashkil etilgan faoliyati;
- moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro- va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi.

Moliyaviy nazoratning har ikki yo'nalishi (aspekti) bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, nazoratning maqsadi, metodi va sub'yektlariga muvofiq ravishda farqlanadi ham. Agar birinchi holda nazoratning huquqiy va miqdoriy tomonlari ustunlik qilsa, ikkinchi holda moliyaviy nazo-ratning analitik tomoniga juda katta e'tibor beriladi.

Barcha iqtisodiy sub'yektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy-xo'jalik operatsiya-larining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo'lishining baholashni o'z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o'zining analitik yo'nalishiga (aspektiga) egadir.

Moliyaviy nazorat qiymat shaklida amalga oshiri-ladigan nazorat bo'lganligi uchun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida amalga oshiriladi va pul fondlari harakatining barcha jarayonlarida, shu jumladan, moliyaviy natijalarni idrok etish jarayonida ham kuzatiladi.

Moliyaviy nazorat nazorat qiluvchi faoliyatning boshqa sohalaridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning ob'yekti va predmeti, nazorat sub'yektlari (hokimiyat va

agentlar) va boshqariladigan sub’yektlarning tarkibi, maqsadlari va vazifalari, shakllari va usullari mavjud.

Moliyaviy nazorat ob’ektlari bo’lib iqtisodiyotdagi barcha sub’yektlarning pul jamg’armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish, shuningdek moddiy, mehnat va boshqa resurslarni jalb qilish jarayonidagi pul oqimlari yoki munosabatlari hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratning predmeti quyidagi moliyaviy ko’rsatkichlardan iborat:

- turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari;
- soliq to’lovlarining hajmlari;
- xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning daromadlari;
- xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning muomala xara-jatlari;
- tannarx va foyda;
- uy xo’jaliklarining daromadlari va xarajatlari;
- va boshqalar.

Moliyaviy nazoratning predmeti hisoblangan yuqoridagi ko’rsatkichlarning ko’plari hisobli ko’rsatkichlar hisoblanadi va bu narsa, o’z navbatida, ularning amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq ravishda hisoblanishining to’g’riligi va ishonchliligini tekshirishni (nazorat qilishni) taqozo etadi.

Moliyaviy nazorat sub’yektlari bo’lib vakolatli davlat organlari, shuningdek, moliyaviy qonunlarga rioya qilini-shini tekshirish bo’yicha faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo’lgan nodavlat tashkilotlar va muassasalari hisob-lanadi.

Nazorat ostida bo’lgan sub’yektlarga davlat hokimiyati organlari, mahalliy boshqaruv organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va moliyaviy bitimlarni bajaruvchi jismoniy shaxslar kiradi.

Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi davlat moliyaviy faoliyatining qonuniyligi va samaradorligini ta’minlash sifatida belgilanishi mumkin.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadini amalga oshirish (vipolneniya), ya’ni moliyaviy faoliyatning qonuniyligi va samaradorligini ta’minlash davlatning moliyaviy siyosatiga bog’liq ravishda muayyan vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi:

- Davlat markazlashtirilgan va markazlashmagan pul mablag’larini shakllantirishda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash;

- Davlat daromadlarini shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish ustidan tegishli nazoratni ta’min-lash;
- nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish;
- hokimiyat organlarii tomonidan tegishli moliyaviy resurslarni to’plash, taqsimlash va ulardan foydalanish funksiyalarini bajarilishini nazorat qiladi;
- tashkilotlar va jismoniy shaxslarning davlat organ-lari va tashkilotlari oldidagi moliyaviy majburiyat-larning bajarilishini tekshirish;
- Byudjetdan mablag’ oluvchilarni byudjet mablag’la-ridan maqsadli foydalanishni tekshirish;
- korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini tekshirish;
- sub’yektlar tomonidan naqd pul hisob-kitoblari va kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga amal qishlinishini tekshirish;
- valyuta va valyuta operatsiyalarni o’tkazish qoidalariga rioya etilishini ta’minlash;
- moliya sohasida jinoyatlarning oldini olish va oldini olish.

Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli bo’lib xizmat qiladi. U ham davlatning va ham boshqa barcha iqtisodiy sub’yektlarning manfaatlari va huquqlarini ta’minlashga qaratilgan.

Moliyaviy nazorat, bir tomondan, o’zaro ta’sirchan va ikkinchi tomondan, mustaqil bo’lgan ikki sohaga bo’linadi[36]:

- davlat moliyaviy nazorati;
- nodavlat moliyaviy nazorati.

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv konkret organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kom-pleksli va maqsadga yo’naltirilgan tizimidir.

Davlat moliyaviy nazoratning ahamiyati va o’rnini ob’yektiv baholansh uchun uni ikki jihatdan ko’rib chiqish kerak: tor va keng ma’noda.

Keng ma’noda davlat moliyaviy nazorati - samarali davlat moliya siyosatini amalga oshirish uchun mamlakat iqtisodiy

---

[36] Ayrim iqtisodchi olimlarning fikricha, moliyaviy nazorat tizimi o’z ichiga quyidagilarni oladi: davlat moliyaviy nazorati; kontragentlar bilan moliyaviy-hisob-kitob munosabatlari jarayonidagi nazorat; nodavlat moliyaviy nazorati. (Qarang: Finansi, nalogi i kredit. Uchebnik. Izd. 2-e, dop. i pererab. /Pod red. d.e.n., prof. I.D.Matskulyaka. – M.: Izd-vo RAGS, 2007. s.23).

xavfsizligini ta’minlash va davlat moliyaviy jarayonida davlat manfaatlarga rioya etilishini ta’min-laydigan tartibga solish chora-tadbirlarining yig’indi-sidir.

Tor ma’noda davlat moliya nazorati esa mamla-katning samarali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi maqsadida davlat va mahalliy hokimliklarning davlat pul fondlari mablag’larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonining qonuniy va maqsadga muvofiqligi ustidan davlat hokimiyat organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir.

Davlat moliyaviy nazorati davlatning moliya siyosatini amalga oshirishga va moliyaviy barqarorlik uchun sharoit-larni yaratishga qaratilgan. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi. Agar u umummilliy iqtisodiy manfaatlar bilan belgilangan (aniqlangan) bo’lsa, bu holda davlat moliyaviy nazorat-chilari ham davlat sektorida, ham xususiy hamda korporativ biznes sektorida taftish va tekshirishlarni amalga oshirish huquqiga ega bo’ladi. Biroq iqtisodiyotning nodavlat sektorida davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat faqat soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni ham qo’shib olgan holda davlat oldidagi pul majburiyatlarining bajarilishi sohalarini, ularga ajratilgan byudjet subsidiyalari va kreditlarini sarflashda maqsadga muvofiqlilik va qonuniylikning rioya qilinishi va shuningdek, hukumat tomonidan o’rnatilgan pul hisob-kitoblarini tashkil qilish, buxgalteriya hisobi va hisobotni yuritish qoidalariga rioya etilishini qamrab oladi.

Nodavlat moliyaviy nazorati ikkiga bo’linadi: ichki (firma ichidagi, korporativ) va tashqi (auditorlik)[37].

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari (ko’rinishlari, turlari) nazoratni amalga oshirish metod-larining o’xshashligiga qaramasdan, o’zlarining pirovard maqsadlari bo’yicha bir-biridan tubdan farq ham qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish bo’lsa, bunga qarama-qarshi ravishda nodavlat moliyaviy nazorat-ning (ayniqsa, firma ichidagi moliyaviy nazoratning) bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi

[37] Nodavlat moliyaviy nazorat xususida ushbu bobning 6.4-paragrafida batafsilroq to’xtalaniladi.

ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Bir vaqtning o'zida moliyaviy nazoratning har ikki sohasi amaldagi qonunlarning huquqiy ramkasi bilan cheklab qo'yilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida moliyaviy nazoratning o'rni quyidagilarni tekshirish jarayonida namoyon bo'ladi:

birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxona-lar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan moliyaviy faoliyat jarayonida belgilangan qonuniy tartibga rioya qilinishida,

ikkinchidan, qabul qilingan chora-tadbirlarning samara-dorligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi hamda davlat vazifalariga mos kelishida.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi, asosan, bir tipda bo'lib, quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- bevosita mamlakatning parlamenti yoki Preziden-tiga bo'ysunuvchi hisob palatasi. Bu tashkilotning bosh maqsadi davlat mablag'larining sarflanishi ustidan umumiy nazoratni o'rnatishdir;
- asosan soliqli daromadlarning davlat xazinasiga kelib tushishini nazorat qiluvchi va mamlakat prezidenti, hukumati yoki moliya vazirligiga bo'ysunuvchi soliq muassasi;
- quyi tashkilotlarini tekshiruvchi va taftish qiluvchi davlat tashkilotlarining tarkibidagi nazorat qiluvchi organlar;
- hisobot hujjatlarining ishonchliligini va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tijorat asosida tekshiruvchi nodavlat nazorat xizmatlari;
- asosiy vazifasi xarajatlarni qisqartirish, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va foydani oshirish bo'lgan ichki nazorat xizmatlari.

Moliyaviy qonun bilan tartibga solinadigan munosa-batlarda moliyaviy nazoratning asosiy yo'nalishlari (tarkibi) quyidagilar:

- davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'z vakolatlari doirasida moliyaviy resurslarni to'plash, taqsimlash va ulardan foydalanish funksiyalarini bajarilishini tekshirish;
- davlat va hokimiyat organlarining fuqarolar va tashkilotlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajari-lishini tekshirish;
- tashkilot va fuqarolarning davlat va mahalliy boshqaruv organlari olddidagi majburiyatlar bajarili-shini tekshirish;
- davlat korxonalari, muassasalari, tashkilotla-rining moliyaviy mabalag'lari (byudjet mablag'lari, o'z mablag'lari, bank kreditlari, byudjetdan tashqarida va boshqa mablag'lari)dan foydalanishning qonuniyligini va maqsadga muvofiqligini (samaradorligini) tekshirish;

▪ korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan moliyaviy bitimlar tuzish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va pul mabalg'larini saqlash qoidalariga rioya etilishini tekshirish;

▪ ichki ishlab chiqarish zaxiralarini aniqlash - iqtisodiyotning rentabelligini oshirish, mehnat unumdor-ligini oshirish, moddiy va pul resurslaridan yanada tejamkor va samarali foydalanish imkoniyati;

▪ moliyaviy intizom buzilishining oldini olish va bartraf etish; moliyaviy intizom buzilishi aniqlangan taqdirda belgilangan tartibda tashkilotlarga, mansabdor shaxslarga va fuqarolarga nisbatan choralar qo'llaniladi va davlatga, tashkilotlarga va fuqarolarga etkazilgan moddiy zarar qoplanadi.

Bozor xo'jaligi asoslarining mustahkamlanib borishi bilan moliyaviy nazoratni tashkil etish masalalari yanada huquqiyroq xarakterga ega bo'lib, sekin-astalik bilan g'arb modeliga yaqinlashadi. Bu model amaliyotda o'zining samaradorligini yaqqol ko'rsatgan[38].

Jahon hamjamiyati ko'p yillik tajriba asosida moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy printsiplarini ishlab chiqqanki, hozirgi paytda ularga rioya qilishga dunyoning har bir tsivilizatsiyalashgan davlati intiladi. Bu printsiplar INTOSAI[39]ning Lima deklaratsiyasida o'z aksini topgan. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mustaqillik;
- ob'yektivlik;
- kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik);
- oshkoralik.

Moliyaviy nazoratning mustaqilligi nazorat organining moliyaviy jihatdan mustaqilligi, nazorat organlari rahbarlarining vakolat muddatlarining parlament muddatlaridan uzoqligi, shuningdek ularning konstitutsion xarakteri bilan ta'minlanishi kerak. Ob'ektivlik va kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik) nazoratchilar tomonidan amaldagi qonunchilikka so'zsiz itoat etilishini, taftish ishlarini amalga oshirishning belgilangan (o'rnatilgan) standartlariga (andozalariga) qattiq rioya etish asosida nazoratchilar ishining yuqori kasbiy darajada bo'lishini taqoza etadi. Oshkoralik davlat

---

[38] AQSh Kongressining ma'lumotlariga ko'ra, 50 yilda federal nazorat-taftish organlarining faoliyatidan olingan jami iqtisodiy samara 500 mlrd. dollardan kam bo'lmagan. Qarang: Somenkov A.D. Parlamentskiy kontrol za ispolneniem gosudarstvennogo byudjeta. – M.: Ekonomika, 1998. s. 79.

[39] INTOSAI – dunyoning 178 mamlakati oliy nazorat organlarining Xalqaro tashkiloti. Uning doirasida mintaqaviy tashkilotlar ham amal qiladi. Ulardan biri EVROSAI bo'lib, u oliy nazorat organlarining Evropa tashkilotidir.

nazoratchi-larining jamotchilik va ommaviy axborot vositalari bilan doimiy aloqada bo'lishini ko'zda tutadi.

Moliyaviy nazoratni tashkil qilish tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi qonunlar qabul qila turib, har bir davlat, odatda, yuqoridagi printsiplarga tayanadi (asoslanadi). Bir vaqtning o'zida, har bir davlatda nazorat harakatlarining o'z reglamenti (tartibi va ketma-ketligi) mavjud bo'lib, bu narsa pirovardida moliyaviy nazoratning natijalariga o'z ta'sirini, albatta, ko'rsatadi.

6.2. Moliyaviy nazorat turlari, shakllari va metodlari

Moliyaviy nazorat samaradorligi uni amalga oshi-rishning turlari, shakllari va usullari bilan ta'min-lanadi. Moliyaviy nazorat turli mezonlar bo'yicha shartli ravishda tasniflanishi mumkin.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sub'yektlarga ko'ra uning quyidagi turlari mavjud:

- umumdavlat moliyaviy nazorati;
- idoraviy moliyaviy nazorat;
- xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat;
- jamoatchilik moliyaviy nazorati;
- mustaqil moliyaviy nazorat.

Umumdavlat moliyaviy nazorati qonun chiqaruvchi organlar, ijrochi organlar (Oliy majlis, Vazirlar Mahka-masi) tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat tomonidan tashkil etilan maxsus vakolatli organlar (Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi daromad olish va davlat mablag'larini sarflashda davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlashdan iborat.

Ushbu nazoratning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- pul mablag'lari va moddiy boyliklarni talon-taroj qilinishi va kamomadlarga yo'l qo'yilish holatlarini, xo'jasizlik va boshqa qonun buzilishlarini, moliyaviy intizom buzilishlarini aniqlash,
- ularni kelib chiqish shart-sharoiti va sabablarini o'rganish, bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- aybdor shaxslar tomonidan etkazilgan zararni qoplash bo'yicha choralar ko'rish va h.k.

Amaliyotda umumdavlat moliyaviy nazorati respublika va mahalliy darajada o'tkaziladi:

- respublika darajasida – O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining va respublika byudjetidan moliyalashtiri-ladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg’armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;
- mahalliy darajada – Qoraqalpog’iston Respu-blikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilot-lari byudjetdan tashqari jamg’armalarining shakllanti-rilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Idoraviy (mahkamaviy) moliyaviy nazorat vazirlik-larning nazorat organlari va mahalliy hokimiyat organla-rining bo’limlari tomonidan ularga bo’ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan.

Xo’jalik ichidagi (ichki) moliyaviy nazorat korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moliyaviy xizmatlari, xususan buxgalteriya, moliya bo’limlari, ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Moliyaviy nazo-rat ob’yekti bo’lib korxona va uning tarkibiy bo’linmalari (tsexlar, bo’limlar, bo’linmalar va filiallar)ning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati hisoblanadi.

Jamoatchilik moliyaviy nazorati ixtiyoriylik va beg’arazlik asosida guruhlar, alohida shaxslar (mutaxassislar) va nodavlat tashkilotlari tomonidani amalga oshiriladi. Nazorat ob’yekti tekshiruvchilarning oldilariga qo’yilgan aniq maqsadlariga bog’liq ravishda belgilanadi. Mamlakatimizda jamoatchilik nazorati «Jamoatchilik nazorati to’g’risida»gi qonun[40] ga asosan amalga oshiriladi. Jamoatchilik moliyaviy nazora-tining ob’yekti bo’lib davlat moliyaviy organlari va ularning mansabdor shaxslarining o’zlariga qonunchilik bilan yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog’liq moliyaviy faoliyati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro’yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati sub’yektlaridir.

Mustaqil moliyaviy nazorat maxsus organlar: auditorlik firmalari va boshqa xizmatlar tomonidan o’tkaziladi. Auditorlik faoliyatining asosiy maqsadi tekshirilayotgan sub’yektning moliyaviy hisobotining

[40] 2018 yil 12 apreldagi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ—474 qonuni. http://www.lex.uz

ishonchliligi buyicha xulosa berish hamda moliyaviy bozorga ishonchli axbarot berishni ta'minlashan iborat.

Moliyaviy nazoratning shakllarini quyidagi mezonlar bo'yicha klassifikatsiya qilinadi:

- o'tkazish vaqti bo'yicha
- amalga oshirilish reglamenti;
- nazoratning sub'yektlari;
- nazoratning ob'ektlari.

O'tkazilish vaqtiga ko'ra moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dastlabki;
- joriy (operativ);
- navbatdagi (kelgusi, so'nggi).

Dastlabki moliyaviy nazorat korxonalarning moliyaviy rejalarini, tashkilot va muassasalarning daromad va xarajtlar smetalarini, byudjet loyihalari, bitim shartnomalari va boshqalarni tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash bosqichlarida amalga oshiriladi. Buning natijasida mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni noto'g'ri, nooqilona sarflanishini va sub'yektlarning salbiy moliyaviy natijaga erishilarini oldi olinadi.

Joriy moliyaviy nazorat sub'yektlarning, jumladan davlat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moliyaviy rejalarini amalga oshirish jarayonida moliyaviy tartib-qoidalar buzilishining oldini olish maqsadida moliya va g'aznachilik organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, tashkilotlarning hisobchilari, moliyaviy xizmat bo'limlari tomonidan doimiy ravishda o'tkaziladi.

Navbatdagi (keyingi) moliyaviy nazorat hisobot davri va moliyaviy yil yakunlanganidan keyin amalga oshiriladi. Bunda byudjet ijrosi, byudjet muassasalarining smeta ijrosi, shuningdek korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy rejalarini bajarilishi natijasida moliyaviy mablag'larning sarflashishini maqsadga muvofiqligi tekshiriladi.

Amalga oshirilish reglamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- majburiy (tashqi);
- tashabbusli (ichki).

Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy (tashqi) nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bular, masalan, asosan tashqi, mustaqil nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlariga, byudjet resurslaridan maqsadli

foydalanish ustidan nazoratga, korxona va tashkilotlarning moliya-buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlarini majburiy auditorlik tasdiqlanishiga va h.k.larga tegishli bo’lishi mumkin.

Tashabbusli (ichki) moliyaviy nazorat moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi sifatida moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmasdan, sub’yektlarning moliyaviy siyosatini to’g’ri yo’lga qo’yish maqsadida amalga oshiriladi. . Nazorat sub’eklari bo’yicha moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari bo’lishi mumkin:

- Prezident moliyaviy nazorati;
- davlat hokimiyati organlarining moliyaviy nazorati;
- moliya-kredit organlarining moliyaviy nazorati;
- firmaviy-ichki moliyaviy nazorat;
- auditorlik moliyaviy nazorati;
- va boshqalar.

Nazorat ob’ektlariga muvofiq ravishda moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari mavjud:

- byudjet moliyaviy nazorati;
- soliqlar bo’yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- bojxona nazorati;
- valyuta operatsiyalari ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- sug’urta faoliyati bo’yicha moliyaviy nazorat;
- kredit operatsiyalari bo’yicha moliyaviy nazorat;
- pul massasi ustida amlga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- investitsion faoliyat bo’yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- va boshqalar.

Byudjet nazorati moliyaviy nazoratning eng muhim shakllaridan biri bo’lib, byudjetlarni tuzish, ko’rib chiqish va tasdiqlash bosqichidagi vazifasi byudjetning daromad qismida mavjud zahiralardan foydalanishning to’liqligini tekshirish hisoblanadi. Shuningdek, byudjet xarajatlarini amalga oshirishda har bir turdagi moliyalashtirishni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini tekshiradi. Byudjetni ijro etish jarayonida byudjet mablag’larini taqsimlashning o’z vaqtida bajarilishi, ularning maqsadli va samarali qo’llanilishi nazorat qilinadi.

Soliq nazorati moliyaviy nazoratning bir qismi bo’lib, uning asosiy maqsadi soliqqa tortishning takomillashgan tizimini tashkil etish, soliq to’lovchilar, banklar va boshqa soliqqa oid munosabatlar

qatnashuvchilari o’rtasida soliq qonunchiligini buzilishiga yo’l qo’ymaydigan soliq intizomini yaratishdan iboratdir.

Bojxona nazorati qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta’minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo’llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iborat bo’lib, uning asosiy vazifasi bojxona chegarasidan o’tayotgan tovar va transport vositalarini nazoratdan va ko’rikdan o’tkazishda, ularni qonuniyligini aniqlash va tasdiqlash, bojxona bojlari va boj to’lovlarini o’z vaqtida va to’liq undirilishin ta’minlashdan iborat.

Valyuta nazorati valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy–huquqiy chora-tadbirlar tizimi bo’lib, bunda amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan litsenziyalar va ruxsatnomalarning mavjudligi tekshiriladi. Valyuta nazoratining maqsadi mamlakatda eksportdan valyuta tushumlarini to’liq va o’z vaqtida olinishini va import qilinadigan tovarlar uchun xorijiy valyutadagi to’lovlarning haqiqiyligini ta’minlashdan iborat.

Sug’urta nazorati sug’urta operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka rioya etilishini ta’minlashdan iborat bo’lib, uning maqsadi sug’urta bozori va uning ishtirokchilarini xatti-harakatlarini qonunchilik talablariga mos bo’lishini ta’minlash hamda sug’urtalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

- investitsion faoliyat bo’yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;

Pul-kredit nazorati mamlakatdagi pul-kredit munosabatlarini qonuniyligini, ya’ni bu sohada qonunchilikning buzilish holatlarini, jumladan valyuta aktivlarini noqonuniy asosda xorijga chiqib ketish va inflyatsiyani kuchayib ketish holatlari oldini oladi va nazoratini ta’minlaydi. Kredit nazorati kredit beruvchi tashkilotlar tomonidan kredit berish, uni tekshirish va kreditlarni qaytarish vaqtida amalga oshiriladi.

Investitsiya nazorati investiyalangan maablag’lardan samarali foydalanishni nazorat qilishga qaratilgan bo’lib, asosiy vazifalaridan biri markazlashgan investitsiyalardan foydalangan holda investitsion loyihalarni amalga oshirish va monitoring qilish hamda investitsion jarayonning samaradorligini oshirish uchun mablag’larni keng jalb qilishga shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Moliyaviy nazorat uni amalga oshirish usullari yordamida amalga oshiriladi va amaliyotda uning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- tekshiruv;
- tadqiq etish;
- boshqaruv nazorati;
- moliyaviy holat tahlili;
- kuzatuv (monitoring);
- taftish.

Tekshiruv sub'yektlarning hisobot, balans va smeta hujjatlari asosida moliyaviy-xo'jalik faoliyatining alohida masalalari bo'yicha amalga oshiriladi. Natijada moliyaviy intizomning buzilish holatlari aniqlanadi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Tadqiq etish korxonalar, tashkilotlar, muassasalar faoliyatining o'ziga xos tomonlarini o'z ichiga oladi, ammo tekshirishlardan farqli o'laroq, kengroq ko'rsatkichlar bo'yicha iqtisodiy tashkilotlarning moliyaviy ahvolini, ularni rivojlantirish istiqbollarini, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish yoki yo'naltirish zaruratini belgilaydi. Tadqiq etish jarayonida bajarilgan ishlar, material, yoqilg'i va energiyalarning sarflanish hajmlari nazorat tarzida o'lchanadi. Shuningdek, tadqiq etish so'rash, kuzatish va inspektsiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Boshqaruv nazoratida boshqarish organlari tomonidan muayyan faoliyat turiga litsenziya olgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati ustidan nazorat olib boriladi. Nazoratning maqsadi belgilangan tartib va qoidalarga rioya etilishini nazorat qilishdan iborat bo'lib, ularning buzilishi litsenziyaning bekor qilinishiga olib keladi (masalan, sug'urta, bank, auditorlik faoliyatida).

Moliyaviy nazorat usuli sifatida tahlil qilish tizimli va omillarga asoslangan bo'lishi kerak. U davriy yoki yillik hisobotga muvofiq amalga oshiriladi. Tahlil orqali rejani bajarilish darajasi, xarajatlar normalariga amal qilish holatlari, moliyaviy intizomga rioya etilishi va hokazolar aniqlanadi. Moliyaviy nazoratni ng tahlil usuli iqtisodiy faoliyat natijalarini, tashkilotlarning, korxonalar va muassasalarning moliyaviy holatini baholash uchun moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini batafsil o'rganishga qaratilgan.

Kuzatuv (monitoring) bu xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatidagi mavjud o'zgarishlarni aniqlash uchun doimiy ravishda olib boriladigan nazorat ishlarining tizimidir. Masalan, kredit

tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlardan foydalanish va qarz oluvchining moliyaviy holati doimiy ravishda kuzatiladi. Qabul qilingan kreditlarning samarasiz ishlatilishi va to'lov qobiliyatining pastligi kreditlarning yanada yomonlashuviga va kreditni muddatidan ilgari qaytarish talabiga olib kelishi mumkin.

Taftish moliyaviy nazoratning keng tarqalgan usuli bo'lib, korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xo'jalik faoliyatini o'zaro bog'langan kompleks tekshiruvidan iboratdir. Taftish moliya va soliq masalalari bo'yicha qonunchilikka rioya qilinishi, soliq, bojxona, boshqa organlarga, bankka va davlat statistika organlariga taqdim etiladigan hisob-kitob va hisobotlarning ishonchliligi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning buxgalteriya va boshqa moliya-ishlab chiqarish hujjatlarini tekshirish uslubidir.

Ob'ektga qarab, to'liq, qisman, mavzuli va kompleks taftishlar mavjud. Ular rejalashtirilgan va rejadan tashqari ham bo'lishi mumkin.

Taftish jarayonida axborotni qamrab olish darajasiga qarab, barcha hujjatlar va moddiy qiymatlarni nazoratini qamrab oluvchi to'liq taftish hamda hujjatlarning bir qismini nazorat qilishni qamrab oluvchi qisman taftishlarga bo'linadi.

Tekshiruvlar o'tkaziladigan materialning xarakteri bo'yicha hujjatli (hisobot hujjatlarining haqiqiyligini va qayd etilgan hujjatlardagi yozuvlarni tekshirish) va haqiqiy (pul va moddiy boyliklarning mavjudligini tekshirish) taftishlarga bo'linadi.

Mavzuli taftish bir tipdagi korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyati bo'yicha ma'lum bir mavzuga bag'ishlab o'tkaziladiki, bu narsa ularga xos bo'lgan tipik kamchiliklar va buzilmalarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarning qo'llanilishiga imkon beradi.

Kompleksli taftish tekshirilayotgan korxona, tashkilot va muassasa faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oladigan va eng to'liq bo'lgan taftish bo'lib, u nazorat sub'yektining xo'jalik va moliya faoliyatini, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning butligi va ulardan samarali foydalanish masalalari, buxgalteriya hisobi va hisobotining holati va sifati kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Kompleksli taftish natijalarining to'liqligi va samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Rejali taftish vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan reja asosida o'tkazilsa, rejadan tashqari taftish qonun hujjatlarini buzilish holatlari aniqlangan, asosli shikoyatlar tushganda huquqni

muhofaza qiluvchi organlar tashabusi bilan, shuningdek yuridik shaxs tugatilayotganda o’tkaziladi.

Taftishning har qanday turini o’tkazish uchun taftishning maqsadi, ob’yekti, mavzusi va asosiy masalalari ko’rsatilgan dastur tuziladi.

O‘tkzilgan taftish natijalari bo’yicha dalolatnoma tuziladi va uning asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, aybdorlarni javobgarlikka tortish choralari belgilanadi.

6.3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari

Moliyaviy nazorat tizimida umudavlat nazorat organlari, maxsus moliyaviy nazorat organlari alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan hokimiyatni taqsimlanish printsipi Prezident va vakolatli hukumat organlari tomonidan ijro hokimiyati organlarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilishni nazarda tutadi. Bunday nazorat, avvalambor, respublika va mahalliy byudjetlarni, davlat maqsadli nobyudjet fondlarining loyihalarini ko’rib chiqish va qabul qilishda hamda ularning ijrosi haqida hisobotlarni tasdiqlashda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-moddasining 8-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vazirlar Mahkamasining taqdimoti bo’yicha mamlakat byudjetini qabul qiladi va uning ijrosi ustidan nazorat o’rnatadi. Xalq deputatlari Kengashlari ayrim mintaqalarga ajratiladigan byudjet mablag’laridan maqsadli foydalanish hamda mahalliy byudjetlarning ijro etilishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, vakolatli organlar zimmasiga ayrim tarmoqlar va sohalarda byudjet mablag’laridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilishi mumkin.

Parlament nazorati sohasidagi milliy tajriba, ushbu masalada huquqshunos-olim va ekpertlarning nazariy qarashlari hamda xorij tajribasini o’rgagan holda mamlakatimizda 2016 yil 11 aprelda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining parlament oldidagi mas’uliyatini kuchaytirish, munosabatlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati” to’g’risida O‘RQ-403-sonli Qonuni qabul qilindi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o’z zimmalariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo’yicha faoliyati parlament nazorati ob’yekti hisoblanadi[41].

Moliyaviy nazorat bilan bog’liq Parlament nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- navbatdagi yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg’armalarining byudjetlarini hamda

[41] O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati” to’g’risida O‘RQ-403-sonli Qonuni. http://www.lex.uz

soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qilish, shuningdek Davlat byudjeti ijrosining borishini ko'rib chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzasini ko'rib chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini eshitish;
- Qonunchilik palatasi, Senat majlislarida hukumat a'zolarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini eshitish;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotini eshitish.

Shu o'rinda bevosita moliyaviy nazorat bilan bog'liq Parlament nazorati shakllariga batafsil to'htalib o'tamiz.

Davlat byudjeti loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay Hisob palatasining xulosasi bilan birga Oliy Majlis palatalariga kiritiladi. Davlat byudjeti loyihasi fraktsiyalarda, deputatlar guruhlarida, Qonunchilik palatasining qo'mitalarida dastlabki tarzda muhokama qilinadi, ular Davlat byudjeti loyihasi bo'yicha fikrlar va takliflarni ishlab chiqadi.Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi fraktsiyalardan, deputatlar guruhlaridan, Qonunchilik palatasi qo'mitalaridan kelib tushgan fikrlar va takliflarni umumlashtiradi hamda Davlat byudjeti loyihasini Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqish masalasi bo'yicha xulosa tayyorlaydi. Qonunchilik palatasi Davlat byudjeti loyihasini, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqadi. Davlat byudjeti loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilayotganda u fraktsiyalarning, deputatlar guruhlarining, Qonunchilik palatasi qo'mitalarining kelib tushgan mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda maromiga etkazish uchun Vazirlar Mahkamasiga yuborilishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjeti loyihasini maromiga etkazadi va uni Qonunchilik palatasi qayta ko'rib chiqishi uchun kiritadi. Davlat byudjetining loyihasi bo'yicha qaror Qonunchilik palatasi tomonidan joriy yilning 15 noyabridan kechiktirmay qabul qilinishi kerak. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Davlat byudjeti ko'rib chiqish uchun Senatga yuboriladi. Senatga kelib tushgan Davlat byudjeti Senatning Byudjet

va iqtisodiy islohotlar masalalari qo’mitasi tomonidan dastlabki tarzda ko’rib chiqiladi. Davlat byudjeti yuzasidan qaror Senat tomonidan joriy yilning 15 dekabridan kechiktirmay qabul qilinishi kerak.

Qonunchilik palatasi har yili, hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay o’z majlisida Hisob palatasining hisobotini eshitadi. Ushbu hisobot dastlabki tarzda fraktsiyalar, deputatlar guruhlari, shuningdek Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo’mitasi tomonidan ko’rib chiqiladi. Hisob palatasining hisobotini eshitish yakunlari bo’yicha Qonunchilik palatasi qaror qabul qiladi, qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o’n kun ichida Hisob palatasiga va Senatga yuboriladi. Shundan Hisob palatasining hisoboti dastlabki tarzda Senatning Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo’mitasi tomonidan ko’rib chiqiladi. Hisob palatasining hisobotini eshitish yakunlari bo’yicha Senat qaror qabul qiladi, qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o’n kun ichida Hisob palatasiga va Qonunchilik palatasiga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining Senatga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan har yilgi hisoboti Senatning navbatdagi majlisida dastlab Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo’mitasi tomonidan ko’rib chiqiladi. Ushbu hisobotini eshitish yakunlari bo’yicha Senat qaror qabul qiladi, qaror O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yuboriladi.

Davlat byudjetining ijrosi ustidan Qonunchilik palatasi nazoratni amalga oshiradi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan Davlat byudjeti ijrosining borishi to’g’risidagi axborotni va zarur materiallar asosida moliya yilining har choragidagi byudjet ijrosining borishini ko’rib chiqadi. Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay Hisob palatasining xulosasi bilan birga taqdim etilgan Davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni fraktsiyalar, deputatlar guruhlari va Qonunchilik palatasining qo’mitalarida dastlabki tarzda muhokama qilish asosida ko’rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Moliyaviy nazorat bo’yicha muhim vazifa va funksiyalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga ham yuklatilgan. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to’g’risida» 1993 yil 6 maydagi qonunining 12-moddasiga muvofiq u vazirliklar, davlat qo’mitalari, idoralar va boshqa davlat va xo’jalik boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. U davlat moliyaviy nazoratini

amalga oshiruvchi organlar vakolati va funksiyalari tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga[42]ga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjet sohasida quyidagi vakolatlar berilgan:

- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlari loyihalarini ko’rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;
- byudjetnoma loyihasini ko’rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- byudjetnomani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;
- davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni har chorakda ko’rib chiqadi;
- o’tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni tashqi audit o’tkazish hamda baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga asosan, xususan Davlat byudjeti xarajatlariga, respublika byudjetining xarajatlar yoyilmasiga va Davlat maqsadli jamg’armalarining byudjetlariga o’zgartirishlar kiritish tartibi nazarda tutilgan hollarda moliya yili mobaynida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari parametrlariga o’zgartirishlar kiritish to’g’risidagi takliflarni ko’rib chiqadi;

---

[42] O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 25-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2013 y., 52-I-son

- O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo’shimcha manbalaridan foydalanish to’g’risida qarorlar qabul qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg’armasi mablag’laridan foydalanish to’g’risida qarorlar qabul qiladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasi joriy moliya yili uchun mo’ljallangan Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori ortgan taqdirda Moliya vazirligining taqdimnomasiga ko’ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirish to’g’risida takliflar kiritadi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga davlat va ijroiya hokimiyat boshlig’i sifatida katta vakolatlar berilgan. Respublika Konstitutsiyasi 93-moddasining 8-bandiga muvofiq Prezident ijroiya hokimiyat apparati va jumladan, davlat moliyaviy nazorati funksiyalarini amalga oshiruvchi organlar (Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va boshqalar)ni shakllantiradi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida Hisob palatasiga katta rol ajratilgan[43] bo’lib, tashqi audit va moliyaviy nazoratning eng yuqori organi hisoblanadi.

Jahon amaliyotida mamlakatlarning Hisob palatasi mamlakat byudjetini, davlat aktivlari va passivlari holati va harakatini, oltin-valyuta zaxiralarini, davlat qarzlarini nazoratini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi mustaqil va ob’yektiv organ bo’lib, mamlakatimiz Prezidenti va Oliy Majlisiga hisob beradi.

Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihalari parametrlarini shakllantirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor jihatlariga mosligini tizimli tahlil qiladi, qabul qilinayotgan davlat va hududiy dasturlarni moliyalashtirish manbalari auditini ta’minlaydi. Shuningdek, palata byudjet tizimi byudjetlariga mablag’lar va byudjetdan tashqari boshqa mablag’lar to’liq tushishini o’rganib boradi hamda nazorat qiladi, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llashni kengaytirish orqali byudjet daromadlarini oshirishni aniqlaydi va zaxiralarini safarbar qiladi. O‘z navbatida byudjeti tizimi byudjetlari va byudjetdan tashqari boshqa mablag’lar hisobidan xarajatlarning samaradorligi va qonuniyliligini auditdan

---

[43] Hisob Palatasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 21 iyundagi PF-3093-son Farmoni bilan tashkil etilgan. http://www.lex.uz

o’tkazadi, ularni barcha darajalarda qisqartirish bo’yicha zaxiralarni aniqlaydi.

O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni[44]ga asosan pul-kredit va valyuta siyosati, davlat aktivlari va majburiyatlari holati, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarishni, shuningdek, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan amalga oshiriluvchi amaliyotlarni tashqi auditdan o’tkazish vazifasi ham topshirildi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida, jumladan moliya sohasida tub o’zgarishlarni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi va ushbu organ asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

birinchi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihasi parametrlari shakllantirilishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalish-lariga muvofiqligini tizimli tahlil qilish, qabul qilinayotgan davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlanganligining auditini amalga oshirish;

ikkinchi, byudjet tizimi byudjetlariga mablag’lar va boshqa byudjetdan tashqari mablag’lar tushumining to’liqligini o’rganish va nazorat qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo’llash orqali byudjet daromadlarini ko’paytirish zaxiralarini aniqlash va safarbar qilish;

uchinchi, byudjet tizimi byudjeti va boshqa byudjetdan tashqari mablag’lar hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlarning samaradorligi va qonuniyligini auditdan o’tkazish va barcha darajada ularni qisqartirish bo’yicha zaxiralarni aniqlash, byudjet tizimi byudjetlari va davlat tomonidan jalb qilingan mablag’larhisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligi va asosliligini baholash;

to’rtinchi, soliq va byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish bo’yicha takliflarni ishlab chiqish, tizimli qonunbuzarliklarning sabablari hamda o’zini oqlagan jahon tajribasini o’rganish va umumlashtirish orqali byudjetni rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy qilish;

beshinchi, respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o’rtasidagi nisbatning maqbulligini, mahalliy davlat hokimiyati organlarining

---

[44] 2017 yil 10 avgustdagi PF-5147-son Farmoni.

daromad bo'yicha vakolatlari va xarajatlar bo'yicha majburiyatlari belgilanishining to'g'riligini baholash, ularning o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

oltinchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'i bo'yicha davlat va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarni amalga oshirishning to'liqligi va samaradorligi bo'yicha nazoratni tashkil etish;

ettinchi, O'zbekiston Respublikasining pul-kredit va valyuta siyosati, davlat aktivlari va majburiyatlarining holati, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish, shuningdek qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bajarilayotgan operatsiyalarni tashqi auditdan o'tkazish.

Hisob palatasi o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida huquqlarga ega [45]:

- davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa organlar hamda tashkilotlardan o'zining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha materiallar va ma'lumotlarni so'rab olish;
- o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari va tashkilotlarning ma'lumotlar bazasiga kirish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankdan davlat mablag'larini bank hisob raqamlaridagi va yagona g'azna hisobvarag'idagi harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rab olish;
- tekshirish o'tkazish va uning natijalari bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- tekshirishlar o'tkazish uchun o'z vakolati doirasida davlat organlari va ularning vakillari, nodavlat auditor xizmatlari va alohida mutaxassislarni jalb qilish;
- Davlat byudjeti daromadlari prognozining to'g'riligini baholash, soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligi to'liqligini va soliqqa tortish ob'ektlarining to'liq hisobga olinishini ta'minlash bo'yicha o'tkaziladigan nazorat tadbirlariga moliya, soliq va boshqa organlarning xodimlarini jalb etish;

---

[45] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5147-son Farmoni. http://www.lex.uz

- Hisob palatasi vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha tekshirilayotgan tashkilotning mansabdor shaxslaridan yozma tushuntirishlar olish;
- nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati samaradorligini oshirish, samarasiz soliq hamda bojxona imtiyozlarini bekor qilish, soliq ma'muriyatchiligi va soliq solinadigan bazaning to'liq qamrab olinganligini yaxshilashga qaratilgan soliq stavkalarini o'zgartirish yuzasidan takliflar kiritish;
- o'z vakolatlari doirasida davlat organlari va tashkilotlarga ularning ma'lumotlar bazasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlariga hududiy davlat soliq va moliya organlari rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risida taqdimnomalar kiritish;
- Hisob palatasi bilan oldindan kelishilib olinishi belgilangan barcha masalalar bo'yicha tegishli xulosalar berish.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari alohida o'rin tutadi. Moliya-kredit tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlarning mazmuni va maqsadi belgilangan vakolat doirasidagi amaliy ehtiyojlar bilan belgilanadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi.

Mamlakatimizda moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq-byudjet siyosatiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan vazifalari, funksiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko'rib chiqish maqsadida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda uning bo'linmalari faoliyatining ustuvor vazifalari hamda yo'nalishlari etib belgilandi[46]:

[46] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-son Qarori. http://www.lex.uz

- iqtisodiy o’sishning barqaror yuqori sur’atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta’minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to’liq va o’z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo’naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;
- iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash, mineral-xom ashyo, er-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to’lovlarning rag’batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo’li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa majburiy to’lovlarni hisoblash va to’lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq yig’ilishini ta’minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;
- byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subventsiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o’zini o’zi qoplay olishini ta’minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida Davlat byudjetiga qo’shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to’liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;
- moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo’nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me’yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarini kamaytirishga jamlash;
- iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo’jaligini moliyaviy qo’llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar

belgilash tartibini takomillashtirishhamda to'lov intizomini mustahkamlash;

- byudjet tizimidagi byudjet mablag'laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat'iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-torojlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo'jalik sub'yektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va o'z vaqtida to'lash bo'yicha o'rnatilgan qoidalarning qo'llanilishini muvofiqlash-tirish hamda ularni nazorat qilish;
- sug'urta tashkilotlarining sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;
- davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo'linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillashtirish, moliya organlari faoliyatida byurokratizm va sansalorlik hollariga yo'l qo'ymaslik, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o'z vaqtida e'tiborqaratish, zimmaga yuklatilgan vazifalarning o'z

vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas’uliyatini oshirish

Moliya organlarining ko’p qirrali nazorat faoliyati byudjetni rejalashtirish, moliyaviy rejalar va smetalar loyihalarini ko’rib chiqish, byudjet barcha daromadlarini to’plash, davlat byudjeti bilan tegishli moliya yili uchun nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish jarayonida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati Bosh boshqarmasi mavjud bo’lib, u O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to’g’risida Nizom” 870-son Qaroriga asosan faoliyat yuritadi.

Bosh boshqarma moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, byudjet tizimi byudjetlari mablag’lari maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat ob’ektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanadi.

Quyidagilar Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalarining vazifalari hisoblanadi:

- byudjet tashkilotlarida byudjet mablag’larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo’yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;
- byudjet qonunchiligiga rioya etish bo’yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;
- byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag’lari va moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, kamomadlarga yo’l qo’yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo’yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- masofaviy nazoratni keng ko’lamda qo’llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma’lumotlar bazasi vositasida tekshirish ob’ektlari va maqsadlarini aniqlash yo’li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag’lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg’armalari

mablag'laridan foydalanishda byudjet qonunchiligiga hamda byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan), shuningdek insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;
- davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi boshqa jamg'armalar mablag'laridan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash;
- moliya inspektori lavozimi joriy etilgan tashkilotlarda aktsiz solig'ini to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazorat o'rnatish;
- paxta tozalash korxonalarida hisobga olish va hisobotning haqqoniyligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirilishini ta'minlash.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda soliq organlari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» 1997 yil 29 avgustdagi qonuni[47] soliq nazoratining asoslari, uni amalga oshirish bo'yicha soliq organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Soliq nazorati soliq to'lovchilarni, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iboratdir. U davlat soliq xizmati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi[48] da keltirilgan shakllarga asosan amalga oshiriladi.

Soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirishda bir qator muammolarni bartaraf etish maqsadida 2017 yil 18 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"**Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi va unda davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari belgilandi:

---

[47] O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi O'RQ-459-sonli Qonuni. http://www.lex.uz.

[48] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 52 (I)-son. http://www.lex.uz

- soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg’or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to’lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub’yektlariga to’g’ridan-to’g’ri muloqotsiz elektron xizmat ko’rsatishga to’liq o’tish;
- soliq solish ob’ektlari va soliq solinadigan bazaning o’z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog’liq bo’lgan ishonchli axborotini o’z muddatida taqdim etish bo’yicha mas’uliyatini oshirish;
- soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to’lovchilarga har tomonlama ko’maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to’lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;
- makroiqtisodiy ko’rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob’ektlarini to’liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirishni ta’minlash bo’yicha samarali tadbirlarni amalga oshirish;
- faoliyat ko’rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama ko’maklashish, past rentabelli va zarar ko’rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog’lomlashtirish, o’zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo’l qo’ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;
- soliq solish masalalari, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo’shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;
- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo’yish, soliq organlarini yuqori ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega malakali xodimlar bilan to’ldirish bo’yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash va ular uchun xizmatni o’tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Davlat soliq xizmati organlarining moliyaviy nazoratga oid asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- soliq qonunchiligi, soliqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Pensiya fondiga majburiy

to’lovlarning o’z vaqtida hisoblab yozilishi, to’liq va o’z vaqtida to’lanishini nazorat etish;

- soliq qonunchiligiga rioya etilishining zaruriy shartlarini ta’minlash, soliq to’lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda yordam ko’rsatish, soliq bo’yicha qoidabuzarliklarni aniqlash, ogohlantirish va to’xtatib qo’yish.

Davlat soliq xizmati organlari o’z vakolati doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- soliq to’lovchilarda (jumladan soliq to’lovchilar bilan bog’langan qarshi sub’yektlarda) O‘zbekiston Respublikasi nobyudjet Pensiya fondiga majburiy to’lovlarning o’z vaqtida hisoblab yozilishi, to’liq va o’z vaqtida to’lanishi bilan bog’liq bo’lgan moliyaviy hujjatlarni, shuningdek eksport-import operatsiyalari bilan bog’liq bo’lgan hujjatlarni tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo’yicha zarur bo’lgan tushuntirish, ma’lumotnoma va ma’lumotlarni olish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslar hamda jismoniy shaxslarning banklardagi va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlari bo’yicha operatsiyalarni to’xtatib qo’yish.

Davlat soliq xizmati organlari o’z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni boshqa davlat boshqaruv organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqaruv organlari, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o’zaro birgalikda bajaradilar. Ko’rsatilgan organlar va tashkilotlar soliq xizmati organlariga soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliq qonunbuzarligiga qarshi kurashda yordam berishlari shart.

Ko’rsatilgan qonunchilik hujjatida nazarda tutilgan soliq nazoratini tashkil etish Davlat soliq qo’mitasi va uning organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagi 677-sonli “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qaroriga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi to’g’risida Nizom”[49] yangitdan tasdiqlandi. Ushbu nizomga muvofiq Davlat soliq qo’mitasi soliq to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta’minlash

[49] Izoh: dastlab ushbu nizom Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son Qaroriga muvofiq qabul qilingan edi.

sohasidagi nazorat bo’yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o’z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo’ysunadi. Davlat soliq qo’mitasining moliyaviy nazorat sohasidagi asosiy vazifasi soliq to’lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliqlar, yig’imlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’g’ri hisoblab yozilishi, ularning to’liq va o’z vaqtida to’lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat soliq qo’mitasi zimmas iga soliq nazorati bo’yicha bir qator vazifalar yuklatilgan:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish;
- soliq sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’g’ri hisoblab chiqilishi, to’liq va o’z vaqtida to’lanishi yuzasidan ta’sirchan nazoratni ta’minlash;
- soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg’armalariga va byudjetdan tashqari jamg’armalarga to’liq miqdorda tushishini ta’minlash;
- soliq to’lovchilar, soliq solish ob’ektlari hamda soliq solish bilan bog’liq bo’lgan ob’ektlarning to’liq va o’z vaqtida hisobga olinishini ta’minlash, ularni to’liq qamrash va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, Soliq to’lovchilar identifikatsiyalash tartib raqamlarining yagona reestrini yuritish;
- soliq solish bazasini kengaytirish hamda soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning yig’iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini ro’yobga chiqarish, soliq sohasidagi huquq buzilishlarining oldini olish, aniqlash va ularga barham berish bo’yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;
- pul mablag’larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, naqd pul tushumining aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan banklar kassalariga o’z vaqtida va to’liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta’minlash;
- soliq qonunchiligiga rioya etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlash, soliq to’lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda yordam ko’rsatish, ularga ko’rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari turlarini kengaytirish;
- bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo’jalik faoliyati yuzasidan qat’iy nazoratni amalga oshirish;

• davlat soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali, o’z ishiga sadoqatli xodimlar bilan ta’minlash, kadrlar tarkibining sifat darajasini yaxshilash bo’yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi tizimida 2000 yil 13 martdagi Vazirlar Mahkamasining 87-sonli qarori bilan Bosh nazorat-taftish boshqarmasi[50] tuzilgan bo’lib, uning Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo’linmalari mavjud.

Quyidagilar bosh boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

• xo’jalik yurituvchi subektlar tomonidan soliq to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’g’ri hisoblab chiqarilishi, to’liq va o’z vaqtida to’lanishini nazorat qilish; soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish, ularga barham berish;

• fuqarolarning soliq qonunchiligi buzilishlari faktlari to’g’risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalarini ko’rib chiqish;

• soliq to’lovchilar bilan soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash bo’yicha ish olib borish.

Davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, bosh boshqarmaga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

Davlat moliyaviy nazorati bo’yicha funksiyalarni bank tizimi ham bajaradi. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risida» 1995 yil 21 dekabrdagi qonuni[51]ga muvofiq u bank tizimi barqarorligini qo’llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoyalanishini ta’minlash maqsadida bank nazoratini va banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi.

Markaziy bank nazorat funksiyalarini bajarish bo’yicha o’z vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo’lgan qoidalarni belgilaydi.

Mamlakatimizda bank tizimining barqaror faoliyat ko’rsatishi ustidan samarali nazoratni va Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirishni ta’minlash maqsadida quyidagilar Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo’nalishlari etib kuyidagilar belgilandi[52]:

---

[50] Davlat soliq qo’mitasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 646-sonli buyrug’i asosan “Davlat soliq qo’mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi to’g’risi Nizom”i tapsdiqlangan. http://www.soliq.uz

[51] oxirgi o’zgartirish O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi O‘RQ-456- sonli Qonuni bilan kiritilgan. http://www.lex.uz

[52] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 9 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5296-son Farmoni. http://www.lex.uz

birinchidan, asossiz inflyatsion kutilmalarni oldini olish maqsadida inflyatsion targetlashning printsip va mexanizmlarini bosqichma-bosqich tatbiq qilish bilan pul-kredit siyosati va uning instrumentlarini tubdan takomillashtirish, ushbu usulga o’rta muddatli istiqbolda to’liq o’tish va pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan siyosat va choralarning shaffofligini oshirish;

ikkinchidan, inflyatsiya omillarini chuqur o’rganish va to’lov balansini hisobini yuritish va tahlil qilish tizimini to’liq shakllantirish asosida pul-kredit siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish uslublarini takomillashtirish maqsadida statistik, tahliliy va tadqiqot bazasini rivojlantirish;

uchinchidan, bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, shu jumladan tijorat banklar faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni dastlabki bosqichlarida aniqlash va ularni bartaraf etuvchi choralar ko’rish imkonini beruvchi tijorat banklar tavakkalchiligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirish;

to’rtinchidan, o’rta va uzoq muddat istiqbollarda iqtisodiyotni barqaror o’sishini ta’minlovchi muhim tarkibiy qism sifatida bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklar va tadbirkorlik sub’yektlarining o’zaro to’liq sheriklik munosabatlarini shakllantirish, aholining bank tizimiga ishonchli institutsional sherik sifatida ishonchini mustahkamlash uchun raqobat sharoitlarni yaratish;

beshinchidan, to’lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o’tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko’rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish;

oltinchidan, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kuchaytirish, shuningdek ularning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ettinchidan, bank xizmatlari iste’molchilari huquqi va qonuniy manfaatlari himoyasini ta’minlash, aholi va tadbirkorlik sub’yektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish.

Markaziy bankka quyidagi huquqlar berilgan:

- banklardan hisobotlar va boshqa hujjatlarni olish va tekshirish, ularning faoliyati, jumladan operatsiyalari to’g’risida axborot, ma’lumotlarni so’rash va olish;

- olingan axborot, ma’lumotlar bo’yicha tushuntirishlar talab qilish;
- banklarning ichki auditi bo’yicha talablar belgilash;
- bank aktivlarini sifat bo’yicha tasnif qilish va aktivlar bo’yicha ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplash uchun shunday zaxiralar tuzishni talab qilish;
- banklarga ular faoliyatida aniqlangan tartibbuzarliklarni bartaraf etish bo’yicha bajarilishi majburiy bo’lgan yozma buyruqlar, ko’rsatmalar jo’natish.

Davlat moliyaviy nazoratning ayrim funksiyalarini boshqa organlar ham bajaradi. Bu, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo’mitasi huzuridagi Qimmatli qog’ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat etish markazi[53]ga taalluqli bo’lib, u o’z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mag’kamasining 1996 yil 30 martdagi 126-son li qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo’mitasi huzuridagi Qimmatli qog’ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi to’g’risida” Nizom[54]ga asoan olib boradi. Markaz zimmasiga barcha davlat organlari va xo’jalik yurituvchi sub’yektlar tomonidan qimmatli qog’ozlar to’g’risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

6.4. Nodavlat moliyaviy nazorati

Bozor iqtisodiyoti asoslarining shakllanishi davlat nazorat organlarining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning turlari rolini oshiradi. Yuqorida qayd etilgandek, moliyaviy nazoratning nodavlat turlarini ichki firmaviy (korporativ) nazorat, tijorat banklar tomonidan mijoz-tashkilotlar ustidan nazorat, auditorlik nazoratlari tashkil qiladi.

Ichki xo’jalik moliyaviy nazorat korxona, muassasa, firma, korporatsiyalarning ichki iqtisodiy xizmatlari, ya’ni buxgalteriya, moliya bo’limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o’z korxonasi, filiallari va shu’ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat xizmatlari doimiy ravishda pul mablag’larini (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi kuzatadi,

---

[53] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 26 martdagi PF-1414-sonli farmoniga asosan tashkil etilgan. http://www.lex.uz

[54] http://www.lex.uz

rejalashtirgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalar qiyoslab, tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi.

Ichki moliyaviy nazorat tizimi aniq xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hamda tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari va funktsional tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan kundalik ish-faoliyatning ajralmas qismidir. Ushbu tizimning mohiyati asosan korxonalar, ularning ayrim tuzilmaviy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'z buxgalteriyasi, moliya bo'limi va ayrim iqtisodiy xizmatlari tomonidan tekshirishdan iborat deb, u "ichki xo'jalik nazorati" atamasi bilan belgilangan.

Ichki nazorat tizimi quyidagi printsiplarga asoslanadi:

- to'xtovsiz ishlash – ichki nazorat tizimining doimiy va tegishli ishlashi, korxonada me'yordan og'ishlarni o'z vaqtida aniqlab, ularning kelajakda kelib chiqishini oldini olishga imkon beradi;
- ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobdorligi – har bir shaxs tomonidan olib boriladigan nazorat funksiyalarining ijro sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat qilinadi;
- xizmat vazifalarini taqsimlash – korxona nazorat funksiyalarini takrorlamaslikka xarakat qiladi, va bu funksiyalar ishchi-xodimlar o'rtasida shunday taqsimlanishi kerakki, bunda ma'lum bir aktiv, operatsiyalar hisobi, aktivlar butligini ta'minlash va ularni sanoqdan o'tkazish operatsiyalarini tasdiqlash bilan bog'liq funksiyalar aynan bir shaxsni birlashtirmasligi kerak;
- operatsiyalarni tegishlicha ma'qullash va tasdiqlash – korxona vakolatli shaxslarning o'zlarining tegishli vakolatlari doirasida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining barchasini tasdiqlash uchun tartib o'rnatishga xarakat qiladi;
- doimiy rivojlanish va takomilashtirish;
- va boshqalar.

Ichki xo'alik nazorati tizimida ichki audit xizmati alohida o'rin egallaydi**.** Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida "gi 215-son qarori bilan "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom" qabul qilingan.

Ushbu nizomga ko'ra ichki audit korxona boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlariga, ta’sis hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo’li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma’lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to’liqliligi va ishonchliligini ta’minlash, xo’jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish printsiplari joriy etilishi bo’yicha korxona tarkibiy bo’linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati hisoblanadi.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- kuzatuvchi kengashni ishonchli axborot bilan ta’minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo’yicha korxona faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;
- ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korxona boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

Ichki audit:

- tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;
- korportiv boshqarish printsiplariga rioya qilinishini;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;
- soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar to’g’ri hisoblab chiqilishi va to’lanishini;
- moliya-xo’jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;
- aktivlarning holatini;
- ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borishni amalga oshiradi.

Ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga ega:

- ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo’ladigan masalalar bo’yicha korxonaning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma’lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), korxona mansabdor va mas’ul shaxslaridan og’zaki va yozma tushuntirishlar olish;
- ichki auditni o’tkazishga ko’maklashish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalb etish.

Nodavlat moliyaviy nazoratining bir turi mustaqil auditorlik nazorati bo’lib, ushbu nazorat mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog’liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va

boshqa me'yoriy xujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etishdan iboradir.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy sub'yektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat.

Auditorlik xizmatlari quyidagi boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin[55]:

Auditorlik tashkilotlari quyidagi professional xizmatlarini ko'rsatishlari mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;
- moliyaviy hisobotni tuzish;
- milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;
- xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
- buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menedjment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish.
- xo'jalik yurituvchi sub'yekt taftish komissiyasining (taftishchisining) vazifalarini amalga oshirish.

Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

Amaliyotda auditorlik tekshiruvi 2 xil shaklda o'tkaziladi, ya'ni majburiy auditorlik tekshiruvi va tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi shaklida.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq quyidagi sub'yektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerakligi belgilab qo'yilgan:

- aktsiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

[55] O'zbektiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2000 yil 26 may, 17-modda. http://www.lex.uz

- sug’urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag’larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo’lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
- mablag’larining hosil bo’lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo’lmish byudjetdan tashqari fondlar;
- ustav fondida davlatga tegishli ulush bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub’yektlar va davlat unitar korxonalari.
- fond va tovar birjalari.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi xo’jalik yurituvchi subekt bo’ladi. Auditorlik tashkilotini tanlash xo’jalik yurituvchi subekt mulkdori, shuningdek qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig’ilishi bilan kelishib olinadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkaziladigan xo’jalik yurituvchi sub’yekt oldingi yil uchun o’z yillik moliyaviy hisobotini hisobot yilining 1 mayigacha auditorlik tekshiruvidan o’tkazadi va auditorlik tekshiruvi tamom bo’lgandan keyin 15 kun mobaynida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etishi kerak. Auditorlik xulosasi nusxasi soliq organiga belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda xo’jalik yurituvchi subekt soliq organiga auditorlik xulosasi mavjud emasligining sababini aks ettiruvchi tushuntirishni yozma shaklda taqdim etishi kerak.

Hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha yillik moliyaviy hisobot auditorlik tekshiruvidan o’tkazilmasligi hamda auditorlik xulosasi mavjud emasligi xo’jalik yurituvchi subektning majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkazilishidan bo’yin tovlashi deb e’tirof etiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkazilishidan bo’yin tovlash xo’jalik sub’yektining mansabdor shaxsiga nisbatan ma’muriy jazo qo’llanishiga olib keladi. Xo’jalik sub’yektining mansabdor shaxsiga nisbatan ma’muriy jazo qo’llangandan keyin kalendar yil oxirigacha majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkazilishidan bo’yin tovlash xo’jalik sub’yektidan qonunchilikka muvofiq miqdorda jarima undirilishiga olib keladi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo’jalik yurituvchi sub’yektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o’tkazilishi mumkin.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkiloti o’rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o’tkazish to’g’risidagi shartnomada belgilab qo’yiladi.

Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi auditorlik tekshiruvi o’tkazilishini qo’zg’atuvchi xo’jalik yurituvchi sub’yekt, uning mulkdori, shuningdek ustav kapitalida qonun hujjatlarida belgilanganidan kam bo’lmagan miqdordagi ulushga ega qatnashchilar va aktsiyadorlar, nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlardir.

Auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko’ra auditorlik tashkiloti va ushbu organlar o’rtasida tuzilgan shartnoma asosida o’tkaziladi hamda unga mazkur shartnoma asosida haq to’lanadi.

Auditorlik tekshiruvini o’tkazish bo’yicha ishlarga haq to’lash auditorlik tekshiruvini belgilagan organ hisobidan amalga oshiriladi.

Auditorlik tekshiruvining natijasida auditorlik hisoboti tuzilib, u auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoida buzarliklar to’g’risidagi mufassal ma’lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvini o’tkazish natijasida olingan boshqa axborotlardan iborat bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub’yekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aktsiyadorlari)ning umumiy yig’ilishiga yo’llangan hujjatdir.

Auditorlik hisoboti asosida auditorlik xulosasi tuziladi.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotning to’g’riligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablariga muvofiqligi to’g’risida auditorlik tashkilotining yozma shaklda ifodalangan, xo’jalik yurituvchi sub’yektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiqbo’lgan hujjatdir.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi natijalariga ko’ra quyidagilarga baho berishi lozim:

- auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq fikr bildirish uchun etarli va lozim darajadagi dalillar olinganligiga;
- alohida-alohida yoki umumiy birgalikda olinganda tuzatilmagan buzib ko’rsatishlar auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq muhim hisoblanishiga;
- qabul qilingan hisob siyosatining asoslanganligiga va uning buxgalteriya hisobi to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga;

- moliyaviy hisobotda aks ettirilgan axborotning ishonchli, qiyoslanuvchanli, tushunarli va o’rinli ekanligiga;
- moliyaviy hisobotning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzishga doir normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligiga.

Auditorlik xulosasida auditorlik tashkilotining ijobiy yoki modifikatsiyalangan fikri ifodalanishi mumkin.

Xo’jalik yurituvchi sub’yektning moliyaviy hisoboti barcha muhimlilik munosabatlarida uning moliyaviy ahvolini, moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirsa va buxgalteriya hisobi to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kelgan hollarda ijobiy fikr bildiriladi.

Modifikatsiyalangan fikr quyidagi holatlarda bildiriladi**:**

- olingan auditorlik dalillari asosida umumiy holda ko’rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko’rsatishlarga ega bo’lsa;
- umumiy holda ko’rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko’rsatishlarga ega emasligini aniqlash uchun etarli darajadagi tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo’lmasa.

Modifikatsiyalangan fikr bir nechta turga bo’linadi.

Xo’jalik yurituvchi sub’yektning moliyaviy hisobotida ahamiyatli buzib ko’rsatishlar mavjud bo’lsa va ularning xo’jalik yurituvchi sub’yekt tomonidan bartaraf etilmasligi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg’itishi mumkin bo’lgan hollarda salbiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasi tuziladi.

Shuningdek, quyidagi holatlarda ham salbiy fikr bildiriladi:

- xo’jalik yurituvchi sub’yekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo’jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin ular qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaganda;
- xo’jalik yurituvchi sub’yekt rahbariyati aniqlangan buzib ko’rsatishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritishga rozi bo’lmaganda.

Izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi quyidagi hollarda tuziladi:

- agar auditorlik tashkiloti etarli darajadagi auditorlik dalillarini olib, alohida-alohida yoki umumiy holda ko’rib chiqilayotgan buzib ko’rsatishlarning ta’siri muhim hisoblanib, biroq moliyaviy hisobotning ko’pchilik muhim elementlariga ta’sir qilmaydi degan xulosaga kelganda;
- agar auditorlik tashkiloti o’z fikrini asoslash uchun etarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo’lmaganda, biroq u aniqlanmagan buzib ko’rsatishlarning ta’siri moliyaviy hisobot

uchun muhim bo’lishi mumkin, lekin moliyaviy hisobotning ko’pchilik muhim elementlariga ta’sir qilmaydi degan xulosaga kelganda.

Auditorlik tashkiloti fikr bildirishi uchun zarur bo’lgan etarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo’lmagan taqdirda, fikr bildirishni rad etishi mumkin. Bu holda fikr bildirish rad etilgan auditorlik xulosasi tuziladi

Auditorlik faoliyati (auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlaridan tashqari) yangi qonunchilik bo’yicha auditorlik teshiruvini o’tkazish uchun faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo’lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi to’g’risidagi Nizomga muvofiq ravishda olib boriladi.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi.

Auditorlik faoliyati mustaqillik, xolislik, erkinlik, professional malakalilik va maxfiylik printsiplari asosida amalga oshiriladi.Audit nazoratining asosiy tamoyili uning mustaqilligi bo’lib, bunda asosan tekshirilayotgan sub’yektning moliyaviy hisoboti to’g’risidagi kasbiy fikrini ifodalashda biror tomonning ta’siri ostida bo’lishdan uning ozod ekanligini tushunish lozim. Shu bilan birga, yana shuni hisobga olish kerakki, audit barcha mamlakatlarda etarli darajada qattiq tartibga solinadi.

Ayrim davlatlarda (masalan, Fransiyada) bu jarayonga davlat aralashib, u audit me’yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro’yxatdan o’tkazadi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o’rnatadi. O‘zbekistonda ham xuddi shunday ahvol tarkib topgan bo’lib, bu yerda davlat auditorlik faoliyatini tartibga solishni faol amalga oshiradi. U moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta’sir etishi mumkin bo’lgan muhim korxonalarni ajratib, ularda audit o’tkazish majburiy ekanligini belgilaydi, auditorlarga (ma’lumoti, malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas’uliyati, javobgarligi va boshqalar bo’yicha) talablar qo’yadi.

Auditni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar vositasida amalga oshiriladi. Bunda auditorlar jamoatchilik tashkilotlari tomonidan auditning o’zini o’zi boshqarishiga katta imkoniyat beriladi. Qayd etish lozimki, har bir mamlakatda jamoat tashkilotlarining rivojlanishi va ta’siri turlicha amalga oshiriladi. Masalan, AQSh va Angliyada auditorlik faoliyati asosan ixtisoslashtirilgan professional jamoat auditorlik tashkilotlari tomonidan tartibga solinadi.

Ko’pgina mamlakatlarda mustaqil Auditorlar palatalari ishlab turibdi. Ularning asosiy vazifalari auditorlik faoliyati va auditorlar axloq me’yorlari bo’yicha standartlarni ishlab chiqish, auditorlar ish faoliyatining sifatini nazorat qilish, auditorlik faoliyati bo’yicha bilimlarini attestatsiya qilish va hujjatlar berish hamda auditorlik me’yorlarini buzgan shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo’llash (bu - davlatga xos xususiyat bo’lmagan mamlakatlarda) kabilardan iboratdir.

Ammo ayrim mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada, garchi Vakolatli auditorlar uyushmasi va Tasdiqlangan auditorlar uyushmasi ishlab turgan bo’lishiga qaramasdan, umuman auditorlik faoliyatini tartibga solish davlat tomonidan amalga oshirilib, bu bizning Respublikamizga ham xos bo’lgan xususiyatdir. O‘zbekiston Auditorlar palatasi tuzilish jihatidan davlat organlari bilan o’zaro birgalikda harakat qiladi. Ammo uning auditorlik faoliyatini tartibga solish bo’yicha asosiy funksiyalari davlat tomonidan mustahkamlab qo’yilgan.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Odatda, moliyaviy nazorat qanday ikki yo’nalishda (aspektda) qaraladi?
- Moliyaviy nazorat deb nimaga aytiladi?
- Moliyaviy nazoratning predmeti qanday moliyaviy ko’rsatkichlardan iborat?
- Moliyaviy nazorat qanday sohalarga bo’linadi?
- Nodavlat moliyaviy nazorati nechaga bo’linadi?
- Moliyaviy nazorat o’z ichiga qanday tekshiruvlarni oladi?
- Taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi, asosan, qanday elementlardan tashkil topadi?
- Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar nimalardan iborat?
- Moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy printsiplari tarkibiga nimalar kiradi?
- Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sub’yektlarga ko’ra uning qanday turlari mavjud?
- Moliyaviy nazoratning shakllarini qandayi mezonlar bo’yicha klassifikatsiya qilish qabul qilingan?
- Amalga oshirilish reglamenti bo’yicha moliyaviy nazoratning shakllari nimalardan iborat bo’lishi mumkin?

- O‘tkazilish vaqti bo’yicha moliyaviy nazoratning shakllari o’z ichiga nimalarni oladi?
- Nazoratning sub’eklari bo’yicha moliyaviy nazoratning qanday shakllari bo’lishi mumkin?
- Nazoratning ob’ektlariga muvofiq ravishda moliyaviy nazoratning qanday shakllari mavjud?
- Ichki va tashqi moliyaviy nazorat bir-biridan qanday farqlanadi va ularning qanday umumiy jihatlari bor?
- Moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida uning qanday metodlaridan foydalaniladi?
- Sub’ekt xo’jalik faoliyatini qamrab olishning to’liqligiga qarab taftishning qanday turlari bo’lishi mumkin?
- Moliyaviy va xo’jalik operatsiyalarining qamralib olinishi darajasiga ko’ra taftishlar qanday guruhlarga bo’linadi?
- Hisob palatasi to’g’risidagi Nizomga muvofiq uning zimmasiga qanday funksiyalarni bajarish yuklatilgan?
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo’yicha qanday asosiy vazifa va funksiyalar yuklangan?
- Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat Bosh boshqarmasining vazifalari sifatida nimalar belgilangan?
- Davlat soliq xizmati organlarining moliyaviy nazoratga oid asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi tizimidagi Bosh nazorat-taftish boshqarmasining vazifalariga nimalar kiradi?
- Moliyaviy nazorat nodavlat turlarining tarkibi nimalardan iborat?
- Ichki firmaviy moliyaviy nazoratning xarakterli xususiyatlari nimalardan tashkil topadi?
- Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat qanday xususiyatlarga ega?
- Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Auditorlik xizmatlari yana qanday boshqa xizmatlarni ham ko’rsatishlari mumkin?
- Auditorlik tekshiruvining qanday turlari mavjud?
- Har yili qanday sub’yektlar majburiy auditorlik tekshiruvidan o’tkazilishi shart?
- Auditning asosiy tamoyili nimadan iborat?

7-bob. Moliyaviy nazariyalar

7.1. Xorijiy iqtisodchilarning moliyaga oid nazariyalari

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida markazlash-tirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanishi va foydalanilishiga oid iqtisodiy munosabatlarni o'rgangan moliya fani iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ta'sirida shakllandi. Olimlar yaratgan moliyaviy nazariyalar amaliyot tomonidan tekshirildi hamda agar ular hodisalarning haqiqiy mohiyatini o'zida aks ettirgan bo'lsa, fan sifatida e'tirof etildi. Shu munosabat bilan moliya sohasida ilmiy bilimlarni shakllantirishga yordam beradigan moliyaning turli nazariyalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaga oid ishlab chiqilgan nazariy qarashlar moliyaviy qonunchilik va davlat fiskal siyosatining asosini tashkil qildi. Xorijiy iqtisodchilar moliyaga oid nazariyalarining birinchi guruhini **siyosiy iqtisod mumtoz olimlarining kontseptsiyalari** tashkil etadi. Kapitalistik taraqqiyotning dastlabki bosqichidayoq barcha iqtisodiy nazariyalarda moliyaviy kontseptsiyalar alohida o'ringa ega bo'lgan. Davlat xarajatlari, soliqlar, kredit va byudjetning iqtisodiyotga ta'siri masalalari siyosiy iqtisod klassiklari (Buyuk Britaniyada – U.Petti, A.Smit va D.Rikardo, Fransiyada – P.Baugilber) tomonidan tadqiq qilingan.

Moliya fanining asoschilaridan biri A.Smit (1723-1790 yillar) o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" deb nomlangan fundamental asarida davlat moliyasining mohiyati to'g'risida ayrim g'oyalarni ishlab chiqdiki, ular mehnatning unumli va unumsizligi to'g'risidagi ta'limotga (bu ta'limot A.Smitniki) asoslangan edi. Uning aniqlashicha, bevosita kapitalga almashtiriladigan mehnat unumli, unumsiz mehnat esa daromadga, ya'ni ish haqi va foydaga almashtiriladigan mehnatdir. Ana shu nazariy qarashlardan kelib chiqqan holda A.Smit (va undan so'ng D.Rikardo) moliyaviy kategoriyalarga (davlatning daromadlari va xarajatlariga) tavsifnoma bergan. U soliqlar hisobidan olingan davlat daromadlari barchasining yoki deyarli barchasining unumsiz sarflanishini isbotlagan. Shuning uchun ham davlat xarajatlari kapitalning jamg'arilishi va milliy daromadning o'sishi imkoniyatlarini qisqartiradi. Ana shundan uning soliqlarga nisbatan salbiy munosabati kelib chiqqan. A.Smit yaratilgan qiymatni unumsiz sarflaydigan va shu munosabat bilan ishlab chiqarish kuchlarining

rivojlanishiga to’siq bo’luvchi davlatning xarajatlarini qisqartirish kerak, degan xulosaga keladi.

A.Smit davlat xarajatlari siyosatini tanqid qilgan bo’lsa-da, ular ma’lum bir qismi bo’lishining zarurligini e’tirof etgan. Chunki ana shu qism ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini himoya qilishga qaratilgan bo’ladi. Uning ta’limotida soliqlar nazariyasiga katta o’rin berilgan. U soliqqa tortishni maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilishning quyidagi to’rt asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan:

- soliqlar ularni to’lovchilarning salohiyatiga va kuchiga muvofiq to’lanishi kerak;
- soliqlarning miqdori va ularni to’lash muddatlari aniq belgilangan bo’lmog’i lozim;
- soliqlarni undirilish vaqti soliq to’lovchi uchun qulay bo’lmog’i zarur;
- soliqlarni undirishda ularni undirish xarajat-larining minimalligini ta’minlamoq kerak.

Tarixiy jihatdan bu tamoyillar tug’ilib kelayotgan burjuaziyaning ehtiyojlarini aks ettirgan va feodal jamiyatning asosiy ijtimoiy guruhlari bo’lgan zodagonlar hamda ruhoniylarga, feodal davlatning soliqlar bo’yicha boshboshdoqligiga qarshi qaratilgan edi. A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan yuqoridagi printsiplar burjua davlatlari tomonidan soliq islohotlarini o’tkazishda qisman foydalanilgan.

Soliqlarning turli ko’rinishlarini (egri soliqlar, ish haqi hisobidan undiriladigan soliqlar va boshqalar) tahlil qila turib, A.Smit jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti nuqtai-nazaridan ularga baho bergan. Iste’mol tovarlariga nisbatan o’rnatilgan egri (bilvosita) soliqlar ular bahosining oshishiga olib kelgan. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari o’sgan va oxir-oqibatda esa, ularni sotish kamaygan va iste’mol qilish qisqargan. Ish haqidan olinadigan soliqni baholab, u bu soliqni iqtisodiyot uchun xonavayronlik keltiruvchi deb hisoblagan. Chunki ishchi daromadining soliqqa tortilishi tadbirkor avanslashtirilgan kapitalining oshishiga yoki bozor talabiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi ishchi kuchi sotib olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Shunday qilib, A.Smitning soliq kontseptsiyasi yagona maqsadga – kapitalning jamg’arilishini rag’batlantirish va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini tezlashtirishga qaratilgan edi.

Asosan, xuddi shunday qarashlarni D.Rikardo (1772-1823 yillar) ham o’zining “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi” asarida himoya qilgan. Mehnatning qiymat

nazariyasidan kelib chiqqan holda u barcha soliqlar so’zsiz ravishda yo kapitalga, yoki daromadga ta’sir ko’rsatadi, deb hisoblagan. Agar soliqlar kapitaldan undirilsa, unumli mehnatni saqlashga mo’ljallangan fond qisqaradi. Soliqlar daromaddan olinganda esa, kapitalning jamg’arilishi qisqaradi yoki soliq to’lovchining iste’moli kamayadi. Birinchi ehtiyoj predmetlaridan olinadigan soliqlar ular bahosining o’sishiga sabab bo’lib, ular iste’mol qiladigan tovarlarning miqdoriga nisbatan yuqoriroq bo’lgan proportsiyalarda iste’molchining elkasiga yuklanadi. D.Rikardoning fikricha, tovarlar va ish haqidan undiriladigan har qanday soliqlar, bir xil darajada bo’lmasa-da, ish haqining oshishiga va foydaning kamayishiga olib keladi.

Yuqorida bayon qilinganlarni inobatga olgan holda u “soliqlar buyuk zulmdir”, degan xulosaga kelgan. Soliqqa tortishning o’sishi yoki hukumat xarajatlarining ortishi bilan xalqning iste’moli pasayadi va bu narsa, oxir oqibatda, ishlab chiqarishda o’z aksini topadi. Shuning uchun ham hukumatning vazifasi kapitalning jamg’arilishini rag’batlantirishdir. Mamlakatning kelgusi ishlab chiqarishini qisqartirmaslik uchun hukumat foydani soliqqa tortmasligi kerak.

Klassik burjua siyosiy iqtisodi (A.Smit, D.Rikardo va ularning izdoshlari) davlat xarajatlari va soliqlarga nisbatan rasmiy iqtisodiy siyosatning kontseptsiyasini, ko’p jihatdan, aniqlab bergan edi. XUSh asrning oxiri va X1X asrning boshlarida ilg’or mamlakatlarning moliyaviy siyosati, yangi sinf – burjuaziyaning manfaatlarini ifoda etib, mamlakatning xo’jalik hayotiga davlatning aralashmasligi printsipini e’lon qilgan edi. Buning oqibatida davlat xarajatlari va foydani soliqqa tortish biroz qisqardi.

X1X asrda ishlab chiqarishning yuqori sur’atlarda rivojlanishi mehnat va kapital o’rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuviga olib keldi. Xuddi shu davrning o’zida turli sotsial guruhlarning manfaatlarini hisobga olgan holda o’z siyosatini o’zgartirishga hukumatni chaqiruvchi iqtisodchi-larning asarlari paydo bo’ldi.

Ingliz olimi J.S.Mill (1806-1873 yillar) mamlakatda ijtimoiy keskinlashuvni yumshatish maqsadida daromadlarni taqsimlash sohasida o’zgartirishlar kiritish taklifi bilan maydonga chiqdi. Boylikni nisbatan tekisroq (tengroq) taqsimlash uchun u tomonidan oqilona soliq tizimining yangi printsiplari ishlab chiqildi. Hayot kechirish uchun zarur sanalgan daromadga teng bo’lgan daromadlarni soliqqa tortishda soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etish g’oyasi aynan unga tegishlidir.

J.S.Mill “xizmatlarning soliq nazariyasi”ni ishlab chiqdiki, unga muvofiq ravishda har bir shaxs davlatdan olinadigan qo’llab-quvvatlashlar uchun o’z daromadlarining bir qismini davlatga berishi kerak. U soliqlar va davlat xarajatlari o’rtasida bog’liqlikni o’rnatib, soliqlarni davlat xarajatlari bilan uzviy ravishda bog’lagan.

Bu holatlar keyinroq shved iqtisodchilari K.Viksel va E.Lindal tomonidan yanada rivojlantirildi. Bizning davrimizda esa bu nazariya amerikalik iqtisodchi olim P.Samuelson qarashlarining shakllanishiga o’z ta’sirini ko’rsatdi va u soliqlarning o’sishi davlat xizmatlariga bo’lgan ehtiyojning o’sishi bilan birgalikda yuz berishi kerak, deb hisobladi.

Shveytsariyalik iqtisodchi J.Sismondi (1773-1842 yillar) rivojlangan davlatlarning moliyaviy siyosatini tanqid qilib, mayda tovar xo’jaliklarini himoya qilgan. Uning chiqishlari, asosan, protektsionizm siyosatiga (masalan, donni import qilish bo’yicha ingliz yuqori bojxona bojlari) qarsh/*i qaratilgan bo’lib, bunday siyosatni u millatga ziyon etkazuvchi siyosat deb hisobladi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun tegishli sharoitni yaratish borasidagi protektsionizm siyosatining ijobiy tomonlarini ko’ra olmasdan, mamlakat iqtisodiyotida uzluksiz ravishda katta rol o’ynab borayotgan o’sib boruvchi yirik kapitalning ahamiyatini u etarlicha baholay olmadi.

Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalari. 1870-yillarda yangi tarixiy maktab paydo bo’ldiki, uning boshlanishi nemis olimlarining (G.Shmoller, M.Veber, A.Vagner va boshqalar) nomlari bilan bog’liq. Davlat moliyasini tadqiq qilish bilan ko’proq A.Vagner shug’ullanib, u davlatning yordami bilan kapitalni jamg’arishning o’z echimini taklif etdi. Davlat faoliyatining (ma’muriy, ijtimoiy-madaniy va investitsion) ko’lamini kengaytirish nuqtai-nazaridan muammoni hal etishga yondoshib, u soliqqa tortishning to’qqiz printsipini ishlab chiqdi va ularni quyidagi guruhlarga birlashtirdi:

- etarlilik va harakatchanlik;
- kerak bo’ladigan manba va ob’ektni tanlash;
- eng umumiylik va tenglik;
- aniqlik, qulaylik, arzonlik.

Mohiyat jihatidan u A.Smitning ma’lum va mashhur tamoyillarini to’ldirdi. Klassik burjua siyosiy iqtisodidan so’ng A.Vagner mamlakatda boylik va daromadlarni adolatli taqsimlashga erishish uchun davlat moliyadan foydalanishi mumkin, deb hisobladi.

Moliyaviy muammolar markschilar asarlarida.

X1X asrning o’rtalaridan uning oxirigacha moliya fani marksistik ta’limotning ta’siri ostida bo’ldi. Kapitalizm sharoitida moliyaning mohiyati, ayrim moliyaviy kategoriyalarning roli va ahamiyati K.Marks (1813-1883 yillar) va F.Engels (1820-1895 yillar) tomonidan ishlab chiqildi. Albatta, davlat moliyasi masalalariga bag’ishlangan maxsus katta ishlar ularda bo’lmasa-da, shunday bo’lishiga qaramasdan, kapitalizmning juda ko’p moliyaviy muammolari ularning qator asosiy asarlarida, jumladan “Siyosiy iqtisod tanqidi”, “Kapital” nomli asarlarida va X1X asrning o’rtalaridagi ingliz byudjetlari, 1840-yillardagi pruss va frantsuz byudjetlarining tavsifiga bag’ishlangan ko’p sonli maqolalarida o’z aksini topdi. K.Marks monopolistik kapitalizmgacha bo’lgan davrdagi davlat byudjetlarining sinfiy xarakterini, davlat xarajatlarining unumsiz, xalqqa qarshi xarakterini ochib berdi va davlat qarzlarining soliqlar bilan bog’langanligini ko’rsatdi.

Kapitalning dastlabki jamg’arilish usullarini tadqiq qilib, ularning safiga birinchi navbatda, moliyaviy metodlar sifatida davlat xarajatlari, davlat krediti va soliq tizimini kiritdi. Uning fikricha, aynan ana shu metodlar kapital jamg’arilishining yuqori sur’atlarda o’sishini ta’minladi, kapitalistik ishlab chiqarishning shiddatli rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlarni yaratdi.

K.Marks va F.Engels eng muhim moliyaviy kategoriya hisoblangan soliqlarga jiddiy e’tibor berishdi. Ularning mohiyatini o’rganib, soliqlar barcha mehnatkashlar uchun qo’shimcha ekspluatatsiya qilishning quroli ekanligini doimiy ravishda ta’kidlab keldilar. Soliqqa tortishni baholashda K.Marks to’g’ridan-to’g’ri (bevosita) soliqlarga va eng avvalo, daromad solig’iga ustuvorlik bilan ahamiyat berdi va soliqqa tortish progressiv shakllarining himoyachisi sifatida maydonga chiqdi. Eng og’ir bo’lgan egri (bilvosita) soliqlarni u “kekirtakdan oladigan” progressiv soliqlar, deb atadi.

Davlat byudjetining mohiyatini tahlil qilib, u byudjetning asosiy masalasi byudjet daromadlari va xarajatlari o’rtasidagi nisbat, ya’ni byudjetning qoldig’i (profitsiti yoki defitsiti) masalasidir, deb e’tirof etdi. Aynan ana shu qoldiq soliqqa tortishning qisqarishi yoki kengayishini aniqlab beradi.

Biroq moliyaviy siyosat (davlat xarajatlari va protektsionizm) ta’siri ostida amalga oshiriladigan kapital jamg’arilishining oshib borishi bilan ishchilar sinfining ahvoli og’irlashib boradi, degan K.Marksning g’oyasi hayotda isbotlanmadi. U foyda, foiz, renta va ish haqi o’rtasidagi nisbatning davlat va uning moliyasi yordamida

o’zgartilishi imkoniyatini (mumkinligini) inkor etgan edi. U ortiqcha ishlab chiqarishning davriy (tsiklik) inqirozlari tahlilida davlatning iqtisodiy va shu jumladan, moliyaviy siyosati yordamida ularning kuchsizlanishi mumkinligiga ishonmadi.

X1X asrning oxiri va XX asrning boshlari **foydalilikning cheklanganligi nazariyasi**ning tarqalganligi bilan xarakterlanadi. Bu nazariya marksistik ta’limotga qarshi reaktsiya (aks ta’sir) sifatida maydonga kelgan edi. Bu nazariya moliya sohasiga ham tegib o’tdi. Uning vakillari, o’z baholashlaridagi katta farqlarning mavjud bo’lishiga qaramasdan, mehnatning qiymat nazariyasiga qarshi chiqdilar va uni sotib oluvchilarning xohish-istaklari yordamida aniqlanadigan baholar tahlili bilan almashtirdilar. Muhim moliyaviy kategoriyalar bo’lgan davlat xarajatlari va soliqlar ular tomonidan davlat va xususiy shaxslar o’rtasidagi ko’p sonli individual bitimlar sifatida talqin qilindi. Bir vaqtning o’zida, ularning fikricha, davlat xizmatlarining cheklangan foydaliligi soliqlarning cheklangan foydaliligi bilan hamnafas bo’lmog’i lozim edi.

Birinchi jahon urushiga qadar iqtisodiy fan, asosan, tadbirkorlik erkinligi printsipiga tayangan holda, davlat va uning moliyasini mamlakat iqtisodiyotiga aralashuviga nisbatan qarshi turdi. Ishlab chiqarish va taqsimlashni davlat tomonidan tartibga solish faqat Birinchi jahon urushi yillaridanoq amalga oshirila boshlandi. Jahon iqtisodiy inqirozi yillariga (1929-1933 yillar) kelib bu jarayon yanada kuchaydi.

J.M.Keyns nazariyasi. Ingliz iqtisodchisi J.M.Keynsning (1883-1946 yillar) iqtisodiy nazariyasi davlat tomonidan tartibga solishda kapitalistik ishlab chiqarishning ehtiyoji sifatida vujudga keldi hamda u moliyaviy kontseptsiyani shakllantirishga va moliyaviy siyosatni ishlab chiqishga juda katta ta’sir ko’rsatdi. Keynscha tavsiyalar, uning turli xildagi modifikatsiyalari bilan birgalikda, uzoq yillar davomida turli davlatlarning amaliyotida foydalanildi. J.M.Keyns moliyaviy kontseptsiyasining asosida “samarali talab” g’oyasi yotadi.

Iqtisodiyot 1929-1933 yillardagi og’ir tsiklik inqirozni boshdan kechirayotgan bir paytda J.M.Keyns o’zining nazariyasini “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” nomli asarida (1936 yil) bayon etdi. Unda beqaror rivojlanish sharoitida davlat iqtisodiyotga aralashuvining zarurligi asoslab berildi. Moliyaviy kategoriyalar va birinchi navbatda, davlat xarajatlari ana shunday aralashuvning vositalari bo’lishi kerak. Ularning shakllanishi, tarkibiy tuzilmasi va o’sishi “samarali talab”ga erishishning muhim omillari bo’lmog’i

lozim. Soliqlar va qarzlar hisobidan davlat xarajatlarining o'sishi tadbirkorlik faoliyatini jonlantirishi va milliy daromadning ko'payishini ta'minlashi hamda ishsizlikka barham berishi mumkin. Bu maqsadga erishish uchun, muallifning fikricha, davlat faqat o'z xarajatlarining darajasini oshiribgina qolmasdan, balki shaxsiy va investitsion iste'molga ham ta'sir ko'rsatishi kerak.

J.M.Keyns soliqlar va ularning asosiy "psixologik qonun"ga ta'siri masalalariga alohida ahamiyat bergan. Ana shu "qonun"ga muvofiq, insonlar o'z iste'mollarini oshirib borishga moyildir. Lekin bu moyillik ular daromadlarining oshganchalik darajasida emas. Bu narsa, o'z navbatida, tovarlarga bo'lgan talabning pasayib ketishiga va ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. Davlat ana shunday "qonun"ning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilishi hamda soliq tushumlari, qarzlar hisobidan o'z xarajatlarini oshirish yoki turli usullar orqali xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish yo'li bilan etmayotgan talabni to'ldirishi kerak. Uning formulasi quyidagicha:

$$J + S = I + Dx,$$

Bu yerda: J – jamg'armalar;
S – soliqlar;
I – investitsiyalar;
Dx – davlat xarajatlari.

Shunday qilib, J.M.Keyns ishlab chiqarishning monopollashuvi sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishga yo'naltirilgan va printsial jihatdan yangi bo'lgan moliya nazariyasini ishlab chiqqan. 1970-yillarga qadar sanoati taraqqiy etgan ko'pgina mamlakatlar moliyaviy siyosatining asosini tartibga solish keynscha nazariyaning boshlang'ich holatlari (nuqtalari) tashkil etdi.

Neokeynschilar nazariyalari. J.M.Keynsning izdoshlari o'tgan asrning 50-60-yillarida uning nazariyasiga dinamik elementni joriy etdilarki, bu narsa ularga **iqtisodiy o'sish nazariyasi**ni yaratishga imkon berdi. Bu nazariyada ko'pgina mamlakatlarning iqtisodchilari (AQShdan – A.Xansen, S.Xarris; Buyuk Britaniyadan – R.Xarrod, A.Ilersik, A.Pikok; Fransiyadan – F.Perru; Germaniyadan – F.Neymark va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy kontseptsiya muhim o'rinni egallaydi. Ular **fiskal antitsiklik nazariya**ning yaratilishini nihoyasiga etkazdilar. Bu nazariyaning mohiyati balanslashtirilgan iqtisodiy taraqqiyot maqsadlari uchun davlat daromadlari va xarajatlaridagi o'zgarishlarga borib taqaladi.

Neokeynschilar samarali talabga erishishning usuli sifatida "**defitsitli moliyalashtirish**" g'oyasini olg'a surdilar. Ular davlat qarzlarining o'sishini inobatga olmagan (davlat qarzlarini o'sishi

bilan hisoblashmagan) holda davlat katta xarajatlarining zarurligini isbotlab berdilar. Biroq xronik xarakter kasb etgan katta miqdordagi byudjet defitsitlari iqtisodchi olimlarning ma'lum bir guruhini, shu jumladan Stokgolm maktabi vakillarini (E.Lindal, G.Myurdal va boshqalar), byudjetga oid muammoni yangicha hal etishga majbur etdi. Bu maktab vakillari "**byudjetni tsiklik balanslashtirish**", ya'ni byudjet daromadlari va xarajatlarini iqtisodiy tsiklga moslashtirish nazariyasini taklif etdilar. Bu nazariyaga muvofiq iqtisodiy inqiroz paytida vujudga kelgan byudjet defitsitini davlat iqtisodiy o'sish davrida paydo bo'ladigan ortiqcha imkoniyatlar hisobidan qoplashi kerak. Ana shu tavsiyanomalarga rioya etgan holda bir necha kapitalistik mamlakatlarning hukumatlari tsiklik tartibga solishning maxsus pul fondlarini yaratdilar. Bu pul fondlarining mablag'lari iqtisodiyotning o'sishi (ko'tarilishi) davrida to'ldirilgan va ishlab chiqarishning iqtisodiy qisqarishi davrlarida esa ulardan foydalanilgan.

Xo'jalikni rag'batlantirish va uni tartibga solish uchun davlat byudjetidan faolroq foydalanish borasidagi neokeynschilarning talablari "**tizilgan byudjet stabilizatorlari" nazariyasi**da o'z aksini yanada yaqqolroq topdi. Bu nazariyaning asosida "soliq stabilizatorlari" to'g'risidagi keynscha qarashlar yotar edi. J.M.Keynsning fikricha, "soliq stabilizatorlari" tsiklik tebranishlarni tartibga solib, ularni biroz yumshatib va ularda ma'lum bir o'zgaruvchanlikni ta'minlab, avtomatik tarzda amal qilishi kerak edi. Neokeynschilar uni "boshqariluvchan stabilizatorlar" bilan, ya'ni yangi iqtisodiy sharoitlarga muvofiq ravishda davlatning doimo o'zgarib turadigan soliq tadbirlari bilan to'ldiradilar.

Yangi mumtoz nazariyalar. Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda yangi keynschilarning nazariyalari bilan bir qatorda davlat tomonidan tartibga solishni cheklash orqali erkin tadbirkorlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi yangi mumtoz nazariyalar ham yaratildi. Yangi mumtoz maktabning nazariyotchilari (AQShda R.Slou, J.Kenrik; Buyuk Britaniyada – A.Robbins, J.Mid) iqtisodiyotga davlatning aralashmasligi asosiy printsipini himoya qilib, bir vaqtning o'zida maorif va fanga sarf qilinadigan xarajatlar salmog'ini oshirish orqali ularning tarkibiy tuzilmasini o'zgartirib, davlat xarajatlari umumiy hajmining qisqartirilishini yoqlab chiqdilar. Shuningdek, "inson kapitaliga investitsiyalar"ga alohida e'tibor qaratildi. Bir vaqtning o'zida, soliqlarning darajasini pasaytirish taklif etildi va defitsitsiz byudjetga erishilishi talab qilindi.

Takror ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi va inflyatsion tendentsiyalarning (oqimlarning) kuchayishi bilan iqtisodiy qiyinchiliklar uchun javobgarlik yuklatilgan keynschilik va yangi keynschilik qoidalarini tanqid qilish ham kuchaya bordi. Ana shunday murakkab iqtisodiy vaziyatda yangi mumtoz maktabdan **“taklif iqtisodiyoti” nazariyasi**ni ishlab chiqqan **yangi konservativ yo’nalish** (AQShda – G.Steyn, M.Ueydenbaum; Buyuk Britaniyada – J.Xau, A.Uolters) ajralib chiqdi. Bu yo’nalishning moliyaviy kontseptsiyasi iqtisodiy o’sishning jamg’armalar va jamg’arma bilan belgilanishiga asoslanadi. Davlat soliq tizimi orqali mamlakatda investitsiyalarning etarliligini ta’minlash uchun jamg’armalarni shakllantirishga zarur bo’ladigan shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Davlat va uning moliyaviy tizimga ilmiy-texnika taraqqiyotini rag’batlantirish vazifasi yuklatildi. Moliyaga iqtisodiy o’sishni uzoq muddatli rag’batlantirishni ta’minlash vazifasi yuklatildi. Umumiy tarzda, bu jarayonlarda davlatning roli minimallashtirildi. Bu nazariya mualliflarining ayrimlari davlatga “kechki qorovul va politsiyachi” funksiyalarini berish bilan cheklanishni taklif etdi.

Boshqa nazariyalar bilan bir qatorda “taklif iqtisodiyoti” nazariyasida soliqlarga alohida o’rin ajratilgan. Uning vakillari - soliqlarni qisqartirish tarafdori. Biroq, soliqlarga antitsiklik kon’yunkturaviy tartibga solishning vositasi sifatida qaragan keynschilardan farqli o’laroq, ular jamg’armalar va investitsiyalarning yuqori darajasini qo’llab-quvvatlash uchun soliq undirmalarining darajasini pasaytirishni taklif etishdi.

Amerikalik iqtisodchi A.Lefferning **soliq kontseptsiyasi** ham o’ta mashhurlikka erishdi. U o’zi ishlab chiqqan grafik model yordamida soliqlarning yuqori stavkalari iqtisodiy o’sishning sur’atlarini pasaytiradi, degan xulosaga keldi. Bu olimning tavsiyalari 1980-1990-yillarda dunyoning ko’pgina mamlakatlarida amalga oshirilgan soliq islohotlarining asosini tashkil qildi.

Postkeynschilar nazariyalari. Yangi mumtoz maktab vakillari nazariyalarining ma’lum darajada rivojlangan bo’lishiga qaramasdan keynschilar ta’limoti yangi sharoitlarga muvofiq rivojlanishda davom etmoqda. 1970-yillarda postkeynschilar yo’nalishi shakllandiki, uning yirik namoyandalari qatoriga AQShda X.Minskiy, R.Klauer, Buyuk Britaniyada – N.Kaldor, G.Shekl va boshqalarni kiritish mumkin. Bu yo’nalish ham yangi keynschilarning va ham yangi maktab vakillarining asosiy qoidalarini tanqid ostiga oldi. Postkeynschilar nazariyasining asosini hamon moliya mexanizmi yordamida davlat aralashuvini kengaytirish g’oyasi yotmoqda. Moliyaviy siyosat asosiy

siyosatga aylanmog'i va u monopoliyalar faoliyatini cheklashga hamda harbiy xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. "Daromadlar siyosati"da ular ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish va ijtimoiy muammolarni hal etish tarafdorlari sifatida maydonga chiqmoqdalar. Ularning fikricha, eng yaxshi soliqqa tortish usuli bu xarajatlarni soliqqa tortishdir. Ingliz tadqiqotchisi N.Kaldor daromad solig'ini iste'mol solig'i bilan almashtirish g'oyasini taklif etadi. U iste'mol solig'ini shaxsiy xarajatlarni qondirishga sarflanadigan daromadlarning bir qismini soliqqa tortish sifatida talqin qiladi. Uning nazarida, bu chora jamg'arishni rag'batlantirishi va inflyatsiyaning darajasini pasaytirishi mumkin.

N.Kaldorning fikri G'arb olimlari tomonidan keng qo'llab-quvvatlanildi. Ular ham soliq tizimini xarajatlardan olinadigan yagona soliqqacha soddalashtirish tarafdori bo'lib, fuqarolarning faqat iste'mol xarajatlari soliqqa tortilishi kerak, deb hisoblashdi.

XX yuz yillikning oxiri va XX1 yuz yillikning boshlarida iqtisod ilmi, yaxlit holda bozor tizimini, biznes qonunlarini, iqtisodiyotning har qanday sohasidagi amaliy faoliyatni o'rganishni zarur hisoblamoqda. Bir vaqtning o'zida esa, amerikalik mashhur olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryular o'zlarining "Ekonomiks. Printsiplar, muammolar, siyosat" asarida yozganlaridek, moddiy ehtiyojlar cheklanmagan, resurslar esa (kapital, er, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati va boshqalar) aksincha, cheklangandir. Shuning uchun ham iqtisodiyot taraqqiyotining turli davrlarida uning darajasi turlicha bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish doimiy ravishda talab qilinadi. Yuqoridagi har ikkala muallif taklifga yo'naltirilgan fiskal siyosatni qo'llab-quvvatlaydilar. Fiskal siyosat esa jami talabga va soliqlarni o'zgartirish orqali esa taklifga ham ta'sir ko'rsatadi. Byudjetdan transfert to'lovlari va soliq tizimi, bu olimlar fikricha, turli iqtisodiy vaziyatlarda talab qilingan muvozanatni ta'minlashi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning zamonaviy moliya fanida, turli maktablar o'rtasida doimiy ravishda munozaralar va farqlanuvchi fikrlar bo'lishiga qaramasdan, konvergentsiya jarayoni kuzatilmoqda. Masalan, keynschilar nazariyasida qarashlar yangi mumtoz maktab vakillarining qarashlariga va yangi mumtoz nazariyalar esa keynschilar nazariyalaridagi qarashlarga kirib bormoqda. Bu, eng avvalo, barcha nazariyalarda mavjud bo'lgan moliya-kredit-pul mexanizmiga tegishlidir. Barcha nazariyalar mamlakatning xo'jalik hayotiga ta'sir ko'rsatish uchun bu instrumentlarni tadqiq etish zarur ekanligini bir ovozdan tan oladilar, so'zsiz e'tirof etadilar. Holbuki,

bunday ta’sir choralari, ulardan foydalanish vositalari va vaqtlari bir-biriga mos tushmasligi mumkin.

Xorijiy olimlar tomonidan yaratilgan moliyaviy kontseptsiyalarining tahlili quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

- moliya sohasidagi qarashlar tizimi umumiqtisodiy nazariyaning ma’lum bir qismi hisoblanadi, ular moliya fanini boyitadi va rivojlantiradi;
- moliyaviy kontseptsiyalarning vujudga kelishi mamlakat makro- va mikroiqtisodiyotining talablariga javob reaktsiyasidir yoki ma’lum hukmron ijtimoiy guruhlar buyurtmasining bajarilishidir (ijro etilishidir);
- xorijiy olimlarning progressiv moliyaviy g’oyalari iqtisodiy o’sishning etarli yuqori darajasini ta’minlab, insonning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishda jamiyatga yordam beradi.

7.2. Rossiyalik iqtisodchilarning moliyaviy nazariyalari[56]

Rossiyada moliya fani mustaqil voqelik sifatida XIX asrning boshlarida shakllana boshladi. Shu davrda moliya sohasiga oid birinchi yirik ilmiy ishlar paydo bo’ldi. Rus moliya fanining boshlanishiga N.I.Tergenevning “Soliqlar nazariyalari tajribasi” asari (bu asar 1818 yilda nashr etilgan) asos soldi. Unda Rossiyada ilk marta soliqlarning o’ziga xos xususiyatlari, ularning davlat xo’jaligi va mamlakatning butun iqtisodiyoti uchun ahamiyati o’rganildi.

Oktyabr davlat to’ntarilishiga qadar olimlarning ishlarida moliya masalalari. Rossiya moliya fanining gullab-yashnashi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to’g’ri kelib, bu davrda rossiyalik iqtisodchilar va yuristlardan I.Yanjul, I.Ozerov, I.Kulisher, L.Xodskiy, V.Lebedev, S.Ilovayskiy va boshqalarning eng mashhur asarlari e’lon qilindi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar moliya fanining ham nazariy va ham amaliy masalalarini ishlab chiqishdi. Nazariyada ular pragmatik yondoshuvning vakillari hisoblanib, **“jamoa ehtiyojlarini qondirish” nazariyasi**ning tarafdorlari edilar. Bu narsa I.Ozerovning “Moliya

---

[56] O‘zbekistonda tayyorlangan darslikda rossiyalik iqtisodchilarning moliyaviy nazariyalarini o’rganish masalasi ayrimlarning e’tirozlariga sabab bo’lishi mumkin. Lekin, bizning fikrimizcha, X1X asrning 60-yillarida O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan ishg’ol etilganligi, bu erda Qo’qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi kabi kapitalistik emas, balki feodal davlatlarning mavjud bo’lganligi, undan keyingi yillarda O‘zbekistonning sobiq SSSR tarkibida bo’lganligi va bu holatlarning barchasi tegishli masalalarga (shu jumladan, moliya sohasidagi nazariyalarning yaratilishiga ham) o’z ta’sirini ko’rsatganligini xolisona tan olishimiz kerak. Shu sabablarga ko’ra, mazkur darslikda rossiyalik moliyachilarning fanga qo’shgan hissalari haqida qisqacha ma’lumot berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

fani asoslari” deb nomlangan darsligida yaqqol namoyon bo’lgan edi.

Davlat moliyasini tadqiq qilish shu davrdagi olimlarning ishlarida asosiy o’rinni egallagan edi. Ta’kidlash joizki, bu davrda e’lon qilingan ishlarda xususiy xo’jalik moliyasi to’g’risida masalalar, hatto biror marta ham, esga olinmagan. Bir vaqtning o’zida, davlat daromadlariga oid masalalar: daromadlar tizimi, turli davlatlarda ularning rivojlanishi, soliqlarni byudjetga undirish shakllari va tartiblari, shu jarayonlar ustidan davlat tomonidan amalga oshirilgan nazorat, byudjet defitsitini qoplash manbalari, davlat kreditining rivojlanishi kabi masalalar tadqiq qilingan.

Oktyabr davlat to’ntarilishiga qadar moliyachilar tomonidan o’rganilgan masalalarning boshqa bir yo’nalishi byudjet va mahalliy byudjetlar bilan bog’langan. Ularda markaziy byudjet va mahalliy byudjetlarning tuzilish masalalari va byudjet jarayoniga tegishli bo’lgan boshqa masalalar ko’rib chiqilgan.

Sotsial-demokratik oqimda moliya masalalari. Shu davrning o’zida iqtisodiyot fanida sotsial-demokratik oqim rivojlanib, u K. Marks va F. Engelsning rossiyalik izdoshlari tomonidan amalga oshirildi. Barcha sotsial-demokratlar uchun umumiy holat, bu moliyaviy hayot voqeliklarini tadqiq etishda yuzaki yondoshish bo’lib, nazariy ishlanmalarning hokimiyat uchun siyosiy kurashning bir daqiqalik ehtiyojlariga bo’ysundirilganligi bilan xarakterlanadi. Bu oqimning yaqqol namoyandasi V.I.Lenin (1870-1924 yillar) edi.

Oktyabr davlat to’ntarilishiga qadar yozilgan V.I.Lenin ishlarining asosiy mazmuni Rossiya moliyaviy siyosatni tanqid qilishdan iborat bo’lgan. Maqolalari va chiqishlarida u byudjetning daromadlar va xarajatlar tizimini tanqidiy ko’rib chiqqan, egri (bilvosita) soliqlarning ijtimoiy tavsifini ochib bergan va Oktyabr davlat to’ntarilishi arafasida davlat moliyaviy ahvolining ayanchli ekanligini ko’rsatgan.

1917 yilda V.I.Lenin tomonidan bolsheviklar partiyasining iqtisodiy platformasi ishlab chiqiladi va u RSDRP (b)ning UI s’ezdida qabul qilinadi. Unda pul, moliya va kredit masalalariga ko’p e’tibor qaratilgan edi. Xususan, bu iqtisodiy platformaga muvofiq bank ishining milliylashtirilishi va markazlashtirilishi, sug’urta ishining milliylashtirilishi, qog’oz pullarni chiqarishning to’xtatilishi, ichki va tashqi qarzlarni to’lashdan voz kechish, mulkka va mulkning o’sishiga solinadigan yuqori stavkali soliqni joriy etish, daromad solig’ini isloh etish va kapitalistlarning daromadlari ustidan haqiqiy nazoratni o’rnatish, zebi-ziynat buyumlariga yuqori egri (bilvosita)

soliqlarni joriy etish orqali soliq tizimini o’zgartirish ko’zda tutilgan edi. Amalda ana shu tadbirlarning barchasi, pul muomalasini barqarorlashtirish va soliq tizimini isloh qilishdan tashqari, Oktyabr davlat to’ntarilishini amalga oshirish jarayonida va undan keyingi dastlabki yillarda sodir etildi.

Keyingi yillarda V.I.Lenin tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy muammolarning tadqiqi, asosan, davlat oldida vujudga kelgan taktik vazifalar bilan bog’liq edi. Moliyaviy nazorat, yangi moliyaviy apparatni yaratish, davlatning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, pul islohotini o’tkazish va keyingi bosqichlarda davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirish masalalari u tomonidan nisbatan faolroq ravishda ishlab chiqilgan.

V.I.Lenin va XX asrning boshlaridagi boshqa markschi-olimlarning ishlarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, ular tomonidan moliya hamda asosiy moliyaviy kategoriyalarning (soliqlar, byudjet, davlat krediti va boshqalar) roli va mazmuni yaxlit tarzda tadqiq etilmagan. Bu o’rinda faqat davlatning moliyaviy xo’jaligini boshqarish bilan bog’liq bo’lgan bir necha xususiy masalalarning o’rganilganligini qayd etib o’tish kerak, xolos.

Bularning barchasi Oktyabr davlat to’ntarilishining dastlabki davrlarida moliyaviy masalalarni o’rganish undan oldingi davrning iqtisodchilari (I. Yanjul, I. Ozerov, L. Xodskiy) va ularning izdoshlari (Ya. Torgulov, I. Kulisher, F. Menkov) asarlariga asoslanishiga olib keldi. Moliya fanining bunday ahvoli 1920-yillarning o’rtalarigacha davom etdi.

Sovet moliya fani. Iqtisodiyot va moliyani boshqarishning direktiv metodlariga o’tilishi munosabati bilan moliya xususidagi ilmiy tasavvurlarni unifikatsiya qilish va tartibga keltirish, ularni sinfiy kurash manfaatlariga bo’ysundirish zaruriyati paydo bo’ldi. SSSR moliyasi to’g’risidagi fanning yaratilishi buning natijasi bo’lib, unda sovetlar moliyasining kapitalistik davlatlar moliyasidan ustunligi ko’rsatildi. Bu fanning oyoqqa turish davri nisbatan uzoq vaqtni talab etib, 1920-yillarning oxiridan 1950-yillarning boshigacha davom etdi.

Birinchi davrda (1926-1931 yillar), asosan, birinchi besh yillik rejaning bajarilishi jarayonida vujudga kelgan moliyaning xususiy masalalari ishlab chiqildi. Bir vaqtning o’zida, moliyaning sotsialistik amaliyotdagi yangi voqeliklarini umumlashtirishga ham harakat qilindi. Bunday ishlar qatoriga D. Kuzovkov, G. Tiktina, A. Bukovetskiylarning ishlarini va, ayniqsa, muallifning o’zi tomonidan “markscha darslik” deb e’tirof etilgan D. Bogolepovning “Moliya fanining qisqacha kursi” darsligini ko’rsatish mumkin.

Sotsialistik atamalardan, so’z va iboralardan keng foydalangan bo’lishiga qaramasdan D. Bogolepov moliyasining mazmuni “jamoa ehtiyojlarini qondirish” nazariyasidan kelib chiqadiki, uning tarafdorlari, yuqorida qayd etilganidek, Oktyabr davlat to’ntarilishigacha bo’lgan rossiyalik iqtisodchilar edi. Bularning hammasi moliya nazariyasining biror-bir ishlanmasi rasmiy jihatdan e’tirof etilmasligiga va qo’llab-quvvatlanmasligiga olib keldi. Bu o’sha davr SSSR tarixiy taraqqiyotiga xos holat edi.

Sovet moliya fani taraqqiyotining ikkinchi davri (1931-1956 yillar) moliyaning predmetiga nisbatan yagona qarashlarning shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Ilmiy asarlarida moliyaning nazariy asoslarini: moliyaning mohiyati, funksiyalari va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, milliy daromadni taqsimlashda moliyaning o’rni, moliyaviy tizimning tarkibi va boshqa shunga o’xshash bir qancha masalalarni ishlab chiqqan V. D’yachenko bu davrning klassikiga aylandi. U birinchi bo’lib moliyaga markscha ta’rif berdi. Berilgan ta’rif quyidagicha edi: “Daromadlar va jamg’armalarni rejali taqsimlash orqali davlatning funksiyalari va vazifalariga muvofiq ravishda uning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishni ta’minlaydigan pul munosabatlari tizimiga sotsialistik davlatning moliyasi deyiladi”[57] (tarjima - mualliflarniki).

V.D’yachenkoning asarlari birinchi rasmiy darsliklar hisoblangan “SSSR moliyasi” (1933 yil) va “SSSR moliyasi va krediti” (1940 yil) darsliklari uchun asos bo’lib xizmat qildi. V.D’yachenkoning moliya nazariyasiga oid umumiy qarashlari uning “Sovetlar moliyasining mohiyati va funksiyalari to’g’risidagi masalalarga doir” asarida aks ettirilgan.

Bu davrda moliya fanining amaliy masalalarini tadqiq qilish, asosan, ikki yo’nalishda amalga oshirildi: 1) moliya kategoriyalarining taraqqiyot tarixini o’rganish. Bu ro’yxatga K.Plotnikovning byudjet tarixiga bag’ishlangan, A.Zverev va N.Voznesenskiylarning Ulug’ Vatan urushi davrida moliyaning rivojlanishini yoritgan kitoblarini kiritish mumkin; 2) moliyaviy amaliyotni yoritib bergan ishlar. Bular, asosan, yozma bayon etish xarakteriga ega bo’lib, moliyaviy ta’lim tizimida faol foydalanilgan.

Iqtisodiy nazariyada qotib qolgan voqeliklarga barham berilishi sovet moliya fanida ham yakkafikr hukmronligiga yakun yasadi. 1950-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlarini o’z ichiga olgan

---

[57] Qarang: D’yachenko V.P. Voprosi teorii finansov. – M.: Finansi, 1957. s.68-69.

davrda moliya nazariyasiga bag’ishlangan iqtisodchi olimlarning qator ishlari paydo bo’ldi. Ularning orasida A.Aleksandrovning “Sotsializm moliyasi” (1965 yil), A.Birmanning “Sovet moliya nazariyasining ocherklari” (1968, 1972 va 1975 yillardagi uch nashri), E.Voznesenskiyning “Sotsialistik moliya nazariyasining munozarali masalalari” (1969 yil), G.Tochilnikovning “Sotsialistik moliya” (1974 yil) kabi asarlari alohida o’ringa ega. Shu davrning o’zida “SSSR moliyasi” va “SSSR moliya va krediti” o’quv fanlari bo’yicha bir necha darsliklar va o’quv qo’llanmalari nashrdan chiqadiki, ularning orasidan M.Shermenyov tahriri ostida 1977 yilda e’lon qilingan “SSSR moliyasi” darsligini alohida qayd etish lozim.

Moliya nazariyasi masalalari bo’yicha munozaralarning mohiyati kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tizimida moliyaning o’rnini aniqlashga borib taqaladi. O‘sha davrda moliya sohasida ishlab chiqilgan turli kontseptsiyalarning mualliflari ikki guruhga bo’linadi. Birinchi guruh mualliflarining fikricha, moliyaning o’rni - bu faqat noekvivalent xarakterga ega bo’lgan pul mablag’larini taqsimlash tizimidir. Ana shundan kelib chiqqan holda, moliya faqat bilvosita va taqsimlash orqali moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, almashuv va iste’mol munosabatlariga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Bu guruhga kiruvchi olimlarning yorqin namoyondalari V.D’yachenko, G.Tochilnikov va M.Shermenyov edilar.

E.Voznesenskiy, A.Aleksandrov, A.Birman va boshqalardan iborat bo’lgan olimlarning ikkinchi guruhi bu masalaga nisbatan boshqacha qarashga ega bo’lgan. Bu guruhga kiruvchi olimlarning fikricha, moliyaviy munosabatlarning mohiyatini takror ishlab chiqarishning barcha to’rt bosqichi yoki uning bir necha bosqichi belgilab beradi. Bunday yondoshuv moliyaning kengaytirilgan kontseptsiyasi, deb e’tirof etildi.

Moliya nazariy kontseptsiyasi asosidagi ana shunday farqlardan kelib chiqqan holda olimlarning moliyaviy munosabatlarning o’ziga xos xususiyatlari, moliyaning funksiyalari, moliyaning chegaralari, moliyaviy tizimning tarkibi va boshqa shunga o’xshash bir necha xususiy masalalarga nisbatan qarashlari ham turlicha bo’lgan.

Moliya nazariyasining rivojlanishi bilan bir vaqtning o’zida 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida printsipial jihatdan yangi ko’rinishga ega bo’lgan amaliy moliyaviy tadqiqotlar ham paydo bo’ldi. Agar 1930- va 1950-yillarning boshlarigacha amaliyotda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish masalalariga bag’ishlangan ishlar, asosan, mavjud holatni yozma bayon etish yoki maqtash

xarakteriga ega bo'lsa, 1960-yillarda boshlangan xo'jalik islohotidan keyin tanqidiy xarakterga ega bo'lgan va alohida moliyaviy instrumentlarni takomillashtirish bo'yicha ishlanmalarga ega muhim ishlar e'lon qilina boshlandi. Bunga misol qilib, birinchi navbatda, A.Birmanning kitoblarini ko'rsatish mumkin. Uning kitoblarida sovet moliya fanida ilk marta korxonalar moliyasining masalalari yuqori darajada tadqiq qilindi. Shuningdek, uning asarlarida birinchi marta xo'jalik hisobi sharoitida moliyaviy kategoriyalardan foydalanish masalalari ishlab chiqildiki, ular muallif talqinida sotsializm sharoitida bozor xo'jaligining elementlariga ega edi.

Shu davrda moliyaviy resurslar va korxonalar moliyasini boshqarishning mazmunini birinchi marta o'rganishga kirishildi. A.Birmanning ishlari 1960-1980-yillardagi olimlarning (P.Bunich, G.Bazarova, V.Senchagov, S.Sitaryan, M.Romanovskiy, V.Kolesnikov, P.Jevtyak, D.Molyakov va boshqalar) ishlarida korxonalar moliyasini tadqiq etishda o'ziga xos turtki bo'ldi.

Byudjet sohasining muammolarini tadqiq etish bu davrda ikki yo'nalishda amalga oshirildi: 1) byudjet daromadlari va xarajatlarining rivojlanishi; 2) mahalliy byudjetlarni tashkil etish. Biroq, shu davrlarda byudjet masalalarini kompleks tadqiq etishni moliya fanida hukmronlik qilgan ma'lumotlarning etarli emasligi va g'oyaviy qotib qolishlarning mavjudligi ancha murakkablashtirgan edi. Bu davrdagi davlat byudjetiga bag'ishlangan yirik izlanishlar qatoriga G.Rabinovich, S.Sitaryan, Ya.Liberman, V.Rodionova va L.Pavlovalarning ishlarini kiritish mumkin.

Sug'urta ishiga nisbatan davlat monopoliyasining mavjudligi sug'urta masalalarini o'rganishga o'zining keskin salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Bu sohadagi nazariy tadqiqotlar K.Marksning sug'urta fondlarining zarurligi, mazmuni va roli to'g'risidagi tasavvurlarini interpretatsiya qilishga bag'ishlangan bo'lib, etarli darajada ilmiy yangiliklarga ega emas edi. Shu davr sug'urtasining nazariyasi va amaliyotini umumlashtirgan L.Motilev, L.Reytman E.Kolomin va boshqalarning ishlari birmuncha diqqatga sazovordir.

Shu davrlarda xorijiy mamlakatlarning moliyaviy munosabatlarini tahlil va tanqid qilish masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan edi. Shu munosabat bilan, bir tomondan, kapitalizm moliyasining rivojlanishiga bag'ishlangan ishlarni (B.Boldirev, L.Drobozina, L.Pavlova, L.Okuneva va boshqalarning asarlarini) alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lsa, ikkinchi tomondan, sotsialistik mamlakatlarda moliyaviy instrumentlarning rivojlanish tendentsiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq

etishga bag'ishlangan ishlar (D.Butakov, Yu.Kashin va boshqalarning asarlari) ham diqqatga sazovor bo'lganligini e'tirof etish zarur.

Rossiya moliya fanining hozirgi holatiga tavsif-noma bera turib, qayd etish kerakki, ayni davrda bu sohaga bag'ishlangan chuqur nazariy va amaliy ishlar paydo bo'lmoqda. Mualliflarning ko'pchiligi bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaning metodologik va metodik masalalarini tadqiq etishmoqda, ayrimlari davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari muammolarini o'rganishmoqda, boshqalari xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyasi, xalqaro moliyaviy munosabatlar kabi mavzular bilan shug'ullanishmoqda. Shu bilan birgalikda yana shuni ta'kidlash lozimki, mazkur darslikda Rossiya Federatsiyasi olimlarining moliya sohasidagi ayni davrdagi ilmiy izlanishlari chuqur tahlil etilmadi. Buning sababi bugun Rossiya va O'zbekiston moliya tizimlarining bir-biridan farq qilishlari tufayli rus olimlari asarlarining biz uchun ahamiyati oldingidan ancha pasaydi.

7.3. O'zbek olimlarining moliyaviy qarashlari

Moliya fanining paydo bo'lishi va taraqqiyotiga ajdod-larimiz buyuk hissa qo'shishganligi haqida mazkur darslik-ning 1.5-paragrafida qisqacha bayon berib o'tdik. Lekin XVI asrdan boshlab, ya'ni yurtimizda "musulmon uyg'onish" davri tugashiga bog'liq ravishda iqtisodiy ta'limotlar, jumla-dan, moliya sohasida ham e'tiborga molik ilmiy asarlar soni kamayib, sifati ham pasaya boshladi.

Bu salbiy tendentsiya Markaziy Osiyoni chor Rossiyasi bosib olgan davrda yanada kuchaydi. O'zbekiston Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan paytda bu yerda iqtisod va moliyaga oid asarlar yozish deyarli to'xtab qolishi ob'yektiv sabablarga bog'liq edi. Negaki, mazkur masalalar to'laligicha Rossiya imperiyasining O'zbekistonni boshqarish uchun tashkil etgan maxsus general-gubernatorlik mahkamasi tomonidan amalga oshirilar va mustamlaka yurtning fuqarolariga moliya fani masalalari bilan shug'ullanishga ruxsat beril-mas edi. Chunki bu holatda yurtimizdan olib chiqib keti-layotgan moddiy va moliyaviy boyliklarning miqdorini erli xalqning vakillari bilib qolishlari mumkin edi.

O'zbekiston sovet davrida ham mohiyat jihatidan tom ma'nodagi mustamlaka davlat bo'lib qolaverdi. Bu davrda ham O'zbekistonning iqtisodiyoti bir tomonlama, ya'ni faqat Markazning

manfaatlariga xizmat qilishga moslashtirib rivojlantirildi, SSSRning asosiy xomashyo bazalaridan biriga aylantirildi.

O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi hududida yaratilayotgan yalpi ichki daromad va milliy daromadning haqiqiy miqdorini Moskvadagi markaziy iqtisodiy idora-larning rahbarlarigina bilishar va bu davlat siri edi. Chunki yurtimizda faoliyat ko’rsatayotgan eng yirik ishlab chiqarish korxonalari Ittifoq mulki bo’lib, shu sababdan ularning daromadlari ham SSSRning daromadlari hisob-lanardi. Ittifoq markaziga bo’ysunuvchi mazkur korxona-larning soliq va to’lovlari ham Ittifoq byudjetining daromadlari tarkibiga kiritilgan va uning daromad manbalari hisoblanar edi. Ana shu sabablarga ko’ra, ya’ni xuddi Rossiya imperiyasi davridagiga o’xshab, O‘zbekiston hududida uning korxonalari va xalqi tomonidan yarati-layotgan daromadlar miqdorini bu ittifoqdosh respublika fuqarolari bilib qolmasliklari uchun sobiq Ittifoq rahbariyati barcha vositalarni ishga solgan.

1931 yili Toshkentda maxsus moliya instituti tashkil etildi. Mazkur oliy o’quv yurti O‘rta Osiyo va Qozog’iston (Sovet davrida Markaziy Osiyo shunday nom bilan atalgan) ittifoqdosh respublikalari moliya vazirliklari, boshqa barcha vazirlik va idoralari tizimlarining moliya bo’lin-malari uchun oliy ma’lumotli moliya mutaxassis-larini tayyorlar edi.

O‘zbekistonda moliya sohasida maxsus oliy o’quv yurti tashkil etilgani bilan uning professor-o’qituvchilari batamom Ittifoq markazlaridan yuborilgan mutaxassis-lardan iborat edi. Ya’ni o’sha davrlarda Toshkent Moliya instituti va boshqa oliy o’quv yurtlari iqtisodiyot fakul-tetlarining talabalariga ham moliya fanini Rossiyadan yuborilgan asosan xristian millatlariga mansub olimlar o’qitishgan.

Lekin 1940-yillarga kelib, O‘zbekistonning o’zbek millatiga mansub oliy ma’lumotli ilk moliyachi mutaxas-sislari paydo bo’lishdi. Bu holat ular ichidan Ittifoq va O‘zbekiston davlat byudjetlari o’rtasidagi munosabatlarni tushuna oladigan va bu borada fikrlar ayta oladigan o’zbek mutaxassislari va olimlarining ham paydo bo’lishiga zamin yarata boshladi. Lekin, qator ob’yektiv sabablarga ko’ra, eng avvalo, sobiq Ittifoqning bu masalaga aynan o’gay ko’z bilan qaraganligi, Markaziy Osiyodan moliya faniga kimdir kirib qolishini xohlamasligi sababli o’zbek moliyachi mutaxassis-lari bu sohada ilmiy daraja olishlari uchun yana uzoq yillar kutishlariga to’g’ri keldi.

Demak, Toshkent Moliya institutining ilk o’zbek o’qituv-chilari 1940-yillarda paydo bo’lishgan. Ana shulardan biri keyinchalik iqtisod fanlari doktori, professor darajasiga etishib, Sho’rolar davrida O‘zbekistonda yagona bo’lgan “moliya” kafedrasini 30 yil boshqargan, o’zbek moliya fani-ning otasi Hikmat Rahimovich Sobirov edi.

Sobiq Sho’rolar davrida O‘zbekistonda moliya fanining taraqqiyotida va uning nazariy masalalarini tadqiq etishda o’zbekistonlik moliyachi olimlardan dots.Q.A.Yah’yoev, dots. A.F.Krasnikov, dots. F.Sh.Shamsiddinov, dots.X.M.Muratov, dots.H.H.Muhamednazarov, fanning rivojiga muayyan hissa qo’shishgan.

O‘zbekistonda moliya fanining bugungi taraqqiyotida prof.T.S.Malikov, prof.O.O.Olimjonov, prof. J.Zaynalov, prof.N.H.Haydarov, prof.O.K. Iminov, prof.N.Karimov, prof. M.I.Almardonov, prof.M.B.Hamidulin, prof. B.E.Toshmu-rodova, prof. N.X.Jumaev, prof. I. Butikov, prof.N.R.Qo’zieva, prof.Sh.A.Toshmatov, prof. A.A.Omonov va boshqalar samarali faoliyat ko’rsatishyapti.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi moliya fani oldiga umumdavlat ahamiyatiga ega bo’lgan ulkan vazifalar qo’ydi. Ularning eng muhimi mustaqil davlatning mustaqil moliyaviy tizimni tashkil etishning nazariy va amaliy masalalarining echimini ishlab berish edi. O‘zbek moliyachi olimlari bu borada tadqiqotlar olib bora boshlashdi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Siyosiy iqtisod mumtoz olimlari kontseptsiyalarining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
- Siyosiy iqtisod mumtoz olimlari qatoriga kimlar kiradi?
- A.Smit soliqqa tortishni maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilishning qanday to’rt asosiy tamoyillarini ifodalagan?
- A.Smit mashhur asarining nomini bilasizmi? U qanday nomlangan?
- A.Smitning soliq kontseptsiyasi qanday maqsadga qaratilgan edi?
- J.S.Mill “xizmatlarning soliq nazariyasi”ning asosiy g’oyasini tushuntirib bering.
- Yangi tarixiy maktab kontseptsiyalarining vakillari kimlar?

- A.Vagner tomonilan ishlab chiqilgan soliqqa tortishning to’qqiz tamoyillari qanday guruhlarga birlashtirilgan?
- Moliyaviy muammolar markschilar asarlarida qanday talqin qilingan?
- Foydalilikning cheklanganligi nazariyasining moliyaviy jihatlari nimalardan iborat?
- J.M.Keyns moliyaviy kontseptsiyasining asosida qanday g’oya yotadi va uning asosiy jihatlariga nimalar kiradi?
- “Samarali talab”ga erishishning muhim omillarini aytib bering.
- 1936 yilda nashr etilgan J.M.Keynsning mashhur asari qanday nomlangan?
- J.M.Keynsning etmayotgan talabni to’ldirish formulasi nimalardan iborat va u qanday ko’rinishga ega?
- Neokeynschilarning qanday nazariyalari mavjud?
- Iqtisodiy o’sish nazariyasining asosiy mazmuni nimalardan iborat va uning ijodkorlari kimlar?
- Fiskal antitsiklik nazariyaning asosiy g’oyasini aytib bering.
- “Defitsitli moliyalashtirish” va “byudjetni tsiklik balanslashtirish” nazariyalarining asosiy xarakterli belgilari.
- “Tizilgan byudjet stabilizatorlari” nazariyasining negizini ayting.
- Yangi mumtoz nazariyalarning vakillari va ularning asosiy qarashlari mazmunini aytib bering.
- “Taklif iqtisodiyoti” nazariyasidagi yangi konservativ yo’nalishning asosiy mazmuni nimalardan iborat?
- A.Leffer soliq kontseptsiyasining mashhur bo’lish sababini ayting.
- Postkeynschilar nazariyalarining mualliflari kimlar va ular qanday g’oyalarni ilgari surishgan?
- Xorijiy mualliflar moliyaviy kontseptsiyalarining tahlili qanday yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon beradi?
- Oktyabr davlat to’ntarilishiga qadar qaysi rus olimlarining ishlarida moliya masalalari tadqiq etilgan?
- “Jamoa ehtiyojlarini qondirish” nazariyasining moliyaviy jihatlari nimalardan iborat edi?
- Sotsial-demokratik oqimda moliya masalalari qanday talqin qilingan?
- 1917 yilda V.I.Lenin tomonidan ishlab chiqilgan va RSDRP (b)ning UI s’ezdida qabul qilingan bolsheviklar partiyasining iqtisodiy

platformasida pul, moliya va kredit sohasidagi qanday masalalariga ko’p e’tibor qara-tilgan edi va ular qanday oqibatlarga olib keldi?

- Sovet moliya fanining rivojlanishiga o’ziga xos tarzda hissa qo’shgan olimlardan kimlarni bilasiz?
- Sovet moliya fani taraqqiyotining davrlarini shartli ravishda qanday davrlarga bo’lish mumkin va ularning namoyandalari kimlar? Bu davrlarda ularning qanday asarlari vujudga keldi?
- 1950-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlarida sovet moliya fani qanday natijalarga erishdi?
- Moliya nazariyasi masalalari bo’yicha munozaralarning mohiyati qaysi masalani aniqlashga qaratilgan va turli kontseptsiyalarning mualliflari qanday guruhlarga bo’lin-gan? Ularning bir-biridan farqli jihatlarini aytib bering.
- Sovet davrida moliya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan kimlarni bilasiz? Ular ayrimlari asarlarining nomlarini aytib bera olasizmi?

8-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar[58] moliyasi

8.1. Davlatning moliyaviy salohiyati va uning xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi bilan o'zaro bog'liqligi

Davlatning moliyaviy salohiyati bozor iqtisodiyoti sub'yektlari va aholining pul daromadlari va jamg'ar-malari asosida shakllanib, bir-birlari bilan o'zaro bog'langan quyidagi bo'g'inlardan tashkil topadi:

- respublika va mahalliy byudjetlar, byudjetdan tash-qari davlat maxsus fondlari byudjetlari; davlat kredit resurslari; davlat (unitar) xo'jalik yurituvchi sub'yektlari (XYuSlari) va davlatning ishtirokidagi XYuSlar moliyasi. Davlatning moliyaviy salohiyati tarkibiga asosiy fondlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, moddiy aylanma mablag'lar, uy-ro'zg'or mulklari, nomoddiy aktivlar qiymati – inson kapitali kiradigan moddiy kapital ko'rinishidagi milliy boylik hajmini kiritish mumkin;
- xususiy XYuSlar moliyaviy salohiyati. U aylanmadan tashqari aktivlar va aylanma aktivlarining yig'indisidan tashkil topadi. Bu yerda aylanmadan tashqari aktivlar nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, tugallanmagan ishlab chiqarish, moddiy boyliklarga daromadli investitsiyalar, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar (qo'yilmalar), aylanmadan tashqaridagi boshqa aktivlardan iboratdir. Shuningdek, bu yerda aylanma aktivlarning tarkibiga zaxiralar, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, pul mablag'lari va boshqa aylanma aktivlar kiradi. XYuSlarning moliyaviy salohiyati ularning yangi qiymat yaratishdagi qobiliyatiga bog'liq. Bir xil moliyaviy-iqtisodiy qudratga ega bo'lgan XYuSlar bir-biridan tubdan farq qiluvchi moliyaviy natijalarga erishishi mumkin. Bu mol-mulkdan, ishlab chiqarish-texnologik jarayonlar va kadrlarni boshqarish samaradorligiga, menejment mala-kasiga, tadbirkorlikning natijaliligiga, moliyaviy resurs-lar va tashqi qarzlardan oqilona foydalanishga bog'liq bo'ladi;
- bank-kredit tizimining moliyaviy salohiyati – kredit resurslariga bo'lgan iqtisodiyotning ehtiyojlarini qondirish bo'yicha kredit tashkilotlari aktivlari va real imkoniyat-larining yig'indisi. Ayrim mamlakatlarning bank-kredit tizimi hozirgi paytda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini kredit resurslari bilan ta'minlash

[58] Ushbu darslikda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar deyilganda, eng avvalo, korxonalar va xo'jalik yuritishning qolgan barcha shakllari nazarda tutiladi.

imkoniyatiga ega emas. Ularda XYuSlarga taqdim etilayotgan kredit resurslari, asosan, qisqa muddatli xarakterga ega hamda asosiy kapitalni shakllantirishdagi kreditlarning salmog'i iqtisodiyot samaradorligining o'sishi uchun etarli emas;

- sug'urta fondlarining moliyaviy salohiyati. Bu salohiyat tadbirkorlik risklarini pasaytiradigan va jamg'armalar hamda investitsiyalar o'sishini ta'minlaydigan pul sug'urta resurslarini shakllantirish bo'yicha sug'urtaviy moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlar yig'indisining amalga oshirilishi orqali namoyon bo'ladi;
- uy xo'jaliklarining moliyaviy salohiyati. Bu salohiyat ularning jami daromadlari, soliq, renta va foiz to'lovlari, investitsion talabning o'sishiga iste'mol va jamg'arishning ta'siri orqali ifodalanadi.

Hozirgi paytda ko'p mamlakatlarda aholining jamg'ar-malari, XYuS va tashkilotlarning jamg'armalari singari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish maqsadlari uchun to'liq foydalanilmayapti. Aholining jamg'armalaridan foydalanish masalasi bizning mamlakatimizda ham hali o'z echimini topmagan. Mustaqillikning dastlabki yillarida banklarning aholi omonatlari bo'yicha foiz stavkalarini bir tomonlama kamaytirish hodisalariga yo'l qo'yganliklari, omonatni sir saqlash shartini buzganliklari kabi noxush holatlar aholining banklarga bo'lgan ishonchini pasay-tirganligi sir emas. 2016 yildan boshlab mamlakatimizda bu masalada ham juda katta ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Ayni paytda aholi omonatlari miqdori keskin suratlar bilan oshib boryapti.

8.2. Moliyaviy salohiyat o'sishining omillari

Mamlakat moliyaviy va investitsion tizimining asosini iqtisodiyot real sektori moliyasi tashkil etadi. Moddiy boylik ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarish samara-dorligiga katta ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy munosabatlar shakllanadi.

XYuSlarning moliyaviy resurslari ular tomonidan olinadigan pul daromadlari va ishlab chiqarish resurslari iqtisodiy doiraviy aylanishi samaradorligining o'sishiga xizmat qiladigan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish jarayonini amalga oshirishga yordam beradigan va ularning ixtiyorida bo'lgan qarziy mablag'lar asosida tashkil topadi.

Hozirgi vaqtda kapital qo'yilmalarni moliyalash-tirishda XYuS o'z mablag'larining (sof foyda va amor-tizatsiya) salmog'i muhim ahamiyatga ega. Bunda amortizatsiya ajratmalarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish alohida rol o'ynaydi.

YaIM va MDni qayta (ikkilamchi) taqsimlash davlat va XYuSlar o’rtasidagi moliyaviy munosabatlar doirasida sodir bo’ladi. Ana shu darajada XYuSlar va aholining birlamchi daromadlari bir qismini to’g’ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlar undirish yo’li bilan va shuningdek, davlat kreditlashtirishi hisobidan mamlakatning davlat moliyasi tashkil topadi (shakllanadi).

XYuSlar pul resurslarini, uy xo’jaliklari daromad-larini ikkilamchi qayta taqsimlash kredit-bank sohasi va sug’urta tizimi orqali ham amalga oshiriladi. Bular depozitli, vekselli, pulli va banklarning boshqa jamg’arma operatsiyalari, ular tomonidan yuridik shaxslar va aholiga uzoq, o’rta va qisqa muddatli kreditlar va ssudalar berish, turli risklarni sug’urta qilish shakllarida sodir bo’ladi.

Ko’p darajali byudjet tizimi va byudjetdan tashqari maxsus fondlar faoliyatidagi qayta taqsimlash jarayon-larini takomillashtirish moliyaviy salohiyatni yanada kuchaytirish va davlat moliyaviy resurslari o’sishining quyidagi yo’nalishlari bilan uzviy bog’langan:

- byudjet-soliq sohasidagi daromadlarni qayta taqsim-lashning samaradorligini oshirish. Bu narsa davlat tomonidan ta’sirchan fiskal siyosatni hayotga tatbiq etish bilan bog’liqki, bu siyosat o’z navbatida, ishlab chiqarishning o’sishi va XYuSlarning investitsiyalarga yo’naltiriladigan moliyaviy resurslarining o’sishini rag’batlantirishni ko’zda tutmog’i kerak;
- bank-kredit sektori orqali pul resurslarining qayta taqsimlanishini optimallashtirish. Buning eng asosiy iqtisodiy instrumentlari va mexanizmlari bo’lib quyi-dagilar hisoblanishi mumkin: kredit siyosati; uzoq, o’rta va qisqa muddatli kreditlar hajmlarining nisbati; Markaziy bankning hisob stavkasi; ssuda va depozit foizlarining stavkasi; qimmatli qog’ozlar bozori. Iqtisodiyotda bu instrument va mexanizmlardan foydalangan holda davlat tomonidan ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan tarzda tartibga solish davlat, XYuSlarning investitsion imko-niyatlari chegaralarini kengaytiradi, aholining pulli jamg’armalarini investitsiyalarga jalb qiladi;
- yangi samarali iqtisodiyotni – innovatsion va intel-lektual infrastrukturaning yuqori sur’atlarda rivojla-nishi o’ziga xos farqlanuvchi belgisi bo’lgan bilimlar iqtisodiyotini shakllantiradigan XYuSlarning ildam rivojlanishi. Mamlakat raqobatbardosh iqtisodiyotining yadrosini yuqori qo’shilgan qiymat va yuqori darajada qayta ishlanadigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan innovatsion asosdagi yangi tarmoqlar tashkil etmog’i lozim.

O‘zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishida xomashyo-energiya sekto-rining hukmronlik qilishi, yoqilg’i-energetika kompleksining sanoat ishlab chiqarishida, konsolidatsiyalashtirilgan va respublika byudjeti daromadlarida, eksportda va valyuta tushumlarida nisbatan katta salmoqning egallashi iqti-sodiyotning shu tomonga deformatsiyalashganligidan dalolat beradi. Milliy xo’jalikning bunday tarkibiy nomuvo-fiqligi iqtisodiyotni qoloqlik sari etaklaydi, uni modernizatsiya qilish vazifalarini murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan xomashyo tarmoqlaridan yuqori texno-logiyali ishlab chiqarishga kapitalning oqib o’tishini ta’minlovchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish muammosi dolzarblik kasb etib, bu narsa oxir oqibatda, davlatning moliyaviy salohiyatini yuqori darajaga ko’taradi;

- XYuSlar moliyaviy salohiyatining darajasi ularning samarali investitsion-tadbirkorlik faolligiga bog’liq. Zamonaviy o’zgaruvchan (dinamik) iqtisodiy muhit xorijiy kapitalni qo’shgan holda o’z va jalb qilingan investitsion manbalar asosida ishlab chiqarishni doimiy ravishda ilmiy-texnikaviy jihatdan yangilashni va rivojlantirishni talab qiladi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’min-lashning o’ziga xos omili bo’lib ularning yirik tadbirkorlik tizimlariga (moliya-sanoat guruhlari, kontsernlar, klas-terlar, konglomeratlar, xoldinglar, kontsortsiumlar va boshqalar) birlashishi hisoblanadi. Bank va sanoat kapitalining real qo’shilishi va ta’sirchan moliyaviy kapitalning shakllanishi sodir bo’lmoqda. Bularning natijasida ishlab chiqarish masshtablarining o’sishidan vujudga kelgan samara, iqtisodiyot tarkibiy tuzilma-larining o’zaro ta’sirchanligi va investitsiyalarning o’sishidan olingan sinergetik samara kompaniyalarga yirik masshtabli moliyaviy vazifalarni yechishga imkon bermoqda.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlatning moliyaviy salohiyati qanday asosda shakl-lanadi?
- Davlatning moliyaviy salohiyati o’zaro bog’langan qanday bo’g’inlardan tashkil topadi?
- Davlatning moliyaviy salohiyati tarkibini aytib be-ring.
- Xususiy XYuSlar moliyaviy salohiyati nimalarning yig’indisidan iborat?

- Aylanmadan tashqari aktivlarning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
- Aylanma aktivlarning tarkibi qanday tashkil topadi?
- XYuSlarning moliyaviy salohiyati qanday omillarga bog'liq?
- Bank-kredit tizimining moliyaviy salohiyatini tushun-tirib bering.
- Sug'urta fondlarining moliyaviy salohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
- Uy xo'jaliklarining moliyaviy salohiyati nimalar orqali ifodalanadi?
- XYuSlarning moliyaviy resurslari qanday tashkil topadi?
- Mamlakatning davlat moliyasi qanday omillar hisobi-dan tashkil topadi?
- Moliyaviy salohiyatni yanada kuchaytirish va davlat moliyaviy resurslari o'sishining qanday yo'nalishlari mavjud?
- Byudjet-soliq sohasidagi daromadlarni qayta taqsim-lashning samaradorligini oshirishning maqsadi qanday?
- Bank-kredit sektori orqali pul resurslarining qayta taqsimlanishini optimallashtirishning eng asosiy iqtiso-diy instrumentlari va mexanizmlarini aytib bering.
- Bilimlar iqtisodiyotini shakllantiradigan XYuSlar-ning ildam rivojlanishi nimalarni taqozo etadi?
- Davlatning moliyaviy salohiyatini yuqori darajaga ko'taradigan omillarni ayting.
- XYuSlar moliyaviy salohiyatining darajasi nimalarga bog'liq?
- Hozirgi paytda ishlab chiqarish kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning o'ziga xos omilini aytib bering.

9-bob. Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarni moliyaviy isloh qilish
9.1. Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarni moliyaviy isloh qilishning zarurligi va mazmuni

XYuSlarning faoliyatida sifat o’zgarishlarni amalga oshirmasdan turib bozor iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin emas. Ularni isloh qilish jarayonining mazmuni bozor munosabatlari rivojlanishining qonuniyatlaridan kelib chiqadiki, ularda birlamchi bo’g’in (XYuSlar)ga alohida o’rin berilishi kerak. Bozor iqtisodiyotida XYuSlar o’zaro aloqalarining umumiy modeli quyidagi chizmada keltirilgan (9.1.1-chizma):



9.1.1-chizma. **Bozor iqtisodiyotida XYuSlar o’zaro aloqalarining modeli**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida XYuSlar xaridor va sotuvchi sifatida maydonga chiqib, tovarlar va xizmatlar bozorida o’zgaruvchan talab va taklif asosida raqobat muhitida aniqlanadigan baho orqali o’zaro ta’sir (aloqa)da bo’ladi. Baholarning yig’indisi tushumning miqdorini aniqlab berganligi uchun XYuS (firma, korporatsiya va h.k.)larning moliyaviy ahvoli bilan ularning bozordagi faolligi, ular faoliyatida rivojlanishning bozor omil-lari o’zgarishini har tomonlama hisobga olish o’rtasida to’g’ri bog’liqlik mavjud. Bu omillarni hisobga olish XYuSlar, firmalar va korporatsiyalar moliyaviy faoliya-tining butun falsafasini printsipial jihatdan o’zgarti-rishni talab qiladi. XYuSlarning moliya munosabatlarini takomillashtirish bo’yicha asoslangan choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish ularni moliyaviy isloh qilishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatimizda 2016 yilda boshlangan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida XYuSlarni moliyaviy isloh qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- faoliyatni bozor talablariga yo'naltirish va eng yangi texnologiyalarga investitsiyalar asosida innnovatsion jarayonlarni rivojlantirish yo'li bilan mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini ta'minlash;
- XYuS kapitalini shakllantirish va boshqarish samara-dorligini oshirish;
- XYuS rivojlanishini moliyaviy jihatdan ta'minlash va uning moliyaviy barqarorligini oshirish rezervlarini qidirib topish va jalb qilish;
- ishlab chiqarishning barcha omillaridan samarali foydalanish va mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi xarajat-larni kamaytirish asosida ularning daromadlarini o'stirish yo'li bilan XYuSlarning investitsion joziba-dorligini oshirish;
- aktivlarni restrukturizatsiya qilish va bozor kon'yunkturasini bashorat qilish, tovarlar va xizmatlarning to'lovga layoqatli talabi va taklifi asosida XYuS faoliyatini diversifikatsiyalashtirish.

XYuSlar, firmalar va korporatsiyalarni moliyaviy isloh qilishda kapitalizatsiya jarayoni, ya'ni mavjud salohiyat (aktivlar)dan eng yaxshi foydalanish hisobidan kompaniyaning qiymatini oshirish va shu asosda kapital-lashtirishning asosiy manbaini – kapitalni o'stirishga yo'naltiriladigan sof foyda hajmini ko'paytirish alohida o'rin egallaydi. Sof foydani kapitallashtirish koeffi-tsienti aktiv (kapital)ni oshirishga yo'naltirilgan sof foyda qismining XYuS sof foydasi umumiy hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Uni formula shaklida quyidagicha aks ettirish mumkin:

$$\mathbf{Kk = (SFkq : SFuh)}$$

Bu yerda: **Kk** – sof foydani kapitallashtirish koeffitsienti;
SFkq – aktivlar (kapital)ni oshirishga yo'naltirilgan sof foydaning qismi;
SFuh – XYuS sof foydasining umumiy hajmi.

Kapitallashtirish jarayoni investitsion-innovatsiya strategiyasini amalga oshirish asosida faqat aktivlar qiymatini oshirishni emas, balki ulardan yanada samaraliroq foydalanishni ko'zda tutganligi bilan ham muhimdir. Uni quyidagi tartibda aniqlasa bo'ladi:

Ka = (Ko' : Ao),

Bu yerda: **Ka** – aktivlarni kapitallashtirish koeffitsienti;
Ko' – tahlil davrida o'z kapitalining o'sishi;
Ao – tahlil davri oxiridagi aktivlar.

Kapitallashtirish jarayoni ishlab chiqarishga ilmiy yutuqlarning moddiylashganligini aks ettiruvchi ilg'or innovatsion ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalariga qo'yiladigan shakldagi kapitalni intellektuallashtirishga asoslanishi kerak.

O'zlarining faoliyatlariga yangi sifatiy talablarni ilgari surayotgan bozor o'zaro aloqalarining samarali tizimiga nisbatan tezroq kirish uchun XYuSlar tomonidan moliyaviy isloh qilishning asoslangan dasturini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda butun xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatining natijasi sifatida yuqori yakuniy moliyaviy ko'rsatkichlarga erishishga alohida o'rin ajra-tilmog'i lozim. Bir vaqtning o'zida bunday dastur bozor omillari va iqtisodiy o'sish shart-sharoitlaridan foyda-lanish, shuningdek, innovatsion tarqqiyotning zamonaviy tendentsiyalarini amalga oshirish asosida XYuS faoliyati-ning samaradorligini oshirish bo'yicha choralar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Moliyaviy isloh qilish dasturi quyidagi chora va tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

- XYuSning tashkiliy va mulkiy holatini o'zgartirish (yuqori samarali tashkiliy shakl, kapitalning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish va uni samaradorlikni oshirish maqsadlari uchun joylashtirish, yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishni rivojlantirish va h.k.);
- ishlab chiqarishning investitsion-texnologik asosini o'zgartirish (asosiy fondlar va aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi, innovatsion ruhdagi texnik va texnologik yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni yangilash va h.k.);
- ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining yuqori yakuniy natijalariga

- XYuSning ixtiyoriga qoldiriladigan sof foydaga erishish,

kompaniyaning qiymatini o’stirish va xarajatlarni qisqartirishning tashkiliy asosi bo’lgan puxta biznes-rejani ishlab chiqish;

- XYuSning asoslangan marketing va baho strategiyasini ishlab chiqish;
- XYuSning moliyaviy strategiyasini uning ishlab chiqarish-marketing siyosati bilan o’zaro ta’sirchanligi bog’liqligini e’tiborga olgan holda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Yuqoridagilarning barchasi moliyaviy munosabatlarni tegishli tarzda qayta qurishni, XYuSni boshqarishda moliyaviy oqimlarning rolini oshirishni; tushum, xarajat-lar, foyda, soliqqa tortish norma (me’yor)lari, sof foyda, umumiy va o’zlik kapitalining hajmi va manbalaridan iborat bo’lgan moliyaviy indikatorlarning o’zgarishini monitoring qilish orqali moliyaviy boshqaruvning yaxlit samarali tizimini shakllantirishni talab qiladi. Bu ishlar, o’z navbatida, quyidagi shartlar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- XYuS xo’jalik-ishlab chiqarish faoliyati barcha tomonlari bilan moliyaviy oqimlarning o’zaro aloqadorligini kuchaytirish va ularda ishlab chiqarish omillari – moddiy, mehnat, axborot va boshqa resurslarning tegishli harakatlarini yanada to’laroq aks ettirish;
- boshqaruv qarorlari qabul qilishda, XYuS moliyaviy resurslari o’sishining rezervlarini to’liq qidirib topish va amalga oshirishda uning moliyaviy-tahliliy xizmatlari rolini oshirish;
- XYuS faoliyatini moliyaviy resurslar bilan yanada to’liqroq ta’minlash uchun o’z bilimlarini sarf etayotgan moliyaviy menejment malakasi darajasini oshirish;
- XYuS moliyaviy-xo’jalik faoliyati to’g’risida xalqaro andozalarga muvofiq ravishda ma’lumotlar olish, XYuSlar, firmalar va korporatsiyalar faoliyatida yuqori darajadagi samaradorlikni ta’minlash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro andozalariga o’tish.

9.2. Xo’jalik yurituvchi sub’yektni moliyaviy isloh qilish samaradorligini baholash

XYuS, firma va korporatsiyalarni moliyaviy isloh qilish samaradorligini baholashning asosiy ko’rsatkichi sifatida moliyaviy samaradorlik, ya’ni sof foyda bo’yicha rentabellik ko’rsatkichini olish mumkin. Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$R = (Cf : O‘k) \times 100$$

Bu yerda: **R** - sof foyda bo'yicha o'z kapitalining rentabelligi;
Sf – sof foyda yoki netto-foyda;
O'k – o'z kapitali.

Bu ko'rsatkichning o'sishi foydani soliqqa tortishni qo'shib hisoblagan holda ichki va tashqi xarakterdagi ko'plab omillarga bog'liq. Rentabellikni tarkib toptiruvchi omil-larni tahlil qilish uchun amaliyotda birinchi marta "Dyupon de Nemur" kompaniyasida qo'llanilgan Dyupon formulasidan foydalaniladi. Bu formulaning ko'rinishi quyidagicha:

R = (Sf : O'k) x (Sf : T) x (T : A) x (A : O'k),

Bu yerda: **R** - sof foyda bo'yicha o'z kapitalining rentabelligi;
Sf – sof foyda yoki netto-foyda;
O'k – o'z kapitali;
T - tushum;
A - aktivlar.

Bir vaqtning o'zida bu formuladagi **(Sf : O'k)** nisbati sof foydaga ko'ra o'z kapitalining rentabellik koeffitsi-entini ko'rsatsa, **(Sf : T)** nisbati esa sotuv rentabelligini ifodalab, bir tomondan bu nisbat tahlil qilinayotgan davrda sof foyda va sotuv hajmi (tushum) o'rtasidagi nisbatni aks ettirsa, ikkinchi tomondan esa, yaxlit holda sotilgan mahsulotning daromadliligini xarakterlaydi va u alohida olingan tovar turlari daromadligiga va ularning realizatsiya hajmidagi nisbatiga bog'liqdir. Shuningdek, **(T : A)** nisbati xo'jalik faolligi koeffitsientini ko'rsatadi. Bu koeffitsient aktivlarning aylanuvchanligi (yoki aktivlar-ning yillik o'rtacha qiymatiga to'g'ri keluvchi bir so'mlik tushum hajmi)ni aks ettiradi, tahlil davridagi aktivlar aylanmasining sonini xarakterlaydi. Aktivlar qancha ko'p aylansa, ularning rentabelligi shuncha yuqori bo'ladi. **(A : O'k)** nisbati esa bir so'mlik o'z kapitaliga to'g'ri keluvchi aktivlarning umumiy miqdorini ko'rsatadi. Bir so'mlik o'z kapitaliga to'g'ri keluvchi aktivlar qanchalik ko'p bo'lsa, rentabellik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu ko'rsatkich XYuSning moliyaviy faolligini, uning aylanma (aktivlar)ga kapitalning qo'shimcha manbalarini jalb qilish borasidagi mahoratini aks ettiradiki, bu narsa tushum hajmi va XYuS daromadliligini oshirishga imkon beradi.

Yuqoridagi formulada keltirilgan ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini XYuSning moliyaviy siyosatini isloh qilishni asoslab berishda foydalanish mumkin. Chunki formuladagi ko'rsatkichlar XYuS yakuniy natijalarining aktivlardan foydalanish darajasi, ularning aylanish tezligi, sotish hajmi va sotilayotgan mahsulotlarning daromadliligi, ya'ni moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha asosiy parametrlari bilan o'zaro bog'liqligini ifoda-laydi. Bularning barchasi istiqbolga mo'ljallangan biznes-rejani ishlab chiqish uchun asos bo'lishi, shuningdek, investitsion-innovatsion biznes-loyihalarni asoslashda xizmat qilishi mumkin.

XYuS aktivlarining takror ishlab chiqarishdagi rolini baholash uchun xo'jalik faolligi koeffitsientidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu koeffitsient XYuSga tegishli bo'lgan tushumning barcha aktivlarning o'rtacha qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi. Uni formula shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\mathbf{Kxf = T : A}$$

Bu yerda: **Kxf** - xo'jalik faolligi koeffitsienti;
T - tushum;
A - barcha aktivlarning o'rtacha qiymati.

Bu ko'rsatkich bir so'mlik foydalanilayotgan aktivlarga to'g'ri keluvchi tushumni ifodalaydi. Uning o'sishi XYuS boshqa barcha moliyaviy ko'rsatkichlarining ko'payishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aktivlarga joylashtirilgan kapitalning oqilona tarkibiy tuzilishi ham muhim ahamiyatga ega. Uzluksiz ravishda doiraviy aylanadigan va daromadlarning olini-shiga xizmat qiladigan aylanma aktivlarga moddiylash-tirilgan kapital XYuS faoliyatida faol rol o'ynaydi. Shuning uchun ham aylanma aktivlarga qo'yilgan (joylash-tirilgan) tez aylanayotgan kapitalning barcha foyda-lanilayotgan kapitalga nisbati kapital noishlab chiqarish qobiliyatining oshganligini aks ettiradi. Buni formula yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$$\mathbf{K}_{omm} = (\mathbf{A}_{aa} : \mathbf{K}_{\phi})$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{omm}$ **-** kapitalning oqilona tarkibiy tuzilishi;
$\mathbf{A}_{aa}$ **-** aylanma aktivlar;

K_{ϕ} - barcha foydalanilayotgan kapitallar.

XYuSning moliyaviy isloh qilish dasturini tuzish jarayonida har bir tadbirdan ma'lum bir samara olinishi ko'zda tutilmog'i lozim. Quyida o'tkazilishi lozim bo'lgan eng muhim tadbirlar va XYuS (XYuS, korporatsiya va boshqalar) tomonidan buning natijasida erishilishi kutilayotgan natijalar ishlab chiqilgan:

Tadbirlar	Kutilayotgan natijalar
XYuSning bozordagi hola-tini, uning moliya-xo'ja-lik faoliyatini va bosh-qaruv samaradorligini tahlil qilish	XYuS rivojlanishining asosiy ichki va tashqi muammolari va ularni hal etishning oqilona yo'llarini qidirib topish, moliyaviy holat (ahvol)ni mustah-kamlash uchun rezervlardan foydala-nishni ta'minlaydi
XYuS taraqqiyotining moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish	Kelajakda ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatning eng yuqori samaradorligiga erishish imkonini beradigan taraqqiyot-ning o'rta va uzoq muddatli mo'ljallarini asoslashga xizmat qiladi
Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash	XYuS xodimlari malakasining hozirgi zamon va istiqbol talablariga muvofiq (mos) kelishi. Bu narsa XYuS moliyaviy holati va uzoq muddatli taraqqiyoti barqarorligining asosiy (eng muhim) omili hisoblanadi
XYuS aktivlarini bozo-riy baholash	XYuS ustav kapitalini oshirish imkoni-yatlarini amalga oshirish. Bu narsa kreditorlarning mumkin bo'lishi mumkin bo'lgan talablarini qondirishning mini-mal kafolatlari darajasini oshirishni va shu hisobidan kontr-agentlar bilan yuqori darajada barqarorlikni, firma qiymatining oshishini ta'minlaydi
Mol-mulkni inventariza-tsiya qilish va XYuS mulkiy kompleksini rest-rukturizatsiya qilishni amalga oshirish	Noishlab chiqarish xarajatlarini qisqar-tirish, XYuS mol-mulkidan oqilona foy-dalanish, ulardan foydalanishning mo-liyaviy samaradorligini oshiradi

Erga egalik huquqini amalga oshirish	Barcha mulkiy kompleksga egalik huquqini to'laqonli amalga oshirish hisobidan XYuSning investitsion jozibadorligini oshirish. Bu narsa faoliyatning huquqiy mustaqilligi va barqarorligini ta'min-laydi
XYuS ustavini qaytako'rib chiqish va menejment bilan shartnomani aniq-lashtirish	Rahbarlar su'istemolliklari imkoni-yatlarini cheklash, ishtirokchi (ta'sischi)-lar oldidagi ularning javobgarliklari va XYuS faoliyatining natijalaridan ularning manfaatdorligini kuchaytirish, shu asosda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishi mumkin
Moliyaviy hisobotning xalqaro andozalaridan foydalanishga o'tish	XYuS faoliyatining "oydinlik" daraja-sini oshirish va investitsion jozibador-likning yanada yuqoriroq darajasini ta'minlaydi
Byudjetlar tizimidan foydalanish asosida XYuSning asoslangan biznes-rejasini ishlab chiqish. Qarziy mablag'lar-ni jalb qilishning joriy va istiqboldagi rejala-rini tuzish	XYuS xo'jalik-moliya faoliyatida aniq asoslangan mo'ljallarning mavjudligi. Bu narsa XYuS joriy va istiqboldagi rivojlanishining eng muhim muammo-larini yechishga moliyaviy resurslar va kuchlarning kontsentratsiya qilinishiga im-kon beradi.
Taraqqiyot bashoratlari-ni bozor muhitining asosiy parametrlari bi-lan bog'liqlikda ishlab chiqish	Kelajakka ishonchni shakllantiradi. Bu narsa esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish-ni rahbatlantiradi va uning bar-qaror rivojlanishini ta'minlaydi, faoliyat-ning barcha sohalarida rezerv-larni qidirib topish va ularni amalga oshirish mumkin.
Harakat (amal)dagi XYuS-da investitsion-biznes loyihani ishlab chiqish	Ishlab chiqarish tsiklining alohida joy-larida taraqqiyotning asosiy proportsiya-larini asoslash va quvvatlardagi nomuvo-fiqlilikka barham berish. XYuSning umumiy ishlab chiqarish imkoniyatlarini ancha

	oshirishga xizmat qiladi
Aktivlarning tarkibi va tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish	Yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga muvofiqligini ta'min-lash maqsadida XYuSning ishlab chiqarish apparati samaradorligini oshirish. Ak-tivlarni ularning "ballast" qismidan tozalash va keraksiz aktivlarni sotishga yordam beradi

XYuSni moliyaviy isloh qilish rejasining barcha bo'linmalari kapitalni shakllantirish va undan foyda-lanish samaradorligini oshirish, XYuS faoliyatida kapitallashtirishning oqilona darajasiga erishish borasidagi yagona asoslangan kontseptsiyaga bo'ysunishi va o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Bu isloh qilish jarayonida ancha yuqori samaraga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi.

9.3. Xo'jalik yurituvchi sub'yektni isloh qilish tizimida moliyaviy zaxiralar

Har qanday XYuSning barcha salohiyatidan birdaniga va birvarakayiga to'la foydalanish amalga oshishi qiyin hodisa. Amaliyotda biror korxona yoki tashkilotning barcha imkoniyatlaridan 100% foydanayotganga o'xshash tasavvur tug'ilishi mumkin. Lekin bunday tasavvur noto'g'ri va aslida hali ishlatilmayotgan zaxira imkoniyatlar mavjud bo'lishi mumkin. XYuSlarning taraqqiyotini belgilaydigan omillar-ning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladigan foyda-lanilmagan potentsial imkoniyatlar ular ishlab chiqarish-iqtisodiy va moliyaviy faoliyatining zaxiralari(rezerv-lari) bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy zaxiralarni qidirib topishning asosiy usuli moliyaviy tahlil hisoblanadi. Aynan moliyaviy tahlil asosida moliyaviy rezervlarni qidirib topish bo'yicha XYuSning siyosati ishlab chiqiladi. Faoliyat ko'rsatish sharoitlaridan qat'iy nazar zaxiralarni qidirib topish va ulardan foydalanish XYuS xodimlari uchun doimiy faoliyatga aylanmog'i lozim. Xorijiy (Yaponiyadagi sifat to'garaklari, AQSh va Germaniyadagi yangiliklar to'g'risidagi takliflarni rag'batlantirish va boshqalar) va mamlakatimizdagi ilg'or kompaniyalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda rezervlarni izlash va ulardan foydalanish uzluksiz davom etayotgan, yangiliklar keng joriy etilayotgan bo'lsa, o'sha yerda investitsiyalar o'sadi,

XYuSning moliyaviy ahvoli mustahkamlanadi, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari oshadi.

Moliyaviy zaxiralarni shakllantirish omillari tizimi juda kengdir. Muhimlik darajasiga qarab, moliyaviy zaxiralarni shakllantirish darajalari va omillari quyidagi chizmada aks ettirilgan:



9.3.1-chizma. **Moliyaviy zaxiralarni shakllantirish darajalari va omillari**

Moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalaridagi eng muhim rezerv bu xodimlarning malakasini oshirishdir. Rivojlanayotgan intellektual inqilob, "bilimlar iqtiso-diyoti"ga o'tish va xodimlarning intellektini shakllantirish sharoitida qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarida ularning moddiylashuvi iqtisodiy o'sishning strategik omiliga aylanadi.

Moliyaviy menejerlarning yuqori kasbiy darajasi XYuSning moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish zaxiralari barcha ko'rinishlarini qidirib topish va amalga oshirishning asosiy shartidir. Savodsizlik bilan qabul qilingan moliyaviy qarorlar (mamlakatimizda ayrim XYuSlar faoliyatida bunday qarorlar ko'p uchrab turadi) makro- va mikro darajada juda katta hajmdagi yo'qotish (zarar)larga olib keladi. Shuning uchun ham kadrlarning malakasini oshirish va xodimlarda zamonaviy intellektual salohiyatni shakllantirish kompaniyalar tomonidan murakkab zamonaviy moliyaviy-iqtisodiy muammolarni yechishning o'ta muhim sharti hisoblanadi.

Moliyaviy rezervlar XYuS iqtisodiyotining yagona kompleks sifatida rivojlanishi bilan uzviy bog'langan. Xomashyo va materiallarni iste'mol qilishdagi o'zgarishlar, mehnat unumdorligining o'sishi yoki kamayishi, asosiy fondlardan foydalanishning yaxshilanishi yoki yomonlashuvi va h.k. – bularning barchasi kompaniyaning daromadi darajasini, uning moliyaviy ahvolini aniqlab beradi. Xuddi shu holat bozor iqtisodiyoti muhim omillaridan baho, raqobatchilarning paydo bo'lishi, xo'jalik va boshqa risk-larning o'zgarishiga ham tegishlidir. Moliyaviy natijalar xo'jalik faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi va u doimiy ravishda ichki va tashqi omillarning ta'siri ostida bo'ladi.

XYuS moliyaviy barqarorligining ichki rezervlari, asosan, taraqqiyotning ishlab chiqarish, tashkiliy va inno-vatsion-investitsion omillari bilan bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy barqarorlikning tashqi rezervlari esa bozor kon'yunkturasi, XYuSning marketing va baho strategiyasi, soliqqa tortishni optimallashtirish, hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish, bank kreditlari va kreditorlik qarzlari ko'rinishidagi qarz mablag'larni jalb qilishdan foydalanish va h.k.lar bilan bog'liq. Bir vaqtning o'zida XYuSga tushumlarning o'z vaqtida tushishiga va debitorlik qarzlarining kamayishiga erishish hamda kreditorlik qarzlaridan kapitalning manbai sifatida faol foydalanish ham kerak bo'ladi.

Moliyaviy zaxiralarni izlab topish va ularni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari orasida XYuSning mol-mulkidan yanada samaraliroq foydalanishni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bu yerda buning asosiy ko'rsatkichi aktivlarning rentabelligi hisoblanib, uni quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\mathbf{R_a = (F_c : A_ў) \times 100}$$

Bu yerda: R_a - aktivlarning rentabelligi;

F_c - sof foyda;

$A_ў$ - tahlil davridagi aktivlarning o'rtacha Hajmi.

Agar sof foydaning yoki netto-foydaning baho va to'liq tannarx o'rtasidagi farq hamda soliq to'lovlari o'lchamiga kamaytirilganligidan iborat ekanligi inobatga olinadigan bo'lsa, aktivlarning rentabelligi faqat bozor kon'yunk-turasiga bog'liq bo'lmasdan, balki foydadan olinadigan soliq summalariga ham bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi:

$$S_ф = B_м - (T_м + S_т)$$

Bu yerda: $S_ф$ - sof foyda;

$B_м$ - mahsulot bahosi;

$T_м$ - mahsulot to'liq tannarxi;

$S_т$ - soliq to'lovlari.

Aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi bir so'mlik aktivlarga (XYuSning butun mol-mulkiga) to'g'ri keluvchi sof foydaning miqdorini ko'rsatadi va XYuS faoliyatining moliyaviy faolligini o'zida aks ettiradi. Bu ko'rsatkichning darajasi XYuS aktivlarining tarkibiy tuzilishiga, ya'ni asosiy fondlar aktiv va passiv qismlarining, asosiy va aylanma kapitalning nisbatiga bog'liq.

XYuS asosiy kapitalidan foydalanishga tavsifnoma beruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri fond qaytimi hisoblanib, uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$F_к = (R_м : A_ф)$$

Bu yerda: $F_к$ - fond qaytimi;

$R_м$ - realizatsiya qilingan mahsulot hajmi;

$A_ф$ - asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati.

Asosiy fondlarning aktiv qismiga (dastgohlar, mashi-nalar, mexanizmlar va h.k.) qancha ko'p asosiy kapital sarflangan bo'lsa

va ular yil davomida qanchalik ko'p aylanish sodir etsa, XYuS shuncha ko'p foyda oladi.

Aylanma aktivlar XYuS kapitalining eng faol elementi hisoblanadi. Yil davomida ular aylanishining miqdori kapitaldan foydalanishning intensivlik daraja-sini ko'rsatadi. XYuSning aylanma mablag'lari eng faol "ishlovchi" kapitaldir. Shu munosabat bilan kapitalning faollik koeffitsienti alohida ahamiyat kasb etib, uni aniqlashni formula yordamida quyidagicha aks ettirsa bo'ladi:

$$\mathbf{K}_{фк} = \mathbf{K}_{аа} : \mathbf{K}_{ба}$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{фк}$ - kapitalning faollik koeffitsienti;

$\mathbf{K}_{аа}$ - aylanma aktivlar (ishlayotgan kapital);

$\mathbf{K}_{ба}$ - barcha aktivlar (XYuSning barcha kapitali).

Shuning uchun ham XYuS rezerlarining butun bir qismi aylanma mablag'lardan foydalanish va ular aylanishining tezligi bilan bog'liq. Ana shu maqsadda ishlab chiqarish zaxira[59]larining ortiqcha qismini qidirib topish va realizatsiya qilish asosida aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishini optimallashtirish, debitorlik qarzlari va tayyor mahsulot zaxira(zapas)lariga sarflanayotgan mablag'-larni qisqartirish talab etiladi. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirishning rezervlarini qidirib topish uchun ularning absolyut va nisbiy ozod bo'lishini (bo'sh bo'lishini, bo'shashini) aniqlash muhim aha-miyatga ega.

Tahlil qilinayotgan davrning boshi va oxiridagi aylanma mablag'lar haqiqiy o'lchamlari o'rtasidagi farq ularning absolyut ozod bo'lishini (absolyut iqtisod qilin-ganligini) ko'rsatadi. Aylanma mablag'larning nisbiy ozod bo'lishi esa ularning hisobli o'lcham taqqoslaganda qancha iqtisod qilinganligini tavsiflaydi, o'tgan davrda ulardan foydalanish samaradorligini hisobga olgan holda haqiqat-dagi aylanishga xizmat qilish uchun XYuSga qancha aylanma mablag'lar kerak bo'lishi mumkinligidan darak beradi.

Nisbiy ozod bo'lish XYuS aylanma mablag'laridan foydalanishning samaradorlik darajasini ifodalaydi, ya'ni ularning shartli ozod bo'lishini ko'rsatadi va uni quyidagicha aniqlash mumkin:

---

[59]Bu o'rinda "zaxira" iborasi rus tilidagi "zapas" so'zi o'rnida ishlatilyapti.

$$O_н = A_{хў} - A_{бў} x (R_ж : R_ў),$$

Bu yerda: $O_н$ - aylanma mablag'larning nisbiy ozod bo'lishi;

$A_{хў}$ - tahlil qilinadigan davrdagi aylanma mablag'larning haqiqiy miqdori (yillik o'rtachasi);

$A_{бў}$ - bazis (o'tgan) davrdagi aylanma mablag'larning miqdori (yillik o'rtachasi);

$R_ж$ - hisobot (joriy) davrda realizatsiya qilingan mahsulotlar hajmi;

$R_ў$ - o'tgan (bazis) davrda realizatsiya qilingan mahsulotlar hajmi.

Aylanma mablag'larning aylanuvchanligini tezlash-tirish XYuS moliyaviy holatini mustahkamlashning muhim rezervi hisoblanadi. Buning natijasida iqtisod qilingan mablag'lar investitsiyalarga, innovatsion faoliyatga, aktiv-larning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga va h.k.larga yo'naltirilishi mumkin.

Moliyaviy rezervlarni jalb qilishda moliyaviy leverijdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Kompaniyaning aylanmasiga turli shakllarda qarz mablag'larni jalb qilish evaziga rentabellikning o'sishiga moliyaviy leverij deyiladi. Moliyaviy leverij XYuS qarz kapitalining XYuS o'z kapitaliga nisbatini ko'rsatuvchi moliyaviy faollik koeffitsienti orqali ifodalanadi. Uni formula orqali quyidagi tarzda ko'rsatish mumkin:

$$K_{мф} = K_q : K_ў$$

Bu yerda: $K_{мф}$ - moliyaviy faollik koeffitsienti yoki moliyaviy leverij;

K_q - qarzga olingan kapital;

$K_ў$ - o'z kapitali.

Bu ko'rsatkich ko'pchilik hollarda moliyaviy richag (dastak) ko'rsatkichi deb ham yuritiladi va bunda qo'shimcha qarz kapitalni jalb qilishning richagi (dastagi) bo'lib kompaniyaning o'z kapitali maydonga chiqayotganligi nazarda tutiladi. Bank ssudalari va kreditorlik qarzlari ko'rinishlarida jalb qilingan qarz kapitaldan foydalanish ular jalb qilingunga qadar erishilgan rentabellik

darajasidan ko’ra yuqoriroq bo’lgan rentabellik darajasiga erishishni ta’minlasagina samarali bo’lishi mumkin. Bu, o’z navbatida, XYuSdan qarz mablag’larni yanada samaraliroq foydalanish imkonini beruvchi biznes-loyihalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Faqat shu holdagina moliyaviy leverij yoki moliyaviy dastak samarasi vujudga kelishi mumkin. Rentabellikning yangi darajasi XYuS kreditdan foydalanganligi uchun bank kreditining foizini va qaytarilish muddati o’tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlari uchun to’lov (penya)larni to’lashni etarli darajada (hatto ancha oshgan holda) qoplashi kerak. Qarz mablag’lardan foydalanish XYuSning maksimal qo’shimcha foyda olishini ta’minlamog’i lozim. Moliyaviy leverij samarasini olish va uni taqsimlashning umumiy ko’rinishi quyidagi chizmada keltirilgan:



9.3.2-chizma. **Moliyaviy leverij samarasini olish va uni taqsimlashning umumiy ko’rinishi**

Biznesni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida kapitalni to’ldirishning barcha manba-laridan (kreditlar va kreditorlik qarzlaridan) maksimal foydalanishga moliyaviy faoliyatni yo’naltiribgina qolmasdan, moliyaviy menejment makrodarajada ham moliyaning asosiy, ya’ni kompaniyaning barcha xo’jalik-ishlab chiqarish faoliyatini pul mablag’lari bilan ta’minlash funksiyasini aniq

bajarishi ham kerak. Agar ana shu printsip amalga oshirilsa va moliyaviy xizmat hisob-kitob hisob-varag'iga pullarning doimiy ravishda tushib turishini ta'minlasa, to'lash muddati kelgan talabnomalar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirsa, to'lovlarning uzoq muddatli uzaytirilishiga yo'l qo'ymasa, bu XYuSning mustahkam moliyaviy ahvoli (holati) va sog'lom to'lovga qobilligining asosiy belgisidir.

XYuSning to'lov qobiliyati darajasini oshirish uchun debitorlik qarzlarini qisqartirish, moliyaviy resurslarning aylanishini tezlashtirish, ta'sirchan marketing strategiyasi va baho siyosatidan foydalanish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini qisqartirish, ishlab chiqarishni boshqarishda yuqori sama-rali va innovatsion texnologiyalar hamda boshqaruvning zamonaviy samarali tizimlarini joriy etish bo'yicha choralarning kompleks tizimi ishlab chiqilishi kerak.

To'lovga qobillik koeffitsienti quyidagicha aniq-lanadi:

$$\mathbf{K}_{mq} = (\sum \mathbf{P}_{м} : \mathbf{M}) \geq \mathbf{1}$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{mq}$ **-** to'lovga qobillik koeffitsienti;

$\sum \mathbf{P}_{м}$ **-** XYuSning barcha pul mablag'lari;

M **-** uzish muddati kelgan to'lovlar bo'yicha majburiyatlar.

Koeffitsientning darajasi birga teng yoki undan katta bo'lmog'i lozim. Ana shu shart bajarilsa, XYuS to'lovga qobil hisoblanadi. Agar muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining umumiy miqdori va to'lovlarning kechikishi belgilangan me'yordan oshsa, kreditorlarning arizasiga muvofiq tegishli sud bu yerdan kelib chiquvchi barcha oqibatlarni inobatga olgan holda XYuSni bankrot deb e'lon qilish jarayonini boshlashi mumkin. Shu munosabat bilan quyi-dagilarga alohida e'tibor qaratmoq lozim:

- bozorga faol kirish bilan bog'liq holda XYuS moliyaviy barqarorligining o'sishiga;
- bankrotlikning mavjud belgilariga o'z vaqtida barham berishga (moliyaviy mustahkamlik omilini nazorat qilish);
- investitsiyalarning qoplanish muddatlarini qisqartirishga;
- ishlab chiqarish va tovarlar sotish xarajatlarini qisqartirish evaziga foydaning o'sishiga.

Bunda XYuS foydasining o'sishiga ta'sir qiluvchi barcha omillardan faol foydalanmoq lozim. Har bir guruh omillari hisobidan foyda miqdori o'zgarishining hisob-kitobi quyidagi tarzda amalga oshirilishi kerak:

- sotilayotgan mahsulot birligiga qilingan xarajatlar o'zgarishining foydaga ta'siri. Buni quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$\Delta F_m = (T_o - T_1) \times Rh_1$$

Bu yerda: ΔF_m - tannarx omilining ta'siri ostida foydaning o'zgarishi (+,-);

T_o, T_1 - mos ravishda o'tgan (bazis) va hisobot yillaridagi mahsulot tannarxi;

Rh_1 - tegishli yildagi realizatsiya hajmi.

- baholar o'zgarishining foyda miqdoriga ta'siri. Bu ta'sirni quyidagicha aniqlasa bo'ladi:

$$\Delta F_б = (B_1 - B_0) \times Rh_1,$$

Bu yerda: $\Delta F_б$ - baho omilining ta'siri ostida foydaning o'zgarishi;

B_1, B_0 - tegishli yillardagi mahsulot birligining bahosi;

Rh_1 - tegishli yildagi realizatsiya hajmi.

- mahsulot sotish hajmi o'zgarishining foyda miqdoriga ta'siri. Uni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\Delta F_p = (Rh_1 - Rh_0) \times (F_0 : Rh_0)$$

Bu yerda: ΔF_p - sotish omilining ta'siri ostida foydaning o'zgarishi;

Rh_1, Rh_0 - tegishli yillardagi sotish hajmi;

F_0 - bazis yildagi foyda miqdori.

- realizatsiya qilingan mahsulot assortimenti o'zgari-shining foyda miqdoriga ta'siri. Bu ta'sirni quyidagi tartib asosida aniqlash mumkin:

$$\Delta F_{ac} = \left[\sum (q_1 - q_0) x P_0\right] x \; Rh_1$$

Bu yerda: ΔF_{ac} - realizatsiya qilingan mahsulot assortimentining o'zgarishi natijasida foydaning o'zgarishi;

q_1, q_0 - o'tgan (bazaviy) va hisobot yoki reja yilida ma'lum assortimentdagi mahsulotning salmog'i;

R_0 - o'tgan (bazaviy) yildagi mahsulot turining har bir assortimenti bo'yicha sotuv rentabelligining darajasi;

n - o'tgan (bazaviy) yil bilan taqqoslanadinadigan mahsulot assortimentlari ko'rinishlarining soni.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda foyda o'sishi (kamayishi)ning umumiy miqdori har bir omillarning foydaga ta'siri yig'indisidan tashkil topib, uni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

$$\Delta F_y = \Delta F_m + \Delta F_б + \Delta F_p + \Delta F_{ac}$$

Bu yerda: ΔF_y - omillarning ta'siri ostida foyda o'sishi (kamayishi)ning umumiy o'lchami (miqdori);

ΔF_m - tannarx omilining ta'siri ostida foydaning o'zgarishi (+,-);

$\Delta F_б$ - baho omilining ta'siri ostida foydaning o'zgarishi;

ΔF_p - realizatsiya omilining ta'siri ostida foydaning o'zgarishi;

ΔF_{ac} - realizatsiya qilingan mahsulot assortimentining o'zgarishi natijasida foydaning o'zgarishi.

Albatta, foydaning miqdoriga XYuSning soliq siyosati ham o’z ta’sirini ko’rsatadi, chunki odatda, barcha soliqlar tovar bahosining tarkibiga kiritiladi. Soliqlarning miqdori, ayrim hollarda, bahoning darajasini aniqlashga va demak, talabga ham hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi. Shuningdek, soliqlar XYuSning sof foydasiga ham bevosita ta’sir qiladi, chunki sof foyda balans (umumiy) foyda va uning byudjetga to’langan qismi o’rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda iloji boricha XYuSlar foydasining asosiy qismi byudjetga olinmasligi va XYuSning ixtiyoriga qoladigan sof foyda uning rivojlanishini moliyalashtirish uchun etarli bo’lmog’i lozim. Bu, eng avvalo, investitsiyalarga tegishli bo’lib, amal (harakat)dagi XYuSlarda ularning manbai sof foydadir. XYuSlarda sof foyda bo’yicha sotuvning rentabelligi (sof foydaning realizatsiya hajmiga nisbati) yuqori bo’lib, ularning sog’lom faoliyatini ta’min-lashga etarli bo’lishi kerak.

Moliyaviy isloh qilish jarayonida XYuS faoliyat ko’rsatishning quyidagi parametrlariga chiqishga harakat qilmog’i lozimki, ular XYuS ishining moliyaviy barqarorligi va balansi tarkibiy tuzilmasining ijobiyligidan darak beradi:

- to’lovga qobillik koeffitsienti - $\geq$ 1;
- joriy likvidlik koeffitsienti - $\geq$ 2;
- aylanma aktivlarning o’z aylanma mablag’-lari bilan ta’minlanganlik koeffitsienti - $\geq$ 0,1;
- absolyut likvidlik koeffitsienti - $\geq$ 0,2;
- zaxira va xarajatlarning hajmi (o’lchami) ularni qoplash manbalaridan kichik yoki ularga teng ($\leq$) bo’lishi kerak.

XYuS faoliyatini zarar (ziyon)siz va tanazzulsiz bo’lishini ta’minlash uchun kompaniya ishtirokchilari va moliyaviy menejment tomonidan bu ko’rsatkichlar doimiy ravishda monitoring qilib borilishi va zarur bo’lgan hollarda ularning darajasi o’z vaqtida o’zgartirilishi lozim.

Bahs-munozara yoki n**azorat uchun savollar**

- Bozor iqtisodiyotida XYuSlar o’rtasidagi o’zaro aloqa-larning umumiy modeli qanday ko’rinishga ega?
- Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida XYuSlarni moliyaviy isloh qilishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

- XYuSlar, firmalar va korporatsiyalarni moliyaviy is-loh qilishda kapitalizatsiya jarayoni qanday rol o’ynaydi?
- Kapitallashtirishning asosiy manbaini aytib bering.
- Sof foydani kapitallashtirish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
- Aktivlarni kapitallashtirish koeffitsientining aniq-lanish tartibi qanday?
- Kapitallashtirish jarayoni nimalarga asoslanishi kerak?
- Nega XYuSlar tomonidan moliyaviy isloh qilish dasturini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq?
- Moliyaviy isloh qilish dasturi nimalarni ko’zda tutadi?
- Moliyaviy boshqaruvning yaxlit samarali tizimini shakllantirish qanday shartlar asosida amalga oshirilishi mumkin?
- XYuS, firma va korporatsiyalarni moliyaviy isloh qilinish samaradorligini baholashning asosiy ko’rsatkichi nima va uni qanday aniqlash mumkin?
- Dyupon formulasining ko’rinishi qanday va uning yordamida nimani hisoblash mumkin?
- Aktivlar qancha ko’p aylansa, ularning rentabelligi qanday o’zgaradi?
- Bir so’mlik o’z kapitaliga to’g’ri keluvchi aktivlar qanchalik ko’p bo’lsa, rentabellik darajasi shuncha yuqori bo’ladi, degan tasdiq to’g’rimi?
- Qanday ko’rsatkich XYuSning moliyaviy faolligini, uning aylanma (aktivlar) kapitalning qo’shimcha manbalarini jalb qilish borasidagi mahoratini aks ettiradi?
- XYuS aktivlarining takror ishlab chiqarishdagi rolini baholash uchun qanday koeffitsientdan foydalanish maq-sadga muvofiq?
- Xo’jalik faolligi koeffitsienti qanday aniqlanadi va u nimani ifodalaydi?
- Kapitalning optimal(oqilona) tarkibiy tuzilishi koeffitsienti qanday aniqlanadi?
- XYuSni moliyaviy isloh qilish dasturini tuzish jarayonida qanday tadbirlar belgilanadi va ulardan qanday samara olinishi ko’zda tutiladi?
- XYuSni moliyaviy isloh qilish rejasining barcha bo’linmalari nimalarga muvofiqlashtirilishi kerak?
- Ishlab chiqarish-iqtisodiy va moliyaviy faoliyatning rezerlari nimalardan iborat?
- Moliyaviy rezervlarni qidirib topishning asosiy usulini ayting.

- Moliyaviy rezervlarni shakllantirish omillari tizimi qanday guruhlarga bo'linadi?
- Moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalaridagi eng muhim rezerv nimadan iborat?
- XYuS moliyaviy barqarorligining ichki va tashqi rezervlari qanday omillarga bog'liq bo'ladi?
- Aktivlarning rentabelligi qanday aniqlanadi?
- Fond qaytimi ko'rsatkichining aniqlanish tartibi qanday va u nimaga tavsifnoma beradi?
- Kapitalning faollik koeffitsienti qanday aniqla-nadi?
- Aylanma mablag'larning nisbiy ozod bo'lishi nimani xarakterlaydi va uni qanday aniqlash mumkin?
- Moliyaviy leverij deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
- Moliyaviy leverij samarasini olish va uni taqsim-lashning umumiy ko'rinishi qanday?
- To'lovga qobillik koeffitsientining aniqlanish tartibi qanday va u nimani xarakterlaydi?
- XYuSni bankrot deb e'lon qilmaslik uchun qanday omillarga alohida e'tibor qaratmoq lozim?
- Har bir guruh omillari hisobidan foyda miqdori o'zgarishining hisob-kitobi qanday tarzda amalga oshirilishi kerak?
- Tannarx, baho, realizatsiya, realizatsiya qilingan mahsulot assortimenti omillarining ta'siri ostida foydaning o'zgarishi qanday aniqlanadi?
- Moliyaviy isloh qilish jarayonida XYuS faoliyat ko'rsatishning qanday parametrlariga chiqishga harakat qilishi kerak?

10-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy resurslari

10.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy resurslari va kapitali

XYuSlarning moliyaviy resurslari ular umumiy resurslarining pul shaklida harakat qiladigan bir qismi hisoblanadi. Resurslarning pul shaklida amal qilishi moliyaviy resurslar mohiyatan tavsifining ajralmas qismi hisoblanib, bu narsa ularni XYuSning boshqa resurslari ko'rinishlaridan, xususan, ishlab chiqarish vositalari (dastgohlar, mashinalar, xomashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo'ljallangan binolar va shunga o'xshashlar)dan farq

qiladi. Buni inobatga olgan holda XYuS vosita-larining “pul shakli” va “pul qiymati” tushunchalarini farqlamoq lozim. “XYuS vositalarining pul qiymati” tushunchasi, odatda, pul mablag’larining o’zini emas, balki turli maqsadlar uchun mo’ljallangan vositalar va fondlar (masalan, asosiy fondlar)ning qiymat jihatidan baho-lanishini anglatadi.

Pulga sotib olinganligiga qaramasdan ishlab chiqarish vositalari (yuqorida qayd etilgan dastgohlar, mashinalar, xomashyo va materiallar, ishlab chiqarishga mo’ljallangan binolar va shunga o’xshashlar) haqiqatda pul emas va pul hisoblanmaydi. Ishlab chiqarish fondlarini qaytadan pul shakliga aylantirish uchun, avvalo, ularni sotish kerak. Bu holda esa, o’z navbatida, mol-mulkning balansda aks ettirilgan qiymat jihatidan baholari emas, balki amal-dagi bozor baholari harakat (ish)ga tushadi. Moliyaviy qiyinchiliklar va bankrotlik xavfi ostida vujudga keladigan bunday vaziyatlar XYuSni yomon oqibatlarga, xususan, mablag’lar va resurslarni yo’qotib qo’yishiga olib kelishi mumkin. Holbuki, xalqaro amaliyotdagi ma’lumot-larga ko’ra, bankrotga uchragan XYuS tugatilayotgan paytda unga tegishli bo’lgan aktivlar qiymatining 40%dan ortiq bo’lmagan qismini olishga muvaffaq bo’lish mumkin, xolos. Shu munosabat bilan hatto, sog’lom bozor aylanmasida, ya’ni talabga ega bo’lgan tayyor mahsulot realizatsiya qilinganda ham u faqat sotilganidan so’ng pul mablag’iga aylanadi.

Ishlab chiqarish jarayonini yangidan boshlash va rivoj-lantirishga mo’ljallangan XYuSning moliyaviy resurslari bu pul shaklidagi uning kapitalidir. Mehnat vositalari, predmetlari va natijalariga aylangan moddiy-buyumlashgan kapital, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining jismoniy va intellektual qobiliyat-laridan iborat bo’lgan inson kapitali kapital mavjudligi va harakatining boshqa pulsiz shakllari hisoblanadi. Printsip jihatidan, takror ishlab chiqarish jarayonining doiraviy aylanishiga kiritilgan va uning egasiga daromad keltiruvchi har qanday mulkiy va intellektual boylik kapital bo’lishi mumkin.

Tijoriy XYuSlarning moliyaviy resurslari dastlab (birlamchi holda) ular ta’sis kapitalining bir qismini pul shaklida qo’yish va, shuningdek, boshqa shaxslar va tashki-lotlardan maqsadli moliyalashtirish va subsidiyalar ko’rinishida kelib tushgan pul mablag’lari qismi hisobidan shakllantiriladi. Ta’sis kapitalining pul shaklida bo’lmagan qismi (sanoat va intellektual mulk ob’ektlari, ulardan foydalanish huquqlari va boshqalar) esa, xuddi maqsadli tushilmalar singari, agar ular pul ko’rinishida qo’yilmagan bo’lsa,

ularni XYuSning moliyaviy resurslari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq emas.

Dastlabki (birlamchi) kapitalning ishlab chiqarishga investitsiya qilinishi tovar-pul doiraviy aylanishi jarayonining kengayishini boshlab beradi. Uning pul shaklidagi yakuni (natijasi) sifatida XYuSning tushumi maydonga chiqadi. O‘z navbatida, tushum xarajatlarni moliyalashtirish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini davom etttirishni ta’minlovchi bir necha pul mablag’lari fondlariga bo’linadi. Umumiy tarzda, formula orqali buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$T = F_{аа} + F_{мхм} + F_{их} + F_{ф}$$

Bu yerda: **T** - tushum;

F $_{аа}$ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy eskirishini tiklashga mo’ljallangan amortizatsiya ajratmalari fondi;

F $_{мхм}$ - moddiy xarajatlarni (xomashyo, materiallar, yoqilg’i, elektroenergiya va boshqalarni sotib olish) moliyalashtirish fondi;

F $_{их}$ - ish haqi fondi;

F $_{ф}$ - tovarlarni sotishdan olingan foyda (soliqlar to’languncha va foydadan boshqa to’lanmalar amalga oshirilguncha).

Ayrim iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida moddiy xarajatlar va mehnat haqini moliyalashtirish uchun mo’ljallangan pul mablag’lari XYuSning moliyaviy resurslari tarkibiga kiritilmaydi. Ularning ayrimlari tomonidan esa XYuSning moliyaviy resurslari tarkibiga hatto pulli tushum ham kiritilmayotir. Bunday yondoshuvlarning noto’g’ri ekanligi shubhasiz.

Xorijiy davlatlarda pul tushumi yalpi daromad tarzida talqil qilinadi. Bu narsa XYuS moliyaviy resurslari fondini shakllantirish va qayta yangilashda tushumning umumlashtirilgan ahamiyatini o’zida aniqroq aks ettiradi. Moddiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun mo’ljallangan pul tushumlarining bir qismi, XYuSning real moliyaviy resursi mol etkazib beruvchilar va kontr-agentlarning

hisobvaraqlariga o’tkazilmasdan uning aylanmasida bo’lgan paytda, unga qo’shimcha daromad kelti-radi..

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o’tishning dastlabki yillarida XYuSlarnig bir-birlariga o’zaro mol etkazib berish va xizmat ko’rsatish bo’yicha mablag’larni o’z vaqtida to’lamaslik holatlari avj olib ketdi. Inflyatsiya darajasi o’ta yuqori bo’lganligi uchun o’sha davrlarda bank kreditlari stavkasining 100% dan ham baland bo’lganligi holatida sotib olgan mahsulotning pulini o’z vaqtida to’lamaslik shu XYuS ga noqonuniy, lekin qo’shimcha daromad manbai bo’lib xizmat qildi. Shunday holatlar ish haqini o’z vaqtida to’lamaslik tufayli ham yuz berdi. Xodimlarga, ishchi va xizmatchilarga bir necha oylab oylik maoshlarni berishning kechiktirilganligi (orqaga surilganligi) ba’zi bir “tadbirkor” va “bankir”larning tekinga boyish manbalaridan biriga aylandi, chunki o’z vaqtida to’lanmagan ish haqi mablag’lari ularning ixtiyorida bo’lib, ulardan vaqtincha boshqa maqsadlarda foydala-nishlari mumkin edi.

Amortizatsiya ajratmalari fondi XYuSlar moliyaviy resurslarining tarkibiy tuzilmasida muhim rol o’ynaydi. Chunki bunday ajratmalar pul tushumlaridan qancha ajratilganligi va ularning XYuS tegishli hisobvaraqlarida joylashganligiga qarab XYuSlarning real moliyaviy resurslari bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi va tovar hamda moliya bozorlarida XYuS faoliyatining faollashuvi natijasida uning moliyaviy resurslari tarkibiy tuzilmasida foyda hal qiluvchi o’rinni egallay boshlaydi. Foyda XYuS o’z mablag’larining asosiy manbai bo’lib, ishlab chiqarish apparatining yangilanishini, sifatning yaxshilanishini, chiqarilayotgan mahsulot assortimentining kengayishini va h.k.larni ta’minlaydi. Foyda hisobidan XYuSning rezerv fondlari, maxsus maqsadlarga mo’ljallangan fondlar tashkil etiladi.

Foyda massasi va normasi, uning xarajatlarga nisbati XYuSning kreditga layoqatligini va uning qarz mablag’larni jalb qilish imkoniyatini, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olishni aniqlab beradigan muhim indikatorlardir. Qarz mablag’larning XYuS o’z mablag’lariga nisbati 1/3 va undan katta darajaga etib, uning to’lovga layoqatligiga kreditorilarga ham, hamkorlariga ham shubha tug’dirmasligi mumkin.

Tijorat XYuSlarning moliyaviy resurslari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- mahsulot sotishdan tushum hisobidan shakllanadigan moliyaviy resurslar (foyda; amortizatsiya ajratmalari fondi; ish haqi fondi; moddiy xarajatlarni tiklash fon-di);
- ishlab chiqarilgan mahsulotga bog'liq bo'lmagan sotishdan keladigan tushumlar(mol-mulk; asosiy faoliyatga daxldor bo'lmagan xizmatlar va boshqalar) hisobidan olinadigan moliyaviy resurslar;
- moliyaviy bozorda shakllanadigan moliyaviy resurslar (kreditlar va zayomlar; o'z aktsiyalari va qimmatli qog'oz-larning boshqa ko'rinishlarini sotish; boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar; sug'urta qoplamalari va boshqalar);
- kreditorlik qarzlari hisobidan tashkil topadigan moliyaviy resurslar (mol etkazib beruvchi va pudratchilarga; mehnat haqi bo'yicha; sotsial sug'urtaga doir; byudjet oldidagi va boshqalar);
- badallar va maqsadli xarakterdagi tushilmalar hisobidan shakllantiriladigan moliyaviy resurslar (boshqa tashkilotlar va jismoniy shaxslardan tushilmalar, byudjet subsidiyalari va h.k.).

10.2.Xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi

Iqtisodiy munosabatlarni takror ishlab chiqarish shakllaridan biri sifatida XYuSlar moliyasining harakati minimal xarajatlarda maksimal natijalarning olinishini nazarda tutuvchi samaradorlikning umumiqtisodiy me'zo-niga bo'ysunadi. Shu sababli XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini quyidagi formula orqali tasavvur etish mumkin:

$$\mathbf{S}_{мр} = \mathbf{N}_{м\ ф} : \mathbf{X}_{мр}$$

Bu yerda: $\mathbf{S}_{мр}$ - XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi;

$\mathbf{N}_{м\ ф}$ - ma'lum davr (o'tgan yoki rejali) uchun XYuS faoliyatining moliyaviy natijasi;

$\mathbf{X}_{мр}$ - shu moliyaviy natijani qo'lga kiritish uchun XYuS tomonidan sarflangan (yoki rejalashtirilgan) moliyaviy resurslar xarajatlari

XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda shu narsani inobatga olish kerakki, moliyaviy natija faqatgina moliyaviy emas, balki moddiy va mehnat resurslari

xarajatlarining natijasi hamdir. Shuning uchun ham, masalan, mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan foydani taqqoslab turib, buning natijasida faqat faoliyatning sof moliyaviy tomonini xarakterlovchi ko'rsatkichga ega bo'lamiz, deb hisoblash maqsadga muvofiq emas. Bu XYuS moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini ifodalovchi yaxlit ko'rsatkichlardan biri bo'lib, unga kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida moddiy-ishlab chiqarish va moliyaviy oqimlarning ajralmas bog'liqligi xosdir.

Yuqorida bildirilgan fikr o'ziga moliyaviy natija va moliyaviy xarajatlarning tavsifini mujassam etuvchi XYuS moliyaviy-xo'jalik faoliyatining samaradorligini xarakterlovchi boshqa ko'rsatkichlarga ham to'liq tegishlidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan tahliliy maqsadlar uchun bu majmua (to'plam)dan aynan XYuSning moliyaviy faoliyatini, uning moliyaviy va baho siyosatining samaradorligini o'xshash tarzda(aynan) xarakterlovchi ko'rsatkichlarni ajratib olish muhimdir.

Shunisi taajjublanarliki, XYuS moliyaviy faoliyatining samaradorligini o'xshash(aynan) ifodalovchi bo'lib fond, moliya-kredit va pul bozorlaridagi ular operatsiyalarining daromadliligi hisoblanadi. Bu yerda, ma'lumki, pul (P^*) go'yoki to'g'ridan-to'g'ri puldan (P) hosil bo'ladi. U holda moliyaviy samaradorlikni aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\mathbf{S_{мр} = (P^* - P) : P}$$

Bu yerda: $\mathbf{S_{мр}}$ **-** XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi;

$\mathbf{P^* - P}$ **–** bevosita moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida XYuS tomonidan olingan daromad.

Bevosita moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida XYuS tomonidan olingan daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- XYuS tomonidan aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish asosida bozorda joylashtirishdan olingan dividendlar;
- boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlarini sotib olishdan olingan dividend lar;
- banklardagi pul omonatlaridan olingan foiz daromad-lari;
- XYuS foydasidagi valyutalar kurslari bo'yicha farqlar;
- va boshqalar.

Ajablanarlisi shundaki, XYuS moliyaviy operatsiya-larining daromadliligini xarakterlovchi ko'rsatkich ular-ning samaradorligini sof moliyaviy natijaning sof moliyaviy xarajatlarga nisbati shaklida ifodalab, ko'pchi-lik hollarda XYuS moliya-xo'jalik faoliyatining haqiqiy samaradorligini aks ettirmaydi. Iqtisodiyot real sektori samaradorligining ko'rsatkichlarida va baholarida bankrot holatida bo'lishlariga qaramasdan moliyaviy "spekulyatsiya"-ning imkoniyatlari ularni "cho'kmasdan" turishlariga sharoit yaratadi.

Real sektor XYuSlarida, moddiy ishlab chiqarishda moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligini mos ravishda baholash talablariga u yoki bu darajada sotuv rentabelligi ko'rsatkichi (foydaning mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushumga nisbati) javob beradi. Bu nisbatdagi surat va maxraj pul mablag'laridan iborat bo'lganligi uchun sotuv rentabelligini, ayrim holatlarni istisno qilgan tarzda, sof moliyaviy ko'rsatkich sifatida e'tirof etish mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan bu yerda yana bir narsani inobatga olmoq lozim, ya'ni samara-dorlikning o'lchovi sifatida yuqoridagi ko'rsatkichning haqqo-niylik darajasi juda ko'p omillarga, xususan, tushum va foydani shakllantiruvchi bozor baholari monopol baho-larni shakllantirishning salbiy ta'sirlaridan qanchalik ozod ekanligiga bog'liq.

Yuqorida ko'rib o'tilgan barcha moliyaviy ko'rsatkichlarda mazmun va shakl o'rtasida dialektik qarama-qarshilikning mavjudligi namoyon bo'ladiki, bu narsa bizning holat (vaziyat)da XYuSlar moliyasining (iqtisodiyot yaxlit moliyaviy sektorining ham) o'z iqtisodiy asosidan, ishlab chiqarishdan ajralib chiqish (uzilish)ga va unga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil hayot kechirish imkoniyatini qo'lga kiritishga intilishi orqali ifodalanadi. XYuSlar moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar (masalan, tushum va foyda) moddiy aylanma mablag'larning aylanuvchanligi, asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlarning fond qaytimi (sig'imi) kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda qaralsa, bu qarama-qarshilik, ma'lum darajada, pasayadi (kamayadi). Ana shu munosabat bilan eng umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri quyidagi formulaga muvofiq ravishda hisoblanadigan XYuSning iqtisodiy rentabelligi (biznesning rentabelligi) ko'rsatkichidir:

$$\mathbf{R_{и} = F : (K_{айл} + K_{ас} + A_{ном})}$$

Bu yerda: $\mathbf{R}_{и}$ - XYuSning iqtisodiy rentabelligi, biznesning rentabelligi;

F - yillik foyda;

$\mathbf{K}_{айл}$ - XYuS aylanma kapitalining miqdori (qiymatiy baholarda);

$\mathbf{K}_{ас}$ - XYuS asosiy kapitalining miqdori (qiymatiy baholarda);

$\mathbf{A}_{ном}$ - XYuS nomoddiy aktivlarining miqdori (qiymatiy baholarda).

XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samarador-ligini tahlil qilishda uning moliyaviy barqarorligi, to'lovga layoqatligi va likvidligini xarakterlovchi ko'rsat-kichlardan ham foydalanish kerak. Bu yerda ham o'zining mazmuniga ko'ra sof moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Sof moliyaviy ko'rsatkichlar qatoriga absolyut va muddatli likvidlik koeffitsientlarini kiritish mumkinki, ular yordamida XYuSning potentsial to'lov qobi-liyati baholanadi:

$$\mathbf{K}_{авс} = (\mathbf{P} + \mathbf{QQ}) : \mathbf{M}_{км}$$

$$\mathbf{K}_{муд} = (\mathbf{P} + \mathbf{QQ} + \mathbf{DQ}) : \mathbf{M}_{км}$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{авс}$ - absolyut likvidlik koeffitsienti;

$\mathbf{K}_{муд}$ - muddatli likvidlik koeffitsienti;

P - hisob varaqlardagi va XYuS kassasidagi pullar;

QQ - likvidli qimmatli qog'ozlar;

DQ - mobilizatsiya qilingan debitorlik qarzlari;

$\mathbf{M}_{км}$ - XYuSning qisqa muddatli majburiyatlari.

XYuSning pul mablag'lari va moddiy resurslarining pulli (qiymatiy) bahosi aralashadigan ko'rsatkich joriy likvidlik koeffitsientidir (qoplash koeffitsienti). U quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathbf{K}_{жсл} = (\mathbf{PM} + \mathbf{MAM}) : \mathbf{M}_{км}$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{жсл}$ **-** joriy liklidlik koeffitsienti;

PM - pullar va ularga tenglashtirilgan mablag'lar (likvidli qimmatli qog'ozlar

va jalb qilingan debitorlik qarzlari);

MAM – XYuS moddiy aylanma mablag'larining qiymatiy bahosi;

$\mathbf{M}_{км}$ - XYuSning qisqa muddatli majburiyat-lari.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- XYuSlar moliyaviy resurslarining mazmuni va shaklla-rini tushuntirib bering.
- XYuS vositalarining "pul shakli" va "pul qiymati" tushunchalari o'rtasida qanday farqlar mavjud?
- XYuSning kapitali deganda nima tushuniladi?
- Kapital mavjudligi va harakatining boshqa pulsiz shakllari nimalardan iborat?
- Takror ishlab chiqarish jarayonining doiraviy aylani-shiga kiritilgan va uning egasiga daromad keltiruvchi har qanday mulkiy va intellektual boylik kapital bo'lishi mumkinmi?
- Tijorat XYuSlarning moliyaviy resurslari dastlab nimalar hisobidan shakllantiriladi?
- Tushum xarajatlarni moliyalashtirish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini davom etttirishni ta'minlovchi qanday pul mablag'lari fondlariga bo'linadi?
- Amortizatsiya ajratmalari fondi XYuSlar moliyaviy resurslarining tarkibiy tuzilmasida qanday rol o'ynaydi?
- XYuS moliyaviy resurslari tarkibiy tuzilmasida foydaning o'rni qanday?
- Tijorat XYuSlarning moliyaviy resurslari qanday manbalardan tashkil topadi?
- XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samara-dorligini formula orqali qanday tasavvur etish mumkin?
- Pul (P^*) go'yo to'g'ridan-to'g'ri puldan (P) hosil qilinganda moliyaviy samaradorlikni aniqlash formulasi qanday ko'rinishni oladi?
- Bevosita moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida XYuS tomonidan olingan daromad tarkibiga nimalar kiradi?
- Real sektor XYuSlarida, moddiy ishlab chiqarishda moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligini mos ravishda baholash talablariga qanday ko'rsatkich javob beradi?

- XYuSning iqtisodiy rentabelligi yoki biznesning rentabelligi qanday aniqlanadi?
- XYuS moliyaviy resurslaridan foydalanish samarador-ligini tahlil qilishda qanday ko’rsatkichlardan foydala-niladi?
- Sof moliyaviy ko’rsatkichlar qatoriga qanday koeffitsi-entlarni kiritish va ular yordamida XYuSning qobiliyatini qanday baholash mumkin?
- Absolyut likvidlik, muddatli likvidlik va joriy likvidlik koeffitsientlari qanday aniqlanadi?

11-bob. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining moliyaviy jihatlari

11.1. Asosiy kapital doiraviy aylanishining mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi

Umumlashtirilgan ko'rinishda asosiy kapital mehnat vositalariga (binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashinalar, dastgohlar, transport vositalari va foydali foydalanish muddati 12 oydan oshadigan boshqa vositalar) sarflangan (joylashtirilgan) kapital qiymatining bir qismidir. XYuSning buxgalteriya balansida asosiy kapital aylanmadan tashqaridagi aktivlar sifatida aks ettiriladi. Uning asosini asosiy vositalar tashkil etadi. Bu aktiv-larning boshqa elementlari, ya'ni nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish, moddiy boyliklarga daromadli qo'yish (joylashtirish), uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar, bevosita yoki bilvosita asosiy kapitalni kengaytirilgan, ilmiy-sig'imli ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Mehnat va mahsulotni yaratish jarayonida asosiy kapital ishlab chiqarish omili va ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy asosi shaklida amal qiladigan unumli kapitalning qismi sifatida maydonga chiqadi.

Asosiy kapitalning doiraviy aylanishi unga tegishli bo'lgan qiymatning quyidagi uch funktsional shakllarida harakat qilishini anglatadi:

- pulli;
- unumli;
- tovarli.

Asosiy kapital qiymatining bu shakllarda amal qilishi foyda olishni va mehnat vositalarining takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Kapitalning doiraviy aylanishi davomida aylanma kapitaldan farqli o'laroq asosiy kapital o'zining iste'mol shaklini birdaniga yo'qotmaydi, ya'ni davomli muddatda eskiradi. Yangidan yaratilayotgan mahsulotga u o'zining qiy-matini asta-sekinlik bilan, eskirish darajasiga qarab o'tkazadi va to'liq qayta tiklanganga qadar ko'plab ishlab chiqarish tsikllari davomida uni tiklab boradi. Bu jarayon amortizatsiya deb ataladi va u o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq ravishda har oyda hisoblanadi.

Ma'naviy eskirishini inobatga olgan holda mehnat vositalari boshlang'ich qiymatini to'liq tiklash vaqti amortizatsiya davri deb ataladi. Bu davr tugaganidan so'ng asosiy kapitalga avanslashtirilgan pulli qiymat o'z aylanishini tugatadi va yana

mehnat vositasiga aylanadi. Bu fursatga etgunga qadar o'tkazilayotgan qiymat asta-sekinlik bilan va uzluksiz ravishda amortizatsiya fondi ko'rinishida jamg'arilib boriladi hamda shundan keyin u iste'mol qilingan kapitalni yangidan qayta tiklash uchun ishlatiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapitalni buyum-lashgan shakli sifatida asosiy fondlar - uzoq vaqt davo-mida natural-iste'molli shaklda ishlab chiqarish jara-yonida foydalanilayotgan moddiy boyliklar yig'indisi - maydonga chiqadi. Iqtisodiy mo'ljallanganligiga ko'ra aso-siy fondlar quyidagilarga bo'linadi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlari;
- noishlab chiqarish asosiy fondlari.

Ishlab chiqarish jarayonida buyumlashgan-natural shaklda ishtirok etadigan va ko'plab ishlab chiqarish tsikllari davomida o'zining qiymatini tayyor mahsulotga qismlarga bo'lib o'tkazuvchi mehnat vositalariga asosiy ishlab chiqarish fondlari deyiladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlarining tarkibiga XYuSning balansida bo'lgan va noishlab chiqarish maqsad-lari uchun foydalanishga mo'ljallangan XYuSning mulklari kiradi. Ular bo'yicha amortizatsiya hisoblanmaydi. Bu fondlarning qiymati ularning eskirishi munosabati bilan XYuSning foydasi hisobidan takror ishlab chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibiy tuzil-masi tarmoq, texnologik, ishlab chiqarish va xizmat qilish muddati (yoshi) jihatidan turli tuzilmalarga bo'linishi mumkin. Tarmoq tuzilmasi alohida olingan tarmoqdagi asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining butun iqtisodiyot bo'yicha shu fondlar qiymatidagi salmog'ini xarakterlaydi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining texnologik tuzilmasi alohida guruh ichidagi ular turli ko'rinishlarining salmog'ini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan mehnat vositalari turli ko'rinishlarining nisbatidan iborat bo'lib, investitsiyalarning texnologik ilg'orligi va ularning oqilona joylashtirilganligini aks ettiradi. Asosiy fondlarning xizmat qilish muddati (yoshi) jihatidan tarkibiy tuzilmasi ularning ahvolini yosh guruhlari va takror ishlab chiqarish sur'atlari bo'yicha ifodalaydi. Keyingi yillarda asosiy fondlarning etarli darajada faol takror ishlab chiqarilmaganligi uchun ularning yoshi va eskirishi ortib bormoqda (oshmoqda).

Asosiy fondlar pul shaklida baholanadi va hisob-lanadi hamda buxgalteriya hisobida asosiy vositalar sifatida aks ettiriladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- binolar;
- inshootlar (neft va gaz qazib oluvchi, gidrotexnik, transport xo'jaligi inshootlari va boshqalar);
- uzatuvchi moslamalar (elektr uzatuvchi, aloqa, quvurlar va h.k.);
- ishchi va kuch mashinalari va dastgohlari;
- o'lchovchi va tartibga soluvchi (o'zgartiruvchi) asbob (pribor)lar va qurilmalar;
- uy-joylar;
- hisoblash texnikasi va orgtexnika;
- transport vositalari;
- asbob(instrument)lar;
- ishlab chiqarish va xo'jalik asbob(inventar)lari va buyumlari;
- ishchi va mahsuldor qoramollar;
- ko'p yillik o'simliklar.

Yuqoridagilardan tashqari asosiy vositalarning tarki-biga yana tashkilotning mulkida bo'lgan er maydonlari, tabiatdan foydalanish ob'ektlari (suv, qazilma boylik-lari va boshqa tabiiy resurslar), asosiy vositalarning ijaraga olingan ob'ektlari ham kiradi.

Ishchi va kuch mashinalari hamda dastgohlari, o'lchovchi va tartibga soluvchi (o'zgartiruvchi) qurilmalar hamda asbob (pribor)lar, hisoblash texnikasi, transport vositalari, asbob(instrument)lar, ishlab chiqarish va xo'jalik ashyo-(inventar)lari, odatda, asosiy fondlarning aktiv qismiga kiritilib, ular mehnat predmetlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning qolgan qismlari esa asosiy fondlar-ning passiv qismiga kiritiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy kapital aktiv qismining maksimal ravishda oshirilishi eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Asosiy kapital doiraviy aylanishining samarador-ligini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- moliyaviy nuqtai-nazardan asosiy kapitalning doiraviy aylanishi moliyaviy resurslar tegishli fondlarining tash-kil etilishi bilan birga yuz beradi. Bu bir vaqtning o'zida ham asosiy kapital va ham aylanma kapital aylanishiga to'liq tegishlidir;
- shu doiraviy aylanish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash muhim hisoblanadi;
- ishlayotgan ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish va eskirgan asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilashning o'z vaqtida amalga oshirilishi samaradorligini baholash kerak.

XYuSning moliyaviy resurslari tarkibi o’z va jalb qilingan pul mablag’laridan iborat bo’lishi mumkin. Takror ishlab chiqarish jihatidan asosiy kapitalning doiraviy aylanishi iste’mol qilingan asosiy fondlarni almash-tirish (yangilash) uchun amortizatsiya mablag’larining amorti-zatsiya fondida jamg’arilishini ko’zda tutadi. Hisobot davri davomida asosiy vositalar ob’ektlari bo’yicha amortizatsiya ajratmalari hisoblashni qo’llash usullariga bog’liq bo’lma-gan holda har oyda hisoblanadi. Mavsumiy ishlab chiqa-rishda ham asosiy vositalar bo’yicha amortizatsiya ajrat-malarining yillik summasi hisobot yilida tashkilotning ishlash davri davomida bir tekisda hisoblanadi. Agar asosiy vositalarning ob’ektlari rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishda bo’lsa, yoki ular uch oydan ko’proq muddatga konservatsiya qilishga o’tkazilgan bo’lsa, bunday holatlarda amortizatsiya ajratmalarini hisoblash tashkilot rahbarining qaroriga muvofiq to’xtalishi mumkin.

Amortizatsiyalashtiriladigan (belgilangan muddat ichi-da yangilanishi shart bo’lgan) mol-mulklar o’zlarining foydali foydalanish muddatlariga bog’liq ravishda turli amortizatsiya guruhlariga birlashtiriladi. Birinchi guruhga foydali foydalanish (ishlatish) muddati 1 yildan 2 yilgacha bo’lgan mol-mulklar, oxirgi guruhga esa foydali foydalanish muddatlari 30 yildan ortiq bo’lgan mol-mulklar kiritiladi.

Amortizatsiya guruhlariga kiritiladigan asosiy vosi-talarning tasniflanish tartibini (klassifikatsiyalani-shini) har bir mamlakatning hukumati aniqlab beradi. Amortizatsiya guruhlari ko’rsatilmagan asosiy vositalarning turlari bo’yicha foydali foydalanish muddatlari ularni tayyorlagan tashkilotlarning tavsiyalari va texnik shart-sharoitlariga muvofiq ravishda soliq to’lovchining o’zi tomonidan o’rnatiladi.

Hozirgi paytda amaliyotda amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning ikki asosiy metodidan foydalaniladi:

- chiziqli;
- nochiziqli.

Amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning chiziqli metodi binolar, inshootlar, uzatish qurilmalariga nisbatan ularning foydalanishga topshirish muddatlariga bog’liq bo’lmagan holda qo’llaniladi. Asosiy vositalarning qolgan boshqa ob’ektlariga nisbatan amortizatsiya summalarini hisob-kitob qilishning yuqoridagi ikki metodidan – chiziqli va nochiziqli - biri qo’llanilishi mumkin.

Chiziqli metod qo’llanilganda bir oy uchun hisoblangan amortizatsiyaning summasi shu ob’ekt uchun aniqlangan

amortizatsiya normasi va ob’ektning dastlabki (tiklash) qiymatiga nisbatan quyidagicha aniqlanadi:

$$N_a = (1/m) \times 100\%$$

Bu yerda: N_a - amortizatsiya qilinayotgan mol-mulk ob’yektining boshlang’ich (tiklash) qiymatiga nisbatan amortizatsiya normasi (foizda);

m - amortizatsiya qilinayotgan mol-mulk shu ob’yektining foydali foydalanish muddati (oyda).

Nochiziqli metod asosida amortizatsiya normasini hi-soblash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$N_a = (2/m) \times 100\%$$

Bu yerda: 2 – tezlashtirish koeffitsienti.

Asosiy kapitalning doiraviy aylanish jarayonida vujudga keladigan o’z moliyaviy resurslarining tarkibiga, amortizatsiya fondidan tashqari, yana quyidagi daromadlar va turli tushilmalar ham kiradi:

- foyda, shuningdek, moliyaviy operatsiyalar va boshqa tashkilotlarda aktsiyador sifatida ishtirok etishdan olina-digan daromadlarni ham qo’shib hisoblaganda tadbirkorlik faoliyatidan kelib tushuvchi pul mablag’lari;
- mulkni samarali boshqarish hisobidan olinadigan pul mablag’lari;
- XYuSga tegishli bo’lgan ijara haqi, lizing to’lovlari, dividendlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog’ozlar bo’yicha foizlar, sotishdan tashqari boshqa daromadlar, asosiy fondlarni sotishdan olingan daromad-lar;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hisobidan erishilgan foyda.

Ish tartibini o’zgartirish va dastgohlarni yuklash koeffitsientining oshirilishi, intensiv foydalanishning o’sishi va asosiy vositalar tarkibiy tuzilmasidagi progressiv o’zgarishlar, kiritilgan quvvatlarning tez o’zlashtirilishi, innovatsion yangiliklarni joriy etish

fond qaytimi va boshqa ishlab chiqarish-iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshiradi.

Asosiy fondlarni shakllantirish uchun jalb qilina-digan pul mablag'larining manbalarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- maqsadli moliyalashtirish va tushilmalar;
- banklarning o'rta va uzoq muddatli kreditlari hamda XYuS tomonidan texnikaviy qayta qurollantirish va rekonstruktsiya qilish, yangi asosiy ishlab chiqarish fond-larini yaratish (qurish) uchun milliy va xorijiy valyutada olingan qarzlar.

Birinchi guruhning tarkibiga quyidagi manbalar kiradi:

- hukumat organlaridan subsidiyalar shaklida olingan pul mablag'lari;
- taraqqiyotning strategik yo'nalishini amalga oshiruvchi maqsadli dasturlar asosida investitsiyalar ko'rinishidagi byudjet mablag'lari;
- kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari;
- hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa XYuS va tashkilotlardan moliyaviy tushil-malar;
- va boshqalar.

Ikkinchi guruhga kiruvchi jalb qilingan moliyaviy resurslarning tarkibida kreditorlik qarzlari ham muhim o'rinni egallaydi.

Asosiy kapitalning doiraviy aylanishi jarayonida ishtirok etadigan moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligi olingan samara va uni qo'lga kiritish uchun sarf qilingan moliyaviy resurslar o'rtasidagi nisbat orqali ifodalanadi. Shu munosabat bilan moliyaviy resurslardan foydalanishning sifat natijasini quyidagi formula orqali ko'rsatish mumkin:

$$\mathbf{M_c = (\Delta F : M_p) \times 100\%}$$

Bu yerda: $\mathbf{M_c}$ - moliyaviy samaradorlik;

$\Delta\mathbf{F}$ – foydaning o'sgan qismi;

$\mathbf{M_p}$ - moliyaviy resurslar.

Asosiy kapitalning rivojlanishi va uning moliyaviy jihatdan ta'minlanishini boshqarishda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning samaradorligini baholash alohida ahamiyat kasb etadiki, uning juda ko'p jihatlari mavjud.

Bu yerda, eng avvalo, davlat, mulkdorlar, boshqaruv-chilar va xodim (ishchi)lar manfaatlarini birgalikda qarash jihati juda muhimdir. Davlat manfaatlari, bir tomondan, XYuSlarning soliq to'lovlarini maksimallashtirish maqsa-dida balans foydaning maksimallashtirilishini ko'zda tutadi. Ikkinchi tomondan esa, foydadan soliq to'lovlari foydaning kengaytirilgan ilmtalab takror ishlab chiqarish-ga qayta investitsiya qilinishini hisobga olgan holda optimallashtirilmog'i lozim.

Juda ko'p hollarda mulkdorlar va boshqaruvchilar manfaatlari bir-biriga mos keladi. Mulkdorlar uchun ham, boshqaruvchilar uchun ham bir aktsiyaga to'g'ri keluvchi foyda summasining o'sishi orqali aktsionerlar daromadlarini maksimallashtirish maqsadini amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Odatda, daromadlarni maksimallashtirish ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish hisobidan erishiladi. U rentabellik va mehnat unumdorligi, fond qaytimining oshishi, xarajat-larning qisqarishi, aylanma mablag'lar aylanishining tezlashuvi, mahsulot sifatining oshishi, asosiy fondlar-ning yangilanishi, innovatsion texnologiyalar va boshqaruv metodlaridan foydalanish bilan bog'liq.

Boshqaruv qarorlarida dividend siyosatini oqilona shakllantirish muhim ahamiyatga egaki, u sof foydani dividendlar to'lashga va uni jamg'arishga yo'naltirishga oqilona taqsimlanishini nazarda tutadi.

XYuS xodim (ishchi)lari manfaatlari nuqtai-nazaridan faqatgina moliyaviy natija emas, balki o'zining tarkibiga ish haqi va uning o'sishi, ijtimoiy dasturlar va mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan XYuS xarajatlari hisobidan vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkich-larning o'sishini qamrab oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy samara ham muhimdir.

Asosiy kapitaldan samarali foydalanishni baholashda XYuS moliya-xo'jalik faoliyatining natijaliligini ochib beruvchi umumiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan foy-dalanish maqsadga muvofiq. Bu yerda hal qiluvchi va aniqlovchi ko'rsatkich sifatida ishlab chiqarishning umumiy rentabelligi ko'rsatkichidan foydalanish mumkin. U samaradorlikni baholashning me'zoni bo'lib xizmat qiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\mathbf{R_y = (BF : F_{aa}) \times 100\%}$$

Bu yerda: $\mathbf{R_y}$ - ishlab chiqarishning umumiy renta-

belligi;

BF - balansdagi foyda (soliqqa tortilgunga qadar);

F_{aa} - asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtirilgan aylanma mablag'-larning yillik o'rtacha qiymati.

Fond qaytimi ko'rsatkichi XYuS asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligining darajasini ifodalaydi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$F_к = (T : F_{аич}) \times 100\%$$

Bu yerda: $F_к$ - fond qaytimi;

T - sotishdan olingan sof tushum;

$F_{аич}$ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati.

Fond sig'imi fond qaytimiga nisbatan teskari ko'rsat-kich hisoblanadi va bir so'mlik realizatsiya qilingan mahsulotga to'g'ri keluvchi asosiy ishlab chiqarish fond-larining qiymatini ko'rsatadi. Shuning uchun bu ko'rsatkichni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$F_c = (F_{аич} : T) \times 100\%$$

Bu yerda: F_c - fond sig'imi;

$F_{аич}$ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati;

T - realizatsiyadan olingan sof tushum.

Dastgohlar yoki asbob-uskunalar ishlashining smenalik koeffitsienti ulardan foydalanish va ularning yuklan-ganlik darajasini ifodalab, yil, chorak, oy va kun davomida har bir birlik dastgoh yoki asbob-uskunalarning necha smenada ishlaganligini ko'rsatadi va u quyidagicha aniq-lanadi:

$$K_c = H_к : D_y \text{ yoki } K_c = H_c : S_{max}$$

Bu yerda: K_c - smenalik koeffitsienti;

$H_к$ - kun davomida haqiqatda ishlagan dastgoh (mashina)/soatlar;

$D_у$ - dastgoh (mashina)larning umumiy soni;

$H_с$ - bir smenada haqiqatda ishlagan dastgoh (mashina)/soatlar soni;

S_{max} - bir smenada maksimal ishlashi mumkin bo'lgan dastgoh (mashina)/soatlar soni;

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish koeffi-tsienti yangidan yaratilgan mahsulotga o'tkazilishi natija-sida ular iste'mol qiymatining kamayishini ifodalaydi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_э = (A_{арен} : F_{ичфб}) \times 100\%$$

Bu yerda: $K_э$ - eskirish koeffitsienti;

$A_{арен}$ - foydalanishda bo'lgan davr mobaynida asosiy ishlab chiqarish fondlarining renovatsiyasi (qayta tiklanishi)ga hisoblangan amortizatsiya ajratma-larining summasi;

$F_{ичфб}$ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining boshlang'ich qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish koef-fitsienti XYuS investitsion talabini qondirishning inten-sivligini ifodalaydi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$K_я = (Q_{аичф} : Q_{баич}) \times 100\%$$

Bu yerda: $K_я$ - yangilanish koeffitsienti;

$Q_{аичф}$ - yil davomida kiritilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

$Q_{баич}$ - barcha asosiy ishlab chiqarish fondlari-ning yil oxiridagi qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining chiqish (chiqib ketish) koeffitsienti esa eskirgan ishlab chiqarish appa-ratining foydalanishdan chiqib ketish dinamikasini ifodalaydi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{ч} = (Q_{аичфл} : Q_{аичфб}) \times 100\%$$

Bu yerda: $Q_{ч}$ - chiqish (chiqib ketish) koeffitsienti;

$Q_{аичфл}$ - yil davomida tugatilgan (likvidatsiya qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

$Q_{аичфб}$ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati.

Shunday qilib, asosiy kapital doiraviy aylanishining samaradorligi, ko'p jihatdan, amortizatsiya ajratmalarining maqsadli foydalanilishini, ishlab chiqarish apparatining rivojlanishiga emission daromad va sof foydaning kerakli miqdorlarda reinvestitsiya qilinishini oldindan aniqlab beradi. Shu bilan birgalikda bu yerda, yangi texno-logik tizimlardan foydalanish, mashina va dastgohlarning yuklamalik darajasi, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'z vaqtida yangilanishi va chiqib ketishi, moliyalashtirishning mumkin bo'lgan barcha manbalarini faol jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

11.2. Aylanma kapital: mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va foydalanish samaradorligi

Aylanma kapital XYuS aylanma (o'zgaruvchan) aktiv-lariga avanslashtirilgan kapital qiymatini o'zida ifoda-laydi. Bu kapital XYuS balansining "Aylanma aktivlar" deb nomlangan ikkinchi bo'limida aks ettiriladi. Odatda, aylanma kapital quyidagi bir necha asosiy guruhlarga bo'linadi:

- takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishini hisobga olgan holda funktsional mo'ljallanganligi bo'yicha;
- shakllantirish va moliyalashtirish manbalariga ko'ra;
- likvidlik darajasiga qarab;
- va boshqa belgilariga muvofiq.

Aylanma kapital juda ko'p funksiyalarni bajaradi. Ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsa-tish mumkin:

- takror ishlab chiqarish;
- rag'batlantirish;
- taqsimlash;

- ishlab chiqarish va muomala sohasining yagonaligini ta’minlash;
- ishlab chiqarish jarayoning uzluksizligini ta’minlash;
- va boshqalar.

Aylanma kapital o’z funksiyalarini ham pulli va ham natural-buyum shakllarida amalga oshiradi.

Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini uni funk-tsional jihatdan quyidagi ikki tashkil etuvchisi belgilab (aniqlab) beradi:

- aylanma kapitalning natural-buyum shakllari yoki aylanma ishlab chiqarish fondlari;
- muomala fondlari.

Tarkibiy tuzilma jihatidan aylanma kapitalning natural-buyum shakllariga, eng avvalo, ishlab chiqarish zaxiralaridan iborat bo’lgan quyidagilar kiradi:

- xomashyo va asosiy materiallar;
- sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar;
- yoqilg’i;
- qadoqlash va qadoqlash materiallari;
- joriy ta’mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- inventarlar va xo’jalik buyumlari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari;
- o’z ishlab chiqarishining yarim tayyor mahsulotlari;
- kelgusi davr xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini tashkil etuvchi muomala fondlari quyidagi guruhlardan iborat:

- tayyor mahsulot va qayta sotishga mo’ljallangan tovarlar, ortib jo’natilgan tovarlar;
- pul mablag’lari – kassadagi pullar, hisob-kitob va valyuta hisobvaraqlaridagi pullar, bankdagi maxsus hisob- varaqlari (akkreditivlar va chek daftarchalari, depozit hisobvaraqlari, boshqa to’lov hujjatlari);
- qisqa muddatli (bir yildan ortiq bo’lmagan muddatda) moliyaviy qo’yilmalar – boshqa XYuSlar qimmatli qog’ozlariga investitsiyalar, davlat va mahalliy zayomlarning foizli obligatsiyalari, boshqa XYuSlarga berilgan zayomlar, aktsionerlardan o’z aktsiyalarini sotib olish;
- debitorlik qarzlarining barcha ko’rinishlari, sotib oluvchilar va buyurtmachilarning qarzlari, olinuvchi veksellar, “qiz” va bo’ysunuvchi jamiyatlarning qarzlari, ustav kapitaliga badallar

bo’yicha ta’sischilarning qarz-lari, berilgan avanslar, boshqa debitorlarning mablag’-lari.

Aylanma kapitalning boshqa qismi pulli ko’rinishda shakllantiriladi va aylanma fondlarning iqtisodiy elementlariga pulli kapitalni doimiy avanslashtirish ko’rinishida doiraviy aylanishda bo’ladi. Pul mablag’-larining doiraviy aylanishi XYuS tomonidan ishlab chiqarishga zarur bo’lgan moddiy resurslar qiymatining to’lanishi bilan boshlanadi va shu xarajatlarning mahsulotni sotishdan olingan tushum ko’rinishida qaytishi bilan tugallanadi.

Doiraviy aylanish jarayonida aylanma kapital doimiy qiymat kategoriyasi sifatida saqlanib qolsa-da, o’z tarkibiy qismlarining funktsional shakllarini uzluksiz ravishda quyidagi ketma-ketlikda o’zgartiradi: pul mablag’lari – xomashyo va materiallar zaxiralari – tayyor mahsulot – debitorlik qarzlari – tushum ko’rinishida tushadigan pul mablag’lari. Bunda aylanma kapital kompaniya moliyaviy holatining o’lchovchisi va tartibga soluvchisi hisoblanadi.

Aylanma mablag’lar (kapital)ni shakllantirish va moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

- o’z va ularga tenglashtirilgan mablag’lar;
- qarz va jalb qilingan mablag’lar.

O‘z navbatida, aylanma mablag’lar (kapital)ni shakllan-tirish va moliyalashtirishning o’z manbalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ustav kapitali;
- foyda;
- emission daromad.

Emission daromad, ayrim hollarda, ta’sischilik foydasi deb ham yuritiladi.

O‘z mablag’lariga tenglashtirilgan manbalar qat’iy passivlardan, ya’ni XYuS aylanmasida doimiy ravishda mavjud bo’ladigan jalb qilingan mablag’lardan iborat. Ish haqi va sotsial sug’urta bo’yicha qarzlar, qadoqlarni qaytarish bo’yicha garovlar, kelgusi davr xarajatlarini qoplash bo’yicha zaxiralar shu shaklda vaqtinchalik foydalanilishi mumkin.

Qarz mablag’lar o’z aylanma mablag’larining etmagan qismini to’ldirishga mo’ljallangan. Ularning tarkibiga:

- banklarning qisqa muddatli kreditlari;
- zayomlar;
- uzoq muddatli kreditlarning bo’sh mablag’lari kiradi.

Jalb qilingan mablag’lar:

- mol etkazib beruvchi va pudratchilarning kreditorlik qarzlari;

- to’lanuvchi veksellar;
- “qiz” XYuSlar va bo’ysunuvchi jamiyatlar hamda byudjet oldidagi qarzlar;
- olingan bo’nak (avans)lar;
- va boshqa kreditorlar ko’rinishida maydonga chiqadi.

Aylanma kapitalning foydalanish samaradorligini ifodalovchi umumlashtiruvchi ko’rsatkichlar aylanma mablag’-lar aylanishining soni va aylanma mablag’lar bir marta aylanishining uzoqligi hisoblanadi va ular quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{A}_{ам} = \mathbf{T} : \mathbf{Q}_{у},$$
$$\mathbf{U}1a = \mathbf{K}_{с} : \mathbf{A}_{ам}$$

Bu yerda: $\mathbf{A}_{ам}$ - aylanma mablag’larning aylanuvchanligi;
$\mathbf{T}$ - realizatsiyadan olingan tushum;
$\mathbf{Q}_{у}$ - aylanma mablag’larning yillik o’rtacha qoldig’i;
$\mathbf{U}1a$ - aylanma mablag’lar bir marta aylanish davri;
$\mathbf{K}_{с}$ - tahlil davridagi kunlar soni.

Zaxiralarning aylanuvchanligi quyidagi formula yorda-mida aniqlanadi:

$$\mathbf{A}_{з} = \mathbf{T}_{см} : \mathbf{Q}_{зу}$$

Bu yerda: $\mathbf{A}_{з}$ - zaxiralarning aylanuvchanligi;
$\mathbf{T}_{см}$ - sotilgan mahsulot tannarxi;
$\mathbf{Q}_{зу}$ - zaxiralarning o’rtacha qiymati.

Debitorlik qarzlarini to’lashning kunlardagi o’rtacha davomiyligi sotib oluvchilarning schyotlar bo’yicha to’lash tezligini aks ettiradi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{DQ}_{туд} = \mathbf{DQ}^{-}_{с} : \mathbf{T}^{-}_{к}$$

Bu yerda: $\mathbf{DQ}_{туд}$ - debitorlik qarzlarini to’lashning kunlardagi o’rtacha davomiyligi;

$\overline{DQ}_c$ - debitorlik qarzining o'rtacha summasi;
$\overline{T}_к$ - sotishdan olingan kunlik o'rtacha tushum.

Bu ko'rsatkichning past darajasi XYuS debitorlardan pulni undirish bo'yicha ishining samaradorligidan darak beradi. Biroq, ayrim hollarda, bu narsa XYuS kredit siyosatining haddan ziyod qattiqligini ham ko'rsatib, realizatsiya qilingan mahsulotlarning uncha katta bo'lmagan qismi kreditga sotilganligini ham anglatadi.

XYuS moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini ta'minlashda va moliyaviy tahlilda sof aylanma kapitalni monitoring qilish muhim rol o'ynaydi. Umumiy ko'rinishda sof aylanma kapital aylanma aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar o'rtasidagi farqdan iborat. Qisqa muddatli passivlarning tarkibiy tuzilmasiga kelgusi davr daromadlari ham kiritilib, ular XYuSning o'z pul mablag'lari bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham sof aylanma kapitalni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$S_{ак} = AA - QP$$

Bu yerda: $S_{ак}$ - sof aylanma kapital;
AA – aylanma aktivlar;
QP – qisqa muddatli passivlar (kelgusi davr daromadlaridan tashqari).

Sof aylanma kapitalni boshqarishning natijaliligini sof aylanma kapitalning aylanish koeffitsienti yordamida quyidagicha aniqlanadi:

$$K_a = T_c : S_{ак}$$

Bu yerda: K_a - sof aylanma kapitalning aylanish koeffitsienti;
T_c - realizatsiyadan olingan sof tushum;
$S_{ак}$ - sof aylanma kapitalning o'rtacha qiymati.

Aylanma mablag'larni boshqarishda ularni likvidlik darajasi bo'yicha strukturizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadlar uchun likvidlikning quyidagi ikki ko'rsatkichidan foydalaniladi:

- joriy likvidlik koeffitsienti;
- absolyut likvidlik koeffitsienti.

Joriy likvidlik koeffitsienti ma'lum bir sana uchun aniqlanib, uning aniqlanish tartibi quyidagicha:

$$K_{жл} = A_a : QP \geq 2$$

Bu yerda: $K_{жл}$ - joriy likvidlik koeffitsienti;
A_a - aylanma aktivlar (balansning 2-bo'limi);
QP - qisqa muddatli passivlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

Joriy likvidlik koeffitsientining darajasi ikkidan kichik bo'lmasligi lozim. Shunday bo'lishiga qaramasdan, g'arb iqtisodiyotida uning darajasiga birdan kichik bo'lmagan hollargacha yo'l qo'yiladi.

Absolyut likvidlik koeffitsienti eng likvidli aktiv-larning (pullar va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar) qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi va uni formula orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_{ал} = (PM + MQ) : QP \geq 0,2$$

Bu yerda: $K_{ал}$ - mutloq (absolyut) likvidlik koeffitsienti;
PM – pul mablag'lari;
MQ - qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;
QP - qisqa muddatli majburiyatlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

Bu koeffitsientning istaluvchi darajasi $\geq$ 0,2 dan iborat bo'lib, biroq amaliyotda bu narsa o'z faoliyatining turli davrlarida XYuSning moliyaviy siyosati va ishining samaradorligiga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanma kapitaldan foydalanishning samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liq. U, eng avvalo, to'lov intizomining ahvoli, aylanma mablag'-larning turli funktsional elementlariga joylashtirilgan investitsiyalarning hajmi bilan belgilanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasida aylanma kapitaldan samarali foydalanishga ishlab chiqarishning chiqitsiz yuqori texno-logiyalarga asoslanganligi, materiallar qiymatining pasayishi, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini

minimallashtirish, ishlab chiqarish zaxiralari va ularning harakatini oqilona tashkil qilish hamda natijali boshqaruv ta'sir etadi.

Muomala sohasida bunday omillar qatoriga mol etkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan ishlarni yaxshilash, xo'jalik aloqalarining samarali usullaridan foydalanish, zamonaviy marketingni amalga oshirish, tayyor mahsulot zaxiralarini kamaytirish va uning realizatsiya qilinishini tezlashtirish kabilar kiradi. To'lov qobi-liyatini mustahkamlash va mablag'larning aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida debitorlik qarzlari va pul oqimlarini boshqarishni yaxshilash ham bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi.

11.3. Aylanma mablag'larni me'yor(norma)lashtirish

Aylanma kapitalni rejalashtirish va undan foyda-lanishni tashkil qilish uchun unga nisbatan bo'lgan ehtiyojni aniqlash usullari va rejalashtirish tizimini ishlab chiqmoq lozim. Moddiy resurslar va ular zaxiralarining hara-katini boshqarish tizimini avtomatlashtirish xususida o'ylamoq, aylanma kapital va uni shakllantirish manba-laridan samarali foydalanish, materiallarning sarfla-nishi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni ta'minlash kerak.

Yuqoridagilarni amalga oshirish maqsadlariga xizmat qilish uchun aylanma mablag'lar quyidagi ikki ikki guruhga bo'linadi:

- me'yor(normalashtiriladigan aylanma mablag'lar;
- me'yor(norma)lashtirilmaydigan aylanma mablag'lar.

Me'yorlashtiriladigan aylanma mablag'larga aylanma ishlab chiqarish fondlari va realizatsiya qilinmagan tayyor mahsulot zaxiralari kiradi. Me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lar esa ombordagi tayyor mahsulot zaxira-laridan tashqari muomala fondlarining barcha element-larini o'z tarkibiga oladi. Aylanma kapitalning o'lchamini optimallashtirish uchun moddiy aylanma mablag'larning rejalashtirilishi amalga oshiriladi.

Moddiy aylanma mablag'larni rejalashtirishning asosini normativ usuli tashkil etadi. Unga ko'ra aylanma mablag'larning normativi belgilanadi, transport, sug'urta, tayyorgarlik, texnologik, joriy zaxiralarni ham qo'shgan holda zaxiralar normalashtiriladi, moddiy resurslarning barcha ko'rinishlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ombor-dagi tayyor mahsulotga nisbatan xarajatlar normasi o'rna-tiladi.

Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Dastlab, aylanma mablag'larning har bir elementi bo'yicha ishlab chiqarish zaxiralarining normasi ishlab

chiqiladi. Ishlab chiqarish zahiralarining me'yori ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi ularning ilmiy asoslangan rejali hajmidan iborat bo'lib, u eng avvalo, quyidagilarni o'z ichiga oluvchi XYuS ish sharoitiga bog'liq:

- ishlab chiqarish tsiklining uzoq-yaqinligi;
- ishlab chiqarishga materiallarni kiritish davri;
- mol etkazib beruvchilarning uzoqligi;
- mol etkazib berish partiyalarining kompleksligi yoki hajmi;
- materiallar sifati;
- hisob-kitoblar tizimi;
- va boshqalar.

Norma (me'yor) normalashtiriladigan moddiy resurs-larga (ularning har bir turi bo'yicha) bo'lgan o'rtacha kunlik ehtiyojlarning hajmi va mol etkazib berishlar o'rtacha intervali (oraliq)ning uzunligini hisobga olgan holda kunlik zaxiralarda o'rnatiladi (belgilanadi). Demak, agar ana shu oraliq, masalan, 24 kunga teng bo'lgan bo'lsa, shunga mos ravishda zaxiralar shu kunlar oralig'ida ishlab chiqarish tsiklining normal (sog'lom) rivojlanishini ta'minlashga etarli bo'lmog'i lozim.

Kunlarda ifodalangan zaxiralar va ma'lum bir ko'rinishdagi tovar-moddiy boyliklar xarajatlarining normasi (me'yori) asosida normalashtiriladigan zaxira-larni yaratish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larning hajmi aniqlanadi. Agar me'yor kunlarda aniqlansa (belgilansa), u holda aylanma mablag'larning normativi XYuSning sog'lom (normal) faoliyat ko'rsatishi uchun minimal darajada zarur bo'lgan tovar-moddiy boyliklarning pulda ifodalangan rejalashtirilgan zaxiralaridan iboratdir.

Qandaydir bir resurslarning zaxiralariga avanslash-tiriladigan aylanma mablag'lar normativining formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$N = E \times U \times B$$

Bu yerda: **N** – aylanma mablag'larning normativi;
E – aylanma mablag'larga bo'lgan kunlik ehtiyoj;
U – o'rtacha interval uzoqligi;
B – aylanma mablag' birligining bahosi.

Masalan, faraz qilaylik, qandaydir bir xomashyoning zaxira normasi 15 kunga, kunlik ehtiyoj 10 tonnaga va bir tonnaning bahosi 20 ming so'mga teng bo'lsa, u holda pulda ifodalangan normativning darajasi 600 ming so'mga (15 x 10 x 20 000) teng bo'ladi.

Umuman olganda, aylanma mablag'lar normativi mol etkazib berishlar o'rtasidagi o'rtacha intervalni hisobga olgan holda quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$\mathbf{N = E \times (U_1 + U_2) : 2 \times B}$$

Bu yerda: **N** – aylanma mablag'larning normativi;
E – aylanma mablag'larga bo'lgan kunlik ehtiyoj;
$\mathbf{U_1 + U_2}$ **-** navbatdagi ikki mol etkazib berish-larning kunlardagi uzunligi;
B – aylanma mablag' birligining bahosi.

Aylanma mablag'larning har bir elementlari bo'yicha normativning alohida hisoblanishi natijasida xususiy normativlar vujudga keladi. O'z navbatida, barcha xususiy normativlarni qo'shish natijasida yig'ma (jamlangan) normativ hosil bo'ladi.

Xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning alohida turlari bo'yicha zaxiralarning kunlik (kundagi) normasi quyidagi zaxiralar summalarini inobatga olib o'rnatiladi (belgilanadi):

- transport zaxirasi;
- tayyorlov zaxirasi;
- texnologik zaxira;
- joriy zaxira;
- sug'urta zaxirasi.

Transport zaxirasi yukning yo'ldagi kunlari va shu yuk uchun hujjatlarni to'lash va ularning harakatlanish kunlari sonini o'z ichiga oladi. Tayyorlov zaxirasi qabul qilishni rasmiylashtirish, navlarga ajratish, ortish-tushirish, kom-plektatsiya qilish, moddiy resurslarni maxsus qayta tiklash va h.k.lar bog'liq. Bu zaxira norma yoki haqiqatda sarflangan vaqt asosida o'lchanadi. Texnologik zaxira ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq va texnologik normalar asosida hisoblanadi.

Asos sifatida joriy maksimal ombor zaxirasi oli-nadi, chunki u materiallarni navbatdagi ikki etkazib berish intervali o'rtasida ishlab

chiqarish jarayonining uzluksiz-ligini ta’minlaydi. Maksimal joriy zaxira materiallarga bo’lgan o’rtacha kunlik ehtiyoj va navbatdagi ikki mol etkazib berish intervali o’rtasidagi uzunlikning (davomiylikning) ko’paytmasiga teng. Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmining o’sishi joriy ombor zaxirasining oshirilishini talab qiladi. Shuningdek, maksimal joriy zaxira ishlab chiqarishning bir maromdaligini (ritmligini) ta’minlash uchun har doim biroz o’zgartirilishi kerak. Sug’urta zaxirasi rezerv sifatida, odatda, joriy ombor zaxirasining 50% doirasida qabul qilinadi.

Shunday qilib, zaxiraning kunlardagi normasi tran-sport zaxirasi, tayyorlov zaxirasi, texnologik zaxira, joriy ombor zaxirasi va sug’urta zaxiralarining summasiga teng bo’lgan summalar yig’indisidan iborat.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo’yicha aylanma mablag’-larni norma (me’yor)lashtirish buyumlarning guruhlari bo’yicha amalga oshiriladi va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\mathbf{N = X_0 \times U \times K}$$

Bu erlda: **N** - tugallanmagan ishlab chiqarish bo’yicha aylanma mablag’larning normativi;

$\mathbf{X_0}$ - mahsulotni ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar;

U - ishlab chiqarish tsiklining uzoqligi (kunlarda);

K – xarajatlarning o’sib borish (jamlanib borish) koeffitsienti.

Mahsulotni ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar chorak davomida tannarx bo’yicha ishlab chiqa-rilgan tovar mahsuloti qiymatini tegishli chorakdagi 90 kunga bo’lib topiladi.

Ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi (uzoqligi) quyidagilar bilan belgilanadi:

- bevosita ishlov berish jarayoniga tegishli vaqt (texnologik zaxira);
- ishlov beriluvchi buyumlarning ish joylarida joyla-shishi (transport zaxirasi);
- aylanma zaxirasi (ishlov berish operatsiyalari orali-g’idagi vaqtlar);
- sug’urta zaxirasi (uzilishlar sodir bo’ladigan vaziyatlar uchun).

Xarajatlarning o’sib borish (jamlanib borish) koef-fitsienti tugallanmagan ishlab chiqarishdagi buyum o’rtacha tannarxining ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Albatta, zaxiralarni mohirona boshqarish menejment va XYuS ishlab chiarish xodimlaridan inflyatsiyani hisobga olishni, sifat va chiqariladigan tovarning bozorda talabgir ekanligi ustidan uzluksiz nazorat olib borishni, bahosi va iste’mol belgilariga (xususiyatlariga) ko’ra XYuS tomonidan chiqariladigan mahsulotlarning iste’molchilar talabiga qarab o’zgarishini qondirishni talab qiladi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Umumlashtirilgan ko’rinishda asosiy kapital qanday qiymatning bir qismi hisoblanadi?
- XYuSning buxgalteriya balansida asosiy kapital qanday sifatda aks ettiriladi?
- Asosiy kapitalning asosini nimalar tashkil etadi?
- Mehnat va mahsulotni yaratish jarayonida asosiy kapital nimaning qismi sifatida maydonga chiqadi?
- Asosiy kapitalning doiraviy aylanishi unga tegishli bo’lgan qiymatning qanday uch funktsional shakllarida harakat qilishini anglatadi?
- Kapitalning doiraviy aylanishi davomida aylanma kapitaldan farqli o’laroq asosiy kapital qanday o’ziga xos xususiyatlarga ega?
- Ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapitalni buyum-lashgan shakli sifatida nimalar maydonga chiqadi?
- Iqtisodiy mo’ljallanganligiga ko’ra asosiy fondlar qanday manbalardan tashkil topadi?
- Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb nimaga aytiladi?
- Noishlab chiqarish asosiy fondlarining tarkibiga XYuSning qanday mulklari kiradi? Ular bo’yicha amorti-zatsiya hisoblanadimi?
- Asosiy fondlarning tarkibi va ularning aktiv va passiv qismlarini tushuntirib bering.
- Asosiy kapital doiraviy aylanishining samarador-ligini tahlil qilishda qanday omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq?
- Hozirgi paytda amaliyotda amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning asosiy usullari va ularning o’ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

- Chiziqli metod qo’llanilganda bir oy uchun hisoblangan amortizatsiyaning summasi qanday aniqlanadi?
- Nochiziqli metod asosida amortizatsiya normasini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
- Asosiy kapitalning doiraviy aylanish jarayonida vujudga keladigan o’z moliyaviy resurslarining tarkibiga, amortizatsiya fondidan tashqari, yana qanday daromadlar va turli tushilmalar ham kirishi mumkin?
- Asosiy fondlarni shakllantirish uchun jalb qilina-digan pul mablag’larining manbalarini qanday guruhlarga bo’lish mumkin va har bir guruhning tarkibiga nimalar kiradi?
- Asosiy kapitalning doiraviy aylanishi jarayonida ishtirok etadigan moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligi qanday aniqlanadi?
- Asosiy kapitaldan samarali foydalanishni baholashda XYuS moliya-xo’jalik faoliyatining natijaliligini ochib beruvchi qanday umumiy moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkich-lardan foydalanish maqsadga muvofiq?
- Ishlab chiqarishning umumiy rentabelligi ko’rsatkichi qanday aniqlanadi?
- Fond qaytimi va fond sig’imi ko’rsatkichlarini hisob-lash tartiblari qanday?
- Smenalik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
- Asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish koeffitsienti nimani ifodalaydi va u qanday aniqlanadi?
- Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish koeffitsienti nimani anglatadi va u qanday hisoblanadi?
- Asosiy ishlab chiqarish fondlarining chiqish (chiqib ketish) koeffitsienti qanday aniqlanadi?
- Asosiy kapital doiraviy aylanishining samaradorligi nimalarni oldindan aniqlab (belgilab) beradi?
- Aylanma kapital nimani o’zida ifodalaydi va u XYuS balansining qanday nomlangan bo’limida aks ettiriladi?
- Aylanma kapital qanday guruhlarga bo’linadi?
- Aylanma kapital qanday funksiyalarni bajaradi va ularni qanday shakllarda amalga oshiradi?
- Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini uni funk-tsional jihatdan qanday ikki tashkil etuvchi belgilab (aniqlab) beradi?
- Tarkibiy tuzilma jihatidan aylanma kapitalning natural-buyum shakllariga nimalar kiradi?

- Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini tashkil etuvchi muomala fondlarining tarkibini aytib bering.
- Aylanma mablag’lar (kapital)ni shakllantirish va moliyalashtirish manbalari nimalardan iborat?
- Aylanma mablag’lar (kapital)ni shakllantirish va moliyalashtirishning o’z manbalari tarkibiga nimalar kiradi?
- O‘z mablag’lariga tenglashtirilgan manbalarni aytib bering.
- Qarz mablag’lar tarkibiga nimalar kiradi?
- Aylanma kapitalning foydalanish samaradorligini xarakterlovchi umumlashtiruvchi ko’rsatkichlar nimalardan iborat va ular qanday aniqlanadi?
- Sof aylanma kapitalni qanday aniqlash mumkin?
- Sof aylanma kapitalni boshqarishning natijaliligini nima xarakterlab beradi va u qanday aniqlanadi?
- Aylanma mablag’larni boshqarishda ularni likvidlik darajasi bo’yicha strukturizatsiya qilish maqsadlari uchun likvidlilikning qanday ko’rsatkichidan faol foydalani-ladi va ularni aniqlash tartibi qanday?
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanma kapitaldan foydalanishning samaradorligi qanday omillarga bog’liq?
- Aylanma kapitalni norma (me’yor)lashtirish deyilganda nimalar tushuniladi va unga ko’ra aylanma mablag’lar qanday guruhlarga bo’linadi?
- Norma (me’yor)lashtiriladigan aylanma mablag’larning tarkibiga nimalar kiradi?
- Norma (me’yor)lashtirilmaydigan aylanma mablag’lar-ning tarkibi nimalardan iborat?
- Moddiy aylanma mablag’larni rejalashtirishning asosini nima tashkil etadi?
- Aylanma mablag’larni norma (me’yor)lashtirish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
- Ishlab chiqarish zaxiralarining me’yori(normasi) nima-lardan iborat va u, eng avvalo, nimalarga bog’liq?
- Me’yor nimalarga nisbatan o’rnatiladi (belgilanadi)?
- Qandaydir bir resurslarning zaxiralariga avanslash-tiriladigan aylanma mablag’lar normativining formulasi qanday ko’rinishga ega?
- Xususiy normativlar qanday omillarning hisoblanishi natijasida vujudga keladi?

- Yig’ma (jamlangan) normativ qanday hosil bo’ladi?
- Xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning alohida turlari bo’yicha zaxiralarning kunlik (kundagi) normasi qanday zaxiralar summalarini inobatga olib o’rnatiladi (belgilanadi)?
- Transport zaxirasining mazmunini tushuntirib bering.
- Tayyorlov zaxirasi nimalarga bog’liq?
- Texnologik zaxira nima va u qanday normalar asosida hisoblanadi?
- Zaxiraning kunlardagi normasi qanday summalarning yig’indisidan iborat?
- Tugallanmagan ishlab chiqarish bo’yicha aylanma mablag’larni me’yorlashtirish qanday ko’rsatkichlar bo’yicha amalga oshiriladi va u qanday formula yordamida aniqlanadi?
- Ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi (uzoqligi) nimalar bilan belgilanadi?

12-bob. Xo’jalik yurituvchi sub’yektning ishlab chiqarish chiqimlari, foydasi va rentabelligi

Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning xarajatlari: mohiyati, tarkibi, klassifikatsiyalanishi va samaradorligini baholash

“Ishlab chiqarish xarajatlari” va “ishlab chiqarish chiqimlari” tushunchalari (iboralari) bir xil ma’noni anglatmaydi. Bu tushunchalarning ikkinchisi birinchisiga nisbatan kengroq bo’lib, jamiyat nuqtai-nazaridan u jonli va buyumlashgan mehnatning barcha hajmini o’zida mujassam etadi va mahsulotning qiymatiga teng. “Ishlab chiqarish “chiqimlari” tushunchasi, aksariyat hollarda, iqtisodiyotning ma’lum bir sohasi bilan bog’langan (masalan, ishlab chiqarish chiqimlari, muomala chiqimlari va boshqalar).

Ishlab chiqarish chiqimlarini dastlab ikki guruhga bo’lish mumkin:

- aniq yoki amaldagi, haqiqatdagi chiqimlar;
- aniq bo’lmagan chiqimlar.

Aniq yoki amaldagi, haqiqatdagi chiqimlar XYuS tomonidan amalga oshirilgan aniq xarajatlardan – ish haqi, xomashyo va materiallar xarajatlari, ijara uchun to’lov va boshqalardan iborat. Aniq bo’lmagan, almashgan chiqimlar yoki qo’ldan boy berilgan, qo’ldan chiqarilgan imkoniyatlar chiqimlari esa shu bilan bog’liqki, XYuS mahsulot ishlab chiqarish uchun kapitaldan foydalanib, shuning o’zida uning muqobilli foydalanish imkoniyatini qo’ldan chiqaradi. Mablag’larning cheklanganligi ularning foydalilik daraja-siga qarab mavjud imkoniyatlarning variantlaridan foyda-lanishga XYuSni majbur qiladi. Bunda har doim qo’ldan chiqarilgan, boy berilgan foydalar elementlari va demak, aniq bo’lmagan chiqimlar elementlari mavjud bo’ladi. U yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishni davom ettirish yoki uni yanada kengaytirish xususida har qanday boshqaruv qarori aniq va aniq bo’lmagan chiqimlarning hisob-kitobiga asos-lanadi. U yoki bu iqtisodiy qaror o’rtasidagi tanlanish har doim boshqa maqsadlarga erishish uchun ongli ravishda yuqotilgan yoki rad etilgan imkoniyatlarni xarakterlaydi (tavsivlaydi).

“XYuSning xarajatlari” tushunchasi “XYuSning chiqim-lari” tushunchasidan farq qilib, ular bevosita moliyaviy kategoriyalar va birinchi navbatda mahsulot tannarxi bilan uzviy bog’langan. Shuning uchun ham XYuSning xarajatlariga uning mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta’rif berish mumkin: **foyda olish yoki XYuSning boshqa maqsadlariga erishish uchun foydalaniladigan resurslarning pul qiymati XYuSning xarajatlari deyiladi.**

“Xarajatlar” tushunchasi “tannarx” tushunchasiga nisbatan kengroq hisoblanadi. Chunki tannarx umumiy xarajatlarning bir qismini (oddiy takror ishlab chiqarish xarajatlarini) o’zida aks ettiradi.

Mahsulot (ish va xizmat) tannarxi mahsulot (ish va xizmat)ni ishlab chiqarish (ko'rsatish) jarayonida foyda-laniladigan xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari va ularni ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilish boshqa xarajatlarining qiymatiy bahosidan iborat. Amaliyotda "mahsulotning umumiy tannarxi" va "mahsulot birligining tannarxi" tushunchalari mavjud.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida (sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, qurilish va b.) ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxi tarkibiga xarajat-larni aks ettirish (kiritish)ning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Tannarxga kiritiladigan xarajatlarning tarkibi, bir tomondan, hayotga tatbiq etilayotgan soliq siyosatiga va ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning ahvoli (holati) va tarkibiy tuzilishiga bog'liq.

XYuS faoliyatining shart-sharoitlari va yo'nalishlariga bog'liq ravishda xarajatlar quyidagi ikki yirik guruhga bo'linadi:

- ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- sotishdan tashqari xarajatlar;

Ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajat-lar tarkibiga, odatda, quyidagilar kiritiladi:

- mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va etkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish, tovar (ish, xizmat, mulkiy huquq)larni sotib olish va sotish xarajatlari;
- asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni saqlash va ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, shuningdek, ularni tuzatilgan holatda saqlab turish xara-jatlari;
- tabiiy resurslarni o'zlashtirish xarajatlari;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanma-lari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- majburiy va ixtiyoriy sug'urta xarajatlari;
- ishlab chiqarish va realizatsiya bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Yuqoridagilardan tashqari bu xarajatlar yana quyida-gicha guruhlanishi mumkin:

- moddiy xarajatlar;
- mehnat haqi xarajatlari;
- hisoblangan amortizatsiya summalari;
- boshqa xarajatlar.

XYuS umumiy xarajatlarining summasidan iborat bo'l-gan ishlab chiqarish tannarxining tarkibiga quyidagilar kiradi:

- moddiy xarajatlar;
- amortizatsiya ajratmalari;
- mehnatga haq to’lash xarajatlari;
- ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining o’zgarishi va boshqa xarajatlar;
- kelgusi davr xarajatlari;
- kelgusi xarajatlar va to’lovlar rezervlari;
- va boshqalar.

Sotishdan tashqari xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog’liq bo’lmaydi.

Resurslarning samarali boshqaruvchanligini ta’min-lash uchun mahsulotning tannarxi XYuSning alohida olingan bo’linmalari bo’yicha hisoblanadi. U o’z ichiga shu bo’linma-ning xarajatlarini olib, ma’lum davr uchun XYuS xara-jatlarining rejali hisobini, ya’ni byudjetini (smetasini) tuzish uchun asos bo’ladi.

XYuSning barcha xarajatlarini turli yo’nalishlar bo’yicha (u yoki bu klassifikatsiyaning asosida nima qo’yilgan-ligiga bog’liq ravishda) tasniflash (klassifikatsiya qilish, turkumlarga ajratish) mumkin. Odatda, xarajatlarning klas-sifikatsiyasi ularning quyidagi belgilar bo’yicha tasnif-lashni o’z ichiga oladi:

- ishlab chiqarishning hajmiga nisbatan;
- iqtisodiy elementlariga ko’ra;
- kalkulyatsiya moddalari bo’yicha;
- mahsulot tannarxiga o’tkazilish usuliga muvofiq;
- davlat tomonidan tartibga solinish darajasiga qarab;
- va boshqalar.

Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan xarajatlar quyidagi guruhlarga klassifikatsiya qilinadi:

- doimiy (o’zgarmaydigan) xarajatlar;
- o’zgaruvchan xarajatlar.

Doimiy (o’zgarmaydigan) xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog’liq bo’lmaydi. Bu xarajatlar, hatto XYuS ishlamay turgan hollarda ham yoki uning tashkil qilinish davrida ham mavjud bo’ladi. Bunday xarajatlarning qato-riga o’z asosiy fondlarining amortizatsiyasi, binolarning ijarasi, ma’muriyat va xizmat ko’rsatuvchi xodimlarga ish haqi, soliqlarning ayrim ko’rinishlari va boshqalar kiradi.

O‘zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga nisbatan proportsional ravishda o’zgaradi. Bunday xarajat-larning tarkibi

xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, texnologik ehtiyojlar uchun yoqilg'i va energiya, asosiy ishchilarning ish haqlari va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan iborat.

Bir vaqtning o'zida XYuS xarajatlarining doimiy (o'zgarmaydigan) xarajatlar va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linishi shartli xarakterga ega. Buning sababi shundaki, uzoq vaqt davomida XYuSning barcha xarajatlari o'zgaradi. Shuning uchun ham ular ko'p hollarda shartli-doimiy (shartli-o'zgarmaydigan) va shartli-o'zgaruvchan xarajatlar deb yuriti-ladi. Xarajatlarning bunday bo'linishidan zarar (ziyon)siz-lik tahlil qilinganda, ishlab chiqariladigan mahsulotning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirishda va moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish (o'tkazish)da foydala-niladi. Doimiy (o'zgarmaydigan) xarajatlar va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisi mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarining umumiy summasini tashkil etadi.

Iqtisodiy elementlariga ko'ra xarajatlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

a) moddiy xarajatlar:
- xomashyo va materiallar;
- sotib olingan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- yoqilg'i;
- texnologik maqsadlar uchun elektroenergiya;
- va boshqalar.

b) mehnat haqi xarajatlari;

v) tasdiqlangan yagon ijtimoiy soliq stavkasiga muvo-fiq ravishda ish haqi fondiga hisoblashlar;

g) asosiy vositalarning amortizatsiyasi;

d) boshqa xarajatlar:
- ijara haqi;
- majburiy sug'urta to'lovlari;
- tannarx tarkibiga kiritiladigan soliqlar;
- va boshqalar.

Iqtisodiy elementlar xarajatlarning bir xil ko'ri-nishlari bo'lib, ular mahsulotni ishlab chiqarish va rea-lizatsiya qilishda aniq bir rolni o'ynaydi. Xarajatlarning iqtisodiy elementlarga bo'linishidan mahsulot barcha hajmini ishlab chiqarish xarajatlarining smetasini tuzish-da foydalaniladi. Tannarxning elementli tarkibiy tuzil-masi xarajatlar u yoki bu ko'rinishi salmog'iga bog'liq ravishda sanoatning tarmoqlari bo'yicha farqlanadi. Agar moddiy (material) sig'imli

tarmoqlarda mahsulot tannar-xining tarkibida moddiy xarajatlar hal qiluvchi o’rinni egallasa, mehnat sig’imli tarmoqlarda esa asosiy hissa mehnat haqiga to’g’ri keladi. Energiya sig’imli tarmoqlar ham mavjud bo’lib, ularning tannarxida energetika resurs-larining xarajat-lari (rangli metallurgiya, ximiya sanoati, engil metallarni ishlab chiqarish) katta salmoqni egal-laydi. O‘z navbatida, fond sig’imli tarmoqlarda katta salmoq asosiy fondlarning amortizatsiyasi va ularni saqlash bilan bog’liq bo’lgan xarajatlarga to’g’ri keladi.

Kalkulyatsiya moddalari bo’yicha xarajatlar quyidagi guruhlarga bo’linadi:

- xomashyo va materiallar;
- qaytariluvchi chiqindilar;
- texnologik maqsadlar uchun yoqilg’i va energiya;
- asosiy ishlab chiqarish ishchilarining asosiy va qo’shimcha ish haqlari;
- yagona ijtimoiy soliqqa hisoblashlar;
- mashina va dastgohlarni saqlash xarajatlari;
- umumishlab chiqarish xarajatlari;
- umumxo’jalik xarajatlari;
- boshqa ishlab chiqarish xarajatlari;
- tijorat xarajatlari.

Xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo’yicha (klas-sifikatsiya qilinishi) mahsulotlarning alohida turlari bo’yicha uning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu belgiga ko’ra XYuSlarning xarajatlari ikkiga bo’linadi:

- to’g’ri (bevosita) xarajatlar;
- egri (bilvosita) xarajatlar.

To’g’ri (bevosita) xarajatlarga mahsulotning aniq bir turini ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlar kiradi. Ular shu mahsulotning tannarxiga bevosita kiri-tiladi. Masalan, xomashyo, asosiy material xarajatlari, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va mahsulotning ma’lum bir turi bo’yicha butlovchi buyumlar bilan bog’liq bo’lgan xarajatlar ana shunday xarajatlar hisoblanadi. Egri (bilvosita) xarajatlar butun XYuSda ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish yoki mahsulotlarning bir necha turlarini ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’ladi. Masalan, binolar va dastgohlarni saqlash, ularni ta’mirlash xarajatlari, boshqaruv apparatiga tegishli bo’lgan ish haqi xarajatlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bu xarajatlar konkret turdagi buyumlarning tannarxiga qanday-dir bir shartli asosga ko’ra proportsional ravishda, ko’p hollarda, to’g’ri

(bevosita) xarajatlarga nisbatan to'g'ri proportsional ravishda kiritiladi.

Davlat tomonidan tartibga solinish darajasiga qarab xarajatlar ikkiga bo'linadi:

- norma (me'yor)lashtiriladigan xarajatlar;
- norma (me'yor)lashtirilmaydigan xarajatlar.

Xarajatlarning bunday bo'linishi, odatda, soliqqa tortish sohasida tegishli qaror qabul qilinayotgan paytda qo'llaniladi. Norma (me'yor)lashtiriladigan xarajatlarga soliqqa tortiladigan foydani hisoblash maqsadida o'rna-tilgan (belgilangan) norma (me'yor)lar doirasidagi xara-jatlar kiradi.

Chiqimlarni kamaytirish XYuS ishi samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Odatda, chiqimlarni kamaytirishning quyidagi asosiy yo'l-lari ajratilib ko'rsatiladi:

- resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalarni qo'llash;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish sifatini yaxshilash;
- kadrlarning malakaviy darajasini oshirish;
- XYuS taraqqiyotining strategik maqsadlarini asoslash va qabul qilingan strategiyani aniq ijro etish;
- XYuSni boshqarish texnikasi va texnologiyasini tako-millashtirish, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta'minlash;
- xomashyo va material xarajatlarining salmog'ini pasaytirish, ta'minlovchi xizmatlarning uzluksiz ishlashiga erishish;
- marketing xizmatining samarali ishlashi, XYuSning marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- XYuSdagi yo'qotmalarning barcha ko'rinishlarini qisqar-tirish, chiqindilar, ikkilamchi materiallar va energore-surslardan, yo'lovchi mahsulotlardan va h.k.lardan foyda-lanish.

XYuS xarajatlarini tahlil qilish uchun asos bo'lib byudjet tuzish (smetalarni ishlab chiqish, xarajatlarni rejalashtirish va farqlanishni nazorat qilish) xizmat qiladi. Bu xarajatlarni qisqartirishdagi uzilishlarni amalga oshirish bo'yicha XYuS turli bo'linmalarining hara-katini aniqlashga imkon beradi, bu ishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlaydi.

Moddiy xarajatlar (FIFO, LIFO, qiymatning o'rtacha tor-tiluvchanligiga ko'ra baholash), mehnat xarajatlari, amor-tizatsiya

ajratmalari va ularning boshqa ko'rinishlarini hisoblash metodikasi tahlil jarayonida muhim tarkibiy qism sifatida maydonga chiqadi.

XYuS xarajatlarini samarali boshqarish uchun zarur bo'ladigan yuqorida bayon etilgan tarkibiy qismlardan (rejalashtirish, hisob-kitob metodlari, byudjetlashtirish, tahlil) tashqari yana boshqaruv hisobini ham ta'kidlab o'tish kerakki, uni yo'lga qo'ymasdan turib, xarajatlarni samarali boshqarishning iloji yo'q. Boshqaruv hisobi xarajatlarning doimiy (o'zgarmaydigan) va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linishiga, XYuSning xo'jalik yuritish sharoitlariga bog'liq ravishda ularning xususiyatlariga asoslanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish XYuSning mol etkazib beruvchilar bilan munosabatlarini rivojlantirish va optimallashtirish (oqilonalashtirish) bo'yicha rejali ishiga, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishiga, iste'molchilarning talablariga va ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga javob beradigan harakatchan ishlab chiqarishni yaratishiga bog'liq.

12.2. Foyda, uni shakllantirish va undan foydalanish

XYuSning barcha moliyaviy resurslari o'z mablag'lari hisobidan, moliya va kredit bozorlaridan jalb qilinadigan resurslar hisobidan, uzoq va qisqa muddatli kreditlar hamda kreditorlik qarzlaridan iborat bo'lgan qarz mablag'-lari ko'rinishidagi resurslardan tashkil topadi.

XYuSning o'z mablag'lari quyidagilar manbalar hisobi-dan shakllanadi:

- mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum;
- moliyaviy operatsiyalardan keladigan daromadlar;
- investitsion faoliyatdan olingan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Shuningdek, o'z faoliyati hisobidan pullarning kelib tushishi amortizatsiya ajratmalari, chiqib ketgan mol-mulkni sotish, maqsadli tushilmalar, qurilishda ichki resurslarni mobilizatsiya qilish, XYuS ishtirokchilarining a'zolik va boshqa badallarining kelib tushishi hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy bozordan jalb qilinadigan resurslar aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va sotilishi natijasida va shuningdek, kreditlar hisobidan shakllanadi.

Qayta taqsimlash tartibida olinadigan tushilmalarga sug'urta qoplamalari, xoldinglar, assotsiatsiyalar yoki boshqa tarmoq tuzilmalaridan kelib tushadigan moliyaviy resurs-lar kiradi.

Investitsion faoliyatdan resurslar XYuSga qimmatli qog'ozlar, boshqa XYuSlarga hissali ishtirok etishdan va h.k.lardan olinadigan dividendlar va foizlar ko'rinishida kelib tushadi.

Yuqoridagi barcha manbalar hisobidan XYuSning xara-jatlari amalga oshiriladi.

XYuSning daromadlari va xarajatlari, uning byudjet va byudjetdan tashqari davlat maxsus fondlari bilan o'zaro aloqalari choraklarga bo'lingan tarzda tegishli yil uchun tuziladigan moliyaviy rejada o'z aksini topadi. Moliyaviy reja XYuS moliyaviy faoliyatining tashkil qilinishi va uning natijasi hisoblangan foydani aks ettiruvchi asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyotda hamma vaqt ham foydaning mazmuni bir xil tarzda ifodalanaverilmaydi. Odatda, foyda deganda XYuS, firma, korporatsiyalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'-ektlar ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining umumlashti-rilgan tarzda baholovchi ko'rsatkich, daromadning mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar ustidan oshgan qismi tushuniladi.

Amaliy faoliyatda esa "foyda"ning barcha tushuncha-larini quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

- realizatsiya qilinadigan tovar (xizmat)lar sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasi-dagi farq sifatida aniqlanadigan foyda;
- sof aktivlarning yil oxiridagi va yil boshidagi miqdorlarining farqi sifatida aniqlanadigan faoliyat-ning ayrim davriga tegishli bo'lgan foyda (uning kapital-lashtirilganligi);
- foydani kapitaldan olingan daromad sifatida tushu-nish.

Foydaning mazmunini aniqlashga bo'lgan yondoshuvning turlicha ekanligidan kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan hisobot ma'lumotlarining standart paketlariga qarab turib, uning miqdori to'g'risida aniq bir fikrni aytishning hamma vaqt ham iloji yo'q.

Faoliyatning moliyaviy natijalarini tahlil qilishda XYuSlar, ko'p hollarda, foydaning quyidagi ko'rinishlariga (tushunchalariga) tayanadi:

- asos foyda;
- balans foyda;

- sof foyda yoki sof daromad.

Asos foyda deyilganda hisobot davrida kutilayotgan foyda tushuniladi. Bu ko’rsatkich asos rentabellikni hisoblashda, nomenklatura pozitsiyalari bo’yicha miqdor va tannarx aniq ma’lum bo’lmagan paytda keng assortimentli buyumlar tayyorlovchi XYuSlar, birlashmalar bo’yicha rejalashtirilayotgan yil uchun foyda analitik metodda aniqlanayotganda qo’llaniladi.

Balans foyda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatning barcha turlari bo’yicha olingan foydaning umumiy summasidan iborat.

Sof foyda yoki sof daromad operatsion davr mobaynida olingan tushumdan barcha chegirmalar va xarajatlar chiqarilganidan so’ng vujudga keladi. Ma’lum bir miqdorda sof foydaning (netto-foydaning) olinishiga erishilsagina tadbirkorlik jarayonini amalga oshirish o’zining mazmuniga ega bo’ladi.

Hisobotlarda foyda quyidagi ko’rinishlarda aks ettirilishi mumkin:

- yalpi foyda;
- operatsion foyda;
- sof foyda.

XYuSlar faoliyatining umumiy moliyaviy natijalari foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotda o’z aksini topadi. Bu hisobot moliyaviy tahlil uchun zarur bo’lgan quyidagi muhim ma’lumotlarni o’zida namoyon etadi:

- mahsulotni sotishdan olingan tushum summasi;
- soliqqa tortilgunga qadar foyda summasi;
- foydadan olinadigan soliq summasi;
- XYuSning ixtiyorida qoldiriladigan foyda (sof foyda yoki foyda-netto) summasi.

Foydani tahlil qilish uchun ayrim ko’rsatkichlar yuqoridagi hisobotda mavjud bo’lmaganligi uchun ba’zi bir analitik indikatorlar qo’shimcha tarzda hisoblanmog’i lozim. Bundan tashqari bu jarayonda XYuS faoliyatiga ichki va tashqi omillarning hamda soliq omilining ta’sirini alohida-alohida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo’lish juda zarur. Shuningdek, tahlil uchun qulay shaklda har qanday ma’lu-motni operativ ravishda olish ham muhim hisoblanadi.

Foydani tahlil qilishda uni shakllantirishning turli manbalarini hisobga olish kerak. Bu manbalarning ma’lum bir qismi foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotda ifodalangan, u yerda ular, birinchidan, faoliyatning odatdagi ko’rinishi bo’yicha daromadlar va xarajatlar,

ikkinchidan esa, boshqa daromadlar va xarajatlar sifatida guruhlashtiriladi.

Faoliyatning odatdagi ko'rinishi bo'yicha daromadlar va xarajatlar quyidagi tarzda hisoblanadi: eng avvalo, sotilgan tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlardan (qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar va shularga o'xshash majburiy to'lovlar chegirilgan) olingan tushum va ularning tannarxi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lgan yalpi foyda aniqlanadi.

Yalpi foydadan tijorat va boshqaruv xarajatlari chegirilsa, sotuvdan olingan foyda paydo bo'ladiki, u faoliyatning odatdagi ko'rinishidan foydani xarakterlaydi. Undan so'ng boshqa daromadlar va xarajatlarni hisobga olgan holda soliqqa tortilguncha foyda hisoblanadi. Odatda, boshqa daromadlar va xarajatlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- olinishi lozim bo'lgan foizlar;
- to'lanishi lozim bo'lgan foizlar;
- boshqa tashkilotlarning faoliyatida ishtirok etishdan olingan daromadlar;
- boshqa operatsion daromadlar;
- realizatsiyadan tashqaridagi daromadlar;
- realizatsiyadan tashqaridagi xarajatlar.

Foydani tahlil qilishning asosiy maqsadi hisobot davri davomidagi XYuS faoliyatining samaradorligini ko'rsatishdan iborat. Buxgalteriya hisobi XYuSning daro-madlari va xarajatlari, shuningdek, uning sof moliyaviy natijasi – sof foyda – to'g'risida ma'lumot olishga imkon beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, soliqqa tortilgunga qadar foydaning summasi aniqlanganidan so'ng uning miq-dori (summasi) soliq qonunchiligiga muvofiq korrektirovka qilishi va foyda hisobidan qoplanadigan soliqlarning summasi chegirilmog'i lozim.

Yalpi foyda, sotuvdan olingan foyda, soliqqa tortil-gunga qadar bo'lgan foyda va nihoyat, sof foydani formu-lada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$$\mathbf{YaF}_{к} = \mathbf{T}_{р} - \mathbf{T}_{т}$$

Bu yerda: $\mathbf{YaF}_{к}$ - XYuSning yalpi foydasi;

$\mathbf{T}_{р}$ - tovarlar, mahsulotlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum;

T_m - sotilgan tovarlar, mahsulotlar va xizmatlarning tannarxi.

$$SOF_к = YaF_к - TX - BX$$

Bu yerda: $SOF_к$ - XYuSning sotuvdan olgan foydasi;
$YaF_к$ - XYuSning yalpi foydasi;
TX - tijoriy xaraxatlar;
BX - boshqaruv xarajatlari.

$$STF_к = SOF_к + BD - BX$$

Bu yerda: $STF_к$ - soliqqa tortilgunga qadar XYuSning foydasi;
$SOF_к$ - XYuSning sotuvdan olgan foydasi;
BD - boshqa daromadlar;
BX - boshqa xarajatlar.

$$SF_к = STF_к - FOS$$

Bu yerda: $SF_к$ - XYuSning sof foydasi;
$STF_к$ - soliqqa tortilgunga qadar XYuSning foydasi;
FOS - foydadan olingan soliq.

Foydadan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lan-ganidan so'ng uning qolgan qismi XYuS tomonidan mustaqil ravishda taqsimlanadi va foydalaniladi. Foydaning bu qismi investitsion, ishlab chiqarish va sotsial xaraktyerdagi ehtiyojlarga sarflanishi mumkin. Uni taqsimlash jara-yonida, albatta, XYuSning investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji hisobga olinmog'i lozim. Shuning uchun ham bozor kon'yunk-turasini hisobga olgan holda foydadan ishlab chiqarishni rivojlantirish fondiga ajratmalarning miqdori aniqla-nadi va ular kapital qo'yilmalar, aylanma mablag'larni ko'paytirish, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishla-rini ta'minlash, yangi texnologiyalarni joriy etish uchun foydalaniladi.

Foyda hisobidan rezerv fondi ham shakllantiriladi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik tavakkalchiliklarining darajasi keskin oshadi. Bu fond har yillik ajratmalar hisobidan tashkil qilinadi.

Ajrat-malarning miqdori esa XYuSning ta’sis hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

12.3. Rentabellik va uni oshirish yo’llari

XYuSning foydalilik darajasini aniqlash uchun renta-bellik ko’rsatkichlaridan foydalaniladi. Ular olingan foyda summasining sarf qilingan mablag’larga yoki sotilgan mahsulotning hajmiga nisbati bilan aniqlanadi.

Moliyaviy tahlil jarayonida rentabellikning quyidagi ko’rsatkichlaridan tez-tez foydalaniladi:

- sotuv (sotish) rentabelligi;
- o’z kapitalining rentabelligi;
- aylanma aktivlarning rentabelligi;
- aylanmadan tashqaridagi aktivlarning rentabelligi;
- investitsiyalarning rentabelligi.

Sotuv (sotish) rentabelligi XYuS sotuvi (sotishi)ning hajmida sof foydaning salmog’ini ko’rsatadi va uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\mathbf{K}_{pc} = (\mathbf{SF}_{к} : \mathbf{SH}) \times 100\%$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{pc}$ **-** sotuv (sotish) rentabelligi;

$\mathbf{SF}_{к}$ **-** XYuSning sof foydasi;

SH - XYuSning sotuv (sotish) hajmi.

O‘z kapitalining rentabelligi XYuSning egalari tomo-nidan investitsiya qilingan kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Odatda bu ko’rsatkich mablag’larning boshqa XYuSlarga, qimmatli qog’ozlarga va depozitlarga qo’yilishi imkoniyati bilan taqqoslanadi. Bu ko’rsatkich kompaniyaning egalari tomonidan XYuS qo’yilgan (joylashtirilgan) har bir birlik sof foydaning qancha pulli birligini “ishlaganligini” ko’rsa-tadi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\mathbf{K}_{рук} = (\mathbf{SF}_{к} : \mathbf{O‘K}_{к}) \times 100\%$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{рук}$ **-** XYuS o’zlik kapitalining rentabelligi;

$\mathbf{SF}_{к}$ **-** XYuSning sof foydasi;

O‘K$_{к}$ **-** XYuSning o’z kapitali.

Aylanma aktivlarning rentabelligi aylanma mablag’-lardan foydalanish samaradorligini ochib beradi va uni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\mathbf{K}_{рам} = \mathbf{SF}_{к} : \mathbf{JA}_{к}$$

Bu yerda: **K**$_{рам}$ **-** XYuS aylanma aktivlarining rentabelligi;
SF$_{к}$ **-** XYuSning sof foydasi;
JA$_{к}$ **-** XYuSning joriy (yillik o’rtacha) aktivlari.

Aylanmadan tashqaridagi aktivlarning rentabelligi ko’rsatkichi kompaniyaning asosiy kapitaliga nisbatan XYuSning etarli foyda hajmini ta’minlash qobiliyatini aks ettiradi. Uni formula yordamida quyidagicha ifodalasa bo’ladi:

$$\mathbf{K}_{рата} = (\mathbf{SF}_{к} : \mathbf{UMA}_{к}) \times 100\%$$

Bu yerda: **K**$_{рата}$ **-** XYuS aylanmadan tashqari aktivlarining rentabelligi;
SF$_{к}$ **-** XYuSning sof foydasi;
UMA$_{к}$ **-** XYuSning uzoq muddatli (yillik o’rtacha) aktivlari.

Investitsiyalarning rentabelligi koeffitsienti XYuS raqobatbardoshligi va innovatsionligining eng muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. Uni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$\mathbf{K}_{ри} = \mathbf{SF}_{к} : (\mathbf{O‘K} + \mathbf{UMM}) \times 100\%$$

Bu yerda: **K**$_{ри}$ **-** XYuS investitsiyalarining rentabelligi;
SF$_{к}$ **-** XYuSning sof foydasi;
O‘K **-** XYuSning o’z kapitali;
UMM **-** XYuSning uzoq muddatli

majburiyatlari.

Rentabellikni oshirish yo'nalishlari omillarning quyi-dagi guruhlari bilan bog'liq:

- foyda summasini ko'paytirish;
- xarajatlarning darajasini va foydani olish uchun resurslarni kamaytirish.

Bu yo'nalishlar har bir XYuSda konkretlashtirilishi va rentabellikni oshirishning rezervlarini qidirib topish va ulardan foydalanish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- "Ishlab chiqarish xarajatlari" va "ishlab chiqarish chiqimlari" tushunchalari bir xil ma'noni anglatadimi? Ularning farqli jihatlari nimalardan iborat?
- Ishlab chiqarish chiqimlarini qanday guruhlarga bo'lish mumkin va ular qanday nomlanadi?
- Aniq yoki amaldagi, haqiqatdagi chiqimlar qanday xara-jatlarni o'z ichiga oladi?
- Aniq bo'lmagan, almashgan chiqimlar yoki qo'ldan boy berilgan, qo'ldan chiqarilgan imkoniyatlar chiqimlari nima-lardan iborat?
- XYuSning xarajatlariga uning mohiyatini ifodalovchi qanday ta'rif berish mumkin?
- "Xarajatlar" tushunchasi "tannarx" tushunchasidan qanday farqlanadi?
- XYuS faoliyatining shart-sharoitlari va yo'nalishlariga bog'liq ravishda xarajatlar qanday guruhlarga bo'linadi?
- Ishlab chiqarish va realizatsiya bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
- Ishlab chiqarish va realizatsiya bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar qanday tasniflanishi (klassifikatsiya qili-nishi) mumkin?
- XYuS umumiy xarajatlarining summasidan iborat bo'l-gan ishlab chiqarish tannarxining tarkibiga nimalar kiradi?
- Xarajatlarning klassifikatsiyasi ularning qanday belgilar bo'yicha guruhlarga ajratilishini o'z ichiga oladi?
- Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan xarajatlar qanday guruhlarga klassifikatsiya qilinadi va ularning mazmuni nimalardan iborat?
- Iqtisodiy elementlariga ko'ra xarajatlarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin va ularning tarkibiga nimalar kiradi?

- Kalkulyatsiya moddalari bo’yicha xarajatlar nimalarga bo’linishi mumkin?
- To’g’ri (bevosita) xarajatlar va egri (bilvosita) xara-jatlarning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlari nimalardan iborat?
- Davlat tomonidan tartibga solinish darajasiga qarab xarajatlar qanday xarajatlarga bo’linadi?
- Chiqimlarni kamaytirishning qanday asosiy yo’llari mavjud?
- XYuSning barcha moliyaviy resurslari qanday resurs-lardan tashkil topadi?
- XYuSning o’z mablag’lari nimalar hisobidan shakl-lanadi?
- Moliyaviy bozordan jalb qilinadigan resurslarga nimalar kiradi?
- Qayta taqsimlash tartibida olinadigan tushilmalarning tarkibini aytib bering.
- Investitsion faoliyatdan resurslar XYuSga qanday ko’rinishlarda kelib tushadi?
- Amaliyotda hamma vaqt ham foydaning mohiyati bir xil tarzda ifodalanaveriladimi va foyda deganda nima tushuniladi?
- Amaliy faoliyatda “foyda”ning barcha tushunchalarini qanday guruhlarga bo’lish mumkin?
- Faoliyatning moliyaviy natijalarini tahlil qilishda XYuSlar, ko’p hollarda, foydaning qanday ko’rinishlariga (tushunchalariga) tayanadi?
- Asos foyda deyilganda qanday foyda tushuniladi?
- Balans foyda nimadan iborat?
- Sof foyda yoki sof daromad qachon vujudga kelishi mumkin?
- Hisobotlarda foyda qanday ko’rinishlarda aks etti-riladi?
- XYuSlar faoliyatining umumiy moliyaviy natijalari qanday hisobotda o’z aksini topadi va unda moliyaviy tahlil uchun zarur bo’lgan qanday muhim ma’lumotlar mujas-samlashgan?
- Faoliyatning odatdagi ko’rinishi bo’yicha daromadlar va xarajatlar qanday tarzda hisoblanadi?
- Boshqa daromadlar va xarajatlar nimalardan iborat bo’ladi?
- Foydani tahlil qilishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
- Yalpi foyda, sotuvdan olingan foyda, soliqqa tortil-gunga qadar bo’lgan foyda va sof foyda qanday aniqlanadi?
- Foydaning taqsimlanish tartibi qanday?
- Rentabellik ko’rsatkichi o’zida nimani ifodalaydi va u qanday aniqlanadi?

- Moliyaviy tahlil jarayonida rentabellikning qanday ko’rsatkichlaridan foydalaniladi?
- Sotuv (sotish) rentabelligi qanday aniqlanadi?
- O‘z kapitalining rentabelliginin aniqlash tartibi qanday?
- Aylanma aktivlarning rentabelligi qanday aniqla-nadi?
- Aylanmadan tashqaridagi aktivlarning rentabelligi o’zida nimani aks ettiradi?
- Investitsiyalarning rentabelligi koeffitsienti qanday hisoblanadi?
- Rentabellikni oshirish yo’nalishlari omillarning qanday guruhlari bilan bog’liq?

13-bob. Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning baho siyosati va baholarni shakllantirish asoslari, marketing strategiyasining moliyaviy jihatlari

13.1. Baholarni shakllantirishning ob’yektiv asoslari

Baho mohiyat jihatidan qiymatning puldagi ifodasi hisoblanadi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida tovarning individual qiymati uning ijtimoiy qiymatiga aylanadi va uning miqdori mehnatning ijtimoiy zaruriy xarajatlari darajasi bilan aniqlanadi. Bozor qiymati, ijtimoiy qiy-matdan farqli o’laroq, faqatgina tovarni ishlab chiqarish darajasi bilan emas, balki uni sotish shartlari bilan ham belgilanadi.

Bozor sharoitida mehnatning ijtimoiy zaruriy xara-jatlari va ijtimoiy foydalilik taqqoslanadi, ijtimoiy ishlab chiqarishning hajmi va tarkibiy tuzilmasining ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq (mos) kelishi aniqlanadi. Faqat ijtimoiy ehtiyoj va ijtimoiy foydalilik doirasi-dagina xarajatlar ijtimoiy zarur deb e’tirof etilishi mumkin. Shu munosabat bilan qiymat hosil bo’lishining iqtisodiy chegaralarini shakllantirish ijtimoiy foyda-lilikning funksiyasiga aylanadi.

Demak, bahoning asosi sifatida maydonga chiqadigan ijtimoiy zaruriy xarajatlar va qiymat murakkab jarayon natijasida vujudga keladi, o’zlariga turli-tuman sharoit va jarayonlarlarning ta’sirini sinab

ko’radi. Shunga mos ravishda bahoning modeli ham oddiy yoki bir xil bo’lishi mumkin emas.

Tovarlar har doim qiymat va iste’mol qiymatining o’zaro yaxlitligidan iborat. Tovarning iste’mol qiymatini tovarning qandaydir bir ehtiyojni qondirish qobiliyati sifatida tushunish qabul qilingan. Bozor sharoitida ishlab chiqarish sotib oluvchilarning talablarini qondirish maqsadida iste’mol va buning natijasida tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan foyda olish uchun amalga oshiriladi. Demak, past iste’mol qiymatiga ega bo’lgan tovarlar past qiymatga ega bo’ladi va aksincha, yuqori darajadagi iste’mol qiymati qiymatning ham yuqori darajada bo’lishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham bahoni aniqlashda faqat tegishli ne’matni ishlab chiqarish xarajatlarini inobatga olib qolmasdan, balki tovarning sifati orqali namoyon bo’ladigan uning iste’mol qiymatini, uning foydaliligini ham hisobga olmoq lozim. Bundan baho bozor mexanizmining pulda ifodalangan muhim elementidir, degan xulosa kelib chiqadi.

Baho yordamida mol etkazib beruvchi va iste’molchi foydalanayotgan resurslarning hajmi ifodalanadi, ular bir resurs bilan ta’minlanadi, bir vaqtning o’zida ikkinchi resursni oladi, buning natijasida resurslarning foydaliligi oshadi. Shunday qilib, baho kerakli mahsulot yoki xizmatga ega bo’lish uchun kishi berishi lozim bo’lgan resurslarning miqdoridir. Bahoning ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlariga yaqinlashishini ta’minlovchi modeli ana shundan iborat. Yuqorida bayon qilingan holatlarga asoslanib vujudga keltirilgan baho o’ziga tegishli bo’lgan funksiyalarni bozor iqtisodiyotida yaxshi bajaradi.

Eng avvalo, baho yordamida barcha tovarlarning yoki tovar birligining hajm, dona va og’irlik birliklaridagi qiymati pul birliklarida o’lchanadi. Pulli ekvivalentning mavjud ekanligi bahoga miqdor va son shakllaridagi tovar qiymatini ifodalovchi yoki o’lchovchi sifatida maydonga chiqishga imkon beradi. Bir vaqtning o’zida baho pulda ifodalangan turli tovar qiymatlarining o’lchovchisi hamdir. Ko’rilayotgan ana shu sifatda baho umumiqtisodiy samara-dorlikning eng muhim ko’rsatkichlaridan biri sanaladi, xo’jalik qarorlarini qabul qilish uchun mo’ljal, bashorat-lashning muhim vositasi bo’lib xizmat qiladi. Yuqorida-gilarning barchasi bahoning **o’lchov(chilik) funksiyasi**dan darak beradi.

Ma’lum ma’noda, bahoning **hisob-nazorat funksiyasi** uning o’lchov(chilik) funksiyasining o’ziga xos bo’lgan “qo’shni”si hisoblanadi va qisman uning tarkibiga kiradi. Baho, milliy boylikning buyumlashgan va moddiy o’lchamlarini qiymat va demak, moliyaviy

o’lchamlarga aylantirib, qiymatning fuqa-rolarda, ularning oilalarida, XYuSlarda, tarmoqlarda, umuman iqtisodiyotda, qishloq, shahar, tuman, viloyat va mamlakat bo’yicha saqlanishi, jamg’arilishi va harakat etishi ustidan hisob va nazoratni olib borishning instrumenti bo’lib xizmat qiladi.

Bahoning **taqsimlash funksiyasi** uning qiymatdan farqlanishi imkoniyati bilan xarakterlanadi. Masalan, engil avtomobillarga bo’lgan bahoning yuqoriligi aholi ma’lum bir qatlamlarining mablag’larini ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun qayta taqsimlashga imkon beradi. Ba’zi bir tovarlarga nisbatan baholarning past darajasi esa (masalan, bolalar va keksa yoshdagi qariyalarga mo’ljallangan tovarlar) ana shunday sotib oluvchi (iste’-molchi)lar foydasiga mablag’larning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bir tomondan, mamlakatda sanoat ishlab chiqarish xarakteriga ega bo’lgan ko’plab tovarlarga nisbatan baholarning erkinlashtirilishi va ikkinchi tomondan, bir necha qishloq xo’jaligi mahsulotlariga nisbatan baholarning davlat tomonidan tartibga solinishi qishloq xo’jaligiga tegishli bo’lgan daromadlar bir qismining sanoatning ayrim tarmoqlari foydasiga qayta taqsimlanishiga imkon beradi. Shunday qilib, demak, ulgurji baholarni oshirish yoki pasaytirish orqali tarmoqlar, XYuSlar, mintaqalar, ijti-moiy guruhlar va oilalarning daromadlari va foydasini qayta taqsimlash mumkin.

Aynan bahoning **tartibga solish funksiyasi** orqali bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish va iste’mol, taklif va talab o’rtasida aloqa o’rnatiladi (amalga oshiriladi). Shunisi xarakterliki, tartibga soluvchi baho tartibga solish jarayonining o’zida vujudga keladi va uning o’zi ham tartibga solinuvchi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu yerda muvozanatli, ya’ni o’z-o’zidan o’rnatiluvchi, darajasi talab va taklifning tenglashishiga muvofiq keladigan baho yordamida tovar-pul jarayonlarini o’z-o’zidan tartibga solish funk-tsiyasi xususida gapirish aniqroq bo’lur edi.

Oila byudjetining o’zgarishi, aholi daromadlari va xarajatlarini qayta taqsimlash munosabati bilan chakana baholar o’zgarganda bahoning **ijtimoiy funksiyasi** vujudga keladi. Buning natijasida ijtimoiy ne’matlar va xizmatlarning u yoki bu turlariga nisbatan iste’mol qilish hajmlari oshadi yoki kamayadi. Chakana baholarning oshishi turmush darajasini pasaytiradi va aksincha, deb e’tirof etilgan. Biroq, agar bir vaqtning o’zida chakana baholar bilan birgalikda ulgurji baholar va aholi daromadlari ham o’zgarsa, bu “manzara” ko’p omilliga aylanadi va baholar dinamikasining turmush

darajasiga ta’siri xususida xulosa chiqarish uchun yanada chuqurroq tahlil o’tkazish zarur bo’ladi.

Bahoning **rag’batlantiruvchi funksiyasi** ishlab chiqa-rishni moddiy va mehnat resurslaridan samarali foyda-lanish, mahsulotning ma’lum bir turini ishlab chiqarish yo’nalishlarida rag’batlantirish orqali namoyon bo’ladi. Bunday baholar agar ular iste’molchi uchun qulay bo’lsa, iste’molni ham rag’batlantiradi. Bahoning rag’batlan-tiruvchi funksiyasi bozorni tartibga solishning muhim omili hisoblanadi, tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o’rtasidagi ma’lum bir nisbatning o’rnatilishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi va shuning uchun ham u talab va taklifni muvozanatlashtirish(balanslashtirish) funksiyasi bilan uzviy bog’langan.

Baho funksiyalarining bunchalik ko’pligi, ba’zan alo-hida olingan unga tegishli bo’lgan funksiyalar maqsadlari va vazifalarining o’zaro qarama-qarshiligi shunga olib keladiki, bahoning barcha funksiyalarini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish mumkin bo’lmay qoladi. Ratsional va hatto, optimal baholar xususida gapirib turib, odatda uning bir funksiyasi yoki funksiyalarning shunday hamkor-ligini nazarda tutish kerakki, ular ma’lum darajada amalga oshgan bo’lsin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotida bahoning ayrim funksiyalari kamroq yoki ko’proq yuklama bilan “ishlaydi”. Masalan, mahsulotni qiymat ifodasida ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilishni rejalashtirishda foydalaniladigan bahoning funksiyalari aralash iqtisodiyotda davlat sektoridagidek emas, balki unga nisbatan kamroq faollikda namoyon bo’ladi. Shu munosabat bilan bu yerda baho barcha funksiyalarining bir-biri bilan o’zaro bog’langanligi va o’zaro ta’sirchanligini, real hayot (amal)da bozor iqtisodiyotiga xos bo’lgan dinamik tizim sifatida namoyon bo’layotganligini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

13.2. Baho turlari, uning tarkibiy tuzilmasi va baholarni shakllantirish usullari

Bozor iqtisodiyotida tovarlarning turli guruhlariga mos ravishda baholarning harakatchan tizimi amal qiladi. Baho turlarini tizimlashtirish uchun turli belgilar bo'yicha ularni tasniflash amalga oshiriladi.

Baholarni quyidagi belgilarga ko'ra tasniflash mumkin:

- aylanmaga xizmat qilish xarakteri bo'yicha;
- o'rnatilishi (belgilanishi)ga qarab;
- vaqt omiliga ko'ra;
- baholar xususida ma'lumotlarni olish usuliga muvofiq;
- bozor turi (ko'rinishi)ga bog'liq ravishda;
- hududiy bozorlarga bog'liqligini nazarda tutib;
- bozorda davlatning ta'sirchanligi, tartibga solish va raqobat darajasining xarakteri bo'yicha;
- etkazib berish va sotish shartlariga ko'ra;
- qo'llanilish tartibiga muvofiq.

Aylanmaga xizmat qilish xarakteri bo'yicha baholar quyidagicha farqlanadi:

- ulgurji baholar;
- chakana baholar;
- sotib olish baholari;
- smeta qiymati;
- tariflar.

XYuSlar tovarlarning yirik partiyasini sanoat, qishloq xo'jaligi yoki boshqa XYuSlarga yoki ta'minot tashkilotlariga sotadigan bahosi **ulgurji baho** deyiladi.

Savdo tashkilotlari tomonidan aholining shaxsiy iste'moli uchun kichik miqdorlarda sotiladigan ne'matlarga o'rnatilgan baho **chakana baho** deb ataladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan o'z mahsulotlarini davlatga sotish **sotib olish(yoki xarid) baholari**da amalga oshiriladi.

Smeta qiymatida qurilish mahsulotlari (binolar, inshootlar va b.)ning bahosi to'lanadi.

Yuklarni tashish, elektroenergiya, issiqlik, suv, sog'-liqni saqlash xizmatlari, mehmonxona, sayyohlik va boshqa xizmatlarning bahosi **tariflar** orqali ifodalanadi.

O'rnatilishi (belgilanishi)ga qarab baholarning quyidagi turlari mavjud:

- qat’iy baholar;
- joriy baholar;
- o’zgaruvchan (harakatlanuvchan) baholar;
- almashtiriluvchi (“sakrovchi”) baholar.

Shartnomada qayd etiladigan va shu shartnomaga muvofiq ravishda mahsulotni etkazib berishning barcha muddatlari davomida o’zgarmaydigan baholar **qat’iy baholar** deyiladi.

Joriy baho deyilganda shu davrda mahsulotni etkazib berish amalga oshirilgan baho tushuniladi. Bunday baholar bir shartnoma doirasida o’zgarishi mumkin va ular bozorning holatini o’zida aks ettiradi.

O‘zgaruvchan (“harakatchan”) baholar shartnomada ma’lum bir shart asosida, masalan, shartnomani ijro etish payti (vaqti)da bozor bahosi o’zgaradigan bo’lsa (ko’tarilsa yoki pasaysa), o’zgartirilishi (qayta ko’rib chiqilishi) mumkin deb qayd etilgan baholardan iborat.

Almashtiriluvchi (“sakrovchi”) baholar tayyorlanish muddati uzoq vaqtni talab etuvchi buyumlarga nisbatan o’rna-tiladi. Bunday baholar shartnoma ijro etish muddatining tugashiga qarab hisoblanadi. Bunda birlamchi shartnoma bahosi mahsulot tayyorlangan muddat davomida ishlab chiqarish xarajatlarining o’zgarishiga qarab o’zgartiriladi (korrektirovka qilinadi).

Vaqt omiliga ko’ra baholarning quyidagi turlari bo’lishi mumkin:

- doimiy baholar;
- mavsumiy baholar;
- bosqichli baholar.

Amal qilish muddatlari oldindan kelishilmagan (belgilanmagan) baholar **doimiy baholar** deyiladi.

Mavsumiy xarakterga ega bo’lgan tovarlarga nisbatan o’rnatilgan baholar **mavsumiy baholar** deb ataladi. Bunday baholar sotishning dastlabki bahosiga nisbatan ustama yoki chegirmani qo’llash yo’li bilan aniqlanadi va mavsum mobaynida amal qiladi.

Dastlabki aniqlangan shkalaga muvofiq ravishda oldindan belgilangan holatlarda bosqichma-bosqich pasayti-riladigan tarzda aniqlanadigan mahsulotlarning bahosi **bosqichli baholar**da belgilanadi.

Baholar xususida ma’lumotlarni olish usuliga muvofiq baholar quyidagicha farqlanadi:

- ma’lumotnomaviy baholar;
- preyskurant baholar;
- hisob-kitobli baholar.

Kataloglar, preyskurantlar, iqtisodiy jurnallar, ma’lumotnoma(spravochnik)lar va boshqa maxsus adabiyot-larda e’lon qilinadigan baholar **ma’lumotnomaviy baholar** deyiladi. Ular o’xshash mahsulotlarga baholarni belgilash (o’rnatish)da yoki baholarning darajasi va nisba-tini tahlil qilishda mo’ljal (mo’ljallanuvchi) axborot sifatida foydalaniladi.

Firmalarning preykurantlarida, ma’lumotnoma (spra-vochnik)larda va boshqa adabiyotlarda e’lon qilingan baholar **preykurant baholar** deb ataladi.

Hisob-kitobli baholar individual buyurtmalar bo’yicha noandazaviy asbob-uskunalarning shartnomalarida, bitimlarida qo’llaniladigan baholardir. Bunday baholar mol etkazib beruvchi tomonidan har bir aniq buyurtma uchun uning texnikaviy va tijorat shart-sharoitlarini hisobga olgan holda hisob-kitob qilinadi va asoslanadi.

Bozor turi (ko’rinishi)ga bog’liq ravishda baholar-ning quyidagi turlari mavjud:

- auktsion baholar;
- birja baholari(birja kotirovkalari);
- savdolar baholari.

Sotib oluvchi tomonidan oldindan ko’rib chiqilgan tovarlar partiyasi (loti)ga maksimal taklif qilingan daraja bo’yicha ommaviy sotish bahosi **auktsion baholar** deyiladi. Bunday baholar talab va taklif o’rtasidagi nisbatning o’zgarishi natijasida belgilanadi.

Birja orqali sotiladigan standartlashtirilgan (ando-zalashtirilgan) bir xil(toifa)dagi tovarlarning (shu jumladan, qimmatli qog’ozlarning ham) bahosi **birja baholari (birja kotirovkalari)** deb ataladi.

Savdolar baholari ixtisoslashtirilgan savdo alo-hida shakllarining bahosidan iborat. Savdoning bu shakli maxsus hujjat (tender)da oldindan e’lon qilingan shart-larga ko’ra tovarlarni etkazishga buyurtmalar berish yoki ma’lum bir ishlarni amalga oshirish uchun pudratlarni olishga asoslangan bo’ladi.

Hududiy bozorlarga bog’liqligini nazarda tutib baholarning turlari quyidagicha farqlanadi:

- yagona (yaxlit) baholar;
- mintaqaviy baholar;
- mahalliy baholar.

Yagona (yaxlit) baholar mamlakatning barcha hudud-larida amal qiladi. Ular davlat tomonidan o'rnatiladi (belgilanadi) va tartibga solinadi.

Mintaqaviy baholar mamlakatning ayrim hududla-rida shakllanadi. Bunday baholarning tarkibiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo, gaz, elektroenergiyaning baholarini kiritish mumkin.

Shu mintaqaning o'zida ishlab chiqariladigan va iste'-mol qilinadigan mahsulotlarga o'rnatilgan baholar **mahal-liy baholar** deyiladi.

Bozorda davlatning ta'sirchanligi, tartibga solish va raqobat darajasining xarakteri bo'yicha baholarning quyidagi turlari mavjud:

- bozor baholari;
- qat'iy o'rnatilgan baholar;
- tartibga solinadigan baholar;
- prestij (kamyob, obro'li) baholar;
- paritet (teng) baholar.

Mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va xizmatlarni ko'rsatuvchilar tomonidan bozor kon'yunkturasiga muvofiq ravishda talab va taklif asosida qo'llaniladigan baho **bozor baholari** deyiladi.

Qat'iy o'rnatilgan baholar ma'lum darajada belgi-langan baholardan iborat.

Yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlarga nisbatan tegishli boshqaruv organlari tomonidan foyda-laniladigan baholar **tartibga solinadigan baholar** deb ataladi.

Noyob xususiyatlarga ega bo'lgan juda yuqori sifatli buyumlarning bahosiga **prestij (nufuzli) baholar** deyiladi.

Bir necha mamlakatlarning davlat hokimiyat organlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, boshqa tovarlar va xizmatlar baholari o'rtasidagi nisbatni tartibga solish uchun qo'llaniladigan baholar **paritet baholar** deb ataladi.

Etkazib berish va sotish shartlariga ko'ra baholarni quyidagicha farqlash mumkin:

- netto-baholar;
- brutto-baholar (fakturaviy baholar);
- jahon baholari.

Oldi-sotdi joyidagi baholar **netto-baholar** deyiladi.

Oldi-sotdi shartlariga (soliqlarning turi va miqdori, chegirmalarning mavjudligi va darajasi, frank turlari va sug'urta

shartlariga) muvofiq ravishda aniqlanadigan baholar **brutto-baholar** deb ataladi.

Jahon baholari yirik import va eksport opera-tsiyalari amalga oshiriladigan baholardan iborat. Ama-liyotda jahon baholari xomashyo tovarlari bo'yicha eksportyor mamlakatning darajasi yoki bir va auktsionlar bahosi; ishlab chiqarish-texnikaviy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar bo'yicha – jahondagi yetakchi ishlab chiqaruvchilarning baholariga muvofiq; xalq iste'mol tovarlari bo'yicha - yetakchi yirik kataloglarda e'lon qilingan baholarda aniqlanadi.

Amaliyotda **ichki firmaviy (transfert) baholar** degan tushuncha ham mavjud. Bunday baholar bir firmaning bo'linmalari yoki bir assotsiatsiya tarkibida bo'lgan bir necha firmalar o'rtasida mahsulotlar sotilganda qo'llaniladi.

Baholarning yana bir turi bor. Ularning nomi **tabaqalashtirilgan baholar** deb yuritiladi. Bunday baholar tabiiy, hududiy va XYuSlarga bog'liq bo'lmagan boshqa mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlaridagi farqlar, shuningdek, mahsulotning sifa-tidagi farqlarga (navi, yangiligi va boshqa sifat belgilariga ko'ra) bog'liq ravishda bir xil mahsulotlarga o'rnatiladigan turli ulgurji, sotib olish va chakana baholardan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchi-lar tabaqalashtirilgan baholardan iste'molchilarning turli guruhlari uchun foydalanadi. Bunda ishlab chiqaruvchi sotib oluvchilarning har bir guruhi uchun maksimal baholarni o'rnatishga harakat qiladi. Bunday baho sotib oluvchining **rezervlashtirilgan baho**si deyiladi. Rezerv-lashtirilgan bahoning sotib oluvchilar daromadlariga bog'liq ravishda o'rnatilishi bahoning ideal diversifi-katsiyasi deb ataladi. Tabaqalashtirilgan baholar sotib olinayotgan tovarlarning miqdoriga bog'liq ravishda ham o'rnatilishi mumkin. Bunga muvofiq ravishda tovarlarning kichik partiyalari va bir martalik buyumlar uchun baholar yuqori, ular yirik partiyada sotib olinganda esa baho-larning darajasi ancha pasaytirilishi mumkin.

Baholarning har bir turi ularga tegishli bo'lgan shakllantirish va foydalanish xususiyatlariga ega. Masalan, XYuSlarning ulgurji baholari sanoat tovarlarining turli guruhlariga tegishli bo'lgan o'ziga xos belgilar bilan xarakterlanadi. Energiya tashuvchilarning bahosi, o'z navbatida, boshqalardan tashqari, resurslarni tejab-te-rgash siyosatini amalga oshirishda muhim iqtisodiy richag bo'lib hisoblanadi.

Aniq baho o’zida ma’lum bir elementlarni mujassam etadi. Ularning ahamiyati absolyut ifodalanishda **bahoning tarkibi**, birlikning qismi yoki foizlarda ifodalangan baho tarkibidagi har bir elementning salmog’i esa **bahoning tarkibiy tuzilmasi** deb ataladi.

Baholarning namunaviy tarkibiy tuzilmasi quyidagi formulada keltirilgan:

$$UB_к = T + F_к$$

Bu yerda: $UB_к$ - XYuSning ulgurji bahosi;
T - mahsulot tannarxi;
$F_к$ - XYuSning foydasi.

$$UB_m = UB_к + C + UT_y$$

Bu yerda: UB_m **-** tarmoq ulgurji bahosi;
$UB_к$ - XYuSning ulgurji bahosi;
S - soliqlar (qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, sotuv solig’i va boshqalar);
UT_y **-** ulgurji-ta’minot ustamalari (ta’minot va transport xarajatlari, ta’minot XYuSining foydasi).

$$ChB = UB_m + S_y$$

Bu yerda: **ChB** **-** chakana baho;
UB_m **-** tarmoq ulgurji bahosi;
S_y **-** savdo ustamasi (muomala xarajatlari, savdo XYuSining foydasi).

Bahoning minimal chegarasini ishlab chiqarish chiqim-lari miqdori aniqlab beradi. Ularning puldagi ifodasini **mahsulot tannarxi** deb atash qabul qilingan. **Foyda** bahoning majburiy elementi hisoblanadi. XYuS foyda hisobidan dividendlarni to’laydi, ishlab chiqarishni kengaytiradi va modernizatsiya qiladi, kadrlarni tayyor-lashni amalga oshiradi, ijtimoiy sohaga mablag’ ajratadi. Foyda bahoning muhim elementi hisoblanib, XYuSning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli uning hajmiga bevosita bog’liq.

Tovarlar vositachilar (ta’minot-ta’minlash, savdo-sotib olish XYuSlari va tashkilotlari hamda boshqa vositachilik firmalari) orqali

sotilganda bahoda vosi-tachining **ustamasi** o’z aksini topadi va u vositachilik qilganligi uchun komission yig’imlarni, vositachining transport va boshqa xarajatlarini, uning qo’shilgan qiymat solig’i va foydasini o’zida aks ettiradi.

Savdo ustamasi savdo tashkilotlarining mahsulotni sotish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlarini (muomala xarajatlarini) va ularning foydasini qamrab oladi. Hozirgi paytda savdo ustamalari markazlashtirilgan tarzda tasdiqlanmaydi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan alohida tovarlar bo’yicha ularning yuqori chegarasi mintaqaning mahalliy ma’muriyati tomonidan belgilanadi.

Baho yuqorida sanab o’tilgan barcha elementlarni o’zida mujassam etmasligi ham mumkin. Masalan, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini sotib olish bahosida qo’shilgan qiymat solig’i mavjud emas. Shuningdek, barcha tovarlar ham aktsizosti tovarlari bo’lavermaydi, ayrim tovarlar esa iste’molchilarga vositachilarsiz to’g’ridan-to’g’ri sotiladi.

Xilma-xil bo’lishiga qaramasdan, bozor baholari erkin iqtisodiyotda talab va taklifga muvofiq ravishda o’rna-tiladi. Hukumatning baholarni shakllantirish tizimiga noo’rin aralashuvi (bunday deyilganda, odatda, tovarlarga baholarni shakllantirish jarayoni va baholar tizimi tushuniladi), ba’zi hollarda iqtisodiy vaziyatni murakkab-lashtirishi mumkin. Buning sababi shundaki, davlat organlari, odatda, o’zlarining biznesga ishtirok etishlari natijasida qo’shimcha xarajatlarni vujudga keltiradi.

Baholarni aniqlashning turli-tuman kontseptsiyalari mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- sof qiymat asosida baholarni aniqlash (muallifi G.S.Strumilin);
- baholarni o’rtalashtirilgan qiymat asosida aniqlash (D.D.Kondratov);
- takror ishlab chiqarish baholari (V.S.Nemchinov);
- ob’yektiv asoslangan tarzda baholash (L.S.Kantorovich);
- oxirgi xarajatlarning baholari (S.S.Shatalin).
- va boshqalar.

Bahoni hisoblash (aniqlash)ning **“o’rtacha xarajatlar va foyda”** usuli o’z asosiga ishlab chiqarishning o’rtacha chiqimlari va ustamasini oladi. Bunda baho ishlab chiqarish chiqimlari va foydaning yig’indisi sifatida qaraladi. Bu yerda foydaning qismlari esa foydalanilayotgan mehnat va tabiiy resurslarga, kapitalga proportsional ravishda aniqlanadi. Bu metodga ko’ra mehnatning qiymati bahoning asosi bo’lib xizmat qiladi.

Bunday yondoshuv erkin bozor tizimi nuqtai-nazaridan o'zini oqlamaydi, chunki ko'p XYuSlar o'z tovarlarini yuqori bahoga ega bo'lishga intilib, xarajatlar va foyda bilan baholamasdan, balki boshqa omillarni hisobga olgan holda baholaydi. Neoklassiklarning tasdiqlashicha, ne'matlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlari shu mahsulotni sotib olish kerakligi yoki yo'qligi xususidagi iste'molchining tegishli qarori bilan hech qanday umumiylik tomoni yo'q. Bu joyda uni haqiqatdan ham tashvishga soladigan narsa iste'moldagi optimallilikdir. Masalan, XYuS agar tovarni o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yuqori sifatli deb e'tirof etsa, baholarni qoplashga mo'ljal-langan xarajatlarni (bu yerda yana shu narsani ham hisobga olish kerakki, u o'zining ish haqiga bu mahsulotdan tashqari yana boshqa bir qancha mahsulotlarni ham sotib olishi kerak) asosli deb hisoblasa, u holda u shu mahsulot o'zida mujas-sam etgan foydalilikka (naflilikka) asoslangan holda qaror qabul qiladi. Tovarda mujassamlangan foydalilikni esa hech qachon shu mahsulotni ishlab chiqarish qiymatiga tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham baholarni shakl-lantirishning ikkinchi metodini **"bozor nimani ko'rsatsa",** deb xarakterlash qabul qilingan.

Bahoni **zararsizlik va maqsadli foydani ta'min-lash** asosida hisoblash usuli ham mavjud. Uning asosida zararsizlik grafigi yoki kutilayotgan foydani ta'minlash-ning tijoriy biznes-rejalashtirish yotadi. Ayrim hollarda baho **chiqariladigan tovarning unikalligi (antiqaligi)** asosida o'rnatiladi. Bu yerda baho o'rnatilayotgan paytda nafaqat ishlab chiqarish chiqimlari, balki tovarning sotib oluvchi uchun qadr-qimmati ham inobatga olinadi.

Ko'pchilik hollarda baholar **preyskurant baholar** asosida aniqlanadi. Bunday usulda savdolashish imkoniyati mavjud bo'ladi. Individual sotib oluvchilar uchun buning ahamiyati kamroq bo'lsa-da, ulgurji sotib oluvchilar uchun bu narsa katta ahamiyatga ega bo'lib, baholarning umumiy darajasiga o'z ta'sirini, albatta, ko'rsatadi.

R**aqobat savdolari orqali** bahoni aniqlash usuli XYuSlarning pudrat uchun kurashuvi sharoitida qo'llaniladi. Bunda XYuS raqobatchilarning kutilayotgan baho taklif-larini hisobga oladi. U o'zining oldiga shartnomani qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan ekan, boshqa raqobatchilarga nisbatan pastroq bo'lgan bahoni so'raydi.

Bahoni o'rnatish(aniqlash) jarayonida faqat iqtisodiy holatlarni emas, balki psixologik omillarni ham inobatga olmoq lozim. Bu o'rinda baholarni shakllantirish borasi-dagi davlatning tartibga

keltiruvchi rolini, daromadlardan olinadigan soliqlar va yana ko'p omillarni ham unutmaslik kerak. Shuningdek, baholarni shakllantirishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qishloq xo'jaligida baholarning kamida quyidagi uch yo'nalishi rivojlanadi:

- markazlashtirilgan yo'nalish (mahsulotlar muhim turlarining cheklangan doirasiga mo'ljallangan);
- ulgurji-shartnomaviy yo'nalish (ishlab chiqarishga mo'l-jallangan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi XYuSlar o'rtasida);
- ishlab chiqaruvchilar va savdoga o'rtasidagi yo'nalish (xalq iste'moli, noiste'mol tovarlari va kooperatsiyaga tayyorlashlarga mo'ljallangan).

Yuqoridagilardan tashqari, boshqa barcha tovarlarga va shuningdek, o'z savdo tarmog'i mahsulotlari uchun alohida xo'jaliklar tomonidan bahoni mustaqil ravishda o'rnatish hollari ham mavjud.

Baholarni shakllantirishda xarajatli yondoshuv metodida XYuSning tovarlarni ishlab chiqarish va sotish haqiqiy xarajatlari asosiy tayanch nuqta sifatida qabul qilinadi. Baholarni shakllantirishning bu metodi tarixiy jihatdan eng qadimgi (eski) va eng ishonchli hisoblanadi. Uning zaminida XYuS mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarining buxgalteriya hujjatlari bilan tasdiqlangan (isbot qilingan) xarajatlaridan iborat bo'lgan haqiqiy asos yotadi. Ma'lum darajada bunday yondoshuvning obro'si baholarni shakllantirishni barcha xarajatlarga normal daromadlarni to'liq olish va ularning ishlab chiqarilgan tovarlar o'rtasida to'g'ri taqsimla-nishining XYuS uchun zarurligini nazarda tutuvchi iqtisodiy nazariya orqali qo'llab-quvvatlanishi bilan belgilanadi. Biroq baholarni shakllantirishning xarajatli metodi ba'zi bir kamchiliklarga ega. Xususan, ko'p hollarda mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi xarajatlarning salmo-g'ini, bu narsa ushbu yondoshuvga ko'ra bahoning asosi bo'lishiga qaramasdan, baho aniqlanganiga qadar uni o'rnatishning iloji yo'q.

Mahsulotni sotishni bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq tashkil etishda bahoning darajasini ishlab chiqarish masshtabi va sotish hajmi aniqlab beradi. Iqtisodiy nazariya va buxgalteriya hisobiga ko'ra, mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarning salmog'i ishlab chiqarish masshtabiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Mahsulotni ishlab chiqarish hajmi ortsa, bir buyumga to'g'ri keluvchi

doimiy xarajatlar summasi va uni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning umumiy miqdori kamayadi. Baholarni shakllantirishga yondoshuvlarni taqqoslash quyidagi xulosani chiqarishga imkon beradi: bilimli menejer, bu sohadagi uning qarori haqiqiy xarajatlarni qoplash va faoliyatning tarkib topgan sharoitlarida ko'zda tutilgan foydaning tegishli miqdorini olishning zarurligi bilan belgilangan bir paytda, baholarni shakllantirishning passiv yo'lini tanlamasligi kerak. Bu yerda passiv baholarni shakllantirish deyilganda baholarni qat'iy tarzda xarajatlar metodi asosida yoki raqobatchilarning baho bo'yicha qarorlari ta'siri ostida o'rnatilishi(aniqlanishi) nazarda tutilayapti.

Hozirgi sharoitda baholarni aniqlashdagi eng oqilona yondoshuvlardan biri baholarni faol shakllantirish hisoblanadi. U baholarning belgilanishini sotishni boshqarish siyosati doirasida eng foydali ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlari va operatsiyalar foydaliligining maqsadli darajasiga erishish maqsadida tashkil etishni ko'zda tutadi. Baholarni boshqarish orqali sotishning kerakli hajmi va unga mos keladigan o'rtacha xarajatlarning miqdoriga erishiladiki, bu narsa oxir oqibatda, XYuSni operatsiyalar foydali-ligining ko'zda tutilgan darajasiga olib chiqadi.

Muammoni hal etishga bunday yondoshuv baholarni shakllantirish xarajatli metodining "kuchsiz" bozorlarda (kon'yunkturasi yomonlashib borayotgan bozorlarda) juda yuqori baholarni yoki "kuchli" bozorlarda (talab o'sib borayotgan bozorlarda) juda past baholarni o'rnatish odatidan qochishga imkon beradi.

Baholarni shakllantirishning xarajatli metodidan voz kechish oson ish emas. Chunki bu narsa XYuSlarning mene-jerlaridan yangi mahsulotni ishlab chiqarishga inve-stitsiyalar boshlangunga qadar baho bo'yicha ularning pozitsiyalarini aniqlashni taqozo etadi. Buning uchun yangi buyumlarni yaratish algoritmini to'liq o'zgartirish, baho-larni shakllantirishning qimmatli (boylikli) yondoshuviga o'tish kerak.

Baholarni qimmatli shakllantirish baholarni shun-day o'rnatilishini taqozo etadiki, unga ko'ra bu narsa XYuSning yuqori foyda olishini "baho/xarajatlar" foydali nisbatiga erishish hisobidan ta'minlamog'i kerak. Buning uchun, eng avvalo, tovarga sotib oluvchi qanday bahoni to'lashga tayyor ekanligini bilmoq lozim. Albatta, turli holatlarning ta'siri mavjud bo'lganligi uchun uni aniqlash ancha murakkab hisoblanadi.

Tajribali sotib oluvchilar tovar uchun to'lashga tayyor bo'lgan haqiqiy summalarini kamdan-kam hollardagina aytadilar. Ayniqsa, bu xususiyat bilan firmalarni ta'minlovchi faoliyat bilan shug'ullanuvchilar alohida ajralib turadi. Agar o'zlari xaridor bo'layotgan tegishli tovarlar baholarining o'zgarib turishi mumkinligini tushunsalar, ular faqat kerakli tovarning haqiqiy bahosini yashiribgina qolmasdan, balki bu xususida ishlab chiqa-ruvchini ongli ravishda chalg'itish usullarini ham qidirib topishga harakat qiladilar. Bunday vaziyatda ishlab chiqaruvchi marketologlarining iste'molchilar bilan aloqalari asosida qurilgan barcha urinishlari uddaburon ta'minotchilar tomonidan ongli ravishda tashlangan dezinformatsiya orqali yo'qqa chiqarilishi mumkin.

Shuning uchun ham bunday vaziyatda XYuS ta'minotchisi mutaxassisining asosiy vazifasi sotib oluvchilar to'lashga tayyor bo'lgan bahoda katta miqdordagi buyurtmalarni olmaslik bilan belgilanadi. XYuS marketologi va ta'minotchilarning o'ziga xos bo'lgan san'ati sotib oluvchilardan tovarning haqiqiy bahosini o'zida iloji boricha ko'proq aks ettirishi mumkin bo'lgan bahoda to'lashga tayyor ekanliklariga erishish orqali ifodalanadi. Bir vaqtning o'zida, firmaning yangi mahsulotini qanday bahoda sotib olishga tayyor ekanliklari xususida sotib oluvchilarga murojaat qilish hato hisoblanadi. Sotib oluvchilar bunday vaziyatda yangi tovarni etarli darajada baholay olmaslikka va uning bahosini iloji boricha pasaytirishga harakat qilishlari tufayli ularning yuqoridagi savolga javoblari salbiy bo'lishi mumkin. Amaliyotda sotuvning haqiqiy bahosi marketing tadqiqotlarining natijalari bilan kamdan-kam hollardagina bir-biriga mos tushadi.

13.3. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt marketing strategiyasining moliyaviy jihatlari

Agar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining 5 yoki 10 yilga mo'ljallangan ilmiy asoslangan istiqboli oldindan oqilona tarzda aniqlangan bo'lsa, baho stra-tegiyasini mustahkam egallash mumkin. Aks holda faqat hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning emas, balki ilmiy-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasidagi ilg'or o'zgarishlar ta'siri ostida yaratilishi lozim bo'lgan yangi barcha buyumlar bahosining dinamikasini ham ko'proq yoki ozroq aniqlikda ko'rish imkoniyati murakkabligicha qolaveradi. Ma'lumki, iqtisodiy jihatdan yuqori sur'atlarda taraqqiy etgan mamlakat-larning barchasida erkin

baholar, odatda, davlat tomonidan tartibga solinadigan baholar bilan oqilona uyg'unlashgan holda ishlatiladi.

XYuSlar marketing strategiyasining moliyaviy jihat-lari raqobat sharoitida bozordagi baho bozor iqtisodi-yotining asosiy bo'g'iniga bog'liq bo'lmagan omillar asosida ustuvor ravishda shakllanishini va u uchun, asosan, topshi-rilgan (berilgan) miqdor ekanligini nazarda tutadi. XYuSning bozor muhiti bozor tashqi omillari va shart-sharoitlari hamda bozordan tashqari xo'jalik aloqalar majmuidan iborat bo'lib, ular iqtisodiyot asosiy bo'g'ini faoliyatining samaradorligini, uning maqsadli strategiyasi va tadbirkorlik muhitidagi xatti-harakati taktikasining amalga oshirilishini ko'zda tutadi.

Baholarni shakllantirish masalalarini hal etish uchun raqobat muhitini tahlil qila borib, XYuSning tegishli xizmatlari mahsulotlarni etkazib berish va ularni sotish baholarini o'rganishi (1), soliqlar va boshqa to'lovlarni inobatga olgan holda XYuSning ishlab chiqarish va sotish chiqimlari, mol etkazib berish shartlari va XYuSni ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlashga baho berishi (2), amalga oshirilayotgan tadbirlar va faoliyat samara-dorligini aniqlashi (3) kerak.

Ana shu yuqoridagi uch yo'nalishlar XYuS faoliyat ko'rsatishining **mikromuhit**ini xarakterlab, u biroq XYuS faoliyatining umumiy sharoitlarini cheklamaydi. XYuS faoliyatining umumiy sharoitlarini **makromuhit** deb e'tirof etish qabul qilingan bo'lib, u o'z ichiga quyidagi omillarni qamrab oladi:

- inflyatsion omillar, shu jumladan inflyatsion kuti-lishlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar (mehnat, shu sohadagi beqarorlashtiruvchi holatlar, siyosiy omillarni ham qo'shib hisoblaganda);
- davlat va mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy, soliq va pul-kredit siyosati;
- baholarni davlat tomonidan tartibga solish sohasida ko'riladigan choralar;
- XYuSning bozorda faoliyat ko'rsatishini qonuniy ta'-minlashga qaratilgan o'zgarishlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'yekt, mulkdorning bozor vakili yoki uning vakolatchisi sifatida iqtisodiy mustaqillik va XYuS o'z xatti-harakatini tanlash erkinligi bozor baho-larini shakllantirishning zaruriy shartlari hisoblanadi. O'zaro manfaatli, xususan, og'zaki bitimlar, shartnomalar, oldi-sotdi shartnomalari ko'rinishidagi shartnomalar

vositasida amalga oshiriladigan xo'jalik sub'yektlarining tijorat munosabatlari ham shunga kiradi. Bu yerda yo'qotmalar, zararlar va qo'ldan chiqarilgan imkoniyatlar (foydalar)ni qoplash kafolatini beruvchi shartnoma-bitim munosabatlari, boshqa xo'jalik munozaralariga ta'sir ko'rsatish va ularni himoya qilish muhim rolynaydi. Raqobat muhitining mavjudligi va monopolizmga barham berish ham bu yerda kerakli sharoit sifatida maydonga chiqib, ular xo'jalik yuritish sub'yektlarini, bozor vakillarini xatti-harakatni tanlash imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Bularning qatoriga muvozanat baholar evaziga talab va taklif nisbatlarining tenglashuvi oqibatida vujudga keladigan bozor muvozanatini ham kiritish kerak.

Bozor iqtisodiyotida baholarni shakllantirish jara-yoni, boshqa holatlardan tashqari, yana bahoni o'rnatish xususida kim qaror qabul qilganligiga va uni kim tayyorlaganligiga ham bog'liq. Shuning uchun ham baholar qay hollarda direktorlar kengashi, hissadorlik jamiyatining prezidenti, XYuSning bosh direktori, uning o'rinbosarlari va qay hollarda esa ta'minot bo'limining boshlig'i, uning joylardagi vakillari tomonidan tasdiqlanishini bilish juda muhimdir. Shuningdek, bahoni asoslash bilan shug'ullanadigan ma'muriyat xizmatlari va bo'linmalarining aniq funksiyalarini belgilash ham kerak. Bu faoliyat XYuS markaziy xizmatlari tomonidan qat'iy muvofiqlash-tirilgan asosda amalga oshirilmog'i lozim.

XYuS tomonidan sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar bahosini asoslash, hisob-kitob qilish va o'rnatish quyida taklif etilayotgan ketma-ketlikda va faoliyat turlari bo'yicha amalga oshirish tavsiya qilinadi:

- tarkib topgan bozor, kon'yunktura va XYuS mahsulo-tining bahosini tahlil qilish;
- baholarni o'rnatish (belgilash) joriy amaliyotining strategiyasi va printsiplarini ishlab chiqish;
- kutilayotgan bozorni o'rganish va rejalashtirilayotgan davr uchun talabni aniqlash;
- raqiblarning tovarlari va baholarini tahlil qilish;
- ishlab chiqarish hajmi va talabni qondirishning turli darajalarida taklif bahosi, ishlab chiqarish chiqimlari va tovarlarni sotish imkoniyatlarini aniqlash;
- baholarni shakllantirishning qabul qilingan strate-giyasi va printsiplari amalga oshirilishining mumkin bo'lgan variantlarida ishlab chiqarish va realizatsiya samara-dorligini baholash;
- baholarni o'rnatish (belgilash) metodlarini tanlash;

- sotiladigan tovarning bahosini tasdiqlash.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan ishlarni biznes-rejalash-tirish va shu XYuS baholarini bashoratlash bilan bog’liq bo’lgan hisob-kitoblar bilan almashtirmaslik kerak. Ba’zi bir o’xshashliklar bo’lishiga qaramasdan, biznes-rejani ishlab chiqish va asoslash XYuSning baho strategiyasini ishlab chiqish uchun zarur bo’lgan barcha parametrlarni chuqur tasavvur qilishga imkon bersa-da, ularni bir xil deb qabul qilmaslik kerak.

Bozorda baholarni shakllantirishning omillari ora-sida **talab omillari**ni alohida ajratish maqsadga muvofiqki, ular yordamida sotib oluvchi tomonidan tovarga bo’lgan talabning bahosi aniqlanadi. Bunga tovarning foydaliligi yoki iste’mol xususiyatlari, ya’ni ehtiyojni qondirish qobiliyati, uning sifat tavsiflari kiradi. Undan so’ng ushbu tovarni sotib oluvchi ega bo’lgan to’lovga layoqatli talabning tavsifi, shuningdek, tovarni sotib olishdan bosh torta turib, sotib oluvchi yig’ishi mumkin bo’lgan jamg’armaning darajasi kerak. Oxirida talabning hajmi, ya’ni bahoning shu darajasida sotib oluvchi qodir bo’lgan tovarning miqdori aniqlanadi.

Iste’mol tanlov omillari almashtiriladigan tovarlar tizimida tovarning raqobatdoshligini aniqlab beradi. Tovar va mahsulotlarni sotib oluvchilar, ular bilan raqobat qiluvchilar, raqobat tovarlari bilan tovarning almashuvchanligi, almashtiriladigan yoki o’zaro almashtiriladigan tovarlarning taqqoslanishi ehtiyojning tarkibiy tuzilmasini belgilab beradi. Bu yerda shu tovarni yoki shu tovar bozorini ularni to’ldiradigan tovarlar yoki ularni to’ldiradigan tovarlar bozori bilan taqqoslash katta ahamiyatga ega.

Taklif omillari mol etkazib beruvchi-sotuvchi tomonidan tovarning taklif bahosini o’rnatishga yordam beradi. Bu yerda bozorga taklif qilinayotgan tovarning umumiy soni va XYuS tomonidan bozorga etkazib beri-layotgan tovarning sonini (bo’lishi mumkin bo’lgan boshqa mol etkazib beruvchilarda shu tovarning zaxiralarini va XYuSdagi zaxiralarni qo’shgan holda) bilish juda muhim. Undan so’ng tovarni bozorda sotishdagi ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga va shuningdek, tovarni ishlab chiqarishda foydalanilgan ishlab chiqarish omillari va ishchi kuchining bahosiga aniqlik kiritib olish kerak. Odatda tabiiy resurslar, kapital va mehnatning baholari cheklanadi. Davlat va ijtimoiy fondlarga soliqlar, aktsizlar va boshqa to’lovlar hamda ajratmalar, bojlar ajratiladi. Foyda va uning investitsiyalarga, rezerv va sug’urta fondlariga, dividendlar va boshqa maqsadlarga taqsimlanishi aniqlanadi.

Muqobil ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan omillar ham mavjud. Bu yerda gap XYuS ishlab chiqarish imkoniyatlaridan maksimal foydalanilganda mahsulotlarning maksimal almashuvchanligi, ya'ni mahsu-lotlarning ishlab chiqarish almashuvchanligi, shuningdek, muqobil texnologiyalarning ham maksimal almashuvchanligi xususida ketayapti. Qisqasi, bu yerda ish barcha ishlab chiqarish omillarining (tabiiy resurslar, kapital, mehnat-ning) maksimal almashuvchanligiga borib taqaladi. Ana shular asosida muqobil chiqimlar atroflicha to'liq aniq-lanadi va bu holat baholarni shakllantirishda hisobga olinadi.

Baholarni shakllantirishning XYuS tomonidan **nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan omillari** alohida ajratiladi. Birinchi guruhga kiruvchi omillarga XYuSning yuqori rahbarlik organlari va uning funktsional xizmatlari tomonidan boshqariladigan omillar kiradi. Ikkinchi guruh esa XYuSning o'ziga bog'liq bo'lmagan omillardan tashkil topadi. Iqtisodiyotning asosiy bo'g'inini bu omillarga moslashtirish o'z faoliyatida nazorat qilinmaydigan omillar talablarini hisobga olgan holda nazorat qilinadigan omillarni boshqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Amaliyotda baholarni shakllantirishning yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlarini inobatga oluvchi yoki olmaydigan baholar strategiyasining butun bir tizimi mavjud. Quyida ularning eng muhimlarini bayon etamiz.

Yuqori baholar strategiyasi ("qaymog'ini ajratib olish") dastlab tovarlarni ularning ishlab chiqarish xarajatlaridan ancha yuqori baholarda sotilishini va keyin esa, ularning pasaytirilishini ko'zda tutadi. Bu patent bilan himoyalangan yangi tovarlarga tegishlidir. Bunday strategiya joriy talab darajasining yuqoriligi, tovarning yuqori bahosini iste'molchi tomonidan tovar sifatining yuqoriligi tarzda e'tirof etilgan va shunga o'xshash boshqa sharoitlarda mumkin.

Past baholar strategiyasi yoki bozorga "yorib kirish" strategiyasi ham mavjud. Bunday strategiya talabni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi. U ishlab chiqarish katta hajmda va talab yuqori elastik bo'lgan bozorlarda samarali bo'lib, unda sotib oluvchilar baho-larning pasayishiga keskin munosabat bildiradilar va talabni oshiradilar. Bunda XYuS ishlab chiqarish hisobidan baholarning past darajasini ushlab turadi.

Tabaqalashtirilgan baholar strategiyasi xilma-xil bozorlar, ularning segmentlari va sotib oluvchilari uchun baholarning o'rtacha

darajasiga nisbatan turli-tuman chegirma va ustamalarni qo'llash evaziga amalga oshiriladi.

Imtiyozli baholar strategiyasi imtiyozli baholarni taklif qilishdan XYuS manfaatdor bo'lgan sotib oluvchilar bilan ishlashga qaratilgan.

Elastik baholar strategiyasi baholarning iste'mol-chilar sotib olish qobiliyatiga bog'liq ravishda o'rnati-lishini anglatadi.

Barqaror, standart, o'zgarmaydigan baholar strate-giyasi nisbatan uzoq vaqt davomida tovarlarning bir xil bahoda realizatsiya qilinishini nazarda tutadi.

Yaxlitlanmagan baholar strategiyasida sotib oluvchi tovarni, masalan, 1000 so'mda emas, balki 999,9 so'mda sotib oladi. Bu holda sotib oluvchi bunday baholarni past yoki baholarni o'rnatishning puxta va aniq hisob-kitoblarga asoslanganligining isboti sifatida e'tirof etadi.

Yoppasiga (ommaviy) sotib olishlar bahosi va baholarni tovarning sifati bilan uzviy bog'langanligi strategiyalari ham amaliyotda qo'llaniladi.

Baholarning har qanday strategiyasida, raqobatchi-larning baholarini tahlil qila borib, XYuS o'zi tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan chegirmalar tizimiga jiddiy e'tibor bermog'i lozim. Jahon amaliyotida baholardan qilinadigan chegirmalarning 20ga yaqin turi mavjud. Masalan, **"skonto" chegirmasi**ning "3/12, netto 30" tarti-bida ifodalanishida to'lov 30 kun ichida amalga oshirilishi kerak, agar sotib oluvchi to'lovni dastlabki 12 kun ichida amalga oshirsa, u 3% kam to'laydi, degan ma'noni anglatadi.

Aylanma uchun bonus chegirmalari ham qo'llaniladi. Aylanma sotuviga bog'liq ravishda u doimiy sotib oluvchilarga nisbatan qilinadi. **Progressiv chegirmalar** sotib olishning sifati, hajmi va davriyligiga bog'liq ravishda sotib oluvchiga taqdim etiladi. **Tovarlarning almashtirilishi yoki shu bilan bog'liq bo'lgan chegirma** shu firmadan oldin sotib olingan eski tovarni qaytarganligi uchun taqdim qilinishi mumkin. Tovarlar xorijga sotilganda **eksport chegirmalari** qo'llaniladi. **Funktsional chegir-malar** yoki **savdo sohasidagi chegirmalar** tovarlarning harakatlanishini amalga oshiruvchi xizmatlarga ma'lum bir funksiyalarni bajarganligi uchun beriladi. **Maxsus chegirmalar** ishlab chiqaruvchi manfaatdor bo'lgan sotib oluvchilarga sotuvchi tomonidan taqdim etiladi. **Yashirin chegirmalar** sotib oluvchilarga tekin namunalar ko'rinishida berilishi mumkin. Chegirmalarning oxirgi turiga shart-

nomalarda qayd etilmaydigan va og'zaki kelishuvlarga muvofiq amalga oshiriladigan **konfidentsial chegirmalar** ham kiradi.

Ustamalar baholarni shakllantirishda chegirmalarga nisbatan kamroq qo'llaniladi. Ularning qo'llanilishi tovar-lar sifatining ortishi, tovarlarning kreditga sotilishi va shu kabi omillar bilan bog'liq.

Tovarlarga nisbatan baholarni asoslash va baholarni shakllantirish strategiyasini samarali amalga oshirish uchun XYuS o'zi faoliyat ko'rsatadigan maqsadli bozorlarini[60] aniqlab olmog'i, turli bozorlarning masshtablari va bozor talablarini qondirishning o'z imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i kerak.

Undan so'ng XYuSning mamlakat ichki bozoridagi hamda yaqin va uzoq xorij mamlakatlari tashqi bozorlaridagi faoliyat sohasini aniqlash va cheklab olmoq lozim. Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari tashqi bozorlaridagi faoliyat faoliyat ko'rsatish shartlari va huquqiy tartibga solish normalariga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Bozorlarning hududiy geografiyasini bilish ham muhimki, ular uchun faoliyat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari, shahar va qishloq bozorlarining nisbatiga tegishli bo'lgan belgilar mavjud bo'lib, ular har ehtimolga qarshi, o'zlarining xususiyatlarini uzoq vaqt davomida yana saqlab qolishi mumkin. Va nihoyat, baholarni shakllantirishning strategik yo'naltirilishida joriy investitsion talab bozorlarini aniq chegaralab olmoq ham zarur.

XYuSlarga mo'ljalni aniq olish va maqsadli bozor-larni tanlashga **bozorni segmentlashtirish** imkon beradi. Bozorni segmentlashtirish o'rganish metodi hisoblanadi. Unga ko'ra iste'molchilar ehtiyojlari, tavsifi, xatti-harakatining o'ziga xosligi va shunga o'xshash xususiyatlariga muvofiq guruhlarga ajratiladi. Bozor segmenti bir xil toifadagi iste'molchilardan, u yoki bu holatga bir xil tarzda reaktsiya qiluvchilardan tashkil topadi.

Yaxlit olinganda bozor iqtisodiyotida bozor baholarini shakllantirishning umumiy belgilari bozorning turli sohalarida baholarning turli-tuman ko'rinishlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Raqobatning erkinlik darajasi va baholarni shakllantirishga (bular bozorlar tipini klassifikatsiya qilishda asosiy me'zon sifatida maydonga chiqadi) bog'liq ravishda bozorlar quyidagi to'rt asosiy tiplarga ajratiladi:

---

[60] Maqsadli bozorlar deyilganda XYuS mo'ljallayotgan bozorlar nazarda tutiladi. Ana shunday bozorlarni aniqlab olmoq uchun, eng avvalo, u sotuvchi bozori yoki sotib oluvchi bozorining umumiy bahosini hisobga olishi kerak. Sotuvchining bozorida sotuvchi (mahsulotni ishlab chiqaruvchi) ustuvor o'ringa ega bo'ladi va u realizatsiya qilinadigan tovarlarning bahosini amalda belgilaydi. Xaridor bozorida esa ustuvor o'rin sotib oluvchiga tegishli bo'ladi. XYuS bunday sharoitda iste'molchi talablarining qattiq sharoitlarida faoliyat ko'rsatadi.

- **erkin** (sof yoki takomillashgan) **raqobat**. U baholarni aniqlashda erkin musobaqalashishning mavjudligi bilan xarakterlanadi;
- **monopolistik raqobat**. Bunda to'liq almashtirilishi mumkin bo'lmagan xilma-xil tovarlar guruhini ishlab chiqaruvchi XYuSlarning musobaqalashishi amalga oshiriladi;
- **oligopolistik raqobat**. Bu ko'p bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar raqobat bozoridan iborat;
- **monopolistik bozor**. Bunday bozor tovarlarning bahosini o'rnatishda bir xo'jalik sub'yekti hukmronlik qiladigan bozordir.

Bozor iqtisodiyotida marketing-baho strategiyasining moliyaviy jihatlarini tashkil etish shakl va sharoit-larining ko'p turliligi bilan xarakterlanadi. Bu o'z tovarini sotuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar iqtisodiy nuqtai-nazardan nimadan iborat ekanligiga va turli bozorlarda shu tovarlarni iste'mol qilish imkoniyatining qandayligiga bog'liq.

Baholarni shakllantirishning u yoki bu strategiyasi, yoki ularning turli kombinatsiyalarini qo'llash tovarlarni realizatsiya qiluvchilarning egalariga (mulkdorlariga) ko'zda tutilgan pul tushumlariga ega bo'lishni va shu asosda zaruriy moliyaviy fondlarni muvaffaqiyatli shakllantirishga imkon beradi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Baho deb nimaga aytiladi?
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida bahoning asosi sifatida nima maydonga chiqadi?
- Baho qanday funksiyalarni bajaradi?
- Bahoning o'lchov(chilik) funksiyasining mazmuni nimadan iborat?
- Baho hisob-nazorat funksiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Bahoning taqsimlash funksiyasi nimalar bilan xarak-terlanadi?
- Bahoning tartibga solish funksiyasiga tegishli bo'lgan xarakterli belgilarni aytib bering.
- Qanday holatlarda baho ijtimoiy funksiyani baja-radi?
- Qanday hollarda bahoning rag'batlantiruvchi funksiyasi namoyon bo'ladi?
- Baholarni qanday belgilarga ko'ra tasniflash (klas-sifikatsiya qilish) mumkin?

- Aylanmaga xizmat qilish xarakteri bo’yicha baholar qanday farqlanadi?
- Ulgurji bahoning mazmunini tushuntirib bering.
- Qanday baho chakana baho deyiladi?
- Qay hollarda sotib olish baholari qo’llaniladi?
- Qurilish mahsulotlarining bahosi qanday qiymatlarda to’lanadi?
- O‘rnatilishi (belgilanishi)ga qarab baholarning qanday turlari mavjud?
- Qanday baholar qat’iy baholar deyiladi?
- Joriy baholar deyilganda nima tushuniladi?
- O‘zgaruvchan (“harakatchan”) baholar qanday baholardan iborat?
- Almashtiriluvchi (“sakrovchi”) baholar qanday buyum-larga nisbatan o’rnatiladi?
- Vaqt omiliga ko’ra baholarning qanday tur (ko’ri-nish)lari bo’lishi mumkin?
- Qanday baholarga doimiy baholar deyiladi?
- Mavsumiy baholar qanday o’rnatiladi?
- Qanday mahsulotlarning bahosi bosqichli baholarda belgilanadi?
- Baholar xususida ma’lumotlarni olish usuliga muvofiq baholar qanday farqlanadi?
- Qanday baholarga ma’lumotnomaviy baholar deyiladi?
- Qaerlarda e’lon qilingan baholar preykurant baholar deb ataladi?
- Qanday baholar hisob-kitobli baholardir?
- Bozor turi (ko’rinishi)ga bog’liq ravishda baholarning qanday turlari mavjud?
- Qanday baholarga auktsion baholar deyiladi?
- Birja kotirovkalari deb nimaga aytiladi?
- Qanday baholar savdolar baholaridan iborat?
- Xududiy bozorlarga bog’liqligini nazarda tutib baho-larning turlari qanday farqlanadi?
- Yagona (yaxlit) baholar qaerlarda amal qiladi?
- Mintaqaviy baholar qaerlarda shakllanadi?
- Qanday baholar mahalliy baholar deyiladi?
- Bozorda davlatning ta’sirchanligi, tartibga solish va raqobat darajasining xarakteri bo’yicha baholarning qanday turlari mavjud?
- Qanday baho bozor baholari deyiladi?

- Qqat’iy baholar qanday baholardan iborat?
- Qanday baholar tartibga solinadigan baholar deb ataladi?
- Qanday buyumlarning bahosiga prestij (nufuzli) baho-lar deyiladi?
- Qanday baholar paritet baholar deb ataladi?
- Etkazib berish va sotish shartlariga ko’ra baholarni qanday farqlash mumkin?
- Qanday baholarga netto-baholar deyiladi?
- Qanday ravishda aniqlanadigan baholar brutto-baholar deb ataladi?
- Jahon baholari qanday baholardan iborat?
- Ichki firmaviy (transfert) baholar qaerlarda qo’lla-niladi?
- Qanday baholar tabaqalashtirilgan baholar deb yuri-tiladi?
- Qanday baho rezervlashtirilgan baho deyiladi?
- Bahoning tarkibi va tarkibiy tuzilmasining mazmuni qanday, ularning tarkibiga nimalar kiradi?
- Baholarni aniqlashning qanday kontseptsiyalari mavjud?
- Bahoni hisoblash (aniqlash)ning “o’rtacha xarajatlar va foyda” metodi o’z asosiga nimalarni oladi?
- Baholarni shakllantirishning “bozor nimani ko’rsatsa”, metodining mohiyati nimada?
- Bahoni zararsizlik va maqsadli foydani ta’minlash asosida hisoblash metodiga xos bo’lgan xarakterli belgi-larni aytib bering.
- Qanday hollarda baho chiqariladigan tovarning unikal-ligi (antiqaligi) asosida o’rnatiladi?
- Preyskurant baholarning asosida nima yotadi?
- Bahoni aniqlashning raqobat savdolari orqali usuli qanday sharoitda qo’llaniladi?
- Qishloq xo’jaligida baholarning qanday yo’nalishlari rivojlanadi?
- Baholarni shakllantirishga xarajatli yondoshuv meto-dida asosiy tayanch nuqta sifatida nimalar qabul qilinadi?
- Baholarni qimmatli shakllantirish baholarni qanday o’rnatilishini taqozo etadi?
- XYuSlar marketing strategiyasining moliyaviy jihat-lari nimalarni nazarda tutadi?
- XYuS faoliyat ko’rsatishining mikromuhiti va makro-muhiti nimalardan iborat va ular o’z ichiga nimalarni qamrab oladi?

- XYuS tomonidan sotilishi mumkin bo’lgan tovarlar bahosini asoslash, hisob-kitob qilish va o’rnatish qanday ketma-ketlikda va faoliyat turlari bo’yicha amalga oshiri-lishi maqsadga muvofiq?
- Talab, iste’moliy tanlov, taklif, muqobil ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bog’liq bo’lgan omillar, nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan omillar nimalardan iborat?
- Yuqori baholar strategiyasi (“qaymog’ini ajratib olish”) ning mazmuni nimada?
- Past baholar strategiyasi qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
- Tabaqalashtirilgan baholar strategiyasi qanday amalga oshiriladi?
- Imtiyozli baholar strategiyasining mazmuni nimada?
- Elastik baholar strategiyasi nimalarni anglatadi?
- Barqaror, standart (andozaviy), o’zgarmaydigan baholar strategiyasini tushuntirib bering.
- Yaxlitlanmagan baholar strategiyasi nimani anglatadi?
- Yoppasiga (ommaviy) sotib olishlar bahosi va baho-larni tovarning sifati bilan uzviy bog’langanligi strategiyalarining o’ziga xos bo’lgan xususiyatlari nimalardan iborat?
- “Skonto” chegirma, progressiv chegirmalar, tovarlarning almashtirilishi yoki shu bilan bog’liq bo’lgan chegirma, eksport chegirmalari, funktsional chegirmalar yoki savdo sohasidagi chegirmalar, maxsus chegirmalar, yashirin chegirmalar, konfidentsial chegirmalar deyilganda nimalar tushuniladi?
- Bozorni segmentlashtirishning mazmuni nimada?
- Raqobatning erkinlik darajasi va baholarni shakllantirishga bog’liq ravishda bozorlarning qanday tiplari mavjud?

14-bob. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsion dasturlarni moliyalashtirish

14.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish zaruriyati

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya (faoliyatni kengay-tirish, mahsulot va xizmatlar turlarini ko'paytirish) va modernizatsiya qilish(zamonaviylashtirish, yangilash) jarayonlarida iqtisodiyot tarmoqlarida XYuSlarning ishlab chiqarishda ilg'or sifat siljishlariga va samarali ishlash-lariga erishish uchun kompleks choralar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida boshlangan O'zbekiston iqtiso-diyotining xomashyo yo'nalishini o'zgartirish strategik nuqtai-nazardan uzoq muddatli ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu yuqori texnologik yangi ishlab chiqarishni tashkil etish, qayta ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni yuqori sur'atlarda rivoj-lantirish, eksport salohiyatini keskin oshirish, importni esa keskin kamaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulot-larni o'zimizda ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini taqozo etadi. Sanoatni xomashyoni kompleks chuqur qayta ishlashga yo'naltirish asosida va bozorlarda yuqori texno-logiyali mahsulotlarning sotilishini oshirmasdan turib samarali taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Bu taraqqiyotning innovatsion-investitsion usuliga o'tish maqsadida qo'shimcha moliyaviy resurslarni olish uchun oqilona yo'l hisoblanadi. 2016 yildan boshlangan yangi iqtisodiy sharoitda bu masalaga e'tibor yanada kuchaydi.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash tarmoqlarini yuqori sur'atlarda rivojlantirish XYuSlarning faoliya-tini kengaytirish jarayonida ustuvor vazifadir. Takror ishlab chiqarishning intensiv usuliga o'tish ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirishda mashinasozlik ta'sirining o'sishini talab qiladi. Iqtisodiyotning mashinasozlik tarmoqlari esa moliyalashtirishning yangi manbalarini jalb qilish asosida ishlab chiqarishning texnologik jihatdan yangilanishini kuchaytirishga ehtiyoj sezadi.

Mashinasozlik kompleksini rivojlantirish uchun mashina va asbob-uskunalarning mustahkamligi va sifatini oshirish, mashinasozlik buyumlarining absolyut va nisbiy salmog'ini (texnik miqdor birligiga nisbatan) kamaytirish yo'li bilan mahsulotlarning metall va energiya sig'imlarini kamaytirish muhim hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish resurslarni tejab-tergash jarayoni va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birgalikda xalq iste'moli

tovarlarini ishlab chiqarish ijtimoiy ahamiyatining o'sishiga ham alohida e'tibor bermoq lozim. O'zbekistonda sobiq SSSRdan meros bo'lib qolgan iqtisodiyot tarmoqlarida iste'mol predmetlarining salmog'i va ularning sifati pastligi oqibatida iste'mol talablarini qondirish muammosi hali o'z echimini to'la topmagan.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish uzoq muddatli investitsion va moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan bog'liq. Xuddi shu maqsadlarga kichik biznesni samarali rivojlantirish ham xizmat qiladi. Ishlab chiqarishning fan sig'imini oshirish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha kompleks choralar ishlab chiqish va ularni izchillik bilan amaliyotga joriy etish alohida ahamiyatga ega. Marketing sohasida ta'sirchan siyosatni amalga oshirish, ishlab chiqarishni texnologik jihatdan yangilash va mahsulotlar yangi turlarini o'zlash-tirishning oqilona strategiyasini tanlash kerak.

Ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan qayta qurish asosida diversifikatsiya va modernizatsiya qilish zamonaviy bozor infratuzilmasini yaratish, xususan, iqtisodiyotning transport-kommunikatsion kompleksini rivojlantirish bilan o'zaro bog'langan. Uning vazifasi transport chiqim-larini qisqartirish va xizmatlarning sifatini oshirish hisobidan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida transport xarajatlarini kamaytirishdan iborat. Xalqaro andozalarga mos keladigan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqa-rishning murakkabligini inobatga olgan holda dunyo ishlab chiqaruvchilarining markasidan foydalanib qo'shma XYuS-larga asos solish va ularning rivojlanishini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

14.2. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning innovatsion-investitsion strategiyasini shakllantirish

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish faqat iste'molchilarning ehtiyojlarini yanada to'la-roq qondirish nuqtai-nazaridangina emas, balki yakuniy mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi moddiy va mehnat xarajatlarini qisqartirish hisobidan XYuS foydasini oshirish uchun ham muhim hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ilg'or texnologiyalarni joriy etish uchun ular taraqqiyotning eng ilg'or tendentsiyalariga muvofiqligini aniqlash, ularni amalga oshirishning strategik yo'nalish-larini ishlab chiqish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan bozor samaradorlik va ish sifatining ijtimoiy-zaruriy ko'rsatkichlarini ta'minlay olmaydigan ishlab chiqarishning

past texnik-texnologik darajasiga iqtisodiy jihatdan yo'l bermaydi. Ana shu shartga rioya qilingan holdagina iste'molchilarning ehtiyojlarini qondi-rish, ratsional nisbatlarga erishish, ishlab chiqarish salohiyatidan yanada to'liqroq foydalanish va resurslarni tejab-tergashga imkoniyat tug'iladi. Mazkur muhim vazifani yechishga bozorning barcha iqtisodiy mexanizmi, shu jumladan baholar, soliqlar, kredit, bank foizi va boshqalar yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Bunda iqtisodiyotning sotsial sohasini yuqori sur'atlarda rivojlantirish, aholining tobora o'sib boradigan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga o'tish juda muhim.

Qat'iy pul va moliya-kredit siyosatining hayotga tadbiq etilishi inflyatsiya sur'atlarining pasayishiga olib kelishi mumkin, lekin bu holat sifat jihatidan iqtisodiy o'sishga o'tishning, faol tuzilmaviy qayta qurishning va ishlab chiqarish taraqqiyotining investitsion jihatdan ta'minlash-ning mustahkam yo'nalishi bo'la olmaydi. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuviga moliyaviy va investitsion bozorlarning shakllanishi o'zining katta ta'sirini ko'rsa-tadi. Bu yerda o'z qo'lida juda katta texnologik va resurs salohiyatini to'plab olgan yirik korporatsiyalar va moliya-sanoat guruhlari tomonidan qattiq raqobat namoyon bo'ladi. Bu salohiyatdan samarali foydalanish ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, mamlakatning tashqi bozorlarga chiqishi bilan bog'liq bo'lgan strategik vazifalarning echilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

XYuSlarning innovatsion strategiyasi uchun ular inve-stitsion faoliyatini rag'batlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu samarali moliya-kredit va investitsion siyosatni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, bu yerda xo'jalik faoliyatini rag'batlantirishni ta'minlash, ishlab chiqarishning boshqaruvchanlik darajasi va uning inve-stitsion sohasini oshirish talab qilinadi. Takror ishlab chiqarish barcha tsikli va u investitsion sohasining dina-mikasini qamrab oluvchi asosiy printsiplarni har bir XYuSda ishlab chiqish juda muhim.

Birinchidan, samarali investitsion dasturlar va ishlab chiqarishni yangilash loyihalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'li orqali va bir vaqtning o'zida bozor o'z-o'zini tartibga soluvchilarining ta'siri ostida amalga oshiril-mog'i lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishni yangilashning yangi texni-kasi va ilg'or texnologiyasi faqat "innovatsiyalar – inve-stitsiyalar – tarkibiy qayta qurish" bloklarining organik jihatdan bog'liqligi sharoitida yuqori natijalarni berishi mumkin. Muammoni hal etishga bunday yondoshuv korpora-tsiyalar, firmalar va XYuSlarning faqat

uzoq muddatli istiqbolda emas, balki o’rta muddatli davrda ham ishlab chiqarish-tijoriy faoliyatida integral samaraning o’sishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish va investitsion sohani tarkibiy jihatdan qayta qurishning informatsion qismi ham o’sib boruvchi ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni va takror ishlab chiqarishni butunlay bozoriy transformatsiyalashuvining asosiy yo’nalishlarini dasturiy ta’minlashning infor-matsion tizimidagi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish mexanizmidagi kamchiliklar asoslangan ishlab chiqarish-texnologik qarorlari qabul qilishni, buyurtmalar portfe-lini shakllantirishni va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni murakkab-lashtiradi.

14.3. Diversifikatsiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar: manbalari, ularni baholash va samaradorligini aniqlash

Iqtisodiy va moliyaviy vaziyatni sog’lomlashtirish uchun jamg’armalarning ichki kapital qo’yilmalar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sifatida real investi-tsiyalarga aylantirilishini hamda ulardan samarali foydalanishni ta’minlash muhim hisoblanadi. Xalqaro amaliyotni o’rganish shundan dalolat beradiki, investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil qilish sohasida ularni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini asoslash, ekspertizalarni o’tkazishning roli o’sib borayapti. Bu muammoni hal etish xalqaro andozalarining mujassam-lashgan shakllari YuNIDO metodikasida o’z aksini topgan. Biroq har bir mamlakat iqtisodiyotining o’ziga xos xususiyatlari bu metodikada mavjud bo’lgan an’anaviy yondoshuvlardan to’g’ridan-to’g’ri (ko’r-ko’rona) nusxa olishga imkon bermaydi va shuning uchun ham ularni har bir mamlakatning xo’jalik sharoitlariga moslashtirish kerak. Bunda joylashtiriladigan (qo’yiladigan) mablag’larning qoplanishi va avanslashtirilgan kapitalga investor tomonidan talab qilinadigan daromad normasini olish bo’yicha investitsion takliflarni sifati jihatdan ekspertiza qilish muhimdir. Ana shu yo’nalishda investitsion loyihalarni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va uning raqobatbardoshligi, shuningdek, vakolatli bankning kafolatini xarakter-laydigan tegishli ekspert xulosalariga baho berishning ahamiyati ortadi.

Xorijiy bank bilan kredit bitimini tuzishda, eng avvalo, to’lovlarning o’z vaqtida amalga oshirilishini (o’tkazilishini) ta’minlash

kerak. Odatda, XYuS kredit bo'yicha quyidagi to'lovlarni amalga oshiradi:

- bitim summasining 15%idan kam bo'lmagan avans to'lov-larining birlamchi (boshlang'ich) badali (o'zlashtirish boshlangunga qadar) – kredit bitimi tuzilgandan keyin bir oy ichida;
- sug'urta badali – sug'urta riskini baholashga nisbatan 3%dan kam bo'lmagan miqdorda;
- xizmat ko'rsatuvchi banklarga komission to'lovlar – kre-ditning o'zlashtirilmagan qoldig'iga komissiya, kreditni tashkil qilish uchun haq, xorijiy sug'urta agentliklarida qayd etilganligi uchun haq.

Xorijiy firmalar bilan hamkorlikdagi investitsion loyihalarni o'zlashtirish davrida birinchi bosqichda foiz va mamlakat banklari tomonidan operatsion xarajatlar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi. Qaytarishda esa (to'liq o'zlashtirilganidan so'ng) qarzning asosiy summasi (xorijiy bankning grafigiga muvofiq ravishda) o'tkaziladi va foizlar bo'yicha to'lovlar to'lanadi. Taqdim etilgan takliflarni realizatsiya qilish mexanizmi, bir tomondan, xorijiy investitsion kreditlarni oluvchilarning tarkibini optimallashtirishga xizmat qiladi va ikkinchi tomondan esa, ulardan maqsadli foydalanish ustidan ta'sirchan nazorat bo'lishini ta'minlaydi. Investitsiyalarning natijaliligini oshirish uchun investitsion loyihalarni, shu jumladan, xorijiy kredit liniyalariga qo'shish uchun ham, tanlab olish tartibi takomillashtirilmog'i lozim. XYuS va tashkilot-larning arizalarini ularning asoslanganligi bo'yicha xulosalar uchun tarmoq, korporativ va mintaqaviy daraja-larda qayta ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Tanlovning joriy etilishi bitimning eng yaxshi shart-larini – mamlakat XYuSlarining iqtisodiy manfaatlariga to'liq javob beradigan mahsulotni tanlash – qo'lga kiritishga imkon beradi. Hukumat kafolati ostida jalb qilinadigan xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirish uchun innovatsion loyihalarni tanlashda asosiy me'zonlarning quyidagi tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va qarz oluvchining birlamchi (boshlang'ich) badalni to'lash bo'yicha moliyaviy imkoniyati;
- texnik va texnologik ahvoli;
- tijoriy samaradorligi va valyutaviy qoplanuvchanligi;
- huquqiy ta'minlanganligi va ekologik xavfsizligi.

Hukumat kafolati ostida jalb qilinadigan xorijiy kreditlar bo'yicha moliyalashtirishga qabul qilinadigan loyihalar manfaatdor vazirliklar va idoralar, minta-qaviy ma'muriy organlar, XYuSlar, tashkilotlar va

bank-larning roziligi bo'yicha shakllanadigan ustuvor inve-stitsion loyihalar ro'yxatiga kiritilgan bo'lmog'i darkor.

Investitsion loyihani texnik-iqtisodiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy jihatdan asoslashda ob'yektiv moliya-viy tahlil muhim ahamiyatga ega. Loyihani ishlab chiqarish jarayoni g'oyaning paydo bo'lgan vaqtidan XYuS ishga tushi-rilgunga va quvvatlar o'zlashtirilgunga qadar uch bosqichdan iborat bo'ladi:

- tayyorgarlik ko'rish bosqichi;
- investitsion bosqich;
- operatsion bosqich.

Yuqoridagi bosqichlarning har biri bir necha quyi bosqichlardan iborat bo'lib, ularda turli-tuman tadqiqot, konsultatsion, texnik va sanoat ishlari amalga oshiriladi, loyiha tsiklining har bir bosqichi esa o'zaro bir-biri bilan bog'langandir.

Loyiha tsiklining bosqichlari bo'yicha kapital xarajat-larni taxminiy taqsimlanishi dastlabki (tayyorgarlik ko'rish) va investitsion bosqichlarni o'z ichiga oladi. Loyi-halarni moliyalashtirishning ikki asosiy manbalari mav-jud:

- o'z kapitali;
- kredit.

O'z korporativ kapitalini shakllantirish aktsiyalarga (imtiyozli va oddiy) ochiq yozilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Qarz mablag'lari esa turli muddatli bank kreditlari shaklida, shuningdek, qarz majburiyatlarini emissiya qilish yo'li bilan jalb qilinadi. Moliyalash-tirishning bunday tiplari o'rtasidagi printsipial farq qarzdorning kreditorlar oldidagi birinchi darajali javobgarligidadir.

O'z va qarz mablag'lari o'rtasida ma'lum bir muvo-zanatga (balansga) rioya etmoq zarur. Kreditor nuqtai-nazaridan qarz kapitalning yuqori salmog'i qarz oluvchi (qarzdor)ning risklilik darajasini oshiradi, chunki unda xarajatlarning umumiy tarkibiy tuzilmasida foiz to'lov-larining salmog'i ortadi (ko'payadi) va demak, foyda miqdori pasayadi (kamayadi)[61].

Qarz olish usulida moliyalashtirishning ko'rinishlari-dan biri lizingdir. Agar moliyalashtirish shartlari xorijda mahalliy shartlardan keskin farq qiladigan bo'lsa, lizing asbob-uskunalarni sotib olishning ustuvor metodi hisoblanadi[62].

---

[61] Biroq shu narsani alohida qayd etib o'tish kerakki, o'z va qarz kapital o'rtasidagi sog'lom ("normal") nisbatning yagona qoidasi mavjud emas. Shuning uchun ham, odatda, amaliyotda 1:1 nisbat yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk sifatida, qarz kapitalning hissasi 60%dan ortganda esa qarz oluvchi (qarzdor) yuqori riskli sanaladi. Bir vaqtning o'zida, bunday mo'ljal har qanday korxona uchun ham maqbul bo'lgan variant sanalmaydi.

[62] Ijaraga olingan asbob-uskunani moliyalashtirish XYuSning balansidan tashqarida qolib, bu narsa uning moliyaviy hisobotini yanada jozibador qiladiki, bunday holat investitsion loyihani tahlil qilishda hisobga olinmog'i lozim.

Moliyalashtirish shakllarining turli-tumanligi o’zgarib turishi mumkin. Biroq ular tushumlar va asosiy xarajatlarning ta’minlanganligi uchun etarli bo’lishi kerak. Ko’p hollarda loyihani ishlab chiquvchilar investor-lar va kreditorlarga uning jozibadorligini ta’minlash maqsadida loyihaning qiymatini pasaytirishga harakat qiladilar. Shu munosabat bilan moliyaviy ekspertning vazifasi loyiha yoki kompaniyaning kapitalga bo’lgan haqiqiy ehtiyojini aniqlashdan iborat. Shuning uchun ham moliyaviy tahlilda investitsion qo’yilmalarni iqtisodiy baholash-ning ko’p sonli metodlari ishlab chiqilganki, ularning har biri, o’z navbatida, afzalliklarga va kamchiliklarga ham ega. Bu ko’rsatkichlar tizimi o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- NVP – kapital qo’yilmalarning sof keltirilgan qiymati;
- IRR – ichki foyda normasi;
- qoplanish muddati.

Kapital qo’yilmalarning sof keltirilgan qiymati (NVP) klassik (mumtoz) variantda (ko’plab modifikatsiyalar mavjud bo’lganda) diskontlashtirilgan sof pul xarajatlari va tushumlarning yig’indisi sifatida hisoblanadi. Ijobiy NVP investitsion loyihadan qaytim diskontlashtirishning ma’lum bir stavkasidan yuqori ekanligini ko’rsatadi. NVPning kamchiligi diskontlashtirish stavkasini hisoblash-ning shartliligi bilan belgilanadi. Investorga boshqa loyihadan ko’ra shu loyihaga mablag’larni joylashtirishi foydali hisoblanadi. Bunda NVPning miqdori diskont-lashtirish stavkasining uncha katta bo’lmagan o’zgarishiga ta’sirchan bo’ladi. NVPning hisoblanishi ma’lum darajada ishlab chiqarishni innovatsion yangilash investitsion loyi-hasining mumkinligini baholashda mo’ljal bo’lib xizmat qiladi.

Ichki foyda normasi (IRR) loyiha NVPsi nolga teng bo’lgandagi diskontlashtirish stavkasidan iborat. Har ikkala ko’rsatkich ham bir necha ko’p yildan so’ng katta daromad keltiruvchi ishlab chiqarish innovatsion loyihasi uchun bir xil ahamiyatga ega bo’lishi mumkin. Investor va kreditor uchun kutilayotgan daromadlarning muddatlar bo’yicha taqsimlanishi muhim va shuning uchun ham agar daromadlar riskining vaqt bo’yicha uzoqlashishiga muvofiq ravishda tez o’sishi inobatga olinadigan bo’lsa, bu omil yanada juda muhim hisoblanadi.

Qoplanish muddati ko’rsatkichi ishlab chiqarishni yangi-lash innovatsion loyihasidan olingan daromadlar birlamchi kapital qo’yilmalardan oshgandagi yillar soniga qarab aniqlanadi.

Hisoblashning ma’lum soddaligiga qaramasdan, bu ko’rsatkich investitsion loyihaning riskliligini puxta baholaydi hamda NVP va IRR bilan birgalikda kapital qo’yilmalarning optimal maqsadga muvofiqligini baholashga imkon beradi.

Joriy va istiqboldagi tahlil ishlab chiqarishni yangilash innovatsion loyihalarini amalga oshirishning boshqa yo’nalishlari va parametrlariga nisbatan o’tkazilishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor yuqori rentabellilik va kuchsiz bashoratlash xos bo’lgan quyidagi omillarga, ya’ni risklar, valyuta kurslari, kreditlar bo’yicha suzuvchan stavka, tayyor mahsulot va xomashyoning bahosi kabi omillarga qaratiladi. Bu omillarning har biri uchun bo’lishi mumkin bo’lgan tebranishlarning intervali aniqlanadi va asosiy parametrlarning o’zgarishi mumkin bo’lgan imkoniyatlari baholanadi. Undan so’ng investitsion loyihaning barcha risklarini hisobga olgan holda uning etarli darajada foydaliligi saqlanib qolgandagi kritik parametrlarning yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan chegaralariga baho beriladi.

Ishlab chiqarishni yangilash dasturlari va innovatsion loyihalarning investitsion samaradorligi kapital qo’yil-malar to’g’risida qaror qabul qilingan paytda mavjud bo’lmagan omillarga ham bog’liq. Iqtisodiyotning har bir tarmog’ida ana shunday omillar to’plami mavjud.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish nimani anglatadi?
- Diversifikatsiya va modernizatsiya qanday omillar bilan uzviy bog’liq?
- Korxonani diversifikatsiya va modernizatsiya qilish uchun, eng avvalo, qanday tadbirlarni amalga oshirmoq lozim?
- Xo’jalik yurituvchi suyu’ektning innovatsion-investitsion strategiyasi deganda nimalar tushuniladi?
- Qat’iy pul va moliya-kredit siyosatining hayotga tadbiq etilishi sifat jihatidan iqtisodiy o’sishga o’tishning, faol tuzilmaviy qayta qurishning va ishlab chiqarish taraq-qiyotining investitsion jihatdan ta’minlashning mustahkam yo’nalishi bo’la oladimi?
- XYuSlarning innovatsion strategiyasi uchun ular inve-stitsion faoliyatini rag’batlantirish qanday ahamiyatga ega?
- Takror ishlab chiqarish barcha tsikli va u investitsion sohasining dinamikasini qamrab oluvchi asosiy printsiplar nimalardan iborat?

- Xorijiy bank bilan kredit bitimini tuzishda, eng avvalo, nimalarga e’tibor bermoq lozim?
- Hukumat kafolati ostida jalb qilinadigan xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirish uchun innovatsion loyihalarni tanlashda asosiy me’zonlarning qanday tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq?
- Loyihani ishlab chiqarish jarayoni g’oyaning paydo bo’lgan vaqtidan XYuS ishga tushirilgunga va quvvatlar o’zlash-tirilgunga qadar qanday bosqichlardan iborat bo’ladi?
- Loyihalarni moliyalashtirishning qanday asosiy manba-lari mavjud?
- Investitsiyalarni moliyalashtirishning qanday shakllari mavjud?
- Investitsion qo’yilmalarni iqtisodiy baholashning qanday metodlari mavjud?
- Investitsion qo’yilmalarni iqtisodiy baholashning ko’rsatkichlar tizimini tushuntirib bering.
- Kapital qo’yilmalarning sof keltirilgan qiymatining mazxmuni nimada?
- Ichki foyda normasi qanday aniqlanadi?
- Qoplanish muddatini tushuntirib bering.

15-bob. Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning moliyaviy barqarorligi: baholash, ko’rsatkichlari, oshirish yo’llari

15.1. Moliyaviy barqarorlik va uni ta’minlash omillari

Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning moliyaviy barqaror-ligi quyidagilar xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- tashqi qarz manbalardan moliyaviy mustaqillik;
- moliyaviy resurslardan erkin va samarali foydalanish borasida XYuSning qobiliyati;
- xo’jalik faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo’lgan o’z mablag’lari summalarining XYuSda barqaror mavjudligi.

Moliyaviy barqarorlik mazmunining asosida XYuS moliyaviy resurslarini samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish yotadi. Moliyaviy barqarorlikning tahlili shu davr mobaynida XYuS o’zining moliyaviy resurslarini quyidagi vazifalarni yechish uchun qanchalik to’g’ri boshqarganligini aniqlashga imkon beradi:

- talab mahsulotiga ega bo’lgan ishlab chiqarish jara-yonining uzluksizligini ta’minlash;
- mahsulot sotishning uzluksizligini yo’lga qo’yish;
- innovatsion asosda ishlab chiqarish bazasini kengay-tirish va yangilash.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun XYuS-ning faoliyati to’g’risida to’liq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo’lmoq lozim. Bunda moliyaviy resurslar holatining bozor talablariga muvofiq kelishi va XYuS taraqqiyotining ehtiyojlariga javob berishi muhim hisoblanadi.

XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga xilma-xil bo’lgan juda ko’plab omillar o’z ta’sirini ko’rsatadi. Ular quyidagi belgilariga ko’ra tasniflanadi(klassifikatsiya qilinadi):

- vujudga kelish joyiga qarab;
- natijasining muhimligiga ko’ra;
- tarkibiy tuzilmasi bo’yicha;
- harakat etish davriga muvofiq.

Vujudga kelish joyiga qarab XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar quyidagi ikki guruhga bo’linadi:

- ichki;
- tashqi.

Natijasining muhimligiga ko'ra moliyaviy barqaror-likka o'z ta'sirini ko'rsatuvchi omillar quyidagi ikki guruh-dan tashkil topadi:

- asosiy omillar;
- ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan omillar.

Tarkibiy tuzilmasi bo'yicha XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagi ikki guruhdagi omillardan tarkib topadi:

- oddiy;
- murakkab.

Harakat etish davriga muvofiq moliyaviy barqaror-likka o'z ta'sirini ko'rsatuvchi omillarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- doimiy;
- vaqtinchalik.

Yuqoridagilarning orasida eng muhimi omillarning tashqi va ichki guruhi hisoblanib, u omillarning namoyon bo'lishiga, miqdoriy va sifat mazmuniga u yoki bu darajada XYuSning bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatini aniq aniqlab beradi.

XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi asosiy ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy resurslarning tarkibi va tarkibiy tuzil-masi, ularni boshqarishning taktikasi va strategiyasi;
- XYuS mol-mulkining tarkibi va tarkibiy tuzilmasi;
- ishlab chiqarish chiqimlarining tarkibi va tarkibiy tuzilmasi, ularni qisqartirish imkoniyatlari;
- ishlab chiqariladigan mahsulotning to'lovga layoqatli bozor talabiga muvofiqligi;
- XYuSning qaysi tarmoqqa mansubligi va boshqalar.

Bu omillarning ta'sirini baholash ko'p jihatdan menejerlarning kasbiy mahorati va malakasiga, ularning ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlar va o'zaro bog'liqlikni hisobga olish qobiliyatiga bog'liq.

Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi tashqi omil-larga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xo'jalik yuritishning iqtisodiy sharoitlari ta'siri;
- davlatning soliq va kredit siyosati;
- iste'molchilarning to'lovga layoqatli talabi va daromadlarining darajasi;
- jamiyatda texnika taraqqiyoti, texnika va texnolo-giyalarning umumiy darajasi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning darajasi;
- XYuS faoliyati ustidan nazorat bo'yicha qonunchilik aktlari;

- va boshqalar.

XYuSning moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarga bog’liq ravishda u quyidagilarga bo’linishi mumkin:

- ichki barqarorlik;
- tashqi barqarorlik;
- umumiy barqarorlik.

Ichki barqarorlik XYuSning shunday moliyaviy holati-dirki, unda faoliyat ko’rsatishning barqaror yuqori natijasi, eng birinchi navbatda, ichki omillarning faollashtirilishi hisobidan ta’minlanadi.

O‘z navbatida, **tashqi barqarorlik** XYuSning shunday moliyaviy holatidirki, u doirasida XYuS faoliyat ko’rsa-tadigan iqtisodiy muhitning barqarorligi bilan belgi-lanadi. Bunday barqarorlik butun mamlakat masshtabida rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida erishiladi.

Va nihoyat, **umumiy barqarorlik** XYuSning shunday moliyaviy holatidirki, unda ichki va tashqi omillarning o’zaro ta’sirchanligini faollashtirish hisobidan mablag’lar tushumining ularning xarajat qilinishidan ortiqchaligi ta’minlanadi.

XYuSlar moliyaviy holatining barqarorligi moliyalash-tirishda ehtiyojlarni qondirishning manbalari sifatida o’z va qarziy mablag’larning nisbati asosida qaraladigan (hisoblanadigan) nisbiy va absolyut ko’rsatkichlar tizimi bilan baholanadi. Etarli bo’lmagan moliyaviy barqarorlik XYuSni noto’lovqobillilikka va ishlab chiqarishni rivoj-lantirish uchun unda mablag’larning mavjud bo’lmasligiga olib kelishi mumkin. Aksincha, ortiqcha moliyaviy barqa-rorlik esa, taraqqiyotga to’sqinlik qilishga, ortiqcha zahiralar tufayli xarajatlarning og’irlashuviga sabab bo’ladi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o’z aylanma mablag’larining summalarini aniqlash va ularning dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarni bilish;
- zaxiralar, xarajatlar va barcha aylanma aktivlarni shakllantirish qismi bo’yicha moliyaviy barqarorlikni baholash;
- moliyaviy barqarorlikning turi(tipi)ni aniqlash.

O‘z aylanma mablag’lari, zaxiralar va xarajatlarni shakllantirishning boshqa manbalari ko’rsatkichlarining nisbatiga va zaxiralarning miqdoriga bog’liq ravishda XYuSlar moliyaviy barqarorligining quyidagi tur(tip)la-rini ajratib ko’rsatish mumkin:

- absolyut moliyaviy barqarorlik;
- sog’lom (normal) moliyaviy barqarorlik;

- beqaror moliyaviy ahvol;
- inqirozli moliyaviy holat.

Absolyut moliyaviy barqarorlikning asosiy sharti noto'lovlar va ular kelib chiqish sabablarining mavjud emasligidir.

Sog'lom (normal) moliyaviy barqarorlik ichki va tashqi moliyaviy intizomning buzilmasligini taqoza etadi.

Beqaror moliyaviy ahvol moliyaviy intizomning buzilishi (mehnat haqini to'lashdagi kechikishlar, vaqtincha bo'sh turgan o'z mablag'lari, rezerv fondlari va boshqa fondlardan foydalanish), hisob-kitob schyotiga pul mablag'larining uzilishlar bilan tushishi, rentabellikning beqarorligi, moliyaviy rejaning, jumladan, foyda bo'yicha rejaning bajarilmasligi va h.k.lar bilan xarakterlanadi.

Inqirozli moliyaviy holat quyidagi bir necha darajalarga ega:

- birinchi daraja (1): muddati o'tkazib yuborilgan bank ssudalarining mavjudligi;
- ikkinchi daraja (P): 1 + tovarlar bo'yicha mol etkazib beruvchilarga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikning mavjudligi;
- uchinchi daraja (Sh): P + byudjetga nisbatan boqi-mandalarning mavjudligi.

Inqirozli moliyaviy holatda zaxiralar va xarajatlar ularni shakllantirish manbalari bilan ta'minlanmaydi va bu narsa XYuS va bankrotlik arafasidagi chuqur inqiroz to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Bunday vaziyatda pul mablag'lari, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlari uning kreditorlik qarzlarini va muddati o'tkazilgan ssudalarni qoplamaydi.

XYuSning moliyaviy holati kompleks tushuncha bo'lib, uning xo'jalik va tijorat faoliyati jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar barcha elementlarining o'zaro ta'sirchanligini aks ettiradi. XYuSning moliyaviy holati mablag'larni joylashtirish va ulardan foydalanish hamda ularni shakllantirish manbalari bilan xarakter-lanadi. Moliyaviy holatni aniqlash uchun quyidagilarni o'z ichiga oluvchi moliyaviy tahlil o'tkaziladi:

- moliyaviy holatning ekspres-tahlili (aktivlar va passivlar tarkibiy tuzilmasining, mol-mulk, zaxiralar va xarajatlar holatining tahlili);
- moliyaviy barqarorlik tahlili;
- XYuS balansi likvidligining tahlili;
- faoliyatning moliyaviy natijalari tahlili;
- rentabellik va ishbilarmonlik faolligi tahlili.

XYuSning moliyaviy holati, shuningdek, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish jara-yonlarini aks ettiruvchi

ko’rsatkichlar majmui bilan ham xarakterlanadi. Moliyaviy-xo’jalik faoliyatining natija-lari faqat XYuS ishchi va xizmatchilarining diqqat-e’tiborida bo’libgina qolmasdan, xuddi shu holat xo’jalik faoliyati bo’yicha uning hamkorlari, davlat, moliya, soliq organlari va boshqalarning ham diqqat markazida bo’ladi. Bularning barchasi XYuS moliyaviy holati tahlilini amalga oshirishning muhimligi va uning iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyatini oshiradi.

Moliyaviy tahlilning maqsadi quyidagilardan iborat:

- moliyaviy holat ko’rsatkichlarining o’zgarishini aniqlash;
- barqarorlikka ta’sir ko’rsatuvchi omillarni aniqlash;
- moliyaviy holatning sifat va miqdoriy o’zgarishlarini baholash;
- ma’lum bir sana uchun XYuS moliyaviy ahvolini baho-lash;
- moliyaviy holat o’zgarishining asosiy yo’nalishlarini aniqlash;
- va boshqalar.

Moliyaviy holat tahlilida XYuS tomonidan sotilgan mahsulotning rentabelligi, uning ishlovchi kapitali, moliyaviy barqarorligi, balansining likvidligi, to’lov qobiliyati va kreditga layoqatligi aniqlanadi va ularga baho beriladi.

XYuSning sog’lom (normal) moliyaviy barqarorligi xususida quyidagi parametrlarni birgalikda olib qarab gapirish mumkin:

- to’lov qobiliyati (o’z majburiyatlari bo’yicha XYuSning barqaror hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyati);
- balansning likvidligi (majburiyatlarni likvid aktiv-lar bilan qoplash darajasi);
- kreditga layoqatlilik (kreditlarni qaytarish qobi-liyati);
- rentabellik (foydalilik).

Yuqorida bayon etilgan omillarning har biri tahlil qilishning o’z metodikasiga ega.

15.2. Moliyaviy barqarorlik ko’rsatkichlari va ularni oshirish yo’llari

Moliyaviy barqarorlikning tahlili absolyut va nisbiy ko’rsatkichlar, ya’ni moliyaviy koeffitsientlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash uchun axborot (informatsion) bazasi sifatida buxgalteriya hisoboti xizmat qiladi. Bu

koeffitsientlar balans tuzilgan sanada hisoblanadi va dinamik ko'rinishda tahlil qilinishi mumkin.

Eng umumiy ko'rinishda XYuSning moliyaviy barqaror-ligini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

- avtonomlik koeffitsienti;
- qarz kapitalining kontsentratsiyalashuvi koeffitsienti;
- qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsienti.

Avtonomlik koeffitsienti XYuSning barcha mulkiga joylashtirilgan o'z mablag'larining barcha mablag'larning umumiy summasidagi hissasi (salmog'i)ni ko'rsatadi. Uni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$\mathbf{K}_a = \mathbf{O'}_k : \mathbf{B}_b$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_a$ - avtonomlik koeffitsienti;

$\mathbf{O'}_k$ - o'z kapitali ("Kapital va rezervlar" deb nomlanuvchi balans Sh bo'limining jami)

$\mathbf{B}_b$ - balans valyutasi (o'z va qarz kapital yig'indisi, ya'ni moliyalashtirishning umumiy summasi).

XYuSning moliyaviy ahvoli avtonomlik koeffitsien-tining darajasi 0,5dan kichik bo'lmagan holda barqaror deb hisoblanadi. Bu XYuSning yarim mulki uning o'z mablag'lari hisobidan shakllanganligini anglatadi. Avtonomlik koef-fitsientining o'sishi moliyaviy barqarorlikning oshganli-gidan dalolat beradi.

Qarz kapitalning kontsentratsiyalashuvi koeffi-tsienti qarzning kapital umumiy summasidagi salmog'ini aniqlab beradi va uni formula yordamida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\mathbf{K}_{qk} = \mathbf{Q}_k : \mathbf{B}_b$$

Bu yerda: $\mathbf{K}_{qk}$ - qarz kapitalning kontsentratsiyalashuvi koeffitsienti;

$\mathbf{Q}_k$ - qarz kapital (balans passivining 4- va 5-bo'limlari yig'indisi;

$\mathbf{B}_b$ - balans valyutasi (o'z va qarz kapital yig'indisi, ya'ni moliyalashtirishning umumiy summasi).

Qarzning salmog'i qancha katta bo'lsa, XYuSning moliya-lashtirish tashqi manbalariga bog'liqligi, bundan kelib chiquvchi oqibatlar bilan birgalikda, shuncha yuqori bo'ladi. Yuqoridagi har ikkala koeffitsientlar bir-biri bilar uzviy bog'langan. Ularning bog'liqligi quyidagi ko'rinishga ega:

$$K_a + K_{qk} = 1$$

Qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsienti XYuS majburiyatlarining o'z mablag'lariga nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_{qu} = M_{qk} : O'_k$$

Bu yerda: K_{qu} **-** qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsienti;

M_{qk} **-** majburiyatlar (qarziy kapital);

O'_k **-** o'z kapitali (o'z mablag'lari).

Qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsienti o'z mablag'lari aktivlariga joylashtirilgan har bir so'mga XYuS tomonidan qancha qarz mablag'lar jalb qilinganligini ko'rsatadi. Hisobot davri davomida bu koeffitsient darajasining ortishi XYuS jalb qilinayotgan qarz mablag'larga bog'liqligining kuchayganligidan va moliyaviy barqarorligining pasayganligidan darak beradi. Bu koeffitsient avtonomlik koeffitsienti bilan bog'langan va bu bog'lanish quyidagi ko'rinishga ega:

$$K_{qu} = 1 / K_a - 1$$

Shunday qilib, uning darajasi birga teng yoki undan kichik bo'lishi kerak.

Yuqoridagi umumiy koeffitsientlardan tashqari XYuS joriy faoliyatining moliyalashtirish o'z manbalari, ya'ni o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi ham baho-lanadi. Bu narsa XYuS moliyaviy barqarorligining quyidagi nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblashga asoslangan:

- zaxiralar va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'min-langanlik koeffitsienti;

- moliyaviy mustaqillik koeffitsienti;
- o’z kapitalining manyovrlilik koeffitsienti.

Zaxiralar va xarajatlarning o’z kapitali bilan ta’minlanganlik koeffitsienti o’z aylanma mablag’lari summasining moddiy zaxiralar va xarajatlar qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi va uni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$K_{tzx} = O'_{ам} : Q_{зх}$$

Bu yerda: K_{tzx} - zaxiralar va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsienti;

O'_{am} - o'z aylanma mablag'lari;

Q_{zx} - moddiy zaxiralar va xarajatlar qiymati.

Bu koeffitsientning darajasi moddiy zaxiralar va xarajatlarning o'z manbalari bilan qanday qoplanganligini va qarz mablag'larni jalb qilishga muhtoj emasligini ko'rsatadi. Uning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan minimal darajasi 0,6-0,8ga tengdir.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti o'z aylanma mablag'larining joriy aylanma aktivlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_{mm} = O'_{am} : J_{aa}$$

Bu yerda: K_{mm} - moliyaviy mustaqillik koeffitsienti;

O'_{am} - o'z aylanma mablag'lari;

J_{aa} - joriy aylanma aktivlar.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti XYuSga tegishli bo'lgan aylanma mablag'larning qancha qismi o'z kapitali hisobidan shakllantirilganligini ko'rsatadi. Agar uning darajasi 1ga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda bu absolyut moliyaviy barqarorlikni anglatadi. Koeffitsientning darajasi 1dan qancha past bo'lsa, XYuS moliyaviy holati shuncha beqarordir. Bu koeffitsientning kritik darajasi 0,1ga teng.

O'z kapitalining manyovrlilik koeffitsienti XYuS o'z aylanma mablag'larining o'z kapitali summasiga nisbati orqali ifodalanadi:

$$K_{m} = O'_{am} : O'_{k}$$

Bu yerda: K_{m} - o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsienti;

O'_{am} - o'z aylanma mablag'lari;

O'_{k} - o'z kapitali.

Bu koeffitsient o’z kapitalining qancha qismi joriy faoliyatni moliyalashtirishda foydalanilayotganligi va qancha qismi kapitallashtirilganligini ko’rsatadi. Uning 0,5ga teng bo’lgan darajasi optimal hisoblanadi

Zarur bo’lgan hollarda XYuSning moliyaviy barqaror-ligini xarakterlaydigan boshqa ko’rsatkichlardan ham foydalanish mumkin.

XYuS moliyaviy barqarorligini oshirishning omillari quyidagilardan iborat:

- asosiy va aylanma mablag’larning mazmunini optimal-lashtirish: innovatsion texnologiyalar sotib olishni ko’pay-tirish, tugallanmagan ishlab chiqarishni qisqartirish, mahsulot tannarxini pasaytirish;
- XYuS pul-hisob-kitob o’zaro aloqalarining samarador-ligini oshirish;
- oqilona baho siyosati va foydani taqsimlashni opti-mallashtirish;
- muvaffaqiyatli moliyaviy strategiyani amalga oshirish-ni, XYuSning sog’lom (normal) ishini ta’minlovchi moliya-viy resurslarni shakllantirishning mumkin bo’lgan variant-larini asoslash.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- XYuSlarning moliyaviy barqarorligi tushunchasi nimani anglatadi?
- Moliyaviy barqarorlik mazmunining asosida nimalar yotadi?
- Moliyaviy barqarorlikning tahlili tahlil davri mobaynida XYuS o’zining moliyaviy resurslarini qanday vazifalarni yechish uchun qanchalik to’g’ri boshqarganligini aniqlashga imkon beradi?
- XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga qanday omillar o’z ta’sirini ko’rsatadi va ular qanday belgilariga ko’ra tasniflanadi(klassifikatsiya qilinadi)?
- Vujudga kelish joyiga qarab XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar qanday guruh-larga bo’linadi?
- Natijasining muhimligiga ko’ra moliyaviy barqaror-likka o’z ta’sirini ko’rsatuvchi omillar qanday guruhlardan tashkil topadi?
- Tarkibiy tuzilmasi bo’yicha XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar qanday ikki guruhdagi omillardan tarkib topadi?
- Harakat etish davriga muvofiq moliyaviy barqaror-likka o’z ta’sirini ko’rsatuvchi omillarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?

- XYuSlarning moliyaviy barqarorligiga o’z ta’sirini ko’rsatuvchi asosiy ichki omillarga nimalar kiradi?
- Moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi tashqi omil-larni aytib bering.
- XYuSning moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarga bog’liq ravishda barqarorlik qanday guruhlarga bo’linadi?
- Ichki, tashqi va umumiy barqarorlikning mazmuni nimada?
- Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning vazi-falarini aytib bering.
- O‘z aylanma mablag’lari, zaxiralar va xarajatlarni shakllantirishning boshqa manbalari ko’rsatkichlarining nisbatiga va zaxiralarning miqdoriga bog’liq ravishda XYuSlar moliyaviy barqarorligining qanday tur(tip)larini ajratib ko’rsatish mumkin?
- Absolyut moliyaviy barqarorlik, sog’lom (normal) moliyaviy barqarorlik, beqaror moliyaviy ahvol va inqirozli moliyaviy holatlar nimani anglatadi?
- Moliyaviy holatni aniqlash uchun qanday moliyaviy tahlil o’tkaziladi?
- Moliyaviy tahlilning maqsadi nimalardan iborat?
- Moliyaviy barqarorlikning tahlili nimalar yordamida amalga oshirilishi mumkin?
- Eng umumiy ko’rinishda XYuSning moliyaviy barqaror-ligini qanday ko’rsatkichlar xarakterlaydi?
- Avtonomlik koeffitsienti, qarz kapitalining kontsen-tratsiyalashuvi koeffitsienti, qarz va o’z mablag’larining nisbati koeffitsientlari qanday hisoblanadi?
- XYuS joriy faoliyatining moliyalashtirish o’z manba-lari, ya’ni o’z aylanma mablag’lari bilan ta’minlanganligi qanday koeffitsientlar yordamida baholanadi?
- Zaxiralar va xarajatlarning o’z kapitali bilan ta’-minlanganlik koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, o’z kapitalining manyovrlilik koeffitsient-lari qanday hisoblanadi va ular nimalarni anglatadi?
- XYuS moliyaviy barqarorligini oshirishning omilla-rini tushuntirib bering.

16-bob. Davlat byudjeti

16.1. Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati

Davlat byudjeti kishilik jamiyati taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida paydo bo’lgan. Davlat byudjeti tashkil etishga ehtiyoj, eng avvalo, siyosiy tashkilot sifatida davlatning vujudga kelishi bilan bevosita bog’liqdir. Har bir davr ijtimoiy tuzumiga tegishli bo’lgan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy belgilari davlat faoliyati va davlat byudjetiningtaqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilab beradi.

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti ijtimoiy (ishlab chiqarish) munosabatlarning bir qismini ifoda etib, davlatning ixtiyoriga mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning muayyan qismini to’plash va uni jamiyat taraqqiyotining turli sohalarini (iqtisodiyot, maorif, sog’liqni saqlash, fan, madaniyat, ijtimoiy ta’minot, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) mablag’ bilan ta’minlash imkonini beradigan muhim taqsimlash vositasi (instrumenti)dir.

Mohiyatiga ko’ra davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi bo’lib, shunga mos ravishda moliya tizimiga doir barcha belgi (xususiyat)larga ega va unga tegishli bo’lgan barcha funksiyalarni bajaradi. Bir vaqtning o’zida, davlat byudjeti faqat o’ziga xos bo’lgan xarakterli xususiyatlarga ham egadirki, ular o’z navbatida, davlat byudjetini moliya tizimining boshqa bo’linmalaridan ajratib turadi va unda markaziy o’rinni egallashga asos bo’ladi. Uning ana shunday xususiyatlaridan biri bevosita davlatga tegishli ekanligidir. Haqiqatdan ham har bir mamlakatda davlat barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo’lsa-da, uning bu xislati, ya’ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslarni asosiy taqsimlovchi sifatidagi roli faqat byudjetda katta kuch bilan namoyon bo’ladi.

Davlat byudjeti juda keng qamrovli va murakkab tushuncha bo’lib, uni boshqarishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, tegishli kodeks, qonun, farmon, qaror va qonunosti hujjatlari huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi. Ularning ichida eng muhimlaridan biri “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti Kodeksi” hisoblanadi”[63].

Yagonalik (birlik) va yuqori darajada markazlashuv davlat byudjetining muhim xususiyatlaridandir. Turli ma’muriy-hududiy

---

[63]Darslikning davlat byudjeti bilan bog’liq boblarini tayyorlashda mazkur kodeks muhim manba sifatida ishlatildi.

byudjetlar ko'pligiga qaramasdan, ularning barchasi quyi bo'g'inlarning yuqori bo'linmalarga ketma-ket bo'ysunishiga rioya qilgan holda yagona davlat byudjetiga birlashadi. Bir vaqtning o'zida davlat byudjeti resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishda demokratizm printsiplariga ham rioya qilinadi. Chunki davlat hokimiyatining barcha organlari o'zlarining davlat byudjeti mablag'lariga ega va o'zlariga tegishli davlat byudjeti huquqlaridan foydalanadilar. Davlat byudjetiga xos ana shu xarakterli belgilar mablag'lar bilan manyovr qilish va davlat byudjeti siyosatini oqilona tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Moliya tizimining boshqa bo'linmalaridan farqli holda, davlat byudjetida, ikki tushunchaning terminologik qo'shi-lishi mavjud: 1) davlat byudjeti – iqtisodiy (moliyaviy) kategoriya sifatida; 2) davlat byudjeti – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida. Ayrim hollarda davlat byudjetining mohiyati faqat mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida talqin etiladi. Buni to'g'ri deb e'tirof etib bo'lmaydi. Chunki iqtisodiyotga tegishli bo'lgan har qan-day reja u yoki bu iqtisodiy kategoriyaning namoyon bo'lish shakllaridan biri hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda, davlatning asosiy moliyaviy rejasi davlat byudjeti (umumdavlat moliyasi) kategoriyasining namoyon bo'lish shaklidir. Ya'ni davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida iqtisodiy kategoriya va byudjetga xos bo'lgan xususiyatlar majmuining namoyon bo'lishidir. Iqtisodiy kategoriya va mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifati-da ularning "davlat byudjeti" deb bir xil nomlanishi predmetning mohiyatini o'zgartirmaydi va davlat byudjetini iqtisodiy (moliyaviy) kategoriyalar tarkibidan chiqarishga asos bo'la olmaydi. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, davlat byudjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo'shilishini tushunmoq kerak: 1) davlat miqyosida yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar (iqtisodiy kategoriya); 2) shu kategoriyaning namoyon bo'lish shakli sifatida davlatning asosiy moliyaviy rejasi.

Yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlashning moliyaviy vositasi (instrumenti) sifatida davlat byudjeti boshqa xususiyatlarga ham ega. Agar moliya yordamida taqsimlash qiymatning shakllari o'zgargan sharoitda va ko'plab oldi-sotdilar natijasida amalga oshirilsa, yalpi ichki (milliy) mahsulotning davlat byudjeti orqali taqsimlanishi ma'lum darajada, almashuvdan ajralgan holda sodir bo'ladi. Qiymatning davlat byudjeti orqali harakatlanishi moddiy mahsulotning harakatidan to'liq uziladi va sof qiymat xarakterini kasb etadi. Faqat

davlat byudjetidan tashqarida, davlat byudjeti resurslari sarflanayotganda taqsimlash va almashuv operatsiyalarining qayta qo'shilib ketishi sodir bo'ladi.

Moliya tizimining boshqa barcha bo'linmalari va iqtisodiy (moliyaviy) kategoriyalar (baho, ish haqi, kredit va boshqalar) bilan chambarchas bog'liqligi ham davlat byudjetiga xos xususiyatdir.

Davlat byudjetining mohiyatini ochib berishda u orqali amalga oshiriladigan taqsimlash jarayonlarining mazmunini ko'rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yalpi ichki (milliy) mahsulotni davlat byudjeti orqali taqsimlash bir vaqtning o'zida, o'zaro bog'langan va ma'lum darajada mustaqil bo'lgan uch bosqichdan iborat bo'ladi:

1) umumdavlat pul fondini shakllantirish (davlat byudjeti daromadlari);

2) hududiy va ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan ko'p sonli davlat byudjeti fondlarini yaratish;

3) davlat byudjeti fondidan foydalanish (davlat byudjeti xarajatlari).

Davlat byudjeti orqali yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlashning bu bosqichlari bir vaqtning o'zida va uzluksiz sodir bo'lsada, bu ularning nisbatan alohidaligini ham inkor etmaydi. Bu bosqichlarni bo'lish va ularni alohida-alohida ko'rib chiqish orqali byudjetli taqsimlashning xarakteri, shakli va metodlari to'g'risida osonroq va aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Birinchi bosqichda yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli pul mablag'larining bir qismi davlatning qo'lida to'planishi (jamlanishi) sodir bo'ladi. Ana shu asosda mablag'larni oluvchi sifatida davlat bilan mablag'larni to'lovchilar o'rtasida moliyaviy (byudjet) munosabatlar vujudga keladi. Bu munosabatlar, asosan, majburiylik xarakteriga egadir. Bu bosqichdagi taqsimlash jarayonlarining xarakterli xususiyati shundaki, byudjetga tushuvchi mablag'lar ajratib olingan bo'lib, ular qat'iy chegaralanmagan. Ularning barchasi hozircha yagona maqsadga – umumdavlat ehtiyojlarini qondi-rishga yo'naltirilgan. Davlat pul fondining alohidaligiga aniq maqsadlarga mo'ljallangan fondlarni kristallizatsiya qilish boshlanganda barham beriladi.

Davlat byudjeti fondini shakllantirishda ikki xil tushunchadan foydalaniladi:

1) byudjetga to'lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar);

2) davlat byudjetining daromadlari.

Bu tushunchalar bir xil ma’noni anglatadi. Chunki ularning ikkalasi ham davlat va mablag’ to’lovchilar o’rtasida vujudga keladigan bir xildagi taqsimlash munosabatlarini ifoda etadi. Bu yerda faqat ma’no jihatidan emas, balki miqdoriy jihatdan ham bir xillikka erishilgan. Zero, ularning har ikkalasi ham milliy daromadning yagona qismiga tegishlidir. Biroq bu tushunchalarning ikkiyoqlamalik xarakterga egaligini ham unutmaslik lozim.

Davlat byudjetiga to’lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar), eng avvalo, to’lovchilarning xara-jatlaridan iborat bo’lib, ularning daromadlaridan chegirilsada, bir vaqtning o’zida ular davlat byudjetida davlatning daromadlari sifatida gavdalanadi. Ana shundan taqsimlash munosabatlariga kirishgan ishtirokchilar (tomon-lar) o’rtasidagi manfaatlarda ba’zi bir farqli jihatlar vujudga keladi. Davlat davlat byudjetiningdaromadlarini oshi-rishdan manfaatdor bo’lsa, bu narsa u yoki bu darajada to’lovchilarning (yuridik va jismoniy shaxslarning) manfa-atdorligini (qiziquvchanligini) pasaytiradi.

Shunday qilib, “byudjetga to’lovlar” va “davlat byudje-tining daromadlari” tushunchalari yuqorida ko’rsatilgan umumiylikka ega bo’lsalar-da, bir vaqtning o’zida, ular o’rtasida ob’yektiv farqlar ham mavjud. Byudjetga to’lovlar xo’jalik yurituvchi sub’yektlar yoki to’lovchilar moliyasining tarkibiy elementlaridan hisoblanadi va boshqa taqsimlash munosabatlari bilan o’zaro organik bog’liqlikda ko’riladi; davlat byudjetida ular daromadlar shaklini oladi va davlat byudjetiningsub’yektlar (xo’jaliklar) bilan davlat byudjeti munosabatlari keng sohalarining boshqa elementlari bilan o’zaro bog’liqlikda tahlil qilinadi. Bu holda, taqsimla-nayotgan milliy daromadning yagona qismi ikki xil iqtisodiy mazmun kasb etadi va moliya tizimining turli bo’lin-malarida turlicha ko’rinishga ega bo’ladi.

Davlat byudjetining daromadlari o’zining yaxlitligi (yagonaligi, birligi) bilan farqlanadi va ular yagona maqsadga – ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Undirish metodlari, to’lovchilarning tarkibi, to’lash muddat-lari va hokazolarda katta farqlanishlar bo’lishiga qara-masdan, ularning barchasi davlat pul fondini shakllantirish bo’yicha davlat va to’lovchilar o’rtasida vujudga kelgan taqsimlash munosabatlarini tashuvchilar (ifodalovchilar)dir. Bu o’z navbatida, mablag’larni to’lovchilar bilan davlat o’rtasidagi munosabatlarning barchasi orasidan moliyaviy (byudjet) kategoriyaning bir ko’rinishi sifatida alohida munosabatlarni ajratib olishga asos yaratib beradi. Agar **moliya** iqtisodiy kategoriya sifatida e’tirof etilgan bo’lsa, **davlat byudjeti** bu kategoriyaning tarkibiy qismi,

ko’rinishlaridan biridir. O‘z navbatida, davlat byudjeti o’ziga tegishli bo’lgan (byudjet) kategoriyalarni vujudga keltiradi. Ular **davlat byudjeti** deb nomlangan kategoriyaga nisbatan ma’lum darajada bo’ysunuvchanlik xarakteriga ega bo’lib, uning tarkibiy qismlari sifatida maydonga chiqadi. Ana shunday davlat byudjeti kategoriyalaridan biri **davlat byudjetining daromadlaridir.**

Davlat byudjeti daromadlarining davlat byudjeti kategoriya-larining ko’rinishlaridan biri sifatida ajratilishi ularning umumiy iqtisodiy asoslari va xarakterli belgilarini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi. Davlat byudjeti daromadlari davlatning sub’yektlar (xo’jaliklar va aholi) bilan o’zaro munosabatlarining aniq chegaralangan, aniq-langan qismini ifoda etadi. Bu munosabatlar xilma-xil bo’lishiga qaramasdan, ular umumiy belgilarga ega va umumlashtirilgan, abstrakt holda ishlab chiqarish (byudjet) munosabatlarining alohida elementi sifatida maydonga chiqadi. Davlat byudjeti daromadlari o’zlarining iqtisodiy tabiatiga ko’ra ob’yektiv bo’lib, ular davlatning sub’yektlar (xo’jaliklar va aholi) bilan barqaror aloqalarini ifodalaydi. Ularning ob’yektiv zarurligi davlatning o’ziga xos funksiyalarga ega bo’lgan mavjudligi bilan belgilanadi.

Keng ma’noda daromadlar moliya fanining emas, balki iqtisod ilmining kategoriyasi hisoblanadi. Ular taqsimlash ob’yekti (masalan, korxonaning yalpi yoki sof daromadi) yoki taqsimlash natijasi (masalan, aholining oxirgi daro-madlari) bo’lishi mumkin. Davlat byudjeti daromadlarining farqlanuvchi belgisi shundan iboratki, ular taqsimlash natijasi (byudjetga to’lovlar) va yanada taqsimlash ob’yekti (davlat byudjeti ichidagi fondlarni shakllantirish va moliya-lashtirish) sifatida maydonga chiqadi. Demak, davlat byudjetining daromadlari aniq ifodalangan davlat byudjeti kategoriyasi bo’lib, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish taqsimlashning davlat byudjeti mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti daromadlarining turli ko’rinishlarini (qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, daromad solig’i va boshqalar) davlat byudjeti kategoriyalarining navbatdagi ko’rinish-lari sifatida talqin qilish uchun asoslar etarli emas. Chunki mazmuniga ko’ra iqtisodiy kategoriyalar ob’yektiv bo’lib, ular iqtisodiy qonunlarning harakatini ifodalasa, ularning namoyon bo’lish shakli esa, ma’lum darajada, sub’yektiv bo’lishi mumkin. Shuning uchun ham daromadlarning har bir ko’rinishiga tegishli bo’lgan xususiyatlar ob’yektiv harakatdagi (amaldagi) iqtisodiy kategoriyaning – davlat byudjeti daromadlarining namoyon bo’lish, ifodalanish shaklidir. Bu xulosaning to’g’riligini ko’p yillik amaliyot ham tasdiqlaydi.

Davlat bor ekan, davlat byudjetiga to'lovlar ham mavjud bo'ladi. Lekin byudjetga to'lovlarning shakli ma'lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o'zgarib boradi. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida byudjetga to'lovlarning u yoki bu turi hal qiluvchi rol o'ynashi, vaqt o'tishi bilan esa ular o'z ahamiyatini yo'qotib, boshqa to'lovlar bilan almashtirilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, **davlat byudjeti daromadlari** katego-riyasining namoyon bo'lish shakllarining o'zgarib borganligiga qaramasdan, bu kategoriyaning saqlanib qolganligini angla-tadi. Demak, byudjetga to'lovlar ko'rinishining o'zgarishi, bir to'lovning boshqa biri bilan almashtirilishi iqtisodiy kategoriya mazmunining emas, balki shakllarining evolyu-tsiyasidir. Biroq bundan moliyaviy va davlat byudjeti kategoriyalari qat'iyan ob'yektiv, ularning namoyon bo'lish shakllari esa sub'yektivdir, degan xulosa chiqarmas-lik kerak. Iqtisodiy qonunlarning harakati, iqtisodiyotning taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish munosabatlarining etukligi va boshqa omillar, ma'lum darajada, davlat byudjeti daromad-larining shakllarini ham belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida eng asosiy vazifalardan biri iqtisodiy taraqqiyotga erishish, uning samaradorligini ta'minlash, raqobatbardoshlikka erishish hisoblansa, bu vazifalarning bajarilishiga byudjetga to'lovlarning shakllari ham o'zining sezilarli hissasini qo'shishi kerak. Ular davlat byudjeti daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'min-labgina qolmasdan, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarning oqilona va maqsadli taqsimlanishini rag'batlantirishi ham kerak. Shunday qilib, davlat tomonidan o'rnatilgan tartib natijasida vujudga kelgan byudjetga to'lovlarning turli shakllari davlatning qonunlarida, moliyaviy boshqaruv organlarining normativ hujjatlarida o'z ifodasini topgan ob'yektiv omillarga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda, yuqorida qayd etilganidek, hududiy va ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan turli fondlarning shakllanishi yuz beradi, ya'ni umumdavlat pul fondini taqsimlashning murakkab jarayoni amalga oshiriladi. Tashqi tomondan u barcha ijtimoiy bo'linmalardan ajralgan ichki davlat byudjeti jarayonidek ko'rinadi. Haqiqatda esa bu taqsimlash ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi. Bu bosqichda jamiyatdagi barcha sub'yektlarning manfaatlari o'zaro to'qnash keladi. Mamlakatdagi har bir ma'muriy-hududiy birlik o'z byudjetiga ega bo'lganligi uchun bu bosqichda ana shu byudjetlarning (ya'ni hududlarga mo'l-jallangan fondlarning) umumiy hajmini to'g'ri aniqlash alohida

ahamiyat kasb etadi. U yoki bu davlat byudjetiningxarajatlari joylarda olingan daromadlarning hajmi bilan mos kelmasligi oqibatida ularni qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash zaruriyati vujudga keladi, barcha quyi byudjetlarni balanslashtirish zarurati paydo bo'ladi. Shunday qilib, murakkab taqsimlash jarayoni sodir bo'ladiki, unda mamlakat ma'muriy-hududiy bo'linmalarining barchasi ishtirok etib, ularning ayrimlari o'z mablag'larini berishsa, boshqalari esa davlat byudjeti mexanizmi orqali bu mablag'larni oladi.

Sirtdan qaralganda, davlat byudjeti mablag'larini hududlararo taqsimlash byudjetlarning yuqori va quyi bo'g'inlari o'rta-sidagi munosabatlardek ko'rinadi. Chunki bu jarayon yuqori byudjetlarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Biroq o'z daromadlari hisobidan quyi bo'g'inlarning davlat byudjeti munosabatlarini tartibga soluvchi har bir davlat byudjeti bo'linmasi amalda bu munosabatlarning tar-kibiga yuqorida ko'rsatilgan balanslashtirish sodir bo'layotgan ko'plab ma'muriy-hududiy birliklarni kiritadi. Ular esa, o'z navbatida, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish-da xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va aholidan tushgan mablag'larni sarflaydi. Demak, bu jarayonda ham turli sub'yektlar o'rtasida murakkab va ko'p tomonlama taqsimlash munosabatlari vujudga keladi.

Bir vaqtning o'zida, davlat byudjeti va uning barcha bo'linma-larida iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ijtimoiy ta'minot, markazlashtirilgan investitsiyalar, hokimiyat va boshqaruv organlari, mudofaa va boshqalarning ehtiyojlarini qondi-rishga yo'naltirilgan maqsadli fondlar tashkil etiladi. Bunda, albatta, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy sohaning bo'linmalari va hokazolar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlash sodir bo'ladi.

Davlat byudjeti fondlari o'zining miqdoriga ko'ra ko'p sonlidir. Ular davlat byudjetining barcha bo'g'inlarida va bo'linma-larida yaratiladi. Shu bilan birgalikda, tashkil etilgan har bir yirik davlat byudjeti fondlari nisbatan tor doiralarga mo'ljallangan boshqa fondlarga bo'linadi. Masalan, "Iqtisodiyot xarajatlari" fondi alohida tar-moqlar fondi, ular esa, o'z navbatida, yana bir necha fondlarga bo'linishi mumkin. Bularning hammasi davlat byudjetining asosi sifatida umumdavlat pul fondi turli maqsadlarga mo'ljallanganligi, ma'muriy hududlarga tegishliligi va o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadigan ko'p sonli fondlar konglomeratidan iboratdir, degan xulosa chiqarishga asos bo'la oladi. Bu fond ko'p sonli taqsimlash kanallari orqali bir tomondan, xarajat qilinib, ikkinchi tomondan esa, to'ldirilib boriladi.

Uchinchi bosqichda davlat byudjeti fondlari hududlar va maqsadga mo'ljallanganligi bo'yicha xarajat qilinadi, ya'ni ko'pchilik hollarda, bir mulkchilik shakli doirasida davlat byudjeti mablag'larini qaytarilmaslik tarzida berish sodir bo'ladi. Ularning haqiqatda sarflanishi esa byudjetni taqsimlash jarayonining oxirgi bosqichida davlat byudjeti mablag'larini olganlar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining xarajatlari, xuddi uning daromad-lari singari, ikkiyoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, bu davlatning xarajatlari, boshqa tomondan esa – sub'yekt-larning ixtiyoriga tushadigan qaytarilmaydigan mablag'lar bo'lib, ularning daromadlariga aylanadi va ular tomonidan turli maqsadlarga mo'ljallangan tegishli fondlarni shakllantirishda foydalaniladi. Ana shu ik-kiyoqlama xarakter davlat byudjeti xarajatlarining yakuniy emas, balki taqsimlash jarayonlarining oraliq bosqichi ekan-ligidan dalolat beradi. Bu yerda davlat byudjeti fondlarining egasi – davlat va pul mablag'larini oluvchilar – sub'yektlar o'rtasida yangi taqsimlash munosabatlari paydo bo'ladi. Bu bosqichda (birinchisidan farqli o'laroq) davlat va aholi o'rtasida bevosita taqsimlash munosabatlari vujudga kelmaydi. Chunki bu bosqichda iste'mol maqsadlari uchun ajra-tilgan barcha davlat byudjeti resurslari tegishli sub'yektlarning fondlarini (masalan, ijtimoiy soha xodimlarining ish haqi fondi, ijtimoiy iste'mol fondlari va boshqalar) shakl-lantirishga yo'naltiriladi.

Daromadlar singari, davlat byudjetining xarajatlari ham ob'yektiv iqtisodiy (byudjet) kategoriya(si)dir. U kategoriya sifatida byudjetni taqsimlash munosabatlarining ma'lum bir yakuniy qismini abstrakt holda umumlashtiradi. Ularning moddiylashuvi byudjetdan sub'yektlarga pul mablag'larining teskari oqimi bilan xarakterlanadi. Bu munosabatlarning asosida moliya tizimining barcha bo'lin-malariga xos bo'lgan taqsimlash jarayoni – pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish yotadi. Lekin bu yerda jarayon teskari tartibda sodir bo'ladi: pul fond-larini shakllantirish ulardan foydalanishidan oldin sodir etilmasdan, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanuvchilarda fondlarning shakllanishiga olib keladi.

Davlat byudjeti mablag'larini olgandan keyin sub'yektlar o'zlari-ning pul fondlarini tashkil qiladilar. Bu pul fondlari, o'z navbatida, ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan kichik fond-larga bo'linadi. Shuning uchun ham davlat byudjetining xarajatlari tranzit xarakterga ega bo'lib, ularni tom ma'nodagi xarajatlar deb bo'lmaydi. Davlat byudjeti bu xara-jatlarning o'lchamini limitlashtiradi (biroq to'liq dara-jada emas), xarajatlar esa sub'yektlarning o'zi tomonidan amalga oshiriladiki,

bunda byudjetdan moliyalashtirish tartibida pul mablag'lari yo'naltiriladi va shu erning o'zida taqsimlashning yangi bosqichi boshlanadi.

Yuqorida bayon etilgan holatlarni inobatga olgan holda, xarajatlar emas, balki amalda (haqiqatda) byudjetdan assignovaniyalari ajratiladigan mablag'larni tushunila-digan davlat byudjetining xarajatlarini iqtisodiyot moliyasi bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Masalan, maorifga qilinadigan davlat byudjeti xarajatlarini maorif moliyasi deb atash mumkin emas. Xuddi shuningdek, mudofaa xarajatlarini Qurolli Kuchlar moliyasi deb bo'lmaydi.

Davlat byudjeti kategoriyasi sifatida davlat byudjetining xarajatlari o'zining turli shakllariga ega. Ular quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

– smetali moliyalashtirish (bunda korxona yoki tashkilot o'z daromadlariga ega bo'lmasdan davlat byudjetining mablag'lari hisobidan to'liq moliyalashtiriladi)[64];

– davlatning korxona va tashkilotlariga mablag' berish (bunda moliyalashtirish ob'ektlari sifatida faqat kapital qo'yilmalar, aylanma mablag'lar va operatsion xarajatlar maydonga chiqadi);

– dotatsiya va subventsiyalar (bunda davlat byudjeti rejali-zararga ishlaydigan korxonalarning zararlarini qoplaydi) va boshqalar.

Davlat byudjeti xarajatlari davlat byudjeti daromadlarining ayrim shakllariga o'xshash baholarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Bunda davlat byudjeti xarajatlari tovar-larning bahosi uning haqiqiy qiymatidan past darajada o'rnatilib, sotilganda vujudga kelgan zararlarni qoplash manbai sifatida maydonga chiqadi.

"Davlat byudjetining xarajatlari" va "byudjetdan moliyalashtirish" tushunchalari bir-biriga yaqin, lekin aynan bir-biriga teng bo'lgan tushunchalar emas. Agar davlat byudjetining xarajatlari davlat byudjeti kategoriyasini ifoda etsa, byudjetdan moliyalashtirish esa bu kategoriyaning amalda sub'yektlarga aloqador barcha tadbirlar bilan mablag'larni berish shaklidagi ifodalanishidir. Pul fondlarini shakl-lantirish jarayoni byudjetdan tegishli sub'yektlarga mab-lag'lar berilganidan so'ng ham davom etadi. Lekin u endilikda byudjetdan tashqarida davom etib, sub'yektlar (iqtisodiyot, ijtimoiy soha va ularning tarmoqlari, korxo-nalar va boshqalar) moliyasining elementlarini tashkil etadi. Biroq yuqorida bayon etilgan usullarning

---

[64] Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida shunday sub'yektlarga ham o'zining asosiy faoliyati natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda daromad ishlab topish imkoniyati berilishi mumkin. Buning ustiga, hozirgi sharoitdagi davlat va biznes hamkorligi ham, o'z navbatida, shuni taqozo etadi.

birortasini mustaqil davlat byudjeti kategoriyasi sifatida talqin qilish mumkin emas. Chunki ularning har biri davlat byudjeti kategoriyasi hisoblangan davlat byudjeti xarajatlarining namoyon bo'lish shaklidir.

Shunday qilib, davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni deganda umumdavlat pul fondini shakllantirish, mablag'-larni byudjetlar ichida taqsimlash va sub'yektlarni byud-jetdan moliyalashtirish natijasida vujudga keladigan, o'zaro bog'langan taqsimlash munosabatlarining butun kom-pleksi tushuniladi.

Lekin ishlab chiqarish munosabatlari har doim buyum-lashgan tarzda vujudga keladi. Bu munosabatlarning buyum-lashgan qatlami yalpi ichki (milliy) mahsulot hisoblanadiki, u taqsimlash jarayonida qiymat shaklida ishtirok etadi. Byudjetli taqsimlash munosabatlariga, ichki jihatdan, qator iqtisodiy qonunlarning ta'siri ostida bo'lgan moliyaviy aloqalarning keng doirasi xarakterlidir. Davlat byudjeti ko'p sonli va bo'lingan taqsimlash aktlarining majmui orqali yalpi ichki (milliy) mahsulot harakatining asosiy yo'na-lishlarida namoyon bo'ladi. Aynan davlat byudjeti iste'mol va jamg'arish fondlarining shakllanishiga, iste'mol fondining qismlarga ajralishiga, sof daromadning davlat va sub'-ektlar o'rtasida bo'linishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Davlat byudjetining turli belgilari va xususiyatlarining yuqorida bayon qilingan tavsiflariga tayangan holda uning mohiyatini aniqlab beruvchi quyidagi ta'rifni berish mumkin: **mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi ko'ri-nishida qonuniy rasmiylashtirilgan, davlat pul fond-larini yaratish (shakllantirish) va ulardan foydalanish borasidagi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar majmui davlat byudjeti deyiladi.**

Davlat byudjetiga uning faqat amaliy ahamiyatini tavsiflovchi quyidagicha ta'rif berish ham mumkin: **"O'zbe-kiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byud-jeti) – davlatning davlat vazifalari va funksiyala-rini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi"[65].**

Davlat byudjetining mohiyatini ochib berishda uning boshqa taqsimlash instrumentlari va moliya tizimining bo'lin-malari bilan o'zaro aloqalari muhim rol o'ynaydi. Shu bois ta'kidlash joizki, davlat byudjeti jamiyatning boshqa taqsimlash instrumentlari (baho, kredit, ish haqi va bosh-qalar) va moliya tizimining bo'linmalari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik davlat byudjetining

[65] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi": T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

mohiyatidan, taqsimlash munosabatlari tizimidagi roli va o’rnidan kelib chiqadi. Davlat byudjetdan markaziy taq-simlash mexanizmi sifatida foydalanadi, u ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi nisbat (proportsiya)larni tartibga solishga yordam beradi.

Davlat byudjetining baho bilan o’zaro bog’liqligi ikki yoqlamalik xarakterga ega. Bir tomondan, davlat byudjeti baho mexa-nizmidan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun foyda-lanadi. Masalan, davlat byudjeti daromadlarning bir qismi qo’shilgan qiymat solig’i shaklida bo’lib, bu soliq bahoning, aniqrog’i, sof daromadning elementlari tarkibiga kiradi. Bu baho ko’rinishida davlat byudjeti tomonidan sof daro-madning bir qismini davlatning ixtiyoriga olishda alohida mexanizm rolini o’ynamoqda. Boshqa tomondan esa, davlat byudjeti mol etkazib beruvchilarning yo’qotganlarini qop-lash (kompensatsiya qilish) yo’li bilan bahoning qiymatdan farqlanishida moliyaviy imkoniyatlar yaratib, baholarni shakllantirishda ham ishtirok etadi. Masalan, mamla-katimizda agrar soha uchun qishloq xo’jaligi texnikalari va mineral o’g’itlar etkazib berish bu sohada faoliyat ko’r-satuvchi sub’yektlarga ularning haqiqiy qiymatidan past baholarda amalga oshirilib, baholar o’rtasidagi farq davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Bunday hollarda davlat byudjeti baholarni shakllantirish mexanizmidan foydalangan holda qishloq xo’jaligi tarmog’ini bilvosita qo’shimcha moliyalashtiradi. Aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjetdan qoplanishi ham xuddi shu mexanizmga asoslangan.

Davlat byudjetining uzoq va qisqa muddatli kreditlar bilan o’zaro bog’liqligi ham o’ta muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, amaliyotda davlat byudjeti va kredit resurslarining o’zaro almashuvchanligi tarkib topganligini e’tirof etish kerak. Mablag’larning kredit va davlat byudjeti manbalari bir-birini to’ldirib turishi mumkin. Albatta, bunday o’zaro ta’sirchanlik (bog’liqlik) ob’yektiv ravishda o’zining chegara-siga ega bo’lib, undan chetga chiqish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Masalan, shunday faoliyat sohalari va moliyalashtirish ob’ektlari mavjudki, unda faqat davlat byudjeti va aksincha, faoliyatning tijorat turlarida, asosan, kredit hal qiluvchi rol o’ynashi mumkin.

Davlat byudjeti va kreditning o’zaro bog’liqligi bank-larning kredit resurslarini shakllantirish jarayonida ham yaqqol namoyon bo’ladi. Davlat byudjeti, avvalo, zarur hollarda banklarning qat’iy passivlarini shakllantirish-ning muhim manbai sifatida maydonga chiqadi. Ular, o’z navbatida, uzoq muddatli kreditlashtirish (ustav fondi, zaxira fondi, banklarning kredit resurslarini to’ldirish uchun ajratiladigan davlat

byudjeti mablag’lari va boshqalar) uchun zarur. Bundan tashqari, davlat byudjeti hisobvaraqlarida va davlat byudjeti tashkilotlarining hisobvaraqlarida bo’lgan davlat byud-jetining vaqtincha bo’sh mablag’lari qisqa muddatli kredit-lashtirish yo’li bilan banklarning kredit resurslarini to’ldirishi mumkin. Shu bilan birgalikda, banklarning kredit operatsiyalari daromadlarni shakllantirib, bu ularning daromadining bir qismini byudjetga olishda manba bo’lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida ish haqi ham davlat byudjeti bilan uzviy bog’langan. Xususan, ijtimoiy sohada faoliyat ko’rsatayotgan xodimlarning ish haqi fondini shakllantirishda davlat byudjetining mablag’lari hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Davlat byudjeti mamlakatning moliya tizimida markaziy o’rin egallab, uning barcha bo’linmalari bilan bog’langan. Bunday bog’lanish ikki yo’nalish – byudjetga to’lovlar va byudjetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti moliyaning tarkibiy qismi sifatida, uning boshqa bo’linmalari singari ikki xil funksiyani bajaradi:

1) taqsimlash;

2) nazorat.

Davlat byudjetining taqsimlash funksiyasi orqali uning mohiyati namoyon bo’ladi. Bu davlat byudjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlarining mazmu-nida yaqqol ko’rinadi. Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladigan taqsimlash bu jarayonning ikkinchi (oraliq) bosqichidir. Shuning uchun ham davlat byudjetining taqsimlash funksiyasi o’ziga xos bo’lgan xususiyatga ega bo’lib, undan taqsimlangan yalpi ichki (milliy) mahsulotni qayta taqsimlashda foydalaniladi. Agar taqsimlashning birinchi bosqichida davlat byudjeti mablag’lari (byudjetga to’lovlar) milliy daromadda davlatning ulushi sifatida maydonga chiqsa, uning ikkinchi bosqichida esa ana shu ulush qismlarga bo’linadi va ko’p sonli kanallar orqali turli tadbirlarni moliyalashtirishga va fondlarni shakllantirishga yo’naltiriladi.

Aholining byudjetga to’lovlari ham qayta taqsimlash xarakteriga ega. Ularning byudjetga turli soliqlar ko’rinishida kelib tushishi ikkinchi taqsimlash aktidan iboratdir. Ayniqsa, ijtimoiy sohada faoliyat ko’rsatayotgan xodimlar tomonidan turli ko’rinishdagi soliqlarning byudjetga to’lanishi ham bu mablag’larning ko’p sonli taqsimlash bosqichlaridan o’tishini taqozo etadi. Chunki juda ko’p hollarda bu mablag’lar ancha oldinroq davlat byudjeti yordamida

taqsimlanish bosqichidan o’tib, ijtimoiy sohaga davlat byudjeti mablag’lari shaklida etib borgan bo’ladi.

Demak, mamlakatda yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulot (milliy daromad)ning alohida olingan bir qismi taqsimlashning davlat byudjeti mexanizmi orqali bir necha marta taqsimlanishi (qayta taqsimlanishi) mumkin. Bu davlat byudjeti taqsimlash funksiyasining birinchi xarakterli xususiyatidir.

Amalga oshiriladigan operatsiyalar ko’lamining, pul oqimlarining kengligi va tashkil topadigan maqsadli fondlarning xilma-xilligi davlat byudjeti taqsimlash funksiyasining ikkinchi xususiyati bo’lib hisoblanadi. Davlat byudjeti yalpi ichki (milliy) mahsulotning kattagina qismini taqsimlab, turli maqsadlarga mo’ljallangan turli fondlarni shakl-lantiradi. Davlat byudjeti bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha bo’linmalari bevosita yoki bilvosita bog’langandir.

Davlat byudjetining taqsimlash funksiyasining uchinchi xarakterli xususiyati shundan iboratki, bunda taqsimlashning asosiy ob’yekti bo’lib jamiyatning sof daromadi (qo’shilgan qiymat solig’i, foyda va boshqalar) maydonga chiqadi. Lekin bu milliy daromad, yalpi ichki (milliy) mahsulot va milliy boylikning boshqa elementlarining ham qisman taqsimlanishi mumkinligini inkor etmaydi. Davlat byudjeti orqali soliqlar shaklida jismoniy shaxslarning daromadlari ham qayta taqsimlanadi. Shuningdek, davlat byudjeti mexanizmi orqali xo’jalik yurituvchi sub’yektlar o’rtasida ham mablag’-lar qayta taqsimlanishi mumkin.

Davlat byudjeti kanallari bo’yicha qiymatning jamg’arish va iste’mol fondlari tomon harakati sodir bo’ladi. Iqtiso-diyotga xarajatlarning ma’lum bir qismi, markazlash-tirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish va ijtimoiy sohani saqlash bilan bog’liq bo’lgan xa-rajatlarning asosiy qismi davlat byudjeti mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi. Davlatning moddiy rezervlari o’sgan qismining hammasi ham byudjetdan to’liq moliyalash-tiriladi. Davlat byudjeti ijtimoiy iste’mol fondlarini shakllantirishning asosiy manbai bo’lib xizmat qiladi, ijtimoiy soha xodimlari uchun iste’mol fondining yaratilishini ta’minlaydi.

Davlat byudjeti orqali taqsimlash jarayoni ko’p bosqichda amalga oshiriladi. Agar uning birinchi bosqichi iqtisodiyot sohala-rida (birlamchi taqsimlash) amalga oshirilsa, davlat byudjeti orqali yalpi ichki (milliy) mahsulotning ikkilamchi taqsimlanishi (qayta taqsimlanishi) sodir bo’ladi. Uning uchinchi bosqichi (byudjetdan moliyalashtirish) iqtisodiyot va ijtimoiy soha-larning bo’linmalarini qamrab oladi. Biroq taqsimlanayotgan yalpi ichki (milliy) mahsulotning

ayrim elementlari davlat byudjeti orqali ko’p martalab ham taqsimlani-shi mumkin. Masalan, ijtimoiy soha tashkilotlarining ijtimoiy sug’urta fondiga to’lovlari byudjetli taqsimlashning mahsulidir. Chunki bu soha tashkilotlarida ish haqi fondi byudjetdan moliyalash-tirish asosida vujudga keladi. Lekin taqsimlashning ikkinchi bosqichidan o’tib, ular yana ijtimoiy sug’urtaga ajratmalar shaklida byudjetga kelib tushadi.

Shunday qilib, davlat byudjetining taqsimlash funksiyasi taqsimlashning ko’p martaligi bilan xarakterlanadi. U ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida namoyon bo’ladi. Jamiyat iqtisodiyot, sog’liqni saqlash, maorif, madaniyat, fan, san’at, mudofaa va aholining turmush tarzini yaxshilashda undan foydalanadi. Faqat davlat byudjetidagina yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlash-ning ana shunday xilma-xil shakllari va metodlari namoyon bo’ladi.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasi ham o’ziga xos xususiyatlarga ega. Davlat byudjetiningmilliy iqtisodiyot bilan uzviy bog’liqligi takror ishlab chiqarishning barcha bo’lin-malarida ahvolning qandayligi to’g’risida ma’lumotlar bilan doimiy ta’minlab turadi.

Mablag’larning byudjetga kelib tushishi, byudjetdan ajratiladigan mablag’larning yo’nalishi va ulardan foyda-lanish ishlab chiqarish, taqsimlash, almashuv va iste’mol-dagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni ifoda etadi. Ular milliy iqtisodiyotda nomutanosibliklarning vujudga kelayotganligi, rivojlanish sur’atlaridagi buzilishlar, milliy iqtisodiyotda sodir bo’layotgan taqsimlash jarayon-larining to’g’riligi va o’z vaqtida amalga oshirilayotganligi, ishlab chiqarishning samaradorligi va hokazolar to’g’risida go’yo signal berib turadi. Milliy iqtisodiyotning istalgan bir sohasi yoki korxonaning moliyaviy ahvoli, albatta, davlat byudjeti bilan bo’ladigan o’zaro munosabatlarga – soliqlarga, to’lovlarga, byudjetdan moliyalashtirish hajm-lariga va hokazolarga ta’sir ko’rsatadi. Demak, davlat byudjeti orqali rejadan og’ish tufayli tarmoqlararo moliyaviy aloqalar va davriy qisman disproportsiyalar, jamg’arma-larning hajmi, mablag’larni o’zlashtirish sur’atlari va boshqalardagi o’zgarishlar yaqqol ko’rinib turadi. Bularning barchasi davlat byudjetining nazorat funksiyasiga umumiylik, universallik xarakterini beradi (birinchi xususiyat). Bu esa, o’z navbatida, milliy iqtisodiyotni boshqarishda davlat byudjetining nazorat funksiyasidan keng foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasiga tegishli bo'lgan ikkinchi xarakterli xususiyat moliyaviy munosabat-larning alohida sohasi sifatida davlat byudjetining yuqori darajada markazlashtirilganligidan kelib chiqadi. Markazlashtirilganlik har doim yuqori organlar oldida quyi organlarning hisobot berib turishi-ni, ma'lum ketma-ketlikda bo'ysunishning tizimliligini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, yuqoridan quyigacha davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishga shart-sharoit yaratib beradi.

Kuchli majburiylik, imperativlik davlat byudjetining nazorat funksiyasiga tegishli bo'lgan uchinchi xususiyatdir. Davlat byudjeti davlatniki bo'lganligi uchun uning nazorat funk-tsiyasi milliy iqtisodiyotni boshqarish vositalaridan biri hisoblanadi. Nazorat funksiyasining ob'yektiv ravishda byudjetga xosligi, uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyati davlatning huquqiy asosga egaligini taqozo etadi. Shuning uchun ham davlat byudjeti nazorati o'ta ta'sirchan va samarali hisoblanadi. Davlat bunday nazoratni amalga oshira borib, sub'yektlarning moliyaviy faoliyatiga tezkor ravishda aralashuvi, kerakli hollarda esa, u yoki bu jazolarni qo'llashi mumkin.

Ob'ektiv ravishda byudjetga xos bo'lgan nazorat funk-tsiyasi faoliyatning barcha sohalarida davlat tomonidan keng qo'llaniladi. Byudjetni rejalashtirish jarayonlarida va uni ijro etishda sub'yektlar faoliyatining barcha tomonlari tekshirilishi yoki nazorat qilinishi mumkin. Bunday nazorat, odatda, quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

1) davlat byudjetining daromadlarini oshirish uchun pul mablag'larini jalb qilish;

2) mablag'larni sarflashning qonuniyligini ta'minlash;

3) moliyaviy (byudjet) mexanizm orqali ishlab chiqarish-ning samaradorligini oshirish.

Davlat byudjetining funksiyalari uning iqtisodiy mohi-yatini ifoda etib, byudjetni rejalashtirish jarayoni va uni ijro etishda o'zini namoyon etadi.

Davlat byudjetiningtaqsimlash va nazorat funksiyalari o'z harakatlari davomida miqdoriy va sifat tomonlarga egadir.

Taqsimlash funksiyasining miqdoriy tomoni u yoki bu fondning hajmini ifodalashi bilan xarakterlanadi. Bunda turli fondlarning nisbatlari va ularning miqdoriy para-metrlarini to'g'ri aniqlash nazarda tutilayapti. Bu yerda har ikki funksiyaning harakati bir xilda muhimdir. Agar davlat byudjetiningtaqsimlash funksiyasi u yoki bu fondni oshirish yoki kamaytirish yo'li bilan uni ko'zlangan darajaga etkazishga sharoit yaratar ekan, uning nazorat funksiyasi esa ana

shunday taqsimlashning natijasini, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga imkon beradi.

Taqsimlashning sifat tomoni davlat byudjeti tomonidan sub'yektlar faoliyatiga har tomonlama faol ta'sir ko'r-satadi va o'zida chuqur aloqalarni ifodalaydi. Byudjetdan moliyalashtirishdan to'g'ri foydalangan holda fondlarning shakllantirilishi davlat byudjeti mablag'larini iqtisod qilib, ulardan samarali foydalanishiga, iqtisod rejimiga rioya qilinishiga, sub'yektning barcha bo'linmalarida samara-dorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunga davlat byudjetiningtaqsimlash funksiyasi faqat miqdoriy omillarga bo'ysun-dirilganda emas, balki u sifat ko'rsatkichlariga ham bog'langandagina erishilishi mumkin. Bu holatda davlat byudjetiningnazorat funksiyasi ham o'z yo'nalishini biroz o'zgartiradi: u faqat fondlarning miqdoriy jihatdan nomuvofiqligi to'g'risida emas, balki ana shu nomuvofiq-liklar sifat ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatganligi to'g'risida signal beradi.

Davlat byudjetining ikkala funksiyasidan foydalanish natijasida **davlat byudjeti mexanizmi** vujudga keladi. Davlat byudjeti mexanizmi deyilganda, odatda, faqat moliyaviy resurslarni davlatning qo'lida to'plash (akkumulyatsiya qilish) va ularni davlat byudjeti kanallari bo'yicha taqsimlashning amaldagi tizi-migina nazarda tutilmasdan, balki takror ishlab chiqarish-ning barcha bosqichlariga bu jarayonning faol ta'siri ham tushuniladi. Bu mexanizmning detallari juda ko'p: soliqlar va byudjetga to'lovlar, byudjetdan moliyalashtirishning turli shakllari, mablag'larni byudjetlar ichida taqsimlash va boshqalar ana shular jumlasidandir. Davlat byudjeti mexanizmi ishlashining samaradorligi unga tegishli bo'lgan detal-larning o'zaro ta'sirchanligi va ularning bir-biriga bog'liq-ligi bilan belgilanadi.

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjeti markaziy o'rin egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakl-lantirish orqali davlatning qo'lida katta hajmdagi moliya-viy resurslar to'planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi. Davlat byudjeti umumdavlat manfaatlarini inobatga olgan holda ustuvor yo'nalishlar uchun moliyaviy resurslarni jamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ustuvor yo'nalishlar uchun davlat byudjeti yordamida moliyaviy resurslarni jamlash bir necha usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal sur'atlar bilan rivojla-nishini ta'minlash maqsadida byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning hajmi oshiriladi. Boshqa hollarda esa,

o’sha sektorlardan mablag’larni davlat byudjetiga olishda qulay sharoit yaratiladi.

Davlat byudjeti iqtisodiyotning alohida tarmoqlarining rivojlanishida asosiy manba rolini ham o’ynashi mumkin. Masalan, ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida milliy iqtiso-diyotda yangi tarmoq vujudga kelayotgan bo’lsa, uning paydo bo’lishini hozirgi sharoitda byudjetdan moliyalash-tirishsiz tasavvur etib bo’lmaydi.

Faoliyat ko’rsatayotgan sub’yektlarning moliyaviy barqa-rorligini ta’minlashda davlat byudjeti katta ahamiyat kasb etadi. Turli ob’yektiv va sub’yektiv omillarning ta’siri ostida ayrim sub’yektlarning o’z moliyaviy resurslari ularning sog’lom faoliyat ko’rsatishi uchun etarli bo’lmay qolganda chetdan mablag’ jalb qilishga ehtiyoj tug’iladi. Bunday sharoitda davlat byudjeti tartibga soluvchi manba sifatida maydonga chiqishi mumkin. Albatta, bunday hollar-ning barchasida davlat byudjeti mablag’lari sub’yektlarning o’z manbalari, tarmoq ichidagi resurslar, bank kreditlaridan so’ng oxirgi tartibga soluvchi manba sifatida foyda-laniladi.

Sub’ektlar faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda davlat byudjetining tartibga soluvchi roli quyidagi ko’rinishda bo’lishi mumkin:

– moliyaviy resurslarga bo’lgan yangi talabni kelgusi davlat byudjeti yilida davlat byudjetiningxarajatlari tarkibiga kiritish;

– moliyaviy resurslarga bo’lgan qo’shimcha ehtiyojni mavjud davlat byudjeti resurslarini manyovr qilish, ya’ni davlat byudjeti kredit-larini bir ob’ektdan ikkinchisiga o’tkazish yo’li bilan qondirish. Bunday imkoniyatning mavjudligi amaliyotda ayrim sub’yektlarning o’zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to’liq o’zlashtirishning uddasidan chiqa olmas-ligi bilan izohlanadi;

– qo’shimcha ehtiyojni hukumatning zaxira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

Davlat byudjeti milliy iqtisodiyot korxonalarini texnika vositalari bilan qayta qurollantirishda alohida ahamiyatga ega. Byudjetdan iqtisodiyotga qilinayotgan xara-jatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalash-tirish, eng avvalo, ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy soha (maorif, sog’liqni saqlash, mada-niyat, sport, fan, ijtimoiy ta’minot) xarajatlarini moliyalashtirish, ijtimoiy nafaqa, aholi uchun muhim aha-miyat kasb etgan xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjetdan qoplash, davlat hokimiyati organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash, fuqarolarning o’z-o’zini boshqarish organlarini moliyalashtirish, mamlakatning mudofaa

qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarning o’z vaqtida bajarilishini ta’minlashda davlat byudjetining ahamiyati beqiyosdir.

16.2. Davlat byudjetining daromadlari

Davlat byudjetining daromadlari[66] mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo’lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo’lgan daromadlar va jamg’armalarning bir qismini byudjetga o’tkazilishi natijasida vujudga keladi. Davlat byudjeti daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag’-lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (byudjet) kategoriyaning namoyon bo’lish shakli byudjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to’lovlar, yig’imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan davlat byudjetining daromadlari yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko’rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog’i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq davlat byudjetida mablag’larni yig’ish miqdori va ularni undirishning shakl va usullari aniqlanadi.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi printsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

– soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

– soliqlar ularni to’lovchilar o’rtasida teng taqsimlanmog’i lozim;

– soliqlarni ishlab chiqaruvchilarning aylanma fond-lari hajmiga ta’sir ko’rsatmasligi;

– soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

– davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha kamxarajat bo’lishi lozim;

– soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak;

– sub’yektlarning mustaqil faoliyat ko’rsatishiga sharoit yaratish. Ya’ni, sub’yektlarga tegishli bo’lgan mablag’larning bir qismini davlat byudjetiga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatmasligi kerak. Chega-radan o’tib ketilganda sub’yektlarning

---

[66] “Davlat byudjetining daromadlari” iborasi byudjetga undirilayotgan soliqlar, to’lovlar, bojlar, ajratmalar va boshqa shunga o’xshash barcha daromadlarni o’z ichiga oladi.

mustaqilligini yo'qotishiga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilish susayadi, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi boshlanadi;

– sub'yektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byudjetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan olingan barcha daromadlar davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu printsipning ta'siri ostiga sub'yektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;

– ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish. Bu printsip davlat byudjeti daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hiso-bidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlat-ning manfaatlarini ta'minlaydi;

– davlat byudjeti mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash. Mablag'larni sub'yektlar ixtiyoridan byudjetga o'tkazilishi ularni samarali faoliyat ko'rsatishga rag'batlantirishi kerak. Bunda maqsad faqat davlat byudjeti daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu yo'l bilan korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirish-dir;

– davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu printsip davlat byudjeti daromadlarini aholi mablag'lari hisobidan shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlari darajasiga bog'liq ravishda bir qismi byudjetga o'tkaziladi.

Kezi kelganda shuni ham alohida qayd etish kerakki, davlat byudjetini adolat printsiplari asosida tashkil etish masalasiga xalqimizning buyuk mutafakkirlari va davlat arboblari juda katta hissa qo'shishgan[67].

Davlat byudjetining daromadlari o'zlarining manba-lari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni byudjetga undirish usullariga muvofiq tasniflanishi (klassifikatsiya qilinishi) mumkin.

---

[67] Bu to'g'risida dasrlikning 1.5 -paragrafida umumiy tushuncha berilgan.

Davlat byudjetining daromadlari o’z manbalariga ko’ra quyidagi guruhlarga bo’linadi:

- soliq tushumlari (soliq shaklidagi daromadlar);
- soliq bo’lmagan daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o’tkazila-digan pul mablag’lari.

Davlat byudjetiningsoliq shaklidagi daromadlari tarkibi mam-lakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig’imlari, mahalliy soliqlar va yig’imlar, bojxona bojlari, boj yig’imlari va boshqa boj to’lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Davlat byudjetining soliq bo’lmagan daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkidan foydalanish tufayli olingan daro-madlar (soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi qonunchilikka muvofiq to’langan soliq va yig’imlardan so’ng);
- davlat byudjeti tashkilotlari tomonidan ko’rsatilgan to’lovli xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi qonunchilikka muvofiq to’langan soliq va yig’imlardan so’ng);
- fuqarolik-huquqiy, ma’muriy va jinoiy choralarni qo’l-lash natijasida olingan mablag’lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, tovon to’lashlar va davlat sub’yektlariga etkazilgan zararlarni tiklash bo’yicha olingan mablag’lar hamda majburiy undirilgan boshqa mablag’lar;
- moliyaviy yordam ko’rinishidagi daromadlar (davlat byudjeti ssudalari va davlat byudjeti kreditlaridan tashqari);
- boshqa soliq bo’lmagan daromadlar.

Tushumlarning quyidagi ko’rinishlari ham davlat byudjeti daro-madlarining tarkibida hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko’rinishda olinadigan mablag’lar;
- kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarda davlat byudjeti mablag’larining qoldig’i bo’yicha foizlar ko’rinishida olinadigan mablag’lar;
- davlat mulkiga tegishli bo’lgan mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag’lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa byudjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan davlat byudjeti mablag’laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo’lgan xo’jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aktsiyalar bo’yicha divi-dendlarga to’g’ri keladigan foyda ko’rinishidagi daromadlar;

- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'imlardan so'ng);
- davlatga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.

Davlat byudjetiningdaromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri davlat byudjeti tizimida boshqa darajada turgan dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi davlat byudjetiningdaromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklan-maydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham davlat byudjetiningshunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Hozirgi amaliyotda davlat byudjetining daromadlari quyidagi tartibda tasniflanadi (klassifikatsiyalanadi):

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar. Ularning tarkibiga yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar; yagona soliq to'lovidan (mikro-firmalar va kichik korxonalar bilan birgalikda) davlat byudjetiga ajratmalar; jismoniy shaxslarning daroma-didan olinadigan soliqlar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxs-larning daromadidan olinadigan qat'iy soliqlar kiradi.

2. Egri (bilvosita) soliqlar. Bu soliqlarning tarkibi qo'shilgan qiymat solig'i; aktsizlar; bojxona bojlari; jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi; transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqdan iborat.

3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i. Bu guruhga kiruvchi soliqlar va to'lovlar mol-mulk solig'i; yyer solig'i; er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi.

4. Ustama foydadan olinadigan soliq.

5. Boshqa daromadlar.

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra davlat byudjetining daromadlari ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan olinadigan daromad-lar;
- aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko’ra davlat byudjetining daro-madlari quyidagi ko’rinishlarda bo’lishi mumkin:

– nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;
– davlat xo’jaliklaridan olinadigan daromadlar;
– aholidan olinadigan mablag’lar.

Davlat byudjeti daromadlarining yuqorida sanab o’tilgan har bir guruhlari daromadlarning manbalari, to’lovlarning turlari va hokazolar bo’yicha kichik guruhlarga bo’linishi ham mumkin. Masalan, davlat xo’jaliklaridan olinadigan daromadlarga davlat korxona va tashkilotlarining to’lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashki-lotlari tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlardan olina-digan daromadlar kiradi. Aholidan byudjetga kelib tushadigan mablag’lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to’lov-lardan iborat bo’lishi mumkin. O‘z navbatida, har bir kichik guruhlarga biriktirilgan davlat byudjetining daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat. Masalan, davlat korxonalari tomonidan byudjetga o’tkaziladigan daromad-larning tarkibiga qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, daromad (foyda) solig’i va boshqalar kiradi.

Shuningdek, davlat mulkidan olinadigan daromadlar tar-kibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara qilingan mol-mulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo’natmalarini, meros huquqi bo’yicha davlatga o’tgan mol-mulklarni realizatsiya qilishdan olingan tushumlardan iborat. Davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ko’rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga davlat avtomobil inspektsiyalari tomonidan undiriladigan yi-g’imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig’imlar, o’lchov asboblarini davlat tekshiruvidan o’tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarial idoralari tomonidan aholiga ko’rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi.

Davlat byudjetining daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda olinishi mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda jalb qilish hal qiluvchi rol o’ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to’lovlarga davlat obligatsiyalarini va pul-buyum lotereyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma’lum bir mablag’lar belgilangan muddatlarda byudjetga o’tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to’lovni qonun tomonidan majburiy deb e’tirof etilishi to’lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko’zda tutadi. Bu holat davlat byudjetiningijrosi uchun juda katta ahamiyatga ega bo’lib, mablag’larni to’liq va o’z vaqtida byudjetga jalb etish uchun xizmat qiladi.

Sub’ektlarning daromadlari davlat byudjeti ixtiyoriga ikki xil usulda olinishi mumkin:

1) soliq usulida;
2) soliq bo’lmagan usulda.

Soliq usuli uchun mablag’larning davlat byudjeti foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o’rnatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliq-larning undirilishi mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog’liq. Ular yordamida xo’jalik yurituvchi sub’yektlar va aholiga tegishli bo’lgan mab-lag’larning bir qismi davlat ixtiyoriga o’tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, daromad (foyda) solig’i, yyer solig’i, mol-mulk solig’i va boshqa soliqlar kiradi.

Soliq xarakteriga ega bo’lmagan daromadlar davlatga tegishli bo’lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to’lovlardir.

Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarishni talab etmaydigan mablag’lar ham davlat byudjetining daromadlari bo’lishi mumkin. Biroq ayrim to’lovlar davlatning ixtiyoriga vaqtinchalik foydanish uchun o’tkazilishi ham mumkin. Bunday holda davlat olingan mablag’larni sarf etsa-da, u bu mablag’larni belgilangan muddatlarda va to’liq ravishda qaytarishga majbur. Ana shunday davlat byudjeti daromadlarining ko’rinishlaridan biri davlat obligatsiyalarini sotishdan olingan tushumlar hisoblanadi. Davlat byudjetining daromadlariga ular shartli ravishda, faqat shu yilning byudjeti daromadlari nuqtai nazaridan kiritilishi mumkin.

Davlat byudjeti daromadlarining deyarli barchasi sarflanish nuqtai nazaridan oldindan mo’ljallangan maqsadlarga ega emas. Ular umumiy fondga tushiriladi va odatdagi moliyalashtirish tartibida foydalaniladi. Byud-jet daromadlarining faqat ba’zi birlarigina oldindan belgilangan maqsadlar uchun mo’ljallangan. Ularning tarki-biga ijtimoiy sug’urta badallarini kiritish mumkin.

Soliqlar, to’lovlar, yig’imlar, bojlar va majburiy ajratmalarning alohida shakllari va turlarining yig’indisi davlat byudjeti daromadlarining yagona tizimini tashkil etadi. Turli sub’yektlardan kelib tushadigan davlat byud-jetining daromadlari umumdavlat ehtiyojlarini ta’minlab, bir-biri bilan o’zaro bog’langandir.

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy emas. Ular mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning o’zgarishiga muvofiq ravishda o’zgarib boradi.

Milliy iqtisodiyotda qo'llanilayotgan davlat byudjeti daromadlari tizimining samaradorligi mablag'larning byudjetga tushumini tashkil etishga bevosita bog'liq. Bu jarayon o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– byudjetga tegishli bo'lgan daromadlarni (soliqlar, to'lovlar, bojlar, ajratmalar va boshqalar) huquqiy jihatdan rasmiylashtirish;

– mablag'lar tushumining hajmi va muddatlarini aniqlash tartibi;

– daromadlarni (to'lovlarni) byudjetga o'tkazish tartibi;

– byudjetga daromad o'tkazuvchilarni hisobga olish;

– byudjetga daromad o'tkazuvchilarning javobgarligi;

– byudjetga daromadlarni o'z vaqtida va to'liq o'tkazi-lishini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi;

– byudjetga daromadlarni undirishda soliq organ-larining huquq va majburiyatlari.

Yuqorida bayon etilgan choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat va byudjetga daromadlarni to'lovchilar o'rtasidagi manfaatlarning oqilonaligini ta'minlashga katta e'tibor bermoq lozim[68].

16.3. Davlat byudjetining xarajatlari

Davlat byudjetining xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya bo'lgan davlat byudjetiningko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir. Ya'ni ular taqsimlash xarakteriga ega, ifodalanishning pul shakli xos, pul fondlarining amal qilishi bilan bog'langan va davlat tomonidan tashkil qilinadi. Shu bilan birgalikda davlat byudjetining xarajatlari bir butunning o'ziga xos qismi bo'lganligi uchun ular davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'laridan foydalanish va tegishli fond-larni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu taqsimlash munosabatlarining moddiy-buyumlashgan shakli turli soha-larga yo'naltirilayotgan davlat byudjeti mablag'larining hara-katidan iborat.

Davlat byudjetining xarajatlari xarajatlarning konkret turlari orqali namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti xarajatlari turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisodiy tabiati va funksiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; davlat byudjetiningmilliy iqti-sodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabat-larning rivojlanganlik

[68] Davlat byudjeti daromadlariga oid ushbu paragrafda ko'tarilgan masalalarning aksariyati, ma'lum ma'noda biroz takrorlashlar bo'lishiga qaramasdan, darslikning 17-bobi doirasida batafsilroq ko'rib chiqiladi.

darajasi; davlat byudjeti mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h.k.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida davlat byudjeti xarajatlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra turkumlashtirish maqsadga muvofiq. Ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha va ma'lum maqsadlariga ko'ra alohida guruhlarga ajratilishi mumkin.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat byudjetining xara-jatlari kapital va joriy xarajatlarga bo'linadi.

Davlat byudjetiningkapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajatlarning tarkibiga:

a) tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq harakat-dagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar;

b) yuridik shaxslarga investitsion maqsadlar uchun davlat byudjeti kreditlari sifatida beriladigan mablag'lar;

v) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar;

g) amalga oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo'lgan mulk miqdorini oshirish yoki uni yangidan yaratishga olib keladigan xarajatlar;

d) davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy turkum-lanishiga muvofiq davlat byudjetiningkapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar.

Davlat byudjetining kapital xarajatlari tarkibida Taraqqiyot byudjeti shakllantirilishi mumkin.

Davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari, davlat byudjeti tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan davlat byudjeti xara-jatlari, boshqa byudjetlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga dotatsiya, subsidiya va subventsiya shaklida ko'rsatiladigan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va davlat byudjeti xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq kapital xara-jatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar davlat byudjetiningjoriy xarajatlari deyiladi.

Takror ishlab chiqarishdagi roliga ko'ra davlat byud-jetining xarajatlari iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlariga bo'linadi. Bu xarajatlarga, dastlab, davlat korxonalari va davlat ulushi bor bo'lgan

korxonalarning ustav kapitalini shakllantirish, ularni yanada kengaytirish va rivojlantirish, davlat moddiy zaxiralarini yaratish xarajatlari kiradi.

Davlat byudjetiningijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ham ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan xarajatlardir. Bu xarajatlar iste'mol fondlarini shakllantirish bilan bog'liq. Ularning bir qismi jamiyat a'zolarining shaxsiy, boshqa bir qismi esa butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bunda davlat byudjetining xarajatlari ijtimoiy iste'mol fondlarini (mamlakatning mudofaa fondi, ilmiy tadqiqotlar fondi va boshqalar) shakllantirishni to'liq, shaxsiy iste'mol fondlarini esa qisman (markazlash-tirilmagan moliyaviy resurslar bilan birgalikda) ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, davlat byudjeti mablag'larining katta qismidan shaxsiy iste'mol fondlarining ijtimoiy iste'mol fondlariga (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar bahosi o'rtasidagi farqlarni qoplash, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar fondlari va boshqalar) tegishli bo'lgan qismini shakllantirishda keng foyda-laniladi.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarmoq belgisi bo'yicha guruhlarga ajratishga asos qilib milliy iqtisodiyotning umume'tirof etilgan tarmoqlarga bo'linishi qabul qilingan. Shunga muvofiq ravishda davlat byudjeti xarajatlari sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, davlat boshqaruvi, mudofaa va h.k. xarajatlariga bo'linishi mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlari milliy iqtisodiyot (xo'jalik) tarmoqlarining pul fondlarini shakllantirishda mustahkam moliyaviy asosni yaratish bilan birgalikda, xarajatlarning tarmoqlararo bo'linishi moliyaviy resurslarni taqsimlashdagi nisbatlarini aniqlashga ham imkon beradi, milliy xo'jalikning tarmoq tarkibiy tuzilishini kerakli yo'nalishga o'zgartiradi. Masalan, hozirgi paytda mamlakatimizda yaratilgan milliy daromadning hajmi davlat byudjeti mablag'-larining katta qismini ijtimoiy soha va aholini bevosita ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish imkonini bera-yapti. Bir vaqtning o'zida iqtisodiyotning ustuvor tarmoq-larini (mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, elektroenergetika va boshqalar) keng ko'lamlarda byudjetdan moliyalashti-rilishi ham ta'minlanmoqda.

Ijtimoiy yo'nalishi bo'yicha davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy guruhlarga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarni o'zida aks ettiradi. Ana shunga muvofiq

davlat byudjetining barcha xarajatlarini quyidagi gu-ruhlarga bo'lish mumkin:

– ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy-qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
– milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) xarajatlar;
– mudofaa xarajatlari;
– boshqaruv xarajatlari.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi davlat byudjetiningxarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Iqtisodiyotga byudjetdan xarajat qilinishi davlatning xo'jalik yurituvchi asosiy sub'yektlardan biri ekanligidan darak beradi. Aynan bu xarajatlar keng miqyoslarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industriya asosida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini texnika vositalari bilan qayta ta'minlashga imkon yaratadi. Shuning uchun ham davlat byudjetining bu xarajatlari orasida iqtisodiyot va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalash-tirish xarajatlari alohida o'rin egallaydi.

Davlat byudjetining mudofaa xarajatlari ham davlatning funksiyalaridan kelib chiqadi. Ular har bir davlatning o'z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashi zarurligi bilan bog'liq-dir. Qurolli Kuchlarning barcha turlari davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Boshqaruv shaklidagi faoliyat turining davlat tomonidan amalga oshirilishi, uning xo'jalik-tashkilotchilik funksiyasi davlat byudjetidan boshqaruv xarajatlari deb nomlangan alohida xarajatlar ajratilishini taqozo etadi. Boshqaruv (davlat hokimiyati organlari, sud va prokuratura fuqaro-larning o'zini-o'zi boshqaruv organlari) xarajatlari davlat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, jamiyat hayotining barcha sohalariga rahbarlik qilishga imkon yaratadi.

Davlat byudjetining barcha xarajatlari yuqoridagi to'rtta guruhdan qaysi biriga kirishidan qat'iy nazar, ular o'zlarining aniq maqsadlarga mo'ljallanganligi bo'yicha ham bir necha qismlarga bo'linadi. Bu qismlar davlat byudjeti xarajatlarining aniq turlaridan tarkib topadi. Kapital qo'yilmalar, dotatsiyalar, subventsiyalar, subsidiyalar, davlat

byudjeti ssudalari, ish haqi, ovqatlanish xarajatlari, kapital va joriy remont, kantselyariya va xo'jalik xarajatlarini davlat byudjeti xarajatlarining aniq turlari sifatida ko'rsatish mumkin. Davlat byudjeti xarajatlarining ma'lum aniq maqsadlarga mo'ljallanganligi bo'yicha turkumlanishi davlat byudjeti mablag'la-ridan oqilona foydalanishga sharoit yaratadi, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish ustidan samarali va ta'sirchan moliyaviy nazoratni amalga oshirishning zaruriy asosi hisoblanadi.

Davlat byudjetini iqtisodiy nuqtai nazardan turkumlarga ajratish bilan birga xarajatlarning tashkiliy jihatidan ham guruhlarga ajratish mumkin. Buning asosida yuqori tashkilotlar (vazirliklar, uyushmalar, assotsiatsiyalar, birlashmalar, kontsernlar, kompaniyalar va h.k.), davlat byudjeti xarajatlari va hududiy belgilar yotishi mumkin. Davlat byudjeti xarajatlarining yuqori tashkilotlar bo'yicha guruhlanishi davlat byudjeti mablag'larini aniq oluvchilarni ko'rsatadi va ular tarmoq ichida pul fondlarini shakl-lantirishda mas'ul bo'lib, ajratilgan davlat byudjeti mablag'-laridan o'z vaqtida, samarali va qonuniy foydalanish ustidan javobgardirlar.

Davlat byudjeti xarajatlarini hududiy belgiga mos holda bo'linishi ular markazlashuvining turli darajalarini o'zida aks ettiradi. Shu munosabat bilan, davlat boshqaruvi darajasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining xarajatlari respublika va mahalliy byudjetlarning xarajatlaridan tarkib topadi.

Davlat byudjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat[69]:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- iqtisodiyot xarajatlari;
- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- sudlarni saqlab turish xarajatlari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Davlat byudjetining xarajat qismi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpo-g'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat

[69] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi"ning 69- moddasi. -T.: "Adolat", 2014 y. 9-b.

byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudje-tining tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari hisobga olinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, davlat byudjeti xarajatlarining hajmi davlat byudjeti daromadlarining hajmi bilan cheklanadi. O'z navbatida, davlat byudjeti daromadlarining hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham bu yerda davlat byudjeti xarajatlarining shunday hajmini va milliy xo'ja-likda pul fondlarini shakllantirishda davlat byudjeti mablag'-laridan foydalanishning shunday muddatlarini o'rnatish kerakki, ular minimal xarajatlar qilib maksimal samaraga erishish orqali davlat oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlasin. Boshqa tomondan esa, ishlab chiqarishning o'sishiga ijobiy ta'sir qilish, ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va milliy xo'jalikdagi proportsiyalarni optimallashtirish orqali davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari darajasining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat byudjeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai nazaridan baholashni dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Bunda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muam-molarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Albatta, milliy xo'jalikning yakuniy natijasi davlat byudjeti xarajatlarining umumiy hajmiga, ularning tarkibiy tuzilishiga, davlat byudjeti mablag'laridan to'g'ri, tejamli va samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda davlat byudjeti xarajatlarining ilmiy asoslangan holda rejalashtirilishiga, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish ustidan o'rnatilgan moliyaviy nazorat tizimiga alohida e'tibor berish lozim.

Milliy xo'jalikni moliyaviy tartibga solishning muhim vositalaridan biri ham davlat byudjetining xarajat-laridir. Moliyaviy tartibga solish deyilganda, milliy xo'jalikdagi oqilona nisbat (proportsiya)larni ta'minlash maqsadida davlat byudjeti mablag'larini tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlash va qayta taqsimlashning shakllari va metodlari majmui tushuniladi. Milliy xo'jalikni moliyaviy tartibga solishning ob'yektiv zarurligi katta o'zgaruvchanlik bilan

xarakterlanadigan, uning murakkab organizmi turli qismlarida moliyaviy resurslarni jamg'arish sur'atlarining turlichaligi bilan izohlanadi. Davlat byudjeti resurslarini sarf qilish orqali davlat pul mablag'larini taqsimlashda vujudga kelgan proportsiyalarni o'zgartirishi va buning oqibatida ba'zi bir tarmoqlarning (hududlarning) rivojlanishini tezlashtirishi va boshqalarining rivojla-nishini rag'batlantirmasdan, milliy xo'jalikning rivojla-nishini tartibga solishi mumkin. Davlat byudjeti mablag'larining katta qismini muhim ishlab chiqarish-hududiy komplekslarni rivojlantirishga sarflash sekin-astalik bilan chuqur sifat o'zgarishlarining sodir bo'lishiga – ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasining o'zgarishiga olib keladi.

Mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy jihatdan tartibga solish davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish jarayonlari davomida amalga oshiriladi. Rejalashtirish jarayonining o'zidayoq davlat byudjeti xarajatlarining umumiy hajmi gorizontaliga (tarmoq, vazirlik va maqsadli yo'nalishlarga) va vertikaliga (boshqaruvning turli darajalariga muvofiq ravishda) taqsimlanib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar-ning sodir bo'lishi uchun tegishli sharoit yaratiladi. Byudjetdan moliyalashtirish jarayonida esa davlat o'zining ixtiyoriga kelib tushayotgan pul mablag'larini rejalashtirilgan tadbirlar doirasida va undan tashqarida keng xarajat qilish imkoniga ega bo'ladi. Mablag'larni konkret taqsim-lovchilarga davlat byudjeti kreditlarini ochish, davlat byudjeti mablag'-larini berish va ulardan samarali foydalanishni nazorat qilib, moliya organlari iqtisodiyotning rivojlanishi ustidan kuzatuv olib boradilar va zarur holatlarda taqsimlanayotgan davlat byudjeti mablag'larining proportsiyalarini o'zgartiradilar.

Daromadlarni davlat byudjetidagi xarajatlarning aniq turlari va yo'nalishlari bo'yicha biriktirilishi printsipi bo'lmaganligi uchun bu yerda davlat byudjeti resurslarini keng miqyosda o'tkazish va shunga muvofiq ravishda davlatning ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'laridan har qanday zarur yo'nalishlarda foydalanilishi mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda davlat byudjeti mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi.

Davlat byudjetining xarajatlaridan foydalanish byud-jetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan

tadbirlarni amalga oshirish uchun sub’yektlarga byudjetdan mablag’larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag’larini taqdim etishning o’ziga xos bo’lgan shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma’lum bir printsiplarga tayanadi. Byudjetdan moliya-lashtirishning printsiplari, shakllari va metodlari bu tizimning tarkibiy elementlari bo’lib hisoblanadi va uning amal qilish natijalariga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilayotgan paytda byudjetdan oqilona va samarali moliyalashtirish tizimining ahamiyati yanada ortadi.

Byudjetdan moliyalashtirishning oqilona tizimini tashkil etishda, eng avvalo, moliyalashtirish printsiplari muhim rol o’ynaydi. Hozirgi amaliyotda foydalanilayotgan byudjetdan moliyalashtirishning printsiplarini umumiy va xususiy guruhlarga bo’lish mumkin. Umumiy printsiplar byudjetdan mablag’ oladigan barcha sub’yektlarning faoliyatiga tegish-lidir. Xususiy printsiplar esa sub’yektlar faoliyatining tashkil etilishiga bog’liq ravishda davlat byudjeti mablag’larining taqdim etilish tartibini belgilab beradi.

Byudjetdan moliyalashtirishning umumiy printsiplari quyidagilardan iborat bo’lishi mumkin:

– minimum xarajatlardan maksimum samara olish;

– davlat byudjeti mablag’laridan foydalanishning maqsadli xarakterdaligi;

– ko’zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan mablag’lardan foydalanilganligini inobatga olgan holda davlat byudjeti mablag’larini taqdim etish.

Byudjetdan moliyalashtirish amaliyotida umumiy tamo-yillar bilan birgalikda xususiy printsiplardan ham foyda-laniladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

–davlat byudjeti mablag’larini faqat ishlab chiqarishni kengay-tirish xarajatlariga ajratish;

– davlat byudjeti mablag’larining miqdorini aniqlashda “qoldiq” yondashuvidan foydalanish;

– byudjetdan moliyalashtirish rejalashtirilayotgan xara-jatlardan kredit metodini ta’minlash bilan birgalikda foydalanish;

– korxonalarning moliyaviy holatini byudjetli tartibga solish printsipi va boshqalar.

Amaliyotda byudjetdan moliyalashtirishning turli shakl-laridan foydalaniladi. Smetali moliyalashtirish, dota-tsiya, subventsiya,

subsidiya, davlat byudjeti ssudalari, baholardagi farqni qoplash va boshqalar byudjetdan moliyalashtirishning shakllaridir[70].

16.4. Davlat byudjeti defitsiti[71] va uni moliyalashtirish

Nazariy jihatdan olib qaralganda davlat byudjetiningsog'lom (normal) faoliyat ko'rsatishi unga tegishli bo'lgan daro-madlar va xarajatlarning tengligini taqozo etadi. Haqi-qatdan ham u yoki bu miqdordagi xarajatlarni amalga oshirish uchun davlat byudjeti shu miqdordagi daromadlarga ega bo'lishi kerak. Aks holda bu xarajatlarni to'la amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Davlat byudjeti daromadlari va xa-rajatlari miqdorlarining o'zaro tengligi davlat byudjetiningmuvozanatlashtirilganligidan(balanslashtirilganligidan) dalolat beradi.

Amaliyotda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari hajmlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda davlat byudjetiningdaromadlari uning xara-jatlaridan ko'p bo'lishi mumkin. Bunday davlat byudjeti profitsitli davlat byudjeti deyiladi. Aksincha, ba'zi hollarda esa davlat byudjetiningxarajatlari uning daromadlaridan ko'proq bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda davlat byudjeti xarajatlarining davlat byudjeti daro-madlaridan ko'p bo'lishi davlat byudjeti defitsiti deyiladi.

Boshqa hollar teng bo'lgan sharoitda, davlat byudjeti defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik hajmdagi davlat kapital qo'yilmalarini ishlatish amaliyotining mavjudligi;
- favqulodda hodisalar yuz berishi;
- iqtisodiyotdagi inqiroz holatlar, uning emirilishi;
- moliya-kredit tizimlarining etarli darajada samarali emasligi;
- hukumatning mamlakatdagi moliyaviy holatni etarli darajada nazorat qilolmasligi;
- ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi nisbatan pastligi;

---

[70] Davlat byudjeti xarajatlariga oid ushbu paragrafda ko'tarilgan masalalar dars-likning 18-bobida yanada batafsilroq ko'rib chiqiladi.

[71] O'zbek tilida "davlat byudjeti defitsiti" iborasining o'rnida ko'pchilik hollarda "byud-jet kamomadi", "davlat byudjeti taqchilligi", "davlat byudjeti etishmovchiligi" kabi iboralar ishlatilmoqda. Bu iboralarning mavjudligi ona tilimizning nihoyatda boy ekanligini yana bir bor ko'rsatsa-da, bizning fikrimizcha, bu ishlatilayotgan iboralarning hech biri "davlat byudjeti defitsiti" iborasi bilan mazmun va mohiyat jihatidan teng kuchga emas. Shuning uchun vaziyat, holat, jarayon yoki voqelikning asl holda aks ettirilishini nazarda tutib, o'zbek tilida ham bu o'rinda "davlat byudjeti defitsiti" iborasini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Muammoni hal etishga aynan shu tarzda yondashish o'zbek tilining sofligiga ziyon etkazmaydi. Aksincha, bu holat, jahon hamjamiyatida va xalqaro maydonda deyarli bir xil shaklda qo'llanilib, bir xil ma'noni anglatib kelayotgan yana bir xalqaro ibora bilan ona tilimizni boyitgan va bir-birimizni bir xil tushunishda o'zining munosib hissasini qo'shgan bo'lur edi.

- tashqi iqtisodiy aloqalarning natijasi nomaqbul ekanligi;
- davlat byudjeti xarajatlari tarkibiy tuzilishi (strukturasi)-ning oqilona emasligi;
- mamlakat miqyosida mavjud bo'lmagan mablag'lar hisobidan yashashga intilish;
- harbiy xarajatlar darajasining nisbatan kattaligi;
- real ichki imkoniyatni etarli darajada hisobga olmagan holda boshqa mamlakatlarga yordam berilishi;
- davlatga iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivoj-lantirishga rag'batlantiruvchi sifatida foydalanish imko-nini bermaydigan va etarli darajada samarali bo'lmagan davlat byudjeti mexanizmining mavjudligi;
- boshqa sabablar.

Davlat byudjeti defitsiti vujudga kelganda unga nisbatan strategik yondashuv (strategiya) quyidagi holatlarga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi:

- davlat byudjeti defitsitining mavjudligini matematik yo'l bilan hal qilishga harakat qilmaslik kerak. Chunki, bu holda iqtisodiyotning "davolanish"i o'rniga "kasalligi" kuchayadi;
- davlat byudjetiningbalansliligi, daromadlarning xarajat-lardan ko'pligi ba'zan iqtisodiyotning sog'lom va uzluksiz rivojlanayotganligidan dalolat bermaydi;
- davlat byudjeti defitsitining darajasi, odatda, mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti miqdorining 2-3%idan oshmasligi lozim. Ana shu chegaradan oshilsa, uni tezroq kamaytirish (yoki shu darajaga keltirish) choralarini ko'rish kerak;
- davlat byudjeti defitsitini qoplash uchun, eng avvalo, davlat kreditining turli shakllaridan foydalanmoq lozim. Shuningdek, davlat qimmatbaho qog'ozlarini moliyaviy bozorga joylashtirish ham maqsadga muvofiq. Muomalaga ko'proq miqdorda pul chiqarish yo'lidan esa foydalanmaslik kerak;
- davlat byudjeti defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish uchun, birinchi navbatda, iqtisodiyotning o'zini "davolamoq" lozim. Aks holda, ana shu maqsadga erishish uchun ko'zda tutilgan har qanday tadbir, albatta, muvaffa-qiyatsizlikka uchraydi.

Davlat byudjeti defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari quyidagi-lardan iborat:

- davlat byudjeti mablag’larining investitsion yo’nalishini o’zgartirish, ularni eng ko’p samara beradigan tarmoq va sohalarga sarflash;
- xo’jalik yuritishning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi moliyaviy imtiyoz va jazolardan keng foydalanish;
- Davlat byudjetidan moliyalashtirish va davlat iqtisodiyoti sohasini qisqartirish;
- harbiy xarajatlar miqdori ni kamaytirish;
- eng muhim ijtimoiy dasturlarnigina moliyalashtirishni saqlab qolish, yirik davlat byudjeti xarajatlarini talab etuvchi dasturlarni qabul qilishni to’xtatib turish;
- Markaziy bankning qarzlarni davlat qimmatbaho qog’ozlari shaklida rasmiylashtirmasdan turib hukumat organlariga kredit berishini taqiqlab qo’yish;
- xorijiy sarmoyalarni jalb etish;
- va boshqalar.

Davlat byudjeti defitsiti vujudga kelgan paytda uni moliyalashtirish manbalarini aniqlab olmoq zarur. Uni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri davlatning qarz olishidir.

Davlatning qarz olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo’lib, hukumat oldida qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarishi bo’yicha kafolatchi sifatidagi majbu-riyatlari vujudga keladi.

Davlatning ichki qarz olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilot-lardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo’lib, ular bo’yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo’yicha ham kafolatchi sifatida hukumatning o’z milliy valyutasida ifodalangan qarz majburiyatlari paydo bo’ladi.

Davlatning tashqi qarz olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilot-lardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo’lib, ular bo’yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo’yicha kafolatchi sifatida hukumatning xorijiy valyutada ifodalangan qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning barcha manba-lari jalb qilingan mablag’larning asosiy turlari bo’yicha navbatdagi

moliyaviy yilga mo'ljallangan davlat byudjeti to'g'risidagi qonunda qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan albatta tasdiqlanishi kerak.

Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning manbai sifa-tida mamlakat Markaziy bankining kreditlari va Markaziy bank tomonidan hukumatning sotib olingan qarz majbu-riyatlari maydonga chiqishi maqsadga muvofiq emas.

Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning barcha manba-larini ikki guruhga bo'lish qabul qilingan:

1) ichki manbalar;

2) tashqi manbalar.

Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning ichki manba-lari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mamlakat hukumati tomonidan shu mamlakatning milliy valyutasida kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;
- mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilayotgan davlat zayomlari;
- davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan tushumlar;
- davlat zaxiralari va rezervlar bo'yicha daromad-larning xarajatlardan o'sgan qismi summasi;
- davlat byudjeti mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraq-laridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgarishi;
- va boshqalar.

Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning tashqi manba-lari qatoriga quyidagilar kiradi:

- mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilgan davlat zayomlari;
- xorijiy valyutada taqdim etilgan va mamlakat hukumati tomonidan jalb qilingan xorijiy davlatlar, banklar va firmalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kreditlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa sub'yekt-lari oldidagi (davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlarni qo'shgan holda) mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari hukumatning davlat qarzini vujudga keltiradi. Bu qarz davlat byudjetini tashkil etadigan davlat mulki bilan to'liq va hech qanday shartsiz ta'minlanishi kerak. Bunda davlat hokimiyati organlari mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari va davlat qarziga xizmat qilish uchun respublika byudjetining daromadlarini shakllantirish bo'yicha barcha vakolatlardan foydalanadilar.

Mamlakatning qarz majburiyatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- qarz oluvchi sifatida mamlakat hukumati nomidan kredit tashkilotlari, xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan kredit bitimlari va shartnomalari;
- mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilgan davlat zayomlari;
- mamlakat hukumati tomonidan davlat kafolatini berish to'g'risidagi shartnomalar;
- o'tgan yillardagi mamlakatning qarz majburiyatlarini restrukturizatsiya qilish va muddatini o'zgartirish to'g'risi-dagi mamlakat hukumati nomidan tuzilgan (shu jumladan, xalqaro) bitimlar va shartnomalar;
- va boshqalar.

Mamlakatning qarz majburiyatlari o'zining muddatiga qarab qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan ortiq va besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan yuqori) bo'lishi mumkin. Ular zayomning konkret shartlariga muvofiq ravishda (zayom shartlarini, jumladan, to'lov muddatlari, foiz to'lovlarining miqdori, muomala muddatlarini o'zgartirmasdan) qaytarilishi kerak.

Mamlakat hukumatining davlat ichki qarzlari quyidag-ilardan iborat bo'lishi mumkin:

- hukumatning davlatni qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha qarzining asosiy nominal summasi;
- hukumatga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzning hajmi;
- mamlakat hukumati tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha majburiyatlar hajmi;
- va boshqalar.

O'z navbatida, hukumatning davlat tashqi qarzlari:

- xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlarga mamlakat hukumati tomonidan taqdim etilgan davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlar hajmi;
- xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlardan hukumat olgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz hajmidan iborat bo'ladi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlat byudjeti qanday omillarga bog’liq holda vujudga keladi va rivojlanadi?
- Davlat byudjeti o’zida qanday munosabatlarni ifodalaydi?
- Davlat byudjeti uchun qanday xarakterli xususiyatlar xos?
- “Davlat byudjeti” tushunchasiga terminologik jihatdan yana qanday tushunchalar qo’shiladi?
- Mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti davlat byudjeti orqali taqsimlanganda qanday bosqichlarni bosib o’tadi?
- Davlat byudjeti fondini shakllantirishda qanday ikki tushun-chalardan foydalaniladi?
- Qanday davlat byudjeti kategoriyalarini bilasiz?
- Davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni nimalardan iborat?
- Mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi deyilganda nima nazarda tutiladi?
- Davlat byudjetining ta’rifini ayting.
- Davlat byudjetining mohiyatini tushuntirib bering.
- Davlat byudjeti boshqa iqtisodiy (moliyaviy) katego-riyalar bilan qanday bog’langan?
- Davlat byudjeti qanday funksiyalarni bajaradi?
- Davlat byudjetining taqsimlash va nazorat funksiyalari qanday xarakterli xususiyatlarga ega?
- Davlat byudjetining taqsimlash va nazorat funksiya-larining miqdoriy va sifat tomonlari nimalardan iborat?
- Davlat byudjeti mexanizmini qanday tushunasiz?
- Davlat byudjetining ahamiyatini tushuntirib bering.
- Davlat byudjeti mamlakatning moliya tizimida qanday o’rinni egallaydi?
- Davlat byudjetining daromadlari nima uchun oraliq xarakterga ega?
- Davlat byudjeti daromadlarining moddiy-buyumlash-gan shaklini nimalar tashkil etadi?
- Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jarayonining asosiy printsiplari nimalardan iborat?
- Davlat byudjetining daromadlari qanday mezonlar asosida tasniflanishi (klassifikatsiya qilinishi) mumkin?
- Davlat byudjetining daromadlari o’z manbalariga ko’ra qanday guruhlarga bo’linadi?
- Davlat byudjetiningsoliq daromadlari tarkibini bilasizmi?

- Davlat byudjetining soliq bo’lmagan daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
- Tushumlarning qanday turlari (ko’rinishlari) davlat byudjeti daromadlarining tarkibi hisobiga olinishi mumkin?
- Hozirgi amaliyotda davlat byudjetining daromadlari qanday tartibda tasniflanadi?
- To’g’ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning tarkibini aytib bering.
- O‘zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko’ra davlat byudjetining daromadlari qanday guruhlarga bo’linishi mumkin?
- Mulkchilik shakliga ko’ra davlat byudjetining daromad-lari qanday ko’rinishlarga ega bo’lishi mumkin?
- Sub’ektlarning daromadlari qanday metodlarni qo’llash evaziga davlat byudjeti ixtiyoriga olinayapti?
- Hozirgi sharoitda davlat byudjeti daromadlarining tarkibi nimalardan iborat va uning tuzilmasi qanday?
- Mamlakatimizda qo’llanilayotgan davlat byudjeti daromadlari tizimining samaradorligi bevosita nimaga bog’liq va u o’z ichiga nimalarni oladi?
- “Davlat byudjeti daromadlari” va “Davlat daromadlari” tushunchalari o’rtasiga barobarlik (tenglik) belgisini qo’yish mumkinmi?
- Davlat byudjetining xarajatlari qanday xarakterli belgilarga ega?
- Davlat byudjeti xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi nimalar bilan izohlanadi?
- Davlat byudjetining xarajatlari qanday belgilarga ko’ra turkumlashtiriladi?
- Iqtisodiy mazmuniga ko’ra davlat byudjetining xara-jatlari qanday xarajatlarga bo’linadi?
- Davlat byudjetining kapital xarajatlari deyilganda nimalar tushuniladi va ularning tarkibi nimalardan iborat?
- Davlat byudjeti joriy xarajatlarining mazmuni va tarkibini bilasizmi?
- Takror ishlab chiqarishdagi roliga ko’ra davlat byudjetining xarajatlari qanday guruhlarga bo’linadi?
- Davlat byudjeti xarajatlarining tarmoq belgisi bo’yicha guruhlarga ajratishning asosida nimalar yotadi?
- Ijtimoiy yo’nalishi bo’yicha davlat byudjetining xarajatlari qanday guruhlardan tashkil topgan?

- Davlat byudjeti xarajatlarining konkret turlari tarkibini aytib bering.
- Davlat byudjetining xarajatlari tashkiliy jihatdan qanday guruhlarga ajratiladi?
- Davlat byudjetining xarajatlari hududiy belgilariga muvofiq qanday guruhlardan tashkil topadi?
- Faqat Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan xarajatlar tarkibini bilasizmi?
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langanmi?
- Hozirgi sharoitda davlat byudjeti xarajatlarining konkret tarkibi va ularning tuzilmasi qanday?
- Byudjetdan moliyalashtirishning mazmunini aytib bering.
- Byudjetdan moliyalashtirishning umumiy printsip-larini aytib bering.
- Amaliyotda byudjetdan moliyalashtirishning qanday shakllaridan foydalanilmoqda?
- "Davlat byudjetining xarajatlari" va "Davlat xarajatlari" iboralari bir xil ma'noni anglatadimi?
- Davlat byudjeti defitsitini qanday tushunasiz?
- Davlat byudjeti defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablarini bilasizmi?
- Davlat byudjeti defitsiti vujudga kelganda unga nisbatan strategik yondashuv (strategiya) nimalarga alohida e'tibor berishni taqozo etadi?
- Davlat byudjeti defitsiti darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
- Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning asosiy manbalarini aytib bering.
- Davlatning ichki va tashqi qarzlarini qanday tushunasiz?
- Davlat ichki qarzlarining tarkibini tushuntirib bering.
- Davlat tashqi qarzlari tarkibiga nimalar kiradi?
- Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning barcha manba-lari qanday guruhlardan tashkil topadi?
- Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning ichki manba-larini aytib bering.
- Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning tashqi man-balari nimalardan iborat?

- Mamlakatning qarz majburiyatlari qanday shakllarda bo’lishi mumkin?
- “Davlat byudjeti defitsiti”, “Davlat byudjeti kamomadi”, “Davlat byudjeti taqchilligi”, “Davlat byudjeti etishmovchiligi” iboralarining ma’nosi bir xilmi?

17-bob. Davlat byudjeti daromadlari

17.1. Davlat byudjeti daromadlarining mazmuni va ularni shakllantirish printsiplari

Davlat byudjeti daromadlari davlat markazlashti-rilgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, ular davlat funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Davlat byudjeti daromadlari pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni inobatga olgan holda unga davlat byudjeti daromadlarining mazmunini ifoda-lovchi quyidagi ta'rifni berish mumkin: **pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi davlat byudjeti daromadlari deyiladi.**

Mamlakatlarning davlat tuzilishiga bog'liq ravishda davlat byudjeti daromadlari quyidagicha farqlanadi:

1) markaziy (davlat) byudjet(i) daromadlari;

2) unitar (yagona, yaxlit) davlatlardagi mahalliy byudjetlar daromadlari.

Federativ (ittifoqchilik) tuzilish(i)ga ega bo'lgan dav-latlarda davlat byudjeti daromadlarining bu ikki ko'rinishidan tashqari federatsiya a'zolari byudjetlarining daromadlari ham alohida bo'ladi.

Davlat byudjeti daromadlari davlat daromadlariga nisbatan torroq darajadagi tushunchadir. Chunki davlat daromadlari hokimiyatning barcha darajadagi byudjetla-rining moliyaviy mablag'lari bilan birgalikda yana o'zining tarkibiga davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalar va barcha davlat sektoriga tegishli bo'lgan boshqa resurslarni ham qamrab oladi.

Davlat byudjeti daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyoj-larini qondirish uchun milliy daromad etarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikni jalb etishi mumkin. Bu yerda milliy boylik deyilganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmui nazarda tuti-layapti.

Milliy daromadni davlat ixtiyoriga o’tkazish turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Soliqlar, davlat krediti va pul emissiyasi davlat hokimiyati organlari tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish uchun foydala-nilayotgan usullarning asosiylari bo’lib hisoblanadi. Bu metodlar o’rtasidagi nisbat mamlakatlar va davrlar bo’yicha turlicha bo’lib, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa qarama-qarshiliklarning kuchlilik darajasi, davlatning moliyaviy siyosati va moliyaviy ahvoli kabi omillar ta’sirida aniqlanadi.

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy usuli soliqlar hisoblanadi. Ular yordamida davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi ta’minlanadi. Turli mamla-katlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 90%ni tashkil etadi. Federatsiya a’zo-lari va mahalliy byudjetlar daromadlarida soliq-larning salmog’i nisbatan pastroqdir. Bu byudjetlar biriktirilgan (tegishli byudjetlarning o’z daromadlari) va tartibga keltiruvchi (davlat byudjeti tizimining yuqori bo’g’inidan quyi bo’g’iniga beriladigan ajratmalar) daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zining moliyaviy ahamiyatiga ko’ra davlat kreditlari ham davlat byudjeti daromadlari hisoblanadi. Kelgusi yil uchun davlat byudjeti tuzilayotgan paytda davlat byudjeti defitsiti mavjud bo’lsa (vujudga kelsa), davlat ana shu usuldan foydalanadi. Davlat mamlakatda moliyaviy ahvolning murakkablashishi va davlat byudjeti defitsiti hajmining oshishiga muvofiq ravishda davlat kreditiga murojaat qiladi. Bunday kreditlarni olishning ikki yo’li mavjud:

1) davlat nomidan qimmatli qog’ozlar chiqarish yo’li bilan jismoniy va yuridik shaxslardan davlat qarzlarini olish;

2) Markaziy bank va boshqa kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar.

Davlat kredit operatsiyalari hajmining oshishi davlat qarzining oshishiga olib keladi. O‘z navbatida, davlat qarzlari soliqlar bilan chambarchas bog’liq. Uni qaytarish va foizlarini to’lash, asosan, soliq to’lovlari yoki davlatning yangi kredit operatsiyalari hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda holatlarda, soliq to’lovlari va davlat kreditlarini olish murakkablashganda davlat qog’oz pullar emissiyasiga murojaat qiladi. Bu davlat byudjeti daro-madlarini to’ldirishning eng noqulay metodidir. Chunki bu metodning qo’llanilishi tegishli tartibda tovar bilan ta’minlanmagan pul massasining o’sishiga va inflyatsion jarayonlarning kuchayishiga, pirovardida esa, og’ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Davlat byudjeti daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Davlat byudjeti daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (byudjet) kategoriyaning namoyon bo'lish shakli byudjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan davlat byudjetiningdaromadlari yaratilgan (ishlab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda byudjetga mablag'larni to'plash (yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va usullari aniqlanadi.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jarayoni-ning quyidagi printsiplarga asoslanishi maqsadga muvo-fiqdir:

– sub'yektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga rioya etish (sharoit yaratish). Buning ma'nosi shundaki, sub'yekt-larga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismini byudjetga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chegaradan oshib ketish sub'yektlarning mustaqilligini yo'qotishiga, kasodga uchrash holla-rining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'-minlashga intilishning susayishiga, xufyona iqtisodiyotning rivojla-nishiga olib keladi;

– sub'yektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byudjetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar sub'yektlarning ixtiyoriga qoldirilmasdan davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu printsipning ta'siri ostiga sub'yektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;

– ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish. Bu printsip davlat byudjeti daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi

va bir vaqtning o’zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda dav-latning manfaatlarini ta’minlaydi;

– davlat byudjeti mexanizmining rag’batlantiruvchi ta’sirini ta’minlash. Sub’ektlar ixtiyoridan mablag’larning byudjetga olinishi ularning samarali faoliyat ko’rsatishini rag’batlan-tirishi kerak. Bu yerda qo’yilgan vazifa faqatgina davlat byudjeti daromadlarini miqdoriy jihatdan ta’minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko’rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko’rsatkichlariga to’lovlarning ta’sirchanligini kuchaytirishdir;

– davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu printsip aholi mablag’lari hisobidan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda qo’llanilib, uning natijasida aholi daromadlarining bir qismi ular olgan daromadlarining darajasiga bog’liq ravishda byudjetga o’tkaziladi.

Davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida undirilishi tufayli bu jarayonda quyidagi printsiplardan foydalaniladi:

– soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

– soliqlar ularni to’lovchilar o’rtasida teng (adolatli) taqsimlanmog’i lozim;

– soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta’sir ko’rsatmasligi;

– soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

– davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo’lishi lozim;

– soliqlarning undirilish jarayoniishlab chiqarishdan xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak.

17.2. Davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy tuzilishi va ularning klassifikatsiyasi

Davlat byudjeti daromadlari o’zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to’lovlarning turi, mablag’larning tushish shakli, ularni byudjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq tasniflanishi (klassifikatsiya qilinishi) mumkin.

Davlat byudjeti daromadlari o’z manbalariga ko’ra quyidagi guruhlarga bo’linadi:

- soliq shaklidagi daromadlar;
- soliq bo’lmagan daromadlar;

- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o’tkaziladigan pul mablag’lari.

Davlat byudjetiningsoliq shaklida oladigan daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig’imlari, mahalliy soliqlar va yig’imlar, bojxona bojlari, boj yig’imlari va boshqa boj to’lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Soliq bo’lmagan daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkidan foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi qonunchilikka muvofiq to’langan soliq va yig’imlardan so’ng);
- davlat byudjeti tashkilotlari tomonidan ko’rsatilgan to’lovli xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi qonunchilikka muvofiq to’langan soliq va yig’imlardan so’ng);
- fuqarolik-huquqiy, ma’muriy va jinoiy choralarni qo’llash natijasida olingan mablag’lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, kompensatsiyalar va davlat sub’yekt-lariga etkazilgan zararlarni tiklash bo’yicha olingan mablag’lar va majburiy undirilgan boshqa mablag’lar;
- moliyaviy yordam ko’rinishidagi daromadlar (davlat byudjeti ssudalari va davlat byudjeti kreditlaridan tashqari);
- soliq xarakteriga ega bo’lmagan boshqa daromadlar.

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibida tushum-larning quyidagi ko’rinishlari ham hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko’rinishda olinadigan mablag’lar;
- kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarda davlat byudjeti mab-lag’larining qoldig’i bo’yicha foizlar ko’rinishida olinadigan mablag’lar;
- davlatga tegishli mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag’lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa byudjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan davlat byudjeti mablag’laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo’lgan xo’jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aktsiyalar bo’yicha dividendlarga to’g’ri keladigan foyda ko’rinishidagi daromadlar;
- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi qonunchilikka muvofiq to’langan soliq va yig’imlardan so’ng);
- davlatga tegishli bo’lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko’zda tutilgan boshqa daromadlar.

Davlat byudjetiningdaromadlar qismini to'ldirishning manba-laridan biri davlat byudjeti tizimida boshqa darajada turgan byudjetdan dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi davlat byudjetining daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklan-maydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham davlat byudjetiningshunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Davlat byud-jetining daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllantirilmoqda[72]

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushum-lari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan davlat byudjeti ssuda-larini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari[73] quyidagi manbalar hisobidan shakllanti-rilmoqda:

1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

2) bojxona bojlari;

3) qo'shimcha foyda solig'i;

4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;

---

[72] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi"ning 50-moddasi. - T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

[73] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 51-moddasi: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

5) boshqa daromadlar.

Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun huj-jatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'im-lar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari jarima sank-tsiyalari va davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgi-langan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan davlat byudjeti ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aktsiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), bundan mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) mustasno, mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjat-lariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyat-lar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daro-madlari quyidagi manbalar hisobidan shakllantirilmoqda[74]:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- mol-mulk solig'i;

[74] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 52 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

- yer solig’i;
- yagona yer solig’i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko’rsatish uchun yig’im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o’tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo’yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo’naltiriladigan davlat bojlari, yig’imlar, tovon pullari va jarima sanktsiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo’yicha davlat ixtiyoriga o’tgan mol-mulkni, huquq bo’yicha davlat daromadiga o’tkazilishi lozim bo’lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo’yicha dividendlar (daromadlar) va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subventsiyalar, o’tkazib beriladigan daromad-lar, dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo’yicha qat’iy belgilangan soliq, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o’simlik yog’i uchun aktsiz solig’i Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o’tkazib beriladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar tasdiqlangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahri shahar byudjeti hamda tumanlar va shaharlar byudjetlari o’rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

O‘zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko’ra davlat byudjeti daromadlari ikki guruhga bo’linishi mumkin:

– xo’jalik yurituvchi sub’yektlardan olinadigan daro-madlar;

– aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko’ra davlat byudjeti daromadlari quyidagi ko’rinishlarda bo’lishi mumkin:

– nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;

– davlat xo’jaliklaridan olinadigan daromadlar;

– aholidan olinadigan mablag’lar.

Davlat byudjeti daromadlarining yuqorida sanab o’tilgan har bir guruhlari daromadlarning manbalari, to’lovlarning turlari va hokazolar bo’yicha kichik guruhlarga bo’linishi ham mumkin. Masalan, davlat xo’jaliklaridan olinadigan daro-madlarga davlat korxona va tashkilotlarining to’lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashkilotlari tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Aholidan byudjetga kelib tushadigan mablag’lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to’lov-lardan iborat bo’lishi mumkin. O‘z navbatida, har bir kichik guruhlarga biriktirilgan davlat byudjeti daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat. Masalan, davlat korxonalari tomonidan byudjetga o’tkaziladigan daromadlarning tarkibiga qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, daromad (foyda) solig’i va boshqalar kiradi. Shuningdek, davlat mulkidan olinadigan daromadlar tarkibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara qilingan mol-mulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo’natmalarini, meros huquqi bo’yicha davlatga o’tgan mol-mulklarni sotishdan olingan tushumlardan iborat. Davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ko’rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga yo’l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan undiriladigan yig’imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig’imlar, o’lchov asboblarini davlat tekshiruvidan o’tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarial idoralari tomonidan aholiga ko’rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi.

Davlat byudjeti daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda jalb qilinishi mumkin. Daromadlarni majburiy shaklda jalb qilish hal qiluvchi rol o’ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to’lovlarga davlat obligatsiyalarini va pul-buyum lotereyalarini sotishdan olingan tushumlar kiradi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma’lum bir mablag’lar belgilangan muddatlarda byudjetga o’tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to’lovni qonun tomonidan majburiy deb e’tirof etilishi to’lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko’zda tutadi. Bu holat davlat byudjetiningijrosi uchun juda katta

ahamiyatga ega bo'lib, mablag'larni to'liq va o'z vaqtida byudjetga jalb etishga xizmat qiladi.

Sub'ektlarning daromadlari davlat byudjeti ixtiyoriga ikki xil usulni qo'llash evaziga olinishi mumkin:

1) soliq usulida;

2) soliq bo'lmagan usulda.

Soliq usul uchun mablag'larning davlat byudjeti foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'rnatilgan muddat-larda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undiri-lishi mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, daromad (foyda) solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar kiradi.

Soliq xarakteriga ega bo'lmagan daromadlar davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to'lovlardir.

Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarilishi talab etilmaydigan mablag'lar ham davlat byudjetiningdaromadlari bo'lishi mumkin. Biroq ayrim to'lovlar davlatning ixtiyoriga vaqtinchalik foydanish uchun o'tkazilishi ham mumkin. Bunday holda davlat olingan mablag'larni sarf etsa-da, bu mablag'larni belgilangan muddatlarda va to'liq ravishda qaytarishga majbur. Ana shunday davlat byudjeti daro-madlarining ko'rinishlaridan biri davlat obligatsiyalarini sotishdan olingan tushumlar hisoblanadi. Davlat byudjeti daromadlariga ular shartli ravishda, faqat shu yilning byudjeti daromadlari nuqtai nazaridan kiritilishi mumkin.

Byudjetlarning barcha daromadlari u yoki bu byudjetlarga biriktirilishiga qarab ikkiga bo'linishi mumkin:

1) davlat byudjetiningo'z daromadlari;

2) davlat byudjetiningtartibga keltiruvchi daromadlari.

Mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq doimiy asosda tegishli byudjetga to'liq yoki qisman biriktirilgan daro-madlar davlat byudjetiningo'z daromadlari deyiladi. Ularga tegishli byudjetlarga biriktirilgan soliqlar va soliq xarakeriga ega bo'lmagan daromadlar kiradi.

Navbatdagi moliyaviy yil (yoki uzoq muddatli davr asosida, odatda 3 yildan kam bo'lmagan holda) uchun boshqa darajadagi byudjetlarga ajratmalar normativi o'rnati-ladigan soliqlar va boshqa to'lovlar davlat byudjetiningtartibga keltiruvchi daromadlari deyiladi.

Davlat byudjeti daromadlarining deyarli barchasi sarflanish nuqtai nazaridan oldindan mo'ljallangan maqsadlarga ega emas. Ular umumiy fondga tushiriladi va ulardan odatdagi moliyalashtirish tartibida foydalaniladi. Davlat byudjeti daromadlarining faqat ba'zi birlarigina oldindan belgilangan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Ularning tarkibiga ijtimoiy sug'urta badallarini kiritish mumkin.

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalarning alohida shakllari va turlarining yig'indisi davlat byudjeti daromadlarining yagona tizimini tashkil etadi. Turli sub'yektlardan kelib tushadigan davlat byudjeti daromadlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan.

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy bo'lmasdan, mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi. Masalan, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari uchun quyidagi tarkib va tuzilma shakllangan: mamlakatimiz davlat byudjetining daromadlari ayni paytda to'g'ri (bevosita) soliqlar, egri (bilvosita) va resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i, ustama foydadan olinadigan soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlan-tirish uchun soliq va boshqa daromadlardan tarkib topmoqda. Davlatimiz byudjetining daromadlarini tarkibiy tuzilmasida egri (bilvosita) soliqlar, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, bojxona bojlari, jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi va transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Aynan shu guruhga kiruvchi soliqlar hisobidan davlat byudjeti daromadlarining yarmi (50,23%) shakl-lanayapti. Bu soliqlar orasida qo'shilgan qiymat solig'i (28,15%) va aktsizlar (16,47%) davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. Birgina qo'shilgan qiymat solig'i yordamida davlat byudjeti daromadlarining ¼ qismidan ko'prog'i shakllanayotganligi bu soliqning davlat byudjeti daromadlari tuzilmasidagi o'rni katta ekanligini yaqqol ko'rsatayapti.

Shuningdek, Davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy tuzilmasida to'g'ri (bevosita) soliqlar ham o'z o'rniga ega. Ular yordamida davlat byudjeti daromadlarining ¼ qismi tashkil topayapti. Uning asosiy qismi (jami to'g'ri (bevosita) soliqlarning 49,4%) esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hissasiga to'g'ri kelayapti. Bu yerda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ham shu guruhga kiruvchi boshqa soliqlarga nisbatan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda alohida rol (5,2%) o'ynamoqda.

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i yordamida davlat byudjeti daromadlarining 15,95% tashkil topayapti. Uning asosiy qismi (shu guruhga kiruvchi soliqlarning 61,6%) er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqqa to'g'ri kelayapti[75].

17.3. Soliqlar va soliq tizimi

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliq-lar hal qiluvchi ahamiyatga ega. **Yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismini davlat ixtiyoriga majburiy va qaytarilmaydigan tarzda o'tkazuvchi to'lovlar soliqlar deyiladi.** Ular mamlakat milliy daromadining bir qismi bo'lib, davlat byudjeti tizimining barcha bo'g'inlari bo'ylab jalb qilinadi, qonunga muvofiq oldindan belgilangan miqdorda va muddatlarda davlatning ixtiyoriga borib tushuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy to'lovlari hisoblanadi. Soliqlar hisobidan davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun moliyaviy asos yaratiladi. Soliqlarsiz davlat faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki ular bozor munosabatlari va xususiy mulkchilik hukmronligi sharoitida daromadlarni byudjetga jalb qilishning asosiy usuli bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida aholi keng qatlamlari daromadlarining 40% gachasi soliqlar orqali davlatning ixtiyoriga o'tmoqda. Mamlakatlar yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadida soliqlar salmog'i ortib, uning darajasi o'rtacha 18% dan 30-50% gacha etib bordi.

Soliqlar yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiy qismi bo'lgan milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etib, yagona takror ishlab chiqarish jarayonining bir qismi, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Bular soliqlarning ijtimoiy mazmunini shakllantiradi. Soliqlar jamiyatdagi taqsimlash munosabatlarining tarki-biy qismi sifatida ishlab chiqarish qonuniyatlarini o'zida ifoda etadi.

Ijtimoiy mazmundan tashqari soliqlar moddiy asosga (mazmunga) ham egadir, ya'ni ular jamiyatning davlat tomonidan jalb qilinadigan pul mablag'larining aniq summasini ham ifodalaydi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda soliqlar davlat hokimiyat organlarini pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismi bilan ta'minlaydi. Majburiy ravishda va soliqlar shaklida mamlakatning yuridik va jismoniy shaxslaridan yig'ilgan milliy daromadning bu qismi davlatning

[75] Bu o'rinlarda keltirilgan raqamlar keyingi bir necha yil davomida shu yo'nalishda tarkib topgan ko'rsatkichlarning o'rtachasini o'zida mujassam etadi.

markazlashtirilgan moliyaviy resurslari fondiga aylanadi. O‘ziga xos tarzda majburiy chetlashtirishdan iborat bo’lgan bu jarayon ekvivalent almashuvsiz qiymatning bir tomonlama (soliq to’lovchidan davlatga) harakatini ifodalaydi.

Davlatning soliq shaklida yig’ib olinadigan daromadlari ishlab chiqarish jarayonida (mehnat, kapital va tabiiy resurslar ishtirokida) yaratilgan yangi qiymat hisobidan shakllantiriladi. Ular davlatning mulkiga aylanadi hamda harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni mablag’ bilan ta’minlaydi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining alohida sohasi (tarkibiy qismi) sifatida soliqlar qat’iy ichki xusu-siyatlari, rivojlanish qonuniyatlari va namoyon bo’lishning farqlanuvchi shakllariga ega bo’lgan o’ziga xos tarzdagi iqtisodiy kategoriyadir. Soliqlar milliy daromad qiymatining bir qismining umumdavlat ehtiyojlari foydasiga olinishi jarayonida namoyon bo’ladigan va aniq mavjud pul munosabatlarini ifodalaydi. Soliq munosa-batlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida doimiy ravishda o’zgarishda bo’ladi.

Soliqlar faqat iqtisodiy kategoriya bo’lib qolmasdan, bir vaqtning o’zida moliyaviy kategoriya hamdir. Ular moliyaviy munosabatlarga xos bo’lgan umumiy xususiyatlarni ifoda etadi, o’zining farqlanuvchi belgilari va xususiyatlariga, o’z harakat shakliga, ya’ni moliyaviy munosabatlarning barcha to’plamidan ajratib turadigan funksiyalariga ega.

Soliqlarning funksiyalari ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ichki mazmunini ochib beradi. Hozirgi sharoitda soliqlar ikki funksiyani bajaradi:

1) fiskal funksiya;

2) tartibga solish (rag’batlantirish) funksiyasi.

Bu funksiyalarning har biri soliqlarning moliyaviy kategoriya sifatida alohida tomonlarini namoyon etadi.

Soliqlarning fiskal funksiyasi ularning asosiy funksiyasi bo’lib, bu barcha davlatlar uchun xarakterlidir. Bu funksiya yordamida davlat pul fondlari, ya’ni davlatning faoliyat ko’rsatishi uchun moddiy asos yaratiladi. Xuddi shu funksiyaning o’zi milliy daromad qiymatining bir qismini jamiyatning eng kam ta’minlangan ijtimoiy qatlamlari foydasiga qayta taqsimlash uchun real imkoniyatni vujudga keltiradi.

Jamiyat rivojlanishi iqtisodiy darajasining oshib borishiga muvofiq ravishda soliqlar fiskal funksiyasining ahamiyati ham o’sib boradi. Insoniyat taraqqiyotining XX asri va XXI asrining boshlari soliqlarni undirish hisobidan davlat daromadlarining juda katta o’sishi

bilan xarak-terlanadiki, bu narsa, o’z navbatida, davlat funksiyalarining kengayishi va hokimiyat tepasida bo’lgan ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan ma’lum bir siyosatning hayotga tatbiq etilishi bilan bog’liqdir. Keyingi yillarda davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqaruv apparatini saqlashga katta miqdordagi moliyaviy mablag’larni sarflamoqda. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so’ng dunyoning rivojlangan mamlakatlariga soliq shaklida yig’iladigan daromadlar o’sishining yuqori sur’atlari xos bo’lib, bu narsa faqatgina iqtisodiyotning tiklanishi bilan emas, balki o’tgan asrning 60-70-yillarida G’arbning juda ko’p mamlakatlarida takror ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi bilan ham izohlanadi. XX asrning 80-yillari o’rtalarida soliq tushum-lari o’sish sur’atlari sekinlashdi va ularning milliy daromaddagi salmog’i barqarorlashdi. Ammo, shunday bo’lishiga qaramasdan, milliy daromadni qayta taqsimlashda davlat salmog’ining yuqoriligi hamon saqlanib qolmoqda.

Soliqlarning fiskal funksiyasi iqtisodiy munosa-batlarga davlatning aralashuvi uchun ob’yektiv shart-sharoit yaratadi, ya’ni u tartibga solish funksiyasini taqozo etadi.

Tartibga solish (rag’batlantirish) funksiyasi qayta taqsim-lash jarayonlarining faol ishtirokchisi sifatida soliqlar-ning takror ishlab chiqarishga uning sur’atlarini rag’bat-lantirib yoki to’sqinlik qilib, kapitalning jamg’a-rilishini kuchaytirib yoki susaytirib, aholining to’lovga qobiliyati talabini kengaytirib yoki qisqartirib, keskin ta’sir ko’rsa-tishi mumkinligini anglatadi. Milliy daromad-ni jalb qilishning soliq metodini davlat tomonidan kengaytirilishi orqali soliqlarning ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari bilan doimiy ravishda to’qnash kelishiga sabab bo’lib, bu narsa unga mamlakat iqtisodiyotiga va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga ta’sir ko’rsatishi uchun real imkoniyat yaratadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi davlatni ishlab chiqarish jara-yoniga aralashuvi uchun ehtiyojni vujudga keltiradi. Bu narsa soliqni tartibga solishni (rag’batlantirishni) yangi pog’onaga ko’tardi. Daromadlarni soliqqa tortishning kengayishi bilan korxonalarning foydasi va aholining daromadlari asosiy soliq ob’ektlariga, jismoniy va yuridik shaxslar esa, asosiy soliq sub’yektlariga aylanadi.

Soliqlar jami talab darajasi va uning tuzilmasiga ta’sir ko’rsatadi. Ular, bir vaqtning o’zida, talabning bozor mexanizmi orqali ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatishi yoki uning rivojlanishiga to’sqinlik qilishi mumkin. Soliqlarning miqdori (hajmi) mehnatga haq

to’lash darajasini aniqlashga ham o’z ta’sirini ko’rsatadi. Chunki ular soliq to’lovlarining tarkibiga kiritiladi. Tadbirkorlar uchun ishlab chiqarish quvvatlarini sotish yoki ulardan foydalanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan mahsulotlar va xizmatlar bahosi bilan ishlab chiqarish xarajatlari o’rtasidagi nisbat ham soliqlarga bog’liq.

Soliqlar va ularning funksiyalari bazis munosabat-larini o’zida aks ettiradi. Ulardan davlat soliq mexa-nizmini tashkil etadigan turli xildagi vositalar (soliq stavkalari, soliqqa tortish usullari, soliq imtiyozlari va shunga o’xshashlar) orqali soliq siyosatini yurgizishda foydalanadi.

Soliqlarning asosiy elementlari quyidagilardan ibo-rat:

- soliq sub’yekti – qonun bo’yicha soliqni to’lovchi shaxs (yuridik yoki jismoniy);
- soliq ob’yekti – mavjudligi egasini soliqqa tortishga asos bo’ladigan predmet (mol-mulk, er va boshqalar);
- soliq manbai – hisobidan soliq to’lanadigan daromad (ish haqi, foyda, foiz va boshqalar);
- soliqqa tortish birligi – soliq ob’yektini o’lchash bir-ligi (masalan, yer solig’i bo’yicha erning bir gektari);
- soliq stavkasi – soliqqa tortish birligiga nisbatan o’rnatilgan soliqning miqdori. Amaliyotda soliqlar regres-siv, proportsional va progressiv stavkalar yordamida yig’ib olinadi. Regressiv usulda (soliqlarni undirishning regressiv stavkasida) daromadning o’sib borishi bilan uni soliqqa tortish foizi kamayadi. Tovarlarning bahosidan undiriladigan egri (bilvosita) soliqlar doimo regressiv usulda hisoblanadi. Proportsional soliqlarda (soliqlarni undirishning proportsional stavkasida) daromadning miqdoriga bog’liq bo’lmagan holda ular bir xil stavkada undiriladi. Progressiv soliqlarda (soliqlarni undirish-ning progressiv stavkasida) esa daromadlarning ortib borishiga qarab soliqning stavkasi ham ortib boradi. Progressiyalar oddiy va murakkab bo’lishi mumkin. Oddiy progressiyada soliqning stavkasi daromadning barcha qismi uchun ortadi (oshadi). Murakkab progressiyada esa soliq to’lovchining daromadi qismlarga bo’linadi va uning har bir qismiga nisbatan tegishli soliq stavkasi qo’llaniladi;
- soliq tizimi – mamlakat hududida amal qiladigan soliqlar, ularning tuzilishi usullari va printsiplari majmui.
- soliq imtiyozlari – amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq to’lovchini soliq to’lashdan to’liq yoki qisman ozod qilish;

- soliqqa tortiladigan baza (asos, negiz) – unga nisbatan soliq stavkasi qo'llaniladigan daromad. Soliq to'lovchining yalpi daromadidan amaldagi qonunchilik bo'yicha taqdim etilgan soliq imtiyozlarini chegirish orqali aniqlanadi;
- soliq okladi – uning sub'yekti tomonidan to'lanadigan soliq summasi.

Soliqqa tortishni boshqarishning tashkiliy-huquqiy normalari va metodlari majmui soliq mexanizmi deyiladi. Davlat soliq mexanizmiga soliq qonunchiligi orqali yuridik shakl beradi va u orqali iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatib, uni tartibga solib turadi.

Soliq mexanizmidan foydalanishning samaradorligi davlat tomonidan soliqlarning ichki mohiyati, ularning harakatlanish qonunlari va qarama-qarshiliklari qanday hisobga olinganligiga bog'liq. Bir tomondan, soliqlar va ularning funksiyalari, ikkinchi tomondan, soliq siyosati va soliq mexanizmining chegaralanganligi soliqlarning ob'yektivligini va davlat faoliyatining sub'yektivligini tushunishga imkon beradi.

Soliq siyosati va soliq mexanizmi jamiyatda soliqlarning o'rnini aniqlab beradi va u davlatning faoliyati bilan uzviy bog'langandir. Ularning har ikkalasi doimiy harakatda bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Yangi iqtisodiy kontseptsiyalarga muvofiq ravishda soliq siyosati va soliq mexanizmi qayta ko'rib chiqiladi.

Umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar, ularni o'rnatish, o'zgartirish va bekor qilish-ning printsip, shakl va metodlari, to'lash va ularning to'lanishini ta'minlash bo'yicha choralarni qo'llash, soliq nazoratini amalga oshirish, javobgarlikka tortish va soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralari majmui soliq tizimi deyiladi. Zamonaviy soliq tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbol-larini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining talablariga asoslanadi.

Zamonaviy soliq tizimi mamlakat hududida amal qiladigan soliqlar to'plamidan iborat bo'lib, soliqlarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. Soliq to'lovchilar daromad solig'idan tashqari yana ko'plab egri (bilvosita) soliqlarni, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, mahalliy soliqlar va yig'imlarni to'laydi.

Soliq tizimining tarkibiy tuzilmasi davlat tuzilishiga bog'liq. Unitar davlatlarda soliq tizimi tarkibi quyidagicha:

- davlat soliqlari;
- mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Federativ davlatlarda esa soliq tizimi uch bo'g'indan tarkib topadi:

- davlat (federal) soliqlari;
- federatsiya a'zolarining byudjetlariga biriktirilgan soliqlar;
- mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Byudjetga tushumlarning katta qismini ta'minlaydigan asosiy soliqlar davlat byudjetiga biriktiriladi. Odatda, bunday asosiy soliqlar tarkibiga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsizlar;
- aholidan olinadigan daromad solig'i;
- korporatsiyalarning (korxonalarning) daromadidan (foydasidan) olinadigan soliq;
- bojxona bojlari.

G'arbning rivojlangan mamlakatlarida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda aholidan olinadigan daromad solig'i muhim rol o'ynab, uning yordamida davlat byudjeti daromadlarining 25-45% tarkib topmoqda. Bu soliq murakkab progressiya printsipi bo'yicha progressiv stavka-larda undiriladi. Daromad solig'i yordamida aholi daro-madlari soliqqa tortilayotgan paytda soliqqa tortilmay-digan minimum (soliq to'lovchi daromadining soliqqa tortilmaydigan qismi) qo'llaniladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi soliqqa tortishga xos bo'lgan muhim tendentsiyalardan biri korporatsiyalar (korxo-nalar) daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar salmog'ining pasayishidir. Bu narsa doimiy va uzluksiz ravishda soliq imtiyozlarini kengaytirish va soliq stavkalarini pasaytirish evaziga qo'lga kiritilayapti.

Soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i va aktsizlar o'ziga xos o'ringa ega. Qo'shilgan qiymat solig'i Yevropa Itti-foqining barcha mamlakatlarida amal qiladi. Yetakchi xorijiy mamlakatlardan faqat AQSh va Yaponiyada bu soliq qo'llanilmaydi.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona bojlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tovarlar eksporti va importida olinadigan soliqlardir. Keyingi yillarda dunyo xo'jalik hayotining globallashuvi va xalqaro mehnat taqsimotining yanada rivojlanishi natijasida bojxona bojlarining davlat byudjeti daro-madlarini shakllantirish manbai sifatidagi roli ham birmuncha pasayib bormoqda. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar

byudjetlari daromadlarining o’rtacha 1-4% shu soliq hisobidan tarkib topayapti.

Davlat fiskal monopoliyalari yoki fiskal monopol soliqlarda davlat ommaviy iste’molga ega bo’lgan qandaydir bir mahsulotni (aroq, sigareta va shunga o’xshashlar) ishlab chiqarish va uni sotish ustidan monopoliya o’rnatadi va o’rnatilgan monopol bahodan tadbirkorlik daromadi bilan bir qatorda yirik soliqlar ham undiradi. Davlat byudjetiga kelib tushadigan fiskal monopol soliqlar Fransiya, Italiya, GFR va Yaponiya kabi mamlakatlarda qo’llaniladi.

Mahalliy byudjetlarga fiskal nuqtai nazaridan etarli darajada samarali bo’lmagan va ikkinchi darajali ahamiyat kasb etuvchi soliqlar biriktiriladi. Mahalliy byudjet-larning ixtiyoriga kelib tushadigan soliqlarning asosiysi mol-mulk solig’idir.

Federativ tuzilishga ega bo’lgan davlatlarda federatsiya a’zolari byudjetlarining daromadlariga tegishli bo’lgan masala turlicha hal qilingan. Masalan, AQShda shtatlarning byudjetlari egri (bilvosita) soliqlarga tayangan bo’lib, ularning orasida sotuvdan olinadigan soliq asosiy o’rin tutadi. GFRda esa aholidan olinadigan daromad solig’i va korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliq bo’yicha tushumlar ma’lum foizlarda federal va er byudjetlari o’rtasida bo’linadi. Juda ko’p mamlakatlarda mahalliy byud-jetlarga yo’naltiriladigan soliqlarga nisbatan ustamalar (qo’shilmalar) qo’llash amaliyoti joriy etilgan.

Shunday bo’lishiga qaramasdan mahalliy hokimiyat organlarining o’z funksiyalarini to’liq amalga oshirishlari uchun soliqlar, aksariyat hollarda, etarli emas. Shu sababli mahalliy byudjetlarga yuqori byudjetdan dotatsiya, subven-tsiya, subsidiya, kredit va boshqa shakllarda mablag’lar yo’naltiriladi.

O‘zbekiston hududida qirqdan ortiq soliq va yig’imlar undiriladi. Ular sonining ko’pligi xilma-xil vazifalarni hal qilish va turli-tuman funksiyalarni bajarish imkonini bersa-da, bir vaqtning o’zida bu holat, ularni undirish bo’yicha xarajatlarning ortishiga olib keladi va soliqlarni to’lashdan bo’yin tovlashga sharoit yaratadi.

Zamonaviy soliq tizimi quyidagi vazifalarni bajarishi kerak bo’ladi:

1) davlat byudjeti daromadlarini to’liq va o’z vaqtida jalb qilinishini ta’minlash. Aks holda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mumkin emas;

2) yoppasiga va xo’jalik yuritishning alohida sohalari bo’yicha ishlab chiqarish va iste’molni tartibga solish uchun sharoit yaratish. Bunda aholining turli guruhlari daromad-larini shakllantirish va qayta taqsimlashning o’ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- huquqiy asosga egaligi va nisbatan bo’lsa-da, barqa-rorligi (soliqlar va soliqqa tortishning barcha masalalariga nisbatan emas); daromadlarni taqsimlash va qayta taqsim-lash bilan bog’liq barcha iqtisodiy munosabatlarga kirib boradi. Barcha soliqlar va yig’imlarni joriy etish va ularni bekor qilish faqat davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi;
- soliqlarni hisoblash va undirishning yagona prin-tsiplari va mexanizmi. Barcha soliqlar va yig’imlar ustidan yagona nazorat O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mi-tasi va uning quyi organlari tomonidan amalga oshiriladi;
- yangi soliqlarning joriy qilinganligi (qo’shilgan qiymat solig’i va boshqalar) hamda soliq imtiyozlari va oldin amal qilgan soliqlar bazasini hisoblash tartibida keskin o’zgarishlarning sodir etilganligi;
- soliq kalendariga muvofiq qonunchilik yo’li bilan soliqlarni to’lashda aniq ketma-ketlik o’rnatilganligi. Masalan, yuridik shaxslar birinchi navbatda umumdavlat soliqlarini, undan keyin esa mahalliy soliqlar va yig’imlarni to’lashadi;
- barcha soliq to’lovchilarga nisbatan teng talablarning qo’llanilishi va soliqlar ro’yxatini aniqlash, stavkalarni unifikatsiya qilish, imtiyozlar va ularni taqdim etish mexanizmini tartibga solish hamda mablag’lardan foyda-lanish huquqiga aralashmaslik yo’li bilan ishlab, topilgan mablag’lardan foydalanish uchun teng sharoitlarning yaratilganligi;
- soliqlarning ikkita asosiy turi birgalikda qo’llani-layotganligi: to’g’ri (daromadlarga va mol-mulkka) va egri (tovarlar va xizmatlarga). Avval egri (bilvosita) soliqqa tortish Vatanimiz iqtisodiy amaliyotida to’liq inkor qilingan edi;
- avvalo, jismoniy emas, yuridik shaxslarning soliqqa tortilishi. Bu O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining rivojlangan xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridan farqini ko’rsatadi. Barcha yuridik shaxslar va yakka tartib-dagi tadbirkorlar soliq organlarida ro’yxatdan o’tishga majbur. Soliq organlarida ro’yxatdan o’tganligi to’g’risidagi ma’lumotnomani olmasdan turib banklar ularga hisobva-raqlarini ochish huquqiga ega emaslar.
- soliq qonunchiligini buzganligi uchun juda qattiq sanktsiyalarning, shu jumladan, moliyaviy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralarining qo’llanilayotganligi;

- soliq to’lovchilar uchun ularning iltimosiga ko’ra joriy yil doirasida soliqlar va yig’imlarni byudjetga to’lash, shuningdek, moliyaviy sanktsiyalar summalari (agar ularni to’lash korxonani kasodga uchrashga olib kelsa – 6 oy muddatgacha), bo’yicha to’lov muddatlarini kechiktirish yoki uzaytirish imkoniyatining mavjudligi.

Soliqqa tortish jarayonlari soliq tizimining asosiy printsiplari yordamida tartibga solinadi. Bunday printsiplar quyidagilardan iborat:

- soliqlar jamiyat va davlatning faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishini moliyaviy ta’minlash maqsadida o’rnati-ladi;
- o’rnatilgan tartibga ko’ra soliq to’lovchi bo’lgan har bir shaxs (yuridik yoki jismoniy) soliq qonunchiligiga binoan belgilangan soliqlarni to’lashga majburdir;
- soliqlar siyosiy, mafkuraviy, etnik, konfessional va shunga o’xshash boshqa mezonlar asosida qo’llanilmasligi lozim;
- mamlakatning soliq tizimi va yagona iqtisodiy makonini buzishga xizmat qiladigan soliqlar o’rnatilmasligi kerak;
- soliq to’lovchining mulkchilik shakli, tashkilotning tashkiliy-huquqiy maqomi, jismoniy shaxsning fuqaroligi, shuningdek, ustav kapitali yoki mulkning kelib chiqish davlati, mintaqasi yoki geografik joylashuviga bog’liq bo’lgan holda qo’shimcha soliqlarni joriy etish, soliq stavkalari va imtiyozlarini oshirish yoki ularni tabaqalashtirishga yo’l qo’yilmaydi.

Mustaqillikka yaqinda erishilganligi bilan bog’liq ob’yektiv sabablarga ko’ra, soliq apparati xodimlarida bu sohada tajribaning hali kamligi, beqaror iqtisodiy sharo-itda ishlab chiqilgan soliq siyosati asosida yaratilgan soliq tizimi oldindan ko’ra bilish qiyin bo’lgan ayrim nuqson-larga ega bo’ladiki, bu holat soliq to’lovchilarni ham, soliq organlarini ham qoniqtira olmaydi. Masalan:

- soliqqa tortishda fiskal yondashuvning ustuvorligi. Soliqlar to’g’risidagi muammoni hal etishda davlat byudjetiningdaromadliligi birinchi o’ringa qo’yiladi va soliqlarning tartibga soluvchi roliga etarli darajada e’tibor qara-tilmaydi;
- yuridik shaxslarni soliqqa tortishning yuqori dara-jadaligi. Jami soliq to’lovlari, turli baholashlarga ko’ra, yuridik shaxslar daromadining (foyda va mehnat haqining) 40% dan 80% gachasini tashkil etayapti. Egri (bilvosita) soliqlarning (QQS va aktsizlar) yuki ham og’ir bo’lib, aynan ular inflyatsion jarayonlarning generatori bo’lib maydonga chiqmoqda. Ba’zi bir mutaxassislarning baholariga

ko’ra yalpi ichki mahsulotga nisbatan soliq bosimi 30% atrofida bo’lib, bu narsa jahon amaliyotidagiga nisbatan ancha yuqoridir;

- soliqqa tortishni murakkablashtiradigan soliqlar, yig’imlar, ajratmalar, badallar (umumdavlat, mintaqaviy, mahalliy, maq-sadli va h.k.) sonining ko’pligi;
- soliq qonunlarining beqarorligi, soliqlarni hisob-lash tartibining tez-tez o’zgartirib turilishi, soliq qonunlarining ayrim moddalari puxta ishlanmaganligi va ularning o’zaro ziddiyatliligi. Soliq qonunlarining qayta-riluvchan (orqa muddatga) kuchga ega bo’lish hollarining mavjudligi. Soliq amaliyotining nisbatan kuchsiz axborot (informatsion) bazaga ega ekanligi;
- soliq vakolatlarining markaz va joylarda aniq chegaralanmaganligi natijasida ular o’rtasida turli nifoqlarning kelib chiqayotganligi;
- qonunda belgilangan davrda bir ob’ektning bir necha marta soliqqa tortilayotganligi;
- va boshqalar.

Soliq tizimidagi bunday kamchiliklar uni isloh qilishini taqozo etadi. 2016 yilda boshlangan yangi iqti-sodiy siyosat talablaridan kelib chiqib, soliq islohot-larini amalga oshirish bo’yicha davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari quyidagicha bo’lishi maqsadga muvofiq :

- moliyaviy yil davomida soliqlar va soliq xarakteriga ega bo’lmagan to’lovlarning yagonaligi, ziddiyatsizligi va o’zgarmasligini ta’minlovchi barqaror soliq tizimini yaratish;
- etarli darajada tushum bermaydigan maqsadli soliqlarni bekor qilish va ularni yiriklashtirish bilan soliqlar sonini kamaytirish;
- pul mablag’laridan maqsadli foydalanish yo’nalishi va davlat byudjetiningdaromadli qismini shakllantirishning normativ tartibini saqlab qolgan holda davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarini davlat byudjetiga konsolidatsiya qilish;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko’rsatuvchilarga nisbatan soliq yukining og’irligini engillashtirish va bir vaqtning o’zida soliqlarning undirilish darajasini oshiruvchi mexanizmni joriy etishni aniq belgilash asosida ikki marta soliqqa tortilishga yo’l qo’ymaslik;
- byudjetlarning turli darajalariga har bir soliqdan tushumning minimal hissalarini o’rnatish orqali soliq federalizmini rivojlantirish;
- soliq imtiyozlarini kamaytirish va ularni soliqqa tortishning umumiy tartibidan (rejimidan) chiqarish;

- aktsizlarning o’ziga xos stavkalarini o’rnatish amali-yotini kengaytirish;
- mineral xomashyoning alohida turlaridagi aktsizlarni resurs to’lovlari bilan almashtirish;
- ekologik soliqlar va jarimalarning salmog’ini oshirish;
- va boshqalar.

Bunda asosiy vazifa, soliqlarning undirilish (yig’ilish) darajasini oshirish hisobiga yalpi ichki (milliy) mahsu-lotda soliq tushumlari hissasining o’sishini ta’minlashga erishishdir.

Mamlakatning soliq tizimi bir necha belgilar va omillarga muvofiq quyidagicha tasniflanishi (klassifi-katsiya qilinishi) mumkin:

1. Soliqqa tortishning ob’yekti hamda soliq to’lovchi va davlat o’rtasidagi o’zaro munosabatlarga bog’liq ravishda soliqlar to’g’ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarga bo’linadi.

To’g’ri (bevosita) soliqlar sub’yektga tegishli bo’lgan bevosita daromadlar va mol-mulkdan olinadi. Ularning tarkibiga korxonalarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i, korxonaning mol-mulkidan olinadigan soliq va boshqalarni kiritish mumkin.

Egri (bilvosita) soliqlar tovarlar va xizmatlarga nisbatan o’rnatiladi va tovar to’lanadigan baho yoki xizmatning tarifi tarkibida bo’ladi. Tovar yoki xizmatning egasi ularni realizatsiya qilganda soliq summalarini oladi va ularni davlat byudjetiga o’tkazadi. Tovar yoki xizmatni sotib oluvchi bunday soliqlarning haqiqiy to’lovchilari bo’lib hisoblanadi. QQS, aktsizlar va bojxona bojlari egri (bilvosita) soliqlarning tarkibiga kiradi.

2. Foydalanilishi bo’yicha soliqlar umumiy va maxsus (maqsadli) soliqlardan iborat bo’lishi mumkin.

Turli-tuman tadbirlarni moliyalashtirish uchun byudjetga tushadigan soliqlar umumiy soliqlar deyiladi. Maxsus (maqsadli) soliqlar esa oldindan belgilangan ma’lum bir maqsadlarga mo’ljallangan bo’ladi. Masalan, transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg’isi va gaz iste’moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq yo’llarni qurish, rekonstruktsiya qilish va joriy remont qilishga mo’ljallangan.

3. Soliqlar yig’ilishi va qaysi organga tegishliligiga qarab, umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo’linadi.

Hozirgi davrda davlat byudjeti daromadlarini belgilashda to’rtta soliq hal qiluvchi rol o’ynamoqda. Bular qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, korxonalarning daromadi (foydasi) dan olinadigan soliq va

jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqdir. Ular hisobidan davlat byudjeti daromadlarining ¾ qismi shakllanmoqda.

17.4. Umumdavlat soliqlari

Soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda o'rnatiladigan va mamlakatning barcha hududlarida undiriladigan soliqlar umumdavlat soliqlari deyiladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
- aktsizlar;
- korxonalarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- bojxona bojlari;
- va boshqalar.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hozirgi davr soliq tizimida eng muhim soliqlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda uning hisobidan davlat byudjeti daromadlarining 25-30% tashkil topmoqda. QQS fiskal nuqtai nazardan eng samarali soliq hisoblanadi. Uni joriy etuvchi mamlakat birdaniga juda katta miqdordagi daromadni byudjetga olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu soliq mamlakatimizda 1992 yilning 1 yanvaridan joriy etilgan bo'lib, u xorijda o'tgan asrning 50-yillaridanoq mavjud edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra QQS ishlab chiqa-rilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatning barcha bosqichlarida yaratilgan qiymat o'sganining bir qismini mahsulot (ish, xizmat)ning sotilishiga muvofiq ravishda byudjetga olinish shakli bo'lib hisoblanadi. U realizatsiya qilingan mahsulotlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymati bilan ishlab chiqarish va muomala xarajatlarining tarkibiga kiritilgan moddiy xarajatlarning qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniq-lanadi. Bu soliq yordamida mahsulotning barcha aylanmasi emas, balki qiymatning ortgan qismi soliqqa tortiladi. Qo'shilgan qiymat deyilganda korxona ishchi-xodimlariga to'lanadigan mehnat haqi (ajratma tariqasida hisoblangan summalar bilan birgalikda) va yalpi foydaning yig'indisi tushuniladi.

QQS baholarni shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Uning miqdoriga mos ravishda mahsulotlarning bahosi avtomatik ravishda ortadi.

Sobiq SSSRda 1930-1932 yillarda o'tkazilgan soliq islohotlariga muvofiq ravishda joriy etilgan oborot solig'i va baholar ustidan qattiq

davlat nazorati bo'lgan bir paytdagidan va 1991 yilning 1 yanvaridan kiritilgan sotuvdan olinadigan soliqdan farqli o'laroq QQS bir necha muhim afzalliklarga ega. Afzalliklarning ba'zi birlari quyidagilardan iborat:

- QQS oborot solig'iga nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Chunki u tovar aylanmasining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Shunga muvofiq ravishda soliqqa tortiladigan baza kengayib, byudjetga tushumlar ortishi mumkin;
- alohida olingan ishlab chiqaruvchi uchun bu soliq nisbatan kamroq og'irlik yuklaydi. Chunki bunda soliqqa tortishga butun tovar aylanmasi emas, balki qiymat o'suvining bir qismi jalb qilinadi va uning og'irligi ishlab chiqarish va muomalaning butun zanjiri bo'ylab taqsim-lanadi. Buning natijasida bozor munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun teng holatning yaratilishiga erishiladi;
- QQS soliqqa tortishning nisbatan oddiyroq shaklidir. Chunki bu soliq to'lovchilarning hammasi uchun mamlakatning butun hududi bo'yicha yagona soliq undirish mexanizmi joriy etilgan bo'ladi;
- davlat uchun ham ustuvorlik kasb etadi. Chunki uni to'lashdan bosh tortish yoki bo'yin tovlash ancha murakkab bo'lib, moliyaviy intizom buzilish holatlari kamayadi;
- QQS tadbirkor daromadining o'sishidan manfaatdorlikni yuqori darajaga ko'taradi. Chunki u avtomatik ravishda korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini soliqqa torti-lishdan ozod qiladi.

Rasmiy ravishda QQS ishlab chiqaruvchilar va savdo qiluvchilardan undiriladi. Biroq uning haqiqiy to'lovchilari mahsulotlarni sotib oluvchilar, ya'ni aholining keng qatlami hisoblanadi. Ular tovarni sotib olish bilan birga tovar bahosining tarkibida QQS ni ham to'laydilar.

Quyidagi sub'yektlar QQSni to'lovchilar hisoblanadi:

- mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ishlab chiqarish va boshqa tijorat faoliyatini amalga oshiruvchi barcha yuridik shaxslar (xorijiy investitsiyali korxonalar bilan birga-likda);
- mamlakat hududida joylashgan va mustaqil ravishda mahsulot (ish, xizmat)larni sotayotgan yakka (oilaviy) tartib-dagi barcha xususiy korxonalar, ularning filiallari, bo'linmalari va korxonaning boshqa shakllari.

QQSning ob'yekti tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar aylanmasidir. Tovarlarni realizatsiya qilishda o'zida ishlab chiqarilgan va chetdan sotib olingan tovarlar hisobga olinadi. Bajarilganda ishlar esa qurilish-montaj, ilmiy-tadqiqot, tajriba-

konstruktorlik, texnologik kabi ishlar inobatga olinadi. Shuningdek, xizmatlar realizatsiya qilinganda aloqa, transport, uy-joy-maishiy xo'jalik, reklama, innovatsion va boshqa shunga o'xshash korxonalarning xizmatlarni ko'rsatishdan olingan tushumlar nazarda tutiladi. Soliqqa tortiladigan aylanmaning tarkibiga korxona tomonidan olingan barcha pul mablag'lari (agar ularning olinishi tovar (ish, xizmat)larni to'lash bo'yicha hisob-kitoblar bilan bog'liq bo'lsa), shu jumladan, boshqa korxonalardan olingan moliyaviy yordamlar, maxsus maqsad-larga mo'ljallangan fondlarni to'ldirish, avans to'lovlari, mahsulotlarni etkazib berish bo'yicha shartnomalarning buzilganligi uchun olingan jarimalar, penyalar va shunga o'xshashlar kiradi.

QQS orqali soliqqa tortishda soliq imtiyozlari mavjud. Masalan, quyidagilar QQS bo'yicha soliqqa tortishdan ozod qilinishi mumkin:

- korxonaning ustav fondiga o'tkazilgan mablag'lar;
- eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar;
- pul, valyuta, banknota va qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar;
- madaniyat va san'at muassasalarining xizmatlari;
- kvartira haqi;
- va boshqalar.

QQSning stavkalari 10 va 20% darajasida o'rnatilgan. 10% li stavka iste'mol tovarlari (aktsizosti tovarlaridan tashqari) va mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha bolalar uchun tovarlarga, 20% li stavka esa qolgan boshqa tovarlar, ishlar va xizmatlarga (aktsizosti iste'mol tovarlari bilan birgalikda) nisbatan amal qiladi.

Tovar (ish, xizmat)larning soliqqa tortiladigan aylan-masi aniqlanib, soliq imtiyozlari va soliq stavkasi o'rnatilganidan so'ng soliqqa tortiladigan aylanmani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan QQSning summasi hisoblab, topiladi. Amaliyotda QQSni to'lovchi byudjetga sotilgan tovar (ish, xizmat)lar uchun sotib oluvchidan olingan soliq summasi va moddiy boyliklar uchun mol etkazib beruvchiga to'langan soliq summasi o'rtasidagi farqni to'laydi, ya'ni hisobga olish mexanizmi amal qiladi. Bu yerda hisobga olish mexanizmi korxonaga mol etkazib beruvchiga sotib olingan tovar (ish, xizmat)lar uchun to'langan QQS summasini sotib oluvchiga tovar – (ish, xizmat)lar sotilganda olingan QQS summasidan chegirib tashlash imkonini berishni anglatadi. Tadbirkorlar quyidagi shartlar

bajarilganda hisobga olish (byudjetdan qoplash) huquqiga egadirlar:

- sotib olingan tovar (ish, xizmat)lar mol etkazib beruvchiga to'langan bo'lishi, ya'ni boshlang'ich va hisob-kitob hujjatlarida QQSning summasi alohida qatorda belgi-lanmog'i lozim;
- sotib olingan tovar (ish, xizmat)lar kirim qilingan, ya'ni balansda aks ettirilgan bo'lishi kerak;
- sotib olingan moddiy boyliklardan ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilgan bo'lmog'i lozim;
- mol etkazib beruvchidan schyot-fakturalar olinganda.

QQSni to'lash muddatlari soliq summasining hajmiga bog'liq: soliq summasi qanchalik katta bo'lsa, uni to'lash muddati shunchalik tez bo'lmog'i lozim. Ayrim hollarda QQSni to'lashning quyidagi uch muddatlari belgilanishi mumkin:

- yirik korxona va tashkilotlar soliqni uch muddatda (15, 25 va keyingi oyning 5-kunlarida) to'lashi mumkin;
- o'rta korxonalar – har oyda bir marta (keyingi oyning 20-kunidan kechikmagan holda);
- uncha katta bo'lmagan va kichik korxonalar – har chorakda (hisobot choragidan keyingi oyning 20-kunidan kechikmagan holda).

QQSni to'lovchilar hisobot davrida to'langan soliq summa-lari to'g'risida o'zlari joylashgan joydagi soliq organiga belgilangan muddatlarda va tartibda hisob-kitoblarni taqdim etishlari kerak.

Aktsizlar. Umumdavlat soliqlarining turlaridan yana biri aktsizlardir. Ular mahsulotlar va xizmatlarning bahosidan undiriladi. Aktsizlar tegishli mahsulotning bahosi, xizmatning haqi yoki tarifning tarkibiga kiriti-ladi. Odatda, yuqori rentabelli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning yuqori foydasini byudjetga olish uchun sotilayotgan mahsulotlarning sotish bahosiga davlat tomonidan o'rnatiladi. Mamlakat hududida ishlab chiqaril-gan va import qilingan aktsiz to'lanadigan mahsulotlarga aktsiz solig'i solinadi. Bu soliq bo'yicha soliqqa tortish ob'yekti aktsizosti mahsulotlarning (ichimlik spirti, vino-aroq, tamaki, mo'yna, ikra, zargarlik buyumlari, engil avtomobillar, maishiy-kimyo buyumlari, neft va neft mahsulotlari va boshqalar) qiymatidir(qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holda).

Aktsiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqarayotgan yoki bunday mahsulotlarni import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar byudjetga aktsiz solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadi. Aktsiz to'lanadigan mahsulotlar ro'yxati va aktsiz solig'ining stavkalari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Ularning stavkalari, odatda, 5% dan (engil avtomashinalar uchun) 90% gacha (ichimlik spirti) bo’lishi mumkin. Aktsiz solig’ining asosiy qismi neft va gaz hamda spirtli alkogol mahsulotlariga nisbatan o’rnatilgan aktsizlar hisobidan shakllanadi.

Aktsiz solig’i byudjetga oyning aktsiz to’lanadigan mahsulot sotilgan 10 kunligi tugaganidan keyin (agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo’lsa) uch kundan kechiktirmay o’tkazilishi lozim.

Korxona va tashkilotlarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq. Bozor munosabatlari sharoitida daromad (foyda)ning roli keskin oshishi munosabati bilan undan olinadigan soliq nafaqat fiskal funksiyani baja-rishi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ham ta’sir ko’rsatishi kerak. Bu soliq davlat byudjetiningmuhim daromadlaridan biri hisoblanadi. Quyidagilar uni to’lovchilardir:

- yuridik shaxslar (shu jumladan, davlat byudjeti tashkilotlari ham), shuningdek, mamlakat hududida xorijiy kapital ishtirokida tuzilgan yuridik shaxslar ham;
- korxonalarning alohida tugallangan balansi va hisob- varag’i bo’lgan filiallari va shunga o’xshash boshqa bo’lin-malari;
- soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o’tmagan kichik korxonalar.

Bu soliq uchun korxonalarning yalpi daromadi (foydasi) soliqqa tortish ob’yekti bo’lib xizmat qiladi. Uning tarkibi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- mahsulotni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko’rsatishdan olingan daromad (foyda);
- asosiy fondlar va boshqa mol-mulkni sotishdan olingan daromad (foyda);
- realizatsiyadan tashqari operatsiyalardan olingan daro-mad (foyda)lar (bu operatsiyalar bo’yicha xarajatlar chegirilgan).

Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan olingan daromad (foyda) mahsulotni sotishdan olingan tushum bilan (QQS va aktsizlarsiz) mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xara-jatlari o’rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlangan “Xarajatlar tarkibi to’g’risida”gi nizomga muvofiq belgilanadi. Soliqqa tortish maqsadlarida aniqlanadigan asosiy fondlar va boshqa mol-mulkni sotishdan olingan daromad (foyda) shu fondlar va mol-mulklarning

sotish bahosi va ularning boshlang'ich (yoki qoldiq) qiymati o'rtasidagi farq (inflyatsiya indeksiga oshirilgan qayta baholashni hisobga olgan holda) ko'rinishida hisoblanadi. Realizatsiyadan tashqari operatsiyalardan olingan daromad (foyda)larning tarkibiga boshqa korxo-nalarning faoliyatiga hissali ishtirok etishdan, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromad (foyda)lar hamda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olingan boshqa daromad (foyda)lar kiradi.

Korxonalarga tegishli bo'lgan daromad (foyda)ni soliqqa tortishda soliq imtiyozlari muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan soliqni hisob-lashda soliqqa tortiladigan baza quyidagi summalarga kamaytiriladi:

- ishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljallangan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga, xuddi shu maqsadlar uchun olingan va foydalanilgan bank kreditlarini qaytarishga (foizlarini ham qo'shgan holda) yo'naltirilgan daromad (foyda)ning summasiga;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari uchun uy-joy qurilishini moliyalashtirishga yo'naltirilgan daromad (foyda) ning summasiga;
- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tasdiqlangan normativlarga muvofiq ravishda ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlari va uy-joy fondini saqlashga yo'naltirilgan korxonalarning haqiqiy xarajatlari summasiga;
- xayriya fondlariga badallar summasi va boshqalarga.

Korxonalarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliqning stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjetining asosiy parametrlari to'g'risidagi Qarorlariga muvofiq o'rnatiladi. Bu soliq joriy etilgan dastlabki yilda uning stavkasi 38% darajasida belgilangan bo'lsa, uning darajasi 2007 yilda 10% ga teng bo'lgan. 2019 yilda esa uning darajasi 12,0% qilib belgilangandir (tijorat banklari uchun esa 20% darajasida).

Soliqning summasi soliq to'lovchilar tomonidan buxgal-teriya hisoboti ma'lumotlari asosida (yil boshiga nisba-tan o'sib borish tartibida), mustaqil ravishda aniqlanadi. U byudjetga soliq to'lovchi tomonidan choraklik hisob-kitoblar bo'yicha choraklik buxgalteriya hisobotini taqdim etish muddati uchun belgilangan kundan besh kunlik muddatda, yillik hisob-kitoblar bo'yicha esa yillik buxgalteriya hisoboti va balansini taqdim etish muddati uchun belgilangan kundan o'n kunlik muddatda o'tkaziladi. Chorak davomida bu

soliqni to’lovchilar har oyning 15-kunidan kechiktirmasdan choraklik soliq summasining 1/3 qismi miqdorida avans to’lovlarini amalga oshirishlari kerak.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i. Bu soliq jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning asosiysidir. Odatda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i murakkab progressiya printsipi bo’yicha o’rnatilgan progressiv stavkalarda undiriladi. Bu soliq yordamida soliqqa tortishning ikki tizimi mavjud:

1) shedulyar yoki inglizcha tizim. Bunday tizim uzoq davr mobaynida Buyuk Britaniya va dunyoning boshqa mamlakatlarida qo’llanilib kelinayapti. U soliq to’lovchi daromadining jami bo’yicha emas, balki uning qismlari bo’yicha daromad manbaida amalga oshiriladi;

2) global tizim. Bunda daromad solig’i orqali soliqqa tortish soliq to’lovchining jami daromadi bo’yicha amalga oshiriladi va u G’arb mamlakatlarida asosiy usul hisoblanadi.

Ba’zi hollarda daromad solig’i orqali jismoniy shaxslarning daromadlari soliqqa tortilayotganda soliqqa tortilmaslik minimumi qo’llaniladi va uning miqdori qonunchilikka muvofiq ravishda o’rnatiladi.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo’lgan jismoniy shaxslar bu soliqning to’lovchilari hisoblanadi. U quyidagi shakllarda to’lanishi mumkin:

- daromad manbaidan, ya’ni asosiy ish joyidan va boshqa ish beruvchilardan;
- agar daromad bir necha manba hisobidan olinsa va qonuniy tarzda belgilangan daromadning yillik summasidan oshsa, daromadlar to’g’risidagi deklaratsiya ko’rinishida;
- tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadni soliqqa tortish shaklida.

Jami yillik daromad bilan qonunda belgilangan chegirmalar o’rtasidagi farq sifatida hisoblangan soliq solinadigan daromad soliqqa tortish ob’yektidir. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to’lovchi olishi lozim bo’lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoki boshqa mablag’lar, shu jumladan, mehnatga haq to’lash shaklida olinadigan daromadlar, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi va tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadi kiradi.

17.5. Mahalliy soliqlar va yig’imlar

Mahalliy soliqlar va yig’imlar fiskal nuqtai nazardan etarli darajada samarali bo’lmagan va ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo’lgan soliqlar va yig’imlardir. **Mamlakatning soliq qonunchiligiga, davlat hokimiyati organlarining qarorlariga va mahalliy o’z-o’zini boshqarish organla-rining me’yoriy-huquqiy aktlariga muvofiq o’rnatiladigan hamda tegishli mahalliy hududda to’lanishi shart bo’lgan soliq va yig’imlar mahalliy soliqlar va yig’imlar deyiladi.**

Davlat hokimiyati organlari va mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlari vakolatiga, o’zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab mahalliy soliq va yig’imlar ikkiga bo’linadi:

1) hokimiyatning qonunchilik organi tomonidan joriy etiladigan va mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan mahalliy soliqlar va yig’imlar;

2) mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlarining qaroriga muvofiq joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig’imlar.

Birinchi guruhga kiruvchi mahalliy soliqlar va yig’imlarning tarkibi quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq;
- yer solig’i;
- savdo qilish huquqi uchun yig’im;
- va boshqalar.

Mahalliy soliqlar va yig’imlar bo’yicha ushbu konkret stavkalar davlat hokimiyat organlarining qaroriga muvofiq belgilanadi. Ularni undirish va to’lash tartibi tegishli organ (masalan, Davlat soliq qo’mitasi) tomonidan ishlab chiqilgan yo’riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘z navbatida, ikkinchi guruhga kiruvchi mahalliy soliqlar va yig’imlarning tarkibi quyidagilardan iborat bo’lishi mumkin:

- avtomobillarni olib-sotganlik uchun soliq;
- avtotransportlar to’xtash joyidan foydalanganlik uchun yig’im;
- fuqarolarning boshqa maqsadli yig’imlari;
- va boshqalar.

Ikkinchi guruhga kiruvchi mahalliy soliqlar va yig’im-larga nisbatan yagona yo’riqnomaning bo’lishi mumkin emas-ligi sababli tegishli vakolatli organlar (Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va boshqalar) alohida olingan mahalliy soliqlar va yig’imlar bo’yicha namunaviy nizom (yo’riqnoma) ishlab chiqishlari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tegishli qarorlar qabul qilishda undan foydalanish tavsiya etilmog’i maqsadga muvofiq.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlat byudjeti daromadlari deb nimaga aytiladi?
- Nima uchun davlat byudjeti daromadlari oraliq xarakteriga ega?
- Davlat byudjeti daromadlari nima uchun zarur?
- Davlat byudjeti daromadlari qanday jarayonda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o’zida ifoda etadi?
- Davlat byudjeti daromadlari qanday organlarning ixtiyoriga kelib tushadi?
- Mamlakatlarning davlat tuzilishiga bog’liq ravishda davlat byudjeti daromadlari bir-biridan qanday farq qiladi?
- Miqdoriy jihatdan qaysi tushuncha katta: davlat daromadlarimi yoki davlat byudjeti daromadlari? Nima uchun?
- Davlat byudjeti daromadlarining moddiy-buyumlash-gan shaklini nimalar tashkil etadi?
- Davlat byudjeti daromadlarining asosiy moddiy man-baini nima tashkil etadi?
- Davlatning ehtiyojlarini qondirishga milliy boylik ham jalb etilishi mumkinmi? Qanday hollarda?
- Milliy daromadning muayyan qismini davlat ixtiyoriga o’tkazish qanday usullar yordamida amalga oshiriladi?
- Davlat kreditiga qanday holatlar inobatga olingan holda murojaat qilinadi?
- Davlat kreditini olishning qanday ikki yo’li mavjud?
- Qanday vaziyatlarda davlat qog’oz pullar emissiyasiga murojaat qiladi?
- Davlat byudjeti daromadlari kategoriyasining namoyon bo’lish shakllari nimalardan iborat?
- Miqdoriy jihatdan davlat byudjetiningdaromadlari o’zida nimani ifodalaydi?
- Davlat byudjeti daromadlarining absolyut hajmi va salmog’i qanday omillarga bog’liq?
- Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jara-yonining asosiy printsiplarini bilasizmi?
- Davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida byudjetga undirilishi tufayli bu jara-yonda ularga nisbatan qanday printsiplardan foydalani-ladi?

- Davlat byudjeti daromadlari qanday mezonlar asosida tasniflanishi (klassifikatsiya qilinishi) mumkin?
- Davlat byudjeti daromadlari o’zlarining manbalariga ko’ra qanday guruhlarga bo’linadi?
- Davlat byudjetiningsoliq daromadlari tarkibini aytib bering.
- Davlat byudjetiningsoliq xarakteriga ega bo’lmagan daromad-lari tarkibiga nimalar kiradi?
- Tushumlarning qanday turlari (ko’rinishlari) davlat byudjeti daromadlarining tarkibiga olinishi mumkin?
- Amaliyotda davlat byudjetining daromadlari qanday tartibda tasniflanayapti (klassifikatsiya qilinayapti)?
- To’g’ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning tarkibini aytib bering.
- O‘zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko’ra davlat byudjeti daromadlari qanday guruhlarga bo’linishi mumkin?
- Mulkchilik shakliga ko’ra davlat byudjeti daromadlari qanday ko’rinishlarga ega bo’lishi mumkin?
- Yuridik nuqtai nazardan, davlat byudjeti daromadlari qanday guruhlardan tashkil topadi?
- Davlat byudjeti daromadlariga qanday daromadlar kiritiladi?
- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti qanday daromadlarni o’z tarkibiga oladi?
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari qanday daromadlar hisobidan shakllantirilishi mumkin?
- Byudjetlarning barcha daromadlari u yoki bu byudjet-larga biriktirilishiga qarab, qanday guruhlarga bo’linishi mumkin?
- Davlat byudjeti daromadlari qay tarzda (shaklda) jalb qilinishi mumkin?
- Qanday metodlarni qo’llash evaziga sub’yektlarning daromadlari davlat byudjeti ixtiyoriga olinayapti?
- Hozir davlat byudjeti daromadlarining tarkibi nimalardan iborat va uning tuzilmasi qanday?
- Milliy iqtisodiyotda qo’llanilayotgan davlat byudjeti daromadlari tizimining samaradorligi bevosita qanday omillarga bog’liq va u o’z ichiga nimalarni oladi?
- “Davlat byudjeti daromadlari” va “Davlat daromad-lari” tushunchalari o’rtasiga tenglik belgisini qo’yish mumkinmi?
- Soliqning ta’rifi qanday?
- Soliqlarning ijtimoiy mazmunini bilasizmi?

- Soliqlarning moddiy asosini nimalar tashkil etadi?
- Soliqlar qanday xarakterli belgilarga ega?
- Soliqlar qanday funksiyalarni bajaradi?
- Soliqlarning fiskal funksiyasining mazmunini ni-mada?
- Soliqlarning tartibga solish (rag'batlantirish) funk-tsiyasiga xarakteristika bering.
- Soliqlarning asosiy elementlari tarkibini aytib bering.
- Soliq sub'yekti nima?
- Soliq ob'yektini tushuntirib bering.
- Soliq manbai tarkibini aytib bering.
- Soliqqa tortish birligi qanday ataladi?
- Soliq stavkasi nima va uning qanday ko'rinishlari bo'lishi mumkin?
- Soliq imtiyozlari deyilganda nimalar tushuniladi?
- Soliqqa tortiladigan baza (asos, negiz) nima?
- Soliq okladi deyilganda nima nazarda tutiladi?
- Soliq tizimi tushunchasini tushuntirib bering.
- Soliq mexanizmining ta'rifini aytib bering.
- Unitar davlatlarda soliq tizimi o'z ichiga qanday soliqlarni oladi?
- Federativ davlatlarda soliq tizimi necha bo'g'indan tarkib topadi?
- Byudjetga tushumlarning katta qismini ta'minlaydigan qanday asosiy soliqlar davlat byudjetiga biriktiriladi?
- Zamonaviy soliq tizimining vazifalarini aytib bering.
- O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi qanday belgilar bilan xarakterlanadi?
- Soliqqa tortish jarayonlari bilan tartibga solina-digan soliq tizimining asosiy printsiplarini aytib bering.
- Sizningcha, hozirgi sharoitda soliq tizimida qanday nuqsonlar bor?
- Yangi sharoitda soliq islohotlarini amalga oshirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushun-tirib bering.
- Mamlakatning soliq tizimi qanday belgilar va omil-larga muvofiq tasniflanadi (klassifikatsiya qilinadi)?
- Soliqqa tortishning ob'yekti hamda soliq to'lovchi va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq ravishda soliqlar qanday guruhlarga bo'linadi?

- Nega soliqlarning bir guruhi to’g’ri (bevosita) va ik-kinchi guruhi esa egri (bilvosita) soliqlar deb yuritiladi?
- Qanday soliqlar to’g’ri (bevosita) soliqlarning tarkibiga kiradi?
- Egri (bilvosita) soliqlarning tarkibi nimalardan iborat?
- Foydalanilishi bo’yicha soliqlar qanday soliqlardan iborat bo’lishi mumkin?
- Yig’ilishi va tegishliligi qaysi organga bog’liqligiga qarab, soliqlar qanday soliqlarga bo’linadi?
- Umumdavlat soliqlari nima va ularning tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
- Qo’shilgan qiymat solig’i deganda nima tushuniladi?
- Boshqa soliqlarga nisbatan qo’shilgan qiymat solig’i qanday afzalliklarga ega?
- Kimlar qo’shilgan qiymat solig’ini to’lovchilar hisob-lanadi?
- Qo’shilgan qiymat solig’i orqali soliqqa tortishda qanday soliq imtiyozlari ko’zda tutiladi?
- Odatda, qo’shilgan qiymat solig’ini to’lashning qanday muddatlari belgilanishi mumkin?
- Aktsiz solig’i nima va qanday mahsulotlarga aktsiz solig’i solinadi?
- Korxona va tashkilotlarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliqning ahamiyati nimadan iborat va kimlar uning to’lovchilari hisoblanadi?
- Korxona va tashkilotlarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq uchun soliqqa tortish ob’yekti bo’lib nima xizmat qiladi va uning tarkibi qanday elementlardan tashkil topgan?
- Korxonalarga tegishli bo’lgan daromad (foyda)ni soliqqa tortishda qanday soliq imtiyozlari beriladi va soliqni hisoblashda soliqqa tortiladigan baza qanday summalarga kamaytiriladi?
- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i qanday o’rnatilgan progressiv stavkalarda undiriladi va bu soliq yordamida soliqqa tortishning qanday ikki tizimi mavjud?
- Kimlar bu soliqning to’lovchilari hisoblanadi va u qanday shakllarda to’lanishi mumkin?
- Mahalliy soliqlar va yig’imlar nima va ularning tarkibi qanday?
- Davlat hokimiyati organlari va mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari vakolatiga, o’zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab mahalliy soliq va yig’imlar qanday guruhlarga bo’linadi va ular har birining tarkibi qanday?

18-bob. Davlat byudjeti xarajatlari

18.1. Davlat byudjeti xarajatlari: mazmun-mohiyati, tarkibi, tuzilmasi va tasniflanishi

Davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun sarflanadigan mablag'lar davlat byudjeti xarajat-lari deyiladi. Bu xarajatlar davlatning markazlashti-rilgan pul fondlari mablag'laridan turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Davlat byudjeti xarajatlari umumiy moliyaviy kate-goriya bo'lgan davlat byudjetining ko'rinishlaridan (tarkibiy qismlaridan) biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir, ya'ni ular taqsimlash xarakteriga ega, ifodalanishning pul shakli xos, pul fondlarining amal qilishi bilan bog'langan va davlat tomonidan tashkil qilinadi. Shu bilan birgalikda davlat byudjeti xarajat-lari bir butunning o'ziga xos qismi bo'lganligi uchun ular davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'la-ridan foydalanish va tegishli fondlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu taqsimlash munosabatlarining moddiy-buyumlashgan shakli turli sohalarga yo'naltirilayotgan davlat byudjeti mablag'larining harakatidan iborat.

Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy mazmun- mohiyati uning turli-tuman ko'rinishlari (turlari) orqali namoyon bo'ladi. Xarajatlarning har bir turi o'zining miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega. Ularning sifat xarakteristikasi voqelikning iqtisodiy tabiatini ifodalab, davlat byudjeti xarajatlarining mo'ljallan-ganligini, miqdoriy xarakteristika esa ularning miqdorini aniqlashga imkon beradi.

Davlat byudjeti xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisodiy tabiati va funksiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; davlat byudjetiningmilliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqti-sodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; davlat byudjeti mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h.k. Bu omillarning qo'shilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida har qanday davlat davlat byudjeti xarajatlarining u yoki bu tizimini vujudga keltiradi.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida davlat byudjeti xara-jatlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra tasniflash (klassifikatsiya qilish) maqsadga muvofiq. Nazariya va amaliyotda davlat byudjeti xarajatlarini tasniflashning bir necha belgilari mavjud. Ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni, funktsionalligi,

ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari yoki idoraviy bo'linishi, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha, hududiy turkumlanishi, ma'lum maqsadlari va yuridik nuqtai nazardan yoki davlat boshqaruvi darajasiga ko'ra alohida guruhlarga ajratilishi mumkin.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat byudjeti xarajatlari kapital va joriy xarajatlarga bo'linadi. Bu xarajatlar kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga ularning qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ifodalaydi.

Davlat byudjetiningkapital xarajatlari innovatsion va inve-stitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajat-larning tarkibiga:

a) tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq hara-katdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar;

b) yuridik shaxslarga investitsion maqsadlar uchun davlat byudjeti kreditlari sifatida beriladigan mablag'lar;

v) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar;

g) amalga oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo'lgan mulk miqdorini ko'paytirish yoki uni yangidan yaratishga olib keladigan xarajatlar;

d) davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnif-lanishiga muvofiq davlat byudjetiningkapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar kiradi.

Davlat byudjetining kapital xarajatlari tarkibida Taraqqiyot byudjeti shakllantirilishi mumkin.

Davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, davlat byudjeti tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan davlat byud-jeti xarajatlari, boshqa byudjetlar va iqtisodiyot alohida tarmoqlariga dotatsiya, subsidiya va subventsiya shaklida ko'rsatiladigan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va davlat byudjeti xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq, kapital xarajatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar davlat byudjetining joriy xarajatlari deyiladi.

Aniqroq ravishda davlat byudjetining joriy xarajat-lari tarkibi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- davlat iste'moli xarajatlari (iqtisodiy va ijti-moiy infratuzilmani, milliy xo'jalikning davlat tarmoq-larini saqlash, fuqarolik va harbiy

xarakterdagi tovarlar va xizmatlarni sotib olish, davlat muassasalarining joriy xarajatlari);

- hokimiyatning quyi organlari, davlat korxonalari va xususiy korxonalarga joriy subsidiyalar;
- transfert to'lovlari;
- davlat qarzlari bo'yicha foizlarni to'lash;
- boshqa xarajatlar.

Bu xarajatlar oddiy byudjetda yoki joriy xarajatlar va daromadlar byudjetida aks etgan xarajatlarga mos keladi.

Takror ishlab chiqarishdagi roliga ko'ra davlat byudjeti xarajatlari milliy iqtisodiyotga (xo'jalikka) qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlariga bo'linadi. Bu xarajat-larga, eng avvalo, davlat korxonalari va davlat ulushi bor bo'lgan korxonalarning ustav kapitalini shakllantirish, ularni yanada kengaytirish va rivojlantirish, davlat moddiy zaxiralarini yaratish xarajatlari kiradi. Davlat byudjetining ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ham ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan xarajatlardir. Bu xarajatlar iste'mol fondlarini shakllantirish bilan bog'liq. Ularning bir qismi jamiyat a'zolarining individual ehtiyojlarini, boshqa bir qismi esa butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga mo'ljal-langan. Bu yerda davlat byudjeti xarajatlari ijtimoiy iste'mol fondlarini (mamlakatning mudofaa fondi, ilmiy tadqiqotlar fondi va boshqalar) shakllantirishni to'liq, shaxsiy iste'mol fondlarini esa qisman (markazlashti-rilmagan moliyaviy resurslar bilan birgalikda) ta'min-laydi. Shu bilan birgalikda, davlat byudjeti mablag'la-rining katta qismi shaxsiy iste'mol fondlarining ijti-moiy iste'mol fondlariga (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmat-lar bahosi o'rtasidagi farqlarni qoplash, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar fondlari va boshqalar) tegishli bo'lgan qismini shakllantirishda keng foydala-niladi.

Funktsional nuqtai nazardan davlat byudjeti xarajat-larining tasniflanishi pul mablag'larini ijtimoiy fao-liyat sohalariga yo'naltirilganligini aks ettiradi. Bunda davlat byudjeti xarajatlari quyidagi yirik guruhlarga bo'linishi mumkin:

- davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish;
- sud hokimiyati;
- xalqaro faoliyat;
- milliy mudofaa;
- huquqni muhofaza qilish va davlat xavfsizligini ta'minlash;

- fundamental tadqiqotlar va ilmiy-texnika taraq-qiyotini ta’minlash;
- sanoat, energetika va qurilish;
- qishloq xo’jaligi va baliqchilik;
- atrof-muhitni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, gidrometeorologiya, xaritashunoslik va geodeziya;
- transport, yo’l xo’jaligi, aloqa va informatika;
- uy-joy va kommunal xo’jaligi;
- maorif;
- sog’liqni saqlash va jismoniy tarbiya;
- madaniyat, san’at va kinematografiya;
- ommaviy axborot vositalari;
- davlat qarziga xizmat qilish;
- boshqa darajadagi byudjetlarga moliyaviy yordam;
- maqsadli davlat byudjeti fondlari;
- davlat zaxiralari va rezervlarini to’ldirish;
- ijtimoiy siyosat;
- boshqa xarajatlar.

Davlat byudjeti xarajatlarining yuqoridagi tartibda klassifikatsiya qilinishi davlatning ijtimoiy hayotning turli jabhalaridagi rolini ko’rsatadi.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarmoq belgisi bo’yicha guruhlarga ajratishga asos qilib milliy iqtisodiyot (xo’jalik)ning umume’tirof etilgan tarmoqlarga bo’linishi qabul qilingan. Shunga muvofiq, davlat byudjeti xarajat-lari sanoat, qishloq xo’jaligi, qurilish, transport, aloqa, maorif, sog’liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug’urta va ijtimoiy ta’minot, davlat boshqaruvi, mudofaa va h.k. xarajatlariga bo’linishi mumkin. Davlat byudjeti xarajatlari iqtisodiyot tarmoqlarining pul fondlarini shakllantirishda mustahkam moliyaviy asos yaratish bilan birgalikda xarajatlarning tarmoqlararo bo’linishi moliya-viy resurslarni taqsimlashdagi nisbatlarni aniqlashga ham imkon beradi, milliy xo’jalikning tarmoq tarkibiy tuzilishini kerakli yo’nalishda o’zgartiradi. Masalan, hozirgi paytda mamlakatimizda yaratilgan milliy daro-madning hajmi davlat byudjeti mablag’larining katta qismini ijtimoiy soha va aholini bevosita ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga yo’naltirish imkonini berayapti. Bir vaqtning o’zida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarining (mashinasozlik, qishloq xo’jaligi, elektroenergetika va boshqalar) katta ko’lamlarda byudjetdan moliyalashtirilishi ham ta’min-lanayapti.

Idoraviy belgiga ko’ra davlat byudjeti xarajatlarining tasniflanishi davlat byudjeti mablag’larini oluvchi vazirlik, boshqa davlat muassasasi yoki yuridik shaxsning ajratib olinishiga imkon beradi. Davlat byudjeti xarajatlarining ana shunday klassifikatsiya qilinishi natijasida boshqaruv tizimining o’zgarishi bilan bog’liq bo’lgan xarajatlar tuzilmasidagi o’zgarishlar o’z vaqtida ko’rsatiladi.

Ijtimoiy mo’ljallanganligi bo’yicha davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy guruhlarga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarni o’zida aks ettiradi. Ana shunga muvofiq ravishda davlat byudjetiningbarcha xarajatlarini quyidagi gu-ruhlarga bo’lish mumkin:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari;
- milliy xo’jalikka (iqtisodiyotga) xarajatlar;
- mudofaa xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa mamlakatlarga subsidiyalar va kreditlar taq-dim etish xarajatlari;

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari o’z tarkibiga maorif, sog’liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta’minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini o’zida aks ettirib, bu guruhdagi davlat byudjetining xarajatlari xalq ta’limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo’lgan ehtiyojini qondirishga, ijtimoiy sug’urta va ijtimoiy ta’minotni amalga oshirishga keng yo’l ochib beradi.

Mamlakatimizda davlat tomonidan kafolatlangan ta’lim va sog’liqni saqlash xizmatlarining tekin (bepul) ekanligi hamon ustuvorligicha qolayapti. Umumiy ta’limni tekin va kasbiy ta’limni tanlov asosida olish kafolatlangan. Aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga katta e’tibor berilmoqda. Ish haqining eng kam darajasini oshirish, ishsizlik bo’yicha berilishi lozim bo’lgan nafaqalarning miqdorini ko’pay-tirish, maktab yoshigacha bo’lgan bolalar, maktab o’quvchilari, studentlarning ovqatlanish xarajatlarini kompensatsiya qilish, davlat byudjeti tashkilotlari xodimlarining ish haqini tartibga solish bo’yicha choralar ko’rilmoqda.

Iqtisodiyotga byudjetdan xarajatlarning qilinishi davlatning hamon xo’jalik yurituvchi asosiy sub’yektlardan biri ekanligidan

darak beradi. Aynan bu xarajatlar katta ko'lamlarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industrial asosda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini texnikaviy qayta qurollanishini ta'minlashga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda davlat byudjetiningbu xarajatlari orasida iqtisodiyotga xara-jatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalash-tirish xarajatlari alohida o'rin egallaydi.

Hozirgi sharoitda takror ishlab chiqarish jarayonlariga va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga davlat byudjetiningma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan ta'sirchan-ligi kuchaymoqda. Davlat byudjeti xarajatlari iqtisodiyot rivojiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi (masalan, Ger-maniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan va boshqa mamla-katlarda) "iqtisodiy mo''jiza" aynan davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi natijasida sodir bo'ldi.

Davlat byudjetiningiqtisodiyotga yo'naltirilgan xara-jatlari tarkibi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilma, qishloq xo'jaligini va iqtisodiyotning davlat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, milliy xo'jalikning ayrim tarmoqlari va mamlakat mintaqalarida bandlikni ta'minlash, eksportni rag'batlantirish xarajatlaridan iborat.

Keyingi yillarda davlat kapital qo'yilmalarining hajmi keskin oshmoqda. Xususiy firmalarga, ayniqsa, taraqqiyot mintaqalariga berilayotgan subsidiyalar miqdori ko'paymoqda. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida uning ayrim tarmoqlarida davlat kafolati ostida davlat subsidiyalari yoki imtiyozli bank kreditlari ko'rinishida tanlanma yordam ko'rsatilayapti.

Iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'iga byudjetdan katta miqdordagi mablag'lar taqdim etilayapti. Bu tarmoq ustuvor ravishda qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan soha hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga beriladigan subsidiyalar ikki ko'rinishda taqdim etilmoqda:

1) qishloq xo'jaligi mahsulotlariga kafolatlangan baholarni qo'llab-quvvatlash;

2) ishlab chiqarish maqsadlari – qishloq xo'jaligi mashinalari, mineral o'g'itlar sotib olish va omborxonalar qurish uchun.

Milliy mahsulotlarni eksport qiluvchi firmalar faoliyatiga byudjetdan yordam ko'rsatilishi jahon bozor-laridagi shiddatli raqobat sharoitida ularning ahvolini ancha engillashtiradi.

Davlatning davlat byudjeti xarajatlari orqali iqtisodiyotga aralashuvi iqtisodiy o'sishning nisbatan yuqori sur'atlarda bo'lishini

rag’batlantiribgina qolmasdan, balki uning davriy tebranishini ham yumshatadi (sekin-lashtiradi).

Davlat byudjetiningmudofaa xarajatlari ham davlat-ning funksiyalaridan kelib chiqadi. Ular har bir davlatning o’z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashi bilan bog’liqdir. Davlat byudjeti mablag’lari hisobidan Qurolli Kuchlarning barcha turlari moliyalashtiriladi.

Harbiy (mudofaa) xarajatlar(i) to’g’ri (bevosita) va egri (bilvosita) xarajatlarga bo’linadi. To’g’ri (bevosita) harbiy xarajatlar strategik qurollarni ishlab chiqarish yoki sotib olish, Qurolli Kuchlarning shaxsiy tarkibini tayyorlash va saqlash, harbiy xarakterdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish xarajatlaridan iborat bo’lishi mumkin. Bu turdagi mudofaa xaraatlari urush harakatlari sodir etilayotgan paytda va mamlakat iqtisodiyotining militarizatsiyalashuvi sharoitida keskin oshadi.

Egri (bilvosita) harbiy xarajatlariga urush nogiron-lari va vafot etganlar oilalariga beriladigan pensiya va nafaqalar, fuqarolik idoralarining moddalari bo’yicha o’tadigan xarajatlarning (masalan, yo’l va strategik ob’ektlarni qurish xarajatlari) bir qismi kiradi.

Davlat tomonidan boshqaruv shaklidagi faoliyat turining amalga oshirilishi, uning xo’jalik-tashkilotchilik funksiyasi byudjetdan boshqaruv xarajatlari deb nomlangan alohida xarajatlar qilinishini taqozo etadi. Boshqaruv (davlat hokimiyati organlari, sud va prokuratura organlari, fuqa-rolarning o’zini-o’zi boshqaruv organlari) xarajatlari davlat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, jamiyat hayotining barcha sohalariga rahbarlik qilishga imkon yaratadi.

Boshqa mamlakatlarga subsidiyalar va kreditlar berish rivojlangan mamlakatlarning byudjetlari hisobidan amalga oshiriladi. Bunday yordam faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki siyosiy jihatlari bilan xarakterlanadi. Imtiyozli shartlarda kreditlashtirish va qaytarilmaydigan tarzda yordam ko’rsatish uning ko’rinishlaridandir.

Davlat byudjetining barcha xarajatlari yuqoridagi beshta guruhdan qaysi biriga kirishidan qat’iy nazar, ular o’zlarining ma’lum aniq maqsadlarga mo’ljallanganligi bo’yicha ham bir necha qismlarga bo’linadi. Bu qismlar davlat byudjeti xarajatlarining aniq turlaridan tarkib topadi. Kapital qo’yilmalar, dotatsiyalar, subventsiyalar, sub-sidiyalar, davlat byudjeti ssudalari, ish haqi, ovqatlanish xarajatlari, kapital va joriy remont, kantselyariya va xo’jalik xarajatlarini davlat byudjeti xarajatlarining konkret turlari sifatida ko’rsatish mumkin. Davlat byudjeti xarajatlarining ma’lum aniq maqsadlarga mo’ljallanganligi bo’yicha turkumlanishi davlat byudjeti

mablag'laridan oqilona foydalanishga sharoit yaratadi, ulardan foydalanish ustidan samarali va ta'sirchan moliyaviy nazoratni amalga oshirishning zaruriy asosi hisoblanadi.

Davlat byudjeti xarajatlarini iqtisodiy nuqtai nazardan turkumlarga ajratilishi bilan bir qatorda tashkiliy jihatdan ham guruhlarga ajratish mumkin. Buning asosida davlat byudjeti xarajatlarini yuqori tashkilotlar (vazirliklar, uyushmalar, assotsiatsiyalar, birlashmalar, kontsernlar, kompaniyalar va h.k.) va hududiy belgilari yotishi mumkin. Davlat byudjeti xarajatlarining yuqori tashkilotlar bo'yicha guruhlanishi davlat byudjeti mablag'larini aniq oluvchilarni ko'rsatadi va ular tarmoq ichida pul fondlarini shakllantirishda mas'ul bo'lib, ajratilgan davlat byudjeti mablag'laridan o'z vaqtida, samarali va qonuniy foydalanish ustidan javobgardirlar.

Davlat byudjeti xarajatlarining hududiy belgiga muvofiq bo'linishi ularning markazlashuvini turli darajalarini o'zida aks ettiradi. Shu munosabat bilan, davlat boshqaruvi darajasi va yuridik nuqtai nazardan, davlat byudjeti xarajatlari uch guruhga kiruvchi xarajatlardan tarkib topadi:

- Davlat byudjeti xarajatlari;
- Respublika byudjeti xarajatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning xarajatlari.

Shu munosabat bilan, davlat boshqaruvi darajasi va yuridik nuqtai nazardan, davlat byudjeti xarajatlari ikki guruhga kiruvchi xarajatlardan tarkib topadi:

- Respublika byudjetining xarajatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudje-tidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi[76]:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari, bolalar uylari, ta'lim muassasalarini axborot-uslubiy jihatdan ta'minlash muassasalari, vazirliklar va idoralar tasarrufidagi ta'lim muassasalari, boshqa yordamchi muassasalarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston

[76] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 70 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta’lim tizimi tadbirlarining xarajatlari;

- respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, OITSga qarshi kurashish respublika markazi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati, karantin va o’ta xavfli infektsiyalar profilaktikasi, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o’quv yurtlarining klinikalari, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi respublika muassasalari, respu-blika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari hamda yordamchi tashki-lotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliya-lashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlar haqini to’lash xarajatlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq ayrim toifadagi fuqa-rolarga tibbiy xizmatlar ko’rsatilganligi uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlari xarajatlarining o’rnini qoplash (subsidiyalar);
- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqaro-larning sog’lig’ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;
- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, tele- va radiodasturlar yaratish hamda ularni tarqatishga doir xizmatlar ta’minoti va ularga haq to’lash, hukumatning alohida qarorlariga ko’ra ommaviy axborot vositalarini saqlab turish, kino- va videomahsulotlar yaratish, madaniy meros ob’ektlarida restavratsiya ishlarini bajarish, tasdiqlangan kalendar rejalarga muvofiq madaniyat va sportni rivojlantirish bo’yicha qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlar bo’yicha amalga oshiriladigan ilmiy-texnik loyihalar, noyob ilmiy ob’ektlarni va fanga xizmat ko’rsatuvchi muassasalarni saqlab turish, ilmiy loyihalar ekspertizasini o’tkazish hamda qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan fanga doir alohida tadbirlar xarajatlari;
- davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari;
- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan

moliyalashtirilishi nazarda tutilgan, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- davlat mukofotlari, davlat pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash xara-jatlari;
- bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda berila-digan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;
- Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari jamoat ishlarini moliyalashtirish;

2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomo-nidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

3) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi respublika nazorat organlarining xarajatlari, suv, qishloq, o'rmon xo'jaligi xarajatlari, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish muassasalarining xizmatlariga haq to'lash va ularni saqlab turish xarajatlari;
- hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'lanadigan yagona yer solig'i bo'yicha tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va O'zbekiston Respu-blikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining har yili tasdiqlanadigan asosiy parametrlari doirasida byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag'lar;
- qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan standartlashtirish va sertifikatlashtirish, topografiya-geodeziya, kartografiya va kadastr, shuningdek geologiya qidiruv ishlari, davlat shaharsozlik kadastrini yuritish xarajat-lari, chegaradosh davlatlarga haq evaziga yerdan foydalanish to'lovi, gidrometeorologiya xizmati muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- atrof muhit va landshaftning muhofaza qilinishini, biologik xilma-xillikning himoya qilinishini ta’minlash bilan bog’liq xarajatlar;
- «Sof ichimlik suvi» jamg’armasi orqali ichimlik suvi bilan ta’minlash tizimini rivojlantirish bilan bog’liq xarajatlar.

4) respublika vazirliklari, davlat qo’mitalari va idoralari buyurtmachi bo’lgan markazlashtirilgan investitsiya-larni moliyalashtirish xarajatlari;

5) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari, shu jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komis-siyasini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo’yicha vakili (ombudsman) kotibiyatini;
- qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasining res-publika byudjeti mablag’laridan saqlab turilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi muassasa-larini saqlab turish xarajatlari;
- adliya va prokuratura organlarini.

6) sudlarni saqlab turish xarajatlari;

7) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg’armasini shakllantirish xarajatlari;

8) boshqa xarajatlar:

- siyosiy partiyalarga ularning ustavida belgilangan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag’lar;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo’shilgan qiymat solig’ining o’rnini qoplash;
- O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo’lgan xalqaro tashkilotlarga a’zolik badallarini to’lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish xarajatlari;
- davlat qarzi bo’yicha xizmat ko’rsatish va O‘zbekiston Respublikasining kafolatlangan majburiyatlarini bajarish bilan bog’liq xarajatlar;
- davlat buyurtmasi bo’yicha statistika ishlariga haq to’lash;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiya-sining saylovlar va referendumlarga tayyorgarlik ko’rish hamda ularni

o’tkazish bo’yicha xarajatlari, shu jumladan okrug va uchastka saylov komissiyalarini, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish;

- xo’jalik jamiyatlaridagi davlat ulushini boshqarish bo’yicha davlat ishonchli vakillarining xizmatlariga haq to’lash;
- davlat zaxiralari va strategik zaxiralarni vujudga keltirish, saqlab va yangilab turish bilan bog’liq xarajatlar;
- mudofaaga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashga, bojxona organlariga ajratiladigan mablag’lar, shu jumladan harbiy xizmatni, ichki ishlar organlarida, bojxona organlarida xizmatni o’tagan shaxslar hamda ularning oilalariga pensiyalar va nafaqalar uchun xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq faoliyati O‘zbekiston Respublikasining respublika byudje-tidan moliyalashtiriladigan muassasalar, tashkilotlar va idoralarga ajratiladigan mablag’lar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa xarajatlar.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan:

- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga subventsiyalar, o’tkazib beriladigan daromadlar dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar;
- davlat maqsadli jamg’armalariga davlat byudjeti ssudalari va dotatsiyalar;
- yuridik shaxslarga davlat byudjeti ssudalari va kredit liniyalari hamda chet davlatlarga kreditlar belgilangan tartibda ajratilishi mumkin.

Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi[77]:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- umumiy o’rta ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta’lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;
- bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog’iston Respubli-kasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta’lim tizimi-dagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi fili-alini, ko’p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini,

[77] “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi” 71 modda: T.: “Adolat”, 2014 y. - 9-b.

ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmua-larini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti fili-alini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasa-lari va yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuning-dek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublika-sining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqaro-larning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;
- hududiy madaniyat, jismoniy tarbiya va sportni bosh-qarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismo-niy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufi-dagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarru-fidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni rea-bilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasa-larni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijti-moiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lov-chilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zarar-larning o'rnini qoplash xarajatlari;
- kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam.

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- qishloq xo'jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, shuningdek erlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;

- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;
- suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;
- aholi punktlarini obodonlashtirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'rmon xo'jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalash-tirish xarajatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organ-larini, shu jumladan:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudje-tining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun er uchast-kalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararning o'rnini qoplash xarajatlari;

7) harbiy-ma'muriy sektorga yuklatilgan tadbirlarni va vazifalarni amalga oshirish va hal qilish xarajatlari.

8) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudje-tining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiri-ladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudje-tidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga davlat byudjeti ssudalari, dotatsiyalar, subventsiyalar o'tkazib beriladigan daromadlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar ajratilishi mumkin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi[78]:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

[78] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 72 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

- tumanlar (shaharlar) xalq ta’limi bo’limlari va maktabgacha ta’lim bo’limlarini, shuningdek ular tasar-rufidagi maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjet-laridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta’lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;
- tuman tibbiyot birlashmalari, tuman markaziy poliklinikalari va koykasiz dispanserlar, tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlarini saqlab turish xarajatlari;
- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog’lig’ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;
- tumanlar (shaharlar) madaniyat bo’limlari tasarru-fidagi madaniyat muassasalarini, tumanlar (shaharlar) jismoniy tarbiya va sport bo’limlari tasarrufidagi jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyatni, jismoniy tarbiya va sportni, bolalar musiqa va san’at maktablarini rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- uyda ijtimoiy yordam ko’rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob’ektlarida harbiy xizmatni o’tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo’lim-lari, laboratoriyalarni saqlab turish;
- shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko’chalarni, shuningdek xo’jaliklararo qishloq avtomobil yo’llarini ta’mirlash;
- uy-joy-kommunal xo’jaligi ob’ektlarida ta’mirlash ishlarini olib borish;
- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo’limlarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg’armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjat-larida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashti-rilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlar-ning xarajatlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, davlat byudjeti xarajatlarining hajmi davlat byudjeti daromadlarining miqdori bilan cheklanadi. O'z navbatida, davlat byudjeti daromadlarining hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari darajasi bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham bu yerda davlat byudjeti xarajatlarining shunday hajmini va milliy xo'jalikda pul fondlarini shakllantirishda davlat byudjeti mablag'la-ridan foydalanishning shunday muddatlarini o'rnatish kerakki, ular minimal xarajatlar qilib, maksimal samaraga erishish orqali davlat oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlasin. Boshqa tomondan esa, ishlab chiqarishning o'si-shiga ijobiy ta'sir qilish, ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va milliy xo'jalikdagi nisbatlarni optimallashtirish orqali davlat byudjetiningxarajatlari uning daromadlari darajasining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat byudjeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai nazaridan baholashni juda dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daro-madlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Bu yerda, bir vaqtning o'zi-da, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muammolarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Albatta, milliy xo'ja-likning yakuniy natijasi davlat byudjeti xarajatlarining umumiy hajmiga, ularning tarkibiy tuzilishiga, davlat byudjeti mablag'laridan to'g'ri, iqtisod qilib va samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda davlat byudjeti xarajatlarining ilmiy asoslangan holda rejalashtirilishiga, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratning butun tizimiga alohida e'tibor berish lozim.

Milliy xo'jalikni moliyaviy tartibga solishning muhim vositalaridan biri ham davlat byudjetining xarajat-laridir. Bu yerda, odatda, moliyaviy tartibga solish deyilganda, milliy xo'jalikdagi oqilona proportsiyalarni ta'minlash maqsadida davlat byudjeti mablag'larini tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlash va qayta taqsimlashning shakllari va usullari majmui tushuniladi. Milliy xo'jalikni moliyaviy tartibga solishning ob'yektiv zarurligi katta o'zgaruvchanlik bilan xarakterlanadigan uning murakkab organizmi bo'lgan turli qismlarida

moliyaviy resurslarni jamg'arish sur'atlari-ning turli-chaligi bilan izohlanadi. Davlat byudjeti resurslarini sarf qilish orqali davlat pul mablag'larini taqsimlashda vujudga kelgan proportsiyalarni o'zgartirishi va buning oqibatida ba'zi bir tarmoqlarning (hududlarning) rivoj-lanishini tezlashtirishi va boshqalarining rivojla-nishini rag'batlantirmasdan, milliy xo'jalikning rivojlanishini tartibga solishi mumkin. Davlat byudjeti mab-lag'larining katta qismini muhim ishlab chiqarish-hududiy komplekslarni rivojlantirishga sarflash sekin-astalik bilan chuqur sifat o'zgarishlarining sodir bo'lishiga – ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasining o'zgarishiga olib keladi.

Mamlakatning milliy xo'jaligini moliyaviy jihatdan tartibga solish davlat byudjeti daromadlarini rejalash-tirish va byudjetdan moliyalashtirish jarayonlari davomida amalga oshiriladi. Rejalashtirish jarayonining o'zidayoq davlat byudjeti xarajatlarining umumiy hajmi gorizon-taliga (tarmoq, vazirlik va maqsadli kesimlarda) va vertikaliga (boshqaruvning turli darajalariga muvofiq ravishda) taqsimlanib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarish-larning sodir bo'lishi uchun tegishli sharoit yaratiladi. Byudjetdan moliya-lashtirish jarayonida esa davlat o'zining ixtiyoriga kelib tushayotgan pul mablag'larini rejalash-tirilgan tadbirlar doirasida va undan tashqarida keng manyovr qilish imkoniga ega bo'ladi. Mablag'larni aniq taqsimlovchilarga davlat byudjeti kreditlarini ochish, davlat byudjeti mablag'larini berish va ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat qilib, iqtisodiyotning rivojlanishi ustidan moliya organlari diqqat bilan kuzatuvni amalga oshiradilar va zarur hollarda taqsimlanayotgan davlat byudjeti mablag'larining nisbat-larini o'zgartiradilar.

Byudjetda daromadlarni xarajatlarning konkret turlari va yo'nalishlari bo'yicha biriktirilishi printsipi bo'lmaganligi uchun bu yerda davlat byudjeti resurslari bilan keng manyovr qilish va shunga muvofiq ravishda davlatning ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'laridan har qanday zarur yo'nalishda foydalanilishi mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda davlat byudjeti mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi keyingi yillarda quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanishi mumkin: O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining yarmidan ko'prog'ini (56,55%) ijtimoiy soha va aholini

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tashkil etmoqda. Bu xarajatlarning tarkibida asosiy o'rinni maorif (32,65%), sog'liqni saqlash (11,82%) va oilalarga ijtimoiy nafaqalar (9,56%) egallamoqda. Umumiy holda esa ana shu uch guruhdagi xarajatlar Davlat byudjetidan ijti-moiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan mablag'larning 95,02%ga teng bo'lmoqda[79].

Umuman olganda, davlat byudjetining bu guruhga kiruvchi xarajatlari yosh avlodni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlarni berish, milliy xo'jalik uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, aholiga malakali tibbiyot xizmati ko'rsatish, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'mi-notni yanada yaxshilash, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masala-lariga O'zbekistonda qanday e'tibor berila-yotganligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyot xarajatlari va markazlashtirilgan investi-tsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari o'zlarining salmo-g'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining xarajatlari tarkibiy tuzilmasida keyingi o'rinni egallab, ularning har biriga, mos ravishda, davlat byudjeti xarajatlarining 11,97% va 7,51% qismlari to'g'ri kela-yapti[80]. Bu raqamlar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, uning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va o'zgartirish, milliy xo'jalik sektorlarida iqtisodiy samaradorlikning o'sishini ta'minlash, ilmiy-texnika taraqqiyotining o'sish sur'atlarini tezlashtirish, yagona texnikaviy siyosatni yurgizishga jiddiy e'tibor berilayotganligidan darak beradi.

18.2. Byudjetdan moliyalashtirish: printsiplari, shakllari va usullari

Davlat byudjetining xarajatlaridan foydalanish byudjetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, **byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub'yektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim etish (mablag'lar berish) tizimi tushuniladi.** U pul mablag'larini ajratishning o'ziga xos shakl, usul va printsiplari yordamida amalga oshiriladi. Byudjetdan moliyalashtirishning shakl, usul va printsiplari bu tizimning tarkibiy elementlari bo'lib hisoblanadi va uning amal qilish natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Muhim

---

[79] Bu ma'lumotlar mamlakatimizda keyingi bir necha yillar davomida tarkib topgan ko'rsatkichlarning o'rtachasini o'zida mujassam etadi.

[80] Bularga nisbatan ham xuddi yuqoridagidek fikrni bildirish mumkin.

ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilayotgan hozirgi paytda oqilona va samarali byudjetdan moliyalashtirish tizimining ahamiyati yanada ortadi.

Byudjetdan moliyalashtirishning oqilona tizimini tashkil etishda, eng avvalo, moliyalashtirish printsiplari muhim rol o'ynaydi. Amaliyotda foydalanilayotgan byudjetdan moliya-lashtirishning printsiplarini umumiy va xususiy guruhlarga bo'lish mumkin. Umumiy printsiplar byudjetdan mablag' oladigan barcha sub'yektlarning faoliyatiga tegishlidir. Xususiy printsiplar esa sub'yektlar faoliyatining tashkil etilishiga bog'liq ravishda davlat byudjeti mablag'larining taqdim etilish tartibini belgilab beradi.

Byudjetdan moliyalashtirishning umumiy printsiplari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- **minimum xarajat qilib, maksimum samara olish**. Davlat byudjeti mablag'lari ulardan foydalanishning eng yuqori samarasi ta'minlangandagina taqdim qilinishi kerak. Bunday samara, bir tomondan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli vazifalarini hal etish, ikkinchi tomondan esa, davlat byudjeti mablag'larini oluvchilarning daromadlari o'sishi hisobidan pul mablag'larining byud-jetga qayta oqib kelishi bilan ifodalanishi mumkin;
- **davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishning maqsadli xarakterdaligi**. Yuridik shaxslar oldindan maqsadlari aniqlangan va tasdiqlangan davlat byudjeti asosida byudjetdan mablag' olishi mumkin. Bu printsipga qat'iy rioya qilish davlat byudjeti mablag'laridan sama-rasiz foydalanishga to'sqinlik qiladi;
- **ko'zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan mablag'larning foydalanilganligini inobatga olgan holda davlat byudjeti mablag'larini taqdim etish**. Byudjetdan moliyalashtirish ko'rsatkichlarning bajarilishiga bog'liqligi moliyaviy organlarga korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyati ustidan samarali va ta'sirchan nazoratni amalga oshirishga imkon beradi;
- **davlat byudjeti mablag'larining qaytariluvchan emasligi**. Davlat byudjeti mablag'lari sub'yektlarga ularni majburiy ravishda byudjetga qaytarmaslik sharti bilan taqdim etiladi;
- **davlat byudjeti mablag'larining tekinligi (bepul-ligi).** Byudjetdan mablag'lar sub'yektlarga foiz ko'rinishida qandaydir daromadlarni davlatga to'lamasdan yoki mab-lag'larni to'lashning boshqa ko'rinishlarisiz ajratiladi.

Byudjetdan moliyalashtirish amaliyotida umumiy tamo-yillar bilan birgalikda xususiy printsiplardan ham foydalaniladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat byudjeti mablag'larini faqat ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlariga ajratish;
- davlat byudjeti mablag'larining hajmini aniqlashda "qoldiq" yondashuvidan foydalanish;
- byudjetdan moliyalashtirishda rejalashtirilayotgan xarajatlarni kredit usuli orqali ta'minlash bilan birgalikda foydalanish;
- korxonalarning moliyaviy holatini davlat byudjeti orqali tartibga solish printsipi va boshqalar.

Davlat byudjeti mablag'lari amaliyotida byudjetdan moliyalashtirishning turli usullaridan foydalaniladi. Uning quyidagi ikki usulini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- **"netto-byudjet" tizimi bo'yicha moliyalashtirish**. Pul mablag'larini taqdim etishning bu usuli shu bilan xarakterlanadiki, unga ko'ra davlat byudjeti mablag'lari tasdiqlangan byudjetda ko'zda tutilgan xarajatlarning cheklangan bir qismiga ajratiladi;
- **"brutto-byudjet" tizimi bo'yicha moliyalashtirish**. Bu usul byudjetdan to'liq moliyalashtiriladigan korxona va tashkilotlar uchun qo'llaniladi. Davlat byudjeti mablag'lari bu holda davlat byudjeti tashkilotini joriy saqlash va uning faoliyatini kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan xarajat-larning barcha turlari uchun ajratiladi.

Pul mablag'larini taqdim etishning yuqorida keltirilgan usullari byudjetdan moliyalashtirishning quyidagi shakllari yordamida amalga oshiriladi:

- davlat byudjeti tashkilotini saqlash uchun mablag'lar;
- davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining shartnomalari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni to'lash uchun mablag'lar;
- aholiga transfertlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarga subventsiya va subsi-diyalar;
- quyi byudjetlarga va davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalariga dotatsiya, subventsiya va subsidiyalar;
- harakatdagi (amaldagi) yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslar ustav kapitaliga investitsiyalar;
- narxlardagi farqni qoplash.

Amaliyotda byudjetdan moliyalashtirish, yuridik nuqtai nazardan, quyidagi ikki ko'rinishda amalga oshiriladi:

1) xarajatlarni respublika byudjetidan moliyalash-tirish;

2) xarajatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi byudje-tidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti-dan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi[81]:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quv-vatlash xarajatlari, shu jumladan:

- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari, bolalar uylari, ta'lim muassasalarini axborot-uslubiy jihatdan ta'minlash muassasalari, vazirliklar va idoralar tasar-rufidagi ta'lim muassasalari, boshqa yordamchi muassa-salarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliya-lashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimi tadbirla-rining xarajatlari;
- respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, OITSga qarshi kurashish respublika markazi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati, karantin va o'ta xavfli infek-tsiyalar profilaktikasi, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining klinikalari, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi respublika muassasalari, respu-blika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari hamda yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiri-lishi nazarda tutilgan xizmatlar haqini to'lash xarajatlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq ayrim toifadagi fuqa-rolarga tibbiy xizmatlar ko'rsatilganligi uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlari xarajatlarining o'rnini qoplash (subsidiyalar);
- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqaro-larning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;
- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, tele- va radiodasturlar yaratish hamda ularni tarqatishga doir xizmatlar ta'minoti va ularga haq to'lash, hukumatning alohida qarorlariga ko'ra ommaviy axborot vositalarini saqlab turish, kino- va videomahsulotlar yaratish, madaniy meros ob'ektlarida restavratsiya ishlarini bajarish, tasdiqlangan kalendar rejalarga muvofiq madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha qonun hujjat-larida O'zbekiston Respublikasining

[81] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 70 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlar bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy-texnik loyihalar, noyob ilmiy ob'ektlarni va fanga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni saqlab turish, ilmiy loyihalar ekspertiza-sini o'tkazish hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan fanga doir alohida tadbirlar xarajatlari;
- davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari;
- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muas-sasalarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- davlat mukofotlari, davlat pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash xara-jatlari;
- bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda berila-digan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;
- Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjat-larida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari jamoat ishlarini moliyalashtirish;

2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomo-nidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

3) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi respublika nazorat organlarining xarajatlari, suv, qishloq, o'rmon xo'jaligi xarajatlari, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish muassasalarining xizmatlariga haq to'lash va ularni saqlab turish xarajatlari;
- hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

- qishloq xo’jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to’lanadigan yagona yer solig’i bo’yicha tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag’lar va O‘zbekiston Respub-likasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug’oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasining har yili tasdiqlanadigan asosiy parametrlari doirasida byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag’lar;
- qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan standartlashtirish va sertifikatlashtirish, topografiya-geodeziya, kartografiya va kadastr, shuningdek geologiya qidiruv ishlari, davlat shaharsozlik kadastrini yuritish xarajat-lari, chegaradosh davlatlarga haq evaziga yerdan foydalanish to’lovi, gidrometeorologiya xizmati muassasalarini saqlab turish xarajatlari;
- atrof muhit va landshaftning muhofaza qilinishini, biologik xilma-xillikning himoya qilinishini ta’minlash bilan bog’liq xarajatlar;
- «Sof ichimlik suvi» jamg’armasi orqali ichimlik suvi bilan ta’minlash tizimini rivojlantirish bilan bog’liq xarajatlar.

4) respublika vazirliklari, davlat qo’mitalari va idoralari buyurtmachi bo’lgan markazlashtirilgan investi-tsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

5) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari, shu jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komis-siyasini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo’yicha vakili (ombudsman) kotibiyatini;
- qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag’laridan saqlab turilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi muassa-salarini saqlab turish xarajatlari;
- adliya va prokuratura organlarini.

6) sudlarni saqlab turish xarajatlari;

7) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg’armasini shakllantirish xarajatlari;

8) boshqa xarajatlar:

- siyosiy partiyalarga ularning ustavida belgilangan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash;
- O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish xarajatlari;
- davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va O'zbekiston Respublikasining kafolatlangan majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar;
- davlat buyurtmasi bo'yicha statistika ishlariga haq to'lash;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiya-sining saylovlar va referendumlarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish bo'yicha xarajatlari, shu jumladan okrug va uchastka saylov komissiyalarini, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish;
- xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlat ishonchli vakillarining xizmatlariga haq to'lash;
- davlat zaxiralari va strategik zaxiralarni vujudga keltirish, saqlab va yangilab turish bilan bog'liq xarajatlar;
- mudofaaga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga, bojxona organlariga ajratiladigan mablag'lar, shu jumladan harbiy xizmatni, ichki ishlar organlarida, bojxona organlarida xizmatni o'tagan shaxslar hamda ularning oilalariga pensiyalar va nafaqalar uchun xara-jatlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq faoliyati O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliya-lashtiriladigan muassasalar, tashkilotlar va idoralarga ajratiladigan mablag'lar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar;
- davlat maqsadli jamg'armalariga davlat byudjeti ssudalari va dotatsiyalar;
- yuridik shaxslarga davlat byudjeti ssudalari va kredit liniyalari hamda chet davlatlarga kreditlar belgilangan tartibda ajratilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi[82]:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;
- bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respub-likasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxo-nalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassa-salarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi insti-tuti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;
- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqaro-larning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;
- hududiy madaniyat, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismo-niy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufi-dagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

---

[82] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 71 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

- Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufi-dagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabi-litatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijti-moiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- shahar yo’lovchilar transporti tashuvchilarining yo’lov-chilarni va bagajni cheklangan tariflar bo’yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko’rsatish bilan bog’liq zararlarning o’rnini qoplash xarajatlari;
- kam ta’minlangan oilalarga to’lanadigan ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam.

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- qishloq xo’jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to’lash, shuningdek erlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;
- uy-joy-kommunal xo’jaligi ob’ektlarida ta’mirlash ishlarini olib borish;
- suv yo’llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;
- aholi punktlarini obodonlashtirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o’rmon xo’jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo’lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalash-tirish xarajatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organ-larini, shu jumladan:

- Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesini;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qora-qalpog’iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo’mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo’limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjeti-ning, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg’armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun er uchastka-larining olib qo’yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararning o’rnini qoplash xarajatlari;

7) harbiy-ma’muriy sektorga yuklatilgan tadbirlarni va vazifalarni amalga oshirish va hal qilish xarajatlari.

8) Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjeti-ning, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag’lari hisobidan moliyalashtiri-ladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudje-tidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byud-jetlariga davlat byudjeti ssudalari, dotatsiyalar, subven-tsiyalar o’tkazib beriladigan daromadlar va maqsadli ijti-moiy transfertlar ajratilishi mumkin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi[83]:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvat-lash xarajatlari, shu jumladan:

- tumanlar (shaharlar) xalq ta’limi bo’limlari va maktabgacha ta’lim bo’limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjet-laridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta’lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;
- tuman tibbiyot birlashmalari, tuman markaziy polikli-nikalari va koykasiz dispanserlar, tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilak-tika muassasalari, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlarini saqlab turish xarajatlari;
- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqaro-larning sog’lig’ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;
- tumanlar (shaharlar) madaniyat bo’limlari tasarru-fidagi madaniyat muassasalarini, tumanlar (shaharlar) jismoniy tarbiya va sport bo’limlari tasarrufidagi jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyatni, jismoniy tarbiya va sportni, bolalar musiqa va san’at maktablarini rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- uyda ijtimoiy yordam ko’rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob’ektlarida harbiy xizmatni o’tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

---

[83] “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi” 72 modda: T.: “Adolat”, 2014 y. - 9-b.

- tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo'limlari, laboratoriyalarni saqlab turish;
- shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko'chalarni, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'lla-rini ta'mirlash;
- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;
- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjat-larida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashti-rilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbir-larning xarajatlari.

Mablag'larni byudjetdan taqdim etishning (byudjetdan mablag' ajratishning) usullari byudjetdan moliyalashti-rishning muhim elementi bo'lib hisoblanadi. Ularning yordamida moliya organlari byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni pul mablag'lari bilan ta'minlaydi, pul mablag'laridan foydalanishda yuqoriroq natijalarga erishish uchun mablag'larni qayta o'zgartirib, taqdim etishni amalga oshiradi, moliyaviy resurslarni taqsimlashda tarkib topayotgan nisbatlarni tartibga soladi.

Davlat tomonidan moddiy ishlab chiqarish sohasi va uy-joy, kommunal xo'jaligiga qilinadigan xarajatlar mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish xarajatlariga kiradi. Bunda davlat byudjeti mablag'lari vazirliklar, idoralar va korxonalarga ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha xarajatlarga (kapital qo'yilmalarga), oddiy takror ishlab chiqarishni ta'minlashga (subsidiyalar, dotatsiyalar va transfertlar), operatsion xarajatlarga va boshqa xarajatlarga beriladi.

Mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish xarajatlari vazirliklar, idoralar va korxonalar bo'yicha rejalashtiriladi hamda bir vaqtning o'zida ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan bo'ladi. Bunda davlat byudjeti mablag'-larining asosiy qismi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga, ya'ni sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va transportga yo'naltiriladi.

Davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli foydalanish nuqtai nazaridan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ishlab chiqarish va

noishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljal-langan asosiy fondlarning yangilarini yaratish va harakatdagilarini kengaytirish uchun pul mablag'larini taqdim etishga kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish deyiladi. Davlat byudjeti resurslari cheklanganligi uchun ular investitsiyalarning cheklangan doirasiga, ya'ni maqsadli dasturlarga kiritilgan yoki hokimiyatning ijroiya organlari qarori bo'yicha amalga oshirilayotgan investitsiyalarga beriladi.

Iqtisodiyot xarajatlarini moliyalashtirishning muhim yo'nalishi yuridik shaxslarga turli subsidiyalar, dotatsiyalar va subventsiyalar berishdir. Bu ko'rinishdagi davlat byudjeti mablag'lari davlat, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari va xususiy korxonalarning turli joriy xarajatlari va zararlarini qoplash uchun ajratiladi. Ana shunday xarajatlarning asosiy qismi yoqilg'i-energetika sanoati, agrosanoat kompleksi, uy-joy kommunal xo'jaligi, shahar transporti va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga yo'nal-tiriladi.

Davlat byudjetining ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljal-langan xarajatlari davlat tomonidan ijtimoiy funksiya-ning bajarilishi bilan bog'liq. Bu xarajatlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- maorif;
- madaniyat, san'at va kinematografiya;
- ommaviy axborot vositalari;
- sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya;
- ijtimoiy siyosat.

Ijtimoiy ehtiyojlar xarajatlari smetali rejalashtirish printsiplari asosida aniqlanadi. Bu xarajatlar konkret tadbirlar va xarajatlarning turlari bo'yicha moliyalash-tiriladi. Xarajatlar hajmi bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy soha tashkilotlarida ishlab chiqiladigan smeta va moliya organlarida tuzilgan mablag'lar hisob-kitobi asosida aniqlanadi. Hisob-kitoblar asosida xizmat ko'rsatiladigan kontingentlarni xarakterlovchi tashkilotlar faoliyatining ko'rsatkichlari (masalan, o'quvchilar, guruhlar, sinflar soni va h.k.) yotadi. Bunda ularning yil davomida faoliyat ko'rsatish vaqti ham hisobga olinadi. Bu ko'rsatkichlar hisob-kitob birliklari bo'lib xizmat qiladi. Hisob-kitob birligiga to'g'ri keluvchi pulli xarajat davlat byudjeti tashkilotining faoliyat ko'rsatishini va rivojlanishini ta'minlaydigan norma bo'yicha o'rnatiladi.

18.3. Davlat byudjeti me'yorlari (normalari), xarajatlar smetasi va davlat krediti

Davlat byudjeti me’yorlari (normalari). Davlat byudjeti mablag’larini sarf qilishning asosiy printsipi ularning mo’ljallanganligi va vaqt bo’yicha qat’iy tartibga solinganligidir. Tashkilot pul mablag’laridan smetada ko’zda tutilmagan maqsadlar uchun foydalanish huquqiga ega emas. Davlat byudjeti tashkiloti smetasining xarajatlari ularning ro’yxatini o’z ichiga olib, tarkibiga quyidagilar kiradi:

- xodimlarning mehnat haqini to’lash;
- davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalariga badallar;
- aholiga transfertlar (qonunga muvofiq ravishda belgilangan pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar, kompen-satsiyalar va boshqa ijtimoiy to’lovlar);
- xizmat safari xarajatlari va xodimlarga berilgan boshqa kompensatsion to’lovlar;
- sotib olinishi kerak bo’lgan tovarlar, bajarilishi lozim bo’lgan ishlar va ko’rsatilajak xizmatlarga haq to’lash.

Yuqorida ko’rsatilgan xarajatlar aniq ehtiyojni qondirish o’lchovi sifatida pul mablag’larining ma’lum summasida ifodalangan xarajatlar me’yori (normasi) asosida amalga oshiriladi. Amaliyotda pulli me’yorlarning har xil turlaridan foydalaniladi:

- moddiy boyliklardan foydalanishning natural ko’rsatkichlariga asoslangan normalar (ovqatlanish, tibbiyot uskunalari, dori-darmonlarni sotib olish, yumshoq inven-tarlar va h.k.lar xarajatlari normasi). Bunday normalar moddiy normalarning puldagi ifodasini namoyon etadi;
- umumlashtirilgan yakka tartibdagi to’lovlar – ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, xizmat safari xarajatlari va boshqalar;
- o’tgan davrlarda mablag’larning sarflanish ko’rsatkich-larini umumlashtirish asosida tajriba-statistika usuli yordamida va davlat byudjetiningimkoniyatlarini hisobga olgan holda vujudga keltirilgan normalar.

O‘zining murakkablik darajasiga qarab, davlat byudjeti me’yorlari ikkiga bo’linadi:

1) oddiy me’yorlar (xarajatlarning oddiy yoki aniq turiga tegishli bo’lgan me’yorlar);

2) kombinatsiyalashtirilgan yoki yiriklashtirilgan me’yorlar (bir necha xarajatlar turlarini qamrab oladigan, alohida bir xarajatlar moddasini va o’xshash xarajatlar moddalarini shakllantiradigan yoki muassasaning barcha xarajatlarini qamrab oladigan me’yorlar).

Hozirgi sharoitda ijtimoiy soha tashkilotlarining barcha turdagi xarajatlarini qamrab oladigan yiriklash-tirilgan me'yorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday normalardan foydalanish muassasalar ishini yuqori yakuniy natijalarga erishishga yo'naltiradi: bolalarni o'qitish, mutaxassislarni tayyorlash, bemorlarga yordam ko'rsatish va h.k. Bundan tashqari, yiriklashtirilgan normalarning qo'lla-nilishi turli xarajatlar yo'nalishida davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish bo'yicha tashkilotlarning mustaqilligini kengaytiradi va resurslardan oqilona va tejamli foydalanishda ularning manfaatdorligini kuchaytiradi.

Davlat byudjeti normalari juda ko'p omillar ta'siri ostida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, baho va tariflar tizimining o'zgarishi, milliy xo'jalikda ish haqining o'sishi, mahalliy byudjetlarda xarajatlarni moliyalashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarning paydo bo'lishi kabi omillar me'yorlarning miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Xarajatlar smetasi. Xarajatlar smetasi davlat byudjeti tashkilotning moliyaviy rejasi hisoblanadi. Davlat byudjeti tashkilotini moliyalashtirish daromad bo'lmasdan, faqat tashkilotning xarajatlari hajmi va ularning maqsadli yo'naltirilganligiga teng bo'lgan mablag'larning tushuvidan iborat bo'lganligi uchun smeta daromadlar qismiga ega emas. Smeta asosida moliya organlari ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarning hajmini aniqlaydi va u narsa joriy yilning byudjeti tarkibiga kiritiladi. Bunda quyidagi holatlarga alohida e'tibor berilishi kerak:

1. Ijtimoiy ehtiyoj xarajatlarining bir qismi byudjet-dan boshqacharoq tarzda moliyalashtiriladi. Masalan, ana shunday tarzda ommaviy axborot vositalari va teatr-tomosha korxonalarining etishmagan mablag'lari ta'min-lanadi. Bu korxonalarning xizmatlari to'lovli (haqli) bo'lsa-da, o'z daromadlari ularning barcha xarajatlarini qoplashga etmaydi. Bunday korxonalarning daromadlari va xara-jatlari o'rtasidagi etishmagan farq byudjetdan qop-lanishi kerak.

2. Ilm-fanni moliyalashtirish davlat byudjeti xarajat-larining mustaqil guruhi hisoblanadi. Ular uchun byudjet-dan mablag'lar eng muhim istiqbolli nazariy izlanishlar va umumdavlat maqsadli ilmiy-texnikaviy dasturlar bo'yicha yo'naltiriladi. Ana shu maqsadlar uchun mablag'lar bevosita ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi Fanlar Akademiyasi, ilmiy – tadqiqot institutlari, tarmoq akademiyalari, oliy o'quv yurtlari, arxivlar va boshqa tashkilotlarga ajratiladi.

3. Ilmiy tashkilotlarni moliyalashtirish smeta yordamida amalga oshiriladi. Barcha tashkilotlarda aniq mavzular bo'yicha xarajatlar

smetasi tuziladi. Xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirish tartibi bu yerda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar xarajatlarida qo'llanila-digan usul bilan bil xildir.

4. Milliy mudofaa xarajatlari davlatning funksiya-laridan kelib chiqadi. Mudofaa xarajatlarining umumiy miqdori va darajasi quyidagi turli xildagi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

- xalqaro vaziyat;
- mamlakat hududining kattaligiga bog'liq bo'lgan chegaralarning uzunligi va xarakteri;
- harbiy ishning zamonaviy taraqqiyoti va armiyaning texnikaviy jihatdan qurollanganlik ahvoli;
- shaxsiy tarkib turmush darajasini yuqori pog'onaga ko'tarishning va Qurolli Kuchlarda ijtimoiy-madaniy tadbir-larni amalga oshirishning zarurligi;
- mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari;
- va boshqalar.

Mudofaa xarajatlari ob'yektiv zarurat bo'lishiga qaramasdan ular noishlab chiqarish xarakteriga ega. Shuning uchun ham davlatlar tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshira borib, harbiy xarajatlarni qisqartirishga harakat qiladi.

Byudjetda ko'zda tutilgan milliy mudofaa xarajatla-rining guruhi, asosan, Mudofaa vazirligi orqali o'tadigan to'g'ri (bevosita) harbiy xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlarning tarkibiga armiyani saqlash, qurol-yarog' va harbiy texnika sotib olish, kapital qurilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, harbiy xizmatchilarga maosh, pensiya va nafaqalar berish va boshqa xarajatlar kiradi. Bu xarajatlarning barchasi Mudofaa va-zirligining maxsus smetasida o'z aksini topadi va respublika byudjetining xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Milliy mudofaa xarajatlarini rejalashtirishning o'ziga xos bo'lgan xususiyati shundan iboratki, bu yerda birinchi navbatda, Mudofaa vazirligi bo'yicha xarajat-larning umumiy hajmi aniqlanadi. Undan so'ng esa harbiy okruglar va harbiy qismlarning smetalari tuziladi. Bunday tartibning amal qilishi harbiy xarajatlar katta qismining (qurol-yarog', harbiy texnika, yoqilg'i, oziq-ovqat va shunga o'xshashlar) Mudofaa vazirligi orqali moliyalashtirilishi bilan izohlanadi.

To'g'ri (bevosita) harbiy xarajatlarning boshqa bir qismi davlat byudjeti xarajatlarining boshqa bo'linmalari bo'yicha moliyalashtiriladi. Masalan, ichki va chegara qo'shinlarini saqlash xarajatlari hamda xavfsizlik organlarining faoliyati huquqni

muhofaza qilish faoliyati va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'limi orqali moliyalash-tiriladi. Bu xarajatlarni rejalashtirish va moliyalash-tirish smeta tartibida amalga oshiriladi.

Egri (bilvosita) harbiy xarajatlar byudjetda, asosan, Qurolli Kuchlar faxriylari va ularning oilalariga to'lanadigan pensiya va nafaqalardan iborat. Bu xarajatlar davlat byudjetiningijtimoiy himoya bo'limi bo'yicha moliyalash-tiriladi.

5. Davlat byudjetiningboshqaruv xarajatlari quyidagi guruh-lardagi xarajatlardan iborat:

- huquq-tartibot organlari, sudlar va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari;
- davlat hokimiyat organlarini saqlash xarajatlari. Prezdent Devoni, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, Konstitutsiyaviy sud, vazirliklar, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, diplomatik muassasalar va boshqa idoralarni saqlash xarajatlari;
- saylovlar va referendumlarni o'tkazish xarajatlari. Bular deputatlar, Prezident, mahalla oqsoqollarini saylash, referendumlar o'tkazish xarajatlaridan iborat.

Boshqaruv xarajatlarini rejalashtirish va moliyalash-tirish ijtimoiy ehtiyoj xarajatlari bilan bir xil tartibda amalga oshiriladi.

Davlat krediti[84]. Hozirgi paytda sarflangan mablag'lari byudjetga qaytarilmaydigan (tiklanmaydigan) byudjetdan moliyalashtirish bilan bir qatorda davlat kreditlarini berish orqali korxonalarni kreditlashtirish rivojlana boshladi. Davlat byudjeti kreditlari tijorat banklari kreditlari va davlat byudjeti mablag'lari o'rtasida oraliq holatni egallaydi. Bir tomondan, byudjetdan moliyalash-tirishdan farqli ravishda bu kreditlar qaytarilish va tiklanish sharti bilan berilsa, ikkinchi tomondan, bu ssudalar bo'yicha foizlar umuman olinmaydi yoki olinsa, ularning darajasi bank kreditlarining foizlari dara-jasidan ancha past bo'ladi.

Davlat byudjeti kreditlari davlat korxonalariga va shuningdek, xususiy yuridik shaxslarga ham berilishi mumkin. Birinchi holatda davlat byudjeti kreditlari byudjetda ko'zda tutilgan limitlar chegarasida va shartlarda taqdim etiladi. Ikkinchi holatda esa davlat byudjeti krediti shartnoma asosida va faqat qarz oluvchi tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatini bajarish borasida ta'minot ta'minlangan shartdagina berilishi mumkin. Davlat byudjeti kreditini qaytarish bo'yicha majburiyatni ijro etishni ta'minlashning

---

[84] Aslida bu erda Davlat byudjeti hisobidan beriladigan kreditlar nazarda tutiladi. Shuning uchun biz bu o'rinlarda "davlat krediti" bilan bir paytning o'zida "davlat byudjeti krediti" tushunchasining ishlatilishini ham o'rinli deb hisoblaymiz.

usullari faqat berilayotgan bu kreditning 100% dan kam bo'lmagan miqdordagi bank kafolatlari, mol-mulk garovi, shu jumladan, aktsiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, badallar ko'rishidagi garovlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Majburiyatlarni ijro etish ta'minoti yuqori darajadagi likvidlikka ega bo'lgan bo'lishi kerak. Moliya organlari tomonidan qarz oluvchining moliyaviy ahvolini oldindan tekshirish va oldin berilgan davlat byudjeti kreditlari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarning mavjud emasligi davlat byudjeti kreditlarini taqdim etishning majburiy shartlaridir.

Navbatdagi yil uchun davlat byudjeti tasdiqlanayotgan paytda davlat byudjeti kreditlari berilayotgan maqsadlar, ularni taqdim etishning shartlari va tartibi ko'rsatiladi. Bir vaqtning o'zida ana shular bilan birgalikda davlat byudjeti yili doirasidagi muddatda va undan chetga chiqadigan muddatlarda taqdim etilishi mumkin bo'lgan davlat byudjeti kre-ditlarining limitlari hamda qarz oluvchi sub'yektlar bo'yicha cheklanmalar o'rnatiladi.

18.4. Davlat byudjeti xarajatlarini sarflash muammolari va vazifalari

Muammolar. Hozirgacha davlat byudjeti xarajatlari bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish samara-dorligi nisbatan past;
- davlat byudjeti mablag'larini maqsadsiz sarflash amaliyoti mavjud;
- davlat byudjeti daromadlari bo'yicha rejalar baja-rilmagan sharoitda xarajatlar ayrim yo'nalishlarining moliya-lashtirilishi noproportsionaldir;
- davlat byudjeti xarajatlari davlat ijtimoiy siyosatining pishib etilgan muammolarini hal eta olmayapti;
- sub'yektlarga to'lovlar bo'yicha qarzlar doimiy ravishda oshib borayapti;
- milliy xo'jalikka davlat investitsiyalari minimum darajagacha qisqardi;
- va boshqalar.

Davlat byudjeti xarajatlari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar. Yuqoridagi kamchiliklarning mavjudligi davlat byudjeti xarajatlari bo'yicha baja-rilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni belgilab olishni va ularning o'z vaqtida bajarilishini taqozo etadi.

Hozirgi sharoitda bunday vazifalarning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- eng samarali va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyi-halarga davlat byudjeti mablag'larini yig'ish (kontsentratsiya qilish), ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishning ustu-vorligini ta'minlash;
- sub'yektlarga to'lovlar bo'yicha qarzlarni keskin qisqartirish va ularning to'liq qaytarilishiga erishish;
- iqtisodiyotning ustuvor sohalarida investitsiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirishni kengaytirish;
- loyihalarni moliyalashtirishning davlat-tijorat amaliyotini kengaytirish asosida investitsion jarayon-larning nomarkazlashuvini davom ettirish;
- davlat apparatini saqlash xarajatlari va davlat qarzlarini boshqarish bo'yicha xarajatlarni qisqartirish;
- harbiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish asosida milliy mudofaaga mo'ljallangan davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ayrim tarmoqlarning zararlarini qoplashga yo'nalti-rilayotgan dotatsiyalarni kamaytirish;
- maqsadli dasturlar va xarajatlarning ayrim maqsadli moddalari bo'yicha xarajatlarni qisqartirish;
- fan, madaniyat, tibbiy xizmat va maorif xarajat-larining ustuvor moliyalashtirilishini ta'minlash;
- davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish;
- davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishning g'azna-chilik tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish;
- va boshqalar.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlat byudjeti xarajatlarining mazmuni nimada va ular o'zida qanday munosabatlarni ifodalaydi?
- Davlat byudjeti xarajatlari qanday xarakterli belgilarga ega?
- Davlat byudjeti xarajatlari aniq turlarining xilma-xilligi qanday omillar bilan izohlanadi?
- Davlat byudjeti xarajatlari qanday belgilarga ko'ra tasniflanadi?
- O'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat byudjeti xarajatlari qanday xarajatlarga bo'linadi?

- Davlat byudjetiningkapital xarajatlari va ularning tarkibini aytib bering.
- Davlat byudjetiningjoriy xarajatlari va ularning tarkibini tushuntirib bering.
- Takror ishlab chiqarishdagi roliga ko’ra davlat byudjeti xarajatlari qanday guruhlarga bo’linadi?
- Davlat byudjeti xarajatlarining tarmoq belgisi bo’yicha guruhlarga ajratishning asosida nima yotadi?
- Ijtimoiy mo’ljallanganligi bo’yicha davlat byudjeti xarajatlari qanday guruhlardan tashkil topgan?
- Davlat byudjeti xarajatlarining aniq turlarini aytib bering.
- Davlat byudjeti xarajatlari tashkiliy jihatdan qanday guruhlarga ajratiladi?
- Davlat byudjeti xarajatlari hududiy belgisiga muvofiq qanday guruhlardan tashkil topadi?
- Faqat Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni aytib bering.
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog’langanmi?
- Hozirgi sharoitda davlat byudjeti xarajatlarining konkret tarkibi nimalardan iborat va ularning tuzilmasi qanday?
- “Davlat byudjeti xarajatlari” va “Davlat xarajat-lari” iboralari bir xil ma’noni anglatadimi?
- Byudjetdan moliyalashtirish deganda nimani tushu-nasiz?
- Byudjetdan moliyalashtirishning umumiy printsip-larini bilasizmi?
- Byudjetdan moliyalashtirish amaliyotida umumiy tamo-yillar bilan birgalikda yana qanday xususiy printsiplardan foydalaniladi?
- Byudjetdan moliyalashtirishning qanday usullaridan foydalanish mumkin?
- “Netto-byudjet” tizimi bo’yicha moliyalashtirishni bilasizmi?
- “Brutto-byudjet” tizimi bo’yicha moliyalashtirish qanday korxona va tashkilotlar uchun qo’llaniladi?
- Amaliyotda byudjetdan moliyalashtirishning qanday shakllaridan foydalanilmoqda?
- Byudjetdan moliyalashtirish, yuridik nuqtai nazardan, qanday ikki ko’rinishda amalga oshiriladi?

- Respublika byudjetidan xarajatlarni moliyalash-tirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qanday yo’nalishlarda amalga oshiriladi?
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaysi xarajatlar moliyalashtiriladi?
- Byudjetdan mablag’ ajratishning qanday usullari bor?
- Iqtisodiyotni byudjetdan moliyalashtirishning xarajat-lari tarkibiga nimalar kiradi?
- Davlat byudjetining ijtimoiy ehtiyojlarga mo’ljal-langan xarajatlari qanday guruhlarga bo’linadi?
- Ijtimoiy ehtiyojlar xarajatlari qanday printsip asosida aniqlanadi?
- Davlat byudjeti me’yorlari (normalari)tushunchasining mazmuni nimada?
- Davlat byudjeti tashkiloti smetasining xarajatlari tarkibini aytib bering.
- Amaliyotda pulli me’yorlar(normalar)ning qanday turlaridan foydalaniladi?
- O‘zining murakkablik darajasiga qarab davlat byudjeti me’yor (norma) lari qanday guruhlarga bo’linadi?
- Kombinatsiyalashtirilgan yoki yiriklashtirilgan me’yor (norma) larning afzalliklarini aytib bering.
- Davlat byudjeti me’yor (norma)lari qanday omillar ta’siri ostida o’zgarib turishi mumkin?
- Xarajatlar smetasi nima va u qanday qismga ega emas?
- Moliya organlari smeta asosida ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarning hajmini aniqlayotgan va u joriy yilning byudjeti tarkibiga kiritilayotganda qanday holatlarga alohida e’tibor berilishi kerak?
- Mudofaa xarajatlarining umumiy miqdori va darajasi qanday ichki va tashqi omillarga bog’liq?
- Davlat (byudjeti) krediti nima va u qanday afzal-liklarga ega?
- Hozirda davlat byudjeti xarajatlari bo’yicha mavjud kamchiliklarni aytib bering.
- Davlat byudjeti xarajatlari bo’yicha bajarilishi lozim bo’lgan vazifalarni bilasizmi?

19-bob. Davlat byudjeti tizimi va byudjet tuzilmasi[85]

19.1. Davlat byudjeti tizimi: ta'rifi, printsiplari, boshqarish sohasidagi vakolatlar

Turli darajadagi byudjetlar va davlat byudjeti mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini ifodalaydigan, davlat byudjeti jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar hamda davlat byudjeti mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmui davlat byudjeti tizimi deyiladi. Ko'pchilik hollarda, soddaroq tarzda, davlat byudjeti tizimi deyilganda esa mamlakatdagi mavjud byudjetlar to'plami (majmui) tushuniladi.

Davlat byudjeti tizimi mamlakat davlat byudjeti tuzilishining tarkibiy qismi bo'lib, uning ma'lum bir qismini o'zida ifoda etadi. Shu ma'noda, davlat byudjeti tizimi davlat byudjetiningo'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'g'inlarining o'zaro yig'indisidan iboratdir. Mamlakatning davlat byudjeti tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma'muriy-hududiy bo'linishiga bevosita bog'liq.

U yoki bu mamlakatning davlat byudjeti tizimi ikki yoki uch bo'g'inli bo'lishi mumkin. Unitar davlatlarda davlat byudjeti tizimi ikki bo'g'indan (markaziy va mahalliy byudjetlar), federativ davlatlarda esa uch bo'g'indan (markaziy byudjet, federatsiya a'zolari byudjetlari va mahalliy byudjetlar) iborat bo'lishi mumkin.

Davlat byudjeti tizimi ma'lum bir printsiplarga asoslanib tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasining "Byudjeti kodeksi"da mamlakatimiz davlat byudjeti tizimi shakllantirilishi va faoliyat yuritishining printsiplari belgilab berilgan:

- davlat byudjeti tizimining yagonaligi;
- davlat byudjeti tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlarining mustaqilligi;

---

[85] Darslikning 19-20-boblarini yozishda "O'zbekiston Respublikasining Byudjeti kodeksi" asos qilib olindi. Bu o'rinlarda "Byudjet tizimi" va "Davlat byudjeti tizimi" iboralari bir xil tarzda talqin qilinadi.

- davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag’laridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- davlat byudjeti jarayoni ishtirokchilarining javob-garligi;
- ochiqlik.

Davlat byudjeti tizimining yagonaligi printsipi huquqiy bazalar, pul tizimi, davlat byudjeti hujjatlari shakllari, davlat byudjeti jarayoni printsiplari, davlat byudjeti qonunchiligini buzganlik uchun sanktsiyalarning yagonaligi, mamlakat davlat byudjeti tizimi barcha darajalari byudjetlari xarajatlarini moliyalashtirish va davlat byudjeti mablag’lari buxgalteriya hisobini yurgizish tartibining yagonaligi bilan belgilanadi.

Davlat byudjeti tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi har bitta ma’muriy-hududiy birlikning o’z mustaqil byudjeti bo’lishi shartligi bilan izohlanadi. Ma’muriy – hududiy birlik o’z byudjetini tashkil etish va uning mablag’laridan foydala-nishda muayyan vakolatlarga ega bo’ladi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlarining balansliligi va o’zaro bog’liqligi printsipining mazmuni shundaki, har bitta davlat byudjeti mutlaqo balansli holda tashkil etilishi shart, ya’ni unda amalga oshirilishi mo’ljallangan xarajatlar moliya yilida olinajak daromadlar miqdoriga teng bo’lishi kerak.

Byudjetlarning balansliligi printsipi byudjetda ko’zda tutilgan xarajatlarning hajmi davlat byudjeti daromad-lari va uning defitsitini moliyalashtirish manbalaridan tushadigan tushumlarning jami hajmiga teng bo’lishi kerak-ligini bildiradi.

Byudjetni tuzish, tasdiqlash va ijro etish jarayonida vakolatli organlar davlat byudjeti defitsiti miqdorini minimallashtirish masalasiga alohida e’tibor berishlari kerak.

Bundan tashqari, daromadlarni yig’ish va mablag’larni xarajat qilishda byudjetlarning bir-biriga bo’ysunadigan yuqori va quyi zvenolari qat’iy o’zaro bog’liqlikda harakat qiladi.

Moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish o’ta muhim printsiplardan biri hisoblanadi. Daromadlarni prognoz qilishning asosi bo’lib mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining natural ko’rsatkichlari hisoblanadi. Ular bazasida kelgusi davrda olinishi mumkin bo’lgan daromad-larning miqdorlari prognoz qilinadi. Xarajatlar ham o’z-o’zidan amalga oshirilmaydi, balki oldindan hisob-kitob qilingan aniq miqdorlar asosida

byudjetlarga ajratiladi. Daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinsa, xarajatlar yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati printsipi davlat byudjeti mablag'larini konkret oluvchilar ixtiyoriga ularning aniq maqsadlarni moliyalash-tirilishi oldindan belgilangan holda bo'lib berilishini nazarda tutadi. Byudjetda ko'zda tutilgan mablag'lar manzilliligini yoki yo'nalishini ko'zda tutil-magan maqsad-larga o'zgartirish borasidagi har qanday xatti-harakat mamlakat davlat byudjeti qonunchiligini buzish hisob-lanadi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlarining mustaqilligi printsipi qonunchilik va davlat hokimiyatining ijroiya organlari hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organ-larining mamlakat davlat byudjeti tizimining tegishli darajalarida davlat byudjeti jarayonini mustaqil amalga oshirish borasidagi huquqlarini bildiradi. Bu printsipning amal qilishi qonunchilikka muvofiq mamlakat davlat byudjeti tizimining har bir darajasida byudjetlar daro-madlarining o'z manbalariga egaligini, byudjetlarning tartibga keltiruvchi daromadlarini, qonunchilikka muvofiq ravishda tegishli byudjetlarning daromadlarini shakllan-tirish bo'yicha vakolatlarni, davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunchilikka muvofiq ravishda tegishli byudjetlar xarajatlarining sarflanish yo'nalishlarini mustaqil aniqlash huquqini qonuniy biriktirilishini, byudjet to'g'risidagi qonunlarni ijro etish jarayonida olingan qo'shimcha daromadlar, davlat byudjeti daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi summalari va davlat byudjeti xarajatlari bo'yicha iqtisod qilingan summalarni olishning mumkin emasligini, davlat byudjeti to'g'risidagi qonunlarning ijro etilishi jarayonida vujudga kelgan daromadlardagi yo'qotmalar va qo'shimcha xarajatlarni davlat byudjeti tizimining boshqa daraja-lari hisobidan kompensatsiya qilishga yo'l qo'ymas-likni (qonunchilikning o'zgarishiga bog'liq holda vujudga kelgan holatlardan tashqari) taqozo etadi. Baxtga qarshi, 2016 yilga qadar o'tgan davrda mamlakatimiz davlat byudjeti tizimida byudjetlarning mustaqilligi printsipiga rioya qilinmagan holatlar yuz berdi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi printsipining mazmuni shundan iboratki, unga muvofiq ravishda vakolatli organlar va davlat byudjeti mablag'larini oluvchilar byudjetlarni tuzish va ularning ijrosini ta'minlashda, avvalo, ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishda mablag'larning kamroq hajmidan yoki

ma’lum bir hajmdagi mablag’lardan foyda-langan holda yuqori natijaga erishish zarurligidan kelib chiqishi kerak.

Kassaning yagonaligi printsipi davlat byudjeti tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Yagona g’azna hisobva-rag’iga kiritilishi va ularning xarajatlarini to’lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishini anglatadi.

Davlat byudjeti jarayoni ishtirokchilarining javobgar-ligi printsipi davlat byudjeti jarayonining har bir ishtirokchisi davlat byudjeti jarayonining har bir bos-qichida o’z harakatlari uchun javobgar bo’lishidan iboratdir.

Davlat byudjeti tizimidagi ochiqlik printsipi ochiq matbuotda tasdiqlangan davlat byudjeti va uning ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni, albatta, e’lon qilinishini, davlat byudjeti ijrosi jarayonida ma’lumotlarning to’liq va to’g’ri berilishini, davlat hokimiyati qonunchilik organlari va mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlarining qarorlariga oid boshqa ma’lumotlarni olish imkoniyatining yaratilganligini, davlat byudjeti loyihasi bo’yicha qarorlarni ko’rib chiqish va qabul qilish tartiblarining (jumladan, davlat hokimiyati qonunchi-lik organi ichida yoki davlat hokimiyatining qonunchilik va ijroiya organlari o’rtasidagi qarama-qarshiliklarni ifodalovchi masalalar bo’yicha ham) jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun albatta, ochiq bo’lishini ko’zda tutadi. Bundan tashqari, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari ijrosi to’g’risidagi axborot Moliya vazir-ligining rasmiy veb-saytida ham joylashtirilishi va yangilanib borishi kerak.

Maxfiy moddalarni tasdiqlash, odatda, faqat respub-lika byudjeti tarkibida amalga oshiriladi.

Mamlakat davlat byudjeti tizimini boshqarish sohasida tegishli hokimiyat organlari alohida vakolatlarga egadir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat byudjeti tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat[86]:

- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari, shuningdek soliq va davlat byudjeti siyosa-tining asosiy yo’nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari, shuningdek soliq va davlat byudjeti siyosa-tining asosiy yo’nalishlari loyihalarini ko’rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O‘zbekiston Respub-likasi Hisob palatasiga yuboradi;

---

[86] “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi” 25 modda: T.: “Adolat”, 2014 y. - 9-b.

- byudjetnoma loyihasini ko’rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- byudjetnomani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majli-sining palatalariga taqdim etadi;
- davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni har chorakda ko’rib chiqadi;
- o’tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risi-dagi hisobotlarni tashqi audit o’tkazish hamda baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;
- Qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda moliya yili mobaynida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’ar-malari byudjetlari parametrlariga o’zgartirishlar kiritish to’g’risidagi takliflarni ko’rib chiqadi;
- O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo’shimcha manbalaridan foydalanish to’g’risida qarorlar qabul qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg’armasi mablag’laridan foydalanish to’g’risida qarorlar qabul qiladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq davlat byudjeti sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining davlat byudjeti sohasidagi vakolatlari quyidagilardan ibo-rat:[87]

- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari, shuningdek soliq va davlat byudjeti siyosa-tining asosiy yo’nalishlari loyihalari bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobot bo’yicha tashqi audit va baholashni amalga oshiradi hamda ular yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;

---

[87] “O‘zbekiston Respublikasining Byudjeti kodeksi” 26 modda: T.: “Adolat”, 2014 y. - 9-b.

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda bank-larning davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlari moddalarining maqsadli ijrosini boshlang'ich ma'lumotlar bo'yicha nazorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimlari va resurslariga kirish imkoni-yatiga ega bo'ladi;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromad qismining ijrosi yuzasidan moni-toring o'tkazadi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshi-radi.
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qonun hujjat-lariga muvofiq davlat byudjeti sohasida boshqa vakolat-larni ham amalga oshirishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining davlat byudjeti sohasi-dagi vakolatlari esa quyidagilardan iboratdir[88]:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimno-masiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shahar-lar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq davlat byudjeti sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va joylardagi davlat hokimiyat organlari ham davlat byudjeti tizimini boshqarish sohasida bir necha vakolatlarga ega. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi

---

[88] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 27 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari uchun bu borada quyidagi vako-latlar xosdir[89]:

- tegishli davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiq-lashtirib boradi;
- davlat byudjeti so'rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tuman-lar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpo-g'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;
- Moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjet-lari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shahar-lar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;
- Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- davlat byudjeti mablag'larining maqsadli sarfla-nishi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti-ning, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;
- qonun hujjatlarida belgilanadigan alohida soliqlar bo'yicha belgilangan stavkalarga pasaytiruvchi va oshib boruvchi

[89] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 28 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

koeffitsientlarni kiritish to'g'risida hududlarning faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini inobatga olgan holda qarorlar qabul qiladi.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti-ning, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokim-lari qonun hujjatlariga muvofiq davlat byudjeti sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'z navbatida, mamlakat davlat byudjeti tizimini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi muhim rol o'ynab, u bu sohada quyidagi vakolatlarga egadir[90]:

- Davlat byudjeti hamda soliq va davlat byudjeti siyo-satining asosiy yo'nalishlari loyihalarini tayyor-laydi;
- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyiha-larini ko'rib chiqadi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byud-jetnoma loyihasini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari prognozini har chorakda etkazadi;
- davlat byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organ-larga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini etkazadi;
- davlat byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;
- O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining xara-jatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o'zgarti-rishlar kiritadi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjet-lari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;

---

[90] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 29 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

- Moliya yili mobaynida Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog’iston Respublikasi byud-jeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjet-larining tasdiqlangan parametrlariga o’zgartirishlar kiritish to’g’risidagi takliflarini ko’rib chiqadi;
- soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni ularning man-balari kesimida to’liq va o’z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlarining mablag’laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotlar, shuningdek davlat byudjeti tashkilotlari hamda davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjet-larining tegishli davrdagi ijrosi to’g’risida hisobot taqdim etadi;
- byudjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;
- Davlat byudjetini ijro etish jarayonida unga tushum-larni ko’paytirish bo’yicha qo’shimcha zaxiralarni aniq-laydi;
- davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning xarajatlarini maqbullash-tirishni amalga oshiradi;
- davlat byudjeti ssudalarini beradi;
- davlat tomonidan mablag’lar jalb qilish bo’yicha O‘zbe-kiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini ro’yxatdan o’tkazadi;
- davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlarining kassa ijro-sini yuritadi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlarining Yagona g’azna hisobvarag’idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag’larini boshqaradi;
- davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mab-lag’lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmat-larni) etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartno-malarini ro’yxatdan o’tkazadi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlarida mablag’lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig’iga ko’ra to’lovlarni amalga oshiradi;

- davlat byudjeti tizimi byudjetlari ijrosining davlat byudjeti hisobini yuritadi va davlat byudjeti hisobotini qabul qiladi;
- davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatadi, O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;
- O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik ko'maklashish mablag'lari hisobini yuritadi;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balansliligiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi;
- o'z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq davlat byudjeti sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

19.2. Davlat byudjeti tuzilmasi va tasnifi(klassifikatsiyasi)

Davlat byudjetini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar majmui (uning ichki bo'linmalari tarkibi va tuzilmasi, ulardan foydalanish sohalarining funk-tsional cheklanganligi, o'zaro bo'ysunuvchanligi, o'zaro aloqadorligi va ta'sirchanligi hamda huquqiy tomon-larini inobatga olgan holda) davlat byudjeti tuzilmasi deyiladi. Har bir mamlakatning davlat byudjeti tuzilmasi uning milliy-davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti:

- Respublika byudjetini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari ham jamlanadi.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetini hamda shu respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi. Viloyatlar byudjeti esa viloyat byudjetidan, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlaridan iboratdir. Shuningdek, tumanlarga bo'linadigan shaharlarning byudjeti shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini o'z ichiga oladi. Va nihoyat, tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning byudjeti tuman byudjetidan va tuman bo'ysu-nuvidagi shaharlar byudjetlaridan tarkib topadi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari o’zlarining manbalari, ma’lum maqsadlarga mo’ljallan-ganligi va boshqa belgilariga ko’ra xilma-xildir. Bir vaqtning o’zida ular umumiy belgilarga ham ega. Butun mamlakat miqyosida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining to’g’ri rejalashtirilishi va hisobga olinishini ta’minlash uchun ular tasniflanadi (klassi-fikatsiya qilinadi).

Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlari, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlarga ajratishda yoki guruhlashda davlat byudjeti klassifikatsiyasi muhim rol o’ynaydi. Undan davlat byudjetini tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish va ijro etish maqsadida davlat byudjeti ma’lumotlarini yagona bir tizimga keltirish uchun foyda-laniladi va davlat byudjeti klassifikatsiyasi davlat byudjeti ma’lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma’lumotlari bilan taqqoslanishini ta’minlaydi. Shu ma’noda, **ma’lum bir tizimga kelti-rilgan va o’rnatilgan tartibda kod (shifr)lashtirilgan davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining bir xil belgilari bo’yicha ilmiy asoslangan iqtisodiy guruhlanishidavlat byudjeti tasnifi (klassifika-tsiyasi) deyiladi.**

Odatda, davlat byudjeti klassifikatsiyasining asosida daromadlar bo’yicha ularning manbalari, xarajatlar bo’yicha esa mablag’larning maqsadli sarflanish yo’nalishlari yotadi.

Davlat byudjeti klassifikatsiyasi o’zining keng yo’nalishi bilan ajralib turadi. Uning bo’linmalariga qat’iy rioya etgan holda davlat byudjeti rejalashtirilishi amalga oshiriladi, davlat byudjeti tashkilotlarining individual va umumiy hamda yig’ma tarmoq smetalari tuziladi, mahalliy, respublika va davlat byudjetining ishlab chiqilishi amalga oshiriladi.

Davlat byudjetiningmamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalari, xo’jalik yurituvchi sub’yektlar va ularning yuqori tashkilotlarini moliyaviy rejalari bilan bog’liqligini ta’minlashda, bir turdagi davlat byudjeti tashkilotlarining xarajatlari va alohida ma’muriy-hududiy birliklarning byudjetlarini taqqoslashda, ij-timoiy-madaniy xarakterdagi u yoki bu ehtiyojlarning qondirilish darajasini aniqlashda davlat byudjeti klassi-fikatsiyasi muhim rol o’ynaydi.

Davlat byudjeti ijrosi jarayonida ham davlat byudjeti klassifikatsiyasi (tasnifi) alohida ahamiyatga ega. Tasdiq-langan davlat byudjeti va davlat byudjeti tashkilot-larining xarajatlar smetasida ko’zda tuzilgan tadbirlar-ning maqsadli moliyalashtirilishini ta’min-lashda u zaruriy shart hisoblanadi. Davlat byudjeti klassifi-katsiyasi (tasnifi) moliya organlarida, davlat byudjeti

tash-kilotlarida va boshqa muassasalarda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining sintetik va analitik hisobi yagonaligining asosini tashkil etadi. U O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobotni tayyorlash uchun ham zarurdir.

Davlat byudjeti tasnifi davlat byudjeti tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruh-lashdan iborat bo’lib, davlat byudjeti tizimi byudjet-larini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlash-tirish uchun foydalaniladi. Davlat byudjeti tasnifi xalqaro tasnif tizimlariga muvofiq ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tas-diqlanadi[91].

Davlat byudjeti tasnifining asosiy printsiplari to’liqlik, yagonalik va o’zaro muvofiqlikdan iboratdir[92].

Davlat byudjeti tasnifining to’liqlik printsipi dav-lat byudjeti jarayonining barcha ishtirokchilari qamrab olinishini nazarda tutadi.

Davlat byudjeti tasnifining yagonalik printsipi dav-lat byudjeti jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan yagona davlat byudjeti tasnifi qo’llanilishini anglatadi.

Davlat byudjeti tasnifining o’zaro muvofiqligi printsipi davlat byudjeti tasnifining kodlari bir vaqtning o’zida davlat byudjeti jarayonining turli xil operatsiyalarini hisobga olish uchun qo’llanilmasligini anglatadi.

Davlat byudjeti klassifikatsiyasi (tasnifi)da belgi-langan daromadlar va xarajatlarning iqtisodiy guruhlanishi byudjetni tuzish va ijro etish hamda uning resurslaridan foydalanishda moliya-davlat byudjeti intizomiga rioya etilishini nazorat qilishga imkon beradi.

Davlat byudjeti klassifikatsiyasi (tasnifi) tashkiliy ahamiyatga ham egadirki, bu uning bo’linmalariga muvofiq ravishda byudjetni tuzish va ijrosini ta’minlash borasida katta ishlarning amalga oshirilishi orqali namoyon bo’ladi. Bu yana shu narsa orqali ifodalanadiki, davlat byudjeti tasdiqlanganidan so’ng barcha xo’jalik yurituvchi sub’yektlar va ularning yuqori organlari davlat byudjeti daromadlari tushumining to’liqligini ta’minlashga va tasdiqlangan byudjetdagi klassifika-tsiyaning bo’linmalariga muvofiq ravishda xarajatlarni amalga oshirishga majburdirlar. Demak, davlat byudjeti klassifikatsiyasining tashkiliy ahamiyati byudjetni rejalashtirish va uning ijrosini ta’minlashga bir xilda tegishlidir.

---

[91] “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi” 18 modda: T.: “Adolat”, 2014 y. - 9-b.
[92] “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi” 20 modda: T.: “Adolat”, 2014 y. - 9-b.

Tasdiqlangan davlat byudjeti qonun kuchiga ega bo'lgan-ligi va uning ko'rsatkichlarini barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar aniq va to'liq bajarishga majbur bo'lganligi uchun davlat byudjeti klassifikatsiyasi huquqiy ahamiyat ham kasb etadi.

Davlat byudjeti klassifikatsiyasi (tasnifi) o'z ichiga quyidagilarni oladi[93]:

- davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifini;
- davlat byudjeti tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifini;
- Davlat byudjeti defitsiti (taqchilligi)ni qoplash manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi quyidagilardan iborat[94]:

- davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;
- daromadlarning turlari;
- tashkiliy tasnif;
- hududiy tasnif.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi kelib tushayotgan daromadlarning tegishli mablag'lar manbalariga va ushbu byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Daromadlarning turi bo'lim, paragraf va daromad tipidan iboratdir. Daromadlar bo'limi daromad-larni ularni olish manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi. Daromadlar paragrafi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlarni ularni undirish bazasi bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi. Daromad tipi davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadining aniq turidan iborat bo'ladi. Tashkiliy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi. Hududiy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identi-fikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifi davlat byudjeti tizimi byudjetlari xarajatlarini kodlashdan iborat bo'ladi va ularning yo'nalishini aks ettiradi. Davlat byudjeti tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifining tuzilmasi quyidagilardan iborat[95]:

---

[93] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 19 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.
[94] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 21 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.
[95] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 22 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

- davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag’larining manbalari va darajalari tasnifi;
- vazifa jihatidan tasnif;
- tashkiliy tasnif;
- iqtisodiy tasnif;
- hududiy tasnif.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag’larining manbalari va darajalari tasnifi amalga oshirilayotgan xarajatlarning tegishli mablag’lar manbalari va byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo’llaniladi. Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi davlat funksiyalarini bajarish uchun mablag’lar yo’nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdir. Xarajatlarning tashkiliy tasnifi davlat byudjeti tizimi byudjetlarining mablag’larini taqsimlovchilar bo’yicha kodlashdan iborat bo’ladi. Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo’nalishiga ko’ra kodlashdan iborat bo’ladi. Hududiy tasnif davlat byudjeti tashkilotlarining va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning tegishli ma’muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo’llaniladi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo’yicha xarajatlari quyidagi xarajatlar guruhlarini o’z ichiga oladi[96]:

birinchi guruh — ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to’lovlari va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam;

ikkinchi guruh — ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar;

uchinchi guruh — kapital qo’yilmalar (rivojlanish davlat dasturlarida nazarda tutilgan aniq yo’naltirilgan ro’yxatlarga muvofiq);

to’rtinchi guruh — boshqa xarajatlar.

Xarajatlar guruhlari bo’yicha aniq moddalar davlat byudjeti tasnifiga muvofiq belgilanadi.

Davlat byudjeti defitsiti (taqchilligi) ni moliyalashtirish manbalari klassifikatsiyasi (tasnifi) defitsiti (taqchilligi) ni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo’yicha guruhlashdan iborat bo’ladi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlat byudjeti tizimining mazmunini tushuntirib bering.
- Mamlakatning davlat byudjeti tizimi qanday omil-larga bog’liq bo’ladi?

96

- U yoki bu mamlakatning davlat byudjeti tizimi necha bo’g’inli bo’lishi mumkin?
- Davlat byudjeti tizimi qanday printsiplarga tayanadi?
- Davlat byudjeti tizimining yagonaligi printsipini izohlab bering.
- Davlat byudjeti tizimining darajalari o’rtasida daromadlar va xarajatlarning chegaralanganligi printsi-pining mazmuni nimada?
- Byudjetlarning mustaqilligi printsipining mazmuni nimada?
- Davlatning byudjetdan tashqari maxsus fondlari byudjetlari, byudjetlarning daromadlar va xarajat-larining to’liq aks etishi printsipi nimalarni anglatadi?
- Byudjetlarning balansliligi printsipini tushuntirib bering.
- Davlat byudjeti mablag’laridan foydalanishning samarador-ligi va tejamliligi printsipining mazmunini aytib bering.
- Davlat byudjeti xarajatlarini qoplashning umumiy-ligi printsipi nimani anglatadi?
- Davlat byudjeti tizimidagi oshkoralik printsipining ma’nosini aytib bering.
- Davlat byudjetininghaqqoniyligi printsipining ma’nosi nimada?
- Davlat byudjeti mablag’larining manzilliligi va maqsadli xarakterdaligi printsipi nimani nazarda tutadi?
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat byudjeti tizimini boshqarish sohasidagi vakolat-larini aytib bering.
- Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlariga davlat byudjeti tizimini boshqarish sohasida qanday vakolatlar xos?
- Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimiyatlar davlat byudjeti tizimini boshqarish sohasida qanday vakolatlarga ega?
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat byudjeti tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlarining tarkibiga nimalar kiradi?
- Davlat byudjeti tuzilmasi tushunchasining ma’nosi nimada?
- O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti tarkibi qanday byudjetlardan tashkil topadi?
- O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti tarkibida davlatning byudjetdan tashqari maxsus maqsadli jamg’armalari jamlanadimi?
- Qoraqalpog’iston Respublikasining byudjeti qanday byudjetlardan tarkib topgan?

- Viloyatlar byudjetining tarkibiga qanday byudjetlar kiradi?
- Tumanlarga bo’linadigan shaharlarning byudjeti qanday byudjetlardan tarkib topadi?
- O‘ziga bo’ysunadigan shaharlari bo’lgan tumanning byudjeti qanday byudjetlardan iborat?
- Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini tasniflash (klassifikatsiya qilish)dan maqsad nima?
- Davlat byudjeti klassifikatsiyasining mamunini tushuntirib bering.
- Davlat byudjeti klassifikatsiyasining asosida nimalar yotadi?
- Davlat byudjeti klassifikatsiyasining ahamiyatini aytib bering.
- Hozirgi paytdagi davlat byudjeti klassifikatsiya-sining tarkibini aytib bering.
- Davlat byudjeti daromadlarining klassifikatsiyasi nimalardan iborat?
- Davlat byudjeti xarajatlarining vazifasi, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan klassifikatsiyasini aytib bering.
- Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish manba-lari klassifikatsiyasi qanday guruhlardan tashkil topadi?
- Davlat byudjeti klassifikatsiyasi kim tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi?

20-bob. Davlat byudjeti jarayoni

20.1. Davlat byudjeti jarayoni: ta’rifi, bosqichlari, vazifalari, ishtirokchilari va printsiplari

Davlat byudjeti tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, davlat byudjeti tizimi byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o’rtasidagi o’zaro munosa-batlarga davlat byudjeti jarayoni deyiladi[97]

Uning mazmuni mamlakatning davlat va davlat byudjeti tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning davlat byudjeti huquqlari talablari bilan belgilanadi. Shuning-dek, davlat byudjeti jarayonining mazmunini belgilashda byudjetni ishlab chiqish, tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat byudjetini tuzishning nazariy va uslubiy masalalari muhim rol o’ynaydi.

Davlat byudjeti jarayoni, odatda, davlat byudjeti faoliyatining quyidagi to’rt bosqichini o’z ichiga oladi:

- davlat byudjeti loyihasini tuzish;
- byudjetni muhokama qilish va tasdiqlash;
- byudjetni ijro etish;
- davlat byudjetiningijrosi to’g’risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Davlat byudjeti jarayonining davomiyligi yuqoridagi to’rt bosqichning barchasidan iborat bo’lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqish, uni muhokama qilish va tasdiqlashga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabr-gacha) byudjetni ijro etishga (davlat byudjeti davri) va besh oyi yaqini davlat byudjetiningijrosi to’g’risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to’g’ri keladi.

Davlat byudjeti jarayonining oldiga quyidagi muhim vazifalar qo’yiladi:

- alohida soliqlar va boshqa to’lovlar bo’yicha, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bashorat-lari va maqsadli dasturlariga muvofiq davlat byudjeti daromadlari va ularning umumiy hajmini aniqlash;
- maqsadga mo’ljallanganligi bo’yicha, shuningdek, byud-jetda ko’zda tutilgan umumdavlat ahamiyatiga ega bo’lgan barcha tadbirlarni

[97] “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi” 3 modda: T.: “Adolat”, 2014 y. - 9-b.

uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojini inobatga olgan holda davlat byudjeti xarajatlari va ularning umumiy hajmini belgilash (o'rnatish);

- iqtisodiyotdagi inflyatsion tendentsiyalar va pul-kredit tanazzulini bartaraf etishga, milliy pul birli-gining barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan moliya-viy baqarorlashtirishning umumiy dasturini davlat byud-jeti bilan muvofiqlashtirish;
- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan manbalar hisobidan davlat byudjeti defitsitiga barham berish yoki uni qisqartirish;
- muvozanatlashtirilgan bozor sari keskin taraqqiyotga erishish maqsadida barcha moddiy va moliyaviy rezervlarni qidirib topish;
- iqtisodiy mintaqalar, xo'jalik sohalari va byudjet-lar o'rtasida davlat daromadlarining manbalarini qayta taqsimlash yo'li bilan turli darajadagi byudjetlarni balanslashtirish maqsadida byudjetli tartibga solishni amalga oshirish;
- keng ko'lamli barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning balansliligi va proportsionalligini ta'minlashga imkon beradigan istiqbolli byudjetni rejalashtirishning rolini oshirish;
- soliq majburiyatlarini bajarishda alohida fuqaro-lar daromadlari va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyatlari ustidan nazoratni ta'minlash;
- zamonaviy elektron hisoblash texnikalaridan keng foydalanish asosida va moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi orqali byudjetlarni tuzish va ijro etish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqalar.

Umumiy tarzda, davlat byudjeti jarayonining ishtirok-chilari quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakat Prezidenti va qonunchilik (vakillik) hokimiyat organlari;
- ijroiya hokimiyat organlari (mamlakat sub'yektlarining yuqori mansabdor shaxslari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari rahbarlari, moliya organlari, davlat byudjeti daromadlarini undirish bilan shug'ullanadigan organlar va boshqa vakolatli organlar);
- pul-kredit tizimini tartibga solish organlari;
- davlat va mahalliy nazorat organlari;
- davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari;
- davlat byudjeti mablag'larini taqsimlovchilar va boshqalar.

Davlat byudjeti jarayonini tashkil etishda quyidagi printsiplarga rioya qilinadi:

- yagonalik;

- mustaqillik;
- balans usuli.

Yagonalik printsipi bu yerda yagona huquqiy baza, yagona davlat byudjeti klassifikatsiyasi, mamlakatning konsolida-tsiyalashtirilgan byudjetini tuzishda zarur bo'ladigan statistik va davlat byudjeti ma'lumotlari uchun davlat byudjeti hujjatlari shakllarining va pul tizimining yagonaligi orqali ifodalanadi.

Mustaqillik printsipi davlat byudjeti jarayonini amalga oshirishda uning har bir ishtirokchisi uchun mustaqil bo'lish imkoni berilganligi bilan belgilanadi. Unga muvofiq, bu jarayonning ishtirokchilari daromadlarning o'z va tartibga soluvchi manbalari hamda ulardan foydalanishning yo'nalishlarini mustaqil ravishda aniqlash huquqiga egadirlar.

Balans usuli printsipi davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasida to'g'ri nisbatlar o'rnatishda gavda-lanadi. Unga rioya qilinishi davlat byudjetining barqa-rorligini va xo'jalik sohalari o'rtasida mablag'larni taqsimlashda zaruriy nisbatlarni ta'minlashi kerak. Bu metodning muhim sharti davlat byudjeti xarajatlarining daromadlariga muvofiqligi va moliyaviy rezervlarni yaratishidir. Bu printsip moliyaviy siyosatning bosh maqsadi hisoblanadi.

20.2. Davlat byudjeti loyihasini tuzish

Davlat byudjeti loyihasini tuzish davlat byudjeti jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda quyidagi masalalar yechiladi yoki ularga aniqlik kiritiladi:

- davlat byudjetininghajmi;
- navbatdagi (kelgusi) yil uchun soliq va pul-kredit siyosati;
- davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va davlat byudjeti defitsitini qoplash usullari;
- daromadlarni davlat byudjeti tizimining bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash.
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari va kelgusi moliya yili uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari asosida tuziladi.

Davlat byudjetining loyihasini tuzish bo'yicha ishlar yangi davlat byudjeti yilining boshlanishidan, masalan, GFR da – 6 oy, Yaponiyada – 8 oy, Fransiyada – 14 oy, AQShda – 18 oy, O'zbekistonda – 7 oy oldin boshlanadi. Uning loyihasini tuzish ijroiya

hokimiyat organlari, odatda, Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzish uchun mas'ul organ-lar quyidagilardir[98]:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahal-liy davlat hokimiyati organlari, byudjetlar loyihalarini tuzish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan so'ralgan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishga taal-luqli qismi bo'yicha.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organ-lar davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyi-halarini tuzish uchun mas'ul organlardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbe-kiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga bir moliya yilidan ortiq muddatga tuzilgan Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini qabul qilish to'g'risida taklif kiritishga haqli.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'arma-lari byudjetlarining loyihasini tuzish[99]:

- davlat byudjeti so'rovini tuzish tartibini yuborishni;
- davlat byudjeti so'rovlarini hamda asosiy makroiq-tisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni;
- davlat byudjeti so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;
- byudjetnomani ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ba'zi bir mamlakatlarda davlat byudjeti loyihasini tuzish davlat ijroiya hokimiyati boshlig'ining kelgusi yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning umumiy yo'nalishlari muammolari bo'yicha chiqishidan (ma'ruzasidan) boshlanadi. Masalan, AQShda Prezident Amerika xalqiga Byudjetnoma bilan murojaat qilib, unda moliya-pul siyosatining asosiy vazifalari haqida axborot beriladi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)da quyidagi maqsadlar kun tartibiga qo'yiladi:

- iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda byudjet-ning faol ta'sirchanligini ta'minlash;
- moliyaviy va boshqa resurslarning hukumat iqtisodiy va ijtimoiy dastur-bashoratlari bilan muvofiqligiga erishish;

---

[98] "O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi" 84 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.
[99] "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti kodeksi" 83 modda: T.: "Adolat", 2014 y. - 9-b.

- mablag’larni sarflashda zaruriy proportsiyalar va ustuvorliklar o’rnatish;
- davlat byudjeti defitsitini qoplash uchun manbalarni qidirib topish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili **15 aprelga qadar** kelgusi davr uchun davlat byudjeti so’rovini tuzish tartibini:

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihasini tayyorlash uchun — davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilarga;

Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun — Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi, O‘zbekiston Respub-likasi Davlat bojxona qo’mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo’mitalari hamda idoralardan Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo’yicha takliflar so’raydi.

Davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilar, Qora-qalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg’arma-larini taqsimlovchi organlar kelgusi davr uchun davlat byudjeti so’rovini tuzish tartibini olgandan so’ng uch ish kuni ichida tegishli davlat byudjeti so’rovlarini tuzish to’g’risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Moliya vazirligi, vilo-yatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqar-malari qarorlar qabul qilinganidan so’ng **uch ish kuni** ichida kelgusi davr uchun davlat byudjeti so’rovini tuzish tarti-bini:

tegishli byudjetlar loyihalarini tayyorlash uchun — tuman va shahar hokimlariga;

davlat byudjeti so’rovlarini tuzish uchun — Qora-qalpog’iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari hamda davlat byudjeti mablag’lari oluvchi-larga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun davlat byudjeti so’rovini tuzish tartibini olgandan so’ng **uch ish kuni ichida** tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish to’g’risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo’limlari qarorlar qabul qilinganidan so’ng **uch ish kuni ichida** kelgusi davr

uchun davlat byudjeti so’rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalash-tiriladigan davlat byudjeti tashkilotlariga va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarga davlat byudjeti so’rov-larini tuzish uchun yuboradi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarini tuzish jarayonida davlat byudjeti so’rovining juda katta ahamiyati bor.

Davlat byudjeti so’rovi o’z tarkibiga:

- davlat byudjeti tashkilotining, davlat byudjeti mablag’lari oluvchining va davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchining davlat byudjeti tizimi byudjetlari mablag’laridan foydalanish bilan bog’liq faoliyatining miqdor va sifat ko’rsatkichlarini o’z ichiga oluvchi, o’tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to’g’risidagi tahliliy hisobotni;

- xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo’ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko’rsatilgan reestrini;
- davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturini;
- davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog’liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun davlat byudjeti buyurtmasini o’z ichiga oladi.

Tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiri-ladigan davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilar bo’yicha davlat byudjeti so’rovini ko’rib chiqish tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo’limlari tomonidan, Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetla-ridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalash-tiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilar bo’yicha, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalari bo’yicha davlat byudjeti so’rovini ko’rib chiqish Qoraqalpog’iston Respub-likasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan, O‘zbe-kiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalash-tiriladigan tasarrufdagi davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilar bo’yicha davlat byudjeti so’rovlarini ko’rib chiqish esa davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilar tomonidan amalga oshiri-ladi. Davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog’iston Respublikasi

byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalari, shuning-dek davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari loyihalari bo’yicha davlat byudjeti so’rovlarini ko’rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiri-ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo’mitalari hamda idoralarning Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo’yicha takliflarini ko’rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti so’rovlari ko’rib chiqilayotganda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlat byudjeti so’rovlari olinganidan keyin **o’n ish kuni ichida** quyidagilarga yozma bildirishlar yuborish huquqi beriladi:

- davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg’armalarini taqsimlovchi organlarga — amalga oshirish uchun asoslar mavjud bo’lmagan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi past bo’lgan, davlat byudjeti daromadlarining tegishli o’sishi bilan ta’minlanmagan xarajatlarni kamaytirish to’g’risida, shuningdek davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilar faoliyatining samaradorlik ko’rsatkichlari pasaygan hollarda xarajatlarni maqbullashtirish haqida;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg’armalarini taqsimlovchi organlarga — tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining prognozlari asossiz ravishda pasaytirilgan yoki oshirilgan hollarda, mazkur prognozlarga tuzatish kiritish to’g’risida.

Davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilar, Qora-qalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg’ar-malarini taqsimlovchi organlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma bildirishlarini olgandan keyin **uch ish kuni** ichida mazkur yozma bildirishlarda ko’rsatilgan fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda yangilangan davlat byudjeti so’rovlarini taqdim etishi shart.

Kelgusi davr uchun davlat byudjeti so’rovlari:

- Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan

moliyalashtiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag'lari oluvchilar tomonidan tegishli moliya organlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tasarrufdagi davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag'lari oluvchilar tomonidan davlat byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga — joriy yilning **1 iyunigacha**;

- davlat byudjeti mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — joriy yilning **1 iyuligacha**;
- davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — joriy yilning **1 iyuligacha** taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadla-rining prognozi bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respub-likasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg'ar-malarini taqsimlovchi organlarga — **joriy yilning 15 iyunigacha** taqdim etadi.

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respub-likasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining hamda davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari:

- tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokim-liklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning **25 iyunidan kechiktirmay**;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning **1 iyulidan kechiktirmay** taqdim etiladi.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan:

Davlat byudjeti daromadlari qismi bo'yicha Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq inspektsiyalari, hokimlik-larning bo'limlari va davlat boshqaruvi organlarining boshqa tuman hamda shahar bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirish-ning

makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida, davlat byudjeti xarajatlari qismi bo’yicha tumanlar va shaharlar byudjet-laridan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti tashkilot-lari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning davlat byudjeti so’rovlari asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining loyihalari Qoraqalpog’iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan davlat byudjetiningdaromadlari qismi bo’yicha Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq boshqarmalari va hokimliklarning boshqarmalari, Qoraqalpog’iston Respubli-kasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlarining bo’linmalari tomonidan ma’muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida, davlat byudjetiningxarajatlari qismi bo’yicha Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan, Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning davlat byudjeti so’rovlari hamda tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari, shuningdek Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiri-ladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo’l qo’yilmaydi.

Davlat byudjetining loyihasini ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan:

- makroiqtisodiy ko’rsatkichlar prognozi;
- daromadlarning tashkil topish manbalari bo’yicha Davlat byudjeti daromadlari prognozi;
- davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilarning davlat byudjeti so’rovlari va O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan ayrim tadbirlar uchun xarajatlar hajmining prognozi;

- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari loyihalari asosida ishlab chiqiladi.

Davlat byudjetining loyihasida xarajatlar daromad-larning prognoz qilinayotgan hajmidan kelib chiqib Davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori hisobga olingan, uni qoplash manbalari belgilangan holda nazarda tutiladi.

Davlat byudjetining loyihasi:

- Davlat byudjetining daromadlar manbalari bo’yicha daromadlari va yo’nalishlar bo’yicha xarajatlari progno-zidan;
- Davlat byudjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni qoplash manbalaridan tarkib topadi.
- Davlat maqsadli jamg’armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining loyihalari tushumlar manbalari bo’yicha daromadlar va yo’nalishlar bo’yicha xarajatlar prognozidan tarkib topadi.

Byudjetnoma — erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo’nalishlarini nazarda tuta-digan hujjat bo’lib, ushbu yo’nalishlar asosida Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjet-larining loyihalari shakllantiriladi.

Byudjetnoma o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o’tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosini;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’ar-malari byudjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foyda-lanilgan asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar prognozini;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosini;
- soliq va davlat byudjeti siyosatining asosiy yo’na-lishlari loyihasini;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’ar-malari byudjetlarining loyihasini;
- davlat qarzining holati to’g’risidagi ma’lumotlarni;
- soliq va davlat byudjeti siyosatining asosiy yo’na-lishlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xatini

Byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazir-ligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masiga joriy

yilning **15 sentyabriga qadar,** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun joriy yilning **20 sentyabriga qadar** kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari, shuningdek soliq va davlat byudjeti siyosatining asosiy yo’nalishlari loyihalari bo’yicha **ikki haftalik muddatda** xulosa taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga — O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning **15 oktyabridan** kechiktirmay kiritiladi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzishda:

- mamlakatning istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishi;
- inflyatsiya darajasi;
- aholining bandlik darajasi;
- ijtimoiy qo’llab-quvvatlashdan foydalanayotgan aholi soni hisobga olinadi.

Shuningdek, davlat byudjeti loyihasini tuzishda quyi-dagi turli usullardan foydalaniladi:

- iqtisodiy tahlil usuli – bu usuldan foydalangan holda o’tgan yilgi davlat byudjetiningbajarilish darajasi aniqlanadi va joriy yil uchun davlat byudjetining bajarilish darajasi o’rnatiladi, farqlarning sabablari aniqlanadi;
- normativ usul – bu usulning asosida davlat tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning birligiga to’g’ri keluvchi moliyaviy xarajatlarning normativi yotadi. Natural birlikni normativga ko’paytirib har bir bosh taqsimlovchi, taqsimlovchi va davlat byudjeti tashkiloti bo’yicha mablag’ xarajatlarining summasi aniqlanadi.
- ekstrapolyatsiya usuli – unga ko’ra oldingi yillarning hisobot ma’lumotlari dinamikasi asosida moliyaviy ko’rsatkichlar aniqlanadi va ular kelgusi yil uchun ekstrapolyatsiya qilinadi.

20.3. Davlat byudjetini muhokama qilish (ko’rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomo-nidan taqdim etilgan byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko’rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari navbatdagi yil uchun Davlat

byudjetini, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini hamda soliq va davlat byudjeti siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qiladi.

Odatda, davlat byudjetining loyihasi Oliy Majlisning har bir palatasida (oldin quyi palata bo'lgan Qonunchilik palatasida va yuqori palata sanalgan Senatda) alohida-alohida muhokama qilinadi.

Mamlakat parlamentining har bir palatasida davlat byudjeti masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus qo'mitalar va komissiyalar faoliyat ko'rsatadi. Ular davlat byudjeti loyihasining tegishli moddalarini atroflicha tahlil qiladilar, zarur hollarda o'zgartirishlarni taklif qiladilar va tushuntiruv xati bilan birgalikda davlat byudjetiningloyihasiga xulosa beradilar.

Oliy Majlisning har bir palatasida davlat byudjeti loyihasi qabul qilinganidan so'ng, har ikki palata o'rtasida davlat byudjeti loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lmasa, mamlakat parlamentining davlat byudjeti to'g'risidagi umumiy qarori qabul qilinadi. Agar palatalar o'rtasida davlat byudjeti loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar vujudga kelsa, har ikki palataning vakillaridan iborat bo'lgan muvofiqlashtiruvchi komissiya ularni bartaraf etishi kerak.

Parlamentda davlat byudjeti loyihasini muhokama etish (ko'rib chiqish) da davlat byudjeti tashabbuskorligining mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Davlat byudjeti tashabbuskorligi deyilganda parlament a'zolarining hukumat tomonidan taqdim etilgan davlat byudjeti loyihasiga nisbatan o'zgartirishlar kiritish huquqi nazarda tutiladi[100].

Davlat byudjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi. Ular kuchga kirishi uchun mazkur masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi.

Davlat byudjetiga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy mak-roiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qaroriga muvofiq, qaror qabul qilingandan so'ng **bir haftalik muddatda** tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan

---

[100] Masalan, ba'zi bir mamlakatlarda (Frantsiya, Buyuk Britaniya va boshqalarda) hukumat a'zosi bo'lmagan parlament a'zolari davlat byudjeti loyihasida ko'zda tutilgan xarajatlarni oshirish yoki yangi soliqlarni joriy etish bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega emas. Bunday tartibning o'rnatilganligi mamlakatdagi tez o'zgarib turuvchi iqtisodiy vaziyatga hukumatning ta'sir etish imkoniyatlarini kengaytiradi. AQShda esa Kongressning davlat byudjeti huquqi ancha kengdir. Parlament davlat byudjeti huquqining cheklanganligi yana shunda ko'rinadiki, qonunchilik hokimiyati byudjetni yaxlit hujjat sifatida qabul qilmasdan, faqat davlat byudjeti yo'llanmalari to'g'risida har yillik qarorlarni qabul qilish bilan cheklanadi. Bunda mamlakat prezidentiga ma'lum maqsadlarga mablag'larni sarf qilish vakolati yuqori chegarani belgilagan holda taqdim etiladi. Davlat byudjetiningayrim moddalari esa, umuman, ko'rib chiqilmasdan, avtomatik ravishda tasdiqlanadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, vilo-yatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining hajmlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qabul qilgan qarorlarga muvofiq Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari **o’n ish kuni** ichida:

- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetining, viloyat-lar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini, Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan subventsiyalar, o’tkazib beriladigan daromadlar dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlarning cheklangan miqdorlarini;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlariga umumdavlat soliq tushumlaridan ajratmalarning normativlarini. Umumdav-lat soliqlaridan Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarki-biga kiruvchi tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajrat-malarning normativlari ayni shu soliqlardan Qoraqal-pog’iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan normativlaridan ortiq bo’lmagan miqdorlarda belgilanadi;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjeti-ning, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg’armalari miqdorlarini;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlari aylanma kassa mablag’larining yo’l qo’yiladigan eng kam miqdorlarini tasdiqlash bo’yicha qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tegishincha Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini tasdiqlash to’g’risidagi qarorlariga muvofiq xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan tumanlar

va shaharlar byudjetlarining daromadlari hamda xarajatlari hajmlari **uch ish kuni ichida** qabul qilinadi. Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq tumanlar va shaharlar hokimlari tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari hamda xarajatlari hajmlarini tasdiqlash bo'yicha **uch ish kuni** ichida qarorlar qabul qiladi.

Davlat byudjeti qabul qilingandan so'ng uning mablag'lari byudjetdan mablag' oluvchilarga o'rnatilgan tartibga muvofiq ravishda etkazilishi kerak. Unga ko'ra O'zbekiston Respub-likasi Moliya vazirligi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek ularga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan beriladigan sub-ventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar hajmlarini Qoraqal-pog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari e'tiboriga — **uch ish kuni ichida**;
- davlat byudjeti mablag'larini taqsimlovchilar va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajm-larini ularning e'tiboriga — **o'n ish kuni ichida** etkazadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tasdiqlangandan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari:

- tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek ularga tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan beriladigan subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar hajmlarini tumanlar va shaharlar hokim-liklari e'tiboriga — **uch ish kuni** ichida;
- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiri-ladigan davlat byudjeti tashkilotlari hamda davlat byudjeti mablag'lari oluvchilar e'tiboriga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini — **bir haftalik** muddatda etkazadi.

Tumanlar va shaharlar byudjetlari tasdiqlanganidan keyin tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tumanlar va

shaharlar byudjetlaridan moliya-lashtiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari hamda davlat byudjeti mablag'lari oluvchilar e'tiboriga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning hajmlarini **bir haftalik muddatda** etkazadi.

20.4. Davlat byudjetini ijro etish

Byudjetni ijro etish uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdiqlagandan va mamlakat Prezidenti imzola-gandan so'ng boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyi ijroiya organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan muvofiqlashtirilgan holda davlat byudjeti ijrosi tartibini tashkil qiladi. Davlat byudjeti jarayonining bu bosqichi o'z ichiga davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismining bajari-lishini qamrab oladi.

Byudjetni ijro etishning eng muhim vazifasi ikkiyoqlamalik xarakterga ega bo'lib, u bir tomondan, soliqlar va boshqa to'lovlarning yoppasiga hamda har bir manbalar bo'yicha to'liq va o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashni, ikkinchi tomondan esa, davlat byudjeti tasdiqlangan yil uchun shu moliyaviy yil davomida byudjetda tasdiqlangan summalar chegarasida barcha tadbirlarni moliyalash-tirilishni taqozo etadi.

Davlat byudjeti ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag'larni sarflashda iqtisod rejimiga rioya qilinishidan, soliqli daromadlarning to'liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

Davlat byudjetining ijrosini ta'minlashda quyidagi masalalarning hal etilishiga jiddiy e'tibor bermoq lozim:

- davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish;
- davlat byudjeti mablag'larini sarflash;
- qabul qilingan davlat byudjeti bo'lmagan taqdirda byudjetni ijro etish;
- byudjetdan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish;
- davlat byudjetini belgilangan parametrlar doira-sida ijro etish;
- davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini bosh-qarish;
- davlat byudjetining kassa ijrosini ta'minlash;
- davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish.

Davlat byudjeti ijrosiga oid bevosita ishlar Moliya vazirligi va uning tegishli bo'linmalari hamda organlari, Davlat soliq qo'mitasi hamda

Davlat bojxona qo'mitasi va ularning joylardagi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, bu jarayonda Moliya vazirligining muhim tarkibiy tuzilmalaridan biri bo'lgan Davlat G'aznachilik tizimi va uning quyi organlari alohida rolni o'ynaydi[101].

Davlat g'aznachilik tizimi davlat byudjeti ijrosi bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

- davlat byudjeti daromadlarining tushishini qayd etish;
- davlat byudjeti majburiyatlarini, ya'ni davlat byud-jeti to'g'risidagi qonunga muvofiq ravishda vujudga keladigan ma'lum muddat davomida xarajatlarni sarflash majburiyatini qabul qilish muddatlari va hajmlarini tartibga solish;
- ajratilgan davlat byudjeti majburiyatlari limiti doirasida xarajatlarni amalga oshirish huquqiga ruxsat yozuvlarini sodir etish;
- byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan to'lovlarni amalga oshirish;
- va boshqa funksiyalar.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun davlat byudjeti tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjeti tizimi byudjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va oxirgi muddatlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining ijrosi g'aznachilik ijrosi asosida amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi - Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, davlat byudjeti tashkilot-larining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushum-larini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i bo'lib, unga davlat byudjeti tizimi byudjet-larining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladi hamda undan mazkur byudjetlarning xarajatlari to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda

---

[101] Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi alohida kursda o'rganilganligi uchun bu erda batafsil to'xtalish maqsadga muvofiq emas, deb topildi.

o’zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega. Yagona g’azna hisobvarag’i O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridan mablag’larning so’zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo’l qo’yilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlariga xizmat ko’rsatilganligi uchun haq olinmaydi.

Shaxsiy g’azna hisobvaraqlari quyidagi turlar bo’yicha ochiladi:

- davlat byudjeti tizimi byudjetlarining daraja-lari bo’yicha shaxsiy g’azna hisobvaraqlari;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’arma-larining daromadlari bo’yicha shaxsiy g’azna hisobvaraqlari;
- davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning shaxsiy g’azna hisobvaraqlari.

Shaxsiy g’azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat byudjeti tizimi byudjetlarining darajalari bo’yicha shaxsiy g’azna hisobvaraqlari:

- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti bo’yicha — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
- Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byud-jeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti bo’yicha — Qoraqalpog’iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;
- tumanlar va shaharlar byudjetlari bo’yicha — tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo’limlari tomonidan;
- davlat maqsadli jamg’armalarining byudjetlari bo’yicha — davlat maqsadli jamg’armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ochiladi.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’ar-malarining daromadlari bo’yicha shaxsiy g’azna hisob-varaqlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ochiladi.:

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning shaxsiy g’azna hisobvaraqlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan

moliyalash-tiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag'lari oluvchilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari va davlat byudjeti mablag'lari oluvchilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan ochiladi.

Davlat byudjeti ijrosi davomida barcha operatsiyalar va davlat byudjetining mablag'lari G'aznachilikning balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Bu hisobvaraqlari Markaziy bank va kredit tashkilotlarida joylashgan. G'aznachilik tizimi davlat byudjeti mablag'lariga nisbatan kassaning yagonaligi printsipini ta'minlaydi. Bu printsip barcha kelib tushuvchi daromadlar va davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish manbalaridan tushumlarni hamda ko'zda tutilgan barcha xarajatlarni amalga oshirishni davlat byudjetining yagona hisobvarag'idan amalga oshiri-lishini taqozo etadi. Mamlakat davlat byudjeti tizimi barcha darajalarining byudjetlari kassaning yagonaligi printsipi asosida ijro etilishi kerak.

Davlat byudjetiningdaromadlar bo'yicha ijro etilishi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- daromadlarni davlat byudjetining yagona hisobva-rag'iga o'tkazish va yozish;
- tasdiqlangan byudjetga muvofiq ravishda tartibga keltiruvchi (soluvchi) daromadlarni taqsimlash;
- byudjetga ortiqcha to'langan daromadlar summasini qaytarish;
- davlat byudjeti daromadlarini hisobga olish va daromadlar to'g'risida hisobot tuzish.

Xarajatlar bo'yicha byudjetlar ijrosi davlat byudje-tining yagona hisobvarag'ida davlat byudjeti mablag'larining haqiqatda mavjudligi doirasida hamda moliyalashtirish va sanktsiyalashtirishning (sanktsiya qo'llashning) ketma-ket majburiy amalga oshiriladigan tartiblariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosi davomida sanktsiyalashtirishning asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat byudjeti xarajatlari ro'yxatini tuzish va tasdiqlash;
- davlat byudjeti mablag'lari to'g'risidagi xabarnomani tasdiqlash va ularni davlat byudjeti mablag'larini oluvchilar hamda taqsimlovchilarga etkazish, shuningdek, davlat byudjeti tashkilotlari va

davlat byudjeti mablag’-larini taqsimlovchilarning daromadlar va xarajatlar smetasini tasdiqlash;

- davlat byudjeti majburiyatlarining limitlari to’g’risidagi xabarnomani tasdiqlash va uni davlat byudjeti mablag’larini oluvchilar va taqsimlovchilarga etkazish;
- davlat byudjeti mablag’larini oluvchilarning pulli majburiyatlarini qabul qilish.

Byudjetni xarajatlar bo’yicha ijro etish har bir bosh taqsimlovchi (quyi idoralar va davlat byudjeti mablag’-larini oluvchilar bo’yicha davlat byudjeti mablag’larini taqsimlash huquqiga ega bo’lgan davlat hokimiyati organlari) va davlat byudjeti mablag’larini taqsimlovchilar (idoraviy belgisi bo’yicha davlat byudjeti mablag’larini oluvchilarga davlat byudjeti mablag’larini taqsimlash huquqiga ega bo’lgan davlat hokimiyati organlari yoki mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlari) uchun G’aznachi-likning yagona hisob registrida ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlaridan foydalanish yordamida amalga oshiriladi.

G’aznachilik tizimi byudjetga kelib tushayotgan daro-madlar va davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish manbalaridan tushumlar bilan bog’liq bo’lgan barcha operatsiyalarni, shuningdek, davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirish va sanktsiyalashtirishni o’zining Bosh daftarida qayd etadi.

Davlat byudjeti daromadlari qismining ijrosini soliqlar va boshqa to’lovlarni byudjetga undirish bilan shug’ullanadigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasi hamda ularning quyi organlari ta’minlaydi.

Moliyaviy yil joriy yilning 31 dekabrida nihoyasiga etishi kerak. Davlat byudjeti majburiyatlarining limitlari ham o’zlarining harakatini 31 dekabrda to’xtatadi. Odatda, 25 dekabrdan so’ng pulli majburiyatlarning qabul qilinishiga yo’l qo’yilmasligi kerak. Davlat byudjetiningijrosiga oid foydalanilgan hisobvaraqlar 31 dekabrda yopilishi zarur.

Davlat byudjetining ijrosini ta’minlash jarayonida uning daromadlarini shakllantirish O‘zbekiston Respubli-kasining “Byudjeti kodeksi”, “Soliq kodeksi”, “Bojxona kodeksi” va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda hisoblab chiqarilgan, biroq joriy yilning 31 dekabrigacha davlat byudjetiga to’lanmagan daromadlar kelgusi yilda davlat byudjetiga o’tkazilishi kerak.

Tasdiqlangan davlat byudjeti mablag’lari doirasida va xarajatlar smetasiga muvofiq davlat byudjeti mablag’lari davlat byudjeti mablag’lari oluvchilar tomonidan moliya yili mobaynida bosqichma-

bosqich, tayinlash sertifikatini muayyan davrga va tegishli summaga rasmiylashtirish yo'li bilan:

- Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashki-lotlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan yoki mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha – tegishli moliya organlari tomonidan sarflanadi.

Tayinlash sertifikatlarini tayyorlash, rasmiylash-tirish, berish, ijro etish va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat byudjetining ijrosini ta'minlash jarayonida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va barcha daraja-dagi mahalliy byudjetlar hisobvaraqlaridagi davlat byudjeti mablag'lari qoldiqlari tasdiqlangan miqdorda aylanma kassa mablag'i me'yorini shakllantirishga yo'nal-tirilishi kerak. Qoldiqlarning aylanma kassa mabla-g'i me'yorining tasdiqlangan miqdoridan ortiq qismi Qoraqal-pog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining hamda tegishli hokimliklarning qaroriga ko'ra qo'shimcha xarajat-larni moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

Davlat byudjeti tashkilotlari hisobvaraqlaridagi davlat byudjeti mablag'lari qoldiqlari olib qo'yilmasligi va davlat byudjeti tashkilotlarining maxsus mablag'lari hisobvaraqlariga o'tkazilmog'i lozim (kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno). Davlat byudjeti tashkilotlarining maxsus mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi O'zbe-kiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ayrim vaziyatlarda turli sabablarga ko'ra yil boshlan-gunga qadar kelgusi moliya yili uchun davlat byudjeti qabul qilinmasligi mumkin. U holda davlat byudjeti qabul qilin-gunga qadar bo'lgan davrda davlat xarajatlari quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshirilishi mumkin:

- boshlangan moliya yilidagi xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat byudjeti mablag'larining avvalgi moliya yili so'nggi 3 oyining uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan miqdorlarda har oyda amalga oshirilmog'i lozim;
- avvalgi moliya yilida qilinmagan davlat byudjeti xarajatlari amalga oshirilmasligi kerak;

- avvalgi moliya yilida amalda bo’lgan soliqqa tortish va majburiy to’lovlarni to’lash tartibi davlat byudjeti qabul qilingunga qadar o’z kuchini yo’qotmasligi zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olib aytish mumkinki, davlat byudjetidan moliya yili boshlanganidan keyin qabul qilingan xarajatlarning umumiy summasi moliya yili davomida qabul qilingan davlat byudjeti ko’rsatkichlariga muvofiqlashtirilishi kerak.

Ba’zi hollarda davlat byudjetining ijrosi davomida byudjetdan ajratiladigan mablag’larga o’zgartirishlar kiritish zaruriyati paydo bo’lishi mumkin. Bunday vaziyatda byudjetdan ajratiladigan mablag’larga moliya yili mobaynida o’zgartirishlar kiritish bir davlat byudjeti mablag’larini oluvchi uchun davlat byudjeti mablag’larining kamaytirilishi boshqa davlat byudjeti mablag’larini oluvchisi uchun davlat byudjeti mablag’larining tegishli ravishda ko’paytirilishini nazarda tutgan tartibda:

1) tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag’lar hajmining 10% ga qadari:

- davlat byudjetida ko’rsatilgan davlat byudjeti mablag’larini oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;
- Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti mablag’larini oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti mablag’larini oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tegishli moliya organlarining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimlar tomonidan (kapital qo’yilmalar moddalari bundan mustasno);

2) tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag’lar hajmining 10% dan ortig’i:

- davlat byudjetida ko’rsatib o’tilgan davlat byudjeti mablag’larini oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan;
- Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti mablag’larini oluvchilar uchun – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanadigan tartibda O‘zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti mablag’larini oluvchilar uchun – tegishli moliya organlarining O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi hamda joylardagi tegishli hokimiyat vakillik organlari tomonidan (kapital qo’yilmalar moddalari bundan mustasno) amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti mablag’ini oluvchining so’roviga binoan moliya yili uchun unga nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag’lar ayrim moddalar bo’yicha (kapital qo’yilmalar moddalari bundan mustasno) byudjetdan ajratiladigan mablag’lar teng miqdorda kamaytirilgan va mazkur mablag’larni oluvchi uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag’larning umumiy hajmi saqlab qolingan holda dastlabki hajmining 10% ga qadar kamaytirilishi mum-kin. Bu holda byudjetdan ajratiladigan mablag’larga o’zgartirishlar:

- Respublika byudjetidan ajratiladigan davlat byudjeti mablag’lariga – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan ajratiladigan davlat byudjeti mablag’lariga – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan kiritiladi.

Davlat byudjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli, Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari, agar muayyan harakatlari davlat byudjeti taqchilligining qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori darajasidan oshib ketishiga olib keladigan bo’lsa, davlat byudjeti daromadlarini qisqartiruvchi yoki xarajatlarini oshiruvchi biror-bir harakat qilishga haqli emaslar. Shunga mos ravishda Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti hamda mahalliy byudjetlar qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida ayrim turlar bo’yicha davlat byudjeti daromadlarini qisqartirishga olib keluvchi Qoraqal-pog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organining qarori, agar unda boshqa turlar bo’yicha daromadlarni ko’paytirish va (yoki) davlat byudjeti xarajatlarining tegishli miqdorda qisqartirilishi kerak bo’lgan moddalar nazarda tutilgan taqdirdagina, qabul qilinishi va amalga kiritilishi mumkin.

Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida tegishli davlat byudjeti xarajatlari qisqartirilishiga va (yoki) daromadlari ko’payishiga olib keluvchi Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organining qarori qabul qilishda hosil bo’ladigan ortiqcha mablag’lar mazkur qaror qabul qilingan darajadagi byudjetga mablag’larni qayta taqsimlash uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda olib qo’yiladi.

Agar davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili davomida davlat byudjetidan olingan davlat byudjeti mablag’larini ko’paytirish (kamaytirish) to’g’risida qaror qabul qilinadigan bo’lsa, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi byudjetlar hajmiga o’zgarishlar kiritilishi mumkin. Xarajatlarni ko’paytirish yoki qisqartirish byud-jetlar o’rtasida o’zaro hisob-kitob qilish yo’li bilan amalga oshiriladi. O‘z navbatida, byudjetlar o’rtasida o’zaro hisob-kitob o’tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Soliqlar va davlat byudjeti to’lovlari intizomini mustahkamlash yuzasidan ko’rilgan chora-tadbirlar natijasida Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga tasdiqlangan ko’rsatkichlardan tashqari tushgan qo’shimcha daromadlar aylanma kassa mablag’i me’yori tasdiqlanganidan kam bo’lmagan miqdorda saqlanib qolgan taqdirda qabul qilingan byudjetdagidan tashqari xara-jatlarga yo’naltirilishi mumkin. Ushbu masalaga doir tegishli qarorlar Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimlar tomonidan qabul qilinadi.

Davlat byudjeti ijrosini ta’minlashda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat byudjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi byudjetlarning qonun hujjatlarida belgilangan ko’rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir. Shuning uchun ham davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar yil mobaynida davlat daromadlari ancha qisqargan va davlat byudjetining oldindan belgilangan taqchilligi qonun hujjatlarida belgilangan chegara miqdoridan oshadigan bo’lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat byudjetining xarajatlarini alohida moddalar bo’yicha qisqartirish to’g’risida qonun

hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda O‘zbekiston Res-publikasi Oliy Majlisiga taklif kiritadi.

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o’rtasidagi vaqtinchalik tafovutni to’g’rilash maqsadida moliya yili davomida ularga tegishli byudjetlardan davlat byudjeti ssudalari ajratilishi mumkin. Davlat byudjeti ssudalarini berishning eng kech muddati va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Shuningdek, turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o’rtasidagi vaqtinchalik farqni moliya yili davomida aylanma kassa mablag’i me’yori hisobiga, uni moliya yili oxirigacha tasdiqlangan hajmga qadar tiklagan holda, davlat byudjeti mablag’larining foydalanilmagan qoldiqlari hisobiga va qonun huj-jatlarida belgilangan tartibda davlatning qisqa muddatli qimmatli qog’ozlarini chiqarish hisobiga ham qoplash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat byudjeti ijrosining nazorat qilinishini amalga oshirish davomida:

- turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlarini ko’rib chiqadi;
- turli darajadagi byudjetlarga mablag’lar tushumi to’g’risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg’armalarini taqsimlovchi organlardan axborot oladi;
- davlat byudjeti mablag’larini oluvchilardan byudjetdan ajratiladigan mablag’larning tushumi va sarfi to’g’risida ma’lumotlar talab qilib, oladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq banklardan davlat byudjeti mablag’lari harakati to’g’risida ma’lumotlar oladi;
- davlat byudjeti mablag’lari oluvchilarning moliya-xo’jalik faoliyatini o’z vakolatlari doirasida taftish qiladi va tekshiruvdan o’tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida davlat byudjeti ijrosining O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko’rib chiqadi.

20.5. Davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobot va uni tasdiqlash

Davlat byudjeti ijrosi to’g’risidagi hisobot davlat byudjeti ijrosining yakuni (natijalari)ni o’zida ifoda etadi.

Davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobot davlat byudjeti tasnifiga muvofiq muayyan davr uchun Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi natijalaridan iborat bo’ladi.

Davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobot quyidagi hisobot shakllarini o’z ichiga oladi:

- Davlat byudjeti ijrosining balansini;
- Davlat byudjeti daromadlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotni;
- Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotni;
- davlat byudjeti tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari to’g’risidagi ma’lumotnomani;
- Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti tashkilotlari bo’yicha tarmoq, shtatlar va kontingentga doir rejaning bajarilishi to’g’risidagi hisobotni.

Tumanlar va shaharlar bo’yicha g’aznachilik bo’linmalari tegishli tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo’limlariga tumanlar va shaharlar byudjetlarining kassa ijrosi to’g’risidagi hisobotni taqdim etadi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo’limlari hisobot davri uchun tumanlar va shaharlar byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo’yicha:

- yuqori turuvchi moliya organlariga — ular **belgilagan muddatlarda**;
- tegishli hokimliklarga — tumanlar va shaharlar byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobot yuqori turuvchi moliya organlariga taqdim etilganidan so’ng **uch ish kuni ichida** taqdim etadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo’yicha g’aznachilik boshqarmalari Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining kassa ijrosi to’g’risidagi hisobotni tegishincha Qoraqal-pog’iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga taqdim etadi.

G’aznachilik bo’linmalari tomonidan tegishli byudjet-larning kassa ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni moliya organlariga taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari hisobot davri uchun Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va

Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo’yicha:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — u **belgilagan muddatlarda**;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va tegishli hokimliklarga — Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobot O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilganidan **so’ng uch ish kuni ichida** taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni tuzadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:

- Davlat byudjeti ijrosining borishi to’g’risidagi choraklik hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan **belgilangan muddatlarda**;
- Davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning **1 apreligacha taqdim etadi**.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjet-larining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga tashqi audit o’tkazish va baholash uchun hisobot yilidan **keyingi yilning 5 apreligacha** yuboradi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan **keyingi yilning 10 mayidan kechiktirmay** O‘zbekiston Respublikasi Vazir-lar Mahkamasiga yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjet-larining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan birga hisobot yilidan **keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari tomonidan hisobot davri uchun taqdim etilgan tegishli byudjetlarning ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni o’z partiyalar

guruhlarida va doimiy komissiyalarida (qo’mitalarida) dastlabki tarzda muhokama qilish asosida ko’rib chiqadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokim-lari tegishli byudjetlar ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotlarni hisobot yilidan **keyingi yilning 10 mayidan so’ng** tegishincha Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlariga taqdim etadi.

Tegishli byudjetlarning ijrosi to’g’risidagi hisobot-larni taqdim etish muddatlari tegishincha Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan belgilanadi. Tegishli byudjet-larning ijrosi to’g’risidagi hisobotlar tegishincha Qora-qalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi, xalq deputat-lari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari qarorlari bilan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonun-chilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhlari va qo’mitalarida muhokama qilish asosida ko’rib chiqadi.

Tegishli hisobot davri uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobot O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhlari va qo’mitalarida ko’rib chiqilgandan so’ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlisida ko’rib chiqiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’ar-malari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobot O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangandan so’ng hisobot yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi axborot O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlat byudjeti jarayoni tushunchasining ma’nosi nima?
- Davlat byudjeti jarayonining mazmuni qanday omillar bilan belgilanadi va ularning eng muhimlari qaysilar?
- Davlat byudjeti jarayoni davlat byudjeti faoliya-tining qanday bosqichlarini qamrab oladi?
- Davlat byudjeti jarayonining oldiga qanday muhim vazifalar qo’yiladi?
- Umumiy tarzda, davlat byudjeti jarayonining ishtirokchilari kimlar (qanday sub’yektlar) hisoblanadi?
- Davlat byudjeti jarayonini tashkil etishda qanday printsiplarga rioya qilinadi?
- Davlat byudjeti so’rovining tarkibini aytib bering.

- Davlat byudjeti loyihasini tuzish jarayonida qanday masalalar yechiladi yoki ularga aniqlik kiritiladi?
- Davlat byudjeti loyihasini tuzishda qanday maqsadlar kun tartibiga qo’yiladi?
- Davlat byudjeti loyihasini tuzishdan oldin O‘zbe-kiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga qanday organlarga davlat byudjeti so’rovini yuborishi kerak?
- O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi byudjet loyihasini tayyorlashning qanday muddatlarini belgi-laydi?
- Kelgusi moliya yiliga mo’ljallangan davlat byudje-tining loyihasini kim tayyorlaydi va u qaysi muddatgacha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishi kerak?
- Kelgusi moliya yiliga mo’ljallangan davlat davlat byudjeti loyihasi o’z ichiga qanday ko’rsatkichlarni oladi?
- Byudjetnoma loyihasini kim ishlab chiqadi va unda nimalar aks ettiriladi?
- Davlat byudjeti loyihasini tuzishda qanday holatlar hisobga olinadi?
- Davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqishda qanday metodlardan foydalaniladi?
- Davlat byudjetining loyihasi muhokama qilish (ko’rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) uchun qanday organga taqdim etiladi?
- Davlat byudjeti kim tomonidan qabul qilinadi?
- Davlat byudjetiga muvofiq Qoraqalpog’iston Respub-likasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlari, Qoraqalpog’iston

Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar byudjetlari, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlari va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlari qanday organlar tomonidan qabul qilinadi?

- Davlat byudjeti qabul qilingandan so'ng uning mablag'lari byudjetdan mablag' oluvchilarga qanday tartibda va muddatlarda etkazilishi kerak?
- Byudjetni ijro etish qachondan boshlanadi?
- Davlat byudjeti jarayonining bu bosqichi qanday vazifalarning bajarilishini qamrab oladi?
- Byudjetni ijro etishning muhim vazifasi ikki-yoqlamalik xarakteriga egaligi qanday holatlarda namoyon bo'ladi?
- Davlat byudjetining ijrosini ta'minlashda qanday masalalarning hal etilishiga jiddiy e'tibor bermoq lozim?
- Davlat byudjeti ijrosiga oid bevosita ishlar qanday organlar tomonidan amalga oshiriladi?
- Davlat g'aznachilik tizimi davlat byudjeti ijrosi bo'yicha qanday vazifalarni amalga oshiradi?
- Davlat byudjetiningdaromadlar bo'yicha ijro etilishining mazmuni nimada?
- Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosi davomida sanktsiyalashtirishning asosiy bosqichlarini aytib bering.
- Tayinlash sertifikati nima?
- Davlat byudjeti qabul qilinmagan davr ichida davlat xarajatlari qanday shartlarga rioya etilgan holda amalga oshirilishi mumkin?
- Davlat byudjetining ijrosi davomida byudjetdan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish tartib-lari qanday?
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat byudjeti ijrosining nazorat qilinishi davomida qanday ishlarni amalga oshiradilar?

- Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot o'zida qanday ko'rsatkich va xulosalarni ifoda etadi?
- Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti mablag'larini oluvchilar byudjetdan ajratila-digan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni qachon taqdim etishi kerak?
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan davlat byudjeti mablag'larini oluvchilar byudjetdan ajratila-digan mablag'lardan hisobot davrida

foydalanganlik to’g’risidagi hisobotlarni kimlarga taqdim etmoqlari lozim?

- Respublika (Qoraqalpog’iston), viloyat bo’ysunuvidagi shaharlarning moliya organlari shahar, tuman byudjetining hisobot davridagi ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni kimlarga taqdim etishi kerak?
- Qoraqalpog’iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari tegishli byudjetlarning hisobot davridagi ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni kimlarga va qaysi organ belgilagan muddatlarda taqdim etmog’i lozim?
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi, Davlat bojxona qo’mitasi soliqlar, yig’imlar, bojlar va boshqa majburiy to’lovlarning davlat byudjetiga hisobot davridagi tushumlari to’g’risidagi hisobotni qanday muddatda va kimga taqdim etishlari shart?
- Byudjetdan tashqari davlat maxsus jamg’armalarini taqsimlovchi organlar hisobot davrida davlat maqsadli jamg’armalariga mablag’lar tushumi va ulardan foydalanish to’g’risidagi hisobotlarni kimga va qanday organ belgilagan muddatlarda taqdim etishi lozim?
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qachondan kechiktirmay taqdim etishi kerak?
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaysi muddatgacha taqdim etishi mumkin?
- Davlat byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobot kim (qanday organ) tomonidan ko’rib chiqiladi va tasdiqlanadi?
- Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to’g’risidagi hisobotlar kimlar tomoni-dan (qanday organ) ko’rib chiqiladi va tasdiqlanadi?

21-bob. Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari

21.1. Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari ixtiyoridagi qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo’lgan moliyaviy mablag’lar yig’indisidir. Ular alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo’g’ini hisoblanadi. Bu jamg’armalarni moliyaviy mablag’larining shakllanishi, taq-simlanishi va resurslardan maqsadli foydalanishi bevosita moliyaviy me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlash-tiriladi va tartibga solinadi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatiga ko’ra, muayyan bir aholi qatlami yoki investitsion dastur ehtiyojlarini nazarda tutib, mamlakatda yaratilayotgan milliy daromadni qayta taqsimlash orqali tashkil etiladi. Davlat umumjamiyat ahamiyatiga molik bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni o’z vaqtida va to’liq amalga oshirish uchun jismoniy va yuridik shaxslarda shakllanayotgan moliyaviy resurslarning bir qismini byudjetdan tashqari jamg’armalari ixtiyoriga moliyaning taqsimlash funksiyasi orqali jalb qiladi.

Tarixiy ma’lumotlarning darak berishicha, davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarining dastlabki shakllari hozirgi davlatchilikning yagona markazlashgan fondi hisoblangan davlat byudjetidan avval maxsus fondlar ko’rinishida shakllangan. Ma’lumki, davlatning jamiyatni boshqarish sifatida faoliyat ko’lami kengaygan sari uning xarajatlarga bo’lgan talabi ham oshib boravergan. Ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat yoxud uning vakolatiga ega bo’lgan muayyan organ moliyaviy mablag’larni maxsus fondlarda markazlashtirgan va maqsadli ob’ektlarni moliyalashtirish uchun yo’naltirgan. Shuni alohida qayd etish joizki, o’sha paytlar markazlashgan Davlat fondlari davr taqozosiga muvofiq, vaqtinchalik xarakteriga ega bo’lgan. Ya’ni davlat zarur chora-tadbirlarni amalga oshirib, moliyalashtirishni tugatgandan keyin ushbu fondlar faoliyatini davom ettirishga zarurat bo’lmagan. Shu bois, maxsus fondlarning miqdori va shakli doimo o’zgarib turgan, ya’ni davr taqozosi va muayyan zaruriyatdan kelib chiqib, ehtiyoj qolmaganlari tugatilgan, yangilari paydo bo’lgan. Lekin, tarixiy tendentsiya shuni namoyon qilyaptiki, muayyan mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalari va mamlakat hududining kengayishi munosabati bilan davlatning byudjetdan tashqari

jamg’armalarining miqdori ham, hajmi ham o’sish xususiyatiga ega bo’lgan.

O‘z navbatida, Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari miqdorining ortishi (ko’payishi) ma’lum bir qiyinchilik va noqulayliklarni keltirib chiqargan. Xususan, jamg’arma qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo’lgani bois, ayrim jamg’armalarda moliyaviy resurslar keragidan ortiq bo’lsa, ayrimlarida etishmovchiliklar paydo bo’lgan. Shuningdek, davlat ularni boshqarish va muvofiq-lashtirishni moliyalashtirish uchun qo’shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishga majbur bo’lgan. Bu, o’z o’rnida, jismoniy va yuridik shaxslarga qo’shimcha moliyaviy yuk hisoblanib, ular o’rtasida ma’lum bir noroziliklarning paydo bo’lishiga ham olib kelgan. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun markazlashtirilgan davlat shakllanishiga zarurat tug’ilgan.

Markazlashtirilgan davlatning qaror topishi bir qator davlat fondlarini uyg’unlashtirib, bir necha muammolarning oldini olish imkoniyatini tug’dirgan. Jumladan, bir fondda ortiqcha bo’lgan moliyaviy mablag’larni ikkinchi bir fonddagi etishmayotgan moliyaviy mablag’lar o’rniga jalb qilish imkoniyati hosil bo’la boshlagan. Davlatning turli xil fondlarining uyg’unlanishi asosida ulkan bir markazlashtirilgan fond, ya’ni Davlat byudjetining tashkil etilishiga asos solingan. Davlat byudjeti sekin asta har to-monlama mustahkamlanib borib, mamlakatning oliy organi uni ko’rib chiqib, tasdiqlagandan keyin qonun kuchiga kirib, ijro etish majburiyati sezila boshlandi (bu haqda mazkur darslikning oldingi boblarida batafsil to’xtalib o’tilgan).

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo’lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, mamlakatda Davlat byudjetini mustahkamlash bilan birga, Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarini ham tashkil etishga zarurat tug’ildi. Bu jamg’armalarni tashkil etishga bir qator omillar ta’sir etadi, albatta. Ularning ko’lami keng, lekin asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiyot qisman nobarqaror bo’lgan bir sharoitda, tijorat va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, zarur bo’lgan sharoitlarda ularning moliyaviy operatsiyalarini rag’batlantirish uchun davlat boshqaruv organlari o’zgacha manbadan shakllangan moliyaviy resurslar hisobidan yangi ko’rinishdagi Davlat fondlarini tashkil etadi;
- Davlat byudjetidan xoli bo’lgan Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari muayyan bir muammoni bartaraf etish yoxud mavjud muammolar ko’lamini qisqartirishga qaratilgan bo’lib, davlat tomonidan qat’iy e’tiborga molik bo’ladi. Aynan ushbu jamg’armalar

qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo'lib, ularning moliyaviy resurslarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishni davlat tomonidan samarali nazorat qilish imkoniyati tug'iladi;

- Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari muayyan bir sharoitlarda, ya'ni daromadlariga nisbatan xarajatlari kam bo'lgan hollarda, ortiqcha mablag'lardan Davlat byudjeti defitsitini noinflatsion manbasi sifatida qisqartiradi yoki moliyaviy bozordan foiz va dividend shaklida manba olib, daromadlar hajmini yanada kengaytiradi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etish tartibi va shakllantirish metodlari. Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalariga tayanib aytish mumkinki, odatda Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari quyidagi shartli ikki yo'l orqali tashkil etiladi:

1. Davlat byudjetiga ajratilishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobidan muhim umumjamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni hal etish uchun ma'lum bir xarajatlarni tashkil etish;
2. Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armasini shaxsiy (o'zlik), maxsus ajratma va badal mablag'lari hisobidan shakllantirish.

Masalan, qator davlatlarda daromadi cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Davlat byudjeti ko'magida maxsus ijtimoiy sug'urta fondlari tashkil etilgan. Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etish, muqaddam bizning tajribamizda ma'lum bo'lmagan, ammo ishlab chiqarishning rivojlanishi, xizmat ko'rsatish ko'lamining kengayishi va moliyaviy siyosatning o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan muammolarni maqsadli va manzilli bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi. Shunday vaziyat shakllanganda hukumat davlat byudjetdan tashqari jamg'armasini tashkil etish uchun maxsus qaror qabul qiladi. Bizda ham yuqorida qayd etilgan vaziyatga o'xshash holat vujudga kelishi va mamlakatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi munosabati bilan 2004-2009 moliya yillarini o'zida qamrab olgan davlatning byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi tashkil etilgan edi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armasi har qanday maqsadli xususiyatga ega bo'lib, odatda uning nomida qanday maqsad uchun tashkil etilayotganligi aks etadi. Masalan, Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va h.k.

Moliya tizimining boshqa bo’g’inlari kabi Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarini tashkil etishning moddiy manbalari milliy daromad hisoblanadi. Bunday jamg’armalarning aksariyat qismi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida vujudga keladi.

Amaliyotda milliy daromadni qayta taqsimlash jarayoni orqali Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari daromadini shakllantirishning asosiy usullari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Maxsus soliqlar, yig’imlar va ajratmalar;
2. Davlat byudjeti mablag’lari va zayomlar.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari daromadlarini tashkil etishning asosiy usuli maxsus soliqlar, yig’imlar va ajratmalar hisoblanadi. Ushbu manbalalar hisobidan jamg’armalar daromadlarining 80-90% va hatto 100% ham shakllanishi mumkin.

Davlat byudjeti hisobidan shakllanayotgan mablag’lar amaliyotda qaytarib bermaslik sharti bilan dotatsiya va subventsiya ko’rinishida (davlat byudjetidan transfertlar shaklida) beriladi. Ayrim hollarda fond daromadlariga turli muddat va qiymatda (foizli, foizsiz) bo’lgan zayomlar ham jalb qilinishi mumkin.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarining moliyaviy munosabatlari. Alohida mamlakatlarda Davlat byudjetidan tashqari Davlat jamg’armalarining mavjudligi fond ichida, fondlararo va moliya tizimining boshqa bo’g’inlari o’rtasida ko’p qirrali moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Amaliyotdagi bunday moliyaviy munosabatlar bir tomonlama, ikki tomonlama va ko’p tomonlama bo’lishi mumkin.

Bir tomonlama moliyaviy munosabatlar. Bunday munosabatlar, odatda, jamg’armaning daromadlarini shakllantirishda yoki uning xarajatlarini amalga oshirishda namoyon bo’ladi. Masalan, ko’pchilik mamlakatlarda valyuta fondining tashkil etish manbai markazlashtirilgan byudjet mablag’laridan qaytarib berilmaydigan subsidiya shaklidagi resurslar hisoblanadi. Bir tomonlama moliyaviy aloqalar fond daromadining bir qismini moliya tizimining boshqa bo’g’iniga dotatsiya yoki subsidiya sifatida o’tkazganda ham vujudga keladi. Masalan, AQShda tashkil etilgan Yo’l jamg’armasi maxsus soliqlar hisobiga tashkil etiladi, ammo daromadlar xarajatlardan ortiq bo’lgan davrlarda Federal byudjetga zayom shaklida taqdim etiladi.

Ikki tomonlama moliyaviy munosabatlar. Bunday munosabatlar amaliyotda moliyaviy resurslarning oqimi fondlararo va moliya tizimining boshqa bo’g’inlari o’rtasida sodir bo’ladi. Masalan, Pensiya jamg’armasi nafaqat maxsus ajratmalar hisobiga

tashkil etiladi, balki hozirgi davrda respublika byudjetidan olinayotgan subsidiya (transfertlar) hisobidan ham qisman shakllanadi. Bir vaqtning o'zida, agar fond daromadida aktiv saldo vujudga kelsa, u ortiqcha moliyaviy resurslar hisobiga qisqa muddatli davlat g'aznachilik qimmatli qog'ozlarini xarid qilib, byudjet defitsitini kamaytirishi yoxud Davlat byudjetga kreditor sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Ko'p tomonlama moliyaviy munosabatlar. Bunda bitta davlatning byudjetdan tashqari jamg'armasi bir vaqtning o'zida bir nechta fondlar hamda moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Ya'ni, pul mablag'lari turli xil va rang-barang yo'nalishlarda harakat va oqimda bo'ladi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari bir qator vazifalarni bajaradi. Ularning ko'lami keng, ammo asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiyotning ustuvor sohalarini qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash (ekologiya fondlari, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari va boshqalar);
- turli maxsus jamg'armalar ko'magida aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari bevosita davlat ixtiyorida bo'lsa-da, alohida shaklda faoliyat yuritadi va davlat tomonidan moliyaviy resurslarini daf'atan olib qo'yishga ruxsat berilmaydi. Ularning Davlat byudjeti va unga tenglashtirilganlardan farqli tomoni shundaki, bu fondlarning moliyaviy resurslaridan foydalanish **qat'iy maqsadli** xususiyatga ega. Maqsadga erishgandan keyin daromad olish maqsadida boshqa tijorat ob'ektlariga muddatli investitsiya qilish ham mumkin.

Amaliyotda har bir Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armasining moliyaviy manbalari har xil bo'ladi. Lekin shartli ravishda ularning quyidagi guruhlardan tashkil topishi jahon tajribasida namoyon bo'ladi:

- mos ravishdagi fondlar uchun davlat tomondan o'rnatilgan maxsus maqsadli soliqlar, yig'imlar va ajratmalar;
- xo'jalik sub'yektlarining iqtisodiy-moliyaviy samarasidan ajratmalar;
- Davlat byudjeti mablag'lari;
- fondlarni yuridik shaxs sifatida tijorat faoliyati(moliya bozori)dan olgan foydalari;
- tijorat banklarining kredit resurslari.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarining klassifikatsiyasi. Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini o'zlarining iqtisodiy mazmuni va tashkil etish zaruratiga ko'ra ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

1.Ijtimoiy xususiyat kasb etuvchi jamg'armalar. Bularning tarkibiga Pensiya jamg'armasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxas-sislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va boshqalar kiradi;

2.Iqtisodiy xususiyat kasb etuvchi jamg'armalar. Bularning tarkibi Respublika Yo'l jamg'armasi (ushbu jamg'arma 2019 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining Avtomobil yo'llari davlat Qumitasi tasarrufiga o'tkazildi va uning asosiy funksiyalarini bajarish maqsadidagi manzilli dasturlarni kelishish va moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi funksiyasiga o'tkazildi), O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi,O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasi va boshqalardan iborat.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari huquqiy maqomiga muvofiq ham klassifikatsiyalanadi. Odatda, ular federativ siyosiy tuzumga asoslangan davlatlarda 3 taga, unitar siyosiy tuzumga asoslangan mamlakatlarda esa 2 taga bo'linadi. Jumladan, Federativ mamlakatlarda Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalar quyidagilardan iborat:

1. Federal boshqaruv mulkida bo'lgan Davlat jamg'armalari;
2. Federatsiya tarkibida bo'lgan shtat, respublika, er, kantonlar va boshqalar mulkidagi mintaqaviy jamg'armalar;
3. Mahalliy (munitsipal) boshqaruv va ixtiyorida bo'lgan mahalliy ahamiyat kasb etuvchi jamg'armalar.

Unitar siyosiy tuzumga asoslangan davlatlarda esa bu jamg'armalar:

1) respublika tasarrufida bo'lgan jamg'armalardan va

2) mahalliy hokimiyat ixtiyori va boshqaruvida bo'lgan jamg'armadan tashkil topadi.

Bundan tashqari dunyoning juda ko'p davlatlarida idoralar, vazirliklar va yirik xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ixtiyorida ham ko'plab jamg'armalar tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etish va ularni davr talabidan kelib chiqqan holda davrga moslashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. 2002 moliya yiliga qadar Bunday jamg'armalarning alohida moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan maqsadli yo'nalishlarda foy-dalanish keng qo'llanilib kelinar edi. Ammo ayrim byudjetdan tashqari jamg'armalarda o'z vaqtida va to'liq moliyaviy resurslarni shakllantirmaslik, aholiga berilayotgan va tarqatilayotgan moliyaviy resurslarda kechikish, uzilish hollari tez-tez uchray boshladi. Buning oldini olish maqsadida 2002 yildan boshlab umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan ayrim davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasarrufida bo'lishi ma'qul deb topildi. Ammo shuni alohida qayd etish lozimki, ularning muxtoriyatliligi to'liq saqlanib qolindi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida bir qator Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi.;
2. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi;
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;
4. O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi;
5. O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi;
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasi (ushbu jamg'arma 2019 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining Avtomobil yo'llari davlat Qumitasi ixtiyoriga o'tkazildi va uning asosiy funksiyalarini bajarish maqsadidagi manzilli dasturlarni kelishish va moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi funksiyasiga o'tkazildi).;

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasi (ushbu jamg’arma 2019 yildan boshlab o’z faoliyatini tugatdi).

8. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug’oriladigan erlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi (ushbu jamg’arma 2019 yildan boshlab o’z faoliyatini tugatdi).

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha “El-yurt umidi” jamg’armasi va boshqalar

Mablag’lari soliqlar, majburiy to’lovlar va jarimalar, shuningdek byudjet subsidiyalaridan shakllantiriladigan davlat maqsadli jamg’armalari davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Davlat maqsadli jamg’armalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi. Davlat maqsadli jamg’armalari yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilishi mumkin.

21.2. Pensiya jamg’armasi

Umumdavlat moliyasi tarkibidagi bo’g’inlar ichida davlat byudjetidan keyin hajmi va iste’molchilarni qamrab olish ko’lami hamda ijtimoiy ahamiyati bo’yicha ikkinchi o’rinda turadigan markazlashgan jamg’armalardan biri bu byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga dastlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrdagi “O‘zbekiston Respub-likasi ijtimoiy ta’minot vazirligi huzurida Pensiya jamg’armasini tashkil etish to’g’risida”gi 459-sonli qaroriga muvofiq asos solingan. Har bir yangi tashkil etilgan markazlashgan jamg’arma oldiga muayyan maqsad qo’yilgani bois, ushbu jamg’arma oldiga ham zarur maqsad qo’yildi. Jumladan, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining bosh maqsadi – davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta’minoti tizimida boshqaruv tuzilmasini takomillash-tirish, daromadlarga mo’ljallangan majburiy badal, yig’im va ajratmalarni to’liq yig’ilishini ta’minlash, shuningdek, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun moliyalashtirish chora-tadbirlarini o’z vaqtida va to’liqligicha ta’minlashga erishish hisoblanadi

2019 yil 1 yanvar holatiga binoan, O‘zbekiston Respublikasida pensionerlar soni – 3485869 nafarni tashkil etdi. Shundan: 2618503 nafar yoshga doir pensionerlar; nogiron pensionerlar 370626 nafar

va boquvchisini yo'qotgan pensionerlar 173922 nafarni tashkil etmoqda. Ushbularni ijtimoiy himoya qilish va manzilli yordam berish, o'z navbatida, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini tashkil etishga asos bo'ladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarni davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunini hayotga tatbiq etishga qaratilgan. Qayd etilgan qonunning 2-moddasida quyidagi ko'rinishdagi davlat pensiyalari zikr etilgan:

– yoshga qarab;
– nogironligi bo'yicha;
– boquvchisini yo'qotganligiga ko'ra.

1995 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1289–sonli Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonda 1996 yil 1 yanvardan boshlab, ishlayotgan, xizmat ko'rsatayotgan va ish bajarayotgan pensionerlar uchun mo'ljallangan, belgilangan pensiyaning 50% to'lanishi nazarda tutilgan. Shuni alohida qayd etish joizki, ushbu tartib 2019 moliya yilidan boshlab bekor qilindi. Endilikda, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari yoxud shularga tenglashtirilganlar, 1-2-guruh nogironlari, Chernobil halokatini bartaraf etishda ishtirok etgan, shuningdek hukumat qarorlariga ko'ra alohida kasb egalari bo'lgan (masalan, shifokor-pensionerlar, mudofaa, ichki ishlar, favquloddagi vaziyatlar, milliy gvardiya, milliy xavfsizlik, bojxona tizimidagi pensionerlar, umumta'lim muassasalari va maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat olib borayotgan pensionerlar, mahalla oqsoqoli va boshqalar) ishlayotgan pensionerlar kabi ishlayotgan barcha pensionerlar to'liq 100% miqdorda olinishi belgilandi[102].

O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 14 yanvardagi 9-son qaroriga asosan Pensiya fondining O'zbekiston jumhuriyat bo'limi tashkil etilgan. Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug'urta mablag'larining to'g'ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993 yil 4 avgustdagi 391-son qaroriga muvofiq, sobiq SSSR Pensiya fondining O'zbekiston Respublika bo'limi

[102] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi " 2018 yil 12 dekabrda qabul qilingan PF-5597-son Farmoni.

negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilgan. Unga O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha, farzand tug'ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to'lashga yo'naltiriladigan davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari berilgan. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti uchun majburiy badallarning to'liq kelib tushishi xamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy ta'minlash uchun ijtimoiy ta'minot organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrdagi 459-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli xududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan. Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi 444-son qaroriga muvofiq, 2001 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O‘zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi (hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi)ga pensiyalar, shuningdek ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan to'lanadigan nafaqalarni o'z vaqtida hisoblash va to'lash funksiyalari yuklatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 21 oktyabrdagi 490-son qaroriga asosan, 2005 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan. “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek,

respublika fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo’naltiriladigan mablag’lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to’lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to’lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tegishli hududiy bo’linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

2005 moliya yili boshlangunga qadar, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi dastlab O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi, so’ngra vazirlik Mehnat vazirligi bilan umumlashtirilganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi (hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi) tasarrufiga o’tkazildi.

2004 yil 21 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 490-sonli “Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi boshqaruvini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi Qarori e’lon qilindi. Ushbu qarorga muvofiq Pensiya jamg’armasi 2005 yil 1 yanvardan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi maqomini oldi. Shuningdek, ushbu qaror bilan Byudjetdan tashqari Pensiya jam-g’armasini boshqaruv kengashi va uning tarkibi ham belgilandi.

Qayd etilgan qarorga muvofiq Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasini tezkor muvofiqlashtirib turuvchi Ijroiya direktsiya tasdiqlangan.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromadlarining shakllanish tartibi va manbalari. Jamg’arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllanadi[103]:

1. Majburiy to’lovlar va badallar:

- belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to’lov tushumlari;
- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug’urta badallari;
- fuqarolarning sug’urta badallari (2019 yil 1-yanvardan boshlab bekor qilindi);
- jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug’urta badallari;

[103] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori

- majburiy ajratmalar (2019 yil 1-yanvardan boshlab bekor qilindi);

2. Boshqa to'lovlar:

- boquvchisini yo'qotgan taqdirda, shuningdek mehnatda mayib bo'lganlik yoki xodim mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarni to'lashga xarajatlarni to'lash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq undiriladigan mablag'larning 85 foizi;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;
- dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;
- hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari);
- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar.

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarning ko'pchiligi bugungi kunda Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanmayapti, asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda

Pensiya, nafaqa va to'lov xarajatlarini moliyalashtirish tartibi. Amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq Pensiya jamg'armasi quyidagi yo'nalishlarga xarajat qilinadi[104].

1) ishlamaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari (yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari);
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash uchun;

2) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari (yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari);
- dafn marosimi uchun nafaqalar (ushbu nafaqalarni moliyalashtirish 2019 yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan amalga oshiriladi[105]);
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar uchun sarflanadi.

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish uchun Jamg'armaning hududiy bo'linmalari tomonidan G'aznachilikning bo'linmalarida hisob raqamlari ochiladi. Jamg'armaning hududiy boshqarmalari to'lov to'lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi. Jamg'armaning ijro etuvchi apparati Jamg'arma xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda:

- joriy to'lov oyining 15-kunigacha — o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdoridagi summani;

---

[104] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori

[105] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida" gi 26-dekabr 2018 yilda qabul qilingan PQ-4086 son Qarori 28-band.

- joriy to’lov oyining 27-kunigacha — amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani moliyalashtiradi.

Jamg’armaning tuman (shahar) bo’limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to’lovlar uchun mablag’larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisob raqamlariga o’tkazadi.

Jamg’armaning tuman (shahar) bo’limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo’yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn marosimi uchun nafaqalar (mablag’lari davlat byudjetidan qoplanadi), 16 yoshgacha bo’lgan nogiron bolalarning ota-onalaridan biriga qo’shimcha dam olish kunlari uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to’lovlarni to’lashga mablag’larni moliyalashtiradi.

Jamg’armaning hisob raqamlaridan mablag’larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o’tkazish va vaqtincha olib qo’yish taqiqlanadi.

Jamg’armaning hududiy boshqarmalari har yili 15 iyundan kechikmay Jamg’armaning ijro etuvchi apparatiga joriy yil uchun xarajatlarning kutilayotgan ijrosini va kelgusi yilga Jamg’arma xarajatlari prognozini taqdim etadi. Kelgusi yilga manbalar va foydalanish yo’nalishlari bo’yicha Jamg’armaning daromadlari va xarajatlari prognozlari Jamg’armaning ijro etuvchi apparati tomonidan ishlab chiqiladi va Jamg’armaning Kuzatuv kengashiga ko’rib chiqish uchun kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti belgilangan tartibda qabul qilingandan va kelgusi yilga uning asosiy parametrlari tasdiqlangandan keyin Jamg’armaning ijro etuvchi apparati besh kun muddatda:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasiga — mintaqalar bo’yicha kelgusi yilga Jamg’arma daromadlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini;
- Jamg’armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo’limlariga — turlar va mintaqalar bo’yicha kelgusi yilga Jamg’arma xarajatlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini (yo’nalishlarini) etkazadi.

Jamg’arma daromadlari va xarajatlarining tasdiqlangan ko’rsatkichlarini bajarish:

- yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlar tushishining va yig’ilishining to’liqligi yuzasidan — davlat soliq xizmati organlari tomonidan;
- Jamg’arma mablag’larini belgilangan tartibda o’z vaqtida va to’liq moliyalashtirish, o’z vaqtida tayinlash, to’lash va manzilli

ravishda sarflash, shuningdek Jamg’arma mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilish yuzasidan — Jamg’armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo’limlari tomonidan ta’minlanadi.

Jamg’armaning hududiy boshqarmalari Jamg’armaning ijro etuvchi apparatiga:

- har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha — hududlar bo’yicha to’langan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to’lovlari va boshqa to’lovlar to’g’risidagi tezkor axborotni;
- tasdiqlangan shakl bo’yicha yuridik shaxslarning choraklik va yillik hisobotlari taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida — mablag’lardan foydalanish to’g’risidagi hisobotni taqdim etadi.

Jamg’armaning Kuzatuv kengashi Jamg’armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jamg’armaning Kuzatuv kengashi vakolatlariga quyidagilar tegishli bo’ladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Jamg’armaning daromadlari va xarajatlari prognoz parametrlarini, shuningdek Jamg’arma xarajatlarining har yilgi smetasini ko’rib chiqish va tasdiqlash;
- Jamg’arma ijro etuvchi apparati, hududiy boshqarmalarining amalga oshiriladigan ishlar to’g’risidagi hisobotlarini eshitish va tasdiqlash;
- vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar mas’ul xodimlarining Jamg’arma vakolatiga tegishli bo’lgan masalalar bo’yicha hisobotlarini eshitish;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasining Jamg’armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to’lovlarning to’liq va o’z vaqtida to’lanishini ta’minlash to’g’risidagi axborotini eshitish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Jamg’armaning ijro etuvchi direktorini, uning o’rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish to’g’risida taqdimnoma kiritish;
- Jamg’armaning hududiy boshqarmalari to’g’risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining Pensiyalar tayinlash

bo’yicha tuman (shahar) bo’limi komissiyalari to’g’risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash;

- Jamg’armaning ijro etuvchi apparati faoliyatini, ayniqsa Jamg’arma daromadlarini shakllantirish, uni o’z vaqtida moliyalashtirish va undan maqsadli foydalanish yuzasidan nazorat qilish;
- topshiriqlar, vedomostlar va pochta o’tkazmalari bo’yicha to’lanadigan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to’lovlar jo’natilishi va etkazib berilishi bo’yicha xizmatlarga haq to’lash miqdorlarini tasdiqlash;
- Jamg’arma faoliyati hamda fuqarolarning ijtimoiy ta’minotga va davlat ijtimoiy sug’urtasiga bo’lgan davlat tomonidan kafolatlangan huquqlari amalga oshirilishi bilan bog’liq boshqa funksiyalarni amalga oshirish.

Jamg’armaning ijro etuvchi apparatiga Jamg’arma Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo’yicha, belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadigan ijro etuvchi direktor boshchilik qiladi. Ijro etuvchi direktor Jamg’armaga yuklangan vazifalarning bajarilishi va o’z funksiyalarining amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi. Jamg’arma ijro etuvchi direktorining birinchi o’rinbosari va o’rinbosari Jamg’arma Kuzatuvchi kengashining taqdimnomasi bo’yicha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadi.

Jamg’armaning Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlari Jamg’arma ijro etuvchi direktorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining qaroriga muvofiq lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Jamg’armaning Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari boshliqlarining o’rinbosarlari, Jamg’armaning tuman (shahar) bo’limlari boshliqlari Jamg’armaning tegishli hududiy boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomasi bo’yicha Jamg’armaning ijro etuvchi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Jamg’armaning ijro etuvchi apparati, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo’limlari yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil etadi hamda quyi boshliqlarning yuqori boshliqlarga hamda Jamg’arma Kuzatuv kengashining raisiga bo’ysunishi va hisob berishi asosida ishlaydi.

Jamg’armaning ijro etuvchi direktori:

- Jamg’arma faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- o’z vakolatlari doirasida ijro etuvchi direktorning o’rinbosarlari hamda hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) bo’limlari rahbarlari Jamg’arma o’rtasida lavozim vazifalarini taqsimlaydi;
- o’z vakolatlari doirasida hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) bo’limlari rahbarlari Jamg’arma tomonidan bajarilishi majburiy bo’lgan buyruqlar, yo’riqnomalar chiqaradi va ko’rsatmalar beradi;
- belgilangan mehnatga haq to’lash fondi va xodimlarning soni doirasida ijro etuvchi apparatning shtatlar jadvaliga o’zgartirishlar kiritadi va uni tasdiqlaydi, Jamg’armaning tarkibiy boshqarmalari to’g’risidagi nizomni tasdiqlaydi;
- Jamg’armaning ijro etuvchi apparati xodimlarini, Jamg’armaning Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalarining boshliqlari o’rinbosarlarini, Jamg’armaning tuman (shahar) bo’limlari boshliqlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;
- pul mablag’lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobi yuritilishini, statistika va buxgalteriya hisobotlari tuzilishini va belgilangan tartibda taqdim etilishini tashkil qiladi;
- Jamg’armaning vaqtincha bo’sh mablag’larini tijorat banklaridagi depozitlarga va boshqa moliyaviy vositalarga joylashtiradi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar va vakolatlarni amalga oshiradi.

21.3. Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi

Bozor iqtisodiyoti asosida milliy iqtisodiyotini tashkil etayotgan barcha mamlakatlarda bandlik (ishsizlikni oldini olish)ni qo’llab-quvvatlash davlat jamg’armalari tashkil etiladi. Jamg’armaning hajmi, moliyalashtirish manbalari va xarajat yo’nalishlari har bir alohida davlatning olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidan kelib chiqadi. Byudjetdan tashqari bandlikni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi maqsadli xususiyatga ega bo’lib, davlat tasarrufi va uning joylardagi vakolatini olgan organlarda tashkil etiladi.

“O‘zbekiston Respublikasida Bandlikni qo’llab-quvvatlash davlat jamg’armasini tashkil etish to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 606-sonli Qarori 1992 yil 31 dekabrda qabul

qilindi. Ushbu Qaror jamg’arma daromadlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanishini muvofiqlashtirib turuvchi me’yoriy hujjat bo’lib hisoblandi. Davr o’tishi bilan va bozor iqtisodiyoti printsiplari va qonunlari milliy iqtisodiyotga bosqichma-bosqich joriy etishi jadallashishi bilan birga, bandlikni qo’llab-quvvatlash davlat jamg’armasiga ham mos ravishda ijobiy o’zgarishlar hamda qo’shimchalar kiritilib borildi.

1998 yil 1 may kuni O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunni qabul qilinishi va hayotga tatbiq etilishi Bandlikni qo’llab-quvvatlash jamg’armasining mavqeini yanada kuchaytirishga turtki bo’ldi. Chunki qonunning 6-moddasida mehnat qilish huquqi kafolati deb nomlanishining o’ziyoq jamg’armani yanada takomillashtirishga, resurslarini maqsadli ishlatilishiga zamin yaratdi.

2003 yil 2 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikni qo’llab-quvvatlash davlat jamg’armasi mablag’larini shakllantirish va foydalanish tartibi to’g’risida”gi Nizomni tasdiqlash bo’yicha 173-sonli Qarori e’lon qilindi. Mazkur Qaror bevosita “Aholi bandligi to’g’risida” va “Byudjet tizimi to’g’risida”gi (hozirgi kunda ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet kodeksi”ning qabul qilinishi munosabati bilan bekor qilingan) qonunlar negizida ishlab chiqildi.

2016 yil 20 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehnat organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 117-sonli Qarori qabul qilinib, unga ko’ra “O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to’g’risida”gi Nizom qabul qilindi hamda unga muvofiq jamg’armaning mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanishning asosiy yo’nalishlari belgilanib olindi.

2017 yil 24 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi 3001-sonli Qarori qabul qilindi va unda O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi mablag’larini shakllantirish manbalari va mablag’larini sarflashning asosiy yo’nalishlari qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi mablag’larini shakllantirish manbalari:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan yagona ijtimoiy to’lovlardan ajratmalar;
- mehnatni muhofaza qilish bo’yicha davlat huquq mehnat inspektorlari va davlat texnik inspektorlari, shuningdek, mehnat sharoitlari davlat ekspertizasi mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni buzganligi uchun belgilangan tartibda solinadigan ma’muriy undiruvlar summasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hududiy tuzilmalariga biriktirilgan binolar, inshootlar va imoratlarni sotishdan tushgan mablag’lar, mulkni baholash va sotish bo’yicha aniq xarajatlardan tashqari, to’liq hajmda O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi tomonidan Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasiga yo’naltiriladi;
- fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat tashkilotlari xorijga ishga yuborilgan har bir fuqaro uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan stavka bo’yicha Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasiga mablag’lar o’tkazadilar;
- ta’sischi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda barcha soliqlar va O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlatning maqsadli jamg’armalariga to’lovlar to’langanidan so’ng, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufidagi davlat unitar korxonalarida qoladigan sof foydaning bir qismi;
- qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda mehnat daftarchalari blanklarini sotishdan olingan daromadlar;
- Bandlik jamg’armasining bo’sh mablag’larini tijorat banklarida va boshqa moliya tuzilmalarida joylashtirishdan olingan daromadlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya yordamlari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi mablag’larini sarflashning asosiy yo’nalishlari:

- mehnat bozorini barqaror va balanslashgan holda rivojlantirish, aholi bandligi darajasini oshirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash bo’yicha maqsadga yo’naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni moliyaviy ta’minlash;
- ishsizlar, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari, akademik litseylar, oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, ish topishda qiyinchiliklarga uchrayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobat

qilaolmayotgan shaxslarni ishga joylashtirish va moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan kafolatlarni amalga oshirish;

- ishsizlar va band bo'lmagan aholiga, birinchi navbatda yoshlarga, ayollarga va nogironlarga kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatishni tashkillashtirish bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish, shuningdek, mehnat bo'yicha organlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning tasarrufida bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'linmalari hamda ularning tumanlardagi mehnat bo'limlari jamg'armaning moliyaviy resurslarini to'liq shakllanishi va maqsadli foydalanishi uchun javobgardirlar.

Ish beruvchilar tomonidan majburiy ajratmalarni to'liq jamg'arma daromadiga o'tishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning tasarrufida bo'lgan bo'linmalari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga yuklatilgan.

Bandlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga topshirilgan. Zarurat tug'ilganda, mustaqil auditorlar yoki auditor firmalarni jalb etib, moliyaviy resurslardan qonunga mos ravishda foydalanilayotganligini tekshirish mumkin.

21.4. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi

Bungacha ushbu jamg'arma o'z faoliyatini turli nomlarda (Davlat mulki jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat mulki jamg'armasi, Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi) o'z faoliyatini amalga oshirib kelgan bo'lib, dastavval 1992 yilda tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" gi 2017 yil 18 apreldagi PF-5016-son Farmonini ijro etish hamda O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga

ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasi faoliyatini tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yilning 19 iyunida “O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasi mablag’larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish tartibi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 391-sonli Qarori qabul qilindi. Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag’lar jamg’armasi sifatida o’z faoliyatini amalga oshirib kelgan. Yangi tashkil etilgan jamg’armaning avvalgisidan tubdan farq qiladigan jihati shundan iboratki, Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag’lar jamg’armasining asosiy maqsadi xususiylashtirishdan tushgan mablag’larni Davlat byudjeti daromadiga yo’naltirish bo’lgan, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasi mablag’lari esa ustuvor ravishda xususiylashtirilgan korxonalarni amaliy qo’llab-quvvatlashga va investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etishga qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasi yuridik shaxs maqomisiz tashkil etiladigan davlat maqsadli jamg’armasi hisoblanilib, uning asosiy vazifasi mablag’larni xususiylashtirilgan korxonalarni amaliy ravishda qo’llab-quvvatlashga, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga va tadbirkorlarning biznes yuritish asoslariga o’qishini tashkil etishga yo’naltirish hisoblanadi. Jamg’armani boshqarish Davlat raqobat qo’mitasining Moliya va buxgalteriya hisobi boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi, boshqarma Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasining daromadlari va xarajatlari prognozini manbalar, hududlar va choraklar bo’yicha tayyorlaydi, uning bajarilishini tahlil qiladi va monitoringini yuritadi, shuningdek, Jamg’arma mablag’larining tushishi va taqsimlanishi hisobini yuritadi qonunchilikda ko’zda tutilgan xarajatlarni amalga oshiradi, Jamg’arma byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobotni tuzadi hamda Jamg’arma byudjetining ijrosi to’g’risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasi mablag’lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

1) Jamg’armaga yo’naltiriladigan davlat mulki ijarasidan tushadigan mablag’lar, ijara to’lovini to’lash kechiktirilganligi uchun penya va shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar summasi;

2) jamlanadigan boshqa manbalar, shu jumladan:

- korxonalarni, xo’jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aktsiyalar (ulushlar)ni, er uchastkalarini (shu jumladan, yakka tartibda uy-joy qurish (dehqon xo’jaligini yuritish) uchun er uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi) va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni (keyingi o’rinlarda davlat aktivlari deb ataladi) sotishdan tushgan mablag’lar;
- Jamg’arma mablag’lari hisobidan ilgari berilgan qarzlar bo’yicha qarz oluvchilar tomonidan olingan qarzlarning asosiy summasi va ular bo’yicha hisoblangan foizlar tarzida qaytarilgan tushumlar;
- Jamg’armaning vaqtincha bo’sh mablag’larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;
- tuzilgan va bekor qilingan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari), berilgan qarzlar bo’yicha tushgan penyalar va jarimalar;
- xo’jalik jamiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilganda davlat ulushi bo’yicha tushumlar;
- protokolni yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan yoki uni rad etgan auktsionlar, tanlovlar (tenderlar) yoki ommaviy oferta g’oliblaridan ushlab qolingan zakalat summalari;
- davlat aktivlarini sotishda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun neustoyka summalari;
- Jamg’armaning mablag’lari hisobidan ilgari o’tkazilgan mablag’lar qaytarilishidan tushumlar;
- sud qarorlari bo’yicha tushumlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Ushbu mablag’lar Jamg’armaning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G’aznachiligi va uning hududiy bo’linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlarida jamlanadi. Jamg’armaga barcha turdagi manbalar bo’yicha tushgan mablag’lar soliqqa tortilmaydi.

Jamg’arma mablag’larini taqsimlash, qonunchilikda belgilangan mustasnoliklarni hisobga olgan holda quyidagi nisbatlarda amalga oshiriladi:

- 96,5 foizi — kichik tadbirkorlik sub’yektlarining xususiylashtirilgan ob’ektlar va korxonalar negizida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga maqsadli yo’naltirish uchun tijorat banklariga;
- 1,5 foizi — mablag’larni maqsadli ravishda bozor infratuzilmasini rivojlantirishga va tadbirkorlarni huquqiy jihatdan qo’llab-quvvatlashga, shu jumladan, tadbirkorlar uchun tashkil etilgan o’quv kurslarini moliyalashtirishga yo’naltirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga;
- 2 foizi — tasarruf etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshirish, shu jumladan, davlat mulki va xususiylashtirilgan ob’ektlar elektron bazasi va reestrini shakllantirish, xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirish bo’yicha “yo’l xaritalari”ni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog’liq xarajatlarni qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasining byudjetdan tashqari jamg’armasiga.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob’ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida» 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-son Farmoniga muvofiq, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki ob’ektlarini sotishdan tushadigan mablag’lar Davlat raqobat qo’mitasi hududiy organlari tomonidan tegishli ravishda Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlariga yo’naltiriladi, hamda yuqorida qayd etib o’tilgan jamg’arma mablag’larini taqsimlanishiga muvofiq Davlat raqobat qo’mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tasarrufida qoldiriladigan shuningdek, O‘zbekiston fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa er egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa er egalarini qo’llab-quvvatlash jamg’armasiga yo’naltiriladigan auktsion savdolarida fuqarolarga er uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini sotishdan tushadigan tushumning 10 foizi mablag’lar bundan mustasno hisoblanadi.

Bunda:

- tushgan mablag’lardan davlat aktivini sotish bilan bog’liq xarajatlar (baholovchi tashkilotlar, savdolar tashkilotchilari, vositachilar va depozitariylar xizmatlarini to’lash xarajatlari) chegiriladi. Davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) bekor qilingan taqdirda tegishli byudjetlarga, Davlat raqobat qo’mitasiga va O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga, Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa er egalarini qo’llab-quvvatlash jamg’armasiga avval yo’naltirilgan mablag’lar qaytarilmaydi;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlariga, Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa er egalarini qo’llab-quvvatlash jamg’armasiga mablag’lar ularning tushishiga ko’ra har haftada yo’naltiriladi.

Davlat aktivlarini sotishdan tushadigan mablag’larning 25 foizi miqdoridagi qismi Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo’naltirilgan hollarda mablag’larning (Davlat raqobat qo’mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tasarrufida qoldiriladigan mablag’lardan tashqari) qolgan qismi qonunchilikda nazarda tutilgan maqsadlarga yo’naltiriladi.

Davlat aktivlari oldi-sotdisi bo’yicha tuzilgan va bekor qilingan shartnomalar, berilgan qarzlar bo’yicha tushgan penya va jarimalar summalari quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- 50 foizi — Davlat raqobat qo’mitasining byudjetdan tashqari jamg’armasiga o’tkaziladi;
- qolgan qismi — yuqorida aytib o’tilgan taqsimotga muvofiq taqsimlanadi.

Jamg’arma mablag’lari hisobidan berilgan qarzlarning asosiy summasi va ular bo’yicha hisoblangan foizlar tarzida qaytarilgan tushumlar summasi to’liq miqdorda Jamg’arma hisobiga o’tkaziladi.

Davlat raqobat qo’mitasi va uning hududiy organlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirishda tovar etkazib beruvchilar bilan shartnomalar quyidagi holatlarda tanlov (tanlab olish)ni o’tkazmasdan tuzilishi mumkin:

- davlat aktivlari to’g’risidagi reklamalarni va axborot tusidagi e’lonlarni ommaviy axborot vositalarida joylashtirish, shuningdek reklama va e’lonlarni tashqi reklama vositalarida (bilbordlar, bannerlar va boshqalarda) joylashtirish;

- davlat aktivlarini sotishda, shuningdek yuridik shaxslarning aktsiyalari (ulushlari, paylari)ni va boshqa aktivlarni davlat manfaatlarini ko’zlab sotib olishda birja va birjadan tashqari savdolarga xizmat ko’rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan xizmatlar ko’rsatish;
- Davlat raqobat qo’mitasi huzuridagi Xususiylashtirish, raqobatni rivojlantirish va korporativ boshqaruv muammolari tadqiqotlari markazi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar, metodik hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni amalga oshirish;
- Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazi va Davlat raqobat qo’mitasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o’qitish respublika markazida Davlat raqobat qo’mitasi va uning tarkibiy bo’linmalari xodimlarini, shuningdek davlat ishonchli vakillari va xususiylashtirilgan korxonalar negizida loyihalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va o’qitish;
- Davlat raqobat qo’mitasi huzuridagi «Privatinformsistem» axborot texnologiyalari markazi» DUK tomonidan zamonaviy axborot-texnologik kompyuter dasturlarini, elektron ma’lumotlar bazasi va reestrlarini, lokal kompyuter tarmog’ini ishlab chiqish, joriy etish va ular bo’yicha xizmat ko’rsatish;
- Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolari o’tkazish bo’yicha Davlat tender komissiyasi qarorlari asosida mahalliy ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan davlat aktivlarini sotish bo’yicha maslahat xizmatlari ko’rsatish;
- baholovchi tashkilotlar tomonidan xizmatlar ko’rsatish. Baholovchi tashkilotlar xizmatlarini to’lash bilan bog’liq xarajatlar Davlat raqobat qo’mitasi tomonidan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan Nizomga muvofiq qoplanadi.

Jamg’armaning joriy moliya yili yakuni bo’yicha qoldiq mablag’lari olib qo’yilmaydi va keyingi yilga o’tadi.

21.5. Respublika yo’l jamg’armasi

(ushbu jamg’arma 2019 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining Avtomobil yo’llari davlat Qumitasi tasarrufiga o’tkazildi va uning asosiy funksiyalarini bajarish maqsadidagi manzilli dasturlarni kelishish va moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi funksiyasiga o’tkazildi)

O‘zbekiston Respublikasi geografik joylashuviga muvofiq, okean va dengiz bandargohlariga to’g’ridan-to’g’ri chiqish uchun kamida ikkita mustaqil mamlakatning davlat chegarasini bosib o’tishi lozim. Bunday holat, o’z navbatida, dengiz transportini tashkil etish va undan foydalanishga imkoniyat bermaydi, albatta. Bu narsa bizda havo yo’li tarnsporti, temir yo’l tarnsporti, quvur transporti va eng asosiysi avtomobil yo’l transportini boshqa davlatlardagi (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh va bir qator Fors hamda Arab mamlakatlari)ga qaraganda jadal va tez rivojlantirishni ob’yektiv zarurat qilib qo’yadi. Ushbuni teran his etgan mamlakatimiz rahbariyati mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo’llarni qurish, qayta ta’mirlash, rekonstruktsiya qilish chora-tadbirlariga katta ahamiyat berib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida tranzit transport tashuvlari chorrahasida joylashuvi bevosita avtomobil yo’llarini muttasil yangilanishini va davr talabiga mos rivojlanishini talab etgan.

Mamlakatimizda Respublika yo’l jamg’armasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga muvofiq 1993 yilda tashkil etilgan. Jamg’arma umumiy foydalaniladigan avtomobil yo’llarini saqlash, ta’mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish bilan bog’liq xarajatlarni moliyalashtirishga safarbar etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 avgustdagi 361-son Qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo’l jamg’armasi to’g’risida”gi Nizom tasdiqlandi. Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo’llari davlat qo’mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo’l jamg’armasi faoliyatlarini tashkil etish to’g’risida”gi 2017 yil 14 fevraldagi PQ-2776-sonli qaroriga ko’ra Respublika yo’l jamg’armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Hududlarni kompleks rivojlantirish va kommunal soha, transport, kapital qurilish, qurilish industriyasi masalalari kompleksiga bo’ysundirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo’ljallari to’g’risida” gi 26 dekabr 2018 yilda qabul qilingan PQ-4086 son Qaroriga ko’ra 2019 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining Avtomobil yo’llari davlat Qumitasi tasarrufiga o’tkazildi va uning asosiy funksiyalarini

bajarish maqsadidagi manzilli dasturlarni kelishish va moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi funksiyasiga o’tkazildi. Yo’l xo’jaligi sohasidagi qurilish, rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash va jihozlash bo’yicha manzilli dasturlarni moliyalashtirish va kelishish, shuningdek, avtomobil yo’llaridan foydalanish va saqlash bo’yicha xarajatlarni moliyalashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo’llari davlat qo’mitasi, uning hududiy bosh boshqarmalari, tuman yo’llardan foydalanish korxonalari, yo’llardan muntazam foydalanish korxonalari, ko’priklardan foydalanish korxonalari, Respublika yo’l jamg’armasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo’l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspektsiyasini saqlash funksiyalarini Moliya vazirligi zimmasiga yuklandi hamda boshqaruv xodimlarining cheklangan sonini 9 birlikdan iborat etib belgilagan holda Respublika yo’l jamg’armasini yo’l xo’jaligi sohasida xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo’yicha ijrochi organ sifatida belgilandi.

Respublika yo’l jamg’armasiga 2019 yil 1 yanvardan keyin tushadigan majburiy ajratmalar summasi to’liq miqdorda Pensiya jamg’armasiga o’tkaziladigan bo’ldi hamda ushbu to’lovlar bo’yicha ortiqcha to’langan summalar Pensiya jamg’armasidan to’lanilishi belgilandi. Respublika yo’l jamg’armasining (xodimlarni moddiy rag’batlantirish maxsus hisobraqamidan tashqari) 2018 yil yakuni bo’yicha qoldiq mablag’lari O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga o’tkaziladi hamda yakunlanmagan qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlari keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo’shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilishi qayd etildi. Shuningdek, 2019 yilning 1 yanvaridan tugatilayotgan davlat maqsadli jamg’armalarining 2019 yil 1 martgacha bo’lgan davr uchun xodimlariga to’lanadigan ish haqi, kompensatsiya to’lovlari va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo’shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi, shuningdek, Respublika yo’l jamg’armasi tomonidan avval jalb qilingan xorijiy kreditlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qaytarilishi qayd etildi.

21.6. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg’armasini tashkil etish

to’g’risida”gi 2006 yil 11 maydagi PF–3751-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg’arma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo’lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi , eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo’yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Jamg’arma loyihalarni moliyalashtirish (qo’shma moliyalashtirish) quyidagi yo’llar bilan amalga oshiriladi:

- Jamg’armani boshqarish bo’yicha Kengash qarori bilan tasdiqlanadigan ro’yxatga kiritilgan vakolatli banklarning (keyingi o’rinlarda — tijorat banklari) buyurtmanomalariga binoan — muddatli, to’lovli va qaytarish asosida kreditlar berish va kredit liniyalarini ochish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bo’yicha ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan — grantlar yoki foizsiz kreditlar berish (yiliga Jamg’armaning o’tgan yildagi foydasining 5 foizidan ko’p bo’lmagan miqdorda);
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tijorat banklari va qarz oluvchining buyurtmanomalari bo’yicha hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida — Davlat byudjeti mablag’lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;
- tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlarning ta’sis hujjatlariga va ularni tashkil etish to’g’risidagi Hukumat qarorlariga muvofiq — yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo’lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish (korxona yoki tashkilot ustav kapitali (fondi)ning 25 foizidan ko’p bo’lmagan miqdorda).

Shuningdek, Jamg’arma mablag’lari quyidagilarga ishlatilishi mumkin:

- Moliya vazirligining buyurtmanomalari bo’yicha va tegishli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga asosan — davlatning tashqi qarzlari bo’yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to’lash;
- tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bo’yicha — yangi zamonaviy xorijiy

texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish.

Jamg'armaning asosiy vazifalari:

- davlatning Jamg'armaga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larini jamlash;
- iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va modernizatsiya qilishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;
- strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni, birinchi navbatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;
- yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnik jihatdan qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur'at va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishini ta'minlash;
- yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun muhim ustuvor ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun xorijiy texnologiyalar va uskunalarni sotib olishga mablag'larni maqsadli yo'naltirgan holda respublikaning tijorat banklariga Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilangan tartibda kredit liniyalarini ochish.
- birinchi navbatda istiqbolli, ammo etarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzulmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarning amalga oshirilishini moliyalashtirish;
- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini imtiyozli asosda, shu jumladan keyinchalik Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash yo'li bilan moliyalashtirish;
- respublikaning xalqaro kommunikatsiyalar tarmog'iga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yo'laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo'l bilan chiqishni ta'minlaydigan transport hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini modernizatsiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;
- davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lashni moliyalashtirish;

- xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qo’shma moliyalashtirilishini tashkil etishni ta’minlash.

Yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda **Jamg’arma quyidagi funksiyalarni** bajaradi:

- navbatdagi yil uchun mo’ljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko’rsatkichlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturining asosiy parametrlari bilan bog’liq holda Jamg’arma mablag’larining kelib tushish va ulardan foydalanish prognozlarini ishlab chiqadi va belgilangan muddatlarda Jamg’armani boshqarish bo’yicha Kengashga taqdim etadi;
- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini tuziladigan shartnomalar asosida kreditlaydi;
- davlatning tashqi qarzlari bo’yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to’lash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qaytarib bermaslik asosida mablag’larni beradi;
- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo’lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritadi (korxona yoki tashkilot ustav kapitali (fondi)ning 25 foizidan ko’p bo’lmagan miqdorda);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bo’yicha va Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar hamda foizsiz kreditlar beradi, ajratilgan kreditlar miqdori keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg’arma kreditini jalb qilish yo’li bilan amalga oshirilgan taqdirda, ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo’shiladi;
- yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo’lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bo’yicha imtiyozli kreditlar beradi;
- moliyalashtirish shartlari va Jamg’arma mablag’larini qaytarish mexanizmi to’g’risida imzolanadigan bosh bitimlar asosida, har bir tijorat banki uchun har yili belgilanadigan limitlar doirasida tijorat banklarini moliyalashtirishni amalga oshiradi;

- Jamg’arma mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanilishi va tijorat banklariga berilgan mablag’larning o’z vaqtida qaytarilishi ustidan doimiy ravishda monitoring olib boradi hamda kelib tushish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo’nalishlari bo’yicha Jamg’arma mablag’larining hisobini yuritadi;
- tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar va ular bo’yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to’g’risidagi har qanday ma’lumotni olish huquqiga ega bo’lgan holda, tijorat banklari va qarz oluvchi korxonalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan ularning faoliyatini o’rganadi.
- Jamg’arma mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish bo’yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshiradi;
- Jamg’arma faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o’z vakolatlari doirasida choralar ko’radi yoki belgilangan tartibda takliflar kiritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jamg’arma mablag’larining bo’sh qoldiqlarini ishonchli boshqarish to’g’risida shartnomalar tuzadi;
- Jamg’arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog’liq bo’lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.
- Jamg’armani boshqarish bo’yicha Kengash Jamg’armaning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Jamg’arma mablag’larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash vaqtida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxdan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan mablag’lar;
- davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish chog’ida hisobga olingan hajmlardan ortiqcha tushadigan mablag’lar;
- Jamg’armaning aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan Jamg’arma mablag’larining bo’sh qoldiqlarini joylashtirishdan keladigan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar.

Jamg’armaning mablag’lari uning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlarida xorijiy valyutada

shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Jamg’arma hisobvaraqlariga tushgan mablag’larni ular tushgan kuni amalda bo’lgan Markaziy bankning almashuv kursi bo’yicha chet el valyutasiga konvertatsiya qiladi va Jamg’armaning valyuta hisobvarag’iga o’tkazadi. Soliq va to’lovlarning ayrim turlari bo’yicha mablag’larni Jamg’arma hisobvarag’iga o’tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jamg’arma mablag’lari tushumi manbalari va ulardan foydalanish yo’nalishlari har yili belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritiladi va Jamg’arma balansida aks ettiriladi.

Jamg’arma mablag’lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- avvalo yoqilg’i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek transport va telekommunikatsiya sohasida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan g’oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarda O‘zbekiston Respublikasi ulushini qo’shma moliyalashtirish;
- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat byudjeti mablag’lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;
- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo’lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish;
- davlatning tashqi qarzlari bo’yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to’lash;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklariga xorijiy valyutada ochilayotgan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish hamda amalga oshirish;
- ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo’li bilan moliyalashtirish;
- yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo’lgan boshqa tovarlarni

tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

- birinchi navbatda istiqbolli, ammo etarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarini, Davlat byudjeti va investitsiya dasturining tasdiqlangan parametrlari doirasida, grant asosida moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish);
- tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo'shma moliyalashtirish;
- Jamg'arma boshqaruvi va ijro etuvchi apparatining ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashga.

Mablag'larni berish muddati va shartlari Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilanadi. Jamg'arma tomonidan beriladigan kredit resurslari bo'yicha foiz stavkasi yiliga 6 foizgacha tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanadi.

Jamg'armaning kredit resurslari shartnomada belgilangan chet el valyutasida ajratiladi.

Tijorat banki marjasining eng yuqori chegarasi Jamg'arma va tijorat banki o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida har bir loyiha bo'yicha alohida belgilanadi.

Ajratilgan mablag'larning qaytarilishi tijorat banklari tomonidan kechiktirilgan holatlarda har bir kechiktirilgan kun uchun muddati kechiktirilgan to'lovlar bo'yicha qarzdorlik summasining 0,01 foizi miqdorida (qarzga olingan mablag'lar hajmining 10 foizidan oshmagan holda) penya undiriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladigan import kontraktlari bo'yicha avans to'lovlarini to'lash, qoidaga ko'ra, etkazib beruvchi tomonidan qayta moliyalashtiruvchi tijorat bankiga birinchi darajali xorijiy bank tomonidan, avans to'lovini qaytarishga berilgan kafolatnomani taqdim etgan holda amalga oshiriladi.

21.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi.

O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 25 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha «El-yurt umidi» jamg’armasi faoliyatini tashkil etish to’g’risidagi PF-5545-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon negizida qabul qilingan Nizomning 14- bandiga binoan Jamg’arma xarajatlarini moliyalashtirish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag’lari;

- respublika oliy ta’lim muassasalarining byudjetdan tashqari (oshirilgan shartnoma stavkalari bo’yicha to’lov-shartnoma asosida o’qitishdan tushadigan) mablag’laridan ajratmalar;
- xo’jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmat ko’rsatishdan tushumlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag’lari;
- xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy tashkilotlarning grantlari;
- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Xorijdagi yetakchi universitetlar, ilmiy markazlar va boshqa tashkilotlarda kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovkadan o’tkazish tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy soha, davlat boshqaruvi va iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarining yuqori malakali mutaxassislarga bo’lgan o’sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha “El-yurt umidi” jamg’armasi faoliyatini samarali tashkil etilsh maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 yanvar kuni Qarori e’lon qilindi.

Kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovkadan o’tkazish uchun nomzodlarni tanlov asosida saralab olish vazirliklar va idoralarning maqsadli buyurtmalari asosida Jamg’arma mablag’lari hisobidan quyidagi yo’nalishlar bo’yicha amalga oshiriladi:

- ta’lim;
- fan va ilmiy tadqiqotlar;
- sog’liqni saqlash;
- davlat boshqaruvi;
- iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlari.

2018 yilda mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha “El-yurt umidi” jamg’armasi 40, mlrd.

so’m ajratilgan bo’lsa, 2019 yilda 72.5 mlrd. so’m mablag’ ajratildi. Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi 2019 yilda Jamg’arma dasturlari bo’yicha xorijda kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovkadan o’tkazishni moliyalashtirish uchun 3 million AQSh dollari miqdorida mablag’ ajratish nazarda tutilgan.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari deb nimaga aytiladi?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari qanday xususiyatlarga ega?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarini tashkil etishning ob’yektiv zarurligi va shart-sharoitlari nimalar bilan belgilanadi?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarini tashkil etishga qanday omillar ta’sir etadi va ularning asosiylari nimalar hisoblanadi?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarini tashkil etish tartibi qanday va ularni shakllantirish metodlari nimalardan iborat?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarining moliyaviy munosabatlari qanday ko’rinishlarda bo’lishi mumkin?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari qanday vazifalarni bajaradi va ularning asosiylari nimalar?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalarining qanday moliyaviy manbalari mavjud va ularni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
- Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari o’zlarining iqtisodiy mazmuni va tashkil etish zaruratiga ko’ra qanday guruhlardan tashkil topadi?
- Ijtimoiy xususiyatga iko’ra davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari tarkibiga qanday jamg’armalar kiradi?
- Iqtisodiy xususiyatiga ko’ra davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari tarkibi qanday jamg’armalardan iborat?
- Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida qanday byudjetdan tashqari jamg’armalari mavjud va ularning asosiylari qaysilari?

- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining bosh maqsadi nimadan iborat?
- Davlat pensiyalarining qanday ko’rinishlari mavjud?
- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromadlarining shakllanish tartibi qanday va manbalari nimalardan iborat?
- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasidan pensiya, nafaqa va to’lov xarajatlarini moliyalashtirish tartibi qanday?
- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi xarajatlari-ning asosiy ko’rsatkichlari tarkibiga nimalar kiradi?
- Bandlikka ko’maklashuvchi Davlat jamg’armasining oldiga qanday maqsadlar qo’yilgan?
- Uning daromadlari qanday manbalar hisobidan tashkil topadi?
- Jamg’armada shakllangan moliyaviy resurslar hisobidan qanday chora-tadbirlar moliyalashtiriladi?
- Jamg’arma moliyaviy resurslarining to’liq shakllanishi va maqsadli foydalanishi uchun qaysi organlar javobgar hisoblanadi?
- Ish beruvchilar tomonidan majburiy ajratmalarni to’liq jamg’arma daromadiga o’tishini nazorat qilish kimlarning zimmasiga yuklatilgan?
- Jamg’armaning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
- uning asosiy vazifalari qilib nimalar belgilangan?
- Jamg’arma mablag’larini shakllantirish qanday asosiy moliyaviy manbalar hisobidan vujudga keladi?
- Jamg’arma mablag’larini sarflash qanday yo’nalishlar bo’yicha amalga oshiriladi?
- Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
- Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasi mablag’larini shakllantirish manbalari nimalardan iborat?
- Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish jamg’armasi mablag’larini taqsimlash qanday amalga oshiriladi?
- Respublika yo’l jamg’armasining faoliyatida qanday o’zgarishlar ro’y berdi?
- Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
- Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi mablag’larini shakllantirish manbalari nimalardan iborat?

- Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi mablag’laridan foydalanishning asosiy yo’nalishlari nimalardan iborat?
- “El-yurt umidi” jamg’armasi qachon tashkil etildi?
- Jamg’arma mablag’lari qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
- Jamg’arma ta’limning qanday yo’nalishlarini moliyalashtirishda ishtirok etadi?
- 2018 yilga nisbatan 2019 yilda jamg’armaga necha foiz ortiq mablag’ yo’nalitirsh ko’zda tutilgan?

22-bob. Ijtimoiy ta’minot

22.1. Ijtimoiy ta’minotning iqtisodiy asoslari va tamoyillari

Mamlakatning Konstitutsiyasi, odatda, yosh bo’yicha, kasal, nogiron yoki boquvchisini yo’qotganda, bolalarni tarbiyalash uchun va qonunda ko’zda tutilgan boshqa holatlarda har bir kishining ijtimoiy ta’minotini kafolatlaydi. Iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy ta’minotga quyidagicha ta’rif berish mumkin: jarayonida fuqarolarni moddiy ta’minlash va ularga xizmat ko’rsatish uchun milliy daromadning bir qismi hisobidan pul mablag’larining ijtimoiy fondlarini shakllantiradigan va ulardan foyda-lanadigan taqsimlash munosabatlari tizimiga ijtimoiy ta’minot deyiladi. Mana shunday keng ma’noda, ijtimoiy ta’minot fondlarini shakllantirish manbalari va ta’minotni tashkil etishga bog’liq bo’lmagan holda jamiyat barcha a’zolarining tegishli tarzda ta’minlanishini o’z ichiga qamrab oladi.

Pulli pensiya va nafaqa to’lovlari ijtimoiy ta’minot bo’yicha xarajatlarning asosiy ko’rinishlari hisoblanadi.

Pensiya – bu qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari va boquvchisining yo’qotilganligi munosabati bilan (bog’liq ravishda) fuqarolarni moddiy jihatdan ta’minlash uchun ma’lum pul summalarining davrma-davr to’lanmalaridan iborat. Pensiyaning quyidagi ko’rinishlari mavjud:

- Yoshga doir (qarilik) pensiya(si) (ba’zi xorijiy davlatlarda qarilik pensiyasi deyiladi, bizning qonunchiligimizda yoshga doir pensiya deyilgan);
- nogironlik pensiyasi;
- xizmat qilgan yillari uchun pensiya (qonunchiligimizda uch xil pensiya tizimi qayd etilgan, bu holat pensiyaga ustamalar sifatida yoki muddatidan oldin pensiyaga chiqish bo’yicha imtiyozli pensiyaga chiqish ro’yxatlari bo’yicha keltirilgan kasb egalarini pensiyasi sifatida qayd etiladi, xorijda bunday nomdagi pensiyalar mavjud, bizda bu pensiyalarimizning tarkibida yuritiladi);
- boquvchisini yo’qotganligi uchun pensiya.
- Fuqarolarning ayrim toifalari uchun ijtimoiy pensiyalar deb ataladigan pensiyalar ham to’lanadi (bizda bu ko’proq ijtimoiy nafaqalar deb yuritilmoqda, ammo ayrim xorijiy mamlakatlarda bundan nomlanadigan pensiyalar mavjud).

Yuqoridagilarni hisobga olib, ularni quyidagicha ham ifodalash ham mumkin:

- Yoshga doir (qarilik) pensiya (si);

- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo’qotganligi uchun pensiya.

Ba’zi mamlakatlarda pensiyalarning xizmat qilgan yillari uchun pensiyalar va ijtimoiy pensiyalar ko’rinishlari ham mavjud. Bizning mamlakatimizda xizmat qilgan yillar uchun pensiyalar qonunchiligimizda qayd etilgan pensiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi, ijtimoiy pensiyalar tayinlanadigan ijtimoiy nafaqalar ko’rinishiga ega va ushbu nafaqalar bugungi kunda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan.

Nafaqalarning quyidagi asosiy ko’rinishlari bo’lishi mumkin:

- vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo’qotganligi uchun;
- homiladorlik va tug’ish bo’yicha;
- farzand tug’ilganda;
- bola parvarishi bo’yicha;
- muddatli harbiy xizmatchilarning bolalariga;
- ishsizlik bo’yicha;
- ta’ziya holatlari bo’yicha.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda ta’minotning boshqa quyidagi shakllari ham amal qiladi:

- kasbiy-texnikaviy o’qitish;
- ishsizlarni qayta o’qitish;
- nogironlarni qayta o’qitish va ishga joylash;
- qariyalar va nogironlar uchun internat-uylarida mehnatga qobiliyatsizlarni tekinga saqlash;
- nogironlarni protezlash va ularni moto-velokolyaskalar va atomobillar bilan ta’minlash;
- uyga yordamning ko’p ko’rinishlarini tashkil qilish va boshqalar.

Ijtimoiy ta’minot mehnat qilish qobiliyatini qisman yoki to’liq yo’qotgan shaxs xususida davlat va jamiyat g’amxo’rligi, inson-parvarlikning namoyon bo’lish shaklidir. Mehnat faoliyatining to’xtatilishi munosabati bilan insonning moddiy ahvoli yomonlashganda, o’z mehnat qobiliyati yo’qotilganligi inson ongiga kuchli salbiy ta’sir ko’rsatayotgan bir paytda ijtimoiy ta’minot davlat va jamiyat tomonidan uning unutilmaganligini va o’z holiga tashlab qo’yilmaganligini ko’rsatadi.

“Ijtimoiy ta’minot” kategoriyasining mazmuniga oid iqtisodchilar o’rtasida yagona fikr mavjud emas. Mualliflarning ba’zi birlari “ijtimoiy ta’minot” tushunchasini keng ma’noda talqin qilib, uning tarkibiga ona va bolani, fuqarolarni qarilik chog’ida va mehnat qobiliyatini yo’qotganda tekin ta’minlanishi, davolash va tibbiy

xizmatlarning tekinligi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar majmuining barchasini kiritadilar. Boshqa bir toifadagi mualliflar "ijtimoiy ta'minot" va "ijtimoiy sug'urta"ni yagona tartibdagi iqtisodiy kategoriyalar sifatida ko'rib chiqadilar. Uchinchi guruh mualliflari "ijtimoiy ta'minot" tushunchasini tor ma'noda tasavvur qilib, ijtimoiy sug'urta bilan qamrab olinmaydigan ta'minotning turlarinigina uning tarkibidan iborat deb hisoblaydilar. Va nihoyat, to'rtinchi guruhga kiruvchi mualliflar ham mavjudki, ularning fikricha, meh-natga qobiliyatsizlikni ta'minlashning turli shakllari va ko'rinishlari, shu jumladan, ijtimoiy sug'urtani ham qamrab oluvchi yagona "ijtimoiy ta'minot" tushunchasi mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning mehnat qilish, dam olish, sog'ligini muhofaza qilish huquqlariga, qariganda, kasal bo'lganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki to'liq yo'qotganda va boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot, uy-joyga egalik qilish,ma'lumot olish, madaniyat yutuqlaridan foydalarish huquqlariga, davlat va jamoatchilik ishlarini boshqarish huquqiga ega ekanligini kafolatlaydi. Shu munosabat bilan va "ijtimoiy ta'minot" tushunchasini keng talqin qilish pozitsiyasidan nafaqat tekin tibbiy xizmat ko'rsatish va davolash, balki Konstitutsiyada ko'zda tutilgan tekin bilim olish, madaniyat yutuqlaridan foydalanish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlardan bahramand bo'lish kabilarni ham uning tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Chunki bu huquqlarning har biri fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutib, Konsti-tutsiyada ko'zda tutilgan tegishli tadbirlar va mablag'lar bilan ta'minlanadi. Masalan, qarilik chog'ida, kasallik paytida va mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lgandagi moddiy jihatdan ta'minlanish huquqi ijtimoiy ta'minotning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Sog'liqni muhofaza qilish huquqini ta'minlash, ya'ni tekin tibbiy xizmat ko'rsatish va davolanish bo'yicha maxsus shakllar ko'zda tu-tilgan. Boshqacha qilib aytganda, fuqarolarning turli ehtiyojlari ularni qondirishning o'ziga xos bo'lgan o'z shakllariga egadir. Shularga muvofiq ravishda pul mablag'lari fondlari ham shakllantiriladi. Bulardan ko'rinib turibdiki, "ijtimoiy ta'minot" tushunchasini bundan ham kengroq tarzda talqin qilish o'zining etarli darajadagi asosiga ega emas.

Bir vaqtning o'zida, "ijtimoiy ta'minot" va "ijtimoiy sug'urta"ni parallel ravishda amal qiluvchi, mustaqil bir tartibli iqtisodiy kategoriyalar sifatida talqin qiladigan, ijtimoiy ta'minotga davlat byudjetining to'g'ridan-to'g'ri o'tkazma (transfert)lari hisobidan

amalga oshiriladigan, ijtimoiy sug'urtaga esa faqat ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi, deb hisoblaydigan qarashlarni asoslangan deyish mumkin emas.

Ijtimoiy ta'minotga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazma (transfert)lar hisobidan Davlat byudjetidan, Pensiya jamg'armasidan va ijtimoiy sug'urta fondidan qilinadigan xarajatlarning yo'nalishlarida printsipial xarakterdagi farqlar yo'q. Bir vaqtning o'zida ham to'g'ridan-to'g'ri byudjet ajratmalari, ham Pensiya jamg'armasi va Ijtimoiy sug'urta jamg'armalari hisobidan qarilik (yoshga doir), nogironlik, ishlagan yillari uchun, boquvchisini yo'qotgandagi pensiyalar, farzand tug'ilganda, homiladorlik va tug'ish nafaqalari to'lanishi mumkin. Bu yerda farqlar faqat ta'minlanayotganlarning kontingentiga nisbatan bo'ladi, xolos. Pensiya va Ijtimoiy sug'urta jamg'armalari mablag'laridan ishchi va xizmatchilar, ilmiy xodimlar, bevosita byudjetdan esa Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Bojxona organlari va boshqa bir necha toifadagi boshliqlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar ta'minlanadi.

Shuning uchun ham ijtimoiy sug'urtani ijtimoiy ta'minotga bog'liq bo'lmagan holda parallel ravishda mavjud bo'lgan, mustaqil kategoriya deb hisoblashga asos mavjud emas. Aksincha, ijtimoiy sug'urta yaxlit butunning bir qismi sifatida ijtimoiy ta'minotga tegishli bo'lib, uning shakllaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy manbalari xususida gapirilganda ayrim iqtisodchilar ijtimoiy iste'mol fondlarini (pensiya to'lovlarini birga qo'shgan holda) shakllantirishning manbaini qo'shimcha mahsulot, boshqalari esa ijtimoiy iste'mol fondlarini zaruriy mahsulot bilan bog'laydi.

Turli ijtimoiy ta'minot fondlari va ulardan to'lanmalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ba'zilarining manbai zarur mahsulot bo'lsa, boshqalariniki esa qo'shimcha mahsulotdir. Masalan, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgandagi nafaqa to'lanmalari, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar, nogironlarni o'qitish va ishga joylashtirish xarajatlari, ishsizlarni qayta o'qitish xarajatlarining manbai bo'lib zarur mahsulot hisobla-nadi. Bu to'lanmalarning yo'nalishi vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgan paytda yoki ishsizlik davrida xodimga zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni berish bilan belgilanadi. Bu to'lanmalar ishchi kuchini takror ishlab chiqarish xarajatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Pensiya to'lanmalariga nisbatan vaziyat (holat) boshqacha. Bu to'lanmalar mehnatga qobiliyatsizlarga to'lanmalardir. Mehnat faoliyati boshlangunga qadar mamlakatning har bir yosh avlodi ham

zaruriy mahsulot (ota-onalarning mehnat haqi to'lovlari shaklida) va ham qo'shimcha mahsulot (ijtimoiy iste'mol fondlaridan xizmatlar va imtiyozlar shaklida) hisobidan saqlanadi. Mehnat faoliyati boshlanganidan to pensiyaga chiqqunga qadar (35-40 yil ichida) bu avlod oshib boruvchi hajmlarda ijtimoiy mahsulotni (za-ruriy va qo'shimcha) yaratadi. Jamg'armaga yo'naltirilgan qo'shimcha mahsulotning qismi ancha oshadi. Buning natijasida milliy boylikning hajmi tez o'sadi. Demak, ko'rinib turibdiki, har bir yangi avlod o'zining navbatdagi avlodiga o'zining oldingi ajdodlaridan olgan milliy boylikka nisbatan kattaroq hajmdagi milliy boylikni qoldiradi. Ana shu asosda har bir yangi avlod o'z mehnati bilan yalpi mahsulotni ishlab chiqarishni oshiradi. Bunda moddiy boylik ishlab chiqarish sohasi xodimlarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga foydalaniladigan zaruriy mahsulotning ham hajmi va ishlab chiqarishni rivojlantirishga hamda ijtimoiy iste'mol fondlarini shakllantirishga, shu jumladan, jamiyatning mehnatga qobiliyatsiz a'zolarini ta'minlashga yo'naltirilayotgan qo'shimcha mahsulotning hajmi ham o'sadi.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda pensiya to'lanmalari ko'p yillar davomida, asosan, mehnatkashlarning ish haqlaridan ajratmalar yordamida shakllantiriladigan pensiya jamg'armalari hisobidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu yerda pensiya jamg'armalari zaruriy mahsulotning rezervlashtirilgan qismidan iborat bo'lib, uni xodim qarilik yoki nogironlik bo'yicha pensiyaga chiqqandan so'ng, ola boshlaydi.

Mamlakatimizda qariganda, kasalligida, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda moddiy ta'minlash huquqi mamlakat Konstitutsiyasiga muvofiq ijtimoiy ta'minotning turli shakllari bilan kafolatlangan. Mehnatkashlar o'zlarining ish haqlaridan 0,1% (2019 yil 1 yanvaridan boshlab) miqdorida o'zlarining kelgusi jamg'ariladigan pensiyalariga ajratmalarni o'tkazadilar (2019 yil 1 yanvardan boshlab 2018 yilda mehnatkashlarning ish haqlaridan ushlab qolinadigan 8% yagona ijtimoiy sug'urta fondiga, ya'ni Pensiya jamg'armasiga o'tkaziladigan majburiy ajratma bekor qilindi). Kelgusi davrning pensionerlari uchun pensiya jamg'armasi davlat mablag'lari hisobidan ham oldindan shakllantirilmaydi. Mehnatga qobiliyatsizlarni ta'minlash uchun fondlar YaIM va MDni taqsimlash jarayonida har yili ajratiladi va ulardan foydalaniladi.

Ishlamaydigan pensionerlar zaruriy va qo'shimcha mahsulotni yaratmaganligi va ularning mehnat faoliyati davrlarida pensiya

jamg'armasi ular uchun shakllantirilganligi tufayli har yili shakllantirilishi lozim bo'lgan pensiya jamg'armalarining manbai ishlayotgan avlodning qo'shimcha mehnati evaziga yaratilgan YaIM va MD qismi, ya'ni qo'shimcha mahsulot hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotning o'ziga xos bo'lgan muhim xususiyati uni vujudga keltirishning (yaratishning, qurishning, tuzishning) printsiplaridir. Ular quyidagilardan iborat:

1.Eng umumiylik printsipi – jinsi, yoshi, millati, irqi, ishi-ning joyi va xarakteri, mehnatga haq to'lashning shaklidan qat'iy nazar, yoshi yoki nogironligi tufayli mehnatga layoqatsizligi sodir bo'lganda ijtimoiy ta'minotning barcha mehnatkashlarga nisbatan qo'llanilishini anglatadi. Bundan tashqari, eng umumiylik printsipi mehnatkashlarning barcha toifalariga, ya'ni ishchilar, xizmatchilar, dehqonlar, harbiylar, o'quvchilar va boshqa fuqarolarga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, ijtimoiy ta'minot boquvchisi vafot etgan oilaning mehnatga qobiliyatsiz barcha a'zolariga (balog'at yoshiga etmagan bolalar, aka-ukalar, opa-singillar, nabiralar, qariyalar yoki mehnatga layoqatsiz er (xotin), ota, ona, bobo, buvi va boshqalar) nisbatan ham tegishlidir.

2.Hammaga mumkinlik (lozimlik) printsipi – barcha uchun mumkin bo'lgan u yoki bu pensiyani aniqlash (belgilash) huquqini beruvchi shart. Masalan, hayotning o'rtacha davomiyligi 73,6 yil bo'lganda qarilik bo'yicha pensiya huquqi erkaklarda 60 yoshda, ayollarda esa – 55 yoshda, mehnatning og'ir turlarida band bo'lganlar uchun esa erkaklarda 50-55 yoshda, ayollarda esa – 45-50 yoshda vujudga keladi. Bu pensiyani olish uchun zarur bo'lgan mehnat staji erkaklar uchun 25 yil, ayollar uchun esa – 20 yil, mehnatning og'ir turlarida band bo'lganlar uchun bundan ham pastroq qilib belgilangan. Demak, barcha xolis (sidqidildan) xizmat qiluvchilar uchun bu stajga qarilik yoshiga etgundan ancha oldin erishish mumkin.

3.Ta'minot o'lchami va shakllarining o'tgan (qilingan) mehnatga nisbatan bog'langan holda o'rnatish (belgilash) printsipi – bu ijtimoiy ta'minotning stajning davomiyligi, ishning shart-sharoiti, ish haqi va mehnat hamda ijtimoiy faoliyatning boshqa omillarga nisbatan bog'liq ravishda amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu printsip ijtimoiy ta'minotda ish haqi orqali o'z ifodasini topadi, chunki unga ko'ra pensiya va nafaqalarning ko'plab turlari ish haqiga nisbatan hisoblanadi.

4.Taqdim etilayotgan ta'minot turlari va xizmatlarning juda xilma-xilligi printsipi – bu pensiya va nafaqalar, ishga joylashtirish,

sog'liqni mustahkamlash bo'yicha turli-tuman tadbirlar, kasallanishdan ogohlan-tirish, uning oldini olish va uni kamaytirish, nogironlar va qariyalarni internat-uylarga joylashtirish, moto-velokolyaskalar va avtomobillar bilan ta'minlash, pro-tezlashtirish va h.k.lar orqali namoyon bo'ladi.

5.Ijtimoiy ta'minotni boshqarish va tashkil qilishning demokratik xarakterdaligi printsipi – bu ijtimoiy ta'minotning barcha masalalarini yechishda namoyon bo'ladi. Bunda kasaba uyushmalarining roli, ayniqsa, yuqoridir. Ularning vakillari pensiya tayinlash komissiyalarining ishida bevosita ishtirok etadi. Ma-halliy hokimiyat organlarining ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash bo'yicha doimiy komissiyalari ham mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti bo'yicha katta ishlarni amalga oshiradi.

22.2. Davlat pensiyasi va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti

Aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha choralarning tarkibida davlat pensiyalari muhim o'rin egallaydi. Pensiya ta'minotining ijtimoiy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, hozirgi paytda O'zbekistondagi ko'plab qariyalar, nogironlar va ularning oila a'zolari, boquvchisini yo'qotganlarning hayotiy muhim manfaatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga o'tilishi munosabati bilan davlat pensiya tizimi murakkab ahvolga tushib qoldi. Pensionerlarning daromadlari doimiy ravishda baholarning darajasidan ortda qolmoqda. Qarilik bo'yicha (yoshga doir) pensiyaning o'rtacha miqdori hayotning yashash darajasidan ancha past. Shu munosabat bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida fuqarolarning pensiya ta'minoti bo'yicha huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishini kuchaytirish va pensiya tizimini barqaror rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish maqsadida mamlakatda pensiya tizimi isloh qilinmoqda.

Pensiya tizimini isloh qilishning negizida pensiya to'lanmalarini moliyalashtirishning jamg'ariladigan printsiplari asosida tashkil qilish yotadi. Unga muvofiq ravishda pensiyalarning quyidagi uch darajasini o'rnatish ko'zda tutilmoqda:

- jamg'ariladigan pensiyalar – yollanib ishlaydigan-larga beriladi, butun mehnat faoliyati davomida olingan ish haqiga nisbatan ajratmalar va bu ajratmalarni saqlab o'z oborotida foydalanganligi uchun ular tomonidan to'lanadigan foizlar hisobidan amalga oshiriladi;

- ijtimoiy pensiyalar – o’zlariga pensiya to’lanma-larining to’lanishi uchun zarur bo’lgan mablag’larni jamg’armagan va hayot kechirish uchun zaruriy mablag’larga ega bo’lmagan shaxslarga umumiy soliqlar yoki majburiy ajratmalar hisobidan to’lanadi;
- qo’shimcha pensiyalar – alohida toifadagi ish beruvchilardan undiriladigan yoki ish beruvchilar va xodimlar tomonidan ixtiyoriy ravishda o’tkazilgan mablag’lar hisobidan amalga oshiriladi.

Sekin-astalik bilan, oxir-oqibatda, jamg’ariladigan pensiya pensiyaning asosiy ko’rinishiga (turiga) aylanmog’i lozim.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasida “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq pensiyaning quyidagi turlari qo’llanilib kelinayapti:

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi.

Yoshga doir pensiya Pensiya jamg’armasining xarajatlarida asosiy o’rin egallaydi. Bu pensiya 25 yildan kam bo’lmagan, umumiy mehnat stajiga ega bo’lgan va 60 yoshga etgan erkaklarga, 20 yildan kam bo’lmagan, umumiy mehnat stajiga ega bo’lgan va 55 yoshga etgan ayollarga belgilanadi. Istiqbolda mamlakatimizda bosqichma-bosqich fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshlarini oshirish ko’zlangan bo’lib, ayollar uchun 58 yosh, erkaklar uchun 63 yosh yoshga doir pensiyaga chiqish yoshi deb belgilanishi rejalashtirilmoqda. Shaxslarning alohida toifalari (urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar, kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo’lgan xodimlar, bevosita erosti va ochiq kon ishlarida ko’mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to’liq ish kuni davomida band bo’lgan xodimlar, uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari, mehnat sharoiti zararli va og’ir ishlarda to’liq ish kuni davomida band bo’lgan xodimlar, bolalikdan nogiron farzandlarni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan onalar, nogiron bolalar uchun ixtisoslashgan ta’lim muassasalari, «Mehribonlik» uylari, harbiy akademik litseylar, tarbiya koloniyalari o’qituvchilari, ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning shifokorlari va o’rta tibbiy xodimlari, qariyalar, nogironlar va yolg’iz fuqarolarga xizmat ko’rsatishda bevosita band bo’lgan ijtimoiy xodimlar va boshqalar) uchun yoshga doir (qarilik pensiyasi) imtiyozli tarzda tayinlanadi.

Pensiya yoshiga etgan, lekin to’liq mehnat stajiga ega bo’lmaganlarga, agar u (hozirda 7 yil, istiqbolda bosqichmag’bosqich oshirish rejalashtirilgan, avval 10 yil, keyin 12 yil, keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan belgilab berilgan mehyorga muvofiq ravishda kamida 15 yilni tashkil qilishi rejalashtirilgan) yildan kam bo’lmasa, to’liqsiz staj bo’yicha yoshga doir pensiya belgilanadi.

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o’zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o’zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e’tirof etilgan erkaklar — 58 yoshga to’lganda va ish staji kamida 25 yil bo’lgan taqdirda, ayollar — 53 yoshga to’lganda va ish staji kamida 20 yil bo’lgan taqdirda yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin olish huquqiga ega bo’ladilar.

Yoshga doir pensiyalar ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat’i nazar, oxirgi o’n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yil uchun (pensiya tayinlashni so’rab murojaat etgan kishining tanlovi bo’yicha) hisoblangan bir oylik o’rtacha ish haqining 55%i (biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam bo’lmagan miqdorda) yoshga doir pensiyaning bazaviy miqdori hisoblanadi (bunda bugungi kunda pensiyani hisoblash uchun qonun hujjatlarida pensiya tayinlanadigan sanaga belgilangan eng kam oylik ish haqining o’n baravari miqdoridan ortiq bo’lmagan summadagi o’rtacha oylik ish haqi qabul qilinadi hamda pensiya tayinlash uchun qabul qilinadigan o’rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo’lgan yoki ish haqi to’g’risidagi ma’lumotlar to’liq mavjud bo’lmagan hollarda pensiya miqdori qonun hujjatlarida pensiya tayinlashni so’rab murojaat qilingan kunda belgilangan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqib mintaqaviy koeffitsient hisobga olinmasdan hisoblab chiqiladi) hamda pensiyani belgilash uchun talab qilinadigan umumiy mehnat stajidan ortiqcha bo’lgan har bir to’liq yil uchun o’rtacha oylik ish haqining 1% miqdorida qo’shimcha o’rnatiladi. To’liqsiz stajga ega bo’linganda (bugungi kunda kamida 7 yillik ish staji bo’lganda) pensiyaning miqdori erkaklarga nisbatan 25 yil va ayollarga nisbatan 20 yil qilib belgilangan to’liq stajlarga muvofiq ravishda tayinlangan to’liq pensiyalarga proportsional ravishda belgilanishi kerak. Biroq bunday pensiyaning miqdori qonunchilikda belgilangan yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan miqdoridan kam bo’lmasligi lozim.

Yoshga doir pensiyalar bo’yicha quyidagi ustamalar belgilanishi mumkin:

- I guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- II guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 125 foizi;
- ko’rish bo’yicha I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- II guruh yolg’iz nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- urush qatnashchilariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida front orqasida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- o’limi harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish yoki ichki ishlar organlarida xizmat qilish bilan bog’liq bo’lgan harbiy xizmatchilar va ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohga kirmagan beva xotinlariga (beva erlariga) — eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- O‘zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlarga ega bo’lgan shaxslarga — xizmatlarga qarab eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonni amalga oshirish masalalari haqida» 1995 yil 28 oktyabrdagi 415-son qarorida ko’rsatilgan tashkilotlarda ishlagan imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo’lgan artistlarga yoshidan qat’i nazar — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonni amalga oshirish masalalari haqida” 1995 yil 28 oktyabrdagi 415-son qarorida ko’rsatilgan lavozimlarda va tashkilotlarda ishlagan (erkaklar uchun kamida 25 yil va ayollar uchun kamida 20 yil) teatr, kontsert tashkilotlarining artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san’atining ijodiy xodimlarini tayyorlash bilan band bo’lgan ta’lim muassasalarining professor-

o’qituvchilar tarkibiga va kontsertmeysterlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

- “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni uchun ustamalar eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida belgilanadi.

Respublika teatr-kontsert tashkilotlaridan yoki teatr va musiqa san’ati ijodiy kadrlarini tayyorlovchi ta’lim muassasalaridan ishdan bo’shagandan so’ng pensiyani qayta hisoblash uchun murojaat etgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab belgilanadi. Ustama haqlardan tashqari, ishlamaydigan pensionerlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faxriy unvonlar uchun to’lovlar miqdorini oshirish to’g’risida” 2007 yil 17 dekabrdagi PF-3942-son Farmoniga ilovaga muvofiq faxriy unvonlar uchun qo’shimcha haq, 100 yoshga to’lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga esa har oyda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo’llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2015 yil 14 apreldagi PF-4715-son Farmoniga muvofiq eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida qo’shimcha to’lov qo’shib hisoblanadi.

Nogironlik bo’yicha pensiya mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatda yo’qotilganda tayinlanadi. Bu pensiyaning miqdori mehnat qobiliyatining yo’qotilish darajasiga (nogironlik guruhiga), nogironlik sabablariga, mehnat staji va ish haqining darajasiga bog’liq.

Nogironlik pensiyalari belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi (2011 yil 1 yanvardan keyin nogironlikning III guruhi belgilangan shaxslarga, shu jumladan, takroriy tibbiy ko’rikdan o’tkazilgandan so’ng nogironlikning III guruhi belgilangan shaxslarga nogironlik pensiyasi tayinlanmaydi va to’lanmaydi, Chernobil halokati oqibatida III guruh nogironligini olgan shaxslardan tashqari. Istiqbolda mamlakatimizda III guruh nogironlari uchun ham nogironlik pensiyalarini tayinlash rejalashtirilmoqda). Sog’lig’ini yoki mehnat qobiliyatini yo’qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to’g’risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’i nazar, tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik

boshlangan paytga qadar qonunchilikda belgilangan ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi. 20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam bo'lmagan miqdorda pensiyalarning bazaviy miqdorlari belgilanadi. Pensiyani hisoblash tartibi fuqarolarning yoshiga doir pensiyasini hisoblash kabi amalga oshiriladi. Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to'liq yili uchun nogironlik pensiyalarning bazaviy miqdorlari I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyalari — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foiziga oshiriladi. Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyasining bazaviy miqdori nogironlik bo'yicha pensiya tayinlangan kunda qonunchilikda nazarda tutilgan ish staji mavjud bo'lganda oshiriladi.

Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi va uning miqdori I guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun — yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan hamda II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun — yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Nogironlik pensiyasi nogironlik belgilangan (aniqlangan) davr mobaynida o'rnatiladi.

Boquvchisini yo'qotganligi uchun pensiya vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan va uning mehnatga layoqatsiz oila a'zolariga tayinlanadi.

Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan

yoshga to’lgunga qadar boqish bilan mashg’ul bo’lsa va ishlamasa pensiya ular boquvchining qaramog’ida turgan-turmaganidan qat’i nazar tayinlanadi. Marhumning qaramog’ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag’ manbaidan mahrum bo’lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo’ladilar.

Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a’zolari hisoblanadilar:

- bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to’lmagan bo’lsa yoki 16 yoshdan katta bo’lsa ham 16 yoshga to’lmasdan nogiron bo’lib qolgan bo’lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo’lmasa;
- ota, ona, o’gay ota, o’gay ona, xotin, er, basharti, ular umumbelgilangan pensiya yoshiga to’lgan yoki nogiron bo’lsalar;
- yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat’i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo’lish huquqini beradigan yoshga to’lgunga qadar boqish bilan mashg’ul bo’lsa va ishlamasa;
- buva va buvi — agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo’lgan kishilar bo’lmasa.

O‘quvchilar 18 yoshga to’lgunga qadar boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo’lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar. O‘gay o’g’il va o’gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo’lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar. O‘gay ota va o’gay ona, agar vafot etgan o’gay o’g’ilni (qizni) 18 yoshga to’lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo’lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo’ladilar. Bedarak yo’qolganlarning oilalariga ham, agar boquvchining bedarak yo’qolganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan bo’lsa, vafot etganlar oilalariga taalluqli hamma qoidalari tegishli ravishda ushbu oilalarga ham joriy qilinadi.

Ko’rsatib o’tilgan oila a’zolari, agar ular marhumning to’liq boquvida bo’lgan yoki undan yordam olib turgan bo’lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag’ining manbai hisoblangan bo’lsa, marhumning qaramog’ida turgan deb hisoblanadilar. Marhumning biron turdagi pensiya olayotgan oila

a’zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag’ining manbai hisoblangan bo’lsa — boquvchisini yo’qotganlik pensiyasiga o’tish huquqiga egadirlar.

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi. Boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo’lgan bo’lsa, umumiy kasallik yoki ish bilan bog’liq bo’lmagan mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi tayinlanadi.

Boshqa mamlakatlardan ko’chib kelgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, basharti, boquvchi O‘zbekiston Respublikasida ishlamagan bo’lsa, pensiyalar quyidagi hollarda tayinlanadi:

- boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo’qotganlik pensiyasini olgan oilalarga — boquvchisining ish stajidan qat’i nazar;
- pensiya olmagan oilalarga — basharti, boquvchi ishlash to’xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo’lgan bo’lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa — boquvchining ish stajidan qat’i nazar.

Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo’lmagan boquvchisini yo’qotgan oila a’zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

Er (xotin)ning vafot etganligi sababli tayinlangan pensiya pensioner yangi nikohdan o’tganida ham saqlanib qoladi. Oilaning pensiya olish huquqiga ega bo’lgan barcha a’zolariga bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a’zosining talabi bilan uning pensiyadagi ulushi ajratilib, alohida to’lanadi. Pensiyadan ulush ajratib berish pensiyani bo’lish to’g’risida ariza tushgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi uchun oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a’zosiga — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o’rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan kam bo’lmagan miqdorida, har ikkala ota-onasini yo’qotgan bolalarga (chin etimlarga) boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi uchun yoki vafot etgan yolg’iz onaning bolalariga har bir bola uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o’rtacha oylik ish haqining 30 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam bo’lmagan miqdorda pensiyaning tayanch miqdori belgilanadi.

Pensiya miqdorini hisoblash tartibi yoshga doir pensiyalarni hisoblash tartibi bilan bir hil.

Boquvchisini yo’qotganlik pensiyalari oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a’zosiga — boquvchi o’rtacha oylik ish haqining 0,5 foiziga oshiriladi.

Har ikkala ota-onasini yo’qotgan bolalarga (chin etimlarga) tayinlanadigan boquvchisini yo’qotganlik bo’yicha pensiyalarini oshirish eng kam oylik ish haqining o’n baravari miqdori doirasida har ikkala ota-onaning ish haqi umumiy miqdoridan amalga oshiriladi. Bunda har ikkala ota-onasini yo’qotgan bolalarga (chin etimlarga) tayinlanadigan boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi miqdori har ikkala ota-onaning umumiy ish staji miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi, ya’ni pensiya tayinlash va talab etiladigandan ortiq staj uchun pensiyani oshirish har ikkala ota-onaning umumiy ish staji miqdori bo’yicha amalga oshiriladi.

Agar ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi miqdori har ikkala ota-onaning umumiy ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi miqdoridan ko’p bo’lsa, u holda, chin etim maqomini saqlab qolgan holda, murojaat etganning xohishi bo’yicha ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan pensiyaning eng ko’p miqdori tayinlanadi.

O‘zbekistonda aholining ijtimoiy ta’minotini yanada yaxshilash va pensionerlarning farovonligini qo’shimcha mablag’lar bilan ta’minlash maqsadida 2004 yil 2 dekabr kuni “Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunga binoan quyidagilar belgilangan:

- 2005 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning amaldagi davlat pensiya ta’minoti tizimiga qo’shimcha ravishda jamg’arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi;
- 2005 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisob raqami fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi;
- fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya hisob raqamiga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig’i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromad)ning 2018 yilda ikki (2019 yilning 1 yanvaridan boshlab 0,1) foizi miqdorida o’tkaziladi;

- jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida qatnashadigan fuqarolar tomonidan shaxsiy pensiya hisob raqamlariga badallar miqdori va to’lash muddatlari mustaqil ravishda belgilanishi ham mumkin va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslar jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega. Ish beruvchilarning, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo’lsa, majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo’jaliklarining a’zolari, shuningdek boshqa fuqarolar jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar jamg’arib boriladigan pensiya tizimiga fuqarolarni hisobga qo’yish, shuningdek shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish uchun O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida elektron ariza berishga haqli.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish;
- jamg’arib boriladigan pensiya daftarchasini berish.

Xalq banki jamg’arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yuritadi. Jamg’arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini yuritishga doir hamda shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga taalluqli ma’lumotlar Xalq bankining yagona ma’lumotlar elektron bazasida shakllantiriladi va saqlanadi.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi. Shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami berish fuqarolarning pasportidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Fuqarolarning yashash yoki ish joyi yoxud pasportidagi ma’lumotlar o’zgargan taqdirda shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvarag’i tartib raqami o’zgarishsiz qoladi va yangi shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvarag’i ochish talab etilmaydi. Fuqaroning jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlarini olish huquqini tasdiqlovchi jamg’arib boriladigan pensiya daftarchasi fuqaroga shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvarag’i ochilganidan keyin Xalq banki tomonidan beriladi.

Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig’ining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg’arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to’lab boradi.

Jamg’arib boriladigan majburiy pensiya badallarining miqdori xodimlarning, shu jumladan ishlayotgan pensionerlarning ish haqi va boshqa daromadi summasi asosida hisoblab chiqariladi hamda har yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan navbatdagi yilga mo’ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini shakllantirish vaqtida belgilanadi.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’lari Xalq bankida shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag’larni jamlash yo’li bilan shakllantiriladi. Shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag’larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- jamg’arib boriladigan majburiy pensiya badallari;
- jamg’arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;
- shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag’lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;
- qonun hujjatlariga zid bo’lmagan boshqa mablag’lar.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’laridan jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlari to’lash uchun foydalaniladi. Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’laridan jamg’arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog’liq bo’lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin emas. Xalq banki jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larining alohida hisobini yuritadi.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini ko’paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag’lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin. Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Jamg’arib boriladigan majburiy pensiya badallaridan, shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag’larga hisoblab chiqarilgan foizlardan hamda bunday mablag’lar foydalanilishidan fuqarolar va Xalq banki oladigan boshqa daromadlardan, jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlaridan, shuningdek jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’lari aylanmasidan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar olinmaydi.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to’lovlari oluvchi sifatida jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlarini qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega. Fuqaro vafot etgan taqdirda, shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvarag’ida jamg’arilgan mablag’lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda merosga o’tadi va merosxo’rga bir yo’la to’la hajmda to’lanadi. uqaro O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash joyiga chiqib ketayotgan bo’lsa, shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvarag’ida jamg’arilgan mablag’lar bir yo’la to’la hajmda to’lanadi.

Jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limi tomonidan berilgan jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlarini olish huquqi to’g’risidagi guvohnoma asosida bunday to’lovlarni oluvchining yashash joyidagi Xalq banki filiali tomonidan to’lanadi.

22.3. Ijtimoiy nafaqalar

Ijtimoiy nafaqalarning turli ko’rinishlari aholining ijtimoiy himoyalash tizimida muhim o’rin egallaydi. Ularning tarkibi Bolalikdan nogironlarga va o’n sakkiz yoshga to’lmagan OIV

infektsiyasiga chalingan shaxslarga, pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga, homiladorlik va tug'ish, farzand tug'ilganda, bola parvarishi va boshqa holatlar bo'yicha vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganligi uchun, kam ta'minlanganlik, ishsizlik nafaqalardan va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin.

Bolalikdan nogironlarga va o'n sakkiz yoshga to'lmagan OIV infektsiyasiga chalingan shaxslarga nafaqa. Ushbu nafaqa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 aprel kuni qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida" gi Qaroriga asosan tayinlanadi.

Nafaqa olish huquqiga tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan bolalikdan I guruh nogironlari, bolalikdan II guruh nogironlari deb e'tirof etilgan 16 yoshdan katta shaxslar, kasallikning bosqichidan qat'i nazar, o'n sakkiz yoshga to'lmagan OIV infektsiyasiga chalingan shaxslar, shuningdek nafaqa olish huquqini beradigan tibbiy xulosa mavjud bo'lgan taqdirda 16 yoshgacha nogiron bolalar egadirlar. Nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar nafaqa olish huquqi paydo bo'lgandan so'ng biror-bir muddat bilan cheklashsiz, istalgan vaqtda uning tayinlanishi uchun murojaat qilishlari mumkin. Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Bunda o'n sakkiz yoshga to'lmagan OIV infektsiyasiga chalingan shaxslarga nafaqa qonun hujjatlarida bolalikdan nogironlar uchun belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqani tayinlash Nafaqani tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan, moliyalashtirish uchun mablag'lar davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Nafaqa barcha zarur hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi. 16 yoshdan katta bolalikdan nogironga nafaqa nogironlikning butun davriga tayinlanadi. Nogiron bolaga nafaqa tibbiy xulosa berilgan muddatga tayinlanadi. OIV infektsiyasiga chalingan shaxsga nafaqa u o'n sakkiz yoshga to'lgungacha bo'lgan muddatga tayinlanadi.

Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga

nafaqalar. Ushbu nafaqa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 aprel kuni qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida” gi Qaroriga asosan tayinlanadi. Nafaqa O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga beriladi Nafaqa yoshga doir nafaqa, nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironlardan tashqari) hamda boquvchisini yo’qotganlik nafaqasi bo’yicha farqlanadi. Nafaqa olish huquqiga ega bo’lgan shaxslar nafaqa olish huquqi paydo bo’lgandan so’ng biror-bir muddat bilan cheklashsiz, istalgan vaqtda uning tayinlanishi uchun murojaat qilishlari mumkin.

Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqalarni tayinlash va to’lash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshga doir nafaqa ish stajiga ega bo’lmagan, bugungi kunda 7 yildan kam ish staji mavjud bo’lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo’lmagan shaxslarga tayinlanadi. Yoshga doir nafaqa erkaklarga 65 yoshga etganlarida, ayollarga — 60 yoshga etganlarida tayinlanadi. Haq to’lanadigan ish bajarayotgan yoki boshqa daromad manbaiga ega bo’lgan (alimentlar yoki stipendiyalar olish bundan mustasno) shaxslarga yoshga doir nafaqa tayinlanmaydi. Ish stajiga ega bo’lmagan shaxsga yoshga doir nafaqa mehnatga layoqatli voyaga etgan farzandlari, qarindoshlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta’minlashga majbur bo’lgan boshqa shaxslar bo’lmagan taqdirda tayinlanadi. Pensiya jamg’armasi bo’limi tomonidan fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari bilan birgalikda o’tkazilgan tekshirishda ish stajiga ega bo’lmagan va yoshga doir nafaqa so’rab murojaat etgan shaxsni ta’minlashga majbur bo’lgan qarindoshlarining yoki boshqa shaxslarning moddiy nochorligi aniqlangan hollarda yoshga doir nafaqa yoshga doir nafaqa so’rab murojaat qilgan shaxsga moddiy yordam bera olmaydigan qarindoshlar yoki boshqa shaxslar bor bo’lgan taqdirda ham yoshga doir nafaqa tayinlanishi mumkin.

Nogironlik nafaqasi nogironlik sodir bo’lgan hollarda, yoshidan qat’i nazar, ish stajiga ega bo’lmagan I va II guruh nogironligi

bo’lgan shaxslarga tayinlanadi va to’lanadi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo’qotilganda) Pensiya jamg’armasi bo’limlari yo’llanmalari bo’yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Qabul qilingan xulosa asosida TMEK etti kun muddatda tibbiy tekshirish dalolatnomasidan ko’chirmani Pensiya jamg’armasi bo’limiga yuboradi. Ishlayotgan yoki hayot kechirishning boshqa manbalariga (alimentlar yoki stipendiyalar olish bundan mustasno) ega bo’lgan I guruh nogironlarga va II guruh nogironlarga nafaqa tayinlanmaydi. Nogironlik nafaqasi mehnatga layoqat yo’qotilishining butun davri uchun tayinlanadi.

*Boquvchisini yo’qotganlik nafaqasi. D*avlat pensiyasi olish huquqiga ega bo’lmagan shaxsning qaramog’ida bo’lgan oilaning mehnatga layoqatli bo’lmagan a’zolari boquvchisini yo’qotganlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar.

Boquvchisini yo’qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a’zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo’lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a’zosiga — nafaqaning 100 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a’zosiga — nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a’zosiga — nafaqaning 50 foizi.

Nafaqa olish huquqiga ega bo’lmagan shaxs vafot etgan taqdirda vafot etganning oila a’zolariga nafaqa pensiya tayinlash uchun zarur bo’lgan ish stajiga ega bo’lmagan qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarning nafaqasi miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Boquvchisini yo’qotganlik nafaqasini olish huquqiga ega bo’lgan oila a’zolarining barchasiga bitta umumiy nafaqa tayinlanadi. Oila a’zosining talabiga ko’ra uning nafaqadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to’lanadi. Bunda tayinlangan nafaqaning umumiy miqdori oluvchilarning umumiy soniga bo’linadi.

Ishsizlik nafaqasi. Ushbu nafaqa 1998 yil 1 may kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to’g’risida”gi Qonuniga asosan tayinlanadi. Ishsizlik nafaqasi ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslarga tayinlanadi. Qaramog’ida uchtagacha kishi bo’lgan, o’ttiz besh yoshga to’lmagan ishsiz erkaklarga ishsizlik

nafaqasi ular haq to’lanadigan jamoat ishlarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda ishtirok etgan taqdirda tayinlanadi. Ishsizlik nafaqasi ularga mahalliy mehnat organida ro’yxatga olingan birinchi kundan e’tiboran yoziladi va to’lanadi. Ishsizlik nafaqasi ko’pi bilan ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo’lgan yoki uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan shaxslarga o’n ikki oylik davr mobaynida yigirma olti kalendar hafta, ilgari ishlamagan va birinchi bor ish qidirayotgan shaxslarga esa o’n ikki oylik davr mobaynida o’n uch kalendar hafta to’lanadi.

Ishsiz ishsizlik nafaqasini olish davrida ish qidirishi va har ikki haftada kamida bir marta mahalliy mehnat organiga ishga yoki kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga, malakasini oshirishga yo’llanma olish uchun murojaat qilishi shart. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo’lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o’rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog’ida o’n olti yoshga to’lmagan bolalari va boshqa kishilar bo’lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori o’n foizga oshiriladi.

Ish haqiga koeffitsientlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsientni qo’llagan holda aniqlanadi. Ishsizlik nafaqasi miqdorini hisoblab chiqishda rayon koeffitsientlarini qo’llash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo’lgan taqdirda, ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo’lgan shaxslarga oldingi ish joyidagi o’rtacha ish haqining ellik foizi miqdorida, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo’lmagan va nafaqani hisoblash paytida O‘zbekiston Respublikasida tarkib topgan o’rtacha ish haqidan ortiq bo’lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi to’lash kafolatlanadi.

Harbiy xizmatdan, Ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati organlaridan bo’shatilishi munosabati bilan ish haqidan mahrum bo’lgan shaxslar ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega. Harbiy xizmatdan, Ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati organlaridan bo’shatilgan hamda mahalliy mehnat organlariga murojaat qilishdan

oldin ishlamagan shaxslarga nafaqa miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdori darajasida hisoblab chiqariladi.

Ilgari ishlamagan, birinchi marta ish qidirayotgan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularga qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida etmish besh foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz shaxslarga mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek o'n ikki oy mobaynida haq to'lanadigan ish bilan bandligi o'n ikki kalendar haftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatishni yoki malakasini oshirishni talab qilmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda va boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining etmish besh foizi miqdoridamiqdorda nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar ishlab chiqarishdan ajralgan holda kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tgandan, malaka oshirishni tugatgandan keyin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

- vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda (shikastlanishda);
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- karantinda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun faqat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik

varaqasi (kasallik varaqasi) asos bo’ladi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqa mehnat qobiliyati yo’qolgan birinchi kundan to u tiklangunga qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan nogironlik belgilangunga qadar, hatto bu davrda xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham beriladi.

Oliy, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga nafaqa ular ishga chiqishi lozim bo’lgan kundan boshlab beriladi. Ish haqi, sutkalik va ko’chish bo’yicha xarajatlarni olish huquqiga ega bo’lgan xodimga ish joyiga borayotgan davrda boshlangan mehnatga qobiliyatsizlik kunlari uchun nafaqa to’lanadi. Xodimning mehnatga qobiliyatsizlik kunlari yillik (asosiy va qo’shimcha) ta’til davriga to’g’ri kelgan hollarda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko’rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa to’lanadi.

Sanatoriy-kurortda davolanishda, agar asosiy va qo’shimcha ta’til xodimning sanatoriyda davolanishi uchun etarli bo’lmasa, nafaqa beriladi. Bunday holda sanatoriy-kurortda davolanishning barcha davri uchun (yo’llanma, davolanish muddati) sanatoriyga borish-kelish vaqtini qo’shib, ammo xodimning yillik ta’tilini chiqarib tashlagan holda nafaqa beriladi. Asosiy va qo’shimcha ta’tildan sanatoriyga borishdan oldin foydalangan bo’lsa ham nafaqa uni chiqarib tashlagan holda beriladi. Bunda ish beruvchi ta’tilning etmaydigan vaqti uchun xodim bilan kelishib, unga ish haqi saqlanmagan ta’til beradi.

1941 — 1945 yillardagi urush nogironlariga, baynalminal jangchilarga, Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek, sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o’tkir miokard infarkti bilan kasallangan, jarrohlik uslubi bilan yurakning aortakoronar shuntrovkasi va anevrizmlari, oshqozonning yaralik kasalligi, o’n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o’t pufagini olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek sil kasalligi bilan og’riganlarga nafaqa sanatoriyda bo’lgan barcha vaqt uchun beriladi.

O‘n olti yoshgacha bo’lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga (homiyga yoki vasiyga), nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun (sanatoriyga borib-kelish vaqtini hisobga olib) unga yakka tartibda parvarish zarurligi to’g’risidagi tibbiy xulosa mavjud bo’lganda nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo’lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo’lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo’lgan ona kasal bo’lib, bolani parvarishlashga qurbi etmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo’lgan ishlayotgan boshqa oila a’zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo’lgan a’zosiga qarash bo’yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo’lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi. O‘n to’rt yoshga etmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo’lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

Agarda xodim karantin vaqtida sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan atrofidagi shaxslar orqali yuqumli kasallikka chalinish xavfini oldini olish maqsadida ishdan chetlatilgan bo’lsa nafaqa berilad i.Sil kasalligi yoki kasb kasalligiga chalingan xodim davolanish qoidasini buzmagan holda boshqa ishni bajarish imkoniga ega bo’lib, u tibbiy-maslahat komissiyasi (TMK) xulosasi (bunday komissiyalar bo’lmagan joylarda esa davolovchi shifokorning, davolash muassasasining bosh shifokori tomonidan tasdiqlangan xulosasi) asosida vaqtincha boshqa ishga o’tkazilishi mumkin.

Xodimga, vaqtinchalik kamroq haq to’lanadigan ishga o’tgan vaqt uchun, lekin ikki oydan ortiq bo’lmagan muddat davomida kasallik varaqasi bo’yicha yangi ishda beriladigan ish haqiga qo’shilganda avvalgi ishidagi to’liq ish haqidan oshib ketmaydigan miqdorda nafaqa to’lanadi. Bunda kasb kasalligi oqibatida boshqa ishga o’tkazilgan shaxslarga nafaqa, agar u amaldagi qonun hujjatlariga binoan avvalgi ish haqi bilan yangi ish haqi o’rtasidagi farqni korxonadan olish huquqiga ega bo’lmasa beriladi. Basharti, kasallik varaqasida ko’rsatilgan muddatda ish beruvchi xodimga boshqa ish topib berolmagan bo’lsa, u holda shuning oqibatida bekor o’tgan ish kunlari uchun nafaqa umumiy asoslarda to’lanadi.

Reabilitatsiya muassasalarida bo’lgan barcha vaqt uchun va unga kelib-ketish vaqti uchun nafaqa to’lanadi. Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo’lgan xodimlarga mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa umumiy asoslarda, boshqa sabablar oqibatidagi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqa mavsumiy yoki vaqtinchalik ish to’g’risida tuzilgan mehnat shartnomasida ko’rsatilgan ish kunlari doirasida to’lanadi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari, ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi. Ishlayotgan 1941 — 1945 yillardagi urush nogironlariga va imtiyozlari jihatdan ularga tenglashtirilgan boshqa nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi (mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari) ketma-ket to'rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi.

Agar ishlovchi nogironning vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to'la sog'aygunga yoki mehnatda mayiblanish yoxud kasb kasalligi bilan bog'liq nogironlik guruhi qayta ko'rib chiqilgunga qadar to'lanadi.

Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa shaxs to'la sog'aygunga qadar, lekin ko'pi bilan 10 oyga beriladi. Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb topilganda nafaqa ko'pi bilan 6 oyga beriladi. TMEK ko'rigidan belgilangan muddatda qayta o'tmagan nogironga nafaqa mazkur bandda belgilangan muddatlarga to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

- ish haqi saqlanmagan ta'til;
- bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;
- ish vaqtincha to'xtatilgan;
- xodim ishdan (lavozimdan) chetlashtirilib, ish haqi to'lash to'xtatib qo'yilganligi sababli ishlamagan;
- harbiy o'quv yoki tekshiruv yig'ini;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til.

Ushbu davrlarda boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda berilmaydi:

- ishdan yoki boshqa vazifalardan bo’yin tovlash maqsadida o’z salomatligiga ataylab ziyon etkazgan yoxud o’zini kasallikka solganda;
- giyohvandlik yoki mastlik bilan bog’liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarini iste’mol qilish natijasida kasallikka chalinganda (jarohatlanganda);
- jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda;
- sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda (ruhiy kasallardan tashqari);
- hibsda bo’lgan davrda;
- sud-tibbiyot ekspertizasidan o’tish davrida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat’i nazar ish haqining 100 foizi miqdorida quyidagilarga to’lanadi:

- ishlayotgan 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga;
- baynalminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;
- qaramog’ida 16 yoshga (o’quvchilar 18 yoshga) etmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo’lgan xodimlarga;
- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga;
- Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko’chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o’tkir leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o’smalar bilan bog’liq kasalliklarga chalingan xodimlarga;
- mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo’lgan xodimlarga.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, yangidan paydo bo’ladigan xatarli o’simtalar, jinsiy yo’l bilan o’tadigan kasalliklar, SPID, moxov (lepra) kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo’yicha hisobda turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug’urta badali to’lagan davrining (umumiy ish stajining) davomiyligiga bog’liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorlarda to’lanadi:

- umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo’lgan xodimlarga ish haqining 100 foizi miqdorida;
- umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo’lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;
- umumiy ish staji 5 yilgacha bo’lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

Yuqorida ta’kidlangan xodimlardan tashqari qolgan xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqa quyidagi miqdorlarda to’lanadi:

- umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo’lgan xodimlarga hamda 21 yoshga etmagan chin (sag’ir) etimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;
- umumiy ish staji 8 yilgacha bo’lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

Tayinlangan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqa quyidagi miqdorlarda to’lanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safidagi muddatli xizmatdan bo’shatilgandan so’ng bir oy ichida kasal bo’lib qolgan sobiq harbiy xizmatchilarga — respublikada belgilangan eng kam ish haqi miqdorida;
- boshqa hollarda — ish haqining 60 foizi miqdorida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo’lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo’lmasligi lozim. Nafaqa miqdori vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kungacha, mehnat daftarchasi yoki uning o’rniga berilgan boshqa hujjat, shuningdek ijtimoiy ta’minot bo’limlari tomonidan berilgan ma’lumotnoma asosida hisoblangan umumiy ish stajiga muvofiq aniqlanadi.

Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqani tayinlash va to’lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo’ladi.

Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa (shu jumladan, homila tushgan hollarda) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko’rsatilgan barcha davr uchun to’lanadi. Xodim ishdan bo’shatilishining noto’g’riligi haqida nizo ketayotgan davrda homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til berilganda, nafaqa u ishga qayta tiklangan taqdirda beriladi. Bunda homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa ayolni ishga qayta tiklash to’g’risida qaror chiqqandan so’ng, nafaqa to’lanmagan barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun to’lanadi.

Oliy, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug’ish bo’yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi

lozim bo’lgan kundan boshlab beriladi. Ishni vaqtinchalik to’xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o’quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo’shimcha ta’til davrida homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til berilgan holda, nafaqa ko’rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo’lgan kundan boshlab beriladi.

Xodim yillik (asosiy va qo’shimcha) ta’tilda va bolani parvarishlash uchun ta’tilda bo’lgan vaqtda homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko’rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo’yicha ta’til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta’til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o’rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo’lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Ish haqi to’lash to’xtatilib, ishdan (lavozimdan) chetlashtirish oqibatida ayol ishlamagan davrda homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilgan holda nafaqa to’lanmaydi. Agar homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til ishga qo’yilgandan keyin ham davom etadigan bo’lsa, nafaqa u ishga chiqishi lozim bo’lgan kundan boshlab beriladi.

Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa tayinlanganda ham, ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

Bola tug’ilganda beriladigan nafaqa. Bola tug’ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsient qo’llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Ishlayotgan ayollarga, hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug’ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o’qish joyidan to’lanadi. Bolaning onasi ishlamaydigan va o’qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o’qiydigan otasi yoki ota-ona o’rnini bosuvchi shaxslarga to’lanadi. Ishlamaydigan va o’qimaydigan ota-onalarga bola tug’ilganda nafaqa ijtimoiy ta’minot bo’limlari tomonidan tayinlanadi va to’lanadi. Farzandlikka

olingan bolalarga bola tug’ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Agar ayol homiladorlik bo’yicha ta’til davrida ishdan bo’shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa olgan bo’lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o’lik tug’ilgan hollarda nafaqa to’lanmaydi.

Kam ta’minlangan va bolali oilalar uchun nafaqalar. Ushbu nafaqalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 15 fevral kuni “Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to’lash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 44-son Qaroriga muvofiq tayinlanadi. Ushbu Nizom fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari tomonidan 14 yoshgacha bolalari bo’lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to’lgunga qadar bola parvarishi bo’yicha nafaqa va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to’lash tartibini belgilaydi.

Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam 6 oy muddatga, bola parvarishi bo’yicha nafaqa esa – 12 oyga tayinlanadi, biroq bola ikki yoshga to’lgan oydan keyingi oyga o’tmasligi kerak. gar tug’ilgan, farzandlikka olingan yoki vasiylikka qabul qilingan ikki va undan ortiq bolalar parvarish qilinsa, u holda bola parvarishi bo’yicha nafaqa kichik bola ikki yoshga to’lgunga qadar bir baravar miqdorda to’lanadi.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo’yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to’lash to’g’risidagi qaror fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organi – posyolka, qishloq va ovul, shuningdek shaharlarning mahallalari fuqarolar yig’ini (vakillar yig’ilishi) yoki bunday qarorlarni qabul qilish uchun fuqarolar yig’ini tomonidan vakolat berilgan Komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya fuqarolar yig’ini tomonidan fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organi hududida istiqomat qiluvchi obro’-e’tiborli va hurmatga sazovor fuqarolar orasidan saylanadi. Komissiyaga fuqarolar yig’inining raisi boshchilik qiladi. Komissiya a’zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig’ini raisi esa – uning butun vakolati davriga saylanadi. Ushbu Komissiya tarkibi kamida 15 kishidan iborat bo’lishi kerak. Komissiya a’zosi vakolatlarining amal qilishi davrida a’zolikdan chiqqan taqdirda, fuqarolar yig’ini Komissiya a’zolarini qaytadan saylaydi. Komissiya qarori, uning yig’ilishida tasdiqlangan tarkibning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa qonuniy hisoblanadi. Fuqarolar yig’ini tomonidan ehtiyojmand deb e’tirof etilgan oila nafaqa yoki moddiy yordamning faqat bir turini olish huquqiga ega.

Quyidagilar bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo'yicha nafaqalar va moddiy yordam to'lovlarini mablag' bilan ta'minlash manbalari hisoblanadi:

- mahalliy byudjetlar mablag'lari;
- byudjetdan tashqari manbalar (jamoat va xayriya jamg'armalari, korxonalarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari va boshqalar).

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam har bir oila a'zosiga o'rtacha oylik jami daromad miqdori jami daromad aniqlanayotgan davr uchun belgilangan eng kam oylik ish haqining 1,5 baravardan ortiq bo'lmagan oilalarga tayinlanadi.

Quyidagilar bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam olishda ustunlik huquqiga ega:

- ota-onasining ikkisini ham yo'qotgan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlar shug'ullanayotgan oilalar;
- ota-onalardan biri yoki har ikkisi ham nogiron bo'lgan oilalar;
- 14 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq bolalarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlardan alohida yashayotgan beva ayollar (beva erlar);
- nogiron bolasi (bolalari) bo'lgan oilalar;
- bolani (bolalarni) to'liq bo'lmagan oilada tarbiyalayotgan onalar (otalar). Bunda bolaning amalda to'liq bo'lmagan oilada ona (ota) tomonidan tarbiyalanishini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi belgilaydi;
- ota-onalardan biri yoki har ikkisi ishsiz bo'lgan va ish izlovchi sifatida bandlikka ko'maklashish markazlarida hisobda turgan oilalar;
- yolg'iz pensionerlar.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam ariza beruvchining o'zini o'zi boshqarish organiga murojaat qilgan oyning keyingi oyidan boshlab to'lanadi. Bola parvarishi bo'yicha nafaqani kelgusida ham olishga muhtojligi bo'lgan taqdirda uni olgan shaxs to'lovlarning avvalgi o'n ikki oylik muddati tugashidan bir oy oldin, bola ikki yoshga to'lgunga qadar ushbu nafaqani uzluksiz to'lanishini davom ettirish masalasini hal etish uchun belgilangan tartibda fuqarolar yig'iniga takroran murojaat etish huquqiga ega. Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam to'lashning belgilangan muddati tugagandan so'ng ariza beruvchi nafaqa va moddiy yordam to'lashni yangi muddatga davom

ettirilishini so’rab ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam olish uchun ariza oldingi davrda tayinlangan nafaqa va moddiy yordam to’lash muddati tugayotgan oydan keyingi oyga beriladi. Takroriy murojaatlarni ko’rib chiqish umumiy belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam ariza beruvchining doimiy yashash (ro’yxatdan o’tish) joyi bo’yicha fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organi tomonidan oila boshlig’i yoki boshqa muomalaga layoqatli oila a’zosining yozma arizasi asosida, bola parvarishi bo’yicha nafaqa esa – bolaning onasi yoki uning o’rnini bosuvchi shaxsning arizasi asosida tayinlanadi. Alohida hollarda, oilada muomalaga layoqatli a’zolar bo’lmagan taqdirda nafaqa va moddiy yordam oila a’zolarining yozma arizasisiz fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organi raisining taqdimnomasi bo’yicha tayinlanishi mumkin. Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam ariza beruvchining doimiy yashash (ro’yxatdan o’tish) joyi bo’yicha fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organi tomonidan oila boshlig’i yoki boshqa muomalaga layoqatli oila a’zosining yozma arizasi asosida, bola parvarishi bo’yicha nafaqa esa – bolaning onasi yoki uning o’rnini bosuvchi shaxsning arizasi asosida tayinlanadi. Alohida hollarda, oilada muomalaga layoqatli a’zolar bo’lmagan taqdirda nafaqa va moddiy yordam oila a’zolarining yozma arizasisiz fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organi raisining taqdimnomasi bo’yicha tayinlanishi mumkin.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo’yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash to’g’risidagi ariza uch bosqichda ko’rib chiqiladi.

Birinchi bosqichda maxsus komissiya ariza berilgan sanadan boshlab uch kun muddatda ariza beruvchi tomonidan fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organiga taqdim etilgan ma’lumotlar asosida oilaning a’zosiga to’g’ri keladigan o’rtacha oylik jami daromad miqdorini aniqlaydi.

Agar oila a’zosiga to’g’ri keladigan o’rtacha oylik jami daromad miqdori joriy davrda belgilangan eng kam ish haqining 1,5 barobaridan kam bo’lsa, maxsus komissiya oilaning moddiy va mulkiy holatini tekshirish sanasini belgilaydi.

Ikkinchi bosqichda maxsus komissiya ariza berilgan sanadan boshlab o’n kun muddatda oilaning moddiy va mulkiy holatini o’rganib chiqadi, shundan keyin tegishli nafaqa yoki moddiy yordamni tayinlash yoki tayinlashni rad etish to’g’risidagi xulosani fuqarolar yig’iniga yoki Komissiyaga kiritadi.

Uchinchi bosqichda ariza berilgan oyning oxirgi kunidan kechikmay, maxsus komissiyaning xulosasi inobatga olingan holda, ariza tegishli nafaqa yoki moddiy yordamni tayinlash va to'lash yoki tayinlashni rad etish to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun fuqarolar yig'ini yoki Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

Oila a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromad, bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa yoki moddiy yordam olish uchun murojaat qilingan oydan oldingi oxirgi uch oy uchun hisoblab chiqilgan oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosining o'rtacha oylik daromadi summasini oila tarkibiga kiritiladigan oila a'zolari soniga bo'lingan holda aniqlanadi.

Agar oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlarda daromad summasi ko'rsatilmagan bo'lsa yoki eng kam oylik ish haqining 2,5 baravaridan kam summa ko'rsatilgan bo'lsa, u holda oilaning o'rtacha oylik jami daromadini hisoblash uchun daromadni normativdan past ko'rsatgan yoki daromadi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etmagan oila a'zolarining har biriga nafaqa yoki moddiy yordamga murojaat qilingan oyda belgilangan eng kam oylik ish haqining 2,5 baravariga teng bo'lgan normativ daromad miqdori qabul qilinadi. Ushbu qoida bola ikki yoshga to'lgunga qadar uning parvarishi bilan band bo'lgan onalarga (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga), ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarga (mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni amalga oshirish hollari bundan mustasno), ishlamaydigan pensionerlarga, amalda shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritish bilan band bo'lgan oila a'zosiga, tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish markazlarida ishsiz sifatida ro'yxatga olingan fuqarolarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam fuqarolar yig'ini yoki Komissiyaning qarori bayonnomasi asosida to'lanadi. Tegishli nafaqalar va moddiy yordamni to'lash Xalq bankining bo'linmalarida (filiallarida) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining maxsus bank hisob raqamlariga o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining tegishli iqtisodiy tasnifi bo'yicha aks ettirilgan holda mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Ijtimoiy ta'minot deb nimaga aytiladi?

- Ijtimoiy ta’minot bo’yicha xarajatlarning asosiy ko’rinishlari nimalardan iborat?
- Pensiyaning qanday ko’rinishlari mavjud?
- Nafaqalarning qanday asosiy ko’rinishlari bo’lishi mumkin?
- Ijtimoiy ta’minotning yana qanday shakllari ham amal qiladi?
- “Ijtimoiy ta’minot” tushunchasining keng ma’noda talqini nimalardan iborat?
- “Ijtimoiy ta’minot” tushunchasi tor ma’noda qanday tasavvur qilinadi?
- Ijtimoiy ta’minotning iqtisodiy manbalari nimalardan iborat?
- Ijtimoiy ta’minotni vujudga keltirishning (yaratishning, qurishning, tuzishning) printsiplari tarkibiga nimalar kiradi?
- Hozirgi paytda pensiya tizimini isloh qilishning asosiy negizida qanday printsip yotadi va unga muvofiq pensiyalarning qanday darajalarini o’rnatish ko’zda tutilmoqda?
- Davlat pensiyasi to’g’risidagi qonunga muvofiq pensiyaning qanday turlari qo’llanilib kelinayapti?
- Qarilik pensiyasiga xos bo’lgan xususiyatlar nimalardan iborat?
- Nogironlik pensiyasi qanday holatda tayinlanadi va uning miqdoriga nimalar o’z ta’sirini ko’rsatadi?
- Boquvchisini yo’qotganligi uchun pensiya kimlarga mo’ljallangan va uning darajasi nimalarga bog’liq?
- Xizmat qilgan yillari uchun pensiya qanday omillarga bog’liq ravishda o’rnatiladi?
- Ijtimoiy pensiya kimlar uchun belgilanadi?
- Ijtimoiy nafaqalarning tarkibi nimalardan iborat bo’lishi mumkin?
- Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqalar kimlarga beriladi?
- Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqaning miqdori qanday belgilanadi?
- Bolaning ikki yoshga etguniga qadar parvarishi bo’yicha ta’til davrida beriladigan nafaqa kimlarga berilishi mumkin?

23-bob. Davlat krediti

23.1. Davlat kreditining mazmun-mohiyati va funksiyalari

Davlat krediti hokimiyat va boshqaruv organlari orqali, bir tomondan, davlat va ikkinchi tomondan, jismoniy va yuridik shaxslar o’rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat bo’lib, unda davlat qarz oluvchi, kreditor (qarz beruvchi) va kafil sifatlarida maydonga chiqadi. Bunday iqtisodiy (kredit) munosabat-lar(i)ning mumtoz (klassik) shaklida davlat, odatda, mab-lag’larni qarz oluvchi bo’lib hisoblanadi.

Agar davlat yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarish va haq (to’lov, to’lash) asosida mablag’larni taqdim etib, kreditor (qarz beruvchi) sanalsa, unda amalga oshirilishi lozim bo’lgan operatsiyalar hajmi ancha kamayadi (pasayadi).

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan olingan qarzlarni uzish (qaytarish) yoki ularning boshqa majburiyatlarini bajarish javobgarligini davlat o’z zimmasiga olgan holatda, u kafilga aylanadi. Markazlash-tirilgan pul fondlarining o’lchamiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi kredit munosabatlarining dastlabki ikki ko’-rinishidan (qarz oluvchi va kreditor) farq qilgan holda davlat tomonidan kafolatning berilishi o’sha markazlashtirilgan pul fondining, albatta, o’zgarishiga olib kelmasligi mumkin. Agar qarzdor o’zining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar bo’yicha to’liq hajmda va o’z vaqtida hisob-kitob qilishni uddalay olsa, kafil hech qanday qo’shimcha xarajatlarni amalga oshirmaydi. Biroq ama-liyotda etarli darajada ishonchli bo’lgan qarz oluvchilar davlat kafolatiga muhtoj bo’lmaydi. Ular mustaqil ravishda kredit bozoridan mablag’larni jalb qilishga qodirdir. Odatda, davlat kafolatlari etarli darajada ishonchli bo’lmagan qarz oluvchilarga nisbatan qo’llaniladi va bu narsa shunga mos ravishda, markazlashtirilgan pul fondidan xarajatlarning o’sishiga olib keladi.

Davlat krediti iqtisodiy kategoriya sifatida ikki ko’rinishdagi – moliya va kredit – pul munosabatlarining o’rtasida joylashgan bo’lib, shunga mos ravishda, u ham moliyaga, ham kreditga tegishli bo’lgan xususiyatlarga egadir. Moliya tizimining alohida olingan bo’g’ini sifatida esa davlat krediti davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini (byudjet va byudjetdan tashqari fondlarni) shakllantirish va ulardan foydalanish jarayoniga xizmat qiladi.

Kreditning bir turi sifatida davlat krediti klassik (mumtoz) moliyaviy kategoriyalardan, masalan, soliqlardan farq qiluvchi bir necha o'ziga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarga egadir:

- davlat krediti soliqlarga nisbatan ixtiyoriylik xarakteriga ega. Ayrim hollarda amaliyotda, u yoki bu davlatlar tarixida bu printsipdan chekinish va davlat zayomlarini joylashtirishda majburiylik holatlariga ham yo'l qo'yiladi;
- agar soliqlar faqat bir yo'nalishda - soliq to'lovchilardan byudjetga yoki byudjetdan tashqari jamg'armalarga - harakat qilsa (bunga teskari yo'nalishdagi harakat faqat ortiqcha to'langan yoki xato undirilgan soliqlar qaytarilayotgandagina sodir bo'lishi mumkin), qaytaruvchanlik va haqlilik (to'lovlilik) davlat kreditining asosini tashkil etadi. Haqiqatdan ham davlat kreditiga ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng o'tkazilgan summa foizi bilan qaytarilishi kerak.

Umuman olganda, davlat krediti boshqa moliyaviy kategoriyalardan o'zining quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi:

- agar bank kreditini taqdim etishda ta'minlanganlik elementi sifatida konkret boyliklar – ombordagi tovarlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqa shunga o'xshashlar maydonga chiqadigan bo'lsa, davlat tomonidan mablag'lar qarzga olinayotganda uning egaligida bo'lgan barcha mol-mulk, ma'lum bir hududiy birlikning mulki yoki uning qandaydir bir daromadi davlat kreditining ta'minlanganlik elementi bo'lishi mumkin;
- Markaziy hukumat darajasida davlat krediti aniq maqsadli xarakterga ega bo'lmaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hokimiyatning quyi darajalarida olingan qarziy mablag'lar aniq ifodalangan maqsadli xarakterga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, yangi yo'llarni va turar-joy massivlarini qurish uchun olingan qarz mablag'lari ana shunday xarakterga egadir;
- har qanday qarz oluvchi singari davlat ham mablag'larni oldindan belgilangan muddatlarga jalb qiladi va bu muddatlar davlat kreditining aniq shartlarida o'z ifodasini topadi.

Davlat kreditining mazmun-mohiyati uning bajaradigan funksiyalari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Moliyaviy kategoriya sifatida davlat krediti quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- taqsimlash;
- tartibga solish;
- nazorat.

Davlat kreditining taqsimlash funksiyasi orqali davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini shakllan-tirish yoki muddatlilik, haqlilik va qaytaruvchanlik printsiplari asosida ulardan foydalanish amalga oshiriladi. Davlat qarz oluvchi (qarzdor) sifatida maydonga chiqib, o’z xarajatlarini moliyalashtirishni qo’shimcha mablag’lar bilan ta’minlaydi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda davlat qarzlari byudjet defitsitini moliyalashtirishning asosiy manbai bo’lib hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda davlat qarzlari orqali olinadigan tushumlar byudjet xarajatlarini moliyalash-tirishning soliqlardan keyingi ikkinchi metodidir. Bu narsa soliq tushumlarining oshishiga nisbatan byudjet xarajatlari o’sish sur’atlarining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Kapital xaraktyerdagi xarajatlarni qarzga olingan mablag’lar hisobidan moliyalashtirish ma’lum chegaralarda ijobiy ahamiyatga ega. Masalan, maktab yoki kutubxona uzoq muddatga xizmat qilganligi uchun bir emas, bir necha avlodning ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Shunday ekan, nega ularning qurilishi maktab va kutubxonaning xizmatidan foydalanishga ulgurmaydiganlarning soliqlari hisobidan bir necha yilga to’lanishi kerak? Bunday holatlarda ana shunga o’xshagan ob’ektlarni qurish bilan bog’liq bo’lgan moliyalashtirish masalalarini ularning xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo’lgan barcha avlodning zimmasiga yuklash oqilonadir. O‘z navbatida, moliyalashtirish manbalarini vaqt nuqtai nazaridan uzaytirish (cho’zish) o’sha muddatga zayomlar chiqarish yo’li bilan ta’minlanishi mumkin. Bu holda maktab yoki kutubxona qurayotgan avlod keyingi avlod bilan bir xil moliyaviy yukni o’z elkasida ko’tarishiga erishiladi. Chunki bu holda ular tomonidan to’-lanadigan soliqlar hisobidan asosiy qarz, ular bo’yicha foizlar ham qaytariladi.

Shunday qilib, davlat krediti taqsimlash funksiyasining ijobiy ta’siri natijasida, vaqt nuqtai nazaridan, soliq yuki og’irligining nisbatan tekisroq taqsimlanishiga erishiladi. Davlat qarzlari hisobidan xarajatlarni moliyalashtirish davrida olinayotgan soliqlar miqdori oshmaydi va uning og’irgi ortmaydi. Aks holda, ya’ni xarajatlarni moliyalashtirishga davlat tomonidan qarzga olingan mablag’lar jalb qilinmasa, bu narsani, boshqa sharoitlar teng bo’lgan taqdirda, faqat soliqlar miqdorini oshirish va uning og’irligini orttirish evaziga moliyalashtirish mumkin. Shuning uchun ham olingan kreditlar qaytarilayotgan paytda soliqlar ularni to’lash uchun olinmasdan, balki qarzlar bo’yicha foizlarni qaytarish uchun ham olinadi.

Davlat qarziga xizmat qilish va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirishda soliqlar asosiy, lekin yagona manba emas. Bunday xarajatlarni moliyalashtirish manbalari mablag'lardan foydalanishning yo'nalishlariga bog'liq. Agar davlat tomonidan jalb qilingan kapitallar unumli joylashtirilsa, qurib bitkazilgan ob'ekt ishga tushganidan so'ng foyda keltira boshlaydiki, uning hisobidan, jumladan, olingan qarzlar qaytarilishi mumkin. Bu holda soliq yuki og'irligining kuchaytirilishiga hech qanday hojat qolmaydi.

Davlat qarzlarini jalb qilish evaziga olingan kapitallardan unumsiz foydalanilsa, masalan, ular hisobidan harbiy yoki ijtimoiy xarajatlar moliyalash-tirilsa, ularning qaytarishning yagona manbai soliqlar yoki yangi qarzlar bo'lishi mumkin. Oldin chiqarilgan zayomlarni qaytarish uchun davlatning yangi zayomlarini joylashtirilishiga davlat qarzlarini qayta moliyalashtirish deyiladi.

Davlatning qarz olishi natijasida soliq og'irligining kuchayishi ularning muddatiga va qarz oluvchi tomonidan to'lanadigan kreditlarning foizlari darajasiga bog'liq. Investor uchun davlat qarzining daromadlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, davlat shunchalik katta soliqlar qismini ularni qaytarish uchun yo'naltirishga majbur. Davlat qarzining o'lchami qanchalik katta bo'lsa, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ularga xizmat qilish uchun yo'naltirilayotgan mablag'larning salmog'i shuncha yuqori bo'ladi.

Davlat o'z krediti orqali kredit munosabatlariga kirisha turib, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda pul muomalasining holatiga, pullar va kapitallar bozoridagi foiz stavkalarining darajasiga, ishlab chiqarishga va aholi bandliligiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida davlat kreditidan ongli ravishda foydalanib, u yoki bu moliyaviy siyosatni amalga oshirishi mumkin.

Davlat qarzlarni investorlarning turli guruhlari o'rtasida joylashtirib, pul muomalasini tartibga soladi; jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb qilib, ularning to'lovga qobiliyatli talabini kamaytiradi. Davlat krediti hisobidan ishlab chiqarish xarajatlari, masalan, investitsiyalar moliyalashtirilsa, muomaladagi naqd pul massasining mutlaq qisqarishi sodir bo'ladi. Shuningdek, davlat krediti hisobidan o'qituvchilar va tibbiyot xodimlari-ning ish haqlari moliyalashtirilsa, aholining to'lovga qobiliyatli talabining tarkibiy tuzilishi o'zgarsada muomaladagi naqd pul massasi o'zgarmasdan qolaveradi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini sotish-sotib olish yoki ularning garovi asosida kreditlar berish bo'yicha Markaziy bank tomonidan

amalga oshiriladigan operatsiyalar mamlakat tijorat banklari likvidligini tartibga solishning muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy bozorda qarz oluvchi sifatida maydonga chiqib, davlat qarziy mablag'larga bo'lgan talabni oshiradi va buning hisobidan kredit baholarining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Davlatning talabi qancha yuqori bo'lsa, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ssuda foizining darajasi shuncha yuqori bo'ladi va tadbirkorlar uchun kredit shunchaga qimmatlashadi. Qarz mablag'larining qimmatligi ishlab chiqarish sohasida tadbirkorlar investitsiyalarining qisqarishiga majbur qiladi va bir vaqtning o'zida, u davlat qim-matli qog'ozlarini sotib olish ko'rinishidagi jamg'armalarni rag'batlantiradi.

Ma'lum chegaraga etgunga qadar bu jarayon ishlab chiqarishga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Agar mamlakatda erkin kapitallar etarli darajada bo'lsa, ular to'liq qo'shib olingunga qadar salbiy ta'sir darajasi nolga teng bo'lib qolaveradi. Shundan keyingina moliyaviy bozordagi davlatning faolligi ssuda foizining o'sishida o'z ifodasini topadi, pul jamg'armalarining katta qismini unumsiz foydalanishga jalb qilinishi esa iqtisodiy o'sish sur'atlarini susaytiradi. Davlat kreditor va kafil sifatida faoliyat ko'rsatib, xorijdan qarzga olingan mablag'lar hisobidan milliy ishlab chiqarish mahsulotlariga talabni vujudga keltirib, ishlab chiqarish va aholi bandliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik biznes, mahsulot eksporti yoki ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi kuzatilayotgan alohida mintaqalarda tegishli dasturlarga muvofiq banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni davlat tomonidan kafolatlanishi yo'li bilan ishlab chiqarishni rag'batlantirish tizimi keng tarqalgan.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning kasodga uchrashi sodir bo'lganda davlatning kichik tadbirkorlik sub'yektlariga berilgan kreditlar bo'yicha banklarga bo'lgan qarzlarni qaytarishni o'z zimmasiga olinishini anglatadi. Dunyoning sanoati rivojlangan ko'plab mamlakatlarida davlat yoki yarimdavlat kompaniyalari faoliyat ko'rsatadiki, ular milliy mahsulotlarni eksport qiluvchilarning to'lovga qobiliyatsiz risklarini past stavkalar bo'yicha sug'urta qila-dilar. Shu yo'l bilan milliy mahsulotning yangi bozorlarni o'zlashtirishi rag'batlantiriladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashni rag'batlantirishda hududlar byudjetlari va byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan beriladigan kreditlar katta rol o'ynaydi. Ularning yordamida ma'lum bir mintaqalar va u yoki bu hududlar

iqtisodiyoti kerakli yo'nalishlarining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi ta'minlanadi.

Davlat kreditining nazorat funksiyasi moliyaning nazorat funksiyasi bilan organik ravishda qo'shilib ketgan. Lekin uning bu funksiyasi shu kategoriyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan quyidagi xarakterli belgilarga ega:

- davlatning faoliyati va markazlashtirilgan pul mablag'lari fondining ahvoli bilan uzviy bog'langan;
- qiymatning ikki tomonlama harakatini qamrab oladi, chunki mablag'lar olinishining qaytarilishi va tiklanishini taqozo etadi;
- faqat moliyaviy tarkibiy tuzilmalar tomonidan emas, balki kredit institutlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

Davlat kreditining nazorat funksiyasi orqali mablag'lar maqsadli foydalanilishi, ularning qaytarilish muddatlari va foizlarning o'z vaqtida to'lanishi nazorat ostiga olinadi.

23.2. Davlat krediti klassifikatsiyasi

Byudjet defitsitini moliyalashtirish uchun davlat boshqaruv organlari qarz mablag'larini, qarzlarni jalb qilishga majburdir.

Qarz mablag'larini, qarzlarni jalb qilish, odatda, qarz shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Unga ko'ra, bir tomon (qarz beruvchi) ikkinchi tomonning (qarz oluvchining) mulkiga ma'lum belgilarga ega bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa buyumlarni beradi, qarz oluvchi esa shu summadagi pul mablag'lari (qarz summasi) yoki teng miqdor va sifatdagi buyumlarni qarz beruvchiga qaytarish majburiyatini oladi. Shartnoma bo'yicha qarz oluvchi davlat yoki uning sub'yektlari, qarz beruvchilar esa fuqarolar yoki yuridik shaxslar hi-soblanadi. Davlat qarzlari ixtiyoriy bo'lib, muomalaga chiqarilgan qarzlarning shartlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat krediti quyidagi bir necha belgilarga ko'ra klasssifikatsiya qilinadi:

1) **emitentlar bo'yicha**:

- markaziy boshqaruv organlari tomonidan joylashti-riladigan qarzlar;
- hududiy boshqaruv organlari tomonidan joylashti-riladigan qarzlar;

2) **joylashtirilish joyiga qarab**:

- ichki qarzlar;
- tashqi qarzlar.

3) **bozorda aylanishiga qarab**:

- bozorli qarzlar;
- bozorsiz qarzlar.

Bozorli qarzlar erkin sotiladi va sotib olinadi. Ular byudjet defitsitini moliyalashtirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Bozorsiz qarzlar erkin ravishda o'z egalarini almashtirishi mumkin emas. Ular qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lmaydi. Ma'lum bir investorlarni jalb qilish uchun bunday qarzlar davlat tomonidan chiqariladi va shu investorlarning o'ziga xos bo'lgan manfaatlariga mos keladi. Masalan, g'arb mamlakatlarida bozorsiz davlat obliga-tsiyalari davlat pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va kichik investorlarning mablag'larini jalb qilish uchun chiqariladi.

4) **mablag'larni jalb qilish muddatiga ko'ra**:

- qisqa muddatli (bir yilgacha qaytarish muddati bilan);
- o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha);
- uzoq muddatli (besh yil va undan yuqori).

Qisqa muddatli qarzlardan byudjet daromadlarining kelib tushishi va xarajatlarini amalga oshirishdagi qisqa muddatli uzilishlarni moliyalashtirish uchun foyda-laniladi. Odatda, bunday maqsadlar uchun veksellar chiqariladi. Italiyada g'aznachilik veksellari 3, 6, 12 oylik muddatlarda, Yaponiyada – 60 kunlik, Buyuk Britaniyada – 91 kunlik muddatlarda chiqariladi. G'aznachilik veksellari muddatlarda ikki yilgacha bo'lgan Germaniya bundan mustasnodir.

Ba'zi bir mamlakatlarda nisbatan uzoq muddatlar uchun mablag'larni jalb qilishda g'aznachilik notalaridan foydalaniladi va ular veksellarga nisbatan kamroq tarqalgandir. Italiyada bunday g'aznachilik notalari 2-3 yillik qaytarilish muddati bilan, AQSh da – bir yildan o'n yilgacha qaytarilish muddatlarida chiqariladi. Uzoq muddatlar uchun mablag'larni jalb qilish, odatda, obligatsiyalar yordamida amalga oshiriladi.

5. Qarz majburiyatlari ta'minlanganligiga qarab:

- garovli;
- garovsiz bo'ladi

Garovli obligatsiyalar mutlaq yoki aniq mulk bilan ta'minlanadi. Xorijning rivojlangan mamlakatlarida tez-tez mahalliy hokimiyat organlari tomonidan bunday obligatsiyalar muomalaga chiqariladi. Garovsiz obliga-tsiyalarda aniq bir narsa ta'minlanmaydi: uning ta'minlanish asosi bo'lib davlatning yoki mahalliy hokimiyat organlarining jami mulki hisoblanadi. Markaziy boshqaruv organlari, odatda, garovsiz obligatsiyalarni muomalaga chiqarishadi. Ularning

ishonchliligi juda yuqori bo'lganligi uchun ular qo'shimcha kafolatga ehtiyoj sezmaydi.

6. To'lanadigan daromadning xarakteri bo'yicha:

- yutuqli qarz majburiyatlari;
- foizli qarz majburiyatlari;
- nol kuponli qarz majburiyatlari.

Yutuqli obligatsiyalar bo'yicha daromadlarning to'lanishi lotareyalar asosida amalga oshiriladi. Bu obligatsiyalar katta talabga ega emas. Chunki investorlar tasodifga tayanib emas, balki barqaror daromad olishga intiladilar. Yutuq olishni istaganlar esa lotareya chiptalari sotib olishni ixtiyor etadilar. Bu turdagi qarz majburiyatlarining asosiysi foizli obligatsiyalar bo'lib, ular bo'yicha daromad kuponlar asosida yilda bir, ikki yoki to'rt marta to'lanadi. Investorlarning ko'pchiligi ana shunday qarz majburiyatla-rini ma'qul ko'rishadi.

Davlatning qisqa muddatli qarz instrumentlari kuponlarga ega emas. Ular nominalidan chegirmalash asosida sotiladi va nominal bo'yicha sotib olinadi. Ayrim uzoq muddatli qarz majburiyatlari ham kuponlarga ega bo'lmasligi mumkin. Ular bo'yicha barcha daromadlar asosiy qarzning summasi bilan birgalikda to'lanadi. Xuddi qisqa muddatli obligatsiyalar singari ular ham nominalidan chegirmalash orqali sotiladi va nominali bo'yicha sotib olinadi. Amaliyotda bunday obligatsiyalar nol kuponli obligatsiyalar nomini olgan.

7. Daromadlarni aniqlash metodiga ko'ra:

- barqaror (qat'iy) daromadli qarz majburiyatlari;
- "suzuvchan" daromadli qarz majburiyatlari.

Ayrim hollarda qimmatli qog'ozlar bo'yicha qat'iy stavkalar foizlarni to'lash borasida davlat xarajatlari o'sishining sabablari bo'lishi, boshqa bir hollarda esa ular foiz darajasining oshishini kutib o'tirgan investorlarni qo'rqitib yuborishi mumkin.

Byudjet defitsitini qoplash uchun qarzlarni nisbatan yuqoriroq darajada bo'lgan foiz stavkalarida joylash-tirishga to'g'ri keladi. Qarz muddati, odatda, 20-30 yilni tashkil etayotgan qarz davri davomida o'zining qarz majburiyatlari bo'yicha ana shunday foizni o'rnatib, davlat soliq to'lovchilarning zimmasiga qo'shimcha xarajatlarni yuklaydi. Amaliyotda bunday vaziyatdan chiqib ketishning ikki varianti mavjud:

1) pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni qisqa yoki uzoq muddatli qarzlar va uzoq muddatli qarzlarni (foiz stakasi pasayib ketgan

paytda) chiqarish bilan qoplash. Biroq bu holda qarz oluvchi yana bitta qarzni chiqarish, joylashtirish va uni qaytarish (uzish) bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirishga majbur bo'ladi. Bundan tashqari, investorlar foiz stavkasining (ko'tarilishini) kutib, ikkinchi chiqarilgan qarzga nisbatan qiziqish bildirmaslik ehtimoli ham yerda bor;

2) qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lanadigan foizlarni uzluksiz ravishda qayta ko'rib borish. Bu holda yuqorida keltirilgan barcha muammolar hal qilinadi. Hisob-kitob asosi sifatida, odatda, mamlakatdagi banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkasidan foydalaniladi. Biroq bunday qarzlar juda katta kamchilikka ega, ya'ni qarzdor o'z xarajatlarini rejalashtirish imkoniyaga ega bo'lmaydi.

8. **Qarz chiqarilgan paytda belgilangan (o'rnatilgan) qarzni qaytarish muddatlariga qat'iy rioya qilish bo'yicha qarzdorning majburiyatlariga muvofiq**:

- muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega bo'lgan majburiyatlar;
- muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega bo'lmagan majburiyatlar.

Moliyaviy bozorda keskin o'zgarishlar sodir bo'lgan paytda qarz majburiyatlarini muddatidan oldin qaytarish (uzish) masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Masalan, qarz oluvchi yillik qat'iy daromadli 12%li obligatsiyalar chiqargan va bir yildan so'ng foiz stavkasi pasayib, 6%ga teng bo'lgan bo'lsin. Bunday vaziyatda qarzdor keskin yo'qotishlarga, investor esa aksincha, katta yutuqlarga ega bo'ladi. Agar obligatsiyalar muddatidan oldin qaytarish huqu-qiga ega holda chiqarilgan bo'lsa, yangi qarzni chiqarish va ularni joylashtirish hamda eski qarzni qaytarib, investor o'z yo'qotmalarini kamaytirishi mumkin.

Qarzlarni qaytarishning ikki usuli bo'lishi mumkin:

- bir vaqtning o'zida;
- qismlarga bo'lib.

Agar qarzlar qismlarga bo'linib qaytarilayotgan bo'lsa, qaytarish muddatlari bo'yicha qarz summalarining taqsimlanishiga ko'ra quyidagi uch variant bo'lishi mumkin:

1) aniqlangan davr, masalan, 4 yil ichida teng qismlarga bo'lib qaytarish. Bu holda, masalan, qarzning summasi 10 mln. so'm bo'lsa, har yili 2,5 mln. so'mdan qaytariladi;

2) oshib boriladigan qismlarda. Masalan, birinchi yil 1 mln. so'm, ikkinchi yilda – 2 mln. so'm, uchinchi yilda – 3 mln. so'm va to'rtinchi yilda – 4 mln. so'm. Qarzdorning daromadlari yildan-yilga o'sib (oshib) borayotgan paytda bu tizim juda qulay hisoblanadi. Masalan, boshqa

sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ishbilarmonlik faolligining oshishi natijasida soliq tushumlari o'sishi ko'zda tutiladi yoki qurilishga qarz mablag'lari jalb qilingan ob'ekt, sekin-astalik bilan o'z quvvatiga ega bo'la borib, yildan-yilga kattaroq summada foyda keltira boshlaydi;

3) pasayib boradigan qismlarda. Masalan, birinchi yilda – 4 mln. so'm, ikkinchi yilda – 3 mln. so'm, uchinchi yilda – 2 mln. so'm va h.k. Bunday tizim qarzdorning daromadlarini pasayishi yoki xarajatlarining ortishi kutilayotgan paytda afzalliklarga ega va ustuvor ahamiyat kasb etadi.

23.3. Davlat kreditini boshqarish

Davlat kreditini boshqarishni keng va tor ma'nolarda ko'rib chiqish mumkin. **Keng ma'noda** davlat kreditini boshqarish deyilganda qarzdor, kreditor va garant (kafil) sifatida davlatning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan uning moliyaviy siyosati yo'nalishlaridan birini shakllantirish tushuniladi.

Moliyaviy siyosatning yo'nalishlaridan biri sifatidagi davlat kreditini boshqarish davlatning boshqaruv va hokimiyat organlari qo'lidadir. Faqat ular byudjet defitsitining umumiy hajmini va demak, uni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan qarzlarning hajmini, pul muomalasi, kredit, ishlab chiqarish, aholi bandligiga ta'-sir qilishning asosiy yo'nalishlari va maqsadlarini hamda kichik biznes va mamlakat ayrim mintaqalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha umumdavlat dasturlarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini aniqlaydi.

Davlat byudjetining doimiy yoki xronologik tarzda defitsitliligi va yuqori darajadagi davlat qarzlarining mavjudligi hozirgi sharoitda sanoati rivojlangan barcha davlatlarga xosdir. Davlatning kredit ekspansiyasi natijasida boshqa qarz oluvchilar moliyaviy bozordan siqib chiqarilayapti, kreditga nisbatan bo'lgan yuqori foiz stavkalari hamon saqlanib qolmoqda. Davlat qarzlariga xizmat qilish bo'yicha katta xarajatlar soliq tushumlarining katta qismini o'ziga tortayapti. Shuning uchun ham byudjet defitsiti va davlat qarzini qisqartirish sanoati rivojlangan mamlakatlar boshqaruv organlari tomonidan eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilayapti.

Tor ma'noda davlat kreditini boshqarish deyilganda davlatning qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish, davlat qarziga xizmat ko'rsatish va uni qaytarish (uzish), ssuda va garantiyalar taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar majmui tushuniladi.

Davlat kreditini boshqarish jarayonida quyidagi vazifalarni yechish ko'zda tutiladi:

- qarzdorning qarzi qiymatini minimallashtirish;
- bozorni davlatning qarz majburiyatlari bilan ortiqcha to'lib ketishiga va ular kursining keskin tebranishiga yo'l qo'ymaslik;
- jalb qilingan mablag'lardan samarali foydalanish va ajratilgan kreditlarning maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- kreditlarning o'z vaqtida qaytrilishini ta'minlash;
- moliyaviy siyosat bilan aniqlangan vazifalarni maksimal yechish.

Davlat kreditini boshqarishni boshqaruv organlari, moliya va kredit institutlari amalga oshiradi. Uni tezkor boshqarish esa mamlakat hukumatining rahbarligi ostida Moliya vazirligining Markaziy bank bilan hamkorligida ta'minlanadi.

23.4. Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarzlar

Davlat tomonidan qarziy faoliyatning amalga oshirilishi natijasida davlat qarzi vujudga keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqningboshqa sub'yektlari oldida vujudga kelgan hukumatning qarziy majburiyatlariga davlat qarzi deyiladi. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunida davlat qarziga "davlat qarzi – davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi"dir deb, ta'rif berilgan.

Joylashtirilish joyiga qarab davlatning qarzlari ikkiga bo'linadi:

- davlat ichki qarzlari;
- davlatning tashqi qarzlari.

Davlat tomonidan ichki mablag'larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisiga davlat ichki qarzlari deyiladi. Davlat tashqi qarzlari deyilganda esa davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi tushuniladi. Bu qarzlar qarziy instrumentlari, joylashtirilish shartlari, kreditorlarining tarkibi va qarzning valyutasiga nisbatan bir-biridan farq qiladi.

Davlatning ichki qarzlari davlat tomonidan ichki mablag'larni jalb qilish jarayonida vujudga keladi. Davlat tomonidan ichki mablag'larni jalb qilish aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy

shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o’z kreditlarini (qarzlarini) to’lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishini anglatadi. Odatda, davlat o’z rezidentlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarini o’z vaqtida bajara olmagan davrda ham ichki qarz vujudga keladi. Masalan, biror bir korxona ijtimoiy ob’ektni o’zining yoki jalb qilingan mablag’lari hisobiga quradi. Ammo, davlat u korxonani o’z vaqtida moliyalashtirib bera olmaydi. Shuningdek, byudjet muassaslarida faoliyat ko’rsatayotgan ishchi-xodimlarga ish haqi bir, ikki oylab berilishi kechikadi. Mana shunday vaziyat qaror topgan sharoitda ham davlatning vaqtinchalik ichki qarzi payda bo’ladi. Bunda noxush holatlar O‘zbekistonda 1994-2000 yillarda qisman qaror topgan edi.

Shunga o’xshash, davlatning tashqi qarzlari ham davlat tomonidan xorijdan mablag’ jalb qilish jarayonida vujudga keladi. Davlat tomonidan xorijdan mablag’ jalb qilish aktivlarni xorij manbalaridan (xorijiy davlatlardan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro moliya tashkilotlaridan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o’z kreditlarini (qarzlarini) to’lashiga kafil sifatidagi majburiyatlarining vujudga kelishini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi kelgusi moliya yili uchun mamlakatning Davlat byudjetini qabul qilayotgan paytda davlat ichki va tashqi qarzlarining eng yuqori miqdorlarini tasdiqlaydi.

Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag’ jalb qilishga hamda davlat qarzining ko’payishiga olib keladigan boshqa harakatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ (odatda, Moliya vazirligi yoki Markaziy bank) tomonidan amalga oshiriladi.

Amaldagi tartibga muvofiq davlat tomonidan ichki va tashqi mablag’larni (qarzlarni) jalb qilish quyidagi maqsadlar uchun amalga oshirilishi mumkin:

- iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo’nalish-larini, shu jumladan, davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish;
- davlat byudjetining daromadlari bilan xarajatlari o’rtasidagi tushumlar vaqtga ko’ra muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan yillik ichki tafovutni (farqni) to’g’rilash;
- mavjud qarzlarni qayta moliyalashtirish;
- byudjet defitsitini moliyalashtirish;

- tabiiy ofat va boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qoplash.

Davlat tomonidan ichki va tashqi qarz mablag'larini jalb qilishda qarz majburiyatlarining bir necha turlaridan foydalanish mumkin. Ularning asosiylari va muhimlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan) davlat g'aznachilik qog'ozlari;
- kreditlar (qisqa, o'rta va uzoq muddatli);
- O'zbekiston Respublikasining kafolatlari;
- byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik farqni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlar.

Xorijiy investorlar tomonidan bir qismi sotib olinishi mumkin bo'lishiga qaramasdan shu davlatning rezidentlari hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar davlat ichki qarzlari bo'yicha asosiy kreditorlar hisoblanadi. Bu qarzlar, odatda, milliy valyutada muomalaga chiqariladi. Ichki qarz mablag'larini jalb qilish uchun milliy fond bozorida talabga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar emissiya qilinadi. Investorlarni qo'shimcha rag'batlantirish uchun esa turli soliq imtiyozlaridan foyda-laniladi.

Davlatning tashqi qarzlari boshqa mamlakatlarning valyutasida xorijiy fond bozorlarida joylashtiriladi. Bunday qarzlarni joylashtirishda joylashtirilishi lozim bo'lgan mamlakat investorlarining o'ziga xos bo'lgan manfaatlari hisobga olinadi.

Amaliyotda qarziy mablag'larni jalb qilish, asosan, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

- qarziy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish;
- ixtisoslashtirilgan moliya-kredit institutlaridan kreditlar olish.

Qarziy qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni joylashtirish tartibi har bir mamlakatning tegishli qonuni orqali tartibga solib turiladi. Ana shu qonunga muvofiq, faqat mamlakat hukumatining nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar davlat qimmatli qog'ozlari deb e'tirof etiladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalar fond bozorining tarkibiga kiruvchi davlat qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladi. Bu bozor quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- byudjet defitsitini moliyalashtirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish;

- Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosati o’tkazishni ta’minlash;
- tijorat banklari va moliyaviy institutlarning likvidligini tartibga solishni amalga oshirish.

Qimmatli qog’ozlar emissiyasi natijasida vujudga kelgan va mamlakatning ichki qarzini tashkil etuvchi hukumatning majburiyatlari shu mamlakatning milliy valyutasida ifodalanishi va shu valyutada to’lanishi kerak. Shunga o’xshash, qimmatli qog’ozlar emissiyasi natijasida vujudga kelgan va mamlakatning tashqi qarzini tashkil etuvchi hukumatning majburiyatlari xorijiy valyutada ifodalanishi va shu valyutada to’lanmog’i lozim.

Har bir mamlakatda davlat tomonidan qarziy mablag’larni jalb qilishning yagona hisobga olish va qayd etish tizimi mavjud. Buning uchun Moliya vazirligi hukumatning davlat ichki va tashqi qarzlari kitobini yurgizadi.

23.5. Davlat – garant (kafil) va kreditor sifatida

Garant (kafillik) huquqiy majburiyatlarni ta’minlash usuli bo’lib, unga muvofiq kafolat beruvchi kafolat berilgan tomonning (shaxsning) majburiyatlarini to’liq yoki qisman uchinchi tomon (shaxs) oldida ijro etilishiga (bajarilishiga) javob berishi uchun majburiyatni yozma ravishda o’z zimmasiga oladi. Kafolatlar, odatda, tanlov asosida taqdim etilishi kerak. Davlat tomonidan milliy va xorijiy valyutada berilayotgan kafolatlar (kafilliklar) o’zining yuqori chegarasiga ega bo’lmog’i lozim. Mamlakatning milliy valyutasida ifodalangan kafolatlarning umumiy summasi davlatning ichki qarzlari tarkibiga, uning xorijiy valyutada ifodalangan summasi esa davlatning tashqi qarzlari tarkibiga kiritiladi. Kafolatlar taqdim etilayotgan paytda, albatta, uni oluvchilarning (unga ega bo’layotganlarning) moliyaviy ahvoli tekshirilmog’i kerak.

An’anaviy ravishda davlat aholining tijorat banklaridagi omonatlarini kafolatlaydi. Keyingi yillarda bozor munosabatlarining rivojlanishiga muvofiq ravishda davlat turli yuridik shaxslarning qarziy majburiyatlari bo’yicha ham kafolatlovchi (kafillik beruvchi) sifatida maydonga chiqmoqda.

Mamlakatda moliyaviy intizomni mustahkamlash va kafolatlar berishning asoslangan mexanizmini joriy etish maqsadida byudjetga va byudjetdan tashqari jamg’armalarga to’lovlar bo’yicha qarzlari mavjud bo’lgan sub’yektlarga kafolatlar berilmaydi. Shuningdek, kafolatlarni tanlov asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Rezident-yuridik shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan sodir etiladi. Jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafolatlari berilmaydi. Kafolatlar berish tartibi, shuningdek, kafolatlar berilganligi uchun kafolatlar oluv-chidan haq olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat qarzi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga hamda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining majburiyatlaridan kelib chiquvchi to'lovlarni amalga oshirish uchun mablag'larni jamlashga shart-sharoit yaratish maqsadida respublika byudjet tarkibida kafolat jamg'armasi tuzilishi mumkin. Bu jamg'armani tashkil etish va undan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bozor munosabatlarining rivojlana borishi bilan ichki bozorda davlatning kreditor sifatidagi faolligi ham asta-sekinlik bilan kuchaymoqda. Agar avval byudjetdan moliyalashtirishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, keyingi yillarda og'irlik markazining kredit munosabatlari tomon o'zgarayotganligi sezilib turibdi. Chunki kredit munosabatlari mablag'lardan foydalanishda byudjet re-surslarining katta qismini tejashga imkon beradigan va samarali usul hisoblanadi.

Davlatning kreditor sifatidagi o'rni uning ichki va tashqi kreditlari bilan belgilanadi. Odatda, dunyo amaliyotida ichki kreditlar ikki ko'rinishga ega (bu degani, hamma davlatlar amaliyotida ham bo'lishi mumkin emas yoki boshqacha shaklda amal qilishi mumkin):

- byudjet kreditlari;
- byudjet ssudalari.

Byudjet kreditlari xarajatlarni byudjetdan moliyalashtirish shakli bo'lib, u yuridik shaxslarga qaytarilish va tiklash asosida mablag' berilishini ko'zda tutadi. Byudjet ssudasi esa yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'dir.

Byudjetdan qarz mablag'larini oluvchilar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- byudjet tashkilotlari. Amalda byudjet tashkilotlari kredit tashkilotlaridan hamda yuridik va jismoniy shaxslardan kredit olish

huquqiga ega emas (byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan olinadigan ssudalarni mustasno qilganda);

- davlat unitar korxonalari;
- byudjet tashkiloti va davlat unitar korxonasi bo'lmagan yuridik shaxslar;
- ijroiya hokimiyat organlarining quyi byudjetlari.

Byudjet kreditlarini qaytarish bo'yicha ijroni ta'minlashning usullari faqat bank kafolatlari, mol-mulk garovi bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslarga berilgan byudjet mablag'larini qaytarish va ulardan foydalanganlik uchun haqini to'lash byudjet to'lovlariga tenglashtiriladi. Byudjet kreditlari faqat qaytarilish asosida oldin berilgan byudjet mablag'lari bo'yicha to'lov muddati o'tib ketgan qarzlari bo'lmagan yuridik shaxslarga berilishi mumkin.

Moliya vazirligi kelgusi yil uchun byudjet loyihasi tayyorlanayotgan paytda tashkilotlarga berilishi mumkin bo'lgan byudjet kreditlarining umumiy hajmini aniqlaydi va investitsion loyihalarning tanlovini o'tkazish uchun kelgusi moliya yilining boshlanishidan to'rt oy oldin ularni tegishli vazirliklarning ixtiyoriga etkazadi.

Loyihalarni tanlovga taqdim etish jarayonida byudjetning markazlashtirilgan investitsion resurslarini tanlov asosida joylashtirishda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda talab qilinadigan hujjatlarga qo'shimcha ravishda yana quyidagilar taqdim qilinishi lozim:

- ijroiya hokimiyat organlarining import bo'yicha sotib olinishi rejalashtirilayotgan asbob-uskunani mamlakat korxonalarida tayyorlashning iloji yo'qligi va ularni import bo'yicha sotib olish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;
- ssudalarni qaytarishni ta'minlash manbalari ko'rsa-tilgan holda qarz mablag'larini to'liq qaytarishning moliyaviy hisob-kitoblari;
- da'vogarda avans to'lovlarini amalga oshirish uchun o'z mablag'lari borligining tasdiqlanganligi.

Ssudalar mamlakat tijorat banklari kafolatlari, hokimiyat organlari va barqaror moliyaviy-iqtisodiy ahvolga ega bo'lgan uchinchi shaxslarning iltimosnomalari hamda yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar garovi asosida taqdim etiladi. Ta'minotning bunday turlari riskning baholanishiga bog'liq bo'lgan holda turli kombinatsiyalarda qo'llanilishi mumkin.

Ssudalarning miqdori tanlovdan o'tgan loyiha uchun uni moliyalashtirish resurslari hajmining ma'lum bir qismidan (odatda,

uning 40%dan) oshmasligi lozim. Moliyalashtirishning boshqa qismi byudjet manbalariga muqobil bo’lgan manbalar hisobidan qoplanishi kerak.

Ijtimoiy sohada davlat funksiyalarining bajarilishi bilan bog’liq va notijoriy xarakterga ega bo’lgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish tashkilotlarga shunday loyihalar hajmini 100% moliyalashtirish miqdorida taqdim etilishi mumkin.

Davlat tomonidan xorijiy davlatlarga, ularning yuridik shaxslariga va xalqaro tashkilotlarga taqdim etilayotgan kreditlar deyilganda ular bo’yicha xorijiy davlatlar, ularning yuridik shaxslari va xalqaro tashkilotlarning kreditor sifatida davlat oldida vujudga kelgan qarz majburiyatlari tushuniladi.

Xorijiy davlatlarning qarz majburiyatlari ularning boshqa davlat oldidagi qarzlarini shakllantiradi. Odatda, byudjet to’g’risidagi qonunda bu qarzlarga tegishli bo’lgan quyidagilar tasdiqlanishi kerak:

- xorijiy davlatlarning qarzlari bo’yicha qaytarilish (uzilish) summalari va foizlarining to’lovi;
- moliyaviy yilning oxiridagi xorijiy mamlakatlar qarzlarining miqdori;
- xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan davlat kreditlarining maksimal hajmi;
- moliyaviy yilda ularning oluvchilari, maqsadlari va kreditlashtirish miqdorlari ko’rsatilgan holda kreditlar ro’yxatidan iborat bo’lgan xorijiy davlatlarga davlat kreditlarini taqdim etish dasturi.

23.6. Davlat qarzlarini boshqarish

O‘zbekiston Respublikasida davlat qarzini boshqarishning oliy organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidir. Oliy Majlis byudjet defitsitini moliyalashtirish uchun jalb qilinishi lozim bo’lgan mablag’lar va byudjet mablag’lari hisobidan kreditlashtirishning maksimal miqdorlarini belgilaydi. U yoki bu ko’rinishdagi qimmatli qog’ozlarni chiqarishning chegaraviy hajmini O‘zbekiston Respublikasi hukumati – O‘zbekiston Respublikasi Vazir-lar Mahkamasi o’rnatadi. 2019 yilda davlat qarzining chegaraviy hajmi mamlakatda yaratilayotgan YaIMning 50 foizidan oshmasligi zarur.

Davlat ichki va tashqi qarzlarini boshqarishni optimallashtirish uchun ikki dasturni ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq:

- tashqi qarzlarni olish davlat dasturi;
- ichki qarzlarni olish davlat dasturi.

Bu dasturlar maqsadlari, manbalari va qaytarilish muddatlarini ko’rsatgan holda navbatdagi moliyaviy yilda olinishi lozim bo’lgan qarzlar ro’yxatidan iboratdir. Dasturlar navbatdagi yil byudjetining loyihasi bilan Oliy Majlisga taqdim etiladi va tasdiqlanishi kerak.

Xususan, tashqi qarzlar olish davlat dasturida ikki guruhga bo’lib, aks ettiriladi:

- bog’lanmagan (moliyaviy) qarzga olishlar (qarzlar);
- maqsadli xorijiy qarzga olishlar (qarzlar).

Bularning har ikkalasi uchun ham yuqoridagi dasturda alohida-alohida quyidagilar o’z ifodasini topishi kerak:

- bog’lanmagan (moliyaviy) qarzga olishlar:
  (qarzlar) bo’yicha:
  a) jalb qilish manbalari;
  b) qarzga olish summalari;
  v) qaytarish muddatlari.
- maqsadli xorijiy qarzga olishlar:
  (qarzlar) bo’yicha:
  a) yakuniy oluvchi;
  b) qarzga olishning maqsadi va foydalanish yo’na-lishi;
  v) qarzga olish manbasi;
  g) qazga olish summasi;
  d) qarzni qaytarish muddatlari;
  e) mablag’larni byudjetga qaytarish bo’yicha uchinchi shaxsning kafolati;

yo) navbatdagi moliyaviy yil boshlangunga qadar foydalanilgan mablag'lar hajmining baholanishi;

j) navbatdagi moliyaviy yilda mablag'larning foydalanish hajmi prognozi (bashorati).

O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarining yagona emitenti bo'lib, Moliya vazirligi hisoblanadi va u O'zbekiston hukumati tomonidan aniqlangan chegaralarda ularning chiqarilish muddatlari va hajmini belgilaydi.

Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarning mablag'larini maqsadli va barqaror sarflanishini ta'minlash, byudjetdan moliyalashtiri-layotgan tashkilotlarning qarzlarini kamaytirish maqsadida ijroiya hokimiyat organlariga davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, kreditlar va qarzlar olish yo'li bi-lan qarz mablag'larini jalb qilish taqiqlangan (hukumat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri o'rnatilgan hollardan tashqari). Bu jihat davlatning byudjetdan tashqari jamg'arlariga ham tegishlidir.

Davlatning ichki qarzlariga xizmat qilish bo'yicha bosh vakil funksiyasini mamlakatning Markaziy banki bajaradi. Har bir obligatsiyani muomalaga chiqarish emissiyasida barcha yagona va jamlanma sertifikatlar Moliya vazirligi tomonidan saqlash va hisobga olish uchun depozitariyga berilishi kerak. Depozitariy funksiyasini Markaziy bank yoki u tomonidan vakolati belgilangan boshqa tashkilot bajarishi mumkin. Markaziy bank Moliya vazirligining topshirig'iga ko'ra va respublika byudjetining mablag'lari hisobidan obligatsiyalarning egalariga bu obligatsiyalar qaytarilayotgan paytda to'lovlarni amalga oshiradi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini tartibga solish hukumatning Moliya vazirligi va Markaziy bank bilan hamkorlikdagi eng muhim va mas'uliyatli funksiyalaridan biridir. Hozirgi amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlarini tartibga solish choralarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- "olovli" choralar – qayta moliyalashtirish va lombard stavkalarini oshirish (ko'tarish), qimmatli qog'ozlar va valyuta bozorlarida Markaziy bankning interventsiyasi. Biroq bunday choralar qisqa vaqt – 2 yoki 3 kun uchun ta'sirchan hisoblanadi;
- xorijiy qarzga olish. Qimmatli qog'ozlar bozoriga ta'sir ko'rsatish uchun qarz olishning o'zi emas, balki kreditlarning olinishi to'g'risida ishonch bo'lishining o'zi etarlidir. Yuqoridagi choralar singari bu guruhga kiruvchi choralar ham, ma'lum darajada va ma'noda, tanazzulni orqaga suruvchi va uning ildizlariga barham bermovchi "olovli" choralar hisoblanadi;

- davlat qimmatli qog’ozlar milliy bozori nobarqarorligining oldini olishga samarali va uzoq muddatli ta’sir ko’rsatishga uzoq muddatli monitar choralarga moliyaviy bozorning chegarasidan chetga chiquvchi choralar (xususan, soliq tizimi va soliqlarning undirilishini tartibga solish, byudjet defitsitini qisqartirish, iqtisodi-yotning o’sishiga erishish va h.k.lar) qo’llanilsagina, erishish mumkin.

Davlat qarzlarini boshqarish mamlakatning iqtisodiy o’sish sur’atlari va sifatiga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan O‘zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda davlat qarzlarini boshqarishda aniq bir kontseptsiyaga ega bo’lish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kontseptsiyada davlat qarzlarini boshqarish hamda pul-kredit siyosati va valyuta siyosati o’rtasidagi aloqalarni davlat qarzlarining davlat moliya tizimidagi o’rnini, tashqi va ichki davlat qarzlarining bir-birlari bilan bog’liqligini aniqlash juda muhimdir. Davlat qarzlarini boshqarish kontseptsiyasini ishlab chiqishda eski majburiyatlarni ularning yangilarini jalb etish hisobidan qaytarilishi etarli darajada xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi inobatga olinmog’i kerak. Shuningdek, davlat qarzlarini tartibga solishning yagona kontseptsiyasi ishlab chiqilayotgan paytda bu qarzlar hajmining asoslanmagan tarzda oshirilib yuborilishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo’lida ta’sirchan to’siq bo’lishi mumkinligi ham nazardan chetda qolmasligi lozim.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Davlat kreditining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
- Davlat krediti qanday sub’yektlar o’rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat va unda davlat qanday sifatlarda maydonga chiqadi?
- Davlat kreditida davlat qachon kafilga aylanadi?
- Davlat tomonidan kafolatning berilishi markazlash-tirilgan pul fondining, albatta, o’zgarishiga olib kelmasligi mumkinmi? Bu qanday holatlarda sodir bo’lishi mumkin?
- Kreditning bir turi sifatida davlat krediti klassik (mumtoz) moliyaviy kategoriyalardan, masalan, soliqlardan farq qiluvchi qanday o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarga ega?

- Umuman olganda, davlat krediti boshqa moliyaviy kategoriyalardan o’zining qanday xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi?
- Davlat krediti qanday funksiyalarni bajaradi?
- Davlat kreditini taqsimlash funksiyasining mazmuni nimadan iborat?
- Davlat kreditining tartibga solish funksiyasini xarakterlovchi misollar keltiring.
- Iqtisodiyotni tartibga solish vosita sifatida davlat kreditidan ongli ravishda foydalanish nimalarni anglatadi?
- Davlat krediti nazorat funksiyasining mazmuni nimadan iborat va u kimlar tomonidan amalga oshiriladi?
- Davlat kreditining nazorat funksiyasi qanday xarakterli belgilarga ega?

- Davlat krediti qanday belgilarga ko’ra klassifikatsiya qilinadi?
- Emitentlar bo’yicha davlat krediti qanday guruhlarga bo’linadi?
- Joylashtirilish joyiga qarab davlat krediti nimalardan tashkil topadi?
- Bozorda aylanishiga qarab davlat kreditining tarkibi nimalardan iborat bo’ladi?
- Bozorli va bozorsiz qarzlar deyilganda nimalar nazarda tutiladi?
- Mablag’larni jalb qilish muddatiga ko’ra davlat krediti qanday guruhlarga bo’linadi?
- Qarz majburiyatlarining ta’minlanganligiga qarab davlat krediti nimalardan tashkil topadi?
- Garovli va garovsiz obligatsiyalar nimalari bilan farqlanadi?
- To’lanadigan daromadning xarakteri bo’yicha davlat krediti qanday klassifikatsiya qilinadi?
- Yutuqli obligatsiyalar bo’yicha daromadlarning to’lanishi nimalar asosida amalga oshiriladi?
- Nol kuponli obligatsiyalar deyilganda nima tushuniladi?
- Davlatning qanday qarziy instrumentlari kuponlarga ega emas?
- Daromadlarni aniqlash metodiga ko’ra davlat krediti qarz majburiyatlarining qanday turlaridan iborat?
- Qarz chiqarilgan paytda belgilangan qarzni qaytarish muddatlariga qat’iy rioya qilish bo’yicha qarzdorning majburiyatlariga

muvofiq davlat krediti qarziy majburiyatlarning qanday ko'rinishlaridan tarkib topadi?

- Qarzlarni qaytarishning qanday usullari bo'lishi mumkin?

- Keng va tor ma'noda davlat kreditini boshqarish deb nimalarga aytiladi? Ular nimalari bilan farq qiladi?
- Davlat kreditini boshqarish jarayonida qanday vazifalarni yechish ko'zda tutiladi?
- Davlat kreditini boshqarish qanday organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin?
- Uni tezkor boshqarish kimning rahbarligi va hamkorligida ta'minlanadi?
- Davlat tomonidan qanday faoliyat amalga oshirilishi natijasida davlat qarzi vujudga keladi?
- Davlat qarzi deb nimaga aytiladi?
- Joylashtirilish joyiga qarab davlat qarzlari qanday qarzlarga bo'linadi?
- Davlatning ichki va tashqi qarzlari deb nimalarga aytiladi va ular nimalari bilan farqlanadi?
- Amaldagi tartibga muvofiq davlat tomonidan ichki va tashqi mablag'larni (qarzlarni) jalb qilish qanday maqsadlar uchun amalga oshirilishi mumkin?
- Davlat tomonidan ichki va tashqi qarz mablag'larini jalb qilishda qarziy majburiyatlarning qanday turlaridan foydalanish mumkin va ularning asosiylari va muhimlari tarkibiga nimalar kiradi?
- Amaliyotda qarz mablag'larini jalb qilish, asosan, qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?
- Davlatning qimmatli qog'ozlar bozori qanday vazifalarni bajarishga imkon beradi?
- Garant (kafillik) deyilganda nima tushuniladi?
- Nimalar bo'yicha qarzlari bo'lgan sub'yektlarga kafolatlar (kafillik) berilmaydi?
- Jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafolatlari beriladimi?
- Rezident-yuridik shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafilliklari qanday organ tomonidan sodir etiladi?
- Davlatning ichki kreditlari qanday ko'rinishlarga ega?
- Byudjet kreditlari va byudjet ssudalari nima, ular bir-birlaridan nimalari bilan farqlanadi?

- Byudjetdan qarz mablag’larini oluvchilar sifatida kimlar maydonga chiqishi mumkin?
- Loyihalarni tanlovga taqdim etish jarayonida byudjetning markazlashtirilgan investitsion resurslarini tanlov asosida joylashtirishda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda talab qilinadigan hujjatlarga qo’shimcha ravishda yana nimalar taqdim qilinishi lozim?
- O‘zbekiston Respublikasida davlat qarzini boshqarishning oliy organi kim va u nimalarning umumiy miqdorini belgilaydi?
- U yoki bu ko’rinishdagi qimmatli qog’ozlarni chiqarishning chegaraviy hajmini kim o’rnatadi va hozirgi kunda u qancha qilib belgilangan?
- Davlat ichki va tashqi qarzlarini boshqarishni optimallashtirish uchun qanday dasturlarni ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq?
- Tashqi qarzlarni olish davlat dasturida qarzlar qanday guruhlarga bo’lib, aks ettiriladi?
- Davlat ichki va tashqi qarzlarini boshqarishni optimallashtirish uchun ishlab chiqilgan dasturlarda alohida-alohida nimalar o’z ifodasini topishi kerak?
- O‘zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog’ozlarining yagona emitenti kim hisoblanadi?
- Davlat ichki qarzlariga xizmat qilish bo’yicha bosh vakil funksiyasini kim bajaradi?
- Hozirgi amaliyotda davlat qimmatli qog’ozlarini tartibga solish choralarini shartli ravishda qanday guruhlarga ajratish mumkin?

24-BOB. SUG’URTA

24.1. Sug’urta haqida tushuncha va uning o’ziga xususiyatlari

Ma’lumki, turli ko’ngilsiz hodisalar, xususan, zilzila, suv toshqini, qurg’oqchilik, er ko’chkisi, sel, kuchli shamol, do’l va shunga o’xshash tabiiy ofatlar qadimdan insoniyat boshiga katta kulfatlar keltirgan. Keyinchalik ishlab chiqarishning rivojlanishi, sanoatning yangi bosqichga ko’tarilishi turli texnogen tusdagi xavflarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Jamiyatning barcha jabhalari taraqqiy etishi barobarida fuqarolarning bir maromda hayot kechirishlariga va korxonalarning barqaror faoliyat ko’rsatishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillar ham kengaya boshladi. Mana bir misol. Sanoatning tez sur’atlar bilan rivojlanishi tabiat va jamiyat o’rtasidagi muvozanatning buzilishiga, birinchi galda, ekologik vaziyatning tang ahvolga tushib qolishiga sabab bo’ldi. To’g’ri, insoniyat tabiatning injiqliklariga ko’nikib yashashga o’rgangan, ammo, shu bilan bir qatorda tabiiy ofatlar, yong’in va boshqa noxush hodisalar ro’y berishi oqibatida yuzaga kelgan zararlar, yo’qotishlarning o’rnini qoplash vositalarini izlab topishga ham harakat qilgan. Hatto, insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida hayot kechirgan ajdodlarimiz bunday ko’ngilsiz hodisalar ro’y berishi natijasida ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlar va nobudgarchiliklardan saqlanish choralarini ko’rganlar. Ana shunday choralardan biri sifatida qurg’oqchilikdan saqlanish maqsadida suv omborlari va oziq-ovqat zaxiralarini yaratganlar. Har ehtimolga qarshi zaxiralarni yaratish va oldindan ko’rib bo’lmaydigan hamda insoniyatning ongi bilan boshqarib bo’lmaydigan ko’ngilsiz hodisalar sodir bo’lishi oqibatida yuzaga kelgan zararlarning o’rnini qoplash hozirgi zamon sug’urta munosabatlarining asosini tashkil etadi.

Tabiiy ofatlar, yong’in va boshqa noxush hodisalar yuz berishi natijasida etkazilgan zararlarning o’rnini qoplashda sug’urta muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda sug’urta tushunchasiga turlicha ta’riflar keltirilgan. Ulardan eng keng tarqalgani “yuridik va jismoniy shaxslarning badallari hisobidan maxsus pul jamg’armasini tashkil etish va turli noxush hodisalarning sodir bo’lishi natijasida ana shu shaxslarning hayoti va faoliyatiga etkazilgan zararlarni mazkur jamg’arma hisobidan qoplash bilan bog’liq iqtisodiy

munosabatlarga sug'urta deyiladi"[106]. 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunida sug'urtaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi"[107].

Ko'rinib turibdiki, yuridik va jismoniy shaxslar xizmat haqi sifatida to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobidan maxsus maqsadga mo'ljallangan pul fondlari tashkil etiladi. Bu pul fondlari sug'urta tashkilotlarining tasarrufida bo'ladi. Sug'urta tashkiloti yuridik hamda jismoniy shaxslar o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida etkazilgan zararlarni qoplaydi.

Sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida etkazilgan zararlar, faqat, sug'urta tashkiloti bilan tegishli sug'urta shartnomasini tuzgan yoki sug'urta polisini olgan yuridik va jismoniy shaxslarga shartnomada ko'rsatilgan xavf-xatarlar sodir bo'lgan taqdirdagina qoplanadi. Demak, sug'urta qoplamasini olish uchun yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta mukofotini to'lagan va shu asnoda pul fondini shakllanishida ishtirok etgan bo'lishi kerak.

Sug'urta quyidagi ikkita tarmoqqa ajratilgan:

- hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

- umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Har bir sug'urta tarmog'i sug'urta risklari va majburiyatlarining umumiy xususiyatlariga qarab sug'urta klasslariga bo'linadi. Hayotni sug'urta qilish tarmog'i 4 ta va umumiy sug'urta sohasi 17 ta klassni o'z tarkibiga oladi. Har bir sug'urta klassi umumiy xususiyatlariga qarab bitta yoki bir nechta sug'urta turlarini (mahsulotlarini) o'z ichiga oladi. Sug'urta tarmoqlariga oid sug'urta klasslarining to'liq nomlanishi 2002 yil 27 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston

---

[106] Ermasov S.V., Ermasov N.B. Straxovanie: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: YuNITI-DANA, 2004. – 5 s.
[107] O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.// Xalq so'zi, 2002 yil, 28 may.

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 413-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sug’urta faoliyati klassifikatori”da keltirilgan.

Sug’urta majburiy va ixtiyoriy shakllarda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda majburiy sug’urtaning quyidagi turlari amalga oshiriladi:

- harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy sug’urtasi;
- soliq organlari xodimlarining davlat majburiy sug’urtasi;
- davlat sud ekspertlarining hayoti va sog’lig’ini davlat tomonidan majburiy sug’urta qilish;
- sudyalarning hayoti va sog’lig’ini davlat tomonidan majburiy sug’urta qilish;
- Hukumat kafolati ostida kiritilayotgan va Davlat byudjeti mablag’lari hisobidan qurilayotgan ob’ektlardagi qurilish risklarini majburiy sug’urtasi;
- xavfli ishlab chiqarish ob’yektiga ega korxonalarning xavfli ishlab chiqarish ob’yektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog’lig’i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish;
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish;
- tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish.

Majburiy sug’urta qonun asosida joriy etiladi. Majburiy davlat sug’urtasi davlat byudjeti mablag’lari hisobidan, majburiy sug’urta esa yuridik yoki jismoniy shaxsning o’z mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug’urta qilish, fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug’urta qilish, xorijga chiquvchi fuqarolarni sug’urta qilish, tibbiy sug’urta, uzoq muddatli hayotni sug’urtalash, yuklarni sug’urtalash kabi sug’urta turlari ixtiyoriy shaklda amalga oshiriladi.

2. Sug’urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari

Sug’urta kompaniyasi, sug’urta tashkiloti va sug’urtalovchi so’zlari yagona ma’noni – sug’urta faoliyati bilan shug’ullanadigan

xo’jalik yurituvchi sub’yektlarini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunida sug’urta tashkiloti sug’urtalovchi sifatida talqin etilgan. Fuqarolik kodeksida esa sug’urta kompaniyasi sug’urtalovchi, sug’urta tashkiloti deb nomlangan. “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunning 6-moddasida sug’urta tashkilotiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Tegishli turdagi sug’urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lgan va sug’urta shartnomasiga muvofiq sug’urta tovoni (sug’urta puli) to’lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo’lgan yuridik shaxs sug’urtalovchi deb e’tirof etiladi”[108].

Sug’urta tashkiloti tegishli turdagi sug’urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lishi shart. Unga litsenziyani maxsus vakolatli davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi beradi.

Sug’urta tashkiloti yuridik shaxs maqomiga ega bo’lishi lozim. Sug’urta tashkilotlarini yuridik shaxs sifatida davlat ro’yxatidan o’tkazish O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Sug’urta tashkilotlari turli mulkchilik shakllarida tashkil etilishi mumkin. 2019 yil 10 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida 30 ta sug’urta kompaniyasi tegishli faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega. Ularning bittasi to’liq davlat tasarrufida (“O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug’urta kompaniyasi), ikkitasi davlat mablag’lari ishtirokida tashkil etilgan bo’lib, aktsiyadorlik jamiyati shaklida tuzilgan (“O‘zagrosug’urta” va “Kafolat sug’urta kompaniyasi” aktsiyadorlik jamiyatlari). Aksariyat sug’urta tashkilotlari mas’uliyati cheklangan jamiyat, shu jumladan xorijiy investitsiya ishtirokidagi mas’uliyati cheklangan jamiyati tarzida tashkil etilgan. Masalan, “EVROASIA INSURANCE” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxona, “IShONCh” banklararo sug’urta kompaniyasi mas’uliyati cheklangan jamiyati maqomiga ega.

Sug’urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning faoliyatidan tubdan farq qiladi. Avvalo, sug’urta tashkilotlari ko’plab yuridik va jismoniy shaxslar - sug’urta qildiruvchilar oldida o’z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mas’ul hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda ularning faoliyati davlat tomonidan nazorat qilinadi. Xususan, sug’urta faoliyatini nazorat qilishga vakolatli davlat organi – O‘zbekiston

[108] O‘zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonuni (qo’shimcha va o’zgarishlar bilan birga).

Respublikasi moliya vazirligi tomonidan sug’urta tashkilotlarining to’lov qobiliyatini ta’minlashga qaratilgan me’yorlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sug’urta tashkiloti rahbarlari va bosh buxgalteriga nomzodlar uchun malakaviy talablar o’rnatilgan. Bundan tashqari, sug’urta zaxiralarini shakllantirish, sug’urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini nazorat qilish bo’yicha ham me’yoriy hujjatlar qabul qilingan va amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi sug’urta tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organi bo’lib hisoblanadi.

Sug’urta tashkilotlari sug’urta faoliyatidan boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishlari mumkin emas. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, sug’urta tashkilotlari savdo-vositachilik operatsiyalari bilan shug’ullansa, bu holat, pirovardida, uning to’lov qobiliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunida sug’urta tashkilotlarining huquq va majburiyatlari ko’rsatilgan. Mazkur qonunga asosan sug’urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug’urta (qayta sug’urta qilish) shartnomalari tuzish;
- o’z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug’urta qilish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug’urta qilish;
- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- qimmatli qog’ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish. Bunda mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun sug’urtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi;
- sug’urta (qayta sug’urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog’liq faoliyatni, shuningdek sug’urta agenti sifatida sug’urta vositachiligini amalga oshirish;
- sug’urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda moliyalashtirish;
- sug’urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug’urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;
- sug’urta tovoni miqdorini belgilash uchun zarur bo’lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan,

sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so’rash va olish;

- sug’urta agentlari, sug’urta va qayta sug’urta brokerlari, sug’urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;

- sug’urta tovoni to’lashni qonun hujjatlarida va (yoki) sug’urta (qayta sug’urta qilish) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda rad etish, sug’urta (qayta sug’urta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;

- sug’urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirishni, sug’urta qildiruvchining sug’urta shartnomasi talablari va shartlarini bajarishi ustidan nazoratni sug’urta (qayta sug’urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirish;

- chet el sug’urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlari ko’rsatish;

- ilgari sug’urtalovchi tomonidan o’z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug’urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o’tgan mol-mulkni realizatsiya qilish yoki ijaraga berish;

- O‘zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;

- o’zining alohida bo’linmalarini tashkil etish.

Sug’urtalovchi:

- sug’urta faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

- sug’urta faoliyatini amalga oshirish chog’ida olingan axborotning mahfiyligini qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta’minlashi;

- o’zi vakolat bergan sug’urta agentlarining reestrini yuritishi;

- qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etishi;

- sug’urta hodisasi yuz bergan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki sug’urta (qayta sug’urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur hisob-kitoblarni amalga oshirishi va sug’urta tovoni to’lashi;

- firmaning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan eri o’zgargan taqdirda, bu haqdagi axborotni sug’urta qildiruvchilarga qonunda belgilangan tartibda etkazishi;

- sug’urta zaxiralarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda shakllantirishi hamda joylashtirishi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi;

- maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuariyni (aktuar tashkilotni) aktuar xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etishi;

- maxsus vakolatli davlat organi belgilagan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart.

Sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdorlari qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda shakllantiriladi. Boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan farqli ravishda sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining 90 foizi pul shaklida bo'lishi talab etiladi va litsenziya olayotgan paytda ustav kapitali 100 foiz shakllantirilgan bo'lish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-5197-son Farmoniga asosan sug'urta faoliyati turlariga qarab, sug'urtalovchilarning ustav kapitali minimal miqdorlarini talab belgilandi.

Sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam MIQDORLARI[109]

Sug'urta faoliyati turlari	Sug'urtalovchi ustav kapitali eng kam miqdori
Umumiy sug'urtalash tarmog'ida	7,5 milliard so'm
Hayotni sug'urtalash tarmog'ida	10,0 milliard so'm
Majburiy sug'urtalash bo'yicha	15,0 milliard so'm
Faqat qayta sug'urtalash bo'yicha	30,0 milliard

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sug'urta tashkilotlari 2018 yilning 1 iyuliga qadar ustav kapitali miqdorlarini yuqorida ko'rsatib o'tilgan talabga to'liq muvofiqlashtirgan. Demak, sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdorlari faoliyat turlariga qarab farqlanadi. Masalan, umumiy sug'urtalash tarmog'ida faoliyat

[109] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-1544-son Qaroriga ilova.

yurituvchi sug’urta tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdori 7,5 milliard so’mga teng bo’lishi kerak. Aks holda, mazkur talabga javob bermagan sug’urta tashkilotlarning faoliyati qonunda belgilangan tartibda to’xtatiladi.

Sug’urta shartnomasi ikki yoki undan ortiq shaxs ishtirokida tuzilgan yozma bitim bo’lib, unga asosan sug’urta qildiruvchi sug’urta mukofotini to’lash, sug’urtalovchi esa sug’urta hodisasi sodir bo’lganda sug’urta tovonini to’lash majburiyatini oladi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko’ra, sug’urta shartnomasi faqat yozma shaklda tuzilgan bo’lishi shart.

Shuningdek, kodeksda sug’urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug’urta qildiruvchi) sug’urta tashkiloti (sug’urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug’urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi, deb ko’rsatilgan.

Sug’urta shartnomasi yuridik yoki jismoniy shaxsning yozma yoki og’zaki arizasiga asosan tuziladi. Arizada sug’urta qildiruvchi yuridik shaxsning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, manzili, shu jumladan elektron manzili, telefon raqamlari ko’rsatilgan bo’ladi. Jismoniy shaxslar esa arizada familiyasi, ismi va otasining ismi, uy manzili, telefon raqamlari to’g’risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, arizada sug’urtaga qabul qilinayotgan ob’ektlar, uning qiymati haqida ham aniq ma’lumotlar keltirilishi zarur. Arizadagi ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun mas’uliyat sug’urta qildiruvchi shaxsning zimmasiga yuklanadi. Aks holda, sug’urta qildiruvchi shaxs tomonidan arizada noto’g’ri, soxta ma’lumotlarning taqdim etilishi sug’urtalovchi tomonidan aniqlangan taqdirda, sug’urta hodisasi sodir bo’lishi oqibatida yuzaga kelgan zararlar qoplanmaydi.

Sug’urta shartnomasi tuzishdan oldin sug’urta tashkilotining vakili yoki sug’urta syurveyeri sug’urta qilinayotgan ob’ektni obdan ko’zdan kechirishi va albatta, arizada keltirilgan ma’lumotlarga qanchalik mos kelishini tekshirishi shart. Sug’urta syurveyeri quyidagilar bo’yicha xizmatlar ko’rsatuvchi, o’z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo’lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo’lgan jismoniy shaxsdir:

- sug’urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug’urta ob’yektini ko’zdan kechirish va tekshirish;
- sug’urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;
- tekshirilayotgan sug’urta ob’yekti bo’yicha xulosa tuzish.

Sug’urta shartnomasida sug’urtanalayotgan ob’ekt, mazkur ob’ekt bo’yicha sug’urta javobgarligi, sug’urta tarifi, sug’urta mukofoti va sug’urta hodisasi sodir bo’lganda taraflar, ya’ni sug’urta tashkiloti va sug’urta qildiruvchi o’rtasida vujudga keladigan o’zaro munosabatlarni tartibga solish shartlari o’z aksini topadi. Shuningdek, sug’urta shartnomasida uning amal qilish muddati, ishtirok etuvchi taraflarning huquq va majburiyatlari, javobgarligi hamda manzillari, mas’ul shaxslarning imzolari va muhrlari qayd etiladi.

Sug’urta shartnomasi bo’yicha sug’urtalovchining javobgarligi sug’urta qildiruvchi tomonidan sug’urta mukofoti to’langandan so’ng boshlanadi. Agar sug’urta qildiruvchi tomonidan sug’urtalovchining hisob raqamiga sug’urta mukofoti shartnomada ko’rsatilgan muddatda va tartibda to’lanmasa, sug’urta shartnomasi o’z kuchini yo’qotadi.

Sug’urta shartnomasi bo’yicha sug’urtalovchining sug’urta qildiruvchi oldida sug’urta javobgarligining boshlanganligi sug’urta qildiruvchiga sug’urta polisini rasmiylashtirish va taqdim etish yo’li bilan tasdiqlanadi. Sug’urta polisi qatiy hisobda turuvchi hujjat bo’lib, unda polisni taqdim etgan sug’urta tashkilotining nomi, manzili, telefon raqamlari, polisning amal qilish muddati, sug’urta qildiruvchining nomi, sug’urta ob’yekti, sug’urta summasi va sug’urta mukofotining miqdori keltirilgan bo’ladi. Sug’urta polisining orqa tarafida sug’urtalash qoidasidan ko’chirma o’z ifodasini topgan bo’lishi lozim. Sug’urta polisining asl nusxasi sug’urta qildiruvchiga beriladi, nusxasi esa sug’urta tashkiloti yoki uning vakilida qoladi.

Sug’urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari qonunchilik hujjatlarida, sug’urta shartnomalarida o’z aksini topadi. Sug’urta shartnomasi sug’urtalovchi va sug’urta qildiruvchi o’rtasida tuziladi hamda unda ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlari ko’rsatiladi.

Sug’urta tashkilotining huquqlariga quyidagilar kiradi:

- sug’urta ob’yektini ko’zdan kechirish, shu jumladan, sug’urta qildiruvchining arizasida keltirilgan ma’lumotlarning sug’urta ob’yektining haqiqiy holatiga muvofiq kelishini tekshirish;
- sug’urta hodisasi sodir bo’lganda uning oqibatlarini bartaraf etish va kamaytirishda ishtirok etish, bu borada sug’urta qildiruvchiga zarur ko’rsatmalar berish;
- sug’urta tashkilotiga sug’urta hodisasi yuz berish ehtimolini va ehtimoli bo’lgan zararlarning miqdorini aniqlash uchun muhim

ahamiyatga ega bo’lgan soxta ma’lumotlar taqdim etilganligi ma’lum bo’lib qolsa, sug’urta shartnomasini bekor qilish;

- sug’urta hodisasi sug’urta qoplamasini olish maqsadida atayin uyushtirilganligi aniqlangan taqdirda sug’urta tovonini to’lamaslik;

Sug’urta tashkilotining shartnoma doirasidagi majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- sug’urta mukofoti kelib tushgandan so’ng sug’urta polisini berish;
- sug’urta hodisasi sug’urta tashkiloti tomonidan tan olingan taqdirda sug’urta tovonini belgilangan muddatlarda to’lash;
- sug’urta qildiruvchini sug’urtalash qoidalari bilan tanishtirish;
- sug’urta qildiruvchiga tegishli ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash;
- sug’urta tashkilotining manzili, nomi, mulkchilik shakli o’zgargan taqdirda yoki litsenziyasi vaqtincha to’xtatilganda, chaqirib olinganda bu haqda sug’urta qildiruvchiga xabar berish.

Sug’urta qildiruvchining huquqlariga quyidagilar kiradi:

- sug’urta tashkiloti to’g’risida ma’lumotlar so’rash;
- sug’urta shartnomasi amalda bo’lgan davrda sug’urtaga oid maslahatlar olish;
- sug’urta polisi yo’qolgan taqdirda uning nusxasini olish;
- sug’urtalovchi bilan kelishgan holda sug’urta shartnomasiga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish;
- naf oluvchini mustaqil belgilash;
- sug’urta hodisasi sug’urta tashkiloti tomonidan tan olingandan so’ng sug’urta tovonini olish.

Sug’urta qildiruvchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- sug’urtalanayotgan ob’ekt, uning risk darajasini oshishiga ta’sir ko’rsatuvchi holatlar haqida aniq ma’lumotlar berish;
- sug’urta shartnomasi amal qilayotgan davrda sug’urta ob’yektida o’zgarish bo’lganda, ya’ni sotilishi yoki ijaraga berish yoxud boshqa o’zgarishlar bo’lganda bu haqda sug’urta tashkilotiga xabar berish;
- shartnomada ko’rsatilgan muddatda va tartibda sug’urta mukofotini to’lash;
- sug’urta ob’yekti boshqa sug’urta tashkilotlarida sug’urtalanganmi yoki sug’urtalanmaganligi to’g’risida haqqoniy ma’lumotni taqdim etish;
- sug’urta hodisasi sodir bo’lganda bu haqda zudlik bilan shartnomada ko’rsatilgan muddat ichida sug’urta tashkilotiga xabar berish;

- sug’urta hodisasi yuz berishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni kamaytirish, yong’in, portlash va avariya holatlari ro’y berganligi to’g’risida tegishli vakolatli organlarga xabar berish.

Sug’urta shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari sug’urta turiga va uning xususiyatlariga hamda sug’urta tashkilotining ichki siyosatidan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qilish mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalardan himoyalashda sug’urta samarali va ishonchli vosita hisoblanadi. Sug’urta qildiruvchilar sug’urta ob’yektining qiymatiga nisbatan juda oz miqdorni tashkil etuvchi xizmat haqi – sug’urta mukofotini to’lash orqali sug’urta hodisalari yuz berishi tufayli yuzaga kelgan katta miqdorda, ba’zan to’langan sug’urta mukofotining bir necha yuz baravari miqdorida sug’urta tovonini olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Sug’urtaning afzallik tomoni ham mana shunda. Yuridik va jismoniy shaxslar o’zlariga tegishli mol-mulklarni yoxud hayotini saqlash bilan bog’liq risklarni sug’urta tashkilotiga berish orqali o’z xotirjamligini ta’minlaydi. Shu bois, sug’urtani xotirjamlik uchun to’lov sifatida ham talqin etadilar.

Har qanday jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o’z faoliyatlari jarayonida bir-birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo’ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya’ni fuqarolar va tashkilotlarning hatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to’laligacha sug’urtaga ham taalluqlidir. Sug’urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug’urta jamg’armasini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sug’urta sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sug’urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yo’nalishlarda namoyon bo’ladi:

- fuqarolar va sug’urta tashkilotlari o’rtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug’urta tashkilotlari o’rtasida yuzaga keladigan o’zaro munosabatlar;

- fuqarolar va maxsus vakolatli davlat organlari o’rtasida paydo bo’ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug’urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o’rtasida yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sug’urta tashkilotlari o’rtasida paydo bo’ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sug’urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug’urta tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo bo’ladi. Ya’ni, tuzilgan shartnomaga ko’ra, fuqaro o’z vaqtida sug’urta mukofotini to’lashi shart. Sug’urta hodisasi ro’y berganda esa, sug’urta tashkiloti sug’urta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sug’urta tovonini (summasini) fuqaroga to’lab berishi lozim. Ko’rinib turibdiki, shartnoma–fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning o’zaro munosabatini huquqiy tartibga soladi.

Sug’urta tashkilotlarining bir-birlari o’rtasida paydo bo’ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sug’urta pulini (yirik ob’ektlarni sug’urtalash maqsadida bir nechta sug’urta tashkilotlarining o’zaro birlashuvi) va qayta sug’urta qilish bilan bog’liq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga ko’ra, sug’urta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, binobarin, sug’urta qildiruvchilar oldida o’z zimmasiga olgan majburiyatini bajarilishini ta’minlash maqsadida sug’urta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sug’urta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sug’urta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida “sug’urta shartnomasi bo’yicha sug’urtalovchi o’z zimmasiga olgan sug’urta tovonini yoki sug’urta pulini to’lash xavfi uning tomonidan to’liq yoki qisman boshqa sug’urtalovchida (sug’urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug’urta qilish shartnomasi bo’yicha sug’urtalanishi mumkin” deb alohida qayd etilgan.

Qayta sug’urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug’urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo’lsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sug’urta qilish borasida qo’llanishi lozim bo’lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug’urta qilish shartnomasini tuzgan sug’urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo’yicha sug’urtalovchi keyingi shartnomada sug’urta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari o’rtasida paydo bo’ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat

organining sug’urta qildiruvchilar bo’lgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya etish bilan bog’liqdir. Amaliyotda shunday holatlar bo’ladiki, sug’urta tashkiloti sug’urta qildiruvchiga sug’urta hodisasi tufayli ko’rilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda o’z manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sug’urta qildiruvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sug’urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o’rtasida paydo bo’ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sug’urta tashkilotlariga nisbatan yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunda o’z aksini topgan.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sug’urta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat bo’lganda esa, sug’urtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sug’urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sug’urtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sug’urta munosabati qatnashchilarining hatti-harakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan ko’rib bo’lmaydigan sug’urtaviy himoya qilish uchun ko’pchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus jamg’arma hisobidan amalga oshiriladigan sug’urta faoliyati jarayonida paydo bo’ladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yig’indisiga sug’urta huquqi deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yilning 5 aprelida qabul qilingan va shu yilning 28 mayida amaliyotga joriy etilgan “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonun sug’urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, sug’urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993 yili Oliy Majlis “Sug’urta to’g’risida”gi Qonun qabul qilgan edi. 1993-2001 yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritildi. Tabiiyki, bu qonun o’sha paytda mavjud bo’lgan iqtisodiy jarayonlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Boshqacha so’z bilan aytganda, ushbu qonun sug’urta munosabatlari qatnashchilari uchun biroz yumshatilgan holatda amal qildi. Jumladan, unda sug’urta tashkilotlari tugatilgan taqdirda ularning

sug’urtalanuvchilar oldidagi majburiyatini bajarish tartibi to’liq yoritilmagan. Shuningdek, bu qonunda qonunchilik talablarini buzganlik uchun tomonlarning javobgarligi o’z aksini topmagan hamda davlat sug’urta nazorati organining sug’urta tashkilotlariga nisbatan ta’sir qilish imkoniyati keskin chegaralangan edi.

Bayon etilgan holatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti bosqichining talablarini hisobga olgan holda, 2002 yilgacha amalda bo’lgan “Sug’urta to’g’risida”gi Qonunni yangilash va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuni e’tiborga olib, 2002 yilning 4-5 aprel kunlari bo’lib o’tgan ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi yangidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qabul qilindi.

“Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunning diqqatga sazovor joylaridan biri, uning 10-moddasida sug’urta tashkilotlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish tartibini aniq ko’rsatib qo’yilganligidir. Ma’lumki, qonun hujjatlariga muvofiq, aktsiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug’urta tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro’yxatiga olinganlar. Ammo, uzoq vaqt, aniqrog’i, 1998 yilning birinchi yarmigacha sug’urta faoliyatini tartibga solish vakolati berilgan davlat sug’urta nazorati organining tashkil etilmaganligi va ilgari Adliya vazirligida davlat ro’yxatiga olingan tashkilotlarning faoliyati hech kim tomonidan nazorat qilinmaganligi oqibatida yangi tashkil etilgan sug’urta tashkilotlarini davlat ro’yxatiga olishda muammolar paydo bo’lgan.

Sug’urta munosabatlari, avvalo, fuqarolik-huquqiy munosabatga oid bo’lganligi tufayli 1996 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi sug’urtaga bag’ishlangan. Hozirgi kunga qadar amaliyotda sug’urta tashkilotlari o’z faoliyatlarini amalga oshirishlarida mazkur kodeksning talab-qoidalariga qatiy rioya etadilar.

Fuqarolik kodeksining sug’urtaga oid bobida jami 47 ta modda mavjud bo’lib, ularning har biri sug’urta munosabatlarining u yoki bu jihatlarini tartibga soladi. Kodeksda ixtiyoriy va majburiy sug’urta, mulkiy sug’urta shartnomasi, sug’urtalashga yo’l qo’yilmaydigan manfaatlar, mol-mulkni sug’urta qilish, shartnoma bo’yicha javobgarlikni sug’urta qilish, majburiy sug’urta va uni amalga oshirish tartibi kabi huquqiy normalar o’z aksini topgan.

Kodeksning 916-moddasida sug’urtalashga yo’l qo’yilmaydigan manfaatlar ko’rsatilgan bo’lib, ular quyidagilardan iborat:

G’ayriqonuniy manfaatlarni sug’urtalashga yo’l qo’yilmaydi.

Qimor, lotereyalar va garov o’yinlarida ishtirok etishda ko’riladigan zararni sug’urtalashga yo’l qo’yilmaydi.

Garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo’lgan xarajatlarni sug’urtalashga yo’l qo’yilmaydi.

Shuningdek, Fuqarolik kodeksida majburiy sug’urtani amalga oshirish tartibi ko’rsatilgan. Chunonchi, majburiy sug’urta bunday sug’urta qilish majburiyati yuklangan shaxs (sug’urta qildiruvchi) sug’urtalovchi bilan sug’urta shartnomasi tuzishi orqali amalga oshirilishi ko’rsatilgan.

Majburiy sug’urtalanishi lozim bo’lgan ob’ektlar, ular sug’urtalanishga sabab bo’ladigan xavflar va sug’urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 141-son qarorini keltirish mumkin. Mazkur qarorga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamkasining 2017 yil 9 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblash to’g’risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risida” 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-son Farmoni)” 810-son qarori bilan o’zgartirish kiritilgan bo’lib, unga muvofiq transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha sug’urta puli 12,0 mln.so’m miqdorida belgilangan. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 141-son qarori tasdiqlangan.

Sug’urtalovchi va sug’urta qildiruvchi o’rtasida tuziladigan sug’urta shartnomasining shakli va uning mazmuni bo’yicha talablar Fuqarolik kodeksida keltirib o’tilgan. Sug’urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo’ladi.

Sug’urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug’urtalovchi tomonidan sug’urta qildiruvchiga uning yozma yoki og’zaki arizasiga binoan sug’urtalovchi imzolagan, sug’urta shartnomasining

shartlarini o’z ichiga olgan sug’urta polisi (shahodatnomasi, sertifikati, kvitantsiyasi)ni topshirish yo’li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug’urta qildiruvchining sug’urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug’urtalovchidan ko’rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug’urta mukofoti to’lash yoxud - sug’urta mukofoti bo’lib-bo’lib to’langanda - birinchi badalni to’lash orqali tasdiqlanadi. Sug’urtalovchi shartnoma tuzish chog’ida sug’urtaning alohida turlari bo’yicha sug’urta shartnomasi (sug’urta polisi)ning o’zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo’llanishga haqli.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sug’urta siri, sug’urta puli, sug’urta mukofoti va sug’urta badallari, sug’urta shartnomasining haqiqiy emasligi to’g’risida me’yorlar qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida sug’urta sohasini huquqiy tartibga solishda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ishlab chiqilgan va Adliya vazirligi tomonidan ro’yxatga olingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning ahamiyati katta. Masalan, 2008 yilning 20 noyabrida O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligining buyrug’i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro’yxatiga olingan “Sug’urtalovchilarning sug’urta zaxiralari to’g’risidagi Nizom” sug’urta amaliyotiga joriy etilgan. Mazkur Nizomga muvofiq, sug’urta tashkilotlari quyidagi sug’urta zaxiralarini shakllantirishlari lozim:

a) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (umumiy sug’urta (qayta sug’urta qilish) bo’yicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zaxirasi (hayotni sug’urta qilish bo’yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha sug’urta to’lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo’ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha faoliyatni amalga oshirishda);

g) sug’urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug’urta shartnomasi shartlari bo’yicha qoplanishi lozim bo’lgan zarar (ziyon) hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zaxirasi:

xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (XZZ);

sodir bo’lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (SXZZ).

6. Sug’urtalovchi Davsug’urtanazorat bilan kelishilgan holda qo’shimcha ravishda:

ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OChZ);

falokatlar zaxirasini (FZ);

zararlilikning tebranishi zaxirasini (ZTZ);

aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasini (ANZ);

sug’urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq bo’lgan boshqa turdagi sug’urta zaxiralarini tashkil etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 26 dekabrdagi 120-son buyrug’i bilan “Biznes sohasi uchun sug’urta xizmatlari ko’rsatishning yagona talablari va standartlari to’g’risidagi Nizom” tasdiqlangan. Bu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 28 yanvarda 1891-soni bilan davlat ro’yxatidan o’tkazilgan. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-618-sonli qaroriga muvofiq biznes sohasi uchun sug’urta xizmatlari ko’rsatishning yagona talablari va standartlarini belgilaydi.

Ta’kidlash lozimki, biznes sohasi uchun sug’urta xizmatlarini ko’rsatish deganda tadbirkorlik xavflarini sug’urtalash shartnomalari bo’yicha sug’urta himoyasini taqdim etish tushuniladi. Mazkur Nizom bilan belgilangan yagona talablar biznes sohasi uchun sug’urta xizmatlarini taqdim etayotgan sug’urtalovchilar uchun majburiydir. Biznes sohasi uchun sug’urta xizmatlari ko’rsatishning standartlari standart tushunchalar va sug’urta xizmatlari ko’rsatishning standart shartlaridan iboratdir. Sug’urta xizmatlari ko’rsatishning standartlari, agar qonun hujjatlarida yoki sug’urta shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo’lsa, biznes sohasi uchun sug’urta xizmatlarini ko’rsatishda qo’llaniladi.

Sug’urta shartnomasi tuzilayotganda sug’urtalovchi iste’molchiga (tadbirkorlik xavfini sug’urtalash shartnomasini tuzmoqchi bo’lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga) quyidagilar haqida haqqoniy va to’liq axborotni taqdim etishi shart:

a) sug’urtalovchi haqida (oshkora axborotni);

b) sug’urtalovchi nomidan va topshirig’iga binoan faoliyat ko’rsatayotgan sug’urta vositachilari (sug’urta agentlari) haqida (agar iste’molchi tomonidan bunday talab mavjud bo’lgan taqdirda);

v) sug’urta xizmati, ya’ni uning narxi (sug’urta mukofoti), qoplamasi, shartlari, xizmatning maqsadlari, tavakkalchilik omillari, kafolatlar, maxsus istisnolari va h. k. haqida;

g) sug’urta xizmatining iste’molchi uchun afzalliklari va kamchiliklari haqida;

d) sug’urtalovchi va sug’urta qildiruvchining majburiyatlari haqida;

e) sug’urta mukofotlari (badallari) va mablag’larning kutilayotgan qaytarilishi haqida (qo’llanilishi mumkin bo’lganda);

j) sug’urta da’volarini hal etish tartibi va sug’urta shartnomasining boshqa shartlari haqida.

Sug’urtalovchi taqdim etayotgan axborot barcha muhim shartlar (pozitsiyalar) bo’yicha aniq va ravshan, yanglishtirmaydigan, oson tushuniladigan va yozma shaklda yoki tegishli elektron tashuvchilarda bo’lishi shart.

2009 yilning 7 aprelidagi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligining buyrug’iga asosan “Aktuar xizmatlarni ko’rsatish tartibi to’g’risida Nizom” tasdiqlangan va bu hujjat 2009 yilning 26 iyunida Adliya vazirligida 1975-son bilan ro’yxatga olingan. O‘zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq sug’urta tashkilotlari bir yilda bir marta moliya yili yakunlangandan so’ng keyingi yilning olti oyi ichida aktuar tashkilotining kuzatuvidan o’tishlari shart. Aktuar kuzatuvi deganda sug’urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, takroriylik va zarar etkazilish oqibatlarining og’irlik darajasini aniqlash, sug’urta zaxiralarini hisob-kitob qilish, sug’urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlar hajmini aniqlash, sug’urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish, sug’urtaning (qayta sug’urta qilishning) har bir turi bo’yicha tarif stavkalarini belgilash, investitsiya faoliyati natijalarini baholash, daromadlarni sug’urtaning (qayta sug’urta qilishning) har xil turlari bo’yicha rejalashtirish va boshqa aktuar xizmatlarini ko’rsatishni o’zi ichiga oluvchi aktuar xizmatlari majmuasi tushuniladi.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va milliy sug’urta bozorini tartibga solishga qaratilgan barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlar ustida atroflicha to’xtalib o’tishning imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, ayrim me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga e’tiborni qaratdik.

3. Sug’urta bozorining mohiyati, tarkibi va turlari

Iqtisodiyotning umumiy nazariyasida ham, sug’urta fanida ham “sug’urta bozori” va “sug’urta xo’jaligi” yangi tushunchalardir.

Shunga qaramay aytish mumkinki, “sug’urta bozori” tushunchasi o’ziga nisbatan bir muncha umumiy hisoblangan “sug’urta xo’jaligi” tushunchasining pog’onalaridan biri bo’lib, sug’urta xizmatlari oldi-sotdisi bilan bog’liq. “Sug’urta xo’jaligi” sug’urta sohasidagi sug’urta xizmatlarini ko’rsatish, sotish va iste’mol qilish bilan bog’liq munosabatlar yig’indisidan iborat. Umumjahon xo’jaligi miqyosida “jahon sug’urta xo’jaligi” atamasini qo’llash mumkin. Ana shu ma’noda “sug’urta xo’jaligi” sug’urta tashkilotlarining ta’sis etilishi, tashkiliy tuzilmasi, faoliyati, boshqaruvi bilan bog’liq munosabatlarni, shuningdek, sug’urta tashkilotlarining yoki sug’urta bozorining boshqa turdagi sub’yektlarining sug’urtaga oid faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish munosabatlarini, iqtisodiy munosabatlarda sug’urtadan foydalanish shart-sharoitlari va asoslarini ifoda etadi. Xorijiy adabiyotda bu borada tegishli ravishda “sug’urta iqtisodiyoti” va “jahon sug’urta iqtisodiyoti” tushunchalari ishlatiladi.

Iqtisodiyot hamda zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan sug’urta bozorini xaridorlar – sug’urtalanuvchilarning sug’urta xizmatlariga bo’lgan talablari va sotuvchilar – sug’urta tashkilotlarining sug’urta himoyasi bo’yicha takliflari nisbati bilan boshqariladigan iqtisodiy makon yoki tizim sifatida tasavvur etish mumkin. Sug’urta himoyasiga talab ikki bosh omil bilan: xo’jalik yurituvchi sub’yektning va alohida fuqaroning risk-menejmentining elementi sifatidagi sug’urtaga nisbatan bo’lgan talabi va shuningdek, sug’urtalovchilarning sug’urta xizmatini sotib olish orqali o’z talabini qondirishga imkon yaratadigan sotib olish layoqati bilan belgilanadi. Ijtimoiy qayta ishlab chiqarishga xos bo’lgan ehtimoldagi xavf sifatida xatar iqtisodiy munosabatlar yuksalishi bilan sug’urta xizmatlariga bo’lgan talabning kuchayishiga olib keladi. Ayni vaqtda davlat ijtimoiy sug’urta va ta’minot tizimi orqali taqdim etiladigan sug’urta himoyasining qisqarishi ham shuningdek, sug’urta xizmatlariga talabning oshishiga sabab bo’ladi.

Sug’urta bozori – ma’lum bir pul munosabatlari sohasi bo’lib, unda savdo-sotiq ob’yekti sifatida sug’urta himoyasi qatnashadi hamda unga talab va taklif shakllanadigan maxsus ijtimoiy-iqtisodiy tarmoq hisoblanadi. Sug’urta bozori keng ma’noda sug’urta xizmatlarining oldi-sotdisi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig’indisini aks ettiradi. Sug’urta bozorining ob’yektiv asosini kutilmagan tabiiy, texnogen va baxtsiz hodisalar oqibatida etkazilgan zararni bartaraf etish yo’li bilan ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash hisoblanadi. Qolaversa, sug’urta bozori iqtisodiyotni qo’shimcha moliyalashtirishda ham

muhim o’rin tutadi. Sug’urta bozori faoliyat yuritishining asosiy sharti bo’lib sug’urta xizmatlariga jamiyat ehtiyojining mavjudligi va ushbu ehtiyojni qondira oladigan sug’urta tashkilotlarini mavjud bo’lishi hisoblanadi. Faoliyat ko’rsatayotgan sug’urta bozori turli tarmoq bo’limlarini biriktirgan murakkab, integratsiyalashgan tizimni o’zida aks ettiradi.

Sug’urta bozori ishtirokchilari sifatida sotuvchilar, xaridorlar va vositachilar hamda ularning uyushmalari qatnashadilar. Sotuvchilar toifasini sug’urta va qayta sug’urta tashkilotlari tashkil etadi. Xaridorlar sifatida u yoki bu sotuvchi bilan sug’urta shartnomasini rasmiylashtiruvchi sug’urtalanuvchilar - jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etadilar. Sotuvchilar va xaridorlar o’rtasidagi vositachilar bo’lib, o’z harakatlari bilan sug’urta shartnomalarini tuzishga ko’maklashuvchi sug’urta agentlari va sug’urta brokerlari hisoblanadi.

Sug’urta bozorida taklif etilayotgan o’ziga xos tovar - sug’urta xizmati hisoblanadi. Uning xarid qiymati bo’lib sug’urta qoplamasi shaklini ifodalovchi sug’urta himoyasini ta’minlash hisoblanadi. Sug’urta xizmatining narxi sug’urta tarifida aks ettiriladi. U talab va taklifga asoslangan raqobat asosida shakllanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan sug’urta bozorlarining muammosi sug’urtalanuvchilar tomonidan zarur darajada sotib olish layoqatiga ega bo’lmaslikda ifodalanishi mumkin. Bu muammoning hal etilishi bir jihatdan aholining sotib olish layoqatining o’sishiga va xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning moliyaviy barqarorligiga, ikkinchi jihatdan davlat tomonidan umummilliy darajada mamlakat makroiqtisodiyoti miqyosida sug’urta xizmatlarini sotib olish layoqatini o’stirishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlarga bog’liq. Mutaxassislar diqqatni sug’urta xizmatlariga talab sub’yektiv xususiyatga ega ekanligiga qaratadilar, ya’ni sug’urta himoyasi bilan ta’minlanishga ongli talab ko’p jihatdan iste’molchining ana shunday xizmat mavjud ekanligidan, uning iste’mol sifatlaridan, samarasidan, bahosidan bexabarligi va shu kabi sabablarga ko’ra amalga oshmay qolishi mumkin. Bu holat sug’urta tashkilotlaridan “sug’urta riskini qoplashga doir yashirin talabni ochishga” qaratilgan marketing tadbirlarini o’tkazishni taqozo qiladi.

Sug’urta xizmatlarining taklif etilishi etarli darajada ixtisoslashgan va moliyaviy barqaror, ehtimoldagi sug’urtalanuvchilarning talablarini qondirishga layoqatli sug’urta tashkilotlarining mavjud bo’lishi orqali ta’minlanadi. Investorlarning sug’urta tashkilotiga qiziqishi, sug’urta tariflarini hisoblab chiqish

uchun zarur statistik va axborot bazasining mavjudligi, moliya bozorining sug'urta tashkilotlarining investitsiyalarining qaytarilishini va daromadliligini kafolatlaydigan darajada samarali faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, sug'urta tashkilotlarida malakali menejerlarning va sug'urta xizmati anderraytingi bo'yicha mutaxassislarning mavjudligi sug'urta bozorini shakllantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta xizmatlari bozori faoliyat turiga qarab umumiy sug'urta xizmatlari bozori va hayotni sug'urta qilish bozoriga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida sug'urta xizmatlari bozori 2002 yilning oxirlariga qadar universal tusga ega bo'lgan, ya'ni sug'urta tashkilotlari bir paytning o'zida ham umumiy, ham hayotni sug'urtalash turlarini amalga oshirib kelgan. 2002 yilning 27 noyabrida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-son qaroriga asosan "Sug'urta faoliyati klassifikatori" tasdiqlandi. Unga muvofiq sug'urta tashkilotlarining faoliyati ikkiga ajratildi: umumiy sug'urta va hayotni sug'urta qilish sohasi.

Umumiy sug'urta tarmog'i quyidagi 17 ta klassdan iborat:

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi

		(yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta’minlovchi sug’urta turlari jami, biroq hayotni sug’urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo’yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	Er usti transport vositalarini sug’urta qilish	Transport vositalari, o’zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo’l tarkibi bundan mustasno, yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urta turlari jami
4-klass	Harakatlana-digan temir yo’l tarkibi-ni sug’urta qilish	Harakatlanadigan temir yo’l tarkibi yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari jami
5-klass	Aviatsiya sug’urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari jami
6-klass	Dengiz sug’urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari jami
7-klass	Yo’ldagi mol-mulkni sug’urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofat-lardan sug’ur-ta qilish	Yong’in, portlash, bo’ron, dovul, jala, ko’chki, tuproqning cho’kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta’siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko’rsatilganlar bundan mustasno) yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari jami
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug’urta qilish	8-klassda ko’rsatilmagan do’l, qalin qor yog’ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o’g’irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko’rsatilgandan boshqa) yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari jami
10-klass	Avtofuqaro-lik javobgar-ligini sug’ur-ta qilish	Er usti transport vositalari va boshqa o’ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga

		(jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlik-ni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
12-klass	Dengiz sug'ur-tasi doira-sida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15-klass	Kafillikni (kafolatlar-ni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-klass	Boshqa moliya-viy tavakkal-chiliklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini

		ta’minlovchi sug’urta turlari jami
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog’liq xarajatlarni sug’urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog’liq ko’rilgan xarajatlar natijasida sug’urta qildiruvchi zarar ko’rganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urta turlari jami

Umumiy sug’urta xizmatlari hayot sug’urtasidan tashqari barcha sug’urta xizmat turlarini qamrab oladi. Hozirgi kunda umumiy sug’urta xizmatlari bozorida faoliyat ko’rsatayotgan sug’urta tashkilotlari “Sug’urta faoliyati klassifikatori”ning umumiy sug’urta tarmog’iga oid barcha sug’urta klasslari doirasida sug’urta xizmatlarini ko’rsatayapti. Umumiy sug’urta xizmatlari bozorini tavsiflovchi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- sug’urta polisi amal qilish muddatining bir yildan oshmasligi. Shunday sug’urta xizmat turlari borki, uularning muddati hatto bir soatni tashkil etadi. Masalan, havo yo’llari orqali yo’lovchilarni tashishda qo’llaniladigan tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urtalashda polisning amal qilish muddati uchish va qo’nish masofasidan kelib chiqqan holda bir soatga teng bo’lish mumkin.

- investitsiyaga yo’naltirilgan mablag’larning qisqa muddatli ob’ektlarga joylashtirilishi.

2019 yilning 1 yanvar holatiga O‘zbekiston sug’urta bozorida jami 30 ta sug’urta tashkiloti faoliyat ko’rsatayotgan bo’lib, uning 24 tasi yoki 80,0 foizi umumiy sug’urta xizmatlari bozoriga tegishlidir. Umumiy sug’urta xizmatlari bozorida faoliyat ko’rsatayotgan eng yirik sug’urta tashkilotlari jumlasiga “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug’urta kompaniyasi, “O‘zagrosug’urta” va “Kafolat sug’urta kompaniyasi” aktsiyadorlik jamiyatlarini kiritish mumkin.

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida hayotni sug’urta qilish bozori umumiy sug’urta xizmati bozoriga qaraganda yuksak darajada rivojlangan. Masalan, AQSh, Yaponiya va Yevropaning ba’zi davlatlarida sug’urtalovchilar tomonidan to’plangan jami sug’urta mukofotlari tarkibida hayotni sug’urtalash bo’yicha yig’ib olingan sug’urta mukofotlari katta salmoqqa ega.

O‘zbekistonda hayotni sug’urta qilish bozori shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. 2002 yil 5 aprelda “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan hayotni sug’urta qilish sug’urta faoliyatining, binobarin sug’urta

bozorining alohida tarmog'iga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-son qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ga muvofiq hayotni sug'urta qilish tarmog'i 4 ta klassdan iborat. Ushbu klasslar to'g'risida oldingi mavzularda to'xtalib o'tilgan.

2003 yil dekabrda "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi muassisligida hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan dastlabki sug'urta kompaniyasi – "O'zbekinvest Hayot" shu'ba sug'urta tashkiloti tashkil etildi. Mazkur shu'ba sug'urta tashkiloti O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslariga hayot va sog'likni sug'urta qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- hayotni sug'urtalash tarmog'ining barcha klasslari va umumiy sug'urta tarmog'ining I va II klasslari bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatish;
- tegishli sug'urta mahsulotlarini taqdim etish orqali O'zbekiston Respublikasi aholisi keng qatlamini ijtimoiy himoyalash vositalarini rivojlantirish;
- hayotni va sog'likni sug'urtalashning xalqaro standartlari amaliyotini joriy etish;
- xorijiy, xalqaro, milliy sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

Hozirgi kunda "O'zbekinvest Hayot" sug'urta tashkiloti respublikamizning barcha mintaqalarida o'z filiallariga ega va ular tomonidan quyidagi sug'urta xizmatlari ko'rsatiladi:

- bonus to'lovli hayot sug'urtasi. Mazkur sug'urta turining amal qilish muddati 13 oydan 20 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil etadi. Sug'urta summasi sug'urta qildiruvchi tomonidan aniqlanadi va shundan kelib chiqqan holda sug'urta mukofoti hisoblanadi. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urtalangan shaxsning yoshi, sug'urta muddati va badallarni to'lash tartibi bilan bog'liq. Sug'urta mukofotlari sug'urta qildiruvchi shaxs uchun qulay usulda: bir marotaba, har yili, yarim yilda bir marta yoki har chorak yoxud har oyda to'lab borilishi mumkin. Sug'urta summasini to'lash quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- shartnoma amal qilishining oxirgi muddatigacha yashash (bunda sug'urta summasi ilgari to'langan barcha sug'urta mukofotlari yig'indisi va kompaniya tomonidan to'lanadigan bonusga teng);

- sug’urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda (bunday holatda sug’urta summasi sug’urtalangan shaxsning qachon vafot etganidan va qancha sug’urta mukofoti to’laganidan qatiy nazar sug’urtalangan shaxs tomonidan qancha sug’urta mukofoti to’lanishi kerak bo’lgan summaga teng bo’ladi).

Bu sug’urta mahsulotini sotib olish uchun sug’urta qildirmoqchi bo’lgan shaxsning yoshi 18-60 yosh oralig’ida bo’lishi lozim.

- ta’lim olish uchun hayotni uzoq muddatli sug’urta qilish. Bunda ota-onalarning farzandlarini ta’lim muassasalarida o’qishi bilan bog’liq xarajatlarini sug’urta yo’li bilan qoplash nazarda tutiladi. Sug’urta shartnomasining muddati 13 oydan 20 yilgacha bo’lgan muddatni tashkil etadi. Mazkur sug’urta turi bo’yicha sug’urta summalarini to’lash quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- farzandning oliy ta’lim muassasasi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey yoki maktabga o’qishga kirishi;
- farzandning sug’urta polisida ko’rsatilgan yoshga kirishi (agar bola qayd etilgan muddatda o’qishga kira olmagan taqdirda).

Sug’urta qildiruvchiga to’lanadigan sug’urta summasi miqdori ilgari to’langan barcha sug’urta mukofotlari yig’indisi va sug’urta tashkiloti tomonidan taqdim etiladigan bonusga teng.

- nikohga hayotni uzoq muddatli sug’urta qilish. Mazkur sug’urta mahsuloti farzandning nikohga kirish munosabati bilan uning ota-onasi sarflaydigan xarajatlarni moliyaviy ta’minlash masalasini hal etishga ko’mak beradi. Sug’urta shartnomasining butun amal qilish davomida ishonchli sug’urta himoyasi ta’minlanadi. Hatto, oila boquvchisini yo’qotgan taqdirda ham nikoh arafasida farzand sug’urta polisida belgilangan summani oladi. Bu sug’urta turida ham sug’urta polisining amal qilish muddati 13 oydan 20 yilgacha bo’lgan muddatni tashkil etadi. Sug’urtalangan shaxsga sug’urta summasi farzand nikohga kirganda yoki u sug’urta polisida ko’rsatilgan yoshga etganda to’lanadi. Sug’urta summasining miqdori sug’urta qildiruvchi tomonidan ilgari to’langan barcha sug’urta mukofotlari miqdoriga va sug’urtalovchi tomonidan taqdim etiladigan bonusga teng.

Hayotni sug’urta qilish bozorida yuqorida ko’rsatilgan sug’urta xizmat turlari bilan bir qatorda hayot sug’urtasi ham amalga oshiriladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hayotni sug’urtalash bozorini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi soliq imtiyozlari berilgan:

- yuridik shaxslarning uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlari boshqa xarajatlar tarkibiga kiritiladi va foyda solig'ini hisoblashda hisobga olinmaydi;
- yuridik shaxslarning uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lashga yo'naltirilgan xarajatlari jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi;
- jismoniy shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlaridan uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha to'lagan sug'urta mukofotlari daromad solig'iga tortilmaydi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda hayotni sug'urtalash bozorini rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilgan.

24.4. Sug'urta syurveyerlari, aktuariylari, adjasterlari va assistanslari

Sug'urta bozorining jadal rivojlanishi, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojning yil sayin oshib borishi tufayli bozorning sug'urtalovchilar hamda ularning mijozlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta faoliyati bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan sug'urta syurveyerlari, aktuariylar kabi yangi muassasalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Syurveyer inglizcha "surveyor" so'zidan olingan bo'lib, bu tushuncha O'zbekiston sug'urta bozorida 1997 yildan qo'llanilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 618-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risidagi Nizom"da sug'urta syurveyerining vakolatlari, huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topdi. Shu yili O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi va unda sug'urta bozorining professional ishtirokchilari qatori sug'urta syurveyerlari faoliyat yo'nalishlarining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Mazkur qonunning 9^6 va 9^7-moddalarida sug'urta syurveyerining huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatib qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan

yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta ob'yektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

tekshirilayotgan sug'urta ob'yekti bo'yicha xulosa tuzish.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sug'urta syurveyeri:

sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Sug'urta syurveyeri ishining natijalari bo'yicha hisobot taqdim etiladi, sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bu hisobotdan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzish chog'ida foydalanishi mumkin.

Sug'urta syurveyerining hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Sug'urta syurveyeri:

xizmatlar ko'rsatiladigan sug'urtalovchini (sug'urta qildiruvchini) erkin tanlashga;

sug'urta ob'yektini o'rganish uchun sug'urta qildiruvchidan (sug'urtalovchidan) zarur axborotni so'rash va olishga;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, faoliyati sug'urta ob'ektlariga daxldor bo'lgan boshqa tashkilotlardan zarur ma'lumotlarni so'rash va olishga haqli.

Sug'urta syurveyeri qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta syurveyeri:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug'urta ekspertizasi o'tkazish uchun taraflar taqdim etgan hujjatlarning saqlanishini ta'minlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi shart.

Sug'urta syurveyeri zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimiz sug'urta bozorida bir nechta syurveyer tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

"Aktuar" atamasi "aktuariy" tushunchasi bilan uzviy bog'langan va inglizcha «actuaru», lotincha «actuarmus» so'zlaridan olingan bo'lib, hisobchi, tez yozuvchi degan ma'nolarni anglatadi. Aktuariyning asosiy vazifalaridan biri u sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkalarini hisoblash usullarini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ma'lumki, sug'urta tariflari sug'urtalovchilarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat ko'rsatishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Aktuar hisob-kitoblar o'zida statistik va iqtisodiy-matematik usullar asosida tarif stavkalarini hisoblash tizimini mujassamlashtiradi. Sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmatlarning tannarxini hisoblash aktuar hisob-kitob kalkulyatsiyasi deb ataladi. Aktuar hisob-kitob kalkulyatsiyasi shartnomadagi sug'urta to'lovlarini aniqlash imkonini beradi.

Aktuar hisob-kitoblar sug'urtaning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga oshiriladi:

- sug'urta hodisalari sodir bo'lishining ehtimollik xususiyatiga ega ekanligi va ularning baholanishi. Bu sug'urta mukofotlarining hajmiga o'z ta'sirini o'tkazadi;
- sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmatlarning to'liq tannarxi sug'urta shartnomasida ko'rsatiladigan sug'urta mukofotlari summasida o'z aksini topadi;
- sug'urtalovchining sug'urta zaxiralarini optimal hajmini aniqlash va shakllantirishning zarurligi;
- sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan qisman yoki umumiy zararlarning mavjudligi;
- sug'urta risklarining guruhlarga ajratilishi;

Sug'urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblarning vazifalari quyidagilardan iborat:[110]

- jami sug'urta hajmida risk guruhlari klasifikatsiyasini o'rganish;
- sug'urta hodisasi ro'y berishining matematik ehtimolligini hisoblash;

[110] I.T.Balabanov, A.I.Balabanov «Straxovaniya» Moskva izd-vo «Piter» 2004 g.

- sug’urtalash jarayonini tashkil etishda kerakli xarajatlarning matematik asoslanganligi;
- sug’urtalovchilarning zaxira fondini shakllantirishning matematik asoslanganligi;
- Sug’urtalovchi tomonidan sug’urta mukofotlarini investitsiya maqsadlarida ishlatishda foiz normalarini aniqlash;

Aktuar hisob-kitoblarning nazariy asoslari XVII asrda D.Graund, Ya.De Vitte va E.Galley kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda hozirgi paytda ancha takomillashtirilgan. Sug’urta tarmoqlariga ko’ra aktuar hisoblar shaxsiy sug’urta bo’yicha hisob-kitoblar, mol-mulk sug’urtasi va javobgarlik sug’urtasi bo’yicha aktuar hisob-kitoblarga guruhlanadi. Vaqt ko’rsatkichlari esa reja asosidagi hisob-kitoblarga guruhlanadi. Bu hisob-kitoblar kelajakda ushbu sug’urta turini amalga oshirishda sug’urtalovchiga tayanch bo’ladi.

Shuning uchun bu aktuar hisob-kitob turi kelgusidagi hisob-kitob deb ham ataladi. Rejali aktuar hisob-kitoblar yangi sug’urta turini joriy qilish vaqtida risklar kuzatuvi bo’yicha ko’rsatkichlar mavjud bo’lmagan taqdirda qo’llaniladi. Bunday holatda sug’urta tashkiloti tomonidan mazkur sug’urta turiga o’xshash sug’urta turlari bo’yicha o’tkazilgan operatsiyalar natijalari asos qilib olinadi. Ma’lum bir muddat (uch yildan kam bo’lmasligi kerak) o’tgandan so’ng olingan statistik ma’lumotlar tahlil qilinadi va rejali aktuar hisob-kitoblarga tegishli o’zgartirishlar kiritiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sug’urta tashkiloti tomonidan sug’urta, o’zaro sug’urta va qayta sug’urta operatsiyalarini amalga oshirishda har qanday sug’urta turi bo’yicha tariflar hisob-kitobi aktuar hisob-kitoblarga tayanilgan holda aniq sug’urta ob’yektining qiymatiga nisbatan hisoblab chiqiladi. Umuman aktuar hisob-kitoblar yordamida sug’urta xizmatini hamda sug’urtalovchi tomonidan sug’urtalanuvchiga ko’rsatiladigan xizmatning qancha turishi aniqlanadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida sug’urta tashkilotlari tomonidan sug’urta tariflarini ishlab chiqishda va sug’urta zaxiralarini shakllantirishda aktuar hisob-kitoblarning zamonaviy uslublaridan foydalanish qoniqarli darajada emas. Aksariyat sug’urta tashkilotlari sug’urta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblardan etarli darajada foydalanmaydi.

Aktuar hisob-kitoblarni sug’urta faoliyatida, aniqroq qilib aytganda sug’urta tariflarini ishlab chiqishda tatbiq etish sug’urta

tashkilotlarining to'lov qobiliyatlarini mustahkamlash nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Zero, sug'urtalovchilarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat ko'rsatishi, to'lov qobiliyatining mustahkamligi sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini himoya qilishning kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 9[4] va 9[5] –moddalarida aktuariylarning huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Aktuariy quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir:

sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar etkazilishining takroriyligini va ularning oqibatlari og'irligi darajasini belgilash;

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlash;

sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) daromadlarini sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicha rejalashtirish.

Aktuariy sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq faqat aktuar xizmatlari ko'rsatadi.

Aktuariy, agar u aktuar tashkilot shtatida turgan bo'lsa yoki aktuar tashkilot tomonidan u bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzilgan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishga jalb etilishi mumkin.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat yoki boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilot zarar ko'rishiga olib

kelgan o’zga xatti-harakatlar natijasida etkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo’ladi.

Aktuar xizmatlari ko’rsatish uchun aktuariy maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olishi shart.

Yuridik shaxs bo’lgan aktuariy o’z shtatida aktuariy malaka sertifikatiga ega bo’lgan kamida bitta aktuariyga ega bo’lishi kerak.

Aktuariy:

sug’urtalovchi sifatida sug’urta va qayta sug’urta qilish operatsiyalari o’tkazishga;

sug’urta bo’yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug’urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Aktuariy faoliyati natijalari hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Aktuariy hisobotida ko’rsatilgan xulosalar mustaqil sug’urta ekspertizasi jarayonida qayta ko’rib chiqilishi mumkin.

Aktuariy quyidagi huquqlarga ega:

aktuar xizmatlari ko’rsatiladigan sug’urtalovchini (qayta sug’urtalovchini) erkin tanlash;

aktuar xulosasini tuzish uchun zarur bo’lgan axborot sug’urtalovchi (qayta sug’urtalovchi) tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, aktuar xizmatlari ko’rsatishni rad etish;

boshqa aktuariylarni va o’zga mutaxassislarni aktuar xizmatlari ko’rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Aktuariy qonun hujjatlariga va o’zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo’lishi mumkin.

Aktuariy:

sug’urta faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

aktuar xizmatlari ko’rsatish chog’ida olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;

aktuar xulosasida aktuar hisob-kitoblarning kamchilik faktlarini va ularni bartaraf etishga doir takliflarni aks ettirishi shart.

Aktuariy zimmasida qonun hujjatlariga va o’zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin.

“Adjaster” tushunchasi inglizcha “adjuster” so’zidan olingan bo’lib, uning asosiy mohiyati sug’urta hodisalari sodir bo’lganda uning ro’y berish sabablarini o’rganish, tahlil etish va etkazilgan zarar miqdorini aniqlashga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Xalqaro amaliyotda adjaster xizmatlaridan foydalanish keng yo’lga qo’yilgan.

Bizning respublikamizda adjaster xizmatlarini ko’rsatish 2008 yildan yo’lgan qo’yilgan.

2007 yilda amaldagi “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunga adjasterlarning faoliyatini huquqiy tartibga solishni nazarda tutuvchi qo’shimcha va o’zgartishlar kiritildi.

Adjaster sug’urtalovchining (sug’urta qildiruvchining) topshirig’i bo’yicha quyidagi xizmatlarni ko’rsatuvchi, o’z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo’lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo’lgan jismoniy shaxsdir:

sug’urta hodisasi yuz berganidan keyin sug’urta ob’yektini ko’zdan kechirish va tekshirish;

sug’urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;

sug’urta ob’yektining shikastlanish sabablarini va sug’urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

sug’urta hodisasi mavjud bo’lgan taqdirda — sug’urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

to’lanishi kerak bo’lgan sug’urta tovoni summasini aniqlash;

sug’urtalovchi uchun sug’urta hodisasi bo’yicha xulosa tuzish.

Adjaster o’z faoliyatini sug’urtalovchi (sug’urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Adjaster:

sug’urtalovchi sifatida sug’urta va qayta sug’urta qilish operatsiyalari o’tkazishga;

sug’urta bo’yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug’urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Adjaster xizmati ko’rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug’urtalovchi zararlarning o’rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog’ida foydalanishi mumkin.

Adjasterning hisobotida ko’rsatilgan xulosalar mustaqil sug’urta ekspertizasi jarayonida qayta ko’rib chiqilishi mumkin.

Adjaster quyidagi huquqlarga ega:

adjaster xizmatlari ko’rsatiladigan sug’urtalovchini (sug’urta qildiruvchini) erkin tanlash;

sug’urta voqeasini (sug’urta hodisasini) o’rganish uchun sug’urta qildiruvchidan (sug’urtalovchidan) zarur axborotni so’rash va olish;

sug’urta hodisasi yuz berganidan so’ng sug’urta ob’yektini ko’zdan kechirish va tekshirish;

o’zi sug’urta ob’yektini sirtdan (zarur hollarda — texnika vositalarini qo’llagan holda) ko’zdan kechirganligi to’g’risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish;

faoliyati sug’urta ob’ektlariga daxldor bo’lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan yuridik ahamiyatga molik zarur ma’lumotlarni belgilangan tartibda so’rash va olish.

Adjaster qonun hujjatlariga va o’zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo’lishi mumkin.

Adjaster:

sug’urta faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug’urta hujjatlarining saqlanishini ta’minlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma’lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

sug’urta hodisasiga taalluqli ma’lumotlarni o’z vaqtida tahlil qilish uchun chora-tadbirlar ko’rishi shart.

Adjaster zimmasida qonun hujjatlariga va o’zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin.

O‘zbekistonda dastlabki assistans tashkiloti 2000 yilda “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug’urta kompaniyasi muassisligida “O‘zbekinvest Assistans” nomi bilan tuzilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi yuridik va jismoniy shaxslarga tibbiy, yuridik xizmatlarini ko’rsatishdan iborat. Tibbiy assistans sug’urta tashkilotlarining mijozlariga tibbiy maslahatni tashkil etish, ambulatoriya va turg’un tibbiy yordam ko’rsatish, sug’urta hodisasi sodir bo’lgan joyda tez tibbiy xizmat ko’rsatishni tashkillashtirish, dori-darmonlarni etkazib berishdan iborat. Tibbiy assistans xizmati tarkibiga boshqa tibbiy yordam ko’rsatish turlari ham kirishi mumkin.

Texnik assistans sug’urtalangan avtotransport vositasi yo’l-transport hodisasi sodir bo’lishi oqibatida shikastlanganda uni tuzatish va ta’mirlash ustaxonalariga olib borish hamda avtomobillarni ta’mirlash bilan bog’liq xizmatlarni o’z ichiga oladi. Yuridik xizmat esa mijozlarning murojaatlari asosida uning vakili sifatida sudda mijozning manfaatlarini himoya qilish, sug’urta hodisalari sodir bo’lishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni tartibga solish, adjaster va syurveyer xizmatlarini ham ko’rsatadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi Qonunida assistans xizmati ko’rsatuvchi tashkilotlarning huquq va majburiyatlari o’z aksini topgan. Ular quyidagilardan iborat:

Assistans sug’urta qildiruvchilarga (sug’urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug’urtalovchilarga sug’urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko’rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko’mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Assistans o’z faoliyatini sug’urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans xizmatlariga sug’urta qildiruvchilar (sug’urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug’urtalovchilar tomonidan haq to’lanadi.

Assistans:

sug’urtalovchi sifatida sug’urta va qayta sug’urta qilish operatsiyalari o’tkazishga;

sug’urta bo’yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug’urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Assistans quyidagi huquqlarga ega:

assistans xizmatlari ko’rsatilishi bo’yicha sug’urtalovchilar bilan mustaqil ravishda shartnoma tuzish;

assistans xizmatlari ko’rsatilishi uchun zarur bo’lgan barcha axborot sug’urtalovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, assistans xizmatlari ko’rsatishni rad etish;

tegishli mutaxassislarni assistans xizmatlari ko’rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Assistans qonun hujjatlariga va o’zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo’lishi mumkin.

Assistans:

sug’urta faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug’urta qildiruvchilardan (sug’urtalangan shaxslardan) sug’urta voqealari (sug’urta hodisalari) to’g’risidagi xabarlar kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etishi va sug’urta shartnomasi doirasida, taqdim etilgan sug’urta polisi asosida sug’urta qildiruvchilarga (sug’urtalangan shaxslarga) zarur yordam ko’rsatishi;

sug’urta hodisalarini ko’rib chiqish va tartibga solish chora-tadbirlarini ko’rishi shart.

Assistans zimmasida qonun hujjatlariga va o’zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda “Bovar Service”, “Global Assist”, “Insurance Assist Group”, “O‘zbekinvest Assistans” assistans xizmatlarini ko’rsatuvchi tashkilotlar faoliyat ko’rsatmoqda.

24.5. Mol-mulk sug’urtasi

Yuridik va jismoniy shaxslarga sug’urta xizmatlarini ko’rsatish sug’urta turlari bo’yicha ishlab chiqilgan sug’urta shartnomalarini tuzish yoki sug’urta polislarini rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi. Sug’urta turlari ob’yekti va shakliga ko’ra farqlanadi. Masalan, mulk sug’urtasida sug’urta ob’yekti sifatida yuridik va jismniy shaxslarga tegishli mol-mulklar, moddiy boyliklarni but saqlash bo’yicha manfaat yuzaga chiqadi.

Mulkni sug’urtalashning o’zi bir qator sug’urta turlarini o’z ichiga oladi. Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug’urtalash, jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug’urtalash va boshqalar mulkni sug’urtalash turlariga misol bo’ladi.

Mutaxassislarning fikriga ko’ra, hozirgi kunda O‘zbekistonda 200 dan ziyod sug’urta xizmatlari turlari ishlab chiqilgan va salohiyatli mijozlar e’tiboriga etkazilgan. Mamlakatimizda faoliyat ko’rsatayotgan sug’urta tashkilotlari o’rtacha 30-40 ta sug’urta xizmat turlarini ko’rsatadi. Sug’urta xizmatlari turlari ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi.

Mulkiy sug’urta hayot sug’urtasidan tashqari umumiy sug’urta tarmog’ida eng asosiy sug’urta turlarini o’z tarkibiga oladi. Hayotiy tajribadan ma’lumki, har qanday korxona, tashkilot yoki fuqaro o’z mol-mulkini avaylab-asrashga harakat qiladi. Ammo, oldindan ko’rib bo’lmaydigan ko’ngilsiz voqealarning tasodifan sodir bo’lishi oqibatida bu mol-mulklar zararlarlanadi yoki butunlay nobud bo’ladi. Rejali iqtisodiyot tizimida barcha korxonalar davlat tasarrufida bo’lganligi bois bunday voqelarning ro’y berishi natijasida etkazilgan zararlar, aksariyat holatlarda, davlat byudjeti mablag’lari hisobidan qoplangan.

Ammo, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o’tkazish bilan bog’liq iqtisodiy islohotlar mulkiy munosabatlarni tubdan o’zgartirib yubordi. Mulklar davlat tasarrufidan chiqarilishi tufayli xususiy va boshqa mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar barpo etildi. Tabiiyki, yangi sharoitda davlat xususiy sektordagi korxona va tashkilotlarning mulkiy manfaatlariga etkazilgan zararlar uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olmaydi. Bir tomondan, bozor sharoitida raqobatning mavjud bo’lishi hamda turli ichki va tashqi xavf-xatarlar tadbirkorlik faoliyatini bir maromda amalga oshirishga tahdid solsa, ikkinchi tomondan, yuqori foyda olishga intilish katta tavakkalchiliklar qilishni talab etadi.

Mulk sug’urtasi sug’urta tashkiloti va yuridik yoki jismoniy shaxs bilan tuzilgan sug’urta shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 929-moddasida sug’urta shartnomasining muhim shartlari ko’rsatilgan bo’lib, sug’urta tashkilotlari sug’urta shartnomalarini tuzishda mazkur shartlarni e’tiborga olishlari lozim. Bu shartlar quyidagilardan iborat:

Mulkiy sug’urta shartnomasi tuzishda sug’urta qildiruvchi bilan sug’urtalovchi o’rtasida quyidagilar to’g’risida kelishuvga erishilishi lozim:

sug’urta ob’yekti bo’lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to’g’risida;

yuz berishi ehtimol tutilib sug’urta amalga oshirilayotgan voqea (sug’urta hodisasi)ning xususiyati to’g’risida;

sug’urta puli miqdori to’g’risida;

sug’urta tovoni miqdorini aniqlash tartibi to’g’risida, agar shartnomada uni sug’urta pulidan oz miqdorda to’lash mumkinligi nazarda tutilgan bo’lsa;

sug’urta mukofotining miqdori va uni to’lash muddati (muddatlari) to’g’risida;

shartnomaning amal qilish muddati to’g’risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug’urta shartnomasi sug’urta qildiruvchi, sug’urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o’z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o’rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo’llaniladi.

Yuridik shaxslarning quyidagi mulklarini saqlash bilan bog’liq ularning mulkiy manfaati sug’urta ob’yekti sifatida qabul qilinishi mumkin:

- binolar, inshootlar, tugallanmagan qurilish ob’ektlari;
- ishchi mashinalar, uzatish qurilmalari, quvvat beruvchi uskunalar;
- inventar;
- tovar zaxiralari, xom-ashyo, materiallar, yoqilg’i va boshqalar.

Sug’urtalanuvchiga mulk huquqi sifatida tegishli bo’lgan mol-mulklar ham, ijara va keyinchalik egalik huquqini berish sharti bilan qabul qilingan mol-mulklar ham sug’urtalanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yilning 27 noyabridagi “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 413-sonli qarorida “mol-mulkni olovdan

va tabiiy ofatlardan sug’urta qilish” 8-klassga oid ekanligi ko’rsatilgan. Yong’in, portlash, bo’ron, dovul, jala, ko’chki, tuproqning cho’kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta’siri natijasida mol-mulk yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urta turlarining jami Hukumat qarori bilan tasdiqlangan “Sug’urta faoliyati klassifikatori”ning 8-klassiga mos keladi. Do’l, qalin qor yog’ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o’g’irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urta turlari 9-klass doirasida amalga oshiriladi.

Sug’urta hodisalari sug’urtalanuvchilarning qo’pol ehtiyotsizligi, atayin hatti-harakati natijasida voqea sodir etilsa va uning natijasida mol-mulkka zarar etkazilsa, bu zararlar sug’urtalovchi tomonidan qoplanmaydi. Shu yerda siyosiy risklarni sodir bo’lishi oqibatida ko’rilgan zararlar ham qoplanmasligini eslatib o’tish o’rinli deb hisoblaymiz.

Sug’urta tashkilotlari tomonidan “Sug’urta faoliyati klassifikatori”ga muvofiq, umumiy sug’urta tarmog’ining 8-klassi - “Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug’urta qilish”da qayd etilgan shartlarda, ya’ni yong’in, portlash, bo’ron, dovul, jala, ko’chki, tuproqning cho’kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta’siri natijasida mol-mulk yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur klassifikatorning 9-klassi ham mol-mulklarni sug’urta qilishga oid bo’lib, u “Mol-mulkni zarardan sug’urta qilish” deb ataladi. 9-klassning mazmuni 8-klassda ko’rsatilmagan do’l, qalin qor yog’ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o’g’irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk yo’qotilganda yoki shikastlanganda sug’urta qoplamasi to’lanishini ta’minlovchi sug’urtaning turlari jamidan iborat.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mol-mulkni sug’urta qilish huquqiga O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan 8 va 9-klasslar bo’yicha litsenziya olgan barcha sug’urta tashkilotlari haqlidir.

Mol-mulkni sug’urta qilish sug’urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Sug’urta shartnomasi - tomonlarning aniq yuridik va moliyaviy munosabatlarini belgilab beruvchi xujjatdir. Shartnomada franshiza

qo’llanilishi mumkin. Franshiza - yuridik shaxslar ko’rgan zararning muayyan qismi bo’lib, sug’urta hodisasi yuz berganda sug’urta tashkiloti ana shu qism doirasida javobgar bo’lmaydi va u to’lanishi kerak bo’lgan sug’urta qoplamasidan chegirib tashlanadi.

Sug’urtalovchi yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarni yong’in, zilzila, toshqin, suv bosishi, ko’chki, bo’ron, er cho’kishi, ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilishi natijasida to’liq yoki qisman nobud bo’lganda sug’urta qoplamasini, sug’urtalanuvchi bo’lgan yuridik shaxslar esa sug’urta mukofotini o’z vaqtida to’lash va shartnomaning boshqa shartlarini bajarish majburiyatini o’z zimmasiga oladi. Mana shu qayd etilgan holatlar sug’urta tashkiloti va yuridik shaxslar o’rtasida mol-mulkni sug’urtalash bo’yicha tuzilgan shartnomaning predmetini tashkil etadi.

Suturtalovchining majburiyatlari sug’urta mukofoti sug’urtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgan paytdan e’tiboran kuchga kiradi. So’ng sug’urta polisi sug’urtalanuvchiga shartnomada ko’rsatilgan muddat ichida beriladi.

Mol-mulk sug’urtasi bo’yicha yuridik shaxslar hamda sug’urtalovchi o’rtasida tuzilgan sug’urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi.

Sug’urtalanuvchi bo’lgan yuridik yoki jismoniy shaxslarning majburiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sug’urta ob’yektini ko’zdan kechirish uchun imkoniyat yaratib berish;
- sug’urta mukofotlarini o’z vaqtida to’lash;
- shartnoma tuzilayotganda sug’urtalovchiga sug’urta tavakkalchiligini baholash uchun ahamiyat kasb etuvchi o’ziga ma’lum barcha holatlar haqida, shuningdek mazkur sug’urta ob’yekti bo’yicha tuzilgan yoki tuzilajak hamma sug’urta shartnomalari to’g’risida ma’lumot berish;
- Sug’urta hodisasi yuz berganda sug’urtalangan mulkiga zarar etkazilishining oldini olish va zararni kamaytirish uchun zarur choralarni ko’rish va sug’urtalovchiga sug’urta hodisasi sodir bo’lganligi haqida sug’urta shartnomasida ko’rsatilgan muddatlarda xabar berish.

Yuridik yoki jismoniy shaxslar sug’urtalangan mulkini ko’zdan kechirish uchun sug’urtalovchiga taqdim qilishi yoki mulkning barcha zararlangan qismlarining fotosurati yoki videolavhasini oldirishi va tiklash ishlari boshlangunga qadar o’zi qiladigan ishlarni sug’urtalovchi bilan kelishib olishi kerak.

Yuridik yoki jismoniy shaxslar quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- butun mulkni va ayrim ob'ektlarni tomonlarning qo'shimcha kelishuvi yoki yangi sug'urta shartnomasi shartlari asosida qo'shimcha sug'urtalash;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mustaqil ekspertiza o'tkazilishini talab qilish;
- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchidan sug'urta masalalari borasida maslahatlar olish;
- sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish.

Yuridik yoki jismoniy shaxslar oldida sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tashkiloti quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladi:

- shartnomada belgilangan muddatlarda sug'urta polisini berish va shartnoma tuzishda asoslanilgan sug'urtalash qoidalari bilan tanishtirish;
- sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqidagi dalolatnoma asosida sug'urta qoplamasi to'lash;
- sug'urtalanuvchi bilan bo'ladigan munosabatlarda mahfiylikni ta'minlash.

Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotining huquqlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- agar sug'urta hodisasi:

a) sug'urtalovchining sug'urta hodisasini keltirib chiqarish uchun ataylab qilgan hatti-harakatlari natijasida yuz bergan bo'lsa;

b) sug'urtalanuvchi tavakkalchilikdagi jiddiy o'zgarishlar haqida sug'urtalovchini boxabar qilgan bo'lmasa;

v) sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar bermagan yoki etkazilgan zarar tafsilotlari, turi va miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi yoxud uning vakili ishtirok etishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa;

g) sug'urtalanuvchi zararni aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, sug'urta tovoni to'lashni rad etish;

- sug'urta shartnomasining muddati mobaynida sug'urtalangan mulkning ahvoli va qiymatini, shuningdek sug'urtalanuvchi o'z mulki haqida ma'lum qilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish;
- sug'urtalanuvchidan sug'urta hodisasi haqida xabar kelishini kutib o'tirmasdan, sug'urta hodisasi etkazgan zararni ko'zdan kechirish va baholashga kirishish;

•sug’urta hodisasi yuz berish xavfining darajasini ifodalovchi qo’shimcha hujjatlarni talab qilib olish.

Sug’urtalanuvchi bo’lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar sug’urta mukofotini shartnomada ko’rsatilgan muddatda to’lamaganda shartnoma yuridik kuchini yo’qotishi mumkin.

Agar sug’urtalangan mulkning yo’qolishi yoki zararlanishiga quyidagilar sabab bo’lsa sug’urta tashkiloti sug’urta javobgarligidan ozod etilishi mumkin:

a) sug’urtalanuvchining majburiyatlari kuchga kirgunga qadar mulkda mavjud bo’lgan hamda sug’urtalanuvchi yoki uning vakillariga ma’lum bo’lgan kamchilik va nuqsonlar;

b) sug’urtalangan mulkdan foydalanish qoidalarining sug’urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan buzilishi natijasida zarar etkazilishi;

v) sug’urtalanuvchining yoki uning shartnoma bo’yicha sug’urtalangan mulk ishonib topshirilishi mumkin bo’lgan xodimlaridan, vakillaridan yoki boshqa shaxslardan birining ehtiyotsizligi, vijdonsizligi, nosamimiyligi, shuningdek mulkka mulkdorlik yoxud egalik huquqining qalloblik yo’li bilan boshqa shaxsga o’tkazilishi;

g) doimiy ta’sir ko’rsatuvchi foydalanish omillari (eskirish, zanglab chirish) va ob-havo omillari ta’sirida yoxud sug’urtalangan narsalardan foydalanmaslik oqibatida asta-sekin zararlanish;

d) sug’urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan yong’in xavfsizligi qoidalarining buzilishi;

e) engil alangalanadigan modda va materiallarni saqlash yoki ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi;

z) sug’urtalanuvchi zararlangan narsalarni yoki ularning qoldiqlarini sug’urtalovchiga ko’rsatishdan bosh tortgan taqdirda, butunlay yo’q bo’lib ketishi mumkin bo’lgan narsalar bundan mustasnodir;

i) urush yoki urush harakatlari (urush e’lon qilingani-qilinmaganidan qati nazar), g’alayon, inqilob, qo’zg’olon, isyon, fitna, ish tashlash, noqonuniy yo’l bilan hokimiyatni qo’lga olish, suiqasd, qo’poruvchilik harakati, amalda yoki qonuniy mavjud bo’lgan hukumatning yoki biror hokimiyat organining farmoyishi bilan musodara qilish, rekvizitsiya, buzish yoki zararlantirish, yadro reaktsiyasi, yadro nurlanishi yoxud radioaktiv zararlanish.

Ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilganda quyidagi:

a) agar falokat sug’urtalanuvchining ehtiyotsizligi yoki noshud hatti-harakatlari tufayli yuz bergan;

b) basharti falokat uchinchi shaxslarning ataylab qilgan yoki ataylab qilmagan xatti-harakatlari oqibatida yuz bergan hollarda sug'urta tashkiloti etkazilgan zarar uchun javob bermaydi.

Sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek, vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgani haqida ariza bergandan so'ng komissiya tuzilib, uning tarkibiga sug'urtalanuvchining, sug'urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatli tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va miqdorini aniklaydi. Komissiya sug'urta hodisasini e'tirof ettan taqdirda yo'qotish va zararlar mikdori, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta qoplamasining miqdori aniqlanadi. Tomonlar buni dalolatnomada qayd etadilar.

Mazkur dalolatnoma sug'urtalanuvchiga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovoni to'lanishi uchun asos bo'ladi.

Zarar sabablari va mikdori xususida tomonlar o'rtasida nizolar paydo bo'lgan hollarda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

-sug'urta hodisasi yuz bergan sana va uning tavsifi;

-sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalanuvchi qilgan ishlar;

-zarar miqdori va sug'urtalanuvchi da'vo qilayotgan sug'urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro'yxat va summa ko'rsatilishi kerak;

-zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingan tovon mikdori.

Mabodo zarar to'liq qoplangan bo'lsa yoki sud qaroriga ko'ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo'lsa, sug'urtalanuvchi sug'urta tovoni olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Quyidagi hollarda sug'urta tovoni to'lanmaydi:

-agar sug'urtalanuvchi zarar etkazilishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni ataylab yoki qo'pol ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo'l qo'ygan bo'lsa;

-basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo'lsa, tekshiruv tamom bo'lgunga qadar.

Mabodo sug’urtalanuvchi yoki naf oluvchi shaxs zarar uchun aybdor yoki uchinchi shaxslardan tovon olgan bo’lsa, sug’urtalovchi sug’urta shartlariga ko’ra to’lanishi lozim bo’lgan pul bilan aybdor yoxud uchinchi shaxslardan olingan pul o’rtasidagi farqning o’zini to’laydi.

Shartnoma imzolagandan so’ng tavakkalchilik darajasida ro’y bergan va sug’urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o’zgarishlar sug’urtalovchiga sug’urta shartlarini o’zgartirish hamda qo’shimcha sug’urta mukofoti to’lanishi talab qilish huquqini beradi. Sug’urtalanuvchi qo’shimcha sug’urta mukofotini to’lashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yo’qotadi, to’langan sug’urta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

Shartnomada kelishilgan zararlarni qoplash uchun sug’urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan har bir to’lov majburiyatlar chegarasini ana shu to’lov miqdorida, ammo agar mas’uliyat chegarasini qayta tiklash uchun qo’shimcha sug’urta mukofoti to’lanmasa, dalolatnomada qayd etilgan zarar mikdoridan ko’p bo’lmagan hajmda kamaytiradi.

Shartnoma tomonlar unda ko’rsatilgan majburiyatlarini bajarmay qo’ygunlariga qadar kuchda bo’ladi.

Tomonlardan birining kamida 30 kun oldin beriladigan yozma arizasiga binoan shartnoma istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Agar sug’urtalanuvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishini ma’lum qilsa, sug’urta mukofoti unga qaytarilmaydi.

Sug’urta shartnomasi bekor qilinishini sug’urtalovchi talab etgan takdirda:

a) sug’urtalanuvchiga sug’urta mukofoti muddati tamom bo’lmagan davrga mutanosib mikdorda qaytariladi, bunda o’tgan davrda qilingan xarajatlar sug’urta mukofotidan ushlab qolinadi;

b) basharti sug’urta shartnomasi bekor qilinishining talab etilishiga ushbu shartnomada kelishilgan shartlarning sug’urtalanuvchi tomonidan buzilishi sabab bo’lsa, faqat sug’urta mukofoti muddati tamom bo’lmagan davrga mutanosib mikdorda qaytariladi.

Sug’urta tovoni to’lash haqida dalolatnoma tuzilgandan keyin sug’urtalanuvchining zarar etkazilishi uchun javobgar shaxslarga nisbatan bo’lgan huquqlari to’langan pul miqdorida sug’urtalovchiga o’tadi. Bunda sug’urtalanuvchi aybdor shaxslardan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan hujjatlarni sug’urtalovchiga berishi shart.

Sug’urtalanuvchi zarar etkazgan shaxsga bo’lgan da’vosidan yoki unga nisbatan bo’lgan talablarning amalga oshirilishini ta’minlovchi huquqlaridan voz kechganda, shuningdek regress talabni qo’yish uchun zarur bo’ladigan hujjatlarni sug’urtalovchiga berishdan bosh tortganda sug’urtalovchi sug’urta tovoni to’lashdan ozod bo’ladi.

Shartnomaga kiritiladigan hamma qo’shimcha va o’zgartirishlar, shuningdek prolongatsiya, bekor qilish yoki to’xtatish tomonlarning roziligi bilan o’zaro xabar berilgan holda yozma ravishda amalga oshirilmog’i darkor.

Sug’urta shartnomasidan kelib chiquvchi barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning muzokara olib borishi yo’li bilan hal etiladi, kelishuvga erishib bo’lmagan taqdirda esa tegishli muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qarab chiqish uchun xo’jalik sudiga oshiriladi.

Yuridik shaxslar mulkini sug’urtasi bo’yicha sug’urta summasi mol-mulk balans qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Tarif stavkasini aniqlashda mol-mulkning joylashgan o’rni, eskirganlik va risk darajasi kabi omillar hisobga olinadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug’urta qilishda sug’urta ob’yekti bahosi bozor narxi asosida aniqlanadi.

Ixtiyoriy sug’urta turlari bo’yicha tarif stavkasi sug’urta tashkiloti tomonidan risk darajasi, ish yuritish xarajatlari va bozordagi talab hamda taklifdan kelib chiqqan holda belgilanadi. Majburiy sug’urta turlari bo’yicha tarif stavkalari qonunchilikda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sug’urta mukofoti tarif stavkasi asosida sug’urtaga qabul qilinayotgan ob’ektning sug’urta summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Misol. Korxonaga tegishli va sug’urtalash uchun qabul qilingan stanokning qoldiq qiymati 150 000 so’m. Tarif stavkasi – 1,0 foiz. Sug’urta mukofoti (Sm) quyidagicha hisoblanadi.

$$Sm = \frac{150\,000 \times 1}{100} = 1500 \text{ so'm}$$

Sug’urta mukofotining miqdori va to’lash muddatlari sug’urta shartnomasida ko’rsatiladi. Shuningdek, sug’urta qildiruvchilar sug’urta tashkiloti bilan kelishgan holda sug’urta mukofotini bo’lib-bo’lib ham to’lashlari mumkin. Agar, sug’urta hodisasi sug’urta mukofotining bir qismi to’langandan so’ng ro’y bergan bo’lsa, u holda zarar sug’urta mukofotining to’langan qismiga mutanosib

ravishda qoplanadi. Misol. Korxonaga tegishli stanokning qiymati 150 000 so'm. Sug'urta summasi ham 150 000 so'mga teng. Tarif stavkasi – 1,0 foiz. Hisoblangan va sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdori 1500 so'mni tashkil etadi. Sug'urta shartnomasi muddati – 1,0 yil. Sug'urta shartnomasida mazkur sug'urta mukofotini bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan. Shunga asosan sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzilgandan so'ng 3 kun ichida hisoblangan sug'urta mukofotining 750,0 so'mini to'ladi. Sug'urta hodisasi shartnoma tuzilgandan so'ng 15 kun ichida sodir bo'ldi. Bunday holatda va mazkur sug'urta hodisasi sug'urta tashkiloti tomonidan tan olingan taqdirda sug'urta qildiruvchiga zarar to'langan sug'urta mukofotiga mutanosib ravishda, ya'ni 50 foizi miqdorida qoplab beriladi.

Sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqidagi xabarni sug'urta qildiruvchi shartnomada ko'rsatilgan muddati ichida sug'urtalovchiga etkazishi shart. Aks holda, sug'urta tashkiloti zararni qoplashdan voz kechishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgani haqida ariza bergandan so'ng sug'urta tashkiloti tomonidan komissiya tuziladi va uning tarkibiga sug'urtalanuvchining, sug'urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatli tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va mikdorini aniqlaydi. Komissiya sug'urta hodisasini e'tirof ettan taqdirda yo'qotish va zararlar miqdori, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta qoplamasining mikdori aniqlanadi. Tomonlar buni dalolatnomada qayd etadilar.

Mazkur dalolatnoma sug'urtalanuvchiga sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta tovoni to'lanishi uchun asos bo'ladi.

Zarar sabablari va miqdori xususida tomonlar o'rtasida nizolar paydo bo'lgan hollarda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

-sug'urta hodisasi yuz bergan sana va uning tavsifi;

-sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalanuvchi qilgan ishlar;

-zarar miqdori va sug’urtalanuvchi da’vo qilayotgan sug’urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro’yxat va summa ko’rsatilishi kerak;

-zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingan tovon mikdori.

Mabodo zarar to’liq qoplangan bo’lsa yoki sud qaroriga ko’ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo’lsa, sug’urtalanuvchi sug’urta tovoni olish huquqidan mahrum bo’ladi.

Quyidagi hollarda sug’urta tovoni to’lanmaydi:

-agar sug’urtalanuvchi zarar etkazilishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni ataylab yoki qo’pol ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo’l qo’ygan bo’lsa;

-basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo’lsa, tekshiruv tamom bo’lgunga qadar.

Mabodo sug’urtalanuvchi yoki naf oluvchi shaxs zarar uchun aybdor yoki uchinchi shaxslardan tovon olgan bo’lsa, sug’urtalovchi sug’urta shartlariga ko’ra to’lanishi lozim bo’lgan pul bilan aybdor yoxud uchinchi shaxslardan olingan pul o’rtasidagi farqning o’zini to’laydi.

Shartnoma imzolagandan so’ng tavakkalchilik darajasida ro’y bergan va sug’urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o’zgarishlar sug’urta tashkilotiga sug’urta shartlarini o’zgartirish hamda qo’shimcha sug’urta mukofoti to’lanishini talab qilish huquqini beradi. Sug’urtalanuvchi qo’shimcha sug’urta mukofotini to’lashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yo’qotadi, to’langan sug’urta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

25.6. Shaxsiy sug’urta va uning turlari

Sug’urta o’z mazmun-mohiyatiga ko’ra ijtimoiy himoyaning muhim vositasi hisoblanadi. Masalan, baxtsiz hodisa ro’y berishi natijasida fuqaro tan jarohati olish yoki mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud umrbod yo’qotishi mumkin. Agar, fuqaro baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug’urtalangan bo’lsa, u holda sug’urta tashkiloti fuqaroning boshiga baxtsiz hodisa ro’y berishi oqibatida kulfat tushganda unga moddiy ko’mak beradi, shu fuqaroni oyoqqa turib olishiga imkon beradi. Ayniqsa, tibbiy sug’urtaning fuqarolarni ijtimoiy himoyalanishidagi ahamiyati katta. Fuqaro kasallikka duchor

bo’lganda tibbiy sug’urta shartnomasi bo’yicha davolanish, dori-darmon sotib olish bilan bog’liq xarajatlar sug’urta tashkiloti tomonidan to’lab beriladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasidagi qator sug’urta takshilotlari tibbiy sug’urta turlarini amalga oshirmoqdalar.

Shaxsiy sug’urtada insonlarning hayoti, salomatligini saqlash bilan bog’liq manfaatlar sug’urta ob’yekti bo’lib hisoblanadi.

Shaxsiy sug’urta shartnomasi tuzishda sug’urta qildiruvchi bilan sug’urta tashkiloti o’rtasida quyidagilar to’g’risida kelishuvga erishilishi lozim:

sug’urtalangan shaxs to’g’risida;

sug’urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug’urta amalga oshirilayotgan voqea (sug’urta hodisasi)ning xususiyati to’g’risida;

sug’urta puli miqdori to’g’risida;

sug’urta mukofotining miqdori va uni to’lash muddati (muddatlari) to’g’risida;

shartnomaning amal qilish muddati to’g’risida.

Shaxsiy sug’urta deganda insonning sog’ligi, hayotini saqlash bilan bog’liq manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sug’urta turlari tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrda qabul qilingan “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 413-son qarori bilan tasdiqlangan “Sug’urta faoliyati klassifikatori”ning umumiy sug’urta sohasiga oid 1-klassi “Baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug’urta qilish” va 2-klassi “Kasallikdan ehtiyoti shart sug’urta qilish” shaxsiy sug’urta tarmog’iga mansub. Shuningdek, hayotni sug’urta qilish sohasining barcha klasslari doirasida amalga oshiriladigan sug’urta turlari ham shaxsiy sug’urta tarkibiga kiradi. Shaxsiy sug’urtaga oid eng ommaviy sug’urta turlariga quyidagilar kiradi:

- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug’urta qilish;
- xorijga chiquvchi fuqarolarni sug’urta qilish;
- tibbiy sug’urta;
- bonus to’lovli hayot sug’urtasi;
- ta’lim olish uchun hayotni uzoq muddatga sug’urtalash;
- nikoh uchun hayotni uzoq muddatga sug’urta qilish.

Shaxsiy sug’urtaning yuqorida keltirilgan dastlabki uchta turini umumiy sug’urta sohasida faoliyat ko’rsatuvchi sug’urta tashkilotlari ham, hayotni sug’urta qilish sohasida faoliyat ko’rsatuvchi sug’urta tashkilotlari ham o’tkazishlari mumkin. Ammo, so’ngi uchta sug’urta turi hayotni sug’urta qilish sohasiga oid bo’lib, ularni faqat shu

sohada faoliyat yuritish uchun tegishli litsenziyaga ega sug’urta tashkilotlari amalga oshirishlari mumkin. 2019 yilning 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida hayotni sug’urta qilishga ixtisoslashgan 6 ta sug’urta tashkiloti (“O‘zbekinvest Hayot” va “Alfa life”, “New Life insurance”, “Agros Hayot”, “Evroasia-Life”, “Kafolat Hayot” sug’urta kompaniyalari) faoliyat ko’rsatmoqda.

Inson hayoti quvonch va tashvishlardan iboratligini yaxshi bilasiz. Ayniqsa, inson boshiga tashvish tushganda, aniqroq qilib aytganda baxtsiz hodisa sodir bo’lganda u har doim moddiy ehtiyojlik sezadi. Hayot sug’urtasi fuqarolarning ma’lum bir yoshgacha yashashi yoxud vafot etishi bilan bog’liq xarajatlarni qoplash imokniyatini beradi.

Shu jihatdan ta’kidlash mumkinki, hayot sug’urtasi ijtimoiy himoyaning samarali vositasidir. Aslida, sug’urta qildiruvchi shaxsning sug’urta muddati tamom bo’lgungacha yoki sug’urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi, sug’urta qildiruvchining vafot etishi holatlarda sug’urta summalarini to’lash bo’yicha sug’urta tashkilotining majburiyatlarini nazarda tutuvchi va sug’urta muddati bir yildan ortiq bo’lgan sug’urta turlariga hayot sug’urtasi deyiladi.

Hayot sug’urtasi bo’yicha sug’urta shartnomalari sug’urta tashkiloti va sug’urta qildiruvchi o’rtasida tuziladi. O‘zbekistonda hayot sug’urtasining keng tarqalgan turlaridan biri hayotni jamg’arib boriladigan tarzda sug’urtalash hisoblanadi. Bu sug’urta turi sug’urta qildirgan shaxsni sug’urta holati yuz bergan taqdirda moddiy yordam bilan ta’minlaydi. Quyidagi holatlarning yuz berishi sug’urta hodisalari deb hisoblanadi: sug’urta qildirgan shaxsning (shartnomada belgilangan muddatgacha) yashashi yoki vafot etishi. Sug’urtalash shartlari: sug’urta qildirgan shaxs har oyda (har chorakda) cyg’ypta mukofotlari to’laydi. Ularning miqdori belgilangan tariflarga muvofiq aniqlanadi. Tariflar ikkita ko’rsatkichga: sug’urta qildirgan shaxsning yoshiga va sug’urtalash davriga bog’liq bo’ladi. Bunda jamg’arilgan resurslardan tashqari har oyda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda bonus yozib boriladi.

Shuni aytish kerakki, foiz stavkalari ancha yuqori bo’lgan bank depoziti bu sug’urta bilan raqobatlashadigan mahsulotdir. Depozitning afzalligi shundaki, mijoz shartnoma (talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat) amal kilib turgan davrda daromadning bir qismini olishi mumkin, holbuki, hayotni jamg’arib boriladigan usulda cyg’yptalashda sug’urta shartnomasi tuzilgan

paytdan boshlab mijoz sug'urta davrida o'z mablag'larining bir qismini olish huquqiga ega bo'lmaydi. U shartnoma amal qilish muddati tugaganidan keyin summaning hammasini olishi mumkin.

Hayotni jamg'arib boriladigan usulda sug'urtalashning bank depozitiga nisbatan afzalligi ham bor. Fuqaroning hayoti sug'urtalanganida sug'urta qildirilgan shaxs shartnoma amal qilib turgan har qanday davrda vafot etgan taqdirda sug'urta to'lovlari amalga oshiriladi. Holbuki, depozit bo'yicha bunday to'lovlar yo'q. Merosho'rlar cyg'ypta tashkilotidan butun sug'urta summasini, ya'ni sug'urta qildiruvchi cyg'yptalash davri oxirida olishi kerak bo'lgan summani oladilar.

O'zbekistonda amalda bo'lgan "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ning hayotni sug'urta qilish tarmog'iga oid jami 4 ta klass mavjud bo'lib, shu sohaga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarini ana shu klasslar doirasida tashkil etadilar. Quyidagi hayotni sug'urta qilish tarmog'iga oid klasslarning tasnifi keltirilgan:

Hayotni sug'urta qilish tarmog'i[111]

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: - sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; - sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami

[111] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 413-son qarori asosida tasdiqlangan.

	sug’urta qilish	
IV klass	Sog’liqni sug’urta qilish	Ko’rsatib o’tilgan sug’urta davri kamida besh yildan kam bo’lmagan muddatga yoki sug’urta qilinuvchining pensiya yoshiga etguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo’qotganda sug’urta summalari to’lanishini ta’minlovchi hayotni sug’urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko’rsatilgan sug’urta davri sug’urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o’zgartirilishi mumkin emas.

Hayotni sug’urta qilish bo’yicha tarif stavkasi va sug’urta summasini hisoblashda, sug’urta hodisalari sodir bo’lish ehtimolini aniqlashda hayotiylik jadvali muhim o’rin tutadi. Ushbu jadval ilk marta angliyalik olim Galley tomonidan 1693 yilda yaratilgan va e’lon qilingan. Hayotiylik jadvali turli demografik ko’rsatkichlar joylashgan ustunlardan iborat bo’lib, aholi statistikasi ma’lumotlari asosida tuziladi.

Hayotiylik jadvali ma’lumotlari asosida insonlarning qancha yoshgacha yashash ehtimolini aniqlash mumkin. Statistik qonuniyatlar o’lim hodisasi ro’y berish ehtimolini inson yoshiga bog’liqligini tasdiqlaydi. Bola dunyoga kelgandan keyin uning dastlabki yillarida o’lim hodisasi yuz berishi ko’payishi, so’ngra uning kamayib borishi va 10-15 yoshlarda keskin pasayishi aniqlangan. 16 yoshdan oshgandan so’ng o’lim hodisasining sekinlik bilan oshishi va inson keksayishi bilan o’lim hodisasi ro’y berish sur’atining oshishi kuzatilgan. Hayotiylik jadvali asosida sug’urta shartnomasi muddati va sug’urta qildiruvchining yoshi e’tiborga olingan holda hayotni sug’urtalash shartnomalari tuziladi. Bu o’z navbatida, sug’urta tashkilotiga sug’urta qildiruvchi shaxs to’laydigan sug’urta mukofoti miqdorini va shartnoma muddati tugagandan so’ng yoki sug’urta qildiruvchi vafot etganda qancha sug’urta summasi to’lash bo’yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

24.7. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish

Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan uchinchi shaxslarning mol-mulki va sog'ligiga zarar etkazilganda, ularning yuzaga kelgan zararni qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarligi–javobgarlikni sug'urta qilishning ob'yekti hisoblanadi. Javobgarlikni sug'urtalash turlari "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ning umumiy sug'urta tarmog'iga oid 10-klass "Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish", 11-klass "Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish", 12-klass "Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish" va 13-klass "Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish" doirasida o'tkazadilar. Javobgarlikni sug'urtalashni faqat yuqorida ko'rsatilgan klasslar bo'yicha litsenziyaga ega sug'urta tashkilotlari amalga oshirish huquqiga ega.

Javobgarlikni sug'urtalash majburiy va ixtiyoriy shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Javobgarlikni sug'urtalashning majburiy turlariga quyidagilar kiradi:

-transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;

- xavfli ishlab chiqarish ob'yektiga ega korxonalarning xavfli ishlab chiqarish ob'yektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;

-tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish.

Javobgarlikni sug'urta qilishning ixtiyoriy turlariga quyidagilar kiradi:

- shifokorlar, advokatlar va boshqa kasb egalarining kasbiy javobgarligini sug'urta qilish;

- aktsiyadorlik jamiyatlarining o'z investorlari oldidagi fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;

-qarz oluvchining bank oldidagi javobgarligini sug'urta qilish va boshqalar.

Hozirgi kunda javobgarlikni sug'urtalashning eng keng tarqalgan turlaridan biri – transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hisoblanadi.

Majburiy sug'urtaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda 2008 yil 21 aprelda "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish

to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi[112]. Qonun 41 ta moddadan iborat bo'lib, unda mazkur qonunning maqsadi, asosiy tushunchalar, majburiy sug'urtaning asosiy printsiplari, majburiy sug'urtani amalga oshirish shartlari va tartibi, sug'urta hodisalari bo'yicha zararning o'rnini qoplash, kompensatsiya to'lovlari, majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlarni kafolatlash kabi boblar mavjud.

Qonun qabul qilingandan so'ng uni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan Hukumat qarorini qabul qilishga zarurat tug'ildi va 2008 yilning 26 iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" 141-sonli qaror qabul qildi.

Mazkur qarorga asosan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari" tasdiqlandi[113]. Shuningdek, qarorda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasini tashkil etish va uning asosiy vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Eng muhimi, mazkur qaror asosida majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqini olish uchun sug'urta tashkilotlariga muayyan talablar belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqini olish uchun sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdori qonun hujjatlarida belgilangan me'yordan kam bo'lmasligi kerak;
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqini olish uchun sug'urta tashkilotlari Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sug'urta shartnomalarini tuzish, jabrlanuvchi (uning merosxo'ri yoki huquqiy vorisi)ning sug'urta to'lovlari to'g'risidagi talablarini ko'rib chiqish va sug'urta to'lovlarini amalga oshirish vakolati berilgan o'z filiallariga va boshqa alohida bo'linmalariga ega bo'lishi shart.

Davlat tomonidan majburiy sug'urtani amalga oshirishda sug'urta tashkilotlariga nisbatan bunday talabning o'rnatilishi bejiz emas, albatta. Buni shu bilan izohlash mumkinki, majburiy sug'urta butun O'zbekiston xududini qamrab oladi va yo'l-transport hodisasi

---

[112] "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2008 yil 17-son.

[113] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 141-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2008 yil, 26-27-son.

mamlakatimizning qaysi joyida sodir bo'lishidan qatiy nazar, yuridik yoki jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlariga etkazilgan zarar, transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta tashkiloti tomonidan jabrlanuvchiga zarar qoplab berilishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqiga quyidagi sug'urta tashkilotlari haqlidirlar:

1. "O'zagrosug'urta" aktsiyadordik jamiyati.
2. "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.
3. "Kafolat sug'urta kompaniyasi" aktsiyadorlik jamiyati.
4. "Kapital sug'urta" aktsiyadorlik jamiyati.
5. "Alfa invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati.
6. "Asia insurans" sug'urta kompaniyasi.
7. "Alskom" sug'urta kompaniyasi.
8. "Ishonch" banklararo sug'urta kompaniyasi.
9. "Universal sug'urta" aktsiyadorlik jamiyati.
10. "Gross insurance" mas'uliyati cheklangan jamiyati.
11. "Ingo Uzbekistan" yopiq aktsiyadorlik jamiyati.
12. "Evroasia insuranse" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxona.
13. "Temiryo'l-sug'urta" sug'urta kompaniyasi.

Yuqorida nomlari keltirilgan sug'urta tashkilotlarining ustav kapitali 2018 yil 1 iyuldan sug'urtalovchilarning ustav kapitallariga nisbatan o'rnatilgan yangi talablarga to'la-tukis mos keladi. Ma'lumki, 2018 yil 1 iyuldan majburiy sug'urtani amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 15,0 milliard so'mdan kam bo'lmasligi shart. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-5197-son Farmonida aniq ko'rsatilgan[114]. Shuningdek, mazkur sug'urta tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida filiallari mavjud.

Ta'kidlash joizki, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni joriy qilish kutilgan natijani berdi. Mustaqil tahlilchilarning fikrlariga ko'ra, majburiy sug'urtaning amaliyotga joriy etilishi mamlakat miqyosida sug'urtaning aholi barcha qatlamlari orasiga kirib borishiga va shu orqali sug'urta

---

[114] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son qarori.

madaniyatini oshishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, majburiy sug'urtaning amaliyotga joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishi oqibatida jabrlangan shaxslarni ijtimoiy himoyasini kafolatlaydigan samarali tizimni shakllantirish edi.

Ma'lumki, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tizimining ijtimoiy yo'naltirilgan jihatlaridan biri mazkur sug'urta bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasining tashkil etilganligi hisoblanadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasining funksiya va vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunida[115] va Vazirlar Mahkamasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2008 yil 24 iyundagi 141-son qarorida[116d]a atroflicha qayd etib o'tilgan.

"Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 30-moddasida majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan: "transport vositalaridan foydalanilayotganda jabrlanuvchilarga etkazilgan zararning o'rni ularga ushbu Qonun talablariga muvofiq kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish orqali kafolatli qoplanishini ta'minlash; ushbu Qonunga muvofiq sug'urta mukofotlari bo'yicha siylovlar olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash tizimini mazkur siylovlarni kompensatsiya qilish orqali moliyaviy jihatdan ta'minlash; majburiy sug'urta to'g'risidagi ma'lumotlarni, shu jumladan majburiy sug'urta shartnomalari, sug'urta hodisalari, sug'urta qildiruvchilar va jabrlanuvchilar shaxsiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot ma'lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek mazkur ma'lumotlar sug'urtalovchilar va To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan sug'urta siri to'g'risidagi talablar ta'minlangan holda ayirboshlanishini tashkil etish; ushbu moddaga

---

[115] "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2008 yil 17-son.

[116] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2008 yil 26-27-son.

muvofiq To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalarni amalga oshirish bo'yicha uning faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarni maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash"[117].

Jamg'arma tashkil etilgan paytdan boshlab o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni sifatli va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishi natijasida jabrlanuvchilarga kompensatsiya to'lovlari bo'yicha kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish va to'lovlarni amalga oshirish tartibini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqdi. Mazkur hujjatlar jamg'arma tomonidan tegishli arizalarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish imkoniyatini berdi. Qonunga muvofiq, sug'urtalovchiga nisbatan bankrotlik tartib-taomili qo'llanilganda, jabrlanuvchiga etkazilgan zarar uchun javobgar shaxs noma'lum bo'lganda va foydalanilayotganda zarar etkazgan transport vositasining egasi o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha majburiyatini bajarmaganda jamg'arma tomonidan kompensatsiya to'lovlari amalga oshiriladi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasining asosiy vazifalaridan yana biri amaldagi qonunchilikka asosan sug'urta mukofotlarini to'lashda siylovlar berilishi belgilab qo'yilgan shaxslar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotlari summasining 50 foizini sug'urtalovchilarga to'lash hisoblanadi. "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasiga ko'ra quyidagi shaxslar sug'urta mukofotlari bo'yicha siylovlar olish huquqiga quyidagilar ega[118]:

-1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari yoki partizanlari yoxud ularga tenglashtirilgan shaxslar;

-1941-1945 yillardagi urush davri mehnat fronti faxriylari;

-kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari;

-harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy

---

[117] "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2008 yil 17-son.

[118] "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2008 yil 17-son.

xizmatchining ota-onasidan biri yoki boshqa turmush qurmagan bevasi;

-Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar;

-pensionerlar;

-nogironlar.

Majburiy sug’urta shartnomasini tuzish uchun sug’urta qildiruvchi sug’urta tashkiloti va uning joylardagi vakillariga majburiy sug’urta shartnomasini tuzish to’g’risidagi ariza-anketani har bir transport vositasi bo’yicha taqdim etadi, unga quyidagi hujjatlarning nusxalari ilova qilinadi:

a) transport vositasini boshqarishga qo’yilgan sug’urta qildiruvchi — jismoniy shaxsning va boshqa shaxslarning pasporti yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi guvohnomasi (fotosurati va ro’yxatga olinganlik to’g’risidagi oxirgi yozuv qayd etilgan varaqlari);

b) transport vositasining texnik pasporti (schyot-ma’lumotnomasi) yoki uning davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risidagi guvohnoma (transport vositasining oldi-sotdi (almashish, hadya qilish) shartnomasining nusxasi);

v) transport vositasini boshqarishga berilgan ishonchnoma yoxud ushbu transport vositasiga egalik huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjat — agar majburiy sug’urta shartnomasi transport vositasini boshqarishga faqat muayyan shaxslargina boshqarishga qo’yilishi sharti bilan tuzilgan bo’lsa (transport vositasini boshqarishga qo’yilgan barcha shaxslar uchun, transport vositasi egasidan tashqari);

g) transport vositasini boshqarishga qo’yilgan barcha shaxslarning haydovchilik guvohnomasi yoki barcha haydovchilarning transport vositasini boshqarish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar — transport vositasini boshqarishga faqat muayyan shaxslar qo’yilishi sharti bilan majburiy sug’urta shartnomasi tuzilgan taqdirda;

d) sug’urta qildiruvchi — jismoniy shaxslarning sug’urta mukofoti bo’yicha siylov olish huquqiga ega bo’lgan shaxslar toifasiga tegishliligini tasdiqlovchi (guvohnoma, ma’lumotnomalar va shu kabilar) hujjatlar (agar bo’lsa).

Sug’urta qildiruvchi sug’urtalovchiga taqdim etilayotgan ma’lumotlar va hujjatlarning to’liqligi va haqiqiyligi uchun javobgar hisoblanadi.

Sug’urta puli majburiy sug’urta shartnomasida milliy valyutada ko’rsatiladi. Majburiy sug’urta shartnomasi bo’yicha sug’urta

mukofotining miqdori hukumat qarori bilan tasdiqlangan sug'urta tariflariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Hozirgi paytda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta summasining eng yuqori miqdori 12,0 mln.so'mga teng qilib belgilangan. Uning 35 foizgacha bo'lgan qismi yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishi natijasida jabrlanuvchining – yuridik yoki jismoniy shaxsning mulkiga etkazilgan zararni qoplash uchun sarflanadi.



Sug'urta summasining 65 foizgacha bo'lgan qismi jabrlanuvchining hayoti va sog'ligiga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadi. Buni yuqorida keltirilgan chizmada yaqqol ko'rsatish mumkin.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini hisoblashda tarif stavkasi quyidagilarni e'tiborga olgan holda o'zgaradi:

- transport vositasining turi;
- transport vositasining yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli ekanligi;
- transport vositasi harakatlanadigan (ro'yxatga olingan) xudud;
- oldingi davrlarda sug'urta hodisalarining sodir bo'lganligi yoki bo'lmaganligi;
- haydovchining yoshi;
- transport vositasidan mavsumiy foydalanish;

- haydovchining staji.

Masalan, Toshkent shahrida davlat ro'yxatidan o'tgan va shu xududda harakat qiladigan dvigatel hajmi 1200 kub. santimetrgacha bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli engil avtomashinalar uchun bazaviy tarif stavkasi 0,4 foizni tashkil etadi. Sug'urta summasining eng yuqori miqdori 12,0 mln.so'm etib belgilangan. Demak, bazaviy stavka 48,0 ming so'mga teng. Mashina Toshkent shahrida harakat qilganligi uchun unga 1,4 koeffitsent qo'llaniladi va natijada sug'urta summasi 67,2 ming so'mga teng bo'ldi. Agar, haydovchining staji 5 yildan ortiq bo'lsa, u holda unga 1,0 koeffitsent qo'llaniladi, ya'ni sug'urta mukofoti o'zgarmasdan qoladi.

Jabrlanuvchilarga zarar etkazilishiga olib kelgan yo'l-transport hodisasi ishtirokchisi bo'lgan sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxs) mazkur hodisaning boshqa ishtirokchilari talabiga ko'ra ularga ushbu transport vositasi egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtalangan majburiy sug'urta shartnomasi to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilishi shart.

Sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxs) yoki uning vakolatli vakili sug'urta hodisasi sodir bo'lganda:

-jabrlanuvchiga (uning merosxo'rlariga yoki huquqiy vorislariga) yo'l-transport hodisasi kunidan boshlab uch kalendar kundan kechiktirmay sug'urta polisining nusxasini topshirishi;

-davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining etib kelishini kutishi, imkoni boricha yo'l-transport hodisasi guvohlarining familiyasi va manzilini yozib olishi;

-darhol, yo'l-transport hodisasidan keyin 72 soatdan kechiktirmay, sodir bo'lgan hodisa haqida yozma shaklda, sug'urta polisining nusxasini ilova qilgan holda sug'urtalovchiga (uning filialiga) yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joydagi va transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga bildirishi kerak. Bildirishnomada hodisaning xususiyati, sodir bo'lgan payti, ko'rilishi taxmin qilingan zararning miqdori, yo'l-transport hodisasiga aloqador barcha shaxslarning, shu jumladan taxmin qilingan da'vogarlarning nomlari va manzillariga taalluqli axborot imkon qadar to'liq hajmda, shuningdek sug'urta qildiruvchi hodisa haqida ilk marotaba qay tarzda xabardor bo'lganligi va sug'urta qildiruvchining nega hodisani talabnoma bildirishga sabab bo'lishi mumkin deb hisoblashiga oid tafsilotlar majburiy tartibda ko'rsatilishi kerak;

-sug’urtalovchiga sug’urta hodisasi munosabati bilan unga nisbatan qo’yilayotgan barcha talablar yoki unga qarshi boshlangan sud muhokamasi to’g’risida darhol xabar qilishi, zarar etkazilishi holatlari to’g’risidagi barcha ma’lumotlarni va vakolatli organlardan olingan, sug’urta hodisasining sabablari hamda oqibatlarini, zararning xususiyati va miqdorini belgilash uchun zarur bo’lgan hujjatlarni sug’urtalovchiga taqdim etishi;

zararning oldini olish va (yoki) kamaytirish yuzasidan mumkin bo’lgan barcha choralarni ko’rishi kerak.

24.8. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish

Xorijiy amaliyot shuni ko’rsatadiki, majburiy sug’urtaning mavjudligi sug’urtaning mamlakat iqtisodiyotiga kirib borishida asosiy omillardan biridir. Albatta, sug’urtaning majburiy turlarini tatbiq etish respublikada sug’urta sohasi rivojiga ko’p jihatdan imkon yaratadi. Lekin, majburiy sug’urta tizimini yaratishdan asosiy maqsad aholi muhtoj qatlamlarining ijtimoiy himoyasini ta’minlashdan iboratdir. Bugungi kunda majburiy sug’urta aholining muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy himoyani bozor iqtisodiyoti printsiplari asosida ta’minlovchi qulay usul hisoblanadi.

Sug’urtaning majburiy turlari ijtimoiy himoyani bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’minlashda qanchalik dolzarb ekanligini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi “Sug’urta bozorini isloh qilish va yanada rivojlantirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida” PQ-618-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida sug’urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning 2007-2010 yillarga mo’ljallangan Dasturi” tasdiqlangan edi. Bu dastur respublikada sug’urta sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda majburiy sug’urtaning ijtimoiy yo’naltirilgan tizimini yaratishni ko’zda tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urtalash muvaffaqiyatli amal qila boshladi.

2009 yilning 17 aprelida O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi[119]. Ushbu qonunni qabul qilishdan ko’zda tutilgan asosiy maqsad mehnat jarayonida jarohat olgan,

[119] “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari to’plami. – T.: Adliya vazirligi, 2009 yil, 16-son.

kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtida salomatligiga ziyon etgan fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta’minlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha tegishli ruxsatnomaga ega sug’urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 177-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish Qoidalari”da o’z ifodasini topgan. Majburiy sug’urtalash qoidalari ushbu sug’urtani amalga oshirish vakolatiga ega barcha sug’urtalovchilar uchun bir xilda amal qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bugungi kunda xizmat burchini bajarayotgan paytida jarohat olgan xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ko’zda tutadi. Mehnat kodeksi ish beruvchining xodimga etkazilgan ziyon uchun javobgar ekanini belgilagan. Ma’lumki, Mehnat kodeksining 189-192 moddalariga binoan ish beruvchi olgan jarohati, kasb kasalligi yoki mehnat jarayoni bilan bog’liq ravishda sog’ligiga etgan zararni, shuningdek, boquvchini yo’qotganlik uchun etgan zararni o’rnatilgan tartibda to’liq qoplashi shart. Ko’rinib turibdiki, xizmat burchini bajarayotgan paytda jarohat olgan xodimlarni moddiy jihatdan himoyalash ish beruvchi hisobidan amalga oshiriladi. Xodimning xizmat burchini bajarayotgan paytda olgan jarohati uchun ish beruvchi javobgar hisoblanadi. Shu bilan birga, ish beruvchi qoplashi zarur bo’lgan zarar hajmi ish beruvchining moliyaviy imkoniyatlariga doimo ham mos kelavermaydi yoki ish beruvchining moliyaviy holatiga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatishi mumkin. Chunki, ish beruvchi qoplashi kerak bo’lgan zarar hajmiga bir vaqtda va har oyda to’lanishi kerak bo’lgan kompensatsiya to’lovlari ham kirishi mumkin. Masalan, Mehnat kodeksining 190-moddasiga binoan xodimning sog’ligiga etgan zarar uchun qoplanishi kerak bo’lgan mablag’ xodim jarohat olgan vaqtga qadar olgan o’rtacha oylik ish haqiga qo’shimcha ravishda xodim olgan jarohat darajasiga qarab belgilangan oylik foiz, jarohat olishi bilan bog’liq xarajatlarni qoplash, shuningdek, nafaqa ko’rinishidagi bir marotabalik to’lanishi kerak bo’lgan to’lovdan iborat.

Bir marotaba to’lanadigan nafaqa hajmi jamoa shartnomasida, agar shartnoma tuzilmagan bo’lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakolatli organi o’rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunda jarohat olgan xodimga to’lanadigan bir martalik nafaqa hajmi jarohatlangan shaxsning bir yillik o’rtacha ish haqidan kam bo’lmasligi, halok bo’lgan xodimning oila a’zolariga beriladigan nafaqa hajmi esa halok bo’lgan xodimning 6 yillik o’rtacha ish haqidan kam bo’lmasligi kerak.

Shu munosabat bilan “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida” Qonun barcha ish beruvchilarga ularning xodimlari xizmat burchini o’tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etgan taqdirda majburiy tarzda sug’urta himoyasini taqdim etishni nazarda tutadi. Qonun xodimlarning xizmat burchini o’tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etishi yoki kasb kasalligiga uchrashi, halok bo’lishi yoxud kasb kasalligi oqibatida vafot etishi bois ish beruvchining javobgarligi yuzaga kelgan hollarda sug’urtalovchilar tomonidan davriy va bir martalik to’lovlarni to’lash uchun zarur mablag’larni to’lashni ta’minlovchi tizim uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Sug’urtaning ushbu turining majburiyligi, birinchi navbatda, mamlakatning barcha ish beruvchilarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa o’z navbatida, sug’urtaning ushbu turi bo’yicha eng kam sug’urta tariflarini qo’llashga imkoniyat yaratadi. Mohiyatan, majburiy sug’urtaning bu turi mamlakat ish beruvchilari o’rtasidagi jabr ko’rgan ish beruvchilar ko’rgan zararlarni qoplash uchun mo’ljallangan mablag’larni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida namoyon bo’ladi. Bu mexanizm, birinchi navbatda, jabr ko’rgan xodimlarga etkazilgan zararlarni qonunda belgilangan sug’urta summasi doirasida qoplash kafolatini ta’minlaydi. Ikkinchidan, majburiy sug’urta ish beruvchi o’zining jabr ko’rgan xodimiga zarar qoplab berilganda ham moliyaviy barqarorligi saqlanib qolishi va ish beruvchining faoliyatini qo’llab-quvvatlovchi eng maqbul usul bo’lib qoladi.

Darhaqiqat, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish tizimida sug’urta qildiruvchi sifatida ish beruvchi — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs asosiy sub’yekt hisoblanadi. Jabrlanuvchi — o’z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog’liq holda mehnatda mayib bo’lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog’lig’ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sog’lig’iga zarar etkazilgan, sug’urta

tovonini olish huquqiga ega bo'lgan xodim; naf oluvchi — xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxs; ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi — umumiy sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs; annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi — hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.

Quyida keltirilgan chizmada ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishning sub'yektlari keltirilgan.



"Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi 2-bandida ish beruvchining qator majburiyatlari, shu jumladan, uning ushbu qonunga muvofiq o'z fuqarolik javobgarligini sug'urtalash majburiyati ko'rsatib o'tilgan. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'laqonli amalda bo'lishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2009 yil 24 iyunda 177-sonli qarori qabul qilinganligini ta'kidlash lozim[120].

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish jarayonini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin.

---

[120] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori. - O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2009 yil, 26-son.

Birinchi bosqich, majburiy sug’urta shartnomasi imzolangan paytdan sug’urta hodisasi sodir bo’lgan kun yoki majburiy sug’urta shartnomasi muddati tugagan sanagacha davom etadi. Ikkinchi bosqich, majburiy sug’urta shartnomasi bo’yicha sug’urta hodisasi yuzaga kelgan paytdan boshlanadi. Birinchi bosqich, sug’urta munosabatlarida faqat sug’urtaning ushbu turini amalga oshirgan sug’urtalovchi va ish beruvchi kabi sub’yektlar ishtirok etadi. Mazkur bosqichda majburiy sug’urta shartnomasi tuziladi va sug’urtaning ushbu turi bo’yicha sug’urta mukofoti to’lanadi. Sug’urta shartnomasiga binoan sug’urtalovchi kelishilgan haq sug’urta mukofoti evaziga sug’urta hodisasi yuzaga kelganda ish beruvchi va jabrlanuvchi yoki naf oluvchiga sug’urta shartnomasida kelishilgan sug’urta summasi doirasida sug’urta to’lovlarini to’lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Ta’kidlash lozimki, majburiy sug’urta shartnomasining asosiy shartlari qonunning o’zi bilan muvofiqlashtiriladi. Mazkur shartlar asosida Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko’rsatilgan qarori bilan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish qoidalari tasdiqlangan. Ushbu qoidalar majburiy sug’urtaning mazkur turini amalga oshirishning umumiy qoidalari, subrogatsiya, sug’urtalovchini almashtirish yoki annuitetlar shartnomasiga ko’ra sug’urtalovchini o’zgartirish, yakuniy qoidalar kabi umumiy shartlarni o’z ichiga oladi. Bundan tashqari, qoidalar fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish shartnomasiga tegishli shartlarni ham o’z ichiga oladi. Bu shartlar majburiy sug’urta shartnomasini tuzish, o’zgartirish va muddatidan avval bekor qilish, sug’urta summasi, sug’urta mukofoti va uni to’lash qoidalari, majburiy sug’urta shartnomasida ishtirok etayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlari, sug’urta hodisalarini ko’rib chiqish tartibi, ko’rilgan zarar hajmini aniqlash va majburiy sug’urta shartnomasi bo’yicha sug’urta qoplamasini to’lash, shuningdek, annuitetlar shartnomasiga tegishli shartlar, sug’urta summasi, sug’urta mukofoti va annuitetlar shartnomasi bo’yicha qaytarib sotib olish summasi, annuitetlar shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari, annuitetlar shartnomasi bo’yicha joriy to’lovlar shaklida sug’urta qoplamalarini to’lash tartibi, annuitetlar shartnomasini o’zgartirish va muddatidan avval bekor qilish tartibidan iborat.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi va bir yil muddatga tuziladi. Ammo, agar ish beruvchining faoliyati bir yildan

kam muddat davom etishi mo'ljallangan bo'lsa, u holda shartnoma ish beruvchi tomonidan ushbu faoliyatni olib borish muddatiga tuziladi. Majburiy sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta summasi quyidagicha belgilanadi[121].

- majburiy sug'urta shartnomasi tuzilayotgan sanaga kelib, bir yildan ko'p faoliyat olib borgan ish beruvchi uchun – ish beruvchi barcha xodimlarining ushbu shartnoma tuzilgan kungacha o'tgan 12 oyda olgan yillik ish haqi hajmidan;
- o'z faoliyatini yangidan boshlayotgan ish beruvchi uchun barcha xodimlarning majburiy sug'urta shartnomasi tuzilgan kundan keyin keladigan 12 oy uchun oladigan ish haqi hajmidan. Bunda yillik ish haqi miqdori birinchi oydagi ish haqini 12 ga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.
- o'z faoliyatini kamida bir yil avval boshlagan ish beruvchi uchun ish beruvchining barcha xodimlari ish beruvchining ushbu faoliyatini amalga oshirish muddatida olgan ish haqi hajmida.

Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofoti sug'urta tariflari asosida hisoblanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta tarifi ikki tarkibiy qismda shakllantiriladi:

Bazaviy stavka va ish beruvchi olib borayotgan faoliyatning xavflilik darajasiga ko'paytiriladigan koeffitsent. Bazaviy stavka ish beruvchilar va sug'urtalovchilar uchun yagona hisoblanadi hamda ish beruvchining fuqarolik javobgarligi shartnomasi bo'yicha sug'urta summasining yillik 0,1 foiz miqdorida belgilanadi. Bazaviy stavkaga ko'paytiriladigan koeffitsent ish beruvchi olib borayotgan faoliyatning xavflilik darajasiga qarab belgilanadi. Faoliyat xavfliligi esa ish beruvchi faoliyat turining xavflilik darajasi klassifikatsiyasi darajasiga muvofiq belgilanadi. Ish beruvchi faoliyat turining xavflilik darajasi klassifikatsiyasi qoidalar asosida tasdiqlangan ushbu klassifikatsiyaga binoan iqtisodiyot sohalari kasbiy xatarlarining 20 ta klassiga ajratilgan. Har bir klass bo'yicha tegishli koeffitsientlar belgilangan. Agar, ish beruvchi klassifikatsiyada keltirilmagan faoliyat turi bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, faoliyatning bu turiga nisbatan kasbiy xatarlar klasslari bo'yicha o'rtacha sug'urta tariflariga teng 3,400 hajmidagi koeffitsient qo'llaniladi.

Shuningdek, sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta tariflari tarkibi ham belgilangan bo'lib, bunda sug'urta mukofoti hajmidagi

---

[121] "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2009 yil, 16-son.

netto-stavka va sug'urta mukofoti hajmida majburiy sug'urtani amalga oshirish xarajatlari ulushi belgilab beriladi. Sug'urta tarifi tarkibiga muvofiq, tarif stavkasining 70 foizi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lovlar va 30 foizi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalarini oldini olishga oid ogohlantirish tadbirlari zaxirasiga chegirmalar tarifning 5,0 foizini tashkil etadi)dan iborat.

Shubhasiz, respublikada majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan tizimi shakllantirilgan. Bu tizim mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy talablariga to'liq javob beradi. Majburiy sug'urta turlarining tatbiq etilishi yaqin yillar ichida mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishga qudratli turtki beradi va majburiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoyalashda ishtirokini oshiradi.

24.9. Qayta sug'urta qilishning mohiyati va turlari

Qayta sug'urtalash tarixi sug'urtadan ancha keyin boshlangan, chunki qayta sug'urtalash, ta'bir joiz bo'lsa, sug'urtalovchilarni sug'urtalashdir. O'rta asrlar oxirida dengiz yuklarini sug'urtalashning rivojlanishi bilan sug'urtalovchilarning qayta sug'urtaga bo'lgan ehtiyojlari orta boshladi. Birinchi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan qayta sug'urtalash shartnomasi Genuyada 1370 yili ikki savdogar orasida tuzilgan[122.] shartnoma Genuyadan Bryuggega dengiz orqali jo'natilgan sug'urta ob'yektini qayta sug'urtalashdan iborat edi.

Yevropada XIX asrda sanoat rivojlanishi bilan qayta sug'urtalashga bo'lgan ehtiyojni faqat etarli moliyaviy resurslari va chet el mamlakatlarida sho''ba korxonalari mavjud bo'lgan sug'urtalovchilar qondirish qobiliyatiga ega bo'lgan. Keyinchalik fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalari, risklarni to'liq yoki qisman qoplash shartnomasi ishlab chiqildi va joriy etildi. Bunday shartnoma birinchi bo'lib 1821 yilda tuzilgan.

Qayta sug'urta operatsiyalari XIX asrning o'rtalarida alohida tadbirkorlik turiga aylandi. 1846 yilda Keln qayta sug'urta jamiyati tashkil etildi. Dastlab, qayta sug'urta sug'urtalovchining sug'urta shartnomalari bo'yicha javobgarligida ishtirok etishdan iborat bo'lgan bo'lsa, o'tgan davrlar mobaynida u tavakkalchilikni ikkilamchi

[122] Kristofor Pfayffer: "Vvedenie v perestraxovanie" Anikl 2002, 14b.

taqsimlovchi kuchli mexanizmga aylandi va keng miqyosdagi turlarga hamda shakllarga ega bo'ldi.

Qayta sug'urta sug'urta faoliyatini va sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi zaruriy mexanizm hisoblanadi. Ma'lumki, sug'urta ehtimollar nazariyasiga asoslangandir. Ko'p hollarda sug'urta tashkilotlari to'laqonli muvozanatlashgan risklar portfelini yaratish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunga sabab sug'urtalangan ob'ektlar miqdori ko'p emas yoki portfel tarkibida katta yoki xavfli risklar joylashganligidir. Bundan tashqari amaliyotdan ma'lumki, har qanday sug'urta tashkiloti, hatto risklarni sug'urtaga qabul qilishda ularni yaxshi o'rganib chiqqan taqdirda ham, odatda sug'urta shartlari turli xatarlarni qoplaganligi uchun, sug'urtalangan ob'ektlarga suv toshqini, bo'ron, zilzila kabi tabiiy ofatlar va yong'in natijasida birdaniga zarar etishi mumkin. Sug'urtalovchining mablag'lari va hatto barcha aktivlari uning sug'urtalanuvchi oldida portfel bo'yicha javobgarligining uncha katta qismini tashkil etmaydi, lekin yuqoridagi ko'rsatilgan ofatlar esa uning moliyaviy holatiga katta ta'sir ko'rsatish bilan birga, hatto inqirozga yuz tutishiga olib kelishi mumkin.

Sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta summasini tenglashtirish va sug'urta portfeli muvozanatini ta'minlash, sug'urtalovchining moliyaviy imkoniyatlariga asoslanib, sug'urta summalari bo'yicha javobgarliklarni to'g'ri taqsimlashda va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy mustahkamligini va rentabelligini ta'minlash maqsadida qayta sug'urta tizimi tashkil etilganligini ta'kidlash kerak.

Qayta sug'urtalash orqali sug'urtalovchi o'zining faoliyatiga xavf soladigan quyidagi 3 ta riskning oldini oladi:

1. Tasodifan yuzaga keladigan zararlar xavfi:

- sug'urta hodisasi ro'y berishining aniqligi;
- tabiiy ofat natijasida juda ko'p polislar bo'yicha bitta riskdan sug'urtalovchi majburiyatlarining yuzaga kelishi.

2. Davr xavfi:

- pulning qadrsizlanishi natijasida sug'urtalovchi to'plagan sug'urta mukofotlarining sug'urta qoplamasini to'lashga etmasligi;
- texnologiyaning taraqqiy etishi natijasida belgilangan sug'urta stavkasi va sug'urta shartlarining olingan majburiyatga to'g'ri kelmasligi.

3. Xatolik xavfi:

- sug'urta ta'riflarini noto'g'ri hisoblash (statistika axborotlarini noto'g'ri talqin qilish).

Har bir sug'urta tashkilotining maqsadi mana shu risklarning oldini olish va qayta sug'urtalash imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish hisoblanadi.

Qayta sug'urtalashning iqtisodiy mohiyati sug'urta tashkilotlari tasarrufida dastlabki tashkil etilgan jamg'armani qayta taqsimlashdir, ya'ni bevosita sug'urtada sug'urtalovchi sug'urta mukofotlari hisobidan jamg'arma tashkil qiladi. Qayta sug'urtalashda esa yangi jamg'arma tashkil etilmasdan, sug'urta kompaniyalari tashkil etgan jamg'armani yo'naltirish va qayta taqsimlash bilan jamg'arma tashkil etiladi. Risklarning va jamg'armalarning ikkilamchi taqsimlanishi, ya'ni qayta sug'urtalash sug'urtanuvchiga ma'lum bo'lmasligi mumkin. Bunday qayta taqsimlanish ikkinchi darajali bo'lib, bu jarayon sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi o'rtasida ro'y beradi. Bunday fikrlarni Kristofer Pfayffer[123], Shaxov V.V[124], Folkner Xenke[125], U. Konkelar[126] o'zlarining ilmiy ishlarida ko'rsatib o'tganlar. Jamg'armalarning qayta taqsimlanishi sug'urta tashkilotlari uchun yangi sug'urta turlarini yaratish va rivojlantirishga hamda sug'urta operatsiyalarini kengaytirishga sharoit yaratadi.

Mutaxassislar sug'urta bozorini tahlil qilib, uni bevosita sug'urta bozori va qayta sug'urta bozoriga ajratishadi. Bevosita sug'urta bozori – bu sug'urta tashkilotlari bilan ularning mijozlari o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Biroq, bitta sug'urta tashkiloti har doim ham sug'urtalanuvchiga ishonarli sug'urta himoyasini ta'minlab bera olmaydi, ayniqsa agar gap sug'urta qiymati va xavfi katta bo'lgan ob'ektlar haqida ketganda. Shuning uchun ham sug'urta tashkilotlari muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish, moliyaviy barqarorligini oshirish va zimmasiga olgan majburiyatlarni to'liq bajarish uchun qayta sug'urtalash bozori xizmatlariga murojaat etadi.

Har bir sug'urta tashkilotining mijozi shuni bilishi kerakki, uning oldida sug'urta qoplamasini to'lashda, u bilan shartnoma tuzgan sug'urta tashkiloti javobgar bo'ladi. Zero O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida ko'rsatilgandek: "Qayta sug'urtalashda sug'urta tovoni yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnoma bo'yicha sug'urtalovchi javobgar bo'lib qolaveradi". Bundan ko'rinib turibdiki, qayta sug'urtalovchi sug'urtalovchiga, faqat, ulushi miqdorida zararni qoplashga kafolat

---

[123] Kristofor Pfayffer "Vvedenie v perestraxovanie" Ankil 2002. 3 b.
[124] Shaxov V.V. "Vvedenie v straxovanie". Moskva, Finansi i Statistika 1992. 150 b.
[125] Folkner Xenke "Voprosu nadzora nad perestraxovochnimi predpriyatiyami" INRE 1996, №3. 14 b.
[126] U.Knoke "Osnovnie aspekti nadzora za deyatelnostno perestraxovochnix kompanii" INRE 1996, №2 17b.

beradi va sug’urtalanuvchi bilan munosabatda bo’lmaydi. Ba’zan, sug’urta tashkiloti reklama sifatida sug’urta qildiruvchiga risklari mashhur va ishonchli qayta sug’urta tashkilotlarida sug’urtalashini ma’lum qiladi. Lekin, bu holat sug’urta tashkilotiga sug’urta qoplamasini to’lab bera olmaganda, qayta sug’urtalovchidan to’g’ridan-to’g’ri qoplamasini talab qilish huquqini bermaydi.

Qayta sug’urta operatsiyalari faoliyati faqat qayta sug’urtalashga ixtisoslashgan qayta sug’urta tashkilotlari yoki bevosita o’rnatilgan talablarga javob beradigan sug’urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda sug’urta tashkilotlari ixtisoslashgan qayta sug’urta tashkilotlari xizmatidan foydalanadi. Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi sug’urta bozorida ixtisoslashgan qayta sug’urta tashkilotlari tashkil etilmagan. Hozirda O‘zbekistonda qayta sug’urtalash ishlari, bevosita, belgilangan tartibda sug’urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qayta sug’urta, so’zsiz, sug’urta tizimida muhim ahamiyatga ega. Sug’urtalanuvchi nuqtai nazaridan, sug’urtalovchining qayta sug’urtalashda ishtirok etishi yuqori sifatli sug’urta xizmatlarini taqdim etishga, zararlarni o’z vaqtida va to’liq qoplashga ko’mak beradi. U sug’urtalovchining ishonchlilik darajasini oshiradi va shu bilan birga mijoz bilan o’zaro munosabatlarini samarali bo’lishini ta’minlaydi.

Sug’urta sug’urtalashga riskni qabul qilish bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish). Sug’urtalovchi muvozanatlashgan sug’urta portfelini yaratish va sug’urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida qabul qilib olingan riskning bir qismini o’zaro kelishilgan holda boshqa sug’urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish) mumkin. Qayta sug’urta aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko’rinishga ega. Bundan tashqari, qayta sug’urta nisbiy va nonisbiy shaklda bo’ladi. Ayrim holatlarda, qayta sug’urta operatsiyalari qayta sug’urta brokeri - ikkita tomon, ya’ni sug’urta tashkiloti va qayta sug’urta tashkiloti o’rtasida vositachilik qiluvchi shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Qayta sug’urta munosabatlarining uzoq rivojlanish davomida uning yangi shakl va turlari paydo bo’ldi. Eng qadimiy qayta sug’urta shartnomasi shakllaridan biri fakultativ qayta sug’urta shartnomasidir.

Fakultativ qayta sug’urtalashda sug’urtalovchi riskni, xohlasa qayta sug’urtalashga beradi, xohlasa o’zida olib qoladi va mos

ravishda qayta sug'urtalovchi xohlasa riskni o'ziga oladi, xohlasa olmaydi[127].

Obligatorli qayta sug'urtalash bir martalik qayta sug'urtalashdan farqli, unda tomonlarning munosabatlari mustahkamlanadi. Obligatorli qayta sug'urtalashning asosiy jihati ekstsedent qayta sug'urtalash va ulush xajmini aniqlash bilan bog'liq.

Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan sug'urta tashkiloti o'ziga qabul qilgan riskni qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan qayta sug'urta tashkilotiga berishi shart, o'z navbatida qayta sug'urtalovchi bu riskni qabul qilishi shart. Obligatorli qayta sug'urtalashda sug'urta tashkilotining sug'urta mukofotlarini, sug'urta tariflarini, sug'urta xodisalarini oldini olish va sug'urta qoplamalarini to'lash huquqi o'zida qoladi. Lekin, ularning hammasi sug'urtalovchining va qayta sug'urtalovchining manfaatlarini ko'zda tutgan holda bo'lishi kerak.

Obligatorli qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha qayta sug'urta to'lovlarining hammasi sug'urta mukofotidan foizlar hisobida to'lanadi. Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomasi noaniq muddatga tuzilib ikki tomonning roziligi bilan bekor qilinishi mumkin. Bunday shartnoma sug'urta tashkiloti uchun foydalidir, chunki bunda hamma qabul qilingan risklar qayta sug'urta himoyasiga ega. Obligatorli qayta sug'urta fakultativ qayta sug'urtadan farqli, u sug'urta portfelining katta qismini o'z ichiga oladi. Obligatorli qayta sug'urta shartnomasi fakultativ qayta sug'urta shartnomasidan ancha arzonroq. Shuning hisobiga xalqaro qayta sug'urta bozorida ushbu qayta sug'urta turi katta salmoqni tashkil etadi.

Obligatorli qayta sug'urtadan farqli, fakultativ qayta sug'urtada qayta sug'urtalovchi o'ziga qabul qilayotgan risk haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Ushbu shartnoma bo'yicha bir martalik bitimlar amalga oshiriladi. Fakultativ qayta sug'urta shartnomasi tomonlarga to'liq erkinlik beradi.

Sug'urta tashkilotining qayta sug'urtalovchiga fakultativ qayta sug'urtalash bo'yicha berayotgan taklifida risk haqida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

-sug'urta tashkilotining nomi va manzili;
-qayta sug'urta turi: proportsional yoki noproportsional;
-riskning joylashgan joyi;
-sug'urta manfaati;

---

[127] Gomellya V. Rubin Yu "Straxovoy portfel" Moskva 1994. 347 b.

-shartlar-sug’urtalangan xavflar (qaysi risklardan sug’urtalanadi va qaysilaridan sug’urtalanmaydi (istisnolar) to’liq ko’rsatiladi);
-umumiy sug’urta summasi, qoplamaning qaysi valyutada to’lanishi, stavkalar;
-franshiza;
-qayta sug’urtalovchiga mukofot, qayta sug’urta komissiyasi va boshqa xarajatlar;
-fakultativ qayta sug’urtaning boshlanishi va tugash sanasi;
-taklif qilingan ulush;
-zararning oldini olish imkoniyati va choralari;
-ekspert xulosasi;
-bevosita sug’urtadagi sug’urtalovchining ulushi.

Odatda fakultativ qayta sug’urtalash jarayoni sekin kechadi, chunki qayta sug’urtalovchi riskni obdon o’rganguncha bir muncha vaqt ketadi. Qayta sug’urtalovchi riskni o’rganib bo’lib, sug’urta tashkilotiga o’zi qabul qila oladigan ulush miqdorini aytadi. Yirik qayta sug’urtalovchilar o’zlarining fakultativ qayta sug’urtalash bo’linmalariga ega. Fakultativ qayta sug’urtalashda qayta sug’urtalovchining vazifasi bevosita sug’urta tashkilotining imkoniyatini kengaytirish bilan cheklanib qolmasdan, balki riskni baholash, sug’urta shartnomalari shartlarini belgilash, zararni oldini olish va ushbu masalalar bo’yicha maslahat berishdan ham iborat. Fakultativ qayta sug’urta sug’urtalovchi va qayta sug’urtalovchiga ko’p qulayliklar yaratishi bilan birga kamchiliklarga ham ega. Fakultativ qayta sug’urtaning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

1. qayta sug’urtaga berilayotgan risk bo’yicha ma’muriy ishlar hajmining ko’pligi;
2. riskni joylashtirishda sug’urtalovchining har bir qayta sug’urtalovchi bilan aloqada bo’lishiga ketadigan ko’p vaqt;
3. sug’urtalovchi sug’urtalanuvchidan birdaniga uning moliyaviy imkoniyatlaridan katta riskni qabul qila olmaydi;
4. fakultativ qayta sug’urtalovchi tomonidan o’rnatiladigan komission haq nisbatan kamroq bo’ladi.

Yuqoridagi sanab o’tilgan kamchiliklarga qaramasdan fakultativ qayta sug’urta quyidagi sabablarga ko’ra amalda qo’llaniladi:

1. oddiy sug’urta shartnomalariga to’g’ri kelmaydigan maxsus risklarni qayta sug’urtalashda;
2. obligatorli qayta sug’urtalash shartnomasida qayta sug’urtalash limitidan oshgan summani qayta sug’urtalashda;

3. shartnoma bo'yicha risklarning zarar xavfi juda yuqori bo'lganda va qayta sug'urtalovchining javobgarligini cheklashda;

4. bozorning boshqa sug'urta tashkilotlari band etgan segmentida sug'urta tashkilotining teng ishtirok etishi.

5. sug'urta qildiruvchi faoliyatining yangi yo'nalishlarini sug'urtalayotganda sug'urtalovchining moliyaviy imkoniyatlarni oshirishda;

6. sug'urtalovchiga sug'urtaga qabul qilish amaliyotini baholashda;

7. alohida ahamiyatga ega bo'lgan risklarni sug'urtalashda qayta sug'urtalovchining tajriba va salohiyatidan foydalanish.

Qayta sug'urta qilish operatsiyalari nisbiy va nonisbiy shaklda amalga oshiriladi. Nonisbiy qayta sug'urta qilishga nisbatan nisbiy qayta sug'urtalash ancha ilgari paydo bo'lgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda nisbiy qayta sug'urtalashni, ba'zan, an'anaviy qayta sug'urtalash ham deb atash qabul qilingan.

Nisbiy qayta sug'urta qilishning asosiy mohiyati shundaki, qayta sug'urta tashkilotining riskni taqsimlashdagi ulushi sug'urta tashkiloti aniqlagan nisbat asosida oldindan aniqlanadi. Ushbu nisbatga qarab, qayta sug'urtalash mukofotining va sug'urta tashkilotining tegishli ulushi aniqlanadi. Nisbiy qayta sug'urta qilishning printsipi "qayta sug'urtalovchi sug'urta tashkilotining riskini bo'ladi", degan fikrdan iborat.

Qayta sug'urta shartnomasining asosiy shartlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida o'z ifodasini topgan. Xususan, unda qayd etilishicha "sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin[128]". Qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzgan sug'urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo'yicha sug'urtalovchi keyingi shartnomada sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi oldida ushbu shartnoma bo'yicha sug'urtalovchi javobgar bo'lib qolaveradi.

Biroq asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan

---

[128] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2002.

oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Ikki yoki bir nechta qayta sug'urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo'l qo'yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug'urta shartnomasi deb hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda sug'urta tashkilotlari va ixtisoslashgan qayta sug'urta tashkilotlari o'rtasida vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi qayta sug'urta brokerlari muhim rol o'ynaydi. Shuni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunida qayta sug'urta brokeri tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "O'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanadi"[129]. Biroq, 2019 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida birorta ham qayta sug'urta bilan shug'ullanadigan brokerlik idoralari tashkil etilmagan. Holbuki, xalqaro qayta sug'urta bozorlarida qayta sug'urta brokerlarining faoliyati keng taraqqiy etganligini inobatga olsak, bunday tashkilotlarning keyinchalik milliy sug'urta bozorimizda tashkil etilishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2007 yil 15 sentyabrda amalda bo'lgan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar, shu jumladan yangi 8^1 modda kiritilgan. Bu moddada sug'urta hamda qayta sug'urta brokerlarining huquq va majburiyatlari yoritilgan. Quyida sug'urta hamda qayta sug'urta brokerlarining huquq va majburiyatlarini keltirib o'tamiz:

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har qanday turi bo'yicha vakolatlar doirasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) tanlash;

sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatliligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar olish;

---

[129] O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritish to'g'risida. – Xalq so'zi, 2007 yil 15 sentyabr.

ekspert va maslahat xizmatlari ko’rsatish.

Sug’urta va qayta sug’urta brokerlari qonun hujjatlariga hamda o’zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo’lishlari mumkin.

Sug’urta va qayta sug’urta brokerlari:

sug’urta faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug’urta shartnomasini tuzish va ijro etish bo’yicha to’liq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijozlarning so’rovlariga ko’ra taqdim etishi;

mijozning tijorat sirini va boshqa sirini tashkil etadigan ma’lumotlarni oshkor qilmasligi shart.

Sug’urta va qayta sug’urta brokerlarining zimmasida qonun hujjatlariga hamda o’zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin.

Qayta sug’urta qilish shartnomalari bir tomondan sug’urta tashkilotlari o’rtasida o’zaro tuzilishi yoki ikkinchi tomondan, sug’urta tashkiloti va ixtisoslashgan qayta sug’urta tashkiloti o’rtasida tuzilishi mumkin. Dastlab, sug’urta tashkiloti o’zining moliyaviy qobiliyatini mustahkamlash maqsadida qabul qilib olingan riskning bir qismini boshqa sug’urta tashkilotida yoki ixtisoslashgan qayta sug’urta tashkilotida sug’urtalash to’g’risida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida sug’urtalovchi ixtisoslashgan qayta sug’urta tashkilotiga murojaat qiladi. Agar qayta sug’urta tashkiloti riskni qayta sug’urta qilishga rozilik bildirsa, ular o’rtasida qayta sug’urtalash shartnomasi tuziladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, shartnoma shartlarida, unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, olingan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgarlik, shartnomani kuchga kirishi, amal qilish va bekor etilishi qoidalari mujassam bo’lishi kerak. Shuningdek, shartnomada qayta sug’urtalash mukofoti miqdori va javobgarlik hajmi ko’rsatilishi zarur.

Qayta sug’urta qilish shartnomalari ba’zi o’ziga xos belgilariga ega bo’lib, ushbu holat uni boshqa turdagi shartnomalardan farqlaydi. Shuning uchun ham qayta sug’urta sohasini nazariy jihatdan qaysi sug’urta tarmog’iga kiritish yoxud uni mustaqil sug’urta sohasi sifatida qarash ancha bahs munozarani talab qiladi.

Agar sug’urta hodisasi ruy bersa, bu haqda sug’urta kompaniyasi qayta sug’urta kompaniyasiga darhol xabar qilishi kerak. O‘z navbatida, qayta sug’urta kompaniyasi shartnomada ko’zda tutilgan qoplamani to’lashi shart. Qayta sug’urta kompaniyasi

shartnoma buyicha o’z majburiyatlarini to’la-tukis bajarsa, u holda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- Sug’urtaning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
- Sug’urta qanday pul munosabatlarining yig’indisi hisoblanadi?
- 2002 yilning 5 aprelida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi qonunning 3-moddasida sug’urtaga qanday ta’rif berilgan?
- Sug’urta iqtisodiy kategoriya sifatida qanday printsiplarga asoslanadi?
- Sug’urtaga qanday funksiyalar xos?
- Sug’urta qanday shakllarda amalga oshiriladi?
- Sug’urtaning maqsad va vazifalari mustaqillik yillarida tom ma’noda qanday o’zgardi?

- Sug’urta o’z rivojlanish tarixida qanday bosqichlardan o’tgan?
- tijoratga asoslanmagan sug’urtaning o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- tijorat sug’urtasi paydo bo’lishining bosqichlari qanday davrlarni o’z ichiga oladi?
- Sug’urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar qanday yo’nalishlarda namoyon bo’ladi?
- Sug’urta faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qanday turlarga bo’lish mumkin?
- «Sug’urta faoliyati to’g’risida»gi qonunning asosiy mazmuni nimalardan iborat?
- Yuridik shaxslarning qanday mol-mulklari bilan bog’liq mulkiy manfaati sug’urta ob’yekti sifatida qabul qilinishi mumkin?
- Yuridik shaxslar mol-mulkining sug’urtasida sug’urta ob’yekti bo’lib nima xizmat qiladi?
- Yuridik shaxslar mol-mulkini sug’urtalash bo’yicha shartnoma nimalar asosida tuziladi?
- Yuridik shaxslarning mol-mulki qanday hodisalarning ro’y berishi natijasida etkazilgan zarardan sug’urta qilinadi?
- Mol-mulklarni sug’urta qilish sug’urta faoliyati klassifikatorining qaysi klasslarida ko’rsatilgan?

- Yuridik shaxslar mol-mulkini sug’urtasi bo’yicha tuzilgan sug’urta shartnomasiga muvofiq sug’urtalanuvchi qanday huquqlarga ega?
- Yuridik shaxslar mol-mulkini sug’urtasi bo’yicha tuzilgan shartnoma qaysi holatlarda bekor etilishi mumkin?
- Yuridik shaxslarning mol-mulki sug’urtasida sug’urtachining sug’urta qoplamasini to’lash bo’yicha majburiyati qachon boshlanadi?
- Sug’urta hodisasi ro’y berganda korxona qanday chora-tadbirlarni amalga oshiradi?
- Sug’urta qoplamasi yuridik shaxsga qaysi hujjatlar asosida to’lanadi?
- Yuridik shaxslarning mol-mulki sug’urtasini rivojlantirish muammolari haqida so’zlab bering.
- Mulkiy sug’urta shartnomasi bo’yicha nimalar sug’urtalanishi mumkin?
- Shaxsiy sug’urta shartnomasi tuzishda sug’urta qildiruvchi bilan sug’urtalovchi o’rtasida nimalar to’g’risida kelishuvga erishilishi lozim?
- Shaxsiy sug’urta, odatda, fuqarolarni qanday xavf-xatarlardan himoyalanishini nazarda tutadi?
- Ixtiyoriy shaxsiy sug’urta turlariga nimalar kiradi?
- Majburiy tarzda amalga oshiriladigan shaxsiy sug’urtaning turlari nimalardan iborat?
- Sug’urta summasini olish uchun sug’urtalangan shaxslar sug’urtalovchiga qanday hujjatlarni taqdim etishi shart?
- Javobgarlik sug’urtasi nima?
- Javobgarlik sug’urtasi mazmun-mohiyati jihatidan nechtaga bo’linadi?
- Fuqarolik-huquqiy javobgarlik qanday turlardan iborat?
- O‘zbekiston sug’urta bozorida javobgarlikni sug’urta qilishning qanday turlari amalga oshirilmoqda?
- Sug’urta bozori deganda nima tushuniladi?
- Sug’urta bozori qanday ishtirokchilarga bo’linadi?
- Sug’urta bozori professional ishtirokchilari tarkibiga yana kimlarni kiritish mumkin?
- Sug’urta bozorida sug’urta kompaniyalarining mavqei qanday?

- Qayta sug’urta yoki qayta sug’urtalash deyilganda nimalar nazarda tutiladi?
- Qayta sug’urta qilish shartnomalari qanday o’ziga xos belgilarga ega?
- Tsedent va retrotsedent nima?
- Fakultativ, obligator va fakultativ-obligatorli qayta sug’urtalash deyilganda nimalar tushuniladi?
- Sug’urta ishi amaliyotida nisbiy qayta sug’urtalashning qanday shakllari mavjud?

25-bob. Uy xo'jaliklari moliyasi

25.1. Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi

Uy-xo'jaliklari moliyasi davlat moliyaviy tizimning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bozor munosabat-lari tizimida uy xo'jaliklarining moliyaviy ahamiyati uning iqtisodiy jihatdan qanday maqsadlarni bajarishga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Bir tomondan, uy xo'jaliklari ishlab chiqarish omillarining (mehnat, er, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va boshqalarning) xususiy egalari hisoblanadi va xuddi shu asosda o'zlarining daromadlar manbalari va moliyaviy tushilmalarini shakllantiradi. Boshqa bir tomondan esa, uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi va demak, bozor talabini aniqlab beradi. Bir vaqtning o'zida, uy xo'jaliklari jamiyat yalpi daromadining bir qismini jamg'aradi, real va moliyaviy aktivlarni sotib olish orqali moliyaviy rezervlarni yaratishda ishtirok etadi, soliq to'lovlari orqali esa davlatning markazlashtirilgan moliyaviy fond-larini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Odatda, "uy xo'jaligi" atamasidan milliy statistikada aholidan (kishilar to'plamidan) iborat bo'lgan institutsi-onal birlikni ifodalash uchun foydalaniladi. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan tavsiya etilgan Milliy hisoblar tizimining (MHT) zamonaviy xalqaro andozasi (standarti) uy xo'jaligini yagona yashash maydonida birgalikda yashayotgan, umumiy fondga o'zlarining daromadlari va boyliklarini to'liq yoki qisman berayotgan va ayrim tovarlar hamda xizmatlarni, eng asosan uy-joy va iste'mol mahsulotlarini umumiy tarzda (birgalikda) iste'mol qilayotgan kishilarning katta bo'lmagan guruhi, deb ta'riflaydi[130].

Ayrim hollarda o'zbek iqtisodiy adabiyotida "uy xo'jaligi" atamasining "xonadon" yoki "oila" atamalari bilan almashtirilishiga yo'l qo'yilmoqda. Shunga mos ravishda "uy xo'jaligi moliyasi" iborasining o'rniga "xonadon moliyasi" va "oila moliyasi" iboralari ham ekvivalent yoki sinonim iboralar shaklida ishlatilmoqda[131]. Shu munosabat bilan "oila" yoki "xonadon"ni "uy xo'jaligi"dan farq qilish

---

[130] Bu to'g'rida batafsil qarang: Finansovo-kreditniy entsiklopedicheskiy slovar / Pod obshch. red. A.G.Gryaznovoy. – M.: 2002. s. 299.

[131] Ming afsuski, bunday holatlarda o'zbek tilining boyligi, uning rang-barangligi va serqirraligi, asossiz ravishda, suiiste'mol qilinmoqda. Ona tilimizda turli shakl va mazmunda ishlatilishi lozim bo'lgan hamda shunga mos ravishda turli ma'no va mohiyatlarni anglatishga xizmat qiluvchi so'z, ibora, atama va tushunchalar mohiyatini chuqur o'rganmasdan ishlatilayotganligi turli chalkashlik va noaniqliklarni keltirib chiqarib, fanimizning, jumladan, moliya fanining rivojlanishiga ham zarar etkazmoqda, o'quvchilarni adashtirmoqda.

lozim. Eng avvalo, “uy xo’jaligi” aniqlilik darajasining “oila”ga nisbatan kamroq darajada cheklangan xarakterga ega ekan-ligini qayd etib o’tmoq kerak. Masalan, o’zlarining o’g’il-lariga tegishli bo’lgan joyda (binoda) yashayotgan keksa ota-onalar uy xo’jaligining a’zolari bo’lsalar-da, uning oilasi bo’la olmaydi. Xuddi shuningdek, bir xonani ijaraga olgan talaba uy-joy egasining uy xo’jaligi tarkibiga kiradi, lekin uning oilasi tarkibiga kira olmaydi va h.k. Boshqacha aytganda, uy xo’jaligi qarindosh bo’lmaganlarni ham o’z ichiga olishi yoki bir kishidan (shaxsdan) iborat ham bo’lishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan holatlarni inobatga olgan holda ta’kidlash joizki, uy xo’jaligining iqtisodiy mazmunini tushunishda oilaviy aloqalar asosiy omil bo’la olmaydi. Buning ustiga, uy xo’jaligining miqdoriy tarkibi ham o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar, eng avvalo, shu bilan belgilanadiki, birgalikda yashayotgan va umumiy xo’jalikni yuritayotgan shaxslar guruhi ham va bir vaqtning o’zida, o’zining iste’molini mustaqil ravishda ta’min-layotgan yagona bir shaxs ham uy xo’jaligi bo’lib hisoblanishi mumkin. Uy xo’jaligini xo’jalik yuritishning mustaqil iqtisodiy va moliyaviy birligi sifatida ajratilishi quyidagi me’zonlar asosida amalga oshirilmog’i lozim:

- birgalikda (bir joyda) yashash;
- umumiy byudjetning mavjudligi;
- iqtisodiy qarorlarni birgalikda (hamkorlikda) qabul qilish.

Uy xo’jaliklari moliyasi moliyaviy tizimning muhim elementi hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida u uy xo’jaliklarida iste’mol maqsadlari va jamg’arish uchun pul mablag’lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga tegishli bo’lgan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iboratdir. Ana shuni e’tiborga olgan holda uy xo’jaliklari moliyasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: **uy xo’jaliklarida iste’mol maqsadlari va jamg’arish uchun pul mablag’lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga tegishli (oid) bo’lgan iqti-sodiy (moliyaviy) munosabatlar majmui uy xo’jaliklari moliyasi deyiladi (1).**

Iqtisodiy fanlarda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning alohida olingan sohasida bir xilda va doimiy ravishda vujudga keladigan munosabatlar mustaqil iqtisodiy kategoriyaning mazmunini tashkil etishi umum e’tirof etilgan. Bu o’rinda gap “uy xo’jaliklari moliyasi” katego-riyasining sotsial-iqtisodiy mazmuni to’g’risida ketayotir. Ana shuni inobatga olgan holda uy xo’jaliklari moliyasiga quyidagicha

ta’rif ham berish mumkin: **o’zlarining ijti-moiy-iqtisodiy faoliyatlari jarayonida uy xo’jaliklari va ularning alohida a’zolari ishtirokida pul mablag’-lari maqsadli fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasida vujudga keladigan pul munosabatlarining majmui uy xo’jaliklari moliyasi deb ataladi (2)[132].**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo’jaliklari o’zlari-ning ichida va o’zlariga nisbatan tashqi bozor sub’yektlari bilan moliyaviy munosabatda bo’ladi. Shunga muvofiq ravishda uy xo’jaliklarida mavjud bo’lgan moliyaviy munosabatlar majmuini ikki guruhga bo’lish mumkin:

- ichki;
- tashqi.

Individlar – uy xo’jaligi a’zolarining ehtiyojlarini yanada to’laroq qondirish maqsadida zaruriy pul fond-larini (joriy iste’mol darajasini, pul rezervlarini, investitsiyalashtirishni ushlab (saqlab) turish uchun va h.k.) shakllantirish va ulardan foydalanishga oid uning ishti-rokchilari (a’zolari) o’rtasida vujudga keladigan munosa-batlar uy xo’jaligining ichki moliyaviy munosabat-lari hisoblanadi.

Uy xo’jaliklarining tashqi moliyaviy munosabatlari ularning boshqa iqtisodiy sub’yektlar bilan bo’lgan o’zaro aloqalari orqali namoyon bo’ladi. Korxonalar va tashki-lotlar moliyasi bilan uy xo’jaliklari bevosita o’zaro bog’langan: firmalarga iqtisodiy resurslarni taqdim etib (berib), ularning egalari sifatida uy xo’jaliklari yara-tilgan mahsulotning qiymatidan o’z hissalarini oladilar va demak, ular shu bilan yalpi mahsulotni birlamchi taqsimlashda ishtirok etadilar. Bu munosabatlar o’zining yana bir muhim iqtisodiy tomoniga ega: ular iqtisodiyotda aholi daromadlarining boshlang’ich darajasini belgilab beradiki, bu holat, o’z navbatida, iste’molning shaklla-nishi, ko’lami va tarkibiy tuzilmasiga, to’lovga layoqatli talabning shakllanishiga va nihoyat, uy xo’jaliklari tomonidan jamg’arish funksiyasining amalga oshirilishiga to’g’ridan-to’g’ri o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Davlat va uy xo’jaliklari o’rtasidagi moliyaviy muno-sabatlar ham to’g’ridan-to’g’ri (bevosita) va qaytarma (yana orqaga qaytariluvchi) aloqalar asosida tashkil etiladi (vujudga keladi) va ular byudjet hamda byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi munosabatlarni ifodalaydi. Uy

---

[132] Ushbu betda keltirilgan (1) va (2) ta’riflar shaklan bir-biridan biroz farq qilsa-da, mohiyatan uy xo’jaliklari moliyasining mohiyatini, uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi va bir-birini to’ldiradi, boyitadi.

xo'jaliklarining daromad-lari va mol-mulklari soliqqa tortilish ob'yekti sifatida maydonga chiqadi va demak, byudjet tizimi daromadlar bazasining tuzilmaviy elementi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida soliqlar, pensiya tizimi, sotsial transfertlar orqali davlat moliyaviy oqimlarni uy xo'jaliklarining turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlaydi. Uy xo'jaliklari va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida milliy daromadning ikkilamchi qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromadning taqsimlanish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish instrumentlariga ega emas. Moliyaviy munosabatlarning bu sohasi davlat tomonidan eng kam darajada reglamentatsiya qilinadi. Buning sababi shundaki, uy xo'jaliklari pul fondlarini shakllantirishning zarurligi, usuli va maqsadi to'g'risida, ularni sarflashning o'lchami va vaqti xususida qarorlar qabul qilishda mustaqildir. Shu bilan birgalikda davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromad va yakuniy iste'molning miqdoriga ta'sir qilishga qodir. Bu holat, jumladan, quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- soliqlar yordamida tartibga solish;
- mehnat haqini to'lash stavkalarini o'rnatish;
- birinchi darajali zaruriy mahsulotlar baholarini tartibga solish;
- imtiyozlar tizimi;
- sog'liqni saqlash va maorifni byudjetdan moliyalash-tirish orqali ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish;
- va boshqalar[133].

Uy xo'jaliklarining o'zlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklari sektorining ichida moliyaviy resurslarning harakatlanishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar hisoblanadi. Bu yerda ushbu jarayon hamma vaqt ham oydinlashmagan va kuchsiz tartibga solinuvchi hisob-lanadi. Moliyaning bu sohasiga, jumladan, quyidagi opera-tsiyalarni kiritish mumkin:

- fermer xo'jaliklarining hamkorlikdagi maqsadli fondlari;
- iste'mol kooperatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi fondlar;
- uy xo'jaliklari o'rtasidagi norasmiy kredit munosa-batlari;
- uy xo'jaliklari sektori doirasida hamkorlikdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xusu-sidagi boshqa munosabatlar.

---

[133] Keyingi yillarda ayrim mamlakatlarda natural shakldagi ijtimoiy transfertlar uy xo'jaliklari oxirgi iste'moli tarkibiy tuzilishining 15%dan ko'proq bo'lgan qismini tashkil etayotir. Bu uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatayotgan davlat muassasalari va notijorat tashkilotlarga maorif, sog'liqni saqlash, uy-joy-kommunal xo'jaligi, madaniyat va san'at sohasida taqdim etilgan moddiy imtiyozlardan iborat.

Uy xo'jaliklarining moliyaviy institutlar bilan o'zaro aloqalari moliyaviy munosabatlarning alohida guruhini ifodalaydi. Ularning kredit muassasalari bilan munosa-batlari uy xo'jaligi byudjeti defitsitini to'ldirish (iste'mol krediti yordamida), bo'sh turgan pul mablag'larini bank hisobvaraqlariga joylashtirish yoki ularni saqlash va jamg'arish maqsadida boshqa moliyaviy aktivlarga qo'yish orqali namoyon bo'ladi. Uy xo'jaliklarining sug'urta kompa-niyalari bilan bo'ladigan munosabatlari esa turli ko'rinishdagi sug'urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida gavdalanadi.

Moliyaning mohiyati uning funksiyalari orqali namoyon bo'lganligi uchun uy xo'jaliklari moliyasining mohiyati ham uning funksiyalari yordamida ifodalanadi[134]. Uy xo'jaliklari moliyasining funksiyalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin[135]:

- taqsimlash;
- takror ishlab chiqarish;
- nazorat;
- tartibga solish;
- rag'batlantirish;
- ijtimoiy.

Uy xo'jaliklari moliyasining bu funksiyalari o'zaro bog'langan va bir-birini doimiy ravishda to'ldirib turadi. Bir vaqtning o'zida, ma'lum ma'noda va ma'lum darajada ular o'zlarining namoyon bo'lishiga qarab moliyaning umumiy funksiyalaridan biroz farqlanishi ham mumkin.

Ma'lumki, uy xo'jaliklarining moliyasi taqsimlash jarayonini oxirgi bosqichgacha, ya'ni aniq individgacha yoki uy xo'jaligining har bir a'zosigacha etkazadi. Uy xo'jaliklari moliyasi taqsimlash funksiyasining amalga oshirilishi aholi hayotiy mablag'lari fondini shakllantirishni taqozo etadi, insonni takror ishlab chiqarish uchun iqtisodiy (moliyaviy) asos yaratadi.

---

[134] Bir vaqtning o'zida shu narsani ta'kidlash kerakki, iqtisodiy adabiyotlarda uy xo'jaliklari moliyasining funktsiyalari ayrim hollarda keng ma'noda, boshqa bir hollarda esa, tor ma'noda talqin qilinmoqda. Tor ma'noda uy xo'jaliklari moliyasining funktsiyalari uy xo'jaliklaridagi iqtisodiy munosabatlarda, xususan, moliyaning funktsiyalari (taqsimlash va nazorat) orqali ochib beri-layapti. Keng ma'noda esa, bu erda umuman moliyaga xos bo'lgan funktsiyalar ajratilib ko'rsatilishi bilan birgalikda, uy xo'jaliklari moliyasining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ifodalovchi funktsiyalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

[135] Bu erda uy xo'jaliklari moliyasiga tegishli bo'lgan funktsiyalar sonining oltitaga etkazilganligidan "Bir butun moliyaning o'zi ikki funktsiyani bajarishi, asosan, umumiy e'tirof etilgan bir paytda, uning tarkibiy qismi bo'lgan uy xo'jaliklari moliyasi qanday qilib oltita funktsiyani bajarishi mumkin?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Jiddiy mulohaza yuritilsa, bu erda bayon etilgan uy xo'jaligi moliyasiga tegishli bo'lgan olti funktsiya, oxir oqibatda, moliyaga xos bo'lgan ikki funktsiyaga borib taqalishi mumkinligini aniqlash mumkin. Shuning uchun ham "moliyaning ikki funktsiyasi" va "uy xo'jaliklari moliyasining olti funktsiyasi" o'rtasida keskin farqlarning bo'lishi mumkinligini isbotlashga urinish behudaga vaqtni sarflash bilan barobardir.

Ma’lumki, uy xo’jaliklarining ishtirokchilari qatoriga balog’at yoshiga etmaganlar yoki etgan bo’lsa-da, turli sabablarga ko’ra ishlamayotgan oila a’zolari ham kiradi. Uy xo’jaliklarining hissasiga to’g’ri kelgan milliy daromadning bir qismi uy xo’jaliklari moliyasining taqsimlash funk-tsiyasi doirasida uning barcha ishtirokchilari o’rtasida u yoki bu nisbatlarda (proportsiyalarda) taqsimlanadi. Uy xo’ja-liklarining moliyasi taqsimlash funksiyasini bajara borib, har bir shaxsni (kishini) uning hayotiyligi uchun kerak bo’lgan resurslar bilan ta’minlab, oxir oqibatda, ishchi kuchi takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Bu o’rinda taqsimlash funksiyasining ta’sir ob’yekti uy xo’jaligiga tegishli bo’lgan (uy xo’jaligi egalik qilayotgan) daromad hisoblanadi. Taqsimlash jarayonining sub’yektlari sifatida esa uy xo’jaliklarining barcha ishtirokchilari maydonga chiqadi.

Uy xo’jaliklari moliyasining taqsimlash funksiyasi turli shakllarda, jumladan, investitsion-taqsimlash funk-tsiyasi sifatida amalga oshirilishi mumkin. Uning bu (investitsion-taqsimlash) shakli shu bilan xarakterlanadiki, uy xo’jaliklari iqtisodiyot uchun moliyaviy resurslarni asosiy etkazib beruvchilardan biri hisoblanadi. Uy xo’jaliklari daromadlarining o’sishi bu funksiya baja-rilishining moddiy asosini tashkil etadi. Ko’pchilik hollarda uy xo’jaliklarining investitsion funksiyasi faqat kapitallashtiriladigan daromadlarning salmog’i, ya’ni daromadning jamg’arma sifatida foydalaniladigani (mablag’larni turli moliyaviy institutlarga va haqiqiy ishlab chiqarishga joylashtirish) bilan bog’lanadi. Biroq bunday yondoshuv bir tomonlamalik xarakteriga ega. Haqiqatda esa, o’z navbatida, iste’mol salmog’ining oshishi ham iqtisodiyotga investitsiyalarning o’sishiga ta’sir ko’rsatadigan omil hisoblanadi.

Bir vaqtning o’zida, yuqoridagi asoslarda takror ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchi va shuningdek, uy xo’jalik-larining pul mablag’lari bilan ta’minlanadi. Bu yerda uy xo’jaliklari moliyasining takror ishlab chiqarish funksiyasi alohida rol o’ynaydi. Uy xo’jaliklari daromadlari, xarajatlari va jamg’armalarining o’sishi jamiyatdagi takror ishlab chiqarish jarayoni uchun moddiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo’jaliklari mustaqil xo’jalik yurituvchi sub’yekt hisoblanadi, ya’ni uy xo’jalik-lari a’zolarining turmush darajasi uning hissasiga to’g’ri kelayotgan daromadning miqdoriga to’liq bog’liqdir. Turli omillar ta’siri natijasida bu hajm ortishi yoki qisqarishi ham mumkin. Shuning uchun ham iste’molning odatdagi darajasini ushlab (saqlab) turishni olingan daromad-larning

turli fondlarga taqsimlanishi va ularning maqsadli foydalanishi ustidan nazorat qilishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, uy xo'jaliklarining farovon-ligini qo'llab-quvvatlash va ularni taraqqiy ettirish uchun ular byudjetlarining holatlari, ularga tegishli bo'lgan daromadlarning taqsimlanishi, daromad manbalarining dinamikasi ustidan nazorat ham ob'yektiv ravishda zarur. Ana shularda uy xo'jaliklari moliyasining nazorat funksiyasi o'zini namoyon etadi.

Uy xo'jaliklari moliyasi tartibga solish funksiya-sining namoyon bo'lishini quyidagi ikki nuqtai-nazardan qarash maqsadga muvofiq:

- makroiqtisodiyot;
- mikroiqtisodiyot.

Makroiqtisodiy yondoshuv nuqtai-nazaridan uy xo'ja-liklari moliyasi, bir vaqtning o'zida, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning ob'yekti va instrumenti hisoblanadi. Uy xo'jaliklari moliyasini tartibga sola-verib, davlat, eng avvalo:

- bozor munosabatlariga xos bo'lgan daromadlarni differentsiatsiya qilish (tabaqalashtirish) muammosining o'tkirligini kamaytiradi;
- aholi daromadlari manbaining tarkibiy tuzilishi va dinamikasidagi (o'zgarishidagi) tendentsiyalarni shakllan-tiradi;
- iste'molning minimal (eng kam) darajasini tartibga soladi;
- uy xo'jaliklarining investitsion salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Mikroiqtisodiy yondoshuv nuqtai-nazaridan esa uy xo'jaliklarining iqtisodiyoti uning turli ishtirokchilari o'rtasidagi etarli darajada murakkab bo'lgan munosabatlar kompleksiga asoslanadi. Bu munosabatlar yosh borasidagi farqlar, xarakterning belgilari, odamlarning qiliqlari, ular daromadlari va ehtiyojlarining xilma-xil darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda, faqat uning ishtirokchilari iqtisodiy (moliyaviy) qarorlar qabul qilishda o'zaro tushunishga ega (yakdil) bo'lsalargina, uy xo'jaliklarining sog'lom (normal) rivojlanishi sodir bo'lishi mumkin. O'z navbatida, uy xo'jaliklarining turli ishtirokchilari iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlash-tirish ularni tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda "ularni tartibga solish" deyilganda, uy xo'jaligining bir a'zosiga to'g'ri keladigan daromad bir qismining o'zgartirilishi nazarda tutilayapti. Demak, bundan uy xo'jaliklari moliyasining yana bir funksiyani – iqtisodiy birlik sifatida uy xo'jaligining balanslashtirilgan (muvozanatli) tarzda rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish funksiyasini – bajarishi yaqqol ko'rinib turibdi.

Uy xo’jaliklari moliyasining rag’batlantiruvchi funk-tsiyasi turli shakl va mazmunda o’zini ifoda etadi. Bir tomondan, u o’z o’sib boruvchi ehtiyojlarini (ehtiyojlarning o’sib borishi ob’yektiv iqtisodiy qonunining harakatiga muvofiq ravishda) qondirish uchun zarur bo’lgan daro-madlarni uy xo’jaliklari tomonidan oshirishga intilish tufayli namoyon bo’ladi. Boshqa bir tomondan esa, uy xo’jaliklari daromadlarining o’sishi mehnat faoliyatining sifati va natijalariga asoslangan bo’lmog’i lozim.

Uy xo’jaliklari moliyasining rag’batlantiruvchi funk-tsiyasi aholi real daromadlarining o’sishiga yo’naltirilgan ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishiga va samarali byudjet siyosatiga asoslangan rag’batlantiruvchi moliya mexanizmini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Uy xo’jaliklari moliyasi amal qilishining ijtimoiy jihatlari unga tegishli bo’lgan yuqoridagi barcha funksiya-larning tahlilida kuzatiladi. Shunday bo’lishiga qaramas-dan, ijtimoiy funksiyaning uy xo’jaliklari moliyasiga tegishli bo’lgan alohida funksiya sifatida qaralishini, ma’lum ma’noda, etarli darajada asoslangan deb hisoblash mumkin. Chunki uy xo’jaliklarining daromadlari, xarajat-lari va jamg’armalari aholi va uning alohida guruhlari sotsial-iqtisodiy holatini bevosita aks ettiradi, shaxsning shakllanishi va demografik jarayonlarga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Ana shu ma’noda, uy xo’jaliklari moliyasi jamiyat barcha a’zolarining hayotiy ta’minlanish darajasini shakllantirish va iste’mol talabi tarkibiy tuzilishining xususiyatlarini aniqlaydi, aholi daromadlarini taqsim-lashdagi bog’liqliklarni ifodalaydi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta’sir ko’rsatuvchi asosiy omil bo’lib hisoblanadi. Moliyaviy indikatorlar (masalan, o’rtacha jon boshiga to’g’ri keluvchi pul daromadlari, aholi daromad-larining differentsiatsiyalanish (tabaqalanish) koeffitsi-enti, yashash minimumi, minimal ish haqi va boshqalar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining majburiy elementi hisoblanadi, davlat ijtimoiy siyosatining ishlab chiqilishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi, jamiyatning farovonlik darajasini baholashga imkon beradi.

Uy xo’jaliklari moliyasining samarali faoliyat ko’rsatishi uy xo’jaliklaridagi moliyaviy munosabatlarning masshtabi, bu munosabatlar namoyon bo’lishi xilma-xilli-gining to’liqligi va ularning rivojlanishini ta’minlovchi mexanizmlarga bog’liqdir.

25.2. Uy xo’jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning o’ziga xos xususiyatlari

Uy xo'jaligi iqtisodiy va moliyaviy qarorlarni mus-taqil ravishda qabul qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektdir. Bir vaqtning o'zida, u faoliyati butun uy xo'jaligining jami va uning har bir ishtirokchisining ijtimoiy namoyon bo'lishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi mikrosotsium ham hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi uy xo'jaligining bunday o'rni uning maqsadga yo'naltirilganligi faoliyati va u tomonidan qabul qilinishi lozim bo'lgan qarorlarning o'ziga xosligini belgilab beradi.

Bolalar tarbiyasi, bilim darajasining o'sishi, sog'liqni saqlash masalalari, dam olishni tashkil etish, uy xo'jaligi keksa a'zolari to'g'risida g'amxo'rlik qilish va boshqa sotsial maqsadlar uy xo'jaligida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Aynan ana shular uy xo'jaligi ichida ma'lum bir o'zaro hamkorlikning me'yorlari va qarorlar qabul qilishning ko'zga ko'rinmaydigan mexanizmlarini (hayotiy tajriba, an'analar, sub'yektiv ravishda ustuvorlik berish, jamoat-chilik fikri va shunga o'xshashlarni) shakllantiradi. Amalga oshirilishi uning ishtirokchilari hayotiy faoliyatini ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan to'lanmagan ishlar salmog'ining ancha kattaligi uy xo'jaligining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biridir. To'langan va to'lanmagan ishlar ko'rinishlari o'rtasidagi nisbat tarixiy jihatdan o'zgarib boradi va u uy xo'jaligining ijtimoiy tarkibi hamda butun jamiyatning ijtimoiy rivojlanish darajasiga bog'liq.

Uy xo'jaligi tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qilinadigan me'yorlar va qoidalar tashqi omillar ta'siri natijasida shakllanadi. Bunday tashqi omillarga quyi-dagilar kiradi:

- ijtimoiy munosabatlarni me'yoriy-huquqiy tartibga solish;
- umumiy iqtisodiy vaziyat;
- tarkibiy o'zgarishlar;
- inflyatsion kutishlar;
- investitsion muhit;
- davlatning ijtimoiy siyosati;
- va boshqalar.

Tashqi omillar moliyaviy qaror qabul qilishda institutsional chegaralarni aniqlab beradi. Bir vaqtning o'zida, iqtisodiy faoliyatning sub'yekti sifatida uy xo'jaliklari maqsad va unga erishish vositalarini tanlashda mustaqil hisoblanadilar va qabul qilingan iqtisodiy va moliyaviy qarorlar uchun mas'uldirlar (javobgardirlar).

Uy xo'jaligining moliyaviy xatti-harakati quriladigan ichki me'yorlar tizimi quyidagilarga bog'liq:

- sotsio-madaniy muhit, xususan, sotsial holati, savod-xonlik darajasi, uy xo'jaligidan tashqaridagi va uning ichidagi sotsial aloqalar, dam olish shakllari va boshqa-larga;
- uy xo'jaligi faoliyatining iqtisodiy va huquqiy tavsifnomasi, shu jumladan, iqtisodiy xatti-harakatning tipiga (o'z-o'zini ta'minlash, hayot uchun kurash yoki rivojlanish rejimiga), tadbirkor maqomining yuridik jihatdan rasmiylashtirilganligiga va boshqalarga;
- axloqiy printsiplarga, shaxsiy salohiyatiga – bunga fikr yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, risk tomon qadam tashlashga qodirligi va h.k.lar kiradi.

Uy xo'jaligining moliyaviy qarorini resurs jihatdan ta'minlash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiri-ladi:

- dastlabki (boshlang'ich) manbalar;
- jamg'ariladigan manbalar;
- joriy manbalar.

Resurslar dastlabki (boshlang'ich) manbalarining tarkibi meros bo'yicha yoki ko'chmas mulk, naqd pullar, moliya-viy aktivlarning hadya etilishi natijasida berilgan boyliklarning turli moddiy shakllaridan iborat. Uy xo'jaliklarining jamg'armalari va investitsion qo'yilma-lari resurslarning jamg'ariladigan manbasini tashkil etadi. Resurlarning joriy manbalariga doimiy tushilma-lar (mehnat haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar, sotsial transfertlar) va bir martalik xarakterga ega bo'lgan pulli daromadlar (masalan, iste'mol krediti, lotereyadagi yutuqlar) kiradi.

Kerakli fondlarni shakllantirish uchun uy xo'jaligi-ning ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'larining barcha manbalari uy xo'jaligining moliyaviy resurslarini tashkil etadi. Funktsional mo'ljallanganligiga ko'ra uy xo'jalik-larining moliyaviy resurslari quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi mumkin:

- joriy xarajatlar uchun mo'ljallangan pul mablag'lari – oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlarini (poyafzal, ust-bosh) sotib olish xara-jatlari, davriy ravishda iste'mol qilinadigan xizmat-larning haqi va h.k.;
- kapital xarajatlar uchun mo'ljallangan pul mablag'lari – uzoq davr foydalanishga mo'ljallangan tovarlar (mebel, uy-joy, transport vositalari) uchun xarajatlar, uy xo'jaligi a'zolari tomonidan iste'mol qilinadigan xizmatlarning (maorif, tibbiy xizmat ko'rsatish, sayyohlik yo'llanmalari) haqini to'lash;
- pul jamg'armalari.

Uy xo'jaliklari ma'lum davrdagi moliyaviy qarorla-rining majmui ularning moliyaviy xatti-harakatini bel-gilab (aniqlab) beradi. Moliyaviy qarorlarni qabul qilishda sub'yektiv motivlar, ustuvorliklar va cheklanmalar rolining katta bo'lganligi uchun bunday xatti-harakat juda xilma-xildir. Buning ustiga, uy xo'jaliklarining moliyaviy xatti-harakati dinamikali, tez o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Shu munosabat bilan uy xo'jaliklarining moliyaviy qarorlari miqdoriy va sifat pozitsiyalaridan (shu jumladan, marketingli), iqtisodiyot, sotsiologiya va sotsial psixologiya nuqtai-nazarlaridan tadqiq etiladi. Bu narsa uy xo'jaligining jamg'arma va investitsion salohiyatini o'rganish, uning iste'mol, qarz va kreditga oid xatti-harakatini tahlil qilish uchun zarur. Jahon amaliyotida bunday tadqiqotlar ijtimoiy ustuvorlik, fikr va kutilmalarda sodir bo'layotgan transformatsiyalanishni aniqlash maqsadida doimiy ravishda olib boriladi.

Uy xo'jaligidagi moliyaviy qarorlar, qanday bo'lishidan qat'iy-nazar, baribir ularning pul fondlarini shakl-lantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Shu nuqtai-nazardan, uy xo'jaliklarining moliyaviy qarorlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan quyidagi bloklarni qamrab oladi:

- uy xo'jaligining daromadlarini shakllantirish;
- iste'mol xarajatlarining hajmi va tarkibiy tuzil-masi (uy xo'jaligining iste'mol fondi);
- jamg'ariladigan fondlarni yaratish imkoniyati va zarurligi.

Yuqorida keltirilgan ikkinchi va uchinchi yo'nalishlar, ko'rinib turibdiki, pul fondlaridan foydalanishga doir moliyaviy qarorlarni qamrab oladi. Endi har bir blokka (yo'nalishga) tegishli bo'lgan uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Yakuniy iste'molning manbai va xarajatlarda byudjet cheklanmalarini aniqlab berganligi uchun uy xo'jaliklarida daromadlarni shakllantirish jarayoni[136] printsipial jihat-dan muhim ahamiyatga ega. Daromadlar qancha ko'p bo'lsa, uy xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari shuncha yuqori va moliyaviy qarorlar diapazoni shuncha keng bo'ladi. Moliyaviy qarorlar uy xo'jaliklarining aktivlarini hisobga olgan holda kelgusi davr daromadlarining tarkibiy tuzilmasini shakllantirishga ham tegishli bo'lishi mumkin.

---

[136] Gap bu erda uy xo'jaliklarining sof daromadi, ya'ni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyingi daromadi xususida ketayapti. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha moliyaviy qarorlar uy xo'jaliklarining vakolatiga kirmaydi va ular mavjud me'yoriy-huquqiy bazasiga (asosga), aholining ijtimoiy madaniyati va fuqarolik majburiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklarining daromadlarini shakllantirish bo'yicha moliyaviy qarorlar qabul qilish asosida mulkchilik munosabatlari yotadi. Ishlab chiqarish omillariga nisbatan bo'lgan mulkchilik daromadlarni funktsional (birlamchi) taqsimlanishini aniqlab beradi va uy xo'jaliklari moliyaviy salohiyatining o'sishi uchun iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bir vaqtning o'zida daromadning funktsional taqsimlanishi yollanib mehnat qiluvchi shaxs va kapital egasining sotsial maqomi bir tarzda (bir xilda) identifikatsiya qilingan sharoitdagina uni fuqarolar o'rtasida real taqsimlanishini ifodalaydi. Chunki zamonaviy iqtisodiy tizimlarning o'ziga xos xususiyati sotsial maqomning aralashib (qorishib) ketganligi bilan xarakterlanadi. Unga ko'ra, yollanma ishchilar qimmatli qog'ozlarning turli ko'rinishlarini egallab, kapitalning egasiga aylanishi, ko'chmas mulkka ega bo'lib, o'zining biznesini tashkil qilishi mumkin. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, uy xo'jaliklari darajasida daro-madlarni shakllantirish bo'yicha moliyaviy qarorlar quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- mol-mulk va undan foydalanish (buyumlashgan yoki pul shaklida) imkoniyatining mavjudligiga;
- uy xo'jaligi ishtirokchilari ish vaqti fondining taqsimlanishiga – uy xo'jaligi a'zolari ishlovchilarining soni, ularning ish joylari, ish vaqti rejimi va h.k.;
- uy xo'jaligi a'zolarining tashabbuskorligiga, faolli-giga va inson kapitalidan foydalanishga;
- uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatadigan tashqi muhitga.

Daromadlarni shakllantirish omillari va baholarning darajasi bu yerda cheklanmalar sifatida amal qiladi, ya'ni iste'mol tanlanmasining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan variantlari majmuini belgilab beradi. Ana shu nuqtai-nazardan uy xo'jaliklarining iste'mol fondi minimal va ratsional iste'mol byudjetlari yoki yanada detallash-tirilgan tarzda quyidagicha klassifikatsiya qilinishi mumkin:

- hayotiy minimum byudjeti;
- minimal iste'mol byudjeti;
- optimal iste'mol byudjeti.

Hayotiy minimum byudjeti o'z ichiga uy xo'jaligi a'zolarining minimal, odatda, fiziologik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovar-lari va xizmatlari to'plamini qamrab oluvchi iste'mol savatchasi asosida aniqlanadi.

Minimal iste'mol byudjeti uy xo'jaligi a'zolarining nisbatan kengroq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi va iste'molning tiklanuvchi darajasini ta'min-laydi.

Optimal iste'mol byudjeti esa uy xo'jaligi doirasida inson kapitalini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash va rivojlantirishga moliyaviy imkoniyat yaratadi. Chunki bu byudjet insonning faqat zaruriy ehtiyojlarini emas, balki undan ham yuqoriroq bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Optimal iste'mol byudjetini quyidagi ikki darajadagi byudjetlarga ajratish mumkin:

- o'rtacha darajadagi etarlilik byudjeti;
- yuqori darajadagi etarlilik byudjeti.

Iste'molga xarajatlarning har qanday ko'rinishi va uning umumiy hajmiga oid har qanday moliyaviy qarorlar uy xo'jaliklari ma'lum ko'rinishdagi byudjetlari doirasidagi ratsional tanlashga asoslanadi. Agar uy xo'jaligining daromadi faqat hayotiy minimumni qoplashga etadigan bo'lsa, u holda moliyaviy qarorlar uy xo'jaligi iste'mol fondini minimallashtirishga va bir vaqtning o'zida daromadlarning yangi manbalarini qidirib topishga hamda hayot kechirishning moslashtirilgan mexanizmlarini (o'z-o'zini ta'minlash, ikkilamchi bandlik, qarindoshlar va davlatning yordami, mayda-chuyda savdo va boshqalar) "yoqish"ga qaratilgan bo'lishi kerak. Daromadlarning o'sishi bilan iste'molning hajmi oshadi va uning tarkibiy tuzilmasi o'zgaradi. Biroq, bu holda ham iste'molning o'sish sur'atlari daromadning o'sish sur'atlaridan pastligicha qolaverishi lozim. Bunday qonuniyat iqtisodiy adabiyotda J.M.Keyns[137] tomonidan ifodalangan "asosiy psixologik qonun" nomini olgan. Moliyaviy qarorlarda bu uy xo'jaligi iste'mol fondi va jamg'armalar yo'nalishini optimal-lashtirish tendentsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Jamg'ariladigan fondlarni shakllantirish bo'yicha uy xo'jaliklarining moliyaviy qarorlari ishlab chiqilib, qabul qilinayotgan paytda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

- ega bo'lingan daromad pasaygan paytda joriy iste'-molning odatdagi darajasini saqlab turish uchun sug'urta rezervlari yaratishning zarurligi;
- uzoq muddatga foydalanishga mo'ljallangan qimmat turuvchi predmetlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan kapital xarajatlar darajasini oshirish uchun pul rezerv-larini yaratish kerakligi;
- pensiya rezervlarining lozimligi;

[137] Qarang: Keyns Dj.M. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – M., 1999. s.96.

- uy xo’jaligining daromadlilik darajasini oshirish maqsadida kelgusida investitsiyalashtirish uchun pul fondini vujudga keltirishning zarurligi.

Daromadlar va ustuvor yo’nalishlarni shakllantirish hamda ulardan foydalanishda umumiqtisodiy o’lchamlardan (parametrlardan) tashqari uy xo’jaligining iste’mol va moliyaviy xatti-harakatida, jamg’ariladigan fondlarni yaratishda sotsial va psixologik jihatlar muhim rol o’ynaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

- davlat va moliyaviy institutlarga nisbatan bo’lgan ishonch darajasi;
- o’tmishdagi (oldingi yillardagi) moliyaviy xatti-harakat tajribasi va uning sub’yektiv bahosi;
- asosiy moliyaviy instrumentlarni bilish;
- qo’yilmalarning imkoniyatlari to’g’risida ma’lumotlarga egalik qilish.

Jamg’ariladigan fondlarni shakllantirish bo’yicha uy xo’jaliklari moliyaviy xatti-harakatlarining o’ziga xos xususiyatlari jamg’arma strategiyalarining elementlari va turlarini ajratib ko’rsatishga imkon beradi. Uy xo’ja-ligining har qanday jamg’ariladigan strategiyasi mustaqil bo’lgan uch komponetdan tarkib topadi:

- jamg’arish me’yori, ya’ni uy xo’jaligi jami daromadining jamg’arishga yo’naltiriladigan ulushi asosida jamg’arishning amalga oshirilishi;
- risk va daromadlilikning diversifikatsiyalanish miq-dorlarini hisobga olgan holda investitsion instrumentni tanlash;
- pul mablag’larini joylashtirish muddatlari.

Yuqoridagi ko’rsatkichlarning kombinatsiya qilinishi uy xo’jaligining jamg’arish strategiyasini belgilab beradi. Uning quyidagi turlari bo’lishi mumkin:

- “0”li strategiya – jamg’arish amalga oshirilmaydi, barcha daromadlar joriy ehtiyojlarni qondirishga yo’naltiriladi;
- yuqori risk strategiyasi – qo’yilmalar faqat yuqori riskli moliyaviy aktivlarga yo’naltiriladi;
- real strategiya – mablag’lar past va bo’lishi mumkin bo’lgan riskli aktivlarga qo’yiladi, risklar diversifikatsiya qilinadi.

Uy xo’jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga, shuningdek, bank tizimi va moliyaviy bozor-larning rivojlanganlik darajasi, ya’ni tashqi muhit ham keskin ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bunda qimmatli qog’ozlar bozoridagi operatsiyalar, bank

operatsiyalari, pensiya ta’minoti, sug’urta ishi va shu kabilarning huquqiy jihatdan ta’minlanganlik darajasi ham muhim rol o’ynaydi.

Hozirgi paytda turli moliyaviy instrumentlarning daromadlik darajasida bir-birlariga yaqinlashish tenden-tsiyasi paydo bo’layapti. Bu qo’yilmalar riskini pasaytirish va moliyaviy aktivlar portfelining barqarorligini oshirish maqsadida uy xo’jaliklari aktivlari portfelini diversifikatsiyalashga asoslangan real jamg’arish strategiyasining shakllanganligida namoyon bo’lmoqda.

25.3. Uy xo’jaliklari daromadlari

Ma’lum bir davrda uy xo’jaliklarining ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag’lari summalari ularning daro-madlari deyiladi. Bunday daromadlar turli shakllarda namoyon bo’ladi, miqdoriy va sifat ko’rsatkichlari tizimi bilan o’lchanadi, iqtisodiy mazmuniga ko’ra turli manba-lardan tashkil topadi.

Eng umumiy ko’rinishda, uy xo’jaliklarining jami daro-madlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- uy xo’jaliklarining natural shakldagi daromadlari;
- uy xo’jaliklarining pul shaklidagi daromadlari.

Natural daromadlar tovar shakliga ega emas va ular o’z-o’zini ta’minlashga mo’ljallangan uy xo’jaligi a’zolari mehnatining natijasidan iborat bo’ladi. Ularning tarki-biga quyidagilar kirishi mumkin:

- tomorqadan olingan mahsulotlar;
- uy xo’jaliklarida iste’mol qilinadigan va qishloq xo’jaligi korxonalaridan olingan natural to’lovlar.

Rasmiy (shakliy) belgisiga ko’ra (mablag’lar tushumining natural shakli bo’yicha) uy xo’jaliklari daromadlarining bu guruhiga natural shakldagi sotsial transfertlarni va ish beruvchi tomonidan taqdim etilgan (berilgan) natural ko’rinishdagi imtiyozlarni ham kiritish mumkin. Biroq moliyaviy nuqtai-nazardan, bu mablag’lar uy xo’jalik-larining o’z-o’zini ta’minlash funksiyasini ifodalovchi natural daromadlar bo’la olmaydi va ular pul mablag’-larining defitsitligi sharoitida kompensatsion instru-mentlar sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, uy xo’jaliklarining jami daromad-larida natural daromadlarning salmog’i uncha katta bo’lmagan qismni tashkil etadi. Shunday bo’lishiga qaramas-dan, uning salmog’i alohida olingan uy xo’jaliklarining an’analari, ustuvorliklari, afzal-liklari, demografik va ijtimoiy tavsifnomalariga muvofiq ravishda

o’zgarib turishi mumkin. Shu munosabat bilan qayd etish joizki, aholining kambag’al qatlamlari va qishloq aholisida natural daromadlarning salmog’i an’anaviy ravishda nisbatan yuqoriroq bo’ladi. Bir vaqtning o’zida uy xo’jaligining naturallashganligi tashqi muhitning (masalan, urushlar davrida, tizimli transformatsiyalanish jarayon-larida va h.k.) noqulay shart-sharoitlariga o’ziga xos tarzda moslashish mexanizmi ham bo’lib hisoblanadi.

Turli manbalar hisobidan uy xo’jaliklarining ixti-yoriga kelib tushuvchi pul mablag’larining barcha summasi pul daromadlari deyiladi. Bozor munosabatlari taraqqiy etgan sharoitda aynan pul daromadlari uy xo’jaliklarining hayotiyligini ta’minlash va ular rivojlanishining asosi hisoblanadi. Uy xo’jaliklari pul daromadlarini tahlil qilishning asosi aholining shaxsiy daromadlari hisob-lanadiki, ular quyidagi ko’rsatkichlar yordamida hisob-lanadi:

- nominal daromadlar;
- ega bo’lingan daromadlar;
- real daromadlar.

Uy xo’jaligi a’zolarining ma’lum davrdagi shaxsiy daromadlari majmuining puldagi ifodasi nominal daromadlar deyiladi. Bu ko’rsatkich soliqqa tortish darajasi va baholar dinamikasiga bog’liq bo’lmagan holda daromadlarni tavsiflaydi. Uy xo’jaliklari nominal daromadlarining YaIMdagi salmog’i har bir mamlakat iqti-sodiyotining rivojlanish darajasi va ichki xususiyatlariga bog’liq bo’lib, taraqqiy etgan mamlakatlarda uning darajasi 65-75% atrofida tebranadi. Bir vaqtning o’zida, hisoblangan nominal daromadlar va haqiqatda olingan nominal daromadlar o’rtasidagi farqni anglamoq ham lozim. Ular bir-birlaridan shu davrda hisoblangan, lekin to’lanmagan daromadlar, shuningdek, o’tgan davrlar uchun qarzlarning qaytarilishi natijasida olingan daromadlar summasiga farq qiladi. Ish haqi bo’yicha to’lash muddati o’tib ketgan qarzdorlikning mavjud bo’lishi bozor iqtisodiyotiga yaqinda o’tgan mamlakatlar uchun dolzarb muammolardan biridir.

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar to’langanidan so’ng uy xo’jaligining ixtiyorida qoladigan daromadlarning puldagi ifodasi uy xo’jaligining ega bo’lingan daromadi deyiladi. Bu daromad yakuniy iste’mol va jamg’arish uchun mo’ljallangan. Yoppasiga hisoblanganda ega bo’lingan daromad aholining ixtiyoriga borib tushuvchi YaIMning tegishli qismiga mos keladi. Uy xo’jaliklari ega bo’lingan daromadlarining o’sishi aholining moliyaviy imkoniyat-larini salohiyatli ravishda kengaytiradi, ishlab chiqarishni

rag’batlantirishning bozor mexanizmlarini faollashtiradi. Rivojlangan mamlakatlarda uy xo’jaliklari ega bo’lingan daromadlarining YaIMdagi salmog’i 70%ni tashkil etayapti.

Baholar darajasiga nisbatan o’zgartirilgan (korrekti-rovka qilingan) ega bo’lingan daromad uy xo’jaliklarining real ega bo’lingan daromadi deyiladi. Bu ko’rsatkich nominal daromadlarning real sotib olish qobiliyatini o’zida aks ettiradi. Uning o’zgarishi esa, ma’lum davrdagi ega bo’lingan daromadlar va iste’mol baholari indeksi (yoki baholar indeksiga teskari bo’lgan pulning sotib olish qobiliyati indeksi) o’sish sur’atlarining nisbatiga bog’liq bo’ladi. Agar baholarning o’sish sur’ati nominal ega bo’lingan daro-madlarning o’sish tezligidan past bo’lsa, uy xo’jaliklarining real ega bo’lingan daromadlari o’sadi. Baholarning yuqori sur’atlarda o’sishi sharoitida real daromadlar qisqaradi. Bu holat, o’z navbatida, aholi iste’mol talabi va sotib olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bu jarayon iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi ishbilarmonlik faol-ligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Uy xo’jaliklarining pul daromadlari turli manbalar hisobidan shakllanadi va ularning byudjetlariga kelib tushadi. Ularning eng asosiylari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnat haqi;
- ijtimoiy to’lanmalar;
- tadbirkorlik faoliyatidan keluvchi daromadlar;
- mol-mulkdan keluvchi daromadlar.

Mehnat (ish) haqining tarkibiga quyidagilar kiradi:

- bajarilgan ishlar bahosi, tarif stavkalari va mansab ish haqlari bo’yicha ish haqining hisoblangan summalari;
- rag’batlantiruvchi ustama va qo’shimchalar;
- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog’liq bo’lgan kompensatsion to’lanmalar;
- mukofotlar va bir martalik rag’batlantiruvchi to’lan-malar;
- har yillik va qo’shimcha mehnat ta’tillariga haq to’lash-lar;
- safar xarajatlari;
- berilgan maxsus kiyim-bosh va maxsus ovqatlanishning qiymati;
- va boshqalar.

Uy xo’jaliklari daromadlarining tarkibiy tuzilmasida mehnat haqi asosiy o’rinni egallaydi. Shunday bo’lishiga qaramasdan, bozor munosabatlariga o’tilishi bilan uy xo’jaliklari daromadlarining tarkibida uning salmog’i biroz pasaydi. Bu mehnat munosabatlari va

moliyaviy munosabatlar tizimida sodir bo'lgan sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bir tomondan, qisman ish haqining o'rnini bosuvchi va undan hayot kechirishning yagona manbai sifatidagi yuklamani olib tashlovchi yangi imkoniyatlar (masalan, moliya sohasida) va daromadlarning yangi manbalari (masalan, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi) paydo bo'ldi.

Boshqa bir tomondan esa, ishsizlik, ish haqining past darajasi, uni tartibga solishning etarli darajada samarali bo'lmagan davlat siyosati, xufyona iqtisodiyot hajmining o'sishi mehnatga haq to'lashning yashirin, rasmiy ravishda hisobga olinmagan shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi[138]. Iqtisodiyot tarmoqlari (masalan, neft-gaz sanoatida ish haqining darajasi maorif va qishloq xo'ja-ligidagi uning darajasidan bir necha barobar yuqori) va turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar (xususan, boshqa mulkchilik sohalari korxonalaridagi ish haqiga nisbatan byudjet sohasining korxonalarida ish haqi ancha past) bo'yicha ish haqining tabaqalanishi[139] o'tkir muammoga aylan-gan.

Mehnatga haq to'lashning quyi chegarasi davlat tomonidan o'rnatiladi va uni davlat mehnatga haq to'lashning minimal miqdori (MHTMM) deb qayd etadi. MHTMMning tarkibiga ustamalar, mukofotlar va boshqa rag'batlantiruvchi to'lan-malar kiritilmaydi. Byudjet manbalari hisobidan moliya-lashtiriladigan tashkilotlar uchun MHTMM tegishli byudjet-lar hisobidan, boshqa sub'yektlar uchun esa ularning o'z manbalari hisobidan ta'minlanadi.

Byudjet sohasi xodimlarining mehnatiga haq to'lash hozirgi paytda isloh qilinmoqda. Bu narsa ushbu sohada yig'ilib qolgan muammolar bilan (mehnatga haq to'lashning xodimlar malakasi va ular ishlarining haqiqiy natijalari bilan kuchsiz bog'langanligi, markazdan turib byudjet sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash jarayoni ustidan to'liq nazoratni amalga oshirishning iloji yo'qligi va boshqalar) bog'liqdir.

---

[138] Ish haqining yashirin shakllariga quyidagilar kirishi mumkin: a) to'lov hujjatlarini rasmiylashtirmasdan turib pul tushumlaridan to'lanmalar; b) sug'urta tizimi va banklarning depozit hisobvaraqlaridan beriladigan pul yordamlari, kreditlar va to'lanmalar; v) xodimlarga ko'chmas mulk, uzoq muddatlarda foydalanilishi mumkin bo'lgan predmetlarni sotib olish yo'li bilan natural shaklda beriladigan to'lanmalar; g) va boshqalar. Rasmiy statistikada mehnatga haq to'lashning xufyona shakllarining miqdori bilvosita, balans metodi yordamida aholining pul xarajatlari va jamg'armalari hamda rasmiy hisobga olingan daromadlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanishi mumkin.

[139] Buning aynan shunday ekanligiga ishonch hosil qilish uchun quyidagi holatga e'tibor berishning o'zi etarli: mamlakatimizda ayni davrda moliya-bank sohasidagi o'rtacha oylik ish haqi boshqa sohalardagi o'rtacha ish haqiga nisbatan yuqoriroq. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hatto shu sohaning o'zida mehnatga haq to'lash bo'yicha keskin tebranish bo'layotganligini aniqlashimiz mumkin. Xususan, davlat mulkiga tegishli bo'lgan moliyaviy muassasalarda ish haqining darajasi aralash va hamkorlikdagi mulkchilik shaklida bo'lgan xuddi shunday muassasalardagi ish haqidan ancha pastdir.

Ijtimoiy to'lanmalar (sotsial transfertlar) o'zining ahamiyatiga ko'ra uy xo'jaliklari pul daromadlarining tarkibiy tuzilmasida ikkinchi o'rinni egallaydi. Ularni turli belgilar va asoslar bo'yicha tasniflash (klassi-fikatsiya qilish) mumkin. Xususan, tasniflash me'zonlari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish maqsadga muvofiqdir:

- iqtisodiy mazmuniga ko'ra;
- ijtimoiy to'lanmalarning shakli bo'yicha;
- moliyalashtirish manbalariga ko'ra.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ijtimoiy to'lanmalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- mehnat pensiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lanmalar - mehnat, sotsial va harbiy pensiyalar;
- ijtimoiy xarakterdagi to'lanmalar – kam ta'minlangan oilalarga, bola parvarishi bo'yicha, homiladorlik va tug'ish bo'yicha);
- individual foydalanish xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan to'lanmalar – sog'liqni saqlash, maorif, boshqa notijorat tashkilotlar xizmatlarini to'lash;
- cheklangan harakatga ega bo'lgan to'lanmalar – ishsizlik bo'yicha nafaqalar, stipendiyalar.

O'zlarining shakli bo'yicha ijtimoiy to'lanmalar quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin:

- pensiyalar – mehnat, sotsial va harbiy pensiyalar;
- nafaqalar – kam ta'minlangan fuqarolarga nafaqalar, onalik nafaqasi, ishsizlik bo'yicha nafaqa va boshqalar;
- stipendiyalar – oliy, o'rta-maxsus va kasbiy ta'lim, kurslar o'quvchilariga, tayanch doktorant va doktorantlarga stipendiyalar;
- imtiyozli to'lanmalar, kompensatsiyalar, subsidiyalar – uy-joy-kommunal xizmatlariga, transport xizmatlari, sanatoriy-kurort davolashlari va davolash vositalari bilan ta'minlash xizmatlarini to'lash, uy-joy sotib olishga subsidiya va boshqalar;
- sug'urta qoplamalari – ko'zda tutilmagan sabablar bo'yicha sug'urta hodisasi ro'y bergandagi to'lanmalar;
- moddiy yordam – ishsizlar, qochoqlar va majburiy ko'chib o'tganlarga bir martalik to'lanmalar va boshqalar.

Moliyalashtirish manbalariga ko'ra ijtimoiy to'lanma-larning quyidagi ko'rinishlari bor:

- barcha darajadagi byudjetlardan moliyalashtiriladigan ijtimoiy to'lanmalar: respublika byudjetidan – urush ishtirokchilari va nogironlarini, jangovor harakatlar faxriylarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-lari; mintaqaviy va mahalliy byudjetlardan –

mehnat faxriylari, front orti mehnatkashlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash choralari, turli xildagi ustama va qo'shimchalar;

- byudjetdan tashqari davlat maxsus fondlarining byud-jetlaridan moliyalashtiriladigan ijtimoiy to'lanma-lar: Pensiya fondining byudjeti hisobidan – mehnat, ijtimoiy pensiyalar, harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga pensiyalar; Ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari hisobidan – vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yuqotganligi uchun nafaqalar, oilaviy va onalik nafaqalari va h.k.
- korxonalarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiri-ladigan ijtimoiy to'lanmalar – pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqadiganlarga bir martalik nafaqalar va bosh-qalar;
- kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan moliyalash-tiriladigan ijtimoiy to'lanmalar – oilaviy holatlarga ko'ra turli bir martalik nafaqalar va boshqalar.

Yaxlit olinganda uy xo'jaliklari daromadlarining sotsial to'lanmalar ko'rsatkichi pensiyalar, nafaqalar, sti-pendiyalar, boshqa sotsial va sug'urta tushilmalarini o'zida birlashtiradi. Sotsial to'lanmalarni moddiy-buyumlashgan tarkibiga ko'ra uch ko'rinishga ajratish mumkin:

- pul mablag'lari bilan yordamlashuv;
- imtiyozlar;
- natural ko'rinishdagi yordam.

Bu sohadagi barcha imtiyozlarni qonuniy tarzda tartibga keltirish eng kamida quyidagi uch vazifaning echilishini ko'zda tutadi:

- imtiyozlarning taqdim etilish shakllarini o'zgartirish (natural imtiyozlarni pul kompensatsiyalari bilan almash-tirish) va byudjet resurslarining cheklanganligi uchun moliyalashtirilishining iloji bo'lmagan ko'plab imtiyozlarni bekor qilish;
- ob'yektiv ravishda muhtoj bo'lgan, kasbiy me'zonlari va alohida xizmatlari belgilari bo'yicha manzilli qo'llab-quvvatlashga o'tish;
- sotsial qo'llab-quvvatlash choralarining moliyalashtirish manbalarini qat'iy chegaralash.

Yuqorida keltirilgan vazifalarning bajarilishi sotsial transfertlarni (to'lanmalarni) taqdim qilishning yangi modellariga o'tishning samarali adaptatsion (mosla-shuvchan) shakllaridan foydalanishni talab qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar uy xo'jaliklari daromadlarining tarkibiy tuzilishida navbat-dagi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bunday daromad-larning tarkibiga xususiy biznesni

yuritish va uy xo'jali-gida to'plangan mulkning (boylikning) kamayishi bilan bog'liq bo'lmagan holda vujudga keluvchi daromadlarning har qanday shakllari kiradi. Bu daromadlar biznesning tashkil qilingan (qayd etilgan korxona) va tashkil qilinmagan shakllari doirasida vujudga keladi.

Keyingi yillarda uy xo'jaliklarining daromadlari tarkibida mulkdan olinadigan daromadlarning salmog'i oshib borayotir. Bunday daromadlar uy xo'jaliklarining mulkida bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy noishlab chiqarish aktivlaridan foydalanish natijasida vujudga keladigan pul daromadlaridan iborat. Bunda moliyaviy aktivlardan olinadigan daromadlar pul mablag'larini bank omonat-lariga, qimmatli qog'ozlarga, xorijiy valyutalar bilan operatsiyalarga joylashtirish natijasida vujudga keladi. Nomoliyaviy noishlab chiqarish aktivlardan olinadigan daromadlar uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan uy-joy bino-lari va er uchastkalarini sotish yoki ijaraga berish natijasida paydo bo'ladi.

Shunday qilib, ko'rinib turibdiki, uy xo'jaliklarining mulkdan olinadigan daromadlari quyidagi ko'rinishlarda amal qiladi:

- foizlar;
- dividendlar;
- rentalar.

Moliyaviy vositachilik, fond bozori, patent huquqi bozori, xususiy mulkchilik, shu jumladan, erga bo'lgan xusu-siy mulkchilikning rivojlanishi uy xo'jaliklari daromad-larining umumiy summasida mulkdan olinadigan daromad-larning yanada o'sishiga olib kelishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklari turli guruhlari daromadlarining tarkibi, tarkibiy tuzilmasi va dinamikasi bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bunda daromadlarning tabaqa-lanishi juda ko'p ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Ularning eng asosiylari quyidagi-lardir:

- mulkchilik omili (uning noteng taqsimlanganligi);
- oilaviy sotsioiqtisodiy ahvol (oilaning kelib chiqishi, a'zolar soni, ijtimoiy maqomi, to'plangan boyligi;
- inson kapitaliga qo'yilmalar (ma'lumoti, malakasi, kasbiy mahorati, ularning o'sish salohiyati).

Farovonlikning umumiy darajasiga bog'liq bo'lmagan holda daromadlarning tabaqalanganligi barcha mamlakatlar uchun xos. Jamiyatda jami daromadlarning taqsimlanishi-dagi notenglikni Jini koeffitsienti (daromadlarning kontsentratsiyalashuvi indeksi) yaqqol

ko’rsatadi. Uning umumiy ko’tarilishi (yuqoriligi) jamiyatning chuqur ijtimoiy qatlamlarga bo’linganligidan darak beradi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning o’sishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda barqaror ijobiy tendentsiyalarning shakl-lanishi, daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish-ning samarali instrumentlari, kambag’allikni ogohlantirish mexanizmlari uy xo’jaliklarida ega bo’lingan real pul daromadlarining o’sishiga, daromadlarning notengligi muammosini yumshatishga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

25.4. Uy xo’jaliklari xarajatlari

Uy xo’jaliklari tomonidan iste’molga, majburiy to’lovlarni amalga oshirishga va jamg’arishga yo’naltiri-ladigan pul mablag’lari uy xo’jaliklari byudjetlarining xarajatlar qismini tashkil etib, ularning xarajatlari deyiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda uy xo’jaliklarining xarajatlari quyidagi omillar bo’yicha tasniflanadi (klassifikatsiya qilinadi):

- davriylik nuqtai-nazaridan;
- xarajatlarning turlari bo’yicha;
- xarajatlarning funktsional mo’ljallanganlikka bog’liq-ligiga ko’ra;
- majburiylik darajasi bo’yicha;
- to’lovlarning avtonomlilik xarakteriga ko’ra;
- iste’mol va jamg’arishga yo’naltirilayotgan real pul xarajatlarining turlari bo’yicha.

Davriylik nuqtai-nazaridan uy xo’jaliklarining xara-jatlari quyidagilarga bo’linadi:

- qisqa muddatli xarajatlar;
- o’rta muddatli xarajatlar;
- uzoq muddatli xarajatlar.

Xarajatlarning turlari bo’yicha uy xo’jaliklarining xarajatlari quyidagilardan tarkib topadi:

- joriy xarajatlar;
- kapital xarajatlar.

Uy xo’jaliklarining xarajatlari funktsional mo’ljal-langanligiga ko’ra quyidagilardan iborat:

- shaxsiy iste’mol xarajatlari;
- soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar;
- pul to’planmalari va jamg’armalar.

Avtonomlilik xarakteriga ko’ra uy xo’jaliklarining xarajatlari ikkiga bo’linadi:

- daromadlarning hajmiga bog'liq bo'lmagan va hayotiy minimum darajasiga rasman muvofiq keluvchi avtonom (qat'iy) xarajatlar;
- daromadlarning dinamikasiga bog'liq bo'lgan elastik xarajatlar.

Ayrim hollarda uy xo'jaliklari xarajatlarining ana shunday tasniflanishi (klassifikatsiya qilinishi) doirasida kam elastikli xarajatlar alohida guruhga ajratiladi va uning tarkibiga uy-joy kommunal xizmatlari va transport chiqimlarini to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiri-tiladi.

Real pul xarajatlarining turlari bo'yicha ham uy xo'jaliklarining xarajatlari ikki guruhdan tashkil topadi:

- iste'molga yo'naltirilgan xarajatlar;
- jamg'arishga yo'naltirilgan xarajatlar

Uy xo'jaliklarining iste'molga yo'naltirilgan xarajat-lari (iste'mol xarajatlari) ular tomonidan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga sarf qilinadigan ega bo'lingan daromadning bir qismidan iborat. Iste'mol xarajatlarining miqdori quyidagilarga bog'liq:

- ega bo'lingan daromadga;
- baholar darajasiga;
- iste'molchilarning mol-mulklariga;
- real foiz stavkalariga;
- iste'mol bo'yicha qarzdorlikning miqdoriga;
- iste'molchilarning soliqqa tortilish darajasiga.

Uy xo'jaliklari byudjetlaridagi iste'mol xarajatlari sub'yektiv omillarga ham ta'sirchan bo'lib, ularning orasi-dan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- iste'mol qilishga bo'lgan intilishning chegarasi;
- baholarning o'zgarishiga nisbatan iste'molchilarning kutuvchanligi;
- pul daromadlari;
- soliqlar;
- tovarlarning mavjudligi;
- va boshqalar.

Makroiqtisodiy nuqtai-nazardan uy xo'jaliklari byud-jetlarining iste'mol xarajatlari ikki eng muhim xususiyatga ega:

- birinchidan, iste'mol xarajatlari yalpi mahsulot doi-raviy aylanishi modelida yalpi talab va yalpi xara-jatlarni tashkil qilishning eng katta qismi hisoblanadi;
- ikkinchidan, uy xo'jaliklari byudjetlarining iste'mol xarajatlari qisqa muddatli davrda bandlik va inve-stitsiyalar darajasini tartibga

solish orqali ta’sir etish mumkin bo’lgan yalpi talabning nisbatan barqaror tarkib toptiruvchisidir.

Uy xo’jaliklari byudjetlari xarajatlari tarkibi, tarkibiy tuzilmasi va dinamikasini tahlil qilish, odatda, aholining daromadlari va xarajatlari balansi asosida amalga oshiriladi. Bu balansning eng umumiy ko’rinishi quyidagicha bo’lishi mumkin:

Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi

Daromadlar	Xarajatlar va jamg’armalar
1. Mehnatga haq to’lash	1. Tovarlarni sotib olish va xizmatlarni to’lash
2. Mehnat haqidan boshqa korxona va tashkilotlardan olinadigan yollanma ishchilarning daromadlari	2. Majburiy to’lovlar va ixtiyoriy badallar: a) soliqlar va yig’imlar; b) sug’urta bo’yicha to’lovlar; v) jamoatchilik va kooperativ tashkilotlarga badallar; g) ssudalarni qaytarish; d) lotereya chiptalarini sotib olish; e) tovar krediti uchun foizlar; yo) pensiya fondlariga sug’urta badallari;
3. Dividendlar	3. Omonatlar va qimmatli qog’ozlardagi jamg’armalarning o’sishi
4. Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini sotishdan olinadigan tushumlar	4. Uy-joy binolarini sotib olish
5. Pensiya va nafaqalar	5. Xorijiy valyutani sotib olish bo’yicha aholi xarajatlari
6. Stipendiyalar	6. O‘tkazmalar bo’yicha jo’natilgan pullar
7. Moliyaviy tizimdan olinadigan tushumlar (sug’urta qoplamalari, omonatlarning foizlari, lotereya yutuqlari va b.)	
8. Xorijiy valyutani sotishdan kelgan aholining daromadlari	
9. Boshqa tushumlar a) komission magazinlar orqali buyumlarni sotish b) chiqindi ashyo, metallom va boshqalarni sotish	
10. O‘tkazmalar bo’yicha olingan pullar	
Jami pul daromadlari	Jami pul xarajatlari va jamg’armalar
Xarajatlarning daromadlardan oshishi	Daromadlarning xarajatlardan oshishi
Balans	Balans

Uy xo’jaliklari byudjetlari xarajatlari hisobidan tovarlarni sotib olish va xizmatlarni to’lash (iste’mol xarajatlari) o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- uy-joy va kommunal xizmatlarni, maishiy xizmatlarni, maorif tizimi xizmatlarini to’lash;
- dam olish uylari, sanatoriylar, turistik yo’llanmalar xarajatlari va tibbiy xizmatlarni to’lash;
- kino, teatr va boshqa tomoshalar xarajatlari;
- passajir transportining barcha turlarini to’lash xara-jatlari;
- aloqa xizmatlarini to’lash;
- qolgan boshqa xizmatlarni to’lash.

Majburiy to’lovlar va ixtiyoriy badallar uy xo’ja-liklari byudjetlari xarajatlarining muhim elementi hisoblanadi. Bu xarajatlar, hozirgi sharoitda, o’sish tendentsiyasiga ega bo’lib, ular quyidagi omillar bilan bog’langan:

- birinchidan, aholi tadbirkorlik tashabbusining kenga-yishi yakka tartibdagi tadbirkorlarning xo’jalik va savdo faoliyatidan olinadigan (undiriladigan) soliq, boshqa majburiy to’lovlar va yig’imlarning ham ko’payishi bilan kuzatilmoqda;
- ikkinchidan, sug’urta tizimining rivojlanishi, notijo-rat sektorning o’sishi (masalan, turli jamoatchilik tashki-lotlari, birlashmalari va ittifoqlari), bir tomon-dan, sug’urta bo’yicha badallarni oshirsa, ikkinchi tomondan, notijorat tashkilotlarga ajratmalarni ko’paytiradi;
- uchinchidan, iste’mol va ipoteka kreditining rivoj-lanishi uy xo’jaliklari byudjetlarining xarajatlarida “ssudalarni qaytarish” va “tovar krediti bo’yicha foizlar” moddalarining oshirilishiga olib keladi.

Sug’urta bozorining intensiv rivojlanishi, bank xiz-matlari amaliyotida iste’mol krediti va u bilan bog’liq bo’lgan operatsiyalarning kengayishi natijasida kelajakda uy xo’jaliklari byudjetlari xarajatlarining bu yo’nalishlari faqat o’sish tendentsiyasiga ega bo’lishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy bozorning rivojlanishi va pensiya tizimining isloh qilinishi uy xo’jaliklari byudjetlarida “pensiya fondiga sug’urta badallari” xarajatlar moddasi-ning ham o’sishiga olib keladi.

Uy xo’jaliklari byudjetlari xarajatlar qismining majburiy to’lovlarida soliqlar va yig’imlar kattagina hissani tashkil etadi. Uy xo’jaliklari daromadlarining soliqqa tortilishi ular real daromadlarini qisqartiradi. Shunday bo’lishiga qaramasdan, davlat moliyasining taqsim-lash funksiyasi doirasida jismoniy shaxslarning daromad-lari va mulkidan olinadigan soliqlar muhim vazifalarni yechishga xizmat

qiladi. Birinchidan, bu soliqlar mamlakat byudjet tizimining turli byudjetlari darajalarida daro-madlarning etarli tushishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, jismoniy shaxslarning daromad-laridan olinadigan soliq-lar daromadlardan ratsional foydalanishni rag’batlanti-rish va ularni shakllantirish yo’llari bilan uy xo’jaliklari byudjetlarining tarkibiy tuzilmasiga o’z ta’sirini ko’rsa-tadi. Uchinchidan, soliqlar vositasida daromadlarning bir qismi jamiyat va uy xo’jaliklarining sotsial muammolarini yechish uchun qayta taqsimlanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq mamlakat fuqarolari daromadlaridan, mol-mulkidan (shu jumladan, yer solig’i va er uchun ijara haqi) soliqlar, boshqa majburiy to’lovlar va yig’imlar (masalan, ma’muriy jarimalar, jismoniy shaxs-lardan olinadigan xilma-xil mahalliy yig’imlar) va davlat bojlarini to’laydi. Bir vaqtning o’zida, uy xo’jaliklarining real daromadlariga, aholi daromadlari va xarajatla-rining balansida majburiy to’lovlar sifatida hisobga olinmaydigan egri (bilvosita) soliqlar ham o’zining ta’sirini ko’rsatadi. Chunki bu soliqlar (aktsizlar, qo’shilgan qiymat solig’i, bojxona bojlari va boshqalar) tovar bahosining tarkibida bo’lib, ular tovar sotib olinayotganda to’lanadi. Tovarlar bahosining darajasini faqat egri (bilvosita) soliqlar oshirib qolmasdan, balki ayrim to’g’ri (bevosita) soliqlar (yagona ijtimoiy soliq, korxonalarning foydasidan olinadigan soliq, tashkilotlarning mol-mulkidan olinadigan soliq va boshqalar) ham oshiradiki, ular ham qisman yoki to’liq tovarlar bahosi orqali kompen-satsiya qilinadi.

Aholi daromadlari va xarajatlari balansi xara-jatlar qismining boshqa moddalari (“omonatlar va qimmatli qog’ozlardagi jamg’armalarning o’sishi”, “xorijiy valyutalarni sotib olish bo’yicha aholi xarajatlari” va boshqalar) jamg’arish jarayoni doirasida uy xo’jalik-larining moliyaviy munosabatlarini aks ettiradiki, ularning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlari ushbu bobning navbatdagi paragrafida ko’rib chiqiladi.

25.5. Jamg’armalarni shakllantirish va ishlatish

Barcha majburiy xarajatlar amalga oshirilganidan, zaruriy tovarlar va xizmatlar sotib olinganidan so’ng qolgan bo’sh pul mablag’lari uy xo’jaliklarining jamg’ar-malarini tashkil etadi. Jamg’armalar, kechiktirilgan iste’mol demakdir. Uy xo’jaliklari jamg’armalari tashkil topishi jarayonining asosida ehtiyojning amalda mavjud bo’lgan darajasi va ularni qondirishning iloji yo’qligi

o’rtasidagi ziddiyat yotadi. Ehtiyojlar darajasini qondi-rishning tashqi cheklovchisi (chegaralovchisi) tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatish imkoniyatining cheklangan-ligi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti barqaror rivojlangan mamlakat-larda uy xo’jaliklarining jamg’armalariga ham alohida rol ajratilgan. Chunki iqtisodiy o’sish investitsiyalarning muhim manbai bo’lgan jami jamg’armalarning darajasi bilan uzviy bog’langan. O‘z navbatida, jamg’armalarning mavjudligi esa mamlakat boyligining belgilaridan biridir. Jamg’arma munosabatlari sohasida quyidagi ko’p tomonlamali aloqa-lar, manfaatlar va maqsadlar vujudga keladi va qo’shilib ketadi:

- takror ishlab chiqarish aloqalari, manfaatlari va maqsadlari. Bunda jamg’armalar kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida maydonga chiqadi;
- uy xo’jaliklari jamg’armalarining aylanishi va milliy iqtisodiyot moliya-bank sektorining faoliyat ko’rsatishi bilan bog’langan pul-moliyaviy aloqalar, manfaatlar va maqsadlar;
- aholi turmush darajasining o’sishiga yo’naltirilgan ijtimoiy aloqalar, manfaatlar, maqsadlar.

Uy xo’jaliklarining jamg’armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish ijtimoiy takror ishlab chiqarishning hajmlari, muvozanat va taraqqiyotning umumiy maroiqti-sodiy nisbatlari bilan belgilanadi. Jamg’armalarning miqdoriy o’zgarishiga aholi nominal va real daromad-larining o’sish (kamayish) sur’atlari, inflyatsiya, yakuniy iste’molga mo’ljallangan xarajatlarning o’zgarishi ta’sir ko’rsatadi. Uy xo’jaliklari jamg’armalarining o’sishi, ular-dan oqilona va samarali foydalanish investitsion faollikni oshirish, iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush darajasining o’sishi muammolarini hal etishga yo’nalti-rilgan davlat makroiqtisodiy va moliya-kredit siyosatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jamg’armalarni quyidagi turli belgilarga ko’ra tasnif-lash mumkin:

- jamg’arish(ma) jarayonining maqsadlariga ko’ra;
- sabablari nuqtai-nazaridan;
- jamg’armalarni to’plash shakllari bo’yicha.

Jamg’arish(ma) jarayonining maqsadlariga ko’ra jamg’ar-malarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- joriy jamg’arma fondlari (uzoq muddat foydalanishga mo’ljallangan tovarlarni sotib olish);
- sug’urta jamg’arma fondlari;

- investitsion jamg’arma fondlari.

Jamg’armalarning joriy fondlari qisqa muddatli xarakterga ega, naqd mablag’larni qo’shib olgan holda, yuqori likvidli aktivlarda jamg’ariladi (to’planadi).

Sug’urta jamg’arma fondlari ko’zda tutilmagan holatlar (vaziyatlar) va qarilik uchun mo’ljallangan jamg’armalardan iborat bo’lib, ular uzoq muddatli hisoblanadi va ularni jamg’arish jarayoni tugamagunga qadar kamroq likvidli bo’lishi mumkin.

Investitsion jamg’arma fondlari iste’mol ehtiyojlari uchun mo’ljallanilmaydi. Ularning bosh maqsadi daromad keltiruvchi aktivlarga investitsiya qilishdan iboratdir.

Sabablari nuqtai-nazaridan uy xo’jaliklarining jam-g’armalari motivatsiyali va motivatsiyasiz bo’lishi mumkin. Bu tasniflashga muvofiq maqsadli jamg’armalar motivatsiyali jamg’armalar sifatida talqin qilinadi. Biroq jamg’arma-larning sabablarini hamma vaqt ham aniqlashning iloji bo’lmasligi mumkin. Ular ehtiyojning darajasiga nisbatan qiyoslaganda to’lovga layoqatlilik imkoniyatining oshishi va ishlab chiqarishning imkoniyatlari natijasida vujudga kelishi mumkin. Bunday jamg’armalar motivatsiyasiz jamg’ar-malar deyiladi. Agar to’lovga layoqatli talab va ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi tizimli xarakterda bir-biriga mos kelmasa, ular majburiy jamg’armalar nomini olishi mumkin.

To’plash (yig’ish) shakllari bo’yicha jamg’armalarni bog’-lanmagan (tashkil qilinmagan) va bog’langan (tashkil qilin-gan) shakllarga ajratish mumkin. Naqd pullar shaklida uy xo’jaliklari bo’sh pul mablarining jamg’arilishi jamg’arma-larning bog’lanmagan (tashkil qilinmagan) shakli hisobla-nadi. Agar jamg’armalarni yig’ish moliyaviy bozor instru-mentlariga joylashtirish, shu jumladan, bank omonatlari va boshqa investitsion institutlari yordamida amalga oshirilsa, uy xo’jaliklari jamg’armalarining bunday shakli bog’langan (tashkil qilingan) jamg’armalar deyiladi. Jamg’armalarning bog’lanmagan (tashkil qilinmagan) shakl-lari ustuvor tarzda pulli shaklda bo’lsa, ularning bog’langan (tashkil qilingan) shakllari turli quyidagi ko’rinishlarda namoyon bo’lishi mumkin:

- mablag’larni ishlab chiqarishga to’g’ridan-to’g’ri (bevo-sita) joylashtirish (masalan, korxonalarning aktsiyalari, obligatsiyalari va ishtirok etish salmog’ini sotib olish shaklida, ko’chmas mulk sotib olish va boshqalar);
- mablag’larni ishlab chiqarishga bilvosita joylash-tirish. Bunda mablag’larni to’plash va ularni joylashtirish bilan ixtisoslashtirilgan

moliyaviy institutlar shug'ulla-nadi. Bunga misol tariqasida davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish, bank depozitlari, investitsion fondlarning hissasini (ulushini) sotib olish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi paytda uy xo'jaliklarida mablag'larni jamg'a-rish jarayoni, ma'lum darajada, ziddiyatli hisoblanadi. Bir tomondan, keyingi yillarda unda ba'zi bir ijobiy tendentsiyalar ko'zga tashlanayaptiki, xususan, ular quyida-gilarda namoyon bo'layapti:

- keyingi yillar davomida uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan moliyaviy aktivlarning absolyut o'sishi bir necha martaga oshdi;
- bog'langan (tashkil qilingan) jamg'armalar absolyut va nisbiy jihatdan ham o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan;
- mamlakatda tegishli investitsion muhit mavjud bo'lsa, jamg'armalarga ega bo'lgan va ularni investitsiyalarga joylashtirishi mumkin bo'lgan uy xo'jaliklarining guruh-lari shakllandi;
- uy xo'jaliklari jamg'armalarini investitsiyalarga transformatsiya qiluvchi (aylantiruvchi) moliyaviy instru-mentariylar (vositalar, dastaklar) kengaymoqda: ipoteka-viy kreditlashtirish rivojlanayapti; investitsion fondlar, nodavlat pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari faol faoliyat ko'rsatayapti;
- tijorat banklari (shu jumladan, "Xalq banki" va boshqa banklar) o'rtasidagi raqobatning kuchayishi aholi mablag'-larini jalb qilish shakllari va metodlarining rivoj-lanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi: taqdim etiladigan xizmatlar doirasi (spektri) kengaydi, omonatlarning yangi turlari yaratildi va boshqalar;
- jismoniy shaxslar omonatlarini qisman kompensatsiya qilishni ko'zda tutuvchi xususiy (shaxsiy) omonatlarni majburiy sug'urta qilish tizimining yaratilishi bank tuzilmalariga bo'lgan ishonchning o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va uy xo'jaliklari jamg'armalar bog'langan (tashkil qilingan) shakllarining imkoniyatlarini kengay-tiradi;
- jamg'arma jarayonlarida foydalaniladigan moliyaviy instrumentlar daromadlik darajasining bir-biriga yaqinlashuvi yangi moliyaviy piramidalarni yaratish yo'liga to'siq bo'lib xizmat qiladi.

Bir vaqtning o'zida jamg'armalar hamon o'zlarining investitsion salohiyatini to'liq amalga oshirmayapti va uy xo'jaliklari daromadlarining qo'shimcha manbalariga to'liq aylanmayapti. Buning ustiga hozirga qadar uy xo'jaliklari jamg'arma fondlarining o'sishi iste'mol fondi hisobidan, ya'ni daromadlar tarkibiy

tuzilmasining sifat jihatidan o’zgarishi natijasida emas, balki iste’molning iqtisod qilinishi hisobidan amalga oshirilayotir.

Jamg’arish jarayonining sog’lomlashtirilishi (normal-lashuvi) iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishini muvozanatlashtirish (balanslashtirish) va ularning barqa-rorligini ta’minlash bilan uzviy bog’langan. Bu narsa, o’z navbatida, ishlab chiqarish va iste’mol, daromadlarni taqsimlash va ulardan foydalanish, moliya va pul muomalasi sohalaridagi saqlanib qolgan nomutanosiblik-larga barham berilishini taqozo etadi.

Hozirgi sharoitda uy xo’jaliklari jamg’armalari mexa-nizmini takomillashtirish quyidagi bir necha yo’nalish-lar orqali amalga oshirilishi kerak:

- aholi real daromadlari va sotib olish qobiliyatining o’sishini ta’minlash. Bu narsa uy xo’jaliklari jamg’arma-larga nisbatan moyilligining o’sishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi;
- mablag’larni investitsion jarayonlarga jalb qilish uchun valyutalarni sotib olishga xarajat qilinadigan jamg’arma-larning bog’langan (tashkil qilingan) shakllari rolini ko’tarish va moliyaviy oborotga (aylanmaga) “aholi qo’lidagi pullarning o’sishi” moddasi bo’yicha mablag’larni kiritish;
- jamg’armalarni investitsion resurslarga aylantira-digan (transformatsiya qiladigan) institutlar va instru-mentlarni rivojlantirish. Buning uchun bank va moliya xizmatlarini diversifikatsiya qilish va kengaytirish, eng avvalo, badalli investitsion fondlar va sug’urta kompaniyalari singari jamoa investorlari institutlari rivojlanishini yangi sifat darajaga o’tkazish, korporativ obligatsiyalar bozorini shakllantirish kerak va h.k.;
- yaxlit olgan holda investitsion iqlimni va jamg’arma-lar bozorining investitsion muhitini yaxshilash. Bu yo’nalish bo’yicha investitsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish va rag’batlantirishning roli yuqori bo’lmog’i lozim.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

- “Uy xo’jaligi” tushunchasining mazmuni nimada?
- Uy xo’jaligiga tegishli bo’lgan xarakterli xususiyatlarni aytib bering.
- Uy xo’jaliklari moliyasi har bir davlat moliyaviy tizimning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadimi va uning moliyaviy ahamiyati nima bilan belgilanadi?

- “Uy xo’jaliklari moliyasi”ning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
- “Uy xo’jaligi”, “xonadon” yoki “oila” atamalari bir xil ma’noni anglatadimi? Ular o’rtasidagi o’xshashlik va farqlarni bilasizmi?
- “Uy xo’jaligi moliyasi” iborasining o’rniga “xonadon moliyasi” va “oila moliyasi” iboralarini ekvivalent yoki sinonim iboralar shaklida ishlatsa bo’ladimi? Ularning farqlarini aytib bering.
- Uy xo’jaligini xo’jalik yuritishning mustaqil iqtisodiy va moliyaviy birligi sifatida ajratilishi qanday me’zonlar asosida amalga oshirilmog’i lozim?
- Uy xo’jaliklari moliyasining ta’rifini aytib bering.
- Uy xo’jaliklarida mavjud bo’lgan moliyaviy munosabat-lar majmuini qanday guruhlarga bo’lish mumkin?
- Qanday munosabatlar uy xo’jaligining ichki moliyaviy munosabatlari hisoblanadi?
- Uy xo’jaliklarining tashqi moliyaviy munosabatlarini tushuntirib bering.
- Korxonalar va tashkilotlar moliyasi bilan uy xo’jalik-larining o’zaro bog’langanligi nimalarda ko’rinadi?
- Davlat va uy xo’jaliklari o’rtasidagi moliyaviy munosa-batlarning mazmuni nimada?
- Davlat uy xo’jaliklariga tegishli bo’lgan daromad va yakuniy (oxirgi) iste’molning miqdoriga qanday ta’sir qilishi mumkin? Ular qanday shakllarda amalga oshiriladi?
- Uy xo’jaliklarining o’zlari o’rtasidagi (uy xo’jaliklari-aro) moliyaviy munosabatlar qanday hollarda vujudga keladi va moliyaning bu sohasiga nimalarni kiritish mumkin?
- Uy xo’jaliklarining moliyaviy institutlar bilan o’zaro aloqalarini tushuntirib bering.
- Uy xo’jaliklari moliyasi qanday funksiyalarni baja-radi?
- Uy xo’jaliklari moliyasi taqsimlash funksiyasining mazmunini tushuntirib bering.
- Uy xo’jaliklari moliyasining takror ishlab chiqarish funksiyasining mazmuni nimada?
- Qay hollarda uy xo’jaliklari moliyasi nazorat funk-tsiyasini bajaradi?
- Uy xo’jaliklari moliyasi tartibga solish funksiya-sining namoyon bo’lishini qanday nuqtai-nazardan qarash maqsadga muvofiq?
- Uy xo’jaliklari moliyasini tartibga solaverib , davlat, eng avvalo, qanday ishlarni amalga oshiradi?

- Uy xo’jaliklari moliyasining rag’batlantiruvchi funk-tsiyasi nimalar orqali namoyon bo’lishi mumkin?
- Uy xo’jaliklari moliyasi ijtimoiy funksiyasining mazmunini tushuntirib bering.
- Uy xo’jaliklari moliyasining samarali faoliyat ko’rsa-tishi nimalarga bog’liq?
- Uy xo’jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning o’ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
- Uy xo’jaligi tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qili-nadigan normalar va qoidalarning tashqi omillarini bilasizmi?
- Uy xo’jaligining moliyaviy xatti-harakatini tashkil etadigan ichki me’yorlar tizimi nimalarga bog’liq?
- Uy xo’jaligining moliyaviy qarorini resurs jihatdan ta’minlash qanday manbalar hisobidan amalga oshiriladi?
- Uy xo’jaligi resurslari dastlabki (boshlang’ich) manbalarining tarkibini aytib bering.
- Uy xo’jaligi resurslarining jamg’ariladigan manbasini nimalar tashkil etadi?
- Uy xo’jaligi resurlarining joriy manbalarini aytib bering.
- Uy xo’jaligining moliyaviy resurslarini nimalar tash-kil etadi?
- Funktsional mo’ljallanganligiga ko’ra uy xo’jaliklari-ning moliyaviy resurslari qanday tarkibiy tuzilmaga ega bo’lishi mumkin?
- Uy xo’jaliklarining moliyaviy qarorlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog’langan qanday bloklarni qamrab oladi?
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo’jaliklarining daromadlarini shakllantirish bo’yicha moliyaviy qarorlar qabul qilish asosida (negizida) nima yotadi?
- Uy xo’jaliklari darajasida daromadlarni shakllan-tirish bo’yicha moliyaviy qarorlar nimalarga bog’liq bo’ladi?
- Uy xo’jaliklarining iste’mol fondi minimal va ratsional iste’mol byudjetlari yoki yanada detallash-tirilgan tarzda qanday tasniflanishi mumkin?
- Hayotiy minimum byudjeti qanday aniqlanadi?
- Minimal iste’mol byudjetining mazmuni nimada?
- Optimal iste’mol byudjeti nimaga imkoniyat yaratadi?
- Optimal iste’mol byudjetini qanday ikki darajadagi byudjetlarga bo’lish mumkin?
- Moliyaviy qarorlarda “asosiy psixologik qonun” nima sifatida namoyon bo’ladi?

- Jamg’ariladigan fondlarni shakllantirish bo’yicha uy xo’jaliklarining moliyaviy qarorlari ishlab chiqilib, qabul qilinayotgan paytda qanday omillar hisobga olinishi kerak?
- Uy xo’jaligining iste’mol va moliyaviy xatti-hara-katida, jamg’ariladigan fondlarini yaratishda muhim rol o’ynaydigan ijtimoiy va psixologik jihatlarga nimalar kiradi?
- Uy xo’jaligining har qanday jamg’ariladigan stra-tegiyasi mustaqil bo’lgan qanday uch qismdan tarkib topadi?
- Uy xo’jaligi jamg’arish strategiyasining qanday turlari bo’lishi mumkin?
- Hozirgi paytda turli moliyaviy instrumentlarning daromadliligida qanday tendentsiya paydo bo’layapti va u nimada namoyon bo’lmoqda?
- Uy xo’jaliklari daromadlarining ta’rifini aytib bering.
- Eng umumiy ko’rinishda, uy xo’jaliklarining jami daromadlarini qanday ikki guruhga ajratish mumkin?
- Uy xo’jaliklari natural daromadlari qanday paydo bo’ladi va uning tarkibi nimalardan tarkib topadi?
- Uy xo’jaliklarining natural daromadlari qanday holatlarga muvofiq ravishda o’zgarib turishi mumkin?
- Uy xo’jaliklarining pul daromadlari nima va ular qanday ko’rsatkichlar yordamida hisoblanadi?
- Nominal daromadlar nima va bu ko’rsatkich qanday daromadlarni tavsiflaydi?
- Uy xo’jaliklari nominal daromadlarining YaIMdagi salmog’i nimaning darajasiga bog’liq?
- Hisoblangan nominal daromadlar va haqiqatda olingan nominal daromadlar o’rtasida qanday farq mavjud?
- Ega bo’lingan daromadlar deyilganda nimalar nazarda tutiladi? Bu daromadlar qanday maqsadlarga mo’ljal-langan?
- Real daromadlar nima va bu ko’rsatkich nimalarni o’zida aks ettiradi?
- Real daromadlarning o’zgarishi nimaga bog’liq bo’ladi?
- Agar baholarning o’sish sur’ati nominal ega bo’lingan daromadlarning o’sish tezligidan past bo’lsa, uy xo’jalik-larining real ega bo’lingan daromadlari o’sadimi yoki kamayadi?
- Baholarning yuqori sur’atlarda o’sishi sharoitida real daromadlar qisqaradimi yoki ko’payadi?
- Uy xo’jaliklari pul daromadlarining eng asosiy tur-larini aytib bering.

- Mehnat haqining (ish haqining) tarkibiga nimalar kiradi?
- Bozor munosabatlariga o’tilishi bilan uy xo’jaliklari daromadlarining tarkibida mehnat haqi salmog’i biroz pasayganligining sabablari nimada?
- Hozirgi sharoitda ish haqining yashirin shakllariga nimalar kiradi?
- Mehnatga haq to’lashning quyi chegarasi kim tomonidan o’rnatiladi, u nima deb ataladi va uning tarkibiga nimalar kirmaydi?
- Byudjet sohasi xodimlarining mehnatiga haq to’lashda hozirgi paytda qanday muammolar mavjud?
- Ijtimoiy to’lanmalarni tasniflash me’zonlarini aytib bering.
- Iqtisodiy mazmuniga ko’ra ijtimoiy to’lanmalarning qanday ko’rinishlari mavjud?
- O‘zlarining shakli bo’yicha ijtimoiy to’lanmalar qanday ko’rinishlarga ega bo’lishi mumkin?
- Moliyalashtirish manbalariga ko’ra ijtimoiy to’lanma-larning qanday ko’rinishlari bor?
- Ijtimoiy to’lanmalarni moddiy-buyumlashgan tarkibiga ko’ra qanday turlarga ajratish mumkin?
- Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan uy xo’jaliklari daromadlarining tarkibiga nimalar kiradi?
- Uy xo’jaliklarining mulkdan olinadigan daromadlari qanday ko’rinishlarda amal qiladi?
- Uy xo’jaliklari turli guruhlari daromadlarining tabaqalanishi (differentsiatsiya qilinishi) qanday ob’yektiv va sub’yektiv omillar ta’siri ostida sodir bo’ladi?
- Uy xo’jaliklarida ega bo’lingan real pul daromad-larining o’sishiga, daromadlarning notengligi muammosini yumshatishga nimalar o’z ta’sirini ko’rsatadi?
- Uy xo’jaliklarining xarajatlari nima?
- Uy xo’jaliklarining xarajatlari qanday omillar bo’yicha tasniflanadi?
- Davriylik nuqtai-nazaridan uy xo’jaliklarining xara-jatlari tarkibini aytib bering.
- Xarajatlarning turlari bo’yicha uy xo’jaliklarining xarajatlari nimalardan tarkib topadi?
- Funktsional mo’ljallanganligiga ko’ra uy xo’jaliklari xarajatlarining tarkibi nimalardan iborat?

- Avtonomlilik xarakteriga ko’ra uy xo’jaliklarining xarajatlari qanday guruhlarga bo’linadi?
- Real pul xarajatlarining turlari bo’yicha uy xo’ja-liklarining xarajatlari qanday ikki guruhdan tashkil topadi?
- Iste’mol xarajatlarining miqdori nimalarga bog’liq?
- Uy xo’jaliklari byudjetlaridagi iste’mol xarajatlari sub’yektiv omillarga ham ta’sirchan bo’lganligi uchun ular-ning orasidan nimalarni alohida ajratib ko’rsatish mumkin?
- Makroiqtisodiy nuqtai-nazardan uy xo’jaliklari byud-jetlarining iste’mol xarajatlari qanday ikki eng muhim xususiyatga ega?
- Aholi daromadlari va xarajatlari balansining eng umumiy ko’rinishi qanday bo’lishi mumkin?
- Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansining daromadlar qismiga nimalar kiradi?
- Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansining xarajatlar qismi nimalardan tashkil topadi?
- Uy xo’jaliklari byudjetlari xarajatlari hisobidan tovarlarni sotib olish va xizmatlarni to’lash (iste’mol xarajatlari) o’z ichiga nimalarni oladi?
- Uy xo’jaliklari byudjetlari xarajatlarining muhim elementi sifatida majburiy to’lovlar va ixtiyoriy badal-larning o’sish tendentsiyasiga ega ekanligi qanday omillar bilan bog’langan?
- Davlat moliyasining taqsimlash funksiyasi doirasida jismoniy shaxslarning daromadlari va mulkidan olina-digan soliqlar qanday muhim vazifalarni yechishga xizmat qiladi?
- Uy xo’jaliklarining jamg’armalari qachon paydo bo’ladi va uning asosida qanday ziddiyat yotadi?
- Jamg’arma munosabatlari sohasida qanday ko’p tomon-lamali aloqalar, manfaatlar, maqsadlar vujudga keladi va qo’shilib ketadi?
- Uy xo’jaliklarining jamg’armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish nimalar bilan belgilanadi?
- Jamg’armalar hajmining o’zgarishiga qanday holatlar ta’sir ko’rsatadi?
- Jamg’armalarni qanday turli belgilarga ko’ra tasnif-lash mumkin?
- Jamg’arish(ma) jarayonining maqsadlariga ko’ra jamg’ar-malarni nimalarga ajratish mumkin?
- Sabablari nuqtai-nazaridan uy xo’jaliklari jamg’arma-larining qanday ko’rinishlari bo’lishi mumkin?

- To’plash shakllari bo’yicha uy xo’jaliklari jamg’arma-larining qanday shakllari mavjud?
- Jamg’armalarning bog’langan (tashkil qilingan) shakllari qanday turli ko’rinishlarda namoyon bo’lishi mumkin?
- Hozirgi paytda uy xo’jaliklarida mablag’larni jamg’a-rish jarayonida ko’zga tashlanayotgan ijobiy tendentsiyalarni tushuntirib bering.

26-bob. Xalqaro moliya

26.1. Xalqaro moliyaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Xalqaro moliya – xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisob-lanadi. Xalqaro moliya munosabatlari muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliya munosabatlari o'ziga xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro kredit munosabatlari, xalqaro investitsiya munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari, mamlakatlar to'lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalar kabi munosabatlarni qamrab oladi. Globallashuv jarayoni – jahon savdosining o'sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kengayishi, kapitalning xalqaro oqimini rivojlanishi, xizmatlar va mahsulotlarning xalqaro xarakati xalqaro moliyaning rivojlanishiga zamin yaratdi. Shuningdek, mazkur holat jahon moliya bozorlarining, xalqaro moliyaviy korporatsiyalarning yuzaga kelishiga, davlatlararo moliyaviy munosabatlarning va xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jihatlarini murakkablashuviga olib keldi.

Xalqaro moliya doimiy o'zgaruvchan xalqaro pul tizimlarining holati va rivojlanishini, alohida mamlakatlar to'lov balansining o'zgarishini, xalqaro moliya bozorlari, xalqaro moliyaviy korporatsiyalar, xalqaro bank va investitsion faoliyatni namoyon etadi. Xalqaro moliya tizimining asosiy ishtirokchilar bo'lib quyidagilar hisoblanadi: banklar, transmilliy korporatsiyalar, portfel investorlar va xalqaro rasmiy karzdorlar. Xalqaro moliyaviy operatsiyalar alohida mamlakatlarning moliya tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi kuch hisoblanadi.

Xalqaro moliya o'zida ob'yektiv asosga ega bo'lgan moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro moliyaning moddiy asosi bo'lib mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy oqimlar, jumladan, pul oqimlari – import qilingan mahsulot va xizmatlarning to'lovlari hamda mahsulot va xizmatlar eksportidan kelgan valyuta tushumlari, ushbu oqimlar xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasini ifodalashi mumkin, lekin ular turli mamlakatlarga tegishli bo'ladi, shu boisdan mamlakatlar o'rtasidagi pul oqimlari xarakatini namoyon etadi. Shuningdek, kredit mablag'lari oqimi ham ikki tomonlama bo'lib hisoblanadi, bir

tomondan qarzning berilishi bo’lsa boshqa tomondan esa, uning qaytarilishi va foizlarning to’lanishi namoyon bo’ladi. Shunday qilib, mazkur oqimlar asosida moliyaviy resurslarning mamlakatlar o’rtasidagi xarakati yuzaga keladi. Ularning taqsimlanishi bir tomondan valyuta kurslari asosida ikkinchi tomondan esa, bojxona tariflari asosida boshqariladi.

Moliyaviy resurslar xalqaro moliya tashkilotlari va institutlari faoliyati jarayonida shakllanadi va foyda-laniladi. Mazkur institutlar va tashkilotlar davlatlararo tuzilmaga ega bo’lib muayyan funksiyalarni bajaradi. Ularning moliyaviy ta’minoti umumlashgan (masalan, BMT byudjeti) yoki maqsadli (aniq dasturlar va tadbirlar uchun mo’ljallangan) fondlar orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy resurslarning muayyan qismini xalqaro darajada markazlashuvi jahon xo’jaligi ehtiyojlarini ta’minlaydi, bunday resurlarni shakllantirishning iqtisodiy shart-sharoitlari bo’lib, iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi, turli sohalardagi xalqaro loyiha va dasturlarni amalga oshirishda mamlakatlarning ishtiroki, kredit va savdo munosabatlarini rivojlanishi hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro moliya – bu xalqaro moliya bozori va xalqaro institutlar tomonidan shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishini o’z ichiga olgan moliyaviy resurslar xarakati asosida hosil bo’lgan munosabatlar tuzilmasi bo’yicha murakkab tizimdir.

Mamlakat davlat moliyasining xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- bitta mamlakat xududidan chiqmaydi;
- xorijiy sub’yektlarni jalb qilmaydi;
- milliy qonunchilik asosida amalga oshiriladi;
- mamlakat ichida amalga oshiradigan hisob-kitoblarni o’zida ifodalaydi.

Xalqaro moliya esa turli xildagi jihatlarni o’rganadi. Bularga:

- iqtisodiy kategoriya sifatida – moliyaviy resurs-larning fondlari bo’lib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish asosida tashkil etilgan hamda xalqaro ahamiyatga ega bo’lgan umumiy ehtiyojlarni qondirish va jahon darajasida ijtimoiy takror ishlab chiqarishning renta-belligini va uzluksizligini ta’minlash uchun foydalaniladi.
- institutsional jihatdan – bu banklar, valyuta va fond birjalari, xalqaro moliya institutlari, mintaqaviy moliya-kredit tashkilotlari, xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalar majmui bo’lib ular orqali jahon moliyaviy oqimlarining xarakati amalga oshiriladi.

– iqtisodiy munosabat sifatida – bu, jahon bozorida kapital, xizmatlar, tovarlar xarakati vaqtida milliy mahsulotlarning qayta taqsimlanishi jarayonida yuzaga keluvchi pul ko'rinishidagi munosabat. Davlatlararo va transmilliy moliya-kredit munosabatlarini o'z ichiga oladi va ularda xorijiy elementlar ishtirokini ifodalaydi.

Xalqaro moliyaning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

– taqsimlash funksiyasi;

– nazorat funksiyasi;

– takror ishlab chiqarish jarayoniga moliya yordamida xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining arala-shuvi bilan bog'liq tartibga solish funksiyasi;

– barqarorlashtirish funksiyasi. Mazkur funksiya jahon xo'jaligi tizimida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar uchun barqaror sharoitni yaratishda namoyon bo'ladi.

Xalqaro moliya munosabatlari shakllanishi va rivoj-lanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Jahon bozorlarining vujudga kelishi, ayniqsa tovar bozorlari.
2. Xalqaro mehnat taqsimoti.
3. Iqtisodiy aloqalarning baynalminallashuvi va globallashuvi.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda integratsiya jara-yonlarining kuchayishi.
5. Ilmiy-texnika taraqqiyoti;
6. Xalqaro moliya munosabatlarining ko'p tomonlama tartibga solish tizimini takomillashtirilishi;
7. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning keskin-lashuvi.

Xalqaro moliya jahon xo'jaligining aniqlovchi tizim-laridan biri hisoblanib, milliy va jahon iqtisodiyotiga aniqlovchi ta'sir ko'rsatadi.



26.1-rasm. **Xalqaro moliya munosabatlari va xalqaro qayta ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi**

Xalqaro moliya yaxlit tizim sifatida faoliyat ko’rsatadi va uning elementlariga quyidagilar kiradi:

– Jahon valyuta tizimi – milliy va zahira valyutalar, xalqaro jamoaviy valyutalar, o’zaro konvertirlash shartlari, valyuta pariteti, valyuta kursi, valyuta kurslarini tartibga solishning milliy va xalqaro mexanizmlaridan tashkil topgan.

– Xalqaro hisob-kitoblar – moliyaviy instrumentlar, ishlab chiqarish omillari, tovarlar xarakati, shuningdek, xalqaro hisob-kitoblar bilan bog’liq barcha operatsiyalarni aks ettiruvchi to’lov balansiga xizmat qiladi.

– Xalqaro moliya bozorlari va muayyan moliyaviy instrumentlar savdosi mexenizmlari – valyuta, kredit, qimmatli qog’ozlar.

– Xalqaro soliqqa tortish – pul mablag’lari fondlarini shakllantirish metodi sifatida.

– TMKlarning xalqaro moliyaviy menejmenti, bunda transmilliy moliyalashtirish, risklarni boshqarish, xalqaro investitsiyalash jarayoni asosiy o’ringa chiqadi.

26.2. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaromoliya munosabatlarining tutgan o’rni

Jahon iqtisodiyotining tizim sifatidagi faoliyati tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining harakati bilan bog’liq. Ushbu bog’liqlik asosida xalqaro moliya munosabatlari yuzaga keladi.

Xalqaro moliya munosabatlari bu xalqaro moliya bozori ishtirokchisi bo’lgan shaxsning qaroriga muvofiq tarzda o’ziga tegishli bo’lgan xorijiy valyutalarning harakat jarayonini tavsiflovchi fundamental iqtisodiy kategoriyadir.

1970 yillarda xalqaro moliya tizimida sezilarli o’zgarishlar sodir bo’ldi va mazkur o’zgarishlar ta’sirida zamonaviy jahon valyuta-moliya tizimi shakllana boshladi. Jahon moliya tizimidagi o’zgarishlar va xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanishi ko’p jihatdan trasmilliy korporatsiyalar faoliyati bilan bog’liq bo’lib, ular tomonidan butun dunyo bo’ylab ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish hamda barcha resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan global strategiya amalga oshirildi. Shuningdek, xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishida moliyaviy jihatdan barqaror hamda ko’p sonli xorijiy filiallarga ega bo’lgan transmilliy banklar muhim rol o’ynadi.

Xalqaro kreditlashdan foydalanish xususiyatining o’zgarishi bilan bog’liq ravishda xalqaro kredit bozori hajmi keskin ortib bordi. Uning oxirgi yo’nalishi nafaqat xalqaro ayriboshlash sohasi (mahsulotlar, xizmatlar va boshq.) balki, ishlab chiqarish sohasi ham bo’ldi. Bu holat, birmuncha yirik kreditlarni uzoq muddatlarga jalb etishni, shuningdek, moliya-kredit xizmatlari majmuasini rivojlantirishni talab etardi. 1970 yillarda xalqaro kreditni to’lov balansining taqchilligini bevosita yoki bilvosita moliyalashtirish uchun foydalana boshladilar. Xususiy firmalar bilan bir qatorda yirik qarzdorlar sifatida hukumatlar, davlat tashkilotlari va korxonalar, xalqaro kredit tashkilotlari yuzaga keldi.

Ushbu davrda neft import qiluvchi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar to’lov balanslari jami taqchilligining qariyb 60% xalqaro kapital bozorlari hisobiga moliyalashtirildi. Xalqaro kredit hajmining oshishi nafaqat evrokreditlarning o’sishi hisobiga balki, xorijiy kreditlash bozorlari kengayishi hisobiga sodir bo’ldi. Yaponiya milliy valyutasi “iena” hisobiga xorijiy kreditlar bozori hajmining oshishi natijasida Tokioda ienadagi xorijiy obligatsiyalar emissiyasi hajmi keskin ortdi. Mazkur holat natijasida Yaponiya ienasi evrovalyuta bozorida keng qo’llanila boshlandi.

1970 yillarda xalqaro kapital bozori kengayishiga bir qator omillar ta’sir ko’rsatdi va natijada xalqaro resurslar aylanishi va likvidligi oshib bordi. Ushbu davrda jahon iqtisodiyoti ikkita neft inqirozini boshdan kechirdi va neft narxining birdaniga keskin o’zgarishiga sabab bo’ldi. Mazkur holat natijasida neft eksport qiluvchi mamlakatlarda yirik valyuta ortiqchaligi, neft import qiluvchilarda esa, jumladan ko’plab rivojlangan mamlakatlarda joriy hisoblar bo’yicha taqchillik yuzaga keldi. Bu taqchillik asosan retsipient-mamlakatlarga xalqaro banklar, evroobligatsiyalar bozori orqali tushgan neftedollarlar hisobiga qoplandi.

Jahon iqtisodiyotida ro’y bergan boshqa muhim o’zgarishlar ham xaqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga ijobiy va salbiy jihatdan sezilarli darajada ta’sir ko’rsatdi. Ushbu o’zgarishlar jumlasiga, jahon va hududiy valyuta tizimlaridagi o’zgarishlar, valyuta tizimi tamoyillarining o’zgarishi, qarzdorlik inqirozlari, mamlakatlar tomonidan iqtisodiy integratsion birlashmalarning tuzilishi, xalqaro va mintaqaviy moliya tashkilotlarining vujudga kelishi, transmilliy korporatsiya va banklar faoliyatining kengayishi, jahonda ro’y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarni kiritish mumkin.



26.2.1-rasm. **Xalqaro moliyaning tuzilmasi**

Xalqaro moliyaning barcha tashkiliy elementlari jahon moliyaviy muhitida birlashadi.

Jahon moliyaviy muhiti – investorlar va korporatsiyalar moliyasi, banklar boshqaruvchilari qabul qiluvchi qarorlarga ta’sir ko’rsatadi hamda jahon moliya bozori o’sishi sharoitini aniqlaydi.

Xalqaro moliya tizimining asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

– valyutalar ayriboshlash va hisob-kitob tizimi shart-larining birxillashuvi;

– valyuta kurslari rejimlarini tartiblashtirish va valyuta cheklovlarini tartibga solish;

– xalqaro valyuta likvidligini tartibga solish;

– kredit, sug’urta, investitsiya va fond operatsiyalari xalqaro qoidalarini birxillashtirish;

– mazkur funksiyalarni amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi xalqaro moliya institutlarini tashkil etish.

Xalqaro moliya munosabatlarining sub’yektlari sifatida quyidagilar ishtirok etadi: davlat, korxona, tashkilotlar, firmalar hamda xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar, transmilliy banklar, birjalar, jismoniy shaxslar. Xalqaro moliya munosabatlari turli mamlakatlarning xo’jalik yurituvchi sub’yektlari o’rtasida, davlat va boshqa mamlakatlar xukumatlari hamda xalqaro tashkilotlar o’rtasida, davlat va korxonalar bilan xalqaro moliya institutlari o’rtasida yuzaga kelishi mumkin.

Davlat xalqaro moliya sohasida faoliyat ko’rsatuvchi asosiy sub’yekt hisoblanadi.

Markaziy banklar – bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish organlari bo’lib, ularga monopol tarzda banknotalar chiqarish, pul muomalasi, kredit va valyuta kursini tartibga solish, valyuta zahiralarini saqlash vazifalari biriktirilgan.

Xalqaro tashkilotlar – ular xalqaro shartnoma asosida tashkil etilgan bo’lib, doimiy faoliyat ko’rsatuvchi organlarga ega bo’lgan holda jahon xo’jaligi birliklarining iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga yordamlashish vazifalarini bajaradi.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari – jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish maqsadida xalqaro valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish uchun davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan iqtisodiy tashkilotlar.

Xalqaro moliyaning rivojlanishida transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklar kabi sub’yektlar faol rol o’ynaydi.

26.3.Milliy iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayoni xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanish evolyutsiyasi bilan uzviy bog’liqdir. Xalqaro moliya munosabatlari jahon xo’jaligining shakllanishi jarayonida alohida o’rin tutadi.

Xalqaro moliya munosabatlari asta-sekin jahon xo’ja-ligining tarkibiy elementiga aylana bordi. Hozirgi vaqtda xalqaro moliya munosabatlarini jahon xo’jaligining rivoj-lanishi natijasida shakllangan mustaqil iqtisodiy tizim sifatida baholash mumkin.

Jahon xo’jaligi – bozor iqtisodiyotining ob’yektiv qonuniyatlariga bo’ysunuvchi xalqaro moliya munosabatlari orqali o’zaro bog’liq milliy iqtisodiyotlar yig’indisi sifatidagi global iqtisodiy tizimdir.

Jahon xo’jaligining barqaror rivojlanishida alohida olingan milliy iqtisodiyotlar holati muhim o’rin tutadi. Chunki, milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy sub’yekti hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida uning tashqi dunyo bilan aloqalari holati, mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki muhim o’rin tutadi. Mamlakat-ning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokining kuchayishida xalqaro moliya munosabatlarini amalga oshirish mexanizmlarini samarali tarzda tashkil etish bilan uzviy bog’liqdir.

Ta’kidlash joizki, xalqaro moliya munosabatlarining predmeti ikkita muhim tarkibiy qismni o’ziga qamrab oladi, ya’ni xalqaro moliyaviy munosabatlar va ularni amalga oshirish mexanizmi. Ma’lumki, mamlakatlar o’rtasidagi xalqaro moliya munosabatlari muayyan mexanizm orqali amalga oshiriladi, bunda xalqaro tashkilotlar tomonidan belgi-langan me’yoriy normalar, davlatlararo darajadagi shart-noma va bitimlar, mamlakatlar o’rtasida o’zaro qabul qilingan kelishuvlarga amal qilinadi.

Xalqaro moliya munosabatlari mexanizmiga huquqiy normalar va ularni amalga oshirish vositalari (shartnomalar, kelishuvlar, bitimlar, rezolyutsiya va konventsiya) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan yo’l-yo’riqlarni amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi xalqaro moliya tashkilotlari kiradi.

Xalqaro moliya munosabatlari jahon xo’jaligi tizimida tez-tez takrorlanib turuvchi turli xil darajadagi kompleks, alohida olingan bir mamlakat va ularning hududiy birlashmalari va sub’yektlari, alohida tashkilotlar o’rtasidagi aloqalarni o’z ichiga oladi.

Xalqaro moliya munosabatlari tuzilmaviy jihatdan quyidagilarni o’rganishni taqozo etadi:

- xalqaro valyuta munosabatlari;
- xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlar;
- xalqaro savdo munosabatlari;
- investitsiyalar va kapitalning xalqaro harakati;
- mamlakatlar to’lov balanslarini boshqarish;
- xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- xalqaro moliya tashkilotlari faoliyati va boshq.

Xalqaro moliya munosabatlarining ob’yektiv asosini xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo’jaligi hamda undagi iqtisodiy aloqalar tizimi tashkil qiladi. Hozirgi zamon jahon xo’jaligi milliy iqtisodiyotlar yig’indisidan iborat bo’lgan global iqtisodiy tizim bo’lib, bozor iqtisodiyotining ob’yektiv qonunlariga, xalqaro mehnat taqsimotiga, ishlab chiqarish va kapitalning xalqaro harakatiga muvofiq tarzda o’zgarib boradi.

Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishining milliy iqtisodiyotga ta’siri quyidagi muhim xususiyatlar orqali namoyon bo’ladi:

- Moliyaviy globallashuv jarayoni. Mazkur jarayon quyidagi o’zgarishlarni o’z ichiga qamrab oladi:

– mamlakatlarni jahon iqtisodiyotidagi jarayonlarga jalb etish;

– ishchi kuchi, texnologiya, kapital, mahsulotlar va xizmatlarning global bozorlarini barpo etish;

– jahon xo’jalik aloqalarining global infratuzil-masini yaratish;

– xalqaro moliya munosabatlari bilan milliy iqtiso-diyotning qoidalarini universallashtirish;

– yirik ishlab chiqarishga asoslangan xalqaro ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish.

- Iqtisodiy integratsion hudud va birlashmalarning tashkil topishi. Milliy iqtisodiyotlarning xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan holda iqtisodiy jihatdan birlashish jarayoni hisoblanadi.
- Xalqaro moliya bozorlaridagi o’zgarishlar. Milliy iqtisodiyotda faoliyat ko’rsatayotgan moliya institutlarining jahon moliya bozorlaridagi ishtirokini muvofiqlashtirib boradi.
- Global raqobatlashuv jarayonining keskinlashuvi. Ushbu holat, milliy iqtisodiyotlar tomonidan jahon bozorlarida o’rin egallash uchun yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida vujudga keladi.
- Transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklar rolining ortib borishi. Bu holat, jahon iqtisodiyotida transmilliylashish jarayoni kuchayishi, ya’ni, alohida mamlakatlarga yoki bir nechta mamlakatlarga tegishli xalqaro kompaniyalar va banklar faoliyatining rivojlanishi, ular tomonidan xorijiy filiallarning kengaytirilishi orqali yuzaga keldi.
- Mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi. Mazkur holat, milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo uchun ochiqlik darajasi orqali ifodalanadi. Bunda, xalqaro moliya munosabatlarining ishtirokchilari uchun muayyan shart-sharoitlarning yaratilishi, xususan, xalqaro savdoda bojlarning pasaytirilishi, xorijiy investorlarni keng jalb etishga qaratilgan qulay investitsiya muhitining yaratilishi hamda valyuta cheklovlarining bekor qilinishi kabi tadbirlar amalga oshirilishi muhim o’rin tutadi.
- Tashqi iqtisodiy aloqalarning xalqaro me’yoriy-huquqiy bazasini qabul etilishi.
- Mamlakatlar o’rtasidagi moliyaviy munosabatlarni xalqaro jihatdan tartibga solish va nazorat qilish tizimini tashkil qilinishi.

Alohida olingan milliy iqtisodiyotning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini bir necha miqdoriy ko’rsatkichlar bilan tavsiflash mumkin:

– eksport kvotasining miqdori, bunda eksport hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi;

– import kvotasining miqdori, bunda import hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi;

– tashqi savdo kvotasining miqdori, bunda tashqi savdo aylanmasi hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi.

Mazkur ko’rsatkichlarni hisoblash asosida mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini baholash mumkin.

Jahon iqtisodiyotida ro’y bergan o’zgarishlar xalqaro moliya munosabatlarining istiqbolda rivojlanish tenden-tsiyalarini belgilab berdi:

– xalqaro moliya munosabatlari sohasida ikki tomonlama munosabatlardan ko’p tomonlama munosabatlarga o’tish;

– jahon xo’jaligida xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;

– xalqaro savdo munosabatlarining an’anaviy tovarlar savdosidan milliy ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita xizmat ko’rsatish vositasiga aylanib borishi;

– kapital migratsiyasining globallashuvi;

– hududiy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining yanada kengayishi va jadallashuvi.

Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishida kapital-ning xalqaro harakati, ayniqsa, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar shaklida u yoki bu mamlakatga kirib borishi, shuningdek, xalqaro savdoning mahsulotlar, turli xizmatlar ko’rsatish, texnologiyalar sohasidagi rivoji ijobiy omil sifatida ta’sir ko’rsatmoqda.

Jahon savdosining o’sishi, ishlab chiqarishning ixtisos-lashuvi va kengayishi, xalqaro kapital harakatining rivoji, chegaralararo tovarlar, xizmatlar hamda ishchi kuchi migra-tsiyasi xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanishiga, shuningdek, jahon moliya bozorlarining taraqqiy etishiga hamda transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishiga, xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jabhalarini jadal-lashuviga imkon yaratdi

Moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro moliyaning vazifalari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

– milliy iqtisodiyotlarning yagona xalqaro tizimga integratsiyalashuvini ta’minlash;

– xalqaro savdo hamda tovarlar, xizmatlar va kapital ayirboshlashning oqilona harakatini tashkil etish;

– milliy iqtisodiyotlarni xalqaro iqtisodiy va moliyaviy o’zgarishlarga moslashtirish;

– mamlakatlarning milliy moliyaviy siyosatini yuriti-shida tavsiyalar berish.

Xalqaro moliya munosabatlari tarkibiga xalqaro aylanmaga kelib tushgan va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda, ya’ni

rezedentlarning tashqi dunyo bilan yuzaga keladigan munosabatlarida qo'llaniladigan moliyaviy munosabatlar tizimi kiritiladi. Xalqaro moliya quyidagilarga xizmat qiladi:

Birinchidan, turli mamlakat rezedentlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga va o'zaro hamkorlikka;

Ikkinchidan, jahon mamlakatlarining turli xil moliyaviy institutlar bilan yuzaga keladigan o'zaro munosabatlariga;

Uchinchidan, turli mamlakatlar rezidentlarining xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalarini tashkil etishga.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida xalqaro moliya munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Bunda, avvalo mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarining taraqqiy etishi alohida o'rin tutmoqda. Ushbu holat o'z navbatida xalqaro valyuta munosabatlari va xalqaro xisob-kitoblarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

26.4.Valyuta kursi va valyuta bozorlari

Valyuta ayirboshlash kursi mamlakat iqtisodiyotini boshqa mamlakatlar bilan bog'lovchi asosiy omillardan biridir.

Bir valyutaning boshqa valyuta birligidagi bahosi valyuta kursi deb ataladi. U mamlakat iqtisodiyotiga, hatto aholining turmush tarziga ham ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, valyuta kursining o'zgarishi mamlakat eksport tovarlarining raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir qiladi, ikkinchidan, milliy valyuta almashuv kursining pasayishi import tovarlari va xizmatlarining milliy valyutadagi bahosining oshishiga olib keladi va shuning asosida aholi xarid quvvatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Valyuta yoki ayriboshlash kursi ma'lum bir mamlakatni tashqi dunyo bilan bog'lab turadi, shuningdek milliy iqtisodiyot holatini tashqi dunyo bilan taqqoslash, xalqro iqtisodiy operatsiyalar samaradorligini baholash imkonini beradi. Valyuta kursi mamlakatning joriy iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy holati va istiqboldagi rejalari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Iqtisodiyoti nisbatan ochiq mamlakatlar uchun valyuta kursi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Chunki uning iqtisodiyotga bevosita yoki bilvosita ta'sir etishi, valyuta kursidagi keskin o'zgarishlar esa, milliy iqtisodiyotda inqirozli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Xususan, valyuta kursining o'zgarishi mamlakatdagi umumiy talab hajmiga, narxlar darajasiga, foiz stavkalar o'zarishiga, mamlakat

ichidagi daromadlar taqsimotiga, va iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Valyuta kursi inflyatsiyani hisobga olishiga ko’ra nominal va real almashuv kurslariga bo’linadi. **Nominal ayirboshlash kursi** — bu ikki mamlakat valyutasining nisbiy bahosidir. **Real ayirboshlash kursi** — bu ikkita mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy bahosi. Real ayirboshlash kursi nominal kurs va tovarlarning milliy valyutadagi narxiga bog’liq bo’lib quyidagi formula bo’yicha hisoblanadi:

$$R = e \times P / P^*$$

Bunda, e — nominal ayirboshlash kursi, P — bitta mamlakatdagi baholar darajasi, P* — esa boshqa mamlakatdagi baholar darajasini ifodalaydi. Bunda :

$$e = R \times P^* / P$$

Ma’lumki, milliy valyuta kursining 3 asosiy rejimi mavjud:

1. Erkin suzish rejimi.
2. Qat’iy belgilangan kurs rejimi.
3. Boshqariladigan suzish rejimi.

Agar milliy valyutaning kursi erkin tarzda valyuta bozorida talab va taklif asosida shakllansa, bu erkin suzib yuruvchi kurs rejimini anglatadi. Bunda mamlakat Markaziy banki milliy valyuta kursining ma’lum holati uchun javob bermaydi. Bu kurs rejimi erkin ayirboshlanadigan barcha zaxira valyutalariga tegishli. Shunday mamlakatlar borki, ularda joriy operatsiyalar bo’yicha valyutaviy cheklovlar bekor qilingan, ammo boshqariladigan suzish rejimi qo’llaniladi. Bunday davlatlarga misol qilib Meksika, Quvayt, BAA kabi davlatlarni ko’rsatish mumkin. Lekin bu holat valyutalarning almashinish sharti bilan rejimi o’rtasidagi aloqadorlikni inkor etish uchun etarli emas.

Qat’iy belgilangan kurs rejimida mamlakatning milliy valyuta kursi xorijiy valyutaga nisbatan ma’lum nisbatda o’rnatiladi va Markaziy bank kursning belgilangan nisbati uchun javob beradi. Ammo qat’iy belgilangan valyuta kurslari valyuta operatsiyalarini keng ko’lamda rivojlanishiga to’sqinlik qiladi, lekin uning iqtisodiyotga ijobiy jihatlari ham bor. Ana shunday ijobiy jihatlaridan biri shundaki, qat’iy belgilangan kurs rejimida valyuta riski muammosi chuqurlashmaydi.

70-yilning o’rtalaridan boshlab markaziy banklarning kurs siyosatida o’zgarishlar paydo bo’ldi. Rasman erkin suzish rejimini tan olgan markaziy banklar (Avstriya, Italiya markaziy banklari va boshqalar) valyuta kursiga ta’sir qilish uchun valyuta interventsiyasini tez-tez amalga oshira boshladilar. Bu holat XVF ekspertlari tomonidan “boshqariladigan suzish” degan nomni oldi.

Valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi fundamental omillarning 4 turini alohida ajratib ko’rsatish mumkin. Xususan:

1. Iqtisodiy omillar. Iqtisodiy omillarning asosiylari sifatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi to’g’risidagi ma’lumotlar(YaIM, Sanoatning o’sishi, ishsizlik va aholining mehnat bilan bandligi, inflyatsiya, foiz stavkalar va h.k.)ning o’zgarishi (1-jadvalga qarang), mamlakatlar markaziy banklari boshliqlarining chiqishlari va yig’ilishidagi qarorlar, valyuta interventsiyasi, moliya bozorining valyutadan tashqari boshqa bozorlaridagi o’zgarishlarni qayd etib o’tish mumkin.

2. Siyosiy omillar. Siyosiy omillarning asosiylari sifatida prezident, davlat va hukumat boshliqlarini saylash jarayoni va uning natijalari, ularning iste’foga chiqishi, shuningdek, markaziy banklar yoki pul-kredit siyosati bilan shug’ullanuvchi davlat organlari rahbar kadrlar almashinuvi, geosiyosiy to’qnashuv va inqirozlarni ko’rsatish mumkin.

3. Turli xabarlar va kutishlar. Global valyuta bozorida investorlarni harakatga keltiruvchi shunday ibora bor, ya’ni “turli xabarlar, mish-mish gaplar, ovozalar asosida valyutalarni sotib ol va fakt (dalil, isbot)larga asoslangan holda ularni sot”. Global valyuta bozorida oltin qoidaga aylangan ushbu ibora, shuningdek boshqa psixologik omillar investorlarning bozordagi harakatini faollashtirishi yoki susaytirishi mumkin.

4. Fors-major holatlari. Favqulotda sodir bo’lgan hodisalar, masalan, suv toshqini, zilzila, yirik ko’lamli yong’in, turli zararli epidemiyalarni, gaz va boshqa zarralarni ommaviy tarqalishi, kuchli to’fon yoki dovullar va h.k.lar natijasida turli darajadagi vayronagarchilikni yuzaga kelishi. Shuningdek, mamlakatda terroristik hurujlarni, hujum va harakatlari sodir etilishi ham valyuta kurslari o’zgarishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

1-jadval

AQShning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini milliy valyuta kursi(qadri)ga ta'siri

Ko'rsatkichlar	E'lon qilish davri	Ko'rsatkichning o'zgarishi	Milliy valyuta kursi (qadri)ning o'zgarishi	Iqtisodiy mazmuni va ta'sir ko'rsatishi
Yalpi ichki mahsulot (YaIM) (GDP - Grossdomesticproduct)	Har chorak	O'sishi	Oshadi	Mamlakatning investitsiyalarni jalb etish jozibadorligi ortadi
Savdo balansi (Tradebalance)	Har oy	Salbiy qoldiq (saldo)ning o'sishi(defitsitning ko'payishi)	Pasayadi	Markaziy bank va hukumatning pul siyosatiga, eksport va import operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar daromadiga ta'sir ko'rsatadi
Iste'mol narxlari indeksi (Consumerpriceindex (CPI))	Har oy	O'sishi	Pasayadi	Chakana savdo mahsulotlari narxida inflyatsiya darajasini ko'rsatadi
Sanoat mahsulotlari narxi indeksi(Producer price index (PPI))	Har oy	O'sishi	Pasayadi	Ulgurji savdo mahsulotlari narxida inflyatsiya darajasini ko'rsatadi
Iqtisodiyotning qishloq ho'jaligidan tashqaridagi tarmoqlarida yaratilgan yangi ish o'rinlari miqdori (Nonfarm payrolls)	Har oy	O'sishi	Oshadi	Mamlakatdagi aholining mehnat bilan bandligini ko'rsatadi va ishsizlik darajasidan darak beradi
Ishsizlik darajasi (Unemployment rate)	Har oy	O'sishi	Pasayadi	Mamlakatdagi aholining mehnat bilan bandligini ko'rsatadi
Ishsizlik bo'yicha nafaqa olish uchun berilgan arizalar (Jobless claims (Initial claims))	Har oy	O'sishi	Pasayadi	Mamlakatdagi aholining mehnat bilan bandligini ko'rsatadi
Chakana savdo (Retail sales)	Har oy	O'sishi	Oshadi	Iste'molchilarning xarajatlarini va unga mos ravishda daromadlarini, shuningdek korxonalar foydasini ko'rsatadi.
Uzoq muddatli (odatda 3 yildan ortiq) foydalanish uchun mo'ljallangan (qimmat) mahsulotlarga buyurtmalar (Durable goods orders)	Har oy	O'sishi	Oshadi	Iste'molchilar daromadlarini, korxonalar foydasini, shuningdek ularning uzoq muddat davomida daromad, yoki foyda olishlariga ishonchini ifodalaydi.
Yangi turar-joy, uylarni qurish (Housing starts)	Har oy	O'sishi	Oshadi	Iste'molchilarning uzoq muddatli davriy oraliqda ko'p daromad olishlarini anglatadi
Sanoat sohasida mahsulotlar ishlab chiqarish (Industrial production)	Har oy	O'sishi	Oshadi	Mamlakatdagi ishlab chiqarish darajasini ko'rsatadi va unga investitsiyalarni jalb etish jozibadorligini oshiradi
Chikagodagi menejerlar uyushmasining (Chicago PMI index)[140], Filadelfiyadagi Federal zaxira bankining (Philadelphia Fed index)[141]ish faolligi, Michigan universitetining iste'molchilarning iqtisodiy ruhiyati* (Michigan consumer sentiment Index), shuningdek, iste'molchilarning ishonch* (Consumer confidence index) indekslari	Har oy	O'sishi	Oshadi	Valyuta bozori ishtirokchilari va investorlar psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi
Fond bozori indekslari: DJI - (The Dow Jones Industrial); S&P – 500; NASDAQ-100; FTSE; Xetra DAX; Nikkei-225	Doimiy	O'sishi	Oshadi	Bozor iqtisodiyotining "barometri" bo'lib, ularda mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi barcha hodisalar o'z aksini topadi
Federal zaxira tizimining qayta moliyalash stavkasi (Federal funds and Discount rates, iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashda asosiy foylaniladigani - Federal funds rate)	Doimiy	O'sishi	Oshadi	Kreditlash hajsi qisqaradi, muomaladagi dollar miqdori kamayib, uning qadri ortadi

[140] Purchasing Manager Index PMI – xarid bo'yicha menejerlarning kutishi indeksi bo'lib, sanoat, yangi byurtmalar, takliflar va ish bilan bandlik indekslaridan tashkil topadi va Chikago Menedjerlar Assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilinadi. Agar indeks ko'rsatgichi 50 punktdan ortiq bo'lsa ish faolligi yuqoriligidan dalolat beradi. Ushbu ko'rsatkich Chikagoda kompaniyalarning mahsulotlar ishlab chiqarish faolligini bashoratlash va ular bo'yicha investitsion qarorlar qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi.

[141] Philadelphia Fed Index , - Filadelfiyadagi Federal zaxira bankining ish faolligi indeksibo'lib, AQShning Pensilvaniya, Nyu-Djersi va Delaver hududlarida umumiy iqtisodiy holatni ko'rsatuvchi indeks hisoblanadi. U joriy iqtisodiy holatga xududdagi ishlab chiqaruvchilarning munosabatini ifodalaydi, so'rovnomalar natijasida har oyda e'lon qilinadi. Agar indeks "0"dan yuqori bo'lsa, hududda iqtisodiy faollik ortayotganidan, agar indeks manfiy, ya'ni "0"dan kichik bo'lsa, aksincha iqtisodiy faollikning pasayib borayotganidan dalolat beradi. Indeks sarmoyadorlar tomonidan investitsion qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

*Oxirgi har ikkala indeks iste'molchilarning joriy iqtisodiy holatga ishonchini va bugungi kundagi xarajatlarga moyilligi yoki xohishini ifodalaydi. Iste'molchilar xarajatlarining ortishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Valyutalarning eng asosiy xususiyatlaridan biri bu uning konvertatsiyasi, ya’ni ayirbolanish qobiliyati hisoblanadi. **Valyuta konvertatsiyasi** bu milliy valyutaning xorijiy valyutaga erkin ayirboshlanish, xorijiy mahsulot va xizmatlarni to’lash qobiliyatidir.

Valyutalar konvertatsiya darajasiga qarab, asosan 3 turga bo’linadi:

1. Erkin konvertatsiya qilinadigan;
2. Qisman konvertatsiya qilinadigan;
3. Konvertatsiya qilinmaydigan.

Erkin konvetatsiya qilinadigan valyutalarga milliy iqtisodiyoti mustahkam, iqtisodiy o’sish imkoniyatiga ega bo’lgan, milliy valyutasiga chet ellik hamkorlar ishonadigan, odatda sanoati rivojlangan mamlakatlar ega bo’ladilar. O‘zining milliy valyutasining erkin konvertatsiyasini ta’minlash maqsadida davlatlar ichki bozorda mahsulotlar va xizmatlarning jahon bozoridagi narxlarini shakllantirigan va unga ta’sir ko’rsatmagan holda erkin tashqi savdo rejimini tashkil etishlari zarur bo’ladi. Buning uchun esa, mamlakat Markaziy banki valyuta ayirboshlash operatsiyalarini tartibga solish, xorijiy valyutani olib kelish va chiqib ketish bo’yicha ma’muriy cheklovlarni joriy etmasdan, o’zida etarlicha oltin-valyuta zaxirasiga ega bo’lishi talab etiladi. Mamlakatlar tomonidan milliy valyutaning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan to’liq konvertatsiyasiga rasmiy ravishda (ya’ni, amalda esa boshqacha bo’lgani holda) erishish mamlakat uchun katta miqdorda iqtisodiy zarar keltirishi mumkin.

Erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarning ma’lum bir qismi zaxira valyutalar hisoblanadi. **Zaxira valyutalar** boshqa mamlakatlar markaziy banklari tomonidan saqlanadigan va xalqaro hisob-kitoblar uchun zaxira vositasi hisoblangan valyutalardir. Bugungi kunda, zaxira valyutalar sifatida AQSh dollari, funt sterling, evro, Yaponiya yenasi, Shveytsariya franki qayd etilmoqda.

Qisman konvertatsiya qilinadigan valyutalar cheklangan miqdordagi xorijiy valyutalarga ayirbosh qilinib, barcha turdagi xalqaro to’lovlarda foydalanilmaydi. Dunyoning ko’plab mamlakatlari, jumladan asosan rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan mamlakatlarning valyutalari qisman konvertatsiya qilinadigan valyutalar sifatida qayd etiladi.

Konvertatsiya qilinmaydigan valyutalar boshqa mamlakatlar valyutalariga ayirboshlanmaydi. Ular faqat mamlakat ichida milliy pul birligi sifatida foydalaniladi.

Valyuta kurslarini prognozlash (bashoratlash) – kelajakda yuzaga keladigan valyuta kurslarini hisoblashdir. Bunday hisob-kitoblarnng keng tarqalgan turi bu forvard kursini hisoblashdir.

Valyuta bozori – bu xorijiy valyutaga nisbatan talab va taklif to'qnash keladigan bozordir[142]. Valyuta bozori pul bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Pul bozori esa, o'z navbatida, kapitallar bozori bilan birgalikda moliya bozorini tashkil etadi.

Valyuta bozori, shuningdek, tashkiliy va tashkiliy-texnik nuqtai-nazardan ham qaralishi mumkin. Tashkiliy nuqtai-nazardan valyuta bozori talab va taklif asosida valyuta va valyutaviy qiymatliklarni sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan rasmiy moliyaviy markazlar sifatida o'zini namoyon qiladi. Tashkiliy-texnik nuqtai-nazardan valyuta bozori turli mamlakatlardagi banklar va birjalarni bog'lovchi zamonaviy telekommunikatsiya vositalari majmuini anglatadi.

Valyuta bozorlari- bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir. Ya'ni, valyuta bozori - bu chet el valyutasini oldi-sotdisini va chet el valyutasidagi qimmatbaho qog'ozlarni, hamda valyutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi markaz hisoblanadi.Valyuta bozori moliya bozorining muhim va asosiy qismini tashkil qiladi.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalarning asosi bo'lib, tashqi savdo bo'yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo harakati hamda chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy iqtisodiyotni faqat shu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barcha ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Demak, mamlakatlar o'rtasida eksport-import operatsiyalari albatta amalga oshishi yuz beradi.

Hozirgi zamon valyuta bozorlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular zamonaviy elektron aloqalar orqali bir-biri bilan uzviy bog'langan. Turli mamlakatlarda

---

[142] Simionov Yu.F., Nosko B.P. Valyutnie otnosheniya: Uchebnoe posobie.– Rostov n/D: Feniks, 2001. – 320 s.

joylashgan xalqaro valyuta bozorlari valyutalarni oldi-sotdi qilish jarayonida bir-biriga nisbatan doimiy ta’sirda bo’ladi. Jahon valyuta bozorlari asosan valyutaviy cheklashlar bo’lmagan yoki zaif tarzda mavjud bo’lgan mamlakatlarda joylashgan.

Valyuta bozorlarining, asosan, 3 turini ko’rsatish mumkin, ular milliy, hududiy va jahon valyuta bozorlaridir.

Valyuta bozorida sotib oluvchi sifatida - talab va sotuvchi sifatida - taklif, bir-biri bilan uchrashadi. Sotib oluvchi yoki sotuvchi sifatida qatnashayotgan har qanday iqtisodiy sub’yekt, ya’ni davlat, xo’jalik sub’yekti yoki fuqaro o’zining moliyaviy qiziqishlariga ega bo’ladi. Bu moliyaviy qiziqishlar bir-biri bilan mos kelishi ham, mos kelmasi ham mumkin. Manfaatlar bir-biri bilan mos kelgan taqdirda, valyuta qimmatliklarini oldi-sotdisi haqida bitim tuziladi. Shuning uchun, valyuta bozori valyuta qimmatliklarini sotuvchi va xaridorning qiziqishlarini namoyon qiluvchi o’ziga xos iqtisodiy instrument hisoblanadi.

Funktsional nuqtai nazardan qaraganda, valyuta bozorlari o’z vaqtida xalqaro hisob-kitoblarni, valyuta risklarini sug’urtalashni, valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalashni, valyuta interventsiyasini amalga oshiradigan va valyuta bozorida qatnashuvchilarning kurslari o’rtasidagi farq natijasida keladigan daromadni o’zida namoyon qiladi.

Institutsional nuqtai nazardan qaraganda, valyuta bozorlari vakolatli banklarning, investitsion kompaniyalarning, birjalar, brokerlik idoralari, chet el banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini o’zida namoyon qiladi. Tashkiliy-texnik nuqtai nazardan qaraganda, valyuta bozori jahonning turli mamlakatlari bilan xalqaro hisob-kitoblar va boshqa valyuta operatsiyalarini bir-birini o’zaro bog’lovchi telegraf, telefon, teleks, elektron aloqa vositalari va shu kabi kommunikatsiya tizimlari yig’indisini o’zida namoyon qiladi.

Valyuta bozorida sotuvchi va xaridor o’rtasida chet el valyutasini oldi-sotdi qilishda dallol bo’lib, faqatgina **banklar** qatnashadilar. Valyuta bo’limining asosiy vazifasi bo’lib, o’zining mijozlariga ma’lum bir valyutadagi aktiv va kapitallarini boshqa bir xorijiy valyutaga konvertirlashni ta’minlash hisoblanadi. Bu jarayon “naqd bitim”, ya’ni spot operatsiyasi yoki “muddatli bitimlar”, ya’ni ularning keng tarqalgan shakli - forvard operatsiyalari shaklida bo’lishi mumkin.

Jahon valyuta bozorida valyuta oldi-sotdisi tunu-kun amalga oshiriladi. Bunga asosiy sabab, jahon hududiy valyuta bozorlarining turli soat millarida joylashganligi bilan bog'liqdir. Hozirgi vaqtda Osiyo - Tokio, Gonkong, Singapur, Melburndagi markazlari bilan, Yevropa - London, Frankfurt-na Mayne, Tsyurix, Amerika - Nyu-York, Chikago, Los-Andjeles valyuta bozorlari jahon valyuta bozor-larining asosiy qismini egallagan.

Xorijiy valyutadagibitimlar dunyoning ko'plab bank-larida, taxminan, ertalab soat 9^{00} da boshlanadi, biroq, dilerlarning ish faoliyati bu bitimlarni tuzishdan kamida bir soat oldin boshlanadi. Har kuni ertalab, chet el valyutasi bo'yicha mas'ul xodim (bo'lim boshlig'i) o'zining xodimlarini bitimlar tuzish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, hamda zaruriy ma'lumotlar va yangiliklar bilan ta'minlaydi.

Jahonning hududiy valyuta bozorlarida odatda barcha valyutalar kotirovka qilinmaydi, balki faqatgina, ushbu bozorda qatnashayotganlarga kerakli bo'lgan valyutalar, ya'ni mahalliy pul belgilari va bir qator yetakchi erkin konvertirlanadigan valyutalar, birinchi navbatda, zaxira valyutalar (AQSh dollari, Yaponiya ienasi, evro, Shveytsariya franki va shu kabi valyutalar)dan keng foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, kurs asosan, yirik banklar, xalqaromoliyaviy tashkilotlarning market-meykerlari tomonidan, kutilayotgan talab va taklif o'rtasidagi farqqa bog'liqholda o'rnatiladi.

Market-meykerlar - bu turli valyutalarni bitimlar bo'yicha sotib olish va sotish kurslari kotirovkasini doimiy ravishda amalga oshiruvchi moliya muasassalari hisoblanadi.

Albatta, market-meykerlar faqatgina chet el valyutalarini milliy valyuta bilan solishtirmaydilar, balki ular milliy valyutaga tegmagan holatda chet el valyutalarini o'zlarini kotirovkalarini ham amalga oshirishlari mumkin.

Umuman, ma'lum bir valyutalarni emitenti bo'lgan mamlakatlarda shu valyuta bo'yicha market-meykerlar mazkur mamlakatda joylashgan bo'ladi. Evro bo'yicha yetakchi market-meykerlarni Germaniyadan, Shveytsariya franki bo'yicha esa, Shveytsariyadan topish mumkin.

Nisbatan kam banklar, butun dunyo bo'yicha valyuta kotirovkasini beradilar, shunday bo'lsada, Buyuk Britaniyaning

keng tarmoqli kliring banklari kabilar o’z mijozlariga keng ko’lamda kotirovkalarini taklif etadi.

Valyuta bozorida kam uchraydigan valyuta bilan bog’liq operatsiyalarni tijorat banklarida diling bo’limini o’zi emas, balki qo’shimcha bo’limlar amalga oshiradilar. Kam uchraydigan valyutalar, asosan, valyuta bozori rivojlanmagan mamlakatlarda yoki chet el valyutasi bilan bog’liq operatsiyalarga ma’lum bir cheklovlar qo’yilgan mamlakatlarda uchraydi. Albatta, bunday cheklovlar mamlakat hududiga valyuta kirib kelishiga emas, balki ko’proq chiqib ketishiga joriy qilinishi keng qo’llaniladi. Agar, banklar ushbu (kam qo’llaniladigan) valyutalar bo’yicha mijozlarning talablarini bajara olmasa, ular o’zlarining filiallari yoki boshqa valyutalarda pul qabul qilish yoki to’lovni amalga oshirish maqsadida vakillik banklardan foydalanadilar.

Valyuta bozorlarini quyidagi belgilarga muvofiq tasniflash mumkin:

1) yoyilish ko’lamiga qarab: xalqaro va milliy valyuta bozorlari;

2) valyutaviy cheklovlarga nisbatan: erkin va erkin bo’lmagan valyuta bozorlari;

3) valyuta kurslari turiga ko’ra: bir rejimli va turli rejimli valyuta bozorlari;

4) tashkiliy darajasiga ko’ra: birja va birjadan tashqari valyuta bozori.

Xalqaro valyuta bozorlari dunyoning barcha davlatlari valyuta bozorlarini qamrab olib, pul oqimlari, tovar va xizmatlar harakatini, kapitalning qayta taqsimlanishini, xalqaro to’lov aylanmasida keng foydalaniladigan valyutalar bilan operatsiyalarni ta’minlaydi.

Milliy valyuta bozori – bu, birinchidan, bir davlatning valyuta bozori, ya’ni ushbu davlat hududida amal qiladi; ikkinchidan, mazkur davlat hududida joylashgan banklar tomonidan mijozlariga xorijiy valyutada xizmat ko’rsatish bo’yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar majmuidan iborat bo’ladi.

Milliy valyuta bozorlari mamlakat ichkarisida pul oqimlarining harakatini ta’minlaydi va jahon moliya bozorlari bilan aloqalarga xizmat qiladi.

Valyutaning konvertirlanishi umuman ta’minlanmagan sharoitda milliy valyuta bozori samarali faoliyat ko’rsata olmaydi. Konvertirlikka ega bo’lmagan pul birligi faqatgina davlatlararo

munosabatlarda shartli hisob-kitob vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. Bunday sharoitda “qora” bozorda “xufyona” kurs, ya’ni xorijiy valyutaning rasmiy konvertirlik bo’lmagan sharoitdagi bozor bahosi shakllanishi mumkin.

Erkin valyuta bozori hech qanday valyutaviy cheklovlarsiz amal qilgani holda, erkin bo’lmagan valyuta bozorida valyutaviy cheklovlar mavjud bo’ladi.

Bir rejimli valyuta bozori – bu valyuta kursining erkin suzish rejimi amal qiladigan bozor bo’lib, undagi kotirovkalar birja savdolarida talab va taklif asosida o’rnatiladi. Bunday valyuta bozori uzoq yillar mobaynida barqaror iqtisodiy rivojlanishning ta’minlanishi, shuningdek, valyutani tartibga solish va valyutaviy nazoratning bozor mexanizmiga xos shakllarini qo’llanishi uchun etarlicha shart-sharoit yaratilgan davlatlarda shakllanadi.

Turli rejimli valyuta bozori – bu ko’p pog’onali valyuta kurslari rejimiga ega bo’lgan bozordir. Ushbu valyuta bozori davlatning kapital harakatini tartibga solishga qaratilgan maqsadlariga xizmat qiladi va ssuda kapitali bozorining mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan ta’sirini cheklash va nazorat qilishga imkon beradi.

Birja valyuta bozori – valyuta birjalari ko’rinishida namoyon bo’ladigan tashkiliy bozordir. Valyuta birjasi – bu valyuta va xorijiy valyutadagi qimmatli qog’ozlar savdolarini tashkil qiluvchi tashkilotdir. U tijorat tashkiloti emas, ya’ni uning faoliyati yuqori foyda olishga qaratilmagan.

Birjadan tashqari valyuta bozori mohiyatiga ko’ra banklararo valyuta bozori bo’lib, uning tashkilotchilari dilerlar hisoblanadi. Birjadan tashqari valyuta bozorida quyidagi operatsiyalar amalga oshiriladi:

- xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish operatsiyalari;
- naqd xorijiy valyutalar bilan amalga oshiriladigan valyuta-almashuv operatsiyalari;
- forvard operatsiyalari;
- valyuta optsionlari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

Mazkur bozorda valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun vakolatli banklar o’z resurslari va jalb qilingan valyuta mablag’laridan foydalanishlari mumkin.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalarning asosi bo’lib, tashqi savdo bo’yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va

kreditlarning davlatlararo harakati hamda chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta operatsiyalari vujudga kelishi uchun ob'yektiv asos bo'lib, tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati xizmat qiladi. Xalqaro mehnat taqsimoti yuzaga kelishi eksport-import operatsiyalarining yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ladi.

Valyuta operatsiyalarining keng ko'lamda rivojlanishi tijorat banklariga ushbu bozorda erkin harakat qilishga va ayni vaqtda ularni tartibga solishga imkoniyat tug'diradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy iqtisodiyotni faqat shu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barcha ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Demak, mamlakatlar o'rtasida eksport-import operatsiyalari albatta amalga oshishi yuz beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, valyuta bozorlarining ahamiyati milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuviga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

26.5. To'lov balansi va uni tartibga solish yo'llari

Mamlakat to'lov balansining holati bugungi kunda nafaqat mamlakatning xalqaro operatsiyalarini aks ettiruvchi oddiy hujjat, balki ushbu mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi, uning iqtisodiy-geografik va investitsion imkoniyatlari, oltin-valyuta zaxiralari va mavjud valyuta munosabatlarining qay darajada ekanligi hamda xalqaro raqobatbardoshligi haqida aniq xulosalar shakllantirish imkonini beruvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

To'lov balansi bu shunday hujjatki, unda mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to'lovlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. To'lov balansi – ma'lum vaqt oralig'ida rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi barcha o'tkazmalarning o'lchovidir.

To'lov balansining standart komponentlari hisobvaraqlarning ikki asosiy guruhi bo'yicha ajratilishi mumkin:

– joriy operatsiyalar hisobvarag'i, unda tovarlar, xizmatlar, olingan daromadlar va joriy transfertlarni qamrab oluvchi iqtisodiy bitimlar hisobga olinadi;

– kapitallar va moliyaviy instrumentlar bilan bog’liq operatsiyalar hisobvarag’i, unda kapital transfertlari, nomoliyaviy aktivlarni sotib olish, shuningdek, moliyaviy talablar va majburiyatlar bilan bog’liq operatsiyalar hisobga olinadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda to’lov balansi moddalarining uch asosiy analitik guruhlari ajratib ko’rsatiladi:

1) savdo balansi;

2) joriy operatsiyalar balansi;

3) umumiy to’lov balansi yoki rasmiy hisob-kitoblar balansi.

Joriy operatsiyalar hisobvarag’ining muhim tarkibiy qismi – bu savdo balansi bo’lib, tovarlar eksporti va importi o’rtasidagi farqni ifoda etadi. Savdo balansining o’zgarishi turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, eksportning importdan oshishi mamlakat tovarlariga jahon bozorlarida talabning oshganligi bilan izohlanadi. Agar butun dunyo mazkur mamlakatning eksport tovarlarini xarid qilsa, shuningdek, uning rezidentlari mahalliy tovarlarni import tovarlaridan afzal bilsa, demak xulosa qilish mumkinki, mamlakat iqtisodiyotining holati yaxshi hisoblanadi. Aksincha, savdo balansining defitsiti mazkur mamlakat eksport tovarlarining etarli darajada raqobatbardosh emasligi va aholi turmush tarzini himoya qilish uchun zaruriy choralar ko’rish lozimligidan dalolat berishi mumkin. Bunday tahlil agar savdo balansidagi o’zgarish haqiqatda mazkur davlat tovarlariga bo’lgan talabning ortishi yoki kamayishi hisobiga yuz bersa maqsadga muvofiq sanaladi. Biroq savdo balansiga boshqa omillarning ta’siri ham sezilarli bo’lishi mumkin. Jumladan, qulay investitsion muhit mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini rag’batlantirish bilan birga xorijdan sotib olinadigan asosiy vositalar miqdorining ham ortishiga sabab bo’lishi mumkin. Bu holat ham savdo balansi defitsitini yuzaga keltiradi, lekin mamlakat iqtisodiyotiga keskin salbiy ta’sir ko’rsatmaydi.

Joriy operatsiyalar balansi kengroq axborotni o’zida jamlab, tovar va xizmatlar harakati bilan bog’liq aktivlar oqimini aks ettiradi. Joriy operatsiyalar bo’yicha ijobiy saldo tovar, xizmat va xadyalar harakati bo’yicha kredit debetdan yuqoriligini anglatadi. Boshqacha aytganda, ijobiy saldo mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan netto investor hisoblanadi. Aksincha joriy operatsiyalar bo’yicha defitsit mamlakatning sof qarzdor ekanligidan dalolat beradi.

Merkantilistlar iqtisodiy maktabining kontseptsiyasiga muvofiq, muvozanat joriy operatsiyalar balansi atamasida aniqlangan. Bunda ta'kidlab o'tilgan saldo kapitallar harakati, mamlakat oltin-valyuta zaxiralaridagi o'zgarishlarni hisobga olmagan. Shunday qilib, merkantilist maktabi namoyondalari fikricha, iqtisodiy siyosatning maqsadi joriy operatsiyalar hisobvarag'i bo'yicha ijobiy saldoni maksimallashtirish va shuning asosida, mamlakatda oltinning jamlanishiga erishishdan iborat bo'ladi.

Joriy operatsiyalar balansi defitsitining uzoq muddatli xorijiy kapital hisobidan moliyalashtirilishi muvozanat mezoni sifatida to'lov balansining umumiy saldosi tushunchasining paydo bo'lishiga olib keldi.

To'lov balansining davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, to'lov balansiga muvozanatsizlik xos bo'lib, bu holat yoki defitsit, yoki haddan tashqari aktiv qoldiq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu nomutanosiblik valyuta kursi dinamikasiga, kapital oqimiga, iqtisodiyotning holatiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQSh, joriy operatsiyalaridagi defitsitni milliy valyuta bilan qoplash natijasida, inflyatsiyani boshqa davlatlarga eksport qilishga erishgan. Bu esa, xalqaro aylanmadagi dollar ortiqchaligini keltirib chiqardi va XX asrning 70-yillarida Bretton-vuds tizimining izdan chiqishiga olib keldi.

Ikkinchidan, XX asrning 30-yillarida oltin-deviz standarti joriy qilingandan so'ng, to'lov balansini muvozanatlashtirishning baho mexanizmi ish bermay qo'ydi. Shu sababli ham, to'lov balansini davlat tomonidan ma'lum tadbirlar orqali boshqarilishi maqsadga muvofiq bo'lib qoldi.

Uchinchidan, xo'jalik aloqalari tobora globallashib borayotgan hozirgi davrda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida to'lov balansining roli borgan sari ortib bormoqda. To'lov balansini muvozanatlashtirish vazifasi — davlatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, inflyatsiyani jilovlab turish va ishsizlikni kamaytirish kabi vazifalar bilan bir qatorda e'tirof etilmoqda.

To'lov balansini muvozanatlashtirish, odatda, bir qancha ichki va tashqi omillarning to'lov balansiga ta'sirini baholashni taqozo etadi. Aktiv balansga ega bo'lgan davlatlar, xalqaro hisob-

kitoblarga kirishuvchi mamlakatlarda makroiqtisodiy barqarorlikni mavjud bo'lishidan manfaatdor bo'ladi.

Defitsitli to'lov balansiga ega bo'lgan davlatlar esa, aktiv balansga ega bo'lgan o'z hamkorlaridan import bo'yicha cheklovlarni kamaytirish, mazkur mamlakatlarga kapital chiqarilishini rag'batlantirish kabilarni talab qiladi.

To'lov balansida defitsit mavjud bo'lgan davlatlar tomonidan, eksportni rag'batlantirish, import qilinayotgan tovarlarni kamaytirishga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, kapitalni olib chiqib ketishni chegaralashga qaratilgan quyidagi tadbirlar qo'llaniladi:

Deflyatsion siyosat. Bu siyosat, ichki talabni kamaytirishga yo'naltirilgan holda, o'z ichiga byudjet mablag'larini aholi ehtiyojlariga kamroq sarflash, baholarni va ish haqlarini muzlatish kabilarni qamrab oladi. Uning asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, moliyaviy va pul-kredit choralari hisoblanadi: byudjet defitsitini kamaytirish, Markaziy bankning hisob stavkalarini o'zgartirishi (diskont siyosati); kredit cheklovlari; pul muassasining o'sib borishiga chegara qo'yish. Iqtisodiy pasayish, ishsizlikning yuqori ko'rsatkichi va to'la foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari sharoitida deflyatsiya siyosatini qo'llash, ishlab chiqarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi. Bu esa, aholining turmush darajasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatib, vaziyatni yumshatish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar qo'llanilmasa, ijtimoiy nizolar keltirib chiqarishi mumkin.

Devalvatsiya. Bu milliy valyuta kursining pasaytirilishidir. Bu tadbir milliy eksportni rag'batlantirish va importni jilovlash bilan bog'liq maqsadlarda amalga oshiriladi. Ammo, to'lov balansini tartibga solishda devalvatsiyaning roli, uni o'tkazish tartiblari va ularga hamkorlik qiluvchi mamlakatning umumiqtisodiy va moliyaviy siyosatiga bog'liq bo'ladi. Devalvatsiya faqatgina, raqobatbardosh tovarlarning eksport salohiyati va jahon bozoridagi qulay vaziyatlarning mavjudligi sharoitidagina tovarlar eksportini rag'batlantirishi mumkin. Devalvatsiyaning importni cheklashga ta'siri esa, mamlakatning importni cheklash bo'yicha keskin choralar qo'llash imkoniyatlarining pasayishidan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hamma mamlakatlarda ham import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish siyosati muvaffaqiyatli chiqavermaydi.

Devalvatsiya importni cheklashi bilan, mamlakat ichida

tovarlar ishlab chiqarish xarajatlari ortishiga, narxlarning ko'tarilishiga va oqibatda, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik qobiliyatining yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun, bu tadbir mamlakatga vaqtinchalik ustuvorlik berishi mumkin, ammo u to'lov balansining defitsitini keltirib chiqaruvchi sabablarni to'liq bartaraf etishga qodir emas. Kutilgan natijani olish uchun, devalvatsiya etarli darajada bo'lishi zarur. Aks holda, u valyuta spekulyatsiyasini kuchaytiradi va valyuta kursini qaytadan ko'rib chiqishga majbur qiladi. Masalan, 1967 yil noyabr oyida funt sterlingni 13,4 foizga devalvatsiyasi va 1971 yil dollarning 7,89 foizga devalvatsiya qilinishi, ushbu valyutalarga bo'lgan spekulyativ tazyiqni yo'q qila olmadi. Devalvatsiyani amalga oshirgan mamlakat, raqobatda o'zi kutgan ustuvorlikka ega bo'la olmasligi mumkin. Chunki, suzib yuruvchi kurs rejimining qo'llanilishi to'lov balansini muvozanatlashtirish imkonini bermasligi mumkin.

Valyuta cheklovlari. Ushbu tadbir eksport qiluvchilarning xorijiy valyutalardagi tushumlaridan foydalanishni cheklash, xorijiy valyutani import qiluvchilarga sotishni litsenziyalash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, u valyuta operatsiyalarini maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan banklarda amalga oshirilishi hamda to'lov balansidagi defitsitni kamaytirish maqsadida, kapital eksportini chegaralash va uning oqib kelishini rag'batlantirish, tovarlar importini chegaralashga qaratilgan tadbirlar yig'indisi sifatida ham e'tirof etiladi. XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillarining boshlarida joriy operatsiyalar bo'yicha yuritilayotgan siyosatning erkinlashuviga qaramasdan, konvertirlanadigan valyutaga ega bo'lgan mamlakatlarning deyarli 90 foizida kapitallarning xalqaro harakatida turli xil cheklovlar mavjud bo'lgan. EIning ko'pchilik davlatlari ushbu cheklovlarni faqatgina o'tgan asrning 90-yillariga kelib bekor qildi.

Moliya va pul–kredit siyosati. To'lov balansidagi defitsitni bartaraf etish maqsadida eksport qiluvchilarga byudjet subsidiyalari beriladi, protektsionistik maqsadlarda import bojlari oshiriladi, mamlakatga pul oqimining kirib kelishini rag'batlantirish maqsadida qimmatli qog'ozlar egasi bo'lgan xorijliklardan olinadigan soliqlarni bekor qilish kabi chora-tadbirlardan keng foydalaniladi.

26.7.O‘zbekistonning xalqaro moliya munosabatlariga ntegratsiyalashuvi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, o’zining mustaqil tashqi siyosatini, shu jumladan, tashqi iqtisodiy siyosatini yurita boshladi. Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosati eng avvalo, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilgan holda xalqaro moliya munosabatlarida faol ishtirok etishga qaratilgan.

Respublikamizda ijtimoiy yo’naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o’sishini ta’minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqargan holda jahon bozorlarida mustahkam o’rin egallash, pirovardida aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan strategiya izchil amalga oshirilar ekan, bu maqsadlarga erishishda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi davlat idoralarining, yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o’zaro foydali hamkorlik o’rnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlari tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatning sub’yekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga:

– tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonun asoslarini belgilash;

– tashqi iqtisodiy siyosatni, shu jumladan valyuta-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi valyuta fondini shakllantirish va undan foydalanish;

– tashqi iqtisodiy iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni ijro etish;

– O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida respublikaning, uning yuridik shaxslari va fuqarolarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;

– respublika hududida chet ellik investorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarni belgilash;

– O‘zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalarda vakillik qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan boshqa vakolatlar kiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

– birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish borasida aniq maqsadni ko’zlab o’tkazish, tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar o’z daromadlaridan erkin foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibni joriy etish;

– ikkinchidan, xorijiy sarmoyadorlarni, asosan bevosita kapital mablag’lar tarzidagi sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng jalb etish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;

– uchinchidan, O‘zbekistonga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keladigan, xalq xo’jaligining zamonaviy strukturasini vujudga keltirishda yordam beradigan sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o’tkazish;

– to’rtinchidan, mablag’larni eng ustuvor sohalarga – respublika mustaqillgini ta’minlaydigan agrar sektorni, yoqilg’i-energetika kompleksini hamda boshqa bazaviy tarmoqlarni rivojlantirishga qodir, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o’zlashtirishga sarflash.

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslari yaratildi. Bular jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida”gi, “Valyutani tartibga solish to’g’risida”gi, “Chet el investitsiyalari to’g’risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida”gi, “Boj tarifi to’g’risida”gi, “Eksport nazorati to’g’risida”gi qonunlarni hamda “Chet el investitsiyalari bilan loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, “Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi, “To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag’batlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarini kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliya-tining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– barcha davlatlar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o’zaro manfaatliligi;

– tomonlarning tengligi;

– tashqi iqtisodiy aloqalar bo’yicha sheriklarning ichki ishlariga aralashmaslik;

– xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan bitimlar bo’yicha qabul qilingan majburiyatlarni halol va aniq bajarish printsiplari;

– hamma tomonidan e’tirof etilgan boshqa xalqaro normalar, qoidalar va shartlarga rioya etish.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning ob’ektlari bo’lib, hamma turdagi resurslar, xalq xo’jaligining barcha tarmoqlari va sohalarida yaratiladigan tovarlar hamda ko’rsatiladigan xizmat, qimmatbaho qog’ozlar, fan-texnika mahsulotlari, intellektual va boshqa boyliklar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanish man etiladigan ob’ektlar bundan mustasnodir.

Mulkchilikning shakllaridan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarning ishtirokchilari sifatida ro’yxatga olinib, respublika hududida yoki uning tashqarisida ish olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan ajnabiy yuridik va jismoniy shaxslar, xalqaro tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining sub’yektlari bo’lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlari:

– O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilib turgan qonun normalari va normalarga, hamma tomonidan e’tirof etilgan xalqaro normalar va qoidalarga rioya etishi;

– belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy aloqalarning ishtirokchisi sifatida ro’yxatdan o’tishi hamda buxgalteriya va statistika hisobotlarini taqdim etishi;

– xalqaro hamkorlik doiralarida bajarilayotgan ishlar, qidiruv ishlari va loyihalarning sanitariya-gigiena, ekologiya talablari va boshqa talablarga muvofiqligi haqida ekspertiza xulosasini olishi;

– ro’yhati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tashqi iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo’lishi shart.

Mulkchilikning shakllari va tashqi iqtisodiy faoliyatining turlaridan qat’i nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha

sub’yektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda teng huquqlarga ega bo’ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning har bir sub’yekti amal qilib turgan qonunlar doirasida tashqi iqtisodiy aloqalardagi o’z ishtirokining turlari, shakllari va yo’nalishlarini mustaqil belgilashi, o’z xohishiga qarab tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslarni belgilangan tartibda shartnoma asosida yoki boshqacha tarzda haq to’lab yoxud to’lamasdan jalb etishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatining har bir sub’yekti O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatning natijalariga, shu jumladan chet el valyutasidagi daromadga egalik qilishga, ulardan foydalanishga va ularni tasarruf etishga haqlidir. Uning qaroriga ko’ra tashqi iqtisodiy faoliyatning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqlari qonunlarda belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga o’tkazilishi yoxud ularga ishonib topshirilishi mumkin. Huquqlar ana shu tarzda o’zgaga o’tkaziladigan taqdirda tomonlar o’zaro munosabatlarni shartnomalar (bitimlar) asosida tartibga oladilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagilarni o’z ichiga oladi:

– tashqi iqtisodiy faoliyat sub’yektlarini ro’yxatdan o’tkazish;

– tabaqalashtirilgan soliqlar va imtiyozlar sistemasi, shu jumladan valyuta bo’yicha ham belgilanish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni axborot bilan ta’minlashning davlat tizimini yaratish;

– ayrim mintaqalar, tarmoqlar va korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirishi uchun dotatsiyalar, subsidiyalar, subventsiyalar, byudjetdan qarz berish tarzida moliyaviy yordam ko’rsatish, tavakkalchilikni sug’urta qilish;

– respublika tashqi iqtisodiy aloqalarining turli shakllarini rivojlantirishga qaratilgan aniq maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish, pul bilan ta’minlash va ekspertiza qilish;

– O‘zbekiston Respublikasiga olib kelinadigan va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketiladigan tovarlar va boshqa mol-mulklarni hujjatlashtirish;

– mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) eksport va import qilish tartibini belgilash;

– valyuta va boshqa fondlar mablag’larini vujudga keltirish va ulardan foydalanish.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatda hamda iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei oshib bormoqda. Bunda davlatimiz hukumati tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, ularni amalga oshirish yo’llarining aniq va to’g’ri ko’rsatib berilganligi bu yo’ldagi yutuq hamda marralarning salmoqli bo’lishiga imkoniyat yaratmoqda.

Ma’lumki, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim vositasi bo’lib hisoblanadi. U mamlakatning jahon hamjamiyatiga bo’lgan aloqasini ifodalab, uning istiqbolini belgilab beradi. Eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat ichida ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga erishiladi. Mamlakat eksporti hamda importining qiymati o’rtasidagi farq, ya’ni saldo tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining muhim iqtisodiy ko’rsatkichi bo’lib hisoblanadi. Ushbu ko’rsatkich milliy daromad darajasiga ko’p tomonlama ta’sir etadi. Sababi, import va eksport hajmidagi sezilarli o’zgarish ham mamlakatdagi daromad, bandlik va narx darajalarida muayyan tebranishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda keskin raqobatlashuv sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo’lishi va mustahkam o’rin egallashi uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda importning o’rnini qoplash va eksportga yunaltirilgan ishlab chiqarishni qo’llab-kuvvatlash dasturi amalga oshirilmokda. Mazkur dasturning maqsadi, mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan imkon boricha to’liq va samarali foydalanish hamda uni rivojlantirish asosida eksport hajmining barqaror o’sishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo’nalishlarga keng jalb qilish, ularga kafolat va imkoniyatlar berish, litsenziyalar, nou-xaular sotib olishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmokda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va rivojlantirishda qo’yidagilarni ustuvor yo’nalishlar sifatida keltirish mumkin:

– Respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo’naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

– eksport imkoniyatlarini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo’shma korxonalarni rivojlantirish zarur. Eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo’llash bilan bir qatorda importning salmog’ini qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan o’tkazish, o’zimiz ishlab chiqarishimiz mumkin bo’lgan tovarlar va maxsulotlarning chetdan keltirilishini oqilona darajada kamaytirib borish talab qilinadi;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo’jalik ishlarini yurituvchi sub’yektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o’rnatishda, o’z maxsulotini chet ellarda sotishda ko’proq erkinliklar berish, tovarlani eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko’zlab siyosat o’tkazish;

– xorijiy investitsiyalar jalb qilish orqali amalga oshirilayotgan sanoat loyihalarning bir-biriga bog’liqligini ta’minlash, ular o’rtasidagi o’zaro iqtisodiy va ishlab chiqarish hamkorlik va infratuzilmani rivojlantirish va bu orqali import o’rnini bosuvchi va eksportga mo’ljallangan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va etishtirishga erishish;

– olib borilayotgan islohotlarda hududiy diversi-fikatsiya siyosatini yanada kuchaytirish, nafaqat markaziy xududlarda balki chekka tumanlarda ham yirik sanoat ob’ektlarini qurishni keng yo’lga qo’yish;

– tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari majmuini ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug’urta firmalari, tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga mos keladigan transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlarini vujudga keltirish;.

– xalqaro xuquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisob sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning mazkur yo’nalishlarini izchil tarzda amalga oshirish orqali mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish mamlakatimiz iqtisodi-yotining jahon iqtisodiy hamjamiyatida munosib o’rin egallashiga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish buyicha yaqin kelajakka mo’ljallangan strategiyasining asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, eksportni rag’batlantirish uchun avvalo, barqaror makroiqtisodiy sharoit yaratish, inflyatsiya sur’atini prognoz darajasida ushlab turish, valyuta almashtirish kurslarining keskin tebranishlariga yo’l qo’ymaslik;

ikkinchidan, xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning mulk shaklidan qat’iy nazar, import qilinayotgan ishlab chiqarish vositalarini olish uchun bir xil imkoniyatga ega bo’lishlarini ta’minlash;

uchinchidan, etuk mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasidagi islohotlarni davom ettirish;

to’rtinchidan, eksport salohiyatini rag’batlantirish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlarida yuqori texno-logiyalardan foydalanish ko’lamini kengaytirish;

beshinchidan, mamlakatda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirish.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach erkin ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zarur bo’lgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni barpo etish yillari sifatida munosib tarixiy voqelikka aylandi. Shuningdek, mamlakatimizda barqaror bank tizimi yaratilishi bilan xalqaro moliyaviy munosabatlar ko’lami yanada kengayib bordi, bu holat o’z navbatida xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari o’rtasida o’zaro xamkorlik aloqalari rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklari hamda xalqaro moliya institutlari o’rtasida bir qator samarali loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa respublikamiz iqtisodiyotini taraqqiy etishida mustahkam rol o’ynamoqda.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlarning amaliy aloqalariga qisqacha to’xtaladigan bo’lsak, ulardan Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (ETTB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) kabi yirik moliyaviy tashkilotlar bilan juda izchil va faol ishlar olib

borilmoqda. Mazkur tashkilotlar biz tanlagan yo'l va amalga oshirilayotgan islohotlarning to'g'ri ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham yaqin hamkorlik aloqalarini olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro valyuta fondi (XVF)ga a'zolik to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 21 sentyabrda XVFga a'zo bo'lib kirdi hamda Vazirlar Mahkamasining 93-F raqamli 1993 yil 27 martdagi Farmoyishiga muvofiq respublikaning XVF imzo kvotasiga to'lov amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki xalqaro moliya tashkilotlarining aloqa agentligi va avuarlar depozitariysi hisoblanadi va O'zbekiston Respubli-kasining mazkur muassasalarga a'zoligi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega.

O'zbekiston Respublikasining hukumati bilan kelish-gan xolda Moliya vazirligi va Markaziy bank yuqorida qayd etilgan xalqaro tashkilotlar oldidagi qarz mablag'lar olish, to'lov foizlarini berish va respublika nomidan qarz majburiyatlarini joylashtirish bilan bog'liq moliyaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarishni ta'minlaydi.

O'zbekistonga XVFning missiyasi texnikaviy yordam ko'rsatish va xukumatda hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida konsultatsiyalar o'tkazish maqsadida muntazam kelib turadi. Missiyaning faoliyati iqtisod, moliya sho''basi va statistika soxasidagi ishning axvolini o'rganishga, shuningdek, keyingi iqtisodiy islohatlar yo'nalishini aniqlashga qaratilgan.

XVF ekspertlarining o'rganishlari natijasi bo'yicha tavsiya va analitik materiallar ishlab chiqiladi, makroiqtisodiyot sohasidagi mavjud muammolarni xal qilish yo'llari haqida tavsiyalar tayyorlanadi, bular barchasi Markaziy bank tomonidan amaliyotda hisobga olinadi.

Bundan tashqari XVF bilan bitimning "Valyuta tartibiga nisbatan majburiyatlar" moddasiga muvofiq Fond missiyasi bir yilda kamida bir marta O'zbekistondagi joriy makroiqtisodiy va valyuta siyosatining obzorini o'tkazadi. Missiya ishi natijalari

bo’yicha tegishli hisobot tayyorlash bilan birga XVF ijrochi direktorlari kengashi muhokamasiga olib chiqiladi.

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari bilan birga-likdagi xamkorlik va ishlash muayyan ijobiy natijalarni berdi.

XVF bank qonunchiligini, buxgalteriyaning hisobga olish hisob raqamlari yangi rejasini xalkaro standartlarga muvofiq ishlab chiqishga, shuningdek hisobga olish va hisobotning yangi tizimini joriy etishga ko’maklashdi, bu bank nazorati samarasi va uning me’yoriy negizi darajasini oshirish imkonini berdi. XVFning texnikaviy ko’magi to’lovlar elektron tizimini joriy etish va statistika ma’lumotlari yig’ish tizimini yaxshilashga olib keldi.

XVF kreditlari milliy valyutani qo’llab-quvvatlash, to’lov balansini mustaxkamlashga ajratildi va bevosita O‘zbekiston hukumatiga beriladi.

XVF raxbariyati va ekspertlari texnik yordam berish va Xukumat hamda Markaziy bankda maslahatlar o’tkazish maqsadida bir necha bor O‘zbekiston Respublikasiga tashrif bilan keldi.

O‘zbekiston Respublikasi va XVF tomonidan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo’yicha imzolangan Memorandumda respublika iqtisodiyoti islohotini davom ettirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, xalqaro joriy operatsiyalar bo’yicha milliy valyutani ayirboshlash qilinishi ta’minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish bo’yicha aniq chora-tadbirlar ko’rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlikni mustahkamlash to’g’risida”gi 1998 yil 18 martdagi 118 qarori bilan iqtisodiy islohatlarni yanada rivojlantirish maqsadida valyuta va savdo tizimini yanada erkinlashtirish bo’yicha tadbirlarni amalga oshirishga atroflicha yondoshishni ishlab chiquvchi ishchi guruxi tuzildi. Uning zimmasiga tashqi savdosi tartibga keltirishni yanada yaxshilash, birjadan tashkari valyuta bozorini mustahkamlash, valyuta tizimini erkinlashtirish va joriy operatsiyalar bo’yicha milliy valyutaning almashtirishiga erishish hamda bir maromdagi almashinuv kursini belgilash, shuningdek XVF bilan bundan buyon xamkorlikka yondoshish va uning tamoyillari bo’yicha takliflar ishlab chiqish yuklatildi.

Ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan analitik takliflarda hozirgi vaqtda amal qilayotgan valyuta va savdo tartiblarining o’ziga xos tomonlari ta’kidlanadi, shuningdek, erkinlashtirishning turli ko’rinishlari (jadallashtirilgan va tadrijiy erkinlashtirish) tahlili o’tkaziladi. Bundan tashqari, xujjatda xalqaro tashkilotlar tomonidan erkinlashtirish bo’yicha tadbirlarni moliyaviy qo’llab-quvvatlash imkoniyatlari muhokama etiladi.

Shu bilan birga erkinlashtirish bo’yicha tadbirlarni amalga oshirish qisqa muddatlar ichida bir qator noxush vaziyatlarga, shu jumladan, inflyatsiya o’sishiga, pul-kredit va byudjet tizimiga qisqa vaqtga bo’lsa ham tazyiq o’tishiga, shuningdek ba’zi korxonalarda vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar bo’lishiga olib kelishi mumkinligi ma’qullanadi. Ularni minimallashtirish maqsadida erkinlashtirish va rasmiylashtirish kursini to’g’rilash bilan bir vaqtda, kelishib olingan tartibda pul-kredit va byudjet siyosatini o’tkazish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko’rib o’tilganlardan respublikada yuritilayotgan makroiqtisodiy siyosatni hisobga olib, valyuta bozorlarini bosqima-bosqich erkinlashtirish siyosati ma’qul ko’rildi.

1992 yil sentyabr oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jahon bankining teng huquqli a’zosi hisoblanadi. 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assosiasiasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo’yicha ko’p tomonlama agentlikda O‘zbekiston Respublikasining a’zoligi to’g’risida”gi qonuni kuchga kirdi. Hozir Toshkentda Jahon bankning vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

Jahon bankining mamlakatga ko’mak berish bo’yicha mo’ljallangan Strategiyasi doirasida Davlatning ustuvor yo’nalishlarini qo’llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan dasturlar to’plami asosiy 4 yo’nalishga qaratilgan:

1) iqtisodiy o’sish uchun sharoitni yaxshilash;

2) qishloqlarda iqtisodiy o’sish imkoniyatlarini oshirish;

3) aholiga xizmat ko’rsatish samaradorligini oshirish;

4) atrof-muhitni boshqarish hamda global ommaviy ehtiyojlarning taqdim etilishi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Jahon banki bilan hamkorlikda quyidagi loyihalar amalga oshirilmoqda:

– Qishloq xo’jaligi korxonalarini qo’llab-quvvatlash loyihasi;
– Irrigatsiya infratuzilmalari va drenajlarni rekonstruktsiya qilish loyihasi;
– Maktab ta’limini rivojlantirish loyihasi;
– Farg’ona vodiysida suv resurslarini boshqarish loyihasi;
– Samarqand va Buxoro shaharlarida quvurlar tizimi va tozalash inshoatlarini rekonstruktsiya qilish loyihasi;
– Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish loyihasi;
– Sirdaryo viloyatida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi;
– Talimarjon issiqlik elektr stantsiyasi (IES) qurilishi loyihasi;
– Sog’liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash loyihasi (Salomatlik-3);
– Elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi;
– Olot va Qorako’l tumanlarida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi va boshq.

Mamlakatimizning Osiyo Taraqqiyot Banki bilan o’zaro hamkorlik aloqalari etarli darajada faol rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yilda Osiyo taraqqiyot bankiga (OTB) a’zo bo’lgan.

O‘zbekistonda OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar 4 ta muhim sohalarga yo’naltirilgan. Bular:
– qishloq xo’jaligi;
– xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
– transport va bojxona tranziti sohalarida mintaqaviy hamkorlik;
– bolalikni himoya qilish va boshlang’ich ta’limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

O‘zbekistonda Osiyo Taraqqiyot Banki bilan amalga oshirilgan dasturlar va loyihalar xususan qishloq xo’jaligi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, irrigatsiya, suv resurslarini boshqarish, transport va bojxona tranziti hamda bolalikni muxofaza qilishga yo’naltirilgan ijtimoiy xizmat ko’rsatish turlari va boshlang’ich ta’limni yaxshilash kabi sohalarni qamrab olgan.

O‘zbekiston 1992 yildan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki a’zosi hisoblanadi. ETTB O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi eng yirik investorlardan biri hisoblanadi.

ETTB O‘zbekistonda o’z faoliyati ettita yo’nalishini belgiladi. Bular quyidagi sohalarni rivojlantirishga qaratiladi:

- moliya sektori va bank infratuzilmasi;
- kichik va o’rta korxonalar;
- bozor infratuzilmasi;
- energetika majmuasi;
- paxtani qayta ishlash va engil sanoatning boshqa tarmoqlari;
- sayyohlik infratuzilmasi;
- tabiiy resurslarni o’zlashtirish.

O‘zbekiston Islom Taraqqiyot bankiga 2003 yil 3 sentyabrda a’zo bo’lib kirgan. Ushbu bank tomonidan mamlakatimizda qator loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirildi, jumladan, mintaqaviy tez tibbiy yordam markazlarini zarur jihozlar bilan ta’minlash, elektr energiyasi uzatish tarmoqlarini qurish, kichik va xususiy biznes uchun moliyalashtirish liniyalari, kollejlar va umumta’lim maktablarini qurish va jihozlash, davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o’tkazishga ko’maklashish va boshqalar.

Hozirgi kunda Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish, energetika, sog’liqni saqlash, ta’lim kabi sohalarga yo’naltirilgan 11 loyihani amalga oshirish uchun 140,22 mln.dollar ajratilgan.

Shunindek, Islom taraqqiyot banki va O‘zbekiston Respublikasi hukumati o’rtasida 14 loyihani o’z ichiga olgan xamkorlik dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur doirasida ta’lim, sog’liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish (suv ta’minoti, uy-joy kommunal xo’jaligi va boshq.), energetika, kichik biznesni rivojlantirish, qishloq xo’jaligi kabi sohalarni moliyalashtirish ko’zda tutilgan bo’lib uning umumiy qiymati 418,15 mln.AQSh dollarini tashkil etadi.

Hozirda Islom taraqqiyot banki O‘zbekiston hamkorlik qilayotgan xalqaro moliya institutlari orasida yetakchi o’rinlardan birini egallab, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot bankiga qisqa vaqt oralig’idagi a’zoligi mobaynida, Bank bilan moliyaviy va texnik hamkorlik barqaror rivojlanib, ijobiy istiqbollarga ega bo’ldi.

O‘zbekistonga bank tomonidan sog’liqni saqlash, ta’lim, irrigatsiya va melioratsiya, energetika, suv ta’minoti, kommunal

xo’jalik, yo’l infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznesni qo’llab quvvatlash kabi sohalarda 15 ta loyihani amalga oshirish uchun 463,8 million AQSh dollari ajratilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot banki mamlakatimizda qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda o’zining mablag’larini ajratish bilan faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, mamlakatimizdagi bir qator investitsion loyihalarni amalga oshirishda ham mazkur tashkilotlarning o’rni muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro moliya munosabatlarini yo’lga qo’yish va rivojlantirish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston o’zining tinchliksevar, yaxshi qo’shnichilik, o’zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o’zining munosib o’rnini egalladi hamda uning mavqei yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

Bahs-munozara yoki nazorat uchun savollar

1. Xalqaro moliya deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro moliyaning asosiy funksiyalarini izohlang.
3. Xalqaro moliya munosabatlari shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan omillar nimalardan iborat?
4. Xalqaro moliyaning elementlarini izohlang.
5. Jahon moliyaviy muhiti nima?
6. Xalqaro moliya tizimining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
7. Xalqaro moliya munosabatlarining sub’yektlarini sanab o’ting.
8. Xalqaro moliya munosabatlari mexanizmiga nimalar kiradi?
9. Xalqaro moliya munosabatlari tuzilmaviy jihatdan nimalarni o’rganadi?
10. Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga xos bo’lgan tendentsiyalarni izohlang.

Moliyaga oid atama va iboralarning izohli lug'ati

A

Aktuar hisob-kitoblar (sug'urtada) **-** tarif stavka-larini hisob-kitob qilishning iqtisodiy-matematik metod-lari majmui. Sug'urta fondini vujudga keltirishda (yara-tishda) har bir sug'urtalanuvchining (sug'urta qiluvchining) ishtirok etish salmog'ini aniqlab beradi, ya'ni tuzilgan sug'urta shartnomasiga muvofiq tarif stavkalarining o'lchamini aniqlaydi.

Aktsionerlik jamiyati – xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri. Uning kapitali aktsiyalarni joylashtirish orqali shakllanadi. Aktsionerlik jamiyatlari pul jamg'armalarining ishlab chiqarish investitsiyalariga aylanishiga imkon beradi. Aktsiyalarni chiqarish kapitalni mobilizatsiya (jalb) qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bu korxonalar faoliyat ko'rsatishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi.

Aktsiya – aktsionerlik jamiyatining kapitaliga ulushning kiritilganligi xususida ma'lumot va uning egasiga dividend ko'rinishidagi daromadni olish huquqini beruvchi qimmatli qog'oz.

Aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar kursi – aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning fond birjasidagi bahosi. Kurs dividend, foiz miqdoriga to'g'ri va ssuda foizining darajasiga teskari proportsional bog'liqlikda bo'ladi.

Amortizatsiya fondi – mahsulotning tannarxi tarkibiga kiritiladigan amortizatsiya ajratmalari hisobidan korxonada yaratiladigan (vujudga keltiriladigan, shakllantiriladigan) pul mablag'lari fondi.

Aylanma kassa mablag'i me'yori - moliya yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori.

Aktsizlar – keng iste'mol tovarlari va xizmatlaridan olinadigan egri (bilvosita) soliqlarning turlaridan biri. Tegishli mahsulotning bahosi, xizmatning haqi yoki tarifning tarkibiga kiritiladi. Odatda yuqori rentabelli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning yuqori foydasini byudjetga olish uchun

sotilayotgan mahsulotlarning sotish bahosiga davlat tomonidan o’rnatiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va import qilingan aktsiz to’lanadigan mahsulotlarga aktsiz solig’i solinadi. Aktsiz to’lanadigan tovarlar ishlab chiqarayotgan yoki bunday mahsulotlarni import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar byudjetga aktsiz solig’ini to’laydi. Aktsiz to’lanadigan tovarlar ro’yxati va aktsiz solig’i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Bunday tovarlar jumlasiga ichimlik spirti, aroq, likyor-aroq mahsulotlari, uzum vinosi, kon’yak, shampan vinosi, pivo, ikra, tamaki mahsulotlari engil va yuk avtomobillari, zebi-ziynat buyumlari, neft va neft mahsulotlari hamda shu kabilar kiradi. O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aktsiz to’lanadigan tovarlar uchun ularning qo’shilgan qiymat solig’i hisobga olinmagan holdagi (aktsiz solig’i summasini o’z ichiga olgan) qiymati yoki mahsulotning tabiiy hajmi soliq solish ob’yekti hisoblanadi.

Aktsizosti mahsulotlar – ularga nisbatan aktsizlar o’rnatilgan (belgilangan) mahsulotlar. (Qarang: **Aktsizlar**).

Advalor soliq - mahsulot qiymatiga nisbatan qat’iy foiz stavkasida o’rnatilgan to’lov. Inflyatsiya sharoitida o’zining funksiyalarini avtomatik ravishda saqlab qoladi. Bu soliqning tarkibiga savdo soliqlari, importga nisbatan ko’pgina bojlar va boshqalar kiritilishi mumkin. Mahsulotlarni (jumladan, import mahsulotlarini ham), jismoniy va yuridik shaxslarning mulklarini soliqqa tortishda qo’llaniladi.

Asosiy fondlarni realizatsiya qilishdan olingan foyda – hukumat tomonidan belgilangan tartibda hisoblangan, inflyatsiya indeksiga oshirilgan (ko’paytirilgan) asosiy fondlarning sotish bahosi va ularning dastlabki yoki qoldiq qiymati o’rtasidagi farq.

Auditorlik nazorati - auditorlik faoliyatini amalga oshirish borasida litsenziyaga ega bo’lgan auditorlik firmasi tomonida o’tkaziladigan mustaqil noidoraviy moliyaviy nazorat. Asosiy vazifasi buxgalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotning haqqoniyligi, to’liqligi va ishonchligi hamda moliyaviy qonunchilikka qay darajada rioya qilinganligini aniqlash (o’rnatish)dir. Banklar, sug’urta tashkilotlari, birjalar, nobyudjet va xayriya fondlari, ochiq tipdagi aktsionerlik jamiyatlari, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, prokuratura va davlat

nazorat organlarining topshirig'iga binoan har qanday korxona va tashkilotlar majburiy ravishda auditorlik nazoratidan o'tkazilishi kerak. Auditorlik firmalari buxgalteriya hisoboti va soliq hisob-kitoblari, hisob ishlarini yuritish, loyihalarni moliyaviy ekspertiza qilish va h.k.lar bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatishi mumkin. Ularning bu xizmatlari tegishli to'lov (haq) asosida amalga oshiriladi.

Aholiga transfertlar – aholiga to'lanadigan majburiy to'lanmalarni (mamlakat qonunchiligiga muvofiq ravishda o'rnatilgan pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar, kompensatsion va boshqa ijtimoiy to'lovlarni) moliyalashtirish uchun mo'ljallangan byudjet mablag'lari.

B

Balans foyda – mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha xarajatlar va chiqimlar hamda majburiy to'lovlar chegirilganidan so'nggi korxona yalpi daromadining qismi. Balans foyda soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan yalpi foydadir.

Byudjetnoma - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqadigan hamda quyidagilarni o'z ichiga oluvchi loyihaviy hujjat: 1) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-ning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish joriy yilgi yakunlarining prognoz (bashoratli) bahosi; 2) o'tgan yilgi Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot va joriy yilgi Davlat byudjetining kutilayotgan ijrosi bahosi; 3) kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar; 4) mamlkat byudjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlari loyihasi; 5) mamlakat byudjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar; 6) davlat tashqi va ichki qarzlari hamda ular bo'yicha xarajatlar holati to'g'risidagi ma'lumotlar; 7) kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yuqoridagilarni o'z ichiga oluvchi byudjetnoma loyihasini har yilning birinchi oktyabriga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi lozim. Shuningdek, byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi tomonidan joriy yilning birinchi noyabridan kechiktirilmasdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etilishi kerak.

Byudjet jarayoni – Davlat byudjetini tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tartibga solish bo’yicha qonunchilik bilan reglamantatsiya qilingan hokimiyat organlarining faoliyati. Yagonalik, mustaqillik va balans metodi byudjet jarayonining printsiplaridir.

Byudjet dotatsiyasi - o’z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag’lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o’rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag’lari.

Byudjet defitsiti - muayyan davrda byudjet xarajat-larining byudjet daromadlaridan ortiq bo’lgan summasi.

Byudjetdan mablag’ ajratish – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag’lari oluvchi-larga ajratiladigan pul mablag’lari.

Byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromad-larining byudjet xarajatlaridan ortiq bo’lgan summasi.

Byudjet rospisi (ro’yxat-yozuvi) – byudjet klassifi-katsiyasining bo’linmalari bo’yicha daromadlar va xarajat-lar taqsimlanishining asosiy operativ rejasi. Unda yil davomida soliqlar va boshqa to’lovlarning byudjetga kelib tushish va byudjet mablag’larining sarflanish muddatlari o’z aksini topadi.

Byudjetiy rejalashtirish – turli darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatning umummilliy sotsial-iqtisodiy rivojlanish dasturi (ga) asosida (muvofiq ravishda) moliyaviy tizimning bo’g’inlari o’rtasida yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad qiymatining markazlash-tirilgan tarzda taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.

Byudjetiy tartibga solish - hududlarning sotsial va iqtisodiy rivojlanishiga yo’naltiriladigan va hududiy byudjetlarni minimal zaruriy darajadagi daromadlar bilan ta’minlash maqsadida mablag’larni qayta taqsimlash.

Byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Byudjet subventsiyasi – qonun hujjatlarida nazarta tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet so'rovi – byudjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga: 1) tegishli hududlar va davlat maqsadli fondlari byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlarga; 2) byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun - respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'larini oluvchilarga byudjet so'rovini yuboradi.

Byudjet klassifikatsiyasi (tasnifi) – Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning defitsitini moliyalash-tirish manbalarini guruhlash. Unda tasnif ob'ektlariga guruhlashtiruvchi kodlar beriladi. Barcha darajadagi byudjet ko'rsatkichlarining qiyoslanishini ta'minlaydi. Byudjet tasnifi byudjet daromadlari tasnifini, byudjet xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifini, Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o'z ichiga oladi. Byudjet daromadlari tasnifi qonun hujjatlariga muvofiq daromadlarni turlar va manbalar bo'yicha guruhlarga bo'lishdan iboratdir. Byudjet xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa byudjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo'yicha xarajatlarni guruhlarga bo'lishdan iborat bo'ladi. Byudjet xarajat-larining tashkiliy tasnifi esa byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlarga bo'lishdan iboratdir. Byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha xarajatlarni

guruhlashni o’z ichiga oladi. Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish manbalari tasnifi defitsitni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo’yicha guruhlarga bo’lishdan iborat bo’ladi. Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Byudjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifa-larni bajarish bilan bog’liq bo’lgan o’z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag’ ajratish ko’zda tutilgan va bu mablag’ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo’mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Byudjetdan tashqari (nobyudjet) fondlar – a) ijtimoiy: ijtimoiy sug’urta fondi; pensiya fondi; bandlik fondi; majburiy tibbiyot sug’urtasi fondi, b) noijtimoiy: yo’l fondi; ekologiya va boshqa maqsadli fondlardan iborat bo’lib, ularning barchasi byudjet tizimida konsolida-tsiyalanadi.

Byudjet tuzilmasi – byudjet tizimi tuzilishini tashkil etish va printsiplarini, uning tarkibiy tuzilmasini, ular alohida bo’g’inlari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni ifodalaydi. Davlat tuzilishi bilan aniqlanadi. O‘zbekston Respublikasining byudjet tuzilmasi a) Davlat byudjeti; b) respublika byudjeti hamda v) Qorqalpog’iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarni o’z ichiga oladi. Davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli fondlari jamlanadi. Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respu-blikaga (Qoraqalpog’istonga) bo’ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini, viloyatning byudjeti viloyat byudjetini va viloyatga bo’ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini, tumanlarga bo’linadigan shaharning byudjeti shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetini, tumanga bo’ysunuvchi shag’arlari bo’lgan tumanning byudjeti tuman byudjetini va tumanga bo’ysunuvchi shaharlar byudjetlarini o’z ichiga oladi.

Byudjet tizimi – turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag’lari oluvchilar yig’indisini, byudjetlarni tashkil etishni va ularni tuzish printsiplarini, byudjet jarayonida ular o’rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag’lari oluvchilar o’rtasida vujudga keladigan o’zaro munosabatlarni ifodalaydi. Mamlakatning butun hududida amal qiladigan, iqtisodiy munosabatlar va yuridik normalarga asoslangan barcha

byudjetlarning majmui. Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi.

Byudjet tizimining asosiy printsiplari - byudjet tasnifi tizimi, hisobga olish-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi; byudjet tuzilishining ma'muriy-hududiy tuzilishga muvofiqligi; turli darajadagi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi; Davlat byudjetining balansliligi; davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlar (moddalao) bo'yicha rejalashtirish; Davlat byudjeti xarajatlarini tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida sarflash; barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligidan iborat.

Byudjet tizimini boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari – Davlat byudjeti loyihasi ishlab chiqilishini tashkil etish va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etish, Davlat byudjetining ijrosini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat boshqaruvi boshqa organlarining Davlat byudjetini ijro etish borasidagi ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, davlat maqsadli fondlari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilash, Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish va O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tasdig'iga kiritish, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlardan iborat.

Byudjet tizimini boshqarish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining vakolatlari - davlat byudjeti loyihasini tayyorlash (shakllantirish), Davlat byudjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi byudjet mablag'lari tushumi va sarfining tartibini belgilash hamda nazoratini amalga oshirish, respublika byudjeti xarajatlarini amalga oshirish, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish, byudjet mablag'lari oluvchilarning Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, o'z vakolatlari doirasida umummajburiy tusdagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni o'z ichiga oladi.

Byudjet tizimini boshqarish sohasidagi Qoraqalpo-g'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolat-lari – a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi va mahalliy

hokimiyat vakillik organlari: belgilangan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni qabul qilish, shuningdek ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash, qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar miqdorini hamda ular bo'yicha imtiyozlarni belgilash, qonun hujjatlariga muvofiq ravishda boshqa vakolatlarni amalga oshirish; b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklar: Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar loyihalarini belgilangan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari qabul qilishi uchun taqdim etish va ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish, byudjetga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag'laridan belgilangan maqsadlarda foydalanilishi ustidan nazoratni tashkil etish, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boshqa vakolatlardan iborat.

Byudjet transferti – byudjetdan yuridik va jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

Byudjetlarga (Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarga) **cheklovlar** - quyidagilardan iborat: 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarning defitsitli bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi; 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni tasdiqlash va ijro etishda: a) qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobidan fondlar tashkil etishga; b) mablag' jalb qilishni amalga oshirishga (yuqori byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno); v) o'z byudjetlari xarajatlariga tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan ortiqcha mablag' sarflashga (qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno); g) byudjet mablag'lari hisobidan boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar ka kafilliklar berishga; d) yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

Byudjetlararo munosabatlar - davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida munosabatlar.

Byudjet huquqi - mamlakat byudjet tuzilishining (qurilishining) asoslarini, mamlakatning byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarni tuzish, ko'rib chiqish (muhokama qilish), tasdiqlash va ijro etish tartibini aniqlovchi yuridik me'yorlar majmui.

Birja solig'i - birja oboroti (aylanmasi)dan olinadigan soliq. Proportsional stavkalar bo'yicha olinib, uning darajasi bitimlar summasiga nisbatan 1%dan 2,5% gacha tebranadi. Uning soliqqa tortish ob'yekti bo'lib, fond birjasidagi qimmatbaho qog'ozlar oboroti (aylanmasi) hisoblanadi. Soliqqa tortishda asos sifatida qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha bitimlarning imzolanishi maydonga chiqadi. Soliqning ikki xil ko'rinishi bo'lishi mumkin: a) birja oboroti (aylanmasi)dan olinadigan respublika solig'i. Uning soliqqa tortish ob'yekti – fond birjasidagi qimmatbaho qog'ozlar oboroti (aylanmasi)ning hajmi. Soliq respublika byudjetiga borib tushadi; b) birja mahalliy solig'i. Bu birjada sodir bo'ladigan qimmatbaho qog'ozlar bitimi bo'yicha yig'imdan iboratdir.

Biriktirilgan daromadlar – o'zlarining tegishli byudjetga biriktirilganligiga qarab to'liq yoki qat'iy belgilangan hissada (foizda) doimiy ravishda yoki ma'um bir muddat davomida u yoki bu byudjetga tushuvchi daromadlar (soliqlar).

Boqimanda – belgilangan muddatda byudjetga o'tkazilmagan va so'zsiz undirilishi lozim bo'lgan soliq yoki boshqa majburiy to'lovning summasi.

Bojxona bojlari - ma'lum bir mamlakatning hududiga mahsulotlarni kiritish, undan chiqarish va olib o'tishda undiriladigan iste'mol soliqlaridan biri. Ularning asosiy maqsadi daromad olish bo'lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo'jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy (moliya-soliq) siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan mahsulotlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash mahsulotlarning bahosini tenglashtirishi lozim. Odatda, mahsulotlar bahosidan olinadi. Buning uchun, ayrim hollarda, maxsus me'zonlar (masalan, og'irlik, maydon) ham qo'llanilishi mumkin.

Bojxona bojlarining stavkalari – hukumat tomonidan o'rnatilib, yagona hisoblanadi va chegaradan mahsulotlarni olib o'tuvchi shaxslarga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarmasdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni operativ ravishda tartibga solishning instrumenti bo'lib xizmat qiladi. Ularning quyidagi turlari bo'lishi mumkin: a) advalor stavkalar (boj undiriladigan mahsulotlarning boj qiymatiga nisbatan foizda o'rnatiladi); b) maxsus stavkalar (boj undiriladigan mahsulotning birligiga nisbatan aniqlanadi); v)

kombinatsiyalashtirilgan stavkalar (boj undirishning dastlabki ikki varianti birgalikda qo'llaniladi).

Boj deklaratsiyasi – milliy qonunchilikning talabla-riga muvofiq rasmiylashtirilgan, o'zida chegaradan o'tayotgan yuklar (eksport yoki import qilinayotgan mahsulotlar, passajir yuki, uning qo'lidagi yuki, boyliklar va valyutalar) to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan hujjat. Bu hujjat yukni davlat chegarasi orqali o'tkazib yurishda asos bo'lib hisoblanadi. Deklaratsiya bojxonaga qonunda belgilangan muddatlarda (bir kundan ikki haftagacha mahsulot bojxonaga etib kelgan kunni ham hisobga olgan holda) taqdim etilishi lozim. Deklaratsiyada bojxonaga qabul qilingan mahsulotning yuk hujjati nomeri, mahsulotning tarif nomi yoki boj tarifining tegishli moddasiga asoslanish (suyanish), mahsulot partiyasining qiymati va bahosi hamda ularga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati kabilar o'zining aksini topishi shart. Boj deklaratsiyasining shakli mahsulotning bojga tortilish yoki tortilmasligiga bog'liqdir.

V

Valyuta kursi – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro valyuta birliklarida ifodalangan bahosi. Eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotining ahvoli bilan belgilanadi, shuningdek, turli mamlakatlardagi inflyatsiyaning nisbiy sur'atlariga, mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari va uning mamlakatlar o'rtasidagi nisbatiga, YaMMning o'sish sur'atlariga (pulning tovar bilan to'ldirilish asoslariga), xalqaro savdodagi mamlakatning o'rni va roliga, kapitalning mamlakatdan chiqarilishiga bog'liq. Mamlakat to'lov balansining ahvoli, turli mamlakatlar pul bozorlaridagi foiz stavkalarining mamlakatlar o'rtasidagi farqlari, shu mamlakat valyutasining evrobozorlarda va xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish darajasi, mamlakat valyutasiga bo'lgan ishonch va boshqa omillar valyuta kursiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyutaviy cheklanmalar – valyuta, oltin va boshqa valyutaviy boyliklar bilan operatsiyalarning cheklanishiga yo'naltirilgan, qonuniy yoki ma'muriy tartibda o'rnatilgan tadbirlar va me'yoriy qoidalar majmui. Joriy to'lov balansi operatsiyalari bo'yicha ularerkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarga (AQSh

dollari, Yevropa ittifoqi evrosi, ingliz funt sterlingi, Shveytsariya franki va boshqalarga) nisbatan qo'llanilmaydi.

G

Grant – innovatsion xarakterdagi ishlarni maqsadli-imtiyozli moliyalashtirish. Soliqqa tortish maqsadlari uchun "grant" atamasi ishlatilganda xorijiy xayriya tashkilot (fond)lari tomonidan korxona va tashkilotlarga pul yoki natural shaklda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini, o'qitish, davolash va boshqa shunga o'xshash maqsadlarni amalga oshirish uchun ulardan foydalanilganligi to'g'risida hisobot berish sharti bilan beriladigan mablag'lar tushuniladi.

Gerb solig'i – turli xildagi tadbirkorlik bitimlari, kompaniyalarni qayd etish yoki uning aktsionerlik kapitalini oshirish, ijara to'g'risidagi shartnoma va boshqalarni rasmiylashtiruvchi hujjatlar uchun soliq.

D

Davlat byudjeti – davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlash-tirilgan fondi, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Qonun kuchiga ega bo'lgan davlatning asosiy moliyaviy rejasi. Davlat hokimiyatining qonunchilik organi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat pul mablag'lari markazlashtirilgan fondini shakllantirish va foydalanish jarayonidagi iqtisodiy (pul) munosabatlar(i)ni ifodalaydi. Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy quroli. Asosiy funksiyalari 1) mamlakatning yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadini taqsimlash; 2) iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish; 3) davlatning sotsial siyosatini moliyaviy jihatdan ta'minlash; 4) pul mablag'larining shakllantirilishi va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish.

Davlat byudjeti tuzilmasi – respublika byudjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi. Davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli

jamg’armalari jamlanadi. Qoraqalpog’iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog’iston Respublikasining Respublika byudjetini hamda tumanlar va respublikaga (Qoraqalpog’istonga) bo’ysunuvchi shaharlar byudjetlarini o’z ichiga olsa, viloyat byudjeti esa viloyat byudjetini, tumanlar va viloyat bo’ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini o’z ichiga oladi. O‘z navbatida, tumanlarga bo’linadigan shaharning byudjeti shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlaridan iboratdir. Tumanga bo’ysunadigan shaharlari bo’lgan tumanning byudjeti tuman byudjetini va tuman bo’ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini o’z ichiga oladi.

Davlat byudjeti daromadlari – davlat byudjetiga jalb qilinadigan soliqli va nosoliqli mablag’lar; amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda davlat hokimiyat organlari va mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag’lari. O‘z tarkibiga quyidagilarni oladi: 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig’imlar, bojlar, shuningdek majburiy to’lovlar hamda soliq bo’lmagan boshqa tushumlar; 2) davlatning moliyaviy aktivlari va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotishga berilishidan olingan daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo’yicha davlat mulkiga o’tgan pul mablag’lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek xorijiy davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslarga va xorijiy davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to’lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Davlat byudjeti xarajatlari - davlat pul mablag’lari fondini taqsimlash bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy munosabatlar; davlat va mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari funksiyalari va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta’minlashga yo’naltiriladigan pul mablag’lari. Tarkibi quyidagilardan iborat: 1) byudjet mablag’lari oluvchilarning joriy xarajatlari; 2) joriy byudjet transfertlari; 3) kapital xarajatlar (asosiy fondlar va vositalarni davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarish, xorijiy mamlakatlarda davlat ehtiyojlari uchun er va boshqa mol-mulk olish, davlat ehtiyojlari uchun erga bo’lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olish, davlat zahiralarini vujudga keltirish va boshqalar); 4) kapital xarajatlarni

qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari; 5) rezident yuridik shaxslarga va xorijiy davlatlarga beriladigan byudjet ssudalari; 6) davlat maqsadli fondlariga beriladigan byudjet ssudalari va dotatsiyalari; 7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar; 8) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar.

Davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish - davlat tomonidan xorijdan va ichki mablag'ni jalb qilish, respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunga muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat byudjeti mablag'larini byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlash - 1) quyi byudjetlarga yuqori byudjetlardan byudjet subventsiyalari va dotatsiyalari berish; 2) byudjet ijrosi jarayonida paydo bo'lgan o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni yuqori byudjetdan quyi byudjetga, shuningdek, quyi byudjetdan yuqori byudjetga yo'naltirish; 3) byudjet ssudalarini ajratish bilan qayta taqsimlanadi. Respublika byudjetidan byudjet subventsiyalari va dotatsiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlariga tasdiqlangan Davlat byudjeti doirasida ajratiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlaridan byudjet subventsiyalari va dotatsiyalari tumanlar hamda shaharlar byudjetlariga tegishli tasdiqlangan byudjetlar doirasida ajratilishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetida va mahalliy byudjetlarda paydo bo'ladigan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik xazinaviy uzilish naqd pul aylanishi, yuqori byudjetlarga beriladigan byudjet ssudalari, foydalanilmagan byudjet mablag'lari qoldiqlari hisobiga qoplanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetida, viloyatlar va Tashkent shahri byudjetlarida nazarda tutilgan ayrim xarajatlarni maqsadli moliyalashtirish uchun quyi byudjetlar hisobiga kiritiladigan daromadlarni respublika byudjetiga o'tkazishi mumkin.

Davlat boji – yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etganligi yoki vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan tegishli hujjatlari berilganligi uchun olinadigan majburiy to'lov. Turli instantsiyalardagi sudlarga berilgan ariza va shikoyatlar, notarial harakatlarning sodir etilganligi, fuqarolik holati

aktining davlat qaydidan o’tkazilganligi va tegishli organlar tomonidan hujjatlarning berilganligi uchun davlat boji olinadi. Uning miqdori yuridik harakat va beriladigan hujjatlarning xarakteriga bog’liq.

Davlat qarzi – davlat tomonidan ichki mablag’ni va xorijdan mablag’ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig’indisi. Bir tomondan, davlat va ikkinchi tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlar. Bunda davlat qarz oluvchi sifatida maydonga chiqadi.

Davlat ichki qarzlari – davlat tomonidan ichki mablag’ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig’indisi. Oldin chiqarilgan va hozirgi vaqtgacha foizlari bilan qaytarilmagan (uzilmagan) davlat qarzlarining (zayomlarining) butun summasi.

Davlat maqsadli fondlari – Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan fondlar bo’lib, ularning har biri uchun mablag’lar manbalari, har bir manbadan mablag’ tushish normalari va shartlari, shuningdek shu mablag’lardan foydalanilishi mumkin bo’lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Aniq maqsadlarga mo’ljallangan pul fondlari. Aholiga taqdim etiladigan sotsial xizmatlarning ko’lamini kengaytirish, infrastrukturaning qoloq tarmoqlari rivojlanishini rag’batlantirish, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarini qo’shimcha resurslar bilan ta’minlash bu fondlarning maqsadidir. Bu fondlar Pensiya fondi, Respublika yo’l fondi, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash davlat qo’mitasining maxsus fondi (hisob varag’i), Ish bilan ta’minlashga ko’maklashish davlat fondidan iboratdir. Ularning daromadlari va xarajatlari o’rtasidagi vaqtinchalik uzilishni (etishmovchilikni) qoplash uchun davlat maqsadli fondlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan respublika byudjetidan byudjet dotatsiyalari va ssudalari ajratilishi mumkin. Davlat maqsadli fondlariga tushgan daromadlar xarajatlardan oshgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan ortiqcha summa yilning har bir choragi yakunlari bo’yicha respublika byudjetiga to’liq yoki qisman olib qo’yilishi mumkin.

Davlat moliyaviy nazorati - davlat byudjeti va nobyudjet fondlar, soliqlar, davlat korxona va tashkilotlarining moliyaviy faoliyati, pul hisob-kitoblarini tashkil etish, hisob va hisobotni yuritish sohalarida qonunchilikka rioya etilishini mamlakat hokimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek, maxsus tuzilgan nazorat organlari (Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Davlat tashqi qarzi – davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish – aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlarining vujudga kelishi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish - aktivlarni xorij manbalaridan (xorijiy davlatlardan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlarining vujudga kelishi.

Davlat tomonidan (ichki va xorijdan) mablag' jalb qilish – quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin: 1) iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish; 2) Davlat byudjeti daromadlari bilan xarajatlari o'rtasida tushumlar vaqtga ko'ra muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan yillik ichki tafovutni to'g'rilash; 3) mavjud qarzni qayta moliyalashtirish; 4) byudjet defitsitini moliyalashtirish; 5) tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qoplash. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishda qarz majburiyatlarining quyidagi turlaridan foydalanish mumkin: 1) qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan), o'rtacha muddatli (bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan) davlat qimmatli qog'ozlari; 2) kreditlar (qisqa, o'rta va uzoq muddatli); 3) O'zbekiston Respublikasining kafolatlari; 4) byudjet daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik

tafovutni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar; 5) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlar. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishga hamda davlat qarzi ko'payishiga olib keladigan boshqa harakatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat valyuta monopoliyasi - valyuta boyliklari (valyutaviy boyliklar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish yoki operatsiyalarni amalga oshirishni ma'lum organlar, korxonalar, firmalar zimmasiga o'tkazishga ruxsat berish, valyutaviy mablag'lardan foydalanish tartibini belgilash bo'yicha davlatning tanho huquqi. Valyuta operatsiyalarini reglamentatsiya (tartibga solib turish) qilishni, valyutaviy mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirishni va ularning qo'llanilish samaradorligini oshirish bo'yicha choralar ko'rishni taqoza etadi.

Daromadlar to'g'risida deklaratsiya – o'tgan davr mobaynida olingan daromadlar, mulklar va ularga tegishli bo'lgan soliq chegirmalari hamda imtiyozlari to'g'risida soliq to'lovchining rasmiy arizasi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda asosiy moliyaviy hujjat bo'lib, ulardan olinadigan daromad solig'ining hajmini aniqlash uchun fuqarolarning daromadlari unda qayd etiladi.

Daromad solig'ining shedulyar shakli - daromadning manbaini inobatga olgan holda uning qismlarga (shedullarga) bo'linishini taqoza etadi. Dastlab, Buyuk Britaniya soliq tizimida qabul qilingan. Unga ko'ra har bir shedul o'ziga xos tarzda soliqqa tortiladi. Bunday tartib daromadni o'zining manbai oldida "tutish"ni maqsad qilib qo'yadi. Mamlakatda bu sohada oltita shedul amal qilib, ularning ayrimlari yana ichki taqsimlanishga ham ega. Masalan, "A" shedul o'z tarkibiga mulkdan olinadigan daromadlarni (erga mulkchilikdan, bino va inshootlarga egalikdan, uy yoki xonani ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni), "V" shedul tijoriy maqsadlar uchun foydalaniladigan o'rmon massivlaridan olinadigan daromadlarni, "S" shedul davlat qimmatbaho qog'ozlaridan olinadigan daromadlarni, "D" shedul tijoriy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigaen daromadlarni (bu shedulning tarkibiga daromadlarning juda ko'p turlari kirganligi uchun uning o'zi yana olti qismga bo'linadi), "E" shedul ish haqi, pensiya, nafaqa va boshqa mehnat daromadlarini va nihoyat, "F"

shedul Buyuk Britaniya kompaniyalari tomonidan to’lanadigan dividentlar va boshqa to’lovlarni o’z ichiga oladi.

Daromad solig’i bo’yicha jarimalar – ushbu soliq to’lanmaganda, noto’liq to’langanda yoki to’lash tartibi buzilganda (rioya qilinmaganda), pulni undirish, moddiy ta’sir ko’rsatishdan iborat. O‘z vaqtida ushlab qolinmagan, noto’liq ushlangan yoki tegishli byudjetga o’tkazilmagan soliq summalari jismoniy shaxslarga daromad to’laydigan korxona, tashkilot va muassasalardan undirishga mo’ljallangan summaning 10% hajmidagi jarimani birgalikda qo’shib, soliq organlari tomonidan so’zsiz undirib olinadi. Korxona, tashkilot, muassasalar va tadbirkor sifatida qayddan o’tgan jismoniy shaxslardan soliq o’z vaqtida tegishli byudjetga o’tkazilmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun to’lov muddatidan keyingi kundan boshlab to’langan kungacha (bu kun ham qo’shiladi) 0,5% miqdorida penya undiriladi. Penyaning undirilishi ularni javobgarlikning boshqa turlaridan ozod etmaydi.

Daromadiy (daromadli) soliqqa tortish – daromadlarning olinish vaqtida undiriladigan daromad soliqlari tizimi.

Daromadlardan olinadigan soliq – foyda solig’idan tashqari aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog’izlar bo’yicha (davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatbaho qog’ozlari bo’yicha olingan daromadlardan tashqari) olingan dividentlar va foizlardan, kazinolar, videosalonlarning daromadlaridan, o’yin avtomatlarining daromadlaridan, ommaviy kontsert-tomosha tadbirlarini o’tkazishdan olingan daromadlardan korxona va tashkilotlar tomonidan to’lanadi.

Dividentlar – taqsimlashga mo’ljallangan aktsionerlarning sof foydasi (daromadi); aktsionerlik jamiyati yoki korxona sof foydasidan har bir aktsiya uchun aktsionerlarga ma’lum davrdan so’ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to’lanadigan daromad.

Dotatsiya – davlat byudjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag’lari, zarar (ziyon)larni qoplash uchun korxona va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bog’liq bo’lmagan sabablarga ko’ra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.

Dempingga qarshi bojxona bojlari - mahsulotni chiqarayotgan mamlakatdagi tovarlarning qiymatidan shu tovarlar

olib kirilayotgan mamlakatda shu tovarlarning bahosi past bo'lsa, bu narsa mamlakat o'z ishlab chiqaruvchilariga moddiy zarar etkazish xavfini tug'dirsa yoki shunga o'xshash tovarlarni mamlakat doirasida ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yishi mumkin bo'lsa joriy etiladi.

E

Ye**r uchun to'lovlarning shakllari** – yer solig'i, ijara haqi va erning normativ bahosidan iborat. Erning egalari, erning mulkdorlari va yerdan foydalanuvchilar yillik yer solig'iga tortiladi. Ijaraga berilgan er uchun ijara haqi olinadi. Qonunda ko'zda tutilgan hollarda sotib olish va bankdan kredit olish uchun garov sifatida yerdan foydalanilganda erning nomativ bahosi belgilanadi (o'rnatiladi).

Yer solig'i – er egalari, erga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar to'laydigan soliq. Uning miqdori er egalari, erga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar xo'jalik faoliyatining natijalariga bog'liq bo'lmasdan, balki bir yil uchun er birligiga nisbatan barqaror to'lovlar ko'rinishida o'rnatiladi. O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bu soliqning to'lovchilaridir. Soliqning stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Yer solig'i yuridik shaxslar tomonidan har yili birinchi yanvargacha bo'lgan holatga qarab mustaqil hisoblab chiqariladi va soliq bo'yicha hisob-kitoblar er uchastkasi joylashgan hududdagi soliq organiga joriy yilning birinchi fevraligacha taqdim etiladi. Yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) soliq yilning har choragida ikkinchi oyning 15-kunigacha to'lansa, qishloq xo'jaligi korxonalari bu soliqni bir yilda bir marta – hisobot yilining 15-dekabrigacha to'laydilar. Bu muddat jismoniy shaxslar uchun joriy yilning birinchi noyabrigacha belgilangan.

Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq - bu soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek, foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan er osti inshootlari qurish va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Uning ob'yekti bo'lib foydali qazilmalar qazib olish hajmi, texnogen

hosilalarning hajmi, foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan er osti inshootlari hajmi, rangli toshlar xom ashyosi, paleontologiya qoldiqlari va boshqa geologik kollektsiya materiallari namunalarini to'plash uchun berib qo'yilgan er qa'ri uchastkasi maydoni hisoblanadi. Soliqning stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ye**rning normativ bahosi** - hisobli qoplash muddati davomida olinishi lozim bo'lgan potentsial daromaddan kelib chiqqan holda ma'lum sifatdagi va joydagi er uchastkasining qiymatini ifodalaydigan ko'rsatkich. Erni mulk sifatida berish uchun, unga nisbatan jamoa-hissali mulkni o'rnatish uchun, meros sifatida berish, taqdim etish, bank kreditini olish uchun er uchastkasidan garov sifatida foydalanilganda er munosabatlarini iqtisodiy tartibga solishni ta'minlash uchun joriy etilgan. Odatda erning normativ bahosi er maydoni birligiga to'g'ri keluvchi yer solig'ining 50 martalik hajmi miqdorida o'rnatiladi. Bu baho hisoblanayotgan paytda yer solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar inobatga olinmaydi.

Yer uchun ijara haqi - uning hajmi (o'lchami), shartlari va o'tkazish muddatlari shartnomaga muvofiq o'rnatiladi. Qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan erlar ijaraga olinganda uning miqdori ijaralangan uchastkalardan olinadigan yer solig'ining summasidan oshmasligi kerak. Er uchun ijara haqi alohida yoki butun ijaraga olingan mulkning ijara haqi tarkibida ham olinishi mumkin. Lekin bu holda ham er uchun ijara haqi, albatta, mahalliy byudjetning daromadiga o'tkazilishi kerak.

J

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar - daromad solig'i, fuqarolarning mulkidan olinadigan soliqlar (transport vositalari solig'i, mol-mulk solig'i, uy-joy solig'i, meros tariqasida o'tadigan mulkdan olinadigan soliq va boshqalar), tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qayd etish yig'imi, boshqa soliq, yig'im va to'lovlardan iborat.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq – umumdavlat soliqlarining tarkibiga kirib, byudjet daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar bu

soliqning to’lovchilari hisoblanadi. Soliq progressiv xarakterga ega. U quyidagi shakllarda to’lanishi mumkin: daromad manbaidan, ya’ni asosiy ish joyidan va boshqa ish beruvchilardan; agar daromad bir necha manba hisobidan olinsa va qonuniy tarzda belgilangan daromadning yillik summasidan oshsa, daromadlar to’g’risidagi deklaratsiya ko’rinishida; tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadni soliqqa tortish shaklida. Jami yillik daromad bilan qonunda belgilangan chegirmalar o’rtasidagi farq sifatida hisoblangan soliq solinadigan daromad soliqqa tortish ob’yektidir. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to’lovchi olishi lozim bo’lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoki boshqa mablag’lar, shu jumladan, mehnatga haq to’lash shaklida olinadigan daromadlar, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromad kiradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mahalliy soliqlar – er uchun to’lovlar (yer solig’i, er uchun ijara haqi), reklama solig’i, mahalliy yig’imlar (birjada amalga oshirilgan bitimlar bo’yicha yig’im, mahalliy auktsion va lotereya o’yinlarini o’tkazish huquqi uchun litsenziya yig’imi, savdo qilish huquqi uchun yig’im va boshqa maqsadli yig’imlar)dan iborat.

Jon solig’i – har bir soliq to’lovchidan teng summalarda olinadigan soliq.

Z

Zararlar – fuqarolik huquqida qonunga xilof harakatlar tufayli bir shaxs (yuridik yoki jismoniy) tomonidan ikkinchi shaxsga (yuridik yoki jismoniy) etkazilgan ziyonning pulda ifodalangan shakli. Zararlar mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan, tabiiy ofatlar, debitorlik qarzlarni talab qilib olmasdan voz kechishdan, to’liq amortizatsiya qilinmagan asosiy fondlarga barham berishdan va boshqalardan vujudga kelishi mumkin. Mahsulot, ish va xizmatlarning bahosi ularning to’liq tannarxidan past bo’lganda ham zararlar paydo bo’ladi.

I

Ikki marta soliqqa tortish – 1) soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbaidan olinishi; 2) qo’shma korxona xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o’tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3) sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to’lanadigan dividentlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to’langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo’li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin. 1979 yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konventsiya ishlab chiqilgan bo’lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolanadi. Ular tomonidan o’rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko’ra qo’shma korxona xorijiy ishtirokchisi o’z foydasini xorijga o’tkazayotgan paytda qo’shimcha soliqdan ozod qilinadi.

Investitsiyalar – yuridik jihatdan mustaqil bo’lgan korxonaga uzoq muddat (bir yildan kam bo’lmagan) davomida qo’shimcha foyda olish, ta’sir etish doirasini sotib olish maqsadlarida yoki shu sohada o’z faoliyatini tashkil qilgandan ko’ra uni shunday qo’yish (sarf etish) afzalroq bo’lganligi uchun kapitalni joylashtirish. Foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida pul mablag’lari, maqsadli bank omonatlari, aktsiyalar va boshqa qimatbaho qig’ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, boshqa har xil mulklar yoki mulkiy huquqlar hamda intellektual boyliklarni tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari ob’ektlariga qo’yilishining barchasi investitsiyalar hisoblanadi. Investitsiyalarning moliyaviy, real, yalpi, sof, xususiy va davlat kabi turlari bo’lishi mumkin.

Investitsion soliq krediti – soliq to’lovchi tomonidan ma’lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo’yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan engillik, imtiyoz (soliq to’lovining kechiktirilishi). Bu kredit soliq to’lovchi va mahalliy ma’muriyat o’rtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtiriladi. Investitsion soliq kreditini taqdim etish (berish),

rasmiylashtirish va qaytarish tartibi “Investitsion soliq krediti to’g’risida”gi qonunga muvofiq belgilanadi.

Investor – 1) o’z, qarziy va jalb qilingan mablag’larni investitsiyalar shaklida joylashtirishni amalga oshiruvchi va ularning maqsadli foydalanilishini ta’minlovchi investitsion faoliyat sub’yekti; 2) qimmatbaho qig’ozlarni sotib oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Imtiyoz – ma’lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to’liq) ozod etish, ma’lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo’lish, masalan, soliq imtiyoziga.

Ish faolligi solig’i - bir necha xorijiy mamlakatlarning (masalan, AQShda) soliqqa tortish amaliyotida qo’llanilib, o’z tarkibiga ikki elementni oladi: 1) korxonaning umumiy yillik oborotni soliqqa tortish (odatda 1,0%dan 2,5% gacha); 2) ish haqi fondini soliqqa tortish.

Ish haqi solig’i – yuridik shaxslardan ish haqi xarajatlariga nisbatan va xodimlarning ish haqidan ma’lum foizda olinadigan soliq.

Import-eksport solig’i – soliqqa tortishning ko’rinishlaridan biri; tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi (chorasi). Soliqqa tortish ob’yekti bo’lib belgilangan kurs bo’yicha milliy valyutada hisoblangan tovarlarning boj qiymati yoki og’irlik va miqdor birliklarida ifodalangan tovarlarning soni hisoblanadi.

Iste’mol solig’i – bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo’shilgan qiymat solig’i va aktsizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Bojxona bojlarini ham iste’mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa birovlari mahalliy byudjetlarga borib tushadi.

Ijtimoiy soliqlar – ish haqi va ishchi kuchiga nisbatan qo’llaniladigan soliqlar va xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning ijtimoiy ta’minotga badallaridan (ajratmalaridan) tarkib topadi.

Imtiyozli soliqqa tortish – jismoniy yoki yuridik shaxslarni soliqlardan to’liq yoki qisman ozod etish.

Ijara haqi – ijara sharoitida (sharti bilan) taqdim etilgan mulk uchun to’lovning turi. Asosiy fondlarning alohida ob’ektlari ijaraga olinganda ular ijara shartnomasining butun amal qilish davomida teng hissalarda (qismlarda) mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Y

Yig'imlar – qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi mahsulotlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar kiradi.

Yo'l fondini shakllantiruvchi soliqlar – yoqilg'i-moylovchi materiallarni sotishdan olinadigan soliq, avtomobil yo'laridan foydalanuvchilardan olinadigan soliq, transport vositalarining egalaridan olinadigan soliq va transport vositalarini sotib olganlik uchun to'lanadigan soliqdan iborat.

K

Kafolat fondi – davlat qarzi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga hamda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi majburiyatlaridan kelib chiquvchi to'lovlarni amalga oshirish uchun mablag'larni jamlashga shart-sharoit yaratish maqsadida respublika byudjeti tarkibida tuziladigan fond.

Korxonalarning davlat reestri – soliq to'lovchilarni soliq inspektsiyasida hisobga olish uchun qo'llaniladi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ko'chmas mulk - er bilan mustahkam bog'liq bo'lgan er maydonlari, alohidalashtirilgan suv ob'ektlari, o'rmonlar, ko'p yillik o'simliklar, binolar, inshootlardan iborat. Ularning ko'chirilishi shu narsalarning mo'ljallanganligiga zarar etkazadi. Ko'chmas mulkning tarkibiga davlat qaydidan o'tgan havo va dengiz kemalari, kosmik ob'ektlar ham kiradi. Ko'chmas mulkning asosiy belgisi sifatida er hisobga olinadi. Qonun bo'yicha ko'chmas mulkning tarkibiga boshqa mulklar, masalan, korxona yoki xonadonlar ham kiritilishi mumkin.

Korxona mulki – asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zahiralarining yig'indisidan iborat. Uning tarkibiga: materiallar, tayyor mahsulot, kelgusi davr xarajatlari, hisobot davrida (kunida) mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilmagan, lekin amalga oshirilgan ishlab chiqarish xarajatlari, qoldiq mahsulotlarning muomala xarajatlari va ortib jo'natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqalar kiradi. Soliqqa tortish bazasi (asosi) hisoblanayotgan paytda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kam baholi va tez eskiradigan predmetlarning qiymatidan eskirish summasi chiqarib tashlanadi.

Kvota – 1) tegishli bitim doirasida milliy yoki xalqaro birlashma ishtirokchilarining ishlab chiqarish yoki sotishda ishtirok etish hissasi; 2) xalqaro iqtisodiy yoki moliya-valyutaviy tashkilotning ustav fondi yoki kapitalida mamlakatning badali; 3) soliqqa tortish birligidan olinadigan soliqning stavkasi (absolyut ifodada yoki hissa ko'rinishida); 4) nimaningdir qismi, hissasi, normasi (me'yori), miqdoriy cheklanishlar.

Korporatsiyalarning daromadidan olinadigan soliq – daromad solig'i va foyda solig'ining (ayrim mamlakatlarda) o'rniga barcha kompaniyalarning foydasidan qat'iy foizda olinadigan soliq. Barcha korporativ organ va nokorporativ assotsiatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Taqsimlanadigan dividentlar summalaridan ham soliq olishni taqoza etadi.

Kasb solig'i (kasbiy soliq) – mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining barcha turlaridan har yili olinadigan to'g'ri (bevosita) soliqlardan biri. Masalan, Fransiyada kasb solig'i (kasbiy soliq)ning stavkasini hisoblashda baza sifatida ko'chmas mulk ijarasining qiymati, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan barcha asbob-uskunalarning qiymati (sub'yektning o'z mulkimi yoki ijaraga olganmi, bundan qat'iy nazar), ish haqi fondining qiymati va boshqalar xizmat qiladi. Kasb solig'i (kasbiy soliq)ning summasi asos raqamlari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanadigan koeffitsient asosida hisoblanadi. Bunda uning summasi korxonada yangidan yaratilgan mahsulotning ma'lum bir foizidan (masalan, 5%) oshmasligi lozim.

Kvotativ soliqlar – daromad yoki mulk qiymatining puldagi ifodasiga nisbatan foizlarda o'rnatiladigan soliqlar.

Kontingentlashtirilgan soliqlar – umumiy summasi oldindan o’rnatiladigan va so’ng ma’muriy birliklardan tortib to alohida soliq to’lovchilar o’rtasida taqsimlanadigan soliqlar.

L

Lizing – moliya-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo’lib, korxonalar tomonidan mashina, asbob-uskuna va shunga o’xshashlarni uzoq muddatli ijaraga olinishini anglatadi. Lizingda uning ob’ektlari odatda (lekin majburiy tartibda emas) ijaraga beruvchi korxonaning balansidan ijaraga oluvchi korxonaning balansiga pirovardida o’tkaziladi. Bu tartibdagi bitimlar ijarachi korxona uchun foydali hisoblanib, ular moliyaviy zarar ko’rmaydilar va, odatda, soliq va amortizatsiya imtiyozlariga ega bo’ladilar.

Litsenziya – u yoki bu mahsulotni tayyorlash, xo’jalik ishlab chiqarish va ilmiy faoliyatning turini amalga oshirish, mahsulotning ma’lum bir turi va miqdorini eksport yoki import qilish, olish kirish, olib chiqish yoki o’tkazib ketishga davlat yoki mahalliy boshqaruv organlarining rasmiy ruxsati (roziligi). Savdo qilish huquqi yoki lotereya va mahalliy auktsionlarni o’tkazish uchun litsenziya uch nusxada rasmiylashtiriladi. Birinchi nusxa ijarachiga (o’tkazuvchiga, shug’ullanuvchiga) beriladi, ikkinchisi tuman soliq inspektsiyasiga yo’llanadi, uchinchi nusxa esa tegishli qaror, xat va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birgalikda tuman yoki shahar ma’muriyatining ish jildida saqlanadi. Litsenziya olish uchun murojaat etayotgan jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega ekanliklari to’g’risida guvohnomaga ega bo’lishlari shart.

London klubi - o’z hukumatlarining kafolatlarisiz SSSRga ssuda taqdim etgan 600 yirik g’arb bank-kreditorlarning birlashmasi. 1996 yilda Rossiya va London klubi o’rtasida kelishuvga erishilgan bo’lib, unga muvofiq 32 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi Rossiyaning tashqi qarzi (shundan, 25 mlrd. AQSh dollari – asosiy qarz, 7 mlrd. AQSh dollari esa – asosiy qarz bo’yicha to’lanmagan foizlar) muddatidan oldin restrukturizatsiya qilingan va unga ko’ra, bu qarz navbatdagi 25 yilga qayta rasmiylashtirilgan va 5 yillik imtiyozli davr taqdim etilgan edi.

M

Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar – mahalliy byudjetlarga olinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to'lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i, yer solig'i, reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar.

Mahsulot tannarxi tarkibiga kiritiladigan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari – maxsus Nizom asosida belgilanib, uning tarkibiga mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar, tabiiy xom ashyo, er, o'rmon, suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari, texnologik jarayonlarni takomillashtirish va mahsulot sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan nokapital xarakterdagi xarajatlar, tajriba-eksperimental va ixtiro xarajatlari, ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari kabilar kiradi.

Mahsulotning boj qiymati – mahsulot chegaradan o'tayotgan paytda uning egasi tomonidan e'lon qilinadigan qiymat. Uning to'g'riligini aniqlash ustidan nazorat mahsulotlarni rasmiylashtiruvchi bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mahsulotlarning boj qiymatini aniqlashda turli metodlardan foydalaniladi: a) kiritilayotgan mahsulotlarning bitim bahosi bo'yicha (eng ko'p qo'llaniladigan metod); b) turdosh (bir turdagi, bir xildagi) mahsulotlar bitim bahosiga ko'ra; v) qiymatni hisoblash metodi bo'yicha; g) qiymatlarni qo'shish yo'li bilan; d) rezerv metodi bo'yicha.

Maxsus bojxona bojlari – bojxona bojlarining ko'rinishlaridan biri bo'lib, agar mamlakatga olib kirilayotgan mahsulotlar shunga o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatning o'zidagilarga zarar etkazadigan bo'lsa, himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqa mamlakatlarning diskriminatsion harakatlariga nisbatan javob tariqasida ham qo'llanilishi mumkin.

Maqsadli soliq imtiyozlari – xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan davlatning maqsadli ijtimoiy, iqtisodiy, investitsion va boshqa dasturlarining bajarilganligi uchun soliqqa tortish hajmining pasaytirilishi. Investitsion soliq kreditidan farqli ravishda o'zaro manfaatdorlik (o'zaro foydalilik) asosida mintaqaviy byudjetga borib tushuvchi soliq summalari doirasida ijroiya hokimiyati organlari tomonidan har qanday korxonaga berilishi mumkin.

Maqsadli ajratmalar – nobyudjet fondlarning daromadlar qismini shakllantiradi. Bu ajratmalarning manbai ishlab chiqarilgan (yaratilgan) yalpi ichki mahsulot bo'lib, uning hisobidan birlamchi daromadlarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy maqsadlar uchun nobyudjet fondlarga, mehnat haqi fondiga bog'langan va mahsulot tannarxining tarkibiga kiritiladigan to'lovlarning tegishli qismi tarkib topadi: pensiya fondiga, majburiy tibbiyot sug'urtasi fondiga va h.k.

Maqsadli byudjetdan tashqari (nobyudjet) fondlar - qarang: Byudjetdan tashqari (nobyudjet) fondlar.

Maqsadli xorijiy kredit - loyihalarning maqsadlariga muvofiq ravishda tovarlar, ishlar va xizmatlarning haqini to'lash yo'li bilan mablag'larni xorijiy valyutada qaytarilish va tiklash asosida taqdim etilishini ko'zda tutgan holda hukumatning tashqi qarz olish Davlat dasturiga kiritilgan loyihalarini moliyalashtirish shakli. Ular xorijiy davlatlarning hukumatlari, banklari va firmalarining kreditlariga bog'langan kreditlarni va xalqaro moliyaviy tashkilotlarning nomoliyaviy kreditlarini o'ziga qamrab oladi.

Ma'muriy javobgarlik – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar javobgarligining shakllaridan biri.

Moliya – davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni

yaratish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Moliya yili - birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Moliyaviy tizim – davlat va korxonalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish shakllari va metodlari tizimi.

Moliyaning funksiyalari – moliya mohiyatining amalda namoyon bo'lishi. Uning taqsimlash va nazorat funktsilari mavjud.

Moliyaviy resurslar – davlat va korxonalar pul mablag'lari maqsadli fondlarining majmui. Ular o'sishining asosiy sharti milliy daromadning ko'payishidir. Mamlakatning moliyaviy resurslari Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tuziladigan yig'ma moliyaviy balansda o'z ifodasini topadi. U o'z ichiga davlat byudjet tizimi, hukumatning nobyudjet fondlari va turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning (amortizatsiya va ularning ixtiyoriga qoladigan foyda summasi) resurslarini qamrab oladi.

Moliyaviy apparat – moliyaviy boshqaruvni amalga oshiruvchi organlar. O'zbekistonda ularning tarkibiga O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi va uning ikki (Senat va Qonunchilik) palatalari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va ularning joylardagi quyi organlari, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarda moliyani operativ boshqarish funksiyasini amalga oshiruvchi moliyaviy bo'limlar va boshqarmalar va h.k.lar kiradi.

Moliyaviy bozor – qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar hamda fond qimmatlari, ya'ni, aktsiyalar obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlarning boshqa ko'rinishlari bozori. Birlamchi moliyaviy bozorda yangi qimmatli qog'ozlar chiqariladi, ikkilamchi moliyaviy bozorda esa, oldin chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning qayta sotilishi sodir etiladi.

Moliyaviy nazorat - moliyaviy boshqaruv tizimining elementlaridan biri, barcha iqtisodiy sub'yektlarning (davlat, hududiy-ma'muriy bo'linmalar, korxona va tashkilotlar) moliyaviy faoliyati moliyaviy-xo'jalik qonunchiligiga rioya etilishi, amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqli, moliyaviy-xo'jalik

operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligi ustidan amalga oshiriladigan qiymatiy nazoratning alohida sohasi.

Moliyaviy mexanizm – moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning davlat tomonidan o'rnatilgan shakllari, turlari va metodlari tizimi. Davlat tomonidan tartibga solishning darajasiga bog'liq ravishda ikkiga bo'linadi: direktiv moliyaviy mexanizm va tartibga soluvchi moliyaviy mexanizm. Direktiv moliyaviy mexanizm davlat bevosita ishtirok etadigan munosabatlar (soliqlar, davlat krediti, byudjet jarayoni va boshqalar) bilan bog'langan. Tartibga soluvchi moliyaviy mexanizm esa, davlatning manfaatlariga to'g'rida-to'g'ri ta'sir etmaydigan moliyaviy munosabatlardan (masalan, korxona ichki-xo'jalik faoliyatini tashkil etish) foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab (aniqlab) beradi.

Moddiy xarajatlar – xom-ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajatlardan iborat. Moddiy resurslarning qiymati ularni sotib olish bahosi (qo'shilgan qiymat solig'isiz), ta'minot va tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to'lanadigan ustamalar, komission mukofotlar boj to'lovlari, tovarlar birjasining xizmat qiymatlari, tashish, saqlash va etkazib berish haqlarining yig'indisidan tashkil topadi.

Mehnat haqi xarajatlari – asosiy ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi mukofotlari, rag'batlantiruvchi va tiklovchi (qoplovchi) to'lanmalar, natural haq sifatida beriladigan mahsulotlarning qiymati, tuzilgan shartnomalar bo'yicha xodimlarga beriladigan mehnat haqi va boshqa to'lanmalarni o'z ichiga oladi.

Meros – qonun yoki vasiyatga muvofiq merosxo'rlik asosida qabul qilinadigan mulk.

Merosxo'rlar – qonunga muvofiq ikki toifaga bo'linadi: 1) birincha darajali (navbatdagi) merosxo'rlar – vafot etgan shaxsning bolalari, xotini (eri), ota-onasi, vafot etgandan so'ng tug'ilgan farzand; 2) ikkinchi darajali (navbatdagi) merosxo'rlar – vafot etgan shaxsning aka-ukalari, opa-singillari, ota yoki ona tomonidan bobosi va momosi. Ikkinchi darajali (navbatdagi) merosxo'rlar qonun bo'yicha birinchi darajali (navbatdagi) merosxo'rlar bo'lmaganda, ular tomonidan meros qabul qilinmaganda yoki vasiyatchi tomonidan ular meros qabul qilish

huquqidan mahrum etilganda merosni qabul qilishga chaqiriladilar.

Muomala xarajatlari – mahsulotlar muomalasi jarayoniga xizmat qiluvchi xarajatlardan iborat. Ular ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin: 1) oldi-sotdi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (sof muomala xarajatlari); 2) ishlab chiqarish jarayonining muomala sohasida ham davom etishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (mahsulotlarni saqlash, ortib jo'natish, qadoqlash va boshqalar). Muomala xarajatlari absolyut summalarda va mahsulot aylanmasiga nisbatan foizda ijtimoiy zaruriy xarajatlar chegarasida (doirasida) rejalashtiriladi.

Mulkiy soliqqa tortish – soliq to'lovchining mulkidan, ko'p hollarda uning kapitalidan olinadigan soliqlar tizimi. Odatda, progressiv xarakterga ega – mulkning o'lchami (hajmi, miqdori) oshishiga qarab soliqning stavkasi ham ortadi.

Mulk solig'i (mulkiy soliq) – o'z tarkibiga ko'chmas mulk (er, binolar) solig'ini va shaxsiy mulk(asbob-uskunalar, zahiralar) solig'ini oladi. Mahalliy hokimiyat organlari foydasiga hisoblanib, ko'pgina mamlakatlarda ular daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda bu soliq yuridik shaxslarning mol-mulkiga va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarga bo'lingan.

N

Nafaqa – vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yuqotganda, homiladorlik va tug'ishda, bola tug'ilganda, bola parvarishi bo'yicha va shunga o'xshash boshqa holatlarda mamlakat fuqarolariga beriladigan doimiy ravishdagi yoki bir martalik pul to'lanmasi.

Nodavlat moliyaviy nazorati – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy ahvoli va likvidliligi, moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi, foydaliligi va to'lovga layoqatliligi ustidan auditorlik firmalari, korxona va tashkilotlarning rahbariyati va moliyaviy xizmatlari, aktsionerlari, tijorat banklari, sug'urta firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

O

Obligatsiya – foiz shaklida daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz. Davlat organlari tomonidan byudjet defitsitini qoplash uchun va aktsionerlik jamiyatlari tomonidan kapitalni jalb qilish maqsadida chiqariladi. Aktsiyadan farqli o'laroq obligatsiyada uni qaytarish (uzish) muddati ko'rsatiladi.

Oborot solig'i - ishlab chiqarishning yakuniy bosqichida xalq iste'moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymatidan olinadigan soliq turi. Asosan, uch xil metod bo'yicha aniqlanadi: 1) chakana baho (savdo va ta'minot ustamalari chegirilgan) va korxona ulgurji bahosi o'rtasidagi farq; 2) chakana baholardagi (savdo ustamalari chegirilgan) tovar oborotga nisbatan foizda; 3) mahsulot birligiga nisbatan absolyut pul summalarida. Barcha mahsulotlardan olinmasdan, balki texnologik zanjirning oxiridagi mahsulotdan olinadi (masalan, cho'yan rudasidan emas, balki muzlatgich, avtomobildan olinadi). Hozirgi paytda Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, O'zbekiston kabi mamlakatlarda bu soliqdan qo'shilgan qiymat solig'iga o'tilgan bo'lsa, AQShda uning o'rniga sotuvdan olinadigan soliq joriy etilgan.

Ortiqcha to'lovlar – to'lovning byudjetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda soliq to'lovchining boshqa to'lovlar bo'yicha mavjud bo'lgan boqimandalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to'g'rida unga ma'lum qilinadi yoki soliq organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko'chirmasi asosida soliq to'lovchiga qaytariladi. Boshqa to'lovlar bo'yicha boqimandalari bo'lmagan holda korxonaning ortiqcha to'lovlari summasi uning yozma arizasiga ko'ra to'lov muddati etib kelmagan to'lovlarni to'lashga yo'naltirilishi yoki uning o'ziga qaytarilishi mumkin. Ortiqcha to'lovlarning qaytarilishi soliq organlari tomonidan byudjet hisobidan amalga oshiriladi.

P

Patent - ma'lum bir huquq yoki imtiyoz beruvchi hujjat. Masalan, savdo yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanish huquqi. Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq doimiy savdo nuqtalarida (joylarida) savdoni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar savdo qilish huquqiga ega bo'lish uchun vaqtinchalik patentni sotib oladilar. Patentda uning berilish muddati (patent amal

qiladigan davr), savdo amalga oshiriladigan mahsulotlar guruhi va savdo qilish joyi o’z aksini topgan bo’lishi lozim.

Parij klubi – dunyoning asosiy (bosh) kreditor-davlatlari guruhi. Agar biror-bir qarzdor mamlakat o’z to’lov balansini balanslashtirishda qiyinchilikka duch kelib, XVF yordamida o’z iqtisodiyotini sog’lomlashtirish dasturini amalga oshirishga kirishsa, Parij klubi qarzdor mamlakatning moliyaviy muammolarini hal etishda o’z hissasini qo’shadi. Buning uchun hamkorlikda o’sha mamlakat bilan (birgalikda) bitim ishlab chiqiladi. Unga ko’ra, uning tashqi qarzlarini qaytarish muddatlari uzaytiriladi. Masalan, Rossiya Parij klubi davlatlariga qarzining hajmi 40 mlrd. AQSh dollariga teng bo’lgan bir paytda, 1996 yil aprelining oxirida Parijda Rossiyaning Parij klubi kreditorlariga bo’lgan qarzini uzoq muddatli restrukturizatsiya qilish to’g’risida bitim imzolandi. Unga muvofiq ravishda Rossiya tomonidan qarzning qaytarilishi 2002 yildan boshlanishi va 2020 yilga kelib tugashi kerak. Bu narsa iqtisodiy krizisdan chiqqandan, iqtisodiyotda real o’sish sodir bo’lgandan so’ng Rossiyaga Parij klubi kreditorlarining tashqi qarzlarini qaytarishga kirishishga imkon beradi.

Penya – fuqarolik huquqida jazo choralari (jarima)ning ko’rinishlaridan biri, qonun yoki shartnomaga muvofiq to’lovlar muddatini buzganlik uchun undiriladigan moliyaviy jazoning shakli. Uning miqdori qonunga ko’ra to’lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun to’lanishi lozim bo’lgan summaga nisbatan foizda belgilanadi. Korxona tomonidan to’langan penya summasi noishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

Pensiya – qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yuqotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta’minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to’lovi. Uning quyidagi turlari bo’lishi mumkin: qarilik pensiyasi; nogironlik pensiyasi, xizmat qilgan yillari uchun pensiya; boquvchisini yuqotganligi uchun pensiya; sotsial pensiya.

Pulli kapital daromadlaridan olinadigan soliq – dividentlar, aktsiya va obligatsiyalarning foizlari, bankdagi omonatlar bo’yicha foizlar, zayomlar bo’yicha yutuqlar va boshqa shunga o’xshash bir necha daromadlardan olinadi. Avstriya, Kanada, Ispaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda amal qiladi. Pulli

kapitalning egasiga daromad berilayotgan paytda soliq ushlab qolinadi. Soliqning stavkasi 20%dan 40%gacha tebranadi.

Progressiv soliq – soliqqa tortish bazasining oshishi bilan soliq stavkasining ko'tarilishi xarakterlidir. Progressiv soliqlarning orasida eng ko'p uchraydigani daromad solig'idir.

Progressiv soliqqa tortish – soliqqa tortiladigan summaning o'sishiga mos ravishda soliq stavkasi ham ortadigan soliqqa tortish tizimi. Ular quyidagi shakllarda mavjud bo'ladi: 1) oddiy progressiya – daromadning barcha summasi uchun soliqning stavkasi daromadning o'sishiga muvofiq o'sadi (ortadi); 2) murakkab progressiya – daromad qismlarga bo'linadi va ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi. Daromadning har bir keyingi qismi uchun soliqning stavkasi oldingisiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Proportsional soliq – soliq shaklida olinishi mumkin bo'lgan summa soliqqa tortish bazasining o'lchamiga (miqdoriga, hajmiga) proportsionaldir. Bu soliq yagona stavkali soliqlar jumlasiga kiradi.

Proportsional soliqqa tortish – soliqning stavkasi soliq to'lovchi daromadining hajmiga bog'liq bo'lmagan holda uning daromadiga nisbatan foizda o'rnatiladi.

Preferentsiya – investitsion va innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozi ko'rinishida belgilangan (o'rnatilgan) imtiyoz, afzallik.

R

Respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Respublika byudjetining daromadlari – 1)qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig'imlari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar; 2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

3)qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlardan iborat.

Respublika byudjetining xarajatlari – o'z tarkibiga 1) respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'i oluvchilarning joriy xarajatlari; 2) joriy byudjet transfertlari; 3) kapital xarajatlar (asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarish, chet elda davlat ehtiyojlari uchun er va boshqa mol-mulk olish, davlat ehtiyojlari uchun erga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olish, davlat zahiralarini vujudga keltirish xarajatlari); 4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari; 5) Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga byudjet dotatsiyalari, byudjet subventsiyalari va byudjet ssudalari; 6) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari; 8) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari; 9) qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa xarajatlarni oladi.

Respublika byudjeti defitsitini moliyalashtirish – davlat tomonidan xorijdan va ichki mablag'ni jalb qilish, respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Real soliq – soliq to'lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortadigan to'g'ri soliqlardan iborat.

Regressiv soliq – soliqqa tortiladigan daromadning oshishi bilan soliq stavkasining pasayishi xarakterlidir. Bunday soliqlar toifasiga, xususan, egri (bilvosita) soliqlarni kiritish mumkin. Regressiv soliqlarning yuki (og'irligi) boylarga nisbatan kambag'al qatlamlar uchun og'irroq deb sanaladi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash uchun kambag'allar boylarga nisbatan o'z daromadlarining ko'proq qismini (hissasini) sarflaydilar. Proportsional soliq ham regressiv bo'lishi mumkin.

Regressiv soliqqa tortish – soliq asosi (bazasi)ning o’sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqoza etadi. Soliq undirish og’irligi daromadga teskari prorportsionaldir: daromad qancha kam bo’lsa, soliq to’lovchi uchun soliqning og’irligi shuncha og’irdir. Hozirgi paytda qo’shilgan qiymat solig’ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.

Rezidentlar – kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo’lmagan muddatda yashagan, O‘zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo’lgan va bo’lmagan soliq to’lovchilardan iborat. Shu mamlakatning rezidentlarining daromadlari (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.

S

Soliqlar – qonunda belgilangan tartibdagi stavka bo’yicha xo’jalik yurituvchi sub’yektlardan va fuqarolardan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy byudjetga olinadigan majburiy to’lovlar. Soliq, yig’im, boj va boshqa to’lovlar deyilganda qonuniy aktlar asosida belgilangan tartibda va shartlarda to’lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari fondlarga majburiy badallarning to’lanishi tushuniladi. Belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig’imlar, bojlar va boshqa to’lovlarning yig’indisi soliq tizimini tashkil etadi.

Soliq to’lovchilarni hisobga olish (qayddan o’tkazish) - ularni xo’jalik yurituvchi sub’yektning identifikatsiyalashuvini ta’minlaydigan soliq to’lovchining Davlat reestriga kiritish orqali amalga oshiriladi. Soliq to’lovchilar majburiy ravishda soliq organlarida hisobdan (qayddan) o’tishi shart. Bunda bank va boshqa kredit tashkilotlari soliq to’lovchilar tomonidan ularning soliq organlarida hisobdan (qayddan) o’tganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomani taqdim etganlaridan so’nggina ularga hisob-kitob va boshqa hisob varaqlarini ochishi hamda belgilangan muddat ichida ularga (soliq to’lovchilarga) xabar berishi kerak. Ko’rsatilgan talablar bajarilmagan holda bank va boshqa kredit tashkilotlarining rahbarlari belgilangan tartibda ma’muriy jazoga tortiladilar.

Soliq asosi, negizi (bazasi) – umumiy holda belgilangan soliqqa tortish davri mobaynida ma’lum hududdagi soliq to’lovchilar va soliqqa tortish ob’ektlarining yig’indisi.

Soliq og’irligi (yuki, “zulmi”) - davlat va jamiyat hayotida soliqlarning rolini xarakterlab (ko’rsatib) beradigan eng umumlashgan ko’rsatkich. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi va daromadlarda soliq ajratmalarining salmog’ini (hissasini) ko’rsatuvchi, bozor iqtisodiyotining amalga oshirilayotgan modelidan kelib chiqadigan o’lcham. Soliq yig’imlarining jami milliy mahsulotga (yalpi ichki mahsulotga) nisbati bilan aniqlanadi.

Soliq imtiyozi - soliq to’lovchi soliq majburiyatlari hajmining to’liq yoki qisman qisqarishi, to’lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi. Soliqlarning rag’batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish ob’yektining o’zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o’z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan ob’ekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to’lovchilarning ayrim toifalarini soliq to’lashdan ozod qilish, soliqqa tortish ob’yektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko’rinishlaridir (turlaridir). Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo’yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta’minlashni, ijtimoiy-madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag’batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo’lgan soliq imtiyozlarini berish, odatda, ta’qiqlanishi kerak.

Soliq stavkasi – soliqqa tortish birligiga to’g’ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat’iy soliq stavkalari daromadlarga bog’liq bo’lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarda o’rnatiladi. Proportsional stavkalar daromadning hajmiga (miqdoriga) bog’liq bo’lmagan holda unga nisbatan bir xil foizlarda belgilanadi. Progressiv soliq stavkalari soliqqa tortiladigan daromad hajmining ortishi bilan oshib boradi. Regressiv soliq stavkalari esa, aksincha, daromadning ortib borishi bilan pasayadi.

Soliq tizimi - mamlakat doirasida (hududida) to'lovchilardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakl va uslublari yig'indisi.

Soliq yurisdiktsiyasi - davlat soliq organlarining huquqiy masalalarni va soliq huquqbuzarligi to'g'risidagi ishlarni hal qilish bo'yicha qonunga binoan (yoki boshqa me'yoriy hujjatga ko'ra) belgilangan vakolatlari yig'indisi. Bu vakolatlar ikki me'zon bo'yicha aniqlanadi: 1)rezidentlik; 2) hududiylik. Bular, o'z navbatida soliqqa tortiladigan daromadlarning tarkibini aniqlab beradi. Barcha mamlakatlarda bu me'zonlarni qo'llashda yagonalik bo'lmaganligi uchun ikki marta soliqqa tortish muammosi vujudga keladi. Me'zonlarni tanlash har bir mamlakatning milliy manfaatlari bilan bog'liqdir. Ayrim mamlakatlar amaliyotida bu me'zonlarni turli variantlarda kombinatsiya qilib qo'llash keng tarqalgan. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada asos sifatida rezidentlik me'zoni olinsa-da, u mamlakatlarning aniq manfaatlariga bog'liq ravishda hududiylik mezoni bilan to'ldirilgan. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa soliq yurisdiktsiyasi ustuvorlik bilan hududiylik me'zonini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu tartib Fransiya, Shveytsariya va boshqa mamlakatlarning soliq amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Soliq qonunchiligi - davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o'zgarishi va to'xtashini tartibga solib turuvchi yuridik me'yorlar yig'indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquqi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.

Soliq badallari (to'lovlari) – soliq qonunchiligi bo'yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan, hisoblangan yoki qat'iylashtirilgan summalar. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo'yicha qonunga binoan aniqlanadi.

Soliq tushumlari – Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlar qismidagi har bir soliq va boshqa majburiy to'lovlarga mo'ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolatli banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va

haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to’lovlari) va moliyaviy sanktsiyalar.

Soliq hisob-kitoblari – yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko’zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq organlariga taqdim etilib, o’zida ma’lum hisobot davri mobaynida to’lanishi lozim bo’lgan hisoblangan to’lovlar summasini aks ettiradi. Soliq summalarini hisoblash tartibi soliq qonunchiligiga ko’ra har bir soliq turi bo’yicha alohida-alohida belgilanadi.

Soliq bitimlari - bir mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining ikkinchi mamlakatda olgan daromadlari ayrim turlarini va boshqa mamlakatning hududida joylashgan shu shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortish huquqini har bir mamlakatga biriktirishga mo’ljallangan mamlakatlar o’rtasidagi o’zaro soliq munosabatlarini tartibga solishga yo’naltirilgan yuridik hujjat. Amaliyotda soliq bitimlarining ikki turi uchraydi: 1) maxsus (cheklangan) soliq bitimlari – ular cheklangan xarakterdagi masalalarni (xalqaro yuk tashish, bojxona to’lovlari, imtiyozli soliq rejimi va shu kabilar; 2) umumiy soliq bitimlari. Soliq bitimlari imzolanayotganda davlatlar quyidagi asosiy vazifalarni yechishga harakat qiladilar: ikki marta soliqqa tortishga barham berish sxemasini aniqlash – o’zaro kelishayotgan davlatlar uchun faqat u yoki bu daromaddan soliq undirish huquqi biriktiriladi; har ikkala davlatda soliqqa tortish huquqi saqlanib qolganda ham ikki marta soliqqa tortish mexanizmiga barham berish; soliq to’lovchini boshqa mamlakatlarda diskriminatsion tarzda soliqqa tortilishidan himoya qilish; soliqqa tortishdan bo’yin tovlashni aniqlash va konventsiyani bajarish maqsadida o’zaro informatsiya almashish. Bunda quyidagi to’rt guruh masalalar ko’rib chiqiladi: konventsiyaning qo’llanish doirasi; soliqlarni davlatlar o’rtasida taqsimlash; ikki marta soliqqa tortishga barham berish; harakat qilish qoidalari. Shu bitim bo’yicha tartibga solib turiladigan soliqlarning turlari va shaxslarning (yuridik va jismoniy) ro’yxati ham aniqlanadi.

Soliq nazorati – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq va o’z vaqtida to’lanishini ta’minlash ustidan amalga oshiriladigan nazorat. Nazorat tekshiruv ishlarini amalga oshirish davomida bevosita korxonaning o’zida (hujjatli tekshiruv) yoki korxona tomonidan

belgilangan muddatlarda taqdim etiladigan va soliq organi ixtiyoriga kelib tushadigan bank hujjatlari, buxgalteriya hisobotlari va hisob-kitoblari asosida (kameral tekshiruv) amalga oshirilishi mumkin. Korxonalar ustidan doimiy nazoratga soliq organlarida har bir soliq turi va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va kelib tushish ustidan operativ buxgalteriya hisobini joriy etish orqali erishiladi.

Soliq krediti – mintaqaviy soliq organi tomonidan korxonaga beriladigan va tegishli shartnoma bilan rasmiylashtiriladigan kredit. Odatda investitsiyalar va innovatsion xarajatlarni amalga oshirish uchun qaytaruvchanlik va haqlilik asosida beriladi. *Qarang: Investitsion soliq krediti*.

Soliq to'xtatuvchanligi (to'sqinchiligi) – soliq progressiyasining noproportsionalligi bilan xarakterlanadigan soliqqa tortish tizimi. Ma'lum darajadan yuqoridagi daromadlarga yanada yuqoriroq (ko'proq) soliq o'rnatiladi. Buning natijasida yuqori daromadga ega bo'lish foydasiz bo'lganligi uchun tijoriy faoliyat susayadi (pasayadi).

Soliq to'lovchilar – qonun hujjatlariga ko'ra soliq to'lash majburiyati yuklangan jismoniy va yuridik shaxslar hamda to'lovchilarning boshqa toifalari.

Soliq davri - soliq bazasining (negizining, asosining) shakllanish jarayoni tugaydigan muddat. Bu muddatda soliq majburiyatining yakuniy hajmi (miqdori) aniqlanadi. Qonun tomonidan belgilangan soliqqa tortish davri davomida bir ob'ekt soliqning bir turi bo'yicha bir marta soliqqa tortilishi mumkin.

Soliq tushumlarini bashoratlash (prognozlashtirish) – aniq va miqdoriy jihatdan aniqlangan shaklda soliq tushumlarining hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'yekti va sub'yektiv omillarni oldindan ko'rish va bilish instrumenti. Soliq tushumlarini bashoratlash perspektiv xarakterdagi tadqiqot hisoblanib, uni ishlab chiqishda (yaratishda) real iqtisodiy shartlar va jarayonlar hisobga olinishiga qaramasdan u ehtimollik, dastlabkilik xarakteriga egadir. Mamlakat yoki aniq bir mintaqa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining kompleks dasturi bashoratlashning asosidir. Shu bilan birgalikda bunda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan cheklanishlar(chetlanishlar, og'ishlar), hukmron tendentsiyalar (oqimlar) va ularni farq qilish sohalarini aniqlashga ham e'tibor bermoq lozim. Bashoratlash shoshilinch (operativ) (bir oygacha), qisqa muddatli (bir yilgacha),

o’rta muddatli (besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq) kabi turlarga bo’linishi mumkin. Xilma-xil davriy gorizontlarga (ufqlarga) ega bo’lgan istiqbolni belgilashning (bashoratlashning) mazmuni istiqboli belgilanayotgan jarayonlarning tabiati bilan belgilanadi: qanchalik barqarorlik bo’lsa, bashoratlash gorizonti (ufqi) shunchalik keng bo’ladi. Bashoratlash hisob-kitob qilinayotganda o’tgan davrlarda soliqlarning qanchalik tushib turganligini xarakterlaydigan haqiqatdagi dinamik qatorlar ham hisobga olinishi kerak.

Soliq elementlari – davlatning qonun aktlari asosida aniqlangan soliqlarning tuzilishi (qurilishi) printsiplari va ularni undirishni tashkil qilish, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o’zida aks ettiradi. Soliqlarning elementlari tarkibiga quyidagilar kiradi: 1) soliq sub’yekti (soliq to’lovchi); 2) soliqni o’zida tashuvchi (namoyon etuvchi); 3) soliq ob’yekti; 4) soliq manbai; 5) soliqqa tortish birligi; 6) soliq stavkasi (soliqqa tortish normasi, me’yori); 7) soliq imtiyozlari; 8) soliq okladi. Soliq qonunchiligi nuqtai-nazaridan yuqorida sanab o’tilganlardan tashqari soliqning muhim elementlari qatoriga yana quyidagilarni kiritish mumkin: 1) soliq masshtabi; 2) soliqqa tortish bazasini (asosini, negizini) hisobga olish usuli; 3) soliq davri; 4) soliqni hisoblash tartibi; 5) hisobot davri; 6) soliqni to’lash muddatlari; 7) soliqni to’lash usuli va tartibi.

Soliq kvotasi – soliqqa tortishning ma’lum birligidan olinadigan soliqning miqdori, hajmi, o’lchami.

Soliqqa tortish – qonuniy ravishda o’rnatilgan soliq undirish (olish) tartibi. Iqtisodiyotni tartibga solish soliqqa tortishning asosiy funksiyasidir. Soliq siyosatining richaglari yordamida davlat xo’jalik kon’yunkturasining xolatiga ta’sir ko’rsatadi va iqtisodiy o’sishni rag’batlantiradi. Soliqqa tortishning boshqa bir funksiyasi pul mablag’larini qayta taqsimlashdir. Soliqqa tortishning bir-biridan farq qiluvchi digressiv, progressiv, proportsional va regressiv turlari mavjud.

Soliqqa tortish manbai - soliqlarni to’lash uchun foydalaniladigan rezerv, odatda, soliq to’lovchining daromadi va kapitali. Eng umumiy shaklda soliqqa tortish manbai bo’lib soliqqa tortish ob’yektidan qat’iy nazar ijtimoiy takror ishlab chiqarish asosiy qatnashchilarining va davlatning birlamchi pul

daromadlarini shakllantiruvchi yalpi ijtimoiy (ichki) mahsulot hisoblanadi.

Soliqqa tortish normasi – soliqqa tortiladigan qiymatning haqiqiy qiymatga nisbati.

Soliqqa tortish ob'ektlari – qonunga muvofiq foyda (daromad), ma'lum bir mahsulotlar qiymati, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, mol-mulkni berish (meros, hadya etish), qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, faoliyatning ayrim turlari va boshqalardan iborat. Soliqqa tortishning bir ob'yekti bir turdagi soliq bilan belgilangan muddatda (oy, chorak, yarim yil, yil) bir marta soliqqa tortilishi mumkin.

Soliqqa tortish printsiplari (tamoyillari) – soliq siyosatini amalga oshirishni belgilab beradigan va soliqlar bo'yicha byudjet topshiriqlarini tuzish orqali realizatsiya qilinadigan mustahkam o'rnashib qolgan qoidalar yig'indisi. Ularning eng muhimlari qatoriga quyidagilar kiradi: 1) adolatlilik. Bu printsip fuqarolar o'rtasida ularning daromadlariga mos ravishda soliqlarning bir tekis taqsimlanishini va soliqqa tortishning hammaga (eng umumiyligini) tegishli ekanligini taqoza etadi; 2) aniqlilik. Bu printsip soliqning summasi, uni hisoblash tartibi (uslubi) va to'lov vaqti soliq to'lovchiga oldindan aniq ma'lum bo'lishi kerakligini talab qiladi; 3) qulaylilik. Bu printsip soliq to'lovchilar uchun soliqning olinish uslubi (tartibi) va vaqti eng qulay bo'lishi kerakligini anglatadi; 4) iqtisod qilish, tejab tergash. Bu printsipning mazmuni soliqqa tortish tizimini oqilonalashtirish va soliqlarni undirish xarajatlarini kamaytirishdan iboratdir. Vaqt o'tishi bilan soliqqa tortishning bu printsiplari qatoriga soliqlarning harakatchanligi va etarliligini ta'minlash (davlatning ob'yektiv ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq soliq oshirilishi yoki qisqartirilishi (kamaytirilishi) mumkin), soliqqa tortishning zaruriy manbasi va ob'yektini tanlash, soliqqa tortishning bir martaliligi kabi printsiplar ham qo'shildi.

Soliqqa tortish nazariyalari – soliqqa tortish amaliyotini nazariy jihatdan asoslashga urinish. Soliqqa tortish nazariyasi tarixida eng dolzarb muammo sifatida quyidagi savollarning javobini izlab topish sanaladi: Byudjet daromadlarini shakllantirishda sof fiskal usullardan foydalanish maqsadga muvofiqmi yoki soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini

rag’batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish kerakmi? Bularning qaysi biri afzal? Qaysi biri maqsadga muvofiq? va h.k.

Soliqlar klassifikatsiyasi – soliqlarning undirilish uslubi, qo’llaniladigan stavkalarning xarakteri, soliq imtiyozlari, soliqqa tortish manbai va ob’yekti kabi belgilar bo’yicha guruhlarga ajratilishi (bo’linishi). Belgilanish uslubiga ko’ra soliqlar to’g’ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarga bo’linadi. Daromad solig’i, foyda solig’i, resurs to’lovlari va mol-mulk solig’i kabilar to’g’ri (bevosita) soliqlardir. Egri (bilvosita) soliqlar xo’jalik aktlari va aylanmalari, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdan vujudga keladi. Qo’shilgan qiymat solig’i, boj to’lovlari, aktsizlar, qimmatbaho qog’ozlar bo’yicha operatsiyalardan olinadigan soliq va boshqalar ana shular jumlasidandir. Soliqqa tortish manbalari bo’yicha ham soliqlar guruhlanadi: ishlab chiqarish xarajatlarining (tannarx)ning tarkibiga kiruvchi, foyda (daromad)dan olinuvchi va boshqa soliqlar. Soliqqa tortish ob’ektlari bo’yicha soliqlar klassifikatsiya qilinganda ular quyidagi guruhlarga bo’linadi: mulk soliqlari, resurs soliqlari (yer solig’i ham shu guruhga kiradi), daromad yoki foyda solig’i, harakat soliqlari (xo’jalik aktlari, moliyaviy operatsiyalar, realizatsiya bo’yicha aylanmalar, ba’zi bir qolgan soliqlar va bir martalik yig’imlardan iborat bo’lgan soliqlar.

Soliqlarning funksiyalari – shu iqtisodiy kategoriyaning daromadlarni qiymat jihatidan taqsimlash va qayta taqsimlash instrumenti sifatida ijtimoiy mo’ljallanganligining qay darajada amalga oshirila-yotganligini ko’rsatadi. Soliqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: fiskal; tartibga solish (rag’batlantirish).

Soliqlarning fiskal funksiyasi – soliqlarning eng asosiy ijtimoiy mo’ljallanganligini o’zida aks ettiradi, davlatning moliyaviy natijalarini shakllantiradi, uning o’z funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo’lgan resurslarni byudjet tizimi va nobyudjet fondlarga to’plash imkonini beradi.

Soliqlarning tartibga solish (rag’batlantirish) funksiyasi - moliyaviy (soliq) mexanizm (i) orqali davlatning mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu funksiyaning quyidagi bir necha shakllari bo’lishi mumkin: nazorat; rag’batlantirish; tartibga solish; takror ishlab chiqarish. Ular soliq mexanizmining samaradorligini baholash imkonini beradi, moliyaviy resurslarning harakati ustidan nazoratni ta’minlaydi, soliq tizimi va byudjet siyosatiga o’zgartirish kiritish zarurligini

aniqlaydi. Rag’batlantirish imtiyozlar, cheklashlar, chegirmalar, afzal ko’rish tizimi orqali amalga oshiriladi va ular soliqqa tortish ob’yektining imtiyozlarni shakllantirish belgilari bilan uzviy ravishda bog’liq bo’ladi, soliqqa tortish ob’yektining o’zgarishida, soliqqa tortiladigan baza (asos)ning kamayishida, soliq stavkasining pasaytirilishida va shu kabilarda namoyon bo’ladi. Takror ishlab chiqarish tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to’lovlarda, yo’l fondlari uchun olinadigan soliqlarda, mineral xom ashyo bazalarini takror ishlab chiqarishga mo’ljallangan soliqlarda namoyon bo’ladi.

Soliqlarning turlari – O‘zbekiston hududida olinadigan umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig’imlardan iborat. Umumdavlat soliqlarining tarkibiga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig’i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i, qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, er osti boshliqlaridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi. Mahalliy soliqlar va yig’imlar mol-mulk solig’i, yer solig’i, reklama solig’i, avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig’im, shu jumladan, ayrim turdagi mahsulotlarni sotish huquqini bueruvchi litsenziya yig’imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro’yxatga olganlik uchun yig’im, avtotransport to’xtash joyidan foydalanganlik uchun yig’im, obodonlashtirish ishlari uchun yig’imlardan iboratdir.

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’g’ri hisoblanishi hamda to’lanishi ustidan so’nggi (navbatdagi, keyingi) nazorat - davlat tomonidan soliq organlari yordamida ikki bosqichda amalga oshiriladi : a) korxonalardan bo’xgalteriya hisobotlari va soliq hisob-kitoblari qabul qilinayotganda; b) bevosita korxonaning o’zida boshlang’ich buxgalteriya hujjatlarini tekshirish yo’li bilan.

Sotib olish solig’i - davlat daromadlarini ko’paytirish yoki ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarishni cheklab qo’yish maqsadida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan ayrim mahsulotlardan olinadigan soliq. Odatda eksportga mo’ljallangan mahsulotlardan olinmaydi.

Sotish solig'i – mahsulotlarning sotish qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadigan va ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan soliq. Aktsizlarning ko'rinishlaridan biri.

Sotishdan olinadigan soliq – ayrim xorijiy mamlakatlarda (masalan, AQShning ayrim shtatlarida) qo'llaniladi va iste'moldan olinadigan egri (bilvosita) soliqni o'zida gavdalantiradi. Odatda, bu soliqqa iste'mol mahsulotlari (restoranlar bundan mustasno) tortilmaydi.

Sekvestr – yilning oxirigacha qolgan vaqt davomida byudjetning barcha moddalari bo'yicha (himoya qilinganlaridan tashqari) davlat xarajatlarini proportsional ravishda qisqartirish.

Sug'urta – noqulay (tasodifiy) hodisalar va voqeliklar sodir bo'lganda jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish va ularga nisbatan etkazilgan moddiy zararlarni qoplash (tiklash) uchun pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha qayta taqsimlash munosabatlarining alohida sohasi.

Sug'urta shartnomasi – sug'urtaning aniq bir turi shartlariga muvofiq o'zaro majburiyatlarni tartibga soluvchi sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi bitim (yuridik kelishuv). Sug'urtalanuvchining yozma arizasiga muvofiq tuziladi, ayrim hollarda og'zaki tuzilishiga ham yo'l qo'yiladi, sug'urta ob'yekti to'g'risidagi zaruriy ma'lumotlarni (manzili, miqdoriy va sifat tavsifnomasi, ahvoli yoki holati va boshqalar) va sug'urta riskini qabul qilishga sug'urtalovchining roziligini o'zida mujassam etishi kerak.

Sug'urta himoyasi - ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining turmush darajasiga nisbatan etkazilgan yuqotmalarga barham berish yoki ularni qoplash (tiklash) bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarining majmuini o'zida mujassam etgan iqtisodiy kategoriya(keng ma'noda); konkret ob'ektlarga: moddiy boyliklar, hayot, sog'lik, fuqarolarning mehnatga layoqatliligi va boshqalarga etkazilgan ziyonlarni tiklash va ularga barham berish borasidagi qayta taqsimlash munosabatlarining majmui (tor ma'noda).

Sug'urta mukofoti – qonun yoki sug'urta shartnomasiga muvofiq ravishda sug'urtalanuvchining sug'urtalovchiga sug'urta riski uchun haq to'lovi. Tarif stavkasi, sug'urta summasi, sug'urta muddati va boshqa omillarga bog'liq ravishda aniqlanadi.

Sug’urta guvohnomasi (sug’urtaviy polis) – tuzilga sug’urta shartnomasi va uning shartlari mazmunini o’zida mujassam etganligiga guvohlik beruvchi sug’urtalovchi tomonidan sug’urtalanuvchiga o’rnatilgan namunaga muvofiq beriladigan hujjat. Sug’urtalanuvchiga u tomonidan birinchi marta yoki bir martalik sug’urta badali to’langanidan so’ng beriladi. Unda sug’urtaning asosiy shartlari: sug’urtalanuvchining familiyasi va ismi sharifi, uning rekvizitlari, sug’urta hajmi, sug’urta majburiyati hajmi, sug’urta summasining miqdori, sug’urta tarifi, sug’urta qoplanmasini oluvchi va boshqalar o’z ifodasini topadi.

Sug’urta bozori – oldi-sotdi ob’yekti o’ziga xos tovar – sug’urta xizmati - bo’lgan va unga nisbatan taklif va talab shakllanadigan pul munosabatlari sohasi. Sug’urta huquqiy munosabatlari ishtirokchilari o’rtasidagi o’zaro aloqadorlikning shakli.

Sug’urta bozori assortimenti – sug’urtalanuvchi murojaat qilishi mumkin bo’lgan sug’urta turli ko’rinishlarining (turlarining) to’plami (majmui).

Sug’urta rezervlari – sug’urta badallari hisobidan shakllanadigan va birinchi navbatda, sug’urtalanuvchilarga sug’urta to’lovlarini amalga oshirishga sarf (xarj) qilinadigan maxsus fondlar. Daromadlarga emas, balki sug’urtalovchining majburiyatlariga bog’liq ravishda shakllanadi (tashkil qilinadi).

Smetali moliyalashtirish – noishlab chiqarish sohasi korxona va tashkilotlari xarajatlarini qoplash metodi.

Sotsial ta’minot - qariganda, nogironlik bo’yicha, boquvchisini yuqotganda va qonunda belgilangan boshqa holatlarda fuqarolarni moddiy ta’minlash uchun milliy daromadning bir qismini pul mablag’larining ijtimoiy fondini shakllantirish va undan foydalanish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan taqsimlash munosabatlari tizimi.

T

Taraqqiyot byudjeti - davlat byudjetining tarkibiy qismi, uning kapital xarajatlari tarkibida shakllantiriladi va investitsion loyihalarni kreditlashtirish, investitsiyalashtirish va kafolatli ta’minlash uchun foydalaniladi.

Tartibga soluvchi (tartiblovchi) daromadlar – tegishli byudjetda ko’zda tutilgan barcha xarajatlarni to’liq qoplash maqsadida umumdavlat soliqlaridan quyi byudjetdagi biriktirilgan daromadlarning ustiga yuqori byudjetdan beriladigan daromadlar. Bunday daromadlarning tarkibiga qo’shilgan qiymat solig’i, aktsizlar, korxonalardan olinadigan daromad (foyda) solig’i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i kabilar kiradi. Bu soliqlar bo’yicha daromadlar quyi byudjetlardagi tushumlarni tartibga solish uchun moliyaviy hisobot davrida (odatda, bir yilda) belgilangan tartibda tasdiqlangan stavkalar bo’yicha soliqlardan foiz ajratmalari ko’rinishida foydalaniladi. Tartibga soluvchi daromadlar bo’yicha ajratmalar bevosita quyi byudjetlarga borib tushadi, ajratmalar stavkasi (normativi) esa davlat byudjeti tasdiqlanayotgan paytda aniqlanadi.

Tashqi qarzni restrukturizatsiya qilish – qarzni qaytarish va u bo’yicha foizlarni to’lash muddatlarini uzaytirish.

Taqsimlanmagan foyda solig’i – alohida soliq to’lovchi sifatida tan olingan aktsionerlik kompaniyalari, banklar va boshqa institutlar foydasining dividentlarga taqsimlanmagan qismidan olinadi.

Transport vositalarining egalaridan olinadigan soliq – transport vositalariga ega bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to’lanadi. Soliqning stavkasi ot kuchida ifodalangan dvigatelning quvvatiga bog’liqdir. Uning summasi mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

To’g’ri (bevosita) soliqlar – daromad solig’i, foyda solig’i, resurs to’lovlari, mol-mulk solig’i va boshqalardan iborat bo’lib, ularga egalik qilish va ulardan foydalanish soliqqa tortish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

To’g’ri (bevosita) soliqqa tortish – shaxsan yoki ish beruvchi orqali soliqlarni soliq xizmatlariga to’g’ridan-to’g’ri to’lash orqali amalga oshiriladigan jamiyat a’zolarini bevosita soliqqa tortishdan iborat. Aniq bir shaxsning ahvoliga bog’liq bo’lmasdan, balki uning qanday mahsulotlarni sotib olishiga bog’liq bo’lgan egri (bilvosita) soliqqa tortishdan farq qiladi.

To’lov balansi - ma’lum bir davr (oy, chorak, yarim yil, yil) mobaynida mamlakat tomonidan xorijga to’langan to’lanmalar va xorijdan olingan to’lovlar o’rtasida nisbat. O‘z ichiga tegishli

davrda mamlakat tovarlari eksporti va importi qiymatlarini ifodalovchi savdo balansini, xizmatlar balansini va notijoriy to'lovni oladi. Bularning barchasi joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansini shakllantiradi. Mamlakatning umumiy to'lov balansi esa joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi, kapitallar va kreditorlar harakati balansi, shuningdek, oltin va valyuta rezervlari harakati balansidan tashkil topadi.

To'lov aylanmasi – mamlakat iqtisodiyotidagi barcha pulli to'lovlar (pul to'lovlarining) majmui (yig'indisi, to'plami).

To'lovlarning navbatliligi - bir necha muddatli va muddati o'tib ketgan to'lovlar mavjud bo'lganda va ularni to'liq to'lash (qaytarish, uzish) uchun mablag'lar etarli bo'lmagan holda to'lovchining hisob varag'idan pul mablag'larini o'tkazish (olish, undirish) ketma-ketligi.

Tibbiyot sug'urtasi – sog'liqni saqlash bo'yicha aholi manfaatlarini sotsial himoya qilishning shakli. Sug'urta hodisasi ro'y bergan paytda fuqarolarga tibbiy yordam olinishini kafolatlaydi. Ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin: majburiy va ixtiyoriy.

U

Umumdavlat moliyasi - davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni yaratish maqsadida markazlashtirilgan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Uy-joy solig'i – ko'chmas mulk solig'ining ko'rinishlaridan biri bo'lib, bu soliqqa uy-joyga ega bo'lganlar tortiladi.

F

Foyda solig'i – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning foydasidan olinib, byudjetning muhim daromadlaridan biri hisoblanadi. Bu to'g'ri (bevosita) soliqdir. Uning summasi soliq to'lovchi korxonaning yakuniy moliyaviy natijalariga bog'liq bo'ladi. Moliya yilida soliq solinadigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar foyda

solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Yalpi foyda bilan ma'lum chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan foyda soliqqa tortish ob'yektidir. Foyda solig'i barcha soliqlar to'langandan so'ng korxona ixtiyoriga qolgan foyda hisobidan to'lanadi.

Fuqarolarning yillik jami daromadi - ularning korxonada olgan pul va natural ko'rinishdagi barcha to'lanmalaridan iborat. Xorijiy valyutada olingan fuqarolarning daromadi soliqqa tortish maqsadlari uchun daromad olingan kundagi Markaziy bankning kursi bo'yicha milliy valyutada aniqlanadi. Fuqarolarning yillik jami daromadi tarkibiga (soliqqa tortish maqsadlari uchun) quyidagilar kiritilmaydi: pensiyalar; davlat ijtimoiy nafaqalari (vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganligi uchun nafaqalardan tashqari); kompensatsion to'lanmalar; moddiy yordam ko'rsatish summalari (tabiiy ofat munosabati bilan); davlat zayomi obligatsiyalari va lotereyalari bo'yicha yuto'qlar; banklar va boshqa kredit tashkilotlaridagi omonatlar bo'yicha foizlar va boshqalar.

X

Xarajatlarni respublika byudjetidan moliyalash-tirish – quyidagilar respublika byudjetdan moliyalash-tiriladi: fan, ta'lim, madaniyat, soqliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo'ysunadigan tashkilotlar bo'yicha); ijtimoiy ta'minot; mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash; sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta'minlash; davlat zahirasi va safarbarlik zahirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash; davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish; davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi diplomatik vakolatxonalari hamda missiyalari faoliyatini ta'minlash; iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo'ysunadigan byudjet tashkilotlarini saqlash; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish; er tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish; qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash; gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Xarajatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalash-tirish – quyidagilar yuqorida ta'kidlangan byudjetlardan moliyalashtiriladi: fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilot-lari bo'yicha); ijtimoiy ta'minot; aholini ijtimoiy himoya qilish; Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash; iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjet tashkilotlarini saqlash; qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Xorijiy davlatlarning hukumatlari, banklari va firmalariga bog'langan kreditlar – xorijiy davlatlarning hukumatlari, banklari va firmalari mablag'lari hisobidan kreditor mamlakatdan tovarlar, ishlar va xizmatlar sotib olish uchun qaytarilish va tiklanish asosida mablag'larni jalb qilish shakli.

Ts

Tsessionariy – qayta sug'urtalashda riskni o'ziga qabul qiluvchi sug'urtalovchi.

E

Egri (bilvosita) soliqlar - xo'jalik aktlari va aylanmalari hamda moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi. Bu soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, bojxona bojlari, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalardan olinadigan soliq va boshqalar kiradi. Ular baho yoki tarifga ustama (qo'shimcha) tarzida (ko'rinishida) o'rnatilib, soliq to'lovchilarning daromadlari bilan belgilanadigan (aniqlanadigan) to'g'ri (bevosita) soliqlardan farq qiladi.

Egri (bilvosita) soliqqa tortish - daromadlar sarf qilinayotgan paytda to'lanadigan soliqlar tizimini o'z ichiga olib, daromadlar bilan emas, balki xarajatlar bilan bog'liqdir. Masalan, sotuvdan olinadigan soliq (sotuv solig'i), aktsizlar, qo'shilgan

qiymat solig'i va h.q. Egri (bilvosita) soliqqa tortishda mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki xizmatni ko'rsatuvchi ularni tarkibida ustama (qo'shimcha) bo'lgan bahoda (tarifda) sotadi va tushumdan ma'lum bir soliq summasini davlat ixtiyoriga o'tkazadi. Shunday qilib, amalda u soliqlar yig'uvchi, sotib oluvchi esa egri (bilvosita) soliqni to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Shunga mos ravishda egri (bilvosita) soliqqa tortishda shu soliqni to'lashi kerak bo'lgan va shu soliqqa tortilishi lozim bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar turlicha shaxslardir.

Yu

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar – qo'shilgan qiymat solig'i, korxona va tashkilotlarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq, aktsizlar, yo'l fondini shakllantirish uchun manba sifatida foydalaniladigan soliqlar, korxona mol-mulki solig'i, er uchun to'lovlar, reklama solig'i, birjada amalga oshirilgan bitimlardan olinadigan yig'im, mahalliy auktsion va lotereyalarni o'tkazish huquqi uchun litsenziya yig'im, boshqa soliq, yig'im va majburiy to'lovlardan iborat.

Ya

Yashirin soliq - iste'molchi tomonidan bevosita to'lanmaydigan, lekin unga mo'ljallangan mahsulotning bahosi tarkibiga uni ogohlantirmasdan, unga xabar bermasdan, unga bildirmasdan kiritilgan soliq. Masalan, bojlar.

O‘

O‘zaro sug'urta jamiyati – notijoriy tipdagi sug'urta tashkiloti, o'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urta himoyasi uchun badal asosida vujudga kelgan jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashmasi sifatida amal qiladi (faoliyat ko'rsatadi).

Q

Qayta sug'urtalash – balanslashtirilgan (muvozanat-lashtirilgan) sug'urta portfelini yaratish maqsadida sug'urta ob'yekti bo'yicha sug'urtalovchi majburiyatlarining bir qismini

boshqa sug’urtalovchiga berish bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar tizimi.

Qoraqalpog’iston Respublikasining byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog’iston Respublikasi pul mablag’lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo’lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag’lar sarfi yo’nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qimmatli qog’ozlar – o’zining egasiga divident va foiz ko’rinishida daromad olish huquqini beruvchi mulk tituli. Ularning tarkibiga aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Qo’shilgan qiymat – sotilgan (realizatsiya qilingan) mahsulotlar, ishlar va xizmatlar qiymati bilan ishlab chiqarish va muomala xarajatlarining tarkibiga kiritilgan moddiy xarajatlarning qiymati o’rtasidagi farq.

Qo’shilgan qiymat solig’i - ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratilgan qo’shilgan qiymat bir qismining byudjetga olish shakli. Egri (bilvosita) soliqlarning tarkibiga kiradi. Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya va import qilish oboroti qo’shilgan qiymat solig’i solinadigan ob’ekt hisoblanadi. Realizatsiya bo’yicha soliq solinadigan oborot realizatsiya qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) qiymati asosida, qo’llaniladigan narxlar va tariflarni inobatga olgan holda, aktsiz solig’ini hisobga olib ularga qo’shilgan qiymat solig’ini kiritmasdan belgilanadi. Bu soliqni to’lovchilar qatoriga mulkchilik shakli va kimga tegishli ekanligidan qat’iy nazar ishlab chiqarish va tijoriy faoliyat bilan shug’ullanuvchi yuridik shaxslar (xorijiy investitsiyali korxonalar ham) kiradi.

A d a b i yo t l a r

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992.
2. “Davlat byudjetining g’azna ijrosi to’g’risida”. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 26 avgust 2004 yil.
3. “Avtomobil yo’llari to’g’risida”. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 1992 yil.
4. “Aholi bandligi to’g’risida”. O‘zbekiston Respubli-kasining qonuni, 1998 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi PP-1245-sonli “O‘zbekiston Respublika-sining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsat-kichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PP-1024-sonli “O‘zbekiston Respublika-sining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsat-kichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrdagi PQ-744-sonli “O‘zbekiston Respublika-sining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsat-kichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi PQ-532-sonli “O‘zbekiston Respublika-sining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsat-kichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrdagi PQ-244-sonli “O‘zbekiston Respublika-sining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsat-kichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to’g’risida"gi 3431-sonli Farmoni, 2004 yil.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo’llarini loyiha-lashtirish, qurish va rekonstruktsiya qilish tartibini takomillashtirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’ri-sida”gi qarori, 2006 yil.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 490-sonli “Byudjetdan tashqari pensiya jamg’armasi boshqaruvini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qarori, 2004 yil.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta’minot vazirligi huzurida Pensiya jamg’armasini tashkil etish to’g’risida”gi 459-sonli qarori, 1996 yil.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 498-sonli “Byudjetdan tashqari pensiya jamg’armasi mablag’larini shakllantirish va xarajat qilish tartibi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo’l jamg’armasi va “O‘zavtoyo’l” davlat aktsionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to’g’risida”gi 36 -sonli qarori, 2003 yil.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining Bandlikni qo’llab-quvvatlash davlat jamg’armasi mablag’larini shakllantirish va foydalanish tartibi to’g’risida”gi Nizomni tasdiqlash bo’yicha 173-sonli qarori, 2003 yil.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Byudjetdan tashqari “Maktab ta’limi jamg’armasini tashkil etish chora–tadbirlari to’g’risida”gi 263-sonli qarori, 2004 yil.
19. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2010. – 80 b.
20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009. – 56 b.
21. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyoti yo’li. –T.: O‘zbekiston, 2007.
22. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish barcha demokratik yangilash va iqtisodiy islohotimizning pirovard maqsadidir. –T.: O‘zbekiston, 2007.
23. Karimov I.A. O‘zbekiston - iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yulida. –T.: O‘zbekiston, 1995.

24. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T.: O‘zbekiston, 1995.
25. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O‘zbekiston, 1997.
26. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to’g’risida. -T.: O‘zbekiston, 2005.
27. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olija-nob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.
28. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, -2017. -104 b.
29. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, -2017. -56 b.
30. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faro-vonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -48 b.
31. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, - 2017. - 592 b.
32. Abdullaev Yo.A., Srojiddinova Z.X., Usipbaev N.I. Gosudarstvennie finansi Respubliki Uzbekistan. Uchebnoe posobie. – T.: TFI, 2001.
33. Aleksandrov I.M. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. –M.: Dashkov i K, 2006.
34. Alle M. Za reformu nalogovoy sistemi / Per. s fr. – M. 2001.
35. Afanasev M. Byudjetnaya politika i byudjetniy protsess. Materiali k lektsiyam. Ch.1,2. – M.: GU VShE, 2000.
36. Afanasev M. Predposilki kontseptsii byudjetnogo ustroystva i byudjetnogo protsessa // Voprosi ekonomiki, 2000. №11.
37. Amerika Qo’shma Shtatlarining federal byudjet tizimi: shakllantirish, muvofiqlashtirish va ijro etish tamoyillari. - T.: Fan, 2004.
38. Babich A., Pavlova L. Gosudarstvennie i munitsipalnie finansi: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Finansi: YuNITI, 1999.

39. Babich A., Pavlova L. Finansi. Denejnoe obrashchenie. Kredit: Uchebnik. –M.: YuNITI-DANA, 2000.
40. Blank I.A. Osnovi finansovogo menedjementa. V 2-x tomax. Kiev: Nika-tsentr, 1999.
41. Bolshakov S.V. Finansi predpriyatiy: teoriya i praktika. – M., 2005.
42. Bankovskoe delo: Uchebnik / Pod red. O.I.Lavrushina. – M., 2005.
43. Braycheva T.V. Gosudarstvennie finansi: Uchebnoe posobie. SPb. 2001.
44. Breg S. Nastolnaya kniga finansovogo direktora / Per. s angl. – M., 2005.
45. Breyli R., Mayers S. Printsipi korporativnix finansov / Per. s angl. – M., 2004.
46. Brigxem Yu.F. Entsiklopediya finansovogo menedjementa / Per. s angl. - M. 1998.
47. Bryummerxoff D. Gosudarstvennie finansi: teoriya gosudarstvennix finansov/ Per. s nem. pod red. A.Kudrina, V.Dzgoeva. Vladikavkaz: Pioner-Press, 2002.
48. Bushmin E.V. Byudjet: protseduri i effektivnost. – M.:Alternativa-Evrolints, 2003.
49. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik/Pod red. M.Romanovskogo, O.Vrublevskoy. – M.: Yurayt, 1999.
50. Byudjetnaya sistema i uchyot v Rossi: Uchebno-metodicheskoe posobie / Pod obshch. red. V.M.Gerasimova, M.P.Afanaseva, B.P.Eliseeva, A.G.Shornikova, - M.: Misl, 2002.
51. Byudjetnaya sistema Rossii: Uchebnik dlya vuzov / Polyak G., Astaxov A., Vafina L., i dr.; Pod red. G.Polyaka. –M.: YuNITI-DANA, 1999.
52. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Pod red. prof. M. V. Romanovskogo i prof. O. V. Vrublevskoy. -M.: Yurayt, 2000.
53. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. Pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy. -M.: Yurayt, 2001.
54. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. Pod red. G.B. Polyaka. -M.: YuNITI, 2001.

55. Byudjetniy federalizm i mejbyudjetnie otnosheniya: problemi i perspektivi razvitiya. -SPb.: Izd. Kodeks INFO, 2001.
56. Byudjetniy protsess v Rossiyskoy Federatsii: Uchebnoe posobie /Baranova L., Vrublevskaya O., Kosareva T., Yurinova L. – M.: Perspektiva, 1998.
57. Bistryakov A.Ya. Reforma gosudarstvennogo finansovogo kontrolya (voprosi teorii i praktiki) – M., 2003.
58. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 316 b.
59. Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti: O‘quv qo’llanma. - T.: Iqtisod-moliya-, 2002.
60. Vaxobov A.V., Jamolov X.N. Soglasovanie mejbyudjetnix otnosheniy: Ucheb.pos. -T.: Iqtisod-moliya, 2003.
61. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi: O‘quv qo’llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.
62. Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy byudjet: Uchebnik. -T.: Iqtisod-moliya, 2006.
63. Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy byudjet: Uchebnik. -T.: Iqtisod-moliya, 2007.
64. Vavilov A. Gosudarstvenniy dolg: uroki krizisa i printsipi upravleniya. –M.: Gorodets-izdat, 2001.
65. Van Xorn Dj.K. Osnovi upravleniya finansami / Per. s angl. – M., 2000.
66. Voronin Yu.M. Gosudarstvenniy finansoviy kontrol: voprosi teorii i praktiki. – M., 2005.
67. Gazetalar: “Soliqlar va bojxona xabarlari” (O‘zbekiston), “Biznes vestnik Vostoka” (O‘zbekiston), “Finansovaya gazeta” (Rossiya), “Ekonomika i jizn” (Rossiya).
68. Godin A.M., Maksimova N.S., Podporina I.V. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik.- 2-e izd. ispr. i dop. – M.:Dashkov i K, 2006.
69. Gosudarstvenniy byudjet: ot podgotovki do ispolneniya. Ministerstvo ekonomiki, finansov i planirovaniya. – Parij:Les Editions de Bercy. 1995.
70. Gosudarstvennie i munitsipalnie finansi: Uchebnik / pod obshch. red. I.D.Matskulyaka. – M., 2003.
71. Gosudarstvennoe regulirovanie rinochnoy ekonomiki: Uchebnik. – M., 2002.

72. Danilov Yu.A. Rinki gosudarstvennogo dolga: mirovie tendentsii i rossiyskaya praktika. – M., 2002.
73. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami, 3 jildlik, -T.: O'zbekiston, 2002.
74. Dengi, kredit i banki: Uchebnik / Pod red. O.I.Lavrushina. – M., 2004.
75. Dolan E., Kempbell K., Kempbell R. Dengi, bankovskoe delo i denejno-kreditnaya politika. Moskva-Leningrad: «Profiko», 1991.
76. Drobozina L.A. Obshchaya teoriya finansov. – M.: Banki i birji, 1999.
77. Dmitriev M. Byudjetnaya politika v sovremennoy Rossii. – M.: Moskovskiy Tsentr Karnegi, 2001.
78. Dibal S.V. Finansoviy analiz: teoriya i praktika: Uchebnoe posobie. –SPb., 2004.
79. Jurnallar: "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", "Soliq to'lovchining jurnali", "Bozor, pul va kredit", "Ekonomicheskoe obozrenie", "Voprosi ekonomiki" (Rossiya), "Finansi" (Rossiya), "Nalogoviy vestnik" (Rossiya).
80. Juravleva L.V. Byudjetnaya politika kak metod gosudarstvennogo regulirovaniya. –M.: Delo LTD, 2001.
81. Zueva I.A. Puti vnedreniya gosudarstvennogo audita // Finansi, 2005. №6.
82. Oreshin V.P. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki: Uchebnoe posobie. –M.: Yurist, 1999.
83. Panskov V.G. Nalogi i nalogooblojenie v Rossiyskoy Federatsii. – M., 2006.
84. Penkov B.E. Nalogoviy impuls ekonomicheskogo rosta // Ekonomist, 2005. №6.
85. Premchand A. Upravlenie gosudarstvennimi finansami. – Vashington: MVF, 1994.
86. Ponomarenko E.V. Finansi obshchestvennogo sektora Rossii. – M., 2001.
87. Ponomarenko E.V. Finansovie prioriteti obshchestvennogo sektora ekonomiki, - M., 2001.
88. Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy misli i politiki nalogov: Uchebnoe posobie. –M.:Finansi i statistika, 2003.
89. Romanovskiy M., Vrublevskaya O., Sabanti B. Finansi: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Yurayt, 2000.

90. Rumyantseva E.E. Finansi organizatsiy. – M., 2003.
91. Rumyantseva E.E. O novix podxodax k upravleniyu finansami predpriyatiy // Finansi i kredit. 2004. №24.
92. Sabanti B. Teoriya finansov: Uchebnoe posobiy. – M.: Menedjer, 1998.
93. Srojiddinova Z.X., Vaxobov A.V., Siddikov J.R. Gosudarstvenniy byudjet Respubliki Uzbekistan. Uchebnoe posobie. –T.: TFI, 2001.
94. Selezneva N.N., Ionova A.F. Finansoviy analiz. Upravlenie finansami. –M., 2003.
95. Stanislavchik U.N. Osnovi finansovogo menedjmenta. –M., 2001.
96. Trenev N.N. Upravlenie finansami: Uchebnoe posobie. – M., 2003.
97. Finansi, nalogi i kredit: Uchebnik / Pod obshch. red. I.D.Matskulyaka. – M., Izd-vo RAGS, 2007.
98. Finansi: Uchebnik dlya vuzov / Drobozina L., Polyak G., Konstantinova Yu. i dr.; Pod red. L.Drobozinoy. –M.: Finansi: YuNITI, 2000.
99. Finansi / Pod red. V.M.Rodionovoy. – M., 2001.
100. Finansi predpriyatiy: Uchebnoe posobiy / Pod red. N.V.Kolchinoy. –M., 2005.
101. Finansi i kredit / Pod red. A.M.Kovalevoy. – M., 2005.
102. Finansi, denejnoe obrashchenie i kredit: Uchebnik. 2-e izd., pererab. I dop. / Pod red. V.K.Senchagova i A.I.Arxipova. – M., 2004.
103. Finansoviy menedjment / Pod red. A.F.Samsonova. –M., 2004.
104. Formirovanie natsionalnoy finansovoy strategii Rossii: put k pod’yomu i blagosostoyaniyu. –M., 2004.
105. Foster R.-S. Iskusstvo sliyaniy i pogloshcheniy / Per. s angl. – M., 2004.
106. Filatov O.K., Kozlovskix L.Ya., Tsvetkova T.N. Planirovanie, finansi, upravlenie na predpriyatii: Prakticheskoe posobie. – M., 2005.
107. Fedyakina L.N. Mejdunarodnie finansovie otnosheniya. – SPb. 2004.
108. Xerris Dj. Menvill. Mejdunarodnie finansi / Per. s angl. - M., 1996.

109. Sharifxodjaev M.Sh., Srojiddinova Z.X., Tulyaganova N.B. Byudjetnaya politika Respubliki Uzbekistan. Uchebnoe posobie. –T.: TFI, 2001.
110. Shadibaev T. i dr. Fond rekonstruktsii i razvitiya: sferi vliyaniya // Ekonomicheskoe obozrenie, №11-12, 2007.
111. Shulyak P.N. Finansi predpriyatiy: Uchebnik. – M., 2002.
112. Shishkin S.V. Ekonomika sotsialnoy sferi. – M., 2003.
113. Shcherbakova G.N. Bankovskie sistemi razvitix stran. – M.: 2002.
114. Kuchkarov D.A. Printsipi organizatsii kaznacheyskogo ispolneniya Gosudarstvennogo byudjeta Respubliki Uzbekistan. Uch.pos. - T.:Mir ekonomiki i prava, 2005.
115. Krasavina L.D. i dr. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya. – M., 2005.
116. Kovalev V.V. Finansi organizatsiy. –M., 2005.
117. Kovalev V.V. Vvedenie v finansoviy menedjement. – M., 2001.
118. Kovaleva A.M., Lapusta M.G., Skamay L.G. Finansi firmi. – M., 2005.
119. Kotlyar E.A., Samoylov L.L., Laktionova O.O. Iskusstvo i metodi finansovogo planirovaniya. – M., 2004.
120. Kolb R.V. Rodriges R.D. Finansoviy menedjement: Uchebnik / Per. s angl. – M., 2001.
121. Lupey N.A. Finansi: Uchebnoe posobie. – M., 2004.
122. Lyubimtsev Yu.I. Finansovaya politika: rossiyskiy put. – M., 2005.
123. Li Ch.F., Finnerti Dj.I. Finansi korporatsiy. –M., 2000.
124. Lixacheva O.N. Finansovoe planirovanie na predpriyatii: Uchebno-prakticheskoe posobie. – M., 2003.
125. Molyakov D.S. Finansi predpriyatiy otrasley narodnogo xozyaystva. –M., 2002.
126. Maslenchenkov Yu.S., Komissarov D.V. Spetsifika finansov i menedjmenta stabilnogo predpriyatiya v usloviyax sotsialnoy rinochnoy ekonomiki. – M., 2002.
127. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent: “Akademiya”, 2002. – 204 b.
128. Malikov T.S. Soliq yuklamasining og’irligini keskin kamaytirish kerakmi? – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – 32 b.

129. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. / O‘quv qo’llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 84 b.
130. Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. / O‘quv qo’llanma. - Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 556 b.
131. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari. / O‘quv qo’llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 244 b.
132. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). / O‘quv qo’llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008. – 84 b.
133. Matveev S.Yu. Nekommercheskie organizatsii. – M., 2004.
134. Makkonnell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: Printsipi, problemi i politika. V.2-x t. / Per. s angl. – M.: Respublika, 1993.
135. Meshalkina R.E. Teoreticheskie voprosi gosudarstvennogo finansovogo kontrolya // Finansi, 2003. № 12.
136. Nezamaykin V.N., Yurzinova I.L. Finansi organizatsiy. – M., 2005.
137. Penkov B.E. Upravlenie kapitalom predpriyatiya: finansoviy analiz i prinyatie resheniy. –M., 2001.
138. Planirovanie, finansi, upravlenie na predpriyatii. – M., 2005.
139. Pokudov A.V. Lichnie finansi. Sekreti upravleniya. –M., 2006.
140. Ryabuxin S.N. Audit effektivnosti gosudarstvennix rasxodov v sovremennoy praktike finansovogo kontrolya // Finansi, 2002. №4.
141. Ekonomika i organizatsiya rinochnogo xozyaystva / Pod red. B.K.Zlobina. –M., 2004.
142. Ekonomika. Izd. 3-e / Pod red. A.S.Bulatova. –M., 2005.
143. Yuldashev Z.Yu., Malikov T.S. Moliya: uy xo’jaliklari moliyasi. / O‘quv qo’llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008. – 112 b.
144. Yuldashev Z.Yu., Srojiddinova Z.X., Mirzaev U.A. Mestnie byudjeti. Uchebnoe posobie. –T.: TFI, 2001.
145. Yurzinova I.L., Nezamaykin V.N. Finansi organizatsiy: menedjement i analiz. – M., 2004.
146. Yanjul I.I. Osnovi nachala finansovoy nauki: Uchenie o gosudarstvennix doxodax. – M.: Status, 2002.
147. Qosimova G. G’aznachilik faoliyatini tashkil etish. O‘quv qo’llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.

148. Qosimova G. G'aznachilik tizimini joriy etishda xorij tajribasi // Bozor, pul va kredit, mart 2003 yil.
149. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatining huquqiy bazasini yaratish masalalari, //Xo'jalik va huquq, dekabr 2004 yil.
150. Haydarov N. Davlat moliyasini boshqarish. -T.: Akademiya, 2005.
151. Boyd J. Inflation. "Growth and Centrol Banks Theory and Evidence", 1996. Policy Resear ch worcing Poner. 1575. The World Bank. Washington. D. C.
152. EBKD transtition Ronont 998. Financial sector in transition. European Bank for Beconnts nuction and Development. London 1998.
153. Hermes N. Lesnik R. Financial System Development in Transition Ekonomies. Jornal of Banking and Finance. Vol. 24. pp. 507-524.
154. Moyer C. Financial System. Corporote Finance and Ekonomik Development, in RA Hubbart (ed) Assymetric information. Corporote Finance and investment. A Notional Bueau of Economic 1990 Researck Project Report, University of Chicnyo Press. Chicago. PP. 307-322.
155. Steinherr A. An innovatori Package for Financial Sector Reforms in Eastern Euro pean Countries. Jorunal of Banking and Financeial 17 PP. 1033-1057.
156. Mingaleva Zh About the experience of enterprise's strotegies in crises situation. All Russian scientific conference "Economics" theory methodology, thends of developmrnt: S-Petersburg 1998.
157. Tkacheva Sinnovation Activities Infrastrue, turee as Multi Angent Sysem The 11th Annouol Meeting of the Japan Association for Evolutionary Economics. JAFEE 2000 Tokyo Japan 2000. 136-141.

158. Internet saytlari:

www.minfin.ru
www.mf.uz
www.budget.ru
www.df.ru
www.gov.uz
www.mfa.uz
www.mfer.uz
www.cer.uz
www.analitik.org.ua
www.mstu.edu.ru
www.eduworld.ru
www.businessvoc.ru
www.i-u.ru
www.eerc. ru
www.darvoza.uz/
www.cagateway.org.
www.dcc.uz

M U N D A R I J A

Kirish 4

1-bob. Moliyaning mohiyati va funksiyalari

1.1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati 6
1.2. Moliyaning funksiyalari 15
1.3. Takror ishlab chiqarish va moliya 18
1.4. Moliyaning fan sifatida shakllanishi
va taraqqiyoti 28

2-bob. Moliyaviy siyosat

2.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va
printsiplari 44
2.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qism
(yo'nalish)lari 56
2.3. Hozirgi bosqichdagi moliyaviy siyosat va
uning o'ziga xos xususiyatlari 63

3-bob. Moliyaviy tizim

3.1. Moliyaviy tizimning sohalari va bo'g'inlari 72
3.2. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning
davlat moliyaviy tizimi..... 82

4-bob. **Moliyaviy boshqaruv**

4.1. Moliyaviy boshqaruvning mazmuni va mohiyati 89
4.2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning
vazifalari 92
4.3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish 97

5-bob. Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish

5.1. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash 105
5.2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy
tartibga solish 116

6-bob. **Moliyaviy nazorat**

6.1. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, ob'yekti, predmeti, tizimi, vazifalari, printsiplari..... 132
6.2. Moliyaviy nazorat turlari, shakllari va metodlari 138
6.3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari 144
6.4. Nodavlat moliyaviy nazorat 161

7-bob. Moliyaviy nazariyalar

7.1. Xorijiy iqtisodchilarning moliyaga oid nazariyalari 172
7.2. Rossiyalik iqtisodchilarning moliyaviy nazariyalari 179
7.3. O'zbekiston olimlarining moliyaviy qarashlari 185

8-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi - davlat moliyaviy salohiyatining asosi

8.1. Davlatning moliyaviy salohiyati va uning xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasi bilan o'zaro bog'liqligi..... ..189
8.2. Moliyaviy salohiyat o'sishining omillari..... 197

9-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni moliyaviy isloh qilish

9.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni isloh qilish va ular moliyaviy xo'jaligini qayta qurishning zarurligi 203
9.2. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy isloh qilinish samaradorligini baholash..... 207
9.3. Moliyaviy rezervlar – xo'jalik yurituvchi sub'-ektni isloh qilish tizimida 212

10-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy resurslari

10.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy resurslari va kapitali..... 227
10.2. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi..... 231

11-bob. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining moliyaviy aspekt(jihat)lari

11.1. Asosiy kapital doiraviy aylanishining mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi..... 238
11.2. Aylanma kapital: mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va foydalanish samaradorligi 249
11.3. Aylanma mablag'larni norma (me'yor)lashtirish.. 255

12-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning ishlab chiqarish chiqimlari, foydasi va rentabelligi

12.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning xarajatlari: mohiyati, tarkibi, klassifikatsiyalanishi va samaradorligini baholash..... 265
12.2. Foyda, uni shakllantirish va undan foydalanish..... 273
12.3. Rentabellik va uni oshirish yo'llari..... 278

13-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning baho siyosati va baholarni shakllantirish asoslari, marketing strategiyasining moliyaviy jihatlari

13.1. Baholarni shakllantirishning ob'yektiv asoslari 284
13.2. Baho turlari, uning tarkibiy tuzilmasi va baholarni shakllantirish metodlari..... 288
13.3. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt marketing strategiyasining moliyaviy jihatlari..... 301

14-bob. Ishlab chiqarishni yangilash va moderni-zatsiyalash investitsion dasturlarini moliyalashtirish

14.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni tarkibiy jihatdan qayta qurish – kompleks muammo..... 314
14.2. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning innovatsion-investitsion strategiyasini shakllantirish..... 316
14.3. Investitsiyalar: manbalari, baholash va samaradorligi..... 318

15-bob. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy barqarorligi: baholash, ko'rsatkichlari, oshirish yo'llari

15.1. Moliyaviy barqarorlik va uni ta'minlash omillari 325
15.2. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va ularni oshirish yo'llari..... 331

16-bob. Davlat byudjeti

16.1. Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati 338
16.2. Davlat byudjetining daromadlari..... 358
16.3. Davlat byudjetining xarajatlari 365
16.4. Byudjet defitsiti va uni moliyalashtirish 375

17-bob. Byudjet daromadlari

17.1. Byudjet daromadlarining mazmun-mohiyati va ularni shakllantirish printsiplari..... 385
17.2. Byudjet daromadlarining tarkibiy tuzilishi va ularning klassifikatsiyasi 389
17.3. Soliqlar va soliq tizimi 397
17.4. Umumdavlat soliqlari 410
17.5. Mahalliy soliqlar va yig'imlar 418

18-bob. Byudjet xarajatlari

18.1. Byudjet xarajatlari: mazmun-mohiyati,
tarkibi, tuzilmasi va klassifikatsiyasi..... 425
18.2. Byudjetdan moliyalashtirish: ta'rifi, prin-
tsiplari, usullari, shakllari va metodlari 439
18.3. Byudjet normalari (me'yorlari), xarajatlar
smetasi va byudjet krediti 445
18.4. Byudjet xarajatlarini sarflash masalalari
va vazifalari..... 450

19-bob. Byudjet tizimi va byudjet tuzilmasi

19.1. Byudjet tizimi: ta'rifi, printsiplari,
uni boshqarish sohasidagi vakolatlar 455
19.2. Byudjet tuzilmasi va klassifikatsiyasi..... 460

20-bob. Byudjet jarayoni

20.1. Byudjet jarayoni: ta'rifi, bosqichlari,
vazifalari, ishtirokchilari va printsiplari 467
20.2. Byudjet loyihasini tuzish (yaratish,
ishlab chiqish) 470
20.3. Byudjetni muhokama qilish (ko'rib chiqish)
va tasdiqlash (qabul qilish) 475
20.4. Byudjetni ijro etish 477
20.5. Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot
va uni tasdiqlash 486

21-bob. Byudjetdan tashqari Davlat fondlari

21.1. Byudjetdan tashqari Davlat jamg'armalarining
ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati..... 492
21.2. Pensiya jamg'armasi..... 499
21.3. Yo'l jamg'armasi..... 504
21.4. Bandlikni qo'llab-quvvatlash Davlat
Jamg'armasi..... 507
21.5. Maktab ta'limini rivojlantirish
Davlat jamg'armasi..... 510

22-bob. Ijtimoiy ta’minot

22.1. Ijtimoiy ta’minot tamoyillari va ularning
iqtisodiy asoslari 517
22.2. Davlat pensiyasi va jamg’arib boriladigan
Pensiya fondi 524
22.3. Ijtimoiy nafaqalar 531

23-bob. Davlat krediti

23.1. Davlat kreditining mazmun-mohiyati
va funksiyalar..... 536
23.2. Davlat krediti klassifikatsiyasi..... 542
23.3. Davlat kreditini boshqarish 547
23.4. Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarzlar..... 548
23.5. Davlat – garant (kafil) va kreditor sifatida.... 552
23.6. Davlat qarzlarini boshqarish..... 555

24-bob. Sug’urta

24.1. Sug’urtaning iqtisodiy mohiyati. 563
24.2. Sug’urtaning rivojlanish bosqichlari 570
24.3. Sug’urtaning huquqiy asoslari 578
24.4. Mulkiy va shaxsiy sug’urta. Javobgarlik
sug’urtasi 585
24.5. Sug’urta bozori 621
24.6. Qayta sug’urta 628

25-bob. Uy xo’jaliklari moliyasi

25.1. Moliya munosabatlarining umumiy tizimida
uy xo’jaliklari moliyasi……...……..... 634
25.2. Uy xo’jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul
qilishning o’ziga xos xususiyatlari..... 644
25.3. Uy xo’jaliklari daromadlari 652
25.4. Uy xo’jaliklari xarajatlari..... 660
25.5. Jamg’armalarni shakllantirish va yo’naltirish.... 666

26-bob. Xalqaro moliya

26.1. Xalqaro moliyaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....
26.2. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliya munosabatlarining tutgan o'rni.....
26.3. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati.....
26.4. Valyuta kursi va valyuta bozorlari.....
26.5. To'lov balansi va uni tartibga solish yo'llari...
26.6. O'zbekistonning xalqaro moliya munosabat-lariga integratsiyalashuvi.....

Moliyaga oid atama va iboralarning izohli lug'ati 728

Adabiyotlar 786